

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEKISTON TARIXI”
KAFEDRASI**

O‘ZBEKISTON TARIXI

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan oliy o‘quv yurtlarining 5110600-Tarix o‘qitish metodikasi ta‘lim
yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT-2020

UO'K: 930.2 (075.8)

KBK:24.1

A 50

Ilhomov Ziyovutdin Adxamovich.

O'zbekiston tarixi (XVI-XX asr boshlari). O'quv qo'llanma. Z.A.Ilhomov.– Toshkent: “-----“ nashriyoti, 2020. 610 bet.

XVI-XX asr boshlarida ro'y bergan tarixiy jarayonlar O'zbekiston tarixi taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega. XVI asr boshlariga kelib, temuriylardan so'ng shakllangan Shayboniylar sulolasi Movarounnahr, Xuroson va va Xorazmda o'z hukmronligini o'rnatgan bo'lsa, qisqa vaqtda u ikki qismga – Buxoro va Xiva xonliklariga, XVIII asrning boshlariga kelib esa uchinchi davlatga, ya'ni Qo'qon xonligiga ajraladi. Qo'llanmadan XVI-XX asr boshlarida O'zbekiston hududlarida sodir bo'lgan siyosiy va iqtisodiy tarixiy voqealar, ijtimoiy va madaniy hayot sohalaridagi jarayonlar haqidagi mavzular o'rin olgan bo'lib, ularda davlatlarning siyosiy hayoti, boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosiy hamda diplomatik aloqalari, harbiy ishlar, xuquqiy munosabatlar, ilm-fan va adabiyot, me'morchilik va shaxarsozlik sohalarida amalga oshirilgan ishlar, O'rta Osiyo hududlarining XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari, jadidchilikning yuzaga kelishi va jadidchilik harakati masalalari yoritib beriladi.

O'quv qo'llanma 5110600 - Tarix o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi talabalari “O'zbekiston tarixi”, “O'zbek davlatchiligi tarixi”, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”, “Tarixiy geografiya” kabi fanlardan o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanishlari mumkin.

UO'K: 930.2 (075.8)

KBK:24.1

Mas'ul muharrir: **Asqarov A.** - tarix fanlari doktori, professor, O'zR FA akademigi

Taqrizchilar: **Ergashev Q.**- tarix fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi TDPU
Mirzayev G'. - tarix fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, O'zbekiston Milliy gvardiyasi oliy harbiy bilim yurti

ISBN 978-9943-5488-3-1

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Ilmiy kengashining 2020 yil ____ dagi ____-sonli yig'ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© “-----“ nashriyoti, 2020.

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi O‘zbekiston xalqiga ma’naviy uyg‘onish, o‘zlikni anglash, boy tarixiy o‘tmishini o‘rganishga imkon yaratib berdi. Mustaqillik tufayli o‘zbek xalqining ko‘p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va ma’naviy merosini o‘rganish, undan xalqning bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo‘l ochildi. Ma’naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazinasini va taraqqiyot manbai hisoblanadi. Aynan ushbu ma’naviy va mafkuraviy asosni mustahkamlash hamda rivojlanishda tarix fani alohida ahamiyatga egadir.

XVI-XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ro‘y bergan murakkab tarixiy jarayonlar O‘zbekiston tarixi taraqqiyotida ham o‘ziga xos o‘rinni egallagan. XVI asr boshlariga kelib, Temuriylardan so‘ng Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda o‘z hukmronligini o‘rnatgan Shayboniylar sulolasi avval ikkita xonlikka, XVIII asr boshlariga kelib esa uchinchi mustaqil davlat – Qo‘qon xonligiga bo‘linib ketdi.

Qo‘llanmada bu iqtisodiy va siyosiy tarixiy voqealar hamda uch xonlik davrida, undan so‘ng Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida yuz bergan tub o‘zgarishlar: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayot, ulardagi boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosat, diplomatik aloqalar, xuquqiy munosabat va harbiy ishlar, ilm-fan va adabiyot, me‘morchilik va shaharsozlik sohalarida amalga oshirilgan ishlar, qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik, rus kapitalining o‘zika iqtisodiyotiga kirib kelishi bilan yuz bergan tub o‘zgarishlar, milliy burjuaziya va jadidchilik, ular bilan bog‘liq ma‘rifatchilik harakatlari o‘z aksini topgan.

Qo‘llanma mavzularining tartiblanishi va izchilligi, undagi mantiqiy bayoniy voqealar tahlili sodda, talabalarga tushunarli tilda yozilgan. Qo‘llanmada qamrab olingan materiallar, tarixiy voqeliklarning bayonidagi yangicha yondashuvlari, tarixiy tahlili ilmiy-metodologik va uslubiy jihatdan, eng zaruriy tarixiy ma‘lumotlarni talabalarga tanlab berish va bayon etish jihatidan nisbatan mukammal shakllantirilgan. Muallif uzoq yillar davomida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakultetida O‘zbekiston tarixi fanidan dars

berish jarayonida to'plagan hayotiy tajribasidan kelib chiqib yaratilgan o'quv qo'llanmaning eng ma'qul variantni kitobxonga taqdim etgan. Alohida ta'kidlash joizki, qo'llanma yuqori ilmiy darajada yozilgan. Uning manbaviy asosi boy, ulardan muallif o'z joyida, mohir pedagog va ustoz sifatida to'g'ri foydalana olgan. Qo'llanmani tayyorlashda so'nggi yillarda respublikamiz va horij tarixchi olimlari hamda mutaxassislari tomonidan nashr ettirilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlaridagi ma'lumotlardan foydalanildi, talabalarning mukammal bilimga va ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishlari ko'zlangan holda bir qator ilmiy xulosalarning natijalari qo'llanma mavzulariga jalb etilgan¹.

O'quv qo'llanma 5110600 – Tarix o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun “O'zbekiston tarixi” fanidan mo'ljallangan bo'lib, undan shuningdek, “O'zbek davlatchiligi tarixi”, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”, “Tarixiy geografiya” kabi fanlardan ham qo'shimcha o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanishlari mumkin.

**A.A.Asqarov,
tarix fanlari doktori, professor,
O'zR FA akademigi**

¹ Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qo'llanma so'ngida keltirilgan.

“O‘ZBEKISTON TARIXI” FANIGA KIRISH

- ❖ XVI-XX asr boshlari “O‘zbekiston tarixi” fanining maqsadi va vazifalari
- ❖ XVI-XX asr boshlari O‘zbekiston tarixining manbashunoslik masalalari.
- ❖ XVI-XX asr boshlari O‘zbekiston tarixining tarixshunoslik masalalari.
- ❖ O‘zbekiston tarixi fanini o‘rganishning ilmiy-nazariy va metodologik masalalari

XVI-XX asr boshlari “O‘zbekiston tarixi” fanining maqsadi va vazifalari. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallab o‘z taraqqiyot yo‘lidan bosqichma-bosqich ilgarilab bormoqda. Istiqlol yillarida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar davlatning inson huquqini ta’minlash va rag‘batlantirish borasidagi faoliyatida o‘z aksini topmoqda.

Haqqoniy yozilgan Vatan tarixini o‘rganish va o‘qitish shuning uchun ham kerakki, u soxta tarixiy tushuncha va tarixiy xotirasizlikka barham beradi, milliy g‘oya va mafkura takomillashuvini tezlashtiradi. Vatan tarixini o‘qitish va o‘rganish yana shuning uchun ham zarurki, xalqimiz undan ruhiy quvvat olib, dushmanga bosh egmaslik, qayta mustamlaka qopqoniga tushmaslik, boshqalarga bo‘ysinmaslik, begona g‘oya va mafkura hamda zug‘umlar ta’siriga berilmaslik ma’naviyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishni ko‘zda tutish bilan birgalikda bugungi kunda oliy ta’limning sifati va samaradorligini yuksaltirish borasida pedagoglar oldida katta mas’uliyat turganligi belgilab beradi. Ayni vaqtda “...yoshlar va axoli o‘rtasida mamlakatimizning boy

tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish..."ni "...yoshlarimiz. jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega..." vazifalar sifatida belgilab beradi².

Tarixni mukammal bilish, uning mazmun va mohiyati teran anglash millat uchun yuksak fazilat. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini o'rganish, undan xalqning bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. XVI-XX asr boshlari yurtimiz tarixi haqida gap ketganda mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning bu davr haqida bildirgan fikrlari alohida e'tiborga molikdir: - «... temuriylar hukmronligidan so'ng, ya'ni, XVI asrdan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda Turkiston zamini siyosiy parokandalik, jaholat va qoloqlikka yuz tutdi. Uch xonlikka bo'linib ketgan mintaqa uzoq muddat o'zaro ziddiyat va qarama-qarshiliklar, urush-janjallar girdobida qolib ketgani nafaqat iqtisodiy, moliyaviy va harbiy salohiyat nuqtai nazaridan, balki, ijtimoiy-ma'naviy fikr rivojida ham ko'p salbiy oqibatlarni keltirib chiqargani barchamizga yaxshi ma'lum».³

Yurtimiz tarixining XVI-XX asr boshlari davri o'z tarixiy jarayonlari bilan alohida ahamiyatga ega. XVI asr boshlariga kelib, temuriylardan so'ng hokimiyat tepasiga Shayboniylar Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda o'z hukmronligini o'rnatgan bo'lsa, qisqa vaqtda u ikki qismga – Buxoro va Xiva xonliklariga, XVIII asrning boshlariga kelib esa uchinchi davlatga, ya'ni Qo'qon xonligiga ajraladi. Shu tariqa avval yagona davlat bo'lgan hududda uch xonlik – Buxoro (1510-1920 yy), Xiva (1511-1920 yy) va Qo'qon (1709-1876 yy) xonliklari yuzaga keladi.

O'zbekiston tarixining barcha davrlarida iqtisodiy soha, ayniqsa hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi a'naviy tarzda asrlar davomida juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi va doimiy ravishda yuksalib bordi. XVI-XX asr boshlarida ham xalqimizning iqtisodiy sohadagi, ishlab chiqarish, bunyodkorlik, yaratuvchanlik sohalaridagi tajribasi ham asrlar davomida taraqqiy etib kelganligi ko'rish mumkin. Ayrim tarixiy

² Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент - «Ўзбекистон». 2017. 44-47-бб.

³ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент: «Маънавият», 2008. 50-51-бб.

davrlarda turli siyosiy jarayonlarning iqtisodiy sohaga ta'siri sezilgan bo'lishiga qaramasdan bu davrlarda nafaqat ichki iqtisodiy munosabatlar, balki xalqaro iqtisodiy aloqalar ko'lami ham kengayib borgan. Ayniqsa, o'zbek xonliklari hukm surgan XVI- XVIII asrlarda O'rta Osiyoda iqtisodiy jarayonlar tarixi o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish jarayonida alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davr iqtisodiy hayoti o'zining taraqqiyoti, yutuqlari va ayni vaqtda inqiroz holatlari bilan ham diqqatimizni tortadi. Bu esa mazkur davr iqtisodiy hayoti tarixini o'rganishning muhimlik darajasini yana bir karra oshiradi.

O'zbekiston tarixining XVI-XX asr boshlari tarixining muhim jihatlaridan yana biri yuqorida ta'kidlanganidek, uch xonlikning shakllanishi bilan yuzaga kelgan siyosiy parokandalik va uning keyingi siyosiy jarayonlar va davlatchilik jarayonlariga ta'siri masalasidir. Ayniqsa, XIX asrning o'rtalarida Rossiya imperiyasi tomonidan xonliklarning siyosiy va harbiy jihatdan tobe etishi, mustamlaka boshqaruv tizimining shakllantirilishi, milliy davlatchilikni barpo etish yo'lidagi ozodlik kurashlarining olib borilishi, mustamlaka sharoitidagi madaniy hayot jarayonlarini o'rganish ham mazkur kursning muhim masalalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston tarixining XVI-XX asr boshlari tarixining madaniy taraqqiyoti masalalari, xususan ilm va fan sohalarining rivojlanishi, ma'naviy va madaniy jarayonlarning yuksalib borishi, me'morchilik va tarixiy obidalarining bunyod etilishi, xonliklarda ta'lim va o'qitishning o'ziga xosliklari, jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va jadidlar faoliyati kabilarni o'rganish ham fanning muhim vazifalaridan biri sanaladi.

XVI-XX asr boshlari O'zbekiston tarixining manbashunoslik masalalari. Markaziy xalqlari dunyo xalqlari orasida o'zining boy va qadimiy tarixiga ega xalqlardan sanaladi. Bu xalqlarning tarixi va unda sodir bo'lgan barcha jarayonlar shu xalqlarning vakillari tomonidan yozib qoldirilgan turli mazmundagi minglab manbalarda aks ettirilgan. Ayniqsa, O'rta Osiyoning XIII asrdan boshlab keyingi yuz yilliklar davomidagi tarixi, davlatchiligi, iqtisodi, etnik va madaniy-ma'naviy sohalaridagi jarayonlarini yoritib beruvchi tarix asarlari va ularning yaratilishi,

tarixnavislik xususiyatlari o'ziga xos maktablarning shakllanishini ta'minlab berdi. Qo'qon tarixnavislik maktabi, Toshkent tarixnavislik maktabi, Buxoro xonligi va amirligi davrida yaratilgan tarixiy asarlar, Xorazm tarixnavisligi shular jumlasidandir. O'rta Osiyoda 3 ta mustaqil davlat - Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining vujudga kelishi bilan, XVII-XIX asrlarda mazkur davlatlar tarixiga bag'ishlab alohida - alohida asarlar yaratildi. O'ziga xos uslub va an'analarga ega bo'lgan tarixnavislik maktablari shakllandi. Buxoro va Xiva xonliklari tarixi Abulg'oz Bahodirxonning «Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima», Muhammad Amin Buxoriy, Muxammad Sharif, Mirzo Shams Buxoriy, Munis, Ogahiy, Bayoniy asarlarida keng yoritilgan. Shuningdek, bu davr tarixini yoritib beruvchi bir qator manbalar tarjima qilinib, nashr etilganki, ular yordami Shayboniylar va ashtarxoniylar davri tarixini chuqurroq o'rganish imkoni yuzaga kelgan. Jumladan, bunday nashr etilgan manbalar qatorida Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma", Mirzo Abdulazim Somiy "Tarixi salotini mang'itiya", Abdurahmon Tole'ning "Tarixi Abulfayzxon" asarlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Muhammad Solih Toshkandiy, Muhammad Hakim, Avaz Muhammad Attor, Niyoz Muhammad Ho'qandiy, Mulla Olim Maxdumhoji asarlarida Ko'qon xonligining tarixi bayon etildi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Qo'qon tarixnavisligi maxsus fan darajasiga ko'tarildi. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Qo'qon xonligi tarixnavislik maktabi rivojlanib, xonlik hayotining barcha sohalarini yoritib beruvchi ko'plab qimmatli asarlar yaratildi. Qo'qon xonligi tarixini yoritib beruvchi va nisbatan muhim ahamiyat kasb etuvchi bunday asarlar sifatida Muhammad Yunus ibn Muhammad Amin – Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar»⁴, "Hadiqat ul-anvor"⁵, "Tuhfayi Toib"⁶, Mullo Avaz Muhammad ibn Mullo Ro'zi Muhammad So'fi – Avaz Muhammad Attor Xo'qandiyning «Tarixi jahonnamoyi»⁷, Mullo Yunus Toshkandiyning

⁴ Мухаммад Юнус ибн Мухаммад Амин – Мухаммад Юнус Тоиб. «Тарихи Алиқули Амирлашкар». // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик Инститuti қўлёзмалар хазинаси, № 12136.

⁵ Мухаммад Юнус Тоиб. Ҳадиқат ул-анвор. // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик Инститuti қўлёзмалар хазинаси, №595.

⁶ Мухаммад Юнус Тоиб. Тухфайи Тоиб // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик Инститuti қўлёзмалар хазинаси, №4243 п.

⁷ Мулло Аваз Мухаммад ибн Мулло Рўзи Мухаммад Сўфи – Аваз Мухаммад Аттор Хўқандий.

«Xotiralar»⁸, Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix”⁹, Mullo Olim Mahdumxojaning «Tarixi Turkiston»¹⁰, Ishoqxon Junaydullo o‘g‘li – Ibratning «Tarixi Farg‘ona»¹¹, Mullo Xoliboy Mambetovning «O‘rus lashkarining Turkistonda tarix 1269–1282 sanalarda qilg‘on futuhotlari»¹², Abu Ubaydullo Toshkandiyning «Xulosat ul –ahvol»¹³, Mirzo Olim ibni Mirzo Rahim Toshkandiyning «Ansob us – salotin va tavorix ul – xavoqin»¹⁴, Mullo Xolbek ibni Mullo Muso Andijoniyning «Aliquli jangnomasi va Mullo Xolbek sarguzashtlari»¹⁵, Muhammad Niyoz Xo‘qandiyning «Tarixi Shohruhiy»¹⁶, Muhammad Solih ibn Muhammad Rahim Toshkandiyning «Tarixi jadidi Toshkand»,¹⁷ Beknazarning «Amirlashkar jangnomasi»,¹⁸ Muhammad Aziz Marg‘iloniyning “Tarixi

«Тарихи жаҳоннамои». // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти қўлёмалар хазинаси, №9455.

⁸ Мулло Юнус Тошкандий. «Хотиралар». Смирнов Е.Т. Султаны Кенисара и Садык. -Т.: Тип С.И.Лахтина. 1889. Qarang: Ўзбекистон Республикаси Алишер Навоий номидаги Марказий Давлат кутубхонаси. В 961-3. Қаранг: Илҳомов З. Хотираларда жонланган сиймо. Жамият ва бошқарув №1. 2000 г. Б.55-57. (Аслида китобнинг номи йўқ. З.Илҳомов китобнинг мазмунидан келиб чиқиб унга шартли равишда “Хотиралар” деб берган. Қаранг: З.Илҳомов. Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни. Тарих фан.ном....дисс. Т.2004).

⁹ Ҳакимхон Тўра. “Мунтахаб ут-таворих”, // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти қўлёмалар хазинаси, № 594.

¹⁰ Мулло Олим Маҳдумхожа. «Тарихи Туркистон». Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти қўлёмалар хазинаси, тошбосма, №18096.).

¹¹ Ишқоқхон Жунайдулло ўғли – Ибрат. «Тарихи Фарғона». // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти қўлёмалар хазинаси, №11080; №11616; №1512.

¹² Мулло Холибой Мамбетов. «Ўрус лашкарининг Туркистонда тарих 1269–1282 саналарда қилгон футухотлари», ЎзР А.Навоий номидаги МДК, № 10136. Қаранг: Веселовский Н.И. Киргизский рассказ о русских завоеваниях в Туркестанском крае / Текст, перевод и приложения. – Спб.: Б.и., 1894. -206 с. Қаранг. Мулло Холибой Мамбетов. Туркистон босқини. Нашрга тайёрловчи З.Илҳомов. Т. ТДПУ. 2009. Қаранг: З.Илҳомов. Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни. Тарих фан.ном....дисс. Т.2004

¹³ Абу Убайдулло Тошкандий. «Хулосат ул –аҳвол». // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти қўлёмалар хазинаси, № 2084.

¹⁴ Мирзо Олим ибни Мирзо Раҳим Тошкандий.«Ансоб ус – салотин ва таворих ул – хавоқин». // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти қўлёмалар хазинаси, № 1314.

¹⁵ Мулло Холбек ибни Мулло Мусо Андижоний. «Алиқули жангномаси ва Мулло Холбек саргузаштлари». // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти қўлёмалар хазинаси, № 8816.

¹⁶ Муҳаммад Ниёз Хўқандий. «Тарихи Шохрухий». // Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти қўлёмалар хазинаси, № 4463- 1.

¹⁷ Муҳаммад Солиҳ ибн Муҳаммад Раҳим Тошкандий. «Тарихи жадиди Тошканд». // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти қўлёмалар хазинаси, № 5732, №№ 11072,11073.

¹⁸ Бекназар. «Амирлашкар жангномаси». // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти қўлёмалар хазинаси, №1925.

Aziziy”,¹⁹ Muhammad Umar Umidiyning “Maktubchai xon”²⁰, Abdulg‘affurning “Zafarnomayi Xudoyorxoniy”²¹, Fazli Farg‘oniyning “Umarnoma”²² asari va boshqalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyo xonliklarining bosib olinishi arafasidagi voqealar, janglar tafsilotlari, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Ahmad Donish, Mirzo Abdulazim Somiy Bo‘stoniy, Mirzo Salimbeklarning Buxoro tarixiga oid asarlarida keltiriladi.

Xorazm tarixnavislik maktabi haqida so‘z borganda shuni alohida ta’kidlash kerakki, Abulg‘ozining bu boradagi ishlari alohida ahamiyatga egadir. Abulg‘ozi o‘zining tarixiy asarlarini yaratishda, tarixiy jarayonlarni yoritish va tavsif etishda alohida yondashuvga, ya’ni zamonaviy tarixshunoslik iboralari bilan aytganda tarixiylik va obyektivlik tamoyillariga to‘la amal qildi. Sharq tarixnavisligida nafaqat adabiyot, she’riyat va boshqa kitobchilik sohalarida, balki tarix va tarixnavislik sohalarida ham til omiliga alohida e’tibor qaratilgan. Xorazm tarixnavislik maktabi doirasida keyingi asrlarda ham bir qator yirik tarixchilar tomonidan noyob manbalar yaratildi. Tarixchi Q.Munirovning ta’biri bilan aytganda, “O‘zbek tilida tarixiy asarlar yozish an’anasi O‘rta Osiyo xonliklaridan Xiva xonligida keng ko‘lamda davom ettirildi. Abulg‘oziy boshlagan ishni XIX asrda atoqli o‘zbek shoirlari va mashhur tarixnavsilari Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy katta mahorat bilan davom ettirdi”²³.

Albatta, Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniylar tomonidan yaratilgan asarlar o‘zining yozilish uslubi, voqealarning tavsifiga yondashuvlari, mualliflarning asarni yozishdagi qarashlari kabi jihatlariga

¹⁹ Muḥammad Aziz Marḡiloniy. Tarixi Aziziy. - T.: Maʼnaviyat, 1999.

²⁰ Muḥammad Umar Umidiy. Maktubchayi xon // Kўlėzma, Ўzбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти кўлėзмалар хазинаси, № 19021 у – 263 в.

²¹ Абдулғафур. Зафарномаи Худоёрхоний. // Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти кўлėзмалар хазинаси, № 598 – 65 в.

²² Қаранг: Вахидов Ш. Сочинение Фазли Фергани «Умарнома» // Адабий мерос. 1991. -№3 (57). - С.28–33. Қаранг: Ш.Воҳидов. Кўкон хонлигида тарихнавислик. Т.Академнашр, 2010.

²³ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). Т.: “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2002. 4-б

ko'ra Xorazm tarixnavislik maktabining noyob namunlaridan hisoblanish bilan birga Xiva xonligi tarixini o'rganishda ham muhim manbalardir²⁴.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan tarixchi Muhammad Yusuf Bayoniy “Shajarayi Xorazmshohiy” asarini yozar ekan, undagi ayrim voqealar tafsilotlarini o'zidan avval Ogahiy tomonidan yozilgan asarlardan topmaganligi va endi bevosita o'zi tarixiy jarayonlar ishtirokchilari va shohidlarining so'zlaridan yozishga harakat qilganligini ta'kidlaydi: - “.... yuqorida zikr etilgan davr tarixini (Muhammad Rahimxon II ning (1865-1910 yy) 1872 yilgacha bo'lgan xonlik davrini – muallif) o'sha davrda ishga aralashib yurgan bir necha keksa odamlarni topib, ulardan bo'lgan voqealarni so'rab, diqqat bilan haqiqatlab yozdim”. Muhammad Yusuf Bayoniy “Xorazm tarixi” asarini yozishda tarix va uni tavsiflashga aohida e'tibor qaratadi va tarixni haqqoniy, obyektiv ravishda yozish shartligini uqtiradi: - “tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo'lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so'zlari hech bir odamga ma'qul bo'lmaydi”.²⁵

Ushbu asarlarda o'rta asr tarixnavisligi an'alariga ko'ra, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayot, tashqi aloqalarga oid ma'lumotlar garchi muayyan bir tartibda berilmagan bo'lsa-da, jamiyat hayotining turli yo'nalishlari bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni ko'rish mumkin.

O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya mustamlakasiga aylantirilishi bilan mustamlakachilik tuzumi tartibotlari tarix sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ko'lami va mavzusiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Rus tarixchilarining yuqorida zikr etilgan O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixiga oid asarlarining aksariyati o'zining bir yoqlamaligi, metropoliya manfaatlariga xizmat qilishga mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi.

XX asrning boshida milliy davriy matbuot «Sadoi Farg'ona»,

²⁴ Muḥammad Rizo Mirob Ἐrniyēzbek ũgli Ogaḥiy. Asarlar. V, VI jild. Toḥkent.: Faḥur Ḡulom nomiḁagi aḁabiēt va san'at naḥr. 1980; Muḥammad Rizo Ἐrniyēzbek ũgli Ogaḥiy. Zubḁatu-t-tavorix. – T.: ũzbekiston, 2009. Ḥermuḥammad Munis. Muḥammadrizo Ogaḥiy. Firḁavs ul-iḁbol. – Toḥkent: ũkituvchi, 2010; Muḥammad ũsuḁ Baēnii. Ḥajarai Xorazmshohii. -T.: “Meroc”. 1991; Voḥidov Ḥ. Munis va Ogaḥiy. “Firḁavs ul-iḁbol”. T.: “Yngi asr avlodi”. 2010; Ilḥomov Z. “ũtamiḥ Ḥoji tarixi” – Xorazm tarixnavislik maktabininḁ noēb ēḁgorliḁi. / “Ijtimoiy ḁumanitar fanlarninḁ ḁolzarb masalalari: Rivozlaniḥ istiḁbolлари” mavzusidaḁi ḁalqaro ilmiiy-nazarii anḁuman ateriاللari. Нукус. 2018 й

²⁵ Muḥammad ũsuḁ Baēnii “Ḥajarai Xorazmshohii”. T. Meroc. 1991.

«Sadoi Turkiston», «Oyna», «Najot», «Hurriyat» sahifalarida O‘zbekiston tarixi muammolariga oid ilk maqolalar e‘lon qilina boshladi. Bu maqolalar mualliflari jadidchilik harakati namoyandalari bo‘lib, ular mamlakat rivoji, millatning taraqqiysi, o‘zlikni anglashda tarix fanining o‘rniga alohida e‘tibor qaratdilar. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatida tarix muammolarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etdi. Behbudiy komil inson bo‘lib yetishishda va jamiyatni boshqarishda tarix fanining o‘rni beqiyosligini ta’kidlaydi. U «Tarix va jug‘rofiya», «Turkiston tarixi», «Sart so‘zi majhuldir» kabi asarlarida faqatgina Vatan tarixini emas, Yevropa va jahon mamlakatlari tarixini bilish zarurligi haqida so‘z yuritadi. Uning «Moziy istiqbolning tarozisidir», degan xitobi tarix tajribasida o‘zining to‘g‘riligini isbotladi²⁶.

Tarix fani rivojiga Abdurauf Fitrat salmoqli hissa qo‘shdi, uning - “Tarix millatimizning, o‘tmishimizning taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o‘rganadigan fandır”, - so‘zlari nafaqat tarix fani sohasida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, balki jahon tarixchi mutaxassislari tomonidan tarix faniga berilgan o‘ttizga yaqin ta’riflardan biridir²⁷.

Bu davrda yashagan va ijod qilgan olimlar va tarixchilarning tarix va tarix fani, tarix ilmi haqida keltirib o‘tgan fikrlaridan ham anglash mumkinki, Sharq, xususan O‘rta Osiyoda ham qadimdan tarix fani sohalariga e‘tibor kuchli bo‘lgan va ayni vaqtda tarixnavislar faqatgina tarixiy jarayonlarni tavsiflash yoki manbalarni tahlil etish kabilar bilan cheklanib qolmasdan, balki tarix va tarix fani haqida, uni qanday yozish yoki tahlil qilish kerakligi kabi masalalar yuzasidan ham o‘zlarining ilmiy-nazariy va falsafiy fikrlari va qarashlarini ko‘rsatib o‘tganlar.

O‘zbek xonliklari tarixini faqatgina yuqorida keltirilgan mahalliy tarixchilar asarlari asosidagina yoritilsa, bir yoqlamalikka yo‘l qo‘yilishi tabiiy. Mahalliy manbalar bilan birgalikda arxiv hujjatlari ham xonlik tarixini o‘rganishda muhim va zarur manbalar bo‘lib xizmat qiladi va ularni o‘rganmay turib, xonlikning so‘nggi davrlari tarixini mukammal o‘rganib bo‘lmaydi. Eng avvalo xonliklar tarixini o‘rganishda Buxoro

²⁶ Behbudий М. Танланган асарлар // Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б.Қосимов. - 2-нашри, тузатилган ва тўлдирилган. –Т.: “Маънавият”, 1999. 18-б.

²⁷ Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар: 6 жилдлик. 5-жилд. Илмий рисоалар / А. Фитрат; нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. — Т.: “Маънавият”, 2010. Б.36-61.

amirligi tarixiga oid “Qo‘shbegi arxivi” hujjatlari²⁸, “Xiva xonlari arxivi”²⁹, “Qo‘qon xonligi arxivi”³⁰ hujjatlar jamg‘armasi nihoyatda katta o‘rin tutadi. Bu jamg‘armalardan xonliklar saroyida bitilgan farmonlar, turli iqtisodiy va siyosiy harakterga ega bo‘lgan hujjatlar o‘rin olganki, ular bilan bevosita tanishish mumkin. Rossiya imperiyasining harbiy yurishlari chog‘ida amalga oshirilgan harakatlar, jang to‘qnashuvlari, harbiylar soni va qo‘shin turlari haqidagi qimmatli ma‘lumotlarni beruvchi arxiv jamg‘armalaridan yana biri polkovning G.Serebrennikov tomonidan to‘plangan va arxiv fondlariga kiritilgan.³¹ Ko‘plab qimmatli ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan minglab hujjatlar bir necha o‘n yig‘ma jildga taqsimlangan va bu yig‘ma jildlardan bevosita O‘rta Osiyo xonliklarining tarixi va ularning Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilishi voqelariga oid hujjatlar o‘rin olganki, bu hujjatlar tarixiy jarayonlarni mukammal darajada yoritib berishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, «Turkiston general gubernatorligi kanselyariyasi»,³² “Sirdaryo viloyati boshqaruvi»,³³ «Farg‘ona viloyati boshqaruvi»³⁴ nomli arxiv xujjatlari fondlarida ham xonliklar tarixiga oid ko‘plab ma‘lumotlarni olish mumkin.

XVI-XX asr boshlari O‘zbekiston tarixining tarixshunoslik masalalari. O‘rta Osiyo xonliklari tarixining o‘rganilishi turli davrlarda yuzlab ilmiy tadqiqotlarning obyekt sifatida chuqur o‘rganilgan. Tarixshunoslikning davrlashtirishi masalalari nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, xonliklar tarixini o‘rganishni ikki davrga bo‘lib ko‘rib chiqish mumkin. Birinchi davrni XX asr 90-yillarigacha o‘lgan davr bilan, ikkinchi davrini mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan belgilash mumkin. XX asr 90 – yillarigacha bo‘lgan davr mobaynida xonliklar tarixi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan va ilmiy

²⁸ ЎзР МДА. И-126-фонд. Бухоро кўшбегиси архиви

²⁹ ЎзРМДА. 125-фонд. “Хива хонлари архиви”.

³⁰ ЎзР МДА. 1043-фонд. - «Архив Кокандского ханства».

³¹ ЎзР МДА. 715-фонд. - «Подготовительные материалы к составленной полковником Серебренниковым публикации документов «Туркестанский край. Сборник материалов для истории его завоевания».

³² ЎзР МДА. 1-фонд.- «Канцелярия Туркестанского генерал-губернатора»

³³ ЎзР МДА. 17-фонд.- «Сырдарьинское областное управление».

³⁴ ЎзР МДА. 19-фонд.- «Ферганское областное управление».

asarlar yaratilgan. Xonliklar tarixini o‘rganish XX asr tarixshunosligida katta o‘rin tutadi. Turli yillarda yaratilgan tarixiy asarlarda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarining ana shu davrlardagi tarixini, jumladan siyosiy va iqtisodiy, ijtimoiy hayotini yoritib berishga katta e‘tibor berilgan. Biroq bu vaqtgacha yaratilgan asarlarda asosiy maqsad xonliklar tarixining u yoki bu sohasini yoritib berishga qaratilgan bo‘lsada, ularda masalaga yondashuvning har-xilligi e‘tiborni tortadi. Bu davrda o‘zbek xonliklari, jumladan, Buxoro xonligi va amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari tarixi aks ettirilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar va asarlar yaratildi. Bir qator tadqiqotchilar tomonidan Buxoro xonligi va umuman o‘zbek xonliklari tarixining turli sohalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirib, monografiyalar nashr ettirgan bo‘lsalarda, ulardagi xonliklar tarixini o‘rganishdagi bir yoqlamalik, tarixni noxolis o‘rganish va talqin qilish holatlari ustunlik qiladi. Garchi XX asrning 90-yillarigacha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va yaratilgan ilmiy asarlarda xonliklari tarixiga oid qimmatli ma‘lumotlar uchrasada, ularni tanqidiy o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek bu davrda bir qator ilmiy asarlar va monografiyalar ham yaratildi. Bu asarlar va monografiyalarda o‘zbek xonliklarining tarixi, tarixshunosligi, manbashunosligi, xonliklarning iqtisodiy va savdo aloqalari tarixi, tashqi siyosiy munosabatlari va davlat boshqaruviga oid masalalar yoritib berilgan.

Mustaqillik yillarida o‘zbek xonliklari tarixini o‘rganish tom ma‘noda o‘zining yangi bosqichiga ko‘tarildi. Bu davrda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar o‘zining ilmiyligi, masalaning mohiyatiga va tahliliga obyektivlik nuqtai-nazaridan yondashilgan-ligi jihatlari bilan avvalgi davrlardagi tadqiqotlardan tubdan farq qiladi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan va o‘zbek xonliklarini tarixining turli sohalaridagi masalalarini aks ettirgan ilmiy tadqiqotlar orasida B.Axmedov³⁵, X.Ziyoyev³⁶, G‘.Axmadjonov³⁷, D.Ziyayeva³⁸, B.M.Bobojonov³⁹,

³⁵ Бўрибой Аҳмедов. Тарихдан сабоқлар. Т.: Ўқитувчи, 1994; Бўрибой Аҳмедов. Тарихдан сабоқлар. Т.: Ўқитувчи, 1994; Бўрибой Аҳмедов. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т.: Ўқитувчи. 1991: 2001.

³⁶ Зиёев Х. Тарих ўтмиш ва келажак кўзгуси: (Тарихнинг долзарб масалалари). -Т.: Адабиёт ва санъат, 2000; Шу муаллиф: Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. -Т.: Шарқ. 1998.

³⁷ Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Центральной Азии. – Т.: Фан, 1995.

³⁸ Ўрта Осиёда ҳарбий иш тарихидан. Д.Зияева таҳр. ост. Т.: “Шарқ”, 2012.

³⁹ Бабаджанов. Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио-Ташкент: 2010.

G.Agzamova⁴⁰, SH.Vo-hidov⁴¹, X.Xamidov⁴², Z.Ilhomov⁴³, O.Masaliyeva⁴⁴, SH.Qo‘ldoshev⁴⁵, SH.Maxmudov⁴⁶, T.Xudoyqulov⁴⁷, S.Tillaboyev⁴⁸, Z.Madraximov⁴⁹, Y.Shukrillayev⁵⁰ kabi tadqiqotchilarning asarlari va ilmiy ishlari-ni, shuningdek bir qator fundamental ilmiy tadqiqotlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin⁵¹.

Biroq, faqat bu asarlar bilan kifoyalanib, o‘zbek xonliklarining siyosiy tarixi, ayniqsa diplomatik aloqalari tarixini chuqur va atroflicha o‘rganish birmuncha murakkab vazifadir, shundan kelib chiqqan holda bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarni yanada kuchaytirish lozimligini alohida ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston tarixi fanini o‘rganishning ilmiy-nazariy va metodologik masalalari. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixini har tomonlama xolis va ilmiy jihatdan mukammal va tarixiy dalillarga asoslangan holda yoritishga katta e’tibor berilmoqda. Jahon tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan Vatanimiz tarixi o‘zining nafaqat qadimiyligi, balki uzoq davom etgan tarixiy jarayonlarining jahon tarixiy taraqqiyoti jarayonlariga juda katta ta’sir etganligi bilan ham jahon ilm ahli e’tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. Aytish mumkinki, O‘zbekiston so‘zi

⁴⁰ Аъзамова Г. Сўнги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. Т.: Ўзбекистон. 2000.

⁴¹ Вохидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. Т.: Фан, 1996. Шу муаллиф: Қўқон хонлигида тарихнавислик. Т.Академнашр, 2010.

⁴² Хамидов Х. XVI-XIX асрларда юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар. Т. Фан. 2009.

⁴³ Илхомов З.А. “Аликули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий ҳаётида тутган ўрни”. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.2004; Шу муаллиф: Амирлашкар тарихи. Т. 2013. Шу муаллиф: Қўқон хонлиги тарихшунослигининг айрим масалалари. Т. 2008.

⁴⁴ Масалиева О. Бухоро, Хива ва Қўқон хонлиги тарихини XX аср Англия ва Америка тарихшунослигида ўрганилиши. Тарих фан...номзоди дисс... – Т., 1998

⁴⁵ Қўлдошев Ш. «Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар (XVIII-XIX асрнинг ўрталари)» Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.2009.

⁴⁶ Махмудов Ш. Қўқон хонлиги сиёсий тарихи. Тарих фан номз илм дар дисс. Т. ЎЗР ФА ТИ, 2010.

⁴⁷ Худойкулов Т.Д. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти:Тарих фан. номз. ...дисс. - Тошкент: Уз МУ, 2009. - 172 б.

⁴⁸ Тиллабоев С. Туркистон ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакиларининг иштироки. Т. “Фан”. 2008.

⁴⁹ Мадрахимов З. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари. Т. “Янги нашр”. 2014.

⁵⁰ Шукуруллаев Ю.А.Бухоро амирлигида қўшин ва ҳарбий иш (1753 – 1920 йиллар). Тарих фан номз илм дар дисс. Т. 2006.

⁵¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакаси даврида. Т. Шарқ, 2000; История Узбекистана (XVI- первая половина XIX века). –Т.: “Фан”, 2012

tilga olinganda jahonning turli iqlimlarida yashovchi har qanday insonning ko‘z o‘ngida qadimiy tarix gavdalanadi. Bugungi kunda tarixni nafaqat o‘rganish, balki uni ilmiy jihatdan asoslangan dalillarga tayangan holda, tarixiy jarayonlarning mohiyatini ochib berishda xaqqoniylik tamoyillariga asoslangan holda chuqur va atroflicha tadqiq etish hamda eng to‘g‘ri ilmiy xulosalarni taqdim etish har bir tarix tadqiqotchisi oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Tarix, tarixiy haqiqat va uni ilmiy jihatdan xolislik asosida o‘rganish, ayniqsa uni yosh avlodga yetkazib berish bugungi tarix fani oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganidek, -“Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat yurtimizning fidoyi, o‘z yo‘lidan, maslagidan, so‘zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo‘lgan sahifalarni qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham qarz, ham farz”.⁵²

Bugungi kunda tarixchi olimlar oldiga qo‘yilgan vazifalardan eng muhimi – yangi jamiyatimizni isloh qilish va yangilash jarayonini boshqaradigan va ta’minlaydigan, hozirgi davr talabi asosida yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash, muhimi, ular ongiga milliy istiqlol, Vatanga sadoqat va yurtparvarlik g‘oyalarini yanada chuqurroq singdirish va teran anglatishdan iboratdir.

Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o‘tmishga oid har xil voqea-hodisalarning izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda, qanday holatda yuz berganligi, insoniyatning paydo bo‘lishi va uning tadrijiy rivojlanish jarayoni va boshqalarni o‘rganadi. Shuningdek, O‘zbekiston tarixi umumjahon-insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanib, u olamshumul voqeliklarga juda boy. O‘zbekiston tarixi fani mana shu voqeliklarni boshidan kechirgan qadim va yaqin ajdodlarimizning hayoti qanday bo‘lganligi, jahon tarixi taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini xolisona va haqqoniy o‘rganadi. Bugungi kunda tarix fani sohasida ta’lim olayotgan talabalar tarixga oid asarlardan foydalanish, ularni tahlil etish kabi o‘zlashtirish uslublari, ulardan foydalanish samaradorligini bilish haqidagi tarixiy tadqiqot uslublari va ilmiy-tarixiy haqiqatga erishish yo‘llarini anglashi lozim. Hozirgi vaqtda tarixchi mutaxassislarni tayyorlashda va

⁵² Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. “Ўзбекистон”, 1996. 92-б.

ularning ilmiy tadqiqot malakasini shakllantirishda tarix fanining turli tadqiqot uslublari va yondashuvlari haqida yetarli bilim berish va ularning tarixiy tadqiqotlar jarayonida to‘g‘ri va ilmiy, tarixiylikka asoslangan xulosalarni chiqarishga yo‘naltirish bugungi kun tarix o‘qitishning asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro‘y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida katta omil sanaladi. Ayniqsa, turli davrlarda yaratilgan tarixiy ilmiy asarlarda mualliflarning tadqiqot masalalariga turlicha yondashuvlari va fikrlari, xulosalarning turlichaligi, ularni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va tarixiylik, ilmiylik hamda xolislikka asoslanilgan eng to‘g‘ri xulosalarni chiqarish bugungi kun tarixchi mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, tarix fani oldiga o‘zbek xalqining haqqoniy tarixini yaratish, taraqqiyotning turli bosqichlarida jahon hamjamiyatida uning o‘rni va rolini aniqlash, tarixiy bilimlarni ommalashtirish va targ‘ib qilish orqali millatning ma‘naviy-axloqiy qadriyatlari, madaniyati, qadimiy an‘analariga qaytish vazifalarini qo‘ydi. Bugungi kunda tarix fani metodologiyasi va tarixiy tadqiqotlarda borasida shunday bosqich yuzaga keldiki, bunda tarixchi tadqiqotchi ilmiy natijalarga erishish uchun zamonaviy tarix fani tadqiqotlari talablaridan kelib chiqqan holda eng maqbul uslublarni va metodlarni tanlay bila olishi va uni amalda qo‘llay olishi, tadqiqotlar jarayonida u yoki bu qo‘llanayotgan tarixiy tadqiqot metodlarining meyorlarini yaxshi tafakkur qila olishi talab etiladi. “Endi biz muarrixlar oldida ham tadqiqotchilik, ham fuqarolik burchi turganini, bir yelkamizda tarixga xolislik, ilmiy haqiqat bilan qarash yuki, ikkinchi yelkamizda esa Vatan va Millat oldidagi javobgarlik, o‘tmishimizni asrash, ajdodlar ruhini e‘zozlash va kelgusi avlod oldidagi qarzdorlik yuki borligini butun vujudimiz bilan anglamog‘imiz kerak”.⁵³

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalar va tamoyillardan kelib chiqqan holda bugungi kunda O‘zbekiston tarixi va uning sohalari yuzasidan har

⁵³ Жўраев Н. Тарих фаслафасининг назарий асослари. Т.Маънавият. 2008. 39-б.

tomonlarni, ilmiylikka va tarixiylikka asoslanilgan holda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda va bu borada bir qator muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

Tayanch soʻzlar:

Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat, Shayboniylar davlati, Ashtarxoniylar hukmronligi, Xiva xonligi, Qoʻqon xonligi, sulolalar, iqtisodiy jarayonlar, siyosiy munosabatlar, ijtimoiy va iqtisodiy hayot, xonliklar, amirlik, boʻlinish, inqiroz, parokandalik, iqtisodiy islohotlar, pul islohotlari, madaniy hayot, ilm-fan, taraqqiyot, nazariy masalalar, ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar, xulosa.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Oʻrganilayotgan davr tarixi haqida qanday maʼlumotlarga va bilimga egasiz?
2. Oʻrganilayotgan davrning eng muhim siyosiy jarayonlarini aytib bering.
3. Oʻrganilayotgan davrning eng muhim iqtisodiy jarayonlarini aytib bering.
4. Oʻrganilayotgan davrning eng muhim diplomatik va savdo aloqalarini aytib bering.
5. Oʻrganilayotgan davr madaniy hayotidagi eng muhim voqealar va tarixiy shaxslar faoliyati?
6. Oʻrganilayotgan davrning tarixshunoslik masalalarining muhim jihatlari?
7. Oʻrganilayotgan davrning manbashunoslik masalalarining muhim jihatlari?

MOVAROUNNAHRDA SHAYBONIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

- ❖ **Dashti Kipchoqda o‘zbeklar davlatining tashkil topishi.**
- ❖ **Shayboniyxon tomonidan Movarounnahrning zabt etilishi va Shayboniylar hukmronligi davrida Movarounnahrda siyosiy hayot.**
- ❖ **Shayboniylar davlati markaziy va mahalliy boshqaruvi**
- ❖ **Shayboniylar davrida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar**
- ❖ **Shayboniylar davlatida qishloq xo‘jaligi va sug‘orish ishlari**
- ❖ **Shayboniylar davlatida yer egaligi va soliqlar**

Dashti Kipchoqda o‘zbeklar davlatining tashkil topishi. XV asr ikkinchi yarmi - XVI asr boshlariga kelib Movarounnahr va unga tutash Dashti Qipchoq hududlaridagi siyosiy vaziyat keskinlashib bordi. Bunga bir tomondan temuriylar davlatida yuzaga kelgan siyosiy tarqoqlik va hokimiyat hamda hududiy da‘volar orqasidan kelib chiqqan o‘zaro ichki nizolar ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan Dashti Qipchoqda tarqoq ko‘chmanchi qabila va urug‘larning birlashuvi va kuchli markazlashgan davlatning yuzaga kelishi ta’sir ko‘rsatgan edi.

Balxash ko‘li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan to Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo‘lgan ulkan hudud XI asrdan boshlab Dashti Qipchoq deb atala boshlangan⁵⁴. XIV asr boshlaridanoq bu yerda mavjud bo‘lgan Jo‘chi ulusi ikki mustaqil davlatga Ko‘k O‘rda va Oq O‘rdaga bo‘linib ketdi. XIV asr 60-yillaridan boshlab Oltin O‘rda taxti uchun Ichan, Shaybon va To‘qay Temur avlodlari o‘rtasida kurash kuchayib ketdi. 1360-1380 yillar davomida Oltin O‘rda taxtiga 25 xon kelib ketdi.

Oq O‘rda

Oltin O‘rdaning bir qismi Botuxon avlodlari tomonidan idora qilingan. Ikkinchi qismini Jo‘chixonning boshqa o‘g‘li O‘rdaxon boshqargan. Bu holat XIII – XIV asrlar davomida o‘zgarib kelgan. Botuxon avlodlariga nomigagina qaram bo‘lgan O‘rdaxon avlodlari keyinchalik to‘la mustaqil bo‘lib olganlar. Oltin O‘rda atamasi Botuxon hukmronligi davridan boshlab

⁵⁴ Бу атамани дастлаб Носири Хусрав (1003-1088) қўллаган ва кейинчалик араб ва форс тилида битилган манбаларда қўплаб маротаба қайд этилган. Қаранг: Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т. "Ўқитувчи", 1994. 415-б.

butun Jo'chi ulusiga, XIV asr boshidan esa Oq O'rdagi nisbatan qo'llanildgan. Bu davrda Oq O'rda faqat Botuxonning o'z ulusi (Volga bo'yi) va ukalari: Berkaxon (Shimoliy-sharqiy Kavkaz), Shaybon (G'arbiy Qozog'iston va G'arbiy Sibir) hamda Moval (Qora dengiz bo'yida joylashgan yerlar) uluslaridan iborat bo'lgan. Botuxon va Berkaxon uluslari keyinchalik (Berkaxon hukmronligi yillarida) birlashtirilgan. XV asrda Oq O'rda hududida O'rdaning davomi sifatida yangi davlatlar (Katta O'rda, No'g'ay O'rda, Qosimov podsholigi hamda O'zbek, Qrim, Qozon, Sibir xonliklari va h.k) vujudga keldi⁵⁵.

XIV asrning 70-yillarida Oltin O'rda ichki kurashlar yanada keskinlashib ketdi. Bu kurashda Shayboniylardan Tulunbeka-xonim, Ilbon, Alp xo'ja, Arabshoh, Qaonbeklar katta o'rin tutdilar. Oltin O'rda taxti uchun kurashlar kuchayib, tushkunlikka yuz tutgan bir vaqtda Oq O'rda davlati kuchayib bordi. Bu holatni biz O'rusxon va To'xtamishlar xukumronlik qilgan davrda kuzatishimiz mumkin. 1380 yilda Oq O'rdaning birlashtirilishi To'xtamishning Amir Temur tomonidan qo'llab quvvatlanganligi ta'sirida amalga oshirilgan edi. Oltin O'rda Amir Temur tomonidan To'xtamishga qarshi kurashlar davomida ancha zaiflashtirilgan bo'lsada, Shodibek hukmronlik qilgan davrda (1401-1407 yy) yana kuchaya boshladi. Shu yillarda Oltin O'rda Bulg'or, Xojitarxon, Qrim ustidan yana o'z hukmronligini o'rnatdi. 1406 yil Edigey tomonidan Xorazm bosib olindi. Bunga Temuriylar o'rtasida kuchayib ketgan taxt uchun kurashlar sabab bo'lgan edi⁵⁶.

XV asrning birinchi choragida Oltin O'rdada o'zaro siyosiy kurashlar yana kuchayib ketdi. 1400—1417 yillar davomida Oltin O'rda taxtiga o'tirgan 8 nafar xon birin-ketin taxtdan tushirildi. (Shodibek, Po'latxon, Temirxon, Jaloliddin Sulton va boshqalar). XIV asrning 80-yillaridan boshlab «o'zbek ulusi» yoki «o'zbeklar viloyati» deb nom olgan Oq O'rdada ham taxt uchun kurashlar kuchayib ketdi. Bir necha o'n yillar davomida taxt uchun To'xtamish, Quyirchoq o'g'lon, Baroqxon, Ulug'muhammad kabilar kurash olib bordilar. 1424—1425 yillardan boshlab esa bu kurashlarda Muhammadxon, Kichik Muhammad, To'xtamishning, o'g'illari Davlatberdi va Kepakxonlar

⁵⁵ Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т. "Ўқитувчи", 1994. 424-б.

⁵⁶ Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т. "Ўқитувчи", 1994. 62-65-66

asosiy o‘rin tutadilar.

Dashti Qipchoq uzoq vaqt davom etgan ana shu kurashlarda boshqa qabilalar bilan bir qatorda Shaybon avlodlari ham faol ishtirok etdilar va ma’lum darajadagi hukmronlik mavqesiga ega bo‘lib bordilar.

Shaybon ulusi

XIV asr Xiva xoni va mashhur tarixchi Abulg‘ozi (1644-1663) ning yozishicha Shaybon Jo‘chixonning beshinchi o‘g‘li bo‘lib, yozda Ural tog‘ining etaklari, Tobol, Yoyiq (Ural), Ilek, Irg‘iz daryolarining o‘rta oqimida, qish faslida esa Orl dengizi, Chuysuv, Sarisuv daryolari bo‘yida ko‘chib yurgan. Abulg‘ozmining yozishicha, Shaybon bu ulusni 1238 yilda Botuxondan olgan.

1427 yilda Alasha bahodir yordamida xon etib ko‘tarilgan Abulxayrxon katta harbiy kuch to‘pladi va 1428 yilda o‘z ulusiga qaytib, qiyot, mang‘it, qo‘ng‘irot, do‘rmon, qushchi, o‘tarchi, nayman, tuboyi, toymas, jot, qorliq, ushun, qurlovut, echki, tang‘ut, va boshqa qabilalar tomonidan ham xon etib ko‘tarildi. Bunda Abulxayrxonni 200 dan ortiq urug‘ va qabila boshliqlari qo‘llab quvvatladilar.

1428-1429 yillarda o‘zbek urug‘lari Janubiy-g‘arbiy Sibirdagi Tura shahrini qo‘lga kiritdilar va bu shahar 1446 yilgacha Abulxayrxon davlatining poytaxti bo‘lib qoldi. Abulxayrxonning bu muvaffaqiyati tezda butun Dashti Qipchoqqa yoyildi va ko‘pgina o‘g‘lonlar va sultonlar Abulxayrxon hizmatiga o‘ta boshladilar. 1428—1431 yillar davomida olib borilgan kurashlar natijasida Abulxayrxon ilgari Shaybon ulusi yerlarini qaytadan birlashtirishga erishdi va o‘zidan avvalgi Shaybon ulusi yerlarida Oltin O‘rdagi tobelik holatida hukmronlik qilgan Davlatshox o‘g‘lon, Jumoduqxon va Maxmudxo‘jaxonlardan farqli ravishda o‘z davlatini Oltin O‘rda (Ko‘k O‘rda) dan mustaqil deb e‘lon qildi.

Bu vaqtga kelib G‘arbiy Sibir va Sirdaryogacha bo‘lgan hududlarni birlashtirib, Dashti Qipchoq va Movarounnahr orasidagi savdo tarmoqlarining markazlari sanalgan Sig‘noq, Oqqo‘rg‘on, Arquq, So‘zoq va O‘zgand shaharlarini yagona hokimiyatga bo‘ysundirgan Jo‘chining beshinchi o‘g‘li Shaybon urug‘idan bo‘lgan **Abulxayrxonning** temuriylar davlati hududlariga ham ta’siri kuchayib boradi. Biroq ayni vaqtda Dashti

Qipchoqda Iboqxon, Burka sulton, Oq Oʻrda xon Baroqxonning oʻgʻillari Jonibek va Girayxonlarning, ayniqsa ular orasida eng qudratlisi boʻlgan Mustafoxonlarning Abulxayrxonga boʻysunishdan bosh tortishi, shuningdek boshqa bir Shayboniylar Said Axmad va Axmadxonlarning unga qarshi kurash kayfiyatida boʻlganligi uning oʻz davlatini mustahkamlash va xavfsizligini taʼminlash bilan mashgʻul boʻlishga majbur qildi.

Mustafoxon
XVI asr 40-60 yy

Mustafoxon Dashti Qipchoqda mangʻitlarning qoʻllab quvvatlashi bilan katta kuch-qudratga va mavqega ega boʻlgan oʻzbek sultonlaridan biri boʻlib, Dashti Qipchoqdagi hokimiyat uchun kurashlarda faol ishtirok etgan. Mustafoxon XV asrning oʻrtalarida Xorazmning janubi-gʻarbiy qismini qoʻlga kiritib oladi, Urganchni ham bosib olgach, shahar aholisining bir qismini oʻzi qurdirgan Vazir shahriga koʻchirib olib ketgan. Mustafoxonning Xorazmdagi hukmronligi 1460-61 yillargacha davom etgan. U qurdirgan Vazir shahri esa keyinchalik, XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligining eng muhim siyosiy markazlaridan biri sifatida mavjud boʻlgan.

XV asrning 40-yillariga kelib Oltin Oʻrdada, Moʻgʻuliston va Temuriylar davlatlarida kuchayib borgan ichki kurashlar Abulxayrxonga Sirdaryo boʻylariga harbiy yurishlar qilishga imkoniyatni yuzaga keltirdi. Garchi bu harakatlar dastlabki vaqtlarda temuriylarning murojaatlari orqasida kelib chiqqan boʻlsa, keyinchalik Abulxayrxon Sirdaryoning soʻl qirgʻogʻidagi hududlarga ham oʻz siyosatini oʻtkazish va hokimiyatini joriy qilishga intiladi. Shunday vaziyatlardan biri 1447 yilda Shoxruxning vafot etishi bilan yuzaga keladi va Ulugʻbekning mamlakatda yoʻqligidan foydalangan Abulxayrxon Samarqand va Buxoro atroflarga harbiy bosqinchilik uyushtiradi.

Ulugʻbekning vafoti bilan Movarounnahrda siyosiy vaziyat yanada chigallashadi va Samarqand taxti uchun kurashlar kuchayadi. Shunday jarayonda temuriyzoda Abu Said Mirzo (1451-1469 yy) ning murojaati bilan Movarounnahrda kirib kelgan Abulxayrxon temuriylarning ichki kurashlarida ishtirok eta boshlaydi va shu bilan Movarounnahr ichki siyosiy hayotida shayboniylar taʼsiri kuchayib bordi. Bu siyosat Abulxayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniyxon davrida ham davom

etdi.

Abulxayrxondan soʻng taxtga uning oʻgʻli Shayx Haydarxon oʻtkaziladi va xon deb eʼlon qilinadi, yangi xonning taxtga kelishi Dashti Qipchoqdagi siyosiy kuchlarning markaziy hokimiyatga qarshi kurashlarini yanada keskinlashtirib yuboradi. Iboqxon, Burka sulton, Jonibek va Girayxonlarning ittifoqlariga mangʻitlardan Yomgʻurchi va Muso mirzolar ham qoʻshilib, Oltin Oʻrda xoni Axmadxon bilan birlashib Shayx Haydarxonga qarshi kurash boshlaydilar va uni magʻlubiyatga uchratadilar, Shayx Haydarxon urushda halok boʻladi. Muhammad Shayboniyxon, uning ukasi Mahmud Sulton, Abulxayrxonning oʻgʻillari Suyunhojaxon, Koʻchkunchixon, Bahtiyor Sultonning oʻgʻillari Mahdi sulton, Xamza sulton va boshqalar oʻz davlatlarini tashlab keitishga majbur boʻladilar.

1460 yilda Abulxayrxonning katta oʻgʻli Shohbudogʻ vafot etadi. Undan qolgan sakkiz yoshli Muhammad va besh yoshli Mahmud uygʻur Boyshayx koʻkaldosh tarbiyasiga beriladi. Shohbudogʻning katta oʻgʻli Muhammad Shohbaxt keyinchalik Shayboniylar davlatiga asos soladi⁵⁷.

Shayboniyxon tomonidan Movarounnahrning zabt etili-shi va Shayboniylar hukmronligi davrida Movarounnahrda siyosiy hayot. Abulxayrxonning oʻgʻli Shoh Budogʻ Sultonning farzandi boʻlgan Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon (1451-1510 yy) bobosining oʻlimidan (1468 y) soʻng tarqoqlikka uchragan Shaybon ulusiga mansub urugʻ va qabilalarni nafaqat qaytadan birlashtirishga, balki uni kuchli va markazlashgan, harbiy jihatdan qudratli davlatga aylantirishga erishdi.

XV asrning soʻnggi choragiga kelib temuriy shahzodalar oʻrtasidagi toj-taxt uchun oʻzaro kurashlar avj olgan edi. Koʻpgina mulklar va viloyatlar, xususan, Fargʻona, Hisor, Samarqand bilan Buxoro, Toshkent, Xorazm oʻzlarini mustaqil hisoblab, koʻp hollarda bir-birlari bilan kurash olib borar edilar. Shuning uchun ham Movarounnahrda temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan kichik-kichik viloyatlarga boʻlinib ketgan edi. Shayboniyxon esa temuriylar hukmronligiga barham berish uchun bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalanishga harakat qildi.

⁵⁷ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. 252-б.

Sulton Muhammad Shayboniyxon (1451— 1510)

Shayboniyxon, Sulton Muhammad Shayboniyxon (1451— 1510) - shayboniylar sulolasi asoschisi. Abulxayrxonning nabirasi, Shohbudog' sultonning o'g'li. Bobosi Abulxayrxon unga Shohbaxt deb laqab qo'ygan. Otasining erta vafotidan so'ng, bobosining qaramog'ida qolgan Sulton Muxammad Shaybon Boyshayx otalig'ida voyaga yetgan. U XV asr 80-yillarida Abulxayrxon vafotidan so'ng Dashti Qipchoqning asosiy hududida o'z hukmronligini o'rnatmoqchi bo'lgan. Shayboniyxon 1490 yillardan o'zaro kurashlar va ichki nizolar tufayli tobora zaiflashib borayotgan Temuriylar hududi bo'lgan Movarounnaxrda ham o'z hukmronligini o'rnatish uchun harakat boshlagan. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Movarounnaxrga qilgan yurishlari natijasida hokimiyat boshqaruvi uning qo'lga o'tgan. U o'zbek, fors tillarida g'azal, ruboiylar ham bitgan. Uning ana shu g'azal, ruboiylaridan ayrimlari va «Baxrul xudo» nomli dostoni, o'g'li Temur sultonga atab yozgan pand-nasihatlardan iborat kitobi (yagona nusxasi Turkiyada saklangan) bizgacha yetib kelgan. Shayboniyxon Turkistonning Sig'noq, Sabron, Yassi shaharlarini ham o'z qo'l ostiga kiritgan. 1504 yil Hisor, Qunduz, Badaxshon, Balx, 1505 yilda Xorazm, 1507 y.da Hirot ham Shayboniyxon qo'l ostiga o'tgan. Keyinroq Eronning Mashhad va Tus shaharlarini ham egallagan. 1510 yilda Marv yaqinidagi Eron shohi Ismoil Safaviyning askari bilan Shayboniyxon qo'shini o'rtasidagi jangda uning qo'shinlari mag'lubiyatga uchragan va Shayboniyxonning o'zi ham halok bo'lgan. Uning boshsiz tanasi Samarqanddagi Baland Sufaga dafn qilingan. Baland Sufa Registon maydonida Tillakori va Sherdor madrasalari o'rtasidagi burchakda joylashgan bo'lib, bu yerga keyinchalik boshqa shayboniylar ham dafn etilgan.

Temuriylar o'rtasidagi sulolaviy urushlar, keyinroq esa Shayboniyxon qo'shinlarini qo'llab-quvvatlashda Toshkent mulki zodagonlari katta rol o'ynadilar. 1485 yilda Toshkent hokimiyatini mashhur diniy arbob Xo'ja Ahror yordamida Yunusxon egallagan bo'lsa, uning vafotidan so'ng o'g'li Mahmudxon (1487-1503yy) Toshkent taxtini egallaydi. Mahmudxon temuriylarga qarshi kurashda Shayboniyxon ittifoqini umid qilgan bo'lsa-da, niyatiga yeta olmadi⁵⁸. Ayni vaqtda Movarounnaxrga chegaradosh bo'lgan va Sirdaryo bo'ylab joylashgan O'tror, Sayram, Turkiston (Yassi) hududlarini ham Shayboniyxon o'z ta'siriga oldi.

Bu vaqtda temuriylar orasida ichki nizolar kuchayib boradi. 1494 yilda vafot etgan Sulton Ahmad (1451-1494 yy) o'rniga ukasi Sulton

⁵⁸ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. 252-б.

Mahmud (1452-1495 yy) Samarqand taxtini egallaydi, biroq ko'p o'tmay Boysung'ur mirzo (1477-1499 yy) tomonidan taxtdan tushiriladi. Bu hol Samarqand va uning atrofidagi siyosiy kuchlarning ikkiga bo'linishiga, ayni vaqtda Muhammad Hoja (Hoja Ahror avlodidan) va Hoja Yahyo kabi din peshvolarining ham har ikki siyosiy kuchlarni qo'llab quvvatlashiga olib keladi. Siyosiy kurash bilan bir vaqtda mafkuraviy kurash va qarama-qarshilik ham avjiga chiqadi.

1496-1497 yillarda Samarqand taxti uchun Boysung'ur Mirzo, uning ukasi Sulton Ali Mirzo, akasi Sulton Mas'ud Mirzo, Andijon hokimi Umarshayxning o'g'li Bobur Mirzolar o'rtasida shiddatli janglar boradi, shahar qamal holatida qoladi. Og'ir ahvolda qolgan Boysung'ur Mirzo yordam so'rab Shayboniyxonga murojaat qiladi. Fursatdan foydalangan Shayboniyxon 1497 yilning kuzida Samarqandga qo'shin tortadi. Biroq ittifoqchilar o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyat tufayli Mirzo Bobur qo'shinlari tomonidan qaytarilgan Shayboniyxon qo'shinlarini olib ortga qaytadi va Samarqand 1497 yilning noyabr oyida Mirzo Bobur tomonidan egallanadi. Biroq bu muvaffaqiyat Boburning Farg'onadagi hokimiyatining zaiflashuviga va hokimiyat uchun kurashlarning yanada kuchayishiga olib keldi⁵⁹.

Mamlakatda yuzaga kelgan o'zaro ichki kurashlar umumiy holda siyosiy vaziyatning izdan chiqishi va iqtisodiy hayotning tanazzulga uchrashiga olib keldi. Bu Movarounnahrdagi hokimiyatni qo'lga kiritishga intilayotgan shayboniyxon uchun ayni muddao bo'lib, ayrim mahalliy hukmdorlar va din peshvolari ham turli yo'lar bilan uni qo'llab quvvatlamogda edilar.

1497–1500 yillar oralig'ida yuz bergan bir necha to'qnashuvlar va talonchilik yurishlaridan so'ng Shayboniyxon 1500 yilda Samarqandga hujum boshlaydi. Bu yurishda unga ukasi Sulton Mahmud, jiyanalari va amakilari Ubaydullo Sulton, Hamza Sulton, Mahdi Sulton, Ko'chkinchixon, Suyunchxo'jaxonlar juda katta yordam beradilar.

1500 yilda Samarqandni egallab, keyinchalik uning hukmdori Sulton Alini qatl ettirgan Shayboniyxonga qarshi Bobur Mirzo o'z qo'shinlari bilan qarshilik ko'rsatishga harakat qiladi va kuz oylarida Samarqandni

⁵⁹История Узбекистана. Т. 3. – Т., 1993. – С. 33–34.

egallaydi. Biroq bir necha qamal va janglarda holdan toygan va og'ir ahvolda qolgan shahar aholisini qiynamaslik uchun Shayboniyxon bilan olib borilgan muzokaralar va sulh natijasida shaharni tashlab chiqib ketadi.

Keyingi siyosiy vaziyat asosan Shayboniyxon foydasiga o'zgaradi va u bir necha yo'nalishda janglar olib borib turli yillarda Movarounnahr va Xurosonning bir qator viloyatlarini bosib oladi. Jumladan, 1501-1502 yillarda Jizzax, O'ratepa, Shosh, Shoxruxiya, Sayram, 1504 yilda Hisor, 1505 yilda Urganch va Xorazm, 1507 yilda Xirot va Xuroson bosib olindi.

Shayboniyxonning Xurosonga yurishidan foydalangan qozoq sultonlari Buxoro va Samarqandga talonchilik yurishi uyushtiradilar, bu esa Shayboniyxonning 1508-1509 yillarda Dashti Qipchoqqa, qozoq sultonlariga qarshi yurishga majbur qiladi. Bu yurish natijasida Shayboniyxon Sig'noq, Yassi, Savron va qozoq sultonlari hududlaridan Qora Abdal yerlarini qaytadan qo'lga kiritadi.

Temuriylar davlatining asosiy viloyatlarini o'z ichiga olgan Movarounnahr va Xuroson egallagan Shayboniyxon o'zining keyingi harbiy yurishlarini Eronga qarshi qaratadi.

1509 yilda Marv shahrini egallagan Shayboniyxon Eronning ichki viloyatlariga yurish qiladi. 1510 yili Marv yakindagi Chibukobod mavzesida Eron shohi Ismoil Safaviyning 70 ming kishilik qo'shiniga qarshi 17 ming askar bilan jangga kirgan Shayboniyxon qo'shinlari mag'lubiyatga uchratiladi va uning o'zi jangda o'ldiriladi. Bu mag'lubiyat natijasida Shayboniylar o'zlarining Xurosondagi va Xorazmdagi mulklaridan mahrum bo'ladilar.

Muhammad Shayboniyxon o'limidan so'ng taxtga **Ko'chkinchixon** (1510-1530 yy) o'tirdi. Ayni vaqtda vaziyatdan foydalangan temuriy Bobur mirzo Ismoil Safaviy bilan ittifoq tuzgan holda Samarqandni egallash uchun shayboniylarga qarshi yurish boshlaydi.

Garchi u 1511 yilda Samarqandni egallab olgan bo'lsada, biroq uni saqlab qola olmadi. 1512 yil noyabrida Najmi soniy (Amir Ahmad) boshchiligida Movarounnahrda yurish qilgan eronliklar esa Qarshida Ubaydulla sulton va Temur sultonlar boshchiligidagi shayboniylar tomonidan mag'lubiyatga uchratildi.

Ubaydullaxon ibn Maxmud Sulton 1533-1539

Ubaydullaxon, Ubaydulla Sulton, Ubaydiy (to'liq ismi: Abulg'oziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budog' Sulton ibn Abulxayrxon) (1486, Xorazmning Vazir shaxri yaqinidagi Tirsak mavzesi — 1540.17.3., Buxoro) - Buxoro xoni (1533—39), shoir. Shayboniylar sulolasidan. Muhammad Shayboniyxonning jiyani, Mahmud Sultonning o'g'li. Otasining iltimosiga ko'ra, unga Xoja Ubaydulloh Ahror o'z ismini bergan. Tasavvuf bo'yicha dastlabki saboqni otasining piri Mavlono Muhammad Qozidan olgan. Ubaydullaxonga o'z davrining mashhur ulamolari Fazlulloh ibn Ro'zbehon, Maxdumi A'zam, Mavlono Muhammad Azizon, Mavlono Xoja Muhammad Sadr va boshqalar ustozlik qilgan. Xususan, unga davlat arbobi va sarkarda amir Abdulla Yamaniy (Buxoroda Mir Arab nomi bilan mashhur bo'lgan) harbiy san'atdan saboq bergan va o'ziga murid qilib olgan. Xorazm va Buxoro hokimi bo'lgan otasi Mahmud Sulton Qunduzda vafot etgach (1504), unga O'rusbek Do'rmon (1512 y. Ko'li Malikda bo'lgan jangda o'ldirilgan) otaliq qilib tayinlangan. Ubaydullaxonning amakisi Shayboniyxonning Xorazm (1505), Balx (1506), Hirot va Mashhad (1507)ga qilgan harbiy yurishlarida qatnashgan. Dastlab safaviylar qo'shinining Movarounnahr ichkarisiga bostirib kirishidan cho'chigan Ubaydullaxon va Muhammad Temur Sulton (Shayboniyxonning o'g'li) shoh Ismoil I bilan elchilar almashib, sulh tuzishga uringanlar. Shayboniylar sulolasining xoni Ko'chkunchixonning asosiy noibi (1510 y.dan) va Buxoro hokimi (1504 y.dan) sifatida Ubaydullaxon dushmanga karshi kurashga otlangan. 1511 yildada bo'lgan jangda yengilgan Ubaydullaxon va Ko'chkunchixon, Samarkand hokimi Suyunchxo'jaxon, shunngdek, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton o'z yaqinlari bilan Turkiston shaxriga chekinadilar. 1512 yil 28 aprelda Ko'li Malik jangida Ubaydulla g'alaba qozonib, Buxoro va Samarqandni egallaydi. 1512 yil bahorida Ubaydullaxonning shijoati natijasida Movarounnahr yana shayboniylar qo'lga o'tdi. Biroq Ismoil I yuborgan Najmi Soniy boshchiligidagi safaviylar qo'shiniga suyangan Bobur 1512 yil kuzida G'uzor va Qarshini egallaydi. Najmi Soniy qo'shini G'ijduvonni qamal qilishga kirishdi. Ubaydullaxon va Jonibek Sulton Karmanaga, Ko'chkunchixon va Temur Sulton Miyonkolga chekinib, hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rishadi. 1512 yil 24 noyabrdagi G'ijduvon jangida Ubaydullaxon boshchiligidagi qo'shin g'alaba qozongan. 1513 yil yanvarda Ubaydulla boshchiligidagi qo'shin Xurosonga harbiy yurishlar qilib, safaviylarga kuchli zarbalar berdi. 1513 yil 11 martda Ubaydullaxon Marvni egallaydi. Bu orada Ubaydullaxon Xorazmni ham egallab, o'g'li Abdulazizxonni hokim qilib tayinlaydi. Uzoq davom etgan harbiy to'qnashuvlardan so'ng Mashhad, Hirot (1529) va boshqa shaharlar egallandi. Ubaydullaxon Hirotidagi murakkab vaziyatni tartibga solish (bu yerda shialarning ta'siri kuchayib ketgan edi) va uning Buxoro bilan aloqalarini mustahkamlashga katta e'tibor qaratgan. Ko'chkunchixon vafot etgach, uning o'g'li Abu Saidxon davrida ham

Ubaydullaxon noiblik vazifasida qolgan. 1533 yilda Abu Saidxon vafotidan so‘ng, turkiy an‘anaga binoan sultonlar ichida eng yoshi ulug‘i Ubaydulla Buxoroda shayboniylar sulolasining xoni qilib ko‘tarilgan. Poytaxt ham Samarqanddan Buxoroga ko‘chirilib, davlatning nomi rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb atalgan. Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi mavqei kuchaydi. Buxoroda Mir Arab madrasasi, Mirak Sayyid G‘iyos bog‘i, Ko‘hak (Zarafshon) daryosi ustida Mehtar Qosim ko‘prigi va boshqa inshootlar qurildi. Ubaydullaxon «Ubaydiy», «Qul Ubaydiy», «Ubaydulloh» taxalluslari bilan o‘zbek, fors va arab tillarida ijod qilgan. Uning uchala tildagi devonlarini o‘z ichiga olgan kulliyoti keyinchalik Mir Husayn Husayniy tomonidan ko‘chirilgan (1583) Ubaydullaxon Buxoro yaqinida joylashgan Bahouddin majmuasidagi Daxmai shohon (Shoxlar daxmasi)dagi shayboniylar xilxonasida dafn etilgan

Ubaydullaxon hukmronligi vaqtida (1533-1539 yy) poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko‘chirildi. Biroq uning vafotidan so‘ng taxtga o‘tirgan **Abdullaxon I** esa hokimiyatni o‘z qo‘lida saqlab qola olmadi va mamlakat bir necha hokimliklarga bo‘linib ketdi.

Abdullaxon I ibn Ko‘chkunchixon (1540)

Abdullaxon I ibn Ko‘chkunchixon (XV asr oxiri - 1540-yil 14-sentabr, Samarqand) - Shayboniylardan bo‘lgan Movarounnahr xoni. Abulxayrxonning nevarasi, Ko‘chkunchixonning o‘g‘li. 1514-1540-yillarda Abdullaxon I Yassi (Turkiston)da hokimlik qilgan. 1540 yil martda shayboniy Ubaydullaxon vafot etgach, Buxoro xonligi 3 qismga bo‘lingan davrda Samarqandda hukmronlik qilgan. Uning qisqa hukmdorligidan so‘ng mamlakatda qo‘sh hokimiyatchilik vujudga kelgan, ya‘ni bir davlatda ikki hukmdor paydo bo‘ldi. Abdullaxon I Samarqandda Registon yaqinidagi Chihil (Chil) Duxtaron qabristonida dafn etilgan. Uning vafotidan so‘ng Samarqanddagi shayboniylar taxtiga ukasi Abdullatifxon o‘tirgan.

Bu siyosiy keskinlik natijasida Buxoroda **Abdulazizxon** (1540-1550 yy), Samarqanda **Abdullatifxon** (1540-1551 yy), Toshkent va Turkistonda **Navro‘z Axmadxon** (Baroqxon, 1540-1556 yy) hokimiyatni o‘zaro bo‘lib oldilar. O‘zaro hamda sulolaviy kurashlar davom etayotgan bir sharoitda Shayboniyxonning nabirasi Muhammad Yorsulton bir necha oy taxtni boshqarganidan so‘ng amaldagi hokimiyat Baroqxon (Navro‘z Ahmadxon, 1551-1556 yy.) qo‘liga o‘tdi. Toshkent va Sirdaryo bo‘yidagi shaharlar hukmdori bo‘lgan Navro‘z Ahmadxon Buxoroda o‘z hokimiyatini tan oldirish uchun Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlariga bir

necha marta yurishlar qilib turdi.

**Navro‘z Ahmadxon
(Baroqxon)**

Baroqxon (haqiqiy ismi Navro‘z Ahmadxon) (? — 1556, Samarqand) - shayboniylar sulolasidan bo‘lgan xon. Abulxayrxonning nabirasi, Toshkent hokimi Suyunchxo‘jaxonning kichik o‘g‘li. Otasining vafotidan keyin Toshkent hokimi (1525-51), so‘ngra Movarounnahr (1551- 56) xoni. Baroqxon yoshligida Vosifydan she‘riyat, musiqa, ashula, vazn va nazmdan ta‘lim olgan. Ayni vaqtda chavandozlik va harbiy mashqlar bilan ko‘proq mashg‘ul bo‘lgan. Baroqxon o‘z saltanatini kengaytirish uchun ko‘p harbiy yurishlar uyushtirgan. Abdullatifxon vafotidan keyin 1551 yilda Samarqand taxtiga o‘tirgan va Navro‘z Ahmadxon nomi bilan Movarounnahrni boshqargan. Uning nomi bilan tanga pullar zarb etilgan. Baroqxon obodonchilik ishlariga e‘tibor bergan, madrasalar qurdirgan. Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» asarida qayd etilishicha, Baroqxon 1556 yilda Zarafshon daryosidan boshlangan Darg‘om kanalining bosh inshooti — Ravotxo‘ja to‘g‘onini tuzatirish uchun kelgan va shu yerda to‘satdan vafot etgan. Baroqxon davrida Movarounnahr bilan Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari, Hindiston, Xitoy, Sibir o‘rtasida savdo-sotiq, elchilik munosabatlari rivojlangan. Baroqxon XVI asrning 30-50 yillarida Toshkentda ikki maqbarani o‘z ichiga olgan madrasa qurdirgan. Kichik maqbarada Baroqxon qabri bo‘lib, katta maqbarada esa uning otasi, Toshkent hokimi Suyunchxo‘jaxon qabri joylashgan.

1556 yilda Navro‘z Ahmadxon vafot etgach, Balx hukmdori Pirmuhammadxon (1556-1561 yy.) Buxoro taxtiga o‘tiradi. Shunga qaramasdan 1556 yilda Axi va Andijon mulki hukmdorlari Buxoroni egallashga harakat qilib ko‘rdilar. Ammo, o‘sha paytda juda katta nufuzga ega bo‘lgan jo‘ybor shayxi Xo‘ja Islom tomonidan qo‘llab quvvatlangan shayboniy Iskandar Sultonning o‘g‘li Abdulla Sulton bunga yo‘l qo‘ymadi. Pirmuxammadxon Balxda qolib taxtni boshqarayotgan, uning nomiga xutba o‘qitilib, tangalar zarb etilayotgan bo‘lsada, 1557 yildan Buxoroda Abdulla Sulton hukmronlik qila boshlaydi⁶⁰.

Mamlakatning birlashtirilishi va markaziy hokimiyatning kuchaytirilishi **Iskandar sultonning** (1560-1583 yy) o‘g‘li **Abdullaxon II** faoliyati bilan bog‘liq.

**Abdullaxon II ibn Iskandar Sulton
(1583-1598)**

Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn

⁶⁰ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. 255-б.

Abulxayrxon (1534-Miyonkol, Ofarinkent qishlog'i - 1598-yili 8-fevral Samarqand, Buxoro yaqinida Bahouddin majmuasiga dafn etilgan) O'zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan eng yirik hukmdor (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat homiysi. Toshkent hokimi Baroqxon (Navro'z Ahmadxon) bilan Koson yonida (1548), Mo'g'uliston xoni Abdurashidxon va shayboniylardan Do'stum sultonlar qo'shiniga qarshi Forob yonida (1554) jang qilgan. Yosh Abdulla sulton o'zining hukmdor sifatidagi butun g'ayrat shijoatini 1551 yil Karmanada namoyish etgan; viloyatga Toshkentdan Baroqxon va Samarqanddan Abdullatifxon hujum qilganlar, Iskandar sulton Amudaryo ortiga qochgan. Abdulla sulton otasi vazifasini o'z zimmasiga olib bu hujumni muvaffoqiyatli qaytargan. Keyingi yillarda (1552-56-y.) o'z mulkini G'arbga – Buxoro tomonga va janubi-sharq – Qarshi va Shahrisabz tomonga kengaytirishga intilgan. Bu say-harakat dastlab muvaffaqiyatsiz chiqqan, xatto 1556-yilda u ota meros mulkini tashlab Maymanaga qochishga majbur bo'lgan. U amakisi, Balx hokimi Pirmuhammaddan harbiy yordam olib va piri Xoja Muhammad Islom ko'makida Baroqxon, keyinchalik uning o'g'illari Darveshxon va Bobo Sultonlarga qarshi uzoq muddat kurash olib borgan. Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) vafot etgach (1556-y.), darhol Karmana va Shahrisabzda o'z hukmronligini tiklaydi, 1557-yili mayda Buxoroni qo'lga kiritadi va uni o'z poytaxtiga aylantiradi. 1561 yilda otasi - Iskandarxonni davlat boshlig'i - xon deb e'lon qilib, uning nomidan mamlakatni o'zi boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortgan shayboniy sultonlar bilan kurashib, Balx (1574-y.), Samarqand (1578), Toshkent, Sayram, Turkiston (1583) va Farg'ona (1583-y) ni egallaydi. 1582-yilda Dashtga yurish qilib, Ulug'tog'ga qadar borgan. 1583-yilda otasi Iskandarxon vafot etgach mamlakatni o'z nomidan boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga qarshi ko'tarilgan Maymana va Garchiston (1583-y.), shuningdek, Badaxshon (1585)dagi g'alayon, tartibsizliklarni bostirgan. Xorazmga ikki marta yurish (1594 va 1596) qilib, u yerda markaziy hokimiyat hukronligi qayta tiklangan. Abdullaxon II safaviylar bilan Xuroson, Gilon uchun kurashib o'z tasarrufiga kiritgan. Sharqiy Turkistonga qilingan yurishda Qashqar va Yorkent viloyatlarini olgan. Boburiylar ham Badaxshon, Shimoliy Afg'oniston va Xuroson uchun Abdullaxon IIga qarshi kurashganlar. Abdullaxon II bunga qarshi Sind (1583), Kashmir(1586) ni egallab davlatning janubiy chegaralarini mustahkamlagan. Abdullaxon II davrida mamlakat hududi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizlari sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning sharqiy qismigacha bo'lgan yerlardan iborat edi. Abdullaxon II hayotining so'ngi yillarida o'g'li Abdulmo'min bilan chiqishmay qolgan. Ular o'rtasidagi munosabatlar keskinlashganidan habar topgan qozoq xoni Tavakkalxon Toshkent viloyati va Toshkent – Samarqand oralig'idago yerlarga bostirib kirib, unga qarshi yuborilgan qo'shinni yengan. Unga qarshi safarga otlangan Abdullaxon II Samarqandga yetganida o'g'li Abdulmo'min 1598 yil 8-fevralda amir Muhammad Boqibiy bilan kelishib otasi Abdullaxon II ni zaxarlab o'ldiradi. Abdullaxon II faol tashqi siyosat olib borgan. Uning mamlakat ichki siyosatidagi, davlat boshqaruv tizimini mustahkamlash, ayniqsa pul islohati o'tkazish yo'lidagi faoliyati natijalari keyingi davrlarda ham

saqlanib qolgan. U ko'plab turli inshootlar qurdirgan. Uning davrida mamlakatda shaharsozlik, adabiyot, ilm-fan taraqqiy etgan. Buxoro madaniyat, ilm-fan markaziga aylangan. Hofiz Tanish Buxoriyning „Abdullanoma” („Sharafnomayi shohiy”) (1584-89), Amin Ahmad Roziyning „Haft iqlim” (1583), Mutribiyning dunyo xaritasi ilova qilingan „Taskirati shuaro” (taxminan 1593-95) va boshqa ilmiy asarlar yaratilgan. Buxoroda mashhur Abdullaxon madrasasi tashkil qilingan. Hasanxo'ja Nisoriyning „Muzakkiri ahbob” asari Abdullaxon II ga bag'ishlangan. Abdullaxon II ning o'zi ham istedadli shoir bo'lib, “Xon” taxallusi bilan o'zbek va fors tillarida she'rlar yozgan.

Shayboniylar orasida eng katta ta'sirga ega bo'lgan hukmdorlardan yana biri Abdullaxon II (1534-1598) edi. O'z siyosiy faoliyatini 1557 yilda Buxoro hokimi sifatida boshlagan Abdullaxon II (1583-1598 yy) umrining oxirigacha mamlaktni birlashtirish va uning hududlarini kengaytirish, markaziy hokimiyatni kuchaytirish, iqtisodiy ahvolni va davlatning harbiy qudratini yuksaltirish uchun kurash olib bordi, uning say-harakati bilan O'rta Osiyoda Amir Temur davlatidan keyingi yirik va qudratli Buxoro xonligi tarkib topdi.

1551-1556 yillarda Movarounnahr uchun Shayboniylar o'rtasidagi kurashda Iskandar Sultonning o'g'li Abdullaxon g'olib chiqdi. U Shayboniy hukmdorlar orasida eng nufuzli hukmdor bo'lgan. 1557 yilda Buxoro shahri uzil-kesil davlat poytaxti bo'lib qoldi. Abdullaxon II hukmronligi davrida (1557-1598) Movarounnahrda tarqoq hokimliklarga barham berilib, markazlashgan davlat va kuchli qo'shin tashkil etildi.

Abdullaxon II siyosiy tarqoqlikka qarshi uzoq yillar urush olib borib, 1573 yilda Farg'onani, 1574 yilda Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlarini, 1578 yilda Samarqandni, 1582 yilda Toshkent, Shohruhiya, Ohangaron va Sayramni, 1583 yilda Balxni, 1584 yilda Badaxshonni, 1588 yilda Hirotni, 1595 yilda Xorazmni zabt etib, mamlakatni birlashtirish ishini uddaladi, Buxoro xonligini kuchli va markazlashgan davlatga aylantirdi. Biroq ichki nizo, adovatni bartaraf etolmadi. Abdullaxon II bilan uning o'g'li Abdulmo'min o'rtasida taxt masalasida kelishmovchilikdan foydalangan qozoq xonlaridan Tavakkalxon Toshkent viloyati yerlariga bostirib kiradi. Unga qarshi safarga otlangan Abdullaxon II Samarqandga yetganda vafot etadi. Abdullaxon II o'limidan so'ng taxt uchun bo'lgan kurashlarda Shayboniylar oilasidan taxtga da'vogarlik qilishi mumkin

bo‘lganlarning deyarli barchasi butunlay qirilib ketadi. Abdullaxonning yagona o‘g‘li Abdulmo‘min 1598 yil 8 fevralda amir Muhammad Boqiy bilan kelishib, o‘z otasini zaharlab o‘ldirtiradi. Balxdan Movarounnahrqa yetib kelib otasining emuqdoshi Qulbobo ko‘kaldoshni, amakisi Do‘stim Sultonni, uning o‘g‘illarini o‘ldirtiradi. Lekin olti oy o‘tgach, Zomindan Samarqandga kelayotganda otasining amirlaridan biri Abdulvose‘ tomonidan otib o‘ldiriladi.

**Abdulmo‘min ibn Abdullaxon
(1568-1599)**

Balx va Badaxshon hokimi (1582-1598). 1598-99-yillarda Buxoro xoni bo‘lgan. 1589-yildan otasi Abdullaxon II bilan munosabatlari keskin yomonlashgan. Chunki Abdullaxon II Hirotni Safaviylardan qaytarib olgach, uni o‘z o‘g‘li qolib, Qulbobo Ko‘kaldoshga in‘om qiladi. Buning ustiga u Xurosondagi noiblari – Qulbobo ko‘kaldosh, Dinmuhammad sulton va boshqa;arga yozma farmon jo‘matib, Abdulmo‘minga itoat etmaslikni va xatto biror qulay fursatdan foydalanib uni jisman yo‘q qilishni buyuradi. Shuningdek, u Niso, Obivard va Durun hokimi Nurmuhammadxonni qollab- quvvatlab uni Abdulmo‘minga qarshi urushga undaydi. Bundan darg‘azab bo‘lgan Abdulmo‘min 1597-yilning kuzida otasiga qarshi bosh ko‘tarib, Balx va Badaxshon qo‘shini bilan Amudaryo bo‘yiga kelgan. Abdullaxon II ning qo‘shini Nasaf (Qarshi) atrofida joylashgan. Abdullaxonga ko‘makka viloyat hokimlari – masalan, Axxi va Andijon hokimi O‘zbek sulton o‘z qoshinlarini yuborgan. Buxoro va Balx ulamolari aralashuvi bilan Abdulmo‘min va Abdullaxon II o‘rtasidagi nizolarga vaqtincha barham berilgan. Abdulmo‘min 1598-yil 8-fevralda amir Muhammad Boqiy bilan kelishib otasi Abdullaxon II ni zaharlab o‘ldiradi. Abdulmo‘min otasi Abdullaxon II vafot etgach, Buxoroga qaytib taxtni egallagan. Taxtga o‘tirganidan so‘ng, otasining yaqin kishilari hamda o‘zining Farg‘ona va Toshkentdagi barcha shayboniy qarindoshlarini zolimlarcha qatl ettirishi mamlakatda isyon ko‘tarilishiga olib kelgan. U Eron safaviylari bilan Xuroson uchun kurashni davom ettirgan. Abdulmo‘min mo‘ng‘ullar vayron qilgan Balx qal‘asini qayta qurdirgan, Balxdagi Xoja Abu Nasr Porso mozorida hashamatli ko‘shk bunyod ettirgan.

Abdulmo‘mindan so‘ng taxtga Abdullaxonning qarindoshi Jonibekning o‘g‘li shahzoda **Pirmuhammad** o‘tirdi. Uning ham hukmronligi uzoqqa bormay, 1607 yili taxtdan ag‘darildi. Taxtga chiqqan so‘nggi Shayboniy shahzoda Pirmuhammad ham 1601 yilda Samarqandda Boqi Muhammad bilan bo‘lgan jangda halok bo‘ldi. Shunday qilib, qariyb 100 yil

hukm surgan Shayboniylar sulolasi barham topdi⁶¹. XVI asr oxiri–XVII asr boshlarida Movarounnahr hududida Shayboniylar o‘rniga yangi o‘zbek sulolasi–Ashtarxoniylar hokimiyat tepasiga keladi. O‘zbek davlatchiligi boshqaruviga yangi sulolaning kelishi amalda biron-bir keskin tarixiy burilishga sabab bo‘lmadi. Ashtarxoniylar ham mamlakatda davom etgan o‘zaro feodal urushlar va boshlangan inqirozga chek qo‘ya olmadilar. Bu esa Movarounnahrda markaziy hokimiyat mavqeining tushib ketishiga, mamlakat aholisi va iqtisodining ahvoliga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Shayboniylar sulolasi (1500-1601 yy)		
1	Shayboniyxon ibn Budoq sulton	1500-1510 yy
2	Ko‘chkunchixon ibn Abulxayrxon	1510-1530 yy
3	Abu Sa‘id ibn Ko‘chkunchixon	1530-1533 yy
4	Ubaydullaxon ibn Maxmud Sulton	1533-1539 yy
5	Abdullaxon I ibn Ko‘chqunchixon	1539-1540 yy
6	Navro‘z Axmad ibn Suyunchhojaxon	1540-1552 yy
7	Pirmuhammad ibn Jonibek Sulton	1556-1561 yy
8	Iskandar Sulton ibn Jonibek Sulton	1561-1583 yy
9	Abdullaxon II ibn Iskandar Sulton	1583-1598 yy
10	Abdulmo‘min ibn Abdullaxon II	1598-1599 yy
11	Pirmuhammad ibn Sulaymon Sulton	1599-1601 yy

Shayboniylar davlati markaziy va mahalliy boshqaruvi.

Shayboniylar davlati o‘z mohiyatiga ko‘ra yirik davlat bo‘lib, oliy hokimiyat cheklanmaga huquqlarga ega bo‘lgan davlat boshlig‘i xon tomonidan boshqarilgan. Xonlik chegarasi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizlari sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning sharqiy qismigacha bo‘lgan yerlarni qamrab oldi. Bu davrda sug‘orish inshootlari, karvonsaroylar, madrasalar, ko‘priklar qurildi. Hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan, madaniy va elchilik aloqalari rivojlandi. Pul zarb qilish yo‘lga qo‘yildi.

Xonlikning siyosiy tizimida, boshqaruvida Amir Temur va temuriylar davrida qaror topgan tartib qoidalar, xususiyatlar bilan birga

⁶¹ Усмонов.Қ, М. Содиқов, С. Бурхонова. Ўзбекистон тарихи. Т.2005. 164-б.

ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga xos an'analar ham mavjud edi. Davlat boshqaruvida islomiy shariat va odat qonun qoidalariga amal qilingan. Davlatni boshqarishda xon saroyidagi oliy darajadagi amaldorlardan tashkil topgan markaziy boshqaruv va viloyat hokimlari qo'lidagi mahalliy boshqaruv asosiy o'rin tutib, ular mamlakatning amaldagi haqiqiy egalari edilar. Ular yordamida, bevosita ishtirokida xon ma'muriy boshqaruvni amalga oshirardi.

Markaziy boshqaruv davlatning ichki va tashqi hayotiga bog'liq barcha masalalarni hal qiladigan dargoh-saroy devonida jamlangan edi. Davlatning oliy darajali amaldorlari a'zo bo'lgan va odatda bosh vazir tomonidan boshqariladigan bu mahkama mamlakatning siyosiy, moliyaviy, harbiy tashkiliy va boshqa masalalarni ko'rib chiqar edi. Bu yerda qabul qilingan qarorlar xonning tasdiqi bilan-gina kuchga kirar va hayotga joriy etilardi.

Ko'kaldosh, Otalik, Naqib, vaziri a'zam, vazir, devonbegi va boshqa oliy darajali saroy amaldorlari, no'yon, tug'begi, kutvol, dorug'a, qurchiboshi va boshqa harbiy amaldorlarning fikri va man-faatlari ham qarorlar qabul qilinishida katta ahamiyatga ega edi.

Shayboniylar sulolasi Movarounnahrda yuz yil hukmronlik qildi. Lekin ko'chmanchi o'zbeklar Movarounnahrning o'troq, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda ancha ilgarilab ketgan hayotiga katta ta'sir ko'rsata olmadi.

Shayboniylarning davlat boshqaruvi mulk tizimiga asoslangan edi. Muhammad Shayboniy qo'lga kiritilgan yerlarni o'z qarindoshlari, sultonlar va beklarga taqsimlab berdi. Ularning har biri mulk boshqaruviga ega bo'lib, bu yerda u mustaqil siyosat olib borishga intildi. Shu tarzda mustaqil tarqoq yer egalari Shayboniyxonning bosqinchilik yurishlari jarayonida birlashgan bo'lsalar-da, bu birlashish uzoqqa cho'zilmadi. Mulq tizimining hukmronligi natijasida davlat yana ayrim beklilarga bo'linib ketdi. Bu beklilarning iqtisodiy, so'ngra esa siyosiy qudratlari kuchaygach, boyib ketgan hokimlar markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga harakat qila boshladilar. Ana shu vaziyatda Shayboniyxon o'z hokimiyati ostidagi sultonlar orasida markazdan qochish kuchini kamaytirish uchun bir qator tadbirlar ko'rdi. Masalan, u ayrim sultonlar va

amirlarni bir mulkdan ikkinchisiga ko‘chirishga harakat qildi, ammo bu narsa har doim ham u istagan natijani bermadi⁶².

Mamlakatda o‘zbek qabilalari ma’lum darajada o‘z mustaqilliklarini saqlab qolgan bo‘lib, ularni xondan amirlik yorlig‘ini olgan qabila boshliqlari boshqarardi. Amirlar xon saylash, majlislarda qatnashish huquqiga ega edi. Natijada ular bora-bora xon hokimiyati uchun xavfli kuchga aylana boshladi. Davlat boshqaruvida harbiy-ma’muriy amaldorlardan tashqari, ulamolar, din peshvolari, shayxlar va xojalarning, aynan Shayx ul-islom, qozi kalon, Mufti kabi diniy mansab egalarining ham ta’siri katta bo‘lgan. Bu davrda ayniqsa, Buxoro yaqinidagi Jo‘ybor qishlog‘idan chiqqan xojalarning mavqei juda oshib ketdi. Mahalliy boshqaruv viloyat hokimlari qo‘lida bo‘lib, ular ham o‘z boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan. Unga qo‘shinga boshchilik qiladigan, shariat qonunlarining to‘g‘ri bajarilishini nazorat qiladigan, aholidan soliqlarni yig‘ib oladigan amaldorlar (rais)lar kirgan. Viloyatlar o‘z navbatida kichik ma’muriy birliklar: tuman, kasaba va mavzelarga bo‘linib idora qilingan. Mahalliy boshqaruvning eng quyi bo‘g‘ini oqsoqol (kalon taron) tomonidan boshqariladigan qishloq jamoalari edi.

Xonlik viloyat (ulus)ga bo‘lib boshqarilgan. Manbalarda Samarqand, Qarshi, Shaxrisabz, Xisor, Balx, Termiz, Karmana, Qorako‘l, Miyonkol, Shosh, Turkiston, Farg‘ona, O‘ratepa, Marv kabi viloyatlardan tashkil topganligi ko‘rsatilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan. Odatda bunday yuksak mavqega xonning yaqin va ishonchli kishilari, qarindoshlari, yirik qabila boshliqlari, har-biy yurishlarda o‘zini ko‘rsatgan o‘zbek sultonlari muyassar bo‘lgan. Xonlikni chegaralari doimiy bo‘lmay tez-tez o‘zgarib, kengayib yoki qisqarib turgan.

Shayboniylar davrida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar. Shayboniyxonning Movarounnahrda xokimiyatni qo‘lga kiritgan dastlabki kunlaridan boshlaboq bu yerda pul muomalasida ko‘pgina muammolar kelib chiqdi. Temuriylar davrida uzoq va davomli sodir bo‘lib turgan o‘zaro kurashlar va dashti Qipchoq siyosiy harbiy kuchlarining kurashlari natijasida bozorlar va savdo munosbatlarida buzilishlar yuzaga kelgan edi. Ayniqsa pulning qadrsizlanishi bu davrda o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga

⁶²Ўзбекистон тарихи. 2-қисм. А.Асқаров тахр.остида. Т.,”Фан”, 1994. 49-б.

chiqdi. Kumush tangalar muomaladan deyarli yo‘qolib ketdi. Bu holatni bartaraf etish, mis tangalarning qadrini va unga bo‘lgan ishonchni yana qaytadan tiklash, asta-sekin kumush tangalarni ham muomalaga kiritishni yo‘lga qo‘yish uchun pul islohotlari o‘tkazish zaruriyati yuzaga keldi.

1507 yilning 30 mayida (hijriy 913 yil muharram oyining 18 kuni) Hirotning jome’ masjidida Shayboniyxon nomiga xutba o‘qilib, Temuriylar sulolasining hukmronligi tugaganligi rasman e’lon qilinadi. O‘sha davrda Temuriylar davlatining pul xo‘jaligi izdan chiqayozganligi bois 1507-1509 yillar orasida pul islohoti o‘tkaziladi. Uning asosiy maqsadi mis va kumush tangalar aniq bir qiymatda butun davlat miqyosida qo‘llanilishini ta’minlash edi. Bu esa Temuriylar davridagi kumush tangalarni barcha shaharlarda bir qiymatli qilib zarb etishni, tashqi ko‘rinishi bilan Temuriy-larning tangalaridan farqlanuvchi mis dinorlarni zarb qilishni taqozo etdi. Shuningdek, Temuriylar davridagi mis tangalarning bir qismini asosiy nominal - dinor sifatida emas, balki unga barobar pul birligi tarzida bozorga qaytardi. Bundan tashqari, 1508 yilda Muhammad Shayboniyxon nomidan tangalar zarb etilib, muomalaga kiritildi⁶³.

Shayboniyxonning pul islohotining tugallanishi 1508 yilga to‘g‘ri keladi. Bu davrda bir hil vazndagi, bir hil yozuvli tangalar Shayboniylar davlatining Samarqand va Buxoro, Marv va Niso Saraxs va Xiro, Mashxad, Nishopur va Nimruz, Kayn va Sebzavor kabi shaharlarida zarb ettirilgan. 1510 yili Muhammad Shayboniyxon vafotidan keyingi urushlar, qattiq kelgan qish Movarunnahr markazida qimmatchilik va ocharchilikni keltirib chiqardi. Inflyatsiya shayboniyxon va Boburning pul siyosatini chuqurlashtirdi. Natijada pulning vazni va qiymati tushib ketdi. Shayboniylar g‘alabasidan so‘ng siyosiy mo‘tadillik ham inflyatsiyani to‘htata olmadi. Mis tangalarning miqdori qanchalik ko‘payma-sin, bozorlarda mahsulotlarning narxi ortib boraverdi, kumush tanga umuman muomaladan yo‘qoldi va yangi kumush tangalar zarb etilmadi. Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida mavjud pul muomalasiga oid numizmatik va yozma manbalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shayboniylar

⁶³ Муқимов Зиёдулла. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Т.: “Адолат”, 2003. 176-б.

davlatida turli vazndagi oltin, kumush, mis, mis va kumush aralashmasidagi tanga-chaqalar muomalada bo‘lgan.⁶⁴

Iqtisodiyotni tartibga solish, savdo sotiqni jonlantirish maqsadida 1507 yilda pul islohoti o‘tkazilib, markaziy shaharlarda vazni bir hil bo‘lgan (5,2 gramm) kumush va mis chaqa pullar zarb qilindi.⁶⁵

Asosan markaziy hokimiyatning siyosiy, iqtisodiy mavqeini kuchaytirish, shayboniy xonlari va beklari hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan bu islohot Shayboniyxon vafotidan keyin kuchayib ketgan o‘zaro urushlar natijasida yaxshi natija bermadi va pul qadrsizlandi.⁶⁶

1515 yilda oliy hukmdor Ko‘chkunchixon pul islohoti o‘tkazishga majbur bo‘ldi. Ayniqsa, Abdullaxon II davrida o‘tkazilgan pul islohotlari xonlik iqtisodiy hayotida katta ahamiyat kasb etgan bo‘lib, markaziy hokimiyat kuchayishi, xazinaga foyda tushishi va savdo-sotiqning jonlanishiga yordam berdi⁶⁷. Tadqiqotchilarning fikricha, oltin tangalar faqat Shayboniyxon va Abdullaxon II davrlaridagina zarb etilgan. Bu davrda pul zarb etish hamda kumush va mis tangalarning muomalada bo‘lishi bir-biri bilan bog‘liq holda kechgan. Numizmatik ma’lumotlarga ko‘ra, XVI asrdagi pul muomalasining asosini “tanga” “tangacha”, “xoniy” deb atalgan kumush hamda “mis dinor” yoki “dinor” deb atalgan mis tangalar tashkil etgan. Eng kichik mis tangachalar “pul” yoki “qora pul” deb atalgan.⁶⁸

Muhammad Shayboniyxon 1507 yilda Hirotni egallagach, bu yerdagi jomye machitida kengash chaqirib, pul islohoti haqidagi farmonini e’lon qiladi. Bu paytda Hirotdagi pul muomalasi chuqur inqirozga uchragan bo‘lib, ushbu islohot Xurosondagi savdogar-zodagonlarni Shayboniyxon tomoniga og‘dirishi lozim edi. Yangi kumush tangachalarning vazni 5.2 g. bo‘lib (ilgarigi temuriylar tangalari 4.8 g. bo‘lgan) unga Shayboniyxonning nomi va unvoni bitilgan.⁶⁹ 1507 yilda bu islohot hali

⁶⁴ Қаранг: История Узбекистана (XVI- первая половина XIXв.).Т.”Фан”. 2012.; Давидович Е.А. История монетного дела в Средней АзииXVII-XVIII вв. 1964. Истоия денежного обращения в средневековой Средней Азии. М.1983.

⁶⁵ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.Шарқ 1998. 250-б.

⁶⁶ Ўша жойда.

⁶⁷ Бобожонова Д.Б., Жураева Н., Бобожонова Н. ва бошқ. Узбекистон тарихи. Т. 2011. 195-б.

⁶⁸ История Узбекистана (XVI- первая половина XIXв.).Т.”Фан”. 2012. 159-160-бб.

⁶⁹ Ўша жойда.

oxiriga yetmagan edi. Manbalarga ko‘ra, bu yilda Movarounnahrda hali temuriylar tangalari to‘la muomalada bo‘lgan. 1508 yilda islohot yakuniga yetib Shayboniylar davlatining barcha hududlarida-Samarqand va Buxoroda, Marv, Kesh, Nasaf, Niso va Saraxsda, Hirot, Mashhad, Nishopur va Sabzavorda bir xil vazndagi, bir xil sayqallangan tangalar zarb etilib muomalaga kiritiladi. Bir xil kumush va mis tangalar butun mamlakat bo‘ylab muomalaga chiqarilib, pulning qadsizlanishiga barham beriladi.⁷⁰

Ammo, bu holat uzoqqa cho‘zilmadi. 1510 yilda Shayboniyxon vafot etgach, o‘zaro urushlar va 1512-13 yillar qishi qattiq kelganligi markaziy Mavarounnahrda qimmatchilik va ocharchilikka olib keldi. Undan tashqari shayboniylar va Boburning mis tangalarni ko‘proq zarb ettirib muomalaga kiritish orqali daromadlarini ko‘paytirish yo‘lidagi harakatlari pulning qadsizlanishini yanada kuchaytirdi. Shayboniylarning hokimiyatni mutlaq qo‘lga kiritishi va siyosiy vaziyatning barqarorlashuvi ham pul qadsizlanishining oldini ololmadi. Chunki, bozorlarda mis pullar nihoyatda ko‘payib ketib, mahsulot narxidan ancha oshib ketdi. Kumush pullar butunlay muomaladan chiqib, zarb etilmay qo‘ydi. Bu holat mamlakatda yangidan pul islohoti o‘tkazish zaruriyatini tug‘dirdi.⁷¹

Davlatdagi bu galgi islohot ancha og‘ir va ko‘p bosqichli bo‘lib, bu safar umumdavlat miqyosidagi pul muomalasini bir meyorga tushirish uchun o‘n besh yil kerak bo‘ldi. Ushbu islohatni ko‘pchilik tadqiqotchilar Ko‘chkunchixon (1510-1529yy.) nomi bilan bog‘laydilar. Dastavval Buxoroda (Ubaydulla Sultonning mulki) keyin esa Samarqandda (Kuchkunchixon mulkidagi poytaxt) boshlangan bu islohot jarayonida yuqori vaznli mis tangalar zarb etilib, past vaznli tangalar muomalasi taqiqlandi. Kumush tangalar zarb etilishi qisman yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, ularning vazni Buxoro va Samarqandda bir xil emas edi. Faqat 1525 yilga kelib butun davlat bo‘ylab bir xil tangalar zarb etish yo‘lga qo‘yildi. Bu jarayonda har qanday shaxs o‘zining metali yoki buyumlarini zarbxonaga eltib, belgilangan vazndagi kumush tangani erkin zarb ettirishi mumkin edi. Buning uchun xazinaga ma’lum miqdorda to‘lov to‘langan.

⁷⁰ Эшов Б. Узбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Т. 2012. 249-б.

⁷¹ Эшов Б. Узбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Т. 2012. 249-б.

Ammo, kumush pullar zarb etilishi va muomalaga kirishidan tushgan daromadning asosiy qismi davlat g'aznasiga tushmas edi. Yirik mulk egalari tangalarga hukmdor nomi va unvonini qo'shib zarb etsalar-da, zarbxonalardan kelgan daromadni o'zlariga qoldirar edilar. Davlatning asosan to'rtta shahrida – Buxoro, Samarqand, Balx va Toshkentda doimiy ravshda ko'p sonli kumush tangalar zarb etilishiga qaramay Karmana, Totkend (Zarafshon vohasi), Aysi, Kesh, Hisor, Yassa kabi shaharlarda ham kam bo'lsa-da, zarbxonalar ishlab turgan. Natijada, XVI asrning o'rtalariga kelib kumush pullarning qiymati tushib ketdi. Undan tashqari mamlakat tashqarisida ham (masalan, boburiylar davlatida) shayboniylar kumush tangalarini zarb etish avj oldi. Bunday sharoitda XVI asrning 60-yillaridan boshlab Abdullaxon II savdo-sotiq uchun zarur bo'lgan pul islohotini bosqichma-bosqich amalga oshirdi. Chunki, Abdullaxon II hukmdor sifatida nafaqat davlat sarhadlarini kengaytirish, markazlashgan davlat barpo etish balki, savdo-sotiq mamlakat iqtisodining muhim tarmog'i ekanligini yaxshi anglagan edi. U otasi Iskandarxon (1560-1583 yy.) davridayoq kumush metall yetishmovchiligini bartaraf etish bilan birga Buxoroda oltin tangalarni doimiy zarb etishni yo'lga qo'ydi va buni qattiq nazorat ostiga oldi.

Abdullaxon II islohoti asosan, kumushning narxi oshishiga nisbatan kumush tangalarning qiymatini oshirishga qaratilgan edi. 1583 yilga qadar yuqorida eslatilgan to'rtta yirik shaharda Iskandarxon nomidagi bir xil vazn va qiymatga ega bo'lgan kumush tangalar zarb etiladi. 1560 yildan keyingi 1583 yilgacha bo'lgan davr Abdullaxon II ning ko'plab jangu-jadallar davri bo'lib, bu yurishlar va o'zaro kurashlar katta mablag' talab etar edi. Shuning uchun ham Abdullaxonga ham, uning raqiblariga ham katta miqdordagi pul zarur edi.⁷²

1583 yilda otasi vafotidan so'ng oliy hukmdor bo'lgan Abdullaxon II o'z pul islohotining so'nggi qismini amalga oshirdi. YA'ni, u kumush tangalar zarb etishni o'z poytaxti Buxoroda markazlashtirdi. Buxoroda Abdullaxon II nomidan har yili ko'p miqdorda kumush tangalar zarb etildi. Balx, Samarqand va Toshkentda esa tanga zarb etish keskin kamaytirildi.

⁷² Эшов Б. Узбекисгонда давлат ва махаллий бошқарув тарихи. Т. 2012. 250-б

Shuningdek, Abdullaxon II shahar savdosidagi kundalik ehtiyoj mahsulotlari uchun mis tangalar zarb etishni yoʻlga qoʻydi.

Shayboniylar oʻtkazgan pul islohotlari orasida Abdullaxon II ning islohati nisbatan muvaffaqiyatli boʻlib, bu islohot pul muomalasi inqiroziga barham berdi, kumushning davlat hududlaridan koʻplab chiqib ketishini toʻxtatdi, xususiy metalni yana zarbxonalarga jalb etdi. Abdullaxon II (1557-1598) kuchli Shayboniylar davlatini qayta tiklashni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan edi. Toshkent hokimlari, Hisor amirlari, Samarqand sultonlari bilan toʻxtovsiz urushlar olib bordilar. Abdullaxon II davrida Buxoro uzil-kesil poytaxtga aylandi, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari jonlandi, biroq tinimsiz urushlar davom etaverdi. Jumladan, 1573 yilda Fargʻona, 1574 yilda Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlari, 1578 yilda Samarqand bosib olindi. 1582 yili Toshkent shahri va ShohruxiY. Sayram, Ohangaron kabi qalʼalar taslim boʻldi. 1583 yili Balx egallandi. Xuroson boʻysundirildi.⁷³

Pul islohotini bosqichma-bosqich oʻtkazgan Abdullaxon II oltin, kumush, mis pullarni otasi nomidan (1560-1583) chiqarganda mamlakatdagi bir qancha shaharlarda pul zarb qilingan boʻlsa, mustaqil hokimiyatni boshqargan yillarida (1583-1598), asosan, Buxoroda markazlashgan pul zarb qilishni yoʻlga qoʻydi. Manbalarga qaraganda, Abdullaxon II baʼzan Balx, Samarqand hamda Toshkentda kam miqdorda pul chiqarishga ruxsat bergan.⁷⁴

Abdullaxon II oʻtkazgan pul islohotlarining asosiy maqsadi kumush tanganing qiymatini koʻtarishga qaratilgan boʻlib, otasi Iskandar sulton nomidan zarb ettirilgan yangi bir kumsh tanga – yaʼni, bir dinor 30 mis tangaga tenglashtirilgan boʻlsa, avvalgi kumush tangalar 27 mis tangaga teng holda muomalada qoldirildi⁷⁵.

Muvaffaqiyatli oʻtkazilgan ushbu islohot Abdullaxon II ichki siyosatining bir qismi boʻlib, tranzit, halqaro va ichki shahar savdosining taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, Buxoro xonligi tangalarining ichki va tashqi savdodagi qadrini oshirish bilan birga kumushning tashqariga chiqib ketishining oldini oldi va mamlakat

⁷³ Каримова М. Узбекистон тарихи. Фарғона. 2010. 91-б.

⁷⁴ Бобожонова Д.Б., Жураева Н., Бобожонова Н. ва бошқ. Узбекистон тарихи. Т. 2011. 195-б.

⁷⁵ История Узбекистана (XVI- первая половина XIXв.).Т."Фан". 2012. 165-б.

xazinasiga kirimning oshishiga olib keldi.⁷⁶

XVI asrning 60-yillaridan Buxoro xonligi deb atalgan davlatning chegaralari Qashqardan Orol va Kaspiy dengiz sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan sharqiy qismigacha bo'lgan yerlarni tashkil etardi. Umrining so'nggi yillarida u Xorazm hukmdorlari bilan olib borilgan qiyin urushlardan keyin 1595 yilda muvaffaqiyat qozonishga erishdi. Uning vafotidan keyin o'g'li Abdulmo'min uzoq vaqt hokimiyatni saqlab qololmadi. Undan keyin hokimiyatga kelgan Pirmuhammad ham 1601 yili taxtdan ag'darildi. Shu bilan qariyb bir asr hukm surgan Shayboniylar sulolasi barham topdi va Movarounnahrda Ashtarxoniylar sulolasi davri boshlandi.

Shayboniylar davlatida qishloq xo'jaligi va sug'orish ishlari.

Mamlakatda tez-tez sodir bo'ladigan o'zaro ichki urushlarga qaramasdan XV asrda ham Movarounnahr va Xurosonning shahar va qishloqlarida birmuncha obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Mavjud sug'orish tarmoqlarini ta'minlash va kengaytirish hamda yangi ariqlar qazilib, obodonlashtirish ishlariga ma'lum darajada ahamiyat beradi. Dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tartibga solinadi. Dashtlarga suv chiqarilib, yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi. Bu borada xususiy sahibkorlarning dasht joylariga yangi yerlarni ochish kanallar qazib bog'lar barpo qilish, qarovsiz qolgan tashlandiq yerlarni sug'orib obod etish uchun amalga oshirilgan har qanday faoliyat temuriylar tomonidan qo'llab-kuvvatlanadi. Hatto bunday sahibkorlar bir ikki yil davomida hamma soliq va to'lovlardan ozod etilgan.

Dehqonchilik haqida so'z yuritganda, odatdagidek, avvalo sug'orish ishlari qay darajada yo'lga qo'yilganini aytish joiz. Bu borada shayboniydar davrida ham bir qator tadbirlar amalga oshirilgani ma'lum. Bunda sug'orish ishlarida tabiiy tayanch bo'lib kelgan an'anaviy manbalar — Zarafshon, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh, Murg'ob daryolari imkoniyatlaridan foydalanilgani ham, shubhasiz. Masalan, «Mehmonnomayi Buxoro» muallifi Sirdaryo daryosi imkonlari haqida so'z yuritar ekan, bu daryoning kechuv joylaridan, irmoqlaridan ko'plab katta anhorlar qazilgani va ular suvi bilan atrofdagi ekinzorlar

⁷⁶ Ўша жойда.

sugʻorilganini alohida taʼkidlaydi. Ayniqsa, Sigʻnoq atrofini obodonlashtirishda bu yaqqol koʻrsatilgan⁷⁷.

Mazkur muallif Fazlulloh ibn Roʻzbixonga homiylik qilgan Muhammad Shayboniyxon 1502 yili Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayirilish yerida koʻprik — suv ayirgichini bino qildirganini bilamiz. Umuman olganda, Muhammad Shayboniyxon hukmronlik yillari va hatto uning oʻlimidan soʻng mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik yillarida ham sunʼiy sugʻorish ishlarining ahamiyati yoʻqolmagan. Buni biz XVI asrning yigirmanchi yillarida tuzilgan vaqfnomalardan birida keltirilgan maʼlumotlar orqali koʻrishimiz mumkin. Chunonchi, birgina Kesh viloyatida Qashqadaryo irmoqlari boʻlmish Surxob, Rudakdan atrof qishloqtarga qazilgan oʻndan ortiq kanallar ishlab turgani maʼlum⁷⁸.

Shayboniylar, xususan Abdullaxon II davrida dehqonchilik ishlarini rivojlantirishga ahamiyat berildi. Zarafshon, Sirdaryo, Amudaryo, Chirchiq, Vaxsh, Murgʻob daryolari boʻylarida koʻplab kanallar, anhorlar, ariqlar qazilib, atrofdagi yerlarga suv chiqarilgan, yangi ekinzorlar va bogʻlar barpo etilgan. Birgina Qashqadaryo boʻylaridagi yerlarga suv chiqaruvchi oʻndan ortiq kanallar qazilganligi va ishlab turganligi maʼlum. Abdullaxon II davrida qurilgan Zarafshon daryosidagi Karmana, Mehtar Qosim, Chahor-minor, Jondor koʻprik-suv ayirgʻichlari, Sangzar daryosidagi Tuyatortar kanali, Amudaryo-Chorjoʻy kanali, Toshkeng viloyatidagi Zahariq, Nurota togʻlari suvlarini toʻplovchi Oqchob va Band suv omborlari yirik inshootlardan edi. Bu tadbirlar gʻallachilik, paxtachilik, polizchilik, bogʻdorchilik, uzumchilik kabi sohalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega boʻldi.⁷⁹

Iqtisodiy hayotda suʼniy sugʻorish asosiy rol oʻynaganligi sababli shayboniylar davrida suv inshootlari qurilishiga ancha eʼtibor berildi. 1502 yilda Zarafshon daryosida qurilgan suv ayirgʻich, 1556-1585 yillarda Qashqadaryo, Zarafshon, Amudaryo, Murgʻob va Vaxsh daryolaridan chiqarilgan kanallar, suv ayirgʻich va suv omborlari buning yaqqol misoli

⁷⁷ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.Шарк. 2000. 248-249-бб.

⁷⁸ Мукминова Р. Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. Вакфнаме. Ташкент, 1966, с. 288.

⁷⁹ Ўзбекистон тарихи. Самарқанд. 2009. 83-б.

bo‘la oladi.⁸⁰

Lekin sun‘iy sug‘orish ishlari XVI asrda gurkiragan payt bu Abdullaxon II zamoniga to‘g‘ri keladi. Fikrimiz isboti sifatida 1582 yili Zarafshon daryosida qurilgan Karmana ko‘prigi (Puli Karmana) - suv ayirgichi, 1583 yili Nurota tog‘larida qurilgan Okjob suv ombori, Zarafshon daryosi suvini tegishli hududlarga taqsimlashda katta ahamiyat kasb etgan Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor ko‘prik — suv ayirgichlari, Zarafshon daryosidan Jizzax vohasshacha tortilgan va Sangzar daryosi bilan tutashuvchi Tuyatortar kanali, Murg‘ob vohasidagi Hovuzixon suv ombori, 1556-1557 yillari qurilgan va Samanjiq dashtini obodonlashtirishda katta ahamiyat kasb etgan Xoja Kaab kanali, 1559-1560 yillari bunyod etilgan Afshona kanali, 1568-1569 yillarda Amudaryodan Chorjo‘ygacha tortilgan, Murg‘ob daryosidan Marv atrofiga chiqazilgan kanallar, 1577-1579 yillari amalga oshirilgan Hisor va Romiton, 1579-1585 yillari Vaxsh daryosidan qazilgan sun‘iy sug‘orish inshootlari kabilarni keltirishimiz mumkin.⁸¹

Chunonchi, hujjatlarga ko‘ra, ana shunday tadbirlarda o‘n minglab mardikorlar qatnashgan. Bular, albatta, yirik suv inshootlaridir. Ulardan tashqari mahalliy ahamiyatga molik anhorlar, arikdar qazish, ularni tozalash (masalan, Toshkent viloyatdagi Zax ariq), sardobalar qurish kabi tadbirlar ham doimo amalga oshirib borilganini nazarda tutish lozim. Sug‘orish ishlarining yo‘lga qo‘yilgani tabiiy ravishda g‘allachilik, paxtachilik, polizchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, ipakchilik kabi sohalarning rivojlanib borishiga yo‘l ochib berdi.

Shayboniylar davlatida yer egaligi va soliqlar. Barcha turkiy xalqlarda bo‘lgani kabi shayboniylar davlatida ham hokimiyat masalasi, qo‘shinlarning tuzilishi masalalarida odat huquqlari nisbatan ustunroq bo‘lgan. Ushbu davlat tashkil topgan dastlabki davrda unda asosan Abulxayrxon davlatining tuzilishi hamda an‘analari saqlanib qolindi. Undan tashqari yer-mulk masalasida temuriylar davlatida shakllangan xizmat evaziga yer-mulk in‘om qilish shakllaridan shayboniylar davlatida ham qo‘llanilgan. Tadqiqotchilarning xulosalariga ko‘ra bu davrda Buxoro

⁸⁰ Topildiyev N.Kamolov I. O‘zbekiston tarixi. Наманган. 2006. 245-6

⁸¹ Ўша жойда.

xonligida yer huquqi masalalarida: davlatga qarashli yerlar, ushr yerlari, xurri xoris yerlar, vaqf yerlari, xon va amaldorlarga tegishli yerlar, qo‘chmanchi qabila va urug‘larga tegishli yerlar, suyurg‘ol yerlari, tanho yerlar hamda tarxonlik yerlari mavjud bo‘lgan.⁸²

Iqto atamasi XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab garchi muomaladan chiqib, o‘z o‘rnini turkiycha “suyurg‘ol” atamasiga bo‘shatib bergan bo‘lsa-da, shayboniylar davri ayrim manbalari va hujjatlarida “Iqto” atamasini uchratish mumkin. Chunki, iqto, suyurg‘ol, tanho atamaları va shu shakldagi yer mulki huquqining mazmuni bir-biriga deyarli yaqin bo‘lgan. YA’ni, bunday yer mulklari davlat oldidagi ma’lum bir xizmatlari uchun ma’lum hadya yoki in’om ma’nosini anglatgan.

Suyurg‘ol shayboniylar davrida ham keng qo‘llanilgan bo‘lib, shahzodalar, yirik zodagonlar va nufuzli din peshvolariga ma’lum shart va imtiyozlar asosida berilgan yer mulki bo‘lib, u nasldan naslga o‘tgan. Suyurg‘ol egasi davlatga to‘lanadigan soliqlardan ozod qilingan bo‘lib, o‘z suyurg‘olidan oladigan daromaddan o‘z ixtiyoricha foydalangan. Bunday imtiyozli suyurg‘ol “darubast suyurg‘ol” deb atalgan.⁸³

Shayboniylar davlatida jamiyat hayotida, davlat boshqaruvdagi tutgan o‘rni va mavqeiga asosan bir nechta ijtimoiy tabaqalar mavjud edi: xon va uning yaqinlaridan iborat oliy tabaqa, harbiy amaldorlar yoki umaro, yirik din peshvolari — shayxlar, xojalar, olimlar, shoirlar kabilardan iborat fozillar, raiyat ya’ni oddiy fuqaro va kisman qullar.⁸⁴

Shayboniylarda ham iqtisodiyotning asosini qishloq xo‘jaligi, savdo-sotiq, hunarmandchilik tashkil etardi. Mamlakatning asosiy boyligi yer bo‘lib, unga egalik shakli quyidagilardan iborat edi:

1. Mulki sultoniy — davlatga qarashli yerlar.
2. Mulki holis — hususiy shaxslarga qarashli yerlar.
3. Vaqf — diniy mahkamalarga qarashli yerlar.
4. Qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar⁸⁵.

⁸² Эшов Б. Узбекисгонда давлат ва махаллий бошқарув тарихи. 244-б.

⁸³ Ўша жойда.

⁸⁴ Ватан тарихи. 36-38-бб.

⁸⁵ Сагдуллаев А.С. ва бошқ ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т. Академия. 2000. 162-б.

Muhammad Shayboniyxon davrida xonlik maqomiga ega bo'lgan bu o'lkada ushbu sulola hukmronligi paytida soliq tizimida bir qancha o'zgarishlar yuz beradi. Muhammad Shayboniyxonning markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun amalga oshirgan ba'zi chora tadbirlari, beklarning kuchayishi va o'zaro kurashlariga ham sabab bo'ldi. Masalan, davlat boshqaruvi sohasida suyurg'ol tizimining joriy etilib, bosib olgan hududlarda boshqaruv ishining farzandlari, qarindosh-urug'lari, qabila boshliqlariga topshirilishi uning vafotidan keyin markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intilishlarni kuchaytirdi. Mamlakat xo'jaligini tiklash uchun bo'sh yotgan yerlar, vafot etgan yoki soliqlar og'irligidan ko'chib ketgan mahalliy mulkdorlar yerlari qayta taqsimlandi. Bu esa ijtimoiy hayotni tartibga solishga yordam berdi.⁸⁶

Xonlik iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qishloq xo'jaligi, savdosotiq va hunarmandchilik bo'lib, yer asosiy boylik hisoblangan. Shayboniylar davrida mulkiy munosabatlarda aytarlik o'zgarishlar yuz bermadi. Dashti qipchoqdan kelgan o'zbeklar yer egaligi munosabatlarini boshidan kechirayotgan bo'lib, ular Movaraunnahrga yangi ishlab chiqarish munosabatlarini olib kelganlari yo'q, balki temuriylar davrida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy tizimni qabul qildilar hamda unga moslashdilar.

Buxoro xonligida iqtisodiy hayot bu davrda birmuncha og'ir bo'lib, bunga to'xtovsiz urushlar va taxtda o'tirgan aksariyat xonlar va amirlarning mukammal iqtisodiy va siyosiy boshqaruvni ta'minlamaganligi sabab bo'lgan. XVII-XVIII asrlarda moliya tizimini asosini Buxoroda arablar istilosidan beri saqlanib kelayotgan hiroj - hosilning 5/1 dan 3/1 qismigacha bo'lgan miqdorda yer solig'i hamda ushr - daromadning o'ndan biri - tashkil etgan.⁸⁷

Yer egaligining mulki sultoniy (davlat yerlari), mulki xolis (xususiy yerlar), vaqf (diniy mahkamalarga qarashli yerlar) va qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar kabi asosiy turlari bo'lib, ular iqto, suyurg'ol, tanho va jogir ko'rinishida bo'lgan. Davlat oldidagi xizmatlari uchun harbiy-ma'muriy amaldorlarga va yirik din arboblari beriladigan bunday

⁸⁶ Topildiyev N.Kamolov I. O'zbekiston tarixi. 244-6

⁸⁷<https://jenubiturkistan.wordpress.com/2011/02/28/turkistonning-xonliklarga-bo'linib-ketishi-uning-sabablari-va-oqibatlarini/>

yerlarda yersiz dehqonlar ishlaganlar. Ular ham davlatga, ham amaldorga soliq to‘laganlar. Shayboniylar davrida chorvachilik va hunarmandchilik ancha rivojlangan bo‘lib, ular yetishtirgan mahsulot ichki va tashqi bozorlarda sotilgan. Hindiston, Eron, Rossiya kabi mamlakatlar bilan savdo-sotiq qilingan.⁸⁸

Shayboniylar davrida 40 dan ortiq soliq va to‘lovlar bo‘lib, xiroj va zakotdan tashqari, tagjoy jizya, ixrojat, tog‘ar, ulufa, qo‘nalg‘a, begar, madadi lashkar, boj, tuhfa kabi nomlar bilan atalgan soliq turlari va yasoq deb ataluvchi majburiyatlar bo‘lgan. Soliq to‘lovchi aholi fuqaro (ra‘iyat) deb atalgan. Jo‘ybor shayxlari kabi yirik ulamolar, din peshvolari barcha soliqlardan ozod qilingan. Oliy tabaqaga xon va uning yaqinlari kirgan. Harbiy-ma‘muriy boshqaruv tizimidagi amaldorlar umaro, olim va shoirlar fuzalo deb atalganlar, bundan tashqari yana shayboniylar davrida qullar ham bo‘lgan.⁸⁹

Yerdan olinadigan asosiy soliq xiroj bo‘lib, u ishlab chiqarilgan mahsulotning beshdan biri miqdorida pul yoki mahsulot shaklida olingan. Zakot solig‘i savdogarlar va chorvadorlardan olinib, uning hajmi umumiy daromadning qirqdan biri miqdorida bo‘lgan.⁹⁰

Shahar aholisi – hunarmand va do‘kondorlar maxsus soliq – tamg‘a to‘lagan. Undan tashqari, yirik boy va sudxo‘rlarga tegishli savdo rastasida do‘konlarni ijaraga olib, o‘z buyumlarini sotgani uchun taxti joy (tagjoy) deb ataluvchi soliq to‘lagan. Boshqa dinga (xristian, yahudiy, buddiy) mansub savdogarlar o‘z mahsulotining beshdan bir qismini juzya solig‘i tarzida to‘lagan⁹¹.

Manbalarga ko‘ra bu davrda yana ixrojat, tog‘ar, ulufa, qo‘nalg‘a, begar, madadi lashkar, boj, tansuqot, tuhfa singari soliqlar bo‘lib, ularning ko‘pchiligi o‘rta asrlarga xos edi. Raiyat soliq to‘lashdan tashqari, turli ishlarga (mudofaa insho-otlarini qurish, sug‘orish tarmoqlarini tiklash yumushlariga) safarbar etilgan.

Shayboniy xonlari tomonidan Movarounnahrda bir qator sohalarda islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar qisman ijobiy natijalar bersa,

⁸⁸ Topildiyev N.Kamolov I.O‘zbekiston tarixi.245-6

⁸⁹ Ўша жойда.

⁹⁰ SH Karimov, R.SHamsutdinov, O‘.Ubaydullayev “Vatan tarixi” T- 2010 39-41-66.

⁹¹ Ўша жойда

ayrimlari davlatning zaiflashuviga olib keldi. Shayboniyxon tomonidan joriy etilgan suyurgʻol tizimi eng yaxshi hizmat koʻrsatgan va Shayboniyxonga yaqin boʻlgan amaldorlar yoki xon xonadoni vakillariga turli viloyatlar ustidan hukmronlik qilishga imkon bersada, biroq ular markaziy hokimiyatdan mustaqil boʻlishga intildilar va oqibatda bu hol ichki kurashlarni keltirib chiqardi. Bu salbiy holat Shayboniyxonning Ismoil Safaviydan magʻlubiyatga uchrashida ham taʼsir koʻrsatgan edi. Shuningdek, Shayboniyxon 1507 yilda pul islohoti, keyinchalik yer egaligi va yer-suv sohasida, taʼlim sohasida ham islohotlar oʻtkazgan edi⁹².

Maʼlumotlar bu soliqlarning hammasi qaysi formada natura yoki pul formasida olinganini aniqlashga imkon bermaydi, lekin baʼzi bir manbalarda koʻrsatilgan maʼlumotlarga qaraganda XVI-XVII asrlarda ham pul, ham natura bilan aralash soliq olish tartibi boʻlgan. Baʼzi bir ishlab berish formalari, masalan, mehnat majburiyati tariqasida shahar qalʼalarga devor olish va tuzatish kanal va ariqlar qazish kabi ishlar ham shunga kirgan, degan huloa chiqarish mumkin. Har xil oʻtkinchi elchilar va amaldorlarga tunash uchun joy, ot-arava va oziq-ovqat berishi (qoʻnalgʻa, boshqacha qilib aytganda “qoʻra qoʻnoq”) ham natural majburiyatga kitish lozim. Davlat yerlari dehqonlarga muddatsiz merosiy foydalanishga ijara sifatida berilgan. Darubast sifatida mulk va yer berish, Abdullaxon II davrida ayniqsa rivojlanib, u oʻzining pirlari Xoja Islom va uning avlodlaridan Xoja Saaʼdga hamda boshqa Joʻybor xojalariga butun-butun bosib olingan viloyatlarni darubast sifatida hadya qilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, ushbu mulk merosiy suyurgʻol (hadya) boʻlib, u barcha soliqlardan ozod qilish haqidagi imtiyozlar bilan birga vorislikka qoldirish huquqi bilan berilgan yer va boshqa mulklardan iborat boʻlgan.

Joʻybor xojalarining Buxoro, Samarqand, Nasaf (Qarshi), Marv va boshqa viloyatlarda katta yer maydonlari boʻlib, bu mulklar meros tariqasida avloddan avlodga oʻtgan va barcha soliqlardan ozod etilgan. Xonlar va boshqa yirik amaldorlar tomonidan ularga hadya etilgan yer mulklaridan tashqari ular Movarounnahr va Xurosonning serunum yaylovlariga, behisob podalarga, katta shaharlarda joylashgan oʻz

⁹² Ўзбекистон тарихи. Т. Академия, 2005. 103-104-66.

hunarmandchilik do‘konlariga, savdo rastalariga, tegirmonlar, hammom va karvonsaroylardan keladigan daromadlarga ham ega bo‘lganlar.⁹³

Jo‘ybor xojalaridan Islomxoja va uning ikki avlodiga aloqador hujjatlardan ma‘lum bo‘ladiki, Iskandarxon, shuningdek, uning o‘g‘li Abdullaxon II Islomxojani o‘zlarining diniy pirlari deb bilganlar. 1557 yilda Abdullaxon II Buxoroni qo‘lga kiritishida Islomxoja uni quvvatlab turadi. Shu tufayli Juybor xonlari Shayboniylar davrida juda katta mulkdorlarga aylanadilar. Jumladan, Islomxojaning Buxoro, Miyonkol, Qarshi va Qorako‘lda, Marvda 300 qo‘sh ho‘kiz haydaydigan yerlari (P.P.Ivanovning fikriga ko‘ra, 1 qo‘sh haydaydigan yer 50 tanobga teng) yoki jami 15000 tanob⁹⁴ yeri, 10000 qo‘yi, 700 oti, 500 tuyasi hamda 7000 ashrafi puli, 104 savdo do‘konlari va ustaxonalari, 7 tegirmoni bo‘lgan⁹⁵.

Shayboniylar davlati ijtimoiy - iqtisodiy hayotida Buxoro yaqinidagi Jo‘ybor qishlog‘idan chiqqan Jo‘ybor xojalari katta ta‘sirga ega edi. Ular siyosiy hokimiyat boshqaruv ishlariga ta‘sir ko‘rsatish bilan birga katta yer-mulklariga ham egalik qilardilar. Kattadan-katta boyliklarga ega bo‘lgan Jo‘ybor shayxlari o‘z xususiy yerlaridan tashqari vaqf yerlardan keladigan daromadni ham nazorat qilganlar. Xojalarning davlat ishlaridagi mavqei shunchalik kuchli ediki, ular hatto, amaldorlarni yuqori mansablarga tayinlash yoki chetlatishda ham katta ta‘sirga ega bo‘lganlar.⁹⁶

Bu holat ashtarxoniylar davrida ham davom etdi. XVIII asr boshlarida ashtarxoniylar davrida mamlakatda iqtisodiy tanglik yuzaga kelgan vaqtda Ubaydullaxon II tomonidan Jo‘ybor xojalari soliqlar va moliyaviy sohadagi bir qator imtiyozlaridan mahrum etilib, soliq to‘lashga majbur etildi⁹⁷.

Shayboniylar davrida amalga oshirilgan islohotlardan biri qarovsiz yotgan yerlarni o‘zlashtirishga ham qaratilgan edi. Chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Dehqonchilik asosan lalmikor va obikor -

⁹³ Эшов Б. О‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi . 244-б.

⁹⁴ Ўрта асрларда экин майдонларини ўлчаш учун ишлатилган юза бирлиги. Таноб турли ерда турлича бўлган. 1 таноб ер майдони 8,33 сотих. Хонликлар даврида 1 гектар ер 12 танобни ташкил этган.

⁹⁵ Муқимов Зиёдулла. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Т.: “Адолат”, 2003. 202-б.

⁹⁶ Ўша жойда.

⁹⁷ Бобожонова Д.Б., Жураева Н., Бобожонова Н. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. Т. 2011. 198-б.

sugʻoriladigan yerlarda boʻlgan. Bugʻdoyning oʻn ikki navi yetishtirilgan va boshqa anʻanaviy ekinlar ekilgan. Dehqonchilik uchun qulay boʻlgan va hosildor yerlar yirik amaldorlar va harbiylar hamda din peshvolariga qarashli boʻlgan. Hunarmandchilikning 60 dan oshiq turi mavjud boʻlgan. Ichki savdoga katta eʼtibor berilgan. Tashqi savdoda Turkiya, Eron, Hindiston, Rossiya, Xitoy kabi davlatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan. 1588 yilda Buxoroda boʻlgan ingliz sayyohi Antoni Jenkinson ham oʻz maʼlumotlarida Buxoro shahrida har yili yirik savdogarlar qurultoyi boʻlishi, bu yerga Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa mamlakatlardan katta-katga savdo karvonlari kelishini yozib qoldirgan edi.

Yuqoridagilarga xulosa sifatida aytish kerakki, Dashti Kipchoqda XV asr oxiri-XVI asr boshlaridagi siyosiy jarayonlar bu hududlarda siyosiy kuchlarning birlashuvi va siyosiy hokimiyatning markazlashuviga olib kelgan boʻlsa, ayni vaqtda Temuriylar davlatidagi siyosiy parokandalik davlatning parchalanishi va siyosiy boshqaruvning izdan chiqishiga olib keldi. Bu vaqtda Dashti Qipchoqdagi siyosiy kuchlarni birlashtira olgan Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrda, keyinchalik Xurosonda ham oʻz hukmronligini oʻrnatishga erisha oldi. Garchi Muhammad Shayboniyxonning hukmronligi uzoq davom etmagan boʻlsada, uning amalga oshirgan siyosiy va davlat boshqaruvi sohasidagi, iqtisodiy va maorif sohalaridagi amalga oshirgan bir qator islohotlari Shayboniylar sulolasining hokimiyat tepasida mustahkamlanib olishi va oʻz davlatchiligiga asos solishini taʼminlab berdi. XVI asr davomida Buxoro xonligida hukm surgan Shayboniylar sulolasi oʻzbek davlatchiligi tarixida oʻzining siyosiy tarixi, davlat boshqaruvidagi oʻziga xosliklar, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi taraqqiyotga qoʻshgan hissasi bilan alohida oʻrin tutadi.

**Tayanch
soʻzlar:**

Dashti Qipchoq, Koʻk Oʻrda, Oq Oʻrda, Oltin Oʻrda, siyosiy kurashlar, Abulxayrxon, Shaybon ulusi, Joʻybor xojalari, islohot, iqto, suyurgʻol, tanho, jogir, mulki sultoni, mulki xolis

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Dashti Kipchoqda XV asr oxiri-XVI asr boshlaridagi siyosiy jarayonlar?
2. Dashti Kipchoqda o'zbeklar davlatining tashkil topishi jarayonlari?
3. Shayboniyxon tomonidan Movarounnahrning zabt etilishi?
4. Shayboniylar hukmronligi davrida Movarounnahrda siyosiy jarayonlarning eng muhim jihatlari?
5. Shayboniylar davlati markaziy boshqaruvi tizimini sharhlang?
6. Shayboniylar davlati mahalliy boshqaruvi tizimini sharhlang?
7. Shayboniylar davrida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar haqida ma'lumot bering?
8. Shayboniylar davlatida qishloq xo'jaligi ?
9. Shayboniylar davlatida sug'orish ishlari qay tarzda tashkil etilgan?
10. Shayboniylar davlatida yer egaligi shakllarini ayting?
11. Shayboniylar davlatida soliqlar va ularning turlari haqida ma'lumot bering?

ASHTARXONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA MOVAROUNNAHR

- ❖ **Ashtarxoniylar davri tarixiga oid manbalar tavsifi**
- ❖ **Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyatga kelishi va davlat boshqaruvi**
- ❖ **Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida boshqaruv tizimi**
- ❖ **Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida qishloq xo‘jaligi va sug‘orish ishlari**
- ❖ **Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida hunarmandchilik**
- ❖ **Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida qishloq xo‘jaligi, yer egaligi va soliqlar**
- ❖ **Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar**
- ❖ **Buxoro xonligi savdo aloqalari.**

Ashtarxoniylar davri tarixiga oid manbalar tavsifi.

Ashtarxoniylar hukmronligi davriga oid yozma manbalar ichida Maxmud ibn Vali (1595-1640) ning «Baxr ul asror fi manokib ul axyor» (Olijanob kishilarning shon shavkati haqida sirlar dengizi), Mir Muhammad amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad Yusuf ibn Xoja Baqo - Muhammad Yusuf Munshining «Tarixiy Muqimxoniy», asli nasaflik Muhammad Baqoxoja - Xo‘ja Samandar Termiziyning «Dastur al Mulk», Abulg‘ozi Bahodurxonning «Shajarai Turk»⁹⁸, Muhammad Amin Buxoriyning «Muhit ut tavorix», Muhammad Vafo Karmanagiyning «Tuhfat ul xoniy», Abdurahmon Tole’ (Abdurahmon Davlat) ning «Tarixi Abulfayzxon»⁹⁹ asarlari muhim tarixiy manbalar hisoblanadi.

Maxmud ibn Valining «Bahr ul-asror» asari 1634-1640 yil-lar orasida yozilgan bo‘lib, yetti jilddan iborat bo‘lgan va uning 2-7 - jildlarida bayon qilingan tarixiy voqealar orasida Ashtarxoniylar davri tarixiga ham oid ko‘plab qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Jumladan, «Bahr ul-asror» asarining 6-jildida XIII-XVII asrning birinchi yarmida Chig‘atoy ulusi (O‘rta Osiyo, Mo‘g‘uliston, Shimoliy Afg‘oniston) tarixi keng va atroflicha yoritilgan¹⁰⁰.

⁹⁸ Абулғози Баходурхон. Шажараи турк. Т.г Чўлпон 1990.

⁹⁹ Абдурахмон Толеъ. История Абулфайзхана. Т.г «Фан» 1959

¹⁰⁰ Қаранг: Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т.: “Ўқитувчи”, 2001. 222-224-бб.

Bu asarlar orasida Muhammad Yusuf ibn Xoja Baqo -Muhammad Yusuf Munshining «Tarixiy Muqimxoniy» asari alohida e'tiborga loyiqdir. Ashtarxoniy davri tarixini yorituvchi muhim manba “Tarixi Muqimxoniy” asarining muallifi Muhammad Yusuf ibn Xoja Baqo bo‘lib, u o‘z davrining yetuk bilimli kishilaridan edi. Muallif ashtarxoniy hukmdorlardan Subhonquli-xon va Muhammad Muqimxonning saroyida munshiy lavozimida xizmat qilgan. Faktik ma’lumotlarga to‘liq bu asarda ashtarxoniy hukmdorlarning Balxga nisbatan tutgan siyosati ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, asarda ashtarxoniy hukmdorlarning turk sultonlari, eron shohlari, boburiylar hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik munosabatlari yoritilgan. Bunday ma’lumotlar shu davrni yorituvchi boshqa manbalarda uchrasa ham biroq, “Tarixi Muqimxoniy” asarida berilganligi singari to‘liq va mukammal emas¹⁰¹. Asarda shu davr tashqi siyosiy aloqalari, xalqaro maydondagi siyosiy vaziyat, shuningdek, Usmoniylar sultoni Ahmad II (1691-1695 yy) ning Buxoro xoni Subxonqulixon nomiga yozgan maktubining to‘liq nusxasi ham keltirib o‘tilgan¹⁰².

Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” asarida Buxoro xonligining 1702-1716 yillar orasidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayoti haqida o‘ta qimmatli ma’lumotlardan iborat mukammal tarix yozib qoldirilgan. Asarda Buxoro xonligining ma’muriy tuzilishi, siyosiy tarqoqlikning kuchayib borishi va markaziy hokimiyatning zaiflashib borishi sabablari, mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiy muammolar va ularning yuzaga kelishi sabablari va ularning oqibatlari kabi masalalarning bayoniga keng o‘rin berilgan, shuningdek, Buxoro xonligining etnografiyasi va geografiyasiga oid ham ko‘plab qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirilgan¹⁰³.

Bu asarlar bilan bir qatorda 1605 yilda yozilgan Muhammadyor ibn Arab qalamiga mansub «Musaxxir ul-bilod» (mamlakatlar fatxi), 1569 yilda yozilgan. Sulton Muhammad Balxiy qalamiga mansub «Majma’ul g‘aroyib», 1616-1629 yillarda yozilgan Iskandarbek munshiy

¹⁰¹ Сангилова Д. “Тарихи Муқимхоний” асарида аштархонийлар даври ташқи сиёсатининг ёритилиши.

¹⁰² Ўша жойда.

¹⁰³ Қаранг: Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т.: “Ўқитувчи”, 2001. 225-227-бб.

qalamiga mansub «Tarixi olamaroyi Abbosiy» asarlarida Buxoro xonligining Ashtarxoniylar sulolasi davridagi tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalari tarixiga oid ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Iskandarbek Munshiy qalamiga mansub «Tarixi olamaroyi Abbosiy» asari Eron tarixiga bag'ishlangan bo'lib, uning tarixi 1588-1634 yillardagi jarayonlar tahlili bilan xronologik tartibda bayon etilgan. Bu asardan ko'rsatilgan davrda Eron va Buxoro xonligi o'rtasidagi siyosiy munosabatlar tarixiga oid ham ko'pgina ma'lumotlar o'rin olgan¹⁰⁴.

Jo'ybor shayxlari tarjimai holidan iborat, Jo'ybor xojalaridan Tojiddin Xasanning o'g'li Abulabbos Muhammad Tolib Siddiqiy tomonidan 1663 yilda yozilgan «Matlab ul tolibin», Ashtarxoniylar sulolasiga mansub shahzoda Hoja Mirmuhammad Salim tomonidan 1730 yilda yozilgan, hozirda yagona hisoblangan nusxasi Buyuk Britaniyadagi Bodleyan kutub-xonasida saqlanayotgan «Silsilat us salotin»¹⁰⁵ kabi asarlari ham ashtarxoniylar davri tarixi, siyosiy va iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotini o'rganishda katta yordam beruvchi asarlar va muhim tarixiy manbalar hisoblanadi.

Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyatga kelishi va davlat boshqaruvi. 1601 yildan e'tiboran Buxoro xonligida hokimiyat ashtarxoniylar (Joniyalar) sulolasi qo'liga o'tadi. Buxoro xonligi tarixida yangi sulola - ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi boshlanib, 150 yil davomida mamlakat shu sulola tomonidan boshqariladi¹⁰⁶. Ashtarxoniylar Jo'chining o'n uchinchi o'g'li To'qay Temur avlodidan bo'lib, XV asrning 80 - yillaridan boshlab Astraxan (Xoji tarxon) da hukmronlik qilganlar. Bu shahar Moskva podshosi Ivan IV (Grozniy) tomonidan 1556 yilda egallangach, sulola yetakchisi Yor Muhammad o'z yaqinlari bilan Buxoroga kelib joylashadi. Buxoro xoni Iskandarxon tomonidan iliq kutib olingan Yormuhammadxonning o'gli Jonibek sulton tez orada xonning qizi Zuhro begimga uylanadi va shu tariqa Ashtar-xoniylar (Xoji tarxonliklar) Shayboniylar bilan yaqin qarindosh bo'lib qoladilar. Jonibek sulton va uning o'g'illari (Dinmuhammad, Boqi Muhammad,

¹⁰⁴ Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т.: «Ўқитувчи», 2001. 221-222-бб.

¹⁰⁵ Қаранг: Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т.: «Ўқитувчи», 2001

¹⁰⁶ Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т., «Ўқитувчи», 1994. 193-195-бетлар.

Vali Muhammad) Abdullaxon II hukmronligi yillarida yuksak mavqelarga ega bo'lgan edilar. Abdullaxon II o'limidan so'ng taxt uchun bo'lgan kurashlarda Shayboniylar oilasidan taxtga da'vogarlik qilishi mumkin bo'lganlarning deyarli barchasi butunlay qirilib ketadi. Abdullaxonning yagona o'g'li Abdulmo'min (1598), undan keyin taxtga chiqarilgan Pirmuhammad ham 1601 yilgacha taxtni boshqara-di. Natijada yirik o'zbek qabilalari boshliqlari tomonidan Jonibek Sulton Buxoro taxtiga taklif etiladi. Jonibek Sulton Xurosonda hokimlik qilayotgan o'g'li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. Lekin bu vaqtda Obivardda turgan Dinmuhammad Buxoroga kelishda qizilboshlar bilan bo'lgan to'qnashuvda halok bo'ladi va taxtga uning ukasi, Samarqand hokimi Boqi Muhammad o'tkaziladi (1601-1606). Lekin rasman hokimiyat Jonibek Sulton qo'lida bo'lib, uning nomidan tangalar zarb etilgan va nomi xutbaga qo'shib o'qilgan.

ASHTARXON XONLIGI
(XV-XVI aa)

Ashtarxon xonligi (Astraxon xonligi) - Oltin O'rdaning inqirozi natija-sida vujudga kelgan davlat. Poytaxti - Ashtarxon shaxri (hozirgi Astra-xan). XIV asrda Oltin O'rda amiri Hoji Cherkas Ashtarxon shaxarini bosib olib, uni alohida mulkka aylantirgan, taxminan 1459-1460 yillarda esa bu mulk uzil-kesil mustaqil bo'lib olgan. Ashtarxon xonligining birinchi hukmdori - Katta O'rda xoni Ahmadning birodari Mahmud bo'lgan. Xonlikning taxminiy hududi - sharqda No'g'ay O'rdagacha, janubda Terek, g'arbda Kuban va Don daryolarigacha, shimolda Saroy shaxrigacha cho'zilgan. Aholisi turkiyzabon xalqlardan iborat bo'lib, asosan ko'chmanchi chorvachilik, qisman baliq ovlash, ovchilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ashtarxon yaqinidan tuz qazib olingan. 1556 y. Ashtarxon xonligi Moskva podsholigi tomonidan bosib olingan.

Ashtarxoniyalar sulolasi davrida (1601-1753) Buxoro xonligida tinchlik, osoyishtalik bo'lmadi. Xonlik viloyatlarida hukmronlik qiluvchi amirlar va beklarning o'zboshimchaligi, markaziy hokimiyat amaldorlari o'rtasidagi o'zaro kelishmovchilik, ur-yiqit mamlakat tinkasini quritib borardi. Buni Ashtarxoniyalar sulolasidan Buxoro taxtiga ko'tarilgan o'nta xondan ikkitasining taxtdan ag'darilgani, to'rttasining taxt ustida

o'ldirilgani ham yaqqol ko'rsatadi.¹⁰⁷

ASHTARXONIYLAR (JONIYLAR)
(1601 — 1757)

Ashtarxoniylar - Joniylar - 1601-1757 yillarda Buxoro xonligini boshqargan sulola. 1601 yil ashtarxoniylardan Boqi Muhammad Buxoro hokimiyatini qo'lga olgach, shayboniylar sulolasi hukmronligi tugatilgan. Ashtarxoniylar Jo'jixon naslidan bo'lib, XIV asrning 80-yillaridan boshlab Astraxan (Ashtarxon, Hoji Tarxon) va uning atrofidagi yerlar, xalqlar ustidan hukmronlik qilgan. 1556 yil Astraxanni Moskva podsholigi bosib olgandan keyin, Ashtarxoniylardan Yormuhammadxon oilasi bilan Buxoroga ko'chib kelgan. Buxoro xoni Iskandarxon (1563 — 83) qizi Zuhrobegimni uning o'g'li Jonibek sultonga nikohlab bergan, bu nikohdan uch o'g'il - Din Muhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammadlar dunyoga kelgan. Din Muhammad Abdullaxon II hukmronligi davrida (1583-1598) Niso va Obivard hokimi bo'ldi. Abdulmo'minxon o'ldirilgandan keyin (1599) amirlar va ulamolar Jonibek sultonni xon taxtiga ko'tarmoqchi bo'ldilar. Lekin, Jonibek sulton katta o'g'li Din Muhammad foydasiga taxtdan voz kechadi, ammo Din Muhammad Obivarddan Buxoroga kelayotgan vaqtda yo'lda qizilboshlar bilan sodir bo'lgan to'qnashuvda halok bo'ladi. Taxtga Jonibek sultonning ikkinchi o'g'li - Samarqand hokimi Boqi Muhammad o'tkazildi (1601). Lekin rasman hokimiyat Jonibek Sulton qo'lida bo'lib, uning nomidan tangalar zarb etilgan va nomi xutbaga qo'shib o'qilgan. Shundan boshlab Buxoro xonligi Ashtarxoniylar hukmronligi ostiga o'tdi.

Ashtarxoniylardan birinchi bo'lib taxtga Boqimuhammad o'tirdi. Shu davrda Ashtarxoniylar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – markaziy hokimiyatni mustahkamlash, mamlakat siyosiy yaxlitligini ta'minlash edi. Marv, Xorazm, Balx yerlarida siyosiy parokandalik kuchaygan edi. Boqimuhammadxon o'z hukmronlik yillari Xorazm, Balx, Shibirg'on, Maymana, Bag'lon, Badaxshon, Hisor yerlariga yurishlar uyushtiradi.

1602 yilda Eron safaviylariga zarba berib, Balxni kuch bilan bo'ysundirdi va ukasi Vali Muqammadni hokim etib tayinladi. 1603 yilda Eron safaviylarining Balxga hujum qilgan qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. Boqi Muqammad Toshkent uchun qozoq sultonlariga qarshi kurashlar olib bordi. 1604 yilda qozoq xoni Keldimuhammad qo'shinlarini mamlakat hududidan haydab chiqarib, bir qancha yerlarni Buxoro xonligiga bo'ysundirdi. Boqi Muhammad ichki siyosiy nizolarga chek qo'yish maqsadida ko'plab urushlar olib boradi. Biroq Xorazm va

¹⁰⁷ Усмонов, К., М. Содиқов, С. Бурхонова. Ўзбекистон тарихи. Т.2005. 165-б.

Xurosonning katta qismi Ashtarxoniy-lar qoʻlidan chiqib ketadi.

1605 yil Boqi Muhammadxon vafot etadi. 1605-1611 yillarda ashtarxoniy-lardan Vali Muhammad hukmronlik qildi. 1606 yili Vali Muhammad Balxga yurish uyushtiradi. Keyinchalik xon Eron safaviylari bilan yaxshi diplomatik munosabatlar oʻrnatadi. Valimuhammadning noʻnoq siyosati natijasida, Xurosonda Eron safaviylarining mavqei oshib boradi. Bu esa yirik oʻzbek amirlarining noroziligiga sabab boʻladi. Natijada amirlar bilan xon oʻrtasida ixtilof kuchayib ketadi, ichki kurashlar yana avj oladi, qabila beklari xon hokimiyatiga boʻysunmay, muxolifatchilikni kuchaytirdilar. Buxorolik amirlarning xonga qarshi isyon uyushtir-ganligidan xabar topgan Vali Muhammad farzandlarini olib Eronga qochadi, unga qarshi boʻlgan amirlar tomonidan esa Samarqand hokimi Imomqulixon Buxoro taxtiga oʻtqaziladi. Vali Muhammad 1611 yili eronlik qoʻshinlar yordamida taxtni qaytarib olish maqsadida Buxoro xonligiga qarshi yurish qiladi. Imomqulixon esa Vali Muhammad boshlab kelgan Eron qoʻshinlarini tor-mor keltirib, mamlakat mustaqilligini saqlab qoldi, Vali Muhammad esa asir olinib, qatl etildi.

Buxoro xonligi taxtiga Imomqulixon (1611-1642) oʻtiradi. U davlatni oʻttiz yildan koʻproq boshqargan. Shuning oʻziyiq Imomquli-xon Ashtarxoniy-lar orasida eng nufuzli hukmdorlardan biri boʻlganidan dalolat beradi¹⁰⁸. Imomqulixon davrida markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi. Imomqulixon Movarounnahr chegaralariga xavf solib turgan koʻchmanchi qalmaq va qozoq xonlariga qarshi tinimsiz kurash olib bordi. Imomqulixon Toshkent va xonlikning shimoli-sharqiy chegaralari uchun qozoqlar, junqar (ayrat)lar, qalmoqlar, qoraqalpoqlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi. Qozoq xoni Shigʻayxonning oʻgʻli, Tavakkalning ukasi va vorisi Ishim Sultonga qarshi Imomqulixon Toshkent, Turkiston va Sirdaryo boʻyidagi hududlarga egalik qilish uchun uzoq muddat muntazam urushlar olib borgan. 1613 yili Imomqulixon qozoqlarni tor-mor qildi va Toshkentni egallab, u yerda oʻz oʻgʻli Iskandarni noib qilib qoldirdi. Iskandar Sulton aholiga boj, xiroj va boshqa soliqlarni koʻpaytirib, qattiq zulm oʻtkazdi. Bunga qarshi Toshkent-da qoʻzgʻolon koʻtarildi va Iskandar Sulton oʻldirildi. Buning natijasida

¹⁰⁸Ўзбекистон тарихи. Т. 1. Т., 1997. 552-б.

Imomqulixon qo'zg'olonni bostirishga majbur bo'ladi va shahar aholisi qirg'in qilinadi. Qozoq xoni Ishim Sulton qalmiklar ustiga yurish qilgan paytda, Toshkent xoni Tursun Muhammad ko'p sonli qo'shini bilan Ishimxonning Turkiston atrofidagi o'rdusiga hujum qilib, ko'plab ayollar va yosh bolalarni asir olib Toshkentga qaytgan, so'ngra Sayramga tobe Sayyid so'kmas mavzeida qalmiqlar yurtidan qaytayotgan Ishimxonga qarshi chiqqan. Jangda Ishimxon g'olib kelgan, Toshkentga qochgan Tursun Muhammadni yaqin amaldorlari va qo'shini isyon ko'tarib qatl etishgan (1628). Ishimxon Tursun Muhammadning kallasini Imomqulixon huzuriga yuborgan. Buning evaziga Imomqulixon maxsus yorliq bilan Toshkent, Turkiston va Sirdaryo bo'yidagi boshqa shahar, qal'alarni Ishimxonga tuhfa qilgan. Ishimxon vafotidan so'ng (1628) Buxoro qo'shinlari Toshkentni egallagan. Uni boshqarish Boqi Muhammadning o'g'li Abdulla sultonga topshirilgan.

Bundan tashqari, Imomqulixon o'z hukmronlik yillarida qoraqalpoq va kuchli qalmiqlarga qarshi kurash olib bordi. Tinimsiz olib borilgan urushlar xon hokimiyatining bir qadar mustahkamlanishiga olib keldi. Lekin bu muvaffaqiyatlarga qaramay, yer egaligining rivojlanishi va o'zbek qabilalari zodagonlarining qo'lida yirik mulklarning to'planishi ba'zi bir yirik qabilalarning siyosiy nufuzini oshirib yubordi. Shuning uchun ham o'z hukmronligi yillarida Imomqulixon bir qancha yirik qabila zodagonlariga qarshi kurash olib borishga majbur bo'lgan.

Imomqulixon markaziy hokimiyatni mustahkamlashga va o'zaro kurashlarga chek qo'ygan bo'lsada, Xuroson va Xorazmni qaytarib olishga erisha olmadi. Hukmronligining so'nggi yillarida ko'zi ojizlashgan Imomqulixon taxtni ukasi Nodir Muhammadxonga topshirgan.¹⁰⁹

Imomqulixon (1611-1642)

Imomqulixon (1589—1650) - ashtarxoniylar sulolasiga mansub Buxoro xoni (1611—42). Vali Muhammadxon Erondan olib kelgan qo'shinga qarshi Buxoro xalqining kurashiga rahbarlik qilib qozoqlar yordamida eroniylarni tor-mor keltirgan. So'ngra 1611 yil Sirdaryoning quyi oqimidagi hududlarga yurish qilib isyonkor qozoq,

¹⁰⁹ Ўзбекистон тарихи. Самарқанд. 2009. 82-83-бб.

qalmoq, qoraqalpoqlarni bo'ysundirgan. Imomqulixon 1613 yilda Toshkentni egallab o'g'li Iskandarni hokim etib tayinlagan, ammo, shahar aholisi uning nojo'ya xatti-harakatlaridan norozi bo'lib, isyon ko'tarib Iskandarni o'ldirgan. Bundan g'azablangan Imomqulixon Buxoro, Balx va Badaxshon viloyatlaridan qo'shin yig'ib kelib, Toshkent aholisini qirg'in qilgan. Bu vaqtda Buxoro xonligida ichki nizolar juda kuchli bo'lgan. Toshkent, Balx, Samarqand viloyatlari hokimlari tomonidan ochiqdan-ochiq markaziy hokimiyatga qarshi siyosat yuritilgan. Imomqulixon bu kurashlarga barham bergan. Imomqulixon darvishlarni qo'llab-quvvatlagan, atrofiga olimlar va shoirlarni to'plagan, o'zi ham she'rlar yozgan. Ko'chmanchilar bilan olib borilgan muvaffaqiyatli janglar natijasida u 30 yildan ortiq hukmronlik qilgan. Bu davrda mamlakatda markaziy davlat hokimiyati kuchaygan. Hindiston, Eron va Rossiya bilan elchilik munosabatlarini o'rnatgan. Imomqulixon hukmronligi vaqtida Rossiya elchisi I.D.Xoxlov 1620-1622 yillarda Buxoroda bo'lgan. Imomqulixon ko'r bo'lib qolgach, taxtni ukasi Nadr (Nodir) Muhammadga topshirgan (1642). O'zi hajga ketib, o'sha yerda vafot etgan.

Nodir Muhammadxon (1642-1645) davrida mamlakatda ichki nizolar va o'zaro kurash yanada avjiga chiqqan. Hukmronligining dastlabki yillarida Nodir Muhammadxon mulk taqsimoti o'tkazib, o'zining farzandlariga mamlakatning asosiy viloyatlarini mulk sifatida bo'lib bergan¹¹⁰. Nodir Muhammadxon tomonidan amalga oshirilgan mulk taqsimoti markaziy hokimiyat mavqeini juda ham zaiflashtirib yuborgan. Xonning o'zi mamlakatning asosiy viloyatlarini mulk qilib 12 nafar o'g'li, 2 nafar jiyani va nabirasiga taqsimlab berdi. Bu siyosat oqibatda markaziy davlat hokimiyatini zaiflashtirdi. Bir qator chekka viloyatlar, Toshkent, Xo'jand, Turkiston va boshqalar markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ygan. Chekka o'lkalar Buxoro bilan deyarli hisoblashmay qo'ygan. Nodir Muhammadxon mamlakat ichkarisida yirik amirlarning qarshiligiga duch kelgan. 1645 yilda qozoqlar yana Movarounnahrda yurish qilib, Xo'jandgacha yetib keladilar Nodir Muhammad ularni quvib chiqarish uchun o'g'li Abdulaziz boshchiligida katta qo'shinni safarbar etadi. Xondan norozilikning kuchayib borishi natijasida undan norozi bo'lgan bir guruh amirlar shu yurish vaqtida, 1645 yilda Abdulaziz sultonning yangi xon deb e'lon qilinishiga olib kelgan. Vaholanki, bu vaqtda Buxoroda Nodir Muhammadxon hukmronlik qilardi. O'z-o'zidan bunday holat qanday ro'y berdi, degan savol tug'iladi. Nodir Muhammadxon

¹¹⁰ Аштархонийлар // Ўзбекистон овози. 1996. 29 июнь.

o'zining dastlabki ikki yillik hukmronligi davrida o'z mavqeini mustahkamlash niyatida katta nufuzga ega bo'lgan amirlar ta'sirini cheklamoqchi bo'lgan. Masalan, mashhur Yalangto'shbiydan uning mulki Kaxmerdni tortib olgan. Shunday qilib, nufuzli amirlar bir bo'lib, 1645 yilda Abdulazizxonni oliy hukmdor deb e'lon qiladilar. Bu hol mamlakatda markaziy hokimiyat va Ashtarxoniylarning mavqei ancha tushib ketganligidan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida, davlat asoslarini zaiflashtirib yuborgan. Nodir Muhammadxon 1645 yilgacha Balx mulkida hukmronlik qilgan.¹¹¹

Nodir Muhammad toju-taxtni qaytarib olish maqsadida Hindiston podshohi temuriyzoda Shox Jahondan yordam so'raydi. Shox Jahon Balx viloyatini o'ziga bo'ysundirish maqsadida u yerga o'g'illari Murodbaxsh va Avrangzeb boshchiligida katta qo'shin yuboradi. Nodir Muhammad Shox Jahon o'g'illari yordamga emas, balki Balx viloyatini egallash uchun kelayotganini bilgach, unga qarshi chiqadi. Maymana yonida bo'lgan jangda Nodir Muhammad yengilib, Eronga qochadi va shox Abbos huzurida panohtopadi. 1647 yilda Shoh Jahon o'g'illari Balxni egallaydilar. Nodir Muhammad esa shox Abbos yordamida Balxni qayta egallaydi. Bu voqealardan tashvishga tushgan Abdulazizxon ukasi Subxonquli boshchiligida Balxga katta qo'shin yuboradi. 1651 yilda Subxonquli Balxni egallaydi va u Balx hokimi etib tayinlanadi. Nodir Muhammad esa Makkaga hajga borayotib yo'lda vafot etadi.

Abdulazizxon o'z hukmronligi yillarida (1645-1680 yy) Balxni Buxoroga bo'ysundirishga bir necha bor urinib ko'rgan. 1651 yilda Balx taxtiga Abdulazizxonning ukasi Subhonqulixon sulton o'tiradi. Kuchli oliy hokimiyatning yo'qligi va davlatdagi parokan-dalikdan foydalangan Xiva xonlari mamlakat ichkarisiga tez-tez bostirib kira boshlaydilar. Xiva xoni Abdulg'ozixon (1643-1663 yy) 1655 yilda Buxoro xonligiga ikki marta bostirib kiradi. Qorako'l aholisining bir qismini asir olib, Karmanani vayronaga aylantiradi. 1658 yilda Vardonzeni talab, 1662 yilda Buxoro shahrigacha yetib boradi. Xiva lashkarlarining mamlakat ichkarisiga hujumlari keyingi yillarda ham davom etib turdi. Xiva xonligi bilan uzoq davom etgan urushlar mamlakatdagi ahvolni og'irlashtiradi va ichki

¹¹¹ Бобожонова Д.Б., Жураева Н., Бобожонова Н. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. Т.2011. 197-б.

ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Tinimsiz urushlar, ichki ziddiyatlar Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini murakkablashtirib yuborgandi, siyosiy vaziyat izdan chiqqandi. Keksayib qolgan Abdulazizxon 1680 yilda taxtdan voz kechib, Makkaga hajga ketadi va u yerda vafot etadi.

Abdulazizxon
(1614- Balx-1681)

Abdulazizxon (1614- Balx -1681) — ashtarxoniylar sulolasiga mansub Buxoro xoni. Nadr Muhammadxonning katta o‘g‘li. 1626 yildan Xuttalon hokimi, 1630 yildan Balxning g‘arbiy tumanlari hokimi. 1645 yildan Buxoro xoni. Abdulazizxon Buxoro xonligida markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qilgan, mamlakat obodonchiligiga birmuncha hissa qo‘shgan. Buxoroda ko‘pgina muhtasham binolar, jumladan o‘z nomiga madrasa qurdirgan (Abdulazizxon madrasasi va b.).

Subhonqulixon (1680-1702 yy.) Buxoro xonligini uzoq yillar boshqargan¹¹². Subqonhulixon hukmronlik yillarida ham Balx viloyati uchun kurash davom etgan. Amalda Balx hokimlari Buxoro hokimiyatini rasman bo‘lsa ham tan olmaganlar. Yirik qabila zodagonlarining nufuzi oshib borib, 1688-1697 yillar davomida Balxda yirik amir Mahmudbiy hukmronlik qilgan.

Subhonqulixon, bir tomondan, Balx viloyatlarida hokimlik qilayotgan o‘g‘illariga qarshi, ikkinchi tomondan, Movarounnahr viloyatlaridagi amir va beklarga qarshi urushlar qilishga majbur bo‘ldi. Uchinchi tomondan, Xiva xoni Anushaxon qo‘shinlari hujum qilib, Buxoro, Karmana va Vardonzeni egalladi, xatto Samarqandni ham ishg‘ol qildi. Bu davrda Buxoro xonligining Xiva bilan munosabatlari ham birmuncha keskinlashgan edi. Subhonqulixon hukmronligi davrida Xiva lashkarlari bir necha bor mamlakat ichkarisiga bostirib kirganlar. Masalan, Xiva xoni Anushaxon (1664-1687 yy.) mamlakatga bir necha marta yurish uyushtirib, 1684 yili hatto Samarqandni bir yil davomida ushlab turishga muvaffaq bo‘lgan¹¹³. Samarqandda Anushaxon nomiga xutba o‘qitilib, uning nomidan tanga pullar zarb etiladi.

Subhonqulixon qatag‘on urug‘idan bo‘lmish Badaxshon hokimi

¹¹²Ўша манба.

¹¹³Ўша манба. 555-б.

Mahmudbiy otaliq yordamida Xiva qo‘shinlarini Samarqanddan quvib chiqarishga erishdi. Samarqandliklar qattiq jazolandi. So‘ngra Balxga yurish qilib, isyonkor o‘g‘li Siddiq Muhammadga zarba beradi va zindonband qilib, o‘ldiradi. Balx hokimligi yuz qabilasining sardori Muhammad hoji otaliqqa topshiriladi. Subxonqulixon Balxdaligidan foydalangan Anushaxon Buxoro atroflariga yana bostirib kelib u yerlarni talon-taroj qiladi va katta o‘ljalar bilan qaytib ketadi.

Subhonqulixon Xivaga nisabatan keskin siyosat yuritishga majbur bo‘ladi va shu jarayonlarda uyushtirilgan fitna oqibatida 1686 yilda Xiva xoni Anushaxon ko‘ziga mil tortiladi va taxtdan tushiriladi. Subhonqulixon 1688 yilda Xivadagi tarafdorlari xizmatidan foydalanib, Xiva xoni Erengxonning ham o‘ldirilishiga erishadi va Xorazm Buxoro xonligi tasarrufiga olinadi. Subxonqu-lixon Amir Shohniyozni Xivaga hokim etib tayinlaydi. Shu tariqa Xivada yana Buxoro hokimiyati o‘rnatiladi. Xivaga qarshi kurashda ko‘rsatgan xizmatlari uchun qatag‘on qabilasidan bo‘lgan otaliq Mahmudbiy Balx noibi qilib tayinlanadi. Lekin Mahmudbiy Buxoroga butunlay bo‘ysunmay qo‘yadi. Bu esa boshqa beklar, qabilalar boshliqlarining noroziligiga sabab bo‘ladi. Natijada o‘zaro urushlar va qabilaviy nizolar yanada kuchayib ketadi¹¹⁴.

Subhonqulixon ibn Nodirmuhammadxon

(1625-yil, Buxoro - 1702-yil 14 -sentabr)

(1680-1702)

Ashtarxoniylardan bo‘lgan Buxoro xoni. 1651-80-yillarda Balx hokimi. Nodirmuhammadxon Buxoro xoni bo‘lgach, o‘gli Subhonqulixonni Soli Saroy shahri, so‘ngra Balx viloyati hokimi qilib tayinlaydi (1642). Ko‘p o‘tmay u bu lavozimdan olinib, Kaxmerdga hokim bo‘lgan. Subhonqulixonning akasi Abdulazizxon otasini hokimiyatdan chetlashtirib, Buxoro xoni bo‘lgach, Subhonqulixon Balxga – otasi huzuriga yo‘l olgan. Subhonqulixon Balx viloyatida mustahkam o‘rnashib olib, 1651 yilda Balx va Badaxshon hokimligini qo‘lga kiritgan. Subhonqulixon Buxorodan mustaqil siyosat yuritgan. 1658 yilda Abdulazizxonning piri Abdulg‘afforxo‘ja vositachiligida Buxoro va Balx o‘rtasida tinchlikka erishilib, Subhonqulixon akasi hokimiyatini rasmiy tan olgan. Muhammad Yusuf munshiyning yozishicha, 1680 yil 2 fevralda keksayib qolgan Abdulazizxon Subhonqulixonga Buxoro xonligi taxtini topshirib, o‘zi hajga jo‘naydi. Subhonqulixon markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun soliqlar miqdorini oshirib, qo‘shinini ko‘paytirgan. Anushaxonning vorisi Arang Muhammadxon 1687 yili Buxoroga bosqin qilganida Subhonqulixon bu hujumni qaytarish bilan cheklanmay, 1688 yilda o‘ldirilgan xon o‘rniga Xiva taxtiga

¹¹⁴ Бобожонова Д.Б., Жураева Н., Бобожонова Н. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. Т.2011. 198-б.

o'z noibi Amir Niyoz eshiko'g'aboshi (Shohniyoz)ni o'tqazgan. Shu tariqa Abdullaxon II davridagidek Xiva xonligi yana Buxoroga qo'shib olinadi va mintaqada yagona o'zbek davlati qaror topgan. Subhonqulixon davrida Buxoro xonligining Sharq davlatlari bilan deplomatik munosabatlari yaxshilangan. Boburiylardan Avrangzeb 1689 yilda Zabardast-xon, Usmonli Turk sultoni Ahmad II 1691 yilda Mustaf o chovush boshchiligidagi elchilarni Buxoroga jo'natgan. 1671-87-yillarda Subhonqulixon bilan Avrangzeb o'rtasida bir necha marta o'zaro maktublar almashilgan. Subhonqu-lixon tomonidan Balx va Buxoroda ko'plab me'moriy obidalar, jumladan, Balxda madrasa, Buxoroda Do rush-shifo, Registonda katta hovuz ; Arkda Salom xona va jome' masjidi, shuningdek, Aminobodda chorbog' qurilgan. Subhonqulixonning tibbiyotga oid kitoblar jamlangan nodir kutubxonasi bo'lgan. U "Ihyo at-tibbi Subhoniy" ("Subhoniy tibbiyoti bo'yicha davolash"), "Lubb ul-lavoih ul-qamar fil-ixtiyorot" ("Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati") nomli ilmiy nujumga oid risola yozgan. Subhonquli-xon "Nishoniy" taxallusi bilan she'rlar bitib, saroyda o'tkazilgan mushoiralarda o'zi ham she'rlar aytgan. Subhonqulixon Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasidagi Daxmai shohonda (Abdullaxon II qabri yaqinida) dafn etilgan¹¹⁵.

XVIII asr boshlariga kelib, Ashtarxoniylar davlatdagi inqirozli vaziyat yanada kuchaydi, xonlikdagi siyosiy hayot yana izdan chiqdi. Bu sulola xonlari yirik saroy amaldorlari va o'zbek qabilalari boshliqlariga tamoman tobe bo'lib qoldilar, Bunday siyosiy boshdoqliklarga chek qo'yishga intilgan so'nggi ashtarxoniy xon Ubaydullaxon II (1702-1711) edi.

Ubaydullaxon davrida mamlakatdagi ichki ziddiyatlar yanada avj oladi. Bu davrga kelib eng asosiy viloyatlarda Ashtarxoniylar emas, balki o'zbek zodagonlariga mansub ayrim amirlar hukmronlik qilar edi. Masalan, Samarqand, Shahrisabz, Qarshi, O'ratepa, Hisor, Balx va boshqalar¹¹⁶. Shuningdek, bu davrda Buxoro xonligining eng yirik viloyatlaridan bo'lgan Farg'ona vodiysida ham mustaqil hokimiyatga erishi maqsadida Ming xonadoni vakillari jiddiy kurashga kirishgan edilar. Eron va Shimoliy Hindiston hukmdorlari Boburiylarning Buxoro xonligi ichki ishlariga aralashuvi kuchaydi. Ulu hukmdorlari, Balxdagi Mahmudbiy qatag'on markaziy hukumatga bo'ysunmay qo'yidilar. Samarqand va Hisor viloyatlarida yuz qabilasi, Shahrisabz va Qarshida kenagas va mang'it qabilalari xonga qarshi isyon ko'tardilar. Balx hokimi

¹¹⁵ Sultonov F., Bozorboyev F. O'zbekiston hukmdorlari. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007. 48-49-bb.

¹¹⁶ Ўша манба.

Muhammad Muqimxonning otalig'i hisoblangan Mahmudbiy qatag'on Buxoroga bo'ysunmaslikdan tashqari Qabodiyon (1703), Termiz (1704)ni ham Balxga qo'shib olib, Balxni mustaqil deb e'lon qilgan. Beklarning saroy fitnasi natijasida Muhammad Muqimxon 1707 yil mart oyida o'ldirilgach, Ubaydulla-xon II Balx ustiga katta qo'shin bilan yurish qiladi va 1707 yil 27 mayda shaharni egallaydi. Ubaydullaxon II murakkab sharoitda Buxoro xonligini boshqargan. Iqtisodiy tanazzul va ichki nizolardan tashqari jung'orlar (qalmoklar)ning harbiy bosqinlari, ularning Samarqandga hujumi, qalmoqlar xurujidan qochgan qozoklar va qoraqalpoqlarning Movarounnahr hududlariga, Toshkent va boshqa joylarga ko'chib kelishi vaziyatni yana ham murakkablashtirgan. Ana shunday sharoitda Ubaydullaxon II davlatning iqtisodiy negizini mustahkamlashga qaratilgan choralar ko'rgan. Avvalo u ma'muriy sohada islohotlar o'tkazib, davlatni boshqarishga o'rta tabaqa - xunarmandlar va savdogarlarni jalb qilgan. Ubaydullaxon II hatto markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun yirik yer egalarining imtiyozlarini qisqartirgan, xususan, Jo'ybor xojalari soliq to'lashga majbur qilingan. Biroq Jo'ybor shayxlari katta siyosiy kuch bo'lib, Ubaydullaxon II o'tkazayotgan siyosat uchun xatarli muxolifga aylanishgan. Ubaydullaxon o'z hukmronlik yillarida markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun harakat qildi. U amalda mustaqil bo'lgan zodagonlar va qabilalarga qarshi tinimsiz urushlar olib bordi. Bu urushlar natijasida xo'jalik inqirozi yanada kuchaydi. Ubaydullaxon bebosh o'zbek amirlarining iqtisodiy kuchini susaytirish, davlat xazinasini to'ldirish va mamlakatning moliyaviy, ahvolini yaxshilashga urinib o'tkazgan pul islohoti (1708) siyosiy - iqtisodiy vaziyatni yanada chigallashtirdi. Past qiymatli pullarning zarb etilishi oqibatida Buxoro shahrida katta qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olon qiyinchilik bilan bostirilgan bo'lsada, mamlakatdagi siyosiy - iqtisodiy vaziyat yaxshilanmadi. Ubaydullaxon amalga oshirgan pul islohoti ham natija bermadi. Natijada Ubaydullaxon o'ldirilib, taxtni Ashtarxoniylar sulolasining so'nggi xoni Abulfayzxon (1711-1747) egalladi.

**Ubaydullaxon II
(1702-1711)**

Ubaydullaxon II, Ubaydullo Muhammad Bahodirxon (1681 - Buxoro - 1711.16.3) - Buxoro xoni (1702—11), ashtarxoniylar sulolasidan Subhonqulixonning o'g'li.

Buxoroda madrasa tahsilini olgan. Subhonqulixon vafoti arafasida valiahd qilib nevarasi Balx hokimi Muhammad Muqimxonni tayinlaydi. Birok, Buxoro ulamolari va qo'shinning madadiga tayangan Ubaydullaxon II 1702 yil sentabrda Buxoro taxtini egallaydi. Ubaydullaxon II ning siyosiy faoliyatida pul islohoti ham aloxida o'rin tutadi. Ubaydullaxon II pul islohoti o'tkazish orqali davlat xazinasini to'ldirishni, bebosh amirlar, beklar va urug' boshliqlari bilan kurashda o'z mavqeini kuchaytirish va ayrim mahalliy hokimlarning ayirmachilik intilishlarini bartaraf qilib, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intildi. Biroq Ubaydullaxon II ning islohotlari badavlat tabaqalar va ayrim o'rtahol shaharliklar tomonidan noxush kutib olindi. Ubaydullaxon II ga qarshi g'alayonlar ko'tarildi. Ubaydullaxon II mamlakatda obodonchilik ishlariga ham e'tibor qaratgan. U madrasa va Buxoroning g'arbida Xonobod chorbog'ini barpo qilgan (1709). Tarixchi Mir Muhammad Amin Buxoriy uning saroyida bosh munshiy bo'lib, Ubaydullaxonning siyosiy faoliyati haqida «Ubaydullanoma» (1716) asarini yozgan. Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy» va Abdurahmon Tolennng «Tarixi Abulfayzxon» asarlarida ham Ubaydullaxon II faoliyati aks etgan. Ubaydullaxon II saroy fitnasi natijasida Buxoroning Piri Mirza chorbog'ida o'ldirilgan. U Buxoro yaqinida - Bahouddin majmuasidagi Daxmai shohonda otasi Subhonqulixon qabri yonida dafn etilgan.

Ashtarxoniylardan bo'lgan so'nggi hukmdorlar davriga kelib (Abulfayzxon, Abdulmo'min, Ubaydullaxon) "Buxoro xonligi markaziy hokimiyati amalda mustaqil bo'lgan mulklar yig'indisidan iborat bo'lib qolgan edi"¹¹⁷.

Abulfayzxon hukmdorligi davrida mamlakatda qabila boshliqlari, viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlari yanada kuchaydi. Amaldorlar fitnasi avj oldi. Natijada Abulfayzxon ham Ubaydullaxon kabi o'z shaxsiy qo'riqchilarini rus va kalmik qullaridan tuzishga majbur bo'lganligi manbalarda ta'kidlanadi. Buxoroda markaziy hokimiyat amalda bir guruh saroy amaldorlari qo'lida edi. Hokimiyat amalda Abulfayzxon hukmdorligi davrida avval Jovshan qalmaq, u o'ldirilgandan keyin esa oliy qo'shbegi Abdullabek xoja, keyin esa Muhammad Hakimbiy otaliq qo'lida mujassamlashgan edi. Bu davrda ularning Shahrisabz viloyati hokimi bilan munosabat-lari keskinlashib ketadi. Buxoroda hokimiyat egasi bo'lib qolgan Hakimbiy mang'it bilan dushmanchilik kayfiyatida bo'lgan Ibrohim Miroxur kenagas boshchiligidagi shahrisabzliklar 1716 va 1719 yillarda Qarshiga va Buxoroga hujum qiladilar. Bu hujumlar natijasiz tutagach, Ibrohim

¹¹⁷ Ўзбекистон тарихи. Т., 1994. 46-6.

kenagas tarafdorlari Niyoz xoja katag'on, Qoplon qipchoq, Avaz To'ksoba va boshqalar bilan birlashib, 1722 yil Samarqandda Xiva xonlari avlodidan bo'lgan Rajabxonni qadimiy odatga ko'ra Ko'ktoshga o'tkazishdi va xon deb e'lon qilishdi. Shu tariqa mustaqil Samarqand xonligiga asos solindi va bu xonlik 1730-1731 yillargacha mavjud bo'ldi. Bu ishlarga boshchilik qilgan Ibrohim kenagas Buxoro xonligini butunlay tugatishga intilgan edi. Mamlakatda yuzga kelgan qo'shhokimiyatchilikdan qozoqlar unumli foydalanadilar va yetti yil davomida (1723-1729) Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini talon-taroj qildilar. Buxoroda ham, Samarqandda ham ularni qaytarishga qodir kuch topilmadi. Natijada Samarqand va Shahrisabzda bir necha yil davomida hayot deyarli to'xtab qoldi, Buxoroda Arqdan tashqari ikkitagina mahallada aholi qoldi. Mamlakat iqtisodiy va siyosiy inqiroz yoqasiga kelib qoldi¹¹⁸.

Bunday siyosiy parokandalikdan boshqa bir tashqi dushman - Eron shohi Nodirshoh foydalandi. 1736 yil Nodirshohning o'g'li Rizoquli boshchiligidagi Eron qo'shinlari Amudaryodan o'tib Qarshiga yurish qiladilar. Bu vaqtda Qarshi hokimi bo'lgan Muhammad Hakimbiy Abulfayzxon dan yordam so'raydi va katta qo'shin bilan yetib kelgan Abulfayzxon jangda yengilib, Qarshi shahri qal'asiga berkinib oladi. G'uzor va boshqa joylarni egallagan eronliklar Qarshini qamal qiladilar, biroq Nodirshoh buyrug'i bilan yana Eronga qaytib ketadilar. Oradan uch yil o'tib, 1740 yilda katta qo'shin bilan Nodirshohning o'zi yurish qilib keladi va Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, Samarqand va Xisorni egallab, katta o'ljalarni olib ketdi. Bu yurish vaqtida Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahim Nodirshoh hizmatiga kirgan edi. 1747 yilda Nodirshoh yana Movarounnahrda hujum qilib, Toshkent, O'tror, Turkistonni egalladi. Shu yili saroy fitnasi oqibatida Abulfayzxon o'ldirildi va hokimiyatni amalda Muhammad Rahim mang'it egalladi. So'nggi ashtarxoniyalardan Abulmo'min (1747-1751), Ubaydullaxon III (1751-1754) va Sherg'oz (1754-1756) lar Buxoro taxtiga rasman o'tkazilgan bo'lsalarda, amalda davlat boshqaruvi

¹¹⁸ Сагдуллаев А.С. ва бошқ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т. Академия. 2000. 177-178-бб.

butunlay Muhammad Rahim mang'it (1756-1759) qo'liga o'tib qolgan edi. U 1756 yil dekabrda rasman Buxoro taxtiga o'tkazildi va shu tariqa Buxoro xonligida yangi sulola - mang'it amirlari sulolasi hukmronligi boshlandi¹¹⁹.

Mamlakatni larzaga keltirgan to'xtovsiz siyosiy urushlar, hokimiyat tepasida turgan sulola vakillari o'rtasidagi hokimiyat uchun olib borilgan o'zaro urushlar va kurashlar, ayniqsa XVII asr o'rtalarida Nodirmuhammad hokimligi vaqtida urushlar, shuningdek, tashqi dushmanlar bilan olib borilgan behuda urushlar, jumladan, Nodirshohning hammaoqni vayron qilgan yurishi, bularning hammasi bir bo'lib, Buxoro xonlarining obro'sini tomomila tushirib yubordi. XVIII asrning birinchi yarmida siyosiy tarqoqlik cho'qqisiga yetdi, xon amirlari qo'lida – o'zbek qabila boshliqlari qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qoldi. Amirlar haqiqatda o'z yurtlarining mustaqil hokimlari bo'lib oldilar. Ular qo'shinlariga qarshi yurish olib bordilar, hujum qiladilar, ular bilan o'zlari mustaqil sulh tuzadilar. Bu amir hokimlardan ba'zi birlari, masalan, bir necha o'n yillar davomida Samarqandni idora qilib turgan. Yalangtushbiy, Mahmudbiy qatag'on, otaliq, Rahimbiy va boshqalar o'zlari boshliq bo'lib turgan qabilalarning harbiy kuchlariga suyanib, butun davlatda, shuningdek, uning ayrim viloyati hayotida ham katta rol o'ynadilar.

Buxoro xonligi Ashtarxoniylar davrining oxirlarida markaziy hokimiyatdan butunlay mustaqil bir qancha qabila mulklaridan tashkil topgandi. XVI-XVIII asrlarda 250 yil Movarounnahrda dastlab Shayboniylar, so'ng Ashtarxoniylar hukmronlik qildi. Ashtarxoniylar hukmronligining nihoyasida esa Movarounnahr uchta mustaqil – Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklariga bo'linib ketdi. Bu davrda, ya'ni XVI-XVIII asrlarda jamiyat hayotining barcha sohalarida – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va qolaversa, madaniy hayotda ham umumiy tanglik yuz berdi. Movarounnahrda yagona markazlashgan davlat o'rnida uchta o'zbek xonliklari tashkil topdi.

Ashtarxoniylar sulolasi

¹¹⁹ Сагдуллаев А.С. ва бошқ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т. Академия. 2000. 178-180-бб.

(1601-1756 yy)		
1	Jonibek Sulton ibn Yormuhammadxon	1601 y
2	Din Muhammadxon ibn Jonibek sulton	1601 y
3	Boqimuhammadxon ibn Jonibek sulton	1601-1605 yy
4	Valimuhammadxon ibn Jonibek sulton	1605-1611 yy
5	Imomqulixon ibn Dinmuhammadxon	1611-1642 yy
6	Nodir Muhammadxon ibn Dinmuhammadxon	1642-1645 yy
7	Abdulazizxon ibn Nodir Muhammadxon	1645-1681 yy
8	Subhonqulixon ibn Nodir Muhammadxon	1681-1702 yy
9	Ubaydullaxon II ibn Subhonqulixon	1702-1711 yy
10	Abulfayzxon ibn Subhonqulixon	1711-1747 yy
11	Abdulmo‘minxon ibn Abulfayzxon	1747-1751 yy
12	Ubaydulloxon III ibn Abdulmo‘minxon	1751-1754 yy
13	Sherg‘ozi	1754-1756 yy

Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida boshqaruv tizimi.

Ashtarxoniylar davrida xonlikning hududi qisqarib ketdi. Xonlik tarkibiga oltita viloyat Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O‘ratepa, Shahrisabz va Fuzor kirgan. Keyinchalik Xisor, Toshkent, Farg‘ona, Turkiston, Balx viloyatlari bo‘ysundirilgan. Ammo Hirot va Xorazm xonlik tarkibidan chiqib ketgan¹²⁰.

Buxoro xonligida xon rasman oliy hokimiyat boshlig‘i bo‘lib, davlatning ichki va tashqi siyosatiga bog‘liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal qilinardi. Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy qilinardi, uning nomidan tangalar zarb qilinardi, xonning nomi xutbada qo‘shib o‘qilinardi.

Davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo‘lib – markaziy va mahalliy boshqaruv tizimiga ega edi. Markaziy boshqaruv xon saroyi amaldorlari qo‘lida bo‘lib, ashtarxoniylar davrida “otaliq” mansabiga ega shaxs katta mavqega ega edi. Bu davrda saroy amaldorlari huddi shayboniylar davridagidek edi. Otalikdan tashqari devonbegi, parvonachi, mushrif, xazinachi va boshqa saroy amaldorlari davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega edilar. Jumladan, xondan keyingi Otalik mansabi xonning murabbiysi, maslahatchisi, birinchi vazir lavozimi hisoblangan. Keyinchalik unga Zarafshon daryosi suvini boshqarish vakolati

¹²⁰ Сагдуллаев А.С. ва бошқ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т. Академия. 2000. 179-180-бб.

yuklatilgan.

Devonbegi – moliya va soliq ishlarini yuritish, unga rahbarlik qilish, tashqi aloqa masalalari bilan shugʻullangan. Bundan tashqari parvonachi, dodxoh, koʻkaldosh katta inoq, qoʻshbegi kabi mansabdorlar ham boʻlgan. Ashtarxoniylarda Buxorodan keyin turuvchi eng nufuzli shahar Balx boʻlib, uni taxt vorisi boshqarar edi¹²¹. Xonlik tarkibiga kiruvchi Balx oʻzi xonlik deb atalib, uni taxt vorisi boshqarar edi, u dastlab “navvab” oʻrinbosar yoki xon keyinchalik “kichik xon” deb atalgan. U oʻzining Devoni amorat, amlok, tavadji, moliya devonlaridan tashqari, unga yarim qaram boʻlgan Badaxshon devonlari kabi markaziy va maʼmuriy boshqaruv devonlariga ega boʻlgan. Koʻp oʻtmay, Balx ham Badahshon kabi Buxoro davlatidan ajralib ketadi¹²². Ashtarxoniylar davrida harbiy va maʼmuriy amaldorlar katta huquqlarga ega edi. Ular bilan bir qatorda yirik din peshvolari xojalar va diniy mansab egalari – Shayxulislom, qozi kalon, sadr va boshqalarning ahamiyati ham katta boʻlgan. Davlat boshqaruvida Joʻybor hojalarining mavqei yuqori boʻlib, asl diniy mansabdorlar ular ichidan tayinlanar edi.

Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida qishloq xoʻjaligi va sugʻorish ishlari. Xonlar va saroy amaldorlari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojiga halaqit berayotgan ishlab chiqarish usulini himoya qilardi. Asosiy boylik boʻlgan yerga mulkchilikning eski usuli bir necha asrlardan beri oʻzgarmasdan kelardi. Xonliklarda hukmdor yerning birdan-bir egasi boʻlib, yer ishlovchilarga - dehqonlarga xatlab, ijara tarzida birlashtirilgan edi. Dehqon yer egasi emas, yerdan olingan hosilning egasi edi. Shu boisdan dehqon yerni avaylab-asrashdan manfaatdor emasdi, uning unumdorligini oshirishga intilmasdi. Dehqon yer egasi boʻlmagani uchun boshqa joylarga ketaverardi.

Chorvadorlar ham katta-katta yerlarni egallab, oʻtroqlashib bordilar. Natijada Qoʻngʻirot, Mangʻit, Nayman, Doʻrmon va boshqa aholi yashaydigan yirik manzilgohtar vujudga keldi. Barcha mulk shakllariga

¹²¹ Сагдуллаев А.С. ва бошқ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т. Академия. 2000. 179-б.

¹²² Муқимов Зиёдулла. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Т.: “Адолат”, 2003. 176-б.

xos xususiyat shunda ediki, ularda yersiz kambag'al dehqonlar ijara hisobiga mehnat qilganlar. Yerlarda bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz ekinlari ekilgan. Aholi chorva mollarini boqib, go'sht, sut mahsulotlari yetishtirgan. Dehqonchilik nochor ahvolda edi. Yerga ishlov berish o'sha-o'sha bir juft ho'kiz, so'qa-omoch darajasida qolib ketgan edi. Irrigatsiya inshootlariga ahamiyat pasayib, sug'oriladigan yer maydonlari qisqarib borardi.

Xonliklarda sanoat ishlari rivojlanmadi. Oltinugurt, rangli metallar, marmar, toshko'mir, neft kabi tabiiy boyliklar to'la bo'lgan konlar bo'lsada, ularni qazib olish, kon-tog' ishlarini yo'lga qo'yishga befarqlik qilindi. O'lkada yetarli darajada yirik daryolar bo'lsada, ularda baliqchilikni rivojlantirish, kemasozlik-ni yo'lga qo'yish hech kimning xayoliga kelmasdi. Ashtarxoniylar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalasiga kelsak, albatta, eng avvalo sun'iy sug'orish haqida so'z ketadi. Bu borada ham muayyan ishlar qilingan. Chunonchi. 1614-1615 yillari Imomqulixon buyrug'i bilan Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal chiqarilib, natijada bir qator qishloqlar va qarovsiz yerlar obod bo'lganini bilamiz. 1633-1634 yillari Qo'shqo'rg'onda ham uning buyrug'i bilan kanal qazilgani ma'lum.¹²³ Shunga o'xshash tadbirlar, ainiqsa, sun'iy sug'orish tizimlarini, inshootlarini ta'mirlash, tozalash kabilar ham muttasil ravishda olib borilgan.

Lekin XVI asrdagi kabi keng ko'lamdagi sun'iy sug'orish qurilishiga oid ishlar kamroq bo'lgan ko'rinadi. Zero, manbalar shundan dalolat beradi. Dehqonchilikning barcha sohalari (g'allachilik, paxtachilik, polizchilik, pillachilik, bog'dorchilik) o'z rivoj yo'lidan ketavergan. O'sha paytlarda bug'doyning yigirma xili bo'lgan. Masalan, sarg'ish, oqishining uch turi, bahorgi-qizg'ish, doni yirik («tuya tish» deyilgan)¹²⁴. Bir tomoni oqish, bir tomoni qizg'ish, tog'oldi yerlarida o'sadigan, havodagi namlik bilan kifoyalaniq sovuqqa bardosh bera oladigan nav, qora holli nav, kuzgi, yem uchun ekiladigan makka, yosmiq va hokazolar yetishtirilgan.

Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida hunarmandchi-lik.
Hunarmandchilikning ko'p turlari rivojlangan. Qo'rg'oshin, la'l, lojuvard,

¹²³ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.Шарқ . 2000. 271-272-бб.

¹²⁴ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.Шарқ . 2000. 272-б.

oltin qazib chiqarilgan. Buxoro hunarmandlari tayyorlagan buyumlar Moskvada, Sibirda, Eron, Xitoy, Hindiston, hatto Farbiy Yevropada sotilgan. Hunarmandchi-likning rivojlanishi savdo aloqalarining rivojlanishiga sabab bo'ldi, XVII-XVIII asrlada ko'p shaharlarda karvon saroylar qurilganligi bundan dalolat berib turadi. Garchi buyuk geografik kashvivotlar O'rta Osiyoning iqtisodiy ahvoriga manfiy ta'sir qilgan bo'lsada, bu davrda O'rta Osiyoning atrofdagi mamlakatlar bilan savdo aloqalari kuchayadi. Buxoro va Xiva elchilari va O'rta Osiyo savdogarlarining savdo karvonlari bilan birga Moskva hamda qo'shni sharq mamlakatlariga, qozoq cho'llariga, Sibirga, no'g'oylar yurtiga va boshqa mamlakatlarga borardilar. Buxoroga u mamlakat-lardan ham elchilar kelib turardi.¹²⁵

Xitoy va Hindiston bilan qizg'in savdo-sotiq ishlari davom etdi. Xitoydan ko'proq ipak gazlamalar, chinni idishlar, dorilar, choy keltiriladi, Hindistondan qimmat baho toshlar, marvarid, doka, zarbop, matolar, zar ip, bo'yoq, upa-elik va hokazolar keltirilardi. Hind savdogarlari Buxoroga kelganlarida u yerda uzoq va istiqomat qilib turishardi. XVII asrda Buxoroda butun boshliq hindlar mahallasi va uning o'z oqsoqoli bo'lgan. Xitoy va Hindiston mollari Buxorodan Moskvaga va G'arbiy Yevropaga olib borilardi. XVII asrda O'rta Osiyo tashqi savdosida Moskva davlati tobora hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib bordi. Taxminiy hisoblarga ko'ra, O'rta Osiyo bilan Rossiya o'rtasidagi yalpi savdo sof foydasi har yili 100 ming so'm chamasida bo'lgan.

XVII va XVIII asrlarda O'rta Osiyoda tabiiy boyliklarni qazib chiqarish juda past darajada bo'lgan. Olatovda rux qazib chiqarilganligi to'g'risida ma'lumotlar bor, selitra qazib chiqarish va undan porox ishlash ancha keng yo'lga qo'yilgan. Qimmatbaho toshlar, asl shpinel, feruza va boshqalar o'lpon tariqasida xon xazinasiga keltirib topshirilardi. Badaxshondagi mashhur qizil yoqut konini qazib ishlash (aslida qizil yoqut emas, asl shpinel toshining a'lo navlari qazib chiqarilardi) davlat nazoratida edi. Ishlab chiqarish kuchlari ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanmaganligi, iqtisodiy aloqalarning bo'shligi

¹²⁵ Усмонов, К. М. Содиқов, С. Бурхонова. Ўзбекистон тарихи. Т.2005. 170-б.

XVIII asrning birinchi yarmidagi rus mushoxadachilarining soʻzlariga ishonilsa, tuzumga xos xonlarning taʼqiqlash tadbirlari kon sanoati ishlarining rivojlanishiga toʻsqinlik qilgan.

Samarqand va Buxoroda aʼlo nav yozuv qogʻozlari ishlanardi, bunday qogʻozlarni ishlab chiqarish usuliga Abdulazizxon (1645-1680 yillar) davrida erishilgan edi. Hunarmandchilik ham, savdo ishlari ham asosan allaqachon shaharlarga kelib oʻtroqlikka koʻchgan tub joy halq qoʻlida toʻplangan edi.

Shahrning hunarmandchilik sanoati, jumladan jamiyat hukumronlari isteʼmol qiladigan turli qimmat baho buyumlar tayyorlash nisbatan ancha yuqori darajada turardi. Biroq, ishlab chiqarish texnikasi va badiiy qiymati jixatidan bu buyumlar kamdan-kam, istisnolar bilan Oʻrta Osiyo ustalarining avvalgi asrlarda hozirlangan buyumlardan ancha past darajada edi.

Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida qishloq xoʻjaligi, yer egaligi va soliqlar. Buxoroda yer egaligining uch turi – amlok, mulk (xususiy yerlar) va vaqf yerlari mavjud boʻlgan. Xonlik moliya tizimining asosini xiroj (hosilning $\frac{1}{5}$ dan $\frac{1}{3}$ qismigacha) – yer soligʻi va ushr (daromadning $\frac{1}{10}$ qismi) tashkil qilgan. Davlat xarajatlari zarbxona va bojxona daromadlari hisobiga qoplangan. Dehqonchilikda asosan gʻalla, paxta ekilgan. Chorvachilik ham rivojlangan. Ashtarxoniylar davrida yerga egalik qilishning ilgarigi asrlarda amalda boʻlganidek, mulki sultoniy, xususiy mulk, vaqf yerlari shakllari mavjud edi.¹²⁶

Mulki sultoniy davlat yerlari hisoblanib, undan keladigan daromad xon hazinasiga kelib tushardi. Davlat yerlaridan oʻsha joylarda yashagan dehqonlar foydalangan, ular yerni ishlarib, olingan hosildan xiroj soligʻi toʻlaganlar. Xon davlat tanazzulida-gi yerlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, yirik din ulamolari va sayyidlarga suyurgʻol shaklida, harbiy qisim boshliqlari, saroy amaldorlariga tanho shaklida inʼom qilardi.

Suyurgʻol qilingan katta yer egalari xon xazinasiga soliq toʻlamas edi. Tanho shaklida inʼom qilingan yerlar tanhodorning xususiy mulki

¹²⁶ Усмонов, К., М. Содиқов, С. Бурхонова. Ўзбекистон тарихи. Т.2005. 169-б.

bo‘lmay, o‘sh yerlarda ishlayotgan dehqonlardan soliq olish huquqi berilar edi. Xon tomonidan ayrim shaxslarga hukmdorga ko‘rsatgan alohida xizmatlari uchun ham yer-mulklarini soliqlardan ozod qilinardi va shu boisdan ular “mulki hurri xolis” deb atalardi.¹²⁷

Xususiy mulkchilik tobora kuchayib bordi. Xon tomonidan davlat yerlarini soliqqa tortmaslik sharti bilan yirik boylar va saroy amaldorlariga sotish hollari ham yuz berdi. Xususiy mulk egalari u yerlarda o‘zlari ishlamas edi, yersiz dehqonlarga ijaraga berib, ularning mehnati orqasidan katta daromad olardilar.

Diniy mahkamalarga yerlar mulki sultoniylar hisobidan berilgan bo‘lib, bu yerlar masjidlar, xonaqohlar, qabristonlar vaqf mulki hisoblanardi. Vaqf mulkidan ham soliq olinmas edi.

Ko‘chmanchi chorvador qabilalar ham katta-katta yerlarni egallab, o‘troqlashib dehqonchilik bilan shug‘illanadigan bo‘ldilar. Natijada Qo‘ng‘irot, Mang‘it, Nayman, Do‘rmon va boshqa aholi yashaydigan yirik manzilgohlar vujudga keldi. Barcha mulk shakllariga xos xususiyat shunda ediki, ularda yersiz kambag‘al dehqonlar ijara hisobiga mehnat qilganlar. Buxoro xonligidagi yerga egalik qilishning bunday tartibi oqibatida birinchidan, qishloq xo‘jaligidan tushadigan daromadlarning oldida shaxslar qo‘lida to‘planib borishiga, ikkinchidan, xon xazinasiga tushadigan daromadlarning kamayib, davlatning kuchsizlanishiga, uchinchidan esa yerda ter to‘kib ishlovchi, mahsulot yetishtirib beruvchi mehnatkash aholi moddiy ahvolidan og‘irlashuviga olib keldi¹²⁸. Siyosiy parokandalik, tinimsiz davom etgan ichki kurashlar, shahar hayotining so‘nishi, oshirib yuborilgan boju xirojlar natijasida aholining xonavayron bo‘lishi, tashqi hujumlar, talon-torojlar natijasida vohalarning xarob holga kelib qolishi, savdo karvonlarining g‘orat qilinishi ashtarxoniylar hukmronligi davrining o‘ziga xos xususiyatlaridandir. To‘g‘ri, Imomqulxon bu holatning oldini olishga harakat qilgan. Chunonchi, u 1614-1615 - yillarda Qashqadaryo-dan Qarshi cho‘liga kanal qazdirgan. 1633-1634 yillarda esa Qo‘sh-qo‘rg‘onda kanal qazdirgan. Lekin, sun‘iy sug‘orish qurilishlari ko‘lami XVI asrdagidek bo‘lmagan. Natijada, XVII

¹²⁷ <http://kitob.uz/>

¹²⁸ <http://wiki.arxiv.uz/Ashtarxoniylar>

asr ikkinchi yarmiga kelib mamlakat iqtisodiyoti tanazzulga yuz tuta boshladi. Qishloq xo‘jaligi inqirozga uchradi, sug‘orish tarmoqlari izdan chiqdi.¹²⁹

Buxoro xonligida g‘alla ekish kamayib ketdi. Chunki, yer egasi oldin dehqondan hosilning uchdan bir qismini oladigan bo‘lsa, endi uchdan ikki, to‘rt dan uch qismini oladigan bo‘lib qoldilar. Dehqon ziroatkorlikdan hech naf ko‘rmadi. Muhammad Badi’ Samarqandiy istehzo bilan «sudxo‘r bir kishiga bir tanga bersa, uni yetti tanga qilib qaytarib olardi», deb yozadi. Yer egalarning, amaldorlarning o‘zboshimchaligi chegara bilmay qoldi. Jamoa yerlari - yaylovlar dushman otlari tuyog‘i ostida qoldi; jamoaga tegishli ekin yerlar talon-toroj qilindi. Hunarmandlar ham o‘z mahsulotlarini sotishda bojdan tashqari turli oliq-soliqlar to‘lashga majbur etildi¹³⁰.

Amaldorlardan saroyga peshkash yoki hadyalar keltirish ham barham topdi. Natijada, yuqori mansab egalari qo‘lida katta-katta yer-mulklar jam bo‘la boshladi. Masalan, Samarqand viloyati hokimi Yalangto‘shbiy, Ollohberdibiy kabilar qo‘lida ulkan va bepoyon ekin yerlari to‘plandi. Xon ulardan xiroj ham olmay qo‘ygandi. Xazinasini bo‘shab qolgan xon o‘z yerlarini sotuvga qo‘yishga majbur bo‘ldi.

Ashtarxoniylar davrida davlat xazinasini boyitishning yagona usuli soliq deb hisoblangan. Shu boisdan soliqlar turi va miqdori ko‘paytirilgan. Asosiy soliq to‘lovchi raiyat - dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar, savdogarlar bo‘lib, ulardan xiroj, zakot, ixrojt, boj va boshqa soliqlar undirilgan. Soliqlardan tashqari aholi kanallar qazish, ariqlarni tozalash, qurilish va boshqa ishlarga majburan jalb etilardi.

Ashtarxoniylar davlatida soliq tizimi shayboniylar davlati soliq tizimiga o‘xshash xolda yuritilgan. Birok bu davrda tinimsiz urushlar sababli aholidan soliqlar yig‘ib olish ko‘paygan. Bu davrda ham shayboniylar davrida bo‘lganidek, ixrojt, tog‘ar, ulufa-ko‘nalg‘a, begar, madadi lashkar, boj, tansuqot, tuxfa va boshqa soliqlar mavjud bo‘lib, ularning ko‘pchiligi butun o‘rta asrlar davriga xos edi. Raiyat soliqlarni to‘lashdan tashqari turli ishlarga mudofaa inshootlarini, sug‘orish

¹²⁹ Усмонов.К, М. Содиқов, С. Бурхонова. Ўзбекистон тарихи. Т.2005. 170-б.

¹³⁰ Бобожонова Д.Б., Жураева Н., Бобожонова Н. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. Т.2011. 201-б.

tarmoqlarini tiklash kabilarga majburan jalb etilgan. Xatto Subxonkulixon davrida bir yo‘la yetti yillik soliqni yig‘ib olish haqida farmon berilgan va bu xalqning qashshoqlashuviga, narxlarning oshib ketishiga olib kelgan edi. XVII asrning ikkinchi yarmida, Subxonqulixon hukmronligi davrida hamma viloyatlarda aholidan har yili barot (aholidan muhlatidan oldin yig‘ishga hokim beradigan, xonning alohida hujjati) bilan yetti baravar pul va natura soliq olish odat bo‘lib qolgandi. Masalan, yozma qaror majburiyati yoki to‘g‘rirog‘i hukumat tomonidan taqdim etilgan chek bilan bir qishloq 500 tanga (kumush bilan 100 so‘m) to‘lashi lozim bo‘lsa, aslida undan 3500 tanga (kumush bilan 700 so‘m) olishardi, bundan tashqari davlat kirimini hisobga oluvchi hamda hirojni to‘plovchi arboblar uchun olinadigan pullar ham o‘n barobar ortiq qilib olinardi. Davlat yerlarida yashovchi aholiga shunday miqdorda “mulkona” soliq solinardiki, dehqonlar bu mulklarni xohlagan odamga tekinga tashlab ketishga ham rozi bo‘lishardi. Bir zamonlar rivoj topgan konchilik ishlari tushkunlikga uchraganligi munosabati bilan asosiy valyuta ma‘dani hisoblangan kumushning kamligi sezilib turardi. Bir tomondan, kumush tangalar kamligini to‘ldirish uchun qisman qalbakilik bilan qo‘shimcha daromad hosil qilish maqsadida XVII asrda tangalarni “buzish” juda keng qo‘llanilardi. Tangaga mis yoki qalay qo‘shilib bozordagi muomala narxida majburiy qiymat bilan yangi tangalar chiqarilardi. Shunday qilib, tanga zarb qilish xonlikdagi mehnatkashlar ommasini ekspluatatsiya qilish, aholidan qo‘shimcha daromad chiqarib olish yo‘llaridan biri edi.¹³¹

Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar. XVII asrning boshlarida Buxoroda hokimiyat tepasiga kelgan ashtarxoniylar sulolasining bir yarim asrlik hukmronligi davri siyosiy va iqtisodiy jihatdan keskinlikning yuqoriligi, mamlakat hududlarining markaziy hokimiyatga bo‘ysun-masligi, iqtisodiy jihatdan parokandalik, tashqi davlatlarning bosqinchilik xavfi yuqori kechganligi bilan alohida xususiyatga ega bo‘lganligini o‘sha davr tarixiy jarayonlaridan kuzatish mumkin.

Dastlabki ashtarxoniylar vakillari, ayniqsa Imomqulixon va

¹³¹ Бобожонова Д.Б., Жураева Н., Бобожонова Н. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. Т.2011. 197-б.

Subxonqulixonlar hukmronligi yillarida xonlikdagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik nisbatan ta'minlagan bo'lsada, ayni vaqtda mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy sohadagi jarayonlarida beqarorlik yuzaga kela boshladi. Bu holatni ayniqsa pul sohasdagi holatlardan ham kuzatish mumkin. XVII asrning o'rtaligiga kelib esa, malakatning bu sohalardagi ahvoli inqiroz darajasiga kelib qoldi.

Abdulazizxon hukmronligi yillarida Xiva xonlari Abulg'ozixon (1643-1663) va uning o'g'li Anushaxon (1663-1687) Buxoro hududlariga bir necha marta talonchilik yurishlarini amalga oshirdilar. Xorazmliklar 1655-yilda Qorako'l, Buxoro atroflarini, 1662-1663 yillarda Buxoro va Buxoro atroflariga hujum qilib, u yerlarni talon-taroj qildilar. Dushman qo'shinlariga zarba berish, o'zaro urushlarni to'xtatish imkonini topa olmagan Abdulazizxon taxtdan voz kechdi. Uning o'rniga taxtga o'tirgan ukasi Subhonqulixon (1680-1702) davrida ham Buxoro-Xiva munosabatlari murakkabligicha davom etdi. Ayniqsa, Samarqand amirlarining Xiva xoni Anushaxon hukmronligini tan olib, uning nomiga xutba o'qitishlari ba'zi amirlarning noroziligiga sabab bo'ldi. Shunday vaziyatda Subhon-qulixonni Mahmudbiy qatag'on qo'llab quvvatladi, samarqandliklar jazolandi¹³².

Shunga qaramay Buxoro va Xiva munosabatlari keskin bo'lib qolaverdi. XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida tinimsiz bo'lib turgan o'zaro kurashlar, siyosiy tartibsizliklar xalq ommasining ahvolini og'irlashtirdi, soliqlar ko'payib, poraxo'rlikning avj olishi, boshboshdoqlik mamlakat xo'jaligining vayrona holga kelib, izdan chiqishiga olib keldi. Shunday og'ir vaziyatda vafot etgan Subhonqulixon o'rniga Ubaydullaxon (1702-1711) taxtga o'tirdi.

Bu vaqtga kelib, markaziy hokimiyat anchagina zaiflashgan, dargohdagi boshqaruv tartiblari nihoyatda izdan chiqib ketgan, davlat xazinasini bo'shab qolgan va sulola hukmronligidan norozilik anchagina kuchayib borayotgan edi.¹³³

U markaziy hokimiyatni mustahkamlash, mustaqillikka intilgan bebosh amirlarni bo'ysundirish, ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirish uchun

¹³² Бобожонова Д.Б., Жураева Н., Бобожонова Н. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. Т. 2011. 198-б.

¹³³ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.Шарқ 1998. 272-б.

tinimsiz urushlar olib bordi. Ubaydullaxon yirik zodagonlar, qabila boshliqlarining mavqeini pasaytirish, siyosiy tarqoqlikni bartaraf etish maqsadida ularni markaziy hokimiyatdan chetlashtirdi, hatto diniy-siyosiy hokimiyatga katta ta'siri bo'lgan Jo'ybor shayxlarini soliq to'lamaslik imtiyozidan mahrum etdi. Yana davlatni boshqarishga hunarmandlar va savdogarlarning bolalarini jalb qilib, o'ziga ishonchli yangi amaldorlarni shakllantirishga harakat qilgan Ubaydullaxon faoliyati yuqori tabaqa vakillarining noroziligiga sabab bo'lgan bo'lsa, 1708 yilda markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun o'tkazgan pul islohoti aholining o'rta tabaqasi orasida ham xonning ta'sirini ancha pasaytirdi.¹³⁴

XVII-XVIII asrlarda Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida Buxoro xonligida pul muomalasi va malakatning moliyaviy xo'jaligi sohasida bir qator ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. XVII asrning boshlarida yuqori qiymatli kumush tangalar zarb qilinishi bilan bir qatorda shayboniylar davri tanganlari ham savdo munosabatlari va pul muomalasida birdek ishlatilar edi. XVII asrning birinchi yarmi oxirlariga kelib esa tangalar tarkibidagi kumush miqdori 10-15% gacha qisqarib bordi. Shunga qarmasdan bu "yangi" tangalarning qiymati avvalgidayek 30 mis tangaga teng nisbatni saqlab qolaverdi.¹³⁵

Maxmud ibn Valining yozishicha, XVII asrning birinchi yarmidayoq Balx va Movarounnaxrda qiymati past tangalarni zarb qilishga urinishlar bo'lib, bunday tangalarning tarkibidagi kumush miqdori to'rttdan bir qismgacha kamaytirib yuborilgan.¹³⁶

XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib, savdo – sotiqda aynan past qiymatli tangalar asosiy o'ringa chiqib qoldi, natijada mamlakatning moliyaviy siyosatidan xalqning noroziligi tobora kuchayib bordi. Mamlakatning ichki siyosiy hayotida beqarorlik yuzaga keldi, mamlakatning siyosiy inqirozi kuchayib bordi, ayni vaqda buxoro xonligida mavjud siyosiy parokandalikdan foydalangan Xiva xonligi hukmdorlari ham Buxoro xonligi hududlariga tez-tez bosqinchilik yurishlari uyushtirib turdilar.

Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida Xiva xoni Abdulg'oziy

¹³⁴ Ўша жойда.

¹³⁵ История Узбекистана (XVI- первая половина XIXв.).Т."Фан". 2012. 166-б

¹³⁶ Ўша жойда.

Bahodirxon va undan keyin o'g'li Anushaxon Buxoro va Samarqand atroflariga tez-tez hujum qilib turdi. Shu paytda Buxoro xoni bo'lgan Subxonqulixon (1681-1702) o'z raqiblariga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. Uning o'g'li Ubaydullaxon (1702-1711) hukmronligi davrida Balx, Termiz, Shahrisabz hokimlari mustaqil bo'lib olishga harakat qildilar.

Xon ularga qarshi harbiy yurishlar qilishga majbur bo'ldi. Shu bilan birga, bosh ko'targan Samarqand va Xisor aholisini qattiq qirg'inga mubtalo qildi, soliq va boshqa to'lovlarni orttirdi. O'zaro beto'xtov urushlar, harbiy yurishlardan keyin xazina bo'shab, xalqning iqtisodiy ahvoli og'irlashib bordi. Mamlakat ichkarisida va tashqarisida doimo harbiy harakatlar olib borish uchun mablag'lar kerak edi. Mahalliy hokimlarning qarshiligini yenga olmadi.¹³⁷

Ubaydullaxon tomonidan 1708 yilda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, xususan pul islohotining asosiy maqsadi ham eng avvalo mamlakat siyosiy barqarorligini tiklash, markaziy hokimiyatni kuchaytirish, mamlakatning barcha hududlari va barcha o'zboshimcha hukmdorlarini itoatda tutib turish kabilarga ham qaratilgan edi. Ayni vaqtda mamlakat xazinasini to'ldirishga qaratilgan, shuningdek shahar hunarmandlari va savdogarlarining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan 1708 yildagi pul islohoti dastlabki vaqtlarda aholining aynan shu qatlamining moliyaviy ahvolini og'irlashtirib yubordi.¹³⁸

Pul islohotining e'lon qilinishi dastlab shahar aholisining noroziligini kuchaytirib yuborgan bo'lsa, keyinchalik barcha xalq omasining umumiy noroziligini keltirib chiqardi. Shunga qaramay dastlabki vaqtlarda xalq qo'zg'olonlari kuch bilan bostirilib, islohotning dastlabki natijalari amalga osha boshladi. Islohot natijasida muomalaga chiqarilgan yangi tangalarning ikkitasi bozorlardagi savdo-sotiq jarayonida avvalgi yuqori darajadagi kumush tarkibiga ega bo'lgan bitta tangaga tenglashtirildi.

1708 yildagi pul islohoti natijasida zarb etilgan tangalar o'zining turli-tumanligi va pul muomalasida murakkabligi bilan xususiyatlanardi. Keyingi bir necha o'n yillar mobaynida Ubaydulla-xon tomonidan zarb etilgan past qiymatli kumush tangalar o'zining misga o'xshashligi bilan

¹³⁷ Каримова М. Узбекистон тарихи. Фарғона. 2010. 91-92-бб.

¹³⁸ Сагдуллаев А.С. ва бошқ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т. Академия. 2000. 177-б.

alohida xususiyatga ega edi.¹³⁹

XVIII asrning keyingi yillarida turli xonlar tomonidan ham oltin tangalarning zarb etilishi yoʻlga qoʻyildi. Biroq turli yillarda va turli xonlar tomonidan zarb etilgan tangalarning qiymatidagi xar – xillik, bir oltin tangaga 50-80 tagacha kumush tanganing qiymati tenglashtirilishi savdo aloqalarining, ayniqsa, tashki savdo munosabatlarining murakkablashuviga olib keldi.

XVIII asr boshida Buxoro xonligida yuzaga kelgan chigal siyosiy vaziyat Subhonqulixon (1680-1702) vafotidan soʻng taxtga oʻtirgan Ubaydullaxon (1702-1711) hukmronligi davrida yanada kuchaydi. Markaziy hokimiyatdagi parokandalik oqibatida davlatni idora etishda sustkashlikka yoʻl qoʻyildi, oʻzaro ichki urushlar, urugʻlararo qarama-qarshiliklar kuchayib, markaz bilan mahalliy boshqaruv tizimi oʻrtasida aloqa uzildi. Natijada mamlakat bir necha mustaqil maʼmuriy birliklarga ajralib ketdi¹⁴⁰.

Yuqoridagilarga xulosa sifatida aytish mumkinki, Ubaydullaxon markaziy hokimiyatni kuchaytirishga va yirik yer egalari imtiyozlarini qisqartirishga qaratilgan boshqa bir qator tadbirlarni ham koʻrdi. U xatto ruhoniylar - Juybor shayxlari boʻlgan katta yer egalarini soliq imtiyozlaridan mahrum qilishgacha borib yetdi. Uning davlat faoliyatida 1708-09 yillarida oʻtkazilgan pul islohoti alohida oʻrin egallasa-da, pul qiymati toʻrt marta tushib ketdi. Islohotdan zarar koʻrgan aholi gʻalayonlari kuchayib, oʻrta tabaqalar orasida taʼsiri ancha pasaydi. Fitna qurboni boʻlgan Ubaydulloxonning oʻrniga ukasi Abulfayzxon (1711-1747) nomigagina xon qilib oʻtqazildi.¹⁴¹

Uning davrida mamlakat oʻzini mustaqil hisoblovchi viloyatlarga boʻlingan. Mamlakatni boshqarish mangʻit urugʻlari tomonidan qoʻllab-quvvatlangan va obroʻga ega boʻlgan Muhammad Hakimbiy qoʻliga oʻta boshladi. Muhammad Hakimbiy mansub boʻlmish mangʻitlarning hokimiyat uchun kurash maydoniga kirib kelishiga Eron shohi Nodirshohning (1740-1747) taʼsiri katta boʻlib, Ashtarxoniylar deyarli hokimiyatdan chetlatilgan edilar. Abul-fayzxonning oʻlimidan soʻng

¹³⁹ История Узбекистана (XVI- первая половина XIXв.).Т."Фан". 2012. 167-б

¹⁴⁰ История Узбекистана (XVI – Первая половина XIX века). – Т.: Фан, Т. III. 1993. – С. 149-157.

¹⁴¹ Эшов Б. Оʻzbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. Т. 2012. 258-259-66.

viloyat hokimlari isyon ko'tardilar. Qo'zg'olon bostirilgach, 1753 yilda Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahimbiy arkoni davlat va ruhoniylar fatvosi bilan Buxoro taxtini egalladi va hokimiyat tepasiga kelgan Mang'itlar xonadoni Buxoro davlatini 1920 yilgacha boshqardi.

Buxoro xonligi savdo aloqalari. Bu davrda O'rta Osiyo – Rossiya aloqalarida yangi boskich boshlandi. XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiya tomonidan Qozon, Astraxan xonliklari va Sibir xonligi bosib olinganidan keyin, Rossiya hududi to Kaspий dengizi va Qozog'iston hududlarigacha kengaydi. Moskvaning Xiva hamda Buxoro bilan savdo va diplomatik munosabatlar o'rnatishga intilishi uzoq davrga mo'ljallangan siyosiy maqsadlarni ko'zlar edi. Ivan IV Grozniy va Shayboniy Abdullaxon II davridan boshlab, O'rta Osiyo - Rossiya o'rtasida doimiy elchilik aloqalari o'rnatildi va bu jarayon keyingi davrlarda ham davom etdi¹⁴²

O'rta Osiyo bilan savdo-sotiq Astraxan, Qozon, Nijniy Novgorod va Saratov kabi shaharlar rivojiga yordam berdi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, XVII asrning oxirgi choragigacha o'rta osiyolik savdogarlar Rossiya va Xitoy o'rtasidagi savdo aloqalarida asosiy vositachi hisoblanar, Rossiyaga Balx, Buxoro va Xiva orqali hind mahsulotlarini (choy, kimmatbaxo toshlar, marvarid, shirinliklar va boshqalar) yetkazib berardilar¹⁴³.

Buxoroda hind savdogarlari yashaydigan butun bir mahalla mavjudligi, XVIII asrda rus savdogarlari va ularning ish boshqaruvchilari 2-3 yillab O'rta Osiyoning turli shaharlarida yashaganliklari ham diqqatni tortadi. Bularning hammasi savdo-iqtisodiy aloqalarning o'zaro ta'siriga yordam berdi. XVII-XVIII asrlarda Sibirda, Tyumenda, Tobolskda va Tura shaharlarida buxorolik va toshkentlik savdogarlar joylashib, bu yerda chorvachilik, savdo-sotiq bilan shug'ullana boshlaganliklarini alohida qayd etib o'tish lozim. Ma'lumki, XVII-XVIII asrlarda Sibir hududining Rossiya markazi bilan aloqalari ancha zaif edi. Shimoliy urushda (1700-

¹⁴² Гуламов Х. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX в. – Ташкент: Фан, 2005. – 336 с.

¹⁴³ Бабаходжаев, М.А. Русско-афганские торгово-экономические отношения во второй половине XVIII – начале XX в. / М.А. Бабаходжаев. Ташкент: Фан, 1965. – 132 с.

1721 yy.) asir tushgan shvedlar Sibirga keltirilgunga qadar, bu ulkan hududdagi yagona savodli kishilar buxo-rolik savdogarlar bo‘lganligi rus manbalarida qayd etilganligiga e’tibor qaratish kerak. Ular O‘rta Osiyo bilan aloqalarni davom ettirib, Buxoro va Toshkentda oliy diniy ta’lim olib, keyin Qozon va Ufada o‘qiganlar. XVIII asrda Rossiyada yashovchi buxoroliklardan biri Xiva xoni Abdulg‘ozixonning “Shajarai turk” asarini rus tiliga tarjima qildi¹⁴⁴.

Rossiya imperiyasi davri tarixiy adabiyotlarida “Moskva davlatining O‘rta Osiyo xonliklari bilan savdo munosabatlari ikki tomonning ham hayotiy ehtiyojlarini qondirardi”, deb hisoblangan. Birgina XVII asrda Buxoro va Xiva elchilari o‘n olti marta Moskva va rus chegara shaharlariga tashrif buyurgan bo‘lsa, rus elchilari bu davrda to‘qqiz marta O‘rta Osiyoga kelganlar. Bu elchilik missiyalarining barchasi, asosan, savdo maqsadlarini ko‘zlab amalga oshirilgan edi. Lekin Moskva hukumatining O‘rta Osiyoga qurol-yarog‘ va harbiy anjomlarni chiqarishga ruxsat bermaganliklari e’tiborni tortadi. O‘rta Osiyoga metall chiqarish hukumat buyrug‘i bilan keskin nazorat ostiga olinib, cheklab qo‘yilgan edi. Xususan, Astraxanda o‘rta osiyolik savdogarlarga sotish taqiqlangan mahsulotlar ro‘yxatida oltin, kumush, temir, qalay, mixlar va boltalar ko‘rsatilgan. XVIII asrdayoq Rossiya hukumati O‘rta Osiyoga arzon xom ashyo manbai sifatida qaray boshladi. Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi (1714-1717 yy.), F.Benevenining Buxoroga elchiligi (1721 y.) ochiq-oydin harbiy razvedka maqsadlarini ko‘zlab (oltin konlarini aniklash, asosiy quruqlik va suv yo‘llarini qayd etish, kartografik ma’lumotlar to‘plash va boshqalar) amalga oshirilgan edi. Orenburg va Sibir mudofaa yo‘nalishining qurilishi Rossiyaning O‘rta Osiyoga nisbatan tutgan harbiy siyosiy maqsadlarini aniq ko‘rsatib turardi. Bu intilish Turkistonning istilo etilishi va mustamlakachilik tizimining o‘rnatilishi bilan yakunlandi¹⁴⁵.

¹⁴⁴ Юлдашев М. Ю. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI–XVII вв. / М. Ю. Юлдашев. – Ташкент, 1964. – 67-69 с.

¹⁴⁵ Эргашев Ж.Ю., Очилов А.Т. Savdo йўлларида хизмат кўрсатиш (Бухоро хонлиги мисолида). ҚарДУ хабарлари. Қарши, 2019 йил. 2-сон. 46-50-бб.

**Tayanch
soʻzlar:**

Ashtarxoniylar, Joʻybor shayxlari, Joniylar, Astraxan, Jonibek sulton, Xuroson, Buxoro, hokim, ichki siyosiy nizolar, qoʻzgʻolon, isyon, markaziy hokimiyat, oliy hukmdor, ichki ziddiyatlar, qabilaviy nizolar, muxolif, pul islohoti, Nodirshoh, davlat boshqaruvi, chorvadorlar, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, savdo aloqalari, yerga egalik shakllari, soliq tizimi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ashtarxoniylar davri tarixiga oid manbalarni tavsiflab bering
2. Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyatga kelishi jarayonlarini yoritib bering?
3. Ashtarxoniylar sulolasining davlat boshqaruvi tizimi haqida maʼlumot bering?
4. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida qishloq xoʻjaligi sohalarini ayting?
5. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida sugʻorish ishlarini qanday tashkil etilgan?
6. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida hunarmandchilik va uning turlari?
7. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida yer egaligi shakllari va tizimi?
8. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida soliq siyosati qanday amalga oshirilgan?
9. Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida amalga oshirilgan islohotlar haqida ayting?
10. Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida amalga oshirilgan pul slohotlari haqida maʼlumot bering?
11. Qaysi xonlar ashtarxoniylar sulolasi orasida alohida oʻringa ega deb hisoblaysiz?
12. Ashtarxoniylar davlatining har tomonlama inqirozga uchrashiga nimalar sabab boʻldi?

XVI-XIX ASR O‘RTALARIDA XIVA XONLIGI

- ❖ Xiva xonligi tarixiga oid manbalar
- ❖ Xiva xonligining tashkil topishi va XVI-XVIII asr o‘rtalaridagi siyosiy tarixi
- ❖ Xiva xonligida Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligining asosiy tafsilotlari (XVIII asr ikkinchi yarmi - XIX asr o‘rtalarida)
- ❖ Xiva xonligida davlat boshqaruvi
- ❖ Xiva xonligi aholisi, etnik tarkibi va mashg‘ulotlari.
- ❖ Xiva xonligida iqtisodiy hayot. Soliqlar.
- ❖ Xiva xonligida savdo munosabatlari va pul muomalasi

Xiva xonligi tarixiga oid manbalar. Markaziy Osiyo xalqlari dunyo xalqlari orasida o‘zining boy va qadimiy tarixiga ega xalqlardan sanaladi. Bu xalqlarning tarixi va unda sodir bo‘lgan barcha jarayonlar shu xalqlarning vakillari tomonidan yozib qoldirilgan turli mazmundagi minglab manbalarda aks ettirilgan. Ayniqsa, O‘rta Osiyoning XIII asrdan boshlab keyingi yuz yilliklar davomidagi tarixi, davlatchiligi, iqtisodi, etnik va madaniy-ma‘naviy sohalardagi jarayonlarini yoritib beruvchi tarix asarlari va ularning yaratilishi, tarixnavislik xususiyatlari o‘ziga xos maktablarning shakllanishini ta‘minlab berdi. Qo‘qon tarixnavislik maktabi, Toshkent tarixnavislik maktabi, Buxoro xonligi va amirligi davrida yaratilgan tarixiy asarlar, Xorazm tarixnavisligi shular jumlasidandir. Xorazm tarixnavislik maktabi haqida so‘z borganda shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Abulg‘ozining bu boradagi ishlari alohida ahamiyatga egadir. Abulg‘ozi o‘zining tarixiy asarlarini yaratishda, tarixiy jarayonlar-ni yoritish va tavsif etishda alohida yondashuvga, ya‘ni zamonaviy tarixshunoslik iboralari bilan aytganda tarixiylik va obyektivlik tamoyillariga to‘la amal qildi. Uning o‘zi ta‘kidlashicha, “Emdi ko‘nglingizga kelmasunkim faqir taraf tutub yolg‘on aytqon bo‘lg‘ayman va yo o‘zimni g‘alat ta‘rif etqon bo‘lg‘ayman”¹⁴⁶.

Xiva xonligi tarixiga oid manbalar ichida mahalliy mualliflar tomonidan yozilgan asarlar muhim o‘rin tutadi. Ular ichida Xiva xoni Abulg‘ozi tomonidan «Shajarai turk» va «Shajarai taroqima» asarlari, saroy tarixchisi Munis (1778-1829) tomonidan boshlanib, Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan davom ettirilgan «Firdavs ul-iqbol»

¹⁴⁶ Абулғозий. Шажараи турк. Т.: “Чўлпон”. 1992.11-12-бб.

(“Iqbolnoma”) asari, Muhammad Yusuf Bayoniy qalamiga mansub boʻlgan (1859-1923) «Shajarai Xorazmshohiy» asari va boshqa bir qancha asarlarni taʼkidlab oʻtish lozim. Sharq tarixnavisligida nafaqat adabiyot, sheʼriyat va boshqa kitobchilik sohalarida, balki tarix va tarixnavislik sohalarida ham til omiliga alohida eʼtibor qaratilgan. Xususan, tarixiy asarlar muallifi Abulgʻozi oʻz asarlarini ona tilida yozayotganligini taʼkidlab: - “... bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsin, deb turk tili bilan aytdim. Bir kalima chigʻatoy, turkiydan, forsiydan va arabiydan qoʻshmayman, ravshan boʻlsin deb, turkiyni ham andoq aytibmanki, besh yashar oʻgʻlon tushunar”, - deb yozadi¹⁴⁷.

Abulgʻoziy boshlagan ishni XIX asrda atoqli oʻzbek shoirlari va mashhur tarixnavsilari Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy katta mahorat bilan davom ettirdi¹⁴⁸. Albatta, Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek oʻgʻli Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniylar tomonidan yaratilgan asarlar oʻzining yozilish uslubi, voqealarning tavsifiga yondashuvlari, mualliflarning asarni yozishdagi qarashlari kabi jihatlariga koʻra Xorazm tarixnavislik maktabining noyob namunalaridan hisoblanishi bilan birga Xiva xonligi tarixini oʻrganishda ham muhim manbalardir¹⁴⁹.

Biroq, Xorazm tarixnavislik maktabiga oid yana bir asar borki, bu asar oʻz mazmuniga koʻra va asarning yozilishi xususiyatiga koʻra alohida tadqiqiy yondashuvni talab etadi, bu asar Oʻtamish Hojining “Tarixi Doʻst sulton” yoki “Chingiznoma” asaridir¹⁵⁰.

Movarunnahrda va Xurosonda hukmronlik qilgan shayboniylar sulolalari tarixi haqida Xorazmda oʻziga xos tarixshunoslik shakllandi. Tarixchi SH.Vohidovning koʻrsatishicha, “Oʻrta Osiyoda hukm surgan Shayboniylar, ularning tarixi va davriga atab yozilgan tarixiy asarlar

¹⁴⁷ Alimova D., Ilhomov Z. Tarix fani metodologiyasi. T.: “Navroʻz”, 2019.53-54-66.

¹⁴⁸ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). Т.: “Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2002.4-б.

¹⁴⁹ Мухаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. V, VI жилд. Тошкент.: Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашр. 1980; Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Зубдату-т-таворих. – Т.: Ўзбекистон, 2009. Шермухаммад Мунис. Мухаммадризо Огахий. Фирдавс ул-икбол. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010; Мухаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшохий. -Т.: “Мерос”. 1991.

¹⁵⁰ Илхомов З.А. “Ўтамиш Хожи тарихи” – Хоразм тарихнавислик мактабининг ноёб ёдгорлиги. Ижтимоий гуманитар фанларнинг долзарб масалалари: Ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. Нукус. 2018 й. 69-73-бб

Temur va temuriylar davriga nisbatan ancha kam yetib kelgan. Xorazmlik muallif tomonidan turkiy tilda Xivada yaratilgan Shayboniylar davriga oid ilk asarlardan biri “Chingiznoma”dir¹⁵¹. O‘tamish Hojining asari Xorazm tarixnavislik maktabining alohida noyob namunasi hisoblanadi.

O‘tamish Xoji ibn mavlono Muhammad Do‘stiy
“Tarixi Do‘st sulton”
(“Chingiznoma”)

O‘tamish Hojining to‘liq ismi O‘tamish Hoji ibn mavlono Muhammad Do‘stiy bo‘lib, XVI asrda yashagan. Xorazm shayboniylari saroy tarixchisi. Xorazm tarixnavislik maktabiga oid bo‘lgan, 1550 yilda yozib tugallangan “O‘tamish Hoji tarixi” (“Tarixi Do‘st Sulton”, “Chingiznoma”) tarixiy asarining muallifi. O‘tamish hoji Xiva xoni Elbarsxon saroyida mirzalik qilgan. U Xorazm va OltinO‘rdaning janubiy hududlariga - Kaspiy dengizi va Quyi Volga bo‘ylariga ko‘p marta sayohat qilgan va o‘z tarixiy asarini yozish uchun materiallar to‘plagan. “O‘tamish Hoji tarixi” asari muallifi O‘tamish Hoji ibn mavlono Muhammad Do‘stiy hayoti va ijodi haqida saqlanib qolgan ma‘lumotlar ko‘p emas, shunga qaramasdan, muallifning o‘z asarida keltirgan ma‘lumotlari asosida uning bobosi XV asrning oxirlarida shayboniylardan bo‘lgan Yodgor Sulton xizmatida bo‘lgan, o‘zi esa Xorazmda hukm surgan shayboniy sultonlar Elbars Sulton (1515-1525 yy) va Esh Sulton (1558 yilda o‘ldirilgan) lar xizmatida bo‘lganligini, shuningdek bir qancha joylarga sayohat qilganligini anglash mumkin. “O‘tamish Hoji tarixi” kitobida Dashti Qipchoqda hukmronlik qilgan Jo‘ji avlodlari – Botuxon, Shaybon, O‘zbekxon, O‘rusxon, To‘xtamish va boshqalar haqida ko‘plab qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan. Asar O‘tamish Hoji ibn Muhammad Do‘stiy tomonidan shayboniylar sulolasiga mansub hukmdor Esh Sulton buyrug‘iga ko‘ra yozilgan. O‘tamish Hoji ibn mavlono Muhammad Do‘stiyning “O‘tamish Hoji tarixi” (“Chingiznoma”) asari o‘rta asr Sharq tarixnavisligi an‘analarini o‘zida aks ettirgan va ayni vaqtda Xorazm tarixnavislik maktabining noyob namunalaridan biri sifatida Xorazm tarixi va Jo‘ji ulusi tarixi haqida qimmatli ma‘lumotlar beruvchi manba sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Asarning hozirda ma‘lum ikki nusxasi mavjud bo‘lib, biri Toshkent nusxasidir. Toshkent nusxasi to‘liq bo‘lmagan nusxa hisoblanadi, shunga qaramasdan bu nusxa asosida Qozog‘istonda (2005), Yaponiyada (2008), Turkiyada (2009) va O‘zbekistonda (2009) bir nechta nashrlar amalga oshirilgan. Ikkinchi nusxa esa to‘liq nusxa hisoblanib, Axmad Zaki Validiyning shaxsiy kutubxonasida saqlangan, hozirgi vaqtda bu nusxa

¹⁵¹ Воҳидов Ш. Мунис ва Огахий. “Фирдавс ул-иқбол”. Т.: “Янги аср авлоди”. 2010. 3-б.

Turkiyada xususiy to‘plamlardan birida saqlanmoqda¹⁵².

Xorazm tarixnavislik maktabi doirasida keyingi asrlarda ham bir qator yirik tarixchilar tomonidan noyob manbalar yaratildi. Tarixchi Q.Munirovning ta’biri bilan aytganda, “O‘zbek tilida tarixiy asarlar yozish an’anasi O‘rta Osiyo xonliklaridan Xiva xonligida keng ko‘lamda davom ettirildi. A.Vamberi¹⁵³, Ogahiy, Munis, Muhammad Yusuf Bayoniy asarlarida xonlikning siyosiy tarixi, asosan qo‘ng‘irotlar sulolasi xonlarining hukmronligi yillarida sodir bo‘lgan siyosiy jarayonlar, iqtisodiy sohada amalga oshirilgan ishlar, savdo sotiq munosabatlari, bozorlar, ulardagi savdo jarayonlari, pul muomalasi va boshqa sohalar haqidagi ko‘plab qimmatli ma’lumotlar o‘rin olgan¹⁵⁴. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivida saqlanayotgan bir qator tarixiy hujjatlar ham mavzuning manbalari hisoblanadi¹⁵⁵.

Xiva xonligining tashkil topishi va XVI-XVIII asr o‘rtalaridagi siyosiy tarixi. Xiva xonligi janubda Eron, Sharqda Buxoro amirligi, G‘arbda Kaspiy dengizi, Shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi¹⁵⁶. Xonlik aholisining ko‘pchiligini o‘zbeklar tashkil etib, ulardan eng kuchli va ko‘p sonlilari qo‘ng‘irot, nayman, qiyot, uyg‘ur, nukuz, qang‘li, xitoy, qipchoqlar edi. O‘zbek qabilalari asosan Amudaryo tarmoq yo‘ygan hududlarda joylashgan edi. Aholining to‘rtidan birini turkmanlar tashkil qilgan va ular o‘g‘uzlarning avlodlari bo‘lib, hozirgi Turkmaniston hududlarida yashaganlar. Qoraqalpoqlar yashagan Amudaryoning quyi havzasi va Orol dengizining janubiy qirg‘oqlari ham xonlik tasarrufida edi¹⁵⁷.

¹⁵² Мустакимов И.А. Арабографичные нарративные источники по истории тюрко-татарских государств XV–XVIII вв. // Средневековые тюрко-татарские государства. Сборник статей. Выпуск 5: Вопросы источниковедения и историография истории средневековых тюрко-татарских государств. – Казань: Институт истории им. Ш.Марджани АН РТ, 2013. Стр.48-53.

¹⁵³ Муталибова Д. Арминий Вамбери о Бухарском эмирате. Т., 2009.

¹⁵⁴ Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. Т.Мерос. 1991.

¹⁵⁵ ЎЗР МДА. 715-фонд. - «Подготовительные материалы к составленной полковником Серебrenниковым публикации документов «Туркестанский край. Сборник материалов для истории его завоевания»; 1-фонд.- «Канцелярия Туркестанского генерал-губернатора»; 2-фонд, 125-фонд ва бошқ.

¹⁵⁶ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакачилиги даврида. Т.Шарк. 2000 й. 47-б.

¹⁵⁷ Ўша жойда

1598 yildan boshlab xonlikning asosiy iqtisodiy va siyosiy markazlaridan biri bo'lgan Xiva shahri xonlik poytaxtiga aylantirildi va shu davrdan boshlab avval Xorazm xonligi deb yuritilgan, davlatning nomi ham Xiva xonligi nomi bilan yuriti-ladigan bo'ldi.¹⁵⁸

Xiva xonligi Amudaryoning quyi oqimidagi, qadimgi Xorazm vohasida XVI asr boshlarida shakllangan davlat bo'lib, XVII asr boshlaridan mustaqil davlat sifatida boshqarilgan. 1763 yildan o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'i vakillari inoqlar Xivada hokimiyatni qo'lga oldilar. 1873 yilda Rossiya imperiyasi istilosidan keyin imperiyaga qaram davlatga aylandi. 1920 yilda sho'rolar hokimiyati tomonidan xonlik tugatilib, sho'rolar davlatiga aylantirildi.

Temuriylar davlati tarkibiga kirgan Xorazm vohasi 1505 yilda Shayboniyxon tomonidan bosib olingan bo'lsa, 1510-1512 yillarda Eron shohi Ismoil Safaviy davlati tarkibiga kiritildi. Xorazmda Eron shohining 3 ta dorug'asi hukmronlik qilgan. Biroq, Vazir shaxrining qozisi Umar Shayx tashabbusi bilan Xorazmda eronliklarga qarshi kuchli halq ozodlik harakatlari boshlanib ketdi. Xorazmning obro'li shayxlaridan bo'lgan bo'lgan Shayx ota avlodlari Dashti qipchoqlik o'zbeklar hukmdorlaridan biri Elbarsxonga Xorazm taxtini taklif qildilar. Elbarsxon o'z qo'shinlari bilan qisqa vaqt ichida Vazir shahrini (Ust yurtda, Ko'xna Urganchdan 60 km uzoqlikda joylashgan bu shahar XV asrda o'zbek xonlaridan Mustafaxon tomonidan barpo etilgan) qo'lga kiritib, vohadagi barcha shaharlardan eronliklarni quvib chiqardilar. Elbarsxon Xorazm poytaxti hisoblangan Urganch shahrini ham qo'lga kiritdi va amalda mustaqil xonlikka asos soldi¹⁵⁹.

Elbarsxon tez orada xonlik hududini birmuncha kengaytirishga erishdi. Hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Eronning shimolidagi Seraxs tumanini, Orolni va Mang'ishloqni egalladi. Uning vafotidan so'ng Xorazm taxtini vorislari boshqardilar. Hususan, XVI asrda Berikach Sulton, Sultonxoji, So'fiyonxon, Sultong'oz, Avanushxon, Qolxon, Aqatoyxon, Do'stxon, Xojimxon,

¹⁵⁸ Ўша жойда

¹⁵⁹ Сагдуллаев А ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т.Академия. 2000. 235-б

Nurmuhammadxon kabilar xonlik qildilar. Xonlik tashkil topgan 1510 yildan boshlab uning hududlari Amudaryoning quyi oqimi, Orol atroflari, Xuroson tomonga kengayib bordi.

Xuroson

Eronning shimoliy sharqiy qismidagi tarixiy viloyat. Qadimda Parfiya podshohligining markazi (mil. av. 250 -mil. 224). Xuroson nomi sasoniylar davridan ma'lum. Xuroson III asrdan XVIII.asr o'rtalarigacha hozirgi Eronning shimoliysharqiy qismi, Marv vohasi, hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi va Afg'onistonning shimoliy va shimoliy g'arbini o'z ichiga olgan. Mashhad, Nishopur, Marv, Balx, Hirot, Tus, Saraxs, Obivard, Niso, Sabzavor Xurosonning muhim shaharlari bo'lgan. VII asr o'rtalarida uni arablar egallagan. Arab xalifaligi tanazzulga uchragach, IX-XIV asrlarda Xuroson Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Hulokular davlati tarkibiga kirgan. VIII asrdan XIII asrning 20-yillarigacha Xuroson Yaqin va O'rta Sharqda iqqisodiy jihatdan eng rivojlangan o'lkalardan biri bo'lgan. U qo'shni davlatlarga qishloq xo'jaligi mahsulotlari, mevalar, ipak, jun, mo'yna chiqargan. Shuningdek, Xurosonda kumush, qo'rg'oshin, mis va temir rudalari, oltin, oltingugurt, to'tiyo, marmar, malaxit va boshqalar qazib chiqarilgan, to'qimachilik rivojlangan. 1220 va 1223 y.larda Xurosonga mo'g'ullar hujum qilib, vayron etgan, aholisining ko'pchiligi qirib tashlangan. Shundan keyin Xuroson avvalgi mavqeiga chiqa olmagan. XIV asr oxirida Amir Temur Xurosonni o'z davlatiga qo'shib olgan, keyinchalik Shayboniylar, 1510-1736 yillar Safaviylar davlatlariga tobe bo'lgan. Keyinchalik Xurosonning bir qismi (Hirot viloyati va Balx) Afg'onistonga, bir qismi Eronga qo'shilgan.

Ammo, o'zbek sultonlari va shahzodalar o'rtasida siyosiy birlik yo'q edi. Tez orada ular o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar avj oldi. Bu kurashlardan foydalangan Buxoro hukmdori shayboniy Ubaydullaxon 1537 - 1538 yillarda qisqa muddat Xorazmni egallashga muvaffaq bo'ldi. Mag'lubiyatga uchragan Avanishxon oilasi bilan shayboniylar tomonidan qatl etildi¹⁶⁰.

Ubaydullaxonning hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi. Uning zulmiga chiday olmagan xorazmliklar Anushaxonning vorislari boshchiligida buxoroliklarga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Ubaydullaxon 1538 yilda yana Xorazmga qo'shin tortdi. Xazorasp bilan Xiva shaharlari oralig'idagi Kardaronxos degan joyda Buxoro qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi.

¹⁶⁰ Эшов Б Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқаруви тарихи. Т.: “Янги аср авлоди”. 2012. 335-б

Shayboniylardan ozod bo'lgan Xorazmda endi ichki kurashlar avj olib ketdi¹⁶¹.

XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Amudaryo o'zanining o'zgarishi munosabati bilan Urganchning mavqei pasaydi, aholisi qulayroq joyga ko'chib borib joylashadi va bu yerda Yangi Urganch shahri paydo bo'ladi. Amudaryoning Urganch shahriga nisbatan muhim ahamiyatga egaligi haqida Abulg'ozzi Bahodirxon o'zining “Shajarai turk” asarining ikki joyida qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadi: -“Amu suvi Urganchning qal'asining tubidan o'tub, Abulxon tog'ining kun tug'ushina borib, tog'ning tubina tegib, qibla tarafidan o'rgulub, kun botishig'a borib, andin o'tub o'g'urcha borib Mozandaron tengizina quyilar erdi. Taqi ul kim Amu daryosining ikki tarafi to O'g'urcha borg'uncha, ekinlik va yuzum bog'i va daraxiston erdi. Obodonliq va ma'murliqning hech nihoyati yo'q erdi”¹⁶², deb Amudaryoning Urganch va uning atroflaridagi obodonchilikning asosiy manbi bo'lganligini ko'rsatib bersa, asarning keyingi qismlarida Amudaryo suvining o'z o'zanini o'zgartirishi shahar hayotiga jiddiy ta'sir etganligini ko'rsatadi: -“Biz dunyoga kelmasdan o'ttiz yil ilgari Amu suvi Xost minorasining yuqorisini Qora ayg'ir to'qayi derlar, ul yerdin yo'l yasab oqib, Tuk qal'asina borib, Sir tengizina quyg'on ekandur. Ul sababdin Urganch cho'l bo'lubti”¹⁶³. Abulg'ozixonning 1603 yil 23 avgustda tug'ilganligi hisobga olinsa, Amudaryoni o'zanining o'zgarishi 1573 yilga to'g'ri kelashi tadqiqotlarda ham ko'rsatib o'tilgan¹⁶⁴. Bu orada esa Xiva shahrining mavqei ko'tariladi. 1556 yilda Avaneshxon Xivani davlat poytaxti deb e'lon qiladi, biroq u o'z hukmronligini faqat Xivadagina o'tkaza olar edi. Arab Muhammadxon (1602-1623) davrida Xivaning mavqei kuchayib, xonlikning rasmiy poytaxtiga aylandi. Xiva xonligi tasarrufiga Amudaryo quyi oqimidagi vohalar, Mang'ishloq, Dahiston (Mashhad) va O'zboy atrofidagi ko'chmanchi turkman hududlari kirardi. Biroq, xonlikda tinchlik bo'lmadi. Uzoq yillar davomida xonlik tepasida turgan o'zbek qabilalari

¹⁶¹ Ўша жойда

¹⁶² Абулғози Баходурхон. Шажараи турк. Т.: Чўлпон 1990. 126-б.

¹⁶³ Абулғози Баходурхон. Шажараи турк. Т., Чўлпон 1990. 167-б.

¹⁶⁴ Ф.Х.Ҳикматов, Д.П.Айтбаев. Ўрта Осиё сув илми тарихига оид маълумотлар. Тошкент. “Университет”. 2006. 61-б.

bilan turkman qabilalari o'rtasida, shuningdek, shahzodalar o'rtasida tinimsiz urushlar bo'lib turdi. Xiva va Buxoro hukmdorlari o'rtasida Murg'ob daryosi bo'ylari uchun, Marv uchun qirg'inborot urushlar bo'lib turar, bu hududlar qo'ldan-qo'lga o'tardi. Xonlikka shimoldan qalmoqlar, qozoqlar, Ural kazaklari tez-tez xujum qilib, falokatlar keltirardi.¹⁶⁵

Bu orada Buxoro hukmdori Abdullaxon II Shayboniylar davlatini qayta tiklashga muvaffaq bo'lib Xorazm hududlarini yana Shayboniylar tasarrufiga olish uchun harakat boshladi. Chunonchi, bir necha yurishlardan so'ng 1593 yilda Xorazm yana Shayboniylar qo'lga o'tdi. Abdullaxondan mag'lubiyatga uchragan Xojimxon Xivani tashlab bir guruh navkarlari bilan Eronga qochdi va shoh Abbos saroyidan panohtopdi. 1598 yilda Abdullaxon II vafot etganidan so'ng Hojimxon shoh Abbosdan ruhsat olib Xorazmga qaytdi. Yangi sharoitda u Urganch bilan Vazirni boshqarishni o'ziga olib Xiva bilan Katni Arab Muhammadxonga, Hazoraspni Isfandiyor Sultonga berdi. 1600 yilda Hojimxon Urganch va Vazir qal'alarini boshqarishini Turkiyadan kelgan o'g'illariga topshirib, o'zi Xiva kichik o'g'li Arab Muhammadxon bilan qoladi. 1601 yilda Hojimxon 83 yoshida vafot etgach, taxtga uning o'g'li Arab Muhammadxon (1602-1623 yy.) o'tirdi¹⁶⁶.

XVII asr boshlariga kelib, Xorazm taxti uchun bo'lgan sulola-viy kurashlarda Arab Muhammadxon (1602—1623) taxtni qo'lga kiritdi.¹⁶⁷ Bu davrda rus kazaklari, qozoqlar, qalmiqlarning xonlik xududlariga kirib talonchilik yurishlari bo'lib turdi. Manbalarning guvohlik berishicha, hatto rus kazaklaridan 1000 kishi shaharda qo'shin yo'qligidan foydalanib Urganchga bostirib kiradilar, katta o'lja va ko'pgina kishilarni qul qilib, olib ketishga harakat qiladilar. Lekin o'z vaqtida yetib kelgan xon qo'shinlari bu bosqinchi to'dani butunlay tormor etishga muvaffaq bo'ladilar.¹⁶⁸

Xonlikda katta ta'sirga ega Darvish shayxlarning aralashuvi bilan Arab Muhammadning o'g'illari - Xabash va Elbarslar hokimiyat uchun otasiga qarshi kurash boshlaydilar. Natijada Arab Muhammadxon

¹⁶⁵ Усмонов Қ, М.Содиқов, С.Бурхонова. Ўзбекистон тарихи. Т.: 2005, 168-169-бб.

¹⁶⁶ Эшов Б Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқаруви тарихи. Т.: “Янги аср авлоди”. 2012. 336-б

¹⁶⁷ Shamsutdinov R. Karimov SH, Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. T. Sharq. 2010. 93-б.

¹⁶⁸ Сагдуллаев А ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т.Академия. 2000. 84-б

taxtdan tushiriladi va ko‘ziga mil tortilib, so‘ng Xivada qatl etiladi. Taxtga esa Elbarsxon o‘tiradi. Qisqa hukmronlikdan so‘ng u ham ukasi Isfandiyor tomonidan taxtdan tushiriladi. Isfandiyor hukmronligi davrida (1623-1643) Xiva xonligida siyosiy vaziyat ancha keskinligicha qoldi¹⁶⁹. Ayniqsa, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Orol hokimligi (bu yerda o‘zbek qo‘ng‘irotlari katta siyosiy ta‘siriga ega edi) markaziy hokimiyatga bo‘ysunmay, Xorazmning siyosiy hayotida muhim o‘rin tutardi. Turkman qabilalarining ham bu xonga ta‘siri kuchli edi. Ular yordamida taxtga o‘tirgan Isfandiyor o‘zbek qabilalari vakillarini davlat boshqaruvidan chetlashtira boshladi. Bu esa xonlikdagi siyosiy vaziyatning yanada chigallashuviga olib keldi.¹⁷⁰

Isfandiyorning o‘limidan so‘ng Xiva taxtiga kelgan Abulg‘ozi Xorazm tarixida yirik davlat arbobi va tarixnavis ijodkor sifatida muhim o‘rin tutadi. Bu hukmdorning hayot yo‘li murakkab kechadi. Arab Muhammadning o‘g‘li bo‘lgan Abulg‘ozixon o‘z akalari Elbars va Xabashlar bilan hokimiyatni egallashga bo‘lgan munosabatlarida qarama-qarshilik yuzaga kelgani sababli uchun Xorazmni tashlab chiqib ketadi, U bir qancha muddat Buxoroda Imomqulixon saroyida yashaydi. Taxtni egallagan Isfandiyorxon-ning taklifi bilan 1623 yilda Xorazmga keladi va Urganchga hokim etib tayinlanadi. Lekin tez orada Isfandiyor bilan qarama-qarshilik yuzaga kelib, Turkistonga, Eshimxon huzuriga ketadi. U yerdan Toshkentga kelib, bu yerda ikki yil istiqomat qiladi. Buxoro orqali Xivaga qaytgan Abulg‘ozini o‘ziga jiddiy raqib deb bilgan Isfandiyorxon uni bosqinchilikda ayblab, hibsga oldiradi va Eron shohi huzuriga garov tariqasida jo‘natiladi. Isfaxon yaqinidagi Taborak qal‘asida 10 yil tutqunlikda yashashga majbur bo‘lgan Abulg‘ozi 1639 yili o‘z nazoratchilari yordamida yashirincha Erondan chiqib ketishiga muvaffaq bo‘ladi. Undan so‘ng u 3 yil davomida turkmanlar orasida yashaydi. 1642 yilda Orol o‘zbeklari huzuriga keladi va ular yordamida taxtni egalaydi. Abulg‘ozixonning hukmronligi yillarida (1643-1663) markaziy davlat hokimiyati birmuncha mustahkamlandi.¹⁷¹

¹⁶⁹ Vatan tarixi.. 93-б.

¹⁷⁰ Ўша жойда.

¹⁷¹ Vatan tarixi. T. Sharq. 2010. 94-б.

Ko'chmanchi turkman qabilalari va qalmiqlarga qarshi muvaffaqiyatli janglar olib borildi. Abulg'ozining hukmronligi yillarida Buxoro xonligi hududlariga ham talonchilik yurishlari uyushtirildi. Xiva qo'shinlari Chorjuy, Qorako'l, Karmana va Qarshi vohasiga hujumlar uyushtirib, bu yerlarni talon-taroj qildilar.

Abulg'oz Bahodirxon
(1603.23.8, Urganch-1663. 4, Xiva)

Xiva xoni (1643—1663), shayboniylar sulolasidan, tarixchi va tabib. Abulg'oz Bahodirxonning og'alari Habash sulon va Elbars sulon otalari Arab Muhammadxonni yengib, uni Qum qal'asiga qamadilar. Otasining tarafdorlari bo'lgan katta og'asi Asfandiyor Eronga, Abulg'oziy Bahodirxon esa Buxoroga Imomqulixon huzuriga qochdi. 1623 yilda akasi Asfandiyorxon Xiva taxtini egallagach, Abulg'oz Bahodirxon Urganchga hokim qilib tayinlandi. Lekin Asfandiyorxon bilan o'rtalarida nizo chiqib, Abulg'oz Bahodirxon 1627 yilda qozoq xoni Eshimxon huzuriga qochdi, keyin ikki yil Toshkent hokimi Tursunxon huzurida bo'ldi. Ko'p o'tmay, turkmanlarning taklifiga binoan u yana Xorazmga qaytdi. Asfandiyor uni Xiva hokimi qilib tayinlashga majbur bo'ldi. 1629 yilda turkmanlar Eronga tobe bo'lgan Niso va Durunni bosib oldilar. Asfandiyorxon Eron bilan munosabatlarning tamoman jiddiylashib ketishidan cho'chib, Abulg'oziy Bahodirxonni bu voqealarda aybdor sifatida 1630 yil qishida Eron podshohi huzuriga garov tariqasida yubordi. Abulg'oziy Bahodirxon shu tariqa o'n yil Eronda, Isfahon yaqinidagi Taborak qal'asida yashadi. 1639 yilning yozida u tutqunlikdan qochishga muvaffaq bo'ldi. Abulg'oz Bahodirxon bir necha yil taxt uchun kurash olib borib, nihoyat 1643 yil Xiva taxtiga o'tirdi. Abulg'oziy Bahodirxon markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun kurash olib bordi. U 1663 yilda hokimiyatni o'g'li Anushaxonga topshirdi. Abulg'oz Bahodirxon yirik tarixchi olim sifatida ham e'tiborga sazovor. Uning «Shajarayi tarokima» va «Shajarayi turk» asarlari O'rta Osiyo tarixiga oid qimmatli manbalardan hisoblanadi. Abulg'oziy Bahodirxon tib ilmiga oid «Manofi'ul inson» («Insonga foydali narsalar») nomli asar ham yozgan

Akademik B.Ahmedovning yozishicha, “Abulg'oz hammasi bo'lib yigirma yil atrofida xonlik masnadida o'tirdi. Lekin boshqa hukmdorlarga o'xshab huzur-halovat ko'rmadi. Umri ko'proq urush - talashlarda o'tdi”¹⁷² Manbalarga ko'ra, Abulg'ozixon haqiqatan ham butun umrini taxt uchun kurash va jangu - jadallarga bag'ishlagan hukmdor bo'lgan. Ammo, u davlat arbobi sifatida ham qobiliyatli shahs bo'lgan. Abulg'ozixon dastavval xonlikda markazlashgan boshqaruv tizimini mustahkamlashga

¹⁷² Ахмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. Тошкент, “Чўлпон”, 2003. 24-26-бб

e'tibor qaratdi. Bu jarayonda u avvalo, turkman yo'l boshchilarini boshqaruv ishlaridan chetlashtirdi. Ularning yer-suvlari, mol-mulklari musodara qiinib, o'zlari mamlakat ichkarisiga surgun qilindi¹⁷³.

Xonlikdagi barcha lavozimlarga o'zbek urg'ularining boshliqlari qo'yildi. Xiva tarixchisi Munisning ma'lumot berishicha, Abulg'ozixon ma'muriy islohot o'tkazib, xonlikning boshqaruv tizimini batamom yangitdan tashkil etdi. Xonlikning boshqaruv tizimi-da o'zbek urug'larining mavqei ortib bordi hamda ularning 360 nafar vakili xon saroyida turli lavozimlarga ko'tarildi. Xon yangi amaldorlar orasidan eng obro'li 32 nafarini o'z yoniga oldi. Munis ta'biri bilan aytganda, "andoqkim ikki shayx ul-islom, ikki qozi, bir rais Said ota avlodidan, bir mutavalli, bir naqib, to'rt otaliq, to'rt inoq, to'rt mirob, to'rt parvonachi, ikki oqo, ikki arbob, to'rt chig'atoyi inoqi va bir vazirkim, holo mehtar derlar va bir qo'shbegi, bu ikkovi o'rinsiz xon huzurida oyoq ustida turadilar"¹⁷⁴.

Inoq

Qadimgi turkiy runiy bitiklarida «ishonch» ma'nosida qayd etilgan.

1) Markaziy Osiyoda XI–XIV asrlarda hukm surgan sulolalar saltanatida «maslahatchi», «vazir»ni anglatgan;

2) Buxoro xonligida hukmdorning ishonchli kishisi, mansabdor.

3) Xiva xonligidagi yuqori ma'muriy mansab bo'lib, xondan keyingi rutba sanalgan va bu lavozimga xonning birodarlaridan biri tayinlangan. Abulg'oziy Bahodirxon tantanali marosimlarda o'tirish uchun inoqlarga 4 ta joy ajratgan. Bu imtiyoz 1873 yilgacha davom etgan. Inoqlardan biri xonning chap tomonida, amir ul-umarodan keyin o'tirgan va ulug' inoq deb atalgan. Yangi xon ko'tarish vaqtida inoqlar oq namatning to'rt burchidan tutib, unga tobelik bildirishi ularning asosiy va faxriy burchi edi. Xiva xonligida inoqlarning siyosiy mavqei nihoyatda baland bo'lib, XVIII asr oxirida hatto xonlikni ham idora qilganlar. Inoq huzurida qo'shbegi, mehtar (moliya ishlari boshlig'i) va otaliq (qo'shinlar qo'mondoni)dan iborat kengash bo'lgan hamda amaliy tadbirlar ishlab chiqishga yordamlashgan. Inoqlar Xiva taxtiga Chingizxon avlodlarini o'tkazganlar, biroq ularning aksari qozoqlar va shuningdek, qo'shni davlatlardan kelgan kishilar bo'lib hech qaysi to'paga mansub emasdilar. Shuning uchun inoqlar o'zlarini boshda vaqtincha, so'ng doimiy xon deb e'lon qilardilar. Yangi sulola asoschisi Muhammad Amin inoq qo'ng'iroq urug'idan edi. Qo'ng'iroq urug'i qiyot urug'i bilan birga ikkinchi o'zbek to'pasining boshida turar edi

¹⁷³ Эшов Б Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқаруви тарихи. Т.: “Янги аср авлоди”. 2012. 338-б

¹⁷⁴ Ўша жойда

1662 yilda tuzilgan sulhga qaramasdan, Xiva va Buxoro o'rtasidagi nizoli vaziyat keyingi davrlarda ham saqlanib qoldi. Abulg'ozixon og'ir dardga chalinib qolgach, 1663 yilda taxtdan voz kechdi. Uning vorisi Anushaxon hukmronligi davri (1663-1687) da Xiva qo'shinlari Buxoroga, Samarqand, Qarshiga yana hujumlar qilib turdilar. 1685 yilda Xivaliklar G'ijduvon yaqinida qattiq zarbaga uchragandai so'nggina bu talonchilik yurishlariga barham berildi. Buxoroning yangi xoni Subhonqulixon nafaqat xivalik-lar hujumini to'xtatishga balki, Xivada o'z ta'sirini o'rnatishga ham muvaffaq bo'ldi. Uning yordamida Anushaxonning o'g'li Ernak 1687 yilda Xivada hokimiyatni egallash uchun fitna uyushtirdi. Lekin o'z otasi Anushaxonni ko'r qilib, taxtni egallagan Ernak taxtda uzoq qola olmadi. Subhonqulixon 1688 yilda Xiva taxtiga o'z amaldorlaridan biri Shohniyozni (1688-1707) o'tkazib, Xivani amalda Buxoroga vassal davlatga aylantirildi¹⁷⁵.

Xiva xonligi XVSH asrning birinchi yarmida zo'r siyosiy inqirozni boshidan kechirdi. O'zbeklar va turkmanlar o'rtasida to'xtovsiz bo'lgan urushlar siyosiy tarqoqlikning avj olishiga va xon xokimiyatini inqirozining kuchayishiga yordam berdi. Buxora xonlarining Xiva ishiga aralashuvi xamda ko'chmanchi qozoq va qalmiqlarning xujumlari Xivadagi bu inqirozni kuchaytiraverdi.

Xiva xonligining parokandaligi Sherg'ozixon hukmronligi davrida (1715-1728 yy) ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Asosiy siyosiy mavqe va harbiy kuchlarning egalari sanalgan yirik yer egalarining o'zaro kurash va janjallari bundan tashqari qo'shni davlatlarning aralashuvi yemirilayotgan davlatning ichki axvolini juda zaiflash-tirib yubordi.¹⁷⁶

Bir tomondan, Pyotr I ning 1714-1717 yillarda tashkil etgan Bekovich Cherkasskiy ekspeditsiyasi o'sha vaqtdagi qudratli Rossiya davlatining Xorazmni o'z ta'siriga buysundirish uchun qilgan, lekin fojiali natija bilan tugagan birinchi urinishi bo'ldi¹⁷⁷. Xivani xukmron doiralari

¹⁷⁵ Vatan tarixi. T. Sharq. 2010. 95-6.

¹⁷⁶ Ўзбекистон халқлари тарихи. А.Аскарлов таҳрири остида . Т.Фан. 1994 ; Ўзбекистон халқлари тарихи. 2-том. Т.1947. 124-б.

¹⁷⁷ Туркистон Россия империяси мустамлакачилиги даврида. 30-31-бб.

Bekovich Cherkasskiyning olti mingdan ko‘proq soldatlaridan iborat butun otryadini qirib tashladilar.¹⁷⁸

Ikkinchi tomondan, Buxoro xoni Abulfayzxon Orolliklarni Sherg‘ozixonga qarshi qo‘zg‘atdi. Orolliklar Buxoroda yashab turgan shaxzoda Temur Sultonni o‘zlariga xon qilib chaqiradilar, Xivada o‘zaro janjal boshlanib ketadi va Sherg‘ozixon vafot etguncha gox bir tomonning, gox ikkinchi tomonning qo‘li baland kelib urush davom etaveradi. Temur Sulton butun xonlikni o‘ziga buysundirishni uddalay olmaydi. Sherg‘ozixonidan so‘ng qozoq sultonlaridan biri Elbars (1728-1740 yy) xonlik taxtiga ko‘tariladi.

Sherg‘ozixon

(Buxoro - 1727 yil dekabr, Xiva)

Xiva xoni (1715—27)

Jonto‘raxonning o‘g‘li. Madrasada tahsil olgan. 1715 yil Yodgorxon vafotidan so‘ng, Buxorodan keltirilib Xiva taxtiga o‘tqazilgan. Sherg‘ozixonga qarshi Orol bo‘yida yashovchi qoraqalpoqlar Ishimxon boshchiligida isyon ko‘tarishgan. Sherg‘ozixon ular ustiga qo‘shin tortib katta o‘ljalar, ko‘plab asirlar bilan qaytgan. 1715 yil Sherg‘ozixon Xurosonga yurish qilib Mashhadni egallagan, Nishopurni qamal qilib egallay olmagan (1716). Sherg‘ozixon davrida Pyotr I tomonidan yuborilgan Bekovich-Cherkasskiy harbiy ekspeditsiyasi qirib tashlangan (1717). Rossiya Xiva xonligini o‘z ta‘sir doirasiga kirita olmagach, har ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashgan. Vaziyatni yumshatish uchun 1720 yil Xiva elchilari Rossiyaga jo‘natilgan, lekin elchilik a‘zolari qamoqqa olingan, ulardan atigi bir kishigina Xivaga qaytishga muvaffaq bo‘lgan. Rossiya hukumati Xiva xonligi orqali O‘rta Osiyoga kirib kelish fikridan voz kechmagan, bu paytda Rossiyada Buxoro xonligining Qulibek (Xonquli to‘pchiboshi) boshchiligidagi elchilari bor edi. Rossiya hukumati Florio Beneveniii ularga qo‘shib Buxoroga jo‘natgan va Buxoro xonligini Xivaga qarshi qo‘yishga harakat qilgan. Qalmiqlar xoni Ayuqaning Sherg‘ozixonga yuborgan ma‘lumotiga ko‘ra (1723 yil may), rus qo‘shinlari Saratovda to‘planib, 1724 yil bahorida Xivaga yurishga tayyorgarlik ko‘rishgan. Sherg‘ozixon Orol bo‘yidagi isyonkor qabilalar ruslarni Xivaga boshlab kelishidan va o‘rniga Buxorodan keltirilgan (1721) Temur sulton (Shoh Temur)ni xon qilib ko‘tarishlaridan xavotirda edi. Temur Sulton xonlikdagi Vazir, Gurlan, Shohobod, Bag‘lon, Uygur, Yangi Urganch, Xonqa va Xazoraspni olgan bo‘lsada, butun xonlikni egallay olmagan. Xonlikdagi ichki urushlar Sherg‘ozixon vafotiga qadar davom etgan. Sherg‘ozixon Xivadagi madrasa (Sherg‘ozixon madrasasi) qurilish chog‘ida mashhadlik g‘ulomlar tomonidan o‘ldirilgan. Sherg‘ozixon odil,

¹⁷⁸ Ўша жойда.

ma'rifatparvar hukmdor bo'lib, ko'p vaqtini ilm ahli bilan suhbatda o'tkazgan. Uning davrida ilm-fan va she'riyat rivojlangan.

O'sha davrda Afg'oniston va Hindistonga qo'shin tortib ketgan Nodirshoxning yo'qligidan foydalanib, Elbars Dog'istonga bir necha bor xujum qilib, har safar o'lja va asirlar bilan qaytar edi.¹⁷⁹

Xivaliklarni Xurosonga qilayotgan xujumlari Xiva qo'shinlari Buxoro tomonni olib, Nodirshox qo'shinlariga qarshi chiqqanligi va Xiva xoni Eronga qaramligini tan olishdan qat'iy bosh tortganligi Nodirshoxni Buxoroni o'ziga bo'ysindirib olgandan so'ng Xorazmga qo'shin tortib borishga majbur etdi. Xazorasp oldida Elbars qo'shinlari bilan Eronliklar o'rtasida jang bo'ladi. Shiddatli jangdan so'ng Xivaliklar yengilib, Xazorasp qal'asiga qochib qiradilar. Nodirshox Xonqa tomon yo'l oladi. Bu yerda xonlikni xamma tomonlariga boradigan yo'llar o'tar edi. Elbarsxon qo'shinlariga qo'shilgan turkmanlar va boshqa ko'chmanchilar o'zlarini qo'lga tushib qolishlaridan qo'rqib oilalari bilan birga dashtga chiqib ketadilar. Elbars bundan xabar topib, o'z qushinlari bilan Xonqa tomon yo'l oladi. U Nodirshoxning qo'shinlaridan oldinroq yetib borib, Xonqada mustaxkamlanib oladi. Biroq Nodirshox tomondan qamal qilib olingan Elbars qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramay, qal'ani o'z qo'lida saqlab qola olmaydi. Nodirshox Xonqani egallaydi va Elbarsxonni o'ldiradi.¹⁸⁰

Hali qamal vaqtidayoq xivaliklar Abulxayrni o'zlariga xon qilib ko'taradilar. Kichik qozoq juzi xoni bo'lgan Abulxayr bundan sakkiz yil avval, 1730-1732 yillarda Rossiya fuqaroligini qabul qilgan edi¹⁸¹. U Xiva taxtiga ko'tarilishi bilanoq Nodirshoxga sulx taklif qilib, xat yuboradi. Bu xatni Nodirshohning qabuliga rus geodezisti Muravin olib boradi. U Rossiya podshosi Anna Ivanovna (1730-1740 yy) yorlig'i bilan Xivaga yuborilgan edi. Muravin Nodirshohga Abulxayrxon rus imperatorining fuqorasi ekanini aytadi. Nodirshox Abulxayrxonning sulx to'g'risidagi taklifini qabul qiladi, lekin uning o'zi qarorgoxga shaxsan kelishini iltimos

¹⁷⁹ Ўзбекистон халқлари тарихи. 125-б.

¹⁸⁰ Ўша жойда.

¹⁸¹ Нурмухамедов М.К., Жданко Т.А. Камалов С.К. Каракалпаки (краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). Ташкент, "Фан". 1971. Стр.24

qiladi. Abulxayrxon esa Nodirshoh oldiga borish bahonasi bilan o‘zining hamma mulozimlarini olib Xiva shaxridan chiqib, Nodirshoh oldiga bormasdan o‘zining dashtiga ketadi.¹⁸²

Abulxayrxonning shoshilib ketganligini sababi shuki, Nodirshoh qo‘shinlari Xonqani egallab olgandan keyin Nodirshoh tomonga o‘tib ketgan Xivalik beklar Xiva aholisining Nodirshohga qarshilik ko‘rsatmaslikka undayotganliklarini bilib qoladi. Ular Abulxayrni shoh yetib kelguncha shaxarda qoldirib turishni rejalashtirgan edi. Nodirshoh to‘rt kunlik qamaldan so‘ng shaxarni egallaydi¹⁸³. Xiva qo‘shinlarining ancha qismi Nodirshoh qo‘shin-lariga qo‘shib olinadi, barcha qullar, shu jumladan rus asirlari ozod etib, ularni o‘z manzilliriga yetib olishlari uchun ot-ulov, pul va oziq-ovqat bilan ta‘minlaydi. Bu bilan u o‘zini Xiva xalqiga istilochi emas, balki xaloskor etib ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. U asirlarni ozod etib yuborish bilan birga o‘zining xalqaro mavqeini mustahkamlashga, har xolda ruslarning extimolda tutilgan xujumi-ning oldini olishga urinishgan, chunki Abulxayr rus davlatining vassali edi. Nodirshoh Xivaga o‘z noibini tayinlab, Eron qo‘shin-larini joylashtiradi, mamlakatni Eron usulida boshqarishni joriy qiladi, axolidan “moli omon” solig‘i undiriladi. 1740 yili noyabrda u o‘z qo‘shini bilan Chorjo‘yga kelib, bu yerdan Eronga qaytib ketadi.¹⁸⁴ Biroq Nodirshoh tomonidan Xivada tayinlangan Buxoro ashtarxoniylari xonadoniga mansub bo‘lgan noibning hukmronligi Xiva xonligining shimoliy qismiga o‘tmas edi. Chunki u yerdagi orolliklar orasida Abulxayrxonning o‘g‘li Nurali xukmronlik qilardi. 1741 yilda Xivaliklar Eronliklarning xukmronligiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Bu qo‘zg‘olonda Nurali katta rol o‘ynadi.

Qo‘zg‘olonchilar Xivani qamal qilib, qo‘lga kiritdilar. Xivadagi Eron noibi va uning qo‘shinlarini qirib tashlaydilar. Xonlik taxtini Nurali egallaydi. O‘sha vaqtda Dog‘iston lazginlariga qarshi qo‘shin tortib borgan Nodirshoh xivaliklarning qo‘zg‘olon ko‘targanliklarini va noibni halok qilganligini eshitib, Marvdagi o‘g‘li Nasrulloga xat yuboradi va unga Xorazmga borib Eron hukmronligini qayta tiklashni buyuradi. Nuralini taxtga ko‘tarishga yordam bergan Xiva amaldorlari gunoxlariga iqror

¹⁸² Ўша жойда.

¹⁸³ Vatan tarixi. T. Sharq. 2010. 996-97-66.

¹⁸⁴ Ўзбекистон халқлари тарихи. 125-126-66.

bo‘lib, Marvga, Nasrullo xuzuriga boradilar, xivaliklarni iltimosiga binoan, Nodirshox Elbarsning o‘g‘li, Xurosonda turgan Abdu Muxammadni Xivaga xon qilib tayinlaydi. XUSH asrning 40-yillarida Xivada bir necha xon almashtiriladi.¹⁸⁵

1746 yilda Eronliklar o‘sha qozoq xoni Nuralini Xiva taxtiga o‘tirishga yana taklif qilishadi, lekin Nurali bu taklifda biror nayrang bo‘lsa kerak, deb xavotirlanib, Xivaga bormaydi. Nuraliga dushman qozoq sultoni Botirning o‘g‘li G‘oyib Xiva taxtiga xon qilib ko‘tariladi. G‘oyib (1747 – 1757 y.y.) xon xokimiyatining obro‘yini qayta tiklashga urinib ko‘radi. Bu davrda joriy etilgan favqulodda og‘ir soliqlardan umumiy norozilik va qo‘zg‘olon natijasida soliq yig‘uvchilar o‘ldiriladi va xon cho‘lga kochishga majbur bo‘ladi. Xivaga Foyibning ukasi Abdulla (1757 - 1758) xon bo‘ladi.¹⁸⁶

Uning davrida ro‘y bergan isyondan foydalangan Buxoro amiri Muxammad Raxim o‘z odami Temur G‘ozixonni Xiva taxtiga o‘tkazadi.¹⁸⁷

Shu paytdan boshlab tez-tez o‘zgarib turgan xonlar aslida xokimiyatni ko‘ldan berib qo‘yadilar va 1763 yildan boshlab Xiva xonligi xokimiyat tepasiga qo‘ng‘irot inoqlari keladilar. Inoq Muxammad Amin amalda Xivadagi birinchi darajali xukmdorga aylanadi.¹⁸⁸ U shaxarning savdogarlari va xunarmandlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, o‘z hokimiyatini ancha mustaxkamlashga erishgan. Muhammad Amin inoq 1770 yil turkmanlar hujumini, Buxoroliklar tajovuzini bartaraf etdi va Buxoro tarixchisi Abul Karimning ta‘biri bilan aytganda, XVIII asr oxirlarida Xiva uchun xos bo‘lgan “xon ko‘tarish o‘yini” shu tariqa poyoniga yetgan¹⁸⁹.

Nodirshox o‘ldirilgandan keyin Xiva xonligida ya‘na hokimiyat uchun kurashlar kuchayib ketdi.

Nodirshox Afshor
Eron shohi (1736-1747)

Nodirshoh Afshor (1688.22.10, Deregyoz — 1747.20.6, Xabushon) – Eron shohi

¹⁸⁵ Сагдуллаев А. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т.Академия. 2000. 238-б.

¹⁸⁶ Ўша жойда.

¹⁸⁷ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 240-б.

¹⁸⁸ Қ.Усмонов, М.Содиқов, С.Бурхонова. Ўзбекистон тарихи. –Т.: 2005, 167-б.

¹⁸⁹ Ўзбекистон халқлари тарихи. 126-б

(1736-1747), kizilboshlilarning afshor qavmidan bo'lgan. Xurosonda harbiy qo'mondon sifatida o'z faoliyatini boshlagan. 1726 yilda safaviylar shohi Taxmasp II (1722-1732)ning harbiy xizmatiga o'tib, Mashhaddan afg'onlarni quvib chiqargan. Hirotdagi afg'onlarning abdal va Xurosondagi turkman qabilalariga qarshi kurashda g'olib kelgan (1729). Eronni bosib olish uchun urush boshlagan Usmonli turk sultonligiga qarshi samarali kurashi Nodirshoxning nufuzini oshirgan (1730-1731). Taxmasp II ni taxtdan ag'darib, uning o'g'li Abbos III ni shoh, o'zini esa unga homiy (regent) deb e'lon qilgan (1732). Turklar bilan urush tugagach, Eron shohi bo'lgan (1736). Nodirshox Safaviylar davlati o'rnida Eronda markazlashgan yirik davlatga asoslangan imperiya tashkil qilgan. Qo'shni davlatlarga qarshi talonchilik yurishlari o'tkazib, Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Dog'iston, Afg'oniston, Belujiston, O'rta Osiyoning katta kismi, Shimoliy Hindistonni bosib olgan. Buxoro xonligiga qarshi uning yurishi dastlab muvaffaqiyatsiz tugaydi. Nodirshoxning katta o'g'li Rizoquli mirza 1200 kishilik lashkari bilann Amudaryodan o'tib, Qarshini qamal qilgan. Muxammad Hakimbiy otaliq va Buxoro xoni Abulfayzxon shahar ichida turib dushmanga qarshi kurashganlar. Buxoroliklarning ittifoqchisi Xiva xoni Elbars (1728-1740) katta qo'shin bilan yetib kelgach, Rizoquli mirza shoshilinch sulh tuzadi va orqaga qaytadi (1736). Biroq Nodirshoxning o'zi katta qo'shinga bosh bo'lgach, Balxni egallab, Buxoro ustiga yurish qilganida uni Muhammad Hakimbiy va o'g'li Muhammad Raxim qo'llab-quvvatlaydi (1740). Buxoro ustidan siyosiy hokimiyat o'rnatilgach, u Xiva xonligiga qarshi yurish qiladi. Xonqani egallash paytida Xiva xoni Elbars o'ldirilgan (1740). Nodirshox hukmronligiga qarshi Xiva va Buxoroda bir necha marta qo'zg'olonlar ko'tarilgan. Eronda ham ichki nizolar va saroy fitnalari kuchayadi. Nodirshox Xuroson noibi, o'zining jiyani Aliqulixon tomonidan Mashhadda o'ldirilgan. Aliqulixon o'zini Odilshoh nomi bilan shoh deb e'lon qilgan. Nodirshoxning o'limi bilan Eron davlatining markazlashtirish jarayoni to'xtab qolgan¹⁹⁰.

Bir kancha vaqt turkmanlarning Yovmit qabilalari ustun bo'lib turdilar. Bu o'zaro urushlar yuz berayotgan iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar okibatida edi. Xiva avvalgi savdodagi shuxratini yo'qotgan. Qadimgi taraqqiy qilgan o'lka bosqinchilik oqibatida qashshoq bir o'lkaga aylanib koldi. Bunday bo'lishiga yana bir sabab, bir vaqtlar ikki qit'ani birlashtirgan karvon yo'li o'z ahamiyatini yo'qotgan edi. Xonlikda siyosiy tanazzul kuchaygan shu vaziyatda boshqa urug'larga nisbatan mavqei va harbiy qudrati birmuncha kuchliroq bo'lgan Qo'ng'irotlar urug'i biyi – inoq Muhammad Amin xonlik uchun xavf solib turgan turkmalar qo'zg'olonlarini bostirib (1770), Buxoro amiriga qarshi muvaffaqiyatli

¹⁹⁰ Қаранг: Ражабов Қ. Нодиршоҳ Афшор. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.2000. 273-б.

kurash olib bordi (1782) va xonlikda nisbatan tinchlik o'rnatishga erishdi.¹⁹¹

Xiva xonligida Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligining asosiy tafsilotlari (XVIII asr ikkinchi yarmi XIX asr o'rtalarida). 1770 yildan boshlab Xiva xonligida amalda qo'ng'irot urug'i vakillarining, xususan, Muhammad Amin inoqning to'liq hukmronligi qaror topa boshladi. Asosan katta yer egalari, ruhoniylar, shuningdek xonlikda katta kuchga ega bo'lgan qabilalardan biri yovmutlarning ittifoqligi va madadiga tayangan Muhammad Amin inoq (1763-1790 yy) XVIII asrning 90-yillariga qadar xonlikda siyosiy baraqarorlikni qaror toptirish uchun harakat qildi. Uning o'g'li Avaz hukmronligi davrida (1790-1804 yy) ham bu siyosat davom ettirildi va xonlik avvalgi davrlarga nisbatan birmuncha markazlashgan va siyosiy jihatdan barqarorlikka erishgan davlatga aylanib bordi.¹⁹²

1804 yilda Muxammad Amining nabirasi Eltuzar xon unvonini qabul qiladi. Shu vaqtdan e'tiboran Xiva xonligida qo'ng'irot sulolasi hukmronligi boshlandi. Eltuzarxon 1806 yilda Buxoroga qarshi urushda xalok bo'ladi va ukasi Muxammad Raxim I (1806 – 1825 yy) Xiva taxtiga o'tiradi. Xiva xonligini birlashtirish uchun Muxammad Amin va Eltuzarxon boshlagan kurashni Muxammad Rahim I (1806-1825 yy) poyoniga yetkazdi. Devoni oliy ta'sis etadi, soliq isloxati o'tkazadi muntazam ravishda soliqlar olib turish bilan davlat daromadlarini ko'paytiradi. Bojxona va zarbxona tashkil etib, oltin pul zarb qilishga kirishadi. Shu bilan u mamlakatdagi o'z boshimchalikni to'xtatishga intiladi. mayda mustaqil beklarni astka sekin o'ziga bo'ysindiradi. 1811 yilda orolliklarning mag'lubiyati bilan tugagan qattiq kurashlardan so'ng Orol yerlari ham Xiva hukmronligiga qiritiladi. XIX asrning boshlarida xonlikning shimoliy yerlarida mustaqil bo'lib yashayotgan qoraqalpoqlar xam bo'ysindirildi.¹⁹³

Eltuzarxon

¹⁹¹ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 240-б.

¹⁹² Бобобеков Х. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. Т.Шарқ. 2000. 138-б.

¹⁹³ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 241-б.

Xiva xoni (1804-1806)

Eltuzar Muhammad Bahodirxon Qo'ng'irotlar sulolasidan bo'lgan birinchi Xiva xoni (1804-1806). Avaz inoqning o'g'li. Otasi vafotidan so'ng Eltuzar soxta xon Abulg'ozi V ni taxtdan tushirib, o'zini xon deb e'lon qilgan. YA'ni, bobosi Muhammad Amin Inoq va otasi Avaz Muhammad Inoqlar chingiziy sultonlar nomidan hokimiyatni boshqargan bo'lsalar, Eltuzar 1804 yilda Abulg'oziyxon V Yodgorxon o'g'li (1802- 04) ni taxtdan tushirib, o'zini xon deb e'lon qilgan. Shuning uchun ham Eltuzarxon Xiva xonligi taxtiga o'tirgan qo'ng'irotlar sulolasining birinchi xoni hisoblanadi. Shu tariqa u Xivada qo'ng'irot avlodidan bo'lgan xonlar sulolasini boshlab bergan. Bu sulola 1920 yilga qadar Xiva xonligini idora qilib kelgan. Eltuzarxon xonlikda markazlashtirish siyosatini olib bordi. 1804 yil Eltuzarxon Buxoro amirligi hududiga bostirib kirgan. Biroq Amudaryo bo'yidagi hal qiluvchi jangda xivaliklar yengilgan. Eltuzarxon davrida bir qancha me'moriy obidalar (Xivadagi Ko'rinish xona) bunyod etilgan. Uning saroyida tarixchi, shoir va davlat arbobi Munis ijod qilgan.

Xonlik hayotida Muhammad Rahimxon I (1806-1825) tomonidan o'tkazilgan siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy islohotlarining ahamiyati katta. Islohotlarga ko'ra xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash ta'sis etilgan, soliqlar tartibga solinadi. Ularning muntazam ravishda yig'ilishi tufayli xazina daromadlari oshib boradi.

Bojxona tashkil etilib, tashqi savdodan keladigan daromadlar ko'paytirilgan. Ichki muomala uchun oltin va kumush tangalar zarb etilgan. Orolliklar - qoraqalpoqlar Xiva tarkibiga qo'shilgan.

Muxammad Raxim 1818 yilda Xurosonga qo'shin tortishga tayyorlanib turkman qabilalarining ham o'ziga yordam berishini taklif qiladi. Biroq bu taklif turkmanlar tomonidan rad qilingandan so'ng, Muhammad Rahimxon turkman qabilalari ustiga bir necha marta yurishlarni amalga oshiradi va ularni xonlikka bo'ysunishga majbur qiladi. Muxammad Rahim turkmanlarni o'ziga itoat qildirish uchun harbiy harakatlar bilan iqtisodiy chora tadbirlarni ham amalga oshiradi¹⁹⁴.

Muhammad Rahim I

(Muhammad Rahimxon ibn Avaz inoq
ibn Muhammad Amin inoq, 1775-1825)

Xiva xoni (1806 -1825)

Xiva xoni (1806 -1825). Akasi Eltuzarxon vafotidan keyin taxtga o'tirgan (1806).

¹⁹⁴ Ўша жойда.

Muhammad Rahimxon I Xiva xonliginn birlashtirishda ijobiy natijalarga erishgan, bir qancha siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy islohotlar o'tkazgan. Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) ta'sis etilgan. Muhammad Rahimxon I mamlakatni kengaytirish uchun turkman - chovdurlar ustiga yurish qilgan (1808-1809). Shu yili Hasanboy elini bo'ysundirib Qo'ng'irotda hujum qilgan, biroq u yerda qattiq qarshilikka uchragan. Oymirza hukmronlik qilayotgan qoraqalpoqlarning bir qismini Oqyoqish degan mavzega ko'chirgan. Muhammad Rahimxon I Orol bo'yi qoraqalpoqlarini bo'ysundirish uchun bir necha marta yurish qilib, 1811 yilda To'ramurod so'fini yengib xonlikni mustahkamlagan. 1812-1818 yillar davomida Sirdaryo bo'yi qozoklari va Marvdagi taka turkmanlar ustiga yurish qilib, ularni xonlikka qo'shib olgan. Bu g'alabalar Xiva xonligining mavqeini mustahkamlab, uni mustaqil qudratli davlatga aylantirgan. 1823-1824 yillarda Buxoro amirligiga tegishli Qoqishtivon, Og'or va Poykend qal'alariga talonchilik yurishlari qilgan. Buxoro amiri Haydar bilan sulh tuzgan (1825). Muhammad Rahimxon I davrida Dashti Qipchoq, Xuroson Xiva xonligiga soliq to'lab turgan. Xonlik hududi janubda Xuroson, shimolda da Orol dengizi va Sirdaryoning quyi oqimidagi yerlar, sharqda Buxoro amirligiga tutash hududlar, g'arbda Kaspiy dengizi qirg'oklarigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. Muhammad Rahimxon I o'zi qurdirgan Paxlaxon Maxmud maqbarasiga katta xonaqohning to'riga dafn etilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligining tashqi davlatlar, jumladan Eron, Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi bilan harbiy to'qnashuvlari sodir bo'lib turdi. Xiva xonlaridan Olloqulixon (1825-1842 yy) va Muhammad Aminxon (1845-1855 yy) hukmronligi yillarida Xurosonga bir necha marta xujumlar qilib, bu yurishlar davomida turkmanlarning Taka, Eli, Sariqlar, Solorlar va boshqa qabilalarini ham xonlikka to'la bo'ysundirdilar¹⁹⁵.

Xiva xonligi turkman qabilalari bo'lgan yovmudlar, chovdorlar va guksanlarga tayanib qamda ularga qozoq va qoraqalpoqlarni muntazam o'zbek qo'shinlari bilan yordamga borib deyarli qar bir Xuroson bekligiga xujum qilardi, lekin mag'lubiyatga goxo g'alaba qozonib shu shaxarlarda noiblarini qoldirib kelar edilar. Olloqulixonning 1825-1842 yillar chegaradosh Xuroson tumanlariga xujum qilib talanganligini xisobga olmagan xolda u Xurosonga 5 marta yurish qilib boradi¹⁹⁶.

1826-1827 yillarda Marvdagi turkman qabilasi bo'lgan sariqlar Xiva beklaridan norozi bo'lib, Xivaga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Ularga

¹⁹⁵ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 240-б.

¹⁹⁶ Ўша жойда.

boshqa turkman qabilalari xam qo‘shiladilar. 1828 yil Xiva xoni Olloqulixonning o‘zi qo‘zg‘olonchilar ustiga qo‘shin tortib boradi. Sariqlar mag‘lubiyatga uchraydi, xivaliklar ularning ovullarini shafqatsizlik bilan talaydilar. Ko‘p kishilar o‘ldiriladi, xonlar va bolalar asir olinadi. Mag‘lubiyatga uchragan sariqlar Xiva xonligiga yana bo‘ysunishga majbur bo‘ladilar¹⁹⁷.

Buxoro amiri Nasrulloxon Qo‘qonga qo‘shin tortib ketganligidan foydalanib, Olloqulixon 1842 yilning boshida qo‘shinlari bilan Chorjo‘yga bostirib boradi. Buni eshitib kolgan Nasrullo Qo‘qondan Buxoroga tezda qaytadi, lekin Olloqulixon o‘zining yerlariga qozoqlar bostirib kirganligini eshitib, u xam Buxoro yerlaridan tezda Xivaga qaytib keladi va ko‘p o‘tmay vafot etadi.¹⁹⁸

Olloqulixon

(taxm. 1794-1842)
Xiva xoni (1825-42)

Xiva xoni (1825-42) – Muhammad Rahimxonning o‘g‘li. Olloqulixon davrida zulm, talonchilik, o‘zaro urushlar kuchaygan. Olloqulixon Buxoro bilan sulh tuzilganiga qaramay yetti marta Buxoro xonligi hududiga yurishlar qilib qishloqlarni talab qaytgan. Xurosonga 5 marta yurish qilgan. Qoraqalpoq va turkmanlarning qo‘zg‘olonlarini bostirgan (1828). Rossiya bilan savdo va elchilik munosabatlarini (1840-41) rivojlantirgan. Olloqulixon davrida Xivada karvonsaroy, tim, 111 xona va bo‘lmali Toshhovli saroyi (1834—35), Ichan qal‘a sharqiy darvozasiga tutashtirib qurilgan Olloqulixon madrasasi, Oq masjid, Saitboy masjidi, Toshhovuz qal‘asi (1835—36) va boshqa inshootlar qurilgan. Yangi kanallar qazdirib sug‘oriladigan yerlarni kengaytirgan. Xiva shaxrining obodonchiligi uchun ko‘p mehnat sarf qilgan. Olloqulixon davrida koshinpazlik (koshinkorlik) san‘ati yuksak cho‘qqiga chiqqan. Pahlavon Mahmud maqbarasi va Ko‘hna Ark koshinlar bilan bezatilgan. Sayid Alovuddin maqbarasi va boshqa ko‘pgina tarixiy obidalar ta‘mirlandi. Arabxon va Muhammad Amin inoq madrasalari qaytadan qurildi. Xiva shaxrining atrofi mudofaa devori bilan o‘rab olingan (1842). Ichan qal‘a tashqarisida yashayotgan aholini himoya qilish maqsadida Dishan qal‘a (Tashqari qal‘a) qurilgan. Qal‘aning uz. 6250 m bo‘lib, shunday ulkan qurilish qo‘l kuchi bilann paxsadan 30 kun davomida qurib bitkazilgan. Ichan qal‘aning janubiy darvozasidan Dishan qal‘a devorigacha bo‘lgan masofa 300—400 m ni tashkil qiladi. Olloqulixon 1842 yil Chorjo‘yga yurish qilib qal‘ani qamal qilgan paytda og‘ir kasalga duchor bo‘lib orqaga qaytishga majbur bo‘lgan va 23 noyabrda vafot etgan. Olloqulixon o‘zi hayot

¹⁹⁷ Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. 140-б.

¹⁹⁸ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 241-б.

Oloqulixonning o'g'li Raximkul taxtga o'tirgandan keyin 1843 yilda amir Nasrulloxon, Xiva qo'shinlarining anchagina qismi Marvga ketganligidan foydalanib, yangi tayinlangan xon bilan birga Xiva xonligiga bostirib kiradi. Nasrullo Xorazmni qo'rshab oladi, xivaliklar bir necha marta xiyla qiladi.

Xivaliklar Nasrulloni chalg'itish maksadida, Buxoroga xujum qilish uchun turkmanlarning jamshid va yovmud urug'laridan iborat qo'shinlarini yuboradi. Nasrullo Xorazmni tor-mor qilish maqsadida yurish qiladi, biroq Buxoro qo'shinlari chekinishga majbur bo'ladi. Nasrulloxon Buxoroga chekinayotgan vaktida turkmanlar kelib unga tobeligini bildiradi. Nasrullo Marvga qo'shin yuboradi. Raximqul qasos olish uchun Chorjuyga qujum qiladi, lekin uni qo'lga kiritmaydi. 1844 yilda Xiva xoni yana isyon ko'targan Marvga yurish qiladi, lekin bu yurish ham mag'lubiyat bilan tugaydi. Xiva xonligining keyingi yigirma yil davomidagi siyosiy jarayonlari keskinlik bilan davom etdi. Muhammad Rahimxon II ning hokimiyat tepasiga kelishi xonlikning markaziy hokimiyatini birmuncha kuchaytirgan bo'lsada, biroq 1873 yildan boshlab Xiva xonligi Rossiya imperiyasining ta'siriga tushib qoldi.

Xiva xonligida davlat boshqaruvi. Xiva xonligi janubda Eron, Sharqda Buxoro amirligi, G'arbda Kaspiy dengizi, Shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi.¹⁹⁹ Xonlik aholisining ko'pchiligini o'zbeklar tashkil etib, ulardan eng kuchli va ko'p sonlilari qo'ng'iroq, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'li, xitoy, qipchoqlar edi. O'zbek qabilalari asosan Amudaryo tarmoq yoygan hududlarda joylashgan edi. Aholining to'rtidan birini turkmanlar tashkil qilgan va ular o'g'uzlarning avlodlari bo'lib, hozirgi Turkmaniston hududlarida yashaganlar. Qoraqalpoqlar yashagan Amudaryoning quyi havzasi va Orol dengizining janubiy qirg'oqlari ham xonlik tasarrufida edi²⁰⁰.

Manbalardan birida ko'rsatilishicha - "Xiva xonligining hududlari

¹⁹⁹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакачилиги даврида. Т.Шарк. 2000й. 47-б.

²⁰⁰ Ўша жойда

Grinvich bo'yicha 40° - 43° shimoliy kenglik va 57° - 62° sharqiy uzunlik oralig'ida, Amudaryoning quyi oqimlarida joylashgan bo'lib, XIX asrning o'rtalariga chegaralari tez-tez o'zgarib turgan. Dastlab xonlikning chegaralari Xorazm vohasi bilan chegaralangan bo'lsa, keyinchalik uning chegaralari janubda Marv va Eron hududlarigacha, shimolda esa Ural daryosigacha, sharqda Buxoro amirligi sarhadlarigacha, g'arbda esa Kaspiy dengizi qirg'oqlarigacha borib tutashgan. Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilgan vaqtda uning hududi 62237,2 km² ga teng bo'lib, aholisi 1 mln kishini tashkil qilardi"²⁰¹.

XVIII asr oxiri-XIX asr boshlaridan boshlab Xiva xonligidagi asosiy ma'muriy birliklar bekliliklar deb yuritila boshladi. Bu davrda xonlikda 16 ta beklilik va 2 noiblik mavjud edi. Bular Xozarasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, G'azovot, Qiyot, Shohabbos (Shobboz), Shovot, Toshxovuz, Anbarmanak, Urganch, Xo'jayli, Shumanoy va Qo'ng'iro't bekliliklari hamda Beshariq, Qiyot-qo'ng'iro't noibliklaridir. Bu bekliliklarni va noibliklarni xon tayinlagan beklar va noiblar boshqarar edilar.²⁰² Ayrim adabiyotlarda bekliliklar soni 20 ta etib ko'rsatiladi.²⁰³

Xiva xonligi xon tomonidan saroy amaldorlari yordamida boshqariladigan, yakka hokimlikka asoslangan davlat bo'lib, xonlikdagi eng yuqori unvon xon bo'lib, u siyosiy, harbiy va diniy hokimiyatga ega edi. Xon va boshqa amaldorlarning mansabi bu xonlikda meros tariqasida avloddan avlodga o'tgan. Xon davlatni boshqarishda harbiy ma'muriy, harbiy va diniy amaldorlarga tayangan, xonlikdagi mansab va unvonlar 3 toifaga bo'lingan. Xondan keyingi eng katta nufuzga inoq, otaliq va biylar unvonlarga ega bo'lgan. Ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lib, davlatning siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, harbiy, hayotini nazorat qilgan.

Inoq – vazirlik, xondan keyingi birinchi mansabdor bo'lgan. Davlat hokimiyatining markazlashuvi va kuchayishi natijasida XIX asrning birinchi yarmidan boshlab inoqlarning ahamiyati pasayib, qo'shbe'gining ta'siri orta boradi. Qo'shbe'gi asosan, xonning barcha yorliq va farmonlari

²⁰¹ Эркинов А. «Российская империя и Хивинское ханство (русские: ученый А.Н.Самойлович и путешественник В.Г.Ян в хивинском дворце в начале XX в)». <https://cyberleninka.ru/article>

²⁰² Туркистон Россия империяси мустамлакаси даврида. 48-б.

²⁰³ Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. 140-б.

uchun javobgar, o'troq aholiga boshchilik qilish, soliqlarni davlat xazinasiga tushib turishi ustidan nazorat olib borgan. Mehtar esa xonlikning moliya ishlari hamda uning shimoldagi o'troq aholisini boshqarishga rahbarlik qilgan. Xiva shahri esa xon va bosh vazir – qo'shbegi (inoq) izmida bo'lgan.²⁰⁴

Xonlikning siyosiy iqtisodiy hayotida ulardan tashqari naqib, amir ul-umaro, mextar, qo'shbegi, beklar begi, devonbegi, parvonachi eshikog'asi, yasovulboshi, udaychi, mingboshi, Mirboshi va boshqa mansabdorlar ham muhim o'rin tutadi. Diniy hokimiyat shayxul islom Said Ota Shayx avlodlari, Darvish shayxlari-davlatdagi nufuzli diniy mansablar ularning vakillariga berilardi. Xon siyosiy, xarbiy va diniy xokimiyatga ega edi. XIX asr boshlariga kelib xon xuzurida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) bor edi, lekin bu Kengashning vakolatlari cheklangan bo'lgan, barcha qarorlarni amalda xon qabul qilgan. Shuni e'tirof etish kerakki, ularni qabul qilishda saroy ayonlarining qabila boshliqlarining, maxalliy xokimlarning ta'siri bo'lgan albatta, ayniqsa markaziy davlat xokimiyati zaiflashgan davrlarda bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi.²⁰⁵

Inoqlar ta'siri kuchaygan davrda ulardan 5 kishi a'zo bo'lgan. Xon Kengashi ham bo'lib, u maslahat organi hisoblangan. Xonlikning o'troq aholi qavmlar bir masjidga birlashgan bir guruh aholi bo'lib, uning boshida saylanib qo'yiluvchi oqsoqol turgan. qavmlar eng boshling'ich soliq va ma'muriy birlik bo'lgan. Xonlikdagi shaharlarni idora qilish hokimlar va ularning yordamchilari yuzboshi va oqsoqollarga topshirilgan. Xonlik tarkibiga kirgan qozoq va qoraqalpoq aholisini biylar, turkmanlarda esa vakil va bek boshqargan. Bir necha avlodga birlashga urug'larni biylar boshqargan u otaliqqa, ular esa beklar begiga bo'ysungan. Xiva xonligida davlat tili o'zbek tili bo'lib, bu jihatdan xonlik Buxoro va Qo'qon davlatlaridan farqlanar edi. Barcha farmonlar davlat ishlari xujjatlari o'zbek tilida yoziladi.²⁰⁶

Xonlikda asosiy sudlov ishlarini qozilik idoralari tomoni-dan amalga oshirilgan. qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, oliy shaxs xon bo'lib, og'ir

²⁰⁴ Ўша жойда.

²⁰⁵ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 242-б.

²⁰⁶ Ўша жойда.

jinoyatlarni o‘zi ko‘rib hal qilgan. Undan keyingi o‘rinda Bosh sudya – qozikalon turgan. Xonlikdagi barcha viloyat, tuman kasaba, shaharlarda xon tomonidan tayinlangan qozilar bo‘lib, ular o‘z yordamchilari – muftilar yordamida mulkchilik bilan bog‘liq mojaralarni hal qilish, mayda jinoyatlarni ochish va shu kabi ishlar bilan shug‘ullangan. Aybdorlarga nisbatan o‘lim jazosi, tana a‘zolarini (barmoq, qo‘lini) kesish, kaltaklash, mol-mulkini musodara qilish, jarima solish va boshqa jazo choralari tayinlanardi. Viloyatlardagi jinoyatlarni ko‘rib chiqishda mahalliy hokimning ishtirok etish huquqi bor edi. Qishloqlardagi mayda mojarolar qishloq oqsoqollari tomonidan hal qilinardi.

Xiva xonligi aholisi, etnik tarkibi va mashg‘ulotlari. Xiva xonligi aholisining ko‘pchilik qismini o‘zbeklar tashkil qilib, ulardan eng ko‘p sonlilari qo‘ng‘irot, nayman, qiyot, uyg‘ur, nukuz, qang‘li, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O‘zbek qabilalari asosan Amudaryo tarmoq yoygan qismda, kanal bo‘ylarida joylashgan. Aholining anchagina qismini (taxminan to‘rttdan birini) turkmanlar tashkil etgan. Qoraqalpoqlar yashaydigan Amudaryoning quyi havzasi va Orol dengizining janubiy qirg‘oqlari ham Xiva xonligi tasarrufida edi. Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik qoraqalpoqlarning asosiy mashg‘uloti edi. XVIII-XIX asrlarda Amudaryoning sharqiy tarafidan oqib, Orol dengiziga quyilgan Ko‘ko‘zak daryosi bo‘yidagi ko‘psonli qoraqalpoqlar bilan orollik o‘zbeklarda dexqonchilik, chorvachilik, baliqchilik gullab yashnagan. XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlarning ijtimoiy-siyosiy xayotida jiddiy o‘zgarishlar yuz bera bordi. Bu o‘zgarish avvlo ularning endi ko‘proq dexqonchilik bilan shug‘ullana boshlashida namoyon bo‘ldi. Qoraqalpoqlar xayotida baliqchilik muxim axamiyat kasb etadi. Endilikda baliqchilarning qishloqlari vujudga keldi. Sol ustiga qurilgan suzib yuruvchi uylar paydo bo‘ldi. Bu davrda xunarmandchilik ma‘lum darajada qaddini rostlab bormoqda edi. Qoraqalpoqlar endilikda olacha, dag‘al ip gazlama mato, gilam to‘qiy boshladilar, yog‘ochdan turli buyumlar yasay boshladilar, teri pishirdilar, egar, yugan, ayil, kigiz tayyorlash bilan shug‘ullandilar. XIX asrning o‘rtalarida Chimboy shaxri barpo etildi. O‘zining qulay geografik xolati tufayli shaxar ma‘muriy markazga

aylandi. Qoraqalpoqlar ijtimoiy xayotida urug‘-qabilachilik an‘analari ustun edi. Yerga jamoa egaligi xukmron edi. XIX asr boshlarida qoraqalpoq yerida yangi-yangi urug‘lar vujudga keldi. Masalan, 1810 yilda el qabilasidan chiqqan qiyotli qoraqalpoqlar biyi Ekilikning 400-500 o‘toviga qo‘nqiroq va mang‘itlardan 200 o‘tov qo‘shilgan. Bunday xolat boshqa o‘tovlarda ham sodir bo‘lgan. Natijada 14 ulus deb nom olgan yirik urug‘lararo birlashma tashkil topgan. XIX asr o‘rtalaridan boshlab qoraqalpoq yerida ham urug‘ qabilachilik munosabatlarida o‘zgarish boshlandi. Ayni paytda yerga jamoa bo‘lib egalik qilish ham barxam topa boshladi. Endilikda uning o‘rnida yirik zamindorlik qaror topdi.

Qoraqalpoqlar Nukus, Qiyot, Qo‘ng‘irot, Qipchoq kabi shaxarlarda yashaganlar. Zarafshon vodiysida XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlarning 37 ovuli mavjud bo‘lgan. Mazkur shaxarlarning eng yirigi Qo‘ng‘irot bo‘lib, u Orolliklar markazi bo‘lgan. Xo‘jayli Orol birlashmasi bilan Xiva orasidagi savdo markazi bo‘lib, bojxona shu shaxarda joylashgan. Yana Mang‘it, Chimboy, Janga qal‘a, Oydo‘s qal‘a, Ernazar qal‘a, Ko‘k o‘zak, Eshon qal‘a shaxarlari qoraqalpoq xalqi tomonidan yaratilgan madaniy va me‘morchilik yodgorligi markazlari xisoblanadi.

Turkmanlar. Xo‘jalik madaniy jihatdan turkmanlar ko‘chmanchi (chorvador) va o‘troq dehqonlarga bo‘lingan. Turkmanlarning ko‘pchilik urug‘lari orasida chorvachilik yetakchi soha sanalgan. Chorvachilikda asosan quyruqli qo‘ylar boqilgan. XVI-XVIII asrning boshlari turkmanlarning shimoliy hududlarga ko‘chib o‘tishlari ularning xo‘jalik hayotida dehqonchilikning o‘rnini oshirdi. Chorvachilik bilan birga yiliqichilik ham rivojlangan bo‘lib, turkmanlar o‘zlarining axalteke zotli otlarini butun dunyoga mashhur qilganlar. O‘rta Amudaryo hududlarida yashovchi turkmanlar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Bu yerlarda turkmanlarning boshqa hududlarga qaraganda sug‘orish tizimlari va suv ta‘minoti yetarli daraja bo‘lgan. Bundan tashqari turkmanlar pillachilik, tikuvchilik, teri oshlash bilan ham shug‘ullaniganlar. Dehqonchilikda paxta, kunjut, arpa, bug‘doy, donli va dukkakli ekinlar ekanlar. Xorazm atrofidagi turkmanlar XVII asrdan boshlab yarim o‘troq xo‘jalik tarziga o‘ta boshlaganlar. Xo‘jalik hayotida

dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik yetakchilik qilgan bo‘lib, dexqonchilikda paxta, bug‘doy, arpa, guruch, mosh, qovun, tarvuz hamda tamaki yetishtirganlar. Bu yerda ham xo‘jalikning muhim tarmoqlaridan biri pillachilik bo‘lgan. Murg‘ob va Tajan viloyatlarida yashovchi turkmanlarning asosiy mashg‘ulotlari chorvachilik bo‘lgan. XIX asrning oxirlarida bu yerlarda ham xo‘jalik hayotida sug‘orma dehqonchilik yetakchilik qila boshladi. Ayni vaqtda qorako‘l qo‘ylar ham chorvachilikning yetakchi sohasi hisoblangan. Turkmanlarning janubi-g‘arbiy hudularida, Kaspiy dengizi bo‘ylarida yashovchi turkmanlarning xo‘jalik hayotida dehqonchilik va baliqchilik yetakchi soha sanalgan. Bu yerda yashovchi turkmanlar Kaspiy dengizi sohillarida neft va tuz konlarida mehnat qilganlar. Turkmanlarda ovchilik ham keng tarqalgan sohalardan biri bo‘lgan. Turkmanlar hunarmandchiligida temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, ko‘nchilik, duradgorlik, gilamdo‘zlik kabilar yetakchi sohalar sanalgan.²⁰⁷ Turkmanlar Eron, Buxoro, Xiva bilan faol savdo aloqalari olib borganlar, turkmanlarning ayrim shahar va qal‘alari, ovullarida katta bozorlar ham bo‘lgan.

Xiva xonligida iqtisodiy hayot. Soliqlar. Xiva xonligi iqtisodiy hayotida qishloq xo‘jaligi alohida muhim o‘ringa ega edi. Xonlikda yer egaligi uch hil shaklda bo‘lib, davlat yerlari, vaqf yer egaligi va hususiy yer egaligi shakllaridan iborat bo‘lgan. Davlat yerlari odatda xon va uning yaqinlariga tegishli bo‘lib, ular suv manbalariga yaqin hosildor yerlardan iborat bo‘lgan. Davlat xazina-siga xonning shaxsiy mulki sifatida qarash hukmron edi.

Xususiy yer mulklar ichida yirik mansabdor, harbiy — ma‘muriy va diniy amaldorlarga tegishli yer-mulklar katta foizni tashkil etardi. Qishloq jamolari egalik qiladigan yerlar dexqonlarga odatda 8-12 tanobdan bo‘lib berilgan.

Vaqf yerlariga odatdagidek, masjid va madrasalarga, diniy muassasalar va qabristonlarga tegishli yerlar kirgan va ulardan olinadigan daromad shu joylarning sarf-harajati uchun sarflangan. Xonlikda, asosan, o‘zbeklar dehqonchilik tumanlarida yashab ko‘pchilikni tashkil

²⁰⁷ Дониёров А.Х., Бўриев О., Аширов А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи. Т.Янги нашр, 2011. 150-156-бб.

qilganlar. Shuningdek, turkmanlar, qoraqal-poqlar, kam miqdorda tojiklar, eronliklar, yahudiylar, arablar ham istiqomat qilishgan. Ijtimoiy hayotda xon va uning amaldorlari va diniy ulamolarning mavqei yuqori bo'lib, iqtisodiy hayotning asosini tashkil qiluvchi yer ham asosan ular qo'lida bo'lgan. Kam yerli va yersiz dehqonlar ulardan ijaraga yer olib ishlaganlar. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik mamlakat iqtisodida muhim o'rin tutgani uchun Amudaryodan chiqarilgan kanallarni qazish davlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan.²⁰⁸ Shuningdek, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq ham iqtisodiy hayotda muhim o'rin tutgan. Xiva xonligi Buxoro, Qo'qon, Eron va Rossiya kabi qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Soliqlar barcha musulmon davlatlaridagidek xiroj, zakot, boj va jizyadan iborat bo'lgan. Shu bilan majburiy mehnatning ba'zi turlari amalga oshirilgan²⁰⁹.

Voha iqtisodining asosini dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etib, dehqonchilikda Amudaryoning quyi oqimidan olingan ko'plab kanallar va ariqlar muhim o'rin tutgan. Bu ariq va kanallar orasida eng yiriklari quyidagi sug'orish shaxobchalari edi - Pitnak kanali, Polvon kanali, G'azovot kanali, Shohabbaz kanali, Yarmish kanali, Qilich Niyoz biy kanali, Qorako'z kanali, Arna kanali, Bo'zsuv kanali, Suvvoli Xon kanali²¹⁰. XIX asrning 50-yillarida Kaltaminor, Bog'yop, Amirobod, Saribiy kanallari va boshqa bir qator katta-kichik sun'iy sug'orish inshootlari barpo etildi²¹¹.

Bulardan tashqari yana ko'plab o'rtacha kattalikdagi va uzunlikdagi sug'orish kanallari va ariqlari ham voha dehqonchiligi uchun qo'l kelgan. Qishloq xo'jaligida paxta, sholi va ekinlar yetishtirish, bog'dorchilik va poliz ekinlari ekish keng tarqalgan va rivojlangan edi. Biroq xonlik xududlarida ipakchilik yaxshi rivojlanmagan edi. O'troq aholi ham o'z xo'jaliklarida chorva mollari boqsalarda, biroq chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan asosiy talablarini chorvadorlar tomonidan

²⁰⁸ Бобожднова Д. Ўзбекистон тарихи. Т. 2011. 209-б.

²⁰⁹ Бобожднова Д. Ўзбекистон тарихи. Т. 2011. 209-б.

²¹⁰ Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. 140-б.

²¹¹ Туркистон Россия империяси мустамлакаси даврида. 50-б.

yetishtirilgan mahsulotlar yordamida qondirganlar. Chorvachilikda asosan bir o'rkachli tuyalar, ot va qo'y boqilgan²¹².

Asosiy sug'orish manbai Amudaryo edi. U Hinduqush tog'ining 4000 metr balandlikdagi Shimoliy yonbag'ridan boshlanib, Pomirdaryoga kelib qo'shilguncha Vaxandaryo deb ataladi. Pomirdaryo Vaxshga kelib quyilguncha Panjdaryo deb ataladi. Ular: Vaxandaryo, Pomirdaryo, Gung, Bartangdaryo va Vang. XVIII asrning 70-yillarida Davkar ko'liga quyiladigan irmoqlarda to'g'onlar qurildi. Ayni vaqtda Amudaryo deltasidagi aqoli yangi ariqlar ochib, Chumanoy va Changli Posu irmoqlaridan g'arb tomondagi yerlarda ekin ekilgan.

XIX asrning birinchi yarmida bir qancha kanallar qurilgan. 1815 yilda Daryolikning o'ng sohilidagi yerlarni sug'orish uchun Qilich Niyozboy katta kanali qurilgan, 1831 yilda Ko'hna Urganchni sug'orish uchun Lavzan ko'lidan ariq chiqarilgan, 1846 yilda kanaldan chiqarilgan suv Amudaryoning eski o'zaniga yetib kelgach, bu yerda to'g'on qurilib, Ko'hna Urganch janubidagi yerlarni sug'orish imkoni yaratildi, 1847 yilda bu yerdagi kanallar kengaytirildi va uzaytirildi²¹³.

Amudaryo oqimining doimo o'zgarib turishi, uning toshqin vaqtlari keltiradigan tashvishlari serloyqa Amu suvining arna va ariqlarga qum uyumlarini to'plash maqalliy deqqonchilik uchun har yili qo'shimcha meqnat sarflanishini talab etgan ayniqsa, Amudaryoda aprel, may, iyun oylari suv toshqini ko'p bo'lgan. Toshqinlar paytida qudratli daryo oqimi qirg'oqdagi sun'iy inshootlarni, uy hovlilarni, ekin dalalarini yemiradi, qishloq va to'qayzorlarni suv bosib ketar edi. Bunday ofatdan saqlanish uchun aholi daryo bo'ylab tuproqdan katta damba (qachi) tiklaganlar. Aksincha suv tanqis bo'lgan paytda sun'iy kanallarning saqasiga qo'shimcha inshootlar qurganlar. Masalan, Xivaning asosiy suv manbai - Polvonyonda suv yetmaganda ishlatish uchun 6 ta saqa qurilgan - Toshsaqa, Piryongan, Chag'allaqarka, Xavazak (Beshariq), Kacheneva va To'g'riteshik. Bundan tashqari, qishda va erta bahor paytlari barcha suv tarmoqlarini, ayniqsa, boshkanal va yoplarni bir necha marta qazib chuqurlashtirganlar, qo'shimcha dambalar qurganlar. Qo'shimcha kanal.

²¹² Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 246-б.

²¹³ Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. 141-б.

arnalar qazish, ularni ta'mirlash, yo'llarni va qal'alarni tuzatish kabi turli jamoatchilik ishlari majburiy tarzda o'tkazilgan.²¹⁴ Bunday ishlar erta bahorda boshlanib 12 kun yoki undan ko'proq vaqt davom etgan. Har 10 tanob yer "bir suv" qisoblanib, bir qazuvchiga ajratilgan. Agar yer hajmi undan oz bo'lsa, bir necha deqqon xo'jaligi birikib suv jamoasi (jabdi)ni tuzib bir qazuvchini o'zlari odatda 20 tadan birikib, bir guruh tashkil qilganlar va har guruh o'z orasidan rais (jabdi boshi), jamoa ishlarini bajaradigan xizmatkor va qo'shchini saylagan. Bunday ishlar suv ochilguncha bahor paytida o'tkazilgan. Zarur oziq-ovqat, ish qurollarini har bir qazuvchi o'zi keltirgan. Undan tashqari har qazuvchi maxsus soliq "afanak puli" to'lagan. Har bir jabdiga muayyan ariq (yon) qismi ajratilgan. Qazuvni boshqaruvchi xon amaldorlari (sohibkor) tayinlangan, unga har qishloqning vakili (yasovul) bo'ysungan. Xiva xonligida suv inshootlarini ta'minlash va tozalash uchun 700 mingga yaqin ishchi kuni sarflangan. Suv taqsimoti muayyan tartibda maxsus ma'muriyat (mirobchilik) tomonidan boshqarilgan. Qazuv odatda suv boshidan boshlangan.

XIX asrda Xiva xonligining 380 ming botmon sug'oriladigan yerining 100 ming botmonidan ko'prog'i xon, to'ra, katta amaldorlar va mulkdorlarning boshqa toifalariga tegishli edi. Yer sug'orilgan - axya va sug'orilmagan - adra yerlarga bo'linar edi. Dashtlar, to'qaylar, botqoqliklar va yaylovlar adra yerlariga kirar edi. Davlatga qarashli yerlar podsholik yoki amlok yerlari deb atalardi. Ularga ijarachi deqqonlar ishlov berardi. Bundan tashqari yarimchilar qam bor edi. Ular ijara uchun xosilning yarmini berardi.

Hunarmandchilik ham xonlik iqtisodiy hayotida alohida o'ringa ega bo'lib, hunarmandchilik va halq amaliy san'atning Xiva xonligi xududdarida o'ziga xos maktabi yaratilgan edi. Xonlikda har bir shaharda ko'plab hunar turlari bilan shug'ullanuvchi hunarmandlar mavjud edi. Ular faqatgina ichki bozorni o'z mahsulotlari bilan ta'minlabgina qolmasdan, balki tashqi savdoga ham ajoyib hunarmandchilik mahsulotlarini chiqarar edilar. Tashqi savdoda chetdan qo'rg'oshin, mis, temir, cho'yan kabi metallar va metall buyumlar asosan Rossiyadan, oltin, kumush,

²¹⁴ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 246-б.

hunarmandchilik mahsulotlari hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari Buxoro, Qo'qon, Eron va Rossiyadan keltirilgan va o'z navbatida Xiva xonligida ham chetga shunday mahsulotlar va nafis hunarmandchilik mahsulotlari chiqarilgan.²¹⁵

Xivalik savdogarlar tranzit savdo aloqalarida ham faol ishtirok etganlar va bu yerlardan o'tadigan savdo karvonlaridan olinadigan boj yig'implari ham xonlik xazinasiga kattagina daromad keltirib turgan.

Xiroj va zakot kabi asosiy soliqlardan tashqari turli yig'implar va majburiyatlar mavjud bo'lgan.²¹⁶

Davlat soliqlaridan ruhoniylarning ayrim vakillari, katta amaldorlar, tarxon yorliqlari egalari va boshqalar ozod etilardi. Masalan, 1826 yilda Olloqulixon imtiyozlar beradigan tarxon yorliqlarini bir necha hojilarga berdi.

Soliqlar va majburiyatlarning uncha to'liq bo'lmagan ro'yxatiga begar - 12 kunlik davlat mehnat majburiyatiga (har bir xonadondan bir kishi) jalb etilardi. Qazu-butun qishloq aqolisini katta va boshqa kanallarning bosh hamda yuqori qismini har yili tozalashga safarbar etish, ichki qazu yoki obxo'ra qazu-kanallarning taqsimlagich tarmog'ini har yili tozalash, qachi - himoya dambalari qurish yoki ularni mustahkamlashga safarbarlik, salg'ut-yer solig'i, alg'ut-bir to'la soliqlar, miltiq puli-aholidan qurol xarid qilishga pul yig'ish, arava oluv-aqoli aravalarini davlat ishlariga safarbar qilish, ulog' tutu-aqoli otlari va tuyalarini safarbar etish, qo'nalg'a-amaldorlarga turar-joy berish, so'ysun-qo'nalg'a chog'ida uy egasiga qarashli qo'y yoki buzoqni so'yib, mehmondorchilik qilish, chopar puli-soliqlar yig'ish xabarini yetkazganlik uchun haq to'lash, afanak puli-begar xabarini yetkazganlik uchun haq to'lash, chibik puli-ommaviy ishlardan ozod etilganlik uchun haq to'lash va boshqalar.

Boshqa bir manbada XIX asr o'rtalarida Xiva xonligida quyidagi soliqlar rasm bo'lganligi ko'rsatib o'tiladi²¹⁷:

Begor – ishlab berish solig'i. "hashar, qazuv – 12 kunlik majburiy xizmat, olg'ut - bir yo'la olinadigan soliq, solg'ut solig'i, miltiq solig'i – qurol solig'i, uloq tutuv – ot-uloq sayil puli, qo'nolg'a-qo'noq solg'uti

²¹⁵ Ўша жойда.

²¹⁶ Бобожонова Д. Ўзбекистон тарихи. Т. 2011. 206-б.

²¹⁷ Хива хонлигида ер-сув солиғи. <http://xorazmiy.uz>

(mehmon), so‘ysun solig‘i – jonlig‘ so‘yib osh berish, chopar puli – xabar solig‘i (pochta), tarozi puli – tag-joy solig‘i, mirobona – mirob solig‘i, darbozabon puli – bozorga kirish puli, otlanuv puli – shikor yoki safar puli, ipak puli – 40/1 qism zakot, mir tuman – hoqim to‘ra solig‘i, shig‘ovul puli – yo‘l puli, qorovul puli – soqchilik haqi, pul solig‘i – hazinachi puli, qurubon puli – to‘qay puli, mushribona – hosil nazoratchisi haqi, afanak puli – yerni bo‘sh qoldirgani jarimasi, chuvik puli – (aniqlanmagan), olomon puli – jarima, tutun puli – yong‘in havfsizligi kabi soliqlar.

Odatda meyorlarga muvofiq soliq olinmasdan amaldorlar va soliq yig‘uvchilar hisob-kitoblarni har qanday qilib bo‘lsa ham chalkashtirar hamda soliq to‘lovchi aholidan ko‘proq soliq olishga intilardi. Masalan, begar belgilangan qoidaga ko‘ra 12 kundan oshmasligi kerak bo‘lsa-da, amalda 15-20 kun va hatto 50 kun davom etar edi. Deqqonlar o‘zlari foydalanadigan kanallarning taqsimlagich tarmog‘ini tozalashdan tashqari, daromadidan navkarlar foydalanadigan kanallarni ham tozalashlari kerak edi.²¹⁸

XIX asrning boshlarida Muhammad Rahimxon I o‘tkazgan soliq islohoti natijasida soliqlar pul bilan undirilib, davlat xazinasiga topshiriladigan bo‘ldi. Soliq miqdori dehqonlarning yer maydonlari hajmiga nisbatan olinishi belgilandi. Jumladan, yer 10 tanob (4 ga)dan ortiq bo‘lsa, soliq 3 tilla, 5-10 tanobgacha - 2 tilla, 5 tanobdan kam bo‘lsa, yiliga 1 tilla qilib belgilandi. Ammo yersiz hamda davlat yerlarida chorikor bo‘lib ishlaydigan dehqonlar ham soliq to‘lashga majbur edilar. Agar 15 tanob yerda chorikor bo‘lsa, 34 tanga, 10 tanob yerga - 34 tanga yoki 3 dan 2 qismi, 5 tanob yerda bo‘lsa, 34 tanga yoki 3 dan 1 qismi mikdorida soliq to‘langan. Albatta, Xiva xonligida soliqlarning turlari, mikdori, undirilish tartibi hamma davrda ham bir xil bo‘lgan deyish qiyin. Lekin hukmron sulolalar va ularning vakillari o‘zgarib turgan bo‘lsa-da, bu yerda soliq tizimi boshqa xonliklardagidan ko‘p farq qilmagan²¹⁹.

Hunarmandlar do‘kon yig‘imi, tagijoy, bozor o‘rnidan foydalanganlik solig‘i, kiroyi asbob ijarasi solig‘i to‘lashga majbur bo‘lganlar. Masalan, xon amaldorlariga sovg‘a qilish uchun buyumlar

²¹⁸ Хива хонлигида ер-сув солиғи. <http://xorazmiy.uz>.

²¹⁹ Муқимов Зиёдулла. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Т.: “Адолат”, 2003. 215-б.

yig'imi o'tkazilgan. Pulli to'lovlardan tashqari, turli mahsulot to'lovlari ham bo'lgan.

Xiva xonligida savdo munosabatlari va pul muomalasi. O'zbek xonliklarining iqtisodiy hayoti va savdo munosabatlari, qo'shni davlatlar, uzoq Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalari, xonliklarda ichki va tashqi savdoning ahvoli, uning o'ziga xos xususiyatlari, karvon yo'llari, bozorlar, karvonsaroylar faoliyati, boj va pul tizimi, oldi-sotdi munosabatlari, unda turli etnoslarning ishtiroki masalalari, iqtisodiy sohaning uchala xonlikdagi o'zaro bog'liqlik masalalari, va ayni vaqtda uning o'ziga xos jihatlari o'rganish ham xonlik tarixining eng asosiy va keng ko'lamda o'rganilishi lozim bo'lgan sohalaridandir.

O'zbek xonliklarining tashqi savdo aloqalarida Rossiya bilan olib boriladigan savdo munosabatlari boshqa davlatlar bilan olib boriladigan savdoga nisbatan birmuncha ko'proq ahamiyat kasb etgan. Bunda har bir xonlikning tashqi savdo munosabatlarida umumiylik va o'xshash sohalar ko'p bo'lsada, ayrim sohalarda o'ziga xosliklarni ham kuzatish mumkin. Ayniqsa, Xorazmning Rossiya bilan olib boradigan savdo aloqalarida xonlikning ichki hududlaridan Amudaryoda qayiqlar yordamida Orol dengizi va uning atrofidan o'tgan savdo yo'llari bo'ylab qatnaydigan savdo karvonlari orqali olib ketiladigan mahalliy hunarmandchilik va zargarlik buyumlari, xalq amaliy san'ati hisoblangan nodir buyumlar, qorako'l teri va gilamlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa quruq mevalarga eksport qilinuvchi tovarlar sifatida alohida e'tibor qaratilgan. 1840 – 1850 yillarda Buxoro amirligi va Xiva xonligidan Rossiyaga keltirilgan savdo mollari orasida paxtadan to'qilgan matolar, mevalar, qimmatbaho toshlar, qog'oz va qog'oz buyumlar, ipak va yarim ipak matolar, gilamlar, kigizlar, qo'y va tuya yungidan tayyorlangan matolar, guruch, choy va yana boshqa bir qancha savdo mollari va buyumlari ko'rsatib o'tilgan. Bunda bir qator savdo mollari Xiva xonligiga qarashli bo'lsa, ayrimlari xonlikdan tranzit sifatida tashqi davlatlarga olib borilgan²²⁰.

Xorazmning avvalgi davrlarda ham xalqaro savdo yo'llari

²²⁰ История Узбекистана (XVI-первая половина XIX века)/ Отв.ред. Д.А.Алимова; АН РУз, Ин-т истории. –Т:Фан, 2012.-С.368-369.

chorrahasida joylashganligi va bunda tranzit savdoning amalga oshirilishida barcha sharoitlarning mavjudligi, aynan bunday savdo Xorazmning iqtisodiy jihatdan yuksalishiga katta ta'sir o'tkazganligini ham ko'rish mumkin²²¹.

XIX asrga kelib qoraqalpoqlar va Xiva xonligi o'rtasidagi savdo aloqalarining kuchayib borishi natijasida qoraqalpoqlar tomonidan Xiva xonligining turli shaharlariga chorvachilik va baliqchilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan savdo hajmi kengayib bordi. Amudaryoning chap qirg'og'ida yashovchi aholi don, chorva va baliqchilik mahsulotlarini Xiva, Xo'jayli va Qo'ng'iro't shaharlarida sotgan bo'lsalar, ayni vaqtda u yerlardan Buxoro va Rossiyadan keltirilgan tovarlarni sotib olganlar.²²²

XIX asrning 80-yillarida xonlikka Rossiyadan ko'proq sanoat mahsulotlari eksport qilingan. Xonlikdagi savdo vositachilari-ning ma'lumotiga ko'ra yiliga bu yerga hammasi bo'lib, 43770 pud mahsulot olib kelingan. Shulardan 1000 puddan ortiq temir, 1000 pudga yaqin cho'yan, 17000 pud manufaktura mahsulotlari, 1100 pud attorlik mollari va 1682 pud boshqa mahsulotlar tashkil etgan²²³.

Xiva xonligida boshqa xonliklarga nisbatan suv yo'llari orqali savdoni amalga oshirish imkoniyati ancha yuqori bo'lgan. Ta'kidlash kerakki, Xiva xonligining deyarli barcha suv yo'llari savdo qayiqlari qatnash imkonini berib, unda turli kattalikdagi va turli og'irlikdagi yuk tashuvchi qayiqlarlardan foydalanilgan. Suv yo'llarida qayiqlar mart oyidan noyabr oyigacha qatnay olgan va boshqa vaqtlarda daryolar muzlagan. Suv yo'llari orqali savdo jarayonlarida Amudaryo ayniqsa vohada katta ahamiyat kasb etgan²²⁴.

Savdo munosabatlarini tartibga solishda pul muomalasi asosiy o'rin egallashini hisobga olgan holda pul islohotlariga, ularning qiymatini nazorat qilishga katta e'tibor qaratilgan. XIX asrgacha mavjud bo'lgan pul zarb qilish ishlari Muhammad Rahimxon davriga kelib isloh qilindi. XIX asr boshida Xivada yangidan zarbxona tashkil etilib, oltin tangalar (tilla),

²²¹ Қўшжонов О., Сапарбоев А. Буюк Хоразмшоҳлар давлати даврида Хоразм. Хоразм-2007 й. 27-30 бб.

²²² История Узбекистана (XVI-первая половина XIX века). -С.518.

²²³ Садиков А.С. Экономические связи Хивы с Россией. Т, "Наука". 1965. 67-б

²²⁴ История Узбекистана (XVI-первая половина XIX века). -С.368.

kumush (tanga), mis (pul yoki qora pul) hamda Abbosiy, Shoxi pullar zarb qilingan.

“Tilla” - oltin tanga bo‘lib, ikki xil shaklda va og‘irlik miqdorida bo‘lar edi. Birinchisi “kichik tilla” deb atalar va o‘sha davr pul miqdorida 1 so‘m 80 tiyinga teng deb belgilanar edi, ikkinchisi “katta tilla” deb atalib o‘sha davr pul miqdorida 3 so‘m 60 tiyinga teng deb belgilangan edi. “Tanga” - kumushdan ishlanar va “bir tanga” o‘sha davr pul birligida 30 pul birligi yoki 20 tiyinga teng deb belgilanar edi. Yigirma tiyinlikni “bir tanga” deb atalishi shundan qolgan. “Pul” - misdan ishlanar edi. U pulga va tiyinga bo‘linardi. Kumushdan ishlangan “tanga”, “oq tanga” deb, misdan ishlangan pul “qora tanga” deb ham yuritilar edi. “Qora tanga” o‘zining qiymati jihatidan “oq tanga”ning 66 foiziga teng edi. Shuningdek, xonlikda “shoyi”, “abbas shoyi”, “yarim shoyi” deb nomlanadigan pul birliklari ham ishlatilgan. Ularning qiymati 10 tiyindan 40 tiyigacha o‘zgarib turgan.

Zarb qilish vaqtida oltin tangalarning yuza tarafiga hukmronlik qilayotgan xonning ismi yorliqlari bilan, teskari tomoniga esa, zarb qilingan joy nomi bitilgan. Mis tangalarning yuza tarafida "puli" so‘zi, teskari tomonida esa "Xorazm" so‘zi zarb etilgan. Xiva xonligida Rossiya mustamlakachiligi o‘rnatilgunga qadar tillaning kattasi (3 so‘m 60 tiyin), pul (5 tiyin), shaxi (32 tanga) pullar muomalada bo‘lgan²²⁵.

Asosiy pul birligi tilla va tanga bo‘lgan. Katta tilla 18, kichigi esa 11 tangaga teng bo‘lgan. Tanga 32 pulga teng bo‘lgan. Lekin tilla doim ham tangaga teng bo‘lavermagan. P.Nebolsinning so‘zlariga qaraganda, Xiva tillasining bir misqoli tibbiy o‘lchamga xos bo‘lgan (69-70,5 g) og‘irlikka teng bo‘lgan. Uning narxi kumushda 3 so‘m 43 tiyindan 4 so‘m 30 tiyigacha borgan²²⁶.

Tanga zarb qilish uchun foydalaniladigan oltin va kumushlar aralashmasiz bo‘lgan. Xiva tillasidagi metall og‘irligi o‘rtacha 60 foizni, tangada esa 54,8 foizni tashkil etgan²²⁷.

²²⁵ Небольсин П.И. Статистические записки о внешней торговле Россией со Средней Азией, СПб, 1856. С. 55

²²⁶ Ўша жойда.

²²⁷ Статистические записки о внешней торговле Россией со Средней Азией. С.16-17.

Xivaga tangalarni zarb qilish uchun kumush Rossiyadan quyma va tanga tarzida keltirilgan. XIX asrning so‘nggi choragida kumushni Nijniy Novgoroddan bir funtini 24-26 so‘mdan sotib olganlar. Har bir funt kumushdan 163-165 tanga zarb qilingan. Bundan xazina 7-8 so‘m daromad olgan.

XIX asr oxirlarida dunyo davlatlarida kumush qazib chiqarishning ko‘payib ketganligi uning qiymatini tushurib qo‘ydi. Bu davrda Xiva xonligida ham kumush pul birligi qiymati ikki baravar tushgan edi. Yoki bir “tanga” pul miqdori 20 tiyindan 12 tiyin qiymatga tushib qoldi.

1893 yilda jaxonda kumush narxining tushib ketganligi sababli tijorat bankining Buxoro bo‘limi Buxoro va Xiva hududlariga tangalar olib kelishni kuchaytirdi. Tanga kursi tushib ketadi. Lekin XIX asrning 90-yillar oxirida u yana yigirma tiyingacha ko‘tariladi²²⁸.

Xiva tangasida kumushning vazni va sifati Buxoro amirligidagi kabi bo‘lmasa ham, Xiva pul birligi boshqa O‘rta Osiyo xonliklari pul birliklaridan kam farq qilgan. Xonlik iqtisodiyotida pul muomalasi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Xiva pul birliklari qiymati kumush va oltinning narxlariga qarab o‘zgarib turgan.

**Tayanch
so‘zlar:**

Xorazm xonligi, Xiva xonligi, Xorazm tarixnavislik maktabi, Orol, Xuroson, Amudaryo, sulolaviy kurashlar, taxt, siyosiy hayot, soliqlar, majburiyatlar, kanallar, savdo aloqalari, savdo yo‘llari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XVI asr boshlarida Xiva xonligining tashkil topishi uchun qanday tarixiy shart — sharoitlar vujudga kelgan edi?
2. Shayboniylar hukmronligi davrida Xiva xonligining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bering.
3. Eron shohi Nodirshohning Xiva xonligiga qilgan bosqinchilik yurishlari xonlik uchun qanday siyosiy oqibatlariga olib keldi?

²²⁸ Исмаатов И. Россиянинг Ўрта Осиёга ва Эрон билан бўлган савдо-алоқасида Нижний Новгород ярмаркасининг ахамияти. (XIX аср охири - XX аср боши). Т. 1973, 106-бет.

4. Xiva inoqlarining hokimiyatdagi ta'siri oshib borishiga qanday shart — sharoitlar ta'sir ko'rsatdi?
5. Qo'ng'irotlarning Xiva xonligi taxtiga kelishi qanday natijalarga olib keldi?
6. XVI-XIX asr boshlarida Xiva xonligi iqtisodiy ahvol qay tarzda mavjud bo'lgan?
7. Xiva xonligining etnik tarkibi va aholining mashg'ulotlari?
8. Xiva xonligi iqtisodiy hayotida tashqi savdoning ahamiyati qanday edi?
9. Xiva xonligidagi soliq va yig'imlar Buxoro xonligidagi soliq va yig'imlardan nimasi bilan xususiyatlanardi ?

XVIII - XIX ASR O‘RTALARIDA BUXORO AMIRLIGI

- ❖ **Buxoro amirligi tarixiga oid manbalar.**
- ❖ **Buxoro amirligining tashkil topishi va XVIII – XIX asr o‘rtalaridagi siyosiy tarixi**
- ❖ **Buxoro amirligida davlat boshqaruvi.**
- ❖ **Buxoro amirligi aholisi, etnik tarkibi va mashg‘ulotlari**
- ❖ **Buxoro amirligida iqtisodiy hayot, soliqlar.**
- ❖ **Buxoro amirligida savdo munosabatlari va pul muomalasi.**

Buxoro amirligi tarixiga oid manbalar. Buxoro xonligida XVIII asr o‘rtalarida yuz bergan siyosiy voqealar mang‘it urug‘i vakillarini Buxoro xonligi taxtiga olib chiqdi. Davlat hukmdorlari «amir» unvoni bilan yuritiladigan bo‘ldi va davlat ham Buxoro amirligi degan nom oldi. XVIII-XX asr boshlarida ko‘plab mualliflar tomonidan Buxoro amirligi tarixiga oid bir qator tarixiy asarlar yaratilgan bo‘lib, ularda mang‘itlar xonadoni tarixining ko‘plab masalalari yoritib berilgan. Buxoro amirligi tarixiga oid yozma manbalar ichida «Qo‘shbegi arxivi» hujjatlari²²⁹ bilan bir qatorda YE.K.Meyndorf tomonidan 1820 yilda yozilgan «Orenburgdan Buxoroga sayohat», F.Nazarovning “O‘rta Osiyoning ayrim hududlari haqida qaydnomalar”²³⁰, 1833 yilda tatar mullosi Mirzo Ja’far nomi bilan 4 oy Buxoroda yashagan P.I.Demezoning «Buxoro xonligi haqida qaydlar», 1841 yilda I.Butenov elchiligi tarkibida Buxoroga tashrif buyurgan I.Xanikovning «Buxoro xonligi ta’rifi», D.Logofetning “Buxoroning tekisliklari va tog‘lari”²³¹, Yudjin Skaylarning O‘rta Osiyoga qilgan sayoxatlarini aks ettiruvchi asarini²³², A.I.Maksheyevning “Turkistonning tarixiy qiyofasi”²³³, shuningdek, ingliz josuslik hizmati vakillari Mir Izatullo va

²²⁹ ЎзР МДА. И-126-фонд. Бухоро кўшбегиси архиви

²³⁰ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. С.-Пб., -1821; Назаров Ф. Записки

о некоторых народах и землях Средней части Азии. - М.: Наука, 1968. - 76 с.

²³¹ Логофет Д.Н. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. С.-Петербургъ. 1909.

²³² Юджин Скайлер. "Туркестан: записки о путешествии в Русский Туркестан, Коканд, Бухару и Кульджу". 1876.

²³³ Макшеев А. И. Исторический обзор Туркестана и поступательного движения в него русских. – Б. м., 1897.

A.Berns tomonidan hamda A.Vamberi²³⁴ tomonidan yozilgan asarlar ham Buxoro amirligining XIX asr birinchi yarmi tarixiga oid muhim manbalar qatoridan o‘rin olgan.

Albatta mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlar Buxoro amirligi tarixini o‘rganishda muhimroq ahamiyat kasb etadi. Xususan, Domla Muhammad Sharif ota ibn Muhammad Naqiy (XIX asr boshi) tomonidan yozilgan va asosan Ashtarxoniylar sulolasi tarixini o‘z ichiga olgan “Toj ut tavorix” (tarixlar toji, solnomalar toji) asari amir Haydar topishirig‘i bilan yozilgan bo‘lib, asarda dastlabki mang‘it amirlari Muhammad Rahim (1753-1759), Doniyolbiy (1759-1785) va Shohmurod (1785-1800) hukmronligi davridagi Buxoro amirligi tarixi jarayonlari ham batafsil yoritib berilgan²³⁵.

Nafaqat Buxoro amirligi, balki O‘rta Osiyo xonliklari tarixi haqida qimmatli ma‘lumotlar beruvchi “Markaziy Osiyo tarixi” asarining muallifi Abdulkarim Buxoriy amir Shohmurod (1785-1800) va amir Haydarlar (1800-1826) hukmronligi yillarida amirlikning muhim diplomatik ishlarini amalga oshirib, Rossiya, Afg‘oniston, Turkiyaga elchiliklar tarkibida borgan. Umrining so‘nggi yillarini Istanbulda o‘tkazgan va 1830/31 yilda vafot etgan. Asarda Abulfayzxon (1711-1747) inqirozidan boshlanib, amir Haydar hukmronligi yillarigacha bo‘lgan voqealarni yoritib berish bilan birga, Xiva xonligi va Qo‘qon xonligi tarixiga oid ko‘pgina ma‘lumotlarga ham keng o‘rin berilgan²³⁶.

XIX asrda Samarqandda yashab o‘tgan va XIX asrning 40-yillarida muftiylik lavozimida bo‘lgan Abu Toxirhojaning “Samariya” asarida ham mang‘itlar hukmronligi yillarida Samarqand va uning atroflaridagi tarixiy jarayonlar, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga ko‘plab ma‘lumotlar, Muhammad Rahimbiy va amir Shohmurodlarning boshqaruv davridagi amalga oshirilgan ishlar, Shohmurod tomonidan barpo ettirilgan shahardagi 24 ta guzar va ular haqidagi ko‘plab ma‘lumotlar ko‘rsatib berilgan. Samarqand Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng Abu Toxirhoja Karmanaga ko‘chib ketgan va u yerda rais lavozimida bo‘lgan, vafoti 1874

²³⁴ Вамбери А. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Т.: Ғ.Ғулом ном...., 1990.

²³⁵ Ахмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. Тошкент, “Чўлпон”, 2003. 87-б.

²³⁶ Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. 21-б.

yil²³⁷.

Tarixchi olim va xattot Mirzo Abdulazim Somiy Bo‘stoniy [1839 - Buxoro, Bo‘ston qishlog‘i (hoz. Qiziltepa tumani) - 1908] qalamiga mansub bo‘lgan «Tuhfai shohiy» (1900-1902) va «Tarixi salotini mang‘itiya» (1906-1907) tarixiy asarlarining har ikkisi ham mang‘itlar sulolasi tarixiga bag‘ishlansa-da, bir-biridan keskin farq qiladi. «Tuhfai shohiy» asari rasmiy siyosat talablari darajasida yozilgan bo‘lsa, «Tarixi salotini mang‘itiya» asarida Mirzo Abdulazim Somiy Bo‘stoniy Buxoro amirligining mang‘itlar hukmronlik qilgan davrini tanqidiy nuqtai nazardan baholaydi²³⁸. U o‘zi guvoh bo‘lgan va eshitgan hodisalarga tayanib, amirlik idora uslubidagi holatlar, Rossiya va Buxoro qo‘shinlari o‘rtasidagi janglar, amir qo‘shin boshliqlarining layoqatsizligi va mas‘uliyatsizligi oqibatida mamlakatning katta qismi bosqinchilar tomonidan bosib olinganligi va valiahd Abdulmalik (Katta To‘ra)ning ba‘zi muvaffaqiyatli janglarini tasvirlaydi. Mirzo Abdulazim Somiy Bo‘stoniyning har ikki asari ham mang‘itlar sulolasi davrida Buxoro amirligining siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy hayotini o‘rganishda muhim manbalar hisoblanadi.

Muhammad YA‘qub Buxoriy - Muhammad YA‘qub Kenja ibn Ali Mirzo Buxoriy (taxm. 1771 - 1831) - buxorolik tarixchi olim, mang‘itlar sulolasining amaldagi ikkinchi hukmdori Doniyolbiy otaliq (1758-1785) ning o‘g‘li bo‘lib, uning bugungi kungacha «Gulshan ul-muluk» («Podshoxlar gulshani») nomli tarixiy asari yetib kelgan. Asar 1825-1831 yillar oralig‘ida yozilgan bo‘lib, o‘z mazmuni hamda yozilish uslubi bilan Buxoro tarixnavislik maktabining XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi yarmida yaratilgan tarixiy asarlaridan farq qiladi. Asarning birinchi qismida Buxoroning qadimgi tarixi, uning xukmdorlari shajarasi bayon qilingan bo‘lsa, ikkinchi qismi esa muallif yashagan davr tarixi, ya‘ni XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi choragi davomidagi mang‘itlar sulolasi hukmronligi ostidagi Buxoro amirligi tarixiga bag‘ishlangan.

Ahmad Donish tomonidan yozib qoldirilgan “Tarjimai ahvoli

²³⁷ Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. 25-26-бб.

²³⁸ Аҳмедов Б., Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари, Т., “Ўқитувчи”, 1991. 87-б.

amironi Buxoroyi sharif az amir Doniyol to asri amir Abdulahad” asari mang‘itlar sulolasi davri tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri sanaladi. Amir Nasrullo saroyida xizmat qilgan Ahmad Donish mazkur asarida Buxoro amirligining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni keltirish bilan birga, mang‘it amirlarining o‘z hukmronligi davrlarida davlat boshqaruvida amalga oshirgan ishlari va ularning ahamiyati haqida bir qator qimmatli ma’lumotlarni ko‘rsatib beradi²³⁹.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan asarlar bilan bir qatorda amirlik tarixining turli masalalari haqida so‘z yurituvchi Muhammad Vafo Karminagiy qalamiga mansub “Tuhfai xoniy”, Muhammad Mirolim Buxoriyning “Fathnomai Sultoni”, Mirza Badi Devonning “Majmu’ al-arqom”, Mirza Salimbekning “Tarixi Salimiy”, Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Shariflarning “Tarixi amiri Haydar”, Mir Husayn Ibn Amir Haydar tomonidan yozib qoldirilgan “Tarixi salotini Mang‘itiya, O‘zbekiya va Ashtarxoniya”²⁴⁰ kabi asarlar ham Buxoro amirligi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan manbalar hisoblanadi.

Buxoro amirligining tashkil topishi va XVIII – XIX asr o‘rtalaridagi siyosiy tarixi. XVIII asr boshlariga kelib O‘rta Osiyoning eng qudratli sanalgan davlatlaridan biri – Buxoro xonli-gida siyosiy va iqtisodiy inqirozlar kuchayib bordi. Buxoro xonligining poytaxti Sharqda eng mashxur shahar sifatida e’tirof etilgan Buxoroyi Sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, G‘uzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko‘lob va boshqalar amirlikning yirik shaharlari va aholi markazlari hisoblangan.²⁴¹

Bu vaqtda xonlik hokimiyati tepasida bo‘lgan Ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi vakillaridan biri Ubaydullaxonning markaziy hokimiyatni mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikka erishish yo‘lida amalga oshirgan barcha ishlari kutilganidek samara bermadi. Ayniqsa, 1708-1709 yillarda o‘tkazilgan iqtisodiy islohotlar, jumladan pul

²³⁹ Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. 29-б.

²⁴⁰ Шодиев Ж.М. Бухоро амирлигида давлатчилик масалалари Т.:Т ДЮИ, 2005. 20-б.

²⁴¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакачилиги даврида. Т., 2000, 44- б.

islohotlari mahalliy hokimiyat egalarining markaziy hokimiyatga qarshi kayfiyatini yanada kuchaytirib yubordi. Mamlakat-da yuzaga kelgan siyosiy inqiroz natijasida Ubaydullaxon 1711 yilda o'ldiriladi. Taxtga Ubaydullaxonning ukasi Abulfayzxon (1711-47) xon qilib o'tkaziladi. Hokimiyatdagi muhim lavozimlar nufuzli amirlar qo'liga o'tib qoladi. Markaziy hokimiyat zaiflashgach, 1709 yilda Farg'ona mulklari, 1711 yilda Balx, 1723 yilda Samarqand viloyati Buxoro xonligidan ajralib chiqadi. 1720 yillarda Toshkent viloyatini qalmoqlar bosib oladi²⁴².

Bu jarayonlarda Xiva xonligining ham Buxoro bilan chegara hududlaridagi harakatlari faollashib boradi. Xiva xoni Sherg'ozixon ham Buxoro xonligini boshqarishga da'vogar bo'ladi, ammo uning harakatlar samarasiz yakunlanadi. 1723 yilda qalmoqlar qozoq dashtlariga bostirib kirib, qozoqlarni Movarounnahrqa qochishga majbur qilgan. Qozoqlar chorva mollari bilan Zarafshon vohasiga kirib bog' va ekinzorlarni payhon qilganlar.²⁴³

Buxoro xonligida iqtisodiy va siyosiy tanglik kuchaya borib xonlik tanazzulga yuz tutgan. Movarounnahr parchalanib, uchta xonlikka (Buxoro, Qo'qon va Xiva) bo'linib ketgan. Bundan foydalangan Eron hukmdori Nodirshoh 1740 yil bahorida Balxni egalladi va o'sha yili kuzda katta qo'shin bilan Amudaryodan o'tib Buxoro xonligini buysundirdi. U mang'it qabilasidan bo'lgan Muhammad Hakim otaliqni ishonchli vakili sifatida taxtga o'tqazadi. Abulfayzxonning nufuzi pasayib ketadi.²⁴⁴

O'zaro nizolar va tashqi dushmanlar hujumi tufayli tobora zaiflashib borayotgan, markaziy davlat hokimiyat boshqaruvi karaxt holga kelib qolgan ashtarxoniylar davrida katta siyosiy nufuzga ega bo'lgan o'zbeklarning mang'it urug'i biylari asta-sekin davlat boshqaruvida muhim o'rinni egallay boshladilar. XVIII asr 40-yillariga kelganda Buxoro xonligida siyosiy va iqtisodiy inqiroz kuchaygan. Ashtarxoniylar sulolasining songi vakili Abulfayzxon (1711-1747)ning siyosati natijasida xalqning moddiy ahvoli og'irlashgan, Buxoro xonligi tomonidan mustaqil Qo'qon xonligi ajralib chiqqan mamlakatni beklklarga bo'lishish xavfi

²⁴² Шодиев Ж.М. “Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши”. Т: ТДЮИ нашриёти, 2010. 12-б.

²⁴³ О'sha joyda.

²⁴⁴ “Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши”. 13-б.

kuchaygan. Buning ustiga Eron shohi Nodirshoh Afshor (1736-1747)ning Buxoro amirligiga hujumi, mamlakatning asosiy shaharlari boʻlgan Buxoro va Samarqandning ular tomonidan egallanishi va talanishi oqibatida siyosiy vaziyat battar murakkablashgan. Buxoro taqdiri, Turkiston taqdiri hal qilinayotgan ana shunday qaltis va nozik bir fursatda tarix sahnasiga yangi siyosiy kuch-mangʻitlar sulolasi paydo boʻldi. Nufuzli mangʻit biylari (beklari) dan Muhammad Hakimbiy otaliq ibn Xudoyorbiy otaliq (vafoti 1743) mangʻitlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishlari uchun yetarli shart-sharoit yaratib bergan.²⁴⁵ Nodirshohning istilochilik yurishlari bu siyosiy oʻzgarishlarni birmuncha tezlashtirdi.

1747 yil yozida Nodirshoh Mashhad yaqinida jiyani Aliqulixon tomonidan oʻldirildi. Uning oʻlimidan soʻng Muhammad Rahimbiy oʻz yoʻlidan Abulfayzxonni olib tashlashga kirishib uni qoʻlga oladi hamda qatl ettiradi. Shu bilan Ashtarxoniylarning amaldagi soʻnggi vakili hamda sulolasi hukmronligiga nuqta qoʻyildi. Lekin, Rahimbiy chingiziylardan boʻlmagani uchun xonlik lavozimini qabul qila olmas edi. Taxtga dastlab Abulfayzxoning oʻgʻli Abdulmoʻmin, u oʻldirilgach, hali beshikda yotgan ukasi Ubaydullo Sulton - Ubaydullaxon III ibn Abulfayzxonni, keyinchalik Shergʻozini rasman xon deb eʼlon qilindi²⁴⁶. Koʻp oʻtmay u ham taxtdan tushirilib, 1756 yildan boshlab Buxoroda yangi sulola – Mangʻitlar (1753 – 1920 yillar) hukmronligi boshlanadi²⁴⁷. Bundan koʻrinadiki, Abulfayzxonning oʻlimi (1747 y) dan soʻng taxtga to 1756 yilgacha uning avlodlari oʻtkazilgan boʻlsa-da, amalda hokimiyat mangʻitlar sulolasi vakili Muhammad Rahim qoʻlida edi.²⁴⁸

Muhammad Rahim oʻz hukmronligining dastlabki yillarida markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga kirishdi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning barqarorlashuvidan manfaatdor boʻlgan yirik yer egalari, savdogarlar, ulamolar va fuzalolar uning bu siyosatini qoʻllab-quvvatladilar. Ishni avvalo saroy amaldorlarini oʻzgartirishdan hamda markaziy boshqaruvni tartibga solishdan boshlagan Muhammad Rahim

²⁴⁵ Ражабов Қ. Муҳаммад Раҳимхон- манғитлар сулоласи асосчиси. Бухоро мавжлари. 2005. №3. 36-37 бб

²⁴⁶ Муҳаммад Раҳимхон- манғитлар сулоласи асосчиси. Бухоро мавжлари. 36-37 бб

²⁴⁷ Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). -Алматы: Дайк-Пресс, 2004. с. 266-269.

²⁴⁸ “Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши”. 13-б.

asta-sekin viloyatlar hokimligiga ham o'ziga sodiq odamlarni qo'yishga kirishdi. Buning uchun u separatistik kayfiyat juda kuchli bo'lgan Shahrisabzga 1750-1752 yillarda 4 marta yurish qilib, bu yerdagi muhim mudofaa qo'rg'onlari (Kitob, Sangfurush, G'ovmish, Qushchi) ni egalladi va vohada o'z hokimiyatini to'laligicha o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. G'uzor ham Buxoro hokimiyatini tan oldi²⁴⁹.

1756 yil dekabr oyida turkiy o'zbeklardan bo'lgan mang'it urug'iga mansub bo'lgan Muhammad Rahimni rasman taxtga o'tkazish marosimi bo'lib o'tdi. U taxtga o'tirgach, bir qancha siyosiy-ma'muriy islohotlar o'tkazdi. Yangi hukmdorga yordam bergan qabilalar vakillari saroydagi oliy va yuqori mansablarga o'tkazildi²⁵⁰. Isyonkor Shahrisabzliklar kuchini susaytirish uchun ilgari Shahrisabz viloyatiga tegishli Yakkabog' tumani alohida beklik (viloyat) deb e'lon qilinib, Imomquli parvonachi Yakkabog' hokimi etib tayinlanadi. Rasmiy ravishda ham taxtni egallagan Muhammad Rahim Sharqiy Buxoroga qarshi yangi harbiy yurishlarni amalga oshirdi va bu yerlarni ham o'ziga buysundirdi. Muhammad Rahim vaqtida (1753-58) Buxoro amirligiga qarashli yerlar ancha qisqargan. Uning tarkibiga Buxoro, Samarqand, Miyonqol, Karmana, Qarshi, G'uzor, Karki, Chorjo'y, Shahrisabz viloyatlari kirib, Toshkent va Farg'ona viloyatlari xonlik tasarrufidan chiqib ketgan. Muhammad Rahim davlatni boshqarishni boshlagandan so'ng o'zining ismini har kuni besh vaqt namozlarda qo'shib aytirdi hamda pul tangalarida "Muhammad Rahim Bahodir Xon" deb yozdira boshladi.²⁵¹

Ashtarxoniylardan Subhonqulixon vafotidan keyin Ko'ktosh ustiga hech kim taxtga o'tirmagan edi. Miriyning fikricha, 92 turkiy va mo'g'ul urug'lari birlashib, Muhammad Rahimxonni yakdillik bilan "Turon taxti"ga o'tqazib, uni "Turon xoqoni" deb e'lon qilishgan. Shuni alohida takidlab o'tish kerakki, o'sha davr manbalarida Muhammad Rahimxon "amiri saodat makrun", "amiri soxibqiron", "bahodur", "shohi alijoh", "amiri jahonpanohi kamyob", "amiri Arastu ray" kabi faxriy unvonlar

²⁴⁹ Сагдуллаев А. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият таракқиёти. Т. "Академия". 2000. 192-193-бб.

²⁵⁰ "Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши". 14-б

²⁵¹ O'sha joyda.

bilan tilga olinadi.²⁵²

Muhammad Rahimbiyning hukmronlik tarixi kuchli markazlashgan davlat qurishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Bu davrda markazlashgan davlatdan mustaqil bo'lishga intilishlar Sharqiy Buxoro, O'ratepa, Xo'jand hududlarida kuchayadi. Muhammad Rahimbiy markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida kuchli qo'shin tuzishga muvaffaq bo'ladi. Qo'shinning asosini afg'onlar tashkil qilib ular Nodirshoh davrida Rahimbiy qo'l ostida xizmat qilganlar.²⁵³ Markazlashgan hokimiyatni mustahkamlash maqsadida Miyonko'l atrofida yashovchi xitoy-qipchoqlar ustiga ikki yil yurishlar qilib ularni bo'ysundiradi. Shuningdek, Hisor, Urgut, Panjikent, O'ratepa kuchlari bilan qirg'inbarot janglar olib boradi. Muhammad Rahimxon bo'ysunmagan qabilalar bilan til topish maqsadida ular orasidagi aslzodalarga qabilani boshqarish huquqini beruvchi yorliqlar in'om etar, o'z tomoniga ag'darishning turli xil usullarini qo'llar, shunday bo'lsada, yaqinlashuv jarayoni juda sust kechardi²⁵⁴.

MANG'ITLAR

Buxoro amirligini boshqargan sulola (1757-1920). Uning vakillari mang'it urug'iga mansub bo'lgan. 1747 yilda otasi Muhammad Hakimbiy o'rniga otaliq etib tayinlangan Muhammad Raximbiy Buxoro xonligida hokimiyatni o'z qo'lga oladi. Bundan norozi bo'lgan bir qator viloyatlar hokimlari isyon ko'tardilar. Qo'zg'olonlar shafqatsiz bostirilgach, Muhammad Rahim arkoni davlat va ruhoniylar fatvosi bilan 1753 yilda Buxoro taxtini egalladi va o'zini «amir» deb e'lon qildi. Shundan keyin ashtarxoniylar sulolasi barham topib, mang'itlar sulolasi hukmronligi boshlandi. Ashtarxoniylar sulolasi o'rniga kelgan bu sulolaning hukmdorlik tarixi Muhammad Rahimning taxtga rasman o'tirishi (1756 yil 16 dekabr) dan boshlangan. Uning vafotidan so'ng taxt vorisi etib Fozil to'ra (qizining o'g'li), keyin Ubaydullaxon tayinlangan bo'lsada, davlatni amalda amakisi Doniyolbiy otaliq (1758 - 1785) boshqargan. Keyingi mang'it hukmdorlari amir Shohmurod (1785-1800), amir Haydar (1800-1826), amir Nasrullaxon (1826-1860), amir Muzaffar (1860-1885), amir Abdulahad (1885-1910) va amir Olimxon (1910-1920) lar Buxoro amirligini boshqarganlar.

Muhammad Rahimxon davrida mamlakatning deyarli barcha boshqaruvi tizimida Eron shialarning nufuzi ancha yuqori edi. Davlatbiy

²⁵² Мухаммад Раҳимхон- манғитлар сулоласи асосчиси. Бухоро мавжлари. 36-37 бб

²⁵³ Исмоилова Б. Кўрсатилган асар. 18 – бет.

²⁵⁴ Иванин П. П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – сер. XIX вв.). М., 1958. с. 129.

Qo‘shbegi va qozi Sayyid Nizomiddindan tortib qo‘shindagi eng katta lavozimlargacha ularga tegishli edi.²⁵⁵

1758 yil 24 mart kuni G‘ijduvon va Shofirkondagi Hoja Abduxoliq G‘ijduvoni – Hojayi Jahon va Hoja Orif Mohitobon – Orif Revhari maqbaralarini ziyorat qilib, Buxoroga qaytayotganda yo‘lda, to‘satdan kassallanib 45 yoshida bevaqt vafot etgan²⁵⁶ Muhammad Rahimxonning o‘g‘li yo‘qligidan taxt vorisi sifatida Doniyolbiy butun hokimiyatni qo‘lga olib, taxtni rasman qabul qilmay Abulfayzxonning nevarasi Abdulg‘ozini o‘tkazadi. U garchi otaliq lavozimida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsada, bu – amalda Buxoroning hukmdori edi.²⁵⁷

Eron shohi Nodirshoh 1740 yilda Buxoroga bostirib kelgandan so‘ng, Muhammad Hakimbiy Abulfayzxon saroyida Qo‘shbegi – bosh vazir, uning ukasi Muhammad Donyolbiy Karmana hokimi qilib tayinlangan. Muhammad Hakimbiyning o‘g‘li Muhammad Rahimbiy esa Nodirshohning eng yaqin kishilaridan biri bo‘lib qolgan. Muhammad Donyolbiy 20 yilcha Zarafshon voxasining markazida joylashgan Karmana viloyati hokimi bo‘lgan. Unga o‘sha paytda “valine‘mat” unvoni berilgan.²⁵⁸ Uning hukmronligi davrida Buxorodan bir qator viloyatlar ajralib chiqdi. O‘ratepa va Xo‘jand hukmdorlari Jizzax, Xatirchi, Kattaqo‘rg‘on, Samarqandni ishg‘ol etib va hattoki, Buxoroni ham bosib olmoqchi edilar.

Uning hukmronligi davrida (1759—1784) markaziy hokimiyat zaiflashdi va urug‘lar o‘rtasidagi nizolar markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlar ko‘paydi. Bunday hol butun mamlakat bo‘ylab yoyildi. Yuzg kenagas, burgug, baxrin, saroy kabi yirik o‘zbek urug‘lari birlashib, Buxoroga qarshi yurish qildilar. Biroq isyonchilar halqning qo‘llab quvvatlashlari tufayli bostirildi. Bu voqea Doniyolbiy xukmronligining dastlabki yillaridayoq yuz bergan edi. 1771 yilda Shahrizabz va G‘uzor beklilarida davlatga qarshi kuchli qo‘zg‘olon

²⁵⁵ Абдураимов М. А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX вв. Т. I. Т., 1966. с. 181 – 182.

²⁵⁶ Мухаммад Рахимхон- манғитлар сулоласи асосчиси. Бухоро мавжлари. 36-37 бб

²⁵⁷ Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). с. 79-82, 269-271.

²⁵⁸ Ражабов Қ. Мухаммад Дониёлбий оталиқ (бийлик мансабидан амирлик рутбасигача). Бухоро мавжлари. 2005. №4. 26-27 бб

ko‘tarildi. Bu qo‘zg‘olon juda katta qiyinchilik bilan bostirildi. Qo‘zg‘olon rahbarlari qatl qilindi.

Tarixchi va davlat arbobi Mirzo Salibek o‘zining “Tavorixi muttaqadimin va mutaaxirin” nomli asarida yozishicha, Muhammad Donyolbiy o‘zboshimcha amaldorlar Tog‘aymurodbiy Burqut, Nurota viloyat hokimi Joxongir saroyi va G‘uzor viloyat hokimini vazifasidan olib tashlab ularni qatl etgan. O‘zining isyonkor harakatlari bilan “tanilgan” yetti urug‘ qavmini Miyonkoldan Shahrizabzgacha, Boysundan Sherobodgacha tarqatib yuborgan. Bu orada yuz urug‘ining yetakchisi Fozilbiy yuz Xo‘janddan O‘ratepaga kelib, ko‘p lashkarlar bilan Jizzahni oladi va Samarqand ustiga yurish qiladi.²⁵⁹ Bunday vaziyatda amir Donyolbiy katta qo‘shin bilan Karmanaga yetib keldi. Uzoq urushlardan so‘ng Xo‘jand va O‘ratepa yerlari ozod etiladi. Donyolbiy Shahrizabz, G‘uzor va boshqa shaharlarini o‘ziga bo‘ysundiradi. Donyolbiyning 27 yillik hukmronligi davrida mamlakat og‘ir vaziyatni boshidan kechirdi. Ushbu parokandalik uning vafotidan so‘ng (1785) yanada avj oldi²⁶⁰.

Donyolbiyning katta o‘g‘li Shohmurod 1785 yilda saroyda otaliq lavozimiga ko‘tarildi. Shohmurod (1785-1800) Abdulg‘ozixon-ni taxtda tushirib, “amir” unvonida davlat boshqauviga kirishdi²⁶¹. Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligida markazlashishga moyillik kuchaydi. Markazlashgan hukmronlikning mustahkamlani-shi va feodal tarqoqlikka barham berilishi amirlikda iqtisodiy ahvolning barqarorlashishiga olib keldi. Amir Shohmurod Buxoro amirligi taxtini egallagach, Abul Fozilxonni davlat ishlaridan chetlashtirgan, uni arkdan tushirgan va Buxorodagi Bozor Xo‘ja guzaridan unga hovli ajratgan va Abul Fozilxon umrining oxirigacha amir xazinasidan nafaqa olib turgan.²⁶²

Amir Shohmurod Mahmud, Umar, Fozil, Sultonmurod, Rustam Ganjali, Muxammad YA‘qub, To‘xtamish Darvish, Rajabali kabi o‘nta ukasining har biriga bittadan viloyat hokimligini berib, Buxoro

²⁵⁹ Мухаммад Дониёлбий оталик (бийлик мансабидан амирлик рутбасигача). Бухоро мавжлари. 27-б.

²⁶⁰ Исмоилова Б. Кўрсатилган асари. 21 бет. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). с. 85-86. Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида, с.171-186.

²⁶¹ Мирза Абдулазим Сами. Тарих – и салатин – и манғитийа. с. 51. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). с. 82-86, 271-279.

²⁶² Ражабов Қ. Амир Шохмурод ёхуд “амири маъсум”. Бухоро мавжлари. 2006. №1. 36-38 бб

amirligidagi siyosiy tarqoqlikka barham bergan. Amir Shohmurod 1785 yilda amirlik hududida pul islohati o‘tkazib, sof kumush va oltindan tangalar zarb qildirgan. Ushbu tangalarda ilk marta “amir” unvoni tilga olingan. Buxoro amirlari aynan Shohmurod davridan boshlab arab xalifalari va Usmonli turk sultonlari singari o‘zlarini butun musulmon dunyosining diniy hukmdori hisoblab, “Buxoro-islom dining tayanchi va qudrati” degan fikrga tayanganlar. Amir Shohmurod bundan tashqari, moliyaviy, ma‘muriy, sud va harbiy sohalarda ham katta islohotlarni amalga oshirgan. U muhtasab (rais) mansabi va qo‘shinda qoziaskar lavozimini joriy etgan. Shuning uchun ham zamondoshlari va kelajak taxchilari Shohmurodni “Amiri ma’sum” – “Begunoh amir” va “Umari soniy” – “Ikkinchi Umar”, “g‘oziy” unvonlari bilan tilga olishadi.²⁶³

Amir Shohmurodning tashqi siyosatida Marv, Balx va boshqa hududlarni Buxoroga qaytarish uchun Xurosonga qilgan harbiy yurishlari alohida ajralib turadi. Marv atrofida 1785-1786 yililarda bo‘lgan janglarda shahar hokimi Bayramalixon Qojor o‘ldirilgan va uning qo‘shini tor-mor qilingan.²⁶⁴

Shohmurod amir bo‘lsa ham kamtarin hayot kechirganligi haqida bir qator adabiyotlarda alohida ta’kidlab o‘tiladi. O‘sha davr manbalarida yozilishicha, u oddiy ra’iyatga o‘hshab faqirona kiyingan. Amir Shohmurod libosining butun qiymati yetti tangadan oshmagan. Xolbuki uning saroy amaldorlari va harbiy sarkardalar shohona kiyingan va dabdabali hayot kechirgan. Amir Shohmurodning ozug‘i ham arpa, non, moshova, o‘moch, yorma va go‘jadan iborat oddiy ovqatlar bo‘lgan. U hadya va tortiqlarni qabul qilmagan.²⁶⁵

Shohmurod faqatgina siyosiy hokimiyatni mustahkamlab qolmasdan, bir qator ma‘muriy iqtisodiy - madaniy tadbirlarni ham amalga oshirdi. O‘z hayotini kamtarona darveshlarga xos tarzda o‘tkazgan bu hukmdor Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridagi, Amudaryo bo‘ylaridagi sutorish tizimlarini qayta tiklab, yangi inshootlar, ko‘priklar, yo‘llar va boshqalarni barpo ettirdi. Amir Shohmurod tomonidan o‘tkazilgan moliya, sud, ma‘muriy va harbiy

²⁶³ Шохмурод ёхуд “амири маъсум”. Бухоро мавжлари. 2006. №1. 36-б

²⁶⁴ Ўша жойда

²⁶⁵ Шохмурод ёхуд “амири маъсум”. Бухоро мавжлари. 2006. №1. 38-б.

sohalardagi islohotlar natijasida mamlakatdagi siyosiy - iqtisodiy hayot birmuncha jonlandi. Amir Shohmurod o'g'li Amir Haydarni mang'itlarning ota meros mulki hisoblangan va amirlikda katta nufuzga va mavqega ega bo'lgan Qarshi shahriga hokim etib tayinlandi. Shundan boshlab mang'itlar sulolasi taxt vorislarining Qarshida hokimlik qilishlari odat tusiga kirdi²⁶⁶.

Shu o'rinda mualliflarning ta'kidlab o'tishicha, Samarqand shahrining XVIII asr 30-50 yillarida kuchli inqiroza uchrashi va xo'jalik hayotining izdan chiqib ketishi asrning o'rtalariga kelib asta-sekin tiklana boshanadi. 1752 yillarda shaharda jon egasi qolmagan edi. Shuning uchun, garchi Mang'it hukmdorlarining birinchisi bo'lgan Rahimbiy otaliq Ravotxo'ja bandini tuzatib, shaharga suv oqizgan bo'lsa-da, odamlar yo'qligidan shahar jonlanib ketmadi. "Samarqandning hozirgi obodonchiligi, - deb yozgan edi S.Ayniy bu haqda, - 1780 yil, ya'ni Shohmurodbiyning bekligidan boshlangan bo'lib, 1809 yillarda bir shahar yo'siniga kirgizildi." Bu Shohmurodbiyning aholini ko'chirib joylashtirish siyosati bilan bog'liq edi. Buning natijasida O'ratepa, Xovos, Toshkent, Andijon, Kattaqo'rg'on, Termiz va boshqa yerlardan aholining Samarqandga majburiy ko'chirib keltirilishi shaharning rivojlanishiga sabab bo'ldi²⁶⁷.

SHOHMUROD

(1741/49 Buxoro - 1800.30.11)

Buxoro amiri (1785-1800), Muhammad Doniyolbiy otaliqning o'g'li. Shohmurod otasi vafot etgach, uning «amirul umaro» unvonini qabul qilgan va rasmiy ravishda Buxoro taxtida o'tirgan chingiziy Abulg'ozixonni hokimiyatdan chetlatib, o'zini Buxoro amiri deb e'lon qilgan (1785 yil 9 iyun'). O'nta ukasining har biriga bittadan viloyat hokimligini berib, siyosiy tarqoqlikka barham bergan. Shohmurod faol ichki va tashqi siyosat olib borgan. Shohmurod pul islohoti o'tkazib, sof kumushdan tanga zarb qildirgan. Shohmurod manbalarda «Amiri ma'sum» («Begunoh amir») va «Umari soniy» («Ikkinchi Umar»), «g'oziy» unvonlari bilan tilga olinadi. Shohmurod Marv, Balx va boshqalar hududlarni Buxoroga qaytarish uchun Xurosonga qilgan harbiy yurishlarida uning qo'shinlari golib chiqqan, Marv, Balx, Maymana va Andxuy Buxoroga

²⁶⁶ Сагдуллаев А. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият таракқиёти. Т. "Академия". 2000. 195-б.

²⁶⁷ Муқимов Зиёдулла. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Т.: "Адолат", 2003. 208-б.

qaytarilgan. Shohmurod Usmonli turk sultonligi va Rossiyaga bir necha marta elchilar jo‘natgan. Shohmurod tasavvuf g‘oyalari bilan sug‘orilgan «Ayn fihikmat» («Donishmandlik asoslari») asarini yozgan, hanafiya mazhabiga doir «Fatavayi ahli Buxoro» («Buxoro ahliga fatvolar») to‘plamini tuzgan. Shohmurod davrida Buxoro va Samarqandda ko‘plab madrasalar, masjidlar, xonaqolar va turli binolar qurilgan. Xususan, Zarafshon vodiysidagi dehqonchilikka katta e‘tibor qaratilib, Zarafshon daryosidan turli ariqlar (Qozonariq, Toyman arig‘i, To‘g‘uzariq). Oqdaryo va Qoradaryodan yangi ariqlar chiqarilgan hamda boshqa sug‘orish inshootlari qurilgan. Shohmurodning o‘zi Samarqandni qayta qurish tarkini chizgan. Shohmurod shaharda 24 ta mavze qurib, mamlakatning sharqiy viloyatlaridan bu yerga aholini ko‘chirib keltirgan. G‘uzorda madrasa va masjid qurdirgan. Shuningdek, Shohmurod hukmronligi yillarida Doniyolbiy davrida boshlangan Xalifa Xudoydod majmuasi qurilishi davom ettirilgan. Shohmurod Jo‘ybordagi Eshoni Imlo qabristonida piri Shayx Safar qabri oldida dafn etilgan. (O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. ocherklari, T.. 2001)

Amir Shohmurod 1800 yil 30 noyabrda vafot etgach, Amir Haydar uning vorisi sifatida 1800 yil 2 dekabrda 22 yoshida Qarshi viloyatidan Buxoroga kelib, amirlik taxtiga o‘tirgan va “amir al-mo‘minin” unvonini olgan. U 26 yil davomida Buxoro davlatini boshqargan. Amir Haydar farmonlari ostiga “Abul Fatx Sayid Amir Haydar Boxodur podishox” deb muxr bosgan va imzo chekkan.²⁶⁸

Amir Haydar hukmronligi davrida tobora kuchayib borayotgan Qo‘qon xonligi va Xiva xonligi bilan munosabatlar ancha yomonlashgan. Buxoro amirligi azaldan tobe hisoblangan Toshkent, Turkiston, O‘ratepa, Xo‘jand va boshqa shaharlarga Qo‘qonliklarning tajovuzi avj olgan. 1807-1810 yillarda Amir Haydar Qo‘qon xoni Olimxon bilan Toshkent, O‘ratepa, Jizzah, Zomin va boshqa viloyatlar uchun jang olib borishga majbur bo‘lgan va bu hududlar bir necha marta qo‘ldan-qo‘lga o‘tib turgan.²⁶⁹ Nihoyat u bu viloyatlarning aksariyatini Buxoro ihtiyoriga qaytarib, qo‘ldan chiqarilgan mamlakat hududlarini asl holiga keltirgan. O‘ratepa hokimi Bobobek parvonachi o‘z qizini Buxoro hukmdoriga uzatib, o‘rtada sulh tuzilgan bu paytda dushmanlar qutqusi bilan Amir Haydarga qarshi chiqqan amakilari Umarbiy va Fozilbiy Nasafni egallashgan. Samarqandda ham isyon ko‘tarilgan. Amir Sayid Haydar ular

²⁶⁸ Ражабов Қ. Амир Ҳайдар ёхуд Амири Саййид. Бухоро мавжлари. 2006. №2. 40-42 бб

²⁶⁹ Сагдуллаев А. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият таракқиёти. Т. “Академия”. 2000. 196-б.

ustiga katta qo‘shin bilan kelib, beklar va amakilarini mag‘lubiyatga uchratgan hamda Umarbiy va Fozilbiy kenagaslardan 200 kishini qatl qildirgan. Buxorolik mashhur tarixchi olim va davlat arbobi Mirzo Salimbek o‘zining “Tavorrixi mutaqqaddimin va Muttaaxirin” asarida yozishicha Amir Haydar Markaziy hokimyatni mustahkamlash uchun Samarqandga Davlat qo‘shbegini Jizzaxga, Aflotun to‘qsobani O‘ratepaga, Mullo Ernazarbiyni, keyinchalik Marvga Yorlaqabiyni hokim qilib tayinlagan.²⁷⁰

Amir Haydar Hurosonga ham muvofaqqiyatli xarbiy yurishlar qilib Badahshon, Qunduz va Maymanani Buxoro amirligiga qaytargan. Xususan, Balh mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan strategik shahar edi. U Afg‘on podshosi Shujo Al-Mulk ibn Temurshox Duroniy bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatishga erishgan.²⁷¹ Buxoro amirligining barqaror siyosiy hayoti Mang‘itlar sulolasi hukmronligi davrida, qisman Amir Haydar davrida Ashtarxoniyalar hukmronligi davriga qaraganda iqtisodiyotning o‘shishiga olib keldi. Bu narsani dehqonchilik yerlarining kengayishi, doimiy qo‘shinning tashkil etilishi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning o‘shishi, Rossiya bilan diplomatik munosabatlarning jonlanishida ko‘rish mumkin²⁷².

Biroq Amir Haydar otasining siyosatini to‘laqonli tarzda davom ettira olmadi va uning hukmronligi yillarida (1800-1826) mamlakatda siyosiy keskin vaziyat hukm surdi. Buxoroga bo‘ysunishdan bosh tortgan Shahrisabz, Urg‘ut, Miyonqol bekliliklariga qo‘shin tortishga majbur bo‘ldi. Harbiy yo‘l bilan qo‘lga kirita olmagan viloyatlar boshqaruvini kelishuvchilik yo‘li bilan o‘z beklari qo‘lda qoldirishga majbur bo‘ldi. Hususan, bo‘ysunmagan Shahrisabz mahalliy hokim Doniyor vallomaga mulk sifatida taqdim etildi va Shahrisabz buning natijasida 1858 yilgacha mustaqil ravishda hukm surdi. O‘ratepa bekligi bo‘ysundirilib, amirlik hududlari birmuncha kengaytirildi. Bu davrda qo‘ishi xonliklar bilan munosabatlar ham keskinlashdi. Xiva xonligi tomonidan uyushtirilgan bir qancha bosqinchilik yurishlari

²⁷⁰ Амир Ҳайдар ёхуд Амири Саййид. 42-б.

²⁷¹ O‘sha joyda

²⁷² Исмоилова Б. Кўрс. асар, 38-бет. Қаранг: Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида, 196-230 б.

asosan ommasi ko‘magida qaytarildi. Qo‘qon xonligi bilan munosabatlar esa ancha jiddiy va keskin tus oldi.

1826 yilda Amir Haydar vafot etgach uning katta o‘g‘li Amir Husayn hukmronligi davri boshlandi. Lekin uning hukmronligi juda qisqa davom etdi. Ahmad Donish o‘z asarida bu davrni 2 oy 14 kun davom etgan, deb ko‘rsatsa,²⁷³ Mirza Abdulazim Somiy esa, 2 oyu 20 kun deya baholaydi.²⁷⁴

Amir Husayn vafot etgach, taxtni Amir Haydarning ikkinchi o‘g‘li Umar egallaydi. Ungacha Umar Karmana hokimi vazifasida ishlab uning hukmronlik davri to‘rt oydan kamroq davom etdi. Tarixchi Q.Rajabov esa o‘z asarlarida buni quyidagicha ko‘rsatadi: - Nasrullohxon otasi Amir Haydar hamda birodarlari Husayn va Umarxonlar hukmronligi davrida Qarshida hokimlik qilgan. Amir Haydar vafoti (1826 yil 6 oktabr)dan so‘ng hokimiyat uchun kechgan keskin kurashlarda birodarlari Amir Husayn (1797-1826) va Amir Umarxon (1810-1829) hamda boshqa ukalari ustidan g‘olib kelib, 1827 yil aprel oyining boshlarida 21 yoshida Buxoro amirligi taxtiga o‘tiradi.²⁷⁵ Amir Nasrulloh hokimiyatni qo‘lga olgandan keyin Shahrisabz, Kitob hokimliklari o‘zlarini mustaqil deb e‘lon qilgan edilar. Boshqa bir qancha bekliliklar ham amirga rasmangina bo‘ysunishgan. Amir Nasrulloh ularni yagona davlatga birlashtirish, markaziy hokimiyatni kuchaytirish yo‘lida qat‘iyat bilan kurash olib bordi. Bunda u o‘zining amaldor xizmatkorlar tabaqasiga va harbiy qo‘shiniga tayanib ish ko‘rdi. 1840 yilda Amir Nasrulloh Xo‘jand va O‘ratepani Qo‘qon xonidan tartib olib Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ bekliliklarini ham o‘ziga bo‘ysundirdi va 1842 yilda Qo‘qon xonligini egallashga muvaffaq bo‘ldi.²⁷⁶

**Amir Nasrulloh
(1826-1860)**

Amir Nasrulloh o‘z hukmronligi davrida islom shariati ko‘rsatmalariga qat‘iy amal qilgan. U jasur va dovyurak kishi bo‘lganligi bois unga "Bahodurxon" va

²⁷³ Дониш Аҳмад. История мангитской династии. с. 37.

²⁷⁴ Мирза Абдулазам Сами. Тарих – и салатин – и мангитийа. с. 54.

²⁷⁵ Ражабов Қ. Амир Насруллоҳ баҳодурхон ёхуд "хони шахид". Бухоро мавжлари. 2006. №4. 39-43 бб.

²⁷⁶ Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши. Тарих фан. докт. дисс. Тошкент: 1998. 45-120 бет

"Boturxon" unvonlari berilgan. Amir Nasrulloh Buxoro taxtiga o'tirgan yili dunyoga kelgan mashhur tarixchi va davlat arbobi Ahmad Donishning keyinchalik yozishicha, Amir Nasrulloh vazmin va qo'rqmas, qattiqqo'l va zukko hukmdor edi. U o'z hukmronligi davrida el va ulusda fitna chiqarishda nom qozongan, markaziy hokimiyatga qarshi urug'-qabilalarning turli isyonlarida qatnashgan yoki ilgarigi amirlarga nisbatan ko'rnamaklik qilganlarning barchasini jazoladi va yo'q qildi. O'z tarafdorlariga esa ko'p yaxshiliklar qildi va mehribonlik ko'rsatdi. Uning mulklari kengaygan. Qo'qondan Kesh (Shahrisabz)gacha bo'lgan butun mamlakatlar unga bo'ysungan. (Rajabov Q. Amir Nasrulloh bahodurxon yoxud "xoni shahid". Buxoro mavjlari. 2006. №4. 39-43 bb)

Amir Nasrulloh o'zining 33,5 yillik hukmronligi davrida (u mang'it amirlari o'rtasida eng ko'p saltanat so'ragan hukmdor hisoblanadi) davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida urug' va ham boshliqlari bo'lgan ko'plab amaldorlarni quyi tabaqalardan chiqqan yosh va g'ayratli kishilar bilan almashtiradi. O'z manfaatini davlat va xalq manfaatidan ustun qo'ygan saroy amaldorlari va akobirlarni egallab turgan lavozimlaridan chetlashtiradi, ularga nisbatan qat'iy jazo choralarini ko'radi.

Amir Nasrulloh ma'muriy va siyosiy sohalarda islohotlar o'tkazishdan tashqari, harbiy islohotlarga ham katta e'tibor qaratadi. 1837 yili o'tkazilgan harbiy islohotlar natijasida Buxoro mamlakati qo'shinining jangovar holati yaxshilanadi. Har biri 1000 kishidan ibopat 50 ta sarbozlar bo'luklari (ja'mi: 40000 sarboz) va 250 kishilik to'pchilar guruhi tashkil qilinadi. Xorijdan harbiy mutaxassislar jalb qilinib, ulardan zamonaviy qurol-yarog'lar tayyorlash va foydalanish sirlari o'rganiladi. Amir Nasrullohning o'ziga xos maxsus gvardiya otryadi bo'lib, unga Abdusamad Tabriziy boshchilik qilgan. Amir sarbozlariga Eron, turk zobitlaridan tashqari ayrim rus ofitserlari ham ta'lim bergan. Ba'zi tarixchilarning fikricha, harbiy sohada islohotlar o'tkazishdan oldin, ya'ni 1830-1832 yillarda Buxoroda 20000 kishilik otliq qo'shin, 400 kishilik piyoda qo'shin bo'lib, ularning ixtiyorida 41 ta artilleriya to'pi bo'lgan. Biroq, bundan tashqari, bu paytda amirlikning turli hududlarida 50000 kishilik otliq qo'shin (ulardan 10000 kishi Balxda va Amudaryodan janubdagi hududlarda) ham mavjud edi. Manbalarda keltirishicha, bu qo'shin eljari qo'shin turi bo'lib, mamlakat ichidagi ichki xavfsizlikni ta'minlagan²⁷⁷.

²⁷⁷ Амир Насруллоҳ баҳодурхон ёхуд "хони шаҳид". 43-б.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, XIX asrning 60-yillari va XX asrning dastlabki o'n yilliklarida Amir Nasrullohdan so'ng Buxoro amirligini boshqargan mang'it xonadoni vakillaridan Amir Muzaffar, Amir Abdulahadxon va Amir Olimxonlarning davlat boshqaruvidagi asosiy faoliyati va Buxoro davlati siyosiy hayotining asosiy jarayonlari Rossiya imperiyasining mustamlakachilik harbiy yurishlariga qarshi kurashlar va unga tobelik davridagi jarayonlar bilan xususiyatlansa, Amir Olimxon hukmronligining so'nggi yillari bolsheviklar hokimiyati va Qizil armiya qo'shinlariga qarshi kurash jarayonlari bilan bog'liq holda kechdi va Buxoro amirligining davlat sifatidagi mavjudligi 1920 yilgacha davom etdi.

Buxoro amirligida davlat boshqaruvi. XIX asrga kelib, Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kvadrat kilometrni tashkil etdi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning so'l qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib, qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog'laridan, g'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'lgan hududni egallab turardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnihon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, shuningdek, Turkmaniston hududiga kirgan Murg'ob daryosi vohalaridagi yerlar ham Buxoro amirligiga qarar edi.

Buxoro amirligining poytaxti Buxoro shahri edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko'lob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjuy shaharlari uchun Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'ratepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida tez-tez urushlar bo'lar, bu shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turardi²⁷⁸.

Xonliklardagi ayrim hududlar markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik, mustaqil siyosat olib borishga intilar edi. Ular qatoriga Hisor, Shahrisabz, O'ratepa, Xo'jand, Panjikent, Qorategin, Darvoz, Rushon, Shug'non va

²⁷⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакачилиги даврида. Т., 2000, 44 бет ;

boshqa hududlar kiradi²⁷⁹.

XVII asr Buxoro xonligida iqtisodiy va siyosiy tushkunlik kuchaygan davrda Fargʻona vohasi xonlikdan alohida oʻlka sifatida ajralib chiqdi va XVIII asrning boshlarida Qoʻqon xonligiga asos solindi. XIX asrning birinchi choragiga kelib Qoʻqon xonligiga Toshkent, Turkiston, Oʻrtatepa, Xoʻjand koʻshib olindi.

Buxoro amirligi 27 beklikka boʻlib idora qilingan, bular - Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabogʻ, Gʻuzor, Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjoʻy, Hisor, Koʻlob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, SHOʻgʻnon-Roʻshon, Qoʻrgʻontepa, Qabodiyon Kalif, Boʻrdalik, Qobogʻli va Xorazm bekliklaridan iborat edi. Har bir beklikni amir tomonidan tayinlab qoʻyiladigan hokimlar - beklar idora qilgan.

Ayrim adabiyotlarda Buxoro amirligi tarkibida boʻlgan bekliklarning soni turlicha koʻrsatilishi holatlari ham uchraydi. Masalan, XX asr boshlariga kelganda Buxoro amirligi maʼmuriy jihatdan 28 ta beklikka boʻlingan edi. Bular: Chorjoʻy, Karmana, Ziyovuddin, Nurota, Xatirchi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabogʻ, Gʻuzor, Boysun, Qorategin, Denov, Hisor, Darvoz, Baljuvon, Shugʻnon, Rushon, Koʻlob, Qoʻrgʻontepa, Qabodiyon, Sherobod, Kalif, Karki, Budalik, Qaboqli, Qarshi va Narozim. Ammo Buxoro amirligi bekliklarining maʼmuriy-hududiy tuzilishi beqaror boʻlganligi-dan koʻpgina amlakdorliklar aholisining soniga qarab tashkil etilgan yoki boʻlmasa, tugatilib, boshqa amlakdorliklarga qoʻshib yuborilgan. Soliq toʻlash imkoniyati past boʻlgan amlakdorliklar tez orada tugatib yuborilgan²⁸⁰.

XVIII asr oxirida Buxoro amirligi hududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridagi mulklar kirgan boʻlsa. XIX asr boshlariga kelib, amirlik tarkibiga bu xududlardan tashkari Surxon vohasi, Hisor, Xoʻjand, Oʻratepa, Panjikent hamda Zarafshon daryosining yuqori oqimi va janubiy Turkmanistonning katta qismi xam kirgan. XIX asr oʻrtalarida Buxoro amirligi tasarrufida 44 ta beklik boʻlganligi ayrim mualliflar tomonidan koʻrsatib oʻtiladi²⁸¹.

²⁷⁹ Исмоилова Б. Бухарский эмират при эмире Хайдаре. Хужанд. 2000. с. 9.

²⁸⁰ Турсунов С, Турсунов А, Тоғаева М. Шеробод тарихидан лавҳалар -Т.: “Yangi nashr”. 2014. 106-б.

²⁸¹ Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чоррахасида. - Т.: Ўқитувчи, 2005. - Б. 27; Қаранг: Очилдиев Ф.

Boshqa bir adabiyotda Mang'itlar sulolasi davrida amirlik 30 ta bekklik va tumanlardan iborat ma'muriy birliklardan tashkil topganligi ko'rsatib o'tilib, har bir bekklik hokimi xirojning bir qismini amirga yuborib turganligi qayd etilgan²⁸².

Buxoro amirligi haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlarni ko'rsatib beruvchi asar muallifi D.N.Logofet esa Buxoro amirligi xududiy jihatdan 25 ta bekklikka bo'linganligini va bekkliklar o'zlarining markazlari hisoblangan shaharlar nomi bilan yuritilganligini ko'rsatib o'tadi²⁸³.

Buxoro amirligining davlat va xuquq tizimi borasida so'z yuritgan Z.Muqimov esa ma'muriy-doiraviy tuzilishi bo'yicha bu davrda Buxoro amirligi 29 viloyat (bekklik)dan iborat bo'lganligi, qo'shbegining tavsiyasiga ko'ra, ularni amir tomonidan tayinlanadigan hokimlar (beklar) boshqarganligini ko'rsatib o'tadi²⁸⁴.

Mang'itlar davrida davlat boshqaruvi asosan ikki bo'g'inli, ya'ni markaziy va mahalliy boshqaruvdan iborat bo'lib, ularning har biri musulmon davlatlarga xos bo'lgan murakkab boshqaruv tarmoqlariga ega edi. Markaziy ijroiya xokimiyat saroy ayonlaridan tashkil topgan edi. Mang'itlar sulolasi boshqaruvi davrida qo'shbegi mansabini egallagan lavozim egasining mavqei nixoyatda oshib ketdi. Bu mansab egasi amalda bosh vazir vazifasini xam bajarar edi. Davlat boshqaruvida devonbegi, parvonachi, otaliq, dodxox, xudaychi, mirzoboshi va boshqa saroy ayonlari bilan bir qatorda Shayxulislom, qozikalon va muftiy kabi diniy raxbarlarning xam mavqei nixoyatda baland edi. Maxalliy boshqaruv viloyat beklari qo'lida edi. Ularning xam odatdadagidek o'z boshqaruv tizimi mavjud bo'lib, mirshabboshi, soliq yig'uvchi amaldorlar (tanobchi, zakotchi), rais kabi diniy mansabdorlar, qishloq oqsoqollari yordamida bekkliklar tomonidan idora qilinar edi. Viloyat beklari amir tomonidan tayinlangan va ko'p xollarda bu lavozimga mang'it urug'idan bo'lgan kishilar tayinlangan edi. Mang'itlar sulolasi davrida o'tkazilgan ma'muriy

Сурхон вохаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иктисодий ўзгаришлар (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошлари). Т.: «ABU MATBUOT-KONSALT», 2008. – Б.52.

²⁸² O'zbekiston tarixi. R.Murtazfyeva tahr. ost. Toshkent, 2005. 253-b.

²⁸³ Логофет Д.Н. Страна бесправие. Бухарское ханство и его современное состояние. С.-Петербургъ. 1909. Стр.31

²⁸⁴ Муқимов Зиёдулла. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Т.: “Адолат”, 2003. 262-б.

isloxotlar tufayli davlatning asosiy ma'muriy birligi bekliklar bo'lib qoldi. Amirlik xududi amir Nasrullox davrida eng kengaygan xududlarni tashkil etib, bu davrda amirlik xududlari 30 ta beklikka bo'lingan edi.²⁸⁵

Amirlikdagi bekliklar o'z hududi, nufuzi va boshqa ko'pgina jihatlari bilan bir-biridan farqlanar edi. Bekliklarda ham o'ziga xos ma'muriy boshqaruv apparati tashkil etilgan bo'lib, ularga diniy-huquqiy masalalarni boshqaruvchi qozi, rais, muftiy kabi amaldorlar, soliq yig'uvchi (zakotchi), qo'shinni boshqaruvchi yasovulboshi, mirshab kabi amaldorlar va boshqalar mavjud bo'lgan.²⁸⁶

Viloyatlar qozilari to'g'ridan-to'g'ri Buxorodan tayinlangan va o'z faoliyatida bekdan mustaqil bo'lgan. U odatda bekning harakatlari haqida maxfiy ravishda Buxoroga xabar berib turgan. Diniy amaldorlar mamlakatdagi sud hokimiyatini, shuningdek, ta'lim va tarbiya maskanlaribo'lgan madrasalar, boshlang'ich maktablarni, kundaliy hayotda katta o'rin tutgan masjidlar va boshqa shu turdagi ijtimoiy muassasalarni o'z nazoratlari ostiga olgan edilar.²⁸⁷

Buxoro shahar hokimi – amirning birinchi vaziri va boshqa viloyat boshliqlari boshqaruvchisi hisoblangan. Shahar mirshablari boshlig'i esa o'z navbatida barcha bekliklaridagi mirshablar ishini boshqargan. Poytaxt oliy qozisi, ya'ni qozikalon – amirlikning barcha qozilari boshlig'i hisoblangan. Mana shu asosda amirlikda juda katta markazlashuv vujudga kelgan. Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'sha davrda Qo'shbegi, Qozikalon, Bosh rais va Buxoro shahar mirshabboshisini birgalikda “chor hokim” – ya'ni “to'rt hokim” deb yuritishgan.²⁸⁸

Buxoro shahrida hufton namozidan so'ng shaharning barcha o'n bir darvozasi qulflangan. Har bir darvozaga ikki qo'riqchi - darvozabon qo'yilgan.²⁸⁹

Davlatni boshqarishda amirning asosiy va birinchi yordamchisi hamda vazirlarning ham eng ulug'i qo'shbegi hisoblangan. U davlatning tajribali, ishbilarmon, siyosatdon odamlaridan tasdiqlangan. Nomzod avval

²⁸⁵ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият таракқиёти... 199-бет

²⁸⁶ Бухоро амирлигида давлатчилик масалалари. 54-б.

²⁸⁷ О'sha joyda

²⁸⁸ Бухоро амирлигида давлатчилик масалалари. 58-б

²⁸⁹ О'sha joyda

devonbegi mansabiga musharraf bo‘lmog‘i lozim, so‘ngra qo‘shbegilikka loyiq sanalgan. U saroydagi eng yuqori unvon bo‘lib davlatda amirdan so‘ng turgan. “Qo‘shbegi amirning eng yaqin yordamchisi, - deb yozgan olim P.Shubinskiy. Qo‘shbegi mansabini vitse-kansler mansabiga tenglashtirish mumkin, bundan tashqari u shuningdek ark begi, Buxoro shahri hokimi davlat xazinasi va muhrining saqlovchisi mansablarini ham o‘z ichiga oladi”.²⁹⁰

U amirning shaxsiy muhrini saqlovchi, boshqa davlatlar bilan aloqalarni nazorat qiluvchi va shuningdek moliya ishlarini boshqaruvchidir.²⁹¹ Buxoro bosh qo‘shbegisi – Qo‘shbegiyi bolo (yuqori qo‘shbegi) deb atalgan. Undan farq qilgan holda qo‘shbegiyi poyon (quyi qo‘shbegi) deb atalgan amaldor bo‘lib, u davlatning bosh zakotchisi hisoblangan.²⁹²

Amirlik boshqaruvidagi unvon va mansablar harbiy unvon va mansablar bilan ma‘muriy boshqaruv mansablarining ko‘pgina xollarda qo‘shilib ketganligini ko‘rish mumkin²⁹³. Buxoro amirligi davlat boshqaruvida harbiy-ma‘muriy amaldorlar katta o‘rin tutgan. Buxoro amirligida oliy bosh qo‘mondan amir bo‘lib, u qo‘shinni turli darajadagi harbiy amaldorlar yordamida boshqargan. Buxoro amirligidagi harbiy unvon va mansab egalari nomlanishida, xizmat vazifalarida va boshqa ko‘plab jihatlari o‘sha davrda mavjud bo‘lgan boshqa xonliklarnikidan farq qilgan²⁹⁴.

Diniy ishlar boshqarmasida qozi kalon mirzaboshi, qozi, mullo azimlar (qidiruv ishlari vakillari), devonbegi, miroxurboshi, mahramlar hamda quyi tabaqa (vakillaridan) amaldorlaridan (alamon va xizmatchi) tashkil etilgan edi. Shu bilan birga amaldorlikdagi beklik huzurida, amloklar boshqaruvi huzurida ham ko‘plab mansabdor shaxslar davlat idora ishlari bilan shug‘ullanishgan.²⁹⁵

Movarounnaxr va umuman Markaziy Osiyoning asosiy va muxim islom madaniyati markazi xisoblangan Buxoro amirligida din ishlariga va

²⁹⁰ Солихова Р.. “Марказий давлат бошқаруви тарихига бир назар”, Т., Мулоқот-2004 й. 41 бет.

²⁹¹ Бухоро амирлигида давлатчилик масалалари. 51-б.

²⁹² Бухоро амирлигида давлатчилик масалалари. 57-б

²⁹³ Бухоро амирлигида қўшин ва ҳарбий иш (1753 – 1920 йиллар). 98-99-бб.

²⁹⁴ Бухоро амирлигида қўшин ва ҳарбий иш (1753 – 1920 йиллар). 108-б.

²⁹⁵ О‘sha joyda.

diniy xokimiyat egalarining mavqeiga va davlat ishlariga ta'siriga xam keng yo'l ochib berilgan bo'lib, ular ayni vaqtda yirik yer egalari xam sanalgan. Bu borada Buxoro davlatining shayboniylar, ashtarxoniylar va mang'itlar xukmronligi davridan bir necha misollar va dalillar keltirish mumkin. XVIII asrdan XX asrning boshlarigacha xam Buxoro amirligida diniy xokimiyat egalarining mavqei ancha baland bo'lib, ularning davlat boshqaruvidagi ishtiroki Xiva xonligi va Qo'qon xonligidagi boshqaruv bilan deyarli bir xil edi. Buxoro amirligida diniy mansab va unvonlar tarkibi shayxulislom, qozikalon, naqib, qoziaskar, a'lam, mufti, rais, mudarris, bosh imom, imomlar, muazzin hamda faqatgina hojalarga nisbat beriluvchi naqib, fayzi, mir ast, uroqi kalon, sudur, sadr, uroqi hurr kabilardan iborat bo'lgan.²⁹⁶

Yuqoridagilarga xulosa sifatida aytish kerakki, amirlikda barcha mansablar va unvonlar ma'muriy va harbiy, diniy hamda harbiy-ma'muriy unvon va mansablardan iborat bo'lib, mansablar pog'onasidagi darajalari aniq belgilangan va shunga loyiq davlat ishlarini amalga oshirganlar.

Buxoro amirligi aholisi va etnik tarkibi. XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 million atrofida aholi istiqomat qilardi. Aholining katta qismi amirlikning sersuv vohalarida yashar, jazirama issiq, suvsizlik hukmronlik qiluvchi Qizilqum sahrolari va cho'llari deyarli kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300 – 350 ming, Qashqadaryo vohasida – 500 ming, Surxandaryo vohasida 200 ming, Sharqiy Buxoroda 500 ming aholi yashar edi. Amirlikning yirik shaharlari – Buxoroda – 60 ming, Samarqandda – 50 mingga yaqin aholi istiqomat qilardi. Aholi etnik jihatdan ko'pgina qavm va urug'lardan iborat bo'lib, ularning qariyb 57 foizi o'zbeklar edi. O'zbeklar bir qancha elatlardan tashkil topgan bo'lib, ular orasida mang'it, saroy, qo'ng'irot, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz qabilalari ko'pchilikni tashkil etardi²⁹⁷.

XIX asr boshlarida mazkur qabilalarning amirlik bo'ylab joylashuvi quyidagicha ko'rinish olgan: Mang'itlar – Qashqadaryo vodiysida,

²⁹⁶ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 213-бет.

²⁹⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб, 44 бет.; Яна қаранг: Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида, 172 бет.

kenegaslar – Shahrisabzda, naymanlar – Zarafshon daryosining chap qirg‘og‘idan Samarqandning janubi – g‘arbigacha bo‘lgan hududlarda, Xitoy-qipchoqlar – Samarqand va Kattaqo‘rg‘on o‘rtasida, yuzlar – Jizzax va O‘ratepada, ularning qolgan qismlari Hisorda, Amudaryoning janubidan to Shimoliy Afg‘oniston hududlarida qatag‘on va laqay urug‘lari istiqomat qilishgan²⁹⁸.

Buxoro amirligi aholisi XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tez ko‘paya boshlaydi. XIX asrning boshlariga kelib amirlik aholisi taxminan 2 mln.dan oshiq, 50-yillariga kelib taxminan 2,5 mlndan ortiq kishini tashkil etgan. Buxoro shahrida taxminan 60 mingdan ziyodroq, Samarqand shahrida esa taxminan 50 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan.

Amirlik aholisning katta qismini o‘zbeklar tashkil qilgan bo‘lib, juda ko‘plab o‘zbek urug‘lari vakillari amirlikning deyarli barcha hududlarida yashaganlar. Aholi tarkibidagi tojiklar Samarqand, Buxoro, Nurota, Urgut, Kitob kabi shaharlarda, tog‘li tumanlarda, jumladan, Panjikent, Vaxsh, Hisor, Qorategin, Ko‘lob, Shahrisabz, Qobadiyon, Yakkabog‘ bekliliklarida, Zarafshon-ning yukori kismida istiqomat qilganlar¹.

Turkmanlar ham Buxoro amirligi aholisining son jihatdan katta kismini tashkil etganlar. Ular amirlikka qarashli bo‘lgan Amudaryoning ikki qirg‘og‘ida joylashgan yerlarda, ya‘ni, amirlikning janubiy va g‘arbiy xududlarida istiqomat qilishgan. Buxoro amirligi hududida aholining kichik qismini arablar tashkil etgan bo‘lib, ular asosan Qarshi va Sherobod bekliliklarida yashaganlar. Shuningdek amirlik qududida hindlar, eroniylar, yaqudiylar, lo‘lilar, afg‘onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va qalmiqlar ham istiqomat qilganlar. Buxoro amirligida istiqomat qilgan nomaxalliy xalqlar, jumladan hindlar va yaxudiylar ijtimoiy qatlam sifatida to‘la huquqga ega emas edilar va ular aloqida mavzelarda yashaganlar. Amirlikda o‘troq aholidan tashqari tog‘ oldi va dasht hududlarda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi ham yashagan.

Buxoro amirligida iqtisodiy hayot, soliqlar. Amirlikda turli yer

²⁹⁸ Исмоилова Б. Кўрсатилган асари. 10 бет.; Маманазаров Н. Мустақиллик ва миллий-этник жарёнлар. Т.: Тошкент Молия Институти, 2004. 37-40 бетлар.

¹ R. Shamsutdinov, X. Mo‘minov. O‘zbekiston tarixi. Ma‘sul muharir S. Inoyatov. – T.: “Sharq”, 2013, - B. 323.

egaligi shakllari mavjud bo‘lib, ulardan biri mulk (xususiy) yerlar bo‘lib, bu yer egaligi shakli qo‘zg‘almas mulk hisoblangan hamda hech qanday cheklanishlarsiz meros qilib qoldirish mumkin bo‘lgan. Mulk yerlaridan olinadigan soliqlar haqida tadqiqotchilarning turli fikrlari mavjud. Mulki xurr yoki mulki xolis ayrim yirik yer egalari tegishli bo‘lgan yer egaligi shakli hisoblangan. Mulki xurr egasi doimo amaldagi hukmdor tomonidan berilgan yorliqqa ega bo‘lishi shart bo‘lgan va aynan shu yorliq tufayli u yer solig‘idan ozod qilingan²⁹⁹.

Amirlikda dehqon ahli foydalanayotgan yerlarga nisbatan mulki xiroj atamasi ishlatilgan. Bunday yerlarga ega bo‘lgan yer egalari o‘z yerlarini erkin sotish, meros qoldirish va hadya qilish huquqiga ega bo‘lganlar. Bunday yerlardan rasman hosilning uchdan biri miqdorida soliq belgilangan bo‘lsada, amirlikning har biri hududida o‘rnatilgan va belgilangan tartib hamda urf-odatlariga ko‘ra, soliq miqdori hosilning uchdan biridan to beshdan birigacha bo‘lgan.

A’anaga ko‘ra, vaqf yerlari asosan diniy muassasalar - machitlar, mozorlar, xonaqo, madrasalarga yer maydonlarini meros qoldirish hamda xayr-ehson qilish natijasida vujudga kelgan bo‘lib, u yer egaligining alohida shaklini tashkil etgan. Ushbu yerlardan tushgan foyda mutavalli ixtiyoriga kelib tushgan. Mutavalli asosan vaqf egalari avlodlaridan tayinlangan bo‘lib, u vaqf hujjatlariga asoslanib foydani taqsimlab chiqqan. Amirlikda vaqf yerlarini sotish, bunday yerlardan soliq olish taqiqlangan bo‘lsada, manbalar va hujjatlar bunga amal qilinmaganligini ko‘rsatadi.

Amir Nasrullo davridan boshlab yer egaligining tanho shakli tarqaladi. Nasrullo o‘ziga bo‘ysunmagan amaldorlar va urug‘ oqsoqollarining yerlarini musodara qilib, bunday yerlarni vaqtincha egalik qilish huquqi bilan o‘z tarafdorlariga hadya(tanho) qilgan. Amir Muzaffar davridan boshlab tanho tog‘li hududlarga ham yoyiladi. Tanho turli hajmda(bir necha tanobdan bir necha yuz tanbogacha) berilgan bo‘lib, tanhoning berilish miqdori eng avvalo, yerning sug‘orilishi, yerning unumdorligi, qolaversa, amaldorning egallagan mavqei va ta’siriga ham

²⁹⁹ Эшов Б Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқаруви тарихи. Т.: “Янги аср авлоди”. 2012. 299-б

bog‘liq bo‘lgan³⁰⁰.

Dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq mamlakat iqtisodining asosiy tarmoqlari edi. Avvalgidek davlatga amir va uning yaqinlariga qarashli davlat yerlari, hususiy mulkdorlarga tegishli yer-mulklar (mulki holis), diniy mahkamalar, madrasa va masjidlar, qabristonlar harajatlari uchun berilgan vaqf yerlari mavjud edi. Dehqonchilikda barcha sohalar an’anaviy ravishda o‘z taraqqiyotida davom etdi. Bu davrda ayniqsa uzumchilik, sholikorlik, paxta va tamaki yetishtirish ancha taraqqiy etdi. Chorvachilik amirlik hududidagi bepayon dasht va cho‘llar tog‘ va tog‘ oldi hududlarida mavjud edi. Cho‘l hududlarida xususan, Buxoro va Qarshi atroflaridagi dashtlarda qorakul teri yetishtirish kengayib bordi. Tashqi bozordagi qorakul teriga talabning kuchliligi qorakul qo‘ylar yetishtirishni kengaytirishga olib kelgan edi. Shuningdek, chorvachilikda yilqichilik, bunda ham asosan Buxoro qorabayir otlarini yetishtirish taraqqiy etgan edi. Bundan tashqari yirik qoramollar yetishtirish va chorvachilik mahsulotlari tayyorlash ham ancha taraqqiy etdi.

Buxoro amirligidagi asosiy xunarmandchilik markazlari sifatida shaxarlar kata o‘rin tutsada, ayrim yirik qishloqlarda xunarmandchilikning ba’zi turlari rivoj topdi. Buxoro amirligida oldingi davrlaridagidek to‘qimachilik xunarmandchilikning yetakchi tarmog‘i bo‘lib qoldi. Uning taraqqiyoti, bir tomondan ichki va tashqi bozorda bu turdagi maxsulotlarga talab kattaligi tufayli, ikkinchi tomondan maxalliy xom ashyo manbalari (paxta, jun, ipak) yetarli ekanligiga bog‘liq edi. To‘qimachilikning ip yigirish, matolar (bo‘z, alacha, chit) to‘qish, tayyor kiyimlar tikish, gilamchilik va boshqa soxalari ancha rivojlangan edi. Kulolchilik amirlikning ko‘pgina joylarida rivojlangan edi. Uning asosiy markazlari G‘ijduvon, Qarshi, Shaxrisabz, Kattaqo‘rg‘on va boshqa shaxarlar bo‘lib, bu davr kulolchiligida O‘rta Osiyoning ko‘pgina kulolchilik maktablariga xos bo‘lgan motivlar (turli gul va o‘simliklar tasviri, geometrik naqshlar), turli xayvonlar, qushlar, xasharotlarni yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kosagar ustalar

³⁰⁰ Эшов Б Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқаруви тарихи. Т.: “Янги аср авлоди”. 2012. 299-б

tomonidan keng qoʻllanilgan. Amirlikda metallga ishlov berish va metall buyumlar yasash xam yetarlicha rivojlangan edi. Xonlikning togʻlik tumanlari (Shaxrisabz, Boysun, Sherobod)da qadim davrlardan boshlab turli maʼdanlar qazib olingan boʻlib, bu konlardan foydalanish baʼzi tanaffuslar bilan to XX asr boshlarigacha davom etdi. Metallga ishlov berish va metall buyumlar yasashni oʻz navbatida yanada mayda tarmoqlarga boʻlinib ketadigan temirchilik, misgarlik, choʻyan quyish (degrezlik), rixtagarlik turlari xam mavjud boʻlib, bu soxalarda mexnat qurollari bilan bir qatorda kundalik va maishiy turmushda boshqa soxalarda zarur boʻladigan koʻplab buyumlar ishlab chiqarilar edi³⁰¹.

Xunarmandchilik turlari ichida zargarlik xam qadimiy xunarmandchilik soxalaridan biri sanalgan. Zargar ustalar qimmatbaxo toshlar va metallardan, rangli shishalardan turli taqinchoqlar yasaganlar. Buxoro zargarlarining maxsulotlari oʻz chiroy va nafisligi bilan ancha mashxur boʻlgan.

Xunarmandchilik turlari ichida koʻnchilik (teriga ishlov berish, charmgar), yogʻochga ishlov berish-duradgorlik, turli oziq-ovqat maxsulotlari tayyorlaydigan (novvoylar, oshpazlar, baqqollar va boshqalar) xunarmandchilik turlari xam mavjud boʻlganligini aytib oʻtish lozim.

Amirlikdagi xunarmandchilik faqatgina shaxarlardagina emas, balki yirik-yirik qishloqlarda xam rivojlangan boʻlib, xunarmand ustalarning asosiy maxsulotlari ichki bozor extiyojini toʻliq taʼminlab qolmasdan, tashqi bozorga xam chiqarilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi hududlari-ning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi davlat iqtisodiy hayoti va moliya xoʻjaligida katta yoʻqotishlarga olib keldi. Xazinaga kelib tushadigan soliqlar va turli yigʻimlarning miqdori davlat hududlarining qisqarishi evaziga yildan-yilga kamayib bordi. Ayni vaqtda amirlikning qolgan hududlarida Rossiya imperiyasi sanoatchilari tomonidan bir qator zavod va fabrikalarning qurilishi, temir yoʻlning kirib kelishi, rus banklari filiallarining ochilishi esa bu yerda sanoat ishlab chiqarishning yuzaga

³⁰¹ Сагдуллаев А. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият таракқиёти. Т. “Академия”. 2000. 205-б.

kelishi, ayni vaqtda qishloq xo‘jaligi, xususan chorvachilik, qorako‘lchilik, ipakchilik, paxtachilik maxsulotlariga talabning ortib borishi esa bu sohalarning ma’lum darajada kengayib borishigi sharoit yaratdi.

Buxoro amirligida yerga egalik munosabatlari iqtisodiy hayotda katta ahamiyatga ega bo‘lib, yer egaligining davlat, xususiy, vaqf kabi turlari bo‘lgan. Qishloq aholisining katta qismi yersiz dehqonlar bo‘lib, ular ijaraga yer olib ishlaganlar. Shahar aholisining asosini tashkil qilgan hunarmandlar hayoti ham og‘ir soliqlar sababli juda qiyin kechgan. Buxoro amirligining xalq xo‘jaligida dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq sohalari katta ahamiyat kasb etgan. Aholidan xiroj, zakot, boj, to‘la, yaksara, nimsara kabi soliqlar undirib olingan³⁰².

Buxoro amirligida savdo munosabatlari va pul muomalasi.

Buxoro amirligi hukumdorlari va aholisi savdo-sotiq ishlariga katta e’tibor qaratishgan. Amirlikda hunarmandchilik va undagi ishlab chiqarishning tarqqiy etishi doimiy savdo-sotiq munosabatlarining yanada kengayishiga asos bo‘lgan edi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining ko‘pgina shaharlarida karvonsaroylar qurilishiga katta e’tibor qaratilib, bu holat savdo munosabatlari rivojini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan edi³⁰³.

Ichki savdoning taraqqiy etishida amirlikda mavjud bo‘lgan pul muomalasining o‘rni katta edi. Xususan, mang‘itlar hukmronligi davrida bu sohada birmuncha barqarorlik o‘rnatilgan bo‘lib, muomalada asosan uch turdagi – tillo, tanga (kumush) va pul (mis) mavjud edi. Shahar hamda qishloqlardagi savdo-sotiq va to‘lovlarda asosan tanga va pul ishlatilgan. Buxoro amirligida qo‘shni davlatlar va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga katta e’tibor berilgan. Tashqi savdo aloqalarida Xiva va Qo‘qon xonlari, qozoq va turkman dashtlari, Afg‘oniston, Eron, Hindiston, Qashg‘ar va ayniqsa Rossiya bilan bo‘lgan savdo munosabatlari ayniqsa muhim o‘rin tutgan edi. Ko‘chmanchi qozoqlar amirlik bozorlariga namatlar, jun, teri, go‘sh va sut mahsulotlari keltirgan bo‘lsalar, dehqonlar

³⁰² O‘zbekiston tarixi. R.Murtazfyeva tahr. ost. Toshkent, 2005. 253-b.

³⁰³ Эшов Б Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқаруви тарихи. Т.: “Янги аср авлоди”. 2012. 302-б

va hunarmandlar qozoq dashtlarini oziq-ovqat mahsulotlari, sabzavotlar, kundalik ehtiyoj mollari, kiyim-kechaklar, paxta matoolari bilan ta'minlaganlar. Amirlikda turkman gilamlari va otlariga talab katta bo'lgan. Turkmanlar amirlik bozorlaridan boshqa mahsulotlar bilan birga ko'proq har xil matolar xarid qilganlar. XVIII asr oxiri-XIX asr boshlaridan boshlab Buxoro amirligining tashqi savdo aloqalarida Rossiyaning savdo shaharlari (asosan Orenburg va Astraxon) muhim o'rin tuta boshladi. Rossiyaga qishloq xo'jalik mahsulotlari – teri, qorako'l teri, jun, paxta, ipak tolalar, turli matolar olib chiqilgan. Rossiyadan esa turli fabrika mahsulotlari, cho'yan, mis, qo'rg'oshin keltilgan³⁰⁴.

Mang'itlar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki yillardayoq Buxoro amirligida pul islohotlarini o'tkazib borilgan va deyarli har bir amir vaqtda yangi tangalar zarb etib turilgan. Birinchi mang'it – Muhammad Rahim va uning vorisi amir Doniyolbiy davrida zarb qilingan kumush va oltin tangalar Joniylar davrida zarb qilingan tangalarga o'xshash edi. Amir Doniyolning o'g'li Shoxmurod (Murodshoh) taxtga chiqishi bilan 1785 yil pul islohotini o'tkazdi. Bu islohot tangalarga yangi ko'rinish berishdan iborat bo'lib, shu asosda Mang'itlar tanga zarb qilishni boshlab yubrdilar. Mang'itlar sulolasi (1753 -1920) tangalarida Joniylar tangalariga nisbatan yozuvlar oz bo'lgan. Kumush tangalarning o'ng tomonida tanga zarb qilingan shaharning nomi, ya'ni «Himmatli Buxoro zarbi» va raqamlar bilan sana ko'rsatilgan, ters tomonida podshoning nomi va yana sana ko'rsatilgan. Mang'itlarda podsho nomini tangaga berish yo'llari turlicha bo'lgan. Birinchi mang'it amiri Muhammad Rahimxon o'z nomidan tanga zarb etgan. Lekin Shohmurod oldin Abdulg'oziy nomi bilan, keyinchalik otasi Doniyolbiy nomi bilan tangalar chiqargan. Shohmurod va uning vorisi amir Haydar dastlabki vaqtlarda bobosi yoki otasining nomi bitilgan tangalarni zarb qildirgan bo'lsa, keyinchalik o'z nomidan ham tangalar zarb qildirgan. Uning o'g'li Husayn atigi 75 kun hukmronlik qilgan bo'lsa ham o'z nomi bilan kumush tangalar zarb qilishga ulgurgan.

Keyingi barcha mang'it amirlari faqat ajdodlarining xotirasi uchun

³⁰⁴ Эшов Б Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқаруви тарихи. Т.: “Янги аср авлоди”. 2012. 303-б

tanga zarb qilganlar. Mangʻitlarning kumush tangalari aʼlo sifatli sof kumushdan ishlangan boʻlib, ularning ogʻirligi kamaygan va diametri kichrayib borgan³⁰⁵.

Yuqoridagilardan koʻrish mumkinki, Buxoro amirligining ichki va tashqi iqtisodiy va siyosiy ahvoli birmuncha murakkablashgan boʻlsada, iqtisodiy hayot oʻziga xos tarzda rivojlanish yoʻlida davom etdi, biroq XIX asrning ikkinchi yarmida sodir boʻlgan siyosiy jarayonlar amirlikning iqtisodiy hayotida ham jiddiy oʻzgarishlarning roʻy berishiga taʼsir koʻrsatdi.

Tayanch soʻzlar: Mangʻit, Buxoro amirligi, iqtisodiy inqirozlar, siyosiy tanglik, biylar, parokandalik, otaliq, “amir” unvoni, kenagaslar, qoʻshbegi, Mangʻitlar sulolasi, kumush va oltin tangalar, pul islohotlari, savdo aloqalari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XVIII asr ikkinchi yarmida Buxoro amirligidagi siyosiy vaziyat qaysi jihatlari bilan hususiyatlanadi?
2. Amir Shohmurod amalga oshirgan islohotlar va ularning ahamiyati qanday edi?
3. Amir Haydar xukronligi yillarida Buxoro amirligi nima sababdan tushkunlikka uchradi?
4. Amir Nasrullo hukmronligining ijobiy va salbiy jihatlari-ni ochib bering.
5. Qishloq xoʻjaligi va yer egaligi shakllari?
6. Amirlikda ichki savdo munosabatlari?
7. Amirlikda tashqi savdo munosabatlari?
8. Buxoro amirligida pul muomalasi xaqida maʼlumot bering?

³⁰⁵ Эрназарова Т., Кочнев Б., Тангалар ўтмиш даракчилари, Т., “Фан”. 1977. 34-35-бб.

XVIII - XIX ASR O‘RTALARIDA QO‘QON XONLIGI

- ❖ **Qo‘qon xonligi tarixiga oid manbalar.**
- ❖ **Qo‘qon xonligining tashkil topishi va XVIII-XIX asr o‘rtalaridagi siyosiy tarixi.**
- ❖ **XIX asr ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligida siyosiy jarayonlar.**
- ❖ **Qo‘qon xonligining ma‘muriy-hududiy tuzilishi va boshqaruv tizimi.**
- ❖ **Qo‘qon xonligining aholisi va etnik tarkibi.**
- ❖ **Qo‘qon xonligida iqtisodiy hayot, yer egaligi va qishloq xo‘jaligi.**
- ❖ **Qo‘qon xonligida hunarmandchilik.**
- ❖ **Qo‘qon xonligida savdo munosabatlari, pul islohotlari. Soliqlar.**

Qo‘qon xonligi tarixiga oid manbalar. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Qo‘qon tarixnavisligi maxsus fan darajasiga ko‘tarildi. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Qo‘qon xonligi tarixshunoslik maktabi rivojlanib, xonlik hayotining barcha sohalarini yoritib beruvchi ko‘plab qimmatli asarlar yaratildi. Ular orasida mahalliy tarixchilar tomonidan Rossiya imperiyasining Qo‘qon xonligini bosib olishi voqealarini aks ettiruvchi bir qator asarlar yozib qoldirilgan. Qo‘qon tarixnavislik maktabida yaratilgan tarixiy asarlarning barchasi o‘ziga xos tarzda xonlik tarixini yoritib berishda alohida ahamiyatga ega. Asarlarda umumiy maqsad xonlik tarixini yoritib berishga qaratilgan bo‘lsada, xonlik tarixiga oid jarayonlarni yoritib berishda ularning tarixiy, davriy va boshqa jihatlarini kuzatish mumkin. Shu jihatlari bilan har bir tarixiy asar o‘z o‘rniga ega sanaladi. Xonlik tarixini yoritib beruvchi asarlarning yaratilishidagi davriylik nuqtai-nazaridan ikki qismga bo‘lib ko‘rsatib o‘tish mumkin. Aksariyat asarlar xonlik tarixining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingunigacha bo‘lgan davrni yoritib bersa, ikkinchi qismida voqealar tahlilining asosiy e‘tibori Rossiya imperiyasi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuvlar, unda ishtirok etgan tarixiy shaxslar va ularning faoliyati, harbiy harakatlar tarixini kengroq yoritib berishga qaratilganligini kuzatish mumkin. Shu jihatlari bilan Qo‘qon xonligi tarixini aks ettiruvchi manbalarning yozilish uslublari, voqealar tahliliga yondashuvlari va voqealarning talqin qilinishi kabilardagi rang-baranglikni kuzatish mumkin-ki, aynan shu jihatlari bilan bu asarlar bir asrdan ortiq vaqt davomida tadqiqotchilarning e‘tiborini o‘ziga tortib kelmoqda va ayni vaqtda keng miqyosda tadqiqot obyektiga aylanib

kelayotganligi bilan ham o‘zining dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Qo‘qon xonligi tarixini yoritib beruvchi va nisbatan muhim ahamiyat kasb etuvchi bunday asarlar sifatida Muhammad Yunus ibn Muhammad Amin – Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar»³⁰⁶, “Hadiqat ul-anvor” va “Tuhfayi Toib”³⁰⁷, Mullo Avaz Muhammad ibn Mullo Ro‘zi Muhammad So‘fi – Avaz Muhammad Attor Xo‘qandiyning «Tarixi jahonnamoyi»³⁰⁸, Mullo Yunus Toshkandiyning «Xotiralar»³⁰⁹, Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix”³¹⁰, Mullo Olim Mahdumxojaning «Tarixi Turkiston»³¹¹, Ishoqxon Junaydullo o‘g‘li – Ibratning «Tarixi Farg‘ona»³¹², Mullo Xoliboy Mambetovning «O‘rus lashkarining Turkistonda tarix 1269–1282 sanalarda qilg‘on futuhotlari»³¹³, Abu Ubaydullo Toshkandiyning «Xulosat ul –ahvol»³¹⁴, Mirzo Olim ibni Mirzo Rahim Toshkandiyning «Ansob us – salotin va tavorix ul –

³⁰⁶ Қаранг: Муҳаммад Юнус Тоиб. Тарихи Алиқули Амирлашкар // Шарқ Юлдузи. 1996. -№ 1-2. – Б.214-217; Қаранг: Амирлашкар Алимкул тарихи. Алимкул жангномаси. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги давлат ва жамият қурилиши Академияси. Ўзбекистоннинг янги тарихи маркази. -Т.: 1997. Қаранг: З.Илҳомов. Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни. Тарих фан.ном....дисс. Т.2004

³⁰⁷ Қаранг: Муҳаммад Юнус Хаджа б. Муҳаммад Amin-Хаджа. Тухфа-йи Таиб //Islamic Area Studies Project Central Asian research Series № 6. –Ташкент-Токио.: 2002. -С.32.

³⁰⁸ Қаранг: Хўқандий Аваз Муҳаммад Аттор. Тарихи жаҳоннамойи // Шарқ Юлдузи. -1991. -№8. – Б.119-141.Қаранг: Вахидов Ш. Аваз Муҳаммад Аттар Хуканди и его сочинение «Тарих - и жаҳоннамойи» исследование, перевод и примечания: Автореф. дис... канд. ист. наук. –Т., 1990. – 19 с. Қаранг: Вахидов Ш. Источники, использованные Аваз Муҳаммад Аттаром в сочинении «Тухфат ат–таворихи хони», «Тарихи жаҳоннамойи» // Адабий мерос. 1989. -№ 4 (50). –С.31–36.

³⁰⁹ Мулло Юнус Тошқандий. «Хотиралар». Смирнов Е.Т. Султаны Кенисара и Садык. -Т.: Тип С.И.Лахтина. 1889. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Алишер Навоий номидаги Марказий Давлат кутубхонаси. В 961-3. Қаранг: Илҳомов З. Хотираларда жонланган сиймо. Жамият ва бошқарув №1. 2000 г. Б.55-57. (Аслида китобнинг номи йўқ. З.Илҳомов китобнинг мазмунидан келиб чиқиб унга шартли равишда “Хотиралар” деб ном берган. Қаранг: З.Илҳомов. Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни. Тарих фан.ном....дисс. Т.2004)

³¹⁰ Қаранг: Хуршут Э. «Мунтахаб ут – таворих» как источник по истории Средней Азии и сопредельных стран XVIII – XIX вв. // Общественные науки в Узбекистане. –1984. -№ 7. –С.36–42. Қаранг: Хуршут Э. Изучение среднеазиатских источников XVI–XIX веков: значение, состояние, проблемы // Общественные науки в Узбекистане. –1989. -№ 2. С.49-53

³¹¹ Мулло Олим Маҳдум Ҳожа. Тарихи Туркистон. – Т.: Туркистон генерал губернаторлиги босмахонаси. 1915.-220б. Қаранг: Мулло Олим Маҳдумхожа. Тарихи Туркистон. -Т.: Шарқ, 1995. - 127 б. Қаранг: Мирзо Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. -Т., Янги аср авлоди, 2010й.

³¹² Исҳоқхон Ибрат. Фарғона тарихи. Т: Мерос, 1991.

³¹³ Мулло Холибой Мамбетов. «Ўрус лашкарининг Туркистонда тарих 1269–1282 саналарда қилг‘он футухотлари», ЎзР А.Навоий номидаги МДК, № 10136. Қаранг: Веселовский Н.И. Киргизский рассказ о русских завоеваниях в Туркестанском крае / Текст, перевод и приложения. – Спб.: Б.и., 1894. -206 с. Қаранг. Мулло Холибой Мамбетов. Туркистон босқини. Нашрга тайёрловчи З.Илҳомов. Т. ТДПУ. 2009. Қаранг: З.Илҳомов. Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни. Тарих фан.ном....дисс. Т.2004; Қаранг: Илҳомов З. Амирлашкар тарихи (Алымкул Амир лашкар). Отв ред. Т.Кенансариев. -Бишкек.: Махprint, 2019. С. 320-341.

³¹⁴ Қаранг: Воҳидов Ш.Ҳ. XIX – XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши: Тарих фанлари д-ри... дисс. –Т.: 1998.

xavoqin»³¹⁵, Mullo Xolbek ibni Mullo Muso Andijoniyning «Aliquli jangnomasi va Mullo Xolbek sarguzashtlari»³¹⁶, Muhammad Niyoz Xo‘qandiyning «Tarixi Shohruhiy»³¹⁷, Muhammad Solih ibn Muhammad Rahim Toshkandiyning «Tarixi jadidi Toshkand»,³¹⁸ Beknazarning «Amirlashkar jangnomasi»,³¹⁹ Muhammad Aziz Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy”,³²⁰ Muhammad Umar Umidiyning “Maktubchai xon”³²¹, Abdulg‘affurning “Zafarnomayi Xudoyorxoniy”³²², Fazli Farg‘oniyning “Umarnoma”³²³ asari va boshqalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy o‘zining “Tarixi jahonnamoyi” asarida Qo‘qon xonligi siyosiy hayotiga oid ko‘plab masalalar haqida so‘z yuritib, qimmatli ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi. Asarda Qo‘qon xonligining tashkil topishi, ming urug‘i vakillarining xonlikni boshqarishi, ularning davlat hududlarini kengaytirish uchun olib borgan harbiy yurishlari, xonlikning iqtisodiy hayoti va boshqa ko‘lab sohalari haqida ma‘lumotlar berish bilan bir qatorda Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasiga qarshi olib borgan kurashlari tarixini ham keng darajada yoritib beradi. Ayrim hollarda uning ma‘lumotlarida mubolag‘a holatlari uchrasa-da, o‘z navbatida ma‘lumotlar ham mukammalligi bilan boshqa asarlarga nisbatan ajralib turadi³²⁴.

Muhammad Hakimxon To‘ra o‘z asarida mamlakat ichki voqeala-

³¹⁵ Қаранг: Мирзо Олим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи. - Т.: Шарқ, 1995.

³¹⁶ Қаранг: Воҳидов Ш.Х. XIX – XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши: Тарих фанлари д-ри... дисс. –Т.: 1998.

³¹⁷ Қаранг: Пантусов Н.Н. Теварихи Шахрухие // Туркестанские ведомости. -1876. -№30. Қаранг: Пантусов Н.Н. Теварихи Шахрухие. Казань.1885. Қаранг: Бейсембиев Т.К. «Тарих-и Шохрухи» как исторический источник: Автореф. дис... канд. ист. наук. –Т., 1983. –22 с. Қаранг: Бейсембиев Т.К. «Тарих-и Шохрухи» как исторический источник. Алма-Ата.: Наука, 1987. 200 с.

³¹⁸ Муҳаммад Солиҳ ибн Муҳаммад Раҳим Тошкандий. «Тарихи жадиди Тошканд». // Қўлэзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти қўлэзмалар хазинаси, № 5732, №№ 11072,11073.)

³¹⁹ Бекназар. «Амирлашкар жангномаси». // Қўлэзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти қўлэзмалар хазинаси, №1925.

³²⁰ Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. - Т.: Маънавият, 1999.

³²¹ Қаранг: Ваҳидов Ш. Сочинение Мухаммад Умара Умиди «Мактубчайи хан» // Адабий мерос. - 1990. -№2 (52) – С. 60 – 63.

³²² Абдулғафур. Зафарномаи Худоёрхоний. // Қўлэзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институти қўлэзмалар хазинаси, № 598 – 65 в.

³²³ Қаранг: Ваҳидов Ш. Сочинение Фазли Фергани «Умарнома» // Адабий мерос. 1991. -№3 (57). - С.28–33.Қаранг: Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик. Т.Академнашр, 2010.

³²⁴ Қаранг: Хўқандий Аваз Муҳаммад Аттор. Тарихи жаҳоннамои // Шарқ Юлдузи. -1991. -№8. – Б.119-141

rini yoritishdan tashqari, Qo‘qonning Buxoro va Qoshg‘ar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarini, ba‘zan Afg‘oniston bilan bo‘lgan munosabatlarini ham yoritgan³²⁵. Bundan tashqari, muallif o‘z asarida XIX asrnig birinchi yarmidagi Rossiyaning Orenburg, Samara, Astraxan, Irbit shaharlari, Turkiya, Eron va Iroq davlatlari qisqacha tarixi haqida ma‘lumotlar keltirgan. Asar XIX asrda O‘rta Osiyodagi mavjud ijtimoiy–siyosiy tuzum va madaniy hayotni o‘rganishda ham muhim manba hisoblanadi³²⁶. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, muallif mazkur asarini yozishdan avval dunyoning bir qancha mamlakatlari va shaharlarida bo‘lib, u yerdagi xalqlar va ularning hayot tarzi bilan yaqindan tanishadi. U Rossiya, Turkiya, Suriya, Falastin, Misr, Arabiston, Eron, Afg‘oniston mamlakatlarida bo‘ladi. Hakimxonning qadami yetgan yurtlar, shaharlar ro‘yxatida Qo‘qon, Toshkent, Turkiston, Shamay (Semipalatinsk), Omsk, Irbit, Saritsin, Astraxan, Mozandaron, Kavkazorti, Sinop, Qaysariya, Latakiya, Damashq, G‘azo, Qohira, Suvaysh, Yanbo, Jidda, Makka, Madina, Qusayr, Arabiston cho‘li, yana Qohira, G‘azo, Quddus, Havron, Nablus, Damashq, Bag‘dod, Hamadon, Rasht, Nishopur, Mashxad, Maymana, Andxo‘y, Buxoro, Samarqand, O‘ratepa, Shaxrisabz, Kitob va boshqa joylarni ko‘rish mumkin. Asarda xonlikning tashqi siyosiy masalalariga oid ham bir qator muhim ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Ulardan birida afg‘on amiri Do‘stmuxammadxon haqida so‘z yuritiladi. Kitobda, shuningdek, inglizlardan yengilib Buxoroga amir Nasrullox oldiga kelgan afg‘onlar xukmdori Do‘stmuxammadxon va uning o‘g‘illari Akbarxon, Sultonxon xamda akasi Muxammadalixondan so‘ng ozgina vaqt xonlik taxtiga o‘tirgan, ammo ungacha quvg‘inlikda Shaxrisabzda xayot kechirgan Sulton Maxmudxon va boshqa ayrim nufuzli ruxoniy, amaldor, shoirlar qismati ular xikoyalari va muallifning shaxsiy kuzatishlari orqasida vujudga kelgan fikrlar asnosida tilga olinadi. «Muntaxab at-tavorix» asarining yozilishi jarayonida muallif tomonidan shu vaqtda mavjud bo‘lgan ko‘pgina manbalarga murojaat qilinganligi

³²⁵ *Муқимхановская история (Тарих-и Муқими-хани) Мухаммед Юсуфа Муниши*, перевод с тадж. С предисловием, примечаниями и указателями, Ташкент, 1957.

³²⁶ Мелибоев А. Мухаммад Ҳақимхон тўранинг “Мунтахаб ат – таворих” асари Қўқон хонлиги тарихини ўрганишда муҳим тарихий манба сифатида. Ученый XXI века Международный научный журнал. № 6-2 (19), июнь 2016 г

qayd etilgan. “Muntaxab ut-tavorix” asari nafaqat O‘rta Osiyo, Buxoro amirligi yoki Qo‘qon xonligi tarixini yoritib beradi, balki u o‘ziga xos tarzda noyob adabiy va geografik meros ham hisoblanadi³²⁷.

Bunday asarlar qatoriga Muhammad Yunus Toibning “Tarixi Aliquli Amirlashkar” asarini ham kiritish mumkin. Toibning “Tarixi Aliquli Amirlashkar” asari 196 bet (98 varaq)dan iborat bo‘lib, o‘zbek tilida, arab alifbosining nasta’liq xatida nasriy usulda yozilgan asardir. Muhammad Yunus Toib Qo‘qon xonligida 1860-1865 yillar davomida shig‘ovullik mansabida faoliyat yuritish bilan birga Aliquli Amirlashkar yuritgan siyosatning faol ishtirokchisi bo‘lgan.

Muhammad Yunus Toib maslahati bilan XIX asrning 60-yillari o‘rtalarida Qo‘qon xonligidan Xitoy, Hindiston, Afg‘oniston, Turkiya, Angliya va Rossiyaga elchiliklar uyushtirilgan. Toib Aliquli Amirlashkar bilan birgalikda Avliyoota, Turkiston, Chimkent, Toshkent mudofaalarida faol ishtirok etgan, har bir jang harakatlari va xonlik ichki siyosatida Aliquli Amirlashkar tomonidan olib borilayotgan siyosatda unga yaqindan ko‘mak bergan. Keyinchalik Muhammad Yunus Toib Aliquli Amirlashkar hayoti va faoliyatini yoritib beruvchi “Tarixi Aliquli Amirlashkar” asarini yozadi. Aliquli Amirlashkar hayoti va faoliyati yoritilgan asarlar orasida “Tarixi Aliquli Amirlashkar” o‘zining eng mukammalligi va ishonchliligi bilan alohida o‘rin egallaydi. Muhammad Yunus Toibning “Tarixi Aliquli Amirlashkar” asari Aliquli Amirlashkar shaxsi va faoliyatini yoritib beruvchi tarjimai hol tarzidagi asardir. Bu asarda yuqorida aytilgan ma’lumotlar bilan birga Qo‘qon xonlari Mallaxon, Sulton Sayyidxon va boshqalar haqida ham qimmatli ma’lumotlar uchraydi³²⁸.

Qo‘qon xonligi tarixi haqida qimmatli ma’lumotlarni beruvchi mukammal bitilgan manbalardan biri “Tarixi jadidi Toshkand” asaridir. Bu asar Muhammad Solihxo‘ja Toshkandiy qalamiga mansub bo‘lib, xonlik tarixiga oid yirik manbalardan biridir. Asar arab alifbosining nasta’liq xatida o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, bir necha nusxasi mavjud.³²⁹

³²⁷ Хуршут Э. “Мунтахаб ут-таворих” и история его изучение. / Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1985. №2. 59-63-бб

³²⁸ Қаранг: З.Илҳомов. Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни. Тарих фан.ном....дисс. Т.2004; Илҳомов З. Амирлашкар тарихи. Тошкент. 2013.

³²⁹ Муҳаммад Солиххўжа Тошкандий. Тарихи жадиди Тошканд. Қўлёзма, ЎзФАШИ, №№ 7791, 11072, 11073, 5732.

Muhammad Solih Toshkandiy Rossiya imperiyasining Qo‘qon xonligiga qarshi harbiy yurishlariga qarshi kurashlarda, xususan Toshkent mudofaasida eng faol ishtirok etgan tarixchilardan biridir. U bo‘lib o‘tgan janglar va to‘qnashuvlar, ularda sodir bo‘lgan voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va ularda bevosita ishtirok etgan. Shu jihatdan olganda “Tarixi jadidi Toshkand” asari tadqiqotni amalga oshirishda eng asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qildi.

Muhammad Solih Toshkandiy Toshkent mudofaasida olib borilgan janglarini tasvirlar ekan, eng mayda tafsilotlargacha ma’lumot berib o‘tadi. Ayniqsa, Toshkent mudofaasida yuzaga kelgan qipchoqlar askarlarining xoinlik harakatlari va jangga kirmasliklari oqibatida mudofaachilarning og‘ir qiyinchiliklarga uchraganligi, muallifning o‘zi esa jang ketayotgan ayni vaqtning o‘zida qo‘shin xazinasiga nisbatan talonchilikning oldini olganligi tafsilotlarini nihoyatda o‘rinli keltirib o‘tadi. Muhammad Solih Toshkandiy Qo‘qon xonligi qo‘shinlariga boshchilik qilib, Toshkent shahriga yetib kelgan Aliquli Amirlashkarni xalq tomonidan katta umid va ishonch bilan kutib olinganligi, mudofaada shaharning barcha aholisi faol ishtirok etganligi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni berib o‘tadi. Aliqulining jangdagi ishtiroki va halok bo‘lishi tafsilotlarini turli guvohlarning ko‘rsatmalari asosida aynan tasvirlayotganligiga alohida urg‘u berib o‘tadi.³³⁰

XIX asr ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligi tarixi haqida yozilgan manbalardan yana biri Mulla Niyoz Muhammad Ho‘qandiyning «Tarixi Shoxruxiy» asaridir. Muhammad Niyoz Ho‘qandiy saroy amaldorlari safiga kirganligi uchun SHERALIXON hukmronligidan XIX asrning 70-yillarigacha yuz bergan siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirok etgan. Muallif o‘z asarida xonlik ichki siyosiy hayotining barcha tomonlarini atroflicha yoritish bilan birga, xonlarning tashqi siyosatga munosabati, harbiy ahvolning yomonligi va achinarlisi, harbiy ahvolning shunday qolib ketganligi, xattoki Rossiya imperiyasining dastlabki harbiy yurishlarida xonlik askarlarining mag‘lubiyatga uchrashi va shaharlarning qo‘ldan boy berilishini xonlarning beparvoligi oqibatida edi, deya baholaydi.³³¹

³³⁰ Тарихи жадиди Тошканд. Б. 431-522.

³³¹ Тарихи Шохрухий. Б. 199-200.

Shuningdek asarda Xudoyorxon va Mallaxon davri siyosiy guruhbozliklarning kuchayishi, bundan avvalroq yuz bergan qipchoqlar voqealari ham batafsil yoritib berilgan. «Tarixiy Shoxruxiy» asari XIX asr oxirlaridayoq tarixchilar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida oʻrganila boshlangan asarlardan biri sanaladi. Rus tarixchisi N.N.Pantusov 1876 yildayoq asarning rus tilidagi tarjimalarini nashr qildira boshlagan boʻlsa, 1885 yilda uning toʻliq nusxasini rus tilidagi tarjima va izohlar bilan nashr qildirdi.³³²

Mirzo Olim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul xavoqin” asari Qoʻqon xonligi tarixining tashkil topishidan soʻnggi kunlarigacha boʻlgan tarixiy voqealarni yoritishda muhim oʻrin tutadi.³³³ Asarda har bir xon va uning taxtga kelish jarayoni, xonlarning hukmdorlik davridagi amalga oshirgan ishlari, ichki va tashqi siyosatdagi tadbirlari, savdo va iqtisodiy hamda diplomatik aloqalari, xonlikning boshqaruv tizimi va xuquqiy munosabatlar haqida maʼlumotlarni tizimli ravishda va xronologik jihatdan izchillik asosida yoritib berilgan. Shuningdek, asarda XIX asrning 50-60-yillarida sodir boʻlgan siyosiy voqealar tahliliga katta oʻrin beriladi. Xudoyorxon, Mallaxon, Shohmurod, Sulton Sayyidxonlarning taxtda oʻtirgan vaqtlarida yuritgan siyosatlari, shu vaqtda xonlikdagi umumiy ahvolni yoritish bilan bir qatorda Aliquli Amirlashkar shaxsiga ham katta oʻrin beradi³³⁴.

Mullo Olim Mahdumxojaning “Tarixi Turkiston” asarida ham uchratish mumkin. Bu manba Qoʻqon xonligi tarixiga bagʻishlangan tarixiy asar boʻlib, uning bugungi kunda toshbosma nusxasi saqlanib qolgan.³³⁵ Mullo Olim Mahdumxoja yashagan davr va asarning yozilish vaqti asarda keltirilgan voqealardan ancha keyin boʻlganligi uchun ayrim voqealar tafsilotlarda ixtiloflar uchrasada, asarning birinchi qismi Qoʻqon xonligi tarini yoritib beruvchi mavjud asarlar orasida xonlikning tarixi ham Turkistonning XX asr boshlaridagi tarixiy jarayonlari, jamiyat hayotida yuz bergan oʻzgarishlar va ayrim zamonaviy yangilanishlar haqida ham

³³² Пантусов Н.Н. Теварихи Шахрухие // Туркестанские ведомости. -1876. -№30.

³³³ Мирзо Рпахим Тошкандий. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. (Кўкон хонлиги тарихи). Т.: “Шарк”-1995.

³³⁴ Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. 32, 48-бб.

³³⁵ Мулло Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Туркистон генерал губернаторлиги кутубхонаси. Т.: 1915.

ko'pgina qarashlar va ma'lumotlarni o'z ichiga olganligi bilan ham muhim tarixiy manba sifatida baholanadi³³⁶. Asarning ikkinchi qismida esa Qo'qon xonligining boshqaruv tizimi va davlat mansablari haqida mukammal ma'lumotlar keltirib o'tilgan³³⁷.

Yuqorida aytilganidek, Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalarni davriy jihatdan XIX asrning o'rtalarigacha va undan keyin yozilgan ikki davrga ajratiladigan bo'lsa, bunda birinchi davrga nisbatan ikkinchi davrda yaratilgan asarlarning nisbatan keng va chuqur, atroflicha o'rganilganligini yaqqol ko'rish mumkin. Hattoki bu boradagi tadqiqotlarning bugungi kunda ham davom ettirilayotganligi fikrimizning dalilidir.

Qo'qon xonligining tashkil topishi va XVIII-XIX asr o'rtalaridagi siyosiy tarixi. XVIII asr birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari chuqur siyosiy inqirozni boshdan kechirdi. Buxoro xonligida yuzaga kelgan vaziyat xonlikning siyosiy jihatdan parokandalikka uchrashiga olib keldi. Turli hukmdorlar orasida qarama-qarshiliklarning chuqurlashib borishi natijasida mavjud xonliklarda murakkab siyosiy vaziyat yuzaga keldi. Siyosiy hayot inqirozi iqtisodiy hayotdagi parokandalikka olib keldi. Natijada bu davrda markaziy hokimiyatning salohiyati susayib, xukmron sulolalarning mavqei pasayib ketdi. Hokimiyat tepasida turgan sulolalar o'rniga o'zbek urug'lari vakillari keldilar. Jumladan, Buxoroda Ashtarxoniylar Mang'itlarga, Xivada Shayboniylar Qo'ng'irotlarga siyosiy hayot maydonini bo'shatib berdi. Qo'qon xonligining tashkil topishi ham bu davrda kechgan murakkab siyosiy jarayonlarning hosilasi edi.

Ashtarxoniy Subhonqulixon vafotidan so'ng Buxoro taxtiga o'tirgan Ubaydullaxon hukmronligi (1702 — 1712) davrida xonlikdagi ijtimoiy — siyosiy vaziyat chigallashib markaziy hokimiyat ancha zaiflashdi. Shu vaqtda ming urug'i oqsoqollari Ubaydullaxon II ning minglarga nisbatan tazyiqni kuchaytirib yuborganiga qarshi hamda o'z mustaqil davlatlarini barpo qilishga intilib, o'z faoliyatlarini kuchaytiradilar. 1709—1710 yillarda ular alohida beklik tuzgan

³³⁶ Тарихи Туркистон. 160-164-бб.

³³⁷ Тарихи Туркистон. 165-170-бб.

Chodak xojalarining hokimiyatini agʻdarib tashlaydilar va oʻz hokimiyatlarini oʻrnatadilar. Shu tariqa 1710 yilda Shohruxbiy ibn Ashur Muhammad (1710—1721) boshchiligidagi minglar urugʻi Fargona vodiysida oʻz davlatlariga asos soladilar³³⁸.

Qoʻqon xonligi siyosiy tarixini (1709 - 1876) shartli ravishda toʻrt bosqichga boʻlish mumkin:

1. Xonlikning shakllanish davri (1709 - XVIII asr 50 - yillari). Bu davrda Qoʻqon xonligi asosan Fargʻona vodiysidan iborat boʻlib, xonlik hukmdorlari mamlakatni birlashtirish, ichki nizolarga barham berish, tashqi dushmanga qarshi kurashish, mamlakatning mavqeini mustahkamlash bilan mashgʻul boʻlgan.

2. Taraqqiyot davrining boshlanishi (XVIII asrning 60 - yillaridan shu asr oxirigacha). Bu asosan Norboʻtabiy (1763 - 1798) hukmronlik qilgan davr boʻlib, xonlik hududi kengaygan, siyosiy va iqtisodiy jihatdan yuksala boshlagan. Mamlakat Oʻrta Osiyoda ham oʻz mavqeiga ega boʻlib borgan.

3. Taraqqiyot davri (XIX asrning birinchi yarmi). Olimxon (1798 - 1810), Umarxon (1810 - 1822), Muhammadalixon (1822 - 1842) kabi hukmdorlar davrida xonlik hududi kengayib, shimoldan qozoq choʻllari va u orqali Rossiya, garbdan Buxoro amirligi, choʻl zonalarini orqali Xiva xonligi hududi, sharqsan Qashqar yerlari bilan chegaradosh boʻlib, janubiy xududlari Pomir togʻlariga tutashib ketgan. Xonlik Oʻrta Osiyoda siyosiy mavqeini mustahkamlash bilan birga, iqtisodiy jihatdan ham ancha yuksalgan.

4. Tanazzul davri (XIX asrning 50 - 70 - yillari). Bu davrda ichki nizolar va tashqi urushlar avjiga chiqqan. Mamlakat siyosiy va iqtisodiy tanazzulga yuz tutgan. Taxt uchun kurashlar kuchayib, xonlik hukmdorlari tinimsiz almashinib turgan. Xatto, Xudoyorxonning oʻzi uch marta (1845 - 1858, 1862 - 1863, 1865 - 1875) taxtga kelib, ichki nizolar oqibatida uch marotaba undan ketishga majbur boʻlgan. Tashqi dushmandan xonlik oʻzini mudofaa qila olmagan. Natijada, dastlab 1842 yil Buxoro xonligi

³³⁸ Мирзо Олим Махдум Хожи. Тарихи Туркистон. -Т., Янги аср авлоди, 2008. 5-б

xonlikni vaqtincha bosib olgan bo'lsa, 1876 yil Rossiya imperiyasi unga barham bergan.³³⁹

Ming xonadonining hokimiyat tepasiga kelishi asnosida sulolaning tarixi ham adabiyotlarda yoritib berilgan. Jumladan, Mullo Olim Mahdumxojaning “Tarixi Turkiston” asarida bu sulolaning kelib chiqish Oltin Beshik rivoyatlariga asoslangan holda ko'rsatib beriladi³⁴⁰.

Qo'qon xonligi tarixining bibliografiyasiga bag'ishlangan risolada mualliflar tomonidan V.Nalivkinning “Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva” nomli risolasiga asoslangan holda tuzib chiqilgan Minglar sulolasining shajarasi Amir Temur va temuriylarga bog'langan holda ko'rsatib beriladi (Oltin Beshik rivoyati asosida – Z.I) va Shoxruxbiy boshchiligidagi Minglar xonadonining Farg'ona vodiysida hokimiyat tepasiga kelishi 1709 yil sanasi bilan ko'rsatiladi³⁴¹.

Qo'qon xonlarining nasabnomalarini Oltin Beshik rivoyati bilan bog'liqligi Mullo Niyoz Muhammadning “Tarixi Shohruhiy”, Mirzo Olim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin”, Muhammad Solih Toshkandiyning “Tarixi jadidi Toshkand”, Fozilbek Otabek o'g'lining “Mukammali tarixi Farg'ona”, V.Nalivkinning XIX asr 80-yillari o'rtalarida Qozonda chop etilgan “Qo'qon xonligining qisqacha tarixi” (“Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva”)³⁴², Ibratning “Farg'ona tarixi”, Mulla Shamsiddin Shavqiyning “Shohnoma” dostonida, Muhammad Aminbek Xudoyorxon o'g'lining “Turkiston viloyatining gazetini”ning 1894-yil sonlarida o'zbek va rus tillarida e'lon qilingan “Farg'ona viloyati xonlarining xususidagi voqeotlar” nomli asarlarida ham qayd etilganligi ko'rsatib o'tilgan³⁴³.

OLTIN BESHIK

Mullo Olim Mahdumxojaning “Tarixi Turkiston” asarida keltirilgan rivoyat

“Farg'ona viloyatida tavorixlarda malum va mashhur Andijon va O'zgand va Aysi qadimgi va eski shaxar bo'lub, chig'atoy va o'zbek xonlariga loytaxt ekanligi bilinadur, lekin Xo'qand shahrining eng avvalgi binosi 300 yildan ziyod bo'lgan

³³⁹ Мадррахимов З.Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари. Т. “Yangi nfsahr”. 2014. 30-б

³⁴⁰ Мирзо Олим Махдум Хожи. Тарихи Туркистон. -Т., Янги аср авлоди, 2009. 43-44-бб.

³⁴¹ Игамбердиев А., Амирсаидов А. История Кокандского ханства. Библиографический указатель с иллюстрациями XVIII век - 1876 г. -Ташкент. 2007. Стр.11-13.

³⁴² Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886.

³⁴³ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). - Т.: “Sharq”, 2010. 99-б.

emas. Vaqtiki, Boburxon o'zbek xonlari ilan Samaqand muzofotida muxoraba aylab, mag'lub bo'lub, qochib, alhol Xo'qand shahri bino bo'lgan mavzedagi katta soy labiga kelganda farosat ilan topibdurkim, bul joy seroblik va obshorlik va xushhavo sabablikdin andak vaqtda obodon va katta shaharbo'lsa kerak deb, alhol Xo'qand shahriga suv keladurgan katta o'tganda ko'rubdurkim, soyning ikki tarafida ko'p elatiyalar ijtimoi' qilib, qo'nub o'lturubdurlar. Muni ko'rub Boburxon kimxob va zarrin liboslarga o'ralib, oltun beshikka boylangan bir yosh bolasini mahali guzargohga qo'yub, bir dono va hushyor odamni ul beshik ilan bolaga didbon va qorovul tayin qilib, aytibdurkkm, to ushbu bola biror odamni qo'iga tushub,olib ketgandin so'ngra bizlarni orqamizdin yetib kelursan, deb tezlik ilano'z yo'llariga jo'nab ketibdurlar...

Bolaning nomini Oltun beshik qo'yubdurlar. Oxiri xaddi balog'atga yetushgondin keyin taalluqdor qilib bir xushro'y va sohbjamol qiz olib berubdurlar. Andin bir o'g'ul farzand tavallud topib, nomini Sulton Elik qo'yibdur. Ul xam balog'atga yetgandin so'ngra uylanturubdurlar. Andin ham bir o'g'ul farzand bo'lub, nomini Sulton Xudoyor qo'yub, ul ham bolig' bo'lganda uylanturub, andin xam bir o'g'ul farzand tavallud topib, nomini Muxammadamin qo'yub, ul xam balog'atga yetgandin keyin, xotun olib, andin bir o'g'ul tavallud topib, nomini Abulqosim qo'yub, ul ham bolig' bo'lub, uylangandin keyin andin bir o'g'ul farzand tavallud topib, oning nomini Shoxmastbiy qo'yubdurlar. Alxol Chamashbiy nom ilan Farg'ona aholilari orasida mashxurdur. Shahmast (Shohmast, Shamast) biydan Shahruxbiy (Shoxrux) va andin Hojibiy va andin Ashurbiy tavallud topib, Ashurbiydin ikkinchi Shohruxbiy tavallud topibdur va Oltun beshik ilan bu Shoxruxxon miyonasida o'n pusht abovu ajdod ikki yuz yil muddatda o'tib, Shoxruxxon olami vujudga keldi...³⁴⁴

Manbalardan ma'lumki, bu vaqtda Farg'ona viloyati Ashtarxoniylar sulolasiga bo'ysungan holda mavjud bo'lib, ular hukmronligining so'nggi yillarida markaziy hokimiyat susayib boradi. Keyingi sodir bo'lgan voqealar esa Farg'ona mulkining mustaqillikka erishishi hamda mustaqil hokimiyatni shakllantirish uchun sharoit yaratib beradi. Bu vaqtda Farg'ona mulkida hokimiyatni egallash uchun yetarli mavqega ega bo'lgan ikki kuch mavjud bo'lib, biri yuqorida aytilganidek Ming xonadoni vakillari bo'lsa, ikkinchisi Chodak mavzeida turuvchi hojalar jamoasi edi. Bu haqda "Tarixi Turkiston" asari muallifi quyidagilarni yozadi: "... ba'zi o'zbeklar so'zi bo'yincha Xo'qand shaxri avval vaqtlarda tartib tobmay, Chodak mavzeida xo'ja jamoalari turub, ba'zi atrof javoniblardan, chunonchi, Targ'ova, Chamashbiy, Chankat va Pillaxon va To'qaytepa va

³⁴⁴ Тарихи Туркистон. 45–6.

Purtak va Tepaqo'rg'on va Qaynar, bularga o'xshash boshqa bir necha kentlar alarni taxti xukumatlarida bo'lub, xo'jalar hukmronlik qilar ekanlar"³⁴⁵.

Mirzo Olim Mahdumhoja ham o'z asarida bu voqealarning tafsilotlariga to'xtalib o'tadi. -"O'shal mavzeda barcha o'zbeklar bir to'yda jamiyat aylab... Saltanat xususida ko'p maslaxatlar qilib, ... Targ'ova mavzeiga yig'ilishib, Shoxruxxonni xon ko'taribdurlar"³⁴⁶

Asarning keyingi qismlarida muallif tomonidan Shoxruxbiyning hokimiyat borasida amalga oshirgan siyosati hamda kurashlari tavsiflab berilgan. Bunda atrofdagi nohiyalar va qishloqlar aholisining unga tobelik bildirishi, ko'pgina aholining unga sipohgarlik uchun kelishi va qo'shin ta'minotiga yordam ko'rsatishlari, Shoxruxbiyning hokimiyati Namangan hududlariga ham yoyilganligini ko'rsatib o'tadi³⁴⁷.

Dastlabki vaqtda bu davlat tarkibiga Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara kabi hududlar kirgan bo'lsa, Shohruxbiyning vorisi Muhammad **Abdurahimbiy** hukmronligi yillarida (1721 — 1733) davlat hududlari ancha kengaydi. U Andijon o'z hukmronligini o'rnatadi. 1725 yil Buxoro xonligining zaiflashganidan foydalanib, 20 ming kishilik qo'shin bilan Xo'jandni, 1726 yil esa O'ratepani qo'lga kiritadi. Abdurahimbiy Shahrisabzga ham tahdid soladi, Shahrisabzlik kenagaslar bilan ittifoq tuzib, 1732 yil Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlarini egallab, Samarqandga mulla Bahorni hokim etib tayinlaydi va u yerda olti oy turgach, Jizzaxni olib, Ollohqulibekni hokim qilib qoldiradi. Abdurahimbiy Qo'qon qishlog'i yaqinida katta shahar qurdira boshlaydi. Dastlabki vaqtlarda bu shahar «Qal'ai Rahimbiy» deb atala boshlagan. U 33 yoshida Xo'jandda vafot etgach, undan" Erdonabek ismli o'g'il (va yana uch qiz) qolgan bo'lishiga qaramay, taxtga uning ukasi **Abdukarimbiy** o'tiradi (1733—1751). Abdukarimbiy yangi shahar qurilishini tutallab, poytaxtni Tepaqo'rg'ondan Qo'qonga ko'chirib keltiradi va Qo'qon shahri davlatining poytaxtiga aylanadi hamda davlat ham endi Qo'qon xonligi degan nom oladi. (Shaharning Qatag'on, Marg'ilon, Toshkand,

³⁴⁵ Ўша жойда.

³⁴⁶ Тарихи Туркистон. 46–б.

³⁴⁷ Тарихи Туркистон. 46–47–бб.

Haydarbek kabi darvozalari bo'lgan).

Abdukarimbiyning hukmronligi yillarida markaziy davlat hokimiyati ancha mustahkamlanadi va xon tomonidan halqning farovonligiga ko'p e'tibor berildi. 1746-yilda xitoyliklar Qoshg'arni bosib oladilar va jung'or davlatini tor-mor qiladilar, qalmiq ko'chmanchilarining bir qismi g'arbga yurib, Farg'ona vodiysiga bostirib kirib, O'shg Andijon, Marg'ilon va boshqa joylarni egallab oldilar. Abdukarimbiyning qalmoqlarga qarshi yuborgan qo'shinlari mag'lubiyatga uchragach, qalmoqlar Qo'qon shahrigacha yetib keladilar. Qo'qon shahri qamal qilib turilgan bir vaqtda O'ratepa hokimi Fozilbek yordamga yetib keladi va qalmoqlar bu yerdan haydab chiqariladi va bosib olgan yerlari yana qaytarib olinadi. Qalmoqlar hujumi mamlakat iqtisodiy hayotiga ancha katta zarar yetkazadi. Abulkarimbiy 40 yoshida vafot etgach, bir qancha muddat Qo'qon xonligi taxti qo'ldan - qo'lga o'tib turadi.

Abulkarimbiydan so'ng taxtga o'tirgan o'g'li **Abdurahmonbiy** olti oygina taxtni boshqaradi va taxtdan tushirilib, Marg'ilonga hokim etib tayinlanadi. Taxtni **Erdonabiy** egallaydi (1751 — 1752). U o'zining dastlabki qisqa vaqtlik hukmronligi yillarida xonlikni mustahkamlashga harakat qiladi va O'sh hamda O'zgandni bo'ysundiradi. 1758-1759-yillarda esa Xitoy tomonidan zabt etilgan sharqiy Turkistonga ham harbiy yurish uyushtirgan. Shu tariqa, Erdona davrida Qo'qon xonligi g'arbda Buxoro, sharqda Xitoy bilan tengma-teng kurash olib bora olgan davlat darajasiga ko'tarila oldi.

Abdurahimbiyning o'g'li Erdonabiyning hukmronligi ham uzoqqa cho'zilmadi. Biroq Erdonabiy ham tez orada taxtdan tushiriladi va o'rniga **Bobobek** o'tkaziladi (1752—1753). 1745 yildagi qalmiqlarning Qo'qonga qilgan harbiy yurishida Abdurahimbiyning o'g'li Bobobek «oq uylik» qilib olib ketilgan edi. Abdukarimbiyning vafotidan xabar topgan qalmiqlar Bobobekni (1752-1753) Qo'qon taxtiga chiqarish uchun harakat qiladilar va bunga erishadilar ham. Bobobek Qo'qon taxtida o'n oygina hukmronlik qildi. O'ratepa uchun boshlangan harbiy harakatda unga nisbatan suiqasd uyushtiriladi va bu voqea Beshariqda amalga

oshiriladi³⁴⁸.

Erdonabiyning keyingi hukmronligi yillarida (1754—1769) siyosiy vaziyat ancha keskin bo‘lib turadi va xalqning ahvoli birmuncha og‘irlashdi. Erdonabiy o‘zining ikkinchi hukmronligi davrida mamlakat hududini kengaytirishni davom ettirib, yurt obodligi va farovonligini oshirish siyosatini olib bordi. Mamlakat hududiga qo‘shib olingan joylarda ham obodonchilik ishlari olib borilib, ularning fuqarolari davlat himoyasiga olindi. Erdonabiy davlat boshqaruvida O‘rta Osiyoda shakllangan an‘analarni davom ettirib, siyosat yuritdi. Xususan, davlat boshqaruvida o‘tgan asrlarda ham rioya qilib kelingan tartib-qoidalardan biri hukmron doira vakillari, donishmand amaldorlar maslahatiga tayanib ish yuritdi³⁴⁹.

Erdonabiy vafotidan so‘ng taxtga Shohruxbiyning uchinchi o‘g‘li Shodibiyning o‘g‘li **Sulaymonbiy** o‘tkaziladi. Sulaymonbiy-ning taxtga chiqishida mamlakatdagi nufuzli amaldorlar Marg‘ilon hokimi Irisqulibiy va Xo‘jand hokimi Abdurahmon Bahodirlar faoliyati muhim o‘rin tutadi. Biroq u 1769 yilda bor yo‘g‘i olti oygina hukmronlik qilib, fitnachilar tomonidan o‘ldiriladi va taxtni Abdurahmonning o‘g‘li Norbo‘tabiy egalladi³⁵⁰.

Norbo‘tabiy markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun ko‘p harakat qiladi. Dastlab u o‘zboshimchalikka intilgan beklarni markaziy hokimiyatga bo‘ysundiradi. Chust va Namanganda ko‘tarilgan isyon va g‘alayonlarni bostirgach, u yerlarda o‘ziga sodiq kishilarni qoldiradi va Xo‘jandni ham egallaydi. Hukmronligining oxirga yillarida Toshkentni bosib olishga ham intilgan Norbutabiy muvaffaqiyatsizlikka uchraydi va u yuborgan Xonxo‘ja boshchiligidagi lashkar Toshkent yaqinida mag‘lubiyatga uchraydi. Norbutabiy vafotidan so‘ng taxtga uning o‘tli Olimbiy o‘tiradi (1798-1810). Norbo‘tabiyning o‘limi o‘rta asr

³⁴⁸ Махмудов Ш.Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. ном ... дисс. Тошкент. 2007. 34-б.

³⁴⁹ Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими. 35-б.

³⁵⁰ Айрим адабиётлар Сулаймонбекнинг уч ой тахтда ўтирганлиги ва суикасд туфайли ўлдирилганлиги, Сулаймонбекнинг қотиллари эса Абдулла Кушбеги, Фурумсарой ҳокими Ўтов Бакавул ва яна бир қанча қўқонлик аслзодалар Норбўтабийни давлат бошқарув ишини қабул қилиб олишга қўндириб, уни хон деб эълон қилганликлари кўрсатилади. Қаранг: Султонов Ф. Бозорбоев Ф. О‘zbekiston hukmdorlari. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.

boshqaruv tizimiga xos vaziyat – taxt uchun turli da'vogarlar o'rtasidagi kurashni keltirib chiqardi. Xususan, oliy hukmdorning o'limidan so'ng hokimiyat uchun uch guruh o'rtasida kurash boshlandi. Norbo'tabiyning ukasi Hojibek hamda ikki xotinidan bo'lgan ikki o'g'li Olimxon va Rustambek tarafdorlari ushbu siyosiy jarayonni amalga oshirishda faol ishtirok etdilar. Taxt uchun kechgan ushbu kurashda Olimxon (1798-1810) tarafdorlari ustun kelib, oliy hokimiyatni qo'lga kiritishga erishdilar. Qo'qon taxtiga o'tirgan Olimxonning hokimiyat uchun kechgan mazkur siyosiy kurashda g'oliblikni qo'lga kiritishida tog'asi Irisqulibiy va uning tarafdorlari asosiy rol o'ynadilar³⁵¹.

Olimxon (1798-1809) davrida xonlik yerlari kengayib, xonlikning siyosiy va iqtisodiy mavqei o'sdi. Xonlikda harbiy islohot o'tkazildi. Ohangaron, Toshkent, Chimkent va Turkiston viloyatlari xonlikka qo'shib olindi.

Olimxon hukmronligining dastlabki kunlaridan boshlab davlatni mustahkamlash ishiga kirishdi. Birinchi navbatda, u mamlakatda mavjud muxolifotni bartaraf etish uchun faol kurash boshladi. Markaziy hukumatga muxolif bo'lgan kuchlar vakillari – amakisi Hojibek, ukasi Rustambek hamda ularning tarafdorlari Norbo'tabiy davrida markaziy hokimiyatda faoliyat yuritgan Pirmuhammad, Toshmuhammad Mirzo, Buzrukxo'ja, Xonxo'jalar oliy hukmdor tomonidan qatl ettirildi. Bu holat muxolif kuchlarning qolgan vakillarini mamlakatdan Buxoroga qochib ketishiga olib keldi. Olimxon o'z hukmronligining dastlabki davrlaridanoq markaziy hokimiyatni kuchaytirish, markazlashgan davlat tuzishga harakat qildi va bir qator islohotlarni amalga oshirdi. U harbiy sohada ham islohot o'tkazib, qo'shin tarkibida tog'li tojiklardan iborat maxsus ikki guruh tuzdi. Qo'shinning ushbu qismi oliy hukmdorning O'ratepaga qilingan harbiy harakatidayoq o'z samarasini berdi³⁵².

Olimxon hukmronligi yillarida Qo'qon xonligining siyosiy mavqei ancha oshdi. Olimbiy dastlab harbiy islohotlar o'tkazib, qo'shinni ancha kuchaytirdi. Harbiy yurishlar qilib, Angren vohasini, Toshkent, Chimkent va Turkistonni o'ziga bo'ysundirdi.

³⁵¹ Кўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими. 38-б.

³⁵² Кўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими. 38-б.

Toshkentning Buxoro amirligi bilan munosabatlari yaxshi edi, shuning uchun 1803 yilda Qo‘qon xonligi bilan Buxoro amirligi o‘rtasida O‘ratepa uchun bo‘lgan jangda Toshkent Buxoro tomonida turib qatnashgan. Qo‘qon xoni Olimxonning 1799 yilda Toshkentga qilgan harbiy yurishi muvaffaqiyatsiz chiqqach, Olimxon harbiy islohot o‘tkazgan. U 10 ming kishilik maxsus otliq askarlar qo‘shinini tuzgan. 1803 yil Yunusxo‘ja Qo‘qon xonligiga yurish qilib Furumsaroy jangida Olimxondan mag‘lubiyatga uchragan. «Tarixi Shohruxiy» asarida keltirilishicha, Olimxon Toshkentni tasarrufiga olishga tayyorgarlik ko‘rgan. Avval u Qurama hududini egallagan va u yerdan turib 12 ming kishilik qo‘shinni Toshkent atrofidagi qal‘alarni ishg‘ol qilishga yuborgan, natijada To‘ytepa va Niyozbek qal‘alari egallanib, u yerlarga Qo‘qon garnizoni joylashtirilgan. Olimxon Toshkentga 1809 yil Qurama orqali harbiy yurish qilib Kerovchiga kelganda unga Qurama qo‘shini va qilquyruqlar (bosib olingan yerlardagi ko‘chmanchi va o‘troq aholidan zo‘rlab harbiy majburiyatga tortilgan kishilar) qo‘shilgan. So‘ngra To‘ytepa orqali Qo‘yliqqa va nihoyat Salor arig‘i sohiliga yetib kelgan Qo‘qon askarlari shahar atrofidagi muhim qal‘alarni egalladi. Toshkent yaqinidagi Niyozbek qal‘asini egallagan Qo‘qon garnizoni askarlarining tez-tez bosqini tufayli toshkentliklar-ning iqtisodiy ahvoli og‘irlashgan. Toshkent Qo‘qon xonligi tomonidan uzil-kesil bo‘ysundirilgandan keyin shaharni 1810 yildan xon noibi boshqara boshladi.

Bu hududlarni qo‘lga kiritgach, Qo‘qon xonligi bevosita Rossiya bilan tashqi savdo aloqalari uchun yo‘l ochildi. Qo‘qon xonligi kuchayib borishi bilan uning siyosiy maqomi ham o‘zgardi. Dastlabki vaqtlarda «biy» yoki «bek» unvonlarida davlatni boshqargan Qo‘qon hukmdorlari 1805 yilda Olimxon tomonidan joriy etilgan «xon» unvoni bilan yuritiladigan bo‘ldi. Shu vaqtdan boshlab Olimxon «xon» deb e‘lon qilindi va davlat ham Qo‘qon xonligi deb yuritiladigan bo‘ldi. Markaziy hokimiyatni kuchaytirishga bo‘lgan intilishi yo‘lida Olimxon bir qancha yirik amaldorlar va xon xonadonga mansub kishilarni qatl qildirdi, xon hokimiyatning cheksizligini ta‘minladi. Bu esa xondan norozi bo‘lgan amaldorlar va beklarning Olimxondan noroziligi ortishiga olib keldi. Olimxon o‘z ukasi Rustambekni va bir qancha din

pehvolari o'ldirib yuborgach, undan norozi bo'lgan kishilarning soni yanada ortdi, manbalarda ta'kidlanishicha, bu odamlarga xonning ukasi Umarbek boshchilik qilgan.

1810 yilda Olimxon o'g'li Shohruixon bilan Toshkentga qaytayotgan vaqtda Oltiqush mavzesida andijonlik Qambarmirzo tomonidan otib o'ldiriladi. -“U diniy poydevorni qaytadan tashkil etish uchun qator choralar ko'radi. Masalan, diniy unvon hisoblangan «Eshon»ni bekor qiladi, kambag'al, bechoralarga va «qalandarlar»ga yer maydonlari va chorva beradi, shu bilan birga ularni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb qiladi. Ayrim dindor arboblarning to'g'ri ibodat qilishini tekshirish maqsadida imtihon qiladi (sinab ko'radi) va yolg'onchiligi fosh qilinganlarni jazolaydi. Dindor ruhoniylar Olimxonning bu xatti-harakatidan norozi bo'ladilar. Uning Toshkentdaligidan foydalanib, fitna uyushtiradilar, u o'ldirildi, deb mish-mish tarqatadilar. Taxtga uning ukasi Umar o'tqaziladi. Olimxon xiyonatni bilib qolib, qisqa yo'l bilan Qo'qonga jo'naydi, yo'lda esa pistirma qo'yilgan edi. Olimxon 1810 yilda «Olti qush» degan joyda otib o'ldiriladi. Qotil andijonlik Qambar Mirzo edi”³⁵³. Tadqiqotchi SH.Mahmudov esa manbalarga asoslangan holda bu voqeani quyidagicha tavsiflaydi: -“Xonlik tarixiga oid ishonchli manba hisoblangan «Muntaxab ut-tavorix» asarida Olimxonga muxolifatda bo'lgan sarkardalar Irisqulibiy va Jumaboylar ekanligi va bu sarkardalar tomonidan qo'shin ichida fitna uyushtirilganligi hamda Umarxonni taxtga o'tqazish masalasi aynan ular tomonidan amalga oshirilganligi bayon qilinadi”³⁵⁴.

Olimxondan so'ng taxtni ukasi **Umarbek (1810-1822)** egallaydi. Umarxon hukmronligi davrida bo'ysunmay qo'ygan Turkiston, Chimkent, Sayram va Avliyoota egallandi. Jizzax, O'ratepa va boshqa joylar uchun Qo'qon xonlari Buxoro amirligi bilan beto'xtov urushlar olib bordi. Shunga qaramay Umarxon davrida xonlikda madaniy hayot rivojlandi, davlat boshqaruv tizimida ham bir qator islohotlarni amalga oshirildi, jumladan, markaziy boshqaruv tizimini isloh qilinib, shu davrgacha Qo'qonda mavjud bo'lmagan ayrim unvonlar va mansablar, jumladan,

³⁵³ Бобобеков Х.Н. Қўқон тарихи. Т.: «Фан», 1996. 26-б.

³⁵⁴ Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими. 41-б.

mingboshi, shayxulislom kabi mansablarni joriy etildi. 1818 yilda Qo‘qonda katta jome masjidi qurish haqida farmon berib, Umarxon din homiysi sifatida ham o‘z mavqeini oshirib yubordi va «Amir ul — muslimin» unvonini ham qo‘lga kiritdi va amalda diniy va dunyoviy hokimiyat egasi bo‘lib qoldi. Amir Umarxon Toshkentga ham yurish qildi va uni egasi bo‘lib qoldi. Amir Umarxon Toshkentga ham yurish qildi va uni egallab (1811) Lashkar qo‘shbegini shaharga hokim etib tayinladi va Rajab qo‘shbegini Turkistonga jo‘natdi. Turkiston egallangach, unga Shayx Bedil dodxohni hokim etib tayinladi. Amir Haydarga qarshi Jizzax uchun olib borilgan kurashlar Umarxonga muvaffaqiyat keltirmadi. Umarxon davrida Qo‘qon xonligida adabiyot va she‘riyat ancha yuksaldi, iqtisodiy ahvol birmuncha yaxshilandi. «Jannatmakon» nomini olgan Amir Umarxon 1822 yilda kasallanib vafot etdi va taxtni uning 14 yoshli o‘g‘li Muhammad Alixon egalladi. Bu jarayonda yana taxt uchun kurashlar yuzaga keldi va ichki siyosiy vaziyatni keskinlashtirib yubordi. Bu kurashlarga Umarxonning singlisi Oychuchuk oyim sababchi bo‘ldi. Oychuchuk oyim o‘zining o‘g‘li Chinni To‘ra uchun Qo‘qon taxtiga da‘vogarlik qilib, hokimiyatni o‘z qo‘liga olishga harakat qildi. Biroq bu vaqtda hokimiyatda yuqori mavqega ega bo‘lgan Muhammad Alixonning qaynotasi Yusuf mingboshi, shuningdek, hokimiyatga ta’siri kuchli bo‘lgan Zokirxo‘ja shayxulislom va Qosim beklarbegilarning say-harakatlari bilan Muhammad Alixonning hokimiyatga chiqishi ta’minlanadi³⁵⁵.

Muhammad Alixon (Madalixon) davrida (1822—1842) Qo‘qon xonligi iqtisodiy va siyosiy jihatdan ancha yuksaldi. Muhammad Alixon (1822-1842) Sharqiy Turkiston bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarni kuchaytirishga harakat qildi. Xonlik chegaralarini kengaytirib Qorategin, Ko‘lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz va Matcho viloyatlarini bosib oldi. Chegaralarni mustahkamlash maqsadida Pishpak, To‘qmoq, Kushka, Avliyoota va boshqa harbiy istehkomlar qurildi. 1826-1831 yillarda Qashg‘arda xitoyliklarga qarshi kurash olib bordi va halq unga «G‘oziy» nomini berdi. 1830-1831 yillarda Muhammad Alixon Qoshg‘arga yana harbiy harakat uyushtirdi va g‘alabaga erishdi. G‘alaba

³⁵⁵ Воҳидов Ш., Сангирова Д. Шоҳ ва Шоир Мадалихон // Фан ва турмуш, 1998 йил. 5-сон. 24-б.

natijasida 1831 yilgi Pekin - Qo‘qon sulh shartnomasi imzolandi. Shartnomaga muvofiq, Qoshg‘ardagi savdo munosabatlari to‘liq Qo‘qonning nazoratiga o‘tdi³⁵⁶.

Madalixon davrida Buxoro amirligi bilan ham tez - tez to‘qnashuvlar bo‘lib turdi. Bu urushlarning hammasi mehnatkash halq zimmasiga yangi soliqlar solinishi va aholi turmushining og‘irlashuviga olib keldi. Halq g‘alayonlari kuchaydi. Hukmronligining so‘nggi yillarida davlat ishlariga e‘tiborini susaytirgan Madalixondan norozi bo‘lgan kuchlar unga qarshi fitna tayyorlaydilar. Davlat boshqarishda katta tajribaga ega bo‘lgan va xonning yaqin maslahatchisi Mingboshi Haqqulining o‘ldirilishi ularga yanada qo‘l keldi. Fitnaga bosh qo‘shgan Qozi Kalon Toshkent hokimi va boshqalar Madalini taxtdan ag‘darib tashlamoqchi bo‘ldilar. Ular Buxoro amiri Nasrulloqa elchi yuborib, o‘z niyatlarini amalga oshirishda undan yordam so‘radilar. 1842 yil aprelda katta qo‘shin bilan Qo‘qonga bosib kelgan Nasrullo shahar yaqinida joylashdi.

O‘ziga qarshi norozilikning kuchayib borishidan havfsiragan Madalixon 1841 yil noyabr oyida ukasi **Sulton Maxmud** foydasiga taxtdan voz kechgan bo‘lsada, sulh so‘rab amir Nasrullo huzuriga elchi yuboradi. Biroq uning barcha takliflari rad etiladi va Madalixon oilasini va o‘ziga sodiq ming kishini hamda xazinani olib, Namangan tomonga qochadi. Biroq ular Amir Nasrullo farmoni bilan tutib keltiriladi va Madalixon, uni onasi Nodirabegim, Sulton Maxmudxonlar qatl etiladi. Qo‘qonda 12 kun turgan amir Nasrullo bu yerda Ibrohim dodxohni qoldirib o‘zi Buxoroga qaytadi. **Ibrohim dodxohning** shahar aholisiga zulmni - haddan oshirib yuboradi. Avaz Muhammad Attor Xo‘qandiy, Hakimxon to‘ralarning o‘z asarlarida qayd etishlaricha, Ibrohim dodxoh aholiga nisbatan moli omon solig‘ini solishdan tashqari chor puli, panj puli kabi yana ko‘plab soliqlar va yig‘imlar joriy qilgan, xatoki ekilgan har bir daraxt uchun beshdan bir qism miqdorida soliqlar belgilangan³⁵⁷. Iqtisodiy zulmning haddan oshib ketganligi bois, 3 oy o‘tgach unga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Qo‘qon

³⁵⁶ Кўкон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими. 44-б.

³⁵⁷ Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худойёрхана). –Т.: Фан, 1973. С.29.

xonligining mustaqilligi uchun kurash boshlagan siyosiy kuchlar tomonidan bu vaqtda Talasda bo‘lib turgan Hojibekning o‘g‘li **Sheralixon** xonlik taxtiga taklif etiladi. Xonlikda buxoroliklarga qarshi kurash kuchayib ketadi, Ibrohim dodxoh va uning ukasi Isxoq Xo‘jand orqali Buxoroga qochadi. Qo‘zgonchilar tomonidan Hojibekning o‘g‘li Sheralixon Qo‘qon xoni deb e‘lon qilinadi. Sheralixon taxtga o‘tirish bilan shaharning mudofaa tizimini va mudofaa devorlarini mustahkamlashga farmon beradi. 1842 yil kuzida Nasrullo Qo‘qonni egallash maqsadida katta qo‘shin bilan Qo‘qonga keladi. Qo‘qonliklar unga qarshi qattiq qarshilik ko‘rsatadilar va qamal cho‘zilib ketadi. Bu orada esa Xiva xonligi qo‘shinlarining Buxoro amirligi hududlariga hujum haqida habar keladi va Nasrullo qamalni to‘xtatib ortga qaytishga majbur bo‘ladi. Qo‘qonni himoya qilishda katta jonbozlik ko‘rsatgan Musulmonqul qipchoq mingboshi unvoniga sazovor bo‘ladi. Davlat boshqaruvida asta-sekin qirg‘iz va qipchoqlarning mavqei ortib boradi va ayni vaqtda markaziy hokimiyat uchun ular o‘rtasidagi kurashlar ham keskinlashib boradi, shunga qaramay, 1845 yilgacha xonlikda nisbatan bir oz tinchlik hukm suradi. Xonlik tarkibidan chiqib ketgan viloyatlar va beklklarda qaytadan xonlik hokimiyati tiklanadi.

1845 yil yozida Olimxonning o‘g‘li **Murodbek** Sheralini taxtdan tushirish maqsadida Buxoro amiri qo‘shinlari yordamida Qo‘qonga bostirib keladi. Musulmonqulning shaharda yo‘qligi sababli mahalliy ayonlar tomonidan qo‘llab quvvatlangan Murodbek Sheralixonni o‘ldirib, taxtni egallaydi. Ko‘proq qirg‘izlar tomonidan qo‘llab quvvatlangan Murodxonning taxtga chiqqanligidan norozi bo‘lgan Musulmonqul esa O‘shda ko‘tarilgan qirg‘izlar qo‘zg‘olonini bostirib, bu vaqtda Namangan hokimi bo‘lib turgan Sheralixonning o‘g‘illaridan biri Xudoyorxonni Andijonda Qo‘qon xoni deb e‘lon qiladi. darhol qo‘shin bilan Qo‘qonga qaytib keladi va bor - yo‘g‘i o‘n bir kun taxtda o‘tirgan Murodbekni taxtdan tushirib, qatl qiladi³⁵⁸. Sheralixonni taxtdan olib, o‘ldirilishiga sababchi bo‘lgan ulamolar va

³⁵⁸ Қаранг: Зиёев Х.З. Қўқон хонлиги (катта мақола). <http://shosh.uz>; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2012. 361-б.

ayonlar – Zokirxo‘ja shayx ul-islom, domla Holmuhammad rais, domla Xo‘jamquli a‘lam, Sulaymonxo‘ja, shahar va zamindor ashroflardan Raxmatilla dodhox, Sotiboldi dodhox, Oxun dodhox, Muhammadkarim xalfa va boshqalar Musulmonqul tomonidan qatl ettiriladi³⁵⁹.

SHERALIXON

Sheralixon Hojibek o‘g‘li (taxm. 1797—1845)

Qo‘qon xoni (1842—45). 1842 yil Buxoro amiri Nasrullo Qo‘qonni bosib olib Ibrohim Xayolni noib etib tayinlab ketadi. Uning zulmidan norozi bo‘lgan qo‘qonliklar qo‘zg‘olon ko‘taradilar va xon avlodlaridan bo‘lmish Sheralini Qo‘qon xoni deb e‘lon qiladilar. Sherali qo‘zg‘olonga rahbarlik qiladi. Qo‘zg‘olonchilar Qo‘qonga kiradilar va Buxoro qo‘shinini tormor keltiradilar. Ibrohim Xayol Buxoroga qochgan. Sherali Buxoro amiri Qo‘qonga yangi yurish uyushtirishi mumkinligini bilib, qabila va harbiy boshliqlar, aminlar, oqsoqollar va obro‘li, nufuzli arboblarni kengashini chaqirib, unda shoshilinch ravishda miltiq, qilich, to‘siqlar tayyorlashga qaror qilingan. Qo‘qon atrofida to‘siq va qo‘rg‘onlar barpo qilishga kirishilgan, lekin qurilish nihoyasiga yetmay, Buxoro qo‘shini Qo‘qonga yaqinlashib shaharni qamal qiladi. Buxoro qo‘shinlari tevarak atrofdagi qishloqlarni vayron qiladi, lekin shaharni egallay olmaydi. Qo‘qon mudofaasida ayollar ham faol ishtirok etadilar. Nasrullo 40 kunlik qamaldan so‘ng Buxoroga qaytib ketgan. Sherali o‘g‘li Abdurahmonbekni amiri lashkar qilib tayinlab, uni Toshkentni zabt etish uchun yuboradi. Qo‘shinlar Sirdaryodan o‘tib, Quramaga kelganda Xo‘jand hokimi Xudoyorboy ahvolni aniqlab, amir Nasrulloga xoinlik qiladi va Sheralining oliy hokimiyatini tan oladi. Qo‘qon xoni unga Xo‘jand viloyati hokimligini tortiq qiladi. Qo‘qon va Toshkent qo‘shinlari o‘rtasidagi jangdan so‘ng Toshkent va Dashti Qipchoq zabt etilib, qaytadan Qo‘qon xonligi tarkibiga kiritilgan.

Taxtga Sheralixonning 13 yoshli o‘g‘li **Xudoyorxon** o‘tkaziladi va hokimiyat amalda Musulmonqul qipchoq qo‘liga o‘tib qoladi. Yosh Xudoyorxon qaynotasi Musulmonqul va qipchoqlar ta‘sirida qolib, davlat boshqaruvidan butunlay chetlatilgan edi. «Shunday zamon bo‘ldiki, - deb yozadi zamondosh muarrix Avaz Muhammad, - har kim o‘zicha hukm surardi. Xon unvoni ma‘nosiz bo‘ldi. Musulmonqul va qipchoqning boshqa ashroflari o‘lkani o‘zaro bo‘lib oldilar»³⁶⁰.

Bu holat 1850 yilning oxirigacha davom etdi. Musulmonqul-ning cheksiz hokimiyat egasi bo‘lib qolganligi va qipchoqlarning mavqei

³⁵⁹ Тарихи Туркистон. 12-13-бб.

³⁶⁰ Тарихи Туркистон. 13-14-бб.

oshganidan norozi bo'lgan amaldorlar birlashib, Musulmonqulga qarshi kurashlarga tayyorlana boshladilar, 1852 yil xazinani talon-taroj qilishda ayblangan dasturxonchi va risolachi Toshkentga qochib ketganligi uchun 40 ming kishilik qo'shin bilan Toshkentga yurish muvaffaqiyatsiz tugadi. 1852 yilning iyun oyida Musulmonqul yana 30 ming kishilik qo'shin bilan Toshkentga yurish qiladi. Lekin shu vaqt Xudoyorxon Chirchiq bo'yida jang bo'layotgan vaqtda Toshkentliklar tomonga o'tib ketadi. Musulmonqul tor-mor etiladi. 1852 yil 9 oktabrda Xudoyorxon xonlikning turli hududlarida qipchoqlar qirg'inini uyushtiradi va natijada saroyda yuqori mavqelarni egallab turgan amaldorlar bilan bir qatorda 20 mingdan ortiq qipchoq o'ldiriladi. Qipchoq amaldorlaridan O'tabbiy va Normuham-mad qo'shbegilar tirik qoladilar. Birinchisini xon, ikkinchisini Toshkent ashroflari himoya qiladilar. Endi Xudoyorxon amalda (1852 y) o'z xokimiyatida mustaqil bo'ldi. O'tabbiy qo'shbegi mingboshilik lavozimiga ko'tarildi. Xudoyorxon qolgan qo'shini bilan Toshkentga kiradi va uning mustaqil xonlik davri boshlanadi. Shu orada xon yo'qligidan Abdullobek ibn Poshaxo'ja foydalanib, Qo'qonda hukumatni qo'lga oladi. Ammo Toshkentdan Mirzod qo'shbegi va mullo Karimquli dasturxonchi yetib borib, Abdullobekni o'ldiradi. Mirzod qo'shbegi o'zini xon deb e'lon qiladi. Unga qarshi Xudoyorxon Toshkent lashkari bilan yetib keladi va uni qatl etadi³⁶¹. Qirg'iz-qipchoq qo'shini ham Bilqalama degan mavzeda jam bo'lishadi.

Xudoyorxon esa qo'shin yig'ib, qipchoqlarning qolgan qo'shinlariga qarshi Bilqillama mavzesida akasi Mallabekning madadi bilan ularga kuchli zarba beradi. Qipchoqlar Namangan va To'raqo'rg'onga hujum qilmoqchi bo'lsalar ham mag'lub bo'lib orqaga qaytadilar. Ikkinchi jangda ham xon g'alaba qozonadi. 1853 yil kuzida esa qipchoqlar o'zaro maslahatlashib Musulmonqulni tutib xonga berishadi. Xudoyorxon uni Yo'lchibek dodxoh himoyasida Qo'qonga yuboradi va Musulmonqul Qo'qonda dorga osiladi³⁶². Xudoyorxon o'z hokimiyatini mustahkamlaydi va mustaqil ravishda davlat boshqaruviga kirishadi.

Bu vaqtda esa Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligiga qarshi harbiy

³⁶¹ Тарихи Туркистон. 18-б.

³⁶² Из истории Кокандского ханства. С.44-45.

harakatlarni kuchaytira boshlagan edi.

XIX asr ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligida siyosiy jarayonlar.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Olimxon (1798-1810), Umarxon (1810-1822) va qisman Muhammad Alixon hukmronligi yillarida (1822-1841) birmuncha kuchli va markazlashgan davlatga aylangan Qo‘qon xonligi XIX asr o‘rtalariga kelib, siyosiy va harbiy jihatdan inqirozga uchray boshlagan bo‘lsada, o‘zining kuch - qudratini saqlab turardi. 1842 yilda Buxoro amiri Nasrullo tomonidan xonlik poytaxti Qo‘qon shahrining bosib olinishi va xon oilasining o‘ldirilishi voqealari ham xonlikning o‘z qudratini saqlab qolishiga to‘sqinlik qila olmadi. 1842 yilning o‘zidayoq amirga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar natijasida Ming sulolasi qaytadan hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi. Taxtga qirg‘iz-qipchoq zodagonlarining qo‘llab-quvvatlashi bilan Sheralixon o‘tirdi. Uning taxtga chiqishida ko‘maklashgan qirg‘iz-qipchoq urug‘lari biylar asta-sekin davlat boshqaruvidagi asosiy mansab va lavozimlarni qo‘lga kiritib boshladilar, bu esa xonlik ichki hayotida siyosiy keskinlikning kelib chiqishidagi asosiy omillardan biri bo‘lib qoldi. Bunga qarshilik ko‘rsatishga uringan Sheralixon esa 1845 yilda saroy fitnalari oqibatida o‘ldirildi.

XIX asr 50-yillari xonlikdagi ichki siyosiy bo‘hronlar eng kuchaygan jarayonlar bilan boshlandi. Birinchidan, Sayyid Muhammad Xudoyorxon 1844 yildan buyon taxtga egalik qilib kelayotgan bo‘lishiga qaramay, hukmdorlik jilovini to‘lalagicha o‘z qo‘liga ololmagan edi. Dastlabki yillarda Musulmonqul mingboshi va qipchoq amaldorlarining saroydagi kuchli ta’siri bunga yo‘l bermagan bo‘lsa, keyingi yillarda o‘zaro taxt talashishlar bu imkoniyatlarni yo‘qqa chiqargan edi. Bu holni uning hukmronlik yillarida xonlikning turli hududlarida ro‘y bergan qo‘zg‘olonlar, norozilik harakatlarida ham kuzatish mumkin edi.

Ikkinchidan, 50-yillarga kelib, Rossiya imperiyasining bosqinchilik yurishlariga qarshi kurashga ham yetarli e’tibor berilmaganligi va siyosiy ojizlik bosqinchilikning kengayib ketishi va jiddiy tus olishiga, pirovard natijada esa xonlikning halokatga uchrashiga olib kelgan edi.

Xudoyorxon hukmronligi yillarida yuzaga kelgan sharoitda boshboshdoqlik, taxtga bo'ysunmaslik va markaziy hokimiyatga itoatsizlik kuchayib ketdi.

Musulmonqulning o'limi va qipchoqlarning qirg'in qilinishi bilan vaziyat bir muncha ijobiy tus olgandek bo'ldi, biroq, bir tomondan ichki kurashlar va ikkinchi tomondan Rossiya imperiyasining harbiy tajovuzlari tufayli xalqning iqtisodiy ahvoli og'irlashdi va bu eng birinchi navbatda Xudoyorxondan umumiy norozilikning kuchayishiga sabab bo'ldi. Shunday norozilik harakatlaridan biri 1858 yil Toshkent bekligiga qarashli hududlarda bo'lib o'tgan edi.

Bu vaqtda Buxoro amiri Nasrullo O'ratepani qamal qilib, qo'qonliklarni mag'lubiyatga uchratadi va Ho'jandga yurish qiladi. Biroq, amirning yurishi shahar hokimi Yoqubbek Badavlat tomonidan to'xtatiladi va amir chekinishga majbur bo'ladi.

Bu voqealardan so'ng Mallabek xonning akasi sifatida eng nufuzli amaldorlardan Mirzo Ahmad qo'shbegi va Do'stmuhammad dasturxonchilarni Xudoyorxonning yurt va fuqaro holidan bexabar va g'ofil bo'lishida asosiy aybdorlar hisoblab, ularni qatl qilmoqchi bo'ladi. Biroq boshqa amaldorlarning aralashuvlaridan so'ng o'z fikridan qaytib, odamlari bilan Qo'qondan Andijonga ketadi. Bu yerda u o'ziga yaqin tarafdorlarni to'plab, hokimiyatni Xudoyorxondan tortib olish uchun harakat boshlaydi.

Mallaxon yurtda tartib o'rnatish, saroydagi boshboshdoqliklarni tugatish, o'zaro fitnalarga barham berib, ayni vaqtda kuchayib borayotgan Rossiya imperiyasining bosqinchilik tajovuzini oldini olish maqsadida hokimiyat uchun kurash olib borgan edi. Uning bu maqsadini ko'pgina amaldorlar va davlat arboblari, din peshvolari ham qo'llab quvvatlagan edilar. Biroq, Mallaxonning taxt uchun kurash olib borishi va taxtga kelishi voqealariga bundan avvalgi paytlarda hokimiyat egalari bo'lgan va davlat siyosiy boshqaruviga nihoyatda katta ta'sir o'tkazib turgan qirg'iz - qipchoq zodagonlarining maqsadlari asosida amalga oshirildi, deb qarash noto'g'ri bo'ladi. Garchi bunda katta harbiy kuch va mavqe egalari bo'lgan qirg'iz - qipchoq zodagonlari Mallaxonga yaqindan yordam bergan bo'lsalarda, bu kurash saroydagi hokimiyat uchun intilayotgan

kuchlarning o‘zaro to‘qnashuvi, fitnalar, taxtga bo‘ysunmaslik va Xudoyorxonning fuqarolar barcha qatlamlari manfaatlarini ko‘zlab siyosat yuritmaganligi, qolaversa bir qancha vaqtlardan buyon taxtni qo‘lga kiritishni ko‘zlab yurgan Mallaxonning shaxsiy manfaatlari asosida yuzaga kelgan edi, deb ham qarash lozim.

Mallaxon taxtga o‘tirgach, birinchi navbatda xonlikda tartib o‘rnatishga va xon hokimiyatini kuchaytirishga kirishadi. Davlatni boshqarishda Mallaxon qattiq siyosat yuritadi. Qo‘qon xonligidagi ichki siyosiy vaziyatni diqqat bilan kuzatib boryotgan rus harbiylari Mallaxonning taxtni egallash voqealarini ham nazardan chetda qoldirmaganlar. Bu haqda Sibir korpusi qo‘mondoni general Gosford 1859 yil 4 yanvarda harbiy vazirga yuborgan maxfiy telegrammasida – “Mallabekning xonlik taxtiga o‘tirgani tasdiqlandi. Xudoyorxon doimiy yashash uchun Ho‘jandga yuborildi va barcha xuquqlaridan mahrum qilindi. Yangi xonni xalq qo‘llab - quvvatlamogda”, - degan so‘zlarni yozgan edi.³⁶³

Mallahon xonlikning harbiy salohiyatini oshirishga va Rossiya imperiyasining harbiy tajovuziga qarshi kurashga tayyorgarlik ko‘rishga kirishadi.

1859 yil bahorida Buxoro amiri Qo‘qon xonligiga qarshi yurish boshlaydi. U Mallaxon oldiga xonlikni ikki qismga bo‘lish, Qo‘qon va unga tobe viloyatlarni Madalixonning o‘g‘illaridan biriga berish,³⁶⁴ Mallaxonning o‘ziga esa Toshkent viloyatiga hokimlik qilish shartini qo‘yadi. Biroq, bu shart Mallaxon tomonidan qat’iyan rad etiladi. Amir O‘ratepani bosib oladi va Nov qal’asiga yurish qiladi. Uni egallagach, bu yerda tajribali qo‘mondonlaridan biri Qanoatshoh otaliqni qoldiradi. Biroq, amir ketishi bilanoq, Qanoatshoh Mallaxon tomoniga o‘tib, Nov qal’asini tark etadi. Qanoatshohning qo‘qonliklar tarafiga o‘tishi kuchlar nisbatini Qo‘qon foydasiga o‘zgartirib yuboradi va Buxoro amiri uchun og‘ir oqibatlariga olib keladi va ularni chekinishga majbur qiladi.

³⁶³ З.Илхомов.Н.Расулова XIX асрнинг 50-йилларида Қўқон хонлигида ички сиёсий зиддиятларнинг кучайиши (манбавий-методологик таҳлил). Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда. Мавзусидаги иккинчи Республика илмий анжумани (илмий мақолалар тўплами). 2012 йил. 157-160-бб.

³⁶⁴ Айнан қайси ўғли эканлиги кўрсатилмаган.

Oradan birmuncha vaqt o'tgach, Buxoro amiri Shahrisabz tomondan yurish boshlaydi. Bu haqda habar kelishi bilanoq, Mallaxon va Aliquli eshikog'asi qo'shinga bosh bo'lib, Zomin orqali Jizzaxga yuradi. Amirning yurishni kuchaytirganligini eshitib, qo'qonliklar ham o'z yurishlarini to'g'ri Samarqandga qarab davom ettiradilar. Mirzo Olim Mushrifning yozishicha, amir bundan nihoyatda qattiq xavotirlanib, darhol yurishni to'xtatganligini va Mallaxon huzuriga elchi yuborganligini yozadi.³⁶⁵

Amir Muzaffar Samarqanddan qaytgach, muzokaralar boshlanadi. Bunda Mallaxon nomidan elchi Boboho'ja Shayxulislom muzokarlarda ishtirok etadi. Natijada ikki davlat o'rtasida Qozoqbuloq mavzesi chegara etib belgilanadi va xonlikning Buxoro bilan munosabatlarida bir oz barqarorlik yuzaga keladi.³⁶⁶

1859 yil oxirlariga kelib, Qo'qon xonligining ayrim qal'alari Rossiya imperiyasi harbiy kuchlari tomonidan bosib olinadi. O'lkaning musulmon aholisi bundan nihoyatda tashvishlanib, Mallaxondan kofirlarga qarshi muqaddas urush - g'azovot boshlashni talab qiladilar. Mallaxon, agar xonlikning ichki hududlarida osoyishtalik saqlansa, shu qishda yoki erta bahorda urush boshlashga tayyor ekanligini bildiradi.³⁶⁷

Mallaxon Rossiya imperiyasi qo'shinlariga qarshi kurashda Buxoro amirligi bilan birlashishga ko'zi yetmagach, Xiva xonligi bilan harbiy ittifoq tuzishga intiladi. 1859 yil noyabr oyi boshlarida shu masalada Xiva xoniga elchilar yuboradi. 28 noyabrda har ikki xonlik o'rtasida shartnoma tuziladi va bunga ko'ra, qishda, daryo muzlaganda har ikki xonlikning qo'shinlari chor bosqinchilari ustiga yurish qilishga kelishib oladilar.³⁶⁸

Shu bilan bir vaqtda Mallaxon 1859 yil dekabrda o'ttiz kishidan iborat elchilikni imperator huzuriga ayrim siyosiy masalalarni hal etish, jumladan Oqmasjidni qaytarib berishni talab qilib jo'natadi.

³⁶⁵ Ансоб ус – салотин ва таворих ул – хавокин. 65-б.

³⁶⁶ Воҳидов Ш.Х. XIX аср иккинчи ярми ва XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнавислик мактабининг ривожланиши. –Т.: 1999. 50-б.

³⁶⁷ XIX асрнинг 50-йилларида Қўқон хонлигида ички сиёсий зиддиятларнинг кучайиши (манбавий-методологик таҳлил). 157-160-бб.

³⁶⁸ XIX асрнинг 50-йилларида Қўқон хонлигида ички сиёсий зиддиятларнинг кучайиши (манбавий-методологик таҳлил). 157-160-бб.

Biroq, bu elchilar hech qanday natijaga erisha olmadilar. 1860 yil aprelida Hoja kitobdor boshchiligida Sibir orqali Peterburgga yuborilgan navbatdagi elchilik ham natijasiz tugadi.

So‘nggi davrlarda Qo‘qon xonligini boshqargan xonlardan faqatgina Mallaxon harbiy sohaga jiddiy e‘tibor bilan qaragan edi, unga bu ishlarda Aliquli Amirlashkar ham yaqindan ko‘mak bergan edi. - «Bu Turkiston xonlaridan, - deb yozadi tarixchi Isxoqxon Ibrat, - ikki kishi fuqaro va millat uchun harakat etgon edi. Biri bu Amirlashkar va biri marhumi Mallaxon [edi], [ular] to‘plar quydurub, miltiqlar yasab, korxonalar qilib, to‘plar uzrasig‘a kumushlar bila yozuvlar yozib, yaxshi diqqat etgon edi».³⁶⁹

Shunga qaramay, 50–yillarning oxiri va 60–yillarning boshlariga kelib, asosan Mallaxon davrida qurollanishga va harbiy ahvolni yaxshilashga e‘tibor kuchaydi. 1853 yilda Qo‘qonda 30 tagacha, Toshkentda 20 tagacha, Turkistonda 2 ta, Sirdaryo bo‘ylab joylashgan qal‘alarda 1 tadan 3 tagacha to‘p va zambaraklar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bu davrga kelib ularning soni va sifati ancha o‘ydi. Bular asosan Qo‘qondagi va Toshkentdagi to‘p quyish va miltiq yasash ustaxonalarida tayyorlanar edi. Zambaraklar asosan mis, temir va cho‘yandan quyilar edi. To‘p quyish uchun mis Rossiya va Sharqiy Turkistondan keltirilardi. Bu xusudda Orenburg korpusi qo‘mondoni polkovnik Dandevillning harbiy vazirga yozgan quyidagi axborotnomasini keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir: - «Turkistonga afg‘onistonlik bir kishi keldi va Turkiston hokimiga yangi zambaraklar quyishni taklif qildi. U bu ish bilan Kobulda shug‘ullanganligi hamda Yevropanikidan qolishmaydigan portlovchi to‘p o‘qlari yasashni bilishini ham aytdi. Bek buni bajonidil qabul qildi».³⁷⁰

Mallaxon qurollarni takomillashtirish bilan birga harbiy tayyorgarlikka ham katta e‘tibor beradi. Bunday harakatlar Aliquli Amirlashkar davrida ham davom ettirildi. Aliquli Amirlashkar o‘z faoliyati davomida muntazam qo‘shin sonini oshirishga harakat qildi va 1863 – 1864 yillarga kelib, xonlikda qirq ming kishiga yetkazildi. Bu qo‘shinlar barcha yirik shahar va qal‘alarga taqsimlangan edi. Amirlashkar buyrug‘i

³⁶⁹ Фарғона тарихи. –Б.308.

³⁷⁰ ЎзР МДА. 715-ф., 1-р., 23-й.ж. 109-114 - вв.

bilan bir kundayoq Qo‘qon yoki Xo‘jandda o‘n–o‘n ikki ming kishilik qo‘shin yig‘ilishi mumkin edi.³⁷¹

Bu qo‘shinlar hamda har bir qal‘a o‘z tug‘i va bayrog‘iga ega bo‘lgan. Masalan, To‘qmoq bosib olinganda, u yerdan ikkita bayroq, cho‘yan to‘p, 11 pilta miltiq, bir qancha pichoq, qilich, nayza hamda 500 kg porox o‘lja olingan. Chimkent bosib olinganda esa, 4 bayroq, 11 tug‘, 19 cho‘yan va 8 mis zambarak chor qo‘shinlari tomonidan o‘lja olingan. Bu o‘ljalar orasida bayroqlar alohida ahamiyat kasb etgan.

Aliquli Amirlashkar boshchiligidagi Qo‘qon lashkarining alambardori Mambet ponsad bo‘lganligi tarixiy manbalardan ma‘lum.³⁷² Biroq, xonlik armiyasi bayrog‘ining qanday shakl va ko‘rinishga ega bo‘lganligini afsuski, hozircha aniqlashning imkoni bo‘lmasada, shu o‘rinda arxiv hujjatlarida saqlanib qolgan ma‘lumotlar e‘tiborni jalb etadi: - «Sirdaryo chizig‘ida o‘lja olingan ikki bayroqni sizga yuborishni o‘zimga sharaf deb bilaman. Birinchisi qizil rangli bo‘lib, Turkiston shaxridan olingan, ikkinchisi Oqbuloqdan o‘lja olingan bo‘lib, yaltiroq tovlanuvchi ranglardan iboratdir». Bu bayroqlar Orenburg o‘lkasi qo‘shinlari qo‘mondoni general adyutant Bezak tomonidan 1864 yil 21 noyabrda harbiy vazirga yuborilgan. Manbalarda yana ta‘kidlanishicha, Madalixonning Buxoro amiri Nasrulloqa qarshi (1842 y) besh tug‘li lashkar bilan jangga kirgani qayd etilgan. Unda yozilishicha, tug‘lar ko‘k, oq, sariq, qizil ranglarda va bir bayroq qora rangda bo‘lgan.³⁷³

Qo‘qon xonligining harbiy jihatdan oldingi yillarga nisbatan qudratga erishuvi, Rossiya imperiyasidek qudratli raqib bilan tengma – teng kurashlar olib borishi bevosita Aliquli Amirlashkarning harbiy sohada ham olib borgan faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Mallaxon davrida olib borilgan harbiy islohotlarda yirik davlat amaldori sifatida Aliquli Amirlashkarning ham xizmatlari katta bo‘lgan bo‘lsada, Sulton Sayyidxon hukmronligi yillarida (1863 – 1865 yy) siyosiy hokimiyatni amalda qo‘lga olgan Amirlashkar bu islohotlarni yanada faolroq olib bordi. Otliq va

³⁷¹ Ўрус лашкарининг Туркистонда тарих 1269-1282 саналарда қилғон футухотлари. –Б.59.

³⁷² Қаранг: Веселовский В. Киргизский рассказ о русских завоеваниях в Туркестанском крае / Текст, перевод и приложения. – Спб., 1894 –С.5-21; Ўрус лашкарининг Туркистонда тарих 1269-1282 саналарда қилғон футухотлари. –Б.2-7.

³⁷³ Фаройиб ус-сипох. –Б.31а.

piyoda qo‘shinlarning jang vaqtidagi harakatlarini muvofiqlashtirish, harbiy taktika va ayniqsa harbiy intizomning mustahkamlanganligi uning rus bosqinchilariga qarshi bergan qaqshatqich zarbalaridan ham seziladi. Aliquli davrida quydirilgan o‘zining sifati, turli hajmdagi o‘qlar otishga mo‘ljallangan o‘lchamlari bilan ajralib turgan. Jang vaqtlarida ularni mohirona ishlata olganlar va shunigdek, avvaldan mavjud bo‘lgan «xitoycha» deb atalgan zambaraklardan ham foydalanilgan.

Aliqulining o‘zi ham janglarda to‘p jangiga rahbarlik qilgan. Bunda albatta, xonlik qo‘shinlarining to‘pchiboshisi hindistonlik Jomador ham katta o‘rin tutgan va xonlikning harbiy qudrati oshib borishida to‘plarning takomillashtirilayotganligi, bunda ayniqsa, Toshkentdagi to‘p quyish korxonasi katta ahamiyat kasb etayotganligi rus manbalarida ham e’tirof etilgan. Xonlikning ichki siyosiy hayotida davom etayotgan keskinliklar natijasida 1862 yil 23 fevral kuni Mallaxon o‘ldiriladi. Taxtdan quvilgach, yana taxtni egallash ishtiyoqida yurgan Xudoyorxon ushbu vaziyatlardan foydalanib, Buxoro amiri qo‘shinlari yordamida Qo‘qonni egallash uchun harakat boshlaydi. Amir Muzaffar ko‘magida dastlab Ho‘jandni egallagan Xudoyorxon osonlik bilan Qo‘qonni egallaydi. Chunki yuzaga kelgan siyosiy vaziyat qo‘qonliklarga o‘z qo‘shinlarini birlashtirib, buxoroliklarga va Xudoyorxonga qarshi chiqishga imkon bermagan edi. Xudoyorxonning qaytadan taxtni egallashi yana ko‘pgina amaldorlarda va harbiy boshliqlarda norozilik uyg‘otadi. Uning taxtga da’vogarlik qilib harakat boshlashining o‘zidayoq ko‘plab qirg‘iz, qipchoq urug‘lari avvalgi qirg‘inlarni unutmaganliklari va taxtga ana shu xalqlarni ham boshqalar bilan barobar ko‘rib, ish tutuvchi xon o‘tkazish taraddudiga tushadilar. Bu aynan 1863 yil, Rossiya imperiyasi bosqinchilari xonlikning ichkari hududlariga shiddat bilan bostirib kelayotgan vaqtlarga to‘g‘ri kelgan edi.

XIX asrning o‘rtalaridan boshlab bir asrdan ortiqroq davom etayotgan Rossiya imperiyasining o‘zbek xonliklariga bosqinchilik yurishlari kuchaytirildi. Dastlabki harbiy harakatlar asosan Qo‘qon xonligiga qarshi qaratildi. 1853 yilda xonlikning chegara qal’asi hisoblangan Oqmasjid bosib olindi. XIX asrning 50-60 yillar davomida xonlikning bir qator qal’alari va shaharlari, jumladan Avliyoota, Turkiston,

Chimkent (1864 y), Toshkent (1865 y) kabi yirik iqtisodiy va siyosiy markazlari ham bosib olindi. Asosiy hududlaridan ajralgan Qo‘qon xonligi 1868 yilda Rossiya imperiyasi bilan siyosiy qaramlikka asos bo‘luvchi shartnomani imzoladi. XIX asrning 70-yillariga kelib esa xonlikda Xudoyorxonning ichki siyosati va ayni vaqtda Rossiya imperiyasining hukmronligiga nisbatan munosabati norozilik kayfiyatini kuchaytirib yubordi. Hokimiyatni undan tortib olishga harakat qilgan siyosiy kuchlar soxta Po‘ladxon – Mulla Isxoq Hasan o‘g‘li boshchiligida xonga qarshi kurash boshladi. Tez orada bu kurashga xon xonadoni vakillari va yirik amaldorlar ham qo‘shildi va 1875 yilda Xudoyorxondan taxtni tortib oldi. Biroq Nasridinxon (1875-1876 yy) boshchiligidagi yangi hukumat mamlakatning siyosiy barqarorligini ta‘minlay olmadi va oqibatda xonlikda yangidan fuqarolar urushi xavfi yuzaga keldi. Bu vaziyatdan chiqish uchun kurashni Rossiya imperiyasiga qarshi qaratgan Nasriddinxon va Po‘ladxonlar muvaffaqiyatsizlikka uchradilar. 1875-1876 yillar davomida bo‘lib o‘tgan shiddatli janglardan so‘ng 1876 yilda Qo‘qon xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan butunlay bosib olindi va mustaqil davlat sifatida tugatildi.

Qo‘qon xonligining ma‘muriy-hududiy tuzilishi va boshqaruv tizimi.

Qo‘qon xonligi tarixiga oid manbalarda xonlikning boshqaruv tizimi haqida, boshqaruvdagi unvon va mansablar va ularning boshqaruvdagi vazifalari haqida ko‘plab ma‘lumotlar yozib qoldirilgan. Muhammad Hakimxon to‘ra, Mirzo Raxim Toshkandiy, Mullo Olim Maxdumhojalarning asarlarida bu kabi ma‘lumotlarni aniq tahliliy jihatdan ko‘rsatib berilganligini ko‘rish mumkin³⁷⁴.

Qo‘qon honligida Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, Chimkent, Jizzax, O‘sh, Xo‘jand, O‘ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega

³⁷⁴ Қаранг: Воҳидов Ш.Х. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. – Т.: 1996; Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. –Т.: Янги аср авлоди, 2006; Турсунов Б. Мансабнинг моҳияти ва маъсулияти (Қўқон хонлигидаги ҳарбий бошқарув тизимининг айрим жиҳатлари) // Таълим ватафаккур. – Тошкент, 2005. – №1. – Б. 30-31; Махмудов Ш.Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. ном дисс. Тошкент. 2007.

boʻlgan oʻnlab shaharlar mavjud boʻlgan. Xonlikning poytaxti Qoʻqon shahri boʻlib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi. Bekliklarning ayrimlari turli davrlarda xonlik tarkibiga kirib chiqib turgan. Asosiy bekliklar sifatida Namangan, Margʻilon, Andijon, Toʻraqoʻrgʻon, Oʻsh, Oʻratepa, Xoʻjand, Toshkent, Turkiston, Chimkent va boshqalar boʻlgan. Bekliklar xon tomonidan tayinlanadigan hokim – qoʻshbegi tomonidan boshqarilgan, kichik maʼmuriy birliklar amin va oqsoqolliklarga boʻlingan. XVIII asr oxirlari - XIX asr manbalarida Qoʻqon xonligi beklik, baʼzan viloyat va sarkorlik sifatida tilga olingan maʼmuriy – hududiy qismlarga boʻlingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalarda Qoʻqon xonligidagi dastlab quyidagi 15 ta beklikning nomini keltirib oʻtiladi - Qoʻqon va uning atrofi, Margʻilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, Soʻx, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darhon, keyinchalik esa ularga qoʻshimcha tarzda Asaka, Margʻilon, Baliqchi Oʻsh, Soʻx, Koson va Oʻzgan ham sarkorlik sifatida koʻrsatiladi³⁷⁵.

Hokimlar va hududiy boʻlinma boshliqlari xon oilasi aʼzolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun, Xudoyorxon davrida yettita beklik xonning oʻgʻillari va yaqin qarindoshlari tomonidan boshqarilgan. Oʻz navbatida hokimlar viloyat hududlarini oʻzlarining farzandlari va qarindoshlariga boʻlib berganlar. Qoʻqon xonligining maʼmuriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) va uning oʻrdasi alohida oʻrin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan hokim va qozi koʻplab vakolatlarga ega boʻlgan. Bek oʻrdasida ham xon saroyidagidek yuzlab amal va unvonlar joriy etilgan boʻlib, ular mahalliy aholidan yigʻiladigan soliq hamda toʻlovlar hisobidan kun kechirishgan. Beklar xonning itoatkor vassallari boʻlib, mamlakatni idora etishida uni qoʻllab-quvvatlashlari, zarur boʻlganda unga yordam berishlari, uning hurmat-izzatini joyiga qoʻyishlari, kerakli vaqtda oʻz qoʻshinlari bilan harbiy yurishlarda ishtiroq etishlari va sovgʻa-salomlar yuborib turishlari lozim boʻlgan.

³⁷⁵ Қаранг: Зиёев Х.З. Қўқон хонлиги (катта мақола). <http://shosh.uz>; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2012. 314-315-бб.

XIX asrda xonlikning chegara hududlarini bir necha qal'a va istehkomlar muhofaza qilgan. Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyoota, Pishpak, To'qmoq, Qurtka, Niyozbek, Mahram kabilarni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo'ylab bunyod etilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham hizmat qilgan. Ushbu shahar va qal'alarda harbiy qism hamda ularga boshliq bo'lgan botirboshilar bo'lgan. Mudofaa maqsadlari uchun qurol va aslahalar saqlangan.

Qo'qon xonligi davlat shakli mutlaq monarxiya bo'lib, davlat xon tomonidan boshqarilgan. Boshqaruv tizimi shariat qonun-qoidalari asosida o'rnatilgan bo'lib, markaziy va maxalliy boshqaruvni amalga oshiruvchi idoralar o'z vazifalariga ega bo'lgan. Xon huzurida Oliy maslaxat kengashi faoliyat yuritgan bo'lib, unda davlat miqyosidagi ishlar ko'rilgan edi. Shayxulislom Oliy kengashning doimiy a'zosi bo'lib, kengashda qipchoqlardan xam to'rt nafar a'zo ishtirok etishlari shart hisoblangan³⁷⁶.

“Tarixi Turkiston” asarida keltirilgan ma'lumotlarga oid tadqiqotlar olib borgan tarixchi SH.Vohidov o'z tadqiqotlaridan birida xonlikning amaldagi mansab va unvonlarini harbiy va harbiy-ma'muriy unvon va mansablar, saroy unvon va mansablari, diniy mansab va unvonlar, qozixona va mahkamalardagi unvon va amallarga bo'lib ko'rsatib beradi.³⁷⁷

-“Xonlikda eng oliy va markaziy unvon «xon» unvoni bo'lib, uning hukumati cheklanmagan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish sapohiyatlari uning qo'lida edi. Ming qabilasidan bo'lmish hokimlar Shahrisabz, Urgut, Mog'iyon, Urmetan viloyatlari va beklklarida ham hukm surganlar. Olimxon davrigacha (1798 y.) Ming' qabilasi rahbarlarining unvoni «biy» edi. Olimxon 1805 yili birinchi bo'lib o'zini «xon» deb e'lon qildi. Umarxon (1810-1822 y.) o'zini 1818 yili «amir al-mo'minin» deb e'lon qilib, diniy boshliq ham bo'lib oldi. Uning vorisi Muhammad Alixon esa yana «xon» taxtiga ko'tarildi. Xon avlodlarini xonzoda, amirzoda, mirzoda, shahzoda, to'ra deb aytardilar. Xonlikdagi davlat nizomi mutlaq yakkahokimlik bo'lib, faqat ma'lum tarixiy

³⁷⁶ Ахмедова М. Қўқон хонлигининг марказий ва маҳаллий бошқаруви // Фалсафа ва ҳуқук. - Тошкент, 2009. - № 2. - Б. 46-48.

³⁷⁷ Воҳид Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. -Т.: Фан, 1996. -49 б

davrlarda uning salohiyati va qudrati cheklab qo'yilgan edi. Bunday hol Musulmonqulining mingboshi va otaliq bo'lgan davrida (Xudoyorxon zamonida 1844-1852 yillar), Alimqulining amirlashkarlik va vazirlik davrida (Sulton Saidxon xon bo'lgan vaqti 1863-1865 yillar) ro'y bergan. Xonning kuchi va qudrati ma'lum iqtisodiy asoslarga va ijtimoiy guruhlarga tayanardi. Xon eng katta mulkdor sifatida xonlikdagi hamma yer, suv, quruqliklar, ko'lu anhorlarga egalik qilib, ulardan zakot va xiroj shaklida daromad olib, xazinasini to'ldirardi. Shuning hisobidan hamda boshqa soliqlardan u o'zining saroyi, qo'shini va ma'muriyat amaldorlarini tutardi.»³⁷⁸

Xonlikda eng oliy va markaziy unvon «**Xon**» unvoni bo'lib, uning hukumati cheklanmagan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish sapohiyatlari uning qo'lida edi. Ming qabilasidan bo'lmish hokimlar Shahrizabz, Urgut, Mog'iyon, Urmetan viloyatlari va bekliliklarida ham hukm surganlar. Olimxon davrigacha (1798 y.) Ming' qabilasi rahbarlarining unvoni «biy» edi. Olimxon 1805 yili birinchi bo'lib o'zini «xon» deb e'lon qildi. Umarxon (1810-1822 y.) o'zini 1818 yili «amir al-mo'minin» deb e'lon qilib, diniy boshliq ham bo'lib oldi. Uning vorisi Muhammad Alixon esa yana «xon» taxtiga ko'tarildi. Xon avlodlarini xonzoda, amirzoda, mirzoda, shahzoda, to'ra deb aytardilar. Xonlikdagi davlat nizomi mutlaq yakkahokimlik bo'lib, faqat ma'lum tarixiy davrlarda uning salohiyati va qudrati cheklab qo'yilgan edi. Bunday hol Musulmonqulining mingboshi va otaliq bo'lgan davrida (Xudoyorxon zamonida 1844-1852 yillar), Alimqulining amirlashkarlik va vazirlik davrida (Sulton Saidxon xon bo'lgan vaqti 1863-1865 yillar) ro'y bergan. Xonning kuchi va qudrati ma'lum iqtisodiy asoslarga va ijtimoiy guruhlarga tayanardi. Xon eng katta mulkdor sifatida xonlikdagi hamma yer, suv, quruqliklar, ko'lu anhorlarga egalik qilib, ulardan zakot va xiroj shaklida daromad olib, xazinasini to'ldirardi. Shuning hisobidan hamda boshqa soliqlardan u o'zining saroyi, qo'shini va ma'muriyat amaldorlarini tutardi. Qo'qon xonligida unvon va mansablar ularning ijrochilarining vaeifalari va martabalariga qarab harbiy, harbiy-ma'muriy, saroyning unvon va mansablari, saroy ma'muriyati vazifalariga hamda diniy va

³⁷⁸ Ўша жойда.

diniy-qozixona amallarga taqsim bo‘lardi. Qo‘qon xonligidagi barcha mansablar uch toifaga oliy, o‘rta va past darajalarga ajratilgan.

Muhammad Hakimxon to‘ra o‘z asarida xonlik markaziy boshqaruvida beshta vazir bo‘lganligini, bu vazirlar XIX asrning o‘ninchi yillariga qadar xonlikning boshqaruv tizimida faoliyat ko‘rsatib, davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida islohatlarni amalga oshirishga ma’sul bo‘lganligini, vazirlardan biri devonbegi edi, deb qayd etadi³⁷⁹. Bunday ma’lumot boshqa manbalarda uchramaydi. Mazkur ma’lumotdan davlatning markaziy boshqaruv tizimida beshta asosiy vazir bo‘lganligi va ulardan biri devonbegi mansabini egallaganligi ma’lum bo‘ladi. Xonlik markaziy boshqaruv tizimidagi besh vazirdan yana biri qo‘shbegi³⁸⁰ bo‘lib, bu xususida ham “Muntaxab ut-tavorix” asarida ma’lumot beriladi³⁸¹. Shu o‘rinda xonlik tarixida o‘rta asrlarga xos bo‘lgan jihatlardan biri, ayniqsa uning siyosiy hayoti va davlat boshqaruvida ma’lum darajada ta’sirga ega bo‘lgan ayrim xonadon vakillari haqida ham “Muntaxab ut-tavorix” so‘z yuritiladi. Bunga misol tariqasida Qo‘qon xonligining tashkil topishi jarayonida Chodak xojalarining o‘rni, Olimxonning Chust va To‘raqo‘rg‘onni egallashida uni qo‘llab quvvatlagan Lutfulloh Chustiy avlodi bo‘lgan Buzrukxoja, Umarxonning O‘ratepani egallashida Xo‘ja Axror avlodlaridan bo‘lgan Maxmudxon to‘ra, 1842 yilda amir Nasurolloning Qo‘qonga harbiy yurishi oldidan qo‘zg‘olon ko‘targan Muhammad Hakimxon to‘ralarning faoliyati ko‘rsatib o‘tiladi³⁸².

³⁷⁹ Vohidov SH, Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi boshqaruvi tarixidan (XIX-XX asr boshlari)-T:Yangi asr avlodi,2006. 15-6.

³⁸⁰ Кўплаб тарих китобларида “кушбеги” мансабини “кўшбеги” унвони билан адаштириб, барчасини бирдек “кушбеги” тарзида кўлланилиши нотўғри. Чунки “кушбеги” – хон ва амирларнинг ов вақтларида ишлатадиган ов қушлари учун масъул амалдор бўлса, “кўшбеги” – ҳарбий кўшинлар кўмондони, айрим ҳолларда ҳарбий вазир даражасидаги мавқени эгаллаган (Бухоро амирлигида) ҳарбий унвон эгаси ҳисобланади. Тарих китобларида ёзилган “Бухоро амирлигида бош вазир кушбеги бўлган” деган гап ҳам нотўғри, чунки, ов ишлари билан шуғулланган одам вазир бўлиши мумкин эмас ва бу мантиққа ҳам тўғри келмайди, аслида бу лавозим эгаси кўшбеги бўлган. (Бу борада диссертация муҳокамалари вақтида (З.Илҳомов. “Алиқули Амирлашкар ва унинг Кўкон хонлиги сиёсий ҳаётида тугган ўрни”) мутахассислар билан кўплаб тортишувлар ва муноазаралар бўлган, шунга қарамасдан 1998 йилдан бошлаб “кўшбеги” атамасининг ўз маъносида амалда кўлланила бошланишига эришилди ва бугунги кунда бу атама “кўшбеги” тарзида тарих дарсликларга ҳам киритилди.) Қаранг: Мулло Ҳолибой Мамбетов. Туркистон босқини. Нашрга тайёрловчи З.Илҳомов. Тошкент. 2009. 68-69-бб.

³⁸¹ Markaziy Osiyodagi boshqaruvi tarixidan. 227-б.

³⁸² Я. Кавахара. «Святы́е семейства» Маргелана в Кокандском ханстве в XIX в. // Мир ислама. 1(4) /2010. С.121-139.

Qo‘qon hukmdorlari o‘z ichki va tashqi siyosatini o‘ziga xos organi – Oliy Kengash asosida amalga oshirganligi haqida Mirzo Olim Mushrif “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” asarida Abdulkarimbiy huzurida kengash mavjud bo‘lganligi haqida ma’lumot berib, bu kengashda “umaro va fuzolalar pinxoniy maslaxat”³⁸³ qilishlari va muayyan masalalar yuzasidan qaror chiqarilgani bayon etilgan. XIX asrning 60-yillariga kelib, kengash kengaytirilib, markaziy davlat boshqaruvidagi 12 kishidan iborat mansabdorlar bilan kengash tarkibiga kiritiladi.³⁸⁴

Muhammad Hakim Yayfoni ham Qo‘qon hukmdorlari davlat ahamiyatiga molik masalalarni hal qilishda kengashga tayanganligini qayd etgan. Erdonabiy (1753-1762 yy) davlat boshqaruvida har qanday masalalarni hal qilishda har doim kengashga tayanganligini keltirgan³⁸⁵.

Ming sulolasi hukmdorlari 1709 -1876 yillar		
1.	Shohruxbiy	1709-1721 yy
2.	Abdurahimbiy	1721-1733 yy
3.	Abdulkarimbiy	1733-1750 yy
4.	Abdurahmon	hukmronligi 9 oy
5.	Erdonabiy	1751-1752 yy
6.	Bobobek	1752-1753 yy
7.	Erdonabiy 2-marta	1753-1762 yy
8.	Sulaymon	1762-1763 yy
9.	Norbo‘taxon	1763-1798 yy
10.	Olimxon	1798-1810 y
11.	Umarxon	1810-1822 yy
12.	Muhammad Alixon	1822-1841 yy
13.	Sulton Mahmudxon	1841-1842 yy
14.	Sheralixon	1842-1845 yy
15.	Murodxon	1845 y 11 kun
16.	Xudoyorxon	1845-1858 yy
17.	Mallaxon	1858-1862 yy

³⁸³ Мирзо Олим Мушриф .Ансобус –салотин...-b.17

³⁸⁴ Кун. А. Очерки Коканского ханства// Туркестанский сборник,Т:23-С.65

³⁸⁵ Қаранг. Махмудов. Ш. Қўқон хонлигининг маъмурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. ном.... дисс.- Т. 2007 й. 70-б.

18.	Shohmurod	1862 y
19.	Xudoyorxon 2-marta	1862-1863 yy
20.	Sulton Saidxon	1863-1865 yy
21.	Xudoyorxon 3-marta	1865-1875 yy
22.	Nasriddinxon	1875 -1876 yy

Qo‘qon xonligining aholisi va etnik tarkibi. Qo‘qon xonligining aholisi ko‘p millatli bo‘lib, tarkibi o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, qozoqlar, uyg‘urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Aholi soni XIX asr o‘rtalarida 3 mln.ga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, Rossiya imperiyasi tomonidan xonlikning Toshkent bekligi va uning atroflarigacha bo‘lgan hududlari bosib olingandan so‘ng xonlik chegaralari asosan Farg‘ona vodiysi hududlari bilan chegaralanadi va aholining soni ham keskin kamayib ketadi. Ma‘lumki, Farg‘ona vodiysi va unga tutash hududlar aholisi azaldan polietniklik xususiyati bilan O‘rta Osiyoning boshqa hududlaridan ajralib turgan. Bunday etnik o‘ziga xoslilik, Qo‘qon xonligi davrida ham saqlanib qolgan edi.³⁸⁶

Qo‘qon xonligi aholisi murakkab etnik tarkibga ega bo‘lib, aholining asosiy qismini xonlikning turli hududlarida yashagan o‘zbeklar tashkil qilgan. Bular asosan turkiyzabon va forsiyzabon aholining assimilyatsiyasi natijasida shakllangan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi “sart”lar, turk-mo‘g‘ul urug‘laridan tashkil topgan turkiylar va Muhammad Shayboniyxon sabab Dashti Qipchoq hududidan kirib kelgan urug‘lardir³⁸⁷.

Xerman Vamberining “Etnograficheskiy ocherk Sredney Azii” asarida xonlik aholisining etnografik qiyofasi haqida ma‘lumotlar³⁸⁸ keltirilgan. Unga ko‘ra Vamberi ushbu hududda yashaydigan turkiy urug‘larni 5ta guruhga ajratadi: 1) burutlar, qora yoki haqiqatda qirg‘izlar; 2) qirg‘izlar, qaysaq urug‘iga tegishli; 3) qoraqalpoqlar; 4) turkmanlar va

³⁸⁶ У.Абдуллаевнинг “Кўқон хонлиги аҳолисининг этник таркиби” номли мақоласи материалларидан фойдаланилди. Қаранг: <http://www.e-tarix.uz>.

³⁸⁷ Рuzматова Ш.А. Кўқон хонлиги шаҳарлари ва аҳоли географиясининг “Туркистон тўплами”да ёритилиши. “Тарих фани методологияси ва тарих таълимининг долзарб муаммолари”. Республикаилмий-амалий конференцияси материаллари. Навоий. 2019. 211-212-бб.

³⁸⁸ Этнографический очерк Средней Азии Вамбери. Санкт Петербург, 1878 г. Туркестанский сб., т. 4, стр. 307.

5) o‘zbeklar³⁸⁹.

Qo‘qon xonligi hududida asosan o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, uyg‘urlar va qoraqalpoqlar istiqomat qilganlar. Bundan tashqari xonlik hududida son jihatidan kamroq bo‘lsada yahudiylar, tatarlar va boshqa etnik jamoa vakillari ham yashar edilar. XVI asr boshlarida vujudga kelgan Buxoro va Xiva xonliklari hamda XVIII asrning boshlarida Qo‘qon xonligining vujudga kelishi natijasida yagona tarixiy makonda yashagan xalqlar siyosiy jihatdan turli davlatlar tasarrufiga tushib qolgan bo‘lsa-da, bu holat o‘zbek elati birligiga putur yetkaza olmadi. Siyosiy chegaralar bo‘lishiga qaramas-dan, uch davlat tarkibidagi aholi o‘zaro doimiy etnik, iqtisodiy va maaniy aloqada bo‘lib keldi³⁹⁰.

O‘zbeklar. O‘zbeklar Qo‘qon xonligi aholisining asosiy qismini tashkil qilgan. Ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, XX asr boshlariga qadar o‘zbeklarning bir qismi o‘troq, qolgan qismi esa yarimo‘troq (yarimko‘chmanchi) holda yashaganlar. XX asr boshlariga kelib, vodiya o‘zbeklarining 828 mingdan ziyodrog‘i o‘troq holda yashab, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Turli urug‘-qabilaviy tuzilishga ega bo‘lgan yarimo‘troq (yarim ko‘chmanchi) o‘zbeklarning vodiydagi umumiy soni o‘sha davr ma’lumotlariga ko‘ra 215 ming nafardan ko‘proqni tashkil etgan. Bular ichida turk, ming, qipchoq, qurama, yuz, nayman kabilar Qo‘qon xonligi hududidagi yirik etnografik guruhlar hisoblangan.

Tojiklar. Tojiklar Qo‘qon xonligi hududidagi aholining salmoqli qismini tashkil qilganlar. Ular asosan vodiyning g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy qismida joylashganlar. Tojikistonning hozirgi So‘g‘d viloyati hududida tojiklar aholining asosiy qismini tashkil etadilar. Etnografik adabiyotlarda Farg‘ona vodiysida yashagan tojiklar shartli ravishda ikki guruhga – voha tojiklari va tog‘lik tojiklarga ajratiladi. Voha tojiklari – bu ushbu o‘lkaning azaliy xalqlaridan biri bo‘lib, qator etnik xususiyatlari bilan Qo‘qon xonligi davrida va undan keyingi davrlarda ham boshqa etnoslardan ajralib

³⁸⁹ Рузматова Ш.А. Қўқон хонлиги шаҳарлари ва аҳоли географиясининг “Туркистон тўплами”да ёритилиши. “Тарих фани методологияси ва тарих таълимининг долзарб муаммолари”. Республикаилмий-амалий конференцияси материаллари. Навоий. 2019. 211-212-бб.

³⁹⁰ Дониёров А.Х., Бўриев О., Аширов А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи. Т.Янги нашр, 2011. 60-61-бб.

turgan. Tog‘li tojiklar Qo‘qon xonligi hududiga asosan Tojikistonning tog‘lik hududlarida joylashgan Mastchoh, Qorate-gin, Darvoz, Ko‘lob, Hisor kabi joylardan ko‘chib kelganlar. Qo‘qon xonligida feruza toshining eng yaxshi navlari So‘x daryosining yuqori qismida qazib olinadi. Bu feruza toshi “tiniq va shaffof, moviy rangda bo‘lib, har qanday qo‘shimcha aralshamalardan holi edi”, bunday toshlar bilan “Qo‘qon xonligi faxrlansa arziydi”. Bu ish bilan xonlikda tog‘lik tojiklar shug‘ullanishgan va o‘z toshlarini Qo‘qon va Marg‘ilon bozorlaridagi savdogarlarga pullashgan”³⁹¹. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, ko‘plab tog‘li tojiklar Qo‘qon xonligi qo‘shinlarida xizmatda ham bo‘lganlar, aynan Olimxon davrida amalga oshirilgan harbiy islohotlar natijasida tog‘lik tojiklardan ikkita maxsus bo‘linma tashkil etilganligi manbalarda ko‘rsatib o‘tilgan³⁹².

Qirg‘izlar. Tarixiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, XVII va XVIII asrlarda Tyanshan tog‘ining shimolida yashovchi qirg‘izlarning katta guruhi Farg‘ona erlariga kelib o‘rnashdilar. Turli urug‘-qabilaviy tuzilishga ega bo‘lgan qirg‘iz etnosi ham Qo‘qon xonligi hududidagi tog‘ va tog‘oldi manzilgohlarida yashab, vodiyning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida faol ishtirok etganlar.

Uyg‘urlar. Uyg‘urlar Sharqiy Turkistonning eng qadimgi turkiy etnoslardan biri hisoblanadi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan e‘tiboran, ayniqsa XIX asrda Xitoy feodallariga qarshi ko‘tarilgan musulmonlar qo‘zg‘oloni mag‘lubiyatga uchragandan keyin Sharqiy Turkistonning ko‘plab musulmon aholisi, xususan juda ko‘p uyg‘ur oilalari Farg‘ona vodiysiga qochib o‘tdilar. XIX asrning o‘rtalaridayoq Qo‘qon xonligida 300 mingga yaqin uyg‘urlar yashagan.

Qoraqalpoqlar. XVIII asrdan Buxoro xonligida yuz bergan siyosiy inqiroz ko‘plab xalqlarni bu hududni tashlab ketishga majbur etdi. Oqibatda Buxoro va Samarqand atroflarida yashagan aholining bir qismi Qo‘qon xonligi hududiga kelib o‘rnashdi. Xususan, Sirdaryoning o‘rta oqimida yashab turgan qoraqalpoqlar Qo‘qon xonligi hududiga kelib qo‘nim topdilar. Qo‘qon xonligi hududiga ko‘chib o‘tgan qoraqalpoqlar Sirdaryo va Qoradaryo bo‘ylariga o‘rnashib, an’anaviy xo‘jaligini

³⁹¹ Из истории Кокандского ханства. С.215-21.

³⁹² Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). 38-б.

yuritishni davom ettirdilar. Qo‘qon xonligi o‘zining etnik qiyofasining turli-tumanligi bilan ham xarakterlanadi. Holbuki, bunday etnik turli-tumanlik vodiy aholisini o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqalarini rivojlanishida muhim omillardan biri bo‘lgan.

Qo‘qon xonligida iqtisodiy hayot, yer egaligi va qishloq xo‘jaligi. XVIII asr ikkinchi yarmidan boshlab ayrim tumanlarning sug‘orish tarmoqlari ta‘mirlangan va yangilari qazilgan. Chunki, xonlikda ip va gazlama ishlab chiqarish hajmining ortib borishi, bu mahsulotlarni Rossiya va u orqali Sharqiy Yevropa mamlakatlari bozorlarida ko‘plab sotila boshlashi, ularga bo‘lgan talabning tobora kuchayib borishi sug‘orma dehqonchilik yerlarini kengaytirish hamda yangi yerlarni o‘zlashtirishni taqozo qilar edi. XIX asr Qo‘qon xonligida, xususan, Farg‘ona vodiysining sug‘orilishi tarixida yangi davrni boshlab berdiki, aynan shu davrdan boshlab, vodiyda yirik sug‘orish inshootlari, ariqlar, kanallar, to‘g‘onlar qurila boshlangan. Masalan, Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan bo‘lgan Norin va Qoradaryolardan suv oladigan Shahrixonsoy kanali, Namangan Yangi arig‘i, Chinobod arig‘i, Ulug‘nahr, Andijonsoy kanali, Oltiariq, Mutagan arig‘i va boshqa sug‘orish tarmoqlarining ko‘payishi, sug‘oriladigan dalalarning sezilarli darajada kengayishi hamda dehqonchilik va bog‘dorchilikning rivojlanishiga olib kelgan.

Qo‘qon xonligidagi yer egaligining shakllari qisman boshqa xonliklardagiga o‘xshash edi. Ammo bu yerda xonlar yer mulkining o‘ziga xos shakllari ham mavjud bo‘lganligini ko‘ramiz. Jumladan, xon va uning oila a‘zolariga taalluqli yerlar quyidagi shakllarda bo‘lgan: 1. Xos mulk - alohida ahamiyatga ega bo‘lib, keladigan daromadlari saroy ahli va soqchilariga sarf kilinadigan yer mulklari. 2. Taqiq yerlari yoki qo‘riq yerlar. Bunday yerlar ilgari barchaga, jamoaga tegishli haydalmaydigan dalalar, o‘tloqlar, qamishzor va chakalakzorlarni xonlar o‘zlariniki qilib olishlari natijasida vujudga kelgan. 3. Chek yerlari - xon va uning oila a‘zolari tasarrufidagi yerlar³⁹³.

Xonlikda yer va suv hukmron tabaqalariniki hisoblanib, yerga egalik qilishning to‘rtta turi mavjud bo‘lib ular quyidagilar edi: Xiroj yerlar – yer

³⁹³ Муқимов Зиёдулла. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Т.: “Адолат”, 2003. 222-б.

egalarining xususiy yerlari. Davlat yoki amloq yerlari – xonga qarashli yerlar – o‘rmonlar, to‘qaylar, yo‘lu-ko‘priklar. Xususiy yerlar – xonning maxsus farmoyishi bilan yirik amaldorlarga berilgan yerlar (suyurg‘ol). Vaqf yerlari – diniy muassalar, ya’ni, masjid, madrasa va mozorlarga qarashli yerlar³⁹⁴.

Manbalarga ko‘ra, amloq xon ixtiyoridagi yer bo‘lib, u “zamini xos”, deb atalgan. Bunday yerlar xon tomonidan ayrim guruh va mansabdor shaxslarga berilgan. Yerni olgan kishi unga o‘z hisobidan ishlov berib, sug‘organ. Olgan hosildan esa xonga soliq to‘lagan va bu soliq miqdori xirojdan ko‘proq bo‘lgan³⁹⁵.

Yerga egalik qilishda mulk, ijara, urg‘u, tanho shakllaridan ham foydalanilgan. Mulk – boylarga qarashli xususiy yerlar bo‘lib, ular dehqonlarga ijaraga berilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, ijara – muayyan shartlar asosida beriladigan barcha ko‘chmas va ko‘chadigan mulk-yer, ariq, tegirmon, tim, rasta, ulov av boshqalarni o‘z ichiga olgan mulk shakli bo‘lsa, urg‘u – musodara qilish yo‘li bilan xon mulkiga aylantirilgan yoki gunohkorni qo‘lga olishda jonbozlik qilgan shaxslarga berilgan yer va mol-mulkdir³⁹⁶.

Tanho – hukmdor tomonidan alohida xizmat ko‘rsatgan kishilarga amloq yerlardan ba’zilari in’om etilishi tufayli paydo bo‘lgan mulk shakli bo‘lib, bunday yerlarda soliq yig‘ish huquqi tanho egalari – tanhodorlarga berilgan. U o‘ziga berilgan yer, bir nechta qishloq, hatto, katta mulkning yillik yoki yarim yillik daromadini hadya sifatida olgan. Ba’zan, amaldorlar bir umr tanhodor bo‘lgan va o‘g‘li xon marhamatiga sazovor bo‘lsa, tanhodorlik meros sifatida davom etgan. Harbiylarga tanho yoki xiroj taqdim etilsa, u tarxon deb atalgan³⁹⁷.

Xonlik aholisi dehqonchilik, bog‘dorchilik bilan ham faol shug‘ullangan. Shaharlar va ularning atroflaridagi dalalar, polizlar va bog‘larda yetishtirilgan mahsulotlar bilan xonlik bozorlarida qizg‘in savdo amalga oshirilgan. Jumladan, Farg‘ona vodiysi qadimdan bog‘dorchilik

³⁹⁴ Қаранг: Зиёев Х.З. Қўқон хонлиги (катта мақола). <http://shosh.uz>; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2012. 320-321-бб.

³⁹⁵ Хироj - ҳосилнинг 1/5 дан 1/8 қисмигача ташкил этган.

³⁹⁶ Қаранг: Зиёев Х.З. Қўқон хонлиги (катта мақола). <http://shosh.uz>; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2012. 320-321-бб.

³⁹⁷ Ўша жойда.

mahsulotlari bilan qo‘shni hududlarda ham tanilgan. Qo‘qon xonligi davrida ham vodiya bu borada o‘z mavqeiini saqlab qolgan. Namangan, Marg‘ilon, Qo‘qon bog‘lari o‘zining mo‘l-ko‘lligi, mevalarining ta‘mi va sifati bilan mashhur hisoblangan. Bu sohada Namangan yaqqol ajralib turgan. P.I.Nebolsinning yozishicha, XIX asr o‘rtalarida Namanganda meva-larning turlari ko‘p bo‘lib, xususan, o‘rik juda lazzatli bo‘ladi va Toshkentga sotish uchun ko‘plab olib boriladi, deb qayd etadi. Yana bir rus olimi N.Aristov uzumning sifati bo‘yicha eng yaxshisi Namanganniki, deb ta‘riflagan.³⁹⁸

Sayyoh va shifokor I.Krauze ma‘lumotlariga ko‘ra, xonlikda anjir va anor yetishtirishda Namangan mashhur bo‘lib, anjir mevasi, anor guli, ildizi, po‘stlog‘i va yaprog‘idan mahalliy tabiblar turli kasalliklarni davolashda foydalanganlar. Shuningdek, Namangan olmalari xonlikdan tashqarida ham taniqli va xaridorgir hisoblangan. Bog‘dorchilik Farg‘ona vodiysining boshqa ko‘plab shaharlari, ularning atrofi va qishloqlarida ham taraqqiy etgan. Marg‘ilon-ning "Dona Kalon" nomli anori va Konibodom bodomi ham xonlik bozorlarida taniqli edi. Farg‘ona vodiysi bog‘larida yetishtirilgan mevalarga qo‘shni hududlarda talab katta bo‘lib, yil davomida bu yerdan quruq va xo‘l mevalar ortilgan karvonlar qo‘shni xonliklar, dasht hududlari va boshqa mamlakatlarga borib turgan.

Xonlik shaharlari o‘zining dehqonchilik mahsulotlari bilan ham mashhur edi. Xususan, Namangan atroflarida bug‘doy yetishtirish rivojlangan bo‘lib, xonlik davrida Qo‘qon va uning atrofi bug‘doy bilan o‘zini ta‘minlay olmagan va Namangan dehqonlari yetishtirgan bug‘doy poytaxt Qo‘qon bozorlariga yil davomida yetkazib turilgan³⁹⁹. Namangan o‘zining tamakisi bilan ham mashhur bo‘lgan. XIX asr 30 - yillarida Qo‘qon xonligida bo‘lgan kazak Maksimov xonlikning eng boy va yirik shaharlari Qo‘qon va Toshkent bo‘lsa-da, aholi hayotining farovonligi bo‘yicha Namangan xonlikda ajralib turadi, bu yerdagi bog‘larning o‘xshashi yo‘q. Namangan tamakisining sifati yuqori bo‘lib, u sariq rangda va huddi Amerika tamakisiga o‘xshaydi, - deb yozgan edi. V.V.Velyaminov-Zernov xudsi shunday fikrni keltirib, O‘rta Osiyoda

³⁹⁸ Агзамова Г. А. Сўнги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. - Т., Ўзбекистон, 2000.-Б. 31.

³⁹⁹ Қўқон хонлигида савдо муносабатлари. 44-б

Namangan tamakasi bilan raqobatlasha oladigan tamaki yo‘q – deb, ta’kidlaydi.⁴⁰⁰

XIX asr boshlarida O‘sh atroflarida yashovchi aholi katta yerlarni o‘zlashtirganligi sababli Andijon atroflariga Oqbura daryosi suvi kelmay qolgan. Natijada, Andijon atroflaridagi botqoqliklar qurib, sholikorlik taraqqiy etgan va Andijon sholisi atrofda mashhur bo‘lgan. Xo‘jand atroflari ham sholi yetishtirish markazlaridan bo‘lib, har yili katta miqdorda guruch xonlik shaharlariga va Buxoro bozorlariga olib borib sotilgan.

Qo‘qon xonligida hunarmandchilik. Xonlik shaharlari yirik iqtisodiyot markazlar edi. Ularda istiqomat qiluvchi aholining asosiy mashg‘uloti hunarmandchilik, savdo, qisman dehqonchilik va bog‘dorchilikdan iborat bo‘lgan. Qo‘qon xonligi shaharlarida hunarmandchilikning turli sohalari rivojlangan. Shuningdek, ba’zi shaharlar hunarmandchilikning ayrim turlari faqatgina shu yerda rivojlanganligi bilan ajralib turgan. Hunarmandlarining asosiy mashg‘ulotlaridan biri to‘qimachilik hisoblangan. To‘qimachilikning asosiy xom-ashyosi mahalliy dehqonlar tomonidan yetishtirilgan paxta edi. Xonlikda keng tarqalgan to‘qimachilik mahsuloti bo‘z yoki karbas deb nomlangan. XVIII asr 70 - yillarida O‘rta Osiyo xonliklari, xususan, Qo‘qon xonligida bo‘lgan Filipp Yefremov - "Qo‘qon va uning shaharlarida ipak va yarim ipak mahsulotlari, bo‘z ishlab chiqarish hamda ulardan chopon va boshqa buyumlar tayyorlash rivojlangan, qo‘qonliklar savdoda buxoroliklar bilan raqobatlasha oladilar", - deb yozgan edi⁴⁰¹.

Xonlikda Qo‘qon va Toshkent shaharlarida bo‘z to‘qish rivojlangan va sifati bo‘yicha ham taniqli hisoblangan. Xususan, Toshkentda "ko‘k bo‘z" va "oddiy bo‘z" turlari ko‘p to‘qilgan va mahalliy aholi bilan bir qatorda qo‘shni hududlarda yashovchi chorvodor aholi tomonidan ko‘plab harid qilingan. Xonlik shaharlarida to‘qilgan mahsulotlarning bir qismini olacha tashkil etgan. Olacha matosining asosiy haridori chorvodor qozoq va qirg‘izlar hisoblanib, ular savdo qiladigan asosiy markazlar - Toshkent va Namangan shaharlarida bu matoni tayyorlash rivojlangan. XIX asr 70 -

⁴⁰⁰ Исоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона. Т. Мерос. 1991.

⁴⁰¹ Қўқон хонлигида савдо муносабатлари. 33-б.

yillarida Namangan bozorida bir rubl turadigan arzon va chidamli olacha matosining bir yaktak va bir ishton chiqadigan bo'lagi uchun qirg'izlar bir yarim yasharlik echki bergan bo'lsa, shunday matoning ikki bo'lagiga esa yetilgan qo'yni almashtirganlar.⁴⁰²

Qo'qon to'quvchilarining mahsulotlaridan yana biri chit edi. Chitgarlar bo'zga mahsus tayyorlangan qoliplarda turli rangdagi gul bosishgan va bu mato chit hisoblangan. Chitgarlik nihoyatda nozik va murakkab kasblardan bo'lib, xonlik shaharlari orasida sifatli chit tayyorlashda Toshkent yetakchi bo'lgan. XIX asrga oid ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qon va Qashg'ardan Toshkentga har yili katta miqdorda oq bo'z keltirilib, chitgarlarga topshirilgan. Chitgarlar matolarni bo'yashda buzg'unj, tuhmak, safsar rang, mosh rang, ro'yan kabi mahalliy bo'yoqlardan foydalangan⁴⁰³.

Qo'qon xonligi aholisining asosiy mashg'ulotlaridan biri ipakchilik bo'lib, ipak va ipak matolar mamlakatning tashqi savdodagi asosiy mahsulotlaridan biri edi. XIX asr 60 - yillari oxirlarida, Qo'qon va Marg'ilonning o'zida to'qqiz yuzga yaqin xonadon ipakchilik bilan shug'ullangan bo'lib, har bir oilada 1 tadan 3 tagacha to'quv dastgohi bor edi. Oilaning 2 - 3 a'zosi shu ish bilan mashg'ul bo'lgan va har bir oila haftasiga ikki qadoqdan besh qadoqqacha ipak tayyorlagan. Taxminiy hisoblarga qaraganda Qo'qon va Marg'ilonda ishlab chiqarilgan ipakning yillik miqdori 5.560 pudga teng bo'lgan.

Xonlikda tayyorlangan ipak ancha sifatli bo'lib, mamlakat bozorlari xom ipak va ipak matolari bilan mashhur edi. Qo'qon xonligi hunarmandlari tomonidan tayyorlangan ipak sifatiga qarab - "chilla", "tafil", "sarnoq" va boshqa navlarga bo'lingan. Shuningdek, xonlikda ipak mahsuloti yigirilib, kalava ham tayyorlangan. Mamlakatdagi eng yuqori sifatli kalava "namanganniki" hisoblangan. Ipakdan turli matolar to'qishgan. Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va Xo'jand hunarmandlari ipak matolar (shoyi, atlas va h.k.), yarim ipak matolar (beqasam, banoras, adras) ishlab chiqarganlar. Xonlikning yirik bozorlaridan biri hisoblangan Marg'ilonda ipak va ipak matolar savdosi yil davomida qizg'in amalga

⁴⁰² Ўша жойда 34-б

⁴⁰³ Агзамова Г. А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. - Т., Ўзбекистон, 2000.-Б. 19.

oshirilgan. Qo‘qon xonligi xunarmandlari tomonidan tayyorlangan matolar orasida atlas taniqli hisoblangan. Marg‘ilonda bu gazlama "atlas" yoki "jiba arqoq" nomi bilan mashhur bo‘lgan. Arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, 1876 yil Qo‘qonda 276 ta shoyi, 428 ta ip-gazlama to‘qish ustaxonasi, 232 yigiruv dastgohi va yiliga 3000 arshin atlas ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan ko‘plab ustaxonalar ishlab turgan.⁴⁰⁴ Shuningdek, Xo‘jandda ham "duriya" nomi bilai ataluvchi atlas turi ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu mato Marg‘ilon hamda Qo‘qonda tayyorlangan atlaslardan qolishmagan va xonlik bozorlaridan tashqarida ham ancha mashhur bo‘lgan. Vodiy shaharlarida tayyorlangan matolar katta miqdorda Toshkent bozorlariga keltirilgan va bu mahsulotlar shu turdagi Toshkent matolari bilan raqobat qila olgan⁴⁰⁵.

Qo‘qon xonligida yetishtirilgan ipak va paxta xom-ashyosi hamda ulardan tayyorlangan mahsulotlar O‘rta Osiyoning ichki bozorlarida o‘ziga xos mavqeiga ega bo‘lgan. Biroq, bu mahsulotlar qo‘l mehnati asosida tayyorlangan va aksariyat xollarda ularning sifati talab darajasida emasligi, XIX boshlaridan Urta Osiyo bozorlariga ingliz va rus mollarini kirib kelishi bilan raqobatbardoshlik qobiliyatini yo‘qotdi. Natijada, Qo‘qon xonligi ham boshqa O‘rta Osiyo xonliklari kabi xom-ashyo yetishtiruvchi mamlakatlardan biriga aylana boshlagan. O‘rta Osiyo xalqlari orasida ro‘zg‘orda keng ishlatiladigan kulolchilik mahsulotlariga talab doimo katta bo‘lgan. Buxoro va Xiva xonliklari kabi Qo‘qon xonligi ham o‘ziga xos kulolchilik maktabiga ega edi. Qo‘qon xonligi kulolchilik markazi Rishton shahri hisoblanib, bu yerda tayyorlangan mahsulotlar nafaqat shahar, balki qishloq aholisi ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Xonlikda ko‘plab qurilishlar olib borilishi natijasida katta shaharlarda g‘isht quyadigan xumdonlar vujudga kelgan. Xususan, Rossiya istilosiga qadar Namangandagi Yangiariq kanalining chap qirg‘og‘ida g‘isht quyuvchi xumdonlar bo‘lgan va ularda tayyorlangan g‘ishtlar mahalliy inshootlarni barpo qilishda, madrasa, masjid, karvonsaroy va boshqa qurilish ishlarida keng foydalanilgan .

⁴⁰⁴ Агзамова Г. Марғилон хунармандчилигига оид айрим маълумотлар // Марғилон шаҳрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбелейига бағишланган халқаро илмий конференцияси материаллари. - Тошкент - Марғилон., 2007. - Б. 115.

⁴⁰⁵ Қўқон хонлигида савдо муносабатлари.. 38-б

Xonlikda yog‘och va metalga ishlov berish, temir buyumlar ishlab chiqarish ham o‘ziga xos tarzda rivojlangan. Qo‘qon, Toshkent, Namangan va Andijon shaharlarida yog‘ochga ishlov beruvchi, temir buyumlar ishlab chiqaruvchi va boshqa ko‘plab ustaxonalar mavjud bo‘lib, ular asosan bozorlardagi xunarmandchilik do‘konlarida joylashgan. Ularda tayyorlangan mahsulotlar do‘konlarning o‘zida sotilgan. Xonlik shaharlarida hunarmandlarning bunday do‘konlari ko‘pchilikni tashkil etib, XIX asrda birgina Qo‘qonning o‘zida 400 ga yaqin misgar, 100 ga yaqin kandakor faoliyat yuritgan. Shuningdek, Rossiya istilosiga qadar Toshkentda 100 dan ortiq temirchilik ustaxonasi mavjud bo‘lib, ularda tayyorlangan buyumlar xonlik va qo‘shni dasht aholisi tomonidan qadrlangan⁴⁰⁶. Xonlikning daryo bo‘ylarida va ularga yaqin hududlarida joylashgan shaharlarida qayiqsozlik va kemasozlik ham taraqqiy etgan. Bu shaharlar jumlasiga Qo‘qon, Toshkent, Namangan va Xo‘jand shaharlarini misol qilish mumkin. Metallga ishlov berish va undan turli buyumlar yasash markazi sifatida xonlikdagina emas, balki O‘rta Osiyoda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shaharlaridan biri Namangan hisoblangan. Kurolozlik rivojlangan bu markazda miltiq va qilichlar tayyorlangan⁴⁰⁷. Temirchilik xonlikning boshqa shaharlarida ham taraqqiy etgan. Xususan, Chust, Shahrixon, Qo‘qon, Poytug‘, Qorasuv shaharlari Farg‘ona vodiysining 5 ta metall buyumlar, asosan, pichoq ishlab chiqarish markazlari bo‘lib, ularning uchtasining bozori Andijonda joylashgan. Qo‘qon xonligida taraqqiy etgan o‘ziga xos hunarmandchilik turlaridan biri aravasozi edi. Aravasozi Qo‘qon, Toshkent, Namangan va Marg‘ilon shaharlarida rivojlangan bo‘lib, xonlikda tayyorlangan aravalar "Qo‘qon arava" nomi bilan O‘rta Osiyoda tanilgan. Chunki, Qo‘qon aravasozi va egar-jabduq tayyorlash bo‘yicha O‘rta Osiyoda yetakchilik qilgan. Qo‘qon arava 25 – 40 pudgacha⁴⁰⁸ yuk ko‘tara olgan va asosan otlar yordamida manzilga olib borilgan. Bu aravalardan ichki va tashqi savdoda faol foydalanilgan.

⁴⁰⁶ Абдуллаев Т. XIX - XX асрларда ўзбек кандакорлиги. - Т., 1974. - Б/103

⁴⁰⁷ Мусаев Д., Хошимов Х. Андижоннинг XIX аср охири - XX аср бошлари даври хунармандчилиги тарихини ўрганилишига доир // Марғилон шахрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шахрининг 2000 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференцияси материаллари. - Тошкент - Марғилон. 2007.-Б. 123.

⁴⁰⁸ Пуд - оғирлик ўлчов бирлиги бўлиб, 1884 йилги маълумотларга кўра 10 Кўкон пуди 163,805 кг.га тенг бўлган.

Zargarlik qadimdan Oʻrta Osiyo xalqlari orasida qadrli kasblardan boʻlgan. Qoʻqon xonligida ham bu soha oʻziga xos tarzda taraqqiy etgan boʻlib, Oʻrta Osiyo xalqlari anʼanalariga mos ravishda zargarlik ustaxonalari yirik shaharlarning markazlarida joylashgan. Zargarlik buyumlari tayyorlash borasida poytaxt Qoʻqon yaqqol ajralib turgan va Oʻrta Osiyoda faqatgina Buxoro u bilan raqobat qila olgan. Shuningdek, Toshkent zargarlari ham oʻz uslubiga ega boʻlganlar. Ular qoʻshni dasht hudud aholisi uchun moʻljallab, nisbatan arzon zargarlik buyumlarini koʻproq tayyorlaganlar.

Xonlik aholisining koʻchmanchi xalqlar bilan iqtisodiy aloqalarining rivoji mamlakatda koʻnchilik va teriga ishlov berish xunarining taraqqiyotiga samarali taʼsir koʻrsatgan. Bunday hunarlar rivojlangan markazlar shaharlar edi. Qoʻqon, Toshkent, Andijon va Oʻsh shaharlari koʻnchilik markazlari boʻlib, bu yerlarda terini qayta ishlash va undan poyabzal tayyorlash bilan birga teridan kiyim-kechak, bosh kiyim, suv va qimiz uchun meshlar ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilgan. Xususan, mamlakat poytaxti Qoʻqonda chorva terilarini oshlash, ishlov berish, turli rangga boʻyash va ulardan etik, kavush, mahsi tayyorlash ham ancha ravnaq topgan edi. XIX asr 60 - yillarida Toshkentda teridan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan 60 ta doʻkon shugʻullangan. Xonlikda tayyorlangan poyabzallarga mahalliy aholi bilan bir qatorda chorvachilik bilan shugʻullanuvchi choʻl va togʻ oldi hududlar aholisi, asosan, qozoq va qirgʻizlar orasida talab katta boʻlgan.

Xonlik shaharlarida sovun ishlab chiqarish hunari ham oʻziga xos tarzda rivojlangan. Sovungarlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar orqali mahalliy aholining sovunga boʻlgan ehtiyoji qondirilgan. Margʻilon oʻzining ipak matolari qatorida kulrang va qora rangdagi sovuni bilan mashhur boʻlgan boʻlsa, Toshkentda tayyorlangan kulrang sovunga mahalliy aholi orasida talab katta edi.⁴⁰⁹

Poytaxt Qoʻqonda tayyorlangan qogʻoz Oʻrta Osiyoda mashhur hisoblangan va ilm-ahli orasida qadrlangan. XVIII asr boshlarida Qoʻqonda ikkita qogʻoz ishlab chiqarish korxonasi mavjud boʻlib, ularning biri shaharning "Moʻyi Muborak" darvozasi yaqinida, ikkinchisi shahar

⁴⁰⁹ Кўқон хонлигида савдо муносабатлари. 42-б

yaqinidagi Chorsu qishlog'ida joylashgan edi. Qo'qonda ishlab chiqarilgan qog'oz butun O'rta Osiyo bozorlariga olib ketilgan.⁴¹⁰

Xonlikning poytaxti Qo'qonda muqovasozlik hunari ham rivojlangan bo'lib, Namangan Qo'qon kabi muqovalash hunari rivojlangan shaharlardan bo'lgan, bu yerda charm va qog'ozdan yaratilgan muqovalar O'rta Osiyoning yirik markazlari - Samarqand va Xivada tayyorlangan muqovalardan qolishmas edi.⁴¹¹

Xonlik shaharlarida o'simliklardan turli rangdagi bo'yoq tayyorlash va ip-gazlama, ipak hamda ipak matolarni bo'yash hunari rivojlangan edi. Xonlikda bu sohada Namangan yetakchilik qilgan. Bu shaharda ipakni bo'yashda asosan norpus (qora anor) bo'yog'idan foydalanilgan bo'lib, xonlikning turli hududlaridan bu yerga katta miqdorda ipakni bo'yatish uchun olib kelganlar. Qo'qon xonligida O'rta Osiyoning boshqa xonliklari kabi ro'yan (marena) deb nomlangan butasimon o'simlik ildizidan tabiiy qizil rangdagi bo'yoq tayyorlangan va u bilan qizg'in savdo amalga oshirilgan. Bu bo'yoq ham xonlik hududida asosan Namanganda tayyorlangan.

Qo'qon xonligida savdo munosabatlari, pul islohotlari. Soliqlar.

XVIII asr boshlarida tashkil topgan Qo'qon xonligida asta-sekin iqtisodiy hayot izga tushdi. Ichki va tashqi savdo taraqqiy etib, aholining farovonligi oshdi. O'z navbatida xonlik hukmdorlari ham savdoning rivojlanishiga xomiylik qilib, bozorlar, karvonsaroylar, savdo rastalari va do'konlar barpo etdilar, bozorlardagi savdo-sotiq jarayonini nazorat ostiga oldilar. XVIII asr oxirlarida Qo'qon xonligining o'z puliga ega bo'lishi savdo munosabatlarini rivojida muhim omil vazifasini o'tadi. Savdo-sotiq xonlik aholisi hayotining ajralmas qismi hisoblanib, yirik shaharlarda ikki va uch marta, katta qishloqlarda hamda bir nechta kichik qishloqlarni tutashtiruvchi hududlarda haftada bir marta bozorlar tashkil etilgan.

Iqtisodiy markazlarning ko'payishi xonlik aholisining hayoti farovonlashishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Shaharlarda hunarmandchilikning taraqqiy etib borishi natijasida ustaxonalarda

⁴¹⁰ Кўқон хонлигида савдо муносабатлари. 42-б.

⁴¹¹ Ўша жойда

atrofdagi qishloqlarda yetipgirilgan xom-ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish yo'liga qo'yildi. Xonlikda ma'lum bir hunarmandchilik turining rivojlanganligi va o'ziga xos mahsulot turlari bilan alohida markazlar ajrala boshladi. Xususan, Qo'qon qogoz, zargarlik buyumlari, egar va ot- aravalari, Toshkent qo'shni dasht aholisi orasida talab katta bo'lgan ipdan tayyorlangan matolari va hunarmandchilik buyumlari, Margilon va Xo'jand ipak mahsulotlari, Ush va Andijon ko'ncilik va chorvachilik mahsulotlari, Namangan bogdorchilik mahsulotlari va yogoch buyumlari, Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Sayram shaharlari chorva va chorvachilik mahsulotlari bilan ajralib turgan. Shaharlarda hunarmandchilikning taraqqiy etib borishi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishini ham ko'paytirdi. Natijada, mahalliy o'troq aholi bilan bir qatorda cho'l va tog' zonalarida yashovchi aholi xonlik hunarmandlari tomonidan tayyorlangan mahsulotlar bilan o'z ehtiyojlarini qondira boshladi. Iqtisodiy markazlar sonini ko'payib, hunarmandchilikning taraqqiy etib borishi qo'shni xudud aholisini shaharlarga intilishini kuchayishiga olib keldi va etnointegratsion jarayonlarni tezlashtirdi. XVIII asr ikkinchi yarmida Qo'qon xonligida iqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi va uning natijasida xonlik o'z puliga ega bo'lishi ham savdoni munosabatlari taraqqiyotida muhim omillardan biri vazifasini bajargan. Xonlik bozorlarida turli mahalliy og'irlik va uzunlik o'lchov birliklari bo'lganligi, bu yerda asrlar davomida shakllangan savdo madaniyati davom ettirilganligi, bu birliklar tarixiy taraqqiyotga qarab o'zgarib turganligini ko'rsatadi. Ichki va tashqi savdo munosabatlarining taraqqiy etishi natijasida xonlik hududiga Yevropa og'irlik va uzunlik o'lchov birliklari kirib kelgan.

Qo'qon xonligi ichki siyosiy hayotida amalga oshirilgan eng asosiy ishlardan biri bu pul sohasidagi islohotlarning amalga oshirilishi bo'lgan. Qo'qon xonlari XVIII asr 70 - yillariga qadar mamlakatning siyosiy mustaqilligini saqlab qolish va ichki urushlarni oldini olish bilan mashgul bo'lgan. Shu bois, ichki savdo munosabatlaridagi oldi-sotdi jarayoni qo'shni xonliklar pullari, asosan Buxoro tangalari va mol ayriboshlash orqali amalga oshirilgan. Norbo'tabiy Qo'qon taxtiga o'tirganidan so'ng pul islohatini amalga oshirdi. Bu xususida Muhammad Solihxo'ja,-

"Norboʻtaxon taxtga chiqqach uning adolatparvarligi ovozasini turli tarafga yoyilib, shariat rivoj topdi va uning nomidan dinoriy va dirham tangalar zarb etildi", - deb maʼlumot bergan. Maʼlumotlarga koʻra, Norboʻtabiy mis (fuls) chaqalar zarb ettirgan va bu mis chaqalar xalq orasida "qora pul" deb atalgan⁴¹². Niyoz Muhammad Xoʻqandiy maʼlumotlariga koʻra, Norboʻtabiy qora fuls tangalarni joriy qilgan va bitta shunday tangaga qoʻy bergan.

Norboʻtabiydan soʻng xonlik taxtiga chiqqan har bir xon oʻz nomidan yangi pul zarb ettirgan va eskisini yigishtirib olgan. Qoʻqon xonlari koʻproq chaqa pul, baʼzilari oltin tanga zarb ettirgan. Xususan, Norboʻtabiy mis chaqa, Olimxon mis chaqa va kumush tanga, Umarxon dastlab mis va kumush tanga hamda hukmronligining soʻnggi yillarida yana pul isloxoti oʻtkazib, ilk bora xonlik tarixida oltin tangalarni muomalaga kiritgan. Muhammadalixon oʻz hukmronligi davomida ikki marta pul isloxoti oʻtkazib, mis, kumush va oltin tangalar zarb ettirgan. Shuningdek, Sheralixon, Xudoyorxon, Mallaxonlar ham mis, kumush va oltin tangalar zarb ettirganlar. Hatto, bir necha oy hukmronlik qilgan Shohmurod oltin va kumush, Sayyid Sulton oltin, kumush va mis, Poʻlatxon va Nasriddinbek esa kumush tangalar zarb ettirgan.

Qoʻqon xonligi tangalarining bir tomoniga uni zarb ettirgan hukmdor nomi, ikkinchi tomoniga zarb yili va joyi yozilgan. Xususan, Umarxon tomonidan zarb ettirilgan tanganing bir tomoniga, "musulmonlar amiri Sayid Muhammad Umar Sulton", ikkinchi tomoniga "1237 yil poytaxt Qoʻqonda zarb etildi", Muhammadalixon zarb ettirgan tanganing bir tomoniga, "Muhammad Ali-Gʻozi Umar oʻgli 1247 yil", ikkinchi tomoniga "poytaxt Qoʻqonda zarb etildi, 1247 yil", Xudoyorxon 1274 yil (1857 - 1858) zarb ettirgan oltin tangasi bir tomoniga, "Sayid Muhammad Xudoyorxon 1274 yil", ikkinchi tomoniga "Qoʻqandi Latifda zarb etildi 1274 yil" va Mallaxon 1275 yil (1858 - 1859) zarb ettirgan tillo tanganing birinchi tomoniga, "Sayid Muhammad Malla Baxodurxon 1275 yil", ikkinchi tomoniga "Hoʻqandi Latifda zarb etildi 1275 yil", - deb qayd etilgan. Qoʻqon xonligining oltin puli - tillo, kumush - tanga yoki koʻqon, mis - chaqa deb atalgan. Mahalliy aholi kumushdan ishlangan tangani "oq

⁴¹² Кўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). 39-б.

tanga", misdan ishlangan tangani "qora tanga" deb atagan. Xonlik tangalari sifati va vazni turli xil bo'lgan. Muhammadalixon 1249 (1833 - 1834) yilda ogirligi 1 misqol bo'lgan tillo tanga zarb ettirgan hamda vasiqasida "Tilloyi ahmari a'loyi Xo'qandiy, zarbi amir Muhammad Alixon G'oziy", nomi bilan qayd etilgan. Xudoyorxon 1274 yil (1857 - 1858) zarb ettirgan tillo tangasi ogirligi 3,07 gramm, Mallaxon 1275 yilda (1858 - 1859) zarb ettirgan tillo tanganing og'irligi 4,58 gramm bo'lgan XIX asr 70 - yillaridagi Qo'qon tillo tangasining 77,60 dan 82,80 foizigacha toza oltin hisoblangan. Qo'qon kumush tangasi ham turli xil vaznda zarb etilgan. Xususan, 1870 - 1871 yillarda Toshkent ximiya laboratoriyasida tekshirilgan kumush tanga ogirligi 2,79 dan 2,88 gramgacha (0,75 misqol), soflik darajasi 61- 89,5 bo'lgan.⁴¹³

Qo'qon xonligida soliq tizimi mahalliy boshqaruv tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, u ma'sul etilgan muhim jabhalardan biri edi. Mamlakat ahlidan yig'iladigan soliqlarning asosiy qismi viloyatlarda to'plangan va markaziy davlat xazinasiga yuborilgan edi. Xonlikning soliq tizimida faoliyat yuritadigan mansabdorlar sarkor (yoki mirzaboshi), amlokdor, mirzolardan iborat bo'lib, ularga mahalliy boshqaruvdagi ariq oqsoqoli, mirob, amin va oqsoqollar ham yordam berar edi. Qo'qon xonligi soliq tizimi tepasida sarkorlar turgan bo'lib, ular har bir viloyatda ish yuritishgan. Arxiv hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, sarkorlar qo'rboshi, qo'riqchiboshi nomlari bilan ham atalgan. Xonlikda soliq tizimini yuritishda maxsus umumiy kirim-chiqim daftarlari bo'lib, ularda soliq va tushum turlari, soliq undirilgan ma'muriy birliklar hamda xazinaga berilgan pullar summasi alohida qayd qilib borilgan. Qo'qon xonligida ham soliqlar o'zining uzoq tarixiy davr mobaynida shakllangan turlarini deyarli o'zgarishsiz saqlab qolgan edi. Davlat g'aznasiga tushadigan asosiy soliq turlari xiroj, tanobona va zakotdan iborat edi. Xonlikda tanobona solig'i ham xiroj singari yer solig'i hisoblansada, bunday soliq pul hisobida undirilgan. 1870 yilga oid arxiv ma'lumotlarida ko'rsatilishicha, tanobona hosildorlikka qarab bir tanob yerdan 5 tangadan 10 tangagacha olingan. «Xon soliq» pul yig'imi bo'lib, har bir xonadondan yiliga to'rt tangadan sakkiz tangagacha olingan. Bu soliq aholidan harbiy

⁴¹³ Кўқон хонлигида савдо муносабатлари. 43-б

harakatlar uchun yoki qo‘shinning moddiy ehtiyojini qoplash uchun olingan. Soliq va yig‘imlardan tashqari davlat byudjetiga tushadigan turli to‘lovlar ham mavjud bo‘lib, bu to‘lovlar nikohona, tarikona, pandjyak, kema puli, kax puli, bozor yig‘imidan iborat edi. Nikohona nikohlanish vaqtida to‘lanadigan davlat boji hisoblangan bo‘lsa, tarikona merosni taqsimlashdan olingan⁴¹⁴. Xonlikda soliq va to‘lovlardan tashqari, turli mehnat majburiyatlari ham mavjud bo‘lib, ular ko‘proq suv inshootlari qurilishida va bahor oylarida obodonchilik ishlarida keng qo‘llanilgan.

Tayanch so‘zlar: Qo‘qon tarixnavislik maktabi, manbalar, Qo‘qon xonligi, ming urug‘i, Ming xonadoni, Chodak xojalari, Oltin Beshik, harbiy islohotlar, savdo aloqalari, «xon» unvoni «G‘oziy», qirg‘iz va qipchoqlar, yakkahokimlik, markaziy boshqaruv, chaqa, "qora pul" , qora fuls , pul isloxoti , soliq tizimi , mehnat majburiyatlari

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XVIII asr boshlarida Qo‘qon xonligidagi siyosiy vaziyat qaysi jihatlari bilan hususiyatlanadi?
2. XVIII asr oxirlaridagi Qo‘qon xonligining siyosiy vaziyati qaysi jihatlari bilan hususiyatlanadi?
3. Olimxon amalga oshirgan islohotlar va ularning ahamiyati qanday edi?
4. Muhammad Alixon hukmonligining asosiy jihatlari nimalarda aks etadi?
5. Amir Nasrulloning Qo‘qon xonligiga qarshi harbiy harakatlari va uning natijasi?
6. XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon xonligida qirg‘iz va qipchoq jamoalarining hokimiyatga ta’siri?
7. Qo‘qon xonligida qishloq xo‘jaligi va yer egaligi shakllari?
8. Xudoyorxon hukmronligining boshlanishida sodir bo‘lgan siyosiy jarayonlar?
9. Xonlikning savdo munosabatlari va pul muomalasi haqida ma’lumot bering?
10. Qo‘qon xonligida soliqlar turlari?

⁴¹⁴ Кўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). 110-121-бб.

TOSHKENT BEKLIĞI

- ❖ Toshkent bekligining tashkil topishi.
- ❖ Toshkent bekligining boshqaruv tizimi.
- ❖ Toshkent bekligining diplomatik aloqalari.
- ❖ Toshkent bekligining savdo-iqtisodiy aloqalari.
- ❖ Toshkent bekligining Qo‘qon xonligi tarkibiga kiritilishi.

Toshkent bekligining tashkil topishi. Toshkent azaldan O‘rta Osiyoning iqtisodiy va madaniy-ma’naviy markazlaridan biri hisoblangan. Toshkent miloddan avvalgi IV - milodiy VII asrlarda Qang‘ davlati, eftalitlar, Turk hoqonligi tarkibiga kirgan. Arxeologik topilmalar, me’moriy obidalar mahalliy an’analarning qo‘shni Sharq mamlakatlari madaniyati bilan uyg‘unlashib ketganligini ko‘rsatadi. VIII asrga kelib esa Toshkent arab xalifaligi tarkibiga kirdi. Keyingi bir necha asr davomida Toshkent Xorazmshohlar, mo‘g‘ullar, temuriylar davlati tarkibiga kiritilgan edi. Chunki Toshkent geosiyosiy jihatdan qulay joyda joylashgan bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lining markazida, Xitoy bilan g‘arb davlatlarini birlashtiruvchi savdo tuguni sifatida juda muxim shahar edi. XIII-XIV asrning birinchi yarmida Toshkent viloyati Chig‘atoy ulusi tarkibida, XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asrning 80-yillarigacha esa Amir Temur va Temuriylar davlati tarkibida bo‘ldi. 1404 yilda Toshkent Mirzo Ulug‘bek ixtiyoriga mulk tarzida berildi. Bu davrda shahar voha bilan dasht chegarasidagi kuchli qal‘aga aylandi, uning hududi kengayib, ishlab chiqarish, savdo-sotiq, madaniy hayot rivojlandi. Registon, Shayxontohur majmualaridagi maqbaralar, Jome masjidi va boshqalar qurildi.

Toshkent qadimdan O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkistonni Rossiya va Yevropa davlatlari bilan bog‘laydigan muhim siyosiy-iqtisodiy markazlardan biri edi. XVIII asr o‘rtalaridan shaharda yuz bergan siyosiy tarqoqlik uning xo‘jaligi, tashqi va ichki savdosi rivojiga keskin to‘sqinlik qildi. Bu vaqtda Toshkent to‘rt qism (daha)ga, Shayxontohur, Ko‘kcha, Sebzor va Beshyog‘och dahalariga bo‘lingan edi. Bu haqida A.A.Divayev ham «Turkistanskiye vedemosti» gazetasiga bergan maqolasida bir vaqtlar Toshkent ma’muriy-hududiy jihatdan to‘rt dahadan iborat ekanligi va har bir dahaning o‘z mustaqil hokimlari bo‘lganligini qayd qilib o‘tadi. Bu davr shahar tarixida «chor hokim» nomi bilan ma’lumdir. Shaharning har

bir dahasi alohida hokim tomonidan boshqarilganligini Muhammad Solih ham «Tarixi jadidai Toshkand» asarida keltirgan⁴¹⁵.

XV asrning ikkinchi yarmida Toshkent qo‘ldan-qo‘lga o‘tib turdi: ko‘chmanchi o‘zbeklar xoni Abulxayr (1428-1468 yillar) tomonidan qisqa muddatda bosib olindi. So‘ng turli temuriyzoda hukmdorlarga bo‘ysundi, keyinchalik temuriylar o‘rtasida boshlangan taxt uchun kurash natijasida Toshkent 1485 yilda Mo‘g‘uliston xoni Yunusxon ixtiyoriga o‘tdi va uning qarorgohiga aylandi. Lekin, u ko‘p hukmronlik qilmay, 1487 yilda Toshkentda vafot etdi. Yunusxondan keyin taxtga uning o‘g‘li Sulton Maxmudxon o‘tirdi. Uning hukmronligi ham ko‘pga bormadi. Toshkent 1503 yilda Shayboniyxon va Ko‘chkunchixon tasarrufiga o‘tdi. XVI asrda Toshkent ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati tarkibiga kiritildi va shayboniylar davlatining muxim iqtisodiy va siyosiy markazlaridan biriga aylandi. Shahar yangi devor bilan o‘raldi. Me’morchilik obidalari qad ko‘tardi, ularning ayrimlari - Shayx Xovandi Tohur maqbarasi, Ko‘kaldosh madrasasi, Baroqxon madrasasi bizning davrimizgacha yetib kelgan. Hunarmandlikning taraqqiyoti savdo-sotiq aloqalarining kengayishiga olib keldi. 1558 yilda Toshkent qirg‘iz - qaysoklar qamaliga bardosh berdi. XVI asrning ikkinchi yarmida Qozon va Astraxon xonliklarining Rus davlatiga bo‘ysundirilishi natijasi-da Toshkent bilan Moskva o‘rtasida savdo aloqasi rivojlandi, har ikki tomon bir-biriga elchilar yubordi. 1579 yilda Toshkentni Buxoro xoni Abdullaxon II bosib oldi. 1588 yilda shahar aholisi Abdullaxon II ning noibi, Toshkent viloyatining hokimi O‘zbekka qarshi isyon ko‘targan. Lekin, ko‘p o‘tmay isyon bostirildi. 1597 yilda shaharni qozoq xoni Tavakkalxon (1598 yilda vafot etgan) bosib oldi. Oz fursat o‘tmay Toshkent yana Buxoro xonligiga o‘tdi. Ashtarxoniylardan Imomqulixon qozoqlarni tormor keltirib, 1612 yilda o‘g‘li Iskandarni Toshkentga noib qilib tayinladi. Biroq shahar aholisi isyon ko‘tarib, qochib ketayotgan Iskandarni tutib o‘ldirdi. Bundan g‘azablangan Imomqulixon Buxoro, Balx va Badaxshon viloyatlaridan qo‘shin yig‘ib kelib Toshkent aholisini qirg‘in qilgan.

1642 yilda Toshkent mustaqil bekklik sifatida tarkib topdi. Biroq bir muddat qozoqlar hukronligi ostiga tushib qoladi. 1723 yilda Toshkent

⁴¹⁵ Тайронов Ё. Тошкент шахрининг бошқарув тарихидан. <http://uz.denemetr>

Jungʻor xoni Galdan Siren qoʻliga oʻtdi. Bu davrda Toshkent aholisi tokchilik, bogʻdorchilik hamda poliz ekinlari, bugʻdoy, tariq, arpa, suli, zigʻir, kunjut yetishtirish bilan shugʻullanardi. Shahar rastalarida ipak mato, ip gazlama, zarbof kiyimlar koʻp boʻlgan. Rus savdogarlari Toshkentga movut, qunduz terisi va turli boʻyoklar keltirishgan. Toshkent bilan Balx, Xiva, Buxoro, Samarqand, Koʻlob, Shahrisabz va boshqa shaharlar oʻrtasida savdo-sotiq rivojlangan. Pul muomalasi bu davrda xam hali yaxshi taraqqiy kilmagan edi. Toshkent aholisiga don va qoramol bilan toʻlanadigan maxsus soliq (hosilning 1/101/5 ulushi) solingan. Toshkent Jungʻor xonligi barham topgandan keyin (1758) Katta Oʻrda va qalmoklarning hujumlari natijasida koʻp zarar koʻrdi.

XVIII asrda Toshkentda ogʻir siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat yuzaga keldi. Chunonchi 1723 yilda Toshkentni qalmoq koʻchmanchilari egallab, qozoq xoni Joʻlbarsni oʻz vassali sifatida shahar boshligʻi etib tayinladi. Bu vaqtda Chelek, Xondayliq, Xoʻjakent, Zarkent, Parkent, Namdanaq, Qoramurt, Sayram, Chimkent va shu atrofdagi boshqa joylar Toshkent viloyati tarkibiga kirardi. Qalmoq bosqinchilari belgilangan soliqlarni va buyumlarni olib turganlar. Bu ishga Joʻlbarsxon mutassadilik qilib borgan. Ayrim maʼlumotlarga koʻra, soliqlar miqdori 40 ming tilla hisoblanib, bundan tashqari turli gazlamalar, gilamlar, oltin, kumush, qurol-yarogʻ va boshqa qimmatli narsalar olingan. Qalmoqlar zulmi xalqni shu qadar azobga solganki, 1739 yilda toshkentliklar Joʻlbarsni oʻddirdilar. Ammo uning oʻrniga qozoq xoni Toʻlabiy koʻtarildi va zulm 1758 yilgacha, yaʼni Xitoy tomonidan qalmoqlar (jungʻorlar) qirib tashlangunga qadar davom etdi. 1758 yilda Jungʻorlar davlatining Xitoy tomonidan agʻdarilishi natijasida Toshkent Xitoyga rasman vassal shaharga, amalda esa mustaqil davlatga aylangan edi.

XVIII asr boshlarida Toshkent qalmoqlar qoʻl ostiga oʻtishi va u yerda qalmoqlarga qaram boʻlgan qozoq sultonlari tomonidan 1723-1758 yillar davomida boshqarilganligi haqidagi maʼlumotlar E.Hojiyevning “Toshkentning Rossiya shaharlari bilan aloqasi”, Y.Sokolovning “Tashkent, tashkentsi i Rossiya”, E.Xurshutning “Shi-Chach-Tashkent”, R.G.Mukminova, M.I.Filanovichning “Tashkent na perekryostke istorii”

risolalarida ta'kidlab o'tilgan⁴¹⁶.

Z.Muqimovning davlat va xuquq borasidagi fikrlariga ko'ra, davlatshunoslik nuqtai-nazaridan qaraganda, bu davrda Toshkent shahrining boshqarilishi diqqatga sazovordir. Shahar 1784-1800 yillarda biror davlat tarkibiga kirmay, o'zi mustaqil mulk bo'lib, to'rt qism (daha)ga bo'lingan. To'rtala qismiga ham hokimlar boshchilik qilgan. 1784 yilda savdo faoliyati bilan shug'ullangan Yunusxo'ja qurultoyda shahar hokimi etib saylanadi. U Toshkentning mustaqilligi uchun kurashib, hatto Qo'qon xonligining qo'shinlariga ham zarba bergan. 1800 yilda esa shahar Qo'qon xonligiga qo'shib olinadi. Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda ham xuddi G'arbiy Yevropadagidsk, erkin shaharlar yoki shahar –respublikalar bo'lgan. Bunga Toshkent yaqqol misol bo'la oladi⁴¹⁷.

1784 yilda Yunusxo'ja hokimiyatni qo'lga olib, mustaqil Toshkent davlatini barpo etishga muvaffaq bo'ldi⁴¹⁸. Bu mustaqil davlatning boshqaruvi o'ziga xos bo'lib, beklar tomonidan boshqarilgan va shunga ko'ra davlat nomi ham Toshkent bekligi deb yuritilgan.

Toshkent bekligining boshqaruv tizimi. XVIII asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida yuzaga kelgan siyosiy hayot inqirozi uning turli viloyatlari taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan. Shunday hududlardan biri hisoblangan Toshkentda shu asrning boshlarida mahalliy xo'jalarning mavqei ortib borgan. Natijada shaharda to'rt daha xo'jalari tomonidan idora etilgan boshqaruv tizimi shakllangan. Bu tizim 1784 yilda Toshkentda "shahar-respublika"ga o'sib o'tgan⁴¹⁹.

Yunusxo'ja davlatni boshqarishni ham birmuncha tartibga solib, yakkahokimlik tarzida ish yuritgan. Bu borada shunday deyilgan: «Toshkent hukmdori (Yunusxo'ja) o'z fuqarolari ustidan cheksiz hokimiyatga ega. Ammo u o'z atrofidagi eng yaxshi amaldorlar bilan

⁴¹⁶ Шамсиев М.Б. XVIII аср иккинчи ярми Тошкент тарихини ўрганилиши хусусида / Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. «Фан», 2009. 232-б.

⁴¹⁷ Муқимов Зиёдулла. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Т.: "Адолат", 2003. 220-б.

⁴¹⁸ Зиёев Х.З. Юнусхўжа. <http://e-tarix.uz>

⁴¹⁹ Агзамова Г.А. Тошкентнинг Ўрта Осиёда кечган сиёсий ва иқтисодий жараёнларда тутган ўрни (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). / Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. «Фан». 2009. 211-212-бб.

maslahatlashgan holda hokimiyatni boshqaradi. Bu kengashda Yunusxo‘jaga eng sodiq va ishonchli xo‘jalar qatnashadi. Shaharni Bosh xo‘ja mansabidagi amaldor boshqarib, u tartib-intizom va obodonchilikka doir masalalar bilan shug‘ullanadi. Bosh xo‘ja aybdorlarni jazolash huquqiga ega. Ammo kimki uning hukmidan norozi bo‘lsa bevosita Yunusxo‘jaga murojaat qila oladi. Bosh xo‘ja aholiga Yunusxo‘janing ko‘rsatmasi asosida soliqlar soladi. U hukmdor yo‘qligida viloyatni boshqarish huquqiga egadir»⁴²⁰.

Bu vaqtda Toshkent to‘rtta dahadan iborat bo‘lib, bular Shayxontahur, Sebzor, (Qaffol Shoshiy), Ko‘kcha (Shayx Zayniddin) va Beshyog‘och (Zangiota) dahalari bo‘lgan. Bulardan qadimiylari Sebzor va Ko‘kcha hisoblanib, Sebzor ko‘plab bog‘lar, Ko‘kcha ko‘plab dalalar, deb ta‘riflangan. Shayxontahur Shayx Xovandi Tahur nomidan kelib chiqqan, Beshyog‘och turkiy nom bo‘lgan. Har bir daha mahallalarga bo‘lingan.

Tadqiqotchi O‘.Sultonovning “Tarixi jadidi Toshkand” asaridagi manbaviy ma’lumotlarga asosan ko‘rsatishicha Toshkent shahri hududi bir necha mahallalarni o‘z ichiga olgan to‘rt dahadan iborat bo‘lgan. Muhammad Solihxo‘janing yozishicha, to‘rt daha yoki rukn nomi dastlab Toshkentda yashab o‘tgan Abu Bakr Qaffol Shoshiy (904–976), shayx Zayniddin (XIII asr), shayx Xovand Tahur (vaf. 1359 y.), Zangi ota (vaf. 1258 y.) nomlari bilan atalgan. Keyinchalik ular Sebzor, Ko‘kcha, Shayxontahur va Beshyog‘och deb yuritila boshlangan. Har bir daha bir necha mahalla va mavzelarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular ayrim ishlarda chuqur tadqiq qilingan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarining turli voqealar bayonida Balandmasjid, Orqako‘cha, Qoratosh, Mergancha, Qatorterak, Qiyot, Qoryog‘di (Qorbog‘di), Zanjirlik, Xoja Rushnoyi, Xo‘jako‘cha, Parchabof, Sanchiqmon, Hofiz Ko‘hakiy, Kallaxona, Chig‘atoy, Kamolon, Suzukota, Yalangqari, Oqmasjid, Koshg‘ariyon, Yangishahar, Ganjtepa, Oxunguzar, Hastimom, Taxtapul, Sarfaros, Chuqurko‘prik, Devonbegi, Murodali, Shohnishin, Havzbog‘, Qoratut, Chehlbulog‘ kabi mahallalar hamda shahar tashqarisidagi Parvizshohi, Darvishak qofqa, SHo‘rtepa, Oltintepa, Oqqo‘rg‘on, Kuvaidtepa, Mirobod,

⁴²⁰ Муқимов Зиёдулла. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Т.: “Адолат”, 2003. 222-б.

Minor, Jarboshi, Qoraqamish, Mingo'rik, Childuxtaron, Chinobod, Sanduqlik qo'rg'on va boshqa mavzelnari, ayrim mahallalarning guzarlari hamda ulardagi inshootlar eslatib o'tilgan⁴²¹.

Mahallalar dastlabki aholining ma'muriy-xo'jalik va jamoaviy tashkiloti bo'lib, o'zining boshqaruv tizimiga ega bo'lgan. Mahallani saylangan oqsoqol boshqargan. Oqsoqolning vazifasi umummahalla yer hududlarini o'zgartirish, suv bilan ta'minlash⁶ kabi vazifalardan iborat bo'lgan. 1740 yil Toshkentga kelgan rus zobiti Millerning guvohlik berishicha, bu vaqtda Toshkentda 150 ga yaqin mahallalar bo'lgan. Har bir daha obro'li xonadon vakillari tomonidan boshqarilgan. O.D.Chexovichning ma'lumot berishicha, to'rtta e'tiborli, boy xonadon sohiblari Shayxontahur dahasida Avlayqulixon avlodidan Boboxonto'ra, Beshyog'ochda Ashtarxoniy-lardan Rajabbek, Ko'kchada Chig'atoyxon avlodidan Muhammad Ibrohimbek, Sebzorda Jo'chixon nasliga mansub yana bir kishi hokim bo'lib ular o'rtasida doimo kelishmovchiliklar bo'lib turgan. O'zaro kelishmovchiliklar ichki va tashqi savdoga hamda shahar xo'jaligi hayotiga o'z ta'sirini o'tkazgan⁴²².

Muhammad Solih Toshkandiyning "Tarixi jadidai Toshkand" asarida aytilishicha, "Chor hokimlik" davrida uchta daha hokimlari birlashib, Avlayqulixon avlodlariga qarshi urush olib borilganligi aytilgan. Uzoq vaqt davom etgan janglardan so'ng Salimsoqto'ra va Boboxonto'ra boshchiligidagi Avlayqulixon avlodlari birin-ketin uch dahani egallaydi va g'olib tomon talabi bilan mashvarat o'tkaziladi. Bunda shaharda yagona hokim va yagona harbiy boshliq bo'lishini talab qilishadi. Mashvaratga ko'ra Devonbegi mahallasidan bo'lgan Salimsoqto'ra harbiy qo'mondon, Rustam to'ra otaliq vazifasiga, Odilto'ra parvonachi, Boboxonto'ra esa qo'shin boshlig'i vazifalariga, Salimsoqto'ra taklifiga ko'ra Shayx Xovandi Tahur avlodlaridan bo'lgan Yunusxo'jani "viloyat voliyasi" etib saylaganlar⁴²³.

⁴²¹ Султонов Ў. Муҳаммад Солиххўжанинг "Тарихи жадидаи Тошканд" асари муҳим тарихий манба сифатида (XIX аср). Тарих фан ном ... дисс. Тошкент, 2007. 99-б.

⁴²² Шамсиев М.Б. XVIII аср иккинчи ярми Тошкент тарихини ўрганилиши хусусида / Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. «Фан». 2009. 232-233-бб.

⁴²³ Султонов Ў. Муҳаммад Солиххўжанинг "Тарихи жадидаи Тошканд" асари муҳим тарихий манба сифатида (XIX аср). Тарих фан ном ... дисс. Тошкент, 2007. 89-б.

Muallifi noma'lum bo'lgan «Anjum at-tavorix» asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, O'rta juz xoni Ablayxon Toshkentni qalmoq noiblaridan tortib olgach, shaharning to'rt dahasini (to'g'rirog'i dahalarga qarashli mavzelarni) o'ziga yaqin urug'larga topshirgan. Jumladan, Beshyog'och shayxim toifasiga, Ko'kcha qo'ng'iroq va o'rta yuz jamoasiga, Sebzor chinish firqasiga, Shayxontahur sergili, eli va uchoqli toifasiga berilgan. Toshkentni o'z qo'li ostida birlashtirgan Yunusxo'ja (1784–1803) ham dastlab raqiblariga qarshi kurashda sanchiqli (yoki sanjiqli), qirq, qiyot, turk, qang'li urug'lari bilan bitim tuzib, ularning yordamidan foydalangan va Toshkentni birlashtirgach, ushbu urug'larga shahar tevaragidan yerlar bergan⁴²⁴.

YUNUSHO'JA

(1784 — 1801)

Toshkent davlati hokimi (1784 — 1801). Yunusxo'ja Toshkentdagi 4 dahaning biri - Shayxontohur hokimi Ulug'xo'janing o'g'li bo'lgan. Yunusxo'jani «ishbilarmon», «jasur va taraqqiyparvar» shaxs sifatida ta'riflaydilar. Darhaqiqat, Yunusxo'ja o'z davrining mohir hukmdori hisoblangan. Aks holda mustaqil davlat tuzib, xarobaga aylanayotgan Toshkent qaddini ko'tarishga bel bog'lamas edi. U tabiiy boyliklardan foydalanish davlat va xalq manfaati uchun o'ta foydali ekanini anglagan zukko hukmdor edi. Bunday shaxslar tariximizda kamdan-kam uchraydi. Shunisi diqqatga sazovorki, Yunusxo'ja Toshkent tarixida birinchi bo'lib, to'pdan foydalanishni joriy etdi. U shahar devorlarini hashar yo'li bilan tuzatirgan, mustahkamlagan. 1800 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, devor quyi qismining qalinligi 1,8 m, ustki qismi 0,9 m atrofida bo'lib, aylanma uzunligi 18 chaqirimdan ortiq, devor balandligi 7,9 m bo'lgan. Yunusxo'ja 6 ming kishidan iborat qo'shin tuzib, askarlarni pilta miltiq, qilich, nayza, qalqon bilan qurollantirgan. Yunusxo'ja davrida belgilangan tartibga ko'ra, har bir jondan bir oyda daromadiga qarab 5 tangadan 10 tangagacha, yerdan olingan hosilning qirqdan bir qismi olingan. Qoraqozonlar soliqlardan ozod qilingan. Shaharda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq izga tushgan. Yunusxo'ja ichki va tashqi savdoning o'sishiga e'tibor bergan.

Yunusxo'ja shahardagi o'zaro kurashlarni bartaraf qilib, Shayxontohur, Beshyog'och, Sebzor va Ko'kcha dahalarini o'z qo'li ostida birlashtirgan. Yunusxo'ja 6000 kishidan iborat qo'shin tuzib, askarlarni pilta miltiq, qilich, nayza, qalqon va to'plar bilan qurollantirdi. Bu qo'shin «qora-qozon» deb atalib, unda asosan turli shaharlardan kelgan musofir kishilar va asirlar xizmat qilgan. Ular Yunusxo'ja va boshqa hukumat amaldorlari o'rtasida taqsimlangan bo'lib, tinchlik paytlarida o'z yerlari hamda uylarida dehqonchilik, hunarmandchilik qilib, o'z xo'jayinlaridan

⁴²⁴ Султонов Ў. Муҳаммад Солиххўжанинг “Тарихи жадидаи Тошканд” асари муҳим тарихий манба сифатида (XIX аср). Тарих фан ном ... дисс. Тошкент, 2007. 96-б.

haq olmay ishlaganlar. Shuning uchun bo'sh vaqtlarida boshqa joylarda ishlab, tirikchilik o'tkazganlar. Toshkentning yangi hokimi urush vaqtlarida o'troq va ko'chmanchi aholidan 50 -60 ming askar yig'ish imkoniga ega bo'lgan. Qo'shin turli rangdagi bayroqlar, nog'ora, karnay va surnaylar bilan ta'minlangan. Urush borishiga qarab, har bir xonadondan bir-ikki kishi qo'shinga jalb etilgan. Yunusxo'ja 1794 yilda Chimkent va Sayramni, 1799 yilda esa Turkiston shahrini bosib oldi. 1800 yilda Yunusxo'ja Chirchiq daryosining chap qirg'og'ini va Qurama mavzeini qo'lga kiritdi. Shuningdek, Parkent, Namdanoq, Adanak, To'ytepa, Qoraucha, Ohangaron daryosi qirg'og'idagi Matin va Qahronqal'a, Chordora, Niyozbek, Do'rmancha va Turbat singari joylar mustaqil Toshkent davlati tarkibiga kirgan edi.

1796 yilga kelib, Chimkent, Sayram, Oltintepa, Qorabuloq, Sarapan shaharlari hamda Niyozbek va Temir mavzelari Yunusxo'ja qo'l ostida birlashtiriladi. Turkiston va uning atrofidagi to Chu daryosigacha bo'lgan yerlarni ham o'z tasarrufiga oladi. 1800 yilga kelib, Toshkent hokimligining chegarasi janub va g'arbdan Sirdaryo bo'ylab, shimoldan Turkiston va Qoratog' yonbag'irlari orqali o'tgan. Sharqda Sayram tizmasi va Ugom daryolarining o'ng sohili, janubi-sharqda Chotqol-Qurama tog' tizmalari yoqalab Sangir qishlog'igacha borgan. 1800 yilgi ma'lumotlarga qaraganda, Toshkent shahrida 80 mingga yaqin kishi yashagan⁴²⁵.

Toshkentni boshqarishda Bosh xo'ja lavozimi bo'lib, Bosh xo'ja davlatda Yunusxo'jadan keyin ikkinchi shaxs hisoblangan. Undan keyingi ma'muriy pog'onalarni mingboshi, yuzboshi, o'nboshi va oqsoqollik martabasiga erishgan odamlar egallaganlar. Ular o'z ishlari haqida bevosita Yunusxo'jaga hisobot berib turganlar⁴²⁶.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Yunusxo'ja (1784-1803) tomonidan Toshkentda to'rt hokimlik tugatilib, kuchli ichki va tashqi siyosat o'rnatilishga erishilgan bo'lsada, lekin bu mustaqil boshqaruv uzoq davom etmadi. XVIII asrning boshlarida Farg'ona vodiysida vujudga kelgan Qo'qon xonligi o'z hududini kengaytirishga urinib kelayotgan edi. Qo'qon

⁴²⁵ Шамсиев М.Б. XVIII аср иккинчи ярми Тошкент тарихини ўрганилиши хусусида / Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. «Фан». 2009. 233-б.

⁴²⁶ Зиёев Х.З. Юнусхўжа. <http://e-tarix.uz>

xonligi hukmdorlari uchun Toshkentni xonlik tarkibiga kiritish davlatning tashqi savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega edi. Shu sababli ham Qo‘qon xonlari Norbo‘tabiy (1763-1798) va uning o‘g‘li Olimxon (1798-1810) bilan Toshkent hokimi Yunusxo‘ja o‘rtalarida harbiy to‘qnashuvlar bo‘lib turgan. Olimxonning 1809 yilda Toshkent uchun olib borgan harbiy harakati natijasida bu hudud Qo‘qon xonligi tarkibiga kiritildi. Natijada Toshkentda Yunusxo‘ja hukmronligi davrida joriy etilgan boshqaruv tizimi 1809 yildan barham topib, Qo‘qon xonligidagi boshqaruv tizimiga o‘zgartirildi⁴²⁷. XIX asr boshlaridan Toshkent Qo‘qon xonligi tarkibiga kiritildi va xonlikning eng yirik viloyatiga aylandi.

Toshkent bekligining diplomatik aloqalari. Tarixdan ma’lumki, O‘rta Osiyodagi shaharlar kabi Toshkent ham Sharq bilan G‘arbni bir-biriga bog‘lab turuvchi Buyuk ipak yo‘li ustida joylashgan. Karvon yo‘li Koshg‘ardan O‘sh orqali Toshkentga kelgan. Toshkent O‘rta Osiyoning muhim shaharlaridan biri hisoblanib, Qo‘qonning Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachilik rolini ham o‘tagan. Shu bilan birga rus hukumati Toshkent orqali O‘rta Osiyo xonliklari bilan va hattoki u orqali Xitoy bilan savdo qilishga harakat qilgan.

Yunusxo‘ja Toshkentni boshqarga vaqtida ichki va tashqi savdoning o‘rishiga e’tibor berdi. Natijada Toshkent, Qo‘qon, Buxoro, Xo‘jand, Chimkent, Turkiston, Samarqand va ko‘hna Turon zaminning boshqa joylari bilan izchil suratda savdo olib bordi. Shuningdek, u Hindiston, Xitoy, Qashqar, Tibet, Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlar bilan tijoriy ishlarni yo‘lga qo‘ydi⁴²⁸.

Toshkentliklar Qozog‘iston va G‘arbiy Sibir bozorlarida yetakchi o‘rinni egalladilar. Toshkentlik savdogarlar Petropavlovsk, Ust-Kamenogorsk va Sibirning boshqa yerlarida ham faoliyat yuritganlar. O‘sha vaqtlarda Sibir va Rossiyaning boshqa chekka o‘lkalarida rus savdogarlarining o‘rni bilinmas edi. Ular karvonlari yo‘llarda qaroqchilar tomonidan talanishini hisobga olib, Turkiston va Qashqarga kamdan-kam

⁴²⁷ Махмудов Ш.Ю. XIX аср биринчи ярмида Тошкентнинг маъмурий-бошқарув тизими. <http://shosh.uz>

⁴²⁸ Зиёев Х.З. Юнусхўжа. <http://e-tarix.uz>

kelardilar. Shuning uchun rus hukumati bu yurtlarda savdoni olib borishda, asosan, toshkentlik tijoratchilardan vositachi sifatida foydalandi. Ular bunga erishmoq uchun o'zbeklarga imtiyozlar berdi va ularni Sibirga doimiy yashashlari uchun sharoit yaratib berdi. Natijada, Sibirda toshkentliklarning qator mahallalari yuzaga keldi. Yunusxo'ja Rossiyada tog' sanoati yaxshi rivojlanganini bilib, rus hukumati yordamida Toshkentda tabiiy boyliklardan foydalanishga qattiq kirishdi. Bundan kutilgan maqsad qo'shinni zamonaviy qurol-aslaha bilan ta'minlash, davlat g'aznasini moddiy jihatdan mustahkamlash edi. Yunusxo'ja 1794 yili savdo karvoni orqali Sibir yo'nalishi mahalliy hokimiyatiga maxsus xat yuborib, o'zaro savdo aloqalarini kuchaytirish va tog' konlari bo'yicha mutaxassislarini Toshkentga yuborilishini so'ragan⁴²⁹.

Rossiya davlati Toshkent orqali Qo'qon xonligi bilan savdo va diplomatik aloqalar o'rnatishdan manfaatdor bo'lgan. Chunki Rossiya Toshkent va Qo'qon orqali Koshg'arga ham chiqishi mumkin edi. Rossiya Sharqiy Turkiston bilan bo'ladigan savdo aloqalarida toshkentlik savdogarlarning vositachilik rolini ko'ra bilgan edi. Ruslar toshkentliklarning Koshg'ar tovarlarini Qo'qon orqali Rossiyaga yetkazib berishlaridan katta foyda ko'rgan. Ma'lumotlarga ko'ra, XVIII asr oxirlarida Semipalatinsk bojxonasi hujjatlarida Rossiyaning Sharqiy Turkiston bilan aloqasida toshkentlik savdogarlar rolining ortib borganligini aks ettiruvchi ma'lumotlar uchraydi⁴³⁰.

1793 yilda Yunusxujaning elchisi Muxammad Xuja va Azimxujalarni karvon bilan G'arbiy Sibir gubernatoriligiga yo'l oladi. Gubernator G. Shtradman huzurida qabul qilingan Toshkent savdogarlari Rossiyada o'zlarining olib borgan maxsulotlarini sotish uchun ruxsat so'raydilar. G'arbiy Sibir gubernatori bu haqda Rossiya podshosi Yekaterina II ga ma'lumot beradi. Uning farmoniga ko'ra Toshkent savdogarlariga Sibir va Ural xududlarida erkin savdo qilishlariga ruxsat beriladi va ayni vaqtda ulardan imtiyoz sifatida bojxona soliqlari olinmaydi. Rossiya bu aloqalardan manfaatdor edi.

Yunusxo'janing taklifi bilan Rossiya davlatidan Toshkentga

⁴²⁹ Зиёев Х.З. Юнусхўжа. <http://e-tarix.uz>

⁴³⁰ Алимова Р.Р. Марказий Осиё халқлари тарихи сўнги ўрта асрларда // <http://uz.denemetr.com>

yuborilgan elchilar Buxoro amirligida to‘xtatib qolinadi va Toshkentga o‘tishlariga ruxsat berilmaydi. Sibir general-gubernatori Shtardmand 1795 yilda ikkinchi marotaba Toshkentga rus elchilari etib D.Telyatnikov bilan Beznosikovni tayinlaydi. Ular bilan Yunusxo‘ja nomiga xat hamda sovg‘alar berib yuboradi. Elchilarning zimmasiga Toshkentda tog‘ jinslarini tekshirish va konlar topilgan taqdirda ularning iqtisodiy ahamiyati haqida ma’lumotlar to‘plash vazifasi yuklatiladi. Elchilar O‘rta juz qozoq yerlari bo‘ylab, Toshkentga 1796 yilning 27 avgustida yetib keladilar, Ular izzat-hurmat bilan qarshi olinadi. Afsuski, elchilarning Toshkentdagi faoliyati xususidagi ma’lumotlar juda g‘arib. Shu narsa aniqki, ular Toshkent atrofidagi tog‘larda oltin va kumush topilmaganligi, lekin temir jinslari borligi, ammo u texnikaning yo‘qligi tufayli ishga solinmayotganini qayd etishgan. Shuningdek elchilar beklilik hududida savdo qilishga va ayrim imtiyozlar sifatida qaroqchilardan himoya qilishni va bojxona pulini to‘lamaslikni so‘raydilar. Rus elchilari 1797 yilning 1 iyunida Yunusxo‘janing Mullajon Ohun va mingboshi Ashirmat Botir singari elchilari bilan birga o‘z vataniga yo‘l oladilar. Toshkentlik elchilar Omskda o‘zlarining Peterburgga borishi va shaxsan rus imperatori bilan uchrashishini ma’lum qiladi. Shtardmand rus hukumatidan bunga ruxsat olgach, Toshkent elchilari Omskdan yo‘lga chiqib, Yekaterinburg, Perm, Qozon, Moskva orqali Peterburgga borishadi va Yunusxo‘janing imperator nomiga yozilgan maktubini taqdim etadilar. Maktubda Yunusxo‘ja rus elchilari Toshkentda o‘z vazifasini bajargani va o‘zining javob elchilarini yuborganini ma’lum qilib, imperatordan tog‘ konlari bo‘yicha bilimdon mutaxassislar yuborishni iltimos etadi⁴³¹. Bunga ko‘ra 1798 yil 9 martda imperator Pavel I tomonidan elchilarga javob tariqasida rasmiy xujjatlar topshiriladi. Bu xujjatlarda Rossiya tomonidan savdoni yo‘lga qo‘yish uchun savdo yo‘llarida xavfsizlikni va savdo uchun qulay shart sharoitlarni yaratib berishga va’da qilinib, Toshkent bekligi tomonidan ham huddi shunday javobning bo‘lishi maqsadga muvofiq ekanini ta’kidlab o‘tilgan edi. Shuningdek, Pavel I ning mazkur maktubida Rossiya imperiyasi Toshkent bekligini tashqi dushmanlardan, xususan Xitoydan ximoya qilish va zarur xollarda xarbiy kumak berishni ham bildirib o‘tgan edi. Elchilik

⁴³¹ Зиёев Х.З. Юнусхўжа. <http://e-tarix.uz>

natijalari Toshkent bekligini xukmdori Yunusxujani qoniqtirdi. Muzokaralarning amaliy natijasi sifatida 1800 yilda tog‘ ishlari injeneri M.Pospelov boshchiligidagi mutaxassislar Toshkentda elchi bo‘ldi. Uch oy davomida Toshkentda bo‘lgan mutaxassislar bu yordam tog‘ kon ishlari va yer osti boyliklari xo‘jalik hayoti va metallga ishlov berish ishlarini ko‘radilar. Toshkent iqtisodiy aloqalari borasida Rossiya Xitoy, Eron, Xindiston va O‘rta Osiyo xonliklari bilan savdo yo‘llaridan asosiy bog‘lovchi shaxar sifatida muxim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan Pospelov oldiga xarbiy zarurat tufayli qo‘shin yuboriladigan bo‘lsa qo‘shinning Toshkentga yetib borishi, u yerda joylashish va harakatlanishi ishlarini o‘rganish ham topshirilgan edi. 1803 yilda D. Telyatnikov boshchiligidagi ikkinchi marta elchilik amalga oshirildi. Biroq bu elchilar Toshkentgacha yetib kela olmadilar. Qo‘qon xonligining Toshkentga nisbatan bosqinchilik urushini boshlashi va ikki o‘rtada shiddatli janglar ketayotganligi bois bu elchilar yarim yo‘ldan Omsk shahriga qaytarilgan edi.

Shu tariqa 1803 yilga kelib Qo‘qon xonligi Toshkent va Janubiy qozoq yerlari ustidan xukmronlik qilish uchun urushga kirishdi va bu yerlarda erishayotgan muvaffaqiyatlari Rossiyani Toshkent bilan diplomatik aloqalarni to‘xtatish bu shaharga xomiylik qilish maqsadidan voz kechishga olib kelgan edi.

Toshkent bekligining savdo-iqtisodiy aloqalari. Toshkent yirik savdogarlar shahri edi. Ular shahar karvonsaroylarida xorijiy savdo ahli bilan bir qatorda o‘z mollarini saqlar va ular bilan ulgurji savdoni amalga oshirar edilar. Xususan, Isabek, Shohbek, Dasturxonchi, Abdurasul va Mulla Omonboy rais nomi bilan mashhur saroylarda ulgurji savdo bilan shug‘ullanuvchi toshkentlik boy savdogarlar o‘z mollarini saqlaganlar. Toshkentda Sayidazim, Nurmuhammad Qo‘shbegi, Namangan va boshqa bir necha karvon saroylar bo‘lib, unda turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar to‘xtashgan. A.P.Xoroshxin Toshkent shahrida 29 ta karvonsaroy borligini eslatadi. U shahar bozoridagi tovarlar sotiladigan rastalar sonini ham qayd etgan⁴³². Shaharning iqtisodiy aloqalari unda

⁴³² Алимova P.П. Марказий Осиё халқлари тарихи сўнги ўрта асрларда // <http://uz.denemetr.com>

muayyan bozor infrastrukturasi rivojlanishiga olib kelgan. Jumladan, shaharda xorijiy savdogarlarning to'xtashlari uchun karvonsaroylar mavjud edi. XIX asrning 60-yillarida shaharda ularning soni 17 ta atrofida bo'lgan. Turli mamlakatlar savdogarlari muayyan karvonsaroylarda yashaganlar. Xorijiy savdogarlarning katta qismini tashkil qilgan hindlar Shirin Xoja Rais saroyida to'xtaganlar. Shahar karvonsaroylaridan biri "Yahudiylar karvon-saroyi" nomi bilan ma'lum edi⁴³³.

Yunusxo'ja Toshkent hokimligini to'la mustaqil davlat darajasiga ko'tarish uchun ichki va tashqi savdoni rivojlantirish maqsadida old tomoniga "Muhammad Yunusxo'ja Umariy" deb yozilgan, sirtiga lochin yoki yo'lbars tasviri tushirilgan ikki xil mis pullar va tanga zarb qildirgan⁴³⁴.

XVI–XIX asrning birinchi yarmida Toshkentning O'rta Osiyodagi yirik iqtisodiy markazlaridan biri sifatidagi ahamiyati ortib bordi. Bunga shaharda mavjud bo'lgan ko'p tarmoqli hunarmandchilik, savdo asos bo'ldi. Bu yerda hunarmandchilikning turli sohalari – to'qimachilik, kiyim-bosh ishlab chiqarish, chirmangarlik va oyoq kiyimlar tayyorlash, po'stindo'zlik, kulolchilik, metallga ishlov berish va metall buyumlar ishlab chiqarish, zargarlik, kulolchilik, duradgorlik, uy-ro'zg'or buyumlarini tayyorlash va boshqalar keng rivojlangan edi. Asosan mahalliy aholining ichki ehtiyojlari uchun ishlab chiqarilgan turli mahsulotlar tovar xarakteriga ega bo'lgan. Bunda Toshkentning turli karvon yo'llarida joylashganligi muhim rol o'ynagan. Toshkent hududidan Sibir, Xitoy, Qozoq dashtiga olib boruvchi yo'llarning o'tganligi uning iqtisodi rivojlanishiga, bu yerda aynan xorijiy iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan hunar turlarining taraqqiyotiga turtki bo'lgan. Buni ayrim hunarmandchilik sohalari misolida kuzatish mumkin. Xususan, bir xil rangdagi bo'z (karbas)ga qolip yordamida turli ranglardagi gullarni bosish orqali hosil qilingan mato – chit bunga misol

⁴³³ Агзамова Г.А. Тошкентнинг Ўрта Осиёда кечган сиёсий ва иқтисодий жараёнларда тутган ўрни (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). / Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. «Фан». 2009. 215-б.

⁴³⁴ Шамсиев М.Б. XVIII аср иккинчи ярми Тошкент тарихини ўрганилиши хусусида / Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. «Фан». 2009. 233-б.

bo‘la oladi. Chit ishlab chiqarish ancha murakkab ish jarayoni bo‘lib, u hunarmanddan katta mahoratni talab etgan. XIX asrda Toshkent bo‘zga gul bosishning yirik markazlaridan biriga aylangan edi. Qo‘qon xonligi shaharlari va Qashg‘ardan Toshkentga juda katta hajmda oq bo‘z keltirilib, chitgarlarga topshirilar edi⁴³⁵.

Toshkentning eng gavjum joylari uning bozorlari hisoblangan. Eski Jo‘va, Chorsu va Ko‘kaldosh madrasasi oralig‘ida Registon, Chorsu va Kappon (G‘alla) bozorlari joylashgan. Registon bozori O‘rta Osiyo xonliklarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to‘lgan. Bundan tashqari Hindiston, Xitoy, Afg‘oniston, Eron va Rossiyadan kelgan mahsulotlar ham sotilgan⁴³⁶.

XVII-XVIII asrlardan boshlab Toshkentning Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalari rivojlana boshlaydi. Tashkent savdogarlari tez-tez Sibir shaharlariga borib turishgan. 1739 yilda Orenburgdan Toshkentga birinchi rus savdo karvoni kelgan. XVIII asrning 2 yarmida mustaqil Toshkent bekligi tashkil topgan. XIX asrda Toshkent o‘z mustaqilligini yo‘qotib Qo‘qon xonligiga bo‘ysindirilgan. XVIII asrning 2-yarmida O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya va Qozog‘iston bilan savdo aloqalari rivojlangan sari Toshkent shahri savdo aloqalari markaziga aylanib qola boshlaydi. Shu davrda Toshkent shahri hunarmandchilik sohasiga qarab quyidagi mahallalarga bo‘lingan: pichoqchi, misgarlik, sog‘bon-itboqar, o‘qchi, konchi, degrizon-qozon yasovchilar. Taxtapul, Sebzor, Labzak, Qorasaroy mahallalari aholisi bog‘dorchilik, hunarmandchilik va boshqalar bilan shug‘ullanganlar. Oxunguzar, Parchabof, Jangoh aholisi hunarmandchilik, to‘quvchilik va savdo bilan shug‘illangan. Toshkentlik to‘quvchilar bo‘z, beqasam, olacha, bahmal to‘qishgan va savdogarlar bu tovarlarni qo‘shni mamlakatlarga olib borib sotishgan⁴³⁷.

Toshkentlik savdogarlar ham Jung‘oriya, Sharqiy Turkiston, Xitoy hududlariga o‘z savdo karvonlari bilan borganlar. Chunonchi, XVIII asr

⁴³⁵ Агзамова Г.А. Тошкентнинг Ўрта Осиёда кечган сиёсий ва иқтисодий жараёнларда тутган ўрни (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). / Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. «Фан». 2009. 212-б.

⁴³⁶ Шамсиев М.Б. XVIII аср иккинчи ярми Тошкент тарихини ўрганилиши хусусида / Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. «Фан». 2009. 231-б.

⁴³⁷ Алимова Р.Р. Марказий Осиё халқлари тарихи сўнги ўрта асрларда // <http://uz.denemetr.com>

o‘rtalarida ularning meva, oltin, rus buyumlari va boshqa mollar bilan yuklangan karvonlari G‘ulja va Chuguchak shahri bozorlariga borgan. Shuningdek, ular tomonidan Sharqiy Turkistonning Qashg‘ar va Yorkend shaharlariga rus temiri, doka, shoyi gazlama, oltin, gilam va ro‘yan olib borilgan. Ular o‘zlari bilan birga Toshkentga olib kelgan mollarning asosiy qismini choy, novshadil, chinni idishlar tashkil etgan. Ular Xitoy va Sharqiy Turkistondan kumush yombu olib kelishga harakat qilganlar. 1760 yilning 10 oyida Oqsuv orqali Qumulga ketayotgan toshkentlik savdogarlar karvonini Xitoy nazoratchilari ushlab qolgan. Muzokaralardan so‘ng savdogarlar ularni Xitoy mollari va kumush yombular sotib olish uchun ruxsatnoma berishga ko‘ndirganlar. Tarixiy manbalar toshkentlik savdogarlarning, hatto, 1759 yilda Tibetga ham borganligini ko‘rsatadi⁴³⁸.

Har yili Toshkent orqali Qashg‘ar va Xitoydan Rossiyaga turli mollar olib o‘tilgan va bu karvonlar rus va Yevropa mollari olib Toshkent orqali yana Xitoyga qaytgan. Toshkentlik savdogarlar Buxoro xonligining Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Ko‘lob va boshqa shaharlariga o‘z karvonlari bilan qatnar edilar. Bunda Toshkentdan Buxoroga Qo‘qon xonligining markaziy shaharlari – Marg‘ilon, Andijon, Namangan hamda Toshkentning o‘zida ishlab chiqarilgan bo‘z, xom ipak, ruslarning temir, cho‘yan va po‘latdan yasalgan buyumlari, tamaki, ipak, ba‘zi xitoy va mahalliy ipak gazlamalar va Xitoy mollari – kumush yombulari, choy va chinni piyolalar olib borilgan. Bu mahsulotlar ichida Xitoy choyining turli navlari – tuqtachoy (g‘isht choy), oqquyruq (ko‘k choy) muhim o‘rin tutgan. XIX asrning 30-yillarida Buxoroda bo‘lgan I.V. Vitkevich shahardagi “Barra saroyi”da toshkentlik va qo‘qonlik savdogarlar to‘xtashi, ularni choy savdogarlari, deb atalishini qayd etgan edi. Toshkentdan keltirilgan bu mollar aksariyat holatlarda uzoq yurtlarga ham olib ketilgan. Xususan, Qashg‘ardan Toshkent orqali Buxoroga olib kelingan kumush yombular hind sarroflari orqali Kobulga jo‘natilgan⁴³⁹.

⁴³⁸ Агзамова Г.А. Тошкентнинг Ўрта Осиёда кечган сиёсий ва иқтисодий жараёнларда тутган ўрни (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). / Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. «Фан». 2009. 213-б.

⁴³⁹ Агзамова Г.А. Тошкентнинг Ўрта Осиёда кечган сиёсий ва иқтисодий жараёнларда тутган ўрни (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). / Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. «Фан». 2009. 213-б.

Toshkent aholisi tomonidan shahar va uning atrofidagi yerlarda yetishtirilgan dehqonchilik, bog‘dorchilik mahsulotlari va ayrim chorva mollari ko‘p hollarda tovar xarakteriga ega bo‘lgan. Bu mahsulotlar shahar aholisining ichki ehtiyojlarini qondirish bilan birga, uzoq va yaqin hududlarga, xususan, qo‘shni dashtga ham olib borilgan. Shuningdek, bu mahsulotlar mahalliy hunarmandlar tomonidan yaratiladigan turli buyumlar uchun asosiy xomashyo vazifasini o‘tagan. Shaharning bu xususiyati uning Markaziy Osiyodagi iqtisodiy mavqeini o‘shishga xizmat qilgan.

Toshkent bekligining Qo‘qon xonligi tarkibiga kiritilishi. XIX asrning boshlariga kelib Qo‘qon xonligining eng yirik viloyati Toshkent bekligi hisoblanib, Qo‘qon xonligi tarkibiga XIX asrning boshlarida Qo‘qon xonligi va Toshkent bekligi o‘rtasidagi bir nechta harbiy to‘qnashuvlar natijasida qo‘shib olingan. Toshkent viloyati Chorhokimlik davridan so‘ng mustaqil davlat bo‘lib, Yunusxo‘ja boshchiligida markazlashgan davlat idorasi barpo etildi (1784–1809). Yunusxo‘janing faol siyosat olib borishi natijasida Toshkent shimolidagi dashtlikda joylashgan qal‘a, qishloq hamda karvon yo‘llari, shuningdek, Qurama va boshqa joylar yana Toshkent tasarrufiga o‘tdi. Toshkent Rossiya imperiyasi bilan elchilar almashib, savdo munosabatlari o‘rnatgan edi, chunki Toshkent muhim savdo maskani sifatida qadimdan qulay geografik o‘rinda bo‘lgan. Toshkentning Buxoro amirligi bilan munosabatlari yaxshi edi, shuning uchun 1803 yilda Qo‘qon xonligi bilan Buxoro amirligi o‘rtasida O‘ratepa uchun bo‘lgan jangda Toshkent Buxoro tomonida turib qatnashgan. Qo‘qon xoni Olimxonning 1799 yilda Toshkentga qilgan harbiy yurishi muvaffaqiyatsiz chiqqach, Olimxon harbiy islohot o‘tkazgan. U 10 ming kishilik maxsus otliq askarlar qo‘shinini tuzgan. 1803 yil Yunusxo‘ja Qo‘qon xonligiga yurish qilib Furumsaroy jangida Olimxondan mag‘lubiyatga uchragan. «Tarixi Shohruxiy» asarida keltirilishicha, Olimxon Toshkentni tasarrufiga olishga tayyorgarlik ko‘rgan. Avval u Qurama hududini egallagan va u yerdan turib 12 ming kishilik qo‘shinni Toshkent atrofidagi qal‘alarni ishg‘ol qilishga yuborgan,

natijada To‘ytepa va Niyozbek qal’alari egallanib, u yerlarga Qo‘qon garnizoni joylashtirilgan. Yunusxo‘ja o‘limidan so‘ng Toshkentga uning o‘g‘li Muhammadxo‘ja hokimlik qildi. Uning davrida Toshkentda «qahatchilik va qimmatchilik» yuzaga kelib, shahar ahvoli nihoyatda nochorlashdi. Uch yillik hukmronligidan so‘ng u vafot etib, o‘rniga ukasi Sultonxo‘ja o‘tirdi.

Qo‘qon xoni Toshkentdagi og‘ir vaziyatdan foydalanib, ketma-ket to‘rt marta hujum qildi va 1808 yili qattiq janglardan so‘ng bosib oldi. Olimxon Toshkentga 1809 yil Qurama orqali harbiy yurish qilib Kerovchiga kelganda unga Qurama qo‘shini va qilquyuqlar (bosib olingan yerlardagi ko‘chmanchi va o‘troq aholidan zo‘rlab harbiy majburiyatga tortilgan kishilar) qo‘shilgan. So‘ngra To‘ytepa orqali Qo‘yliqqa va nihoyat Salor arig‘i sohiliga yetib kelgan Qo‘qon askarlari shahar atrofidagi muhim qal’alarni egalladi. Toshkent yaqinidagi Niyozbek qal’asini egallagan Qo‘qon ishshinlarining bosqinlari tufayli toshkentliklarning iqtisodiy ahvoli og‘irlashgan. Toshkent Qo‘qon xonligi tomonidan uzil-kesil bo‘ysun-dirilgandan keyin shaharni 1810 yildan xon noibi boshqara boshladi. Toshkent qiyofasi Ko‘qon xonligiga qaramlik davrida ancha o‘zgarishlarga uchragan. Shahar hududi kengaygan, Yunusxo‘ja o‘rdasi buzib tashlanib, Anhorning so‘l sohilida Yangi O‘rda qurilgan.

XIX asrning 20-yillariga kelib Toshkent hududiy jihatidan ham, mavqe jihatidan ham Qo‘qon xonligida eng yirik viloyatga aylandi. XIX asr boshlariga qadar xonlikda Marg‘ilon viloyatining nufuzi baland bo‘lib, hukmdorlikka da‘vogar beklar bu viloyatda hokimlik vazifasini bajarishgan bo‘lsa, keyinchalik xonlikda ana shu nufuz Toshkent viloyatiga o‘tgan edi. Muhammad Alixon (1822-1842), Sheralixon (1842-1845), Xudoyorxon (birinchi davr 1845-1858) hukmronligi yillarida Toshkent hokimi lavozimi xonlikda yuqori mavqega ko‘tarilganligini manbalardagi ma’lumotlar tasdiqlaydi. Xususan, Muhammad Hakimxon to‘raning “Muntaxab ut-tavorix” asarida Muhammad Alixon o‘z ukasi Sulton Mahmudga Toshkent viloyati hokimligini berishni va’da qilganidan so‘ng aka-uka o‘rtasidagi munosabat ijobiy tomonga o‘zgaradi. Toshkentning ma’muriy-boshqaruv tizimi ham Qo‘qon xonligidagi boshqa

viloyatlarda joriy qilingan mahalliy boshqaruv tizimiga o'xshash edi. Mahalliy boshqaruv tizimi ijro organi bo'lib, oliy hukmdor nomidan berilgan, mamlakatning ichki va tashqi holatini mustahkamlashga qaratilgan topshiriqlarni bajarardi. Jumladan, mahalliy boshqaruv viloyatlardagi aholining turmush tarzini bir maromda ushlab turish, ularning huquq va majburiyatlari ustidan nazoratni amalga oshirish, harbiy kuchlarni safarbar etish, soliqlarni to'plash, davlat bilan aholi o'rtasidagi munosabatlarni amalga oshiruvchi organ sifatida faoliyat yuritishga mas'ul edi. Mirzaboshi (ba'zida sarkor deyilgan) asosiy rol o'ynagan bo'lib, ular bir vaqtning o'zida moliya ishlari bilan agrar masalalarni, savdo-sotiq munosabatlarini hamda hunarmandchilik korxonalarini ham nazorat qilgan. Toshkentning ma'muriy-boshqaruv tizimida Qo'qon xonligining markaziy boshqaruv tizimidagi kabi turli diniy mansab va amallar mavjud edi. Qo'qon xonlari tomonidan berilgan yorliqlardan ma'lum bo'lishicha, viloyatlarda ham markaziy boshqaruv tizimidagi singari qozikalon, xojakalon, sadr kabi bir qator mansabdorlar faoliyat yuritishgan. Ma'muriy-boshqaruvning eng quyi tizimi aminlik va oqsoqollikdan iborat bo'lib, bunday ma'muriy birliklar aminlar va oqsoqollar tomonidan idora etilgan. Ayrim qishloqlarni miroblar yoki imom xatiblar ham boshqargan. Amin va oqsoqollar o'zlari boshqarayotgan hudud fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy masalalari bilan bir qatorda maishiy turmushiga oid masala va muammolar yechimi bilan mashg'ul bo'lgan. Toshkent tarkibidagi qirg'izlar va qozoqlar yashaydigan hududlarda ma'muriy birliklarni boshqaruv tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mazkur ma'muriy birliklarni boshqaruv qarorgohi harbiy qo'rg'on va qal'alarda joylashgan bo'lib, ularni aksariyat holatlarda Qo'qon xonlari tomonidan tayinlangan dodxoh unvonidagi mansabdorlar boshqargan⁴⁴⁰.

1830-yillarda Muhammad Alixon davrida yangi O'rda yoniga Sharqiy Turkistonda o'z vatanidan quvilib Qo'qon xonligidan panohtopgan musulmonlar kelib joylashgan, natijada qashqarliklar mahallasi vujudga kelgan. O'rdaning sharq tomonida yangi mahallalar, mavzelar paydo bo'lgan. Shahar aholisi soni ortgan, 1860-yillarga kelib Toshkentda

⁴⁴⁰ Махмудов Ш.Ю. XIX аср биринчи ярмида Тошкентнинг маъмурий-бошқарув тизими. <http://shosh.uz>

60 mingdan ortiq kishi istiqomat qilgan. Shaharning me'moriy qiyofasi ham o'zgargan. Ko'plab madrasa, masjid, xonaqohlar qurilgan: Beklarbegi madrasasi (1835), Eshonqulidodxoh madrasasi (1840), Mo'yi Muborak madrasasi, Balandmasjid (1875) va boshqalar.

Toshkent shahri 1865 yilgacha xonlik tarkibida bo'lgan, 1865 yil iyunda Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, dastlab Turkiston viloyati, 1867 yil iyuldan boshlab Turkiston general gubernatorligi markaziga aylantirilgan.

Tayanch so'zlar: Registon, Shayxontohur, Ko'kcha, Sebzor, Beshyog'och, Daha, Toshkent, Ko'kaldosh, Baroqxon, Tavakkalxon, Qalmoqlar, jung'orlar, "shahar-respublika", yakkahokimlik, bozorlar, savdo karvoni, savdo aloqalari, mis pullar, tanga

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Toshkent bekligining tashkil topishi jarayonlarini ayting?
2. Toshkent bekligining boshqaruv tizimining o'ziga xosligi nimada?
3. Toshkent bekligining diplomatik aloqalari haqida ma'lumot bering?
4. Yunusxo'ja haqida ma'lumot bering?
5. Toshkent bekligining savdo-iqtisodiy aloqalari haqida ayting?
6. Toshkent bekligining Qo'qon xonligi tarkibiga kiritilishi jarayonlarini ochib bering?

O'RTA OSIYO XONLIKLARIDA HARBIY ISHLAR

- ❖ XVI-XVIII asrlarda xonliklarda harbiy ishlar
- ❖ XIX asrda xonliklarda harbiy sohaning ahvoli va harbiy islohotlar

XVI-XVIII asrlarda xonliklarda harbiy ishlar. XVI asr boshlarida shakllangan Buxoro davlati sulolalar almashinuvi va siyosiy-iqtisodiy evrilishlarga qaramasdan XX asr boshlarigacha, 400 yildan ortiqroq hukm surdi hamda o'zbek davlatchiligi tarixida va uning taraqqiyoti bosqichlarida o'ziga xos iz qoldirdi. XVI-XVIII asrlarda Movarounnahrda dastlab Shayboniylar, so'ng Ashtarxoniylar hukmronlik qildi. Ashtarxoniylar hukmronligi-ning nihoyasida Buxoro xonligidan Farg'ona mulklarining ajralib chiqishi va Qo'qon xonligining shakllanishi natijasida Movarounnahr uchta mustaqil davlat – Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklariga bo'linib ketdi. Shunga qaramasdan mazkur davlatlar orasida Buxoro xonligi (1756-1920 yillarda Buxoro amirligi) o'zining siyosiy, iqtisodiy hamda harbiy mavqeiga ko'ra birmuncha yetakchi davlat hisoblangan. Mamlakatning harbiy sohasini rivojlantirish va takomillashtirish borasida turli vaqtlarda qator islohotlar amalga oshirilgan va buni deyarli har bir sulola vakillarining hukmronligi davrida kuzatish mumkin.

Mamlakat siyosiy hayotida, davlat boshqaruvida yirik sarkardalar, qo'shin boshliqlarining o'rni katta edi. Ichki va tashqi xavfni bartaraf etishda, yangi yerlarni bosib olish uchun qilinadigan istilochilik yurishlarida qo'shinlarning soni, harbiy tayyorgarligi, qo'shin boshliqlarining qo'mondonlik mahorati katta ahamiyat kasb etardi.

Shayboniylar qo'shini asosan otliq va piyoda askarlardan tashkil topgan. qo'shin urishda o'q-yoy, uzun, nayza, qilich, gurzi, uzun dastali jang boltasi (tabarzin), changak kabi asosiy hujum qurollaridan foydalangan. Abdullaxon II davrida qo'shin Xorijdan keltirilgan pilta miltiqlar bilan qurollantirilgan. Shayboniylar qo'shnida navkarlar himoya uchun qalqon (sipar)dan foydalanganlar, hamda temir simdan mayda qilib to'qilib, usti ipak va baxmal mato bilan yopilgan sovut-jovshan (forscha baxtar) yoki jiba (jeva) – temir yoki po'latdan ishlangan maxsus kiyim kiyib jang qilganlar. Abdullaxon II davrida Yevropadan keltirilgan jovshan

(sovut) ham bo'lgan. Urushda yaroq va o'q o'tmasligi uchun otlar ustiga maxsus zirxli yopinchiq - gejm (kejim) yopishgan.

Qo'shin tarkibida naftandozlar, manjaniqchilar va tosh otuv-chilar ham bo'lib, ular shahar va mudofaa qo'rg'onlarini egallashda katta o'rin tutgan. XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Abdullahon II qo'shinida chet ellardan keltirilgan kichik zambaraklar paydor bo'ladi.

Qo'shin tarkibi, uning jangovor saflanishi, jang qilish tartibi, Chingizxon va Amir Temur qo'shinlari harbiy tuzilishi va urush taktikasiga asoslangan bo'lib, unga Shayboniyxon davrida ko'chmanchi o'zbeklarga xos bo'lgan bir qancha yangi jang usullari kiritildi. Shayboniylar qo'shini asosan, qalb (kavl) deb ataluvchi markaziy qism, barong'or (o'ng qanot) va javong'or (so'l qanot) qismlaridan hamda xirovul (qo'shinning orqa qismi)dan tashkil topgan. Ularga xonning o'zi va tajribali o'zbek sultonlari boshchilik qilgan. Qo'shinning qanotlariga boshchilik qilgan sarkarda o'g'lon deb yuritilgan.

Qo'shini oldida manglay (avangard) deb ataluvchi harbiy qism yarim doira shaklida saf tortib borgan. Uning oldida esa tez harakatlanuvchi kichik jangovor qism - ilg'or bo'lgan. Shayboniylar qo'shinida umumiy qism oldida boruvchi «qoravul» deb atalgan maxsus qism, qo'shinining o'ng va so'l qismlari oldida boruvchi "kichik" g'o'l deb yuritilgan bo'linmalar va ortidan boruvchi maxsus yordamchi bo'linma-chanoh bo'lgan.

Qo'shin tarkibida tug'chi qism, ya'ni bayroq ostida ehtiyotda turuvchi (tug'ni qo'riqlovchi) 20-30 ming kishilik jangovor harbiy bo'linma hamda zabongirlari – ya'ni dushman tomonidan yashirish ravishda “til” tutib keluvchi maxsus bo'linma va xabarchi - dushman to'g'risida umumiy ma'lumot keltiruvchi bo'linmalar ham bo'lgan.

Harbiy yurishlar paytida xon uchun rasmiy qabul marosimlari o'tkaziladigan maxsus joy-bargoh hozirlashgan.

Qo'shinda saralangan o'zbek navkarlaridan tuzilgan xonning qo'riqchilari ham katta rol o'ynagan. Shayboniylar qo'shini ham Chingizxon va Amir Temur qo'shinlaridek 10 ming kishilik lashkarlarga – tumanlarga bo'lingan. Unga no'yon deb ataluvchi harbiy sarkarda boshchilik qilgan. Tumanlar o'z navbatida minglik, yuzlik, o'nliklarga

bo‘lingan. Qo‘shinni jangga hozirlash, ularning maoshini to‘lash va boshqa tashkiliy ishlar bilan maxsus amaldor – tavochi shug‘ullangan. Qo‘shinni qurol-yarog‘ bilan ta‘minlashga ma‘sul bo‘lgan amaldorlar – jevachi bo‘lib, u xonning qurol-aslahalariga ham javobgar bo‘lgan. Harbiy amaldorlar va navkarlarga xazinadan beriladigan yillik maoshdan tashqari harbiy yurishlar paytida qo‘lgan kiritiladigan o‘ljudan ham berib turilgan.

XIX asrda xonliklarda harbiy sohaning ahvoli va harbiy islohotlar. O‘rta Osiyoda XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida xonliklarning ichki va tashqi siyosatida, o‘zaro munosabatlarda harbiy qo‘shin muhim ahamiyat kasb etgan. Avvalo shuni ta‘kidlash joizki, XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib xonliklardagi qo‘shin asosan nomuntazam xarakterga ega bo‘lgan, ular ichki va tashqi xavfni bartaraf etishga qodir emas edi. Bu holatdan to‘g‘ri xulosa chiqargan ayrim hukmdorlar o‘z qo‘shinlarining muntazam qismlarini tashkil etishga harakat qildilar. Natijada, XIX asr boshlarida O‘rta Osiyo xonliklari qo‘shini muntazam va nomuntazam qismlardan tashkil topgan harbiy kuchga aylandi. XIX asr boshlarida kelib, xonlik hukmdorlari o‘z qo‘shinlarini yaxshilash, uning tarkibida muntazam qismlarni tarkib toptirish borasida ko‘p say-harakatlarni amalga oshirdilar. XIX asrning birinchi yarmida Buxoro va Qo‘qonda kuzatilgani kabi, Xiva xonligida ham muntazam harbiy tashkil etish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

XIX asrda **Buxoro amirligida** harbiy sohada va harbiy ishlarda jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bunday islohotlar qisman bo‘lsada, mang‘itlar sulolasi asoschisi Muhammad Rahim tomonidan olib borildi.

Buxoro amirligi vujudga kelgandan boshlab qulashiga qadar amirlikdagi qo‘shin qay tarzda tashkil etilganligi, askarlik tarkibiga qabul qilish qonun - qoidalari, jangchilarning yoshi, kiyimlari, harbiy o‘quv mashg‘ulotlari, amirlik hududida qo‘shin-ning taqsimlanishini joylashtirilishi, mustamlakachilik davridagi harbiy islohotlar va yangi tipdagi harbiy bo‘linmalarning tashkil etilishi shunga o‘xshash bir qator masalalar doim kun tartibiga qo‘yilgan edi. Mang‘itlar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki yillarda amirlik o‘zining muntazam qo‘shiniga ega emas edi. Amirlikda mavjud bo‘lgan oz sonli harbiylarning asosiy

vazifasi amir va uning ayonlarini qo‘riqlash, hamda shahar osoyishtaligini ta‘minlash ishlari bilan xarakterlanar edi⁴⁴¹.

Urush vaqtlarida amir buyrug‘i bilan xalq lashkarlari to‘planib harbiy harakatlariga jalb etilgan. Buxoro davlatida qo‘shin tuzishiga kelsak, Temuriylar saltanati parchalangandan to XIX asrning birinchi choragiga qadar bu masalada deyarli katta o‘zgarishlar kuzatilmaydi.⁴⁴²

Amir Shohmurod hukmronligi davrida qo‘shin ikki qanotdan iborat bo‘lgan. So‘l qanotda mang‘it, kenagas, keroit, do‘rman, qo‘ng‘irot, qiyot, qirg‘iz, xitoy, qipchoq, o‘taji, turkman, arlot, qalmoq, uyg‘ur, mo‘ng‘ul, qori, hofiz, o‘g‘lonlardan tuzilgan dastalar tashkil etgan.

Chap qanotda qatog‘on, saroy, yabu/yabg‘u, bahrin, jaloir, qang‘li, yuz, ming, paymon, qarluq, berkut, qo‘rchi, arg‘un, og‘lon, qalliq, fulodchi, qirq, olchin, mojar, chinboy, bedoyil, as, jibirg‘in, qilgiy, timoy, masid, tar, bog‘lon, iloji, tugut va shogirdpesha guruhlari joylashgan⁴⁴³.

Buxoro amirligining harbiy qudrati, ayniqsa, Amir Nasrullo hukmronligi davrida o‘zining eng yuqori nuqtasiga yetdi. Uning davrida Buxoroda muntazam armiya – sarbozlar (sipoh) qo‘shini tashkil etildi. Ularning soni 40 mingga yaqin bo‘lgan. Qo‘shinlar otliq va piyoda jangchilardan tashkil topgan bo‘lib, ularning qurollari asosan qilich, nayza va o‘q-yoydan iborat edi. Buxoro amirligi qo‘shinlari mamlakatning barcha shaharlarida, ayniqsa, chegara shaharlar (Jizzax, O‘ratepa, Qorako‘l, Marv)da joylashtirilgan. Bu davrda Buxoroda zambaraklar yasovchi chet ellik (eronlik) mutaxassislar ham bo‘lganligi mavjud. Biroq shunga qaramay, qo‘shinni zamonaviy miltiqlar va zambaraklar bilan qurollantirish sohasida boshlangan ishlar tugallanmasdan qolib ketdi.

Bu vaqtdagi harbiy holat haqida mahalliy tarixchilar asarlarida ham bir qator ma‘lumotlar yozib qoldirilgan.

-“Buxoroning lashkari boshqa davlatlarnikiga qaraganda ancha zaifdir. Buxoro hukumatida harbiy bilimlarni bilganlar juda kam bo‘lib, shaharning shonu - shuhrati o‘tmishda qolgan”,-deb, mahalliy tarixchilar yozib qoldirganlar. Buxoro amirligi nodonliklari, manmanlikka

⁴⁴¹ Шуқуриллаев Ю.А. Бухоро амирлигида қўшин ва ҳарбий иш (1753 – 1920 йй). Тарих фан номз..... дисс. Т.2006. 64-б.

⁴⁴² Арендаренко Г. Бухарские войска в 1880 г. // Туркестанский сборник. 297 том. с.129.

⁴⁴³ Воҳидов Ш. Бухоро давлатининг бошқарув тизими (манғитлар даври). 27-28 бет.

berilganliklari, oxiri oqibatda Rossiya bosqiniga duchor bo'lganligi Muhammad Sayid Baljuvoni, Ahmad Donish va boshqa mualliflarning bir qator asarlari orqali bilishimiz mumkin⁴⁴⁴.

Natijada XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Buxoro amirligining katta qismi Rossiya qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Buni o'z navbatida, XVII-XIX asrlarda mintaqamizda harbiy sohada hech qanday yuksalish bo'lmaganligi hamda zamonaviy qurol-yarog'larning yetarli emasligi bilan izohlash mumkin.

Oliy harbiy amaldorlar "sarkarda" unvoniga ega bo'lib, davlat xazinasidan maosh olib turishgan. Amirdan keyin turuvchi eng yuqori harbiy amaldor "qo'shbegi" (qo'shin boshlig'i) turardi. Unga qo'shinni boshqarishda dodxoh, qo'rg'onbegi, to'qsoba, mingboshi kabi oliy va ponsadboshi, yuzboshi, dahboshi kabi harbiy bo'linma boshliqlari yordam berishgan.

Buxoro amirligida harbiy unvon va mansablar

Oliy darajali	O'rta darajali	Quyi darajali	Past darajali
<i>Inoq</i>	<i>Chig'atoy begi</i>	<i>Qorovulbegi</i>	<i>Panjboshi</i>
<i>Dodxoh</i>	<i>Eshik og'asi</i>	<i>Jibachi</i>	<i>Daxboshi</i>
<i>To'qsoba</i>	<i>Miroxur</i>	<i>Mirzaboshi</i>	<i>Galabotir</i>
<i>To'pchiboshi</i>		<i>Olomon</i>	<i>Sarbozlar</i>
		<i>Chexra og'asi</i>	<i>Olomon</i>

Xiva xonligi qo'shinlari qo'shni mamlakatlarga xavflar solib turuvchi, talonchilik urushlari uyushtiruvchi davlat sifatida ma'lum edi.

XVIII asr oxiri - XIX asr boshlariga kelib, Xiva xonligidagi harbiy kuchlar va qo'shinga e'tibor yanada kuchaydi. Xonlikda harbiy qo'shin O'rta Osiyoda o'zining kuchli va yengilmasligini ko'rsata boshladi. Ular endi janglarda o'rta asrlardagidek, faqat qilich, nayza, sovut, dubulg'a va o'q-yoy bilangina emas, balki yangi turdagi qurollarni ishlata boshladilar. Shuningdek, qo'shin ham yangi tartibda shakllantirila boshlandi.

Xivada harbiy yurishlar boshlansa, boshqa xonliklardagi kabi, bir

⁴⁴⁴ Шуқуриллаев Ю.А. Бухоро амирлигида қўшин ва ҳарбий иш (1753 – 1920 йй). Тарих фан номз.... дисс. Т.2006. 11-б. Қаранг: Муҳаммад Саййид Балжувоний. Тарих-и нофеи. Тоҷик тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев. Т.: Академия, 2001.

necha hafta oldin yig'inlarda, bozorlarda bu haqida ogohlantirilgan. Qo'shinni xon yoki uning akasi yo ukasi boshqargan. Xon tomonidan buyruq chiqarilib, Xiva shahri atrofidan qo'shin to'planib yurish boshlangan. Qolgan joylardan 10-15 kun ichida qo'shin to'planib, xon kutib turgan manzilga orqalaridan yetib borganlar. Yurish vaqtida xon qo'shinni oziq-ovqat bilan ta'minlamagan, navkarlar asosan oziq-ovqatni o'zi bilan 1,5 oyga yetarli qilib olib chiqqanlar. O'ziga to'qroq navkarlar 2-3 kishi birlashib, o'zlarining oziq-ovqati va boshqa yuklarini olib yurish uchun bitta tuya olganlar. Ammo qo'shin ichida kambag'al navkarlar ham bo'lib, ular kam miqdorda oziq-ovqat olganlar. Agar yeguliklar tugab qolsa, o'g'irlik va talonchiliklarga qo'l urganlar. Faqat yurish xon tomonidan uyushtirilgan bo'lsa, unda qo'shin qurol-yarog', pul bilan ta'minlangan.

XIX asr o'rtalariga kelib esa xonlikda muntazam qo'shin tuzila boshlandi. Xususan, 1850 yilga kelib Xivada muntazam piyoda va ko'ngilli otliq askarlarning yangi tarkibi shakllantirildi. Uning tarkibida 1 ta bo'linma bo'lib, ular ko'proq fors askarlaridan tashkil topgan. Bu bo'linma tarkibining soni 1000 kishi bo'lib, uning tarkibini bir necha o'nlik sarbozlar guruhi tashkil qilgan. Bu qo'shinning asosiy burchi xonni qo'riqlash bo'lgan.

Qo'shin Xiva xonligida turli yillarda turli sohada bo'lgan. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida xonlikda doimiy armiya shakllana boshlagan, ular davlat ta'minotida bo'lgan. Xiva xonlarining davlat ta'minotida turgan oddiy askar bir yillik maoshi oltita qo'ydan iborat bo'lganligi ular davlat ro'yxati turganligi haqida ma'lumotlar bor.⁴⁴⁵

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro va Qo'qonda kuzatilgani kabi, Xiva xonligida ham muntazam harbiy kuchlarni tashkil etish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Xonlikda umumiy soni 2 ming kishilik muntazam qo'shin tuzishga erishildi. "Xon navkarlari" deb atalgan bu qo'shinning zimmasiga mamlakatda tinchlik hukm surgan davrlarda xon va uning oilasini qo'riqlash vazifasi topshirilgan edi. Xon tomonidan bu qo'shinga bir qator imtiyozlar berilgan edi. Xususan, bu qo'shin navkarlarini oliy hukmdor Xiva atrofidan ma'lum miqdordagi yer maydoni

⁴⁴⁵ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 243-б.

va maosh bilan ta'minlab turgan. Xuddi shunday ta'minotga qo'shinning yuqori mansabdorlari ham sazovor bo'lganlar. Xiva xonligida Buxoro va Qo'qon davlatlarida bo'lgani kabi, muntazam qo'shin bilan bir qatorda, harbiy xarakatlar avj olgan davrlarda to'planadigan halq lashkari ham mavjud edi. Bunday lashkarning asosini otliq askarlar va piyoda askarlar tashkil etgan edi. XIX asr arxiv ma'lumotlaridan ayon bo'lishicha, xonlikda bunday askarlarning soni 9-10 ming atrofida bo'lgan. Ularga xon tomonidan yerlar in'om qilinardi hamda ular turli soliq va majburiyatlardan ozod qilingan edilar.

Xiva xonligida armiya soni turli yillarda turlicha bo'lgan. Masalan, tarixchi olim va xon Abulg'ozir Urganch, Hazorasp, Kat, Niso, Obivardga hukmronlik qilgan Avanishxonning o'g'li Ali Sultonning 40 mingta lashkari bo'lganligi haqida xabar beradi. "Otlana turg'on ko'p o'zbekning barchasining otini daftarga bitub, ulufa berur edi. Oyoq navkarida ul olti qo'y berur edi." - deb yozadi u. Bu ma'lumotni Xiva xonlarining olim P.P.Ivanov tahlil qilgan davlat hujjatlari ham tasdikdaydi. Jumladan, 1822-1862 yillarga oid hujjatlarning barchasi o'zbek tilida bo'lib, ular orasida harbiy ro'yxat (reestr)dan iborat katta daftar ham bo'lgan. Unda askarlar soni har bir masjidga birlashtirilgan qishloqlar bo'yicha berilgan. Bundan tashqari, davlatdan ulufa (maosh) mukofot olganlar ro'yxati ham berilib, ko'pgina harbiy mansabdorlar ro'yxati keltirilgan. Bularning hammasi XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Xiva xonligida doimiy armiya shakllana boshlaganligini tasdiqlaydi. Shundan ko'rinib turibdiki, xonlikning davlat ta'minotida turgan doimiy armiyasi bo'lib, oddiy piyoda askarning bir yillik maoshi olti qo'yga to'g'ri kelardi⁴⁴⁶.

O'rta Osiyo xonliklarida xarbiy kuchlarni boshqaruvning muayyan tizimi shakllangan edi. Bu tizimning eng yuqori pog'onasida tabiiy ravishda oliy hukmdor turardi edi. U qo'shinning rasman oliy qo'mondoni sanalsa-da, ko'p hollarda amalda qo'shinga boshchilik qilish boshqa amaldorlar orqali amalga oshirilgan. Buxoro amirligida qo'shin parvonachi tomonidan boshqarilgan bo'lib, u bosh qo'mondon mavqeiga ega bo'lgan hollarni tasdiqlovchi holatlar ham tarixiy adabiyotlarda ko'plab topiladi⁴⁴⁷.

⁴⁴⁶ Муқимов Зиёдулла. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Т.: "Адолат", 2003. 218-б.

⁴⁴⁷ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. -М: Наука. 1975, С.139.

Xiva xonligida esa muntazam qo‘shin yasovulboshi tomonidan boshqarilar edi. Qo‘qon xonligida qo‘shinni boshqarish mingboshi zimmasiga yuklatilgan edi. Xonliklarda boshqa harbiy unvonlar deyarli bir xil bo‘lgan. Buxoro va Qo‘qon xonligiga oid ma‘lumotlar tahlili shundan darak beradiki, XIX asr birinchi yarmida xar birdavlatda ham besh yuz askardan iborat bo‘linmaga pansodboshi, yuz askarga – yuzboshi, ellik askarga – panjaboshi, o‘nlikka – dahboshi rahbarlik qilgan⁴⁴⁸.

Harbiy sohada oliy bosh qo‘mondon xon hisoblangan. Xondan keyingi ikkinchi o‘rinda turgan inoq o‘z vazifasiga ko‘ra harbiy-ma‘muriy amaldorlarga yetakchilik qilgan. Undan keyingi harbiy mansabdor amir-ul-umaro bo‘lib, qo‘shinlar boshlig‘i sarkarda deb atalgan. Xonning shaxsiy gvardiyasi boshlig‘i yasovulboshi unvoni berilgan bo‘lib, u xonni qo‘riqlash, tartib-intizomni saqlashga mas‘ul hisoblangan. Harbiy-ma‘muriy amaldorlar ichida mingboshi, yuzboshi, kabi harbiy-bo‘linmalar boshliqlari, shig‘ovul (ayg‘oqchi), kutvol, tug‘begi kabi harbiy mansabdorlar ham katta ahamiyatga ega edilar. Qo‘shinlar otliq va piyoda navkarlardan tashkil topgan bo‘lib, harbiy talonchilik yurishlari davrida asosan, tez harakat qiluvchi otliq qo‘shinlardan, shahar va qal‘alar himoyasida piyoda qo‘shinlardan foydalanilgan. Asosiy hujum qurollari o‘q-yoy, qilich, nayza dubulg‘a bo‘lib, bu esa qo‘shinni kuchsizligidan dalolat beradi.

Qo‘qon xonligining harbiy ishlari tarixiga nazar tashlansa, hali XVIII asrdayoq xonlikda muntazam armiya tashkil qilish ishlari boshlab yuborilganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Qo‘qon xonligida harbiy soha va harbiy boshqaruv tartiblari Buxoro amirligi va Xiva xonligi kabi tartibda shakllantirilgan edi. Xonlikdagi asosiy qo‘shin turlari piyoda sarbozlar, otliq askarlar va to‘pchilardan iborat bo‘lgan. Shuningdek harbiy sohani boshqarish va harbiy boshqaruvni tartibga solib turuvchi bir qator amaldorlar pog‘onasi shakllangan bo‘lib, ular xizmat mavqelari va lavozimlariga ko‘ra turli pog‘onalarga bo‘lingan edi. Harbiy lavozim egalarining ayrimlari turli vaqtlarda qo‘shinni boshqarish bilan bir vaqtning o‘zida viloyatlar va

⁴⁴⁸ Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимга даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 135-б.

bekliklarda hokimlik vazifasini ham bajarib, bir vaqtning o'zida ma'muriy lavozim egalari ham sanalganlar. Bu esa Qo'qon xonligida mahalliy boshqaruv tizimida harbiy-ma'muriy mansab va lavozim egalarining shakllanishiga olib kelgan. Ma'muriy amaldorlar orasida yirik shaharlar va beklklar hokimlari - qo'shbegilar oliy harbiy amaldorlar hisoblanib, ularning har biri o'z qo'shiniga ega bo'lgan⁴⁴⁹.

Qo'shin asosan otlik askarlar, piyodalar va sarbozlar, to'pchilardan iborat bo'lgan. Xizmatga chaqirilgan sarbozlar qo'shbegi tomonidan oziq-ovqat jihatidan to'la ta'minlangan, ammo qurol yarog'ini o'zi sotib olgan, xon esa Qo'qon (shahri) viloyatining qo'shinlarini ta'minotini shaxsan o'zi nazorat qilgan. Tinchlik vaqtlarida sarbozlar tarqatib yuborilib, faqatgina qo'shbegi soqchilari qolgan. Ular bir vaqtning o'zida harbiy askarlar ham hisoblanib, ayni vaqtda turli xo'jalik ishlariga ham jalb etilgan. Qo'qon xonligida bir qator harbiy unvon va mansablar bo'lib, ular o'z lavozim darajasi va mavqeiga asosan ma'lum miqdordagi qo'shinga va harbiy bo'linmalarga boshchilik qilganlar.

Mingboshi - ming nafar askarning boshligi. Xarbiy yurishlar vaqtida qo'shinni boshqarib, lashkarboshi unvonni olardi. Qo'qon xonligida mingboshi mansabi SHERALIXON (1842-1845 yy) davrida yuqori darajadagi vazifaga aylantirilgan. Mashxur mingboshilar Muhammad Yusuf, Shodiboy, Musulmonqul, Muhammadyor, Mirzo Ahmad va boshqalar⁴⁵⁰.

Botir boshi - botir va baxodirlar boshlig'i. Besh yuz nafardan ko'proq dastaga boshchilik qilardi. Viloyatlarda botir boshi harbiy ishlarga va qo'shinlarga ham mas'ul edi. Botir boshi ba'zan qurilish ishlariga ham boshchilik qilgan. Xonlikdagi Nahr arig'i Otabek botir boshi sarkorligi ostida amalga oshirilgan edi.

Qo'shbegi - harbiy qo'shinning boshlig'i. Viloyatlarga ham hokimlik vazifalari bajargan. Bunga misol qilib mashhur qo'shbegilardan Lashkar qo'shbegini, Mirzo Ahmad qo'shbegini, Normuhammad qo'shbegilarni keltirib o'tish mumkin.

Voli (noib) - viloyat va tumanlarda xon hokimiyatini amalga oshirgan. Viloyatlarda lashkar unga itoat eti, bir vaqtning o'zida

⁴⁴⁹ Шодмон Воҳид. Қўқон хонлигидаги унвон ва мансаблар/www.kh-davron.uz.

⁴⁵⁰ Ўша жойда

viloyatlarning harbiy ma'muriy ishlariga boshchilik qilgan.

Qal'abon (qutvol) - Qo'qon xonligining chegaralarida joylashgan qal'a ma'muriy istexkomlarining hokim bo'lib, qal'a va chegarani muxofaza qilish ishlariga mas'ul bo'lgan. Harbiy maqsadga ko'ra qal'abon vazifasiga dodxoxdan qo'shbegigacha bo'lgan shaxslar tayinlangan.

Qo'rboshi - qo'rxona, ya'ni qurol-aslaxa, yaroq, to'p yasash ustaxonalarining boshliqlari. Qo'rboshi faqatgina xonga va mingboshiga itoat etgan Xudoyorxonning so'nggi xonlik davrida (1866-1875) qo'rboshi qo'rxona, miltiqxona, to'pxonalarga boshchilik qilib, xom ashyo topib kelishdan tortib to tayyor maxsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan taqsimlab berish jarayoniga javobgar edi.

Yovar - soqchilarning boshlig'i; To'pchil boshi- to'pchilar boshlig'i; To'qsoba -o'z tug'iga ega bo'lgan xarbiy dastaning boshlig'i; Ponsadboshi - besh yuz akskardan iborat qo'shin boshlig'i; Yuzboshi – yuz kishilik bo'linma boshlig'i; Panjob boshi yoki ellik boshi – ellik kishilik bo'linma boshlig'i; Dahboshi yoki o'n boshi – o'n kishilik kichik bo'linma boshlig'i; Qorovulbegi – soqchilar va qorovullar boshlig'i; Shuningdek, askar, sarboz, navkar, maxram, jazoilchi, to'pchil, qo'rchi, qorovul va soqchilar, nog'orachilar, surnaychilar, tug'chi (alambardor, bayroqbardor) kabilar ham qo'shinning tarkibiy qismiga kirgan. Ponsaboshidan mingboshigacha oliy darajali, qorovulbegidan yuzboshigacha o'rta darajali unvon va mansablar hisoblanib, qolganlari quyi darajali mansablar hisoblangan⁴⁵¹.

Har bir unvon xazinadan ma'lum miqdorda maosh va boshqa imtiyozlar ham olib turgan. Masalan yuzboshi yiliga sakson pud bug'doy (1280 kg), ikki yuz qirq pud (3840 kg) jo'xori (otlar uchun), kimxob kiyimlar, salla, turshak yoki uch tillo tanga pul, etik, po'stin, chakmon, ikki qo'y, choy (ikki qadoq), har oyda bir tillo to'rt tanga pul, bir yilda o'ttiz olti tilloga teng maosh olardi.

Qo'rboshi to'rt yuz tanga, qorovulbegi ikki yuz tanga, qo'shbegi besh yuz tanga, to'qsoba uch yuz tanga, qo'rchi yetmish tanga va bahodirlar yigirma botmon (156 kg) bug'doy bilan ellik tanga yillik maosh olardilar. Bulardan tashqari xarbiy yurishlar vaqtida qo'lga

⁴⁵¹ Шодмон Воҳид. Қўқон хонлигидаги унвон ва мансаблар/www.kh-davron.uz.

kiritilgan o'lja harbiylarning qo'shimcha daromadlari hisoblanardi. Bunday yo'l bilan topilgan mol-mulk yurish qatnashchilari orasi-da teng taqsimlanardi. Qo'qon xonligining qurollanish darajasi o'sha davr uchun xos bo'lgan Yevropa davlatlari harbiy sohasidan ancha orqada edi. Bu vaqtda qo'shin soni 10-12 ming kishini tashkil etib, ularning yarmi Qo'qonda, qolgan qismi esa boshqa shahar va qal'alarga joylashtirilgan edi. XVIII asrdayoq artilleriya qo'shinlarining tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra birinchi to'p Toshkentda 1870 yil aholidan yig'ib olingan mis idishlarni eritib, quyilgan bo'lsa, keyinchalik Rossiyadan keltirilgan mis hisobiga quyila boshlangan.⁴⁵²

Zambaraklar va o'q otuvchi qurollar bilan qurollangan sarbozlar qo'shini O'rta Osiyodagi ilk doimiy qo'shin hisoblangan va ular doimiy ravishda maxsus turar joylarda yashashgan. Sarbozlar va to'pchilarning xizmat qilish muddatlari esa aniq vaqt chegarasi bilan belgilab qo'yilmagan. Tinchlik vaqtlarida esa ularning aksariyati hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullangan.⁴⁵³

Shu o'rinda ikkinchi bir rossiyalik harbiy, tatar millatiga mansub Ismoil Abdulmajidovning Sibir korpusi qo'mondoniga yozgan xatidan parcha keltirishni joiz deb bildik: - «Ularda (Qo'qonliklarda – Z.I) qurol yo'q deb, yoki uni o'ta past darajada deb bo'maydi. Ularning qurollari va har xil zambaraklari borligi bizga juda yaxshi ma'lum. Chunki uch yil davomida bu yerda bo'lib, bunga guvoh bo'ldik.⁴⁵⁴

Shuningdek, ularni bizga hujum qilmaydi deb ham bo'lmaydi, chunki biz ulardagi harbiy tayyorgarlikning qay darajada ekanligini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Agar bunga ishonmasak, Qo'qonliklarning harbiy qudrati g'oyat ayanchli deb, o'zimizni aldashimiz mumkin. Sartlardan (o'zbeklardan -Z.I.) qo'rqish kerak».⁴⁵⁵

Rossiya imperiyasi zobitlari va harbiy askarlarining bunday qarama-qarshi fikr bildirishlari tabiiy edi. Chunki harbiy jihatdan kuchsiz bo'lsa ham, milliy davlatchilikning daxlsizligini saqlab qolish hissi

⁴⁵² История Узбекской ССР. Т. I. кн. II, -Т.: АН УзССР, 1956. –С.22.

⁴⁵³ Пулатов Ю., Мирхаликов А. К истории огнестрельного оружия в Средней Азии. Материалы по истории Узбекистан. Т.: АН УзССР, 1963. –С.103.

⁴⁵⁴ Исмоил Абдулмажидов 1858-1860 йилларда Қўқон хонлигида ҳарбий асирликда бўлганва бу ерда бўлаётган жараёнларнинг бевосита шоҳиди бўлган.

⁴⁵⁵ ЎзР МДА. 715-ф., 1-р., 24-й.ж. 240-242 - вв.

Qo‘qonliklarning Rossiya imperiyasi bosqinchi harbiylariga qarshi kurashlarda qattiq zarbalar berishiga sabab bo‘lardi. Shunga qaramay, 50–yillarning oxiri va 60–yillarning boshlariga kelib, asosan Mallaxon davrida qurollanishga va harbiy ahvolni yaxshilashga e‘tibor kuchaydi. 1853 yilda Qo‘qonda 30 tagacha, Toshkentda 20 tagacha, Turkistonda 2 ta, Sirdaryo bo‘ylab joylashgan qal‘alarda 1 tadan 3 tagacha to‘p va zambaraklar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bu davrga kelib ularning soni va sifati ancha o‘ydi. Bular asosan Qo‘qondagi va Toshkentdagi to‘p quyish va miltiq yasash ustaxonalarida tayyorlanar edi. Zambaraklar asosan mis, temir va cho‘yandan quyilar edi. To‘p quyish uchun mis Rossiya va Sharqiy Turkistondan keltirilardi. Bu xususda Orenburg korpusi qo‘mondo-ni polkovnik Dandevillning harbiy vazirga yozgan quyidagi axborotnomasini keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir: - «Turkistonga afg‘onistonlik bir kishi keldi va Turkiston hokimiga yangi zambaraklar quyishni taklif qildi. U bu ish bilan Kobulda shug‘ullanganligi hamda Yevropanikidan qolishmaydigan portlovchi to‘p o‘qlari yasashni bilishini ham aytdi. Bek buni bajonidil qabul qildi».⁴⁵⁶

Mallaxon buyrug‘iga ko‘ra quyilgan va «To‘bi maxsus kalon Sayyid Muhammad Mallaxon Bahodur. 1276 hijriy» (ya‘ni, «Sayyid Muhammad Mallaxon Bahodirning maxsus katta to‘pi. 1276») so‘zlari o‘yib yozilgan to‘plardan biri uzoqqa otishga mo‘ljallangan bo‘lib, stvolining uzunligi 280 sm, stvolining ichki aylanasi diametri 18 sm bo‘lib, og‘irligi 1385 kg ni tashkil etgan. Bunday zambaraklar ularni olib yurish uchun maxsus yasalgan g‘ildirakli moslamaga o‘rnatilgan va jangda ishlatilgan.⁴⁵⁷

Mallaxon qurollarni takomillashtirish bilan birga harbiy tayyorgarlikka ham katta e‘tibor beradi. Bunday harakatlar Aliquli Amirlashkar davrida ham davom ettirildi. Qo‘qon xonligining harbiy jihatdan oldingi yillarga nisbatan qudratga erishuvi, Rossiya imperiyasidek qudratli raqib bilan tengma – teng kurashlar olib borishi bevosita Aliquli Amirlashkarning harbiy sohada ham olib borgan faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Otlq va piyoda qo‘shinlarning jang vaqtidagi harakatlarini muvofiqlashtirish, harbiy taktika va ayniqsa harbiy

⁴⁵⁶ ЎзР МДА. 715-ф., 1-р., 23-й.ж. 109-114 - вв.

⁴⁵⁷ Пулатов Ю., Мирхаликов А. К истории огнестрельного оружия в Средней Азии. -С.103.

intizomning mustahkamlanganligi uning Rossiya imperiyasi bosqinchilariga qarshi bergan qaqshatqich zarbalaridan ham seziladi. Bu vaqtga kelib harbiy sohada, ayniqsa, artilleriya sohasida ma'lum yutuqlarga erishgan Aliquli Amirlashkar zambaraklarni takomillashtirish bilan birga mohir to'pchilarni ham tayyorlab ulgurgan edi. Toshkentlik to'pchilarning mahoratlariga hattoki general M.G.Chernyayevning o'zi ham tan bergan edi:

-«Aliqulining to'pchilari oraliq masofaning anchayin kattaligiga qaramay (800 sajen),⁴⁵⁸ hayron qolarlik darajada shunday aniqlik bilan mohirona otardilarki, ular otgan har bir to'p o'qi bizning lagerga kelib tushardi va katta vayrongarchilikka sabab bo'lardi». Shu o'rinda aytib o'tish o'rinliki, Olchoq tepaligida bo'lib turgan jang vaqtida Toshkent mudofaachilari 36 zambarakdan o'q uzib turganlar. Zambarak o'qlaridan biri chor qo'shinlarining harbiy qurol-yarog' va porox saqlanadigan omboriga tushgan. Biroq portlamay qolganligi va bu yerdagi soldatlardan biri uni tashqariga tepib yuborganligi bois omborxonaga zarar ko'rmagan. Aks holda bu jangning borishini o'zgartirib yuborishi ham mumkin edi.⁴⁵⁹ Biroq jang toshkentlik va qo'qonlik mudofaachilarning mag'lubiyati bilan yakun topdi. XX asr boshlariga kelib Turkiston o'lkasi ijtimoiy hayotida yangi davr boshlandi. Bir qator ilg'or fikrli kishilar xonliklarda siyosiy va iqtisodiy sohalarda yangilanishlar o'tkazish, shu bilan birga ayni vaqtda xonliklarda zamon talablaridan o'ta orqada qolayotgan harbiy sohani rivojlantirishga e'tiborni qaratuvchi asar va maqolalari bilan maydonga chiqdilar⁴⁶⁰. Ushbu ishlarda zamona talablari asosida armiyani isloh qilish, ilg'or tajribalarni qo'llash, harbiy qurol aslahalar ishlab chiqarish muammolarini dolzarb va davr talabi ekanligi qayd etilgan.⁴⁶¹

Qo'qon xonligida harbiy mansab va unvonlar⁴⁶²

Oliy darajali harbiy mansab va	O'rta darajali harbiy mansab	Quyi darajali unvon va
--	--	----------------------------------

⁴⁵⁸ Тахминан 1500-1600 метрга тенг.

⁴⁵⁹ Зияев Х.З. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. –Б.159.

⁴⁶⁰ Фитрат А. Ҳиндистонда бир фаранги ила бухоролик мударриснинг жадид мактаблари хусусида қилган мунозараси. //Шарк юлдузи, 1997 № 1; Бехбудий. Бухоро хонлигига саёҳат. // Ҳаёт ва иқтисод, 1990, № 1.

⁴⁶¹ Бухоро амирлигида қўшин ва ҳарбий иш. 11-б.

⁴⁶² Илҳомов З.А. Алиқули Амирлашқар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий ҳаётида тутган ўрни. Тарих фан. ном. ... дисс. Т.2004. 134-136-бб; Амирлашқар тарихи. Т.2013. 127-128-бб.

unvonlar	va unvonlar	mansablar
<i>Amirlashkar</i>	<i>Yuzboshi</i>	<i>Askar</i>
<i>Mingboshi</i>	<i>Ellikboshi</i>	<i>Sarboz</i>
<i>Qo'shbegi</i>	<i>Ellikboshi</i>	<i>Qo'rchi</i>
<i>Botirboshi</i>	<i>Dahboshi</i>	<i>Navkar</i>
<i>Yovar</i>		<i>Mergan</i>
<i>To'pchiboshi</i>		<i>Jazoilchi</i>
<i>Voliy (noib)</i>		<i>To'pchi</i>
<i>Qal'abon</i>		<i>Botir</i>
<i>To'qsoba</i>		<i>Qorovul</i>
<i>Qo'rboshi</i>		<i>Mahram</i>
<i>Ponsadboshi</i>		

Qo'qon xonligidagi xarbiy - ma'muriy mansab va unvon egalarining vazifalari⁴⁶³

№	Harbiy mansab va unvonlar	Vazifasi
1	<i>Mingboshi</i>	<i>Harbiy vazir va bosh qo'mondon</i>
2	<i>Amirlashkar</i>	<i>Harbiy holatda mingboshi yoki amir ul-umaro xonlik ko'shinlariga oliy bosh qo'mondon etib tayinlangan va ayrim hollarda vakolatlari deyarli xonnikiga tenglashtirilgan.</i>
3	<i>Qo'shbegi</i>	<i>Qo'shin boshligi, ayrim hollarda viloyat hokimi vazifasini ham amalga oshirgan</i>
4	<i>Botirboshi</i>	<i>Alohida harbiy tayyorgarlikka ega jangovor dastalar boshliqlari</i>
5	<i>Voliy (noib)</i>	<i>Artilleriya uchun javobgar shaxs</i>
6	<i>Qal'abon (Qutvol)</i>	<i>Xonlikning xarbiy qal'alariga masul etib tayinlangan va uning muxofzasi uchun javobgar lavozim egasi</i>
7	<i>Qo'rboshi</i>	<i>Qurol - aslaha ishlab chikaruvchi ustaxona va qurol-yarog' zaxirasi saklanadigan omborxonaga uchun mas'ul amaldor</i>
8	<i>Yovar</i>	<i>Amirlashkar shaxsiy dastasining boshlig'i, qurol - yarog' yasovchi ustaxonalar sardori</i>
9	<i>To'pchiboshi</i>	<i>To'pchilar bo'linmasi boshlig'i</i>
10	<i>To'qsoba</i>	<i>Uzining tug'iga ega bo'lgan harbiy dasta boshlig'i</i>
11	<i>Ponsadboshi</i>	<i>Yuz nafardan besh yuz nafargacha sarbozlardan iborat harbiy qo'shin boshlig'i</i>
12	<i>Yuzboshi</i>	<i>Yuz nafargacha sarbozlarga boshchilik qilgan</i>

⁴⁶³ Илҳомов З.А. Аликули Амirlашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий ҳаётида тутган ўрни. Тарих фан. ном. ... дисс. Т.2004. 134-136-бб; Амirlашкар тарихи. Т.2013. 127-128-бб.

13	<i>Ellikboshi</i>	<i>Ellik nafarlik harbiy dasta boshlig'i</i>
14	<i>Daxboshi</i>	<i>O'n nafarlik harbiy dasta</i>
15	<i>Qorovulbegi</i>	<i>Soqchilar va qorovullar boshlig'i</i>
16	<i>Sarboz</i>	<i>Piyoda askar</i>
17	<i>Navkar</i>	<i>Otliq askar</i>
18	<i>Mergan</i>	<i>Mavjud ko'shin orasidan saralab olingan askarlar bo'linmasi (o'qchilar bo'linmasi)</i>
19	<i>Jazoilchi</i>	<i>To'pchi, asosan kichik (jazoil, xitoycha) zambaraklardan otuvchi harbiy</i>
20	<i>To'pchi</i>	<i>Katta to'plardan otuvchi harbiy, bunday to'plar asosan mudofaa maqsadida qo'llanilgan</i>
21	<i>Qoziyi askar</i>	<i>Harbiy qozi</i>

**Xonlikda harbiy qo'shinlarning qal'alar va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi⁴⁶⁴
1860 yil***

№	Shahar va qal'larning nomi	Qo'shinlar miqdori	Zambaraklar soni
1	<i>Qo'qon</i>	<i>6000 kishi</i>	<i>30 tagacha</i>
2	<i>Toshkent</i>	<i>2000 kishi</i>	<i>20 dan ortiq</i>
3	<i>Turkiston</i>	<i>600 kishi</i>	<i>2-4 tagacha</i>
4	<i>Yangiqo'rg'on</i>	<i>60 kishi</i>	<i>1-3 tagacha</i>
5	<i>Kirovchi</i>	<i>400 kishi</i>	<i>1-3 tagacha</i>
6	<i>Beklarbegi</i>	<i>50 kishi</i>	<i>1-3 tagacha</i>
7	<i>Shoydon</i>	<i>50 kishi</i>	<i>1-3 tagacha</i>
8	<i>Chinoz</i>	<i>100 kishi</i>	<i>1-3 tagacha</i>
9	<i>Chimkent</i>	<i>250 kishi</i>	<i>2-4 tagacha</i>
10	<i>So'zoq</i>	<i>60 kishi</i>	<i>1-3 tagacha</i>
11	<i>Jo'lak (CHo'loq)</i>	<i>50 kishi</i>	<i>1-3 tagacha</i>
12	<i>Avliyoota</i>	<i>600 kishi</i>	<i>2-4 tagacha</i>
13	<i>Marki</i>	<i>400 kishi</i>	<i>1-3 tagacha</i>
14	<i>Isfara</i>	<i>200 kishi</i>	<i>1-3 tagacha</i>
15	<i>Pishpak</i>	<i>800 kishi</i>	<i>1-3 tagacha</i>
Ja'mi		<i>11620 kishi</i>	<i>Taxminan: 60 – 90 tagacha</i>
* <i>Rossiya imperiyasi harbiy bosqinchilik harakatlari kuchayishi bilan harbiy qo'shinlarning miqdori harbiy holatlarda halqdan yig'iladigan halq lashkarlari hisobiga ko'paytirilgan va mudofaa qobiliyati kuchaytirilgan.</i>			

Biroq tarixdan ma'lumki, Qo'qon xonligi, qolaversa Buxoro amirligi va Xiva xonliklarining Rossiya imperiyasi bosqinchiligiga qarshi kurashlardagi asosiy zaif sohalaridan biri bu harbiy sohaning

⁴⁶⁴ Илҳомов З.А. Аликули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий ҳаётида тутган ўрни. Тарих фан. ном. ... дисс. Т.2004. 134-136-бб; Амирлашкар тарихи. Т.2013. 127-128-бб.

takomillashmaganligi hamda xonliklardagi qo‘shinlar harbiy tayyorgarlik darajasining yuqori bo‘lmaganligi edi.

Tayanch so‘zlar: sarkarda, qo‘shin boshliqlari, harbiy tayyorgarlik, qo‘mondonlik mahorati, otliq va piyoda askarlar, qo‘shin, piltalari, qo‘mondon, halq lashkari, xarbiy xarakatlar, muntazam qo‘shin

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XVI-XVIII asrlarda xonliklarda harbiy ishlar qay holatda bo‘lgan?
2. XVIII -XIX asrda xonliklarda harbiy sohaning ahvoli va harbiy islohotlar qanday amalga oshirildi?
3. Buxoro amirligidagi harbiy ishlar holati?
4. Xiva xonligidagi harbiy ishlar holati?
5. Qo‘qon xonligidagi harbiy ishlar holati?
6. O‘zbek xonliklari harbiy sohasidagi umumiylik nimalarda ko‘ringan?

XVI-XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QORAQALPOQLAR

- ❖ XVI – XIX asr boshlarida qoraqalpoqlar.
- ❖ Oydo‘stbiy qo‘zg‘oloni.
- ❖ Qoraqalpolarda ijtimoiy – iqtisodiy hayot.
- ❖ Qoraqalpoq xalqining madaniyati.

XVI – XIX asr boshlarida qoraqalpoqlar. XIV asr oxirlarida qoraqalpoqlar Volga va Yoyiq daryolari oralig‘ida tashkil topgan No‘g‘oy (Mang‘it) xonligi tarkibida bo‘lganlar. No‘g‘oy xoni Idigu (Yedigey) 1419 yilda o‘ldirilgach, taxt talashishlar natijasida xonlik kuchsizlandi. No‘g‘oy xonligida mang‘itlar tarkibida yashagan qoraqalpoqlar o‘troq va yarim ko‘chmanchi xalq edi. No‘g‘oy xonligini qoraqalpoqlar boshqargan.

XIV asr arab tarixchilaridan biri An-Nuvayrining Oltin O‘rda hududlarida yashagan qipchoqlar haqidagi ma‘lumotlarda yozishicha, qipchoqlarning o‘n bir yirik urug‘laridan birining nomi “Qora bo‘rkli” bo‘lgan⁴⁶⁵. O‘rta asr muallifi Rashididdinning (XIV asr) o‘z asarida mo‘g‘ullarning Rus davlatining janubiy hududlariga amalga oshirgan bosqinchilik yurishlari bayonida ko‘rsatib o‘tishicha, bu hududlarga qo‘shni yerlarda “qora qalpoqli xalqlar” (qavm-i ko‘loh-i siyoh) yashagan⁴⁶⁶. XIX asr tarixchilarining bu mualliflar asarlarida tilga olingan xalqlar haqidagi fikrlariga ko‘ra, qayd etilgan har ikki nomlanish XIII asr rus yilnomalarida “cherniye klobuki” nomiga mosligi va bularning barchasida gap qoraqalpoqlar haqida borayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan⁴⁶⁷.

XVIII asrda Xiva xonligida bo‘lgan N.Muravin va D.Gladishevlar qoraqalpoqlar orasida ham bo‘lib, ularning turmush tarzi va xo‘jaligi, madaniyati va etnografiyasiga oid ko‘plab qimmatli ma‘lumotlarni yozib qoldirganlar⁴⁶⁸.

Qoraqalpoqlar XVI asr boshlaridan boshlab o‘zlarining mustaqilliklari uchun kurash boshladilar va qoraqalpoq xonlaridan biri

⁴⁶⁵ Нурмухамедов М.К., Жданко Т.А. Камалов С.К. Каракалпаки (краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). Ташкент, “Фан”. 1971. Стр.5

⁴⁶⁶ Фазлуллах Рашид-ад-дин. Джами – ат-таварих. Баку. Нагыл Еви. 2011. 539 с.

⁴⁶⁷ Нурмухамедов М.К., Жданко Т.А. Камалов С.К. Каракалпаки (краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). Ташкент, “Фан”. 1971. Стр.6

⁴⁶⁸ Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная 1740-1741 годах поручиком Гладишевым и геодезистом Муравиным. С.-Петербург. Типография министерства внутренних дел. 1851.

Musabiy avlodlaridan birini xon etib sayladilar. Ularning orasida eng ta'siri kuchli hisoblangani O'rmambetbiy edi. Shu kurash davomida O'rmambetbiy o'ldirilgach, XVII asr boshlarida Tinaxmadning avlodi Eshtarak Mirzo xokimyat tepasiga keladi. Uning davrida ham o'zaro urushlar to'xtamadi.

XVI asr oxirida No'g'oy xoni Ismoil avlodlari o'rtasida xokimiyat uchun kurash kuchaydi. XVI asrning ikkinchi yarmida No'g'ay xonligi 3 qismga - Olti ul o'rdasi, Kichik o'rda va Katta o'rdaga bo'linib ketgan. XVII asrning boshlarida no'g'aylar Volga va Yoyiq daryolari bo'ylariga bostirib kelgan jung'orlar (qalmoqlar) tomonidan tormor etiladi.

Ulug' No'g'oy o'rdasi Azov va Kuban, Kaspiy va Terek daryolari orlig'ida ko'chib, o'troqlashib turadi. 1613 yili No'g'oylar Xo Urluk boshchiligidagi qalmoqlarning xujumiga duchor bo'ladi. XVII asrning 30-yillarida qalmoqlar Volga va O'rol daryolari quyi oqimlarini egallagach yaylovlaridan ajralgan no'g'oylar g'arbga Qrim tarafga ko'chishga majbur bo'ladi. No'g'oylarning Olti ul ulusi Sharqqa, Orol dengizi bo'ylariga kelib o'rnashadi. XVII asr oxirida qoraqalpoqlar Sirdaryo bo'yiga ko'chib kelganlar.

Sirdaryoning quyi oqimlaridagi yerlarga kelib o'rnashgan qoraqalpoqlar qozoqlar bilan yonma-yon yashay boshladilar. XVII asr mualliflaridan biri Muhammad Yusuf Munshining yozishicha, qozoqlar va qoraqalpoqlar birgalikda Xiva xonligi va Buxoro xonligining o'troq aholi yashaydigan hududlariga ko'plab marotaba talonchilik yurishlari va bosqinlar o'tkazib turganlar⁴⁶⁹.

Bu davr tarixchilaridan biri Muhammadyorning asarida XVI asrning 60-70-yillarida Buxoro davlatining xoni shayboniy Abdullaxon II ning boshqa shayboniy sultonlari bilan kurashlari jarayonida Ko'chkinchi sultonning o'g'li Maxmud Sultonning farzandi Shoxim Sulton haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Muallifning ko'rsatishicha, Abdullaxon tomonidan shayboniy sultonlarining ko'pchiligi qatl qilinayotganligi sababli Shoxim sulton bir qancha vaqt yashirinib yurishga majbur bo'ladi va keyinchalik yolg'izlikda vafot etadi. -"Qoraqalpoqlar, - deb yozadi

⁴⁶⁹ Иванов П.П. Новые данные о каракалпаках (Исторические заметки). Советское востоковедение. Т.III. Издательство Академии наук СССР. Москва-Ленинград. 1945. Стр.63-64

muallif, - Vali Muham-madning hukmronligi yillarida (1605-1611) tashqi ko‘rinishi Shoxim Sultonga o‘xshab ketadigan bir odamni topdilar va u odamni Shoxim Sulton deb tanita boshladilar. Qoraqalpoqlar soxta Shoxim Sultonni qozoq xoni Abullays huzuriga keltirdilar va shu yerda Shoxim Sultonni Qoraqalpoqlar xoni deb e‘lon qildilar. Keyingi vaqtlarda qoraqalpoqlar tomonidan Samarqand va uning atroflariga bir necha marta talonchilik yurishlari amalga oshirildi. Shu vaqtda xooning soxtaligi ma‘lum bo‘lib qoldi va u o‘ldirildi, shundan so‘ng qoraqalpoqlarning bosqinchiligi ham barham topdi⁴⁷⁰.

1598 yil Abdullaxon II tomonidan Sig‘noqdagi muqaddas Ziyoviddin maqbarasiga berilgan yorliqda qoraqalpoqlar shu nom bilan tilga olingan. Keyingi davr manbalariga ko‘ra XVI asrda qoraqalpoqlarning ayrim guruhlari Volga, Ural, Emba daryolari oralig‘ida, shuningdek, Buxoro xonligi hududlariga o‘rnashadilar. XVII asrdan boshlab to XVIII asr o‘rtalariga qadar qoraqalpoqlar Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimi bo‘ylab joylashib, kichik juz qozoqlari bilan qo‘shnichilikda yashaydilar. Bu davrda ular ham iqtisodiy va siyosiy jihatdan qozoq xonlariga tobe bo‘lganlar. Ularning boshqaruvi qozoq sultonlari qo‘lida bo‘lgan.

Qozoq hukmdori Tavkaxon (1680-1718 yy.) hukmronligi davrida qoraqalpoqlarni uning o‘g‘illaridan biri boshqargan. 1694 yildan boshlab Tavkaxonning o‘g‘li Taburchak sulton qoraqalpoqlarga bosh bo‘lgan bo‘lsa, 1709 yildan Taburchakning o‘g‘li Kaip sulton ularga boshchilik qilgan. 1722 yildan boshlab qoraqalpoqlar xoni Eshmuham-madxon bo‘ladi⁴⁷¹. Bu davlat Sirdaryoning quyi oqimi, Volga bo‘yi qalmoqlari, Boshqurt ulusi va qozoq xonlari bilan chegaradosh bo‘lgan.

Xujjatlarda XVII-XVIII asrlardagi qoraqalpoq xonlari orasida Kuchukxon, Taburchak sulton bo‘lgani eslatiladi. 1709 yili Taburchak sultonning o‘g‘li G‘oyib sulton Iris Muxammad qoraqalpoq xukmdori bo‘lgan.

Qoraqalpoq xonligiga Orol bo‘ylari ham qaragan. Eshimxon

⁴⁷⁰ Мусаххир-аль-билад, соч. Мухаммед Яр, сына Араб-каттагана, рукопись Института востоковедения Академии Наук СССР, С 465, лл. 92а-92б.

⁴⁷¹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент, “Янги аср авлоди” 2012. 358-359-бб.

Qorao‘zak tumanida Eshimyop kanalini qazdirgan. 1715 yili Xiva taxtiga Sherg‘ozi o‘tirgach, Orol bo‘ylarini o‘ziga bo‘ysundiradi. 1723 yili qoraqalpoqlar Shoxtemir boshchiligida xonga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradilar va shunda Sherg‘ozi o‘ldiriladi. Birov Xiva xonligining qoraqalpoqlar va Orol o‘zbeklarini xonlik tarikibiga kiritish borasida kurashlari bu bilan to‘xtab qolmadi. 1735 yilda Elbarsxonning say-harakatlari bilan Orolbo‘yi o‘zbeklari va qoraqalpoqlar Xiva xonligi hokimiyatini tan olganlar. Muhammad Amin inoq davrida ayrim qoraqalpoq qabilalari ixtiyoriy ravishda Xiva xonligi fuqaroligiga o‘ta boshlaganlar.

1723 yilda qoraqalpoqlar Jung‘or qalmoqlari xujumiga duchor bo‘ldilar. Jung‘or qalmoqlari 1723 yilda jung‘or hukmdori Sevan Rabdon qo‘shinlari Qozoq xonligi yerlariga bostirib kirdilar. Jung‘orlarga qarshilik ko‘rsata olmagan qozoqlarning katta qismi turli tomonlarga tarqalib ketdilar. Qozoqlar uch tarafga bo‘linib ko‘chib ketdilar. Sirdaryo qoraqalpoqlari ham qozoqlarga qo‘shilib, bir guruxi Orol tarafga, ikkinchi bo‘lagi Sirdaryo bo‘ylab yuqoriga-Toshkent tarafga jilishga majbur bo‘ladi va Farg‘ona vodiysiga kelib o‘troqlashdi. Shu tariqa qoraqalpoqlar shartli ravishda "yuqori qoraqalpoqlar", "quyi qoraqalpoqlar"ga bo‘linib ketdi. Quyi qoraqalpoqlar Sirdaryo bilan Amudaryo o‘rtasidagi bo‘sh yotgan yerlarga ham o‘rnashib, bu yerlarga Quvondaryodan suv chiqarib, dehqonchilik bilan shug‘ullandilar.

Qoraqalpoqlar Rossiya bilan munosabatlar o‘rnatishga harakat qilgan. Bunday yaqinlashishga bir qator omillar sabab bo‘lgan edi. Birinchidan, Rossiya bilan savdo-tijorat ishlarini yo‘lga qo‘yishdan manfaatdorlik, ikkinchidan, jung‘orlarning tinimsiz hujumlaridan himoyalaniish zarurati sabab bo‘ldi. 1726-yilda qozoq xoni Abulxayrxon Peterburgga o‘z elchilarini jo‘natgan. Uning tarkibida qoraqalpoq vakillari ham bor edi. Bunga javoban, 1731 yilda Rossiya o‘z elchisi Mamatmirza Tevkelevni Abulxayrxon huzuriga jo‘natadi. Muzokaralar natijasida ham Kichik *juz*, ham Quyi qoraqalpoqlar Rossiya fuqaroligiga qabul qilinadi. Ayni paytda, qoraqalpoqlarning Rossiyaga emas, Kichik *juz* xonligiga

yasoq to‘lashi tan olindi⁴⁷². Qoraqalpoqlarning Rossiya imperiyasi fuqaroligiga qabul qilinishi ularni Eron hukmdori Nodirshoh hujumidan saqlab qoldi. Qoraqalpoqlarning asosiy qismi notinch og‘ir yillarda Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi bo‘sh yotgan yerlarga, Yangidaryo va Quvondaryo bo‘ylariga ko‘chib kelib yashardilar. Bu yerlar Xiva xonligiga chegara hududlar edi. XVIII asrning 30-40-yillari boshlarida qoraqalpoqlarning Rossiya bilan elchilik aloqalari yana yo‘lga qo‘yildi. 1743 yilda Mamanbiy boshchiligidagi qoraqalpoq elchilari Peterburgda Rossiya hukmdori Yelizavetaning “homiylig” haqidagi yorlig‘ini oldilar. Bundan g‘azablangan kichik juz qozoqlari xoni Abulxayr o‘sha yili Orol bo‘yi qoraqalpoqlariga hujum qilib, ularni talon taroj qiladi. Abulxayrxonning hujumi qoraqalpoqlarning Janidaryoga harakatlarini kuchaytirdi. 1746-1747 yilning qishida qoraqalpoqlar O‘rta juz qozoq hukmdori Abulxayrxon hujumiga duchor bo‘ladilar⁴⁷³.

1747-1748 yillari Abulxayrxon qoraqalpoqlar ustiga chopovul yasagan: ularning bir qismini Talas daryosining bo‘yiga ko‘chirib keltirib, dexqonchilik bilan shug‘ullanishga majbur qilgan. Qoraqalpoqlarning asosiy qismi Yangidaryo va Quvondaryo bo‘ylarida dexqonchilik, chorvachilik, ovchilik qilib kun kechirishgan.

Qozoq xonlari va sultonlarining hujumlariga dosh berolmagan Orolbo‘yi qoraqalpoqlarining bir qismi Sirdaryoning yuqori oqimlariga ketib qolishga majbur bo‘ladilar. Asosiy qismi esa, janubi-g‘arbga tomon, Xiva xonligi chegaralariga, Quvondaryo va Yangidaryo oralig‘idagi hududlarga o‘rnashadilar. 1748 yilda O‘rta juz sultoni Baroq o‘zining tarafdorlari yordamida Abdulxayrni o‘ldiradi. Abdulxayrning o‘g‘li Nurali xon deb e‘lon qilinadi. Ammo, uning hokimiyatini barcha Kichik juz qabul qilmadi. Yirik zodagonlar sulton Botirni xon deya e‘tirof etganlari bois, kichik juz ikki hokimlikka bo‘linib ketdi. Shuningdek, Sirdaryoning quyi oqimidagi ko‘chmanchilarga boshchilik qilayotgan Abulhayrning yana bir o‘g‘li Erali sulton o‘zini akasi Nurali sultondan mustaqil hisoblar

⁴⁷² Нурмухамедов М.К., Жданко Т.А. Камалов С.К. Каракалпаки (краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). Ташкент, “Фан”. 1971. Стр.24

⁴⁷³ Нурмухамедов М.К., Жданко Т.А. Камалов С.К. Каракалпаки (краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). Ташкент, “Фан”. 1971. Стр.25

edi. 1762 yilda sulton Erali Sirdaryo bo'ylarida qolgan qoraqalpoqlar ustiga yurishlar qilib ularni Yangidaryo va Orol mulklariga ko'chishga majbur qiladi. XVIII-XIX asr boshlarida butun Quvondaryo va Yangidaryo havzalari qoraqalpoqlarning mulklari edi. Bu yerda ular Orolbo'yi o'zbeklari va qoraqalpoqlari bilan nafakat siyosiy ittifoqda bo'ldilar, balki etnik jihatdan ham aralashib ketdilar. Ular ittifoqchilikda qozoq xonlari va sultonlari, Xiva xonlariga qarshi kurashlar olib bordilar⁴⁷⁴.

XVIII-XIX asrlarda Amudaryoning sharqiy tarafidan oqib, Orol dengiziga quyilgan Ko'ko'zak daryosi bo'yidagi ko'psonli qoraqalpoqlar bilan orollik o'zbeklarda dexqonchilik, chorvachilik, baliqchilik gullab yashnagan. Mazkur daryo bo'yida Oqyoqish nomli qabilalar uyushmasi vujudga keladi. Oqyoqish oti bilan mashxur bo'lgan xozirgi Taxtako'prik tumani xududida saqlanib qolgan qal'ani xalq Oydo'st qal'a deb ataydi.

Qoraqalpoqlarning ko'pchiligi XIV-XVII asrlarda avval Volga daryosi bo'ylarida, keyinchalik Sirdaryo bo'ylarida yashaganlar. Bu davr mobaynida o'zlarining nomlari va boshqaruv tizimlarini saqlab qoldilar. XVI asrdan boshlab Amudaryo o'zining avvalgi o'zaniga qayta boshladi va Orol dengiziga quyilishda davom etdi. Shu vaqtdan boshlab turli tomonga ko'chib ketgan qoraqalpoqlar avvalgi yashagan yerlariga qaytib kela boshladilar. XVII-XVIII asrlarda bu yerlarda yashab turgan qoraqalpoqlar va o'zbeklarning qo'ng'iro't urug'lari birlashib Xiva xonligiga rasman qaram, amalda mustaqil bo'lgan Orol davlatiga asos soladilar, uning markazi Qo'ng'iro't shahri edi. Uning hududlari Ustyurtdan Sirdaryoning quyi oqimlariga bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan edi. Bu hududlarni bo'ysundirish uchun Xiva xonligi bir necha marta harbiy yurishlarni amalga oshirgach, Muhammad Rahim I hukmronligi davrida, XIX asr boshlarida to'liq bo'ysundirildi⁴⁷⁵.

Muxammad Raximxon I Xiva xonligini markazlashgan, iqtisodiy kuchli davlatga aylantirish maqsadida Yangidaryo bo'yidagi qoraqalpoqlar ustiga qo'shin tortgan, qoraqalpoq zodagonlarini o'z tarafiga og'dirishga

⁴⁷⁴ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент, “Янги аср авлоди”. 2012. 359-б.

⁴⁷⁵ Кудияров А.Р. Истории Каракалпакстана (для студентов бакалавра по специальности истории). Нукус. 2009. 12-бет.

xarakat qilgan. Shuningdek natijasi o'laroq qoraqalpoq biyi Oydo'stbiyning Yangidaryo bo'yidagi qoraqalpoqlarni Orol bo'yiga ko'chirib keltirishga yordam bergan. Amudaryo etaklarida yashovchi qoraqalpoqlar ham Xiva xonligi tarkibiga o'tgan.

Oydo'stbiy qo'zg'oloni. XVIII asr so'nggi choragi va XIX asr birinchi choragida qoraqalpoqlar va Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlar nisbatan keskinlashib bordiganligi bilan 'xususiyatlanadi. Inoq Muhammad Aminxon hokimiyati davrida qoraqalpoqlarning qo'ldovli urug'i Oydo'stbiy boshchiligida Xiva xonligi tobeligiga o'tgan. Buning evaziga Muhammad Amin inoq Oydo'stbiy va uning urug'iga Amudaryoning irmog'i Ko'ko'zak daryosidan Orl dengizigacha bo'lgan hududlarda bemalol xo'jalik yuritishiga ruxsat beradi. Oydo'stbiy o'ziga berilgan imkoniyatlardan foydalanib, qoraqalpoqlarni bir-biriga qarama qarshi bo'lgan ikki guruhga ajralib ketishiga sababchi bo'ladi. Qoraqalpoqlarning asosiy qismi - o'n to'rt ul urug'i o'zlarining Yangidaryo bo'ylaridagi mulklariga egalik qilish uchun harakat qilib, Xiva xonligiga qarshi Buxoro xonligi bilan ittifoq tuzishga erishadilar. Oydo'stbiy esa hali Xiva xonligiga bo'ysundirilmagan qoraqalpoqlarni bo'ysundirish uchun Xiva xoniga yordam beradi⁴⁷⁶. Muhammad Raximxon I esa qoraqalpoqlarni butunlay Xiva xonligiga bo'ysundirish siyosatini olib bordi va 1809-1811 yillar davomida amalga oshirilgan harbiy yurishlari natijasida bunga erishdi. Muxammad Raximxon I davri (1806-1825) da Oydo'stbiy yuqori mansabga ko'tarilib, saroyga yaqinlashgan. Muxammad Raximxon taxtga o'tirgan kuni unga zarbof to'n, oltin soplilari xanjar sovg'a qilingan. U barcha qoraqalpoq xalqining biyi darajasiga ko'tarilgan. O'shanda Orol, Qo'ng'iroq eli To'ramurod so'fi boshchiligida mustaqil bo'lishga xarakat qilgan. Xonlikdagi bu qarama-qarshilik qoraqalpoq eliga ham ta'sir ko'rsatgan. 1811 yilda Rus eliga boradigan Xorazm karvonini Karimberdi otaliq va Muhammadrizo qo'shbegi Arang qiridan o'tkazib qaytishadi. To'ramurod So'fi bundan xabar topib, karvonni talash uchun izidan chovdirlardan uch yuz kishini

⁴⁷⁶ Нурмухамедов М.К., Жданко Т.А. Камалов С.К. Каракалпаки (краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). Ташкент, "Фан". 1971. Стр.27

yuboradi. Yana ikki yuz kishini Oydo'stbiyning elini talash uchun Oqyoqishga jo'natadi⁴⁷⁷.

Oydo'stbiy elini talash uchun Oqyoqishga kelgan lashkarboshilar qoraqalpoq toifasiga mansub edi. Sarimsoqbiy qo'ldovli, Islamasbiy bolg'ali, Nurtoybiy qo'shtamg'ali kabi lashkarboshilar Oqyoqishga yaqinlashayotgan vaqtda Oydo'stbiy mulozimlaridan Xo'jamberdibek, Qalandar ko'r, Eshmuhammad yuzboshilar Eshmuhammadbekning Gurlanga kirgan xabarini eshitib, xoinlik yo'liga o'tishadi va qal'ani tashlab ketadilar. Buni eshitib xon ularni xoinligi uchun lavozimidan olib tashlab, ularning o'rniga Muhammadniyozbekni va Hasanmurod qipchoqni tayin qiladi⁴⁷⁸.

To'ramurod So'fidan tashqari Yangidaryo qoraqalpoqlariga hukmdorlik qiluvchi O'rinboybiy, Eshjonbiy, Hasanbiy, Esongaldibiy, To'qta'palo'dbiy va Mamanbiylar mamlakat hukmdoriga bo'ysunmasdan Buxoro amiri bilan bordi-keldini kuchaytirdilar. Ular doimo Xorazm va qozoq karvonlarini talash bilan mashg'ul edi. 1809 yilda Muhammad Raximxon I bu hududga chopovul uyushtirgan edi. Lekin mazkur hudud hali ham biror mamlakatga bo'ysunmas edi. Oqyoqish qal'asi hukmdorlari ular va To'ramurod So'fining Buxoroga borib-kelayotgan elchilarini ushlab qatlgaga tortdilar. Shu orada qozoqlarning chumanay toifasi podshohi Eralixon ming besh yuz kishilik qo'shin bilan Tanga xitoy va Qipchoqni taladi, ko'plab kishilarni o'ldirdi⁴⁷⁹. Ularni to'xtatish uchun Yangidaryo biylari qoraqalpoq yigitlariga murojaat qilishadi. Ular Eralixonni yengib, qochishga majbur qilishadi. Ushbu voqeadan keyin, Yangidaryo biylari Xiva xoniga elchi yuborishadi. Biroq, O'rinboybiy va Eshjonbiydan boshqa biylar o'zlarining qozoq xonlari bilan aloqasini kuchaytirdilar⁴⁸⁰.

XIX asrning ikkinchi choragida ham Xiva xonligida o'zaro ichki kurashlar keskinligi saqlanib qoldi. Olloqulixonning tinimsiz ichki va tashqi kurashlarga yo'naltirilgan harbiy yurishlari oddiy xalq zimmasiga

⁴⁷⁷ Шермухаммад Мунис. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. Т.: "Ўқитувчи". 2010. 211-б.

⁴⁷⁸ Сапарбоев Б. Муҳаммад Раҳимхон I томонидан Тўрамурад Сўфи муҳолифатчилигининг баргараф этилиши («Фирдавс ул-икбол» асари асосида). Хоразм Ма`Мун академияси ахборотномаси . 2013 йил, 3-сон. 20-26-бб.

⁴⁷⁹ Шермухаммад Мунис. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. Т.: "Ўқитувчи". 2010. 211-б.

⁴⁸⁰ Сапарбоев Б. Муҳаммад Раҳимхон I томонидан Тўрамурад Сўфи муҳолифатчилигининг баргараф этилиши («Фирдавс ул-икбол» асари асосида). Хоразм Ма`Мун академияси ахборотномаси . 2013 йил, 3-сон. 20-26-бб.

juda katta yo‘qotishlarni yukladi va davlatda iqtisodiy tanglik yuzaga keldi, ayniqsa, bu iqtisodiy talofotlar qoraqalpoq xalqida ko‘plab muammolarni yuzaga keltirdi. Olloqulixon davrida (1825-1842) zulm, talonchilik, o‘zaro urushlar kuchaygan. Olloqulixon Buxoro bilan sulh tuzilganiga qaramay 7 marta Buxoro xonligi hududiga yurishlar qilib, qishloqlarni talab qaytgan. Xurosonga 5 marta yurish qilgan. 1827 yilga kelib qoraqalpoqlarning iqtisodiy ahvoli va ijtimoiy hayoti o‘ta qashshoqlashib, markaziy hokimiyatga qarshi ko‘plab noroziliklarni keltirib chiqardi, ayniqsa, soliq yig‘iladigan vaqtlarda bu noroziliklar norozilik kurashlariga ham aylanib keta boshladi⁴⁸¹. Xiva xonligiga qarshi norozilik harakatlariga qo‘ng‘irotlar ham qo‘shilgach, bu noroziliklar qoraqalpoqlarning juda katta qismini birlashtirgan yirik qo‘zg‘olonga aylanib bordi.

Butun qoraqalpoqlarning biyi Oydo‘stbiy bu qo‘zg‘olondan foydalanib qolishga va mustaqil hokimiyatni o‘rnatishga harakat qildi. Bu xarakat oldidan Oydo‘stbiy xondan yordam so‘ragan. Xiva xoni yordamida Oydo‘stbiy Oqyoqish bo‘yida (Xozirga Taxtako‘prik tumanida) ulkan qo‘rg‘on qurdirgan.

Qo‘zg‘olon oldidan qoraqalpoqlar orasida soliq yig‘ish uchun Gadoyniyoz maxram yuborilgan. U qoraqalpoqlarning xitoy qabilasi boshlig‘i Bekpo‘latbiydan qo‘zg‘olon tayyorlanayotgani to‘g‘risida eshitadi. Shundan keyin maxram qo‘ng‘irot qabilasi boshlig‘i CHo‘nqorabiyning o‘g‘li Qobilbiy xuzuriga keladi. Uning uyida qolib, odamlarini Xivaga jo‘natadi. 1827 yil 25 iyul kuni xon Oydo‘stbiy boshchiligidagi tayyorlanayotgan qo‘zg‘olon xaqida eshitadi. Xon Oydo‘stbiy qo‘zg‘olonchilarini yo‘qotish uchun maxsus qo‘shin to‘plab, unga Muxammad Nazarbiy inoqni qo‘mondon tayinlaydi va Xo‘jayli shaxriga jo‘natadi. Shaxar atrofida askarlar o‘rnashadi⁴⁸².

Oydo‘stbiy qoraqalpoq kadxudo va biylarni to‘plab, Orol dengizi bo‘yida Sori atov degan mavzda mashvarat qiladi. Yig‘ilganlar maslaxati bilan qoraqalpoq ovullariga otliq choparlar jo‘natib, shunday buyruq beradi: “Hamma bola-chaqasi bilan qo‘zg‘olonga yig‘ilsin. Kimda-kim

⁴⁸¹ Нурмухамедов М.К., Жданко Т.А. Камалов С.К. Каракалпаки (краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). Ташкент, “Фан”. 1971. Стр.34

⁴⁸² Илҳомов З. Хўжамов М. Ўзбекистон тарихи. Тошкент, ТДПУ, 2002. 38-39-бб.

bosh tortsa, u dushman xisoblanadi”. Natijada barcha qoraqalpoqlar to‘planib qulay yerda xandak qazib, shox-shabbalar va aravalar bilan mudofaa to‘sig‘i qurishgan. 29 iyulda Oydo‘stbiy o‘zining ikki o‘g‘li Rizo va To‘rani 300 botirga bosh qilib, Qo‘ng‘irot qo‘rg‘oniga chopovulga yuboradi. O‘shanda Qo‘ng‘irot xokimi Muxammad YA‘kub Mushrif qo‘rg‘on mudofaasini uyushtirgan. Urush peshingacha davom etgan. Oydo‘stbiy askarlarining bir qanchasi nobud bo‘lgan. Ba‘zilari dengiz tomon qochgan. Rizo ham, To‘ra ham bor imkoniyatni ishga solsalar-da, yengilganlar⁴⁸³.

Xo‘jayli shaxri atrofida turgan Muxammad Nazar inoq hamda Muxammad Rizo qo‘shbegi uchun ham xonning qo‘zg‘olonchilariga qarshi qo‘shin yuborish xaqidagi farmoni keladi. Ular yovmut va shavdor qabilalaridan askar to‘plab, Suyinbiy, Do‘simbiy, Muxammad Niyoz yasovulboshilar boshchiligida qo‘zg‘olonchilarga qarshi jo‘natadi. Bular orasida qoraqalpoqlardan yig‘ilgan odamlar ham bor edi. Jumladan, Davlatnazarbiy boshchiligida askarlar Oydo‘stbiy odamlarining yengilganini eshitib, o‘ziga yaqin odamlari bilan Sori otovni tashlab ketishga majbur bo‘ladi va Qo‘qon tarafga yo‘l oladi. Muxammad Nazar inoq uning xabarini eshitib, Oydo‘stbiy odamlari orasidan saralangan qo‘shin jo‘natadi. Qo‘shin ikki kun deganda Chirikrabort mavzeida Oydo‘stbiy odamlarini o‘rab oladilar. Natijada qo‘zg‘olonchilar mag‘lubiyatga uhradilar.

Qoraqalpoqlarda ijtimoiy – iqtisodiy hayot. XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr boshlariga kelib qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida ko‘pgina o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, ulardan eng asosiysi qoraqalpoqlarda yerga bo‘lgan munosabatlarning mukammallashib borishida ko‘rinadi.

Qoraqalpoqlar yashagan Amudaryoning quyi havzasi va Orol dengizining janubiy qirg‘oqlari ham xonlik tasarrufida edi⁴⁸⁴.

Xiva xonligi va uning tarkibidagi xalqlar tarixi va tarixiy geografiyasiga oid qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan asarlardan birining

⁴⁸³ Нурмухамедов М.К., Жданко Т.А. Камалов С.К. Каракалпаки (краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). Ташкент, “Фан”. 1971. Стр.35

⁴⁸⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакачилиги даврида. Т.Шарк. 2000й. 47-б.

muallifi N.Muravyev qoraqalpoqlar va ularning yashash hududlari haqida shunday ma'lumotlarni yozadi: -“ Xiva xonligining shimoliy-sharqiy chegaralari Amudaryo oqimi bo‘ylab o‘tadi, ta’kidlash kerakki, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida yashovchi Qoraqalpoqlar ham Xiva xoniga tobedirlar, biroq ularning tobeligi doimiy bo‘lmay, ayrim vaqtlarda xonlikka bo‘ysunmaydilar⁴⁸⁵.

Sirdaryoning quyi oqimidagi shahar va qishloqlar, Orol dengizini o‘rganish uchun 1740 yili davlat arbobi va tarixchi olim V.N.Tatishchevning tashabbusi bilan Xivaga poruchik D.Gladishev va yer o‘lchovchi I.Muravinlar yuborilgan. Orskda olgan ko‘rsatmaga binoan, ular 1717 yili Pyotr I zamonida Rossiya tobeligiga o‘tgan Kichik Juz xoni Abulxayrxon (1695-1748 yy.) bilan uchrashishi lozim edi. Biroq bu vaqtda Eron va Xiva xonligi o‘rtasida harbiy to‘qnashuvlar yuz berayotgan va xonlikda siyosiy-harbiy tanglik yuzaga kelganligi nafaqat xonlik uchun, balki shu mintaqa uchun ham birdek ta’sir ko‘rsatganligi sababli bu ekspeditsiya o‘z missiyasi davomida turli kutilmagan holatlarga va qiyinchiliklarga duch keladi, shunga qaramasdan Xiva xonligi va atrof hududlarda sodir bo‘layotgan voqealar, va ayni vaqtda uning tarixiy geografiyasiga ham oid qimmatli ma'lumotlarni to‘plashga muvaffaq bo‘ladi. Bu ma'lumotlar keyinchalik alohida kitobcha shaklida nashr ettiriladi⁴⁸⁶. Ekspeditsiya a‘zolari tomonidan bu yerlarda yashovchi ko‘plab urug‘lar va qabilalar haqida turlicha ma'lumotlar keltirib o‘tiladi. Bular orasida qoraqalpolarga alohida to‘xtalib o‘tilgan. –“Orenburgdan Qoraqalpolarning oroldagi mulklarigacha borish uchun Xiva xonligining bir qancha hududlaridan kesib o‘tish kerak bo‘ladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xalqlardan faqatgina qoraqalpoqlar g‘alla yetishtiradilar, g‘alla asosan ko‘llar va daryolar bo‘ylariga ekiladi, bug‘doy, arpa va tariqni qumli bo‘lsada, tekis yerlarga ekadilar. Orolliklar va Xivaliklar ham g‘alla yetishtiradilar, lekin ularning yerlari Qoraqalpolarning yerlaridan unumdorroq⁴⁸⁷.

⁴⁸⁵ «Путешествие в Туркмению и Хиву в 1810 и 1820 годах гвардейскаго генеральнаго штаба капитана Николая Муравьева, посланнаго в сии страны для переговоров. С картинами с чертежами и проч. Часть вторая. Москва, в типографии Августа Семена. 1822

⁴⁸⁶ Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная 1740-1741 годах поручиком Гладишевым и геодезистом Муравиным. С.-Петербург. Типография министерства внутренних дел. 1851.

⁴⁸⁷ Поездка из Орска в Хиву и обратно... . Стр.34

XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlarning ijtimoiy-siyosiy xayotida jiddiy o'zgarishlar yuz bera bordi. Bu o'zgarish avvalo ularning endi ko'proq dexqonchilik bilan shug'ullana boshlashida namoyon bo'ldi. XIX asrning o'rtalarida bir boy qoraqalpoqning qo'rg'oni atrofida bozor paydo bo'ldi, keyinchalik bu yerda Chimboy shaxri barpo etildi. O'zining qulay geografik xolati tufayli shaxar ma'muriy markazga aylandi. Qoraqalpoqlar ijtimoiy xayotida urug'-qabilachilik an'analari ustun edi. Yerga jamoa egaligi xukmron edi. XIX asr boshlarida qoraqalpoq yerida yangi-yangi urug'lar vujudga keldi. Masalan, 1810 yilda el qabilasidan chiqqan qiyotli qoraqalpoqlar biyi Ekilikning 400-500 o'toviga qo'nqiroq va mang'itlardan 200 o'tov qo'shilgan. Bunday xolat boshqa o'tovlarda ham sodir bo'lgan. Natijada o'n to'rt ulus deb nom olgan yirik urug'lararo birlashma tashkil topgan.

XIX asr o'rtalaridan boshlab qoraqalpoq yerida ham urug' qabilachilik munosabatlarida o'zgarish boshlandi. Ayni paytda yerga jamoa bo'lib egalik qilish ham barxam topa boshladi. Endilikda uning o'rnida yirik zamindorlik qaror topdi. Ular orasida 15 ming tanobgacha yerga egalik qiluvchilar ham bor edi.

Amudaryoning quyi havzasida dexqonchilik xo'jaligi qoraqalpoqlarning asosiy mashg'ulot turiga aylanib qoldi. Bu yerlarda irrigatsiya tizimlarining qaytadan tiklanishini natijasida qoraqalpoqlarning 3 ta yirik dehqonchilik hududlari – Kalliko'l, Kuskanatov va Kegeyli dehqonchilik vohalari shakllandi. Turli yillarda xonlikda ichki kurashlarning pasayib borishi ta'sirida aksincha dehqonchilikning rivojlanishi uchun yetarli sharoitlar yuzaga keldi. Qoraqalpoqlar mohir irrigatorlar sifatida xattoki Xiva xonligining janubiy qismidagi irrigatsiya va sug'orish tizimlarini tiklashda ham faol ishtirok etdilar. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib esa qoraqalpoqlarning ikkita yirik dehqonchilik vohasi – Chimboy va Qo'ng'iroq tumanlari dehqonchilikda yetakchi viloyatlarga aylandi.

Qoraqalpoqlar xayotida baliqchilik muxim axamiyat kasb etadi. Endilikda baliqchilarning qishloqlari vujudga keldi. Sol ustiga qurilgan suzib yuruvchi uylar paydo bo'ldi. Bu davrda xunarmandchilik ma'lum darajada qaddini rostlab bormoqda edi. Qoraqalpoqlar endilikda olacha,

dag'al ip gazlama mato, gilam to'qiy boshladilar, yog'ochdan turli buyumlar yasay boshladilar, teri pishirdilar, egar, yugan, ayil, kigiz tayyorlash bilan shug'ullandilar.

Qoraqalpoqlar chorvachiligida boqiladigan chorva mollarining tabiiy iqlimga va ashroitlarga moslasha olishiga katta e'tibor berilgan. Masalan, qozoqlar cho'l va dasht yaylovlarida ko'proq qo'y, echki va tuyalar boqishgan bo'lsa, o'zbeklar qo'y va echkilarni, qoraqalpoqlar esa asosan qoramol va echkilarni ko'proq boqqanlar. Shuningdek, bu yerlarda qorako'l teri yetishtirish uchun ham chorva boqilgan⁴⁸⁸.

Asosiy transport vositalari ot va arava, daryo savdosida esa qayiq bo'lgan. Daryo savdosida daryoning ayrim qismlarida qayiq'larni sudrash uchun inson mehnatidan ham foydalanilgan. XIX asrda qoraqalpoqlarda xo'jalik hayotining taraqqiy etishi savdoga ham ta'sir ko'rsatdi va qoraqalpoqlar Xiva xoligi bilan faol savdo munosabatlariga kirishdilar. Qoraqalpoqlar Xiva xonligi shaharlarida g'alla, qoramol, baliq sotganlar, o'zlari esa Buxoro, Xiva va Rossiya tovarlarini sotib olganlar⁴⁸⁹. Xo'jayli, Qo'ng'iro't, Mang'it, Qipchoq, Chimboy va SHo'raxon kabi qoraqalpoqlarning shaharlari Xiva xonligining shimoliy hududlaridagi eng yirik iqtisodiy markazlar sifatida katta ahamiyat kasb etgan.

Qoraqalpoq xalqining madaniyati. Chimboy, Qo'ng'iro't, Xo'jayli shaxarlarida qoraqalpoq xunarmandlari ko'pchilikni tashkil qilgan. Masalan, temirchi, duradgor, kigiz bosuvchilar, zargarlar, bo'yoqchi, kulolchi, to'qimachi kabilar. Ustaxonada 3-4 odam ishlagan. Shogirdlar 12-13 yoshdan qabul qilingan. Orol dengizi bo'yi Terbenbes ovulida Arzimbet zargarning ishlari tarixiy asarlarda ta'kidlanadi. U qoraqalpoq ayollarining sevimli bezagi savqalani mohirona ishlagan. Sirg'a, bilaguzuk, uzuk, xaykal, o'ngirmunchoq, zebigardon tumorchalar ham yasagan. Ayniqsa, qoraqalpoq yigitlari qiyadigan cho'girmalarini tikish yuksak maxorat talab etgan⁴⁹⁰.

⁴⁸⁸ Баллиева Р. Каракалпакский этнос и традиционное природопользование. Автореферат дисс докт. истор наук. Москва. 2003. Стр.10.

⁴⁸⁹ Нурмухамедов М.К., Жданко Т.А. Камалов С.К. Каракалпаки (краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). Ташкент, "Фан". 1971. Стр.29

⁴⁹⁰ Сагдуллаев А. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Тошкент, "академия", 2000. 259-б.

Qoraqalpoqlar bo‘rk kiyganlar, uni qoraqalpoqlar quroch deb ham ataganlar. Ayollar, qizlar kiyimlari orasida ham asrlar davomida urfga aylangan kiyimlar shakllangan. Qoraqalpoq ayollari va qizlarining bosh kiyimi hisoblangan do‘ppi –taqiyya udmurtlar, boshqirdlar, chuvashlar, qozoqlar, orolliklar uchun ham an’anaviy milliy bosh kiyimi sanalganligi N.Muravin va D.Gladishevlar tomonidan ta’kidlab o‘tilgan⁴⁹¹. Do‘ppilar orasida eng keng tarqalgani gumbazsimon shaklda bo‘lib, uning tikilishi to‘rt qismdan iborat bo‘lgan va atrofi naqshlangan⁴⁹².

Qoraqalpoqlar Nukus, Qiyot, Qo‘ng‘irot, Qipchoq kabi shaxarlarda yashaganlar. Zarafshon vodiysida XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlarning 37 ovuli mavjud bo‘lgan. Mazkur shaxarlarning eng yirigi Qo‘ng‘irot bo‘lib, u Orolliklar markazi bo‘lgan. Xo‘jayli Orol birlashmasi bilan Xiva orasidagi savdo markazi bo‘lib, bojxona shu shaxarda joylashgan. Yana Mang‘it, Chimboy, Janga qal‘a, Oydo‘s qal‘a, Ernazar qal‘a, Ko‘k o‘zak, Eshon qal‘a shaxarlari qoraqalpoq xalqi tomonidan yaratilgan madaniy va me‘morchilik yodgorligi markazlari xisoblanadi⁴⁹³.

Qoraqalpoq yoshlari Buxoro va Xiva shaxarlarida o‘qiganlar. Qoraqalpoqlar yurtida XIX asr boshlarida 318 ta maktab, Qoraqum Eshon, Qalila oxun, Egambergan oxun, Oybit eshon, Eshonqal‘a va boshqa mavzelarda madrasalar bo‘lgan.

Qoraqalpoqlar to‘y-ma‘rakalarida ko‘plab maxsus qo‘shiqlar, dostonlar, tarixiy xangomalar ko‘plab jro etilgan. Ularning xalq og‘zaki ijodi juda boy. Qoraqalpoqlar o‘z so‘z ustalari bo‘lgan chechanlarni, jirov-baxshilarini qattiq hurmat qilgan va e‘zozlagan. El oqsoqollari, raxbarlari yonidan qissaxonlar arimagan. Qoraqalpoqlarning marosim qo‘shiqlari ham xalq og‘zaki ijodining muhim tarkibiy qismi hisoblangan. Masalan, to‘ylarda (xaujar, bet ashar), alla, mehnat qo‘shiqlari, dardli qo‘shiqlar, bolalarga bag‘ishlangan qo‘shqlar va boshqalarning ko‘plab turlari keng

⁴⁹¹ Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная 1740-1741 годах поручиком Гладишевым и геодезистом Муравиным. С.-Петербург. Типография министерства внутренних дел. 1851.

⁴⁹² Курбанова З.И. Головные уборы каракалпачек (конец XIX – середина XX вв). 2014. Стр.39.

⁴⁹³ Сагдуллаев А. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Тошкент, “академия”, 2000. 260-б.

tarqalgan⁴⁹⁴.

Qoraqalpoq hajvchiligida O‘mirbek laqqi va u bilan bog‘liq hangomalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Qoraqalpoqlarning qaxramonlik dostonlari qadimdan ma‘lum. “Ko‘blan”, “Mastposhsho” kabi dostonlarda qoraqalpoqlarning ko‘p asrlik uzoq o‘tmishi va tarixi kuylanadi. Qoraqalpoqlarning xalq qo‘shiqlarida el yo‘lboshchilari, kaxramonlari Maman botir, Esangeldi maxram, Oydo‘stbiy, Ernazar biylar ulug‘lanadi. Qoraqalpoq adabiyotida XVII-XVIII asrlardagi tarixiy voqealarni badiiy shaklda aks ettirgan “Qirq qiz” dostoni aloxida o‘rin tutadi. Bu asar qoraqalpoq xalq qahramonlik eposidir. Asar erksevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. O‘rmambetbiy haqidagi dostonda qoraqalpoqlarning no‘g‘aylar bilan munosabatlari va qoraqalpoq xalqining tarixi, no‘g‘aylarning tashqi dushman hujumi ta‘sirida boshqa joylarga ko‘chishi, xalqning bo‘linib ketishi jarayonlari xalq og‘zaki ijodi orqali ko‘rsatib berilgan⁴⁹⁵.

“QIRQ QIZ”

“Qirq qiz” - qoraqalpoq xalq qahramonlik eposi. Qoraqalpoq xalqining madaniy yodgorligi. Qurbonboy baxshi Tojiboy o‘g‘lidan yozib olingan (1939-40). Asarda tasvirlanishicha, Olloyor boyning yagona qizi Guloyim qirq dugonasi bilan Eron shohi Nodirshoh va qalmoq xoni Surtaysha hujumidan yurtini himoya qilishga otlanadi. Asar erksevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Undagi Guloyim, Oltinoy, O‘tbosgan, Arslon, Sarvinoz kabi obrazlarda jasurlik, vatanga sadoqat, insoniylik, dushmanga shafqatsizlik g‘oyalari mujassamlashgan.

Qozoq ma‘rifatparvar olimi CHO‘qon Valixonovanning “Qoraqalpoqlar saxrodagi birinchi shoir ham qo‘shiqchilar, shundan keyin qirg‘izlar ham turkmanlar”, degan so‘zlari bejiz aytilmagan⁴⁹⁶.

Qoraqalpoq yozma adabiyoti. XVIII asrdan boshlab qoraqalpoq yozma adabiyoti shakllandi va rivojlana boshladi. XVIII-XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoq adabiyotining ko‘zga ko‘ringan qator namoyandalari qalam tebratganlarki, ularning nomlari bugungi kunda xam ardoqlanadi. Ulardan biri Jiyen jirov (1730-1784) edi. U mashxur baxshi sifatida kamol topdi. Ayni paytda she‘rlar xam bitdi. “Xayr endi, do‘stlar”,

⁴⁹⁴ Нурмухамедов М.К., Жданко Т.А. Камалов С.К. Каракалпаки (краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). Ташкент, “Фан”. 1971. Стр.61

⁴⁹⁵ Материалы по истории каракалпаков, М.-Л. 1935, стр. 31.

⁴⁹⁶ Валиханов Ч.Ч. Сочинения. СПб. 1904. Стр. 223.

“Yuragimda ko‘p dog‘im”, kabi she‘rlarida jamiyatdagi noxaqliklardan noliydi. Jiyan jirov xajviy asarning xam ustasi edi. U “Hoy xonimiz,xonimiz” kabi xajviy she‘rlarini yaratgan. Ma‘lumki, qozoq xoni Abulxayrga qarshi olib borilgan urushda qoraqalpoqlar yengilgan edi. Bu mag‘lubiyat natijasida ular azob-uqubatlarga duchor etilgan. Xususan, Sirdaryo bo‘ylaridagi qoraqalpoqlar xar yoqqa tarqab ketganlar. Ularning bir qismi esa Toshkent atrofiga (Chirchiq bo‘ylariga), boshqa bir qismi esa Qizilqum orqali Xorazmga (Orol dengizining janubiy soxillariga) ko‘chib ketganlar. Mana shu mashaqqatli ko‘chishlarning guvoxi bo‘lgan Jiyan Jirov o‘zining “Darbadar el” nomli dostonini yaratgan edi⁴⁹⁷. “Darbadar el” dostonida Qoraqalpoq xalqining XVIII asrdagi real tarixi yoritilgan. Dostonda Sirdaryo bo‘ylariga, Turkiston atoflariga ko‘chib ketgan qoraqalpoq xalqining bir qismining Xorazmga, Amudaryoning quyi oqimlari tomon Qizilqum cho‘llari orqali ko‘chib borishi jarayonlari va tarixi tavsiflab berilgan. Jiyan jirovning o‘zi ham bu ko‘chishlarning bevosita ishtirokchisi bo‘lgan⁴⁹⁸.

Qoraqalpoq xalqining yana bir baxshisi Jiyanmurat jirov Bekmuhammad o‘g‘li (1836 - To‘rtko‘l tumani - 1908) qoraqalpoq dostonchiligining shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo‘shgan. Uning ijro etgan dostonlaridan eng yirigi «Alpamis»ni folklorshunos Abubakir Divayev (1856 - 1933) 1902 yilda Toshkentda nashr ettirgan. Jiyanmurat jirov badihago‘y shoir sifatida ham tanilgan, ya‘ni «Alpamis» dostonini o‘zi ijod etgan qo‘shiq bilan tugallagan⁴⁹⁹.

Qoraqalpoq adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan yana biri Kunxo‘ja Ibroxim o‘g‘li (Jiyemurat, 1799-1880 yy) edi. Uning butun umri muxtojlikda o‘tgan. Shoirning “O‘roqchilar”, “Oq qamish”, “CHO‘ponlar” kabi she‘rlari diqqatga sazovordir. Kunxo‘ja ijtimoiy lirika sohasida mohirlik bilan ijod qiligan, masalan, “Oq qamish” she‘rida u sarg‘ayib borayotgan qamish bilan “suhbat” quradi. «Unutmasman», «Tuya

⁴⁹⁷ Сагдуллаев А. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Тошкент, “академия”, 2000. 264-б.

⁴⁹⁸ Нурмухамедов М.К., Жданко Т.А. Камалов С.К. Каракалпаки (краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). Ташкент, “Фан”. 1971. Стр.61

⁴⁹⁹ Айимбетов Қ., Халиқ данапғи, Ноқис, 1968.

ekansan», «Kun qayerda» asarlari qoraqalpoq mumtoz she'riyatining eng yaxshi namunalaridan hisoblanadi.

Ajiniyoz Qasibay o'g'li (1811-1878 yy) qoraqalpoq xalqining atoqli shoirlaridan biri. Mo'ynoqdagi eski maktabda o'qigan. Keyin Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida ilm olgan. Ajiniyoz Qoraqalpoq ziyolilari orasida birinchilardan bo'lib oxund darajasiga erishgan. O'zbek, qozoq, turkman tillarini yaxshi bilgan. Ajiniyoz adabiy merosidan bugungi kunlarga 100 ga yaqin she'r va dostonlari yetib kelgan. She'rlarida vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari kuylangan⁵⁰⁰. Shoirning "Bo'zatov" dostonida qoraqalpoq xalqining boshqa yurtlarga ko'chib ketishiga majbur etilganligi, katta maxorat bilan bayon etilgan. Ajiniyoz shoir she'rlarida vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari ustun turadi. Shoir Ajiniyozni butun O'rta Osiyoda tanitgan asari "Qiz Mengash bilan aytishuv" asari edi.

Qoraqalpoq xalqi adabiyoti uning asoschisi Berdaq (1827-1900 yy) nomi bilan mashhurdir. Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq yoshligidan ota-onasidan yetim qolib, bir burda non uchun ovulma-ovul ish qidirishga majbur bo'lgan. U ijodini 18-19 yoshlarida do'mbira chertib she'r aytishdan boshlangan. 25 yoshida iste'dodli shoir sifatida xalq orasida tanildi. Uning she'rlarida xalqning xayotida aks ettirilgan.

BERDAQ

(1827 - 1900)

Berdag - Berdimurod Qarg'aboy o'g'li (1827 – 1900 yy) - shoir, qoraqalpoq adabiyoti asoschisi. Avval ovul maktabida, so'ng madrasada tahsil ko'rgan. Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli va qoraqalpoq shoiri Kunxo'ja asarlarini chukur mutolaa qilgan, ulardan o'rgangan. U tarixni va xalk, ogzaki ijodini yaxshi bilgan. Berdaq ijodi xalq og'zaki adabiyoti an'analariga yaqin turadi. Ijodi serqirraligi, asarlarining g'oyaviy va badiiy yuksakligi bilan qoraqalpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallaydi. Uning ko'pgina asarlari o'zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan.

Berdag tarixiy mavzularida xam qalam tebratgan. Uning "Avlodlar", "Omongeldi", "Oydo'stbiy", "Ernazarbiy" kabi asarlarida xalq qaxramonlari faxr bilan kuylanadi. Berdaqning «Avlodlar» asari tarixiy voqealar solnomasi bo'lib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar

⁵⁰⁰ Саитов Б., Бердақ ва Ажиниёз асарлари луғати, Нукус. 1970.

hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi haqidagi fikrlari bayon qilinadi.

Berdaqning she'rlarida insonparvarlik, adolat, vatanparvarlik xislatlariga keng o'rin berilgan. U o'z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Berdaq ijodi xalq og'zaki adabiyoti an'analariga yaqin turadi⁵⁰¹. Ijodi serqirraligi, asarlarining g'oyaviy va badiiy yuksakligi bilan qoraqalpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallaydi. Uning ko'pgina asarlari o'zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan.

**Tayanch
so'zlar:**

“Qora bo'rki”, No'g'oy (Mang'it) xonligi, qoraqalpoq, Oydo'st qal'a, yozma adabiyot, chechanlar, jirov-baxshi, qissaxonlar, “Ko'blan”, “Mastposhsho”, “Qirqqiz”, do'mbira.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qoraqalpoq xalqining kelib chiqishi xaqida manbalar qanday ma'lumotlar mavjud?
2. XVI – XIX asr boshlarida qoraqalpoqlarning siyosiy tarixiy jarayonlarining asosiy jihatlari?
3. Oydo'stbiy qo'zg'oloni haqida ma'lumot bering?
4. Qoraqalpoqlarda ijtimoiy - iqtisodiy hayotidagi asosiy o'zgarishlar?
5. Qoraqalpoq xalqining madaniy hayoti haqida ma'lumot bering?
6. Qoraqalpoq yozma adabiyoti vakillarining ijodiy namunalari?

⁵⁰¹ Курбонбоев Б. Бердақ ва ўзбек адабиёти, Т., 1986.

XVI – XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA O‘RTA OSIYO XALQLARINING MADANIY HAYOTI

- ❖ **XVI-XIX asrlarda ilm-fan rivoji.**
- ❖ **XVI-XIX asrlarda adabiyot.**
- ❖ **XVI-XIX asrlarda xattotlik va kitobchilik.**
- ❖ **XVI-XIX asrlarda miniatyura san’ati.**
- ❖ **XVI-XIX asrlarda xalq dostonlari, baxshichilik.**
- ❖ **XVI-XIX asrlarda xalq amaliy san’ati.**
- ❖ **XVI-XIX asrlarda me’morchilik.**
- ❖ **XVI-XIX asrlarda tarixnavislik.**

XVI-XIX asrlarda ilm-fan rivoji. O‘tgan davrlar singari Turkistondagi XVI-XX asrlar boshlari davrida ham ma’naviy madaniyat o‘ziga xos yuksalishni boshidan kechirdi. Ushbu davrda O‘rta Osiyoning olimu fuzalolari tomonidan yaratilgan yirik tarixiy-badiiy asarlar, amalga oshirilgan tarjima ijodi, ilm-fan rivoji madaniyatimiz tarixi xazinasidan o‘rin olgan bebaho boylik sifatida hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda.

Shayboniylarning ba’zilari tomonidan xo‘jalik va savdoning rivojiga sharoit yaratish mamlakat iqtisodining izga tushib ketishiga, shahar hayoti savdo - sotiq, hunarmandchilik va madaniy hayotining rivojiga ta’sir ko‘rsatgan. Ayni paytda fan va madaniyat sezilarli darajada rivojlangan. Bunga (fan va madaniyat) - ushbu sulola hukmdorlari orasidan o‘z davrining yetuk ilm - fan arboblari yetishib chiqqanligi ham ta’sir ko‘rsatgan.

Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko‘chkinchixon va Ubaydullaxonlar o‘z davrining nihoyatda o‘qimishli kishilari bo‘lganlar. Shuningdek Shayboniyxon, Abulazizxon va Abdullaxonlar kutubxonalari o‘z zamonasining ajoyib kitob xavzinalari bo‘lgan. Bundan tashqari, Movarounnaxrda Mirzo Ulug‘bek akademiyasi an‘analarini davom ettiruvchi fidokor olimlar yetishdi, Masalan, Samarqand va Buxoro madrasalarida mudarrislik qilgan Mavlono Kamoliddin Ibrohim, Abdullaxonning muallimi Xoja Muhammad, yulduzshunos Qiyomiddin Shaydo, iftixor ul-attibo, tabiblar iftixori unvonini olishga sazovor bo‘lgan

Muhammad Mazid, Xakim Shahrisabziy, jarrox mavlono Bako, mavlono Rafe', 1541 yilda ilmi tib va dori - darmonlar haqida asar yozgan Muhammad Xusayn ibn Shiroq Samarqandiy, ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan Shohali ibn Sulaymon, Xoja Xakim natijatulattibo unvonini olgan Abdulxakim ibn Sulton kabilar shular jumlasidandir. Xo'ja Xasan Nigoriy «Muzakkiri axbob» asarida matematika va astronomiya ilmida shuhrat topgan mavlono Kavkabiyni alohida qayd etadi. Matematika va astronomiya sohasidagi yozilgan kitoblardan Muhammad Amin ibn Ubaydulla Mo'min obodiyning «Hisobi amali shabaka» (shabaka jadvali amali hisobi: 1550), Bobokalon muftiy Samarqandiyning «Risola dar ilmi hisob», «Vaziyat bar chaxor qismi», Tursun zomiyning «Tuhfayi amir», Muhammad Xusayin munajjim Buxoriyning «Ma'rifati samti kibla» (Qibla tomonini topish ma'rifati), Muhammad ibn Axmad Forsiyning «Risola dar muaddimli kamar» (oy fazolarining tengligi haqida risola: 1517) Tojus —Sand Muhammad Toxir ibni Abulqosimning «Ajoyib ut -tabaqot» (1545—1550) asarlari va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Tibbiyot sohasida Sultonali Samarqandiy 1526 yili «Dastur al iloj» asarini yozgan. Ubaydulloh Qaxxol ibn Muhammad Yusuf o'z davrining yetuk tabibi, tib olimi. Baroqxonning o'rtancha o'g'li Toshkand hokimi Darvishxonning buyrug'iga binoan 1598 yilda «Shifo ul ilal» (Kasalliklar shifosi) asarini yozdi. Asar 500 varaqadan ko'p bo'lib, uzoq vaqtgacha tib ilmidan asosiy qo'llanma tarzida undan foydalanilgan. Bir necha bitik nusxasi bizgacha yetib kelgan. Ushbu «Umdat ul - kuxliya fil - amroz ulbasariya» (Kuz kasalligiga doir asosiy kitob) asari ham bo'lgan. Shohali bin Sulaymon Qaxhol Toshkent hokimi Baroqxonning farmoniga ko'ra 1544 yilda tibga oid «Zubdayi manzuma» (Nazmlar sarozi) asarini yozgan. So'ng X asr olimi Ali ibn Isoning «Tazkirat ul kaxholim» (kuz tabiblariga esdalik kitob) asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qiladi. Shayboniylar davrida tarix fani ham rivojlandi. Shayboniylar davrida ko'plab tarixiy asarlar yozilgan. Kamoliddin Binoiy, Mulla Shodi, Muhammad Solix, Fayzulloh ibn Ruzibxon Isfaxoniylar Shayboniyxon topshirig'i bilan har qaysisi Shayboniyxonga atab alohida tarixiy asar yozganlar. Bundan tashqari, Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali Nasrullohiyning ul xofuz tanish Buxoriyning «Abdullanoma» noma'lum

muallifning («Zabdat ut —tavorix») «Tavorixi guzidayi Nusratnoma» asarlari, shayboniylar davri ijtimoiy, siyosiy tarixiga oid Zaynutdin Vasifiyning «Ba'da ul voqea'» Zaxriddin Muhammmad Boburning «Boburnoma» asari ham shu davr ijtimoiy va madaniy hayotidan baxs yuritadi. Kuchkinchixon topshirig'i bilan Sharofuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» si o'zbek tiliga o'girildi.

XVI-XIX asrlarda adabiyot. Shayboniylar davri adabiy xayotida yuksalish, adabiyotning turli janrlarining rivojlanishi davom etdi. Adabiyot maydonida dastlab Muxammad Solix (1455-1535), Xoja (1480-1547) asl ismi Ibodulla Said Poshshoxxoja binni Abduvaxobxoja, Afsadiy, Vosifiy, Majlisiy (XV asr oxiri-XVI asr 1 yarmi), Ubaydiy, Baqoiy, Naxmiy, Mutrifiy va boshqa ko'plab so'z san'atkorlari o'z ijodi bilan nom qozondilar.

O'zbek va tojik mumtoz adabiyotini rivojlantirishga katta xissa qo'shgan bu adabiyot vakillari bilan boburiylar Hukmronlik qilayotgan Hindiston, shuningdek Eron, Turkiya, Ozarbayjon va Sharqiy Turkistondagi so'z san'atkorlari orasida ijodiy aloqalar mavjud edi. Bu davrda yaratilgan adabiy asarlar ichida Buxorolik adabiyotshunos olim, shoir saroyda "Malik ush-shuaro" deb ulug'langan Hasanxoja (1516 - 1597) ning "Muzakkiri axbob" (Do'stlar yodnomasi) asari muxim axamiyatga ega. (Bu asarni o'zbek tilidagi tarjimasini 1993 yilda "Meros" nashriyotida chop etildi).

Bu asar qomusiy xarakterga ega bo'lib, unda XVI asrda Movarounnaxr, Xuroson, Hindiston, Eron, Turkiya, Sharqiy Turkistonda ijod qilgan 288 ta shoirlar xaqida, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro, Husayn Voiz Koshifiy singari ustoz salafilar to'g'risida, Arslonbob, Axmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Zangi ota, Shayx Xudoydot kabi tasavvuf namoyandalari xayoti, karomatlari xaqida, shuningdek, tarixiy voqealar, ilmu-fan rivoji, san'at sohasidagi ixtirolar, sharqning turli shaxarlaridagi me'morchilik mo'jizalari, tabiatdagi ajoyib xodisalar to'g'risida xikoya qilinadi.

Shayboniylar adabiyot rivojiga xomiylik qilishdan tashqari, o'zlari xam ijod bilan shug'ullanganlar. Xususan, Shayboniyxon garchi bolalik va

yoshligi doimo quvg'in, ta'qib ostida va Hayoti jang maydonida kechgan bo'lsada, yaxshi ta'lim-tarbiya olishga ulguradi, iste'dodli shoir, musavvir, Musiqachi va xushovoz qiroatxon bo'lib yetishdi. Undan bir nechta o'zbekcha g'azal, ruboiy va "Baxr – ul xudo" nomli dostoni yetib kelgan. Shayboniyxonning o'g'li valiahd Temur sultonga atab yozgan pand-nasihatlardan iborat kitobi (1507-1508) ham mavjud bo'lib, uning yagona nusxasi hozir Turkiyada saqlanadi.

O'zRFA Sharqshunoslik Instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Ubaydullaxonning she'riy devoni, Navro'z Ahmadxonning o'g'li Do'st Muhammad Sultonning "Silsilot us-salotin va anis ul-oshiqin" asari, Abdullaxon II ning "Xon" taxallusi bilan yozgan g'azallari Shayboniylardan bizga yetib kelgan nodir asarlardir. Adabiyot Ashtarxoniylardan Subxonqulixon davrida ancha rivojlandi. Xonning o'zi ham "Nishoniy" taxallusi bilan she'rlar yozganligi ma'lum. XVII asrda Samarqandda ko'pgina shoirlarni birlashtirgan adabiy maktab vujudga keldi. Uning vakillari ijodida ham halol mehnatni ulug'lash, zulmni qoralash va sharq she'riyatiga xos boshqa g'oyalar yetakchi o'rin tutadi. Samarqandlik bu ijodkorlar ichida attorlik bilan shug'ullangan Fofur Samarqandiyini, temirchi Masixon, etikdo'zlik bilan hayot kechirgan Manzur Samarqandiyini, zardo'zlik kasbi bilan shug'ullangan Fitrat Samarqandiyini va boshqalarni adabiyot, xususan, she'riyat rivojiga birmuncha hissa qo'shgan ijodkorlar sifatida aytib o'tish mumkin. Shayboniyxonning o'zi ham umri jangu jadallarda o'tishiga qaramay she'riyat va tarix fani bilan shug'ullanishda vaqt topgan. Uning she'riy devoni tuzgan ma'lum. U hatto xatolik bilan ham shug'ullangan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida Kamoliddin Binoiy qalamiga mansub «Shayboniynoma» asarining Shayboniyxon ko'chirgan nusxasi saqlanadi. Ubaydullaxon (1530—1539 yillarda hukmronlik qilgan) ham ilmi va ma'rifatli hukmdor edi. Ayni paytda o'zi «Ubaydiy» tahallusi bilan o'zbek, fors arab tillarida ijod qilingan, she'riyat bitgan. Uning uch tilda bitgan she'rlaridan iborat 3 devoni bir kitobga jamlangan. Ubaydiyning 435 ruboiy, 25 qit'a, 13 tuyuqdan iborat.

Bu davrning yirik shoiri va mutafakkirlaridan biri Boborahim Mashrabdir. Mashrab (Boborahim Mulla Vali o'g'li, 1640, Namangan - 1711, Balx) asarlarining aksariyati chuqur ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lib, o'sha davr hayoti, jamiyatdagi voqea-hodisalar bilan chambarchas bog'liq. Mashrabning mohiyatan inson qadri-sharafi va ma'naviy kamolotini ulug'lashga, ezgulik va go'zallikni madh etishga bag'ishlangan she'riy merosida g'azal, mustazod, murabba, muxammas, musaddas, musabba, masnaviy, ruboiy, ta'rix kabi janr turlarida bitilgan yetuk namunalarni uchratish mumkin. Ammo Mashrab avvalo mohir g'azalnavis hamda ko'plab sho'x va jarangdor mustazodlar, o'ynoqi va jozibador murabba hamda xalq g'amu hasratiga hamdardlik hissi bn yo'g'rilgan muxammaslar ijodkori sifatida keng dovrug' chiqargan. Mashrabning juda ko'p g'azallari xalq qo'shiklaridek sodda va jarangdor, jo'shqin va ta'sirchandır⁵⁰². Mashrab o'zbek adabiyoti tarixida eng ko'p mustazod yozgan ijodkorlardan biri. Shoir mustazodlari ham, xuddi g'azallari kabi, sho'x va jarangdor, nafis va zavqbxashdir. Fors tilida ham bir necha she'riy turlarda yetuk namunalarni yaratgan. Mashrab ijodi keyingi asrlar adabiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Nodira, Huvaydo, Qoriy, Furqat, Hamza kabi shoirlar uning g'azallariga taxmis va naziralar bog'lashgan. Mashrab qoldirgan adabiy meros to'la aniqlanib, o'rganilgan emas. Ba'zi tadqiqotchilar juda ko'p she'riy hikoyat va g'azallarni o'zida jamlovchi «Mabdai nur» nomli yirik asarni shoirga nisbat beradilar⁵⁰³.

O'rta Osiyo xalqlari adabiyotida muhim o'ringa ega bo'lgan shoir va mutafakkirlarda yana biri Mirzo Bedil sanaladi. Bedil (Mirzo Abdulqodir, 1644, Bengaliya, Azimobod - 1721, Dehli) harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Ota-bobosi Kesh (Shahrisabz)lik, turkiy barlos urug'idan. Yoshligidan turli fanlarga qiziqqan. Shayx Kamol, shoh Fozil va Mirza Abdulqosim kabi olimlardan ta'lim olgan. Hindiston bo'ylab ko'p sayohat qilgan, 1685 yildan umrining oxirigacha Dehlida yashagan. Fors tilida ijod qilgan. Arab, fors, hind, urdu tillarini mukammal bilgan, sharq xalqlari adabiyotini, tasavvuf va yunon falsafasini, ayniqsa Aristotel falsafasini atroflicha o'rgangan. Inson erkinligi, tafakkuri haqida falsafiy fiqolar

⁵⁰² Бобораҳим Машраб. Девон, Т., 1984.

⁵⁰³ Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним, қайдасан, Т., 1990.

bayon etgan. Uning falsafiy-axloqiy qarashlari tasavvuf aqidalari ta'sirida shakllangan. Bedil dunyoqarashi tasavvufning vahdat ul-vujud ta'limotiga asoslanadi, ya'ni olamni Allohning ko'zgusi, inson qalbini shu ko'zguning markazi deb biladi. Bedil 120 ming misradan ortiq she'riy, ko'pgina nasriy asar yozgan. G'azal, ruboiy, qasida, qit'a, tarji'bandlarining o'zi 75 ming misrani tashkil etadi. Yirik asari «Chor unsur» («To'rt unsur», 1703) nasrda yozilgan bo'lib, she'rlar ham ilova qilingan. Kitobiing dastlabki boblarida Bedil o'z hayoti haqida hikoya qiladi. So'nggi ikki bobda esa to'rt unsur - havo, suv, yer, olov to'g'risida, o'simliklar, hayvonlar va odamning paydo bo'lishi haqida so'zlaydi⁵⁰⁴. Bedilning ijtimoiy masalalarga oid qarashlarida ma'rifatparvarlik, muruvvat va odamiylik asosiy o'rinni eg'allaydi. Asarlarining ko'pchiligi 16 jildli «Kulliyot»ga kirgan (Bombay, 1882). Turkiston va Hindiston xalqlari o'rtasidagi aloqaga doir ma'lumotlar ham ko'plab uchraydi. U «Chor unsur» asari da Jayxun (Amudaryo), Turkiston to'g'risida, Samarqanddan Hindistonga qavmqarindoshlari kelganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni keltiradi. Bedil asarlari ayniqsa XIX asrdan O'rta Osiyoda keng tarqalgan. Ular falsafiy fikrga boyligidan Bedil Turkistonda «Abulma'oni» («Ma'nolar otasi») degan nom olgan. Uning kitoblarini o'qib beruvchilar «bedilxonlar» deb atalgan. Furqat, Muqimiy, Avaz, Ahmad Donish, Xislat va boshqalar o'z ijodida Bedil ijodidan foydalanganlar⁵⁰⁵.

So'fi Olloyor (1644, Kattaqo'rg'on bekligi, Minglar qishlog'i - 1724, Denov) bu davrda yashab ijod etgan tariqat arbobi va mutasavvuf Shoir sanaladi. Shayxlar maktabi va Buxorodagi jo'ybor shayxlari dargohida ta'lim olgan. O'z davrining barcha asosiy ilmlarini egallagan, arab va fors tillarini o'rgangan. Buxoro xoni Abdulazizxon tomonidan boj mahkamasiga to'ra etib tayinlangan. Turkiy va forsiy tillarida ijod qilgan So'fi Olloyor ijodining asosiy yo'nalishi islom ma'rifatini keng xalq orasiga yoyish va tasavvufning insoniy kamolot bilan bog'liq g'oyalarini targ'ib va tashviq qilishdan iborat⁵⁰⁶. U «Maslak ul-muttaqin» («Taqvodorlar maslagi»), «Murod ul-orifin» («Oriflar murodi»), «Maxzan ul-mute'in» («Itoatkorlar xazinasini»), asarlarini forsiy, «Sabot ul-ojizin»

⁵⁰⁴ Мўминов И., Мирзо Бедил, Т., 1974.

⁵⁰⁵ Шукуров Ш., Мирзо Бедилнинг поэтик мероси, Т., 1979.

⁵⁰⁶ Зоҳид Р., Сўфи Оллоёр. Адабиёт кўзгуси, Т., 1996.

(«Ojizlar saboti»), «Favz un-najot» («Najot tantanasi») masnaviylarini turkiy tilda yaratgan. Forsiy va turkiyda bitilgan boshqa she'rlari ham mavjud. «Mevalar munozarasi» nomli manzuma xam unga nisbat beriladi. So'fi Olloyorning shoh asari «Maslak ul-muttaqin» bo'lib, 12 ming bayt, 135 ta katta-kichik bobdan iborat⁵⁰⁷. So'fi Olloyor «Maslak ul-muttaqin» asarini birmuncha qisqartirib, o'zbek tilida nazmda bitgan va unga «Sabot ul-ojizin» deb nom bergan⁵⁰⁸. Asarlarida islom ahkomlari, tariqat talablari, insoniy komillik shartlarini birmabir ta'riflab bergan.

XVI-XIX asrlarda xattotlik va kitobatchilik. Sharqda xatlarning anchagina xili mavjud bo'lgan. Ulardan kufiy, suls, nasx, nasta'liq, riq'o, shikasta, rayhoniyy, devoniyy kabi xillarini ko'rsatib o'tish kifoyadir. O'zini xattot deb bilgan kishi, umuman, xattotlik qoidalaridan va yuqorida ko'rsatib o'tilgan xat turlaridan xabardor bo'lishi va qoidaga muvofiq shu xatlarni yoza bilishi kerak bo'lgan. Bu esa anchagina ilm, diqqat va qobiliyatni talab qiladi. Buxoroda yashab o'tgan olim Sharifjon Mahdumning "Tazkirai xushnavison", Qozi Ahmadning "Xattotlar va musavvirlar haqida risola" asarlari ana shu bo'shliqni to'ldirib Hirot, Buxoro, Xiva va boshqa o'lkalar xattotlarining husnixatlari va yozuv namunalari bilan tanishtiradi. O'rta Osiyoda xattotlik san'atining keng taraqqiyoti Temur va temuriylar davridan boshlanadi. Husnixat san'ati dastlab Xurosonda rivojlanib, u yerdan Sulton Ali Mashhadiy boshliq yirik xattotlik maktabi tashkil topadi. XVI asrda Temuriylar saltanati inqirozga yuz tutib, siyosiy hukmronlik Shayboniylar qo'liga o'tishi bilan Buxoroda madaniy hayot ma'lum darajada taraqqiy topadi. Hirot xattotlari, rassomlari va madaniyat arboblariidan bir qismi Buxoroga keladi. U yerda Buxoroning o'ziga xos bo'lgan yangicha kitobat va husnixat san'ati rivoj topadi. XVI va XVII asrlarda yashab ijod etgan Buxoro xattotlari husnixat bobida o'ziga xos uslub - Buxoro xattotlik maktabini yaratadilar⁵⁰⁹.

Shu bilan bir qatorda yurtimizdan yetishib chiqqan mashhur xattotlar

⁵⁰⁷ Туркистоний С, Сўфи Оллоёр. Ғойиблар хайлидан ёнган чироклар, Т., 1994.

⁵⁰⁸ Баратова Н., Сўфи Оллоёрнинг бадиий-маънавий қарашлари, Самарқанд, 2002.

⁵⁰⁹ Джураев Х. Бухоро хаттотлик ва миниатюра санъат тарихи. ХХІ асрда илм фан тараққиётининг ривожланиш истикболлари ва уларда инновацияларнинг тутган ўрни" мавзусидаги республика илмий конференцияси материаллари. Тошкент, 2019 йил. 223-227-бб.

yangi-yangi xat turlarini yaratdilar va xat bitishni san'at darajasiga ko'tardilar. Nasx va ta'liq xatlarining birikuvidan hosil bo'lgan nasta'liq xatini Mir Ali Tabriziy ixtiro qilgan. Xatning bu turi XVI asrga kelib o'lkamizda o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. XVI asrda Buxoroda Mir Ubayd Buxoriy tomonidan oson o'qilishi bilan har qanday kishini o'ziga rom etadigan yangi "Nasxi Mir Ubaydiy" yoki "Nasxi Buxoriy" deb nomlangan xat turi ixtiro qilindi.

Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush - shuaro" kitobida Hirot kitobxonasi haqida keltirilgan ma'lumotlar o'rta asr kitobxonalari, xususan, saroy kitobxonalari, ularda ishni tashkil etish haqida muayyan tasavvur beradi. XV asrning 20-yillarida otasi Shohruh Mirzoning ko'rsatmasi bilan Hirotida Boysunqur Mirzo kitobxona tuzadi. Unda hattot Mavlono Tabriziy boshchiligida 40 usta, kitobat san'atining bilimdonlari kitobchilik bilan shug'ullanadilar. Bu yerda hattot, kotib, musavvir - miniatyurachi, naqqosh - bezakchi, zaxxob - zargar, sahhof - muqovachi, ta'mirchi va boshqa kasb egalari mehnat qilganlar. Tilshunos olimlar, adabiyotshunoslar, turli Sharq xalqlari qo'lyozma merosining bilimdonlari ishtiroki va yordamida eng qimmatli adabiy, ilmiy asarlar tanlanib, ulardan nusxalar ko'chirilgan⁵¹⁰.

Shayboniylarning saroy kitob ombori, temuriylar kutubxonalaridan farqli o'laroq, ularning sulolasi yiqilgach, XVII asr boshlarida ashtarxoniylar tomonidan meros qilib olindi. Xorazm xonlarining sulolaviy kutubxonalari haqida mo'g'ullar bosqinidan keyingi davrlarga oid ma'lumotlar manbalarda saqlanib qolmagan. Faqatgina Xiva xoni Abulg'ozixonning (1643-1663) XVII asr o'rtalarida, aftidan, keyinchalik Xorazm xonlari sulolaviy kutubxonasiga asos bo'lgan kitob xazinasi haqida ma'lumot saqlangan ko'rinadi. Gap shundaki, Abulg'ozixon o'z kitobiga manba bo'lib xizmat qilgan ko'plab tarixiy kitoblarning nomini keltirib o'tgan⁵¹¹. Sulolaviy saroy kutubxonalariga bo'lgan munosabatning avloddan avlodga uzatilishi Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ham davom etdi. Har bir xonlikning hukmdorlari katta miqdorda kitob boyligiga ega edilar⁵¹².

⁵¹⁰ Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи. Тошкент. "Адолат". 2004. 51-52-бб.

⁵¹¹ Абулғози Баҳодурхон. Шажараи турк. Т. 1. Чўлпон 1990.

⁵¹² Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи. Тошкент. "Адолат". 2004. 54-б.

Xonliklar davrining dastlabki davrida, ya'ni XVI asr boshlaridan Movarounnahrda xattotlik maktabi yuzaga kelishida Mir Ali Hiraviyning alohida o'rni bor. Shuningdek, kitobat san'atining rivojida Xiva xoni Muhammad Raximxon II (Feruz) ning ham o'ziga xos hissasi bor. Shuni alohida ta'kidlash joizki, xattotlik bilan musavvirlik san'ati ko'pincha bir-birini to'ldirib turgan. Chunki aksariyat ko'chirilgan qo'lyozmalar va kitoblarni musavvirlar bezaklarisiz tasavvur qilish qiyin edi. Shu tufayli o'rganilayotgan davrlarda ushbu san'at sohiblari ijodi ham o'ziga xos yuksalib, ko'chirilgan minglab qo'lyozmalarda ularning betakror mahorati muhrlanib qolgan. Turkistonda xattotlik yo'li bilan kitob tayyorlash uzoq vaqt davom etdi. Bosma usuli bilan kitob chiqarish esa o'lkamizning Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylanishi bilan boshlangan⁵¹³.

Shayboniyxonlar va ashtarxoniylar davrida hattotlik va nafis tasvirchilik yuqori darajada edi. Abdulazizxon davrida ko'chirib bezatilgan bitiklar g'oyat yuqori sifatli tayyorlanib, uning sifati yuqori bo'lgan. Mashhur hattot Hoji Yodgor XV asr Hirot hattotlari bilan bellasha olardi. Samarqand va Buxoroning nafis tasviriy asarlari favqulodda nozikligi va bajarilish san'ati bilan ajralib turadi. Amir Temur tarixiga doir 1624 yilda Samarqandda tayyorlangan "Zafarnoma" kitobining bezatilishi fikrimizga dalil bo'la oladi. Bosmaxona va kitob nashr etish hali vujudga kelmagan zamonda kitob yaratish va uning nusxalarini ko'paytirish og'ir mehnat va ko'p vaqt sarf etiladigan nihoyatda mushkul ish bo'lgan. Har bir kitob qog'ozidan tortib, muqovasigacha, siyohidan tortib to bo'yoqlari-yu, zarhaligacha ma'lum reja va qoida asosida tayyorlanar edi. Hatto kitobdan xushbo'y hid anqib turishi uchun ba'zan sayyohga gulob yoki anbar qo'shilar edi. Hattotlik nozik kasb, o'ziga xos san'at ham edi. Hattot bo'lish uchun o'zoq vaqt sabr-matnat va ishtiyoq bilan hattotlikni mashq qilish, zahmat chekish lozim edi. Hattot mukammal savodli badiiy didi baland, ijodkor kishi bo'lishi lozim edi, har bir hattotning o'z usuli va o'z uslubi bo'lib bu usul va uslublar ustozdan shogirdga o'tar, an'analar davom ettirilar va rivojlantirilar edi.

Yozuv va kitob ko'chirishga e'tiborning ortishi tufayli

⁵¹³ Хамидов Х. XVI-XIX асрларда юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар. Т. Фан. 2009. 18-б

Movarounnahr hududida bir necha xattotlik maktablari vujudga keldi. Ular: Buxoro xattotlik maktabi; Xorazm (Xiva) xattotlik maktabi; Fargʻona (Qoʻqon) xattotlik maktabi; Samarqand xattotlik maktabi; Toshkent xattotlik maktabi. Hind xattotlik maktabi esa, asosan Buxoro, Samarqand, Hirot va Tabriz xattotlik maktabi taʼsirida taraqqiy etgan. Buxoro xattotlik maktabi XVI-XVII asrlarda taraqqiyotning yangi bosqichlariga koʻtariladi. Bu yerda xattotlik tez rivojlanib, mashhur xattotlar yetishib chiqadi. Bu davrda Buxoroda madaniy hayot maʼlum darajada taraqqiyot pillapoyasiga koʻtariladi. XVI-XVII asrlarda yashab ijod etgan Buxoro xattotlari oʻziga xos uslub - maktab yaratadilar. Tarix sahifalarida Mir Ali Hiraviy Fathobodiy, Mirzo Ismatulloh Munshiy, Sodiq Munshiy Jondoriy, Mir Maʼsum Buxoriy, Avaz Badaliy Buxoriy, Hoji Yodgor, Domlo Bobobek va Abdulmajid Mahdum Buxoriy kabi mohir xattotlarning nomlari tez-tez uchrashi buning yorqin dalilidir. Oʻsha davrda Buxoroda kufiy, suls, gʻubop, nasx, nastaʼlik xatlari juda rivojlanadi. XVI-XVII asrlarda Mir Ubayd Buxoriy (vaf. milodiy 1601 y.) tomonidan Buxoroda nasx xati asosida yangi xat - “Nasxi Buxoriy” (“Mir Ubaydiy”) xati ixtiro qilinadi. Nastaʼliq xati Buxoroda keng yoyilib, kitoblar bitildi. Xususan, XVI asr boshlarida Buxoroda yashagan Mavlono Mir Ali Hiraviy Fathobodiy koʻp shogird yetishtiradi⁵¹⁴. Qoʻqonda hattotlik sanʼati va meʼmorchilik ham rivojlangan. Muhammad Latif, Mirzo Sharif dabir, Abdulgʻozixoja kabi hattotlarning kitob koʻchirishi borasida oʻzlari amalga oshirgan hayrli ishlari bilan tarixda nomlari qoldi. Kitoblar shunday did bilan koʻchirilganki, harbiy mamlakatlar shahri uchun elchilarga ana shunday nafis koʻchirilgan kitoblarni tortiq qilish xonlikda odatga aylangan edi.

XVI-XIX asrlarda miniatyura sanʼati. Musavvirlik va tasviriy sanʼat madaniyatimizning eng noyob, nozik sanʼat qirralarini oʻz ichiga olgan ijod yoʻnalishi boʻlib, ular ham koʻp ming yillik tarixga ega. Bu sanʼat rassomlik, tasvirlarni oʻxshatib chizish, ayni vaqtda haykaltaroshlik, rang-barang grafika kabi turlarga boʻlinadi. Tasviriy sanʼatda voqeʼlik

⁵¹⁴ Джураев Х. Бухоро хаттотлик ва миниатюра санъат тарихи. XXI асрда илм фан тараққиётининг ривожланиш истикболлари ва уларда инновацияларнинг тутган ўрни” мавзусидаги республика илмий конференцияси материаллари. Тошкент, 2019 йил. 223-227-бб.

shakllar, chiziqlar, ranglar orqali tasvirlanadi. Kitobat, xattotlik, musavvirlik, tasviriy san'at ijodi bir-biriga juda yaqin san'at turlari (janrlari) bo'lib, ular doimo bir-birini to'ldirib turadi. Shuningdek, bu san'atlardan me'morchilik inshootlarini bezash ishlarida ham samarali foydalanib kelingan. Xususan, xaykaltaroshlik, grafika, rang-tasvir, portret, natyurmort, manzaralar janri, tarixiy janrdagi asarlar, animal janr (majoziy ma'nolar aks ettirilgan asarlar) lar shular jumlasidandir⁵¹⁵.

Movarounnahr va Xurosonda urushlar tugab, hokimiyat uchun kurash keskinliklari unutilganidan keyin mustahkamlanib olgan g'olib Shayboniy hukmdorlari yangi davlatga, hukmron sulolaga, shuningdek, Hirot miniatyura maktabiga ulug'vorlik xususiyatini baxsh etishga intildilar. Shayboniylarga Temuriylar so'nggi poytaxti Hirot madaniyati endi o'z taraqqiyoti kelgusi bosqichining qandaydir boshlanishi sifatida namoyon bo'ldi. 20-30 yillarda Shayboniylarning amaldagi hukmroni Ubaydullohxon (1512-1539) Buxoro kitobchiligiga Hirot maktabining tajribali va mashhur xattot hamda rassomlarini jalb etishga harakat qildi. Shu voqealarning shohidi Mirza Muhammad Haydarning so'zlariga qaraganda, "Ubaydulloxon davrida Buxoro san'at va fanning shunday markaziga aylandi-ki, bu jihatdan u Mirza Husayn davridagi Hirotni eslatadi". Ubaydulloxon saroyida shoiru sozandalar, askiyachiyu rassomlar ijodiy musobaqasining shuhrati qayta tiklanadi. Ubaydulloxon adabiy to'garak a'zolarini Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Shohiy asarlariga har kuni nazira yozishga majbur etar edi⁵¹⁶.

Miniatyuralar alohida turkumni tashkil qiladi. Buyuk musavvir sifatida Sharkda Moniydan so'ng Junaid Bag'dodiy, Xoja Abdulhay, Mahmud Siyohqalam, G'iyosiddin Naqqosh, Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Abdulla Musavvir, Basavan, Rizoyi Abbosiy va boshqalarning nomlari mashhur. Temuriylar davrida alohida varaqlarga miniatyuralar ishlash va ulardan muraqqa tuzish an'anaga aylangan, alohida shaxslar tasviri (portreti)ni ishlash taraqqiy

⁵¹⁵ Хамидов Х. XVI-XIX асрларда юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар. Т. Фан. 2009. 19-б

⁵¹⁶ Джураев Х. Бухоро хаттотлик ва миниатюра санъат тарихи. XXI асрда илм фан тараққиётининг ривожланиш истикболлари ва уларда инновацияларнинг туган ўрни" мавзусидаги республика илмий конференцияси материаллари. Тошкент, 2019 йил. 223-227-бб.

etgan, xususan, Hindistonda Boburiylar davrida yuksak taraqqiy etgan⁵¹⁷.

Buxoroda musiqa ilmi, hattotlik va minatyura san'ati yaxshi rivojlangan. Hususan, Do'st Muhammad Buxoriy «Hattotlik san'ati» deb nomlangan kitob yozib qoldirgan. «Fatxnoma», «Tarixi Abulxayrxon», «Shayboniynoma» asarlariga katta mahorat bilan va suratlar chizilgan. XIV asr oxirida Samarqandda Samarqand miniatyura maktabi shakllangan, keyinchalik u Hirot miniatyura maktabining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Buxoro miniatyura maktabi Markaziy Osiyoning asosiy kitobat san'at turlaridan biri sifatida Temuriylar saltanati inqirozga uchrab, Eron va Movarounnahr siyosiy jihatdan ajralganidan keyin (XVI asrning uchinchi choragida), Buxoroning Shayboniylar davlati amloq markazidan Movarounnahrning siyosiy va madaniy poytaxtiga aylanish davrida vujudga keldi. Uning negizini Hirot davrida (XV asrning so'nggi choragi - XVI asr boshlari) yuksak darajada rivojlangan va O'rta Sharqning o'zidan oldingi maktablarining eng yaxshi jihatlarini umumlashtirib, rivojlantirgan (Bag'dod, Tabriz, Sheroz va Samarqand) Temuriylar miniatyurasini tashkil etadi. Movarounnahrning barcha badiiy madaniyati singari miniatyura ham mahalliy xalqlar turmush tartibi va diniy xususiyatlarini o'ziga singdirgan. Buxoroning miniatyura rassomchiligi ikki yo'nalish - mahalliy Movarounnahr va Temuriy-Hirot miniatyurasining rivojlanishi jarayonida erishilgan barcha tanlanish, bir-biriga o'tish va sintez jarayonida murakkab yo'lni bosib o'tdi⁵¹⁸. Yuqorida nomlari zikr etilgan ijodkorlar qatorida XVII asr miniatyurasidagi portret san'atining mahoratli ustalaridan Xoja Muhammad Musavvir, Davlat Muhammad kabi rassomlar va ularning ijodlari haqidagi ma'lumotlar ham ayrim manbalarda uchraydi. Ularda, ayniqsa, Xoja Muhammad Musavvir Xirot, Samarqand, Buxorodagi sobiq maktablar an'alarining yirik davomchisi ekanligi ta'kidlanadi. XVIII-XIX asrlarda yurtimizda ijod qilgan tasviriy san'at ustalaridan Ahmad Donish, Mulla Husniddin, Mulla Ortiq, Rahmatiy, Ibrohim Davron kabi rassomlarning ijodiy faoliyatlari ham muhim

⁵¹⁷ Норкулов Н., Низомиддинов Н., Миниатюра тарихидан лавҳалар, Т., «Фан», 1970.

⁵¹⁸ Джураев Х. Бухоро хаттотлик ва миниатюра санъат тарихи. XXI асрда илм фан тараққиётининг ривожланиш истикболлари ва уларда инновацияларнинг туган ўрни" мавзусидаги республика илмий конференцияси материаллари. Тошкент, 2019 йил. 223-227-бб.

ahamiyatga molikligini ta'kidlash joiz.

XVI-XIX asrlarda xalq dostonlari, baxshichilik. Dostonlar xalq og'zaki badiiy ijodining eng yirik janrlaridan biridir. Ular xalq orasida yaratilgani uchun ijodkor xalq dostonlar orqali o'z orzu-intilishlarini, his-tuyg'ularini ifodalaydi. Dostonlarni, odatda, yakka mualliflar yaratadi, biroq asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tishi natijasida ularning birinchi ijrochisi unutilib, umumxalq ijodiga aylanib qoladi. Shu sababli xalq dostonlarining turli sikllari, variant va versiyalari paydo bo'lgan. Xalq dostonlari qabilachilik tuzumining yemirilishi boshlangan davrlarda paydo bo'la boshladi. U hikoya etilayotgan voqealarning ertak, hikoyat, lirik she'r kabi janrlarga sig'may qolishi va voqelikni murakkab epik planda tasvirlashga ehtiyoj natijasida dunyoga kelgan. Doston qahramonlari alp - pahlavon, polvon qiyofasida tasvirlanadi. Dostonlarda qahramonlar arslon, sher, yo'lbars, qoplonga o'xshatiladi. Aksariyat dostonlarda qahramonlarning jasorati yoshlik paytlarida namoyon bo'ladi. XV-XVI asrlarga kelib ko'pgina dostonchilik maktabi paydo bo'ldi, XVII-XVIII asrlarda dostonchilik taraqqiyotida jiddiy ko'tarilish bosqichi bo'lsa, XIX-XX asr boshlarida esa dostonchilikning eng rivojlangan davri hisoblanadi. Xalq orasida keng tarqalgan dostonlar qahramonlik dostonlari - «Alpomish», tarixiy dostonlar - «Ravshan» va Go'ro'g'li siklidagi dostonlar, «Shayboniyxon», «To'lg'onoy» va boshqalar, kitobiy dostonlar – «Bahrom va Gulandom», «Oshiq G'arib va Shoxsanam» kabi dostonlarda namoyon bo'lgan. Dostonlarni ijro etuvchi san'at sohasi vakillari baxshilar deb yuritilgan. Baxshi ijro davomida dostondagi har bir tasvirga mos so'z topib, o'sha so'zlarga monand xatti-harakatlar qiladi. Tinglovchilarni qiziqtirish bilan, o'zi xam tobora avjga chiqa boshlaydi. Iqtidorli dostonchilar ikki-uch kecha mobaynida, hatto oylab doston kuylay oladilar. Baxshilar, odatda, voqea eng qiziq joyga yetganda kuylashni to'xtatib, tanaffus qilgan, bu esa tinglovchilarning qiziqishini yana ham oshirgan. Doston kechalariga ikki-uch baxshi tashrif buyurgan. Bunday hollarda baxshilar o'zaro tortishuvga kirishganlar: bir-birlarining iqtidorlarini, so'zdagi chechanligini, soz chalishdagi mahoratlarini sinaganlar. Tinglovchilar ularga baho berganlar. Xalq olqishini ololmagan dostonchi davradan chiqib ketgan. Dostonchilik an'anasi bugungi kunda

ham davom etmoqda⁵¹⁹.

XVI-XIX asrlarda xalq amaliy san'ati. O'ymakorlik - amaliy san'atning qadimiy va keng tarqalgan turi bo'lib, yog'och, ganch, metall, tosh, suyak, terrakota va boshqalarni o'yish, yo'nish, kesish yo'li bilan badiiy shakl yasash san'ati. Bu san'atdan buyumlar, turli asboblarni nafislashtirishda, binolarni bezashda, kichik shaklli haykaltaroshlik kompozitsiyalari yaratishda foydalaniladi. O'ymakorlikning mustaqil janri gliptika; foydalanadigan xom ashyosiga ko'ra yog'och o'ymakorligi, ganch o'ymakorligi, metall o'ymakorligi (kandakorlik), suyak o'ymakorligi kabi turlari bor. O'zbekiston hududida o'ymakorlik juda qadimdan rivojlangan. Ibtidoiy odamlar yog'och, suyak, hayvon shoxlaridan o'zlari uchun zarur qurollar yaratib, ularni "bezashgan", turli ramziy chiziq va belgilar ishlashgan, toshlarga rasmlar chizishgan (qoyatosh rasmlari). O'zbekistonning janubidagi Oqtom va Quyi Mozordan topilgan hayvon shoxi hamda suyak bo'lagiga chizib ishlangan tasvirlar miloddan avvalgi V–VI asrlarga oiddir. Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom poydevorlari marmar, toshdan ishlanib o'ymakorlik bilan bezatilgan yodgorlik namunasidir. O'rta Osiyoda o'ymakorlik 3 yo'nalishda mavjud bo'lgan: naqsh o'ymakorligi, mavzuli (odam va hayvon tasviri ishlangan) o'ymakorlik hamda naqsh va mavzuli o'ymakorlik uyg'unligidagi murakkab kompozitsiyalar⁵²⁰.

O'zbekiston hududida asosan to'rtta yog'och o'ymakorligi maktablari mavjud bo'lib, ular o'z uslublari va yo'nalishlari bilan farqlanadi. Jumladan, Xiva yog'och o'ymakorligi boshqa maktablarga qaraganda o'yama naqshlarining maydaligi, zaminining kamligi, novdalarning zichligi, badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqiligi, ya'ni novdalarning spiralsimonligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabida esa o'yimalarning maydaligi, naqsh namunasining murakkabligi, o'simliksimon girih va gulli girih naqshlarining ko'p ishlatilishi hamda o'yama yuzasining ranglanishi bilan

⁵¹⁹ Ўзбекистон номоддий маданий мероси. ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий комиссияси, 2017. 38-39-бб.

⁵²⁰ Ўзбекистон номоддий маданий мероси. ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий комиссияси, 2017. 198-б.

ajralib turadi. Toshkent o‘ymakorligi maktabida o‘ymasi ko‘p qavatli, o‘rtacha chuqurlikda o‘yilib, islamiy, geometrik, ramziy naqshlar ko‘proq ishlatiladi. Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi maktabi mahobatlilik, yirikligi, o‘ymalarning chuqurligi va ko‘p qavatlilik bilan farqlanib turadi⁵²¹.

XVI-XIX asrlarda me‘morchilik. Me‘morchilik – qadimdan yurtimizda ajdodlarimiz tomonidan yaratib kelingan moddiy madaniyatning eng muhim ijodiy mahsullaridandir. Me‘morchilik o‘tmishda ham va hozirda ham xalq amaliy ijodiyotida turli bino va inshootlarning qurilishi san‘atini ifodalovchi, katta mahorat hamda mehnat talab qiluvchi ijod turi bo‘lib, xalqning bu sohadagi o‘ziga xos tarixini, madaniyatini, ijtimoiy-siyosiy qudratini, diniy va dunyoviy qarashlarini, maishiy hayotini ma‘lum shakllarda mujassam etadi.

Me‘morchilik shaharsozlikning asosi hisoblanadi. Chunki me‘morchilik asarlari qatoriga turli-tuman katta-kichik binolar, uy-joylar, me‘moriy majmualar, maydonlar, turli monumental qurilishlar, usti ochiq va yopiq turli soha, yo‘nalish, kasblarga mo‘ljallangan inshootlar kiradi.⁵²²

Yurtimizda o‘tgan bir necha yuz yilliklar davomida, jumladan, XVI asr boshlaridan boshlangan o‘zbek xonliklari hukmronligi davrlarida ham me‘morchilik madaniyati rivojida o‘ziga xos yuksalish jarayonlari ro‘y berib bordi. To‘g‘ri, ushbu asrlarda har uchchala xonliklar o‘rtasida tez-tez bo‘lib turadigan urushlar, ziddiyatlar, shuningdek, har bir xonlikning o‘zidagi turli maqsaddagi ichki kurashlar madaniyatning barcha sohalari qatori me‘morchilik sohasi rivojiga ham salbiy ta‘sir etmay qolmagan. Lekin, shunga qaramay, xalq me‘morchiligida O‘rta Osiyo me‘morchiligining ajoyib an‘analari to‘xtab qolmadi. Bu ulkan hududda yashovchi o‘zbek, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq xalqlarining yashash va turmush tarzi bu me‘morchilikning o‘ziga xos milliy tomonlarini belgilashda va davom ettirishda muhim rol o‘ynadi. O‘zbekiston me‘morchiligining asrlar davomida avlod-dan-avlodga o‘tib kelayotgan an‘ana va qonun-qoidalar xonliklar hukmronligi davrida ham o‘ziga xos yo‘nalishda davom etdi, yuzlab turli me‘morchilik madaniyati

⁵²¹ Ўзбекистон номоддий маданий мероси. 198-б.

⁵²² Хамидов Х. XVI-XIX асрларда юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар. Т. Фан. 2009. 73-б

asarlari bunyod etildi.⁵²³

Shayboniylar davri me'moriy inshootlaridan biri sifatida Buxoro arkini ko'rsatib o'tish mumkin. Garchi Arkning barpo etilishi ilk o'rta asrlarga borib taqalsada, uning hozirgi ma'lum qiyofasi asosan Shayboniylar sulolasi davrida, XVI asrda shakllangan. Ark balandligi 20 metrga yaqin bo'lgan tepalik ustiga qurilgan bo'lib, maydoni 4 ga teng, tarhi ko'pburchakli. Turli davrlarda devorlari tosh, pishiq va xom g'isht, paxsalar bilan mustahkamlangan. O'pirilib tushgan joylari dastlab xom g'ishtdan, keyin pishiq g'ishtdan ta'mir etilgan. Ko'tarilib boruvchi yo'l (pandus) orqali XVI asrda qurilgan g'arbdagi ulkan darvozadan ichkariga kiriladi. Darvozaxona peshtoqining ikki yon tomonidagi «guldasta» va ular oralig'idagi 3 qavatli bino bugungi kungacha yaxshi saqlangan. Arkning shimoliy-g'arbiy burchagida to'pchi boshining uyi va ta'mir ishlari ustidan nazorat qiluvchi kishi turadigan xona bo'lgan. Arkning g'arb tomonidagi hovlida mirzalar va boshqa xizmatchilar uchun ikki qavatli binolar qurilgan. Sal narida — salomxona, undan sharq tomonda mehmonxonalar, amir hamda oliy mansabdorlarga qarashli boshqa binolar joylashgan (miyon hovli). Arkning markazida o'rda hamda amir oilasi va xaram joylashgan, sharqida zodagonlar yashaydigan uylar bor. Shimoliy-sharqiy burchakda Childuxtaron masjidi va Battol G'oziy mozori bo'lgan. Arkning sharqiy devori bo'ylab soqchilar kazarmasi, janubiy-sharqiy burchagida dorixona (o'qdorilar ombori) joylashgan (arkning g'arbiy devoriga taqalgan binolarning bir qismigina saqlangan). Ark darvozasining chap tomonida lashkarboshi mehmonxonasi, shimolida esa qurol-yarog'lar tuzatiladigan ustaxona va aslahaxona (qo'rxona) bo'lgan⁵²⁴.

XVI-XVII asrlarga kelib me'morchilikda inshootlarning ko'rinishilari yanada takomillashdi, monemuntal binolarning tarhi, qiyofasiga o'zgartirishlar kiritildi, hunarmandlarning artellari vujudga keldi. Shu davrlarda bunyod etilgan Mir Arab madrasasi, Chashmai-Ayub, Xo'ja Zayniddin masjid-xonaqosi, Chorbakir minorasi, Sherdor madrasasi, Gavkushon minorasi, Buxoro va Toshkentda bunyod etilgan Ko'kaldosh madrasalarida o'sha davr yog'och o'ymakorligining ajoyib namunalari o'z

⁵²³ Ўша жойда.

⁵²⁴ Ахмедов Қ.М.. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1995. 61-62-66.

aksini

topgan.

Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasi XVI asrning ikkinchi yarmida Aabdullaxon II ning sarkardasi Qulbobo Ko'kaldosh tashabbusi bilan bunyod etilgan. Madrasining old peshtoq ravoqidagi girih va naqshlar nafis va jozibador qilib yog'och o'ymakorlik san'ati bilan ishlangan. Hovlidagi peshtoqlar koshin va sirlangan g'isht bilan bezatilgan. Hovli atrofida ikki qavatli 160 ta xujra va darsxona hamda masjid joylashgan. Tuzilishi jihatidan boshqa madrasalardan farqli o'laroq madrasaning ochiq ayvonli bolxonalari bo'lgan va ular turli naqshu-nigorlar bilan nafis qilib bezatilgan.

Toshkent shahridagi Ko'kaldosh madrasasi ham XVI asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan bo'lib, Toshkent hokimi Ko'kaldosh qurdirgan. Madrasaning umumiy ko'rinishi janubga qaratib qurilgan. Peshtoqi sirlangan g'isht va girih naqshlar bilan bezatilgan bo'lib, ikki yoniga ikki qavatli xonalar tartib bilan joylashtirilgan. Darvozaxonaning chap tomonida darsxona, o'ng tomonida masjid joylashgan. Darsxona va masjid chortoq tarhli, poydevori va devorlari pishiq g'ishtdan, choklari ganch qorishmasi bilan pardoqlangan.

Ayniqsa Buxorodagi Ubaydullaxon tomonidan qurdirilgan Mir Arab madrasasi (1535-1536), Abdulazizxon davridagi koshinli xonaqoh, Masjidi Kalon (1540-1541), Abdullaxon II davrida qurilgan madrasalar (Modarixon, Oypashsho oyim, Gavkushon, Fatxulla Qo'shbegi, Do'stim, Abdullaxon kabilar) masjidlar, yopiq bozor va savdo rastalari (Toqi Zargaron, Toqi Sarrafon, Toqi Kitobfurushon), xonaqohlar, xammomlar shahar taraqqiyoti va me'morchiligida muhim o'rin tutadi. XVII-XVIII asrlarda Ashtarxoniy lapr hukmronligi yillarida ham me'morchilik sohasida bir qatr ishlar amalga oshirildi. Bu davrda me'morchilikning ham o'ziga xos yo'nalishlarda rivojlanganligini kuzatish mumkin. XVII-XVIII asrlarga kelib, mahobatli me'morchilikda mintaqaviy me'morchilik maktablari Xorazm, Movarounnahr, Farg'ona, Toshkent kabilarning o'ziga xos xususiyatlari kuzatiladi. Bu davrda Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent, Shahrisabz, Termiz kabi ko'plab shaharlar o'rta asrlar an'anavii tuzilish shakllarini saqlab qoladi. Mamlakatning barcha hududlarida ko'plab masjid va madrasalar, bozorlar, xonaqohlar, karvonsaroylar,

rabotlar, hammomlar, sardobalar va boshka me'moriy inshootlar barpo etiladi. Me'moriy inshootlar orasida Buxoroda Abdulazizxon tomonidan bunyod etilgan madrasani alohida ta'kidlab o'tish lozim. Undagi marmar taxtachalar, qimmatbaho koshin bezaklar, nafis, ganchlik gumbazlar, ushbu davr me'morchiligida ham yetakchi an'analar saqlanib qolganligidan dalolat beradi. Shuningdek, Buxoroda Ubaydullaxon tomonidan madrasa va masjid, Boqi Muhammadxon tomonidan masjid, Subxonqulixon tomonidan kasalxona (Dorush-shifo), Nodir Devonbegi tomonidan masjid va madrasadan iborat me'moriy majmua-Labi Hovuz kabilar bunyod etilgan⁵²⁵.

Bu davrda Samarqandda ham ko'plari hozirgi kungacha saqlanib qolgan me'moriy inshootlar barpo etilgan. Xususan, Samarqanddagi yirik mulkdorlardan biri bo'lgan Yalangto'shbiyning Registon maydonida bunyod etgan ikkita yirik madrasasi diqqatga molikdir. Bu inshootlardan biri Ulug'bek madrasasi ro'parasidagi Sherdor madrasasi bo'lib, ular tuzilishi jihatidan bir-biriga o'xshab ketadi. Madrasaning nomlanishi uning peshtoqiga tasvirlangan ikkita sher tasviri bilan bog'lik bo'lib, ushbu madrasaning naqsh va bezaklarida qadimgi Sharq me'morchilik an'analari davom etganligi ko'zatiladi. Sherdor madrasasini Mirzo Ulug'bek xonaqohi o'rniga Yalangto'sh Bahodir qurdirgan (1619-1636). Bu madrasa Ulug'bek madrasasining ro'parasida joylashgan. Madrasa tarhi to'rtburchak, 2 qavatli. Bosh tarzining 2 qanotida qovurg'ali gumbaz va minoralar joylashgan. Peshtoq ravog'i ichkarisidagi koshinkori bezak orasida qora zaminli koshinga oq harflar bilan me'mor Abdujabbor nomi yozilgan. Qanoslaridagi qizg'ish zarhal tusli sher oq ohuni quvmoqda. Quyosh bodomqovoq, qiyiq ko'zli qilib tasvirlanib, yuzi zarhal tusli yog'du bilan hoshiyalangan. Madrasa nomi shu tasvirdan kelib chiqqan. Binoning serhashamligi shu peshtog'ida. Peshtoqning 2 tomonida gumbazli darsxona va masjid joylashgan. Hovli atrofidagi 54 ta 2 qavatli hujralarning oldi ravoqli ayvon. Ayvonlar yozda darsxona vazifasini o'tagan⁵²⁶.

Yalangto'shbiy tomonidan qurilgan ikkinchi inshoot Tillakori

⁵²⁵ Эшов Б. О'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. 267-268-66

⁵²⁶ Самарқанд. Т.: "Фан", 1986.

madrasasi ham ashtarxoniylar davridagi me'morchilikning nodir namunalaridan hisoblanadi. Registon majmuasida Ulug'bek davrida bunyod etilgan Mirzoyi karvonsaroyi (XV a) o'rnida Samarqand hokimi Yalangto'shbiy Bahodir Madrasa va jome masjid qurdirgan. Karvonsaroy asosi ustiga Madrasa (shimoliy – sharqiy qismida), hujralar o'rnida peshtoq gumbazli masjid (g'arbida) joylashgan. Dastlab «Yalangto'shbiy kichik madrasasi» deb nomlangan. Keyinchalik masjid bezagida boshqa bir obida qurilishiga yetadigan miqdorda oltin sarflangani uchun «tillakori» (tilladan ishlov berilgan) deb yuritila boshlagan. Tillakori madrasasidan shahar jome masjidi va madrasa sifatida foydalanilgan. Shuning uchun masjidi (63x22 m) katta va serhashamligi bilan boshqa madrasalardan ajralib turadi⁵²⁷.

Yalangto'shbiy qurdirgan ushbu ikkita inshoot Samarqanddagi Registon maydonining yaxlit me'moriy ansabli bo'lib shakllanadi. Shuningdek, bu davrda Samarqand atrofida Nazr devonbegi madrasasi, Xo'ja Ahror qabri oldida madrasa, shahardagi Qozi Soqiy madrasasi, Samarqand va Buxoro yo'lida ko'plab sardobalar bunyod etiladi⁵²⁸.

Bundan tashqari ashtarxoniylar davrida Balxda Nodirmuhammadxon, Subxonqulixon madrasalari, Balx atrofida qator chorbog'lar saroylari bilan, Balx arkidagi imoratlar, Jome' masjidi, Hazrati Ali mozoridagi gumbaz, Xivadagi Arab Muhammadxon, Xo'jamberdi Sherg'oziyxon madrasalari, Buxoroda Poyandaviy otaliq masjidi, Shodimbek madrasasi, Bozori go'sfand madrasasi, Qarshida Shermuhammadbiy va Xo'ja Qurbonbiy madrasalari, Shahrisabz atrofida Xo'ja Ilm kon me'moriy majmuasi kabi ko'plab inshootlar bunyod etiladi. Ushbu inshootlar bu davrda mamlakatda mavjud bo'lgan o'zaro urushlar va murakkab siyosiy vaziyatga qaramasdan Movarounnahr me'morchiligida azaliy an'analar davom etgaligidan dalolat beradi.

XVI-XIX asrlarda tarixnavislik. Markaziy xalqlari dunyo xalqlari orasida o'zining boy va qadimiy tarixiga ega xalqlardan sanaladi. Bu xalqlarning tarixi va unda sodir bo'lgan barcha jarayonlar shu xalqlarning vakillari tomonidan yozib qoldirilgan turli mazmundagi minglab

⁵²⁷ Самарқанд. Т.: “Фан”, 1986.

⁵²⁸ Эшов Б. О'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. 267-268-66

manbalarda aks ettirilgan. Ayniqsa, Oʻrta Osiyoning XIII asrdan boshlab keyingi yuz yilliklar davomidagi tarixi, davlatchiligi, iqtisodi, etnik va madaniy-maʼnaviy sohalaridagi jarayonlarini yoritib beruvchi tarix asarlari va ularning yaratilishi, tarixnavislik xususiyatlari oʻziga xos maktablarning shakllanishini taʼminlab berdi. Qoʻqon tarixnavislik maktabi, Toshkent tarixnavislik maktabi, Buxoro xonligi va amirligi davrida yaratilgan tarixiy asarlar, Xorazm tarixnavisligi shular jumlasidandir

Ashtarxoniylar hukmronligi davriga oid yozma manbalar ichida Maxmud ibn Vali (1595-1640) ning «Baxr ul asror fi manokib ul axyor» (Olijanob kishilarning shon shavkati haqida sirlar dengizi), Mir Muhammad amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad Yusuf ibn Xoja Baqo - Muhammad Yusuf Munshining «Tarixiy Muqimxoniy», asli nasaflik Muhammad Baqoxoja - Xoʻja Samandar Termiziyning «Dastur al Mulk», Abulgʻozi Bahodurxonning «Shajarai Turk»⁵²⁹, Muhammad Amin Buxoriyning «Muhit ut tavorix», Muhammad Vafo Karmana-giyning «Tuhfat ul xoniy», Abdurahmon Toʻleʼ (Abdurahmon Davlat) ning «Tarixi Abulfayzxon»⁵³⁰ asarlari muhim tarixiy manbalar hisoblanadi.

Maxmud ibn Valining «Baxr ul asror» asari 1634-1640 yillar orasida yozilgan boʻlib, yetti jilddan iborat boʻlgan va uning 2-7 jildlarida bayon qilingan tarixiy voqealar orasida Ashtarxoniylar davri tarixiga ham oid koʻplab qimmatli maʼlumotlar yozib qoldirilgan. Jumladan, «Baxr ul asror» asarining 6-jildida XIII-XVII asrning birinchi yarmida Chigʻatoy ulusi (Oʻrta Osiyo, Moʻgʻuliston, Shimoliy Afgʻoniston) tarixi keng va atroflicha yoritilgan⁵³¹. Bu asarlar orasida Muhammad Yusuf ibn Xoja Baqo -Muhammad Yusuf Munshining «Tarixiy Muqimxoniy» asari alohida eʼtiborga loyiqdir. Ashtarxoniylar davri tarixini yorituvchi muhim manba “Tarixi Muqimxoniy” asarining muallifi Muhammad Yusuf ibn Xoja Baqo boʻlib, u oʻz davrining yetuk bilimli kishilaridan edi. Muallif ashtarxoniy hukmdorlardan Subhonquli-xon va Muhammad Muqimxonning saroyida munshiy lavozimida xizmat qilgan. Faktik maʼlumotlarga toʻliq bu asarda ashtarxoniy hukmdorlarning Balxga

⁵²⁹ Абулғози Баходурхон. Шажараи турк. Т.г. Чўлпон 1990.

⁵³⁰ Абдурахмон Толеъ. История Абулфайзхана. Т.г. «Фан» 1959

⁵³¹ Қаранг: Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т.: “Ўқитувчи”, 2001. 222-224-бб.

nisbatan tutgan siyosati ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, asarda ashtarxoniy hukmdorlarning turk sultonlari, eron shohlari, boburiylar hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik munosabatlari yoritilgan. Bunday ma’lumotlar shu davrni yorituvchi boshqa manbalarda uchrasa ham biroq, “Tarixi Muqimxoniy” asarida berilganligi singari to‘liq va mukammal emas⁵³². Asarda shu davr tashqi siyosiy aloqalari, xalqaro maydondagi siyosiy vaziyat, shuningdek, Usmoniylar sultoni Ahmad II (1691-1695 yy) ning Buxoro xoni Subxonqulixon nomiga yozgan maktubining to‘liq nusxasi ham keltirib o‘tilgan⁵³³.

Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” asarida Buxoro xonligining 1702-1716 yillar orasidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayoti haqida o‘ta qimmatli ma’lumotlardan iborat mukammal tarix yozib qoldirilgan. Asarda Buxoro xonligining ma’muriy tuzilishi, siyosiy tarqoqlikning kuchayib borishi va markaziy hokimiyatning zaiflashib borishi sabablari, mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiy muammolar va ularning yuzaga kelishi sabablari va ularning oqibatlarini kabi masalalarning bayoniga keng o‘rin berilgan, shuningdek, Buxoro xonligining etnografiyasi va geografiyasiga oid ham ko‘plab qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirilgan⁵³⁴. Bu asarlar bilan bir qatorda 1605 yilda yozilgan Muhammadyor ibn Arab qalamiga mansub «Musaxxir ul bilod» (mamlakatlar fatxi), 1569 yilda yozilgan. Sulton Muhammad Balxiy qalamiga mansub «Majma’ul g‘aroyib», 1616-1629 yillarda yozilgan Iskandarbek munshiy qalamiga mansub «Tarixi olamaroyi Abbosiy» asarlarida Buxoro xonligining Ashtarxoniy sulolasi davridagi tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalari tarixiga oid ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Iskandarbek Munshiy qalamiga mansub «Tarixi olamaroyi Abbosiy» asari Eron tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning tarixi 1588-1634 yillardagi jarayonlar tahlili bilan xronologik tartibda bayon etilgan. Bu asardan ko‘rsatilgan davrda Eron va Buxoro xonligi o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar tarixiga oid ham ko‘pgina

⁵³² Сангирова Д. “Тарихи Муқимхоний” асарида аштархонийлар даври ташқи сиёсатининг ёритилиши.

⁵³³ Ўша жойда.

⁵³⁴ Қаранг: Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т.: “Ўқитувчи”, 2001. 225-227-бб.

ma'lumotlar o'rin olgan⁵³⁵. Jo'ybor shayxlari tarjimai holidan iborat, Jo'ybor xojalaridan Tojiddin Xasanning o'g'li Abulabbos Muhammad Tolib Siddiqiy tomonidan 1663 yilda yozilgan «Matlab ul tolibin», Ashtarxoniylar sulolasiga mansub shahzoda Hoja Mirmuhammad Salim tomonidan 1730 yilda yozilgan, hozirda yagona hisoblangan nusxasi Buyuk Britaniyadagi Bodleyan kutub-xonasida saqlanayotgan «Silsilat us salotin»⁵³⁶ kabi asarlari ham ashtarxoniylar davri tarixi, siyosiy va iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotini o'rganishda katta yordam beruvchi asarlar va muhim tarixiy manbalar hisoblanadi.

XVI asrda yashab ijod qilgan va tarixnavislik sohasida birmuncha mukammal natijalarga erisha olgan tarixchilardan yana biri Mirzo Muhammad Haydar bo'lib, uning bugungi kunlargacha ikkita yirik asari yetib kelgan. Muhammad Haydar mashhur «Tarixi Rashidiy» tarixiy asarining va «Jahonnoma» nomli geografiyaga oid turkiy she'riy risola muallifi.

Tarixchi, davlat arbobi Muhammad Mirzo Haydar Dug'lot 905 (1499) yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Uning otasi Muhammad Husayn Ko'ragon o'sha paytda Toshkent xoni bo'lgan Sulton Mahmudxon nomidan O'ratepa viloyati hokimi edi. 1509 yili otasi Muhammad Husayn Shayboniyxon tomonidan Xurosonda qatl etilgach, bu paytda Buxoroda bo'lgan Mirzo Haydar o'lim xataridan qochib, Badaxshon orqali Kobulga - Bobur huzuriga keladi va bu yerda uch yil yashaydi. Bobur unga g'amxo'rlik ko'rsatib yaxshi tarbiya beradi. Ustozlar tayinlab, xolavachchasini ilm kasb etishga undaydi. Bu haqda Muhammad Haydar o'z asarida cheksiz minnatdorlik bilan eslaydi. So'ngroq Mirzo Haydar Boburdan ruxsat olib Andijon va Koshg'arga - tog'avachchasi Sulton Saidxon (1514—1533) oldiga jo'naydi. U to 1533 yilgacha Sulton Saidxon xizmatida bo'lganida o'zining sarkardalik iste'dodini ham namoyon etadi. Xon buyrug'iga ko'ra Badaxshon, Kofiriston, Tibet o'lkalariga qilingan harbiy yurishlarga boshchilik etadi. 1533 yili Sulton Saidxon vafot etgach, Mirzo Haydar ba'zi sabablarga ko'ra u mamlakatni tark etib, avval Badaxshonga, so'ngra u yerdan Lohurga - Boburning o'g'li Komron Mirzo

⁵³⁵ Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т.: «Ўқитувчи», 2001. 221-222-66.

⁵³⁶ Қаранг: Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т.: «Ўқитувчи», 2001

oldiga boradi. 1540 yili Agraga borib Humoyun xizmatiga kiradi. U 1541 yili boburiylar nomidan Kashmirni zabt etadi va 1551 yilgacha deyarli mustaqil hukmdor sifatida bu o'lkani idora qiladi. 1551 yilda tog'liq qabilalar bilan bo'lgan jangda yarador bo'lib halok bo'lgan.⁵³⁷ Hozirgi vaqtda uning qabri Kashmirdagi Sirinagor (sultonlar mozori) qabristonidadir.

Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" asari XV asrning ikkinchi yarmi – XVI asrda Markaziy Osiyoda va Yaqin Sharqda bo'lib o'tgan trixiy voqealarni adolat mezonlari asosida yoritgani, muallifning o'zi tasvirlagan voqealar yuzasidan teran fikr-mushohadalarini ifodalagani ayni haqiqatdir. Shuning uchun ham biz eng avval tarixnavis, sarkarda hamda o'z zamonining yirik davlat arbobi sifatida taniymiz.⁵³⁸ Taniqli olim N.Jo'rayev tarix fani tadqiqotlari borasida so'z yuritib, bunda manbalarning o'ni, ayniqsa, manbalarda har qanday voqea-hodisalar, tarixiy dalillar chuqur ilmiy tahlil etilishi, nazariy xulosalar ilgari surilishi, tadqiqot obyekti qilib olingan davr ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan o'rganilishi va o'sha davr voqealari mohiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etilib, tadqiqot obyekti bo'lgan davrning ilmiy-nazariy mohiyati ochib berilishi jihatlariga alohida e'tibor qaratib, bunday manbalar qatorida Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" asarini ham alohida ko'rsatib o'tadi.⁵³⁹

Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" asari 1541-1546 yillarda yozilgan. Haydar Mirzo o'z kitobiga "Tarixi Rashidiy" deb nom qo'ygan. Kitob Sulton Saidxonning o'g'li Abdurashidxon nomiga bitilgan.⁵⁴⁰ Muhammad Haydar mirzoning asosiy asari "Tarixi Rashidiy" nomi bilan mashhur bo'lib, kitob ikki qismdan iborat. Tadqiqotchilar asarning bir qator xususiyatlariga asoslangan holda «Tarixi Rashidiy» asariga haqli ravishda Sharq memuarlik san'atida «Boburnoma»dan keyingi ikkinchi o'rinda ekanligini e'tirof etadilar.⁵⁴¹

Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy" asari Sharq tarixnavisligida

⁵³⁷ Мавлоно Муҳаммад қози. Ҳукмдорга ўғитлар. Т.: "Шарқ", 1999. Б.2. Қаранг: www.ziyouz.com

⁵³⁸ Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Жаҳонома. Т.: "Янги аср авлоди", 2013. Б.4.

⁵³⁹ Жўраев Н. Тарих — инсон, замон ва макон фалсафаси. Ўзбекистонда хорижий тиллар" илмий-методик электрон журнал №3/2017. Б.227-241

⁵⁴⁰ Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Жаҳонома. Т.: "Янги аср авлоди", 2013. Б.5.

⁵⁴¹ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. Бобур подшоҳ («Тарихи Рашидий»дан) // Ziyouz.uz

eng mashhur sanalgan asarlardan biriga aylangan va uning nusxalari dunyoning ko‘plab mamlakatlaridagi qo‘lyozmalar xazinalarida saqlanib kelinmoqda. Mirzo Haydardan keyin yashab ijod qilgan Sharqning ko‘pgina tarixchi va geograf olimlari Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Hindiston va boshqalar haqidagi o‘rta asrlarga tegishli ma’lumotlarni aynan Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy” asaridan olganliklarini ko‘rsatib o‘tganlar.⁵⁴² Masalan, Yorkenddagi chig‘atoy hukmdorlari tarixiga bag‘ishlangan Haydar Ali Roziyning “Tarixi Haydariy”, Maxmud ibn Valining “Baxr ul-asror fi manoqib ul-axyor” kabi mashhur asarlarning mualliflari ham o‘z asarlarini yozishda Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asariga ko‘p marotaba murojaat qilganliklarini yozib qoldirganlar.⁵⁴³

Muallifning o‘z asarini yoritishdagi bunday yondashuvi yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan hududlardagi davlatchilik jarayonlari haqida ayni shu jarayonlarning bevosita ishtirokchisi tomonidan keltirilayotgan o‘ta qimmatli ma’lumotlar beradigan bo‘lsa, ikkinchidan esdalik, memuar tarzida tarixiy jarayonlarni tasvirlab berilishi nihoyatda mukammal darajadagi voqeanavislik tarzida amalga oshirilgan.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rish mumkinki, Muhammad Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy” asari nafaqat O‘rta Osiyoning o‘rta asrlar davri tarixini, balki Mo‘g‘uliston, Hindiston, Xuroson, Sharqiy Turkiston va atrof hududlarning shu davr tarixini o‘rganishda ham muhim va ayni vaqtda noyob manba hisoblanadi.

Xorazm tarixnavisligi. Xorazm tarixnavislik maktabi haqida so‘z borganda shuni alohida ta’kidlash kerakki, Abulg‘ozining bu boradagi ishlari alohida ahamiyatga egadir. Abulg‘ozi o‘zining tarixiy asarlarini yaratishda, tarixiy jarayonlarni yoritish va tavsif etishda alohida yondashuvga, ya’ni zamonaviy tarixshunoslik iboralari bilan aytganda tarixiylik va obyektivlik tamoyillariga to‘la amal qildi. Uning o‘zi ta’kidlashicha, “Emdi ko‘nglingizga kelmasunkim faqir taraf tutub yolg‘on aytqon bo‘lg‘ayman va yo o‘zimni g‘alat ta’rif etqon bo‘lg‘ayman”⁵⁴⁴. Sharq tarixnavisligida nafaqat adabiyot, she’riyat va boshqa kitobatchilik

⁵⁴² Рукописи произведений Рузбихана и Мухаммад Хайдар Дулати // studbooks.net

⁵⁴³ Ўша жойда.

⁵⁴⁴ Абулғозий. Шажараи турк. Т.: “Чўлпон”. 1992. 11-12-бб.

sohalarida, balki tarix va tarixnavislik sohalarida ham til omiliga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, tarixiy asarlar muallifi Abulg'ozzi o'z asarlarini ona tilida yozayotganligini ta'kidlab: - "... bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsin, deb turk tili bilan aytdim. Bir kalima chig'atoy, turkiydan, forsiydan va arabiydan qo'shmayman, ravshan bo'lsin deb, turkiyni ham andoq aytibmanki besh yashar o'g'lon tushunar", - deb yozadi. Xorazm tarixnavislik maktabi doirasida keyingi asrlarda ham bir qator yirik tarixchilar tomonidan noyob manbalar yaratildi. Tarixchi Q.Munirovning ta'biri bilan aytganda, "O'zbek tilida tarixiy asarlar yozish an'anasi O'rta Osiyo xonliklaridan Xiva xonligida keng ko'lamda davom ettirildi. Abulg'ozziy boshlagan ishni XIX asrda atoqli o'zbek shoirlari va mashhur tarixnavsilari Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy katta mahorat bilan davom ettirdi"⁵⁴⁵ Albatta, Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o'g'li Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniylar tomonidan yaratilgan asarlar o'zining yozilish uslubi, voqealarning tavsifiga yondashuvlari, mualliflarning asarni yozishdagi qarashlari kabi jihatlariga ko'ra Xorazm tarixnavislik maktabining noyob namunalaridan hisoblanish bilan birga Xiva xonligi tarixini o'rganishda ham muhim manbalardir⁵⁴⁶

Biroq, Xorazm tarixnavislik maktabiga oid yana bir asar borki, bu asar o'z mazmuniga ko'ra va asarning yozilishi xususiyatiga ko'ra alohida tadqiqiy yondashuvni talab etadi, bu asar O'tamish Hojining "Tarixi Do'st sulton" yoki "Chingiznoma" asaridir. Movarunnahrda va Xurosonda hukmronlik qilgan shayboniylar sulolalari tarixi haqida Xorazmda o'ziga xos tarixshunoslik shakllandi. Tarixchi SH.Vohidovning ko'rsatishicha, "O'rta Osiyoda hukm surgan Shayboniylar, ularning tarixi va davriga atab yozilgan tarixiy asarlar Temur va temuriylar davriga nisbatan ancha kam yetib kelgan. Xorazmlik muallif tomonidan turkiy tilda Xivada yaratilgan Shayboniylar davriga oid ilk asarlardan biri "Chingiznoma"dir"⁵⁴⁷

⁵⁴⁵ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). Т.: "Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2002.

⁵⁴⁶ Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийозбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V, VI жилд. Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр. 1980; Муҳаммад Ризо Эрнийозбек ўғли Огаҳий. Зубдату-таворих. – Т.: Ўзбекистон, 2009. Шермухаммад Мунис. Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010; Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. -Т.: "Мерос". 1991.

⁵⁴⁷ Воҳидов Ш. Мунис ва Огаҳий. "Фирдавс ул-икбол". Т.: "Янги аср авлоди". 2010.

XVI asr oʻrtasida Oʻtamish Xoji ibn mavlono Muhammad Doʻstiy tomonidan biografik yilnoma asar yaratildiki, bu asar “Tarixi Doʻst sulton” yoki “Chingiznoma” nomlari bilan mashhur boʻlgan. Oʻtamish Hojining asari Xorazm tarixnavislik maktabining alohida noyob namunasi hisoblanadi. Asarning hozirda maʼlum ikki nusxasi mavjud boʻlib, biri Toshkent nusxasidir. Toshkent nusxasi toʻliq boʻlmagan nusxa hisoblanadi, shunga qaramasdan bu nusxa asosida Qozogʻistonda (2005), Yaponiyada (2008), Turkiyada (2009) va Oʻzbekistonda (2009) bir nechta nashrlar amalga oshirilgan. Ikkinchi nusxa esa toʻliq nusxa hisoblanib, Axmad Zaki Validiyning shaxsiy kutubxonasi saqlangan, hozirgi vaqtda bu nusxa Turkiyada xususiy toʻplamlardan birida saqlanmoqda⁵⁴⁸.

Oʻtamish Hojining toʻliq ismi Oʻtamish Hoji ibn mavlono Muhammad Doʻstiy boʻlib, XVI asrda yashagan. Xorazm shayboniylari saroy tarixchisi. Xorazm tarixnavislik maktabiga oid boʻlgan, 1550 yilda yozib tugallangan “Oʻtamish Hoji tarixi” (“Tarixi Doʻst Sulton”, “Chingiznoma” tarixiy asarining muallifi.

Oʻtamish hoji Xiva xoni Elbarsxon saroyida mirzalik qilgan. U Xorazm va OltinOʻrdaning janubiy hududlariga - Kaspiy dengizi va Quyi Volga boʻylariga koʻp marta sayohat qilgan va oʻz tarixiy asarini yozish uchun materiallar toʻplagan⁵⁴⁹. “Oʻtamish Hoji tarixi” asari muallifi Oʻtamish Hoji ibn mavlono Muhammad Doʻstiy hayoti va ijodi haqida saqlanib qolgan maʼlumotlar koʻp emas, shunga qaramasdan, muallifning oʻz asarida keltirgan maʼlumotlari asosida uning bobosi XV asrning oxirlarida shayboniylardan boʻlgan Yodgor Sulton xizmatida boʻlgan, oʻzi esa Xorazmda hukm surgan shayboniy sultonlar Elbars Sulton (1515-1525 yy) va Esh Sulton (1558 yilda oʻldirilgan) lar xizmatida boʻlganligini, shuningdek bir qancha joylarga sayohat qilganligini anglash mumkin⁵⁵⁰.

Bu haqda tarixchi B.Ahmedov quyidagi maʼlumotlarni berib oʻtadi: - “Otasi mavlono Muhammad Doʻst oʻziga tinch va nufuzli odamlar

⁵⁴⁸ Мустакимов И.А. Арабографичные нарративные источники по истории тюрко-татарских государств XV–XVIII вв. // Средневековые тюрко-татарские государства. Сборник статей. Выпуск 5: Вопросы источниковедения и историография истории средневековых тюрко-татарских государств. – Казань: Институт истории им. Ш.Марджани АН РТ, 2013. Стр.48-53.

⁵⁴⁹ Утемиш Хаджи. Чингиз - наме. Факсимиле, перевод, транскрипция, примечания, исследования В.П.Юдина, комментарий и указатели М.Х.Абусейтовой. Алма-Ата. 1992.

⁵⁵⁰ Ўтамиш Ҳожи тарихи. (XVI асрга оид туркий тилда ёзилган тарихий манба). Ўтамиш Ҳожи ибн Муҳаммад Дўстий. – Тошкент.: “Ўзбекистон”. 2009. Б.3

jumlasidan bo‘lib, shayboniylardan Ilborsxonning saroyida xizmat qilgan. O‘tamish xojining bobosi esa o‘z vaqtida shayboniyxonlardan Yodgorxonning xizmatida bo‘lgan. Yodgorxonning ulusi Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan bo‘lib, xonning o‘zi XV asrning 80-yillarida Shayboniyxon bilan bo‘lgan tungi to‘qnashuvda halok bo‘lgan. O‘tamish xojining o‘zi ham Ilborsxon saroyida munshiy (kotib) bo‘lib ishlagani ma’lum”. “O‘tamish Hoji tarixi” kitobida Dashti Qipchoqda hukmronlik qilgan Jo‘ji avlodlari – Botuxon, Shaybon, O‘zbekxon, O‘rusxon, To‘xtamish va boshqalar haqida ko‘plab qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Asar O‘tamish Hoji ibn Muhammad Do‘stiy tomonidan shayboniylar sulolasiga mansub hukmdor Esh Sulton buyrug‘iga ko‘ra yozilgan⁵⁵¹. O‘tamish Hoji ibn mavlono Muhammad Do‘stiyning “O‘tamish Hoji tarixi” (“Chingiznoma”) asari o‘rta asr Sharq tarixnavisligi an‘analarini o‘zida aks ettirgan va ayni vaqtda Xorazm tarixnavislik maktabining noyob namunalaridan biri sifatida Xorazm tarixi va Jo‘ji ulusi tarixi haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi manba sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Qo‘qon tarixnavisligi. Tarix va u bilan bog‘liq tushunchalar barcha davrlarda va barcha xalqlarda ilmiy munozaralarning diqqat markazida turgan bo‘lib, bular albatta tarixning fan sifatida qaror topishi va taraqqiy etib borishida muhim rol o‘ynagan. Bu borada albatta Sharq tarixnavisligi, xususan, mamlakatimiz hududlarida yashab ijod qilgan bir qator tarixchilar, shoirlar va adiblar ham keyingi o‘n asr vaqt davomida o‘zlarining tarixiy-ma’naviy ijodlarida o‘z fikrlarini, qarashlarini yozib qoldirganlar. Xususan, buyuk mutaffakkir shoir va alloma Alisher Navoiy o‘zining “Tarixi mulki A’jam” asarini yozish jarayonida tarixiy dalillarning va manbalardagi axborotning ishonchliligini aniqlash maqsadida manbalardagi ma’lumotlarni taqqoslashga, qiyosiy tahlil qilishga va so‘nggi xulosalarni o‘z kitobiga kiritishga harakat qilgan. Bu borada u Qozi Bayzoviy, Ali Miskavayx, Tabariy, Banokatiy kabi bir qator tarixchilarning ma’lumotlariga hamda tarixiy asarlarga, jumladan, «Nizom ut-tavorix» va «Jo-me ut-tavorix», “Odob ul-arab va al-furs” kabilarda keltirilgan dalillarga murojaat qilganligi ko‘rsatib o‘tish bilan birga,

⁵⁵¹ Илхомов З. “Ўтамиш Хожи тарихи” – Хоразм тарихнавислик мактабининг ноёб ёдгорлиги. “Ижтимоий гуманитар фанларнинг долзарб масалалари: Ривожланиш истикболлари” мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. Нукус. 2018 й. 69-73-б

o‘zining ayrim fikrlarini bayon qilishda “tarix ulamosi ittifoki bila”, “tarix axli ittifoki bila” kabi jumalardagi iqtiboslar bilan o‘z fikrlarini va ma’lumotlarini asoslashga harakat qiladi⁵⁵². Shuningdek, alloma tarix haqida o‘z qarashlarini nazmiy so‘zlar bilan bitib qoldirgan bo‘lib, ulardan quyidagilarni anglash mumkin: -“Hukmdorlarning qay biri zulm otini surdiyu, qay biri adolat bilan dong taratdi va oxiri bundan nima murod hosil bo‘lganin tarixdan bilamiz. O‘lkada nima obod bo‘ldi, mamlakat nimadan tinchlikka yuz tutdi? Har bir shaxsning sifatida nima-yu, nuqsonlari nima, hamma-hammasi tarixda bitilgan”⁵⁵³.

Shu davrda ijod qilgan tarixchilarning tarixni yoritish va tarix asarlarini yaratishga bo‘lgan munosabati va yondashuvlarining bu qadar mukammalligi ayni vaqtda tarixning ilmiy jihatdan anchagina mustahkam mavqeda bo‘lganligini ko‘rsatadi. «Amir ul-muarrixin» (“Tarixchilar amiri”) unvoni bilan sharaflangan tarixchi Xondamirning 13 ta asari mavjud bo‘lib, bugungi kungacha uning tarixiy va badiiy mazmundagi 8 ta asari yetib kelgan.⁵⁵⁴ Tarixiy asarlari «Ma’osir ul-muluk» («Hamasr podshoxlarning tarixi») (1498-1499 yy), Mirxondning «Ravzat us-safo» asariga Xondamir tomonidan qo‘shilgan 7-jild va «Geografik qo‘shimcha» (1522 -1523 yy), «Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar» («Inson zoti xabarlari va do‘stning tarjimai holi») (1520 – 1524 yy) va «Humoyunnoma» (1534 y) asarlaridir. Xondamirning uch jildli «Habib us - siyar fi axbor afrod ul-bashar» asarining 1-2-jildlarida Turkiston xonlari, Chingizxon va uning avlodlarining tarixi, 3-jildida XV asrning oxirlarida Movarounnaxr va Xurosondagi temuriylar o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar, Shayboniyxon yurishlari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tgan.⁵⁵⁵ Sanab o‘tilgan tarix asarlarining geografik ko‘lami va davriy chegarasining o‘ziyoq bu davrda tarix ilmining, tarinavislik va tarixshunoslik, manbashunoslik fanlarining o‘z davri uchun yuksak darajada rivoj topganligi va ayni vaqtda tarixni o‘rganishga ilmiy-tahliliy yondashuvlar asosiy o‘rin tutganligini ham ko‘rsatmoqda.

⁵⁵² Қаранг: Алишер Навоий. Тарихи мулки Аъжам // www.ziyouz.com

⁵⁵³ Тарихи мулки Аъжам. 33-б.

⁵⁵⁴ Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (қадимги ва ўрта асарлар). Т.: “Ўқитувчи”, 2001. 204-208-бб.

⁵⁵⁵ Қаранг: Юсупова Д. Хондамир. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.2000. 185-б.

Bu davrda Xorazmda ham tarixnavislik ma'lum darajada rivojlanagligini kuzatish mumkin. Xorazmda uzoq asrlar davom etib kelgan shajaraviy tarixnavislik bor. Bu chashmaning boshida Abulg'ozii Bahodirxon, Munis, Ogahiylar turadi. Ulardan qolgan muqaddas tarix kitoblarining qimmatini juda baland. O'rta Osiyo tarixining zukko bilimdoni V.V.Bartold bu asarlarga yuqori baho berib, ulargacha bu qadar mukammal tarix bitilmaganini ta'kidlaydi.⁵⁵⁶

Tarixchi Q.Munirov ta'biri bilan aytganda "Xorazm tarixnavislik maktabini boshlab bergan mashhur tarixchi"⁵⁵⁷ - Abulg'ozii Bahodirxon o'z asarini yaratgan ekan, tarixiy jarayonlar va voqealarni obyektiv ravishda yoritishga harakat qilganligini alohida ta'kidlaydi: - "Emdi ko'nglingizga kelmasunkim faqir taraf tutub yolg'on aytqon bo'lg'ayman va yo o'zimga g'alat ta'rif etqon bo'lg'ayman".

U "Shajarai turk" asarini yozishga kirishgan ekan, Xorazm xonlari tarixini yozishga harakat qilayotganligi va bunda nafaqat saroy tarixi, balki shu hududlarda yashab o'tgan xalqlar va ularning tarixi, turkiy xalqlarning tarixi kabi sohalarni ham yoritishni maqsad qilganligini, biroq ayni vaqtda bu tarixlarni, ayniqsa Xorazm xonlari tarixini yozishda betaraf bo'lish, tarfkashlik qilmaslik yoki ilmiy til iborasi bilan aytganda voqealarni obyektiv ravishda yozishga amal qilmoqligini alohida ta'kidlab o'tadi. Abulg'oziiyning tarixga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib anglash mumkinki, tarix bu mamlakatning siyosiy mavjudligi, uning turli vaqtlarda turli taraqqiyot darajasiga yetganligi yoki inqirozga uchraganligi, uning siyosiy va iqtisodiy hayoti va ayni vaqtda xalqlar va ularning kelib chiqishi, millat sifatida shakllanib borishi va qadriyatlarini yoritib berishi lozim bo'lgan fan ekanligini anglash mumkin.

Abulg'ozii Baxodirxonning "Shajarai turk" asarining tarjimasini va nashr ishlari bilan shug'ullangan rus sharqshunosi P.I.Demezov - "asar ustida ish olib borganimda xatoliklarga yo'l qo'ygan bo'lishim mumkin.

⁵⁵⁶ Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy / www.ziyouz.com kutubxonasi. 2-b.

⁵⁵⁷ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). –Т. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2002 й. 9-б.

Shuning uchun o‘quvchilardan avf etishlarini so‘rayman. Chunki inson xatodan holi emas”, - degan so‘zlarni alohida qayd etib o‘tgan edi.⁵⁵⁸

O‘rta Osiyo tarixchilarining tarixni yoritishdagi, tavsiflash va talqin qilishdagi obyektivlik va xolislik an‘analari keyingi asrlarda ham davom ettirildi.

Bu davrda yaratilgan asarlar orasida Sharq tarixnavislik an‘analari asosida “dunyoning yaralishidan boshlab” to XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davr tarixini o‘z ichiga olgan asarlardan biri sifatida Muhammad Hakimxon ibn Ma’sumxon to‘raning «Muntaxab at-tavorix» (Saylangan tarixlar kitobi) kitobini ko‘rsatib o‘tish mumkin.⁵⁵⁹

«Muntaxab at-tavorix»ning manbalari juda xam ko‘p bo‘lgan. Qo‘qon tarixchilarining asarlari fors-islomiy tarixnavisligi asosida shakllangan bo‘lib, ularda umumjaxon va lokal (maxalliy) tarixga bag‘ishlab yozilgan asarlar uchraydi. «Muntaxab at-tavorix» asari umumjaxon tarixiga bag‘ishlangani bois muallif tarixni olam va odam yaratilishidan boshlab, XIX asrning o‘rtalarigacha bayon qilgan. Shuning uchun taqdim etilayotgan ma’lumotlarning dastlabki qismi boshqa ko‘plab tarixiy va adabiy manbalar asosida bitilgan. Shu sababli ular originallik kasb etmay, asarning qolgan qismi uchta mavzuga, ya’ni Buxoro mang‘itlari tarixi, Qo‘qonda xukm surgan minglar sulolasi xamda muallifning chet ellarga sayoxati bayoni bo‘yicha taqsimlanar ekan, bu ma’lumotlarning barchasi Muxammad Hakimxonning o‘z qalamiga mansub qimmatli manba xisoblanadi.⁵⁶⁰ XIX asr o‘rtalari – XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududlarida Qo‘qon, Toshkent, Buxoro, Xorazm tarixnavislik maktablari shakllandi, bular orasida ayniqsa Qo‘qon tarixnavislik maktabini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Qo‘qon tarixnavislik maktabida nafaqat xonlik tarixini aks ettiruvchi, balki jahon tarix fanida noyob manbalar sifatida e’tirof etilgan bir necha o‘nlab asarlar yaratildi, asarlar mualliflarining tarixni o‘rganish va unga bo‘lgan

⁵⁵⁸ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). –Т. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2002 й. 11-б.

⁵⁵⁹ Хуршут Э. “Мунтахаб ат – таварих” и его источники. Общественные науки в Узбекистане. 1986. №12. С.39-44.

⁵⁶⁰ Хуршут Э. “Мунтахаб ат – таварих” и его источники. С.39-44. Қаранг: Мунтахаб ат-таворих. // tavorix.uz

yondashishlar to‘g‘risidagi bir qator fikrlari yoritib berildi.⁵⁶¹

Bu davrda yashagan va ijod qilgan olimlar va tarixchilarning tarix va tarix fani, tarix ilmi haqida keltirib o‘tgan fikrlaridan ham anglash mumkinki, Sharq, xususan O‘rta Osiyoda ham qadimdan tarix fani sohalariga e‘tibor kuchli bo‘lgan va ayni vaqtda tarixnavislar faqatgina tarixiy jarayonlarni tavsiflash yoki manbalarni tahlil etish kabilar bilan cheklanib qolmasdan, balki tarix va tarix fani haqida, uni qanday yozish yoki tahlil qilish kerakligi kabi masalalar yuzasidan ham o‘zlarining ilmiy-nazariy va falsafiy fikrlari va qarashlarini ko‘rsatib o‘tganlar.⁵⁶²

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan tarixchi Muhammad Yusuf Bayoniy “Shajarayi Xorazmshohiy” asarini yozar ekan, undagi ayrim voqealar tafsilotlarini o‘zidan avval Ogahiy tomonidan yozilgan asarlardan topmaganligi va endi bevosita o‘zi tarixiy jarayonlar ishtirokchilari va shohidlarining so‘zlaridan yozishga harakat qilganligini ta’kidlaydi: - “.... yuqorida zikr etilgan davr tarixini (Muhammad Rahimxon II ning (1865-1910 yy) 1872 yilgacha bo‘lgan xonlik davrini – muallif) o‘sha davrda ishga aralashib yurgan bir necha keksa odamlarni topib, ulardan bo‘lgan voqealarni so‘rab, diqqat bilan haqiqatlab yozdim”. Muhammad Yusuf Bayoniy “Xorazm tarixi” asarini yozishda tarix va uni tavsiflashga aohida e‘tibor qaratadi va tarixni haqqoniy, obyektiv ravishda yozish shartligini uqtiradi: - “tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo‘lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so‘zlari hech bir odamga ma’qul bo‘lmaydi”.⁵⁶³

Mullo Avaz Muhammad ibn Mullo Ro‘zi Muhammad So‘fi - Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiyning «Tarixi jahonnamoyi» asari muallifning ta’kidlab o‘tishicha, - “Odam Alayhissalom tarixidan boshlanib, to shu

⁵⁶¹ Қаранг: Воҳидов Ш.Х. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши. Тарих фанлари докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган диссертация. 1998 й. - 240 бет; Қаранг: Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). –Т. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2002 й. 192 б.

⁵⁶² Қаранг: Илҳомов З. Шарқ тарих фалсафаси ҳақида мулоҳазалар. “Илк ўзбек давлатчилиги тарихи”. Республика илмий назарий конференцияси. Т. 2010 й; Илҳомов З. Ўрта аср шарқ тарихнависи ва тарих фанининг ривожланиши. “Педагогик кадрлар тайёрлаш: тарихийлик, замонавийлик, истиқбол” республика илмий амалий конференцияси материаллари. Т.2015 йил. 60-62-бб.

⁵⁶³ Муҳаммад Юсуф Баёний “Шажараи Хоразмшоҳий”. Т. Мерос. 1991.

vaqt, Sayid Muhammad Xudoyorxon zuhurigacha bayon qilinadi...»⁵⁶⁴.

Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy asarida ham Sharq tarixnavisligi xususiyatlarini yaqqol kuzatish mumkin, xususan, asarning asosiy voqealar bayonigacha qadar bo‘lgan qismida diniy-ilohiy tarix bayon qilingan bo‘lsa, asarning asosiy qismidagi voqealar tafsilotlari xronologik izchillikda yoritib berilgan. Ko‘pgina tarixchilar qatori Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy ham o‘z asarini yozishda Qo‘qon xonligi tarixiga oid ko‘plab manbalarni o‘rganib chiqqanligi, avvalgi kitoblarda uchragan ixtiloflarni aniqlab, o‘z asarida ularga tuzatishlar kiritib borganligini ta’kidlab o‘tadi:

- “.... “Muntaxab ut-tavorix” nomli kichkina kitobcha qo‘limizga tushib qoldi. Undan yana bir nusxa ko‘chirishni niyat qilib, uning har bobida keltirilgan rivoyatlarning ixtiloflariga ko‘zimiz tushdi. Shuning uchun biz do‘st-birodarlarimizdan har turli tarix kitoblarini so‘rab oldik. ... ulardan foydalanib bir kitob bitdikkim, uni o‘qigan har bir muxlis tahsin va ofarin aylar”.⁵⁶⁵ Bu bilan muallif o‘z davrida tarix asarlari yozishning yoki boshqacha aytganda, tarixiy tadqiqotlarning mavjud an‘analariga to‘la rioya qilganligini ko‘rish mumkin. Ayni vaqtda ayrim voqealar tafsilotlarini yoritishda ma’lumotlarni badiiylashtirish, mubolag‘a qilish holatlari ham uchraydi. Masalan, 1864 yilning iyul oyida Rossiya imperiyasi qo‘shinlarining Chimkentga qilgan harbiy yurishlarida mag‘lubiyatga uchrashi va sulh so‘rab Qo‘qon sarkardasi Aliquli Amirlashkar va Qo‘qon xoni Sulton Sayyidxon huzuriga vakil yuborganligi voqeasi haqida quyidagi tavsif keltirilgan:

- “... firo‘zlik husravi bo‘lmish quyosh o‘zining jahontob va zarnigor bayrog‘ini osmon qala’sidan ko‘tarib, zarfishon o‘qlari bilan habash sipohi – qora tun qo‘shinini parishon qilgan payt... ko‘p o‘rus kofirlar boshyalang, kulohlarini qo‘lga olib, qo‘rqib uzr so‘rash uchun Alimqul⁵⁶⁶ sardor huzuriga keldilar”.⁵⁶⁷

⁵⁶⁴ Avaz Muhammad Attor Xўқандий. Тарихи жаҳоннамои // Шарқ юлдузи. -1998, №6. –Б.120.

⁵⁶⁵ Avaz Muhammad Attor Xўқандий. Тарихи жаҳоннамои // Шарқ юлдузи. -1998, №6. –Б.120.

⁵⁶⁶ Алиқули Амирлашкар Ҳасанбий ўғли - (1832/33 йил Бужунбиткон, Андижон -1865 й 9 май, Тошкент) Қўқон саркардаси, 1858-1865 йилларда Қўқон хонлиги сиёсий ҳаётида фаол иштирок этган, Маллахон даврида (1858-1862 йй) юқори лавозимларга эришган, Султон Саййидхон даврида (1863-1865 йй) “амир ул-умаро”, амирлашкар унвонига эга бўлиб, хонликнинг сиёсий ҳаётига катта таъсир ўтказган. Батафсил қаранг: З.Илҳомов. Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни. Тарих фан.ном....дисс. Т.2004; З.Илҳомов. Амирлашкар тарихи.

Ta'kidlab o'tish kerakki, muallif xonlik siyosiy tarixiga oid ma'lumotlar, Ming sulolasining davlat tepasiga kelishi va uning keyingi davrlardagi tarixi jarayonlarini o'zidan avval yashagan va o'z asarlarida yozib qoldirgan mualliflar asarlari asosida o'rganib, katta ehtimoliy aniqlik bilan o'z asarida yoritib bergan bo'lsa, XIX asrning o'rtalaridan boshlab xonlikning Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari tarixiga alohida e'tibor qaratadi. Bunda voqealar bayoni ularda ishtirok etgan guvohlar ma'lumotlari va shaxsan o'zi guvoh bo'lgan holatlar va jarayonlarni yoritilishi bilan yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so'zlar: ilm-fan, ko'z kasalliklari, tabib, tib olimi, ijtimoiy va madaniy hayot, adabiy xayot, taxallus, g'azal, she'riyat, devon, shoir, mutafakkir, tasavvuf, masnaviy, xattotlik maktabi, nasta'lik xati, musavvirlik, tasviriy san'at, Buxoro miniatyura rassomchiligi, Hirot miniatyura maktabi, xalq og'zaki badiiy ijodi, baxshi, dostonchilik, me'morchilik, shaharsozlik, me'moriy inshootlar, Ark, Masjidi Kalon, Ko'kaldosh madrasasi, Sherdor madrasasi, Tillakori madrasasi, sardoba, chorbog'lar, gumbaz, tarixnavislik «Tarixi Rashidiy», Xorazm tarixnavisligi, Qo'qon tarixnavisligi, ilmiy-nazariy fikrlar, falsafiy qarashlar

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XVI-XIX asrlarda ilm-fan rivoji qaysi jihatlari bilan hususiyatlanadi?
2. XVI-XIX asrlarda adabiyot rivoji qaysi jihatlari bilan hususiyatlanadi?
3. XVI-XIX asrlarda xattotlikning badiiy ijoddagi o'rni qanday edi?
4. XVI-XIX asrlarda miniatyura san'ati qaysi asarlarda ko'proq aks etadi?
5. XVI-XIX asrlarda xalq dostonlari va baxshichilikning asosiy mazmuni va ko'rinishlarini yoritng?
6. XVI-XIX asrlarda xalq amaliy san'atining turlari?
7. XVI-XIX asrlarda me'morchilik sohasida erishilgan yutuqlar?
8. XVI-XIX asrlarda Buxoro tarixnavislik maktabi namunalarini ayting?
9. XVI-XIX asrlarda tarixnavislik Xorazm tarixnavislik maktabi asarlarini sharhlang?
10. XVIII-XIX asrlarda Qo'qon tarixnavislik maktabiga oid asarlar?

XIX ASR IKKINCHI YARMIDA O‘ZBEK XONLIKLARIDA SIYOSIY, IJTIMOIIY VA IQTISODIY JARAYONLAR.

- ❖ XIX asr ikkinchi yarmida Buxoro amirligida siyosiy jarayonlar.
- ❖ XIX asr ikkinchi yarmida Xiva xonligida siyosiy jarayonlar.
- ❖ XIX asr ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligida siyosiy jarayonlar.
- ❖ Xonliklar iqtisodi va iqtisodiy markazlar, ichki va tashqi savdo munosabatlari.

XIX asr ikkinchi yarmida Buxoro amirligida siyosiy jarayonlar.

XIX asrning 60-yillari va XX asrning dastlabki o‘n yilliklarida Amir Nasrullohdan so‘ng Buxoro amirligini boshqargan mang‘it xonadoni vakillaridan Amir Muzaffar, Amir Abdulahadxon va Amir Olimxonlarning davlat boshqaruvidagi asosiy faoliyati va Buxoro davlati siyosiy hayotining asosiy jarayonlari Rossiya imperiyasining mustamlakachilik harbiy yurishlariga qarshi kurashlar va unga tobelik davridagi jarayonlar bilan xususiyatlansa, Amir Olimxon hukmronligining so‘nggi yillari bolsheviklar hokimiyati va Qizil armiya qo‘shinlariga qarshi kurash jarayonlari bilan bog‘liq holda kechdi va Buxoro amirligining davlat sifatidagi mavjudligi 1920 yilgacha davom etdi.

Nasrullo hukmdor sifatida davlatning ichki va tashqi dushmanlariga haqiqiy zarbani berdi. Amir Nasrullo tomonidan olib borilgan harbiy-siyosiy islohotlar natijasida davlatning harbiy qudrati mustahkamlana borgan. Olib borilgan tinimsiz urushlar barobarida Qo‘qon xonligi (1842) hamda Shahrisabz (1856) bekligi egallanadi. Amir Nasrullo tashqi siyosat masalasida oldingi davlat boshliqlaridan farqli ravishda, Markaziy Osiyoning iqtisodiy salohiyatiga talabgor bo‘lgan ikki yirik davlatlar Rossiya va Angliya bilan ochiq siyosat olib borish dasturini amalga oshirgan. XIX asr 30-yillarining boshlarida Buxoro amirligiga Vest-Indiya kompaniyasining topshirig‘i bilan kelgan leytenant Aleksandr Berns bilan olib borilgan muzokaralar asosida Angliya davlati bilan qisqa muddatga bo‘lsada, o‘zaro hamkorlik munosabatlari o‘rnatiladi⁵⁶⁸. Shu bilan birga, ayrim tarixiy manbalarda amir Nasrullo shafqatsiz hukmdor sifatida e‘tirof etiladi. Lekin ingliz olimi Uiler amir Nasrulloni: “shafqatsiz hamda

⁵⁶⁸ Шодиев Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши. Т: ТДЮИ нашриёти, 2010. 22-23-66.

mustabid hukmronligiga qaramasdan, u davlat qurilishi yo'lida bir qator ijobiy ishlarni ham amalga oshirdi. O'ziga sodiq harbiylar bilan birga professional qo'shin tashkil qildi, bir qancha sug'orish loyihalarini va ma'muriy-huquqiy islohotlarni amalga oshirdi" - deb, uning davlatni boshqarish faoliyatiga ijobiy baho beradi⁵⁶⁹. Sadri Ziyoning ta'kidlashicha, «Amir Nasrulloh Buxorog'a podshoh bo'lgandin keyin barodar va aqoriblarini tamom mahv va nobud qildi. Zabir va Jahongir to'ralarning volidolari Jo'yboriy xo'jalardin edi. Ularni Chorjo'y tarafig'a yuborib, i'dom qildi. Akobiri davlatlardin Hakim qo'shbegi va Ismatullohbek va Ayozbekg'a o'xshash bir necha ulug' martabadagi odamlarni qatl va amvollarini g'orat qildi»⁵⁷⁰. Tarixchi Axmad Donish amir Nasrullo haqida shunday yozadi: "U vazmin va qo'rqmas, qattiqqo'l va zukko hukmdor edi. El va ulusda fitna chiqarishda nom chiqargan yo ilgarigi amirlarga nisbatan ko'namaklik qilganning barchasini jazoladi, o'z tarafdorlarini siyladi»⁵⁷¹.

Amir Muzaffar otasi Nasrulloxon davrida Karmanaga hokimlik qilgan. Amir Nasrulloning vafotidan so'ng esa Buxoro taxtiga (1860 yil 23-sentabr – 1885 yil 12-dekabr) o'tirgan. Otasi tomonidan Karmanaga surgun qilingan kishilarni Buxoroga qaytarib, yuqori lavozimlarga tayinlagan. Muarrixlar tomonidan Amir Muzaffarxon hukmronligi davri yana shunisi bilan e'tirof etiladiki, u ham bo'lsa, saroy va hukmdor ayonlarning uquvsizligi, o'ta johilligida ko'rinadi. Otasi Nasrulloh bunday kishilarni yaxshi yomonning qadrini bilsin degan maqsadda Karmanaga (ya'ni Muzaffarxon huzuriga) surgun etgan edi. Muzaffarxon esa hokimiyatni qo'lga kiritgach asosiy mansablarga Karmanadan kelganlarga ishonib topshiradi. Bunday siyosat Ahmad Donishning fikricha, O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan ishg'ol etilgan vaqtgacha davom etdi. Markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamayotgan Hisor, Shahrisabz, Darboz, Ko'lob, Baljuvon beklilari va Qo'qon ustiga yurish qilib, ularning qarshiligini yengdi (1863-1865), mazkur yerlar amirlikka

⁵⁶⁹ Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши. 23-б.

⁵⁷⁰ Вахидов Ш., Чориев З. Садри Зия и его библиотека. Из истории книги и книжной культуры в Бухаре в начале XX века. Серия «Книги, библиотеки, каталоги». Т.: Янги аср авлоди, 2007. – 352 с.

⁵⁷¹ Матякубова М., Отамуротова Р. Бухоро амирлигининг XIX – XX аср боши сиёсий бошқарув тарихи ақс этган манбалар. ХОРАЗМ МА`МУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ 1/2015. 33-37-бб.

qaytadan bo‘ysundirildi. Bu yerlar aholisiga qattiq jabr – zulmlar o‘tkazildi.

Amir Muzaffar Mallaxon tomonidan taxtdan tushirilgan Qo‘qon xoni Xudoyorxon Buxoroga qochib kelganida xonlik taxtini qayta egallashi uchun unga harbiy yordam bergan (1861). Muzaffarning hukmronlik davri Rossiyaning O‘rta Osiyo xomliklariga qarshi harbiy harakatlari kuchaygan davrga to‘g‘ri keladi. Amir Nasrulloh tirikligida Rossiya imperiyasi qo‘shinlari Sirdaryodan o‘tmagan edilar. Ular daryo qirg‘oqlarida joylashib qal’ani tartibga solib u yerda qurol – aslahalar, oziq – ovqatlar jamladilar. 1864 yilda Rossiya imperiyasi qo‘shinlarining Toshkentga hujumi boshlanib⁵⁷² dastlabki harakatlar lashkarboshi Aliquli tomonidan muvaffaqiyatli qaytarildi. Aliquli erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, imperiya qo‘shinlari egallagan hududlarni ozod qilish uchun qo‘shinni ko‘paytirish harakatiga tushgan bir paytda, 1864 yil kuzida Buxoro amiri Muzaffar Qo‘qon xonligiga qarashli yerlarga bostirib kiradi. Qo‘qon xonligi esa o‘ta keskin bir siyosiy vaziyatda Buxoro amiriga qarshi yurishga majbur bo‘ldi. Amir Muzaffar esa Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi bosqinchiligiga qarshi kurash bilan band bo‘lib turganligidan foydalanib, shiddat bilan O‘zgangacha bo‘lgan hududlarni qo‘lga kiritdi. Yana bir manbada yozilishicha, -“Amir Muzaffar Qo‘qon ishlariga aralashib, bir necha marotaba zarar va ixtilol yetgan vaqtda Xudoyorxonga inoat tariqasida askari bilan Qo‘qonga kirib borib, xutbalarda nomini zikr qildirib, Buxoroga qaytdi va Hisor shahrini zabt etib, voliysi Abdul-Karimbiyni qatl qildi”⁵⁷³.

Amir Muzaffar Rossiya bilan bo‘lgan kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan bartaraf etishda umidini uzmay, u Najmiddinxo‘ja boshliq elchilarni Peterburgga jo‘natdi (1865 yil iyul). Biroq, ko‘zlangan maqasadga erishilmay, ikki o‘rtada harbiy harakatlar boshlandi. Muzaffar qo‘shini bilan general Romanovskiy boshchiligidagi Rossiya harbiy kuchlari

⁵⁷² Воҳидов Ш. XIX аср-XX асрнинг бошларида Қўқон тарих навислигининг ривожланиши, III ва IV боблар; Яна қаранг.: Муҳаммад Юнусжон Шиғовул. Тарих-и Аликули амирлашкар // Шарқ юлдузи. 1996, № 1-2; Муҳаммад Юнусжон Тайиб. Тухфа-йи Тайиб. / Подготовка к изданию и предисловие. Б. М. Бабаджанов, Ш. Ҳ. Воҳидов, Х.Каматцу-Ташкент-Токио-2002. -46 с; Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон Россия империяси мустамлакачилиги даврида. Т.1. -Т.: Зияев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш (XVIII аср-XIX бошларида)-476 с.4; З.Илхомов. Аликули Амирлашкар ва унинг Қукон хонлиги сиёсий тарихида тутган урни. Т.2004 йил.

⁵⁷³ Бухоро амирлигининг XIX – XX аср боши сиёсий бошқарув тарихи ақс этган манбалар. 33-37-бб.

o'rtasidagi dastlabki to'qnashuv Jizzax bilan Oratepa o'rtasidagi Erjar (Maydayulg'un) da bo'lib, unda Buxoro qo'shini mag'lubiyatga uchragan (1866-y. 8-may)⁵⁷⁴.

Amir Muzaffar Rossiya bilan Erjar (Egrijar) va Samarqand mag'lubiyatidan so'ng Buxoroning sarhadlari Kattaqo'rg'ondan belgilanadi va Rossiya imperiyasi bilan sulh shartnomasini tuzadi⁵⁷⁵.

Muzaffar muftiy Muhammad Porso boshchiligidagi elchilarni Afg'oniston va Hindiston orqali yordam so'rab, Istanbulga yuborsa ham rad javobini olgan. Amir Muzaffarxonning Xoja Muhammad Porso orqali yordam so'rab yo'llagan maktubi inglizlarning Hindistondagi vakili Jon Lourens, keyinroq esa Istanbuldagi elchilari Genri Ellablar tomonidan oradagi masofa uzoqligi vaj qilinib, rad javobi berildi. Shuningdek Turkiya sultoniga jo'natilgan bir qancha xatlar, murojaatnomalar ham yuqoridagidek javoblar olindi⁵⁷⁶.

Podsho Rossiyasi O'rta Osiyoni mol sotish bozori, xom ashyo manbai deb bilar edi. 1866 yilda rus qo'shinlari Buxoro amirligi chegaralariga bostirib kirdi va Xo'jand (24 may), O'ratepa (2 oktabr), Jizzax (18 oktabr) shaharlarini ishg'ol qildi. Istilo etilgan yerlarni boshqarish uchun 1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. 1868 yil 2 may kuni general Kaufman boshchiligidagi rus qo'shinlari Samarqandni ishg'ol qildi. Iyun oyi da Buxoro amiri Muzaffar qo'shinlariga Zirabuloq yaqinida so'nggi qat'iy zarba beriddi. Amir general-gubernatorga murojaat qilib, sulh tuzishni so'radi. 1868 yil 23 iyunida ikki o'rtada shartnoma imzolandi. Rus qo'shinlari bosib olgan yerlar podsho Rossiyasi ixtiyoriga o'tdi. Buxoro amirligi mustaqil tashqi siyosat yurgizishdan mahrum bo'ldi. Buxoro amirligining ayrim hududlari 1868 yilda Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida amirlik yerlarining uchdan bir qismi podsho Rossiyasi ixtiyoriga o'tdi; Xo'jand, O'ratepa, Panjikent, Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlaridan tortib Zirabuloqqacha bo'lgan yerlar, Sharqiy Buxoroda esa Shug'on, Vohon,

⁵⁷⁴ Султонов Ф. Бозорбоев Ф. О'zbekiston hukmdorlari. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007. 56-б.

⁵⁷⁵ Бухоро амирлигининг XIX – XX аср боши сиёсий бошқарув тарихи ақс этган манбалар. 33-37-бб.

⁵⁷⁶ Иноятуллохўжа Шахрисабзи. Баёз // Қўлёзма. Равнакий Шахрисабзийнинг шахсий кутубхонаси фонди, № 65. 26 – 29 варақлар.

Roʻshon viloyatlari, ayniqsa Zarafshon daryosi yuqori havzasi Rossiya tasarrufiga tdi. Bosib olingan hududlarda Samarqand viloyati tashkil etilib, uning tarkibiga Samarqand, Jizzax, Hoʻjand uездlari kirgan.

Amir Muzaffar oʻz hukmronligining dastlabki yillarida ulamolarga deyarli eʼtibor bermadi, ular bilan biror-bir masala yuzasidan maslahat ham qilmadi. Ammo, 1868 yilda amir Rossiya imperiyasidan magʻlubiyatga uchragach, ulamolarga yon berishga majbur boʻldi. Chunki ulamolar mahalliy aholini ruslarga qarshi kurashishga daʼvat etgan edilar. Lekin fursat qoʻldan boy berilgan edi. Ulamolarning xalqni koʻtarishi ham, amirning oʻgʻli Katta Toʻra (Abdumalik), Kitob va Shahrisabz beklarining say-harkatlari ham besamar ketdi. Zirabuloq yaqinidagi jangda magʻlubiyatga uchragan amir Muzaffar imperiya tomonidan tuzilgan shartnomaga imzo chekishga majbur boʻldi. Unga koʻra amir Oʻratepa, Jizzax, Zarafshon vohasi hududlaridan mahrum boʻldi, podsho hukumatiga 125 ming tillo miqdorda tovon toʻlaydigan boʻldi hamda Buxoroning Rossiyaga vassalligini tan oldi.

Amir Muzaffar hukmronligi davrida amirlik hududlari ancha qisqardi. Bunga avvalo Rossiya imperiyasining bosqini sabab boʻlgan boʻlsa, katta qiyinchilik bilan boʻysundirilgan Shahrisabz va Kitob beklilari yana Buxoroga boʻysunishdan bosh tortdilar. Undan tashqari, Rossiya imperiyasiga toʻlangan katta tovon evaziga amirlik xazinasi boʻshab qoldi. Amir oʻz xazinasini toʻldirish uchun qozilar va raislarga aholidan turli xil yigʻimlar yigʻishga ruxsat berdi. Chunki bu yigʻimlarning katta qismi turli xil sovgʻalar va inʼomlar tariqasida xazinaga kelib tushardi. Amir Muzaffar Rossiya imperiyasi hukumati bilan sulh shartnomasini tuzishga majbur boʻlgan. Ushbu shartnoma asosida Buxoro amirligi tashqi va ichki siyosiy masalalarni hal qilishda mustaqillikdan mahrum boʻlib Rossiya davlati ostidagi yarim mustamlaka davlatga aylandi. Ayniqsa, chor qoʻshinlarining 1871-1872 yillarda Zarafshon daryosi boshqaruvini nazoratga olishlari Buxoroning bundan keyingi rivojlanishiga salbiy taʼsir oʻtkazgan. Amir Muzaffar 1885 yil 31 oktabrda kasallik tufayli vafot etadi va Buxorodagi Eshon Imlo mozorida dafn etilgan⁵⁷⁷.

⁵⁷⁷ Oʻzbekiston hukmdorlari. 56-6.

Uning o'g'li amir Sayyid Abdulhad 1885-1910 yillar Buxoro amirligi taxtini boshqardi. Abdulhad 14 yoshidan boshlab Karmana beki etib tayinlangan. Rus sayyohlarining ma'lumotlariga ko'ra u Karmanada juda oddiy kun kechirgan. 1885 yil 4 noyabrda amir Abdulhadni Buxoro arkida oq kigizga o'tirg'izib, taxtga o'tqazish marosimi bo'lib o'tdi. Fitratning fikricha, Abdulhad qaysi ishni rejalashtirmasin, o'zining himoyachisi bo'lgan Rossiyaning nufuz va rolini inobatga olishga majbur edi. Shuning uchun ham Abdulhad davrida bu hokimning otalari qilgan o'zboshimchalik va vahshiyliklariga ma'lum darajada chek qo'yildi⁵⁷⁸.

Amir Abdulhad sud-huquq tizimini tubdan isloh qilishga hamda ushbu sohani yanada insonparvarlik tamoyili asosida shakllantirishga uringan. Amir Abdulhad turli yillarda Moskva, Sankt-Peterburug, Kiyev, Odessa, Yekaterinaslov, Boku, Tiflis, Botumi, Sevastopol, Bog'chasaroy kabi shaharlarda bo'lgan. Uning hukmronligi davrida qiynoqlar, o'lim hukmi va eng dahshatli jazo - Buxorodagi Minorai Kalondan tashlab yuborish man etilgan. Amir Abdulhad davrida amirlikda mis, temir, oltin qazib chiqarish, telefon liniyalari va temir yo'llari qurilishi, savdo faol rivojlantiriladi. Abdulhad amirlikdagi harbiy kuchlarga alohida e'tibor bergan. Yoshlik chog'idayoq bo'lajak amir o'z garnizonida harbiy mashqlar o'tkazib, Karmana qal'asini yaxshi harbiy holatda tutgan. 1895 yildan boshlab Buxoro amirligida militsiya xizmati yo'lga qo'yilgan. Keyinchalik ham amir Abdulhad o'z qo'shinini harbiy tayyorgarligini oshirish va zamonaviy qurollantirish uchun ko'pgina ishlarni amalga oshirgan. Bu ishlarda asosan 1885 yil yangi Buxoroda (Kogonda) faoliyatini boshlagan Rossiya imperatori siyosiy Agentligi (1885 – 1917) bosh – qosh bo'lgan edi. Siyosiy agent Buxoro amiri ustidan nazorat olib borib, uning Peterburg bilan aloqa qilishida vositachi bo'lgan⁵⁷⁹. Peterburg tazyiqi bilan amirlikda boj va pul islohoti o'tkazilishi, Rossiya imperiyasining mustamlaka zulmi hamda, amir istibdodining kuchayib borishi xalqni tobora og'ir ahvolga solib qo'ydi. Natijada amirlikning turli hududlarida xalq g'alayonlari avj oldi. Amir Muzaffarxon davrida boshlangan, u daf' eta olmagan xalq g'alayoni Sherobod viloyatida 1885

⁵⁷⁸ Абдурауф Фитрат. Амир Олимхоннинг ҳукмронлик даври. / Тоҷик тилидан А Ирисов таржимаси. Т.: Минҳож, 1992. 10 бет. Яна қаранг: Холиқова Р. Кўрсатилган асари, 171-186 бетлар.

⁵⁷⁹ Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида.- Т.: Ўқитувчи, 2005. 186-196-бб.

yildayoq boshlangan edi. Ushbu viloyat dehqonlari 30 – 40 kun mobaynida soliq to‘lashdan bosh tortdilar. Hukumat tomonidan Bobojon jibachi yasovul Sherobodga yuborilsa ham, ushbu holat hech qanday natija bermadi. Shundan so‘ng Mulla Sharif miroxur ushbu masalani hal etishga borganda tekshirishlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, dehqonlardan 4 man xiroj o‘rniga 8 man olingan⁵⁸⁰. Bundan tashqari ko‘pgina hududlarda jami hosilning 50 – 60 % foizigacha soliqqa tortilgani ma’lum bo‘ldi⁵⁸¹. Biroq, bu holat hech bir ijobiy natijaga olib kelmadi.

1886 yil Rossiya imperatorligi siyosiy agentlaridan biri N.Cherikovning ma’lumotlariga ko‘ra 9 avgustda (1886) dehqonlar va soliq yig‘uvchilar o‘rtasida Hisorda katta to‘qnashuv yuzaga keladi⁵⁸².

Bundan tashqari amirlikning ko‘pgina hududlarida yuzaga kelgan dehqonlar g‘alayonlarida amirning Rossiya kuchlariga tayangan holda ish ko‘rgan holatlariga duch kelamiz. 1888 yilda Ko‘lob bekligida dehqonlar qo‘zg‘oloni keng quloch yoyganda Pomir chegara qo‘shini amirga yordam ko‘rsatib qo‘zg‘olonni bostirgan. 1889 yilda esa Kalif aholisi hokim zulmidan bezor bo‘lib ko‘tarilganda bekni rus qo‘shini o‘z himoyasiga olgan.

Mazkur holatlarda ko‘rinib turibdiki, amir o‘z hududida sodir bo‘layotgan qonli kurashlar, xalq noroziliklarini bostirishda aksariyat holatlarda bosqinchilar madadiga tayangan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, Abdulahad valiahdlik maqomini olish chog‘idayoq kelishilgan rus imperatori bilan bitimga muvofiq amirlik hududida kapitalistik munosabatlar ancha jonlandi. Xususan, amirlikda 1905 yilda 9 ta paxta zavodi ishlab turgan bo‘lsa, 1913 yil Olimxon davriga kelib ular soni 26 taga yetkazildi. Ko‘pgina Rossiya foydasi uchun ishlaydigan zavod va fabrikalar soni ham tadrijiy holatda shunday o‘shishi kuzatiladi.

Amir Abdulahad 1910 yilda vafot etdi, uning 25 yillik amirligidan so‘ng o‘sha yili amir Said Olimxon hukmronligi davri boshlandi. Amir Olimxon 1881 yil Karmanada tug‘ilgan. 1893 – 1896 yillarda Peterburgda

⁵⁸⁰ ЎЗРМДА. И-126 – жамғарма, 1 – рўйхат, 1267 – иш. 17 – varaқ.

⁵⁸¹ Мухсинова К. З. Документы о крестьянских движениях в Бухарском ханстве в 80 – е гг. XIX в. с. 16 – 17.

⁵⁸² ЎЗРМДА И-1 жамғарма, 34 – рўйхат, 668 – иш. 11 – varaқ.

o‘qigan. 1898 yil Qarshi hokimi, 1910 yil boshlarida Karmana voliyi bo‘lgan.

Olimxon taxtga chiqqach mamlakatda tartibsizliklar avj oldi. Uning siyosatida ham Rossiya imperiyasiga moyillik, ularga tayanib ish ko‘rish tobora ko‘proq kuzatilar edi. 1914 yilda Toshko‘prik, Shahrisabz, Kitob, Qarshi va Hisorda ko‘tarilgan xalq g‘alayonlari rus harbiy kuchlari yordamida bartaraf etildi⁵⁸³. Bu davrda amirlik siyosatida Nasrulloh qo‘shbегining mavqei ancha baland edi. Hattoki, qozi kalon va raisni mag‘bul etib, ularning barcha ishlarini o‘z qo‘liga oldi. Saroydagi barcha amirga yaqin bo‘lgan amaldorlar ta‘sirini bartaraf etdi. Mamlakat doirasida, undan nufuzli va quvvatli mansabdor qolmagan edi. Viloyatlarga qozi, rais, madrasalarga mudarris, masjidlarga imom tayinlash, qozikalonning, bozor tasarrufi raisning ishi bo‘lsa ham bular asli Nasrulloh ixtiyorisiz hal bo‘lmas edi. Hatto amir Olimxonning o‘z oilasi doirasida hal bo‘lishi mumkin bo‘lgan ba‘zi ishlarga ham Nasrulloh qo‘shbегi bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazar edi. U rus tilini bilar, ular siyosatini yaxshi tushunar edi. Biroq, uning dushmanlari ustun chiqib oila a‘zolari bilan birga qatl ettirildi va qo‘shbегi lavozimiga Mirzo Urganjiy tayinlanadi.

1917 yilga kelib Rossiyada imperator boshqaruvi ag‘darilib, siyosiy jarayonlar natijasida hokimiyatning bolsheviklar tomonidan egallanishi Buxoro amirligiga ham ta‘sir ko‘rsatdi va 1920 yilda amirlik rasman tugatildi. 1911-1920 yillar Buxoro taxtini boshqargan amir Olimxon Buxoroda sovet hukumati o‘rnatilgach Afg‘onistonga chiqib ketdi va 1944 yil Qobulda vafot etdi. 1920 yilda bolsheviklar tomonidan Buxoro amirligining qolgan barcha bekliklari bosib olindi va amirlik o‘rnida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilgan.

XIX asr ikkinchi yarmida Xiva xonligida siyosiy jarayonlar. XIX asrning 50-yillarida Xiva xonligida ichki siyosiy vaziyat keskinligi bilan davom etdi. Ayniqsa, Raximquli hukmronligi yillarida Xiva-buxoro munosabatlarining doimiy keskinligi va harbiy harakatlarning tez-tez amalga oshirib turilishi natijasida Raximqul vafot etganiga qadar

⁵⁸³ ЎзРМДА, 3 – жамғарма. 2 – рўйхат. 178 – иш. 15 – varaқ.

Xivaliklar Buxoro yerlariga, buxoroliklar esa xivaliklar yerlariga qayta – qayta harbiy bosqinichiliklar qiladilar. Xivaliklar turkmanlar bilan o‘zoq kurashib borgandan so‘ng 1855 yilda Marvni yana egallashga muvofiq bo‘ladi. Muhammad Amin hukmronligi davrida ham Buxoro va Xiva xonliklari o‘rtasidagi zidiyatlar davom etib turdi. Har ikki davlat o‘z manfaatlari uchun turkmanlardan foydalanishga harakat qildilar. Janubiy Turkmaniston va Xurosonda tinchlik hukm surmay, xonga qarshi isyonlar davom etdi. Ayniqsa, Marv va Seraxs shaharlarida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar hokimiyatni larzaga keltirdi. Qo‘zg‘olonchilar Xiva xoniga bo‘ysunishdan bosh tortib, xon amaldorlari va soliq yig‘uvchilarni tutib qatl qildilar. Muxammad Amin xon 1845 – 1855 yillar Xuroson va Marvga 10 martadan ko‘proq qo‘shin tortib boradi, bu yurishlar vaqtida xonlik iqtisodiy jihatdan katta zarar ko‘rdi. 1855 yil Seraxs ostonasida turkmanlar bilan Xiva lashkarlari o‘rtasida bo‘lgan jangda Xiva qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchrab, Muhammad Aminxon, uning o‘n to‘rt nafar shahzodalari va saroy amaldorlari fojeali halok bo‘ldilar.

1855 yil Said Abdullaxon (besh yarim oy – 1855 yil 20 mart – 27 avgust) Xiva taxtiga o‘tirdi. Ammo, bir guruh saroy amaldorlari Said Abdullaxonni tan olmasdan unga qarshi fitna uyushtirib, yovmut turkmanlari bilan aloqa o‘rnatdilar hamda ularni isyonga chorladilar. Yovmutlar isyon ko‘tarib G‘ozovot va Ilonli atroflarida qishloqlarni talay boshladilar. Said Abdullaxon Xivadagi fitnachilarni fosh qilib, uning ishtiroqchilarini qatl ettirgach, isyonchilarga qarshi kurash boshladi. Dastavval, Xiva qo‘shinlari bilan bo‘lgan jangda yovmutlar mag‘lubiyatga uchrab dasht ichkarisiga chekingan bo‘lsalar-da, avgustning oxirida yovmutlar Xiva navkarlari qarorgohiga (Ilonli yaqinida) to‘satdan tunda hujum qildilar. Said Abdullaxon turkmanlar bilan bo‘lgan jangda o‘ldiriladi.⁵⁸⁴

Bu voqeadan keyin saroydagi vazir Muhammad Yoqub mehtar boshchiligidagi bir guruh amaldorlar Sayid Abdullaxonning o‘n yetti yashar ukasi Qutlug‘ Murodni xon qilib ko‘tardilar, Yoqub mehtar va Ibrohim qo‘shbegi davlat boshqaruvida xonning eng yaqin kishilari edilar. Bu orada xonlikdagi siyosiy vaziyat yana keskinlashib ketdi. Qutlug‘

⁵⁸⁴ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 241-б.

Murodxonga bo'ysunmagan turkmanlar-ning yovmut qabilalari o'zlariga Ota Murodni, qozoqlar va qoraqalpoqlar esa Jorliq to'rani xon etib ko'taradilar. To'rt yarim oy taxtda o'tirgan Qutlug' Murodxon o'z ukasi Niyozbek Muhammad tomonidan hiyla ishlatilib uyushtirilgan fitna (yovmut turkmanlari yordamida) natijasida o'ldirildi. Turkmanlar Xivani egallab Qutlug'murodxonni o'ldiradilar. Siyosiy vaziyat yanada keskinlashgan bir vaqtda taxtni Said Muhammad egalaydi. U siyosiy vaziyatni qo'lga olish maqsadida keskin harbiy choralarni ko'rishga xarakat qiladi va oqibatda turkmanlarga qarshi yurishlarni amalga oshiradi.⁵⁸⁵

1859 yilda Orolbo'yi qabilalari Xivaga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Turkmanlarning qo'llab quvvatlashiga erishgan Muhamma Panoh Orol bo'yini Rossiya tobeligiga topshirish rejasini tuzadi va Orenburg general gubernatoriga maktub jo'natadi. Biroq, Xiva xonining Qo'ng'irotgga katta qo'shin bilan kelishi va uni egallashi bu rejani barbod qildi va bu hududlar Xiva xonligi tarkibida qoldi.

Sayid Muhammadxon 1864 yil 10 sentabrda kasallanib vafot etgach taxtga uning o'g'li Sayid Muhammadxon Rahimxon II (1864-1910 yy.) o'tirdi. Soniy va Feruz nomlari bilan ham ma'lum bo'lgan bu hukmdor Xiva xonlari orasida eng adolatparvar va ma'rifatparvar hukmdor bo'lganligi bois ham 47 yil davomida mamlakatni idora qilgan. Said Muhammad Raxim II ning hukmronligi davrida davlat siyosiy jihatdan birmuncha barqarorlikka erishdi.

Uning zamondoshlari bo'lgan Ogahiy va Bayoniylar asarlarida Sayid Muhammadxon Rahimxon II (Feruz) faoliyatida adolatparvarlik va haqgo'ylik, qattiqqo'llik va talabchanlik bilan, ma'rifatparvarlik esa tashabbuskorlik bilan uyg'unlashib ketganligi haqida ma'lumotlar beradilar. Bu xon o'zining butun hukmronligi davrida el-yurt farovonligi, tinchlik-osiyishtaligi uchun kurashdi. Xonlikda dehqonchilik, sug'orish ishlari, savdo-sotiq va hunarmandchilik taraqqiy etdi. Bu davrda Xorazmda ayniqsa ilm-fan, adabiyot va san'at, me'morchilik yuksaldi. Xonning o'zi "Feruz" taxallusi bilan ijod qilib o'zbek mumtoz adabiyoti

⁵⁸⁵ Ўша жойда.

rivojiga katta hissa qo‘shdi⁵⁸⁶. Feruz saroyiga shoir, tarixnavis, olimu fuzalo, tarjimonu xattot, tabibu sozanda va shunga o‘xshash zamonasining madaniyat arboblari atrofiga to‘pladi. Feruz fan-madaniyat rivojiga katta ahamiyat berdi. U o‘z atrofiga shoiru sozandalarni to‘plab har haftada g‘azalxonlik, she‘rxonlik kechalari tashkil qilgan. Bu haqda Bayoniy bunday yozgan: “Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bila suhbat tuzib, kitobxonlik etdurur erdilar”⁵⁸⁷.

Zamonaviy Xorazm tarixchilari Sayid Muhammadxon Rahimxon II hukmronligini ikki bosqichga ajratadilar. Birinchi bosqich – 1864 – 1873 yillar, xon hukmronligining dastlabki o‘n yilligi bo‘lib, bu davrda Muhammadxon Rahimxon II davlatni mustaqil boshqarib, mamlakatda tinchlik va farovonlikni qaror toptirish, qishloq xo‘jaligi, savdo-sotiq va hunarmandchilik, fan va madaniyatni yuksaltirish yo‘lida ulkan ishlarni amalga oshirdi. Ikkinchi bosqich – 1873 yil avgustdan 1910 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. 1873 yilda Xiva general Kaufman boshchiligidagi rus qo‘shinlari tomonidan bosib olingach, tuzilgan sulhga binoan Xiva xonligi Rossiyaga qaram davlatga aylandi. Bu davrda Muhammadxon Rahimxon II ning faoliyati Rossiya hukumati tomonidan qat’iy cheklandi va nazorat ostiga olindi. Shunga qaramasdan xon o‘zining adolatparvarlik va bunyodkorlik faoliyatini davom ettirdi⁵⁸⁸.

Muhammad Raximxon II hukmronligi yillariga kelib Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga nisbatan munosabati harbiy tus oldi va 1873 yil xonlik chor qo‘shinlari tomonidan mag‘lubiyatga uchratilib, Gandimiyon qishlog‘ida tuzilgan sulhga ko‘ra siyosiy qaram davlatga aylantirildi.

Muhammadxon Rahimxon II vafotidan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Sayid Isfandiyor (1910-1918 yy.) o‘tirdi. Isfandiyorxon xonlik davrini yangiliklardan boshladi. Uning farmoni bilan xonlik aholisi qadimdan to‘lab kelayotgan soliqlarning bir necha turi qisqartirildi. General-mayor unvoniga ega bo‘lgan Isfandiyorxon ham otasi kabi rus hukumatiga tobe edi. Uning davrida xonlikda bir qancha qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tdi. Xon bu

⁵⁸⁶ “Маънавият юлдузлари” Тошкент. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999.

⁵⁸⁷ Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи хоразмшохий. Тошкент, мерос. 1991.

⁵⁸⁸ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2012. 344-345-бб.

qo'zg'olonlarni ruslar yordamida bostirdi. 1918 yil 1 oktabrda turkman Qurbon Muhammad Sardor (Junaidxon)ning buyrug'i bilan Isfandiyorxon o'ldirildi. Hokimiyatni Junaidxon o'z qo'liga oldi. Ammo, u Xiva taxtiga o'tira olmas edi. Shu bois ham Isfandiyorxonning ukasi Said Abdullaxon (1918-1920 yy.) nomigagina xon qilib ko'tarildi. 1920 yil 2 fevralda Xivaga kirib kelgan qizil armiya qo'shinlari Junaidxon lashkarlarini tormor etib, hokimiyatni sovetlarga topshirdi.

Rossiya imperiyasining hukmronligi 1917 yilda barham topgach, 1918 yildan Xiva xonligi bolsheviklar hokimiyatiga bo'ysundirildi, 1920 yilda esa Xorazmda Xalq Sovet Respublikasi tashkil etildi va 1924 yilgacha mavjud bo'ldi.

XIX asr ikkinchi yarmida Qo'qon xonligida siyosiy jarayonlar.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Olimxon (1798-1810), Umarxon (1810-1822) va qisman Muhammad Alixon hukmronligi yillarida (1822-1841) birmuncha kuchli va markazlashgan davlatga aylangan Qo'qon xonligi XIX asr o'rtalariga kelib, siyosiy va harbiy jihatdan inqirozga uchray boshlagan bo'lsada, o'zining kuch - qudratini saqlab turardi. 1842 yilda Buxoro amiri Nasrullo tomonidan xonlik poytaxti Qo'qon shahrining bosib olinishi va xon oilasining o'ldirilishi voqealari ham xonlikning o'z qudratini saqlab qolishiga to'sqinlik qila olmadi. 1842 yilning o'zidayoq amirga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlar natijasida Ming sulolasi qaytadan hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Taxtga qirg'iz-qipchoq zodagonlarining qo'llab-quvvatlashi bilan Sheralixon o'tirdi. Uning taxtga chiqishida ko'maklashgan qirg'iz-qipchoq urug'lari biylar asta-sekin davlat boshqaruvidagi asosiy mansab va lavozimlarni qo'lga kirita boshladilar, bu esa xonlik ichki hayotida siyosiy keskinlikning kelib chiqishidagi asosiy omillardan biri bo'lib qoldi. Bunga qarshilik ko'rsatishga uringan Sheralixon esa 1845 yilda saroy fitnalari oqibatida o'ldirildi.

XIX asr 50-yillari xonlikdagi ichki siyosiy bo'hronlar eng kuchaygan jarayonlar bilan boshlandi. Birinchidan, Sayyid Muhammad Xudoyorxon 1844 yildan buyon taxtga egalik qilib kelayotgan bo'lishiga qaramay, hukmdorlik jilovini to'lalagicha o'z qo'liga ololmagan edi. Dastlabki yillarda Musulmonqul mingboshi va qipchoq amaldorlarining saroydagi

kuchli ta'siri bunga yo'l bermagan bo'lsa, keyingi yillarda o'zaro taxt talashishlar bu imkoniyatlarni yo'qqa chiqargan edi. Bu holni uning hukmronlik yillarida xonlikning turli hududlarida ro'y bergan qo'zg'olonlar, norozilik harakatlarida ham kuzatish mumkin edi⁵⁸⁹.

Ikkinchidan, 50-yillarga kelib, Rossiya imperiyasining bosqinchilik yurishlariga qarshi kurashga ham yetarli e'tibor berilmaganligi va siyosiy ojizlik bosqinchilikning kengayib ketishi va jiddiy tus olishiga, pirovard natijada esa xonlikning halokatga uchrashiga olib kelgan edi.

Xudoyorxon hukmronligi yillarida yuzaga kelgan sharoitda boshboshdoqlik, taxtga bo'ysunmaslik va markaziy hokimiyatga itoatsizlik kuchayib ketdi⁵⁹⁰.

Musulmonqulning o'limi va qipchoqlarning qirg'in qilinishi bilan vaziyat bir muncha ijobiy tus olgandek bo'ldi, biroq, bir tomondan ichki kurashlar va ikkinchi tomondan Rossiya imperiyasining harbiy tajovuzlari tufayli xalqning iqtisodiy ahvoli og'irlashdi va bu eng birinchi navbatda Xudoyorxondan umumiy norozilikning kuchayishiga sabab bo'ldi. Shunday norozilik harakatlaridan biri 1858 yil Toshkent bekligiga qarashli hududlarda bo'lib o'tgan edi.

Bu vaqtda Buxoro amiri Nasrullo O'ratepani qamal qilib, qo'qonliklarni mag'lubiyatga uchratadi va Ho'jandga yurish qiladi. Biroq, amirning yurishi shahar hokimi Yoqubbek Badavlat tomonidan to'xtatiladi va amir chekinishga majbur bo'ladi.

Bu voqealardan so'ng Mallabek xonning akasi sifatida eng nufuzli amaldorlardan Mirzo Ahmad qo'shbegi va Do'stmuhammad dasturxonchilarni Xudoyorxonning yurt va fuqaro holidan bexabar va g'ofil bo'lishida asosiy aybdorlar hisoblab, ularni qatl qilmoqchi bo'ladi. Biroq boshqa amaldorlarning aralashuvlaridan so'ng o'z fikridan qaytib, odamlari bilan Qo'qondan Andijonga ketadi. Bu yerda u o'ziga yaqin tarafdorlarni to'plab, hokimiyatni Xudoyorxondan tortib olish uchun harakat boshlaydi.

Mallaxon yurtda tartib o'rnatish, saroydagi boshboshdoq-liklarni tugatish, o'zaro fitnalarga barham berib, ayni vaqtda kuchayib borayotgan

⁵⁸⁹ Илҳомов З. Аликули Амирлашкар ва унинг Куқон хонлиги сиёсий тарихида тутган урни. Тарих фан ном ...дисс. Т.2004 йил. 17-б.

⁵⁹⁰ Илҳомов З. Амирлашкар тарихи. Т.2013.14-б.

Rossiya imperiyasining bosqinchilik tajovuzini oldini olish maqsadida hokimiyat uchun kurash olib borgan edi. Uning bu maqsadini ko'pgina amaldorlar va davlat arboblari, din peshvolari ham qo'llab quvvatlagan edilar. Biroq, Mallaxonning taxt uchun kurash olib borishi va taxtga kelishi voqealariga bundan avvalgi paytlarda hokimiyat egalari bo'lgan va davlat siyosiy boshqaruviga nihoyatda katta ta'sir o'tkazib turgan qirg'iz - qipchoq zodagonlarining maqsadlari asosida amalga oshirildi, deb qarash noto'g'ri bo'ladi. Garchi bunda katta harbiy kuch va mavqe egalari bo'lgan qirg'iz - qipchoq zodagonlari Mallaxonga yaqindan yordam bergan bo'lsalarda, bu kurash saroydagi hokimiyat uchun intilayotgan kuchlarning o'zaro to'qnashuvi, fitnalar, taxtga bo'ysunmaslik va Xudoyorxonning fuqarolar barcha qatlamlari manfaatlarini ko'zlab siyosat yuritmaganligi, qolaversa bir qancha vaqtlardan buyon taxtni qo'lga kiritishni ko'zlab yurgan Mallaxonning shaxsiy manfaatlari asosida yuzaga kelgan edi, deb ham qarash lozim⁵⁹¹.

Mallaxon taxtga o'tirgach, birinchi navbatda xonlikda tartib o'rnatishga va xon hokimiyatini kuchaytirishga kirishadi. Davlatni boshqarishda Mallaxon qattiq siyosat yuritadi. Qo'qon xonligidagi ichki siyosiy vaziyatni diqqat bilan kuzatib boryotgan rus harbiylari Mallaxonning taxtni egallash voqealarini ham nazardan chetda qoldirmaganlar. Bu haqda Sibir korpusi qo'mondoni general Gosford 1859 yil 4 yanvarda harbiy vazirga yuborgan maxfiy telegrammasida – "Mallabekning xonlik taxtiga o'tirgani tasdiqlandi. Xudoyorxon doimiy yashash uchun Ho'jandga yuborildi va barcha xuquqlaridan mahrum qilindi. Yangi xonni xalq qo'llab - quvvatlamogda", - degan so'zlarni yozgan edi.⁵⁹²

Mallahon xonlikning harbiy salohiyatini oshirishga va Rossiya imperiyasining harbiy tajovuziga qarshi kurashga tayyorgarlik ko'rishga kirishadi. 1859 yil bahorida Buxoro amiri Qo'qon xonligiga qarshi yurish boshlaydi. U Mallaxon oldiga xonlikni ikki qismga bo'lish, Qo'qon va

⁵⁹¹ Илхомов З. Аликули Амирлашкар ва унинг Кукон хонлиги сиёсий тарихида тутган урни. Тарих фан ном ...дисс. Т.2004 йил. 29-б.

⁵⁹² З.Илхомов.Н.Расулова XIX асрнинг 50-йилларида Кўкон хонлигида ички сиёсий зиддиятларнинг кучайиши (манбавий-методологик таҳлил). Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда. Мавзусидаги иккинчи Республика илмий анжумани (илмий мақолалар тўплами). 2012 йил. 157-160-бб.

unga tobe viloyatlarni Madalixonning o'g'illaridan biriga berish, Mallaxonning o'ziga esa Toshkent viloyatiga hokimlik qilish shartini qo'yadi. Biroq, bu shart Mallaxon tomonidan qat'iy rad etiladi. Amir O'ratepani bosib oladi va Nov qal'asiga yurish qiladi. Uni egallagach, bu yerda tajribali qo'mondonlaridan biri Qanoatshoh otaliqni qoldiradi. Biroq, amir ketishi bilanoq, Qanoatshoh Mallaxon tomoniga o'tib, Nov qal'asini tark etadi. Qanoatshohning qo'qonliklar tarafiga o'tishi kuchlar nisbatini Qo'qon foydasiga o'zgartirib yuboradi va Buxoro amiri uchun og'ir oqibatlariga olib keladi va ularni chekinishga majbur qiladi. Oradan birmuncha vaqt o'tgach, Buxoro amiri Shahrizabz tomondan yurish boshlaydi. Bu haqda habar kelishi bilanoq, Mallaxon va Aliquli eshikog'asi qo'shinga bosh bo'lib, Zomin orqali Jizzaxga yuradi. Amirning yurishni kuchaytirganligini eshitib, qo'qonliklar ham o'z yurishlarini to'g'ri Samarqandga qarab davom ettiradilar. Mirzo Olim Mushrifning yozishicha, amir bundan nihoyatda qattiq xavotirlanib, darhol yurishni to'xtatganligini va Mallaxon huzuriga elchi yuborganligini yozadi.⁵⁹³ Amir Muzaffar Samarqanddan qaytgach, muzokaralar boshlandi. Bunda Mallaxon nomidan elchi Boboho'ja Shayxulislom muzokarlarda ishtirok etadi. Natijada ikki davlat o'rtasida Qozoqbuloq mavzesi chegara etib belgilanadi va xonlikning Buxoro bilan munosabatlarida bir oz barqarorlik yuzaga keladi.⁵⁹⁴

1859 yil oxirlariga kelib, Qo'qon xonligining ayrim qal'alari Rossiya imperiyasi harbiy kuchlari tomonidan bosib olinadi. O'lkaning musulmon aholisi bundan nihoyatda tashvishlanib, Mallaxondan kofirlarga qarshi muqaddas urush - g'azovot boshlashni talab qiladilar. Mallaxon, agar xonlikning ichki hududlarida osoyishtalik saqlansa, shu qishda yoki erta bahorda urush boshlashga tayyor ekanligini bildiradi.⁵⁹⁵

Mallaxon Rossiya imperiyasiga qarshi kurashda Buxoro amirligi bilan birlashishga ko'zi yetmagach, Xiva xonligi bilan harbiy ittifoq tuzishga intiladi. 1859 yil noyabr oyi boshlarida shu masalada Xiva xoniga

⁵⁹³ Ансоб ус – салотин ва таворих ул – хавоқин. 65-б.

⁵⁹⁴ Воҳидов Ш.Х. XIX аср иккинчи ярми ва XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнавислик мактабининг ривожланиши. –Т.: 1999. 50-б.

⁵⁹⁵ XIX асрнинг 50-йилларида Қўқон хонлигида ички сиёсий зиддиятларнинг кучайиши (манбавий-методологик таҳлил). 157-160-бб.

elchilar yuboradi. 28 noyabrda har ikki xonlik o'rtasida shartnoma tuziladi va bunga ko'ra, qishda, daryo muzlaganda har ikki xonlikning qo'shinlari chor bosqinchilari ustiga yurish qilishga kelishib oladilar.⁵⁹⁶

Shu bilan bir vaqtda Mallaxon 1859 yil dekabrda o'ttiz kishidan iborat elchilikni imperator huzuriga ayrim siyosiy masalalarni hal etish, jumladan Oqmasjidni qaytarib berishni talab qilib jo'natadi.

Biroq, bu elchilar hech qanday natijaga erisha olmadilar. 1860 yil aprelida Hoja kitobdor boshchiligida Sibir orqali Peterburgga yuborilgan navbatdagi elchilik ham natijasiz tugadi.

So'nggi davrlarda Qo'qon xonligini boshqargan xonlardan faqatgina Mallaxon harbiy sohaga jiddiy e'tibor bilan qaragan edi, unga bu ishlarda Aliquli Amirlashkar ham yaqindan ko'mak bergan edi. - «Bu Turkiston xonlaridan, - deb yozadi tarixchi Isxoqxon Ibrat, - ikki kishi fuqaro va millat uchun harakat etgon edi. Biri bu Amirlashkar va biri marhumi Mallaxon [edi], [ular] to'plar quydurub, miltiqlar yasab, korxonalar qilib, to'plar uzrasig'a kumushlar bila yozuvlar yozib, yaxshi diqqat etgon edi».⁵⁹⁷

Shunga qaramay, 50–yillarning oxiri va 60–yillarning boshlariga kelib, asosan Mallaxon davrida qurollanishga va harbiy ahvolni yaxshilashga e'tibor kuchaydi. 1853 yilda Qo'qonda 30 tagacha, Toshkentda 20 tagacha, Turkistonda 2 ta, Sirdaryo bo'ylab joylashgan qal'alarda 1 tadan 3 tagacha to'p va zambaraklar mavjud bo'lgan bo'lsa, bu davrga kelib ularning soni va sifati ancha o'sdi. Bular asosan Qo'qondagi va Toshkentdagi to'p quyish va miltiq yasash ustaxonalarida tayyorlanar edi. Zambaraklar asosan mis, temir va cho'yandan quyilar edi. To'p quyish uchun mis Rossiya va Sharqiy Turkistondan keltirilardi. Bu xususda Orenburg korpusi qo'mondoni polkovnik Dandevillning harbiy vazirga yozgan quyidagi axborotnomasini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir: - «Turkistonga afg'onistonlik bir kishi keldi va Turkiston hokimiga yangi zambaraklar quyishni taklif qildi. U bu ish bilan Kobulda shug'ullanganligi hamda Yevropanikidan qolishmaydigan portlovchi to'p

⁵⁹⁶ XIX asrning 50–yillarida K'ukon xonligida ichki siyosiy ziddiyatlarning kuchayishi (manbaviy-metodologik ta'lim). 157-160-66.

⁵⁹⁷ Farfona tarixi. –B.308.

o‘qlari yasashni bilishini ham aytdi. Bek buni bajonidil qabul qildi».⁵⁹⁸

Mallaxon qurollarni takomillashtirish bilan birga harbiy tayyorgarlikka ham katta e‘tibor beradi. Bunday harakatlar Aliquli Amirlashkar davrida ham davom ettirildi. Aliquli Amirlashkar o‘z faoliyati davomida muntazam qo‘shin sonini oshirishga harakat qildi va 1863 – 1864 yillarga kelib, xonlikda qirq ming kishiga yetkazildi. Bu qo‘shinlar barcha yirik shahar va qal‘alarga taqsimlangan edi. Amirlashkar buyrug‘i bilan bir kundayoq Qo‘qon yoki Xo‘jandda o‘n–o‘n ikki ming kishilik qo‘shin yig‘ilishi mumkin edi.⁵⁹⁹

Bu qo‘shinlar hamda har bir qal‘a o‘z tug‘i va bayrog‘iga ega bo‘lgan. Masalan, To‘qmoq bosib olinganda, u yerdan ikkita bayroq, cho‘yan to‘p, 11 pilta miltiq, bir qancha pichoq, qilich, nayza hamda 500 kg porox o‘lja olingan. Chimkent bosib olinganda esa, 4 bayroq, 11 tug‘, 19 cho‘yan va 8 mis zambarak chor qo‘shinlari tomonidan o‘lja olingan. Bu o‘ljalar orasida bayroqlar alohida ahamiyat kasb etgan.

Aliquli Amirlashkar boshchiligidagi Qo‘qon lashkarining alambardori Mambet ponsad bo‘lganligi tarixiy manbalardan ma‘lum.⁶⁰⁰ Biroq, xonlik armiyasi bayrog‘ining qanday shakl va ko‘rinishga ega bo‘lganligini afsuski, hozircha aniqlashning imkoni bo‘lmasada, shu o‘rinda arxiv hujjatlarida saqlanib qolgan ma‘lumotlar e‘tiborni jalb etadi: - «Sirdaryo chizig‘ida o‘lja olingan ikki bayroqni sizga yuborishni o‘zimga sharaf deb bilaman. Birinchisi qizil rangli bo‘lib, Turkiston shaxridan olingan, ikkinchisi Oqbuloqdan o‘lja olingan bo‘lib, yaltiroq tovlanuvchi ranglardan iboratdir». Bu bayroqlar Orenburg o‘lkasi qo‘shinlari qo‘mondoni general adyutant Bezak tomonidan 1864 yil 21noyabrda harbiy vazirga yuborilgan. Manbalarda yana ta‘kidlanishicha, Madalixonning Buxoro amiri Nasrulloqa qarshi (1842 y) besh tug‘li lashkar bilan jangga kirgani qayd etilgan. Unda yozilishicha, tug‘lar ko‘k, oq, sariq, qizil ranglarda va bir bayroq qora rangda bo‘lgan.⁶⁰¹

Qo‘qon xonligining harbiy jihatdan oldingi yillarga nisbatan

⁵⁹⁸ ЎзР МДА. 715-ф., 1-р., 23-й.ж. 109-114 - вв.

⁵⁹⁹ Ўрус лашкарининг Туркистонда тарих 1269-1282 саналарда қилғон футухотлари. –Б.59.

⁶⁰⁰ Қаранг: Веселовский В. Киргизский рассказ о русских завоеваниях в Туркестанском крае / Текст, перевод и приложения. – Спб., 1894 –С.5-21; Ўрус лашкарининг Туркистонда тарих 1269-1282 саналарда қилғон футухотлари. –Б.2-7.

⁶⁰¹ Фаройиб ус-сипох. –Б.31а.

qudratga erishuvi, Rossiya imperiyasidek qudratli raqib bilan tengma – teng kurashlar olib borishi bevosita Aliquli Amirlashkarning harbiy sohada ham olib borgan faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Mallaxon davrida olib borilgan harbiy islohotlarda yirik davlat amaldori sifatida Aliquli Amirlashkarning ham xizmatlari katta bo‘lgan bo‘lsada, Sulton Sayyidxon hukmronligi yillarida (1863 – 1865 yy) siyosiy hokimiyatni amalda qo‘lga olgan Amirlashkar bu islohotlarni yanada faolroq olib bordi. Otliq va piyoda qo‘shinlarning jang vaqtidagi harakatlarini muvofiqlashtirish, harbiy taktika va ayniqsa harbiy intizomning mustahkamlanganligi uning rus bosqinchilariga qarshi bergan qaqshatqich zarbalaridan ham seziladi. Aliquli davrida quydirilgan o‘zining sifati, turli hajmdagi o‘qlar otishga mo‘ljallangan o‘lchamlari bilan ajralib turgan. Jang vaqtlarida ularni mohirona ishlata olganlar va shunigdek, avvaldan mavjud bo‘lgan «xitoycha» deb atalgan zambaraklardan ham foydalanilgan.

Aliqulining o‘zi ham janglarda to‘p jangiga rahbarlik qilgan. Bunda albatta, xonlik qo‘shinlarining to‘pchiboshisi hindistonlik Jomador ham katta o‘rin tutgan va xonlikning harbiy qudrati oshib borishida to‘plarning takomillashtirilayotganligi, bunda ayniqsa, Toshkentdagi to‘p quyish korxonasining katta ahamiyat kasb etayotganligi rus manbalarida ham e‘tirof etilgan. Xonlikning ichki siyosiy hayotida davom etayotgan keskinliklar natijasida 1862 yil 23 fevral kuni Mallaxon o‘ldiriladi. Taxtdan quvilgach, yana taxtni egallash ishtiyoqida yurgan Xudoyorxon ushbu vaziyatlardan foydalanib, Buxoro amiri qo‘shinlari yordamida Qo‘qonni egallash uchun harakat boshlaydi. Amir Muzaffar ko‘magida dastlab Ho‘jandni egallagan Xudoyorxon osonlik bilan Qo‘qonni egallaydi. Chunki yuzaga kelgan siyosiy vaziyat qo‘qonliklarga o‘z qo‘shinlarini birlashtirib, buxoroliklarga va Xudoyorxonga qarshi chiqishga imkon bermagan edi. Xudoyorxonning qaytadan taxtni egallashi yana ko‘pgina amaldorlarda va harbiy boshliqlarda norozilik uyg‘otadi. Uning taxtga da‘vogarlik qilib harakat boshlashining o‘zidayoq ko‘plab qirg‘iz, qipchoq urug‘lari avvalgi qirg‘inlarni unutmaganliklari va taxtga ana shu xalqlarni ham boshqalar bilan barobar ko‘rib, ish tutuvchi xon o‘tkazish taraddudiga tushadilar. Bu aynan 1863 yil, Rossiya imperiyasi bosqinchilari xonlikning ichkari hududlariga shiddat bilan bostirib

kelayotgan vaqtlarga to'g'ri kelgan edi.

XIX asrning o'rtalaridan boshlab bir asrdan ortiqroq davom etayotgan Rossiya imperiyasining o'zbek xonliklariga bosqinchilik yurishlari kuchaytirildi. Dastlabki harbiy harakatlar asosan Qo'qon xonligiga qarshi qaratildi. 1853 yilda xonlikning chegara qal'asi hisoblangan Oqmasjid bosib olindi. XIX asrning 50-60 yillar davomida xonlikning bir qator qal'alari va shaharlari, jumladan Avliyoota, Turkiston, Chimkent (1864 y), Toshkent (1865 y) kabi yirik iqtisodiy va siyosiy markazlari ham bosib olindi. Asosiy hududlaridan ajralgan Qo'qon xonligi 1868 yilda Rossiya imperiyasi bilan siyosiy qaramlikka asos bo'luvchi shartnomani imzoladi. XIX asrning 70-yillariga kelib esa xonlikda Xudoyorxonning ichki siyosati va ayni vaqtda Rossiya imperiyasining hukmronligiga nisbatan munosabati norozilik kayfiyatini kuchaytirib yubordi. Hokimiyatni undan tortib olishga harakat qilgan siyosiy kuchlar soxta Po'ladxon – Mulla Isxoq Hasan o'g'li boshchiligida xonga qarshi kurash boshladi. Tez orada bu kurashga xon xonadoni vakillari va yirik amaldorlar ham qo'shildi va 1875 yilda Xudoyorxondan taxtni tortib oldi. Biroq Nasridinxon (1875-1876 yy) boshchiligidagi yangi hukumat mamlakatning siyosiy barqarorligini ta'minlay olmadi va oqibatda xonlikda yangidan fuqarolar urushi xavfi yuzaga keldi. Bu vaziyatdan chiqish uchun kurashni Rossiya imperiyasiga qarshi qaratgan Nasridinxon va Po'ladxonlar muvaffaqiyatsizlikka uchradilar. 1875-1876 yillar davomida bo'lib o'tgan shiddatli janglardan so'ng 1876 yilda Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan butunlay bosib olindi va mustaqil davlat sifatida tugatildi.

Xonliklar iqtisodi va iqtisodiy markazlar, ichki va tashqi savdo munosabatlari. Buxoro amirligi iqtisodi va iqtisodiy markazlar. Buxoro amirligidagi asosiy xunarmandchilik markazlari sifatida shaxarlar kata o'rin tutsada, ayrim yirik qishloqlarda xunarmandchilikning ba'zi turlari rivoj topdi. Butun o'rta asrlarda bo'lganidek, xunarmandlar bu davrda xam o'z uyushmalari-kasaba, sexlarga ega bo'lib, ularning tashkil topishi ma'lum turdagi maxsulot ishlab chiqarish jarayoni ustidan nazorat o'rnatishga, bu soxada o'z monopoliyasini, ya'ni maxsulotni ishlab

chivqarishga boʻlgan yagona xuquqini saqlash va raqobatga dosh berishga intilish bilan bogʻliq edi. Xunarmandchilikning barcha soxalarida bunday uyushmalar mavjud boʻlib, uni saylab qoʻyiladigan kishi-rais yoki oqsoqol boshqargan. Odatda bunday lavozimga tajribali va katta xurmatga ega boʻlgan keksa kishilar saylangan.

Xunarmandlar ishlab chiqargan maxsulotlarining narxini belgilashda, turli soliqlarni yigʻishda, usta va yollanib ishlaydigan shogir (xalfa) munosabatlarini, xoʻjalik munosabatlarini olib borishda uyushma raisining vazifasi katta boʻlgan.

Xunarmandlar oʻz uyushmalariga ega boʻlsalarda, oʻzlariga tegishli aloxida ustaxonalarda ishlaganlar. Xar bir ustaning oʻz yordamchilari, shogirdlari boʻlib, odatda shogirdlikka ustaning oʻgʻillari yoki qarindoshlari olingan. Chertdan shogird yollash juda kam uchraydigan xolat boʻlib, xunarmandchilik sirlari avloddan-avlodga, otadan-oʻgʻilga oʻtib, kelgan.

Buxoro amirligida oldingi davrlaridagidek toʻqimachilik xunarmandchilikning yetakchi tarmogʻi boʻlib qoldi. Uning taraqqiyoti, bir tomondan ichki va tashqi bozorda bu turdagi maxsulotlarga talab kattaligi tufayli, ikkinchi tomondan maxalliy xom ashyo manbalari (paxta, jun, ipak) yetarli ekanligiga bogʻliq edi. Toʻqimachilikning ip yigirish, matolar (boʻz, alacha, chit) toʻqish, tayyor kiyimlar tikish, gilamchilik va boshqa soxalari ancha rivojlangan edi. Buxoroning zarbof toʻnlari, Shaxrisabzning Iroqi doʻppilari, Samarqandlik ustalarning ipak buyumlari, ayniqsa mashxur edi.

Kulolchilik amirlikning koʻpgina joylarida rivojlangan edi. Uning asosiy markazlari Gʻijduvon, Qarshi, Shaxrisabz, Kattaqoʻrgʻon va boshqa shaxarlar boʻlib, bu yerlik kulollar maxsulotiga talab ancha yuqori boʻlgan. Bu davr kulolchiligida Oʻrta Osiyoning koʻpgina kulolchilik rayonlariga xos boʻlgan motivlar (turli gul va oʻsimliklar tasviri, geometrik naqshlar), turli xayvonlar, qushlar, xasharotlarni yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kosagar ustalar tomonidan keng qoʻllanilgan.

Rossiya imperiyasi istilosidan keyin bu mamlakatdan keltirilayotgan fabrika maxsulotlari (chinni) ning koʻpayishi bilan Oʻrta Osiyoda

kulolchilik bir qadar orqaga ketdi. Lekin bu narsa ko‘proq Turkiston general-gubernatorligi xududidagi yerlarga qarashli bo‘lib, amirlikda esa bu soxa yanada rivojlanib bordi. Maxalliy kulollar endi gul uchun vazalar, yirik dekorativ vazalar, mevalar qo‘yish uchun mo‘ljallangan idishlar yasab, o‘z maxsulotlari turlarini yanada ko‘paytirdilar.

Metallsozlik. Amirlikda metallga ishlov berish va metall buyumlar yasash xam yetarlicha rivojlangan edi. Xonlikning tog‘lik tumanlari (Shaxrisabz, Boysun, Sherobod)da qadim davrlardan boshlab turli ma‘danlar qazib olingan bo‘lib, bu konlardan foydalanish ba‘zi tanaffuslar bilan to XX asr boshlarigacha davom etdi.

Metallga ishlov berish va metall buyumlar yasashni o‘z navbatida yanada mayda tarmoqlarga bo‘linib ketadigan 4 asosiy turi – temirchilik, misgarlik, cho‘yan quyish (degrezlik), rixtagarlik turlari xam mavjud bo‘lib, bu soxalarda mexnat qurollari bilan bir qatorda kundalik va maishiy turmushda boshqa soxalarda zarur bo‘ladigan ko‘plab buyumlar ishlab chiqarilar edi. Temirchi ustalar (chilangarlar) qishloq xo‘jaligida va kundalik turmushda ishlatiladigan mexnat qurollari yasaganlar. Ko‘pgina shaxarlarda temirchi ustalarning maxsus maxallalari (Temrchi, Guzari chilangaron) borligi xunarmandchilikning bu turi ancha taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Misgarlik asosan yirik shaxarlarda rivojlangan. Misgar ustalar turli idishlar, chilim va boshqa buyumlar yasashgan. Mis asosan Rossiyadan keltirilgan. Misdan ishlangan idishlarga nafis naqshlar tushirilgan bo‘lib, ular ichki bozor extiyojini to‘liq ta‘minlab qo‘shni o‘lkalarga xam chiqarilgan. Cho‘yan quyish yoki degrezlik metallga ishlov beruvchi kustar sagnoat turlari ichida katta ahamiyatga ega edi. Degrezlar asosan shaxarlarda maxsus guzarlarda yashaganlar. Ular cho‘yandan qozon, chiroq, manqaldon va boshqa buyumlar yasashgan. Rixtagarlikda bronzadan ko‘proq foydalanilgan. Rixtagarlar Buxoroning deyarli xamma shaxarlarida mavjud edi. Bu ustalar turli buyumlar, taqinchoqlar yasaganlar, ba‘zi mis idishlarning qismlari, bo‘yni, dastasi kabilar bronzadan yasalgan.

Xunarmandchilik turlari ichida zargarlik xam qadimiy xunarmandchilik soxalaridan biri sanalgan. Zargar ustalar qimmatbaxo toshlar va metallardan, rangli shishalardan turli taqinchoqlar yasaganlar.

Buxoro zargarlarining maxsulotlari o'z chiroy va nafisligi bilan ancha mashxur bo'lgan.

Xunarmandchilik turlari ichida ko'nchilik (teriga ishlov berish, charmgar), yog'ochga ishlov berish-duradgorlik, turli oziq-ovqat maxsulotlari tayyorlaydigan (novvoylar, oshpazlar, baqqollar va boshqalar) xunarmandchilik turlari xam mavjud bo'lganligini aytib o'tish lozim.

Amirlikdagi xunamarmandchilik faqatgina shaxarlardagina emas, balki yirik-yirik qishloqlarda xam rivojlangan bo'lib, xunarmand ustalarning asosiy maxsulotlari ichki bozor extiyojini to'liq ta'minlab qolmasdan, tashqi bozorga xam chiqarilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi hududlarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi davlat iqtisodiy hayoti va moliya xo'jaligida katta yo'qotishlarga olib keldi. Xazinaga kelib tushadigan soliqlar va turli yig'implarning miqdori davlat hududlarining qisqarishi evaziga yildan-yilga kamayib bordi. Ayni vaqtda amirlikning qolgan hududlarida Rossiya imperiyasi sanoatchilari tomonidan bir qator zavod va fabrikalarning qurilishi, temir yo'lining kirib kelishi, rus banklari filiallarining ochilishi esa bu yerda sanoat ishlab chiqarishning yuzaga kelishi, ayni vaqtda qishloq xo'jaligi, xususan chorvachilik, qorako'chilik, ipakchilik, paxtachilik maxsulotlariga talabning ortib borishi esa bu sohalarning ma'lum darajada kengayib borishigi sharoit yaratdi.

Buxoro amirligida yerga egalik munosabatlari iqtisodiy hayotda katta ahamiyatga ega bo'lib, yer egaligining davlat, xususiy, vaqf kabi turlari bo'lgan. Qishloq aholisining katta qismi yersiz dehqonlar bo'lib, ular ijaraga yer olib ishlaganlar. Shahar aholisining asosini tashkil qilgan hunarmandlar hayoti ham og'ir soliqlar sababli juda qiyin kechgan. Buxoro amirligining xalq xo'jaligida dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq sohalari katta ahamiyat kasb etgan. Aholidan xiroj, zakot, boj, to'la, yaksara, nimsara kabi soliqlar undirib olingan⁶⁰².

Xiva xonligi va Buxoro amirligining Rossiya imperiyasining mustamlakalari ekanligi va bu davlatlarning boshqaruvi va ayni vaqtda

⁶⁰² O'zbekiston tarixi. R.Murtazfyeva tahr. ost. Toshkent, 2005. 253-b.

ularning tashqi siyosiy va iqtisodiy munosabatlari ustidan nazorat qilish bevosita Turkiston general-gubernatorligi vakolatlariga kiritilgan.⁶⁰³

Amirlik iqtisodiyotidagi bu sifat o'zgarishlari soliqlar tarkibi va yo'nalishlarini o'zgartirishga va ularni zamon talablariga moslashtirishga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi va ularning miqdori hamda soni o'zgarib bordi. XX asr boshlariga kelib (1912 y) Buxoro amirligida jami soliqlarning taxminan 55 foizi yer solig'ini tashkil qilgan bo'lsa, savdodan olinadigan soliq miqdori 37 foizga yaqin, chorvadan keladigan soliq daromadi esa 8 foizdan ortiqroq bo'lgan. Pul ko'rinishida bu tegishli ravishda taxminan 1850 ming so'm, 1225 ming so'm, 270 ming so'mni, jami 3345 ming so'mni tashkil qilgan.⁶⁰⁴

Yer solig'i ikki xil shaklda olingan bo'lib, birini muvozip – bir xil miqdorda to'lanadigan xiroj tashkili etgan bo'lsa, ikkinchisi muqosima deb atalib, bu xirojning miqdori har yili yig'ilgan hosilning miqdoriga qarab mahsulot bilan to'lanishi belgilangan. Bunda bog'dorchilik mahsulotlariga deyarli bir xil miqdorda soliqlar belgilangan.

Yerga egalik qilish shakllari (vaqf, mulk, amlok) orasida amlok yoki davlat yerlari ustunlik qilardi. Amlok yerlar davlat mulki hisoblanib, mayda tarqoq daxqon xo'jaliklari tasarrufida edi. Amlok yerlardan olingan butun mahsulot ikki qism: amir va dexqonlarnikidan iborat bo'lardi. Ulardan olingan xiroj va jami mahsulot o'rtasidagi nisbat viloyatlarda bo'yicha turlicha miqdorda bo'lgan.

Buxoro qo'shbegisining 1912 yil 14 oktabrda Rossiya siyosiy agentligiga bergan ma'lumotida ta'kidlanishicha, «xiroj bazi viloyatlarda aholidan hosilning o'ndan biridan beshdan birigacha, boshqalarda to'rtidan biridan uchdan birigacha miqdorda, boshqalarida esa bir tanga (15 tiyin)dan undirilmoqda». Bunda xirojdan tashqari, mahalliy ma'muriyat foydasiga ko'plab qo'shimcha yig'imlar ham yig'ib olingan.⁶⁰⁵

Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bilan xiroj pul shaklida undiriladigan bo'ldi. Bunda soliq miqdori hosilga qarab soliqchilar

⁶⁰³ Алимджанов Б.А. Экономическая политика Российской империи в Туркестанском генерал-губернаторстве (вторая половина XIX-начало XX вв.). Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Санкт-Петербург –2016. С.40.

⁶⁰⁴ “Давлат бюджети” фанидан маърузалар матни. Т.2007. 5-б.

⁶⁰⁵ “Давлат бюджети” фанидан маърузалар матни. Т.2007. 6-б.

tomonidan belgilangan hamda amir tomonidan tasdiqlangan baholarga asosan oʻrnatilgan.

Mustamlaka tizimining iqtisodiy sohada amalga oshirib borgan siyosati natijasida XIX asrning oxiri-XX asrning boshlariga kelib, Buxoro amirligi bozorlari ham imperiya sanoat mahsulotlari tomonidan egallandi. Amirlikning qishloq tumanlari esa mustamlaka manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda paxta yetishtirishga moslashtirila boshlandi. Ayniqsa bu davrda paxtaning Amerika navini yetishtirish joriy etildi. Garchi bu paxtachilik sohasida mahalliy dexqonlar uchun yangilik boʻlsada, biroq u kutilgan natijani bermadi.

Bu paxta navi mahalliy paxta navlardan farqli ravishda munosabat talab qilib, chanoqlar ochilgach, hosilni zudlik bilan terib olishni talab qilar edi. Hosilni baholash esa bir qancha kechikishlar bilan, yaʼni u oʻz qimmatini yoʻqota boshlaganda amalga oshirilishi natijasida paxtakorlar bu navni yetishtirishda voz kecha boshladilar. 1912 yilda Buxoroda banklar, paxtachilik sanoati vakillari ishtirokida oʻtkazilgan kengashda hosilni oldindan baholash maqsadga muvofiq emasligi va soliqqa tortishning tanob tizimiga oʻtish haqidagi masala qoʻyildi. Biroq bu takliflarni Buxoro hukumati qoʻllab-quvvatlamadi.

Buxoroda tanob yigʻimi yer soligʻi turlaridan biri edi. U xiroj-muqosima qoʻllanilib boʻlmaydigan tez buzuladigan mahsulotlardan olinar edi. Masalan, bir tanob uzumzordan 12 tanga, bedazordan 8 tanga undirilar edi.⁶⁰⁶

Buxoro amirligi iqtisodiyotida chorvachilik aloxida oʻrin egallardi. Bu yerda bir necha yuz ming bosh mol boqilardi. Chorvachilikdan koʻrilgan daromadlarga maxsus soliq-zakot joriy qilingandi. 1902 yilda zakotning rasmiy ravishda quyidagi miqdorlari joriy etilgan: besh bosh tuyadan – bitta qoʻy; 40-100 bosh qoʻy yoki echkidan - bitta qoʻy yoki echki; 101-200 tasidan – ikkita qoʻy yoki echki va xokazo. Chorva mollari vaqti-vaqti bilan roʻyxatdan oʻtkazilib, har 500 boshdan qoʻshimcha bitta qoʻy yoki echki olinardi.

Tovar-pul munosabatlarining rivojlanib borishi natijasida zakotni pul shaklida undirish uchun sharoit yaratildi. Yigirmanchi asrning dastlabki

⁶⁰⁶ “Давлат бюджети” фанидан маърузалар матни. Т.2007. 7-б.

o‘n yilligida xo‘jalikda kamida 40 ta qo‘y yoki echki bo‘lganida, har bir qo‘y xisobidan 0.5 tanga, har bir echkidan chorak tanga miqdorida soliqni undirilgan.⁶⁰⁷

Buxoro amirligining soliq tizimida savdo va xunarmandchilik ko‘riladigan daromadlarga soliq solish ikkinchi o‘rinda turardi. Buxoro amirligining 1884 yilda Rossiya bojxona chegarasiga kiritilganligi Angliya-Xindiston tovarlarining amirlikka kirish yo‘lini to‘sdii hamda Rossiya imperiyasi bilan savdo munosabatlarining yanada kengayishiga olib keldi. Buxoro bilan tuzilgan shartnomaga ko‘ra rus savdogarlari Rossiyada chor xukumatiga qancha miqdorda boj to‘lasalar, shuncha miqdordagi zakotni to‘lash majburiyatini oldilar.

Zakot bilan xunarmandchilik daromadiga solinadigan soliq darajalari o‘rtasida farq mavjudligini Rossiya va Buxorodagi bir xil sarmoyadan olinadigan soliq miqdorlarida ko‘rinadi. Sarmoya 30 ming so‘mgachani tashkil etsa, zakot foydali edi. 30 ming so‘mdan oshganda soliq miqdori asosan bir-biriga to‘g‘ri kelardi. Ammo sarmoya bir mln so‘mdan ortiq bo‘lganida xunarmandchilik solig‘i 750 so‘m, zakot esa 25 ming so‘m miqdorida undirilgan.⁶⁰⁸

Shunday qilib, zakot yirik Rossiya firmalari uchun zarar keltirsa, mayda va o‘rta savdogorlar uchun foydali bo‘lgan. Xunarmandchilik solig‘idan buxorolik savdogarlar manfaat ko‘rishgan.

Ichki savdoda zakotga qo‘shimcha tarzda aminona-chetga chiqariladigan tovarlar va mahalliy ishlab chiqarish buyumlaridan yig‘imlar olingan. Ushbu yig‘im miqdorlari tovarlar bo‘yicha tabaqalashtirilib, qisman eksport mollariga ham qo‘lanilgan. Masalan, bir botmon paxtadan 5.5 tanga (82.5 tiyin), bir botmon jundan 7 tanga, qorako‘l terilaridan – ular qiymatining 2 foizi, bir bosh otdan bir tanga 2 puli, tuyadan – 2 tanga, qo‘ydan - 24 puli undirilgan.⁶⁰⁹

Boj – savdodan olinadigan soliqlarning bir turi bo‘lib, u o‘rta asrlarda ham mavjud bo‘lgan. Mazkur yig‘im karvonlardan yoki bir hududdan boshqasiga mol olib boradigan savdogarlardan undirilardi. Bundan tashqari, savdodan bir martalik yig‘im-tagijoy va tarozu haqi ham

⁶⁰⁷ Ўша жойда.

⁶⁰⁸ “Давлат бюджети” фанидан маърузалар матни. Т.2007. 8-б.

⁶⁰⁹ Ўша жойда.

olingan. Xorijiy va maxalliy savdogarlar, shuningdek, bir qator qo‘shimcha rasmiy yig‘imlarni ham to‘lashgan.

Buxoro amirligida tashqi savdo. Xiva xonligi va Buxoro amirligining Rossiya imperiyasining mustamlakalari ekanligi va bu davlatlarning boshqaruvi va ayni vaqtda ularning tashqi siyosiy va iqtisodiy munosabatlari ustidan nazorat qilish bevosita Turkiston general-gubernatorligi vakolatlariga kiritilgan.⁶¹⁰

Bunda Buxoro amirligining tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalardagi har bir xatti-harakati diqqat bilan kuzatib turilgan. Agarda Buxoro amirligiga yoki u bilan hududlari tutash bo‘lgan turkmanlar yerlariga general-gubernatorlikning Angliya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan nazoratisiz yoki ruxsatisiz savdo uchun tovarlar kiritiladigan bo‘lsa, u holda bu mollar ortga qaytarib yubrilgan yoki musodara etilib, kim oshdi savdosiga qo‘yib sotib yuborilgan, ayrim hollarda agar mollarning egasi aniqlanmasa, tovarlar yo‘q qilingan.⁶¹¹ Aksariyat hollarda inglizlar nazorati ostida bo‘lgan hududlardan Buxoro amirligiga sitrus mevalar, ziravorlar, qimmatbaho toshlar, bo‘yoqlar olib keltirilgan.⁶¹²

Tadqiqotchi B.Alimdjanovning ko‘rsatib o‘tishicha, Buxoro amirligi XIX asrning so‘nggi choragida aniqrog‘i 1894 yilga qadar Rossiya va Turkiston general gubernatorligi uchun choy savdosida mintaqadagi asosiy raqobatchilardan biri bo‘lib, ikkinchi raqobatchi sifatida Hindistonning Bombay viloyati bo‘lganligi ko‘rsatib o‘tiladi.⁶¹³

Choy Turkiston o‘lkasiga asosan ikkita yo‘nalish bo‘ylab yetkazib berilgan bo‘lib, birinchi yo‘nalish Bombeydan. Temir yo‘l orqali Peshovarga, undan so‘ng karvon yo‘llari orqali Afg‘oniston orqali Amudaryo bo‘yidagi Kalifga va u yerdan Buxoroga keltirilgan bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish Bombay portlaridan dengiz orqali Karochi shahriga yoki Bandar Abbas portiga, u yerdan esa karvon savdo yo‘llari orqali Eronning Dushak shahri orqali Buxoroga keltirilgan va har ikki holatda ham Buxoro orqali choy Turkiston general-gubernatorligi va Rossiya

⁶¹⁰ Экономическая политика Российской империи в Туркестанском генерал-губернаторстве (вторая половина XIX-начало XX вв.). С.40.

⁶¹¹ Кўрсатилган асар. С.126.

⁶¹² Ўша жойда.

⁶¹³ Экономическая политика Российской империи в Туркестанском генерал-губернаторстве (вторая половина XIX-начало XX вв.). С.130.

hududlariga yetkazib berilgan.⁶¹⁴

Bu yo‘llar birinchidan, savdo-sotiq va yuk tashish nuqtai-nazaridan juda havfli yo‘nalishlar sanalsa, ikkinchidan, yo‘lga va yuk tashishga ketadigan harajatlarning o‘zi ham anchagina qimmatga tushardi, shuning uchun 1894 yilda Xitoydan Batumi portiga tranzit savdo yo‘li yo‘lga qo‘yilgach, choy savdosidagi munosabatlarda keskin o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bombay choy savdosidagi mavqeini yo‘qotgan bo‘lsa, aksincha, choy bilan savdo qiluvchi savdo shirkatlari o‘zlarining faoliyatini endi Xitoyning Shanxay shahriga qaratdi. Choy Shanxaydan Batumiga yo‘naltirildi, u yerdan Bokuga va Krasnovodsk orqali Buxoroga va Samarqandga keltirila boshlandi. Yo‘l harajatlari 8-9 rubldan 4 rublgacha kamaydi va Buxoroning O‘rta Osiyoda choy savdosidagi yetakchilik mavqeiga katta zarba berilgan edi.⁶¹⁵

Amirlik xukumati chet ellik va rus savdogarlarining Buxoro bozoriga shiddat bilan yopirilib kelayotganliklarini, natijada mahalliy savdogarlarni siqib chiqarilayotganini nazarda tutib, buxoroliklar manfaatlarini muxofaza qilish maqsadida bir qancha chora tadbirlarni ko‘rdi. Zakot qorako‘lga ham joriy etila boshlandi. Rus savdogarlariga 2.5% miqdorida soliq solindi, xorijliklar esa, har 10 ta qorako‘l terisi uchun 500 so‘m miqdorida qo‘shimcha soliq to‘laydigan bo‘ldilar. Buxorolik savdogarlarga boshqa mamlakatlarning savdo firmalari bilan raqobatda tenglashishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiya-Buxoro savdo va diplomatik aloqalari ancha rivojlandi. Bunda 1774-1776, 1779-80 yillarda Ernazar Maqsudov boshchiligida va 1797-yildagi Polvonquli qo‘rchi elchiliklari katta ahamiyat kasb etdi. XIX asr boshlarida Rossiya-Buxoro aloqalari ancha faollashdi. Bu XIX asrning 20-yillarida O‘rta Osiyoga suqilib kirishga harakat qilayotgan inglizlar bilan ruslar o‘rtasidagi raqobatning keskinlashuviga olib keldi. Amirlik qo‘shni xonliklar Afg‘oniston, Hindiston, Eron davlatlari bilan ham savdo aloqalari olib bordi. Yirik savdo-sotiq markazi bo‘lgan Buxoroda 1848 yilda 38 ta karvonsaroy, 9 ta tim va ko‘plab bozorlar mavjud bo‘lgan⁶¹⁶.

⁶¹⁴ Ўша жойда.

⁶¹⁵ Кўрсатилган асар. С.131.

⁶¹⁶ O'zbekiston tarixi. R.Murtazfyeva tahr. ost. Toshkent, 2005. 253-b.

Ernazar Maqsudov
(Ernazar elchi)

Mulla Muhammad Ernazarbiy Maqsud o'g'li (XVIII asr, Buxoro) - Buxoro amirligining Rossiyaga yuborgan elchilari rahbari, yirik savdogar. Madrasada o'qigan. 1745 yildan boshlab, Rossiyaga bir necha marta tijorat maqsadida borib, imperator Yelizaveta Petrovna qabulida bo'lgan. Savdo ishlari bilan Xuroson va Hindistonga ham borgan. Keyinchalik Buxoro hukmdori Doniyolbiy otaliq tomonidan Rossiyaga yuborilgan 2 ta elchilik missiyasi (1774-76 va 1779-80 yy) ga boshchilik qilgan. Birinchi elchilik tarkibida 64 kishi va 20 ta ozod qilingan rus asirlari bo'lgan. Ular 1774 yil 1 sentabrda Ashtarxon (Astraxon) shahriga kelishgan va Astraxon generalgubernatori P.Krechetnikov huzurida bo'lishgan. 1775 yil 14 martda Moskvaga yetib kelishgach, 1775 yil 5 aprel kuni Rossiya imperatori Yekaterina II tomonidan rasmiy ravishda qabul qilingan. Bu elchilik natijasida Buxoro bilan Rossiya o'rtasida mustahkam savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan, savdo karvonlari xavfsizligi uchun Emba daryosi bo'yida qal'a qurilgan. Rossiyaning chegara shaharlari - Orenburg, Astraxanda Buxoro savdogarlaridan olinadigan bojxona solig'i kamaytirilgan, ichki shaharlarda O'rta Osiyo savdogarlarining erkin harakat qilishi kafolatlangan. Ikkinchi elchilik 1779 yil o'rtalarida boshlangan, elchilik tarkibida 28 kishi bo'lgan. Ernazar elchi boshchiligida elchilar 1780 yil yanvarda Moskva va Peterburgga yetib kelishgan. Elchilik natijasida buxorolik savdogarlar Rossiyadan ko'p miqdorda mis, po'lat va cho'yan sotib olishga muvaffaq bo'lganlar. Ernazar elchi Rossiyada o'z vazifasini to'liq uddalagach, Turkiyaga ham elchilik maqsadida borgan. Ernazar elchi o'sha yerda vafot etgan. Ernazar elchi Buxoroda madrasa qurdirgan⁶¹⁷.

Buxoro amirligida asosan xunarmandchilik sanoati rivoj topib, u ip, yarim ipak va shoyi gazlamalar, gilamlar, kigizlar, poyabzal, ot egar-jabdug'i, metall va sopol idishlar, cho'yan, temir va chilangarlik buyumlari, kunjut va zig'ir moyi, kalava va gazlama bo'yoqlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. Rossiya sarmoyasining suqulib kelishi oqibatida xunarmandchilik sanoatining ayrim tarmoqlari raqobatga dosh berolmadi. Uning ba'zi tarmoqlarigina taraqqiy topdi.

⁶¹⁷ Гуламов Х.Г., Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством XVIII в., Т., 1992. Қаранг: Ражабов Қ. Эрназар элчи. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. 195-бет.

Amirlikda davlat daromadlarini xasash (davlat xazinasiga tushuvchi daromadlar) va beshlik (maxalliy ma'muriyat tasarrufiga tushuvchi daromadlar) tashkil etadi.

Bulardan tashqari aholi majburiy xashar ishlariga ham jalb etib turilgan.

Xiva xonligi iqtisodi va iqtisodiy markazlar. Xiva xonligi iqtisodiy hayotida qishloq xo'jaligi alohida muhim o'ringa ega edi. Xonlikda yer egaligi uch hil shaklda bo'lib, davlat yerlari, vaqf yer egaligi va hususiy yer egaligi shakillaridan iborat bo'lgan. Davlat yerlari odatda xon va uning yaqinlariga tegishli bo'lib, odatda ular suv manbalariga yaqin hosildor yerlardan iborat bo'lgan. Davlat xazinasiga xonning shaxsiy mulki sifatida qarash hukmron edi.

Hususiy yer mulklar ichida yirik mansabdor, harbiy-ma'muriy va diniy amaldorlarga tegishli yer-mulklar katta foizni tashkil etardi. Qishloq jamolari egalik qiladigan yerlar dexqonlarga odatda 8-12 tanobdan bo'lib berilgan.

Vaqf yerlariga odatdagidek, masjid va madrasalarga, qabristonlarga tegishli yerlar kirgan va ulardan olinadigan daromad shu joylarning sarf-harajati uchun ishlatilgan.

Voha iqtisodining asosini dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etib, dehqonchilikda Amudaryoning quyi oqimidan olingan ko'plab kanallar va ariqlar muhim o'rin tutgan. Bu ariq va kanallar orasida eng yiriklari quyidagi 11 ta sugorish shaxobchasi edi: Pitnak kanali, Polvon kanali, Qazovot kanali, Shohabbaz kanali, Yarmish kanali, Qilich Niyoz biy kanali, Qorako'z kanali, Arna kanali, Bo'zsuv kanali, Suvvoli Xon kanali.

Bulardan tashqari yana ko'plab o'rtacha kattalikdagi va uzunlikdagi sugorish kanallari va ariqlari ham voha dexqonchiligi uchun qo'l kelgan. Qishloq xo'jaligida paxta, sholi va ekinlar yetishtirish, bogdorchilik va poliz ekinlari ekish keng tarqalgan va rivojlangan edi. Biroq xonlik xududlarida ipakchilik yaxshi rivojlanmagan edi. O'troq ahvoli ham o'z xo'jaliklarida chorva mollari boqsalarda, biroq chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan asosiy talablarini chorvadorlar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar yordamida qondirganlar. Chorvachilikda asosan

bir o'rkachli tuyalar, ot va qo'y boqilgan.

Hunarmandchilik ham xonlik iqtisodiy hayotida alohida o'ringa ega bo'lib, hunarmandchilik va xalq amaliy san'atning Xiva xonligi xududlarida o'ziga xos maktabi yaratilgan edi. Xonlikda har bir shaharda ko'plab hunar turlari bilan shugullanuvchi hunarmandlar mavjud edi. Ular faqatgina ichki bozorni o'z mahsulotlari bilan ta'minlabgina qolmasdan, balki tashqi savdoga ham ajoyib hunarmandchilik mahsulotlarini chiqarar edilar. Tashqi savdoda chetdan qo'rg'oshin, mis, temir, chuyan kabi metallar va metall buyumlar asosan Rossiyadan, oltin, kumush, hunarmandchilik mahsulotlari hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari Buxoro, Qo'qon, Eron va Rossiyadan keltirilgan va o'z navbatida Xiva xonligida ham chetga shunday mahsulotlar va nafis hunarmandchilik mahsulotlari chiqarilgan.

Xivalik savdogarlar tranzit savdo aloqalarida ham faol ishtirok etganlar va bu yerlardan o'tadigan savdo karvonlaridan olinadigan boj yig'implari ham xonlik xazinasiga kattagina daromad keltirib turgan.

Xiroj va zakot kabi asosiy soliqlardan tashqari turli yigimlar va majburiyatlar mavjud bo'lgan.

Savdo munosabatlarining taraqqiyoti Xorazmni Buyuk Ipak yo'lining Markaziy tarmoqlari kesishgan markazlardan biriga aylanishiga, turli sohalarga ixtisoslashgan ayniqsa, savdo munosabatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan savdo markazlarining vujudga kelishiga olib kelgan.

Butun Sharq shaharlari iyerarxik tuzilishidagi muayyan shaharlarning tutgan o'rni, ko'p hollarda, uning ijtimoiy - iqtisodiy imkoniyati va karvon yo'llari bilan aloqasi, savdo munosabatlariga qanday tortilganligi bilan belgilangan. Xullas, aynan shu sabablarga ko'ra, Xorazm savdo markazlari to'g'risidagi turli-tuman ma'lumotlar IX asrdayoq paydo bo'la boshlagan edi. Shaharlarning taraqqiy qilishda savdoning ahamiyatini sharq geograflari, tarixchi va sayyohlari ham tushunib yetganlarki Xorazm shaharlari tavsifnomasida, albatta, bozorlar, karvonsaroylar, atrofidan qanday karvon yo'llari o'tganligi haqida qayd qilib o'tganlar. Bu asarlar Xorazm savdo markazlari haqida ma'lumot beruvchi birinchi darajali va tengi yo'q manbalar hisoblanadi. Bular ichida Istaxriy va Muqaddasiy

asarlari ayniqsa ajralib turadi. Chunki ular asarlarida Xorazm savdo markazlarining tavsifi, Xorazm iqtisodiy geografiyasi, shaharlar va qishloqlarning savdo munosabatlari, bozorlari va karvon-saroylariga katta e'tibor berilgan. Umuman, IX-XIII asrlar manbalarining deyarli barchasida Xorazm nafaqat Movarounnahr balki butun Musulmon Sharqining eng taraqqiy qilgan, shaharlari ko'p, dehqonchilik chorvachilik, hunarmandchilik gullab-yashnagan, va, bu bilan bog'liq ravishda savdo munosabatlari juda rivojlangan hududlardan biri sifatida ko'rsatib o'tiladi. Ammo, bu iqtisodiy va madaniy yuksalish mo'g'ul boqini munosabati bilan biroz to'xtab qolgan. Bir oz vaqtgacha Xorazm shaharlari vayrona ichida qoldi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, mo'g'ul bosqini ham juda qadimdan shakllanib, rivojlanib kelayotgan Xorazm shahar madaniyati tarqqiyotini butunlay to'xtatib qo'ya olmadi. Xorazm vohasi mehnatkashlarining yaratuvchanlik mehnati tez orada, iqtisod va madaniyat bilan bir qatorda, Xorazm savdo markazlarining, ayniqsa uning Oltin O'rda davlati tarkibiga kirgan qismi (mo'g'ul bosqinidan so'ng Xorazm Oltin O'rdaga kiruvchi Shimoliy Xorazm va Chig'atoy ulusiga kiruvchi Janubiy Xorazmga bo'lingan edi) shaharlarning o'z qaddini tiklab olishga olib keldi.

XIX asrning 50-yillarida Kaltaminor, Bog'yop, Amirobod, Saribiy kanallari va boshqa qator-qator katta kichik sun'iy sug'orish inshootlari barpo etildi.⁶¹⁸

Bulardan tashqari yana ko'plab o'rtacha kattalikdagi va uzunlikdagi sug'orish kanallari va ariqlari ham voha dexqonchiligi uchun qo'l kelgan. Qishloq xo'jaligida paxta, sholi va ekinlar yetishtirish, bordorchilik va poliz ekinlari ekish keng tarqalgan va rivojlangan edi. Biroq xonlik xududlarida ipakchilik yaxshi rivojlanmagan edi. O'troq aholi ham o'z xo'jaliklarida chorva mollari boqsalarda, biroq chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan asosiy talablarini chorvadorlar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar yordamida qondirganlar. Chorvachilikda asosan bir o'rkachli tuyalar, ot va qo'y boqilgan.⁶¹⁹

⁶¹⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакачилиги даврида. 50-б.

⁶¹⁹ Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 246-б.

Asosiy sugʻorish manbai Amudaryo edi. U Hinduqush togʻining 4000 metr balandlikdagi Shimoliy yonbagʻridan boshlanib, Pomirdaryoga kelib qoʻshilguncha Vaxandaryo deb ataladi. Pomirdaryo Vaxshga kelib quyilguncha Panjdaryo deb ataladi. Ular: Vaxandaryo, Pomirdaryo, Gung, Bartangdaryo va Vang.

XVIII asrning 70-yillarida Davkar koʻliga quyiladigan irmoqlarda toʻgʻonlar qurildi. Ayni vaqtda Amudaryo deltasidagi aholi yangi ariqlar ochib, Chumanoy va Changli Posu irmoqlaridan gʻarb tomondagi yerlarda ekin ekishardi.

XIX asrning birinchi yarmida bir qancha kanallar qurilganligini esga olish lozim. 1815 yilda Daryoliqning oʻng sohilidagi yerlarni sugʻorish uchun Qilich Niyozboy katta kanali qurilgan, 1831 yilda Koʻqna Urganchni sugʻorish uchun Lavzan koʻlidan ariq chiqarilgan, 1846 yilda kanaldan chiqarilgan suv Amudaryoning eski oʻzaniga yetib kelgach, bu yerda toʻgʻon qurilib, Koʻhna Urganch janubidagi yerlarni sugʻorish imkoni yaratildi, 1847 yilda bu yerdagi kanallar kengaytirildi va oʻzaytirildi.⁶²⁰

Amudaryo oqimining doimo oʻzgarib turishi, uning toshqin vaqtlari keltiradigan tashvishlari serloyqa Amu suvining arna va ariqlarga qum uyumlarini toʻplash mahalliy deqqonchilik uchun har yili qoʻshimcha meqnat sarflanishini talab etgan ayniqsa, Amudaryoda aprel, may, iyun oylari suv toshqini koʻp boʻlgan. Toshqinlar paytida qudratli daryo oqimi qirgʻoqdagi sunʻiy inshootlarni, uy hovlilarni, ekin dalalarini yemiradi, qishloq va toʻqayzorlarni suv bosib ketar edi. Bunday ofatdan saqlanish uchun aholi daryo boʻylab tuproqdan katta damba (qachi) tiklaganlar. Aksincha suv tanqis boʻlgan paytda sunʻiy kanallarning saqasiga qoʻshimcha inshootlar qurganlar. Masalan, Xivaning asosiy suv manbai Polvonyopda suv yetmaganda ishlatish uchun 6 ta saqa qurilgan - Toshsaqa, Piryongan, Chagʻallaqarka, Xavazak (Beshariq), Kacheneva va Toʻgʻriteshik. Bundan tashqari, qishda va erta bahor paytlari barcha suv tarmoqlarini, ayniqsa, boshkanal va yonlarni bir necha marta qazib chuqurlashtirganlar, qoʻshimcha dambalar qurganlar. Qoʻshimcha kanal,

⁶²⁰ Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. 141-б.

arnalar qazish, ularni ta'mirlash, yo'llarni va qal'alarni tuzatish kabi turli jamoatchilik ishlari majburiy tarzda o'tkazilgan.

Odatda bunday ishlar erta bahorda boshlanib 12 kun yoki undan ko'proq vaqt davom etgan. Har 10 tanob yer "bir suv" hisoblanib, bir qazuvchiga ajratilgan. Agar yer hajmi undan oz bo'lsa, bir necha deqqon xo'jaligi birikib suv jamoasi (jabdi)ni to'zib bir qazuvchini o'zlari odatda 20 tadan birikib bir guruh tashkil qilganlar va qar guruh o'z orasidan rais (jabdi boshi), jamoa ishlarini bajaradigan xizmatkor va qo'shchini saylagan. Bunday ishlar suv ochilguncha baxor paytida o'tkazilgan. Zarur oziq-ovqat, ish qurollari va ko'rpa to'shakni qar bir qazuvchi o'zi keltirgan. Undan tashqari har bir qazuvchi maxsus soliq "afanak puli" to'lagan. Har bir jabdiga muayyan ariq (yon) qismi ajratilgan. Qazuvni boshqaruvchi xon amaldorlari (sohibkor) tayinlangan, unga har bir qishloqning vakili (yasovul) bo'ysungan.

Xiva xonligida suv inshootlarini ta'minlash va tozalash uchun 700 mingga yaqin ishchi kuni sarflangan.

Suv taqsimoti muayyan tartibda maxsus ma'muriyat (mirobchilik) tomonidan boshqarilgan. Qazuv odatda suv boshidan boshlangan. Yop har yili qazilavergan, undan chiqqan loyqa chiqindisi yon tomonga otilaverib, ikki tomonda tuproq uyumi paydo bo'ladi, buni rosh deydilar. Loy ishi uchun kancha degan bel yasatilgan, u temir belkurakning kichik nusxasi bo'lib, ust tomoniga yarim doira shaklida qalin sim tortilgan bo'lgan. Eng keng tarqalgan ish quroli bel va ketmon bo'lgan.

XIX asrda Xiva xonligining 380 ming botmon sug'oriladigan yerining 100 ming botmonidan ko'prog'i xon, to'ra, katta amaldorlar va mulkdorlarning boshqa toifalariga tegishli edi. Yer sug'orilgan - axya va sug'orilmagan - adra yerlarga bo'linar edi. Dashtlar, to'qaylar, botqoqliklar va yaylovlar adra yerlariga kirar edi. Davlatga qarashli yerlar podsholik yoki amlok yerlari deb atalardi. Ularga ijarachi deqqonlar ishlov berardi. Bundan tashqari yarimchilar ham bor edi. Ular ijara uchun xosilning yarmini berardi.

Hunarmandchilik ham xonlik iqtisodiy hayotida alohida o'ringa ega bo'lib, hunarmandchilik va halq amaliy san'atning Xiva xonligi xududdarida o'ziga xos maktabi yaratilgan edi. Xonlikda har bir shaharda

ko‘plab hunar turlari bilan shug‘ullanuvchi hunarmandlar mavjud edi. Ular faqatgina ichki bozorni o‘z mahsulotlari bilan ta‘minlabgina qolmasdan, balki tashqi savdoga ham ajoyib hunarmandchilik mahsulotlarini chiqarar edilar. Tashqi savdoda chetdan qo‘rg‘oshin, mis, temir, chuyan kabi metallar va metall buyumlar asosan Rossiyadan, oltin, kumush, hunarmandchilik mahsulotlari hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlari Buxoro, Qo‘qon, Eron va Rossiyadan keltirilgan va o‘z navbatida Xiva xonligida ham chetga shunday mahsulotlar va nafis hunarmandchilik mahsulotlari chiqarilgan.⁶²¹

XIX asrgacha mavjud bo‘lgan pul zarb qilish ishlari Muhammad Rahimxon davriga kelib isloh qilindi. XIX asr boshida Xivada yangidan zarbxona tashkil etilib, oltin tangalar (tilla), kumush (tanga), mis (pul yoki qora pul) hamda Abbosiy, Shoxi pullar zarb qilingan. Zarb qilish vaqtida oltin tangalarning yuza tarafiga hukmronlik qilayotgan xonning ismi yorliqlari bilan, teskari tomoniga esa, zarb qilingan joy nomi bitilgan. Mis tangalarning yuza tarafida "puli" so‘zi, teskari tomonida esa "Xorazm" so‘zi zarb etilgan. Xiva xonligida Rossiya mustamlakachiligi o‘rnatilgunga qadar tillaning kattasi (3 so‘m 60 tiyin), pul (5 tiyin), shoxi (32 tanga) pullar muomalada bo‘lgan.

Asosiy pul birligi tilla va tanga bo‘lgan. Katta tilla 18, kichigi esa 11 tangaga teng bo‘lgan. Tanga 32 pulga teng bo‘lgan. Lekin tilla doim ham tangaga teng bo‘lavermagan.

Nebolsin so‘zlariga qaraganda, Xiva tillasining bir misqoli tibbiy o‘lchamga xos bo‘lgan (69-70,5 g) og‘irlikka teng bo‘lgan. Uning narxi kumushda 3 so‘m 43 tiyindan 4 so‘m 30 tiyingacha borgan.⁶²²

Tanga zarb qilish uchun foydalaniladigan oltin va kumushlar aralashmasiz bo‘lgan. Xiva tillasidagi metall og‘irligi o‘rtacha 60 dolni, tangada esa 54,8 dolni tashkil etgan. 1892 yilda Peterburgdagi zarbxonada Xiva va Buxoro kumush tangalarining tekshiruvda ularning tarkibidagi qimmatbaho metallarning ulushi aniq ko‘rsatib berilgan⁶²³. Xiva tangasida kumushning vazni va sifati Buxoro amirligidagi kabi bo‘lmasa ham Xiva

⁶²¹ Ўша жойда.

⁶²² Небольсин П.И. Статистические записки о внешней торговле Россией со Средней Азией, СПб, 1856. С. 55.

⁶²³ Ўша жойда.

pul birligi boshqa O'rta Osiyo xonliklari pul birliklaridan kam farq qilgan. Xonlik iqtisodiyotida pul muomalasi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xiva pul birliklari qiymati kumush va tillaning narxlariga qarab o'zgarib turgan.⁶²⁴ Xiva pul birligi qiymatining o'zgarishini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

Xivaga tangalarni zarb qilish uchun kumush Rossiyadan quyma va tanga tarzida keltirilgan. XIX asrning so'nggi choragida kumushni Nijniy Novgoroddan bir funtini 24-26 so'mdan sotib olganlar. Har bir funt kumushdan 163-165 tanga zarb qilingan. Bundan xazina 7-8 so'm daromad olgan.

Shu tariqa pullardagi kumush va oltin tarkibi tartibsiz belgilangan. Bundan tashqari muomala jarayonida ular o'zining dastlabki vaznini yo'qotib borgan. Lekin shunday bo'lsa ham tangalar o'zining pul vazifasini bajargan va muomala vositasi bo'lib xizmat qilgan.

1890 yilda Rossiya moliy vazirligi davlat banki va xazinasiga xazina to'lovlari sifatida O'rta Osiyo tangalarini qabul qilish to'g'risida ko'rsatma berdi. Bu choralar muomaladagi tangalarni banklarga yig'ishga qaratilgan edi. Lekin ko'zlangan natijaga erishilmadi. 1893 yilda jaxonda kumush narxining tushib ketganligi sababli tijorat bankining Buxoro bo'limi Buxoro va Xiva hududlariga tangalar olib kelishni kuchaytirdi. Tanga kursi birdan tushib ketadi. Lekin 90-yillar oxirida u yana yigirma tiyingacha ko'tariladi.⁶²⁵

Pul qiymatining o'zgarib turishi mehnatkashlar ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Soliqlar to'lash va mahsulot sotib olishda ularga tanga kursiga qarab to'lashga to'g'ri keladi. Pul qiymatining o'zgarishi faqat qishloq xo'jalik mahsulotlari narxiga ta'sir qilgan, sanoat mahsulotlari narxi esa o'zgarishsiz qolgan. Muomalada bo'lgan Xiva kumush tangalari miqdori ichki bozor talablariga mos kelmasdi. Tanga qiymati birdan o'zgarardi.⁶²⁶ Buni quidagi ma'lumotlarda ko'rishimiz mumkin.

⁶²⁴ Статистические записки о внешней торговле Россией со Средней Азией. Стр.16-17

⁶²⁵ Исмаатов И. Россиянинг Ўрта Осиёга ва Эрон билан бўлган савдо-алоқасида Нижний Новгород ярмаркасининг ахамияти. (XIX аср хоирини XX аср боши) т.ф.н. Д.Т. 1973, 106-бет.

⁶²⁶ Россиянинг Ўрта Осиёга ва Эрон билан бўлган савдо-алоқасида Нижний Новгород ярмаркасининг ахамияти. 128 бет.

Shu tariqa XX asr boshida Xiva tangalari qiymati Buxoro tanga qiymatidan yuqori edi. Tashqi bozorda ularning narxi rus dvugriveni (20 tiyin tanga) bilan teng edi.

Xiva bozorlarida ikkita rus va Xiva pul birliklarining muomalada bo'lishi Xiva sarroflarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ular o'z manfaatlaridan kelib chiqib, tanga qiymatini sun'iy ravishda oshirar yoki pasaytirar edilar. Rossiya hukumatining Xiva xonligi iqtisodini o'z manfaatlariga xizmat qilishga bo'ysundirish maqsadida amalga oshirgan ishlaridan biri pul sohasi bo'lib, Xiva xonligi qaram davlatga aylangan paytda pul zarb qilish huquqini o'zida saqlab qolgan edi. Xonlikda mis, kumush va oltindan pul zarb qilingan bo'lib, misdan tayyorlangani "pul", kumushdan tayyorlangan "tanga", oltindan tayyorlangan "tilla" deb nomlangan. Shulardan muomalada tangadan ko'proq foydalanilardi. Rus savdogarlari orqali xonlikka Rossiya pullari ham kirib keldi. Mahalliy aholi rus pullariga ishonch bildirmay, undan foydalanmadi. Ayrim rus pulini qabul qilganlar ham, uni past qiymatda qabul qildilar.⁶²⁷

Xiva xonligining tashqi savdo aloqalari. Xiva xonligi Rossiyaning O'rta Osiyodagi boshqa mustamlakalari qatori uning sanoat mahsulotlari sotiladigan bozorga aylana bordi. Katta imtiyozlarga ega bo'lgan rus savdo-sotiq doiralari xonlikda o'z faoliyatlarini kengaytirdilar. Xiva xonligi shaharlarida ko'plab savdo firmalarining vakolatxonalari ochildi.

70-yillarda ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalarida Orenburg firmalari Dyukova, Vanyushina, Vesnitsa, Konshina shuningdek Qozon va Astraxan savdogarlari, Adamov, Ibragimov, aka-uka Salimjonovlar savdo uyi va boshqa savdo firmalari xonlikda savdo operatsiyalarini o'tkazganlar. Masalan 1876 yilda aka-uka Vanyushinlar baliqchilik firmasini tashkil qildilar, bu firma Xivaga baliqchilikka kerak bo'lgan buyumlar, qayiq yetkazib berdi, buning natijasida 80-yillarda Quyi Amudaryoda 105 ta mayda baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonlar va 250 ta qayiq mavjud bo'lgan.

Rus savdogarlari 1873 yil oxiri 1874 yil boshlarida xonlikda dastlabki "Savdo sa'noat sherikchiligi"ni tashkil qildilar. Shu yillarda

⁶²⁷Россиянинг Ўрта Осиёга ва Эрон билан бўлган савдо-алоқасида Нижний Новгород ярмаркасининг ахамияти. 101-бет.

xonlikda Moskva va Vladimir savdogarlari va fabrikantlari aktiv faoliyat yuritishdi.⁶²⁸

Xiva xonligining Rossiya bilan qilgan savdosida O'rta Osiyo temir yo'li goyat katta rol o'ynaydi, uning qurilishi o'lkalardagi ichki savdoni ancha kengaytirib, savdo yo'llarini ham o'zgartirdi va ikki davlat o'rtasida savdo munosabatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Kaspiy Orti temir yo'lining qurilishidan keyin xonlikda rus savdo-sotiq doiralarning faoliyati yanada kengaydi, xonlik shaharlarida savdo omborxonalari va aksionerlik jamiyati idoralari ochila boshlandi. Bu davrda Rossiya to'qimachilik sanoati uchun eng kerakli xom ashyo paxta bo'lib O'rta Osiyo xonliklari esa paxta yetkazib beruvchi davlatga aylanib qoldi. Ular O'rta Osiyoda paxtachilikni rivojlantirib Rossiya kapitali yurt sanoatini chet el xom ashyosidan ajratib olmoqchi edi. Rus kapitali firmalari O'rta Osiyoda sifati yaxshi bo'lgan Amerika paxta navini o'stirish bilan qiziqqan edilar. 1885 yildan boshlab O'rta Osiyoda Amerika paxtasi ekila boshlanib, 80-yillarning oxirida paxta sotuvga chiqarila boshlandi. Rus firmalari xonlikda paxta tozalash zavodi qurish uchun, omborxonalar va idoralar qurish uchun yer maydonlarini sotib olib boshladilar.⁶²⁹

Yuqorida aytganimizdek ikki davlat o'rtasidagi savdo munosabatlarida rus savdogarlariga xonlikda savdo qilish uchun rus hukumati tomonidan barcha sharoitlar yaratilgan. Rus savdogarlari xonlik savdogarlaridan ancha ustun turgan. Rus savdogarlari Xiva bozorlarida o'z mahsulotlarini xoxlagan narxlarida sotib, savdoda ancha foyda ko'rishgan.

Xiva savdogarlarining ham savdo munosabatlarida o'z o'rnini bo'lib ularning ayrimlari rus savdogarlari bilan birga savdo-sotiq ishlarida teng huquqli bo'lib, yuqori mavqega ega bo'lishgan.⁶³⁰

80-yillarga kelib xonlik savdogarlarining soni Rossiyada ancha oshgan Xiva xonligi kanselyariyasining bergan ma'lumotlariga ko'ra 1887 yil Rossiyaga Xivadan 30 ta savdogar kelgan. Ulardan 25 tasi Xivalik savdogarlar, 5 tasi Yangi Urganchlik savdogarlardan bo'lgan. Xiva savdogarlari xonlikda turli xil mahsulotlar asosan paxta xom ashyo

⁶²⁸ Ўша жойда

⁶²⁹ Садиков А.С. Экономические связи Хивы с Россией. Т. II. 1965. С 58.

⁶³⁰ Садиков А.С. Экономические связи Хивы с Россией... с 59.

eksporti bilan shugʻullanganlar. Rus savdogarlari ham xonlikda asosan paxta savdosi bilan shugʻullanganlar. 1881 yilda Orenburg-savdogarlari Dyukova va Ropsovlar xonlikda 45 ming pud paxta olib chiqqan boʻlsalar, 1882 yil 60 ming pud, 1884 yil 75 ming pud paxta Rossiyaga chiqarilgan.⁶³¹

Yuqoridagilardan shuni koʻrish mumkinki Rus Xiva savdo eksportida asosiy oʻrinda paxta xom-ashyosi turgan. XIX asrning 70-90 yillarga kelib ikki davlat oʻrtasidagi savdo-sotiq ishlarida Orenburg va Nijniy Novgorod yarmarkalari oʻrni katta ahamiyat kasb eta boshladi. Bu yarmarkalar ikki davlat oʻrtasidagi savdo munosabatlarida asosiy vazifa boʻlib xizmat qilardi.

Rossiya bilan Xiva oʻrtasidagi bu yarmarkada savdoning eng rivojlangan davri XIX asrning oxirlari boʻlgan. Xiva savdogarlari yarmarkaga paxta, charm, qorakoʻl, hunarmandchilik buyumlar chiqarganlar. Maʼlumotlarda xonlik savdogarlari Nijniy Novgorod yarmarkasiga 1879 yil 4082700 soʻmlik, 1880 yil 5354725 soʻmlik, 1881 yil 5793125 soʻmlik, 1882 yil 6931200 soʻmlik, 1883 yil 4444725 soʻmlik, 1884 yil 3812045 soʻmlik, 1885 yil 4606750 soʻmlik, 1886 yil 6177525 soʻmlik, 1887 yil 596515 soʻmlik, 1887 yil 5965150 soʻmlik, 1888 yil 6953460 soʻmlik, 1889 yil 5686625 soʻmlik mahsulot olib borganlar.⁶³²

Xiva savdogarlari yarmarkada oʻz mahsulotlarini sotish bilan birga, bu yerdan rus mollarini xonlik bozorlariga ham olib kelib sotishgan. Xiva savdogarlari mahsulotlarni kumush tangada sotib olganlar. Yarmarka ikki davlat oʻrtasida savdo-sotiq munosabatlarida mahsulot sotish va sotib olishdagi asosiy bozor boʻlgan.⁶³³

XIX asrning 80-yillarida xonlikka Rossiyadan koʻproq sanoat mahsulotlari eksport qilingan. Xonlikdagi savdo vositachilarining magʻlumotiga koʻra yiliga bu yerga hammasi boʻlib, 43770 pud mahsulot olib kelingan. Shulardan 1000 puddan ortiq temir, 1000 pudga yaqin

⁶³¹ Ўша жойда

⁶³² Россиянинг Ўрта Осиёга ва Эрон билан бўлган савдо-алоқасида Нижний Новгород ярмаркасининг ахамияти. 106-бет.

⁶³³ Ўша жойда.

cho‘yan, 17000 pud manufaktura mahsulotlari, 1100 pud atttorlik mollari va 1682 pud boshqa mahsulotlar tashkil etgan.⁶³⁴

Xonlik bozorlarida rus savdo firmalari mahsulotlari narxi baland bo‘lgan, ular xonliklarda yetishtirilgan mahsulotlarning narxlarini tushirishga harakat qilganlar. Natijada 80-yillarda paxta, teri, ipak ishlab chiqarish kun sayin o‘shishiga qaramasdan, Xiva dehqonlari 70-yillarga qaraganda bu mahsulotlardan kam daromad olardi.⁶³⁵

Xiva xonligidan XIX asrning 80-yillarida 400 m. pud maxsulot eksport qilingan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 90-yillarga borib 1265 m pudga yetdi.⁶³⁶

XIX asr mobaynida Xiva xonligi savdo munosabatlarni faqat Rossiya bilan olib bormasdan xonlik kam miqdorda bo‘lsa ham o‘zining qo‘shni davlatlari bilan ham savdo-sotiq aloqalarini olib borgan. Rus-Xiva savdo aloqalari davrini ikki bosqichga bo‘lish mumkin: birinchi bosqich 1868 yildan 1895 yilgacha bo‘lib, bunda Xiva xonligi o‘zining qo‘shni davlatlari bilan muhim savdo aloqalarini olib borgan. Bu davlatlar, Buxoro, Turkiston o‘lkasi, qozoqlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar va Amudaryo bo‘limi, Afg‘oniston, Fors, Xindiston, Xitoy davlatlari bo‘lib xonlikning iqtisodiy xayotida ushbu davlatlar muhim ahamiyat kasb etgan. Xonlikning tashqi savdosida Buxoro amirligi muhim o‘rin tutgan. Buxorodan Xivaga choy, doka, nil buyog‘i, ipak mahsulotlari, barxat, oyoq kiyimlar, gilamlar, tamaki mahsulotlari, buxoro qog‘ozi, mayiz, yong‘oq, bodom, pista, turli xil mevalar, davolovchi vositalar, xunarmandchilik buyumlari, rus va chet davlatlarining mahsulotlari olib kelingan.

Qozoq, qoraqolpoq, turkmanlar va Amudaryo bo‘limidagilar xonlikka kigiz, pista ko‘mir, qo‘y, tuya, arxar va boshqa turli xil mahsulotlarni olib kelishgan.

Turkiston o‘lkasidan esa oziq-ovqat mollari kiritilgan. Ayniqsa xonlikning o‘ziga yaqin qo‘shni bo‘lgan turkmanlar bilan savdo-sotiq ishlari ahamiyati katta bo‘lgan. Turkmanlar Xivaga ko‘proq chorva,

⁶³⁴ Садиков А.С. Экономические связи Хива с Россией... 67-б

⁶³⁵ Ёўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодали ер эгалиги ва давлат тузилиши.- Т.: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1959. 38-б.

⁶³⁶ Россиянинг Ўрта Осиёга ва Эрон билан бўлган савдо-алоқасида Нижний Новгород ярмаркасининг ахамияти. 112-бет.

hunarmandchilik sanoat buyumlarini, mis tangalar, eksport qilgan bo'lsa, xonlikdan mahalliy mahsulotlar eksport qilingan. Turkman savdogarlari xonlikka chet davlat mollarini ham olib kelishgan. Ashxobod va Chorjo'y shaharlarida xivaliklarning karvonsaroylari bo'lgan.

Shu tariqa xonlikning qo'shni davlatlari bilan savdo-sotig'ida asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari asosiy savdo mollari bo'lgan. Chunki bu davlatlarning iqtisodiyoti qishloq xo'jaligiga asoslangan edi.

Qo'qon xonligi iqtisodi va iqtisodiy markazlar. Qo'qon xonligi shaharlarida hunarmandchilikning turli sohalari rivojlangan. Shuningdek, ba'zi shaharlar hunarmandchilikning ayrim turlari faqatgina shu yerda rivojlanganligi bilan ajralib turgan. Hunarmandlarining asosiy mashg'ulotlaridan biri to'qimachilik hisoblangan. To'qimachilikning asosiy xom-ashyosi mahalliy dehqonlar tomonidan yetishtirilgan paxta edi. Xonlikda keng tarqalgan to'qimachilik mahsuloti bo'z yoki karbas deb nomlangan. XVIII asr 70 - yillarida O'rta Osiyo xonliklari, xususan, Qo'qon xonligida bo'lgan Filipp Yefremov - "Qo'qon va uning shaharlarida ipak va yarim ipak mahsulotlari, bo'z ishlab chiqarish hamda ulardan chopon va boshqa buyumlar tayyorlash rivojlangan, qo'qonliklar savdoda buxoroliklar bilan raqobatlasha oladilar", - deb yozgan edi⁶³⁷.

Xonlikda Qo'qon va Toshkent shaharlarida bo'z to'qish rivojlangan va sifati bo'yicha ham taniqli hisoblangan. Xususan, Toshkentda "ko'k bo'z" va "oddiy bo'z" turlari ko'p to'qilgan va mahalliy aholi bilan bir qatorda qo'shni hududlarda yashovchi chorvodor aholi tomonidan ko'plab harid qilingan. Xonlik shaharlarida to'qilgan mahsulotlarning bir qismini olacha tashkil etgan. Olacha matosining asosiy haridori chorvodor qozoq va qirg'izlar hisoblanib, ular savdo qiladigan asosiy markazlar - Toshkent va Namangan shaharlarida bu matoni tayyorlash rivojlangan. XIX asr 70 - yillarida Namangan bozorida bir rubl turadigan arzon va chidamli olacha matosining bir yaktak va bir ishton chiqadigan bo'lagi uchun qirg'izlar bir

⁶³⁷ Кўқон хонлигида савдо муносабатлари. 33-б.

yarim yasharlik echki bergan bo'lsa, shunday matoning ikki bo'lagiga esa yetilgan qo'yni almashtirganlar.⁶³⁸

Qo'qon to'quvchilarining mahsulotlaridan yana biri chit edi. Chitgarlar bo'zga mahsus tayyorlangan qoliplarda turli rangdagi gul bosishgan va bu mato chit hisoblangan. Chitgarlik nihoyatda nozik va murakkab kasblardan bo'lib, xonlik shaharlari orasida sifatli chit tayyorlashda Toshkent yetakchi bo'lgan. XIX asrga oid ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qon va Qashg'ardan Toshkentga har yili katta miqdorda oq bo'z keltirilib, chitgarlarga topshirilgan. Chitgarlar matolarni bo'yashda buzg'unj, tuhmak, safsar rang, mosh rang, ro'yan kabi mahalliy bo'yoqlardan foydalangan⁶³⁹.

Qo'qon xonligi aholisining asosiy mashg'ulotlaridan biri ipakchilik bo'lib, ipak va ipak matolar mamlakatning tashqi savdodagi asosiy mahsulotlaridan biri edi. XIX asr 60 - yillari oxirlarida, Qo'qon va Marg'ilonning o'zida to'qqiz yuzga yaqin xonadon ipakchilik bilan shug'ullangan bo'lib, har bir oilada 1 tadan 3 tagacha to'quv dastgohi bor edi. Oilaning 2 - 3 a'zosi shu ish bilan mashg'ul bo'lgan va har bir oila haftasiga ikki qadoqdan besh qadoqqacha ipak tayyorlagan. Taxminiy hisoblarga qaraganda Qo'qon va Marg'ilonda ishlab chiqarilgan ipakning yillik miqdori 5.560 pudga teng bo'lgan.

Xonlikda tayyorlangan ipak ancha sifatli bo'lib, mamlakat bozorlari xom ipak va ipak matolari bilan mashhur edi. Qo'qon xonligi hunarmandlari tomonidan tayyorlangan ipak sifatiga qarab - "chilla", "tafil", "sarnoq" va boshqa navlarga bo'lingan. Shuningdek, xonlikda ipak mahsuloti yigirilib, kalava ham tayyorlangan. Mamlakatdagi eng yuqori sifatli kalava "namanganniki" hisoblangan. Ipakdan turli matolar to'qishgan. Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va Xo'jand hunarmandlari ipak matolar (shoyi, atlas va h.k.), yarim ipak matolar (beqasam, banoras, adras) ishlab chiqarganlar. Xonlikning yirik bozorlaridan biri hisoblangan Marg'ilonda ipak va ipak matolar savdosi yil davomida qizg'in amalga oshirilgan. Qo'qon xonligi xunarmandlari tomonidan tayyorlangan matolar orasida atlas taniqli hisoblangan. Marg'ilonda bu gazlama "atlas" yoki

⁶³⁸ Ўша жойда 34-б

⁶³⁹ Агзамова Г. А. Сўнги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. - Т., Ўзбекистон, 2000.-Б. 19.

"jiba arqoq" nomi bilan mashhur bo'lgan. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1876 yil Qo'qonda 276 ta shoyi, 428 ta ip-gazlama to'qish ustaxonasi, 232 yigiruv dastgohi va yiliga 3000 arshin atlas ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan ko'plab ustaxonalar ishlab turgan.⁶⁴⁰ Shuningdek, Xo'jandda ham "duriya" nomi bilai ataluvchi atlas turi ishlab chiqarilgan bo'lib, bu mato Marg'ilon hamda Qo'qonda tayyorlangan atlaslardan qolishmagan va xonlik bozorlaridan tashqarida ham ancha mashhur bo'lgan. Vodiy shaharlarida tayyorlangan matolar katta miqdorda Toshkent bozorlariga keltirilgan va bu mahsulotlar shu turdagi Toshkent matolari bilan raqobat qila olgan⁶⁴¹.

Qo'qon xonligida yetishtirilgan ipak va paxta xom-ashyosi hamda ulardan tayyorlangan mahsulotlar O'rta Osiyoning ichki bozorlarida o'ziga xos mavqeiga ega bo'lgan. Biroq, bu mahsulotlar qo'l mehnati asosida tayyorlangan va aksariyat xollarda ularning sifati talab darajasida emasligi, XIX boshlaridan Urta Osiyo bozorlariga ingliz va rus mollarini kirib kelishi bilan raqobatbardoshlik qobiliyatini yo'qotdi. Natijada, Qo'qon xonligi ham boshqa Urta Osiyo xonliklari kabi xom-ashyo yetishtiruvchi mamlakatlardan biriga aylana boshlagan.

O'rta Osiyo xalqlari orasida ro'zg'orda keng ishlatiladigan kulolchilik mahsulotlariga talab doimo katta bo'lgan. Buxoro va Xiva xonliklari kabi Qo'qon xonligi ham o'ziga xos kulolchilik maktabiga ega edi. Qo'qon xonligi kulolchilik markazi Rishton shahri hisoblanib, bu yerda tayyorlangan mahsulotlar nafaqat shahar, balki qishloq aholisi ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Xonlikda ko'plab qurilishlar olib borilishi natijasida katta shaharlarda g'isht quyadigan xumdonlar vujudga kelgan. Xususan, Rossiya istilosiga qadar Namangandagi Yangiariq kanalining chap qirg'og'ida g'isht quyuvchi xumdonlar bo'lgan va ularda tayyorlangan g'ishtlar mahalliy inshootlarni barpo qilishda, madrasa, masjid, karvonsaroy va boshqa qurilish ishlarida keng foydalanilgan .

⁶⁴⁰ Агзамова Г. Марғилон хунармандчилигига оид айрим маълумотлар // Марғилон шаҳрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференцияси материаллари. - Тошкент - Марғилон., 2007. - Б. 115.

⁶⁴¹ Қўқон хонлигида савдо муносабатлари.. 38-б

Xonlikda yog‘och va metalga ishlov berish, temir buyumlar ishlab chiqarish ham o‘ziga xos tarzda rivojlangan. Qo‘qon, Toshkent, Namangan va Andijon shaharlarida yog‘ochga ishlov beruvchi, temir buyumlar ishlab chiqaruvchi va boshqa ko‘plab ustaxonalar mavjud bo‘lib, ular asosan bozorlardagi xunarmandchilik do‘konlarida joylashgan. Ularda tayyorlangan mahsulotlar do‘konlarning o‘zida sotilgan. Xonlik shaharlarida hunarmandlarning bunday do‘konlari ko‘pchilikni tashkil etib, XIX asrda birgina Qo‘qonning o‘zida 400 ga yaqin misgar, 100 ga yaqin kandakor faoliyat yuritgan. Shuningdek, Rossiya istilosiga qadar Toshkentda 100 dan ortiq temirchilik ustaxonasi mavjud bo‘lib, ularda tayyorlangan buyumlar xonlik va qo‘shni dasht aholisi tomonidan qadrlangan⁶⁴². Xonlikning daryo bo‘ylarida va ularga yaqin hududlarida joylashgan shaharlarida qayiqsozlik va kemasozlik ham taraqqiy etgan. Bu shaharlar jumlasiga Qo‘qon, Toshkent, Namangan va Xo‘jand shaharlarini misol qilish mumkin. Metallga ishlov berish va undan turli buyumlar yasash markazi sifatida xonlikdagina emas, balki O‘rta Osiyoda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shaharlaridan biri Namangan hisoblangan. Kurolozlik rivojlangan bu markazda miltiq va qilichlar tayyorlangan⁶⁴³. Temirchilik xonlikning boshqa shaharlarida ham taraqqiy etgan. Xususan, Chust, Shahrixon, Qo‘qon, Poytug‘, Qorasuv shaharlari Farg‘ona vodiysining 5 ta metall buyumlar, asosan, pichoq ishlab chiqarish markazlari bo‘lib, ularning uchtasining bozori Andijonda joylashgan.

Qo‘qon xonligida taraqqiy etgan o‘ziga xos hunarmandchilik turlaridan biri aravasozi edi. Aravasozi Qo‘qon, Toshkent, Namangan va Marg‘ilon shaharlarida rivojlangan bo‘lib, xonlikda tayyorlangan aravalar "Qo‘qon arava" nomi bilan O‘rta Osiyoda tanilgan. Chunki, Qo‘qon aravasozi va egar-jabduq tayyorlash bo‘yicha O‘rta Osiyoda yetakchilik qilgan. Qo‘qon arava 25 – 40 pudgacha⁶⁴⁴ yuk ko‘tara olgan va

⁶⁴² Абдуллаев Т. XIX - XX асрларда ўзбек кандакорлиги. - Т., 1974. - Б/103

⁶⁴³ Мусаев Д., Хошимов Х. Андижоннинг XIX аср охири - XX аср бошлари даври хунармандчилиги тарихини ўрганишига доир // Марғилон шахрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шахрининг 2000 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференцияси материаллари. - Тошкент - Марғилон. 2007.-Б. 123.

⁶⁴⁴ Пуд - оғирлик ўлчов бирлиги бўлиб, 1884 йилги маълумотларга кўра 10 Кўкон пуди 163,805 кг.га тенг бўлган.

asosan otlar yordamida manzilga olib borilgan. Bu aravalardan ichki va tashqi savdoda faol foydalanilgan.

Zargarlik qadimdan Oʻrta Osiyo xalqlari orasida qadrlil kasblardan boʻlgan. Qoʻqon xonligida ham bu soha oʻziga xos tarzda taraqqiy etgan boʻlib, Oʻrta Osiyo xalqlari anʼanalariga mos ravishda zargarlik ustaxonalari yirik shaharlarning markazlarida joylashgan. Zargarlik buyumlari tayyorlash borasida poytaxt Qoʻqon yaqqol ajralib turgan va Oʻrta Osiyoda faqatgina Buxoro u bilan raqobat qila olgan. Shuningdek, Toshkent zargarlari ham oʻz uslubiga ega boʻlganlar. Ular qoʻshni dasht hudud aholisi uchun moʻljallab, nisbatan arzon zargarlik buyumlarini koʻproq tayyorlaganlar.

Xonlik aholisining koʻchmanchi xalqlar bilan iqtisodiy aloqalarining rivoji mamlakatda koʻnchilik va teriga ishlov berish xunarining taraqqiyotiga samarali taʼsir koʻrsatgan. Bunday hunarlar rivojlangan markazlar shaharlar edi. Qoʻqon, Toshkent, Andijon va Oʻsh shaharlari koʻnchilik markazlari boʻlib, bu yerlarda terini qayta ishlash va undan poyabzal tayyorlash bilan birga teridan kiyim-kechak, bosh kiyim, suv va qimiz uchun meshlar ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilgan. Xususan, mamlakat poytaxti Qoʻqonda chorva terilarini oshlash, ishlov berish, turli rangga boʻyash va ulardan etik, kavush, mahsi tayyorlash ham ancha ravnaq topgan edi. XIX asr 60 - yillarida Toshkentda teridan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan 60 ta doʻkon shugʻullangan. Xonlikda tayyorlangan poyabzallarga mahalliy aholi bilan bir qatorda chorvachilik bilan shugʻullanuvchi choʻl va togʻ oldi hududlar aholisi, asosan, qozoq va qirgʻizlar orasida talab katta boʻlgan.

Xonlik shaharlarida sovun ishlab chiqarish hunari ham oʻziga xos tarzda rivojlangan. Sovungarlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar orqali mahalliy aholining sovunga boʻlgan ehtiyoji qondirilgan. Margʻilon oʻzining ipak matolari qatorida kulrang va qora rangdagi sovuni bilan mashhur boʻlgan boʻlsa, Toshkentda tayyorlangan kulrang sovunga mahalliy aholi orasida talab katta edi.⁶⁴⁵

Poytaxt Qoʻqonda tayyorlangan qogʻoz Oʻrta Osiyoda mashhur hisoblangan va ilm-ahli orasida qadrlangan. XVIII asr boshlarida

⁶⁴⁵ Ўша жойда. 42-б

Qo‘qonda ikkita qog‘oz ishlab chiqarish korxonasi mavjud bo‘lib, ularning biri shaharning "Mo‘yi Muborak" darvozasi yaqinida, ikkinchisi shahar yaqinidagi Chorsu qishlog‘ida joylashgan edi. Qo‘qonda ishlab chiqarilgan qog‘oz butun O‘rta Osiyo bozorlariga olib ketilgan.⁶⁴⁶

Xonlikning poytaxti Qo‘qonda muqovasozlik hunari ham rivojlangan bo‘lib, Namangan Qo‘qon kabi muqovalash hunari rivojlangan shaharlardan bo‘lgan, bu yerda charm va qog‘ozdan yaratilgan muqovalar O‘rta Osiyoning yirik markazlari - Samarqand va Xivada tayyorlangan muqovalardan qolishmas edi.⁶⁴⁷

Xonlik shaharlarida o‘simliklardan turli rangdagi bo‘yoq tayyorlash va ip-gazlama, ipak hamda ipak matolarni bo‘yash hunari rivojlangan edi. Xonlikda bu sohada Namangan yetakchilik qilgan. Bu shaharda ipakni bo‘yashda asosan norpus (qora anor) bo‘yog‘idan foydalanilgan bo‘lib, xonlikning turli hududlaridan bu yerga katta miqdorda ipakni bo‘yatish uchun olib kelganlar⁹⁶. Qo‘qon xonligida O‘rta Osiyoning boshqa xonliklari kabi ro‘yan (marena) deb nomlangan butasimon o‘simlik ildizidan tabiiy qizil rangdagi bo‘yoq tayyorlangan va u bilan qizg‘in savdo amalga oshirilgan. Bu bo‘yoq ham xonlik hududida asosan Namanganda tayyorlangan⁹⁷.

Xonlik shaharlari aholisi dehqonchilik, bog‘dorchilik bilan ham faol shug‘ullangan. Shaharlar va ularning atroflaridagi dalalar, polizlar va bog‘larda yetishtirilgan mahsulotlar bilan xonlik bozorlarida qizg‘in savdo amalga oshirilgan. Jumladan, Farg‘ona vodiysi qadimdan bog‘dorchilik mahsulotlari bilan qo‘shni hududlarda ham tanilgan. Qo‘qon xonligi davrida ham vodiyy bu borada o‘z mavqeini saqlab qolgan. Namangan, Marg‘ilon, Qo‘qon bog‘lari o‘zining mo‘l-ko‘lligi, mevalarining ta‘mi va sifati bilan mashhur hisoblangan. Bu sohada Namangan yaqqol ajralib turgan. P.I.Nebolsinning yozishicha, XIX asr o‘rtalarida Namanganda mevalarning turlari ko‘p bo‘lib, xususan, o‘rik juda lazzatli bo‘ladi va Toshkentga sotish uchun ko‘plab olib boriladi, deb qayd etadi. Yana bir

⁶⁴⁶ Ўша жойда

⁶⁴⁷ Ўша жойда

rus olimi N.Aristov uzumning sifati bo'yicha eng yaxshisi Namanganniki, deb ta'riflagan.⁶⁴⁸

Sayyoh va shifokor I.Krauze ma'lumotlariga ko'ra, xonlikda anjir va anor yetishtirishda Namangan mashhur bo'lib, anjir mevasi, anor guli, ildizi, po'stlog'i va yaprog'idan mahalliy tabiblar turli kasalliklarni davolashda foydalanganlar. Shuningdek, Namangan olmalari xonlikdan tashqarida ham taniqli va xaridorgir hisoblangan.

Bog'dorchilik Farg'ona vodiysining boshqa ko'plab shaharlari, ularning atrofi va qishloqlarida ham taraqqiy etgan. Marg'ilonning "Dona Kalon" nomli anori va Konibodom bodomi ham xonlik bozorlarida taniqli edi. Farg'ona vodiysi bog'larida yetishtirilgan mevalarga qo'shni hududlarda talab katta bo'lib, yil davomida bu yerdan quruq va xo'l mevalar orilgan karvonlar qo'shni xonliklar, dasht hududlari va boshqa mamlakatlarga borib turgan.

Xonlik shaharlari o'zining dehqonchilik mahsulotlari bilan ham mashhur edi. Xususan, Namangan atroflarida bug'doy yetishtirish rivojlangan bo'lib, xonlik davrida Qo'qon va uning atrofi bug'doy bilan o'zini ta'minlay olmagan va Namangan dehqonlari yetishtirgan bug'doy poytaxt Qo'qon bozorlariga yil davomida yetkazib turilgan⁶⁴⁹. Namangan o'zining tamakisi bilan ham mashhur bo'lgan. XIX asr 30 - yillarida Qo'qon xonligida bo'lgan kazak Maksimov xonlikning eng boy va yirik shaharlari Qo'qon va Toshkent bo'lsa-da, aholi hayotining farovonligi bo'yicha Namangan xonlikda ajralib turadi, bu yerdagi bog'larning o'xshashi yo'q. Namangan tamakisining sifati yuqori bo'lib, u sariq rangda va huddi Amerika tamakisiga o'xshaydi, - deb yozgan edi. V.V.Velyaminov-Zernov xudsi shunday fikrni keltirib, O'rta Osiyoda Namangan tamakasi bilan raqobatlasha oladigan tamaki yo'q – deb, ta'kidlaydi.⁶⁵⁰

XIX asr boshlarida O'sh atroflarida yashovchi aholi katta yerlarni o'zlashtirganligi sababli Andijon atroflariga Oqbura daryosi suvi kelmay qolgan. Natijada, Andijon atroflaridagi botqoqliklar qurib, sholikorlik

⁶⁴⁸ Агзамова Г. А. Сўнги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. - Т., Ўзбекистон, 2000.-Б. 31.

⁶⁴⁹ Қўқон хонлигида савдо муносабатлари. 44-б

⁶⁵⁰ Исоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона. Т. Мерос. 1991.

taraqqiy etgan va Andijon sholisi atrofda mashhur bo'lgan. Xo'jand atroflari ham sholi yetishtirish markazlaridan bo'lib, har yili katta miqdorda guruch xonlik shaharlariga va Buxoro bozorlariga olib borib sotilgan.

XVIII asr boshlarida tashkil topgan Qo'qon xonligida asta-sekin iqtisodiy hayot izga tushdi. Ichki va tashqi savdo taraqqiy etib, aholining farovonligi oshdi. O'z navbatida xonlik hukmdorlari ham savdoning rivojlanishiga xomiylik qilib, bozorlar, karvonsaroylar, savdo rastalari va do'konlar barpo etdilar, bozorlardagi savdo-sotiq jarayonini nazorat ostiga oldilar. XVIII asr oxirlarida Qo'qon xonligining o'z puliga ega bo'lishi savdo munosabatlarini rivojida muhim omil vazifasini o'tadi. Savdo-sotiq xonlik aholisi hayotining ajralmas qismi hisoblanib, yirik shaharlarda ikki va uch marta, katta qishloqlarda hamda bir nechta kichik qishloqlarni tutashtiruvchi hududlarda haftada bir marta bozorlar tashkil etilgan.

XVIII asr ikkinchi yarmida Qo'qon xonligida iqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi va uning natijasida xonlik o'z puliga ega bo'lishi ham savdoni munosabatlari taraqqiyotida muhim omillardan biri vazifasini bajargan. Xonlik bozorlarida turli mahalliy og'irlik va uzunlik o'lchov birliklari bo'lganligi, bu yerda asrlar davomida shakllangan savdo madaniyati davom ettirilganligi, bu birliklar tarixiy taraqqiyotga qarab o'zgarib turganligini ko'rsatadi. Ichki va tashqi savdo munosabatlarining taraqqiy etishi natijasida xonlik hududiga Yevropa og'irlik va uzunlik o'lchov birliklari kirib kelgan.

Xonlik shaharlari yirik iqtisodiyot markazlar edi. Ularda istiqomat qiluvchi aholining asosiy mashg'uloti hunarmandchilik, savdo, qisman dehqonchilik va bog'dorchilikdan iborat bo'lgan.

Avvallari unchalik ahamiyati yuqori bo'lmagan, xonlik davrida yirik iqtisodiy markazlardan biriga aylangan shaharlardan biri Namangan hisoblanadi. XIX asr boshlariga kelib, Qo'qon xonligida iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri sifatida Namangan shahrining mavqei ortib bordi. 1803 yilda Norin daryosidan suv oluvchi Yangiariq kanalining qazilishi va uni 1819 yili kelib Umarxon tomonidan kengaytirilishi qo'riq yerlar o'zlashtirilishiga va Namangan shahri yanada kengayishiga sabab bo'ldi. Siyosiy va iqtisodiy jihatdan yuksalib borgan Namangan 1842 -

1845 yillarida mudofaa devori bilan o‘ralgan⁶⁵¹. Ma’lumotlarga qaraganda, XIX asr 20 - yillarida Namanganda tahminan 5000 uy bo‘lgan va ularda 25 mingdan ortiq aholi yashagan. XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon xonligida bo‘lgan rus sharqshunosi V. V. Velyaminov-Zernov, Namangan shahri xonlik hayotida Qo‘qon va Toshkent shaharlari kabi muhim ahamiyat kasb etishi, yerlari asosan Yangiariq va Podsho Ota kanallaridan suv ichishi va shahar aholisining asosiy qismini Chig‘atoy urugiga mansub o‘zbeklar tashkil etishi xususida malumot keltirib o‘tgan⁶⁵².

Qo‘qon xonligi davrida tashkil topib, yirik savdo markazlaridan biriga aylangan shaharlardan yana biri Avliyoota bo‘lib, u Qo‘qon xoni Muhammad Alixon tomonidan 1826 - 1827 yillarda qurdirgan harbiy qal’a asosida rivojlangan. Bu yerda dastlab faqatgina harbiylar turgan bo‘lsa, asta-sekin chorva savdosi bilan shug‘ullanuvchi savdogarlar joylashgan. 1837 yil qal’ada qo‘y savdosi bilan shug‘ullanuvchi savdogarlarning "Namangan" deb ataluvchi ko‘chasi paydo bo‘lgan. Avliyoota asta-sekin kengayib, yirik savdo shahriga aylangan va bu yerda O‘rta Osiyoga mashhur "qozoq bozori" faoliyat yuritgan.⁶⁵³

Qo‘qon xonligi davrida asos solingan va asta-sekin yirik iqtisodiy markazlardan biriga aylangan shaharlardan yana biri Shahrixon hisoblangan. Qo‘qon xoni Umarxon (1810 - 1822) ning zamondoshi Dilshodi Barnoning "Tarixi Muhojiron" asaridagi ma’lumotga ko‘ra, Umarxon Shahrixonga 1821 - 1822 yillarda asos solgan⁶⁵⁴. Umarxon yangi shaharga asos solganidan so‘ng, xonlikning turli hududlaridan hunarmandlarni ko‘chirib keltirgan va bu yerda savdoni rivojlantirish maqsadida savdogarlardan bir necha yil boj olmaslikni buyurgan. Shuningdek, Umarxon Shahrixonsoy kanalini qazdirganidan so‘ng, ko‘p yerlar o‘zlashtirilgan va Shahrixon yanada kengaygan. Tarixchi Mirzo Olim Mushrif, "Shahrixon obod bo‘lib, g‘allasi Xo‘qand askariga kifoyat qilib, yana ziyodasi ombor qilinur edi", - deb yozgan edi.⁶⁵⁵

⁶⁵¹Зотов А., Якубов Б., Смирнов Н., Чабров Г. Города Ферганской долины - Т., 1963. - С. 140.

⁶⁵² Вельяминов-Зернов В. В. Торговое значение Коканского ханства для русских. // ИРГО. - СПб. 1854. - С. 42.

⁶⁵³ Қўқон хонлигида савдо муносабатлари. 30-б.

⁶⁵⁴ Ш.Воҳидов. Қўқон тарихнавислик мактабининг шаклланиши. Тар.фан.док...дисс. Т.1998.

⁶⁵⁵Мирза Олим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи. Т.1995.

XIX asr boshlarida xonlikda siyosiy va iqtisodiy yuksalish davri boshlangan. Natijada, mamlakat shaharlarining mavqei ko'tarilishi bilan bir qatorda, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram kabi yirik siyosiy va iqtisodiy markazlar qo'shib olindi. Shuningdek, xonlikning chegara hududlarida Oqmasjid, To'qmoq, Pishpak va boshqa qal'alarga asos solindi. Toshkent O'rta Osiyoning yirik iqtisodiy markazlaridan bo'lib, xonlikning ichki va tashqi savdo aloqalarida muhim ahamiyat kasb etgan. Xonlikning Rossiya va qozoq dashtlari bilan savdo aloqalarida hamda mamlakat bozorlarini chorva bilan ta'minlashda Turkiston, Chimkent, Sayram va Oqmasjid shaharlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, xonlikning ayrim shaharlari yirik karvon yo'llarida joylashgan bo'lib, bu ularning taraqqiyotga erishishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ular jumlasiga Toshkent, Qo'qon, O'sh, Xo'jand, Turkiston, Chimkent shaharlarini kiritish mumkin.

Shaharlar - atrof qishloqlarda istiqomat qiluvchi aholining iqtisodiy farovonligi ko'tarilishida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, qishloq aholisi tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar shahar hunarmandlari uchun xom-ashyo vazifasini o'tagan. O'z navbatida, shahar hunarmandlari tomonidan tayyorlangan mahsulotlarning asosiy iste'molchilari qishloq aholisi hisoblangan. Bu esa, qishloq aholisining hayot tarzini yaxshilanib borishiga va o'z navbatida shahar hunarmandchiligi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Xonlik shaharlari yirik iqtisodiyot markazlar edi. Ularda istiqomat qiluvchi aholining asosiy mashg'uloti hunarmandchilik, savdo, qisman dehqonchilik va bog'dorchilikdan iborat bo'lgan.

Iqtisodiy markazlarning ko'payishi xonlik aholisining hayoti farovonlashishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Shaharlarda hunarmandchilikning taraqqiy etib borishi natijasida ustaxonalarda atrofdagi qishloqlarda yetipgirilgan xom-ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Xonlikda ma'lum bir hunarmandchilik turining rivojlanganligi va o'ziga xos mahsulot turlari bilan alohida markazlar ajrala boshladi. Xususan, Qo'qon qogoz, zargarlik buyumlari, egar va ot-aravalari, Toshkent qo'shni dasht aholisi orasida talab katta bo'lgan ipdan tayyorlangan matolari va hunarmandchilik buyumlari,

Margilon va Xo‘jand ipak mahsulotlari, O‘sh va Andijon ko‘nchilik va chorvachilik mahsulotlari, Namangan bog‘dorchilik mahsulotlari va yog‘och buyumlari, Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Sayram shaharlari chorva va chorvachilik mahsulotlari bilan ajralib turgan. Shaharlarda hunarmandchilikning taraqqiy etib borishi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishini ham ko‘paytirdi. Natijada, mahalliy o‘troq aholi bilan bir qatorda cho‘l va tog‘ zonalarida yashovchi aholi xonlik hunarmandlari tomonidan tayyorlangan mahsulotlar bilan o‘z ehtiyojlarini qondira boshladi. Iqtisodiy markazlar sonini ko‘payib, hunarmandchilikning taraqqiy etib borishi qo‘shni xudud aholisini shaharlarga intilishini kuchayishiga olib keldi va etno-integratsion jarayonlarni tezlashtirdi.

Mamlakat bozorlariga shahar va qishloq aholisi dehqonchilik hamda hunarmandchilik mahsulotlari, tog‘li hudud aholisi va ko‘chmanchi chorvadorlar chorva va chorvachilik mahsulotlarini olib chiqqan. Mahalliy savdogarlar xonlikning chekka qishloqlariga borib, o‘sha hududda yetishtiriladigan yoki tayyorlanadigan mahsulotlarini arzon bahoda, ulgurjasiga sotib olgan va yirik shahar bozorlariga keltirgan. O‘z navbatida, hunarmandlarning mollarini sotib olib, o‘zlari bozorma-bozor, shaharma-shahar, qishloqma-qishloq sotib yuruvchi savdogarlar ham faoliyat yuritgan.

Bu davrda xonlikdagi to‘kin-sochinlik va arzonchilik haqida Muhammad Aziz Marg‘iloniy, - "Qo‘qon xonlari vaqtida Farg‘ona ahli orasida pul oz va narx arzonchilik edi. Yoz faslida bir arava xandalak ikki yarim tangadan 5 tangagacha turgan, bir arava qovun 3,5 tangagacha sotilgan, bir savat o‘rik uch miri va 1 tanga, bir chaksa gurunchning baxosi bir tangadan ikki tangagacha, bir chaksa toza un bir tangadan ziyodroq, toza pista ellik paysadan bir tangagacha, toza sariq mag‘iz yuz paysagacha, qandak o‘rik, sabzi va piyozni bir puldan olti pulgacha xarid qilinib, zo‘rg‘a ko‘tarib ketardingiz, bir tangaga 40 chaqa berur, bu chaqani hamyoningizga solib bozorga borib to kechgacha sarf qilishingiz mumkin va hammasi sarf bo‘lmasdan qaytib ham keladi" va yana "...bozorlarda

narxlar arzonligi uchun fuqarolar podsholik xaqklarini o'z vaqtida jamlab berolmasdan ko'p qiynalardilar", - deb yozgan edi.⁶⁵⁶

Qo'qon shahri xonlikning yirik iqtisodiy markazi bo'lib, ichki savdoda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Mahalliy aholi Qo'qon bozorlariga hunarmandchilik va shahar atroflaridan dehqonchilik mahsulotlarini olib chiqqan. Shuningdek, xonlikning turli hududlarida tayyorlangan va yetishtirilgan mahsulotlarning sarasi Qo'qon bozorlarida sotilgan. Qo'qon bozori Farg'ona vodiysiga qo'shni hududlardan kirib kelayotgan mollarning asosiy tarqatuvchi markazi bo'lib, uning bozorlarida xonlikning turli hududlaridan kelgan savdogarlarni ko'rish mumkin edi.

Qo'qondan Toshkentga xom-ashyo paxta, xom ipak hamda ipak va yarim ipak, ip matolar, xo'l va quruq mevalar, Qashqar va Xitoy mollari keltirilgan. Toshkent bozori - Xo'jand, Buxoro, Qo'qon, Marg'ilon ipak matolarining o'zaro raqobat qiladigan markaz hisoblangan. XIX asrning o'rtalarida Farg'ona vodiysidan Qo'qon orqali Toshkentga har yili 10-15 ming tuyada paxta, qog'oz, xom ipak va ipak matolar, quritilgan mevalar, Namangandan to'g'ridan-to'g'ri Toshkent bilan savdo qilish imkoniyatiga ega bo'lgani uchun har yili 500 tuyada quritilgan meva, 1000 tuyada ipak va ipak matolar, ro'yan bo'yog'i va boshqalar olib borilgan.⁶⁵⁷ Namangan mevalari, Qo'qon, Xo'jandxonlik bozorlarida, xususan, Toshkentda "namanganniki" nomi bilan tanilgan. Shu asr boshlarida, Farg'ona vodiysidan har yili fevral oyidan aprelgacha paxta, oktabr va noyabr oylarida quritilgan mevalar ortilgan karvonlar Toshkentga kelgan. Toshkent bozorida 1847 - 1848 yillarda 1 botmon⁶⁵⁸ paxta 4 tillo, bir tuya paxta esa 9-10 tillodan baholangan. XIX asr 60 – yillarida Namangan bozorida paxtaning botmoni 15 tillo, 1871 yil oktabr oyida Qo'qon bozorida paxta pudi naqd pulga 17 tillo, 1 oyga nasiyaga 18 tilloga 121 sotilgan. Bu ma'lumotlar siyosiy vaziyatning yomonlashib borishi natijasida narx-navoning yildan-yilga ko'tarilib borganligini ko'rsatadi.

⁶⁵⁶ Мухаммад Азю Марғилоний.Тарихи Азизий. Нашрга тайёрловчилар Ш. Воҳидов, Д. Сангирова. - Т., Маънавият, 1999. - Б. 70 - 71.

⁶⁵⁷ Қўқон хонлигида савдо муносабатлари. 42-б

⁶⁵⁸ Ботмон - огирлик ўлчов бирлиги бўлиб, 1884 йилги маълумотларга кўра бир Қўқон ботмони 10 пудга ва 163,805 кг.га тенг бўлган.

XIX asrning birinchi yarmida Farg‘ona vodiysiga Toshkentdan har yili 10 mingdan ortiq tuyada g‘alla, temir, po‘lat, cho‘yan, mis va ulardan yasalgan buyumlar, shakar, charm, mo‘yna va boshqa rus sanoat mollari, qozoq dashtlaridan chorva olib ketilgan. Qo‘qon xonligi davrida Farg‘ona vodiysi - Toshkent savdo aloqalarida vodiylilik savdogarlar katta o‘rin tutgan bo‘lib, ikki o‘rtadagi savdoning faqat 30 foizi toshkentlik savdogarlar hissasiga to‘g‘ri kelgan . XIX asrning o‘rtalarida vodiydin Toshkentga 4 mln. 580 ming rubllik mol olib borilgan bo‘lsa, Toshkentdan 2 mln 375 ming rubllik mol olib ketilgan. Bu davrda Toshkent va Qo‘qonning yillik savdo aylanmasi 7 mln. rublga teng bo‘lgan.⁶⁵⁹

Qo‘qon xonligi aholisining asosiy mashg‘ulotlaridan biri ipakchilik bo‘lib, ipakchilik markazlari Marg‘ilon, Namangan hisoblangan. Tayyorlangan pilla, xom ipak va ipak mahsulotlari xonlik bozorlariga va u yerdan qo‘shni mamlakatlarga olib chiqilgan. Ipakchilikning ilk mahsuloti hisoblangan pilla yangi yetishtirilgan xolatda baxorda va quritilgan xolatda kuzda bozorlarga keltirilgan. Xususan, Xo‘jandda (1871) yiliga 1000 pud atrofida pilla yetishtirilgan hamda bahorda puda 7 rub. 60 kop.dan 12 rublgacha, kuzda 32 rubldan 38 rublgacha sotilgan⁶⁶⁰.

Mahalliy aholi tomonidan tayyorlangan ipak turli navlarga ajratilgan va sifatiga qarab narx belgilangan. 1871 yil oktabr oyida Qo‘qon bozorida eng sifatli ipak hisoblangan "chilla" ning puda 50 - 52 tillo, "tafil" 50 tillo, Qo‘qon kalavasi 28 - 30 tillo, sarnoq 3,5 - 4,5 tillodan sotilgan⁶⁶¹.

Ichki savdoda muhim o‘rin tutgan mahsulotlarning katta qismi to‘qimachilik mahsulotlari hisoblangan. Bu borada faol ichki savdo olib borilgan mahsulotlarining katta qismini bo‘z (karbas) tashkil qilgan. Bu mato asosan astarlik uchun ishlatilgan va arshini Qo‘qon bozorida 4 - 6 kop., bosma - oddiy bo‘z 5 - 6 kop.dan sotilgan. Rossiya istilosi arafasida Toshkent bo‘zining 18 arshinli bo‘lagi 1,5 tangadan 2,5 tangagacha sotilgan. Ichki savdoda bo‘yalgan ipdan tayyorlangan yo‘l-yo‘l mato olacha ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va undan yaktak va chaponlar tikishda foydalanilgan. XIX asr o‘rtalarida olachaning arshini Qo‘qonda 10-15 kop., Toshkentda 8 arshinli bo‘lagi 50 - 75 kop., bir

⁶⁵⁹ Кўқон хонлигида савдо муносабатлари.. 45-б.

⁶⁶⁰ Ўша жойда

⁶⁶¹ Ўша жойда

bo'lagining jufti 2 tangadan sotilgan.⁶⁶² Xonlik hududida chit eng haridorgir matolardan hisoblangan. 1874 yilda Qo'qonda oliy navli qizil chitning bir bo'lagi 26 tangadan 1,5 tillogacha, xushvaqt (och qizil rangli chit) deb nomlanuvchi chit esa 4 - 5 oy muddatga qarzga 68 - 78 tangaga sotilgan. Qo'qon bozorlarida ipak gazlamalar hamda ip va ipak aralashgan matolar rang-barangligi bilan ajralib turgan. XIX asr o'rtalarida Qo'qon bozorida shoyi, duriya, beqasab, adras, banoraslarning arshini 70 – 95 kop.dan sotilgan. Atlas mahalliy bozorlarda yuqori baholangan bo'lib, XIX asr o'rtalarida poytaxt bozorida 12 arshin atlas 7 - 8 rublga baholangan. Vodiy shaharlarida tayyorlangan yarim ipak matolarning sifatliari asosan Toshkent bozorlarida sotilgan. Ko'rsatilgan davrda, Toshkent bozorlarida Marg'ilonda ishlab chiqarilgan bir choponlik banoras 20 - 25 tanga, beqasam 14-18 tanga, adras 18-20 tangadan baholangan.⁶⁶³

Qo'qon xonligining Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Toshkent, Xo'jand va boshqa shaharlari Rossiya tarkibiga kir itilganidan so'ng, xonlik hududi asosan Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib qoldi. Shunday bo'lsada, xonlik bozorlari Turkiston general-gubernatorligining shaharlari bozorlaridan mahsulotlar narxining arzonligi bilan ajralib turgan. XIX asr 60 - yillari oxirlarida Qo'qonda ipakning funti 3 rub. 50 kop., O'ratepada 4 rub. 40 kop., Toshkentda 5 - 6 rub., bug'doyning pudi Qo'qonda 20 - 30 kop., Toshkentda 50 - 60 kop., arpa Qo'qonda 10-15 kop., Toshkentda 40 kop., tarik Toshkentda 40 - 50 kop., Qo'qonda ikki barobar arzon, guruch Qo'qonda 50 kop., Toshkentda 1 rub. 10 kop., XIX asr 70 - yillarida paxta tolasi Toshkentda pudi 3-7 rub., Qo'qonda 50 kopdan 1 rub.gacha sotilgan.⁶⁶⁴

O'rta Osiyo xonliklariga xos ravishda Qo'qon xonligi bozorlarida o'g'irlik xolatlari juda kam ro'y bergan va shunday xolat yuz bersa jiddiy jazo qo'llanilgan. Xususan, 1814 yil xonlikda bo'lgan F.Nazarovning yozishicha, qo'y o'g'irlagan kishining barmoqlari kesilgan va qaynab turgan chelakka tiqilgan hamda eshakka teskari o'tkazilib, bozor aylantirilgan. Tarozidan urgan kishi esa yalang'och holda bozorda

⁶⁶² Мухаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. - Т., 1999. - Б. 71.

⁶⁶³ Бобобеков Х. Қўкон тарихи. - Т., 1996. - Б. 112.

⁶⁶⁴ Ўша жойда

qamchilab yurilgan. Bu kabi keskin chora-tadbirlar bozorlarda haridor va sotuvchilarni erkin harakat qilishlariga imkoniyat yaratgan.⁶⁶⁵

Qo‘qon xonligining tashqi iqtisodiy aloqalari. XVIII asr boshlarida tashkil topgan Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyodagi qudratli davlatlarning biriga aylana bordi. Buning natijasida mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy hayot iziga tushdi, ichki va tashqi savdo rivojlandi. Yangi bozorlar, savdo rastalari, do‘konlar qurildi, mavjudlari ta‘mirlandi. O‘z navbatida savdo-sotiq jarayoni ham tartibga solindi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab siyosiy mavqeini tiklab olgan Qo‘qon xonligi o‘z puliga ega bo‘ldi va tovar-pul munosabatlari nazorat ostiga olindi. Savdo xonlik iqtisodining ajralmas qismi hisoblanib, mamlakat uchun ham muhim daromad manbai bo‘lgan.

Qo‘qon xonligi Rossiya, qozoq dashtlari, Qashqar, Xitoy, Afg‘oniston, Eron, Hindiston, arab mamlakatlari, Turkiya va boshqa davlatlar bilan faol savdo aloqalarini olib borgan.⁶⁶⁶

Qo‘qon xonligi bilan tashqi savdo aloqalariga ega mamlakatlardan biri Hindiston edi. Ikki davlat hududi bir biridan uzoqligi va karvon yo‘llari bir necha mamlakatlar hududlaridan o‘tishi savdo aloqalariga muayyan salbiy ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsada, bu aloqalar davom etavergan.

Qo‘qon xonligidan Hindistonga asosan xom ipak, ipak va yarim ipak matolar, quritilgan mevalar, ro‘yan, echki momigi jo‘natilgan. Shuningdek, qo‘qonlik savdogarlar tomonidan Hindistonga mahalliy hunarmandchilik mahsulotlaridan tashqari, Urta Osiyoning boshqa hududlarida tayyorlangan va Rossiya mollari ham olib borilgan. Arxiv ma‘lumotlariga ko‘ra, XIX asr 60 - yillarida o‘rtalarida Qo‘qon xonligidan yiliga Buxoro amirligi, Afg‘oniston va Hindistonga 200.000 rubllik mol chiqarilgan. Ular ichida 8000 pud ipak ham bo‘lgan.⁶⁶⁷

Qo‘qon xonligida tayyorlangan ipakning «chilla» deb ataladigan navi Sharq mamlakatlarida, xususan, Hindistonda ham mashhur bo‘lgan. "Chilla" ipagining bahosi o‘sha davr uchun ancha yuqori bo‘lib, XIX asr

⁶⁶⁵ Кўқон хонлигида савдо муносабатлари.. 47-б

⁶⁶⁶ Қўлдошев Ш. Қўқон хонлиги ва Қашқар ўртасидаги савдо алоқалари // "Қўқон асрлар силсиласида" Республика илмий-назарий анжумани.-Қўқон., 2004. -Б. 301-303.; Қўқон хонлигининг Шаркий Туркистон билан иқтисодий алоқаларида Марғилоннинг тутган ўрни // "Марғилон асрлар силсиласида" Республика илмий-амалий семинар материаллари. Фарғона., 2005. 77-80-бб

⁶⁶⁷ Қўқон хонлигида савдо муносабатлари. 64-б.

60 - yillarida Qo‘qon xonligi bozorlarida bir pud 197 rub. 60 kop. dan sotilgan bo‘lsa, uning Buxoro bozorlaridagi narxi 240 rublgacha bo‘lgan hamda u Hindistonga ko‘plab olib ketilgan.⁶⁶⁸

XIX asr 30 - yillarida Hindiston, Afg‘oniston orqali O‘rta Osiyoga kelgan ingliz ofitseri A.Berns ma‘lumotlariga ko‘ra, sifatli Qo‘qon ipagi Qobul orqali Hindistonga olib borilgan. 1867 yil Hindistonga Qo‘qon va Buxoro amirligidan 1000 tuyada ipak jo‘natilgan va uning og‘irligi o‘rtacha 12 ming pud atrofida bo‘lgan. Ipakning katta qismi Mo‘ltonda tayyor mahsulotga aylantirilgan va bir qismi Bombeyga jo‘natilgan. Bombeyda ipak savdosi samarali bo‘lib, bu port shahar orqali Qo‘qon ipagi Yevropa davlatlariga ham olib ketilgan.⁶⁶⁹

Qo‘qon xonligidan Buxoro va Qobul orqali Hindistonga ip-kalava, xususan, Namangan kalavasi olib borilgan. Ingliz G. Morgan ma‘lumotlariga ko‘ra, XIX asr o‘rtalarida yiliga O‘rta Osiyo xonliklaridan Buxoro orqali Hindistonga 800 to‘p ipak, 6000 pud ipak mahsulotlari - kanaus, ro‘mol, dasturxonlar keltirilgan.⁶⁷⁰

Hind savdogarlari Qo‘qon xonligidan oltin yombi va tilla tangalarni ham olib ketganlar. V.V.Velyaminov-Zernov ma‘lumotlariga ko‘ra, XIX asr o‘rtalarida qorateginliklar xonlik bozorlariga mahalliy usulda tayyorlangan oltin yombilarni olib kelganlar va Qo‘qon bozorida Qorategin oltinining misqoli 16,5 tanga, kichikrog‘i 14,5 tangadan sotilgan. Ba‘zi vaqtlarda bir misqol Qorategin oltinining narxi 18 tanga, kichikrog‘ining misqoli 16 tangaga sotilgan hamda bu oltinning katta qismi hind va afg‘on savdogarlari tomonidan harid qilinib Buxoro orqali vatanlariga olib ketilgan. Shuningdek, hindlarning Qo‘qon xonligi bozorlaridan mahalliy oltin va kumush tangalarni o‘z pullariga almashtirib, Hindistonga olib ketish holatlari ham ko‘plab uchragan. Xususan, D.I.Romanovskiy 1865 yilda hindlar Toshkent bozorida Qo‘qon va Buxoro oltin, kumush tangalarini qimmat narxda sotib olayotganliklari haqida ma‘lumot bergan.⁶⁷¹

⁶⁶⁸ Ўша жойда

⁶⁶⁹ Қўқон хонлигида савдо муносабатлари.. 66-б

⁶⁷⁰ Ўша жойда.

⁶⁷¹ Қўқон хонлигида савдо муносабатлари.. 67-б

Hindistondan mosh rangdagi koshenil' bo'yog'i ham keltirilgan bo'lib, bu bo'yokdan ham asosan ipakni bo'yashda foydalanilgan. Hindistondan keladigan mollarning katta qismini choy tashkil etgan. Hindistondan Qo'qon xonligiga keltiriladigan mahsulotlar-ning bir qismini mashhur Kashmir ro'mollari tashkil qilgan. Hindiston va Qo'qon xonligi savdo aloqalarining ijobiy samarasi sifatida XIX asrdayoq Marg'ilon, O'ratepa va Qo'qonda Kashmir ro'mollariga o'xshash jun ro'mollar to'qish yo'lga qo'yilgan⁶⁷². Hindistonning Qashqar orqali Qo'qon bilan savdo aloqalari ham ancha samarali va daromadli bo'lgan. 1812 yil 7 mayda Rossiya imperiyasi generali Glazenapaning tatar savdogari Mehti Rafilov bilan uchrashuvidan so'ng rus hukumatiga bergan hisobotida, Kashmir-Oqsu-Qo'qon shaharlarining savdo aylanmasi yiliga bir necha million rub. bo'lganligi haqidagi ma'lumoti buni tasdiqlaydi.⁶⁷³

Rossiya hukumati 1868 yilda Turkiston general-gubernatorligi hududiga Yevropa mollari keltirishni ta'qiqlab qo'ygan.⁶⁷⁴ Shu sababli, Buxoro amirligi orqali Turkiston general-gubernatorligi hududiga o'tgan karvonlar tazyiq ostiga olingan va ulardan katta miqdorda boj undirilgan.

Oqibatda, chetdan keltirilgan mahsulotlarning tannarxini oshib ketishi, Qo'qon xonligiga Buxoro amirligi orqali ingliz va hind mollarini kirib kelishini kamayishiga, Qashqar orqali kirib kelishining kuchayishiga sabab bo'lgan. Qo'qon xonligi Afg'oniston bilan ham faol savdo aloqalarini o'rnatgan edi. Afg'oniston shaharlari bilan Qo'qon xonligini bog'lovchi karvon yo'llari asosan Buxoro amirligi hududidan o'tgan va amirlik bozorlari orqali ham Afg'oniston - Qo'qon xonligi savdo aloqalari amalga oshirilgan. Buxoro amirligi orqali Afg'onistonning Maymana, Saripul, Axcha, Andxoy, Qobul va Xirot shaharlariga Qo'qon xonligidan savdo karvonlari qatnagan. Shuningdek, Afg'oniston va uning shaharlari O'rta Osiyo xonliklari uchun muhim bo'lgan tranzit yo'lida joylashgan bo'lib, ularning aksariyati Qo'qon xonligining Hindiston, Eron, arab mamlakatlari, Turkiya va Yevropa mamlakatlari bilan savdo aloqalarida muhim ahamiyat kasb etgan.

⁶⁷² Ўша жойда.

⁶⁷³ Ўша жойда

⁶⁷⁴ ЎзР МДА, И. 1 - фонд, 20 - рўйхат, 1394 - иш, 8 - варак.

Qo‘qon xonligi Afg‘oniston bilan Buxoro orqali o‘tgan karvon yo‘lidan tashkari Qorategin - Darvoz orqali Badaxshonga va u yerdan afg‘on shaharlari va shimoliy Hindistonga olib boruvchi karvon yo‘li orqali ham savdo qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Xonlikning Afg‘onistonga eksport qiluvchi asosiy mahsuloti ipak hisoblangan. Bu davlat shaharlariga keltirilgan ipakning bir qismi mahalliy hunarmandlar tomonidan harid qilingan bo‘lsa, katta qismi qo‘shni mamlakatlarga olib ketilgan. Hindistonda bo‘lgan yevropalik sayyohlar ma‘lumotlariga ko‘ra, XIX asr 50 - yillarida Xirotdan Shikorpurga oliy navli "Qo‘qon ipagi" olib kelingan bo‘lib, Qobulda ham eng sifatli ipak "Qo‘qon ipagi" nomi bilan taniqli bo‘lgan. Qo‘qon xonligi Afgonistonning Qashqar va Xitoy bilan savdo aloqalarida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Xonlik savdogarlari mahalliy mollar bilan bir qatorda Qashqar va Xitoy mollarini Buxoro amirligi orqali afgon shaharlariga olib borgan. Xitoydan Afgonistonga Qashqar va Qo‘qon orqali choy olib kelingan bo‘lib, bu choy dengiz orqali Xitoydan Hindiston va Afgonistonga keltiriladigan choydan ta‘mi bo‘yicha ajralib turgan. Xitoydan keltirilgan choyning turli navlari Qashqar orqali Qo‘qon savdogarlari vositachiligida Buxoro va Afgonistonga ham olib kelingan⁶⁷⁵. O‘rta Osiyoning bir qismini Rossiya tomonidan istilo qilinishi va Turkiston general-gubernatorligi hududida Yevropa mollariga cheklov joriy qilinishi Afg‘onistondan mol kirib kelishini kamaytirgan. Qo‘qon xonligining Eron bilan savdo aloqalari Buxoro amirligi va Afgoniston bozorlari hamda ularning hududidan o‘tgan karvon yo‘llari orqali amalga oshirgan. Biroq, O‘rta Osiyo va Eron aholisi o‘rtasidagi diniy kelishmovchilik ikki hudud savdo aloqalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. O‘rta Osiyo savdogarlari Eron shaharlarida ko‘plab to‘siqlarga uchragan, fors savdogarlaridan O‘rta Osiyo xonliklarida xristianlar kabi besh foiz miqdorida boj olingan. Natijada, asosan sunniy mazxabida bo‘lgan o‘rta osiyolik savdogarlar Eronga, shia mazxabida bo‘lgan forslar esa O‘rta Osiyo shaharlariga juda kam tashrif buyurganlar. Shuningdek, ikki hudud karvon yo‘llari uncha uzoq bo‘lmasa-da, g‘oyat xavfli bo‘lib, ko‘chmanchi qabilalar xujumi ko‘p kuzatilgan. Biroq, bu to‘siqlarga qaramasdan ikki hudud o‘rtasidagi muayyan savdo aloqalari mavjud

⁶⁷⁵ Кўқон хонлигида савдо муносабатлари..71-б

bo'lgan. Xususan, N. Xanikov, XIX asr 40 - yillarida Eron dan Mashhad orqali Buxoroga yiliga 4 marta, A. K. Geyns ma'lumotlariga ko'ra, shu davrda bir yilda bir marta karvon kelgan. Mashhaddan yo'lga chiqqan savdo karvonlari afg'on va Xuroson shaharlari orqali Buxoro, Samarqand, Xo'jand, Qo'qon, Yorkent, G'arbiy Xitoy va Kashmirgacha borgan. Qo'qon xonligidan Eron ga asosan xom ipak, ipak gazlama va yarim ipak gazlamalar va xonlik hududi orqali hamda savdogarlari tomonidan Qashqar ipagi va ipak matolari, Xitoy chinni idishlari, attorlik mollari, choy va boshqalar olib borilgan. 1870 yilda Buxorodan Eron ga 23 ming pud, ya'ni 2 mln. 120 ming rubllik ipak jo'natilgan va bu ipakning bir qismi Qo'qon xonligidan olib borilgan.⁶⁷⁶

Xonlik savdogarlari Usmoniylar davlati (Turkiya) va arab shaharlariga savdo maqsadida borib turganlar. Ular arab mamlakatlari va Turkiya shaharlari bilan ham asosan Buxoro, Afgoniston yoki Xuroson, Eron hududlaridan o'tgan karvon yo'llari orqali savdo aloqalarini olib borganlar. Qo'qon xonligidan arab mamlakatlari va Usmoniylar davlati shaharlariga ipak va yarim ipak matolar, mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar va Xitoy mollari olib borilgan. Bu mamlakatlarga xonlik savdogarlarining har bir safari bir necha oylab, yillab davom etgan.⁶⁷⁷

Qo'qonlik savdogarlar O'rta Yer dengizining sharqiy sohillarida joylashgan arab shaharlari bilan qizg'in savdo aloqalarini olib borgan. O'z navbatida, xonlik savdogarlarining arab hukmdorlari xizmatiga kirish jarayoni ham kuzatila boshlangan. Misr hukumatida O'rta Osiyodan kelgan savdogarning faoliyat olib borishi ikki mintaqa manfaatlari yo'lida savdo aloqalari olib borilishi uchun xizmat qilgan. Misrning poytaxti Qohira bozori va Iskandariya shahri portida ko'plab o'rta osiyolik, jumladan qo'qonlik savdogarlarni uchratish mumkin edi. Iskandariya porti Janubiy Yevropaga jo'natilayotgan Osiyo mollarining asosiy bandargohi hisoblanib, bu yerdan O'rta Osiyodan ham olib borilgan oynalar, gilam, echki terilari Yevropaga chiqarilgan. "Muntaxab ut-tavorix" asarining muallifi Muhammad Hakimxon to'ra Misrga qilgan safari chogida Qohira

⁶⁷⁶ Кўқон хонлигида савдо муносабатлари..74-б

⁶⁷⁷ Ўша жойда 77-б

bozorida savdo ishi bilan yurgan ikki qo‘qonlik savdogarni uchratgan⁶⁷⁸. Bu shundan dalolat beradiki, Misr bilan aloqalar tufayli Qo‘qon mollari Afrika qit‘asiga va Misr portlaridan Yevropa mamlakatlariga chiqarilgan. Tashqi savdoning taraqqiy etib borishi natijasida xonlikka bozorlariga zamonaviy Yevropa tajribalari ham kirib kela boshlagan. Xususan, XIX asr 60 - yillaridan boshlab xonlikning yirik shaharlarida turli savdo kompaniyalari tashkil etila boshlangan. Xususan, 1864 yil Solih Olimjonov va Muhammadjonovlar Qo‘qonda manufaktura va paxta bilan savdo qiluvchi, 1870 yilda G‘ofur Jabayev va Mirvohid ismli savdogar manufaktura, gilam, mo‘yna, ipak va paxta bilan savdo qiluvchi kompaniya tashkil qilgan . Shuningdek, 1874 yil esa Bobokalon Ne‘matullayev Qo‘qonda choy bilan savdo qiluvchi savdo kompaniyasi ochgan. Bunday savdo kompaniyalarining tashkil etilishi natijasida, muayyan bir turdagi mahsulotlar savdosi bir kompaniyaning qo‘liga o‘tib o‘tgan.⁶⁷⁹

XVIII - XIX asr 70 - yillarida mavjud bo‘lgan Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo xonliklari bilan bir qatorda, Rossiya, Xitoy, Qashqar, Hindiston, Afgoniston, Eron, arab mamlakatlari, Turkiya va boshqa hududlar bilan faol savdo aloqalarini olib borgan. XIX asr boshlarida Toshkent shahrining xonlik tarkibiga qo‘shib olinishi Qo‘qonning tashqi savdo aloqalari yanada rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Qo‘qon xonligining yirik - Qo‘qon, Toshkent, Namangan, Marg‘ilon, Andijon, O‘sh va boshqa shaharlarida turli davlatlardan kelgan savdogarlarni va turli mamlakatlar mollarini uchratish mumkin bo‘lgan. O‘z navbatida xonlik hunarmandlari ishlab chiqargan mahsulotlar dunyoning ko‘plab mamlakatlari bozorlariga olib borilgan.

Qo‘qon xonligi Hindiston, Afg‘oniston, Eron, Turkiya, arab va Yevropa mamlakatlari bilan asosan Buxoro amirligi va uning hududidan o‘tgan karvon yo‘llari orqali savdo aloqalarini olib borgan. Shuningdek, Turkiya va arab mamlakatlari bilan qisman Rossiya hududidan o‘tgan karvon yo‘llari orqali, Xitoy va Hindiston bilan Qashqar va uning hududidan o‘tgan karvon yo‘llari orqali savdo aloqalari o‘rnatilgan. O‘z

⁶⁷⁸ Хуршут Энвер. Ҳақимхоннинг ҳаёти ва саёҳатлари. - Т., Фан, 1987. - Б. 32.

⁶⁷⁹ Қўқон хонлигида савдо муносабатлари.. 82-б

navbatida Qo‘qon xonligi orqali Buxoro amirligi, Afg‘oniston, Eron, arab mamlakatlari - Qashqar va Xitoy bilan savdo qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Qo‘qon xonligining tashqi savdosida xonlik savdogarlari faol ishtirok etganlar va o‘z navbatida tashqi savdoning samarasi o‘laroq xonlik shaharlarida turli mamlakatlardan kelgan savdogarlarni tez-tez uchratish mumkin bo‘lgan.

Tayanch tushunchalar: tarixiy geografiya, xonliklar aholisi va mashg‘ulotlari, xonliklar iqtisodi va iqtisodiy markazlar, tashqi iqtisodiy munosabatlar, Kitob bekligi, Denov bekligi, Karmana bekligi, Boysun bekligi, Sarijo‘y bekligi, Sherobod bekligi, bekklik, noiblik, sajen, arshin, daryolar, verst, shaharlar, Xazorasp bekligi, Marg‘ilon bekligi, Toshkent bekligi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xonliklar hududlari haqida ma‘lumot bering
2. Buxoro xonligi iqtisodiy geografiyasi haqida ma‘lumot bering.
3. Xiva xonligi iqtisodiy geografiyasi haqida ma‘lumot bering.
4. Qo‘qon xonligi iqtisodiy geografiyasi haqida ma‘lumot bering.
5. Buxoro xonligi iqtisodiy markazlari va ularning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni?
6. Buxoro amirligining iqtisodiy markazlari va ularning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni?
7. Xiva xonligining iqtisodiy markazlari va ularning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni?
8. Qo‘qon xonligining iqtisodiy markazlari va ularning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni?
9. Xonliklar aholisi va ularning mashg‘ulotlari, xo‘jalik turlari haqida ma‘lumot bering.
10. Xonliklarning tashqi iqtisodiy aloqalari va tashqi munosabatlari haqida ma‘lumot bering.

O‘RTA OSIYO XONLIKLARINING ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI

- ❖ O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga doir manbalar.
- ❖ O‘rta Osiyoda ingliz-rus raqobatchiligi
- ❖ Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasining kartografik va harbiy – topografik holatining o‘rganilishi.
- ❖ Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishga kirishishi.
- ❖ Qo‘qon xonligi va Rossiya o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuvlar. Turkiston, Chimkent, Toshkent shaharlarining bosib olinishi
- ❖ Jizzax va Samarqandning bosib olinishi, Buxoro amirligining mag‘lubiyatga uchrashi. Zirabuloq shartnomasi.
- ❖ Xiva xonligining va Rossiya o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuvlar. Gandimiyon shartnomasi.
- ❖ Po‘latxon qo‘zg‘oloni. Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan butunlay bosib olinishi.
- ❖ **O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishining iqtisodiy va siyosiy oqibatlari.**

O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga doir manbalar. Qo‘qon xonligi tarixini yoritib beruvchi manbalarga mansub bo‘lgan asarlarda eng asosiy e‘tibor qaratilgan xususiyatlardan biri sifatida va ayni vaqtda mualliflar tomonidan bu jarayonlarning turli jihatlarini yoritib berishga sabab bo‘lgan mavzulardan biri bu xonliklarning Rossiya imperiyasi bilan harbiy to‘qnashuvlari, imperiya tomonidan xonliklar hududlari va qal’alarining bosib olinishi, harbiy jarayonlarda ishtirok etgan tarixiy shaxslar va ularning faoliyatiga qaratilgan masalalardir. Bu borada Qo‘qon tarixnavislik maktabiga oid asarlar nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladi. Muhammad Solih Toshkandiyning “Tarixi jadidi Toshkand”, Mullo Yunus Toshkandiyning “Xotiralar”i, Muhammad Yunus Toibning “Tarixi Aliquli Amirlashar”, Mullo Holiboy Mambetovning “Turkistonda o‘ris lashkarining tarix 1269-1281 sanalarda qilg‘on futuxotlari”, Mullo Holbek ibn Mullo Muso Andijoniyning “Aliquli jangnomasi va Mullo Holbek sarguzashtlari” kabi asarlarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Qo‘qon tarixnavislik maktabiga oid asarlar qatorida toshkentlik tarixchi olimlar ham tarixnavislikda o‘zlaridan oldin o‘tgan olimlar asarlariga tayangan holda nafaqat qadimgi

tarixni, balki o‘zlari yashagan davrning tarixini ham mufassal yoritganlar hamda keyingi davrlar va avlodlar uchun muhim tarixiy ma’lumotlarni qoldirganlar. Shunday tarixchi olimlar ichida XV–XIX asrlar Farg‘ona, Qo‘qon tarixiga oid kitob - “Ansob as-salotin va tavorix al-havoqin” va avtobiografik asar “Bayon hasbi holi Mullo Mirzo Olim Mirzo” asarlari muallifi toshkentlik Mullo Mirzo Olim ibn Domla Mirzo Rahim Toshkandiy hamda Qo‘qon xonligi tarixiga oid avtobiografik “Xulosat ul-ahvol” asari muallifi Eshon xo‘ja Qori Toshkandiy nomi bilan tanilgan Abu Ubaydullo Muhammad ibn Sultonxo‘ja (XIX asr)ni zikr etish kerak.⁶⁸⁰

Xonlik tarixiga oid muhim manbalardan biri hisoblanadigan “Ansob us-salotin va tavorix ul xavoqin” asari Mirzo Olim Mushrif tomonidan yaratilgan bo‘lib, asardagi ma’lumotlar Qo‘qon xonligi tarixining tashkil topishidan so‘nggi kunlarigacha bo‘lgan tarixiy voqealarni yoritishda muhim o‘rin tutadi.⁶⁸¹ Bu asarda XIX asrning 50-60-yillarida sodir bo‘lgan siyosiy voqealar tahliliga katta o‘rin beriladi. Xudoyorxon, Mallaxon, Shohmurod, Sulton Sayyidxonlarning taxtda o‘tirgan vaqtlarida yuritgan siyosatlari, shu vaqtda xonlikdagi umumiy ahvolni yoritish bilan bir qatorda Aliquli Amirlashkar shaxsiga ham katta o‘rin beradi.⁶⁸²

Mirzo Olim Mushrif o‘z asarida Ming sulolasi vakillarining taxtga kelishi va hukmronligi davomida amalga oshirgan ishlarining eng mashhurlari haqida, har bir hukmdor boshqaruvidagi o‘ziga xos jihatlari haqida batafsil ravishda, xronologik ketma-ketlikda yoritib berishga erisha olgan. Bunda xonlikning markaziy boshqaruv tizimi va ma’muriy boshqaruv masalalari ham o‘z aksini topgan. Rossiya imperiyasi qo‘shinlarining xonlik chegaralariga eng yaqin kelgan 1864 yilda Sulton Sayyidxonning mudofaani kuchaytirish maqsadida shaharlar va qal’alarga hokimlarni qayta tayinlash jarayonlarini quyidagicha ko‘rsatib beradi: -“... Shul asnoda Dashti qipchoqdin xuruji firqai Rossiya masmu’ bo‘lib erdi va yana Shodmonxojadin badgumon bo‘lub otlandi, [Aliquli-Z.I.] xoni birla

⁶⁸⁰ Баҳодиров Р.М. Тошкентлик олимларнинг ўрта асрларда илмлар ривожига қўшган хиссаси. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси, «Фан» нашриёти, 2009.

⁶⁸¹ Ансоби ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. (Қўқон хонлиги тарихи). - Т.: Шарқ. -1995.

⁶⁸² Ансоби ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. –Б. 32 - 48.

Toshkand ravona bo‘ldi. Bir necha manzil tay qilib, Toshkandg‘a doxil bo‘lub, Shodmonxojani tutub o‘ldurdi. O‘rda ichida Toshkandg‘a Normuhammad zodiynlikni hokim qildi. YA‘qubbekni Garovchi tavobe‘g‘a hokim qildi, Mirzo Davlat tojikni Turkistong‘a hokim qildi, qaytib Xo‘qandg‘a doxil bo‘ldi.»⁶⁸³

XIX asr ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligi tarixi va uning Rossiya imperiyasi bilan dastlabki harbiy to‘qnashuvlari, xususan Oqmasjid qalqasining bosib olinishi haqida yozilgan manbalardan yana biri Mulla **Niyoz Muhammad Ho‘qandiyning «Tarixi Shoxruxiy»** asaridir. Muhammad Niyoz Ho‘qandiy saroy amaldorlari safiga kirganligi uchun Sheralixon hukmronligidan XIX asrning 70-yillarigacha yuz bergan siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirok etgan. «Tarixiy Shoxruxiy» asari XIX asr oxirlaridayoq tarixchilar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida o‘rganila boshlangan asarlardan biri sanaladi. Rus tarixchisi N.N.Pantusov 1876 yildayoq asarning rus tilidagi tarjimalarini nashr qildira boshlagan bo‘lsa, 1885 yilda uning to‘liq nusxasini rus tilidagi tarjima va izohlar bilan nashr qildirdi.⁶⁸⁴ Shuningdek, T.K.Beysembiyev ham «Tarixi Shoxruxiy» asarini chuqur o‘rganib, unda yozilgan ma‘lumotlar asosida Qo‘qon xonligi va Sharqiy Turkiston tarixiga oid bir qator masalalarni tadqiq etgan.⁶⁸⁵

Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi jarayonlarini yoritib berar ekan, tarixchi Mulla Niyoz Xo‘qandiy o‘z asarida xonlik ichki siyosiy hayotining barcha tomonlarini atroflicha yoritish bilan birga, xonlarning tashqi siyosatga munosabati, harbiy ahvolning yomonligi va achinarlisi, harbiy ahvolning shunday qolib ketganligi, xattoki Rossiya imperiyasining dastlabki harbiy yurishlarida xonlik askarlarining mag‘lubiyatga uchrashi va shaharlarning qo‘ldan boy berilishini xonlarning beparvoligi oqibatida edi, deya baholaydi.⁶⁸⁶ Shuningdek asarda Xudoyorxon va Mallaxon davri siyosiy

⁶⁸³ Мирза Алим бин Домулла Мирза Рахим Ташканди. Ansof as-salotin va tavarix al-xavakin // Zerrspiegel. orientphil.uni-halle.de

⁶⁸⁴ Пантусов Н.Н. Теварихи Шахрухие // Туркестанские ведомости. -1876. -№30.

⁶⁸⁵ Бесембиев Т.К. «Тарих-и Шохрухи» как исторический источник. Алма-Ата. «Наука», 1987. – С 200; «Тарих-и Шохрухи» о Восточном Туркестане // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана в XV – XIX вв. –Т., 1987. – С. 162-174.

⁶⁸⁶ Тарихи Шохрухий. Б. 199-200.

guruhbozliklarning kuchayishi, bundan avvalroq yuz bergan qipchoqlar voqealari ham batafsil yoritib berilgan.

Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiyning «Tarixi jahonnamoyi» asarida ayniqsa, xonlik siyosiy hayotiga aloqador va dahldor bo‘lan bir qator tarixiy shaxslar va ularning xonlik boshqaruvidagi faoliyatiga oid ma‘lumotlar, shaharlar va qal‘alar, ularning harbiy va iqtisodiy holatlari, ularning himoyasiga oid bo‘lgan ma‘lumotlar nihoyatda qimmatlidir. Muallif Qo‘qon xonligining chor qo‘shinlariga qarshi olib borgan kurashlari tarixini yoritib ekan, unda Aliquli Amirlashkarning sarkardalik faoliyatiga juda yuqori baho beradi. Ayrim hollarda uning ma‘lumotlarida mubolag‘a holatlari uchrasa-da, o‘z navbatida ma‘lumotlar ham mukammalligi bilan boshqa asarlarga nisbatan ajralib turadi. Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy o‘z asarida Chimkent va Turkiston shaharlarining bosib olinishi tafsilotlarini, Toshkent mudofaasi va Aliquli Amirlashkarning o‘limigacha bo‘lgan jang tafsilotlarini to‘liq yoritib beradi va xonlik siyosiy hayotiga oid ma‘lumotlarni yanada batafsil tarzda bayon qilib beradi.⁶⁸⁷

XIX asrning ma‘rifatparvar muarrixlaridan bo‘lgan **Muhammad Solihxo‘janing «Tarixi jadidayi Toshkand»** asari Qo‘qon xonligi va unga qo‘shni mamlakatlar tarixi hamda Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo hududlarida olib borgan istilochilik yurishlarini o‘rganishga doir eng asosiy manbalardan biri hisoblanadi⁶⁸⁸. «Tarixi jadidayi Toshkand» asari O‘rta Osiyo, xususan, Qo‘qon xonligi tarixiga doir asosiy manbalardan biri, Toshkent tarixiga doir yaxlit tarixiy asardir. Asar turli yillarda R.Nabiyev⁶⁸⁹, A.O‘rinboyev va O.Bo‘riyev⁶⁹⁰, SH.Vohidov⁶⁹¹, X.Ziyayev⁶⁹², O‘.Sultonov⁶⁹³ kabi tarixchilar tomonidan o‘rganilgan va

⁶⁸⁷ Тарихи жаҳоннамойи. 3026 – 3286 – вв. Шу ўринда бу маълумотларни таҳлил қилишда «Тарихи жаҳоннамойи» асарининг Ш.Ҳ.Воҳидов томонидан амалга оширилган мукамал таржималаридан ҳам фойдаланилганлигини таъкидлаб ўтиш ўринлидир.

⁶⁸⁸ Муҳаммад Солих ибн Муҳаммад Раҳим Тошкандий. «Тарихи жадиди Тошканд». // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик Институтини қўлёмалар хазинаси, № 5732, №№ 11072, 11073.

⁶⁸⁹ Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худоёрхана). –Т.: Фан, 1973.

⁶⁹⁰ Урунбаев А. Неизвестная рукопись по истории Кокандского ханства // Известия АН УзССР. Серия общественных наук.–1957. –№3. –С.33-38; Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Муҳаммад Солих тавсифида. Т. “Фан”, 1982.

⁶⁹¹ Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик. Т.Академнашр, 2010.

⁶⁹² Зиёев Ҳ.З. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. –Т.: Шарқ. 1998.

asarning turli mazmundagi manbaviy jihatlari yoritib berilgan. Asardagi e'tiborga molik ma'lumotlar 1865 yil may oyidagi Toshkent mudofaasiga oid bo'lib, bu jarayonlarda muallif bevosita ishtirok etgan. Muhammad Solih Toshkandiy shu vaqtdagi Qo'qon xonligi sarkardasi Aliquli Amirlashkarning Toshkent mudofaasida olib borgan janglarini tasvirlar ekan, eng mayda tafsilotlargacha ma'lumot berib o'tadi. Ayniqsa, Toshkent mudofaasida yuzaga kelgan qipchoqlarning xoinlik harakatlari va jangga kirmasliklari oqibatida mudofaachilarning og'ir qiyinchiliklarga uchraganligi, muallifning o'zi esa jang ketayotgan ayni vaqtning o'zida qo'shin xazinasiga nisbatan talonchilikning oldini olganligi tafsilotlarini nihoyatda o'rinli keltirib o'tadi. Muhammad Solih Toshkandiy Rossiya imperiyasining Qo'qon xonligiga qarshi harbiy yurishlariga qarshi kurashlarda, xususan Toshkent mudofaasida eng faol ishtirok etgan tarixchilardan biridir. U bo'lib o'tgan janglar va to'qnashuvlar, ularda sodir bo'lgan voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va ularda bevosita ishtirok etgan.

Muhammad Yunus Toibning “Tarixi Aliquli Amirlashkar” asari o'zbek tilida, arab alifbosining nasta'liq xatida nasriy usulda yozilgan asardir. Bu asar turli vaqtlarda SH.Vohidov⁶⁹⁴, R.Shamsutdinov⁶⁹⁵, Z.Ilhomovlar⁶⁹⁶ tomonidan mustaqil tarzda o'rganilgan. Muhammad Yunus Toib Qo'qon xonligida 1860-1865 yillar davomida shig'ovullik mansabida faoliyat yuritish bilan birga Aliquli Amirlashkar yuritgan siyosatning faol ishtirokchisi bo'lgan. Muhammad Yunus Toib maslahati bilan XIX asrning 60-yillari o'rtalarida Qo'qon xonligidan Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Turkiya, Angliya va Rossiyaga elchiliklar uyushtirilgan. Toib Aliquli Amirlashkar bilan birgalikda Avliyoota, Turkiston, Chimkent, Toshkent mudofaalarida faol ishtirok etgan, har bir jang harakatlari va xonlik ichki siyosatida Aliquli Amirlashkar tomonidan olib borilayotgan siyosatda unga yaqindan ko'mak bergan. Keyinchalik

⁶⁹³ Султонов Ў. Муҳаммад Солиххўжанинг “Тарихи жадидаи Тошканд” асари муҳим тарихий манба сифатида (XIX аср). Тарих фан ном ... дисс. Тошкент, 2007.

⁶⁹⁴ Муҳаммад Юнус Тоиб. Тарихи Алиқули Амирлашкар. // Шарқ юлдузи. 1996,-№1-2. –Б.214-217;

⁶⁹⁵ Муҳаммад Юнус Тоиб. Амирлашкар Алимкул тарихи. -Т.: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги давлат ва жамият қурилиши Академияси «Ўзбекистоннинг янги тарихи» маркази. 1997. Б.12-54.

⁶⁹⁶ Илҳомов З. “Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий ҳаётида тутган ўрни”. Тарих фан номзоди... дисс. Тошкент, 2004.

Muhammad Yunus Toib Aliquli Amirlashkar hayoti va faoliyatini yoritib beruvchi “Tarixi Aliquli Amirlashkar” asarini yozadi. Aliquli Amirlashkar hayoti va faoliyati yoritilgan asarlar orasida “Tarixi Aliquli Amirlashkar” o‘zining eng mukammalligi va ishonchliligi bilan alohida o‘rin egallaydi. Muhammad Yunus Toibning “Tarixi Aliquli Amirlashkar” asari Aliquli Amirlashkar shaxsi va faoliyatini yoritib beruvchi tarjimai hol tarzidagi asardir. Bu asarda yuqorida aytilgan ma’lumotlar bilan birga Qo‘qon xonlari Mallaxon, Sulton Sayyidxon va boshqalar haqida ham qimmatli ma’lumotlar uchraydi.

Qo‘qon xonligi tarixi va Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo xonliklarini bosib olishi tarixi masalalarini yoritib beruvchi manbalardan yana biri **Mullo Holbek ibn Mullo Muso Andijoniyning “Aliquli jangnomasi va Mullo Holbek sarguzashtlari”** asaridir.⁶⁹⁷ Mullo Holbekning asari Qo‘qon xonligi tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, Aliquli Amirlashkar va uning harbiy yurishlari, uning Toshkent mudofaasida halok bo‘lishi voqealarini bayon etadi. Shuningdek asarda chor hukumatining mustamlakachilik siyosati, turli jinoiy ishlari va mazlum xalqning azob-uqubatlari haqida aniq va ishonarli dalillar bilan yoritilishi asarning manbaviy qimmatini yanada oshiradi. Mullo Holbek chor hukmronligiga qarshi chiqib, Farg‘ona ahlidan birlik, ittifoqning ketganligini sababchi deb biladi. Chor qo‘shinlari bilan kurashlarda katta mahorat ko‘rsatgan Aliquli Amirlashkar, Mingboy parvonachi⁶⁹⁸ kabi sarkardalarga yuqori baho berib, ular tarixda iz qoldirganligini ta’kidlab o‘tadi.⁶⁹⁹

⁶⁹⁷ ЎЗР ФА Шарқшунослик Институти қўлёзмалар хазинаси, №8816.

⁶⁹⁸ Мингбой парвоначи Қўқон хонлиги саркардаси Алиқули Амирлашкарнинг сафдошларидан бири. Чимкент мудофааси вақтида 1864 йилда ҳалок бўлган. Мингбой парвоначи (кейинчалик қўшбеги унвони ҳам берилган) ҳам Алиқули Амирлашкар сингари халқ орасида жуда катта ҳурматга сазовор бўлган ва «Ботир» номи билан аталган. Россия империясининг ҳарбий босқинчиларига даҳшат солган лашкарбошилардан бири Алиқули Амирлашкар бўлса, иккинчиси Мингбой ботир ва яна бири Султон Содик эди. Қаранг: Қаранг: Мулло Ҳолибой Мамбетов. Туркистон босқини. Нашрга тайёрловчи З.Илҳомов. Т. 2009; Ўрус лашкарининг Туркистонда тарих 1269 – 1281 саналарда қилғон футухотлари. –Б.79-81. Аваз Муҳаммад Аттор Хўқандий. Тарихи жаҳоннамои. II жилд // Қўлёзма, ЎзФАШИ, № 9455 Б.3116; Мулло Ҳолбек ибн Мулло Мусо Андижонийнинг “Алиқули жангномаси ва Мулло Ҳолбек саргузаштлари”. ЎЗР ФА Шарқшунослик Институти қўлёзмалар хазинаси, №8816. 8а-32а.; Муҳаммад Юнус Тоиб. Тарихи Алиқули Амирлашкар. // Қўлёзма, ЎЗР ФАШИ, №12136 – Б.142.; Муҳаммад Юнус Тошқандий. Хотиралар. ЎЗР МДҚ, инв. №В961/3.

⁶⁹⁹ Алиқули жангномаси ва Мулло Ҳолбек саргузаштлари. 8а-32а.

Qo‘qon xonligi tarixi va Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo xonliklarini bosib olishi tarixini yoritib beruvchi mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan ayrim qo‘lyozma manbalarning bugungi kunga kelib bironta ham nusxalari saqlanib qolmagan. A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat kutubxonasida N.I.Veselovskiy tomonidan yozilgan **“Kirgizskiy rasskaz o russkix zavoyevaniyax v Turkestanskom kraye»** asari saqlanadi.⁷⁰⁰ Bu asar aslida Mullo Holiboy Mambetov qalamiga mansub bo‘lib, **«O‘rus lashkarining Turkistonda tarix 1269-1282 sanalarda qilg‘on futuxotlari»** deb nomlanadi. Bu asar toshkentlik savdogar va tarix ixlosmandi Akram Asqarov iltimosiga ko‘ra yozilib, keyinchalik N.I.Veselovskiyga tuxfa etilgan va olim tomonidan rus tilidagi tarjima va izohlar bilan nashrdan chiqarilgan.

Oqjar volostining Chorbuloq ovulida 1856 yilda tug‘ilgan va qozoqlarning Shanishqli urug‘idan bo‘lgan Mullo Holiboyning otasi Aliquli Amirlashkar qo‘shinida alambardor lavozimida bo‘lib, Oqmasjidning bosib olinishidan Toshkent mudofaasigacha bo‘lib o‘tgan barcha janglarda ishtirok etgan. Keyinchalik uning aytib bergan tafsilotlari asosida Mullo Holiboy o‘z asarini yozib qoldirgan.⁷⁰¹

Kitobning N.I.Veselovskiy tomonidan chop etilgan nashrida rus tilidagi tarjima va izohlar bilan birga, arba alifbosidagi qo‘lyozma varianti ham to‘liq berilgan va uning umumiy hajmi har biri 16 satrdan iborat 105 sahifani tashkil etadi. Asar asosan she‘riy yo‘l bilan yozilgan.

Mullo Holiboy o‘z asarini Oqmasjid begi Yoqubbekning chor qo‘shinlariga qarshi mudofaa kurashlari tafsilotlaridan boshlaydi. Asarda Qo‘qon xonlarining bosqinchilarga qarshi kurashlarda tutgan choralari, har bir shahar va qal‘a uchun olib borilgan janglar, har bir jangni boshqarib borgan sarkardalar va ularning faoliyatlari, Avliyoota, Turkiston, Chimkent, toshkent shaharlarining chor qo‘shinlari tomonidan bosib olinishi voqealarini keng sharhlab berishga harakat qiladi. U o‘z asarida Mullo Aliquli Amirlashkar va uning faoliyatiga yuqori baho beradi. Ayniqsa, Amirlashkarning jang qilish uslublari, harbiy islohotlarni amalga oshirish yo‘lidagi say-harakatlari, Iqon jangidagi muvaffaqiyati va

⁷⁰⁰ Киргизский рассказ о русских завоеваниях в Туркестанском крае / Текст, перевод и приложения. – Спб., 1894.

⁷⁰¹ Ўрус лашкарининг Туркистонда тарих 1269-1282 саналарда қилғон футухотлари. -Б. 4-5.

Toshkent mudofaasidagi olib borgan janglarini to‘liq yoritib beradi. Asarning yana bir xususiyatli tomoni shundaki, unda boshqa manbalarda mutlaqo uchramaydigan Aliquli Amirlashkarning o‘limi oldidan Toshkent mudofaachilariga qilgan vasiyatlari ham o‘rin olgan.⁷⁰²

Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va xon o‘rdasining to‘laligicha mustamlakachilar ixtiyoriga o‘tishi jarayonlarini tarixchi **Mirzo Rahim Toshkandiy** o‘zining “**Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin**” asarida quyidagicha tasvirlaydi: -“Alqissa, siyosat birla o‘rus askari dorus-saltanai Xo‘qandg‘a doxil bo‘lub, hokim va to‘ralar joylanib, saranjom topti. Atrof va jonibdin xotirjam bo‘lub o‘rdaning atrofig‘a imorat qildilar. Abdurahmon oftobachini havlisig‘a hokim joylanib, o‘z rasmu qoidasida o‘ruscha imorat qildi va yana to‘ralari havli va imorat qilib joylandi. O‘rda arkni qibla tarafig‘a to sarbozxonag‘acha imorat qildi. Sarbozxona joyini imorat qilib, mahkam ayladi. O‘rdaning qibla tarafidagi yo‘ldin to soy labig‘acha to‘rt-besh qator o‘ruscha imorat qilib, soyg‘acha yetkurdi. Yo‘llarini tartib birla orasta qildi...”⁷⁰³

Asl qo‘lyozma nusxasi yo‘qolib ketgan yana bir shunday asar **Muhammad Yunus Toshkandiya** tegishli. U asli toshkentlik bo‘lib, ancha o‘qimishli odam bo‘lgan. Keyinchalik esa Qo‘qon xonligi saroyida mirzo, zakotchi lavozimlarida ishlagan. U saroydagi xizmati davomida siyosiy hayotda ro‘y berayotgan juda ko‘p voqealarga guvoh bo‘lgan. Muhammad Yunus Toshkandiy o‘zining ko‘rgan kechirganlari va eshitganlariga hamda avval yozilgan kitoblarga asoslanib, Qo‘qon xonligining 1805-1865 yillarga taalluqli tarixini yozib qoldirgan. Bunda u Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixon hukmronligi davriga qisman to‘xtalib o‘tadi. Asarning asosiy mazmuni esa Aliquli Amirlashkarning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan.

Muhammad Yunus Toshkandiyning ushbu asari yo‘qolib ketgan bo‘lsada, rus olimi YE.T.Smirnovning «Sultani Kenisara i Sadik» asarida keltirilgan.⁷⁰⁴ YE.T.Smirnov Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo

⁷⁰² Ўрус лашкаринг Туркистонда тарихи 1269-1282 саналарда қилғон футухотлари. –Б. 88–89.

⁷⁰³ Мирза Алим бин Домулла Мирза Рахим Ташканди. Ансаб ас-салатин ва таварих ул-хавакин // Zerrspiegel. orientphil.uni-halle.de

⁷⁰⁴ Смирнов Е.Т. Султаны Кенисара и Садык. Т.: Тип С.И.Лахтина. 1889.

xonliklarini mustamlakaga aylantirishi masalalari bilan shug'ullanar ekan, bunga mahalliy tarixchilarning munosabatlarini bilishga harakat qiladi. Shu maqsadda olim tomonidan to'plangan bir qator ma'lumotlar yuqorida nomi keltirilgan asarga ilova tarzida kiritiladi. Shu joydan o'rin olgan Muhammad Yunus Toshkandiyning asari nomlanmaganligi uchun mazkur qo'llanma muallifi tomonidan shartli ravishda «Mullo Yunus Toshkandiy xotiralari» deb nomlangan va undan unumli foydalanilgan.

Muhammad Yunus Toshkandiy o'z xotiralarida Aliquli Amirlashkarning tug'ilishi, ota-onasi haqidagi ma'lumotlar tafsilotlaridan to umrining so'nggi kunigacha bo'lgan hayot yo'lini yoritishga harakat qiladi. Bunda keltirilgan ma'lumotlar Avaz Muhammad Attor Ho'qandiyning «Tarixi jahonnamoyi», Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar» asarlarida keltirilgan ma'lumotlarni to'ldirib keladi va o'ziga xos yaxlitlikni yuzaga keltiradi.

Shunday asarlardan yana biri muallifi noma'lum bo'lgan «**Mirot ul-futux**» («**G'alabalar ko'zgusi**») asaridir. Bu asarning hozirda qo'lyozma nusxasi ham, yoki undan foydalanib yozilgan boshqa nusxalari ham yo'q. R.N.Nabiyev o'z asarida A.A.Semyonovda mavjud bo'lgan nusxasini o'z ko'zi bilan ko'rganligi va undan ayrim ma'lumotlarni olganligini yozib qoldiradi.⁷⁰⁵ Qo'qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga qarshi kurashlar tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar berishi mumkin bo'lgan ushbu asarni topib o'rganishning imkoni bo'lmadi va buni SH.H.Vohidov ham o'z tadqiqotlarida ta'kidlab o'tgan⁷⁰⁶.

Buxoro amirligi tarixi, ayniqsa uning Rossiya imperiyasi bilan XIX asr 60-yillaridagi harbiy-siyosiy munosabatlari tarixi, Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilishi tarixi yoritilgan manbalar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Buxoro amirligi davlat boshqaruvi, ma'muriy va harbiy amaldorlarning vazifalari, harbiy masalaga oid ma'lumotlar mahalliy tarixnavislik maktabi namoyondalari asarlari bilan bir qatorda ularga izoh, hamda tushuntirishlar kiritilgan g'arb

⁷⁰⁵ Из истории Кокандского ханства. -С.12.

⁷⁰⁶ Вохидов Ш. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Кўкон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши: Тарих фанлари д-ри... -Т., 1998. –Б. 233.

olimlari tomonidan ham keng miqyosda o'rganilgan⁷⁰⁷. Ularning ayrimlarida Buxoro amirligining XIX asr 60-yillaridagi harbiy holati haqida so'z yuritilgan quydagi ma'lumotlarni ko'rish mumkin: -

“Buxoroning lashkari boshqa davlatlarnikiga qaraganda ancha zaifdir. Buxoro hukumatida harbiy bilimlarni bilganlar juda kam bo'lib, shaharning shonu - shuhrati o'tmishda qolgan”,-deb, mahalliy tarixchilar yozib qoldirganlar. Buxoro amirligi nodonliklari, manmanlikka berilganliklari, oxiri oqibatda Rossiya bosqiniga duchor bo'lganligi Muhammad Sayid Baljuvoni, Ahmad Donish va boshqa mualliflarning bir qator asarlari orqali bilishimiz mumkin⁷⁰⁸.

Tarixchi olim va xattot **Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy** [1839 - Buxoro, Bo'ston qishlog'i (hoz. Qiziltepa tumani) - 1908] qalamiga mansub bo'lgan «Tuhfai shohiy» (1900-1902) va «Tarixi salotini mang'itiya» (1906-1907) tarixiy asarlarining har ikkisi ham mang'itlar sulolasi tarixiga bag'ishlansa-da, bir-biridan keskin farq qiladi. «Tuhfai shohiy» asari rasmiy siyosat talablari darajasida yozilgan bo'lsa, «Tarixi salotini mang'itiya» asarida Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy Buxoro amirligining mang'itlar hukmronlik qilgan davrini tanqidiy nuqtai nazardan baholaydi⁷⁰⁹. U o'zi guvoh bo'lgan va eshitgan hodisalarga tayanib, amirlik idora uslubidagi holatlar, Rossiya va Buxoro qo'shinlari o'rtasidagi janglar, amir qo'shin boshliqlarining layoqatsizligi va mas'uliyatsizligi oqibatida mamlakatning katta qismi bosqinchilar tomonidan bosib olinganligi va valiahd Abdulmalik (Katta To'ra)ning ba'zi muvaffaqiyatli janglarini tasvirlaydi. Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniyning har ikki asari ham mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligining siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy hayotini o'rganishda muhim manbalar hisoblanadi.

⁷⁰⁷ Мирза Бадиъ Диван. Маҷмаъ ул-аркам. (Факсимиле рукописи. Введение, перевод и примечание А. Б. Вильдановой. М.: Наука 1981; Семёнов А. А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях их носителей в средневековой Бухаре. //Советское востоковедение, Т-V 1948 С. 137-153; Вильданова А. Б. Подлинник бухарского трактата о чинах и званиях. / Письменные памятники Востока. Ежегодник, 1968. М., 1970.

⁷⁰⁸ Мухаммад Саййид Балжувоний. Тарих-и нофеи. Душанбе, 1994; Мухаммад Саййид Балжувоний. Тарих-и нофеи. Тоҷик тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев. Т.: Академия, 2001.

⁷⁰⁹ Аҳмедов Б., Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари, Т., “Ўқитувчи”, 1991. 242-б.

Buxoro amirligining XIX asrning ikkinchi yarmidagi iqtisoiy-siyosiy ahvoli, davlat boshqaruvi hamda ma'muriy tuzilishi haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi manbalardan yana biri **Mirzo Salimbek** tomonidan XX asr boshlarida yaratilgan "Tarixi Salimiy" asaridir. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida o'tgan Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim 1850/51 yillari Buxoroda tavallud topgan. Mirza Salimbek 1871 yili Nahrpoy (Narpay) va Ziyovuddin hokimi huzurida kotib bo'lib ishlaydi, olti oydan keyin amir Muzaffarning farmoyishi bilan Toshkentga Turkiston general gubernatorligi ma'murlarining Buxoro xususida tutgan siyosatini kuzatib boruvchi qilib yuborildi. Mirza Salimbek Toshkentga choyfurush qiyofasida keldi va bu yerda 12 yil istiqomat qildi. 1880-1883 yillari u amir huzurida, 1884-1885 yillari Turkiston general-gubernatori huzurida Buxoro vakili bo'lib xizmat qildi. 1885 yili Mirza Salimbek Somjin tumaniga amlakdor qilib tayinlandi. 1881-1893 yillari Buxoro shahrining mirshabi, 1893-1920 yillari Yakkabog', Nurota, Boysun, Sherobod, Shahrisabz, Chorjo'y viloyatlarining hokimi va bosh zakotchi vazifalarida turdi. 1920 yildan boshlab Mirza Salimbek sho'ro tashkilotlarida, Buxoroda tashkil etilgan «Anjumani tarix» («Tarixshunoslar jamiyatida»)da xizmat qildi. Mirza Salimbekning vafot etgan yili ma'lum emas. Mirza Salimbek bir necha yirik tarixiy va adabiy asar yozib qoldirgan. «Kashkuli Salimiy» («Salimiyning kashkuli»), «Jomi' ul-gulzor» («Gulzorlar majmui»), «Ka'b al-axbor hikoyalari», «Hikoyati Abdulla ibn Muborak», «Tarixi Salimiy» shular jumlasidandir⁷¹⁰.

«Tarixi Salimiy» asari XX asrning 20- yillarida yozilgan. Uning bosh qismi, Chingizxondan to amir Muzaffar davrigacha bo'lgan tarix umumlashtiruvchi xarakterga ega. Asarning 1860-1920 yillar voqealarini o'z ichiga olgan katta qismi butunlay yangi bo'lib, muallifning o'zi bu voqealarning guvohi bo'lgan. Asardan shuningdek, amir Muzaffar davrida Hisor, Ko'lob, Baljuvon, Qorategin va Darvozda bo'lib o'tgan isyonlar, Buxoro-Qo'qon va Buxoro-Rossiya munosabatlari, shuningdek, Buxoro

⁷¹⁰ Ахмедов Б., Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари, Тошкент. "Ўқитувчи", 1991. 243-244-бетлар.

amirligining XIX asrning ikkinchi yarmidagi umumiy ahvoli va ma'muriy tuzilishi haqida qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan.

Ahmad Donish tomonidan yozib qoldirilgan “Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif az amir Doniyol to asri amir Abdulahad” asari mang'itlar sulolasi davri tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri sanaladi. Amir Nasrullo saroyida xizmat qilgan Ahmad Donish mazkur asarida Buxoro amirligining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlarni keltirish bilan birga, mang'it amirlarining o'z hukmronligi davrlarida davlat boshqaruvida amalga oshirgan ishlari va ularning ahamiyati haqida bir qator qimmatli ma'lumotlarni ko'rsatib beradi⁷¹¹.

Rossiya imperiyasi va Xiva xonligi o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlar va xonlikning vassal davlatga aylantirilishi masalalari bir qator mahalliy mualliflar tomonidan yoritib berilgan. Xorazmning yirik tarixchisi olimlardan biri Munisning jiyani **Muhammad Rizo Ogahiy** (1809—1874) edi. Ogahiyning «Riyoziy ud-davla» (1844 yil), «Zubdat ut-tavorix» (1845 y), «Jome' voqeoti sultoniy» (1855 y), «Gulshani davlat» (1865 y) kabi tarixiy asarlar muallifidir. Ogahiyning tarixga oid asarlarida Xiva xoni Olloqulixon (1825—1842) dan to Muhammad Rahim II (1864 — 1910) gacha xonlik tarixi o'z aksini topgan. Bu asarlar orasida Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy” asari alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Unda nafaqat xonlikning avvalgi davrlar tarixi, balki Rossiya imperiyasi bilan bo'lgan harbiy to'qnashuvlari, madaniy sohaga oid ma'lumotlar o'rin olgan. **Muhammad Yusufbek Bobojonbek o'g'li** – Muhammad Yusuf Bayoniy (1858, Xiva – 1923, Xiva) o'zbek shoiri, tarixchi, musiqashunos, xattot va tarjimon. Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida tahsil ko'rgan. Suls, kufiy, rayhoni, shikasta xatlarini yaxshi bilgan, tanbur chertish va g'ijjak chalishda mohir bo'lgan. Muhammad Yusuf Bayoniyning bir devoni, Xorazm tarixiga oid ikki asari va tarjimalari saqlangan. «Shajarai Xorazmshohiy» tarixiy-memuar asari bilan Munis va Ogahiy boshlagan ishni davom ettirgan. Bunda Yofasdan Qo'ng'iro' urug'igacha, Abulg'oz Bahodirxondan Asfandiyorxongacha o'tgan xonlar hukmronligi davri tarixi yoritilgan. «Xorazm tarixi» asari

⁷¹¹ Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. 29-б.

«Shajarai Xorazmshohiy»dagi voqealarni to'ldirgan. Asarning avvalgi boblari ma'no jihatdan «Shajarai Xorazmshohiy»ga o'xshab ketadi. Lekin yozilish uslubi bilan undan farq qiladi. Asarda, asosan Asfandiyorxon hukmronligi davri va undan keyin ro'y bergan voqealar tasvirlangan. 16 bobdan iborat bu asarning 8 bobigina bizgacha yetib kelgan. Muhammad Yusuf Bayoniyning har ikki tarixiy asarida ijtimoiy-iqtisodiy hayotga oid juda ko'p qimmatli materiallar bor. Jumladan, Xiva xonligining Buxoro va Qo'qon xonligi va xonlikka qo'shni bo'lgan boshqa mamlakatlar bilan savdo va diplomatik munosabatlari, mehnatkashlardan olinadigan har xil soliqlar, Xorazmda yashagan olim va shoirlar, shaharlar hayoti, dehqonchilik ishlari to'g'risida boy ma'lumotlar yozilgan⁷¹².

O'rta Osiyo xonliklarining tarixini faqatgina yuqorida keltirilgan mahalliy tarixchilar asarlari asosidagina yoritilsa, bir yoqlamalikka yo'l qo'yilishi tabiiy. Mahalliy manbalar bilan birgalikda arxiv hujjatlari ham xonliklar tarixini o'rganishda muhim va zarur manbalar bo'lib xizmat qiladi va ularni o'rganmay turib, xonliklarning so'nggi davrlari tarixini mukammal o'rganib bo'lmaydi. Eng avvalo xonliklar tarixini o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida 1043-jamg'arma ostida saqlanayotgan «Qo'qon xonligi arxivi» hujjatlar jamg'armasi⁷¹³, 125-jamg'arma ostida saqlanayotgan «Xiva xonlari arxivi»⁷¹⁴, 126-jamg'arma ostida saqlanayotgan «Buxoro Qo'shbegisi arxivi»⁷¹⁵, kabi xonliklar saroy hujjatlari, nihoyatda katta o'rin tutadi. Bu jamg'armadan xonlik saroyida bitilgan farmonlar, turli iqtisodiy va siyosiy harakterga ega bo'lgan hujjatlar o'rin olganki, ular bilan bevosita tanishish mumkin. Shuningdek, «Turkiston general gubernatorligi kanselyariyasi»⁷¹⁶, «Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligi»⁷¹⁷, «Farg'ona viloyati Chimyon uezdi boshlig'i boshqarmasi»⁷¹⁸, «Sirdaryo viloyati boshqaruvi»⁷¹⁹, «Samarqand viloyati boshqaruvi»⁷²⁰, «Farg'ona viloyati

⁷¹² Баёний Мухаммад Юсуф. Шажаарайи Хоразмохий. Тошкент, Мерос, 1991.

⁷¹³ ЎзР МДА. 1043-фонд. - «Архив Кокандского ханства».

⁷¹⁴ ЎзРМДА. 125-фонд. «Хива хонлари архиви».

⁷¹⁵ ЎзРМДА. 126-фонд. «Бухоро Қўшбегиси архиви».

⁷¹⁶ ЎзР МДА. 1-фонд.- «Канцелярия Туркестанского генерал-губернатора»

⁷¹⁷ ЎзР МДА. 3-фонд.- Россиянинг Бухородаги сиёсий агентлиги

⁷¹⁸ ЎзР МДА. 15-фонд.- Управление начальника Чимионского уезда Ферганской области

⁷¹⁹ ЎзР МДА. 17-фонд.- «Сырдарьинское областное управление».

⁷²⁰ ЎзР МДА. 18-фонд.- Самаркандское областное правление

boshqaruvi»⁷²¹ nomli arxiv xujjatlari fondlarida Qo‘qon xonligining so‘nggi yillari tarixiga oid ko‘plab ma‘lumotlarni olish mumkin. Rossiya imperiyasining harbiy yurishlari chog‘ida amalga oshirilgan harakatlar, jang to‘qnashuvlari, harbiylar soni va qo‘shin turlari haqidagi qimmatli ma‘lumotlarni beruvchi arxiv jamg‘armalaridan yana biri polkovnik G.Serebrennikov tomonidan to‘plangan va arxiv fondlariga kiritilgan.⁷²² Ko‘plab qimmatli ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan minglab hujjatlar bir necha o‘n yig‘ma jildga taqsimlangan. Mazkur yig‘ma jildlardan bevosita O‘rta Osiyo xonliklari tarixi va ularning Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilishi voqelariga oid hujjatlar o‘rin olganki, bu hujjatlar tarixiy jarayonlarni mukammal darajada yoritib berishda muhim o‘rin tutadi. Bu manbalar bilan bir qatorda rus harbiylari va tarixchilari tomonidan yozib qoldirilgan asarlar va hujjatlar ham mavzuni o‘rganishda muhim manbalar bo‘lib hizmat qiladi. Biroq bu asarlar va hujjatlarni o‘rganishda ularga tanqidiy nuqtai nazardan yondashib, haqqoniy va holis xulosalar chiqarish maqsadga muvofiqdir.

O‘rta Osiyoda ingliz-rus raqobatchiligi. XIX asr o‘rtalariga kelib Rossiya imperiyasi va Angliya davlatlarning mustamlakachilik siyosatidagi manfaatlari O‘rta Osiyoda to‘qnashdi. Har ikki davlatning Turkistonga bo‘lgan qiziqishlari bundan ancha avvalroq boshlangan bo‘lib, har ikki davlat ham Turkistonni o‘z manfaatlari doirasiga kiritishga harakat qilardilar. XIX asr boshlaridanoq Angliya o‘zining Hindiston va Afg‘onistondagi mulklaridan turib o‘zbek xonliklari bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqalarini boshlab yubordi. Angliya siyosatchilari Rossiyaning o‘zbek xonliklari bilan tobora iqtisodiy jihatdan yaqinlashib borayotganidan tashvishga tushib, xonliklarning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishidan xavfsirardi. O‘z navbatida Rossiya ham Buyuk Britaniyaning Turkiston va Kaspiy dengizi sharqidagi yerlarni bosib olishdan tashvishga tushgan edi. Bu siyosiy o‘yinda Angliyaning asosiy maqsadi o‘zbek xonliklarini birlashtirib, Rossiya imperiyasi

⁷²¹ ЎзР МДА. 19-фонд.- «Ферганское областное управление».

⁷²² ЎзР МДА. 715-фонд. - «Подготовительные материалы к составленной полковником Серебренниковым публикации документов «Туркестанский край. Сборник материалов для истории его завоевания».

tomonidan bosib olinishiga yo‘l qo‘ymaslik va shu bilan birga O‘rta Osiyo bozorlarini egallashdan iborat edi. Angliya o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun XIX asr 30 - yillaridan boshlab O‘rta Osiyo xonliklariga o‘z elchilari va missionlarini yubora boshladi. A.Berns, Charlz Stoddart, Artur Konnoli, Iosif Volf, Jeyms Abbot, Richmond Shekspir, Archi Todd kabi bir qancha ingliz missionerlari XIX asrning 30-50 yillari davomida bir necha bor o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun kelgan bo‘lsalarda, ularning hammasi o‘z maqsadlariga yeta olmadilar. Rossiya imperiyasi XIX asr boshlaridanoq Turkistonni hududiy – geografik, harbiy-siyosiy, ilmiy o‘rganishga jiddiy kirishdi. To‘xtovsiz turli ko‘rsatmalar bilan yuborib turilgan elchiliklar va ekspeditsiyalar tarkibidagi mutaxassislar tomonidan xonliklar orasida harbiy, siyosiy, iqtisodiy sohaga tegishli bo‘lgan juda katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plandi. Bu ma’lumotlardan esa keyinchalik imperiyaning o‘zbek xonliklariga qarshi harbiy bosqinchiligini amalga oshirishda keng foydalanildi. Ayni vaqtda mazkur ma’lumotlarning ilmiy-manbaviy ahamiyatini ham e’tirof etgan holda aytish kerakki, o‘zbek xonliklarining XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr birinchi yarmida iqtisodiy hayoti, siyosiy va harbiy topografik holati, chegaralari, shaharlari, tarixiy geografiyasiga oid tadqiqotlarda qimmatli manbalar bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.

O‘rta Osiyoga yuborilgan birinchi ingliz josusi 1812-1813 yillarda Buxoro va Farg‘ona vodiysida bo‘lgan Mir Izzatulla hisoblanadi. Keyinroq U.Murkfort (1823 y - Buxoro, 1826 y -Afg‘oniston), A.Byorns (1831 y) uch marta Buxoroda bo‘ldi, Ginikberger (1832 y - Afg‘oniston va Buxoro), Veyberg (1838 y - Xiva), Konolli va Stoddart (1838 y – Buxoro), Abbot va Shekspir (1839-1840 yy - Xiva, Buxoro, Qo‘qon), Konolli (1840 y - Qo‘qon, Buxoro), Volf (1844 y - Buxoro) kabi elchilar va josuslar Britaniya manfaatlari uchun O‘rta Osiyo xonliklarida bo‘ldilar⁷²³.

1844 yildan keyin O‘rta Osiyo xonliklariga ingliz josuslari o‘rniga hindistonlik ingliz tobelaridan bo‘lgan josuslar savdogarlar qiyofasida jo‘natila boshlandi. Inglizlarning bunday yo‘l tutishiga sabab Veyberg, Stoddart, Shekspir va Konollilarning Buxoroda qatl qilinganligi sabab

⁷²³ Глущенко Е.А. Россия в Средней Азии. Завоевания и преобразования: Москва. «Центрполиграф». 2010. Стр.90-91.

boʻlgan boʻlishi mumkin⁷²⁴.

XIX asrning birinchi yarmida Oʻrta Osiyo xonliklariga amalga oshirilgan ingliz ekspeditsiyalaridan biriga U.Murkford boshchilik qilgan edi. U.Murkfort ekspeditsiyasi 1825 yil fevralda Buxoro amirligiga yetib keldi. Mazkur ekspeditsiya tarkibida 70 kishi boʻlib, ular olib kelgan 80 ta sandiqdagi turli xil mollar Buxoro qoʻshbegisiga taqdim etildi. Ingliz ekspeditsiyasi Buxoro amirligini har tomonlama oʻrganishga va oʻzlarini qiziqtirgan maʼlumotlarni toʻplashga, ayniqsa, Buxoroliklardan oʻzlariga tarafdorlar guruhini shakllantirishga harakat qildilar⁷²⁵. Inglizlarning Buxoroda boʻlib turganliklari Rossiya imperiyasi hukmatini qattiq tashvishga solib qoʻydi va ular bu haqda Buxoro hukmdori amir Nasrulloni xabardor qildilar. 1826 yilda Rossiya imperiyasi hukumati polkovnik F.Berg boshchiligidagi ekspeditsiyani Ustyurtga joʻnatadi va Oʻrta Osiyo olib boruvchi eng qulay yoʻllarni aniqlashni topshiradi⁷²⁶. Koʻp oʻtmay inglizlar Oʻrta Osiyoga Aleksandr Berns boshchiligidagi ikkinchi ekspeditsiyani yuboradilar.

Fors, hind tillari boʻyicha mutaxassis boʻlgan A.Berns Britaniya siyosiy agentining yordamchisi lavozimida Hindistonda faoliyat koʻrsatgan⁷²⁷. Shu yerdan turib u Afgʻoniston, Buxoro va Eronga uzoq yillar davom etgan josuslik sayohatini amalga oshirgan. Oʻrta Osiyo xalqlarining urf-odatlari va madaniyatini chuqur oʻrganish maqsadida A.Berns mahalliy eronzabon va turkiy tilli aholi bilan yaqindan munosabatga kirishishga harakat qilgan. Har bir sayohat qilgan hududlaridan soʻng u oʻz kuzatishlari va yigʻgan maʼlumotlarini umumlashtirib, bir qancha kitoblar nashr ettirgan. A.Bernsning birinchi sayohatidagi kundaliklarining nashri Britaniyada nihoyatda mashhur boʻlib ketgan. A.Berns maʼlumotlariga koʻra, sifatli Qoʻqon ipagi Qobul orqali Hindistonga olib borilgan. 1867 yil Hindistonga Qoʻqon va Buxoro amirligidan 1000 tuyada ipak joʻnatilgan va uning ogʻirligi oʻrtacha 12 ming pud atrofida boʻlgan. Ipakning katta qismi Moʻltonda tayyor

⁷²⁴ Соколов Ю.А. Ташкент, ташкентцы и Россия. Ташкент, 1965. С. 130.

⁷²⁵ Английская экспедиция в Среднюю Азию в первой половине XIX в. <http://history.ru>

⁷²⁶ Английская экспедиция в Среднюю Азию в первой половине XIX в. <http://history.ru>

⁷²⁷ Бёрнс А. Кабул: Путевые записки сэра Александра Борнса в 1836, 1837 и 1838 годах. Переведено по поручению П.В.Голубкова. 2 части. М., в типографии Н.Эрнста, 1847.

mahsulotga aylantirilgan va bir qismi Bombayga joʻnatilgan. Bombayda ipak savdosi samarali boʻlib, bu port shahar orqali Qoʻqon ipagi Yevropa davlatlariga ham olib ketilgan.⁷²⁸ Ingliz G.Morgan maʼlumotlariga koʻra, XIX asr oʻrtalarida yiliga Oʻrta Osiyo xonliklaridan Buxoro orqali Hindistonga 800 toʻp ipak, 6000 pud ipak mahsulotlari - roʻmol, dasturxonlar keltirilgan.⁷²⁹

Ost-Ind kompaniyasining artilleriya kapitani Jeyms Abbot ingliz hukumati topshirigʻi bilan Xiva xonligiga yuborilgan edi. Biroq Rossiya imperiyasining Xivaga yurishi bilan bogʻliq sababga koʻra u Xivaga kirishdan qoʻrqdi. Rossiya imperiyasi qoʻshinlari Xivada muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Orenburgga qaytayotgan vaqtda, yaʼni 1840 yil Abbot Ustyurt orqali Xivaga kirib borishga jazm qildi. Yoʻlda Rossiya imperiyasining bosqinchiligiga qarshi bir necha yillar davomida kurash olib borgan Isatoy Toyman qoʻliga asir tushib qoldi⁷³⁰. Abbot kaltaklanib, barcha narsalari tortib olindi, uni kuzatib kelayotgan afgʻonlarni esa qozoqlar har tomonga olib ketdilar. Abbotning hayoti qil ustida turgan bir vaqtda Xiva xoni tomonidan uning xavfsizligini taʼminlash topshirilgan turkmanlar yetib kelib, uni qutqarib qoldilar va Kaspiy dengizining sharqiy sohilida joylashgan Novoaleksandrovsk qalʼasiga olib bordilar. Bu yerdan Abbot Orenburgga yuborildi va Peterburg orqali Londonga qaytib ketdi⁷³¹.

Jeyms Abbotning missiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchragach, 1840 yil 11 may kuni Xirotda turgan kapitan Richmond Shekspir mayor Archi Todd orqali Xiva bilan aloqala oʻrnatish haqidagi topshiriqni oldi. Aslida topshiriq Jeyms Abbotga yuborilgan boʻlsada, bu vaqtda Abbot yuqorida aytilganidek Londonga qaytgan va topshiriq Shekspirga yukatilgan edi. 13 may kuni Shekspir Xiva xonligi tomon yoʻlga chiqadi⁷³². Shekspirning hisoblab berishicha, Xirotdan Marvgacha 265 mil, Marvdan Xivagacha 432 mil, Xirotdan Xivagacha 697 ingliz milyasi⁷³³ boʻlgan masofani Shekspir 25 kunda bosib oʻtib, iyul oyida Xivaga yetib keladi. Shekspir

⁷²⁸ Бернс А. Путешествие в Бухару. Часть III. — Москва, 1849. - С. 566.

⁷²⁹ Қўқон хонлигида савдо муносабатлари. 53-б.

⁷³⁰ Ковалевский Е. П. Странствователь по суше и морям. — СПб., 1843. Стр.5.

⁷³¹ Странствователь по суше и морям. Стр.6.

⁷³² Странствователь по суше и морям. Стр.8.

⁷³³ Миль, миля – ўрта асрларда халқаро денгиз миляси Ер меридиани 1 минут ёйининг ўртача узунлиги - 1852 метрга тенг, Британия денгиз миляси эса 1853,184 метр бўлса, эски рус миляси 7467,6 метрга тенг бўлган.

Xiva xoni qabulida bo‘ladi, manbalarda uning xon qabulida bo‘lgan holati va suhbatlari haqida ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Shekspirning yozishicha, Xivada u bir ajnabiyni uchratgan, bu ajnabiy italiyalik bo‘lib, Parijda yashagan va haykalchalar yasash bilan shug‘ullangan⁷³⁴.

O‘rta Osiyoga maxsus missiya bilan kelgan ingliz josuslaridan biri, sayohatchi va yozuvchi, London Qirollik jamiyatining a’zosi Artur Konolli (Arthur Conolly, 1807 yil iyul, London, Britaniya imperiyasi – 1842 yil 17 iyun, Buxoro, Buxoro amirligi) bo‘lib, Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi Hindiston va O‘rta Osiyoni o‘z ta’sir doirasiga olish borasidagi o‘zaro raqobatlarini anglatuvchi, keyinchalik mashhur bo‘lgan “katta o‘yin” siyosati iborasining muallifi hisoblanadi⁷³⁵. Hindistonda xizmat qilib turgan leytenant Konolli 1929 yil oxirlarida Moskva orqali Hindistondan ta’tilga keldi. Konolli Moskvadan Kavkazga va u yerdan Qoraqum orqali Xiva xonligiga yo‘l oldi va 1830 yil Xiva xonligi orqali o‘tib, Afg‘onistonning Hirot shahriga yetib keldi. A.Konolli o‘zining bu sayohati haqida “Britaniyadan Rossiya, Eron va Afg‘oniston orqali Shimoliy Hindistonga sayohat” deb nomlangan kitobini yozib qoldirgan va bu kitob uning vafotidan so‘ng, 1843 yilda nashr qildirilgan⁷³⁶. 1841 yil sentabr oyida Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga harbiy yurishlarining oldini olish maqsadida Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo‘qon xonliklarini birlashishga taklif qilish maqsadida O‘rta Osiyoga tomon yo‘lga chiqadi va o‘zbek xonlarini bu taklifga ko‘ndirishga harakat qiladi, biroq bu urinishlarning barchasi A.Konolli uchun natijasiz tugaydi. 1841 yilning oktabr oyida esa A.Konolli Buxoroda josus sifatida hibsga olingan Charlz Stoddartga yordam berish maqsadida Buxoroga keladi va o‘zi ham shunday ayblov bilan hibsga olinadi. 1842 yilning 17 iyun kuni esa har ikki josus amir Nasrulloning farmoni bilan qatl etiladilar. Angliyada Stoddart va Konolli nomi bilan tashkil etilgan maxsus qo‘mita ikki ofitser taqdirini aniqlash uchun o‘z odamlarini Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklariga yuoradi. Bu qo‘mita tomonidan yuborilgan Jozef Vulf 1844

⁷³⁴ Странствователь по суше и морям. Стр.9.

⁷³⁵ Дэниел Ергин. В поисках энергии: Ресурсные войны, новые технологии и будущее энергетики (Daniel Yergin "The Quest: Energy, Security, and the Remaking of the Modern World"). — М.: Альпина Паблицер, 2016.

⁷³⁶ Конолли А. «Путешествие в Северную Индию сухопутным путём из Британии через Россию, Персию и Афганистан» (Journey to the North of India through Russia, Persia and Afghanistan; 1843).

yil 3 noyabrda Istanbulga keladi, bu yerda Buyuk Britaniyaning Turkiyadagi elchisi S.Kening yordamida Buxoroga borish imkonini beruvchi tegishli hujjatlarga ega bo'lgach, Buxoroga yo'l oladi⁷³⁷. 1845 yil ruhoniylar Jozef Vulf A.Konolli va CH.Stoddartlarning taqdirini aniqlash maqsadida Buxoroga keladi va Britaniya hukumatiga yetkazilgan ularning josis sifatida qatl qilinganligi haqidagi ma'lumotlarni tasdiqlaydi⁷³⁸.

XIX asr o'rtalariga kelib, Rossiya va Angliya o'rtasidagi raqobat va keskinlik chuqurlashdi. 1856 yil 19 martda har ikki davlat o'zaro keskinlikni yumshatish maqsadida bitim imzolaydi. Biroq bu bitim ham vaziyatning yumshashiga ta'sir ko'rsata olmadi. 1858 yil mart oyida Angliya parlamenti Hindistonda mustamlaka siyosatini amalga oshirish va Turkiston xonliklari bilan savdo aloqalarini kengaytirish ko'zda tutuvchi qarori va mahsus qo'mita tashkil etdi. Bu esa rus hukumatining qattiq tashvishga soldi va o'zbek xonliklarini bosib olish masalasini kun tartibidagi birinchi o'ringa olib chiqdi. Dastlabki harbiy harakatlar Qo'qon xonligiga qarshi qaratildi. Rossiya imperiyasining keyingi yillaridagi olib borgan tashqi siyosati Angliya bilan keskin vaziyatning yuzaga kelishiga olib keldi. Har ikki davlat ham yuz berishi muqarrar bo'lgan harbiy to'qnashuvning oldini olib, 1869 yilda muzokaralar o'tkazdi. Bu muzokaralar ikki davlat o'rtasidagi betaraf hududni aniqlab berishi lozim edi. Biroq Rossiya hukumati Angliyaning betaraf hudud Afg'oniston va O'rta Osiyo bo'lishi kerak degan talabiga qarshi chiqib, betaraf hudud Afg'oniston bo'lishi, O'rta Osiyo esa Rossiya imperiyasi ta'sir doirasida bo'lishi kerak degan siyosatni ilgari surdi. Oqibatda bu masala ochiq qoldi. Keyinchalik Rossiyaning O'rta Osiyodagi bosqinchilik siyosatini kuzatib turgan Angliya hukumati vakili, Hindiston vitse-qiroli M.Forsayt 1873 yildi yashirincha Toshkentga keldi va Kaufman bilan uchrashib, Rossiyaning O'rta Osiyoni butunlay bosib olishga roziligini va Afg'oniston betaraf hudud bo'lib qolishni bildirdi. Shu tariqa Angliya va Rossiya o'rtasidagi O'rta Osiyo masalasida yuzaga kelgan raqobatchilik rus diplomatiyasining ustunligi bilan tugadi. Biroq Angliyaning aralashuvi bilan Buxoro amirligi o'z mustaqilligini qisman saqlab qolishga erishdi.

⁷³⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакаси даврида. Т.: Шарқ, 2000. 55-б.

⁷³⁸ Питер Хопкирк. Большая Игра против России: Азиатский синдром. — М., Рипол Классик, 2004.

Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasining kartografik va harbiy – topografik holatining o'rganilishi. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoga Rossiya imperiyasi va Yevropaning boshqa davlatlaridan amalga oshirilgan bir qator elchilik va ekspeditsiyalar haqida ko'plab ma'lumotlarni kuzatish mumkin. Bular orasida A.Jenkinson, I.D.Xoxlov, Mitropolit Xrisanf, aka-uka Pazuxinlar, A.F.Negri⁷³⁹, Muhammad Yusuf elchiligi, F.Beneveni, V.A.Daudov va F.Nazarov⁷⁴⁰, I.N.Xanikov, A.I.Butakov⁷⁴¹, N.Muravyev⁷⁴², N.Muravin⁷⁴³, P.P.Ivanov⁷⁴⁴, P.CH.Demizon, M.Ivanin, A.I.Maksheyev⁷⁴⁵ va boshqalarni alohida ko'rsatib o'tish mumkinki, bu elchiliklar va ekspeditsiyalar tomonidan o'rganilgan va to'plangan ko'plab ma'lumotlar bugungi kunda o'zbek xonliklarining tarixiy geografiyasiga oid qimmatli manbalar sanaladi. Bular orasida Xiva xonligi va Orolbo'yiga amalga oshirilgan ekspeditsiyalar va elchiliklar o'zining geografik ko'lami va ma'lumotlarning nisbatan mukammalligi bilan ajralib turadi. Rossiya imperiyasi XIX asr boshlaridanoq Turkistonni hududiy – geografik, harbiy-siyosiy, ilmiy o'rganishga jiddiy kirishdi.

1800-1880 yillarda O'rta Osiyoga yuborilgan elchiliklar va josusliklar o'zlarining amaliy natijalarini ko'rsatib, Rossiya imperiyasining sharqqa tomon kengayib borishining kartografik materiallari bilan ta'minladi. Buni 1846 yil Mang'ishloq yarim orolida imperiya bosh shtabi polkovnigi M.I.Ivanin hamda 1859 yil imperiya bosh shtabi polkovnigi V.D.Dandevillning Kaspiy dengizi qirg'oqlaridagi hamda boshqa ekspeditsiyalarni bunga misol sifatida ko'rsatib o'tish mumkin⁷⁴⁶.

⁷³⁹ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М."Наука", 1975.

⁷⁴⁰ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. С.-Пб., -1821; Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. - М.: Наука, 1968. - 76 с.

⁷⁴¹ Бутаков А.И. «Дневные записки плавания по Аральскому морю в 1848-1849 г.», подготовка к печати Е.К.Бетгера.-Ташкент: 1953.

⁷⁴² «Путешествие в Туркмению и Хиву в 1810 и 1820 годах гвардейскаго генеральнаго штаба капитана Николая Муравьева, посланнаго в сии страны для переговоров. С картинами с чертежами и проч. Часть вторая. Москва, в типографии Августа Семена. 1822

⁷⁴³ Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная 1740-1741 годах поручиком Гладишевым и геодезистом Муравиным. С.-Петербург. Типография министерства внутренних дел. 1851.

⁷⁴⁴ Иванов П.П. Архив хивинских ханов. Издательство Академии Наук СССР. Москва-Ленинград. 1939. Стр.14

⁷⁴⁵ Макшеев А. И. Исторический обзор Туркестана и поступательного движения в него русских. – Б. м., 1897.

⁷⁴⁶ Гоков О.А. Формы осуществления военной разведки Российской империи на мусульманском востоке в XIX в. Стр.3.

1803 yilda G.Ivanov boshchiligidagi dastlabki missiya xonliklar orasida harbiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan katta kuchga ega bo'lgan Buxoroga yetib keldi va amirlik haqida bir qancha ma'lumotlarni qo'lga kiritdi.

1820 yilda A.F.Negri boshchiligida o'z tarkibida olimlardan G.Meyendorf, E.Eversman, Budrinlarga ega bo'lgan ikkinchi missiya amirlik haqida ko'proq ma'lumot yig'ish uchun keldi. G.Meyendorf kelajakda rus qo'shinlarining Buxoroga harbiy bosqinchilik bilan kelganlarida foydalanishlari uchun butun tafsilotlarni o'zida mujassam etgan xaritalar tuzish bilan shug'ullandi⁷⁴⁷.

Orenburg general gubernatori graf V.A.Perovskiyning 1833 yil 28 oktabrdagi buyrug'iga asosan 30 oktabr kuni P.I.Demezov (1807, Shamberi, Fransiya – 1873, Parij, Fransiya) boshchiligidagi elchilar guruhi Orenburgdan chiqib, Orsk tomon yo'l oladi. Elchilar 1834 yilda Buxoroga yetib keldilar. Bu missiya mutlaqo josuslik maqsadidagi topshiriqlarni bajardi. Bu missiyaga turkiy tillarni va bu xalqlarning tarixini yaxshi bilgan qozon universitetining Sharqshunoslik fakulteti talabasi P.I.Demezov rahbarlik qildi. Unga tatar mullasi Mirza Ja'far nomi bilan soxta pasport va diplomatligini tasdiqlovchi hujjat berildi. Unga yuklatilgan vazifa o'ta muhim bo'lib, Rossiya bilan Xiva o'rtasida urush kelib chiqsa Buxoro bunga qanday munosabatda bo'lishini aniqlashdan iborat edi⁷⁴⁸. Buxoroda "Mirza Ja'far" degan mulla nomi ostida bo'lgan rus vakili P.I.Demezov o'zining 1833-1834 yillarga oid yozishmalarida Buxoroga oid qiziq ma'lumotlarni keltiradi. U shaharni 30 fut baland devorlar bilan o'ralgan deb, uning 11 ta darvozasi borligini ta'kidlaydi (Hazrati Imom, Shergiron, Talipoch, O'g'lon, Qorako'l, Shayx Jalol, Namoz goh, Salloh xona, Qarshi, Darvoz Mozor, Samarqand)⁷⁴⁹. Keyinchalik praporshik Y.V.Vitkevich 1835 yilda maxfiy ko'rsatmalar bilan Buxoroga jo'natildi. Oradan 2 yil o'tgach Buxoroda bo'lgan rus harbiysi – praporshchik I.V.Vitkevich shahar aylanasi taxminan 10 verst

⁷⁴⁷ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М."Наука", 1975.

⁷⁴⁸ Демезов П.И., Виткевич И.В. Записки о Бухарском ханстве. Москва. Директ-Медиа. 2014.

⁷⁴⁹ Записки о Бухарском ханстве ||Отчеты П.И.Демезова и И.В.Виткевича. – М., 1983. – С.56-57.

(1 farsoh, ya'ni 6-7 km) atrofida bo'lib, shahar devorlarining balandligi 5 sajen bo'lgan, deb ko'rsatadi⁷⁵⁰.

Qo'qon xonligida XIX asrning 30-yillarida Rossiya imperiyasi elchisi Filipp Nazarov bo'ldi. Filipp Nazarov Qo'qonga sibirlik rus savdogarlari karvoniga qo'shilib, 1813 yil 16 may kuni jo'nab ketdi. Karvon Qozog'iston cho'llari va Janubiy Qozog'istondagi Suzoq va Chimkat orqali Toshkentga, undan 1813 yil oktabr oyi boshlarida Qo'qonga kirib bordi. U Qo'qonda bir yil atrofida turdi va 1814 yilning avgust oyida, Qo'qon xoni Umarxon (1810-1822 yy.)ning elchisi bilan birga Petropavlovsk shahriga qaytib ketdi. Filipp Nazarov bir yil mobaynida xonlik poytaxti Qo'qondan tashqari, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Yangiqurg'on va Xo'jand shaharlarida bo'ldi va bu shaharlar, ularning xalqi hamda mashg'uloti haqida qimmatli ma'lumotlar to'pladi. Jumladan, uning kundaliklarida Qo'qon xonligining bir qator shaharlari va qal'alarining harbiy imkoniyatlari haqida quyidagi ma'lumotlarni ko'rish mumkin: -“... Marg'ilon. Shaharning aylanasi taxminan 300 verst. Yermozordan boshqa hech qanday harbiy istehkomi yo'q. Unda 20 000 askar turadi. ...Andijonda hokimning uyidan boshqa biron mustahkam qo'rg'on yo'q. U yerda 10 000 askar turadi. ...Yangiqo'rg'onning ham, ichiga 200 askar sig'adigan shahar boshlig'ining hovlisidan boshqa, biron mudofaa inshootini uchratmadik. ...Xo'jand hajm jihatdan Qo'qondan kichik emas. U Buxoro tarafdan ba'zi yerlari nurab qolgan devor bilan, boshqa tarafdan Sirdaryo bilan himoyalangan. Shahardan ariq va kanallar o'tkazilgan. Qo'qondagiga o'xshash korxonalar va xodiq chiqaradigan yerlari ko'p”⁷⁵¹.

1839 yil aprelda Buxoroga muhandis – geolog, kapitan, yozuvchi, diplomat, sharqshunos, shuningdek, keyinchali Peterburg Fanlar Akademiyasi faxriy a'zosi (1857) YE.P.Kovalevskiy boshchiligidagi ekspeditsiya yuborildi⁷⁵². YE.P.Kovalevskiy bu sayohati davomida Buxoro va Janubiy Qozog'istonda, keyinchalik Kashmir va Afg'onistonda bo'ldi. Unga Turkistondagi mavjud oltin va boshqa ma'dan konlarini

⁷⁵⁰ Записки о Бухарском ханстве ||Отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича. – М., 1983. Б.57

⁷⁵¹ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. С.-Пб., -1821; Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. - М.: Наука, 1968. - 76 с.

⁷⁵² Ковалевский Е. Английские офицеры в Средней Азии. - СПб., 1843.

xaritalashtirish topshirildi. Shuningdek Buxoro amirligining geologik tuzilishi, Buxoroda oltin buyumlar bilan savdo qilishning ahvoli va amirlikning tashqi savdo munosabatlari haqida statistik ma'lumotlar to'plash vazifasi yuklatilgan edi⁷⁵³.

1841 yil Buxoroga N.Xanikov boshchiligidagi missiya o'z tarkibida N.Zalesov, Leman kabi olimlar bilan birgalikda keldi va O'rta Osiyo flora va faunasini o'rganishga kirishdi. 1843 yilda N.Xanikov o'z safar natijalari haqida hisobot to'plab tashqi ishlar vazirligiga topshirdi va shu yiliyoq hisobot tegishli idoralar uchun yo'llanma sifatida «Opisaniye Buxarskogo xanstva» nomi bilan kitob holda nashr etildi⁷⁵⁴. Bu kitob O'rta Osiyoga yurish qiladigan qo'shinning zobit va askarlariga tarqatish uchun Orenburg general – gubernatorligiga jo'natildi. Kitobda Buxoro xaritasi, Samarqand shahri plani ilk marta e'lon qilindi.

1842 yilda Buxoro amirligiga yuborilgan K.Butenevga yanada maxfiy topshiriq berildi. U bu topshiriqlarni natijasi sifatida podsho hukumatiga «Buxoroga qo'shin tortib borish imkoniyatlari» deb atalgan maxfiy ish topshirdi⁷⁵⁵. Bu ekspeditsiya Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklariga qo'shin tortib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lishi oldindan ko'zda tutilgan va injener podpolkovnik K.Butenevning 1841 yil iyul-avgust oylarida Buxoroga amalga oshirgan elchiligi tarixda “Buxoro ekspeditsiyasi” deb nom olgan⁷⁵⁶. Unda amirlikni bosib olish mumkinligi aniq tavsiflab berilgan. Hukumatni va rus generallarini amirlikni tezroq bosib olishga undadi. Xuddi shunday missiyalar Xiva va Qo'qon xonliklariga nisbatan ham amalga oshirilgan⁷⁵⁷.

1820 yilda Xiva xonligiga N.Muravyov boshchiligidagi elchilar keladi. Nikolay Muravyev (1794-1866) – mahalliy harbiy mutaxassis, 1812-1814 yillari Rossiyaning Eron va Turkiyaga qarshi olib borgan urushlarida ishtirok etgan, 1816-1828 yillari Kavkaz armiyasida xizmat qilgan. 1819-1820 yillari rus armiyasining Kavkazdagi bosh qo'mondoni

⁷⁵³ Достоевский Ф.М. Антология и жизни и творчества; Каранг: Путешествие Е.П.Ковалевского по Западному Казахстану в 1839-1840 гг. (по неопубликованному “Путевому журналу”) // Страны и народы Востока. Вып. XXII. М.Наука.1980.

⁷⁵⁴ Ханьков Н. В. Описание Бухарского ханства. СПб. 1843

⁷⁵⁵ Бутенев К. Монетное дело в Бухарии. Горный журнал. 1842. Кн. XI. ч. III. стр. 154-163.

⁷⁵⁶ Калишевский М. К 170 летию “Бухарской экспедиции”. Научный успех, но политический провал. 2011.

⁷⁵⁷ Бутенев К. Монетное дело в Бухарии. Горный журнал. 1842. Кн. XI. ч. III. стр. 154-163.

general Yermolovning topshirig'i bilan Boku - Kaspiy dengizi - Chelekan orli - Qoraqum orqali Xivaga borgan. N.Muravyev kuzatuvchan odam edi. Mazkur safari haqida yozib qoldirgan asarida Xiva xonligi haqida muhim harbiy, iqtisodiy, tarixiy va etnografik ma'lumotlar to'plagan⁷⁵⁸. Asarda Xiva xonligining hududi, yirik shaharlari, xalqi va uning mashg'uloti va mudofaa sadohiyati (harbiy qudrati) haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar keltiriladi. 1820 yilda kapitan N.Muravyov boshchiligidagi missiya Xiva xonligini bosib olish Rossiya uchun Buxoro va Hindistonga yo'l ochadi va butun O'rta Osiyoni Rossiya ta'sirida ushlab turish imkoniyatini beradi degan xulosaga keladi va bu xulosalarga tayangan hamda Xiva xonligining harbiy ahvoli haqida Nikolay Muravyov mana bu ma'lumotlarni keltiradi: - «Muhammad Rahimxon⁷⁵⁹ saltanat kursisiga o'lturgunga qadar qabilalar orasida avjiga mingan o'zaro urush-talashlar va tashqaridan qilingan bosqinlar oqibatida xalq, (ayniqsa) badavlat kishilar o'zini bosqin va talon-tarojdan saqlash uchun uylarini mustahkamlab qal'aga aylantirganlar. Bu mustahkamlangan (kichik) qal'alar, yoki qo'rg'onlar ko'pincha o'zlarining dalalari, yoki bog'lari o'rtasida qurilgan. Uning ichida turar joylar, hovuzlar, qo'rg'on sohibi va xizmatkorlarining uylari, tegirmon, qushxona, molxona, omborxonalar va boshqalar favqulodda yuz bergan hodisalar vaqtida 100-150 kishini saqlaydigan narsalar bor. Bu qal'alar to'rt burchakli, paxsadan bino qilingan, ba'zilarida devor tagiga tosh qo'yilgan. Devorining past qismi to'rt arshin⁷⁶⁰, tepa qismi yarim arshin, balandligi – uch sajen⁷⁶¹ atrofida, devor tashqarisida, (har yer-har yerda) paxsadan dumaloq suyanchiqlar qo'yilgan. Devorning tepa qismiga kungiralar qilingan. Xonlikning yuqorida tilga olingan beshta shahari Xiva, Yangi Urganch, Shovot, Kot va Gurlan ham mustahkam paxsa devor bilan o'ralgan. Shu sababdan xivaliklar ularni qal'a deb ataydilar...Qal'alarda bironta ham zambarak yo'q, ularda askar ham yo'q. Shaharlarini aholining o'zi himoya qilishi kerak bo'ladi. Xivaliklarda muntazam qo'shin yo'q. Urush chiqib qolgudek bo'lsa, qo'shin o'zbeklar va turkmanlardan

⁷⁵⁸ «Путешествие в Туркмению и Хиву в 1810 и 1820 годах гвардейскаго генеральнаго штаба капитана Николая Муравьева, посланнаго в сии страны для переговоров. С картинами с чертежами и проч. Часть вторая. Москва, в типографии Августа Семена. 1822.

⁷⁵⁹ Хива хони Муҳаммад Раҳим аввал (1806-1825 йй.).

⁷⁶⁰ Аршин – Россияда амалда бўлган узунлик ўлчов бирлиги, 0,711 метрга тенг бўлган.

⁷⁶¹ Сажен – 2,13 м.га баробар бўлган узунлик ўлчови.

tuziladi. Qo‘shin asosan sipohiylar tabaqasidan. U xonning buyrug‘i bilan belgilangan yerga to‘planadi va asosan otliq askardan iborat bo‘ladi”⁷⁶². N.Muravyovning maslahatlariga amal qilgan graf Perovskiy rus hukumatining roziligini olib, 1839 yil Xivaga yurish qiladi va to‘la mag‘lubiyatga uchraydi. Yurish ishtirokchisi M.Ivanin «Opisaniye zimnego poxoda v Xivu (1839-1840gg)» nomli kitobida Xiva xonligi ustidan tamomila o‘lim hukmini chiqarish va unga xatto kerak bo‘lsa ekologik urush e‘lon qilish, ya‘ni, Amudaryoni Kaspiy dengiziga burib yuborish takliflarini kiritadi⁷⁶³.

Rossiya imperiyasi uchun Orol dengizining iqtisodiy va harbiy-strategik ahamiyati katta edi. Shuning uchun ham Orol flotiliyasining boshlig‘i kontr-admiral A.I.Butakov (1816-1869 yy.) ga 1848 yili Orol dengizini o‘rganish va uni tavsiflash vazifasi yuklatildi. A.I.Butakovning kuzatishlari uning «Kundaliklar»ida («Dnevniye zapiski plavaniya po Aralskomu moryu v 1848-1849 g) bayon etilgan⁷⁶⁴. Uning yozishicha, «Orol dengizi tinch dengizlardan bo‘lmay, ayniqsa shamol turgan paytida panoh topish qiyin». «Uning G‘arbiy sohilini suratga tushirishni Qumsuat qo‘ltig‘idan boshladik. Qumsuatdan boshlab menga dengiz chuqurlasha boshlaganday tuyuldi...» Butakov o‘shanda Orol dengizini va uni bandargoh qurish mumkin bo‘lgan yerlarini mukammal darajada o‘lchab chiqdi. Umuman, kontr-admiral Butkvoning kuzatishlari, Rossiya hukumatiga kelajakda dengizda harbiy va savdo floti qurish mumkinligini ko‘rsatdi. Bu reja podsho Rossiyasiga Sirdaryo va amudaryoda ham kemalar qatnovini yo‘lga qo‘yishga va bu bilan Koshg‘ar va Hindistonga suv yo‘lini ochib berish imkonini berar edi.

1858 yil may oyida polkovnik N.P.Ignatyev harbiy-siyosiy diplomatik missiya bilan Buxoro amirligi va Xiva xonligi yuborildi. Bu missiya tarkibida A.F.Mojayskiy, P.I.Lerx, astronom Struve, meteorologlar, botaniklar, fotograflar va boshqa mutaxassislar kiritilgan

⁷⁶² «Путешествие в Туркмению и Хиву в 1810 и 1820 годах гвардейскаго генеральнаго штаба капитана Николая Муравьева, посланнаго в сии страны для переговоров. С картинами с чертежами и проч. Часть вторая. Москва, в типографии Августа Семена. 1822

⁷⁶³ Иванин М.И. Описание зимнего похода в Хиву 1839-1840 гг. СПб: Типография товарищества «Общественная польза», 1874. 267 с.

⁷⁶⁴ Бутаков А.И. «Дневные записки плавания по Аральскому морю в 1848-1849 г.», подготовка к печати Е.К.Бетгера. - Ташкент: 1953.

edi. 1858 yil iyul oyida Xivaga yetib kelgan Ignatyev Xiva xoni Said Muhammad Rahimxon bilan muzokaralar olib boradi, biroq bu muzokaralar elchilar kutgan natijani bermaydi. Xivadan chiqqan elchilar ularga Ustyurt orqali ko'rsatilgan xavfsiz yo'ldan yurmasdan, Qorako'l orqali bir necha bor turkmanlar hujumlariga uchrab Buxoroga yetib boradi. Buxoro amiri Nasrullo bilan savdo bitimi tuzilib, Buxorodagi rus tutqunlarini ozod qilishga kelishgan elchilar 1858 yil dekabrda Orenburgga yetib keladi. 1858 yil O'rta Osiyoga yuborilgan polkovnik N.P.Ignatyev boshchiligidagi missiya o'z ishini tugatar ekan, «O'rta Osiyo xonliklari bilan teng asosdagi savdo va boshqa aloqalar foyda bermaydi. Elchilarni kutish va jo'natishga ketadigan barcha harajatlarni harbiy yurishlarga sarflab, bu hududlarni bosib olish kerak», – mazmunidagi xulosalarni taqdim etadi⁷⁶⁵.

Aslida josuslik ishi bo'lgan N.P.Ignatyevning 1858 yilda Xiva xonligi va Buxoro amirligiga amalga oshirgan elchiligi ayrim rus tadqiqotchilari tomonidan diplomatik va razvedka ishlarining “eng yorqin namunalaridan biri” sifatida baholanadi⁷⁶⁶.

Yuqoridagi kabi missiyalar va ekspeditsiyalar, elchiliklar yordamida Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklari to'g'risida ko'plab qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldi. Xonliklar orasida birlikning yo'qligi, ular o'rtasida davom etib turgan qonli nizolardan foydalanib tezroq xonliklarni bosib olish rejasini ishlab chiqa boshladi va ularni amalga oshirishni o'zining eng tajribali generallariga topshirdi.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishga kirishishi. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishi va uning bitmas tunganmas boyliklariga egalik qilishni bir asrlar avval o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun amaliy harakatlar Petr I davridayoq boshlangan edi. Bir necha bor amalga oshirilgan elchilik va josuslik ma'lumotlariga tayangan holda Petr I O'rta Osiyoni qo'lga kiritish uchun dastlab qozoq juzlarini bo'ysundirish va ulardan keyinchalik vosita sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir, degan fikrni ilgari surgan edi. Shu maqsadda O'rta Osiyo hududlariga ikkita yirik harbiy

⁷⁶⁵ Деятели России. Санкт-Петербург. 1906. 340 с.

⁷⁶⁶ Гоков О.А. Формы осуществления военной разведки Российской империи на мусульманском востоке в XIX в. Стр.3

ekspeditsiya tashkil qilindi va ularga O'rta Osiyoning sharqiy va g'arbiy chegaralariga yaqin hududlarda mustahkamlanib olish topshirildi. Petr I ning buyrug'iga ko'ra 1715 yilda kapitan I. Buxgols boshchiligida to'rt yarim minglik kishilik harbiy otryad Balxash ko'ligacha yetib keldi va u yerda qal'a bunyod etdi, biroq qatiq qarshilikka uchrab, bu yerdan chekinishga majbur qilindi⁷⁶⁷.

1714 yil 2 iyunda Pyotr I tomonidan "Preobrajenskiy polkining kapitani poruchik knyaz Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy-ni Amudaryo bo'ylarida tadqiqotlar o'tkazish uchun yuborish..." haqidagi faromni e'lon qilinadi. 1716 yil 14 fevralda esa Pyotr I ning Bekovich-Cherkasskiyga yuklatilgan vazifalari shaxsan topshirildi, bu topshiriqlarda quyidagi vazifalar belgilab berilgan edi: 1. Amudaryoning eski o'zanini o'rganish, agar imkoni bo'lsa daryoni yana eski o'zanga qaytarish; 2. Xiva xonini Rossiya fuqaroligini qabul qilishga ko'ndirish; 3. Xiva xonligiga olib boradigan yo'l ustida, Amudaryo bo'ylab zarur joylarda harbiy qal'alar qurish; 4. Xiva xonligi hududlarida mustahkamlanib olingandan so'ng Buxoro amirligi bilan munosabatlarga kirishish va Buxoro amirini Rossiya fuqaroligini qabul qilishga ko'ndirish; 5. Xivadan poruchik Kojinni savdogar qiyofasida savdo yo'llarini aniqlash uchun Hindistonga yuborish, yana boshqa uquvli ofitserlardan birini Erketga oltin konlarini aniqlash uchun yuborish vazifalari qo'yilgan edi. 4000 kishilik muntazam qo'shinlar, 2000 kishilik Yoyiq kazaklari va 100 nafar dragun, bir qancha dengiz ofitserlari, 2 nafar injener va 2 nafar savdogarlar Bekovich ixtiyoriga topshirildi. 1716 yil sentabrda Bekovich Cherkasskiy Astraxandan chiqib, Kaspiy dengizi bo'ylab yurdi va Aleksandrovsk ko'rfazidagi To'qqo'rg'on burni yaqinida to'xtadi. Qizilsuv darasida Bekovich Cherkasskiy eski qo'rg'on o'rnida harbiy istehkom qurishga buyruq berdi, chunki shu yerdan turib Amudaryoning eski o'zanini topishni mo'ljallagan edi. Shu yerdan Xiva xoniga ikki nafar elchi yuborilib, Bekovich Cherkasskiy o'zi Astraxanga qaytib ketdi. Bekovich-Cherkasskiy Astraxonda turib, Xiva xonligi shimolidagi chegaralarini o'rganadi, Kaspiy dengizi xaritasini tuzadi. Bu xizmatlari uchun unga gvardiyachi kapitan unvoni beriladi. 1717 yil bahorida Bekovich-

⁷⁶⁷ Российский исторический иллюстрированный журнал «Родина», № 7 за 2004 год

Cherkasskiy mayor Tevkeleyevni Eron va Hindistonga josus qilib jo‘natadi. Astraxanda turib Bekovich Cherkasskiy yangidan qo‘shin yig‘di va avvalgi qo‘shinga ko‘ra ko‘proq askarlarga ega bo‘lib, 1717 yilning bahorida quruqlikdagi karvon yo‘llari orqali Xiva xonligi tomon yo‘lga chiqdi Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi otryad 3727 piyoda, 617 otliq dragun, 2000 kazak, 230 dengizchi askar va 22 ta to‘p-zambarak bilan Xivaga yo‘l olgan edi. 9 iyunda otryad Guryev shahridan chiqib, qumli dasht va sahrolar osha 2 oy yo‘l bosgach, Xivaga kirib keldi. Xivadan 120 chaqirimcha bo‘lgan Qayrag‘och darasida Sherg‘ozixonning 24 minglik qo‘shini bilan to‘qnashadi. Uch kunlik jangda har ikki tomon katga talofat ko‘radi. Xon Bekovich-Cherkasskiyni muzokara yuritish uchun Xivaga taklif qiladi. Xivada Sherg‘ozixon dushmani g‘aflatda qoldirish maqsadida muhim harbiy strategik hiyla ishlatib, rus qo‘shinlarini besh shaharga bo‘lib yuboradi va keyinchalik ularning barchasi qirib tashlanadi. Bekovich-Cherkasskiyning o‘zi esa 1717 yil 29 avgustda qatl etiladi⁷⁶⁸.

Dastlabki urinishdagi omadsizlik Rossiya imperiyasini to‘xtatib qololmadi, keyingi harakatlar ikki tomonlama - g‘arbdan Yoyiq (Ural) daryosi orqali, sharqdan - G‘arbiy Sibir orqali olib borildi. Turli yo‘llar bilan qozoq yerlariga kirib kelgan imperiya qo‘shinlari birin ketin zabt etilgan yerlarda harbiy qal’alar va istehkomlar qura boshladi. 1717 yilda qurilgan Omsk, 1718 yilda qurilgan Semipalatinsk, 1720 yilda qurilgan Ust-Kamenogorsk, 1735 yil qurilgan Orenburg qal’alari kabi mustahkam harbiy istehkomlar Rossiya imperiyasining bu yerdagi harbiy hukmronligi hali uzoq davom etishi va ular faqatgina qo‘lga kiritgan yerlar bilan qanoatlanib qolmasliklarni bildirardi⁷⁶⁹.

1732 yilda qozoq xoni Abulxayrxonning iltimosiga ko‘ra Kichik qozoq juzi o‘rdasi va uning hududlarini Rossiya imperiyasi tobeligiga qabul qilinishi imperiyaning O‘rta Osiyoga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytirib yubordi⁷⁷⁰.

⁷⁶⁸ Посланник Петра I на Востоке. Посольства Флорио Бсневени в Персию и Бухару в 1718- 1725 гг. М., 1986

⁷⁶⁹ Ўрта Осиёнинг босиб олинishi тўғрисида тарихий тадрижий маълумотнома. Тошкент Туркистон ҳарбий округи типолиграфияси. 1909 йил. 3-б.

⁷⁷⁰ Глушенко Е.А. Россия в Средней Азии. Завоевания и преобразования: Москва. «Центрполиграф». 2010. Стр.87

1731-1740 yillar davomida Kichik va Katta qozoq juzlarining Rossiya tobeligiga o'tish Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoning ichki hududlariga bostirib kirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirdi. 1754 yil Qozoq Juzlari yerlaridagi Rossiya imperiyasi mulklariga qozoqlarning va boshqirdlarning hujumlariga barham berish uchun Orenburg shahridan Iletska tomon tarkibida 1 ta batalyon va 1 ta batareya bo'lgan otryad yuborildi. U yerda ham qal'a va qo'rg'on qurildi. 1778 yilda esa YE.Pugachyov qo'zg'oloni hamda qozoqlar va qalmoqlarning bosqinlari sababli Orenburg garnizoni kengaytirildi. Bosqinlarga chek qo'yish uchun Orsk qal'asi bunyod etildi.⁷⁷¹

Yuqoridagi hududlarni qo'lga kiritganlaridan so'ng, Rossiya davlati chegaralari bevosita o'zbek xonliklari chegaralari bilan tutashib qolgan edi. Biroq Rossiyaning Yevropada yuzaga kelgan siyosiy vaziyat va tashqi davlatlari bilan harbiy harakatlarning olib borilishi O'rta Osiyo xonliklariga qarshi qaratilgan harbiy harakatlarini yana bir asr kechiktirishga majbur qildi. Bu davr mobaynida bosib olingan hududlarda erkparvar qozoq sultonlaridan biri Kenasari Qosimov Rossiya imperiyasi qo'shinlariga qarshi ozodlik kurashlari olib boradi. Bu qo'zg'olonlarni bostirish uchun minglab qurolli kuchlarga ega bo'lgan general Obruchev, polkovnik Lebedev, Dushikovskiy, podpolkovnik Gorskiylar hech qanday natijaga erisha olmadilar. Bunda xulosa chiqargan podsho hukumati bepayon qozoq dashtlarida ko'plab harbiy qal'alar va istehkomlar ko'rishga kirishdi. Natijada XIX asr o'rtalariga kelib Qozoq juzlari hududlarida 60 ga yaqin yirik va 100 dan ortiq kichikroq harbiy istehkomlar barpo etildi. Bu ishlarning hammasi kelgusida o'zbek xonliklariga qarshi kurashga puxta tayyorgarlik ko'rilganligi-ni bildirar edi. Rossiya imperiyasining xonliklarga qarshi dastlabki harbiy yurishlardan biri 1839 yilda Xiva xonligiga qarshi Orenburg general gubernatori graf A.I.Perovskiy tomonidan amalga oshirildi. 1839 yil 16 fevralda tasdiqlangan rejaga ko'ra Xivagacha bo'lgan 1300 chaqirim masofa uch oy ichida bosib o'tilishi lozim edi. 5333 kishilik armiya mahalliy aholining kuchli qarshiligiga duch keldi va 1045 kishi o'ldirildi, 609 kishi yarador bo'ldi. Harbiy yurish esa to'laligicha mag'lubiyatga

⁷⁷¹ Ўрта Осиёнинг босиб олинishi тўғрисида тарихий тадрижий маълумотнома. 4-б.

uchradi. Keyingi yillarda Rossiya imperiyasining harbiy qo‘shinlari xonliklar bilan chegaralarda kichik-kichik harbiy to‘qnashuvlar bilan cheklangan bo‘lsalarda, bu hududlarda o‘z harbiy imkoniyatlarini kengaytirish va endi Qo‘qon xonligiga qarshi harbiy harakatlarni boshlashni maqsad qilib qo‘ygan edilar⁷⁷².

XIX asrning 50 - yillariga kelib Rossiya mohiyatiga ko‘ra adolatsiz va bosqinchilik xususiyatiga ega bo‘lgan mustamlakachilik yurishlarini Qo‘qon xonligiga qarshi faollashtirib yubordi va xonlikka qarshi rosmiyaning urush harakatlarini boshlab yubordi. Deyarli o‘rta asrlarga xos qurollanishga ega bo‘lgan Qo‘qon xonligi zamonaviy qurol-yarog‘larga ega bo‘lgan va Yevropadagi urushlarda katta tajriba orttirgan dahshatli dushmanga qarshi urushga kirdi. Bu vaqtga kelib Qozog‘iston hududlarini egallab olgan Rossiya imperiyasi harbiy qo‘shinlari Qo‘qon xonligi hududlariga ikki yo‘nalishda - Orenburg harbiy okrugi va G‘arbiy Sibir harbiy okrugi tomonidan harbiy harakatlarni boshlab yubordi. 1851-1852 yillarda polkovnik Karabashev boshchiligidagi harbiy otryad Ili daryosidan kechib o‘tib, To‘ychibek qal‘asini bosib oldi, Orenburg yo‘nalishida mayor Engman Yoqubbek Badavlat boshchilik qilgan Qo‘qon xonligi sarbozlarini mag‘lubiyatga uchratdi va yordamga yetib kelgan polkovnik Blaramberg otryadlari yordamida Qo‘shqo‘rg‘on, Chimqo‘rg‘on va Kumushqo‘rg‘on istehkomlarini qo‘lga kiritib, vayron qildi⁷⁷³. 1852 yilda xonlikning Oqmachit qal‘asiga qilingan dastlabki hujumda mag‘lubiyatga uchragan rus qo‘shinlari 1853 yilda general-adyutant Perovskiy rahbarligida Oqmachitga ikkinchi marta hujum qildi. Shiddatli o‘tgan janglardan so‘ng Oqmachit qal‘asi bosib olindi va unga “Perovskiy forti” deb nom berildi⁷⁷⁴. Qo‘qon xonligi Oqmachitni qaytarib olish uchun 1853 yil avgustida ikki marta Toshkent hokimi Shabdonxo‘ja boshchiligidagi qo‘shin jo‘natadi, biroq, bu qo‘shinlarning barcha harakatlari muvaffaqiyatsiz tugaydi.

Yuzaga kelgan vaziyatning sabablari haqida boshqa manbalarda mutlaqo boshqacha talqindagi ma‘lumotlar uchraydi. Masalan, L.Sobolevning ko‘rsatishicha, Oqmachitning qo‘ldan ketishi oqibatida

⁷⁷² Мажид Ҳасаний. Туркистон босқини. Тошкент, “Нур”, 1992. 5-б.

⁷⁷³ Туркистон босқини. 6-б.

⁷⁷⁴ Туркистон босқини. 7-б.

Xudoyorxon xonlikning shimoliy hududlarida alohida boshqaruvni joriy etadi va hokimlik vazifasiga o‘zining eng yaqin amaldorlaridan biri Mirzo Ahmad qo‘shbegini qo‘yadi. Unga vakolat topshirar ekan, Xudoyorxon «ruslar ta’siri va hukmronligi ostida bo‘lgan barcha ko‘chmanchilarni talon–taroj etish va qatl etish»ni alohida tayinlaydi. Buning oqibatida esa «xonlikning barcha shimoliy hududlari qo‘zg‘olonlar girdobida qoldi»⁷⁷⁵. Biroq xonlikning shimolida bu vaqtlarda yuz bergan qo‘zg‘olonlarning asosiy sabablari ko‘proq soliqlarning ko‘paytirilganligiga qarshi norozilik natijasida yuzaga kelgan edi⁷⁷⁶.

1854-1855 yillarda Kaskelen daryosi bo‘ylarida Uzunyog‘och mudofaalarida ham shiddatli janglar bo‘lib o‘tadi. Bu janglarda Sulton Kenasarining o‘g‘li Sulton Sodiq katta jonbozlik ko‘rsatib, ruslarga qarshi qaqshatqich zarbalar beradi⁷⁷⁷. Biroq yordamga yetib kelgan general Kolpakovskiy boshchiligidagi rus qo‘shinlari hujumi natijasida Vatan himoyachilari mag‘lubiyatga uchraydi. Shu vaqtda Ili vodiysini egallab olgan Rossiya imperiyasi qo‘shinlari avvalgi Olma-Ota o‘rnida Verniy istehkomini quradilar⁷⁷⁸.

Shahar dastavval 1854 yilda Zailiysk harbiy istehkomi sifatida qozoqlar joylashgan Olmaota qal’asi yonida qurildi. Keyinchalik bu istehkom Verniy deb ataldi.

Sirdaryo yo‘nalishiniig boshlig‘i general-mayor Fon-Fitingof otryadi 1856 yil Xo‘ja Niyoz istehkomini egallagan bo‘lsa, 1857 yil 26 fevralda xivaliklarning unga qarshi hujumlarini bartaraf etib, ularni tor-mor qildi va shu atroflardagi qozoqlar ustiga bosqin uyushtirdi. 1858 yil Iliorti o‘lkasi otryadi boshlig‘i podpolkovnik Peremilskiy boshliq otryad tomonidan Katta Juz qozoqlari bo‘ysundirildi hamda 5000 kishilik Toshkent va Qo‘qon qo‘shinlariga zarba berilib, ularni Chu daryosi

⁷⁷⁵ Соболев Л. Краткий обзор положения дел в Коканде. Туркестанский сборник, Т.152.

⁷⁷⁶ Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худойрхана). –Т.: Фан, 1973. С.52.

⁷⁷⁷ Султон Содик –козоқ султони Кенисари Қосимовнинг ўғли, Жанубий Қозоғистон худудлари, Тошкент ҳимояси, Бухоро амирлиги ҳамда Хива хонлигининг Россия империяси кўшинларига қарши олиб борган курашларида саркардалиқ фаолияти билан машҳур бўлган. 1865 йил 9 майда Қўқон хонлиги саркардаси Алиқули Амирлашкар Тошкент мудофаасида ҳалок бўлгач, Қўқон хони Султон Саййидхон томонидан Алиқулининг қиличи Султон Содикка топширилиб, Амирлашкар деб эълон қилинган.

⁷⁷⁸ Ўрта Осиёнинг босиб олиниши тўғрисида тарихий тадрижий маълумотнома. 22-б.

vodiysiga chekinishga majbur etildi. 1859 yil esa Peremilskiy qo‘shinlari tomonidan Chu vodiysining yuqori qismini, Qo‘qonning To‘qmoq va Pishpek qal’alarini o‘rab oldi. Polkovnik Dandevil Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘og‘ini o‘rab oldi va dengizdan Xivagacha boradigan yo‘lni o‘rganib chiqdi. Polkovnik Ignatyev Xiva va Buxoroga, Valixonov Qashg‘arga elchi qilib yuborildi. Bosib olingan yerlarning boshqaruvi ichki ishlar vazirligi ixtiyoriga berildi⁷⁷⁹. 1858-1860 yillar davomida podpolkovnik Peremilskiy, polkovnik Simerman boshchiligidagi otryadlar To‘qmoq va Pishpek qal’alarini bosib oldi va vayron qildi.

1861 yil podsho Aleksandr II ishtirok etgan saroy kengashida Qo‘qon xonligiga qarshi hujum harakatlarini kuchaytirish va uning ichkari hududlarga kirish masalalari ko‘rib chiqildi. Xonlikni bosib olish uchun yanada ko‘proq harbiy kuchlar safarbar etildi.

Natijada 1861 yilning o‘zidayoq Oqsuv, Pishak, Choldevor qal’alari Rossiya imperiyasi qo‘shinlari tomonidan bosib olinadi, qirg‘izlarning saribag‘ish urug‘i buysundirildi va Katta o‘rdaga bostirib kirgan Qo‘qon xonligi qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchratildi. 1861 yil 23 sentabrda general-leytenant Debu otryadi Qo‘qon xonligining Yangiqo‘rg‘on qal’asini vayron qildi. 1862 yil polkovnik Kolpakovskiy otryadi 14 apreldan 15 maygacha Chu orti o‘lkasini qurshab oldi va Qo‘qon xonligining Marki qal’asini ishg‘ol qildi. 24 oktabrda xonlikning Pishpek qal’asi qayta bosib olindi.

1864 yilga kelib harbiy harakatlari yanada shiddatli tus oldi. Xonlikning ichkari hududlariga tobora yaqinlashib kelayotgan Rossiya imperiyasining harbiy qo‘shinlari oldida Avliyo ota, Turkiston, Chimkent, Toshkent kabi qudratli harbiy kuchga va muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan shaharlar turardi.

Qo‘qon xonligi va Rossiya o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuvlar. Turkiston, Chimkent, Toshkent shaharlarining bosib olinishi. Qo‘qon xonligi Buxoro amirligi bilan olib borilgan kurashlar va taxt uchun kurashlarning avj olishi hamda ichki siyosiy vaziyatning keskinlashuvi

⁷⁷⁹ Ўрта Осиёнинг босиб олинishi тўғрисида тарихий тадрижий маълумотнома. 23-24-бб.

natijasida XIX asrning 60–yillari boshlariga kelib iqtisodiy va siyosiy jihatdan tang ahvolda qoldi. Ayni vaqtda hokimiyatni egallab turgan qipchoqlardan yirik siyosiy guruhlarining o‘zaro birlashishi uchun jiddiy to‘sqinlik bo‘ldi. Mamlakat fuqarolari ham o‘z navbatida markaziy hokimiyatdan noroziliklarini turli ko‘rinishlarda namoyon eta boshladi. Xonlikning shimoliy hududlarida Rossiya imperiyasi tarafdorlari ko‘payib borayotgan bo‘lsa, Toshkent va unga tutash hududlardagi aholi orasida bir vaqtning o‘zida Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligining tarafdorlari ham yuzaga kela boshladi. Bu esa mamlakatda umumiy parokandalik holatlarini yanada kuchaytirib yubordi. Qo‘qon xonligi uchun shunday og‘ir bir sharoitda hokimiyat butun diqqat e‘tiborini barqarorlikni mustahkamlash va Rossiya imperiyasi mustamlakachilik harbiy bosqiniga qarshi mudofaani kuchaytirishga qaratdi. 1864 yil boshlariga kelib, Qo‘qon xonligi asta-sekin ichki siyosiy barqarorlikka erisha boshlaydi. Bu esa xalqning hukumatga nisbatan ishonchi ortib borishiga, qo‘shinlarning harbiy tayyorgarligi va qurollarning bir oz takomillashuviga olib keladi. Bu haqda Orenburg harbiy okrugi qo‘mondoni imperiya harbiy vaziriga yuborgan bayonnomasida (1864 yil 4 aprel) Qo‘qon xonligining harbiy va siyosiy jihatdan avvalgi vaqtlarga nisbatan nihoyatda kuchayib ketganligi haqida alohida ta’kidlab o‘tgan edi.⁷⁸⁰ Ushbu bayonnomada 1864 yil bahorida Buxoro amiri ham Qo‘qonga harbiy yurish uyushtirmoqchi ekanligi va bunday siyosiy vaziyatda Avliyoota va Turkistonni bosib olishda Toshkentdan harbiy yordam yuborilmasligi imperiya qo‘shinlariga qo‘l kelishi ham eslatib o‘tilgan edi.⁷⁸¹

1864 yil 1 may kuni Avliyootaga yetib kelgan polkovnik Chernyayev otryadlari shaharlarga qarshi shiddatli janglar olib bordi. Vatan himoyachilarining qattiq qarshiligiga qaramay shu yilning 4 iyunida Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi. 4 iyulda Chinoz, 11 iyulda esa Manket bosib olindi⁷⁸². Orenburg yo‘nalishi bo‘yicha harakat qilayotgan polkovnik V.Verevkin qo‘shinlari Turkiston shahrini qamal qildi. Qattiq janglardan so‘ng 1864 yil 12 iyunda Turkiston shahri ham Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi.

⁷⁸⁰ ЎзР МДА. 715-ф., 1-р., 27-й.ж. 156-в.

⁷⁸¹ Ўша жойда.

⁷⁸² Ўрта Осиёнинг босиб олинishi тўғрисида тарихий тадрижий маълумотнома. 23-24-бб.

Qo‘shni davlatlardan harbiy madadning yo‘qligi, buning ustiga Buxoro amirining dushmanlik siyosati Qo‘qon xonligini nihoyatda og‘ir ahvolga solib qo‘ygan edi. Shunday tang bir vaziyatda Qo‘qonning bir qator harbiy qal‘alarini bosib olishga erishgan Rossiya imperiyasi qo‘shinlari navbatdagi bosqinchilikka tayyorgarlik ko‘rib, Turkiston shahriga yurish boshlaydi. Bosqinchilik yurishlarida katta tajriba to‘plagan Rossiya imperiyasi harbiy qo‘mondonlari boshchiligidagi askarlar 1864 yil 8 – 9 iyun kunlari Turkiston atrofiga kelib o‘rnashadilar. Yurishga qo‘mondonlik qilgan polkovnik Vrevskiy Turkistonni bosib olish uchun piyodalar bilan birga 1 otliq vzvod, 10 ta zambarak, 6 martira, 2 ta raketa moslamasini safarbar etadi.⁷⁸³ Bu vaqtda Turkiston hokimi Mirzo Davlat parvonachi Turkiston va Toshkent qo‘shinlari bilan birgalikda mudofaaga tayyorgarlik ko‘rardi. Chor qo‘shinlari shahar atrofiga joylashishlari bilanoq, Turkiston himoyachilari dushmanga to‘p va multiqlardan o‘q otib, jangni boshlaganlar. Biroq, to‘rt kun davom etgan qattiq janglardan so‘ng 1864 yil iyunda Turkiston shahri Rossiya imperiyasi harbiylari tomonidan bosib olinadi.⁷⁸⁴ - “Turkistonni, - deb yozgan edi Muhammad Solih Toshkandiy, - ruslar qattiq qamal qilib, erta tongdan boshlab shahar qal‘asiga hujum qilib, shahar ichiga bostirib kirib, mahallalarda ko‘p fuqarolarni, navkarlarni va g‘oziylarni o‘ldirdilar, tirik qolgan g‘oziylar zaxmdor va majruhlarni o‘zlari bilan olib, Chimkentga va u yerdan Toshkentga keldilar”⁷⁸⁵.

Mirzo Olim Mushrif o‘z asarida Mirzo Davlatning Turkistonni tashlab ketgani, Aliquli Amirlashkar qo‘shin bilan bu yerga otlangan vaqtda Avliyoota ham qo‘ldan ketganligini eshitib, Turkiston mudofaasi rahbarlarini qattiq jazolaganligi haqida yozsa,⁷⁸⁶ Avaz Muhammad Attor o‘z asarida Mirzo Davlatning Rossiya imperiyasi mustamlakachilariga qarshi shijoat va mardlik bilan kurashgani va ayrim buzg‘unchi kimsalarning aybi bilan Turkiston boy berilganligini yozadi⁷⁸⁷. Tarixchi Muhammad Solih Toshkandiy ham Turkiston hokimi Mirzo Davlatning

⁷⁸³ X.Зиёев. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси. –Б.98.

⁷⁸⁴ Туркистон чор кўшинлари томонидан 1864 йил 12 июн куни босиб олинган. Қаранг: Раҳимов Ж. Ўзбекистон тарихини ўрганишда архив манбаларидан фойдаланиш. Т.: «Ўқитувчи», 1995. –Б.59.

⁷⁸⁵ Тарихи жадиди Тошканд. –Б.443.

⁷⁸⁶ Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. –Б.73.

⁷⁸⁷ Тарихи жаҳоннамои. –Б.120.

Toshkent va Dashti Qipchoq qo‘shinlari bilan birgalikda Rossiya imperiyasi harbiy qo‘shinlariga qarshi qattiq qarshilik ko‘rsatganligi va bir necha kishining buzg‘unchiligi va xiyonati tufayli Toshkentga chekinishga majbur bo‘lganligini yozadi⁷⁸⁸.

Tarixchilarning bunday qarama-qarshi fikrlari mavjud bo‘lsada, arxiv manbalaridagi Turkistonda bo‘lib o‘tgan janglar haqidagi ma‘lumotlar Mirzo Davlat boshchiligidagi Turkiston shahri mudofaachilari dushmanga qarshi nihoyatda jonbozlik bilan qarshilik ko‘rsatganliklarini tasdiqlaydi⁷⁸⁹.

H.Ziyoyev o‘z asarida arxiv manbalariga asoslangan holda 1864 yil 12 iyunda Rossiya imperiyasi qo‘shinlarining Turkistonni bosib olganliklari va 4 zambarak, 117 ta miltiq, 200 pud porox, 100 pud qo‘rg‘oshinni va boshqalarni o‘lja olganliklari, imperiya qo‘shinlaridan besh kishi o‘ldirilib, o‘ttiz uch nafar kishi jarohatlanganligini ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek Turkiston shahrini bosib olish paytida podsho armiyasi tomonidan shaharga 1495 snaryad va 43208 miltiq o‘qi otilganligini ta’kidlab o‘tadi⁷⁹⁰. Bu ma‘lumotlar ham Turkiston himoyasida mudofaachilar chor qo‘shinlariga qarshi qattiq qarshilik ko‘rsatganliklarini va jang juda dahshatli kechganligini tasdiqlaydi. –“Biz, - deb yozgan edi Turkistonni bosib olishda ishtirok etgan rus zobitlaridan biri kapitan Meyer, - Turkistonni bosib olish bilan kifoyalanmasligimiz lozim. Chunki, Turkiston ko‘chmanchi qozoq xonlarining va ruhoniylarning shahridir, shuning uchun u siyosiy va savdo-iqtisodiy jihatdan hech qachon Toshkent bilan tenglasha olmaydi. Toshkentni egallash biz uchun albatta Qo‘qon xonligining ichki siyosati bilan bog‘liqdir”⁷⁹¹.

Biroq, imperiya harbiy qo‘shinlarining Toshkentga boradigan yo‘lini Chimkentdek mustahkam qal’a va harbiy kuchga ega bo‘lgan shahar to‘sib turardi. Avliyoota va Turkistonni bosib olgan chor qo‘shinlari ikki tomondan Chimkentga yaqinlasha boshladilar. Chimkent shahri ikki yo‘nalishni birlashtiruvchi nuqta sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, vatan himoyachilari uchun xonlikning ichkari hududlariga imperiya

⁷⁸⁸ Тарихи жадиди Тошканд. –Б.443.

⁷⁸⁹ Қаранг: ЎзР МДА. 715-ф., 1-р., 26-й.ж. 128-132 - вв; 27-й.ж. 358-363 - вв ва бошқ.

⁷⁹⁰ Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. –Б.128-129.

⁷⁹¹ ЎзР МДА. 715-ф., 1-р., 26-й.ж. 128-в.

qo‘shinlarining kirib kelishiga to‘siq bo‘luvchi so‘nggi kuchli tayanch edi. Chimkent uchun jangga bosqinchilar ham, himoyachilar ham qattiq tayyorgarlik ko‘radilar. Avliyo ota va Turkistondan kelgan harbiy kuchlari iyul oyida Chimkentga hujum boshlaydilar. Shahar himoyachilari ham mudofaa uchun tayyorgarliklarini kuchaytirib yuboradilar. Aliquli Amirlashkar Sulton Sayyidxon bilan birgalikda Toshkentga keladi va u yerdan Chimkent yaqinidagi Sharobxona qishlog‘iga kelib qo‘nadi⁷⁹².

Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiyning yozishicha, - “Sulton Sayyidxon Mullo Aliqulini (qo‘lyozmada Alimqul-Z.I.) sardor aylab, uni kuffor jangiga jo‘natdi. Mullo Aliquli kech tunda jo‘nab, himmat rahshini maqsud yo‘liga haydadi. Sur‘at bilan yo‘llarni tay qilib, quyosh chiqayotgan payti Chimkentga yetib keldi.”⁷⁹³

Mullo Holiboy Mambetovning yozishicha, Turkiston tomondan to‘rt yuzga yaqin rus askarlari Chimkentga bostirib keladi va Toshsoy mavzesiga qo‘nadi⁷⁹⁴.

Muhammad Solihning yozishicha, Sulton Sayyidxon va Aliquli Amirlashkar birgalikda Chimkent himoyasi uchun Toshkent orqali borganliklarini yozib, mudofaa umumxalq darajasiga yetib, ushbu ishda barcha aholi ishtirok etganini alohida ta‘kidlaydi⁷⁹⁵.

Qo‘shin Chimkent yaqinidagi Sharobxona qishlog‘iga o‘rnashadi. Bu vaqtda Oqbuloqqa o‘rnashib olishga ulgurgan chor qo‘shinlariga qarshi 14 iyul erta tongdan jang boshlanadi. 16 iyulgacha davom etgan bu jangda Mingboy botir, Mirzo Davlat, YA‘qubbek, Bekmuhammad kabi lashkarboshilar alohida qahramonlik bilan kurash olib boradilar. Qattiq va shiddatli janglardan so‘ng qo‘qonliklar katta talofot berib bo‘lsada ajoyib g‘alabaga erishadilar. Chimkent himoyachilari Rossiya imperiyasi bosqinchiligiga qarshi kurashlarga rahbarlik qilgan mahoratli sarkarda Mullo Aliquli Amirlashkar boshchiligida dushmanga qaqshatqich zarba beradi va 22 iyul kuni mag‘lubiyatga uchragan podsho armiyasi qo‘mondonlari sulh so‘rab Aliquli Amirlashkargi murojaat qiladi. Amirlashkar ularga Oqmachit, Avliyoota, Turkiston shaharlarini qaytarish

⁷⁹² Ўрус лашкарининг Туркистонда тарих 1269-1282 саналарда қилғон футухотлари. –Б.82-83.

⁷⁹³ Тарихи жаҳоннамои. –Б.309а.

⁷⁹⁴ Ўрус лашкарининг Туркистонда тарих 1269-1282 саналарда қилғон футухотлари. –Б.84.

⁷⁹⁵ Тарихи жадиди Тошканд. –Б.448.

va 200 ming tillo tovon to‘lash sharti bilan omonlik beradi. Shu o‘rinda Avaz Muhammad Attor ma‘lumotlari ahamiyatlidir: -“ Ko‘p o‘ris kofirlar boshyalang, kulohlarini* qo‘lga olib, qo‘rqib, uzr so‘rash uchun Mullo Aliquli huzuriga keldilar. Sovg‘a - salomlarini tortiq etib, dushmanlik va adovat ruhidagi kalimalarni unutib, o‘z maqsadlarini bayon qilishdi”⁷⁹⁶.

Mag‘lubiyatga uchragan Rossiya imperiyasining harbiylari butunlay yakson bo‘lishdan qutulib qolish maqsadida Aliquli Amirlashkarga elchi jo‘natib, sulh tuzishni va bunda qo‘qonliklar tomonidan qo‘yiladigan har qanday shartga rozi ekanliklarini bildirishadi. Bir tomondan g‘alabadan ruhlangan va shaharni chor qo‘shinlarining bosqinchiligidan asrab qolgan, ikkinchi tomondan sharqona qadriyatlarga xos bo‘lgan, ya‘ni mag‘lubiyatga uchragan va ojiz g‘animga shafqat qilish hissi va nihoyat, Chimkent ostonalarida qozonilgan g‘alaba natijasida qo‘ldan ketgan shaharlarni qaytarib olish imkoniyati tug‘ilganligi Amirlashkarni ham sulh tuzishga undaydi.

- “Musulmonlar sulh vasiqasiga imzo qo‘yub, o‘rislardan ikki lak miqdorida* Rusiya tillosida pul talab qilishdi. Bu esa Ho‘qandi latifning ikki yuz yigirma besh ming bir misqollik ashrafiysiga teng edi. Ular Turkiston viloyatini ham qaytarib berishga rozi bo‘lishdi”⁷⁹⁷.

Biroq, bu sulh shartnomasi Rossiya imperiyasi qo‘shinlari uchun vaqtdan yutishga imkon beruvchi bir bahona edi, xolos. Garchi Chimkent ostonalarida Aliquli Amirlashkarning chor qo‘shinlari bilan qattiq janglar olib borib, ularni mag‘lubiyatga uchratgan bo‘lsada, bundan qoniqmagan Amirlashkarning o‘zi bu hali to‘liq g‘alaba emasligini yaxshi tushunardi. Buning uchun eng avvalo, yaxshi, zamonaviy qurollar bilan qurollangan kuchli armiya zarurligini his etardi. Shuning uchun keyingi janglarda to‘p va zambaraklardan, multiqlardan ko‘proq foydalangan Qo‘qon lashkari bir muncha muvaffaqiyatlarga erishadi. Biroq, bu ham dushman oldida kuchli to‘siq bo‘la olmasdi. Sulh bahonasida kuchlarini birlashtirib olishga erishgan Rossiya imperiyasi qo‘shinlari 1864 yilning 14 sentabr kuni

* Кулоҳ - бош кийими. Бош кийимини ечиш бу ерда итоат қилиш, бўйсунуш маъноларида қўлланган.

⁷⁹⁶ Тарихи жаҳоннамои. –Б.310а.

* 1 лак – 100 минг

⁷⁹⁷ Ўша жойда.

qaytadan yana hujumga o‘tadi⁷⁹⁸.

Orenburg o‘lkasi harbiy gubernatori general Levenqof harbiy vazirga Chimkent mudofaasiga doir xonlikdagi vaziyat to‘g‘risida quyidagicha axborot bergan edi: - “Aliquli Amirlashkar Chimkentda to‘rt ming qo‘shin qoldirib, asosiy qo‘shin bilan Toshkentga ketdi. Toshkent va Chimkent oralig‘ida yana ikki ming qo‘shin qoldirildi. Bu qo‘shin agar Rossiya imperiyasi qo‘shinlari hujum qilsa Chimkentga, Buxoro amiri yordamida Xudoyorxon Toshkentga xavf solsa, Toshkent himoyasi uchun yetib borishi ko‘zda tutilgan. Turkistonda esa general Chernyayev Chimkent yurishiga tayyorgarlik ko‘rmoqda va bu yurishni sentabr oyining ikkinchi o‘n kunligiga mo‘ljallamoqda”. Avaz Muhammad Attor Rossiya imperiyasi bosqinchilari Chimkentga safar oyining yigirma ikkisi, chorshanba kuni (1864 yil 14 sentabr – Z.I.) to‘satdan hujum boshlaganliklarini ko‘rsatib o‘tadi⁷⁹⁹.

Manbalarda ko‘rsatilishicha, bu vaqtda Aliquli boshchiligidagi Qo‘qon lashkarlari Qoshg‘ar chegaralarida Xitoyga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan sharqiy turkistonliklarga yordam berish uchun borgan va xatto u ana shu qo‘zg‘olonning yuz berishidagi asosiy tashabbuskorlardan biri bo‘lganligi ham ta’kidlanadi. Biroq, boshqa manbalarda Aliqulining bu hatti – harakatlari haqida ma’lumot uchramaydi. Shunga qaramay, keyinchalik Aliquli Amirlashkar tomonidan Yoqubbek Badavlatning aynan shu joylarni boshqarish uchun jo‘natilganligi uning Sharqiy Turkiston masalasida ham Qo‘qon xonligi manfaatlari yo‘lida tashqi siyosat yuritganligining ehtimoldan holi emasligini ko‘rsatadi.

Sharqiy Turkiston chegaralarida turgan Aliquliga Rossiya imperiyasi qo‘shinlarining Chimkentga hujumi haqida habar yetib borishi bilanoq, u barcha qo‘shinlarni olib, darhol Chimkent mudofaasiga otlanadi. Ayrim manbalarda Aliquliga Chimkentning bosib olinganligi haqidagi habar yetkazilganligi ham ko‘rsatib o‘tiladi.⁸⁰⁰ Biroq mahalliy manbalarda, jumladan Avaz Muhammad Attorning asarida Aliquli qo‘shin bilan mudofaaga yetib kelganligi va jangga kirganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Shuningdek, muallif, Mullo Aliquli Amirlashkar va Mingboy

⁷⁹⁸ Туркистон босқини. –Б.29.

⁷⁹⁹ Тарихи жаҳоннамойи. 311 б.

⁸⁰⁰ Тарихи жаҳоннамойи. Б.311б

dodxohlarning qaxramonliklarini alohida ko'rsatib o'tadi: - «Mullo Aliquli sardor janoblari har bir pahlavon guruhni har joyga tayinlab, Mingboy qo'shbegini o'zining ortidan joylashtirdi. Mullo Aliquli eshikog'asining o'zi bir necha [dushman] bilan urushardi»⁸⁰¹.

Bu vaqtda Rossiya imperiyasining harbiy kuchlari general Chernyayev va polkovnik Lerxe boshchiligidagi kuchlarni qo'shib hisoblaganda (Uchinchi G'arbiy Sibir batalyoni, beshta rota, Ural Orenburg batalyonlarining birinchi va ikkinchi vzvodlari, yordamchi o'qchi batalyonning to'rtinchi rotasi, kazaklar artilleriyasining birinchi vzvodi va piyoda-tog' artilleriyasining birinchi vzvodi hamda ikkita zambarak, Ural va Orenburg kazak yuzligi va bir rota otliq qo'shinlar) xonlik qo'shinlariga nisbatan ancha katta kuchni tashkil etardi⁸⁰².

1864 yil 19 sentabr kuni Avliyo ota va Turkiston otryadlar birlashdi va qo'qonliklar bilan to'qnashuv Sayramning olinishi bilan yakunlandi. Rossiya imperiyasining birlashgan qo'shinlari tomonidan katta ustunlik bilan olib borilgan janglarda ruslarning zamonaviy qurollari ustunlik qilib, Chimkent himoyachilarini mag'lubiyatga uchratdi, 1864 yil 22 sentabr kuni Chimkent shahri bosib olinadi.

General M.G.Chernyayev boshchiligida 1864 yil oktabrda Rossiya imperiyasining harbiy kuchlari Toshkentga yurish boshlaydilar. Bu xabar Qo'qonga yetib borishi bilanoq, Amirlashkar barcha Farg'ona askari bilan yo'lga chiqadi, Oqjardan o'tib, Bobotarxon mavzesiga yetganda Toshkentdan chopar kelib qoladi va ruslarning mag'lubiyatga uchrab, Chimkentga chekinganligini aytadi⁸⁰³.

Aliquli Amirlashkar o'zi ham darhol Bobotarxondan To'ytepa orqali Toshkentning Mingo'rik mavzesiga kelib joylashdi. Shu yerda Amirlashkarning siyosat bobidagi yana bir faoliyati namoyon bo'ladi.

Toibning yozishicha, garchi Rossiya imperiyasining tajovuzi kundan–kun kuchayib borayotgan bo'lsada, Aliquli Amirlashkar Xitoy hukumatiga qarshi qo'zg'olon ko'targan va mustaqillikka intilayotgan Qoshg'ar viloyatidagi jarayonlarni diqqat bilan kuzatib, uni qo'lga kiritishni o'ylab yurardi. Toshkentga kelgach, u uch kungacha hech kimga

⁸⁰¹ Ўша жойда.

⁸⁰² Ўзбекистон тарихини ўрганишда архив манбаларидан фойдаланиш. –Б.60.

⁸⁰³ Ўша жойда. –Б.153.

ko‘rinish bermay, uch kundan so‘ng barcha sarkarda va amaldorlarni chaqirib, Qoshg‘ar maslahatini o‘rtaga soladi. Maslahatni bir joyga qo‘ygach, Jahongirto‘ra o‘g‘li Buzrukxonni podshoh qilib, ammo barcha iqtisodiy va siyosiy hokimiyatni Yoqubbek Badavlat ixtiyoriga berib, ularni Qoshg‘arga yuboradi. Shu tariqa Yoqubbek Badavlat Sharqiy Turkistonda hokimiyatni qo‘lga kiritadi⁸⁰⁴. Bu haqda Muhammad Yunus Toib o‘zining «Tarixi Aliquli Amirlashkar asarida eslatib o‘tadi⁸⁰⁵.

Aliquli Amirlashkarning Turkistonni chor bosqinchilaridan ozod qilish maqsadida 1864 yil dekabrda uyushtirgan harbiy yurishi va Iqon yaqinida olib borgan kurashlari ham alohida ahamiyatga ega: - «Amirlashkar asbob–anjomlarni rostlab, tamom askariya va to‘b–to‘bxona birlan Sariog‘och yo‘li birla Chimkandga kirmay yurub, Aris bo‘yig‘a qo‘nub va andin ko‘chub, Iqonga qo‘nduk. Ul mavzeda namozi shomdan so‘ngra xufton vaqtiga yaqin bir muncha o‘rus askari Turkistondin chiqib kelib, Iqon yaqiniga qo‘ndi», - deb yozadi Toib⁸⁰⁶.

Qo‘shin tarkibida Aliquidan tashqari qo‘shin qo‘mondonlaridan Mirzo Davlat qo‘shbegi, Qo‘shfarmonchi qipchoq, Yusufboy dodhoh, O‘tambiy qo‘shbegi va boshqalar ham bor edi⁸⁰⁷.

«Amirlashkar jangnomasi» asarining muallifi va ushbu janglarning bevosita ishtirokchisi Beknazar Amirlashkar boshchiligidagi qo‘shin Toshkentdan yo‘lga chiqib, olti kundan so‘ng Turkiston yaqinidagi Iqon mavzesiga borib qo‘ndi, deb ma‘lumot beradi⁸⁰⁸.

Beknazarning ma‘lumotlariga asoslanadigan bo‘lsak, Aliquli Amirlashkar boshchiligidagi qo‘shin 1864 yil noyabr oyining ikkinchi yarmida Toshkentdan chiqib ketganligini anglash mumkin.

-«[Aliquli Amirlashkar] bir necha kun asbob rostlab, saranjomini olib, qo‘shun qilib, Turkiston ustiga yurish qildi. Sovuqdin askar halok

⁸⁰⁴ Tarixi Aliquuli Amirlashkar.-Б.155.

⁸⁰⁵ Шу ўринда айтиш лозимки, Аликули Amirlashkarнинг бутун ҳаёт йўли ва Қўқон хонлиги ички ҳамда ташқи сиёсатидаги фаолияти, миллий давлатчилигимизни сақлаб қолиш йўлида олиб борган курашлари ҳақида тўлиқ маълумот берувчи «Тарихи Аликули Amirlashkar» асарининг муаллифи Муҳаммад Юнус Тоиб – Муҳаммад Юнус Шиғовул Amirlashkar вафоти ва Қўқон хонлиги мағлубиятидан сўнг узок йиллар мобайнида Шарқий Туркистонда, Ёқуббек Бадавлат хузурида ёвар ва девонбеги мансабларида, 1877 йилгача эса Ёркендда ҳокимлик қилган эди. Қаранг: Муҳаммад Юнус Тоиб. Тарихи Аликули Amirlashkar // Шарқ юлдузи. -1996. №1-2. –Б.214.

⁸⁰⁶ Тарихи Аликули Amirlashkar. –Б.158.

⁸⁰⁷ Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. –Б.147.

⁸⁰⁸ Amirlashkar жангномаси. –Б.76а.

bo‘lub, Iqon borib tushtilar. Namozni shom bo‘lub erdi, o‘rus keldi deb xabar topdi. Darhol otlandilar. Yarim farsax yerga borib, o‘rusga muqobil bo‘ldi. To‘p va miltiq ikki tarafdin barobar o‘t qo‘ydilar”, - deb yozadi Mirzo Olim Mushrif.⁸⁰⁹

Qo‘qonliklar Iqon qishlog‘i yaqinida yuzboshi Serov boshchiligidagi chor qo‘shinlari bilan to‘qnashadilar. -«Namozni asr va shom vaqti orasida ketma–ket shunday habar keldiki, bir necha yuz o‘ris kofirlari dabdaba bilan yaqinlashib kelmoqdalar. Bu xabarni eshitib, Sohibqironning g‘aflat uyqusi boshidan uchdi. Mardlik uning hamma payu–suyaklarida harakatga kelib, ahli lashkarni qurollantirib, kofirlar yo‘lini barcha tomondan to‘sib oldi. Kofirlar esa o‘zlari kavlagan handaqlariga kirib, yuz ming ranju azob ila kechani kunduz qildilar»⁸¹⁰.

Shiddatli kechgan janglardan so‘ng, Rossiya imperiyasi askarlari mag‘lubiyatga uchrab, bir necha omon qolganlari Turkistonga qochishga ulguradi. Yuzboshi Serovning bunday sharmandali mag‘lubiyati keyinchalik Rossiya imperiyasi tarixchilari va harbiylari manbalarida «milsiz qaxramonlik» darajasiga ko‘tariladi. Ushbu jang 1864 yil 4–6 dekabr kunlari sodir bo‘lib, «Iqon jangi» nomi bilan mashhur bo‘lgan edi.⁸¹¹ Bu jangda Rossiya imperiyasi askarlari to‘liq mag‘lubiyatga uchraydi va manbalarda bu jangda qatnashgan rus askarlari va zobitlaridan 57 kishi o‘ldirilgan va 43 kishi yarador bo‘lgan. Aliquli Amirlashkarning Iqonga qilgan harbiy yurishi haqida arxiv manbalarida ham bir qator ma‘lumotlar uchraydi. Sirdaryo chizig‘i qo‘mondoni Verevkin Aliquli Amirlashkarning bu harakatini baholab, o‘z boshliqlariga quyidagicha axborot bergan edi: - «Aliquli 19 noyabrda Toshkentdan yo‘lga chiqdi va o‘z maqsadlarini niqoblash maqsadida katta qo‘shin va bir qancha zambaraklar bilan sharqqa tomon yo‘naldi va bu harakatlari bilan Chernyayevning tashvishlanishiga hech qanday asos qoldirmadi. Aliquli Amirlashkar Toshkentdan faqatgina 30 chaqirim naridagi Kirovchi qal‘asigacha bordi va u yerda bir necha kun turgach, kutilmaganda Sirdaryoning chap qirg‘og‘iga o‘tib, daryo oqimi bo‘ylab yurdi. Iqonga yaqinlashgach, muzlagan daryo ustidan tez o‘tib, Turkiston tomonga

⁸⁰⁹ Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. –Б.67.

⁸¹⁰ Тарихи жаҳоннамои. –Б.316а.

⁸¹¹ Тошкент. Энциклопедия. Т.: Қомуслар бош тахририяти, 1992. –Б.321.

yo'naldi. Bizning yevropacha tushunchamizga ko'ra, Aliqulining nihoyatda katta qo'shin bilan amalga oshirgan bunday yurishini faqatgina kichik va yengil partizan otryadlarigina amalga oshira olishlari mumkin». Darhaqiqat, Yevropada eng tajribali deb nom qozongan rus generallari ham Aliquli Amirlashkarning harbiy taktikaga benihoya uquvli ekanligini ko'p marotaba e'tirof etgan edilar. Sirdaryo chizig'i qo'mondoni Verevkinning Iqon yurishi haqidagi axborotlaridan birida yana shunday ma'lumotlarni ham o'qish mumkin: «...keyingi vaqtlarda Aliqulining So'zoq, Chelakqo'rg'on kabi joylarni qaytarib olishga harakat qilayotganligi Iqonda amalga oshdi. Shuningdek, bu urinishlar unga katta muvaffaqiyatlar keltirmasligini ham tushunadi. Bu Aliqulining harbiy ishlarni a'lo darajada tushunadigan va o'z imkoniyatlarini o'ta qadrlaydigan inson ekanligini ko'rsatadi». Iqondagi to'qnashuv natijasida 114 kishilik chor qo'shinlaridan 57 kishi halok bo'ldi, 48 nafari yarador bo'ldi va 9 kishigina omon qoldi.⁸¹²

Aliqulining bu yurishi rus generallari tomonidan urushlar davridagi eng ajoyib harbiy san'at sifatida e'tirof etilgan edi.

Rossiya imperiyasi qo'shinlarining keyingi harbiy yurishlari Toshkent shahriga qarshi qaratildi. Ma'lumki, Toshkent shahri o'zining iqtisodiy va strategik ahamiyatiga ko'ra O'rta Osiyo shaharlari orasida alohida o'rin tutadi. Qo'qon xonligi tashkil topganidan so'ng dastlab xonlik hududlaridan tashqarida bo'lgan shahar Olimxon va Umarxon hukmronliklari yillarida Qo'qonga qo'shib olindi va shu davrdan boshlab xonlikning eng asosiy iqtisodiy va siyosiy markazlaridan biriga aylandi. Hudud jihatdan katta yerlarga ega bo'lgan Toshkent shahri XIX asrning 60–yillari o'rtalarigacha Buxoro va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi eng nizoli nuqtalardan biri bo'lib qolgan edi.

Bu davrda shahar qalin devor bilan o'ralgan bo'lib, shaharga qarashli 12 ta darvoza bor edi. Shahar mudofaa qobiliyati jihatdan Qo'qon xonligining eng mustahkam shahri bo'lib, bu yerda doimiy ravishda 2–4 ming askar saqlangan va shu bilan birga boshqa shaharlar va qal'alarga qaraganda eng ko'p (xonlik poytaxti Qo'qon shahrini hisobga olmaganda albatta – Z.I.) – 20 tagacha zambarak mavjud edi. Devor tashqarisidagi

⁸¹² Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. 149-б.

xandaqlar suv bilan to'ldirilgan bo'lib, dushmanning shaharga kirish xavfini ancha kamaytirardi.⁸¹³

Iqon jangidan g'alaba bilan qaytgan Aliquli Amirlashkar Yoqubbek Badavlat orqali Toshkent hokimi Mirzo Ahmad qo'shbegi va harbiy boshliqlariga shahar mudofaasini mustahkamlash va Niyozbek qal'asining ham buzilgan devorlarini qaytadan tuzatib mustahkamlashni, zinhor Toshkent hamda uning atroflariga chor qo'shinlarining bostirib kelishlariga yo'l qo'ymaslikni buyurib, o'zi Qo'qonga qaytadi. Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligini bosib olishga kirishar ekan, Toshkentning bosib olinishi va uning Rossiya mulkiga aylantirish masalasiga alohida ahamiyat bergan edi va Chimkentni bosib olishga erishgan general M.G.Chernyayev endi Toshkentni ham bosib olishga astoydil harakat qila boshladi va podpolkovnik Obux va podpolkovnik Leroxlar bilan birgalikda Toshkentni bosib olish uchun dastlabki urinishini 1864 yilning kuz oylarida amalga oshirdi⁸¹⁴.

1864 yil 27 sentabrda Chimkent qal'asidan Toshkentni bosib olish maqsadida chiqqan general M.G.Chernyayev qo'mondonligidagi 8,5 rotadan iborat chor qo'shinlari 1864 yil 1 oktabr kuni hozirgi Yunusobod tomondan shaharga yaqinlashib, Oqqo'rg'on tepaligida* o'rnatadilar⁸¹⁵.

Bu orada Toshkent mudofaasi uchun qoldirilgan Qo'sh parvonachi va Mirzo Ahmad qo'shbegilardan Qo'qonga, Aliquli Amirlashkarga general Chernyayev Toshkent qasdidan Chimkentdan chiqdi, degan xabar keladi.⁸¹⁶

Aliquli Amirlashkar esa darhol qo'shin yig'ishga kirishadi hamda Marg'ilon, Andijon, O'sh, Namangan viloyatlari hamda Shahrixon, Chust shaharlariga chopar yubordi. U qo'shinni Xo'jandda to'planishga buyurib, o'zi Qo'qonda mavjud bo'lgan askarlarni olib Xo'jandga yo'l oladi va bir kundan so'ng barcha qo'shin bilan Toshkent yo'lga chiqadi.⁸¹⁷

Bu vaqtda esa Rossiya imperiyasi mustamlakachi bosqinchilarining Toshkentga yaqinlashganligini ko'rgan shahar aholisi mudofaaga

⁸¹³ Тошкент. Энциклопедия. 321-б.

⁸¹⁴ Ўрус лашкарининг Туркистонда тарих 1269-1282 саналарда қилғон футухотлари. .67-б.

* Ҳозирги Тошкент обсерваторияси ўрнида

⁸¹⁵ Тошкент. Энциклопедия. 321-б

⁸¹⁶ Ўрус лашкарининг Туркистонда тарих 1269-1282 саналарда қилғон футухотлари. .68-б.

⁸¹⁷ Ўша жойда.

tayyorgarlikni kuchaytiradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bu vaqtda Toshkent shahri atrofida mustahkam mudofaa devori mavjud bo'lib, devor atroflari suv to'ldirilgan chuqur handaqlar bilan himoyalangan edi. Shahar himoyachilari bu imkoniyatdan foydalanib, bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatadilar. Shahar aholisi ham mudofaada faol ishtirok etadi va askarlarga suv va oziq-ovqat hamda boshqa zarur narsalarni yetkazishga yordam berib turadi. Shahar mudofaachilari Qo'sh parvonachi va Mirzo Ahmad qo'shbegi hamda Yoqubbek Badavlatlar rahbarligida chor qo'shinlariga qaqshatqich zarba berib, ularni chekinishga majbur qiladilar.⁸¹⁸

Bu vaqtda Toshkent mudofaasi uchun barcha Farg'ona askari bilan shoshilinch kelayotgan Aliquli Amirlashkar Oqjardan o'tib, Bobotarxon mavzesiga yetganda Toshkentdan chopar kelib qoladi va chor qo'shinlarining mag'lubiyatga uchrab, Chimkentga chekinganligini aytadi.⁸¹⁹

Bu haqda Muhammad Yunus Toib quyidagilarni yozadi: - «Yusuf Koshg'ariy degon yigit Toshkanddin Chernayuf jondorol (general – Z.I.) rusiya askari birlan Toshkandga kelib, qamab, qo'rg'ongacha kirdi va janobi Badavlat ko'b g'ayrat va shijoat ko'rsatub dushmanga qarshi kurash olib borishi natijasida] Rusiya askari shikast to'fibi, yondi, - degon mazmunda ariza olib keldi».⁸²⁰

Aliquli Amirlashkar yurishni davom ettirib, qo'shin bilan Bobotarxondan To'ytepa orqali o'tib, 1281 yil hijriy jumadul-avvalning 14 kuni (1864 yil 15 oktabr)⁸²¹ Toshkentga yetib keladi va shaharning Mingo'rik mavzesiga kelib joylashdi.

Aliquli Amirlashkar Toshkent aholisi tomonidan shodonlik bilan kutib olinar ekan, Amirlashkar ularga o'zining ishonchi katta ekanligini bildiradi.⁸²² General Chernyayevning Toshkentga qilgan hujumi mustamlakachilar uchun muvaffaqiyatsiz tugadi.

Orenburg o'lkasi qo'shinlari qo'mondoni 1864 yil 20 noyabrda

⁸¹⁸ Тарихи Алиқули Амирлашкар. 152-б.

⁸¹⁹ Ўша жойда.

⁸²⁰ Ўша жойда. 153-б.

⁸²¹ Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства. –С.68.

⁸²² Ўша жойда.

harbiy vazirga yozgan axborotnomasida shunday ma'lumotlarni bayon qilgan edi: - «Chernyayev ikki rota askarlar bilan Toshkent shahriga hujum uyushtirdi. Biroq toshkentliklar tomonidan mag'lubiyatga uchratilib, shahardan uloqtirib tashlandi.

Chernyayev qo'shinlaridan 125 kishi o'ldirildi va ko'pchiligi yarador qilinib, safdan chiqarildi. 7 oktabrda Chernyayev Chimkentga qaytib kelishga majbur bo'ldi».

Boshqa manbalarda esa bu ma'lumotlarni inkor etishga urinish kuzatiladi:

-«General Chernyayevning xabar berishicha, 2 oktabrda Toshkentga qarshi harbiy harakatlarda podpolkovnik Obux va poruchik Konopelskiylar og'ir yaralanib, halok bo'ldilar. Quyi unvonlilardan 16 kishi halok bo'ldi va 62 kishi yarador bo'ldi. 4 oktabrda esa Chernyayev Toshkentdan chekindi».

Toshkentga dastlabki hujum chog'ida chor qo'shinlaridan halok bo'lganlar 70-80 kishini, yarador bo'lganlar esa 60 kishini tashkil etganligini H.Z.Ziyayev ham o'z asarida ko'rsatib o'tadi.⁸²³

Shunga qaramay Rossiya imperiyasining harbiy bosqinchilari Toshkent va uning atroflaridan o'tuvchi karvon yo'llarini va Toshkentga oziq-ovqat hamda chorva mahsulotlari yetkazib beruvchi qishloqlarning ko'pchiligini o'z nazoratlariga olgan edilar, bu esa keyingi oylarda Toshkentda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning kuchayishi iqtisodiy ahvolning og'irlashishi va narx-navolarning ortib ketishiga olib keladi.

Rossiya imperiyasiga qarashli Chu bo'yi harbiy otryadlari qo'mondoni, bu vaqtda esa bevosita Toshkentni bosib olishni rejalashtirayotgan harbiy kuchlar qo'mondoni general M.G.Chernyayev 1864 yil 27 oktabrda Chimkentdan harbiy vazirga yuborgan maxfiy axborotnomasida shunday so'zlarni keltiradi: - «Biz tomondan karvon yo'llarining bosib olinishi natijasida Toshkentda narx-navo oshib ketdi: chorakta non 5 so'm o'rniga 12 so'mgacha, bir bosh qo'y 3,5 so'm o'rniga 7 – 9 so'mgacha ko'tarildi». Buxoro amiri tarafdorlari esa shahar aholisini Buxoro amiriga tobe bo'lishga undash va Xudoyorxonning hukmronligini

⁸²³ Зияев Х.З. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. 144-б.

qayta tiklash harakatiga tushib qoladilar va xalqni ham shunga da'vat eta boshlaydilar.⁸²⁴

Orenburg harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni vazifasini bajaruvchi general-mayor Levengof harbiy vazirga shunday ma'lumotlarni beradi: - "Toshkentdan olinayotgan xabarlariga ko'ra, general Chernyayev Toshkent yaqinida mag'lubiyatga uchrab, u yerdan chekingandan so'ng, bir qism shahar aholisi Buxoro amiri huzuriga Toshkent aholisini o'z panohiga olishni iltimos qilib elchi yubordilar va shu zahotiy oq xalqqa bundan buyon Buxoroga tobe bo'lishlarini bildirdilar. Toshkentga zudlik bilan yetib kelgan Mullo Aliquli (hujjatda "Alimqul" – Z.I) fitnachilarni qattiq jazoladi va shaharda tinchlik va osoyishtalik, tartibni mustahkamladi". Bu vaqtda esa Xudoyorxon Buxoro amiri yordamida 4000 kishilik qo'shin bilan Toshkent tomon yo'l olgan va uni bosib olishga intilayotgan edi. Aliquli Amirlashkar 2 ming kishilik qo'shin va 4 zambarak bilan qurollanib, buxoroliklarga qarshi chiqadi va Chordara yaqinida amir qo'shinlariga qattiq zarba berib, ularni chekinishga majbur qiladi.⁸²⁵

Aliquli Buxoro amiriga qarshi jang olib borish bilan bir vaqtning o'zida shimoldan kelayotgan tashqi dushmani ham nazardan qochirmadi va armiyani kuchaytirish, qurollarni takomillashtirish, shuningdek xonlik shaharlarining, ayniqsa Toshkent shahrining mudofaa qobiliyatini kuchaytirishga katta e'tibor berdi.

-«Ma'lumotlarga ko'ra, - deyiladi hujjatda, - Mullo Aliquli (hujjatda «Alimqul» – Z.I.) 10 mingtagacha qo'shin yig'a olishi mumkin. U hozir Toshkentda turib, shahar qal'alarini mustahkamlashni kuchaytirmoqda. Bunda Toshkentdagi to'p quyish ustaxonasi asosiy o'rin tutmoqda». Arxiv manbalarida yana shunday ma'lumotlarni ham uchratish mumkin: - «Turkiston shayx ul–islomining aytishicha, Toshkent ustaxonalarida 2000 tagacha miltiq yasalgan va mudofaa devorlarini ta'mirlash ishlari jadal olib borilmoqda. Toshkent garnizonida bugungi kunda 6000 nafar kishigacha bo'lgan qo'shin mavjuddir». Keyingi oylarda Amirlashkar tashqi siyosat va elchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lib turgan vaqtda rus harbiylari Toshkentni bosib olishga tayyorgarlik qurayotgan edilar. Avvalgi

⁸²⁴ Зияев Х.З. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига карши кураш. 146–152-бб.

⁸²⁵ Ўша жойда.

mag'lubiyatdan alamzada bo'lgan rus generali M.G.Chernyayev 1865 yilning aprelida Toshkent bekligiga qarashli va shaharni suv bilan ta'minlovchi Niyozbek qal'asiga hujum qiladi. Rossiya imperiyasi qo'shinlari bilan hozirgi Qibray tumanidagi Do'rmon, Qibray qishloqlari va Uymovut arig'i atroflarida bo'lib o'tgan qisqa to'qnashuvlardan so'ng Niyozbek qal'asi bosib olinadi. Bu voqea 1865 yil 29 aprelda sodir bo'lgan edi⁸²⁶.

Mullo Yunus Toshkandiy Niyozbek qal'asi mudofaasi bilan bog'liq voqealarni ancha batafsil tasvirlab beradi: - "Hijriy 1280 yil zul-hijja oyining 13 kunida⁸²⁷ rus qo'shinlari Niyozbek qal'asiga bostirib keldi. O'sha vaqtda qal'a boshlig'i Botchabotir degan odam edi. Qo'sh parvonachi⁸²⁸ Toshkent qo'shinlari bilan Do'rmonga⁸²⁹ keldi. Keyingi kun tongda Qo'sh parvonachi qo'shin bilan Qibray qishlog'i⁸³⁰ yaqinidagi tepaliklarga o'rnashdi va chor qo'shinlarining harakatlarini kuzata boshladi. Botchabotir esa, bir necha zambaraklarni olib, Uymovut arig'i⁸³¹ yaqiniga joylashdi va dushman joylashgan tomonga zambaraklardan bir necha ogohlantiruvchi o'q uzdi. Shu vaqtda chor qo'shinlari to'pidan bir nechta otliq qirg'izlar⁸³² ajralib chiqib, Qibray tomonga yurdi. Qo'sh parvonachiga ruslar orqaga chekina boshladilar, degan xabar keldi va u qo'shin bilan Toshkentga qaytib ketdi. Qo'sh parvonachi Toshkentga yetib kelishi bilanoq, ruslar orqaga qaytib, Niyozbek qal'asini egallab oldilar"⁸³³.

Podsho armiyasi qo'shinlari Toshkentning asosiy suv manbai bo'lgan Niyozbek qal'asini qo'lga kiritadilar va Toshkentga qarshi hujum qilishda qulay imkoniyatga ega bo'ladilar. Niyozbek qal'asining bosib olinishi haqida harbiy vazirga yuborilgan telegrammada shunday so'zlarni o'qish mumkin: - «29 aprelda Chernyayev Toshkentdan 25 chaqirim narida joylashgan, Chirchiq daryosi bo'yidagi Niyozbek qal'asini bosib oldi.

⁸²⁶ Туркистон босқини. 22-б.

⁸²⁷ 1865 йил 28 апрелда.

⁸²⁸ 1864 – 1865 йилларда Тошкент ҳокими бўлган.

⁸²⁹ Ҳозирги Қибрай туманида жойлашган қишлоқ.

⁸³⁰ Ҳозирги Қибрай туманида жойлашган қишлоқ, туман маркази.

⁸³¹ Ҳозирги Қибрай тумани, Байтқўрғон қишлоғи ҳудудларидан оқиб ўтувчи ариқ.

⁸³² Рус ҳужжатлари ва асарларида козоқларга нисбатан «қирғиз» атамаси қўлланганлиги ҳисобга олинса, бу ерда ҳам козоқлар сифатида қабул қилиш лозим.

⁸³³ Мулло Юнус Тошкандий хотиралари. 80-81-бб.

Niyozbek qal'asi Toshkentni suv bilan ta'minlanishini nazorat qilgan». Niyozbek qal'asining podsho armiyasi qo'shinlari tomonidan bosib olinganligini eshitgan zahotiyoq Aliquli Amirlashkar barcha Qo'qon lashkarlari bilan Toshkent mudofaasiga o'tlanadi. Qo'shin shoshilinch ravishda yo'l bosib kelib, Toshkent yaqinida to'xtaydi⁸³⁴.

- «Zul-hijja oyining 24-kuni, juma oqshomida Aliquli Amirlashkar Toshkentga yetib keldi va Mingo'rik mavzesida to'xtadi. Bu vaqtda ruslar SHo'rtepada edi»⁸³⁵.

Chor qo'shinlarining shundoqqina Toshkentning sharqiy qismida joylashgan va shahardan uncha uzoq bo'lmagan SHo'rtepada harbiy qarorgoh o'rnatganligi Toshkent aholisini ancha xavotirga solib qo'yadi. - «Zamona umarolari va fuqaroning katta-kichigi bu dahshatli voqeadan xotirlari parishon bo'ldi. Mazkur oyning yigirmasida⁸³⁶ janobi Sulton Sayidxon sur'at ila yetib keldilar va bir kun shu yerda⁸³⁷ dam olib, kelayotgan lashkarni kutdilar. Juma kuni lashkar ila Farak, hozirgi Chirchiq nomi bilan mashhur daryodan o'tib, o'ylamasdan dushman sari yo'l oldilar».⁸³⁸

Bu ma'lumotlarni Rossiya imperiyasi harbiylari tomonidan yozilgan axborotnomalarda ham kuzatish mumkin: - «8 may kuni Aliquli Amirlashkar Qo'qondan Toshkentga 6 ming kishilik qo'shin hamda 40 zambarak bilan yetib keldi». 8 may kuni katta hujumga tayyorlangan chor armiyasi bosqinchilari shahar yaqinidagi pozitsiyalaridan siljishga botina olmaydilar. Bu haqda general Chernyayev quyidagilarni yozadi: - «9 may kuni biz o'z pozitsiyalarimizni mustahkamlab, hujumga tayyorgarlik ishlarini amalga oshirishimiz lozim edi. Biroq, shu vaqtda bizning lagerimiz tomon Toshkent lashkarlari kelayotganligi haqida habar yetkazildi. Ertalab soat 6.00. da juda ko'p kishilarning biz tomon harakatlanayotganligini lagerimizdan ham kuzatish mumkin edi. Bu kishilarning soni 7 ming kishi atrofida edi. Ularning maqsadlarini aniq

⁸³⁴ Тошкент. Энциклопедия. 321-бб.

⁸³⁵ Мулло Юнус Тошкандий хотиралари. .81-бб.

⁸³⁶ Зу-л-хиджа ойининг йигирманчи куни милодий 1865 йил 3 май кунига тўғри келади.

⁸³⁷ Тўйтепада.

⁸³⁸ Тарихи Аликули Амирлашкар. -Б.178.

bilmasamda, Aliqulining lagerimizga hujum qilish ehtimolini taxmin qilish mumkin edi”.

Toshkent qo‘shinlarining Rossiya imperiyasi qo‘shinlari qarorgohiga bemalol harakatlarini davom ettirayotganligidan Chernyayev qattiq sarosimaga tushib qoladi va bir oz vaqt o‘tgach, zudlik bilan hamma o‘z o‘rnini egallashini va mudofaaga tayyorlanishini buyuradi. Biroq, bu holatni Chernyayevning o‘zi o‘zgacharoq tarzda sharhlaydi: - «Men Aliquliga o‘z qo‘shinlarini joylashtirishi va mudofaaga tayyorlanishi uchun imkoniyat yaratib berdim. Ular o‘z qo‘shinlarini tepalik atroflariga joylashtirib bo‘lgach, men shu yerdan turib, hujumga tayyorgarlikni boshladim». Biroq, bu yerda Chernyayev aytganidek, Aliquli Amirlashkar mudofaaga emas, balki hujumga tayyorgarlik ko‘rardi. Chernyayevning esa aksincha, o‘zini mudofaa qilish va himoyalanihdan o‘zga imkoni qolmagan edi. Aliquli Amirlashkarning birinchi bo‘lib dushmanga zarba berishni boshlaganligini Chernyayevning o‘zi ham inkor qilmaydi: -«Soat 7.00. da toshkentliklar Aliquli boshchiligida bizning lagerimiz tomon 12 zambarakdan birvarakayiga ota boshladilar. Zambarak o‘qlari portlaydigan o‘qlar edi». Sulton Sayidxon va Aliquli Amirlashkar boshchiligidagi qo‘shin Toshkentning Mingo‘rik mavzesida bir oz tayyorgarlikdan so‘ng, Amirlashkar boshchiligidagi qo‘shin podsho qo‘shinlari bilan jangga kiradi: - «Janobi xon Amirlashkar bilan birgalashib, Mingo‘rik manzilida nuzul qildilar. Mullo Aliquli Amirlashkar Sulton Sayidxon fotihasini olib, dushman yoqasidan mahkam tutib jangga kirishdi».⁸³⁹

Bu vaqtga kelib harbiy sohada, ayniqsa, artilleriya sohasida ma’lum yutuqlarga erishgan Aliquli Amirlashkar zambaraklarni takomillashtirish bilan birga mohir to‘pchilarni ham tayyorlab ulgurgan edi. Toshkentlik to‘pchilarning mahoratlariga hattoki Chernyayevning o‘zi ham e’tirof etgan edi: -«Aliqulining to‘pchilari oraliq masofaning anchayin kattaligiga qaramay (800 sajen),⁸⁴⁰ hayron qolarlik darajada shunday aniqlik bilan mohirona otardilarki, ular otgan har bir to‘p o‘qi bizning lagerga kelib tushardi va katta vayrongarchilikka sabab bo‘lardi». Shu o‘rinda aytib o‘tish o‘rinliki, Olchoqda bo‘lib turgan jang vaqtida Toshkent

⁸³⁹ Тарихи Алиқули Амирлашқар. –Б.181.

⁸⁴⁰ Тахминан 1500-1600 метрга тенг.

mudofaachilari 36 zambarakdan o‘q uzib turganlar. Zambarak o‘qlaridan biri podsho qo‘shinlarining harbiy qurol–yarog‘ va porox saqlanadigan omboriga tushgan. Biroq portlamay qolganligi va bu yerdagi soldatlardan biri uni tashqariga tepib yuborganligi bois omborxonaga zarar ko‘rmagan. Aks holda bu jangning borishini o‘zgartirib yuborishi ham mumkin edi.⁸⁴¹

Jang soat 11 largacha davom etadi va Aliquli boshchiligidagi Toshkent mudofaachilari chor bosqinchilariga qattiq zarba berib, ularni o‘z pozitsiyalaridan chekinishga majbur qiladilar. Ko‘p o‘tmay chor qo‘shinlari kuchlarini to‘plab olgach, ikkinchi bor hujumga o‘tadilar. Aliquli Amirlashkar ham o‘z qo‘shinlarini joylashtirib, to‘pchilarni yanada ilgariroqqa siljitib, zambaraklarni joylashtiradi va jangni boshqara boshlaydi. Jang ayni qizg‘in pallaga kirgan vaqtda Aliquli Amirlashkarga o‘q tegib, yarador bo‘ladi. Bu hodisa «Tarixi jaxonnamoyi» da quyidagicha tasvirlangan:- «Shu payt Oллоh amri ila, 1281 yil zu-l-hijja oyining yigirma oltinchi kunida⁸⁴² dushman safidan bir o‘q otildi va u Mullo Aliquli Amirlashkarga tegib, uni yarador qildi. Amirlashkar otdan yiqilib tushdi».⁸⁴³ Qattiq yarador bo‘lganligiga qaramasdan Aliquli ot ustida to‘pchilar turgan joyga boradi va Toshkent fuqarolari shaharga qaytishlari, qolgan sarbozlar esa urushni davom ettirishlari haqida buyruq beradi.⁸⁴⁴

Muhammad Yunus Toib Aliquli Amirlashkar hayotining so‘nggi daqiqalarini quyidagicha tasvirlaydi: - «Amirlashkari marhum shaharga kirib, umaro va saidlarni g‘azotga va qo‘rg‘on muxofazasiga targ‘ib aylab, toyi ruhi shariflari qazo qolib, ansordin oshiyoni qoziga farvoz ayladi, rahmatullohi alayhirrahma. Ul vaqtda umri shariflari o‘ttiz uch yo o‘ttiz to‘rt yoshda erdi».⁸⁴⁵ Aliqulini tarixchi Muhammad Solih Toshkandiyning amakivachchasi eshon Yusufxo‘ja Inog‘omxo‘ja chitfurush o‘g‘li xonadonidan chiqariladi va shaharning Shayx Hovandi Tohur qabristoniga dafn etiladi.⁸⁴⁶

Muhammad Solih Toshkandiy va Avaz Muhammad Attor

⁸⁴¹ Зияев Х.З. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. –Б.159.

⁸⁴² Милодий 1865 йил 9 май.

⁸⁴³ Тарихи жаҳоннамойи. 3176.

⁸⁴⁴ Зияев Х.З. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. –Б.158.

⁸⁴⁵ Тарихи Алиқули Амирлашкар. -Б.183.

⁸⁴⁶ Зияев Х.З. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. –Б.164.

Ho‘qandiylar ham Aliquli Amirlashkarning Shayhontoxur qabristoniga dafn etilganligini ta’kidlab o‘tadilar.⁸⁴⁷

Aliquli Amirlashkarning 1865 yil 9 may kuni bo‘lib o‘tgan janglarda og‘ir yarador bo‘lib, halok bo‘lganligini general Chernyayev o‘zining 13 may kunidagi axborotnomasi bilan tasdiqlaydi: - «Toshkent yaqinida 9 may kuni qo‘qonliklar bilan bo‘lib o‘tgan janglarda Qo‘qon xonligi hukmdori Mulla Aliquli (hujjatda Alimqul – Z.I.) o‘ldirilgan».

Bu voqealardan so‘ng Mirzo Ahmad qo‘shbegi, Bekmuhammad qo‘shbegi va Qo‘sh parvonachilar boshchiligidagi qo‘shinlar Toshkent mudofaasini tashlab, Qo‘qonga qaytib ketadilar va u yerda Xudoyquli degan odamni xon qilib ko‘taradilar. Sarkardasiz qolgan Toshkent mudofaachilari esa Qo‘qon xoni Sulton Sayyidxonni o‘z xonlari deb e‘lon qiladilar va Toshkent amalda mustaqil xonlikka aylanadi.⁸⁴⁸ Mashhur qozoq sarkardasi va ozodlik uchun uzoq yillar davomida chor qo‘shinlariga qarshi kurash olib borgan Sulton Sodiqqa Aliquli Amirlashkarning qilichi topshiriladi va u Amirlashkar etib tayinlanadi. Mudofaachilar bir necha kunlik qattiq janglardan so‘ng Rossiya imperiyasining harbiy bosqinchilari tomonidan mag‘lub etiladilar.⁸⁴⁹ Sulton Sayidxon Rossiya tajovuziga qarshi yordam so‘rab Turkiya sultoniga, Buxoro amiriga va Qo‘qonga elchilar jo‘natgan. Buxoroga sebzorlik eshon Hakimxo‘ja qozikalon boshchili-gida har dahadan to‘rt oqsoqol yuboriladi. Buxoro amiri o‘z maktubi-da Sulton Sayidxon uning huzuriga kelib bo‘ysunishi va shundan keyingina Toshkentga yordam berishi mumkinligini yozgan⁸⁵⁰.

Aliquli Amirlashkarning halokati bilan Qo‘qon xonligining halokati ham yaqqol ko‘rinib qolgan edi. Bunday holning yuzaga kelishini oldindan his qilgan general Chernyayev shunday ta’kidlagan edi: - «Aliqulining o‘limini biz uchun favqulodda ahamiyatga ega bo‘lgan hol deb hisoblash zarur. Bu hol mening Qo‘qon xonligini bundan buyongi taqdiri hal etildi, deb xulosa chiqarishimga asos bo‘ladi». Mudofaa ishlarining butun

⁸⁴⁷ Ўша жойда.

⁸⁴⁸ Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. -Б.164.

⁸⁴⁹ Тошкент шаҳри 1865 йил 15-17 июнь кунлари Россия империяси қўшинларининг каттик ҳужумларидан сўнг босиб олинган.

⁸⁵⁰ Sultonov F., Bozorboyev F. O‘zbekiston hukmdorlari. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007. 73-74-bb.

og'irligi shahar aholisi ustiga tushadi. Shahar ulamolarining say-harakatlari bilan Buxoro amiridan so'ralishi ham natijasiz tugaydi. Toshkentliklar dushmanga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Biroq kuchlarning teng emasligi, oziq-ovqat va suvsizlik, qurol-yarog'larning yetishmasligi mudofaachilarning mag'lubiyatiga sabab bo'ladi. Buxoro amirligining qo'shinlari Toshkentga tomon yo'lga chiqqani haqida xabar yetishi bilan Rossiya imperiyasi qo'shinlari 1865 yilning 15 iyunga o'tar kechasi Toshkent shahriga kuchli hujum boshladilar, Kamolon darvozasi orqali shahar ichiga kirishga muvaffaq bo'lgan imperiya qo'shinlari bilan 16-17 iyun kunlari ham Toshkent shahrining ko'chalarida shiddatli janglar davom etdi, 17 iyun kuni Toshkent shahrini bosib olindi. M.Chernyayev boshchiligidagi Rossiya imperiyasi qo'mondonlari Toshkentning nufuzli ulamolari va ayonlari bilan muzokara olib boradi va zo'ravonlik bilan shahar o'z ixtiyoriga ko'ra imperiya qo'shinlariga taslim bo'lgani, shahar aholisi o'z dinida qolishi, ishlar shariat asosida olib borilishi, hovli va bog'lar o'z egalari qo'lida qolishi to'g'risida ikki tomonlama ahdnoma imzolandi va bosib olingan yerlarning barchasi Rossiya imperiyasining mulki deb e'lon qilindi⁸⁵¹.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi bosib olingan hududlarni boshqarishni tashkil qilish hamda bu hududlarda savdo ishlarini yo'lga qo'yish borasida jiddiy siyosat yuritishi belgilab berildi. Buni amalga oshirish maqsadida imperator huzurida tarkibida harbiy vazir D.A.Milyutin, ichki ishlar vaziri Valuev, Sharqiy Sibir general gubernatori Korsakov, G'arbiy Sibir general gubernatori Dyugamel, Sharqiy Sibirning sobiq general gubernatori Muravyev-Amurskiy, Orenburg sobiq general gubernatori Bezak, general-kvartirmeyster Verigin, Osiyo departamenti boshlig'i Stremouxov, shuningdek Timashev, Butkov va YE.Kovalesvkiylardan iborat bo'lgan Maxsus qo'mita tashkil qilindi. Qo'mitaning 1865 yil 25 yanvardagi yig'ilishida O'rta Osiyo bilan savdo munosabatlarini nazorat qilish va siyosiy boshqaruvni tashkil qilishni Orenburg general gubernatorligiga topshirish ma'qul deb topildi va Yangi Qo'qon liniyasi hamda Sirdaryo liniyalarini birlashtirib (ya'ni, Issiqko'lnng g'arbiy sohillarida Orol dengizigacha bo'lgan hudud)

⁸⁵¹ Маждид Хасаний. Туркистон босқини. Тошкент, "Нур", 1992. 8-б..

Orenburg general gubernatorligi tarkibida, general gubernatorga boshqaruvda to'la mustaqil vakolatlar berilib, yagona Turkiston viloyatini tashkil qilishga qaror qilindi. Turkiston viloyatining birinchi gubernatori etib general M.G.Chernyayev tayinlandi⁸⁵².

1865 yilning sentabr oyida Orenburg general gubernatori N.A.Krijanovskiy Toshkentga keldi va Toshkent shahrini Rossiya imperiyasining muxtor qaram mulki deb e'lon qildi.

Jizzax va Samarqandning bosib olinishi, Buxoro amirligining mag'lubiyatga uchrashi. Zirabuloq shartnomasi. Toshkent bosib olingandan so'ng Rossiya imperiyasi qo'shinlarining harbiy harakatlari Buxoro amirligiga qarshi qaratildi. M.Chernyayev 1865 yilning kuzida va 1866 yil yanvar oyi o'rtalarida Chernyayev qo'shinlari Sirdaryodan o'tib Jizzax va Chinoz hududlarida hujumga o'tdi. Buxoro amirligi qo'shinlarining bu qal'alarni mustahkam himoya qilganlari bois Chernyayev orqaga chekinishga majbur bo'ldi. va mag'lubiyatga uchrab, 1866 yilning fevral oyida Toshkentga qaytib kelishga majbur bo'ldi. Amir qo'shinlari chekinayotgan chor qo'shinlarini ayovsiz ta'qib etib mag'lub etdilar. Orenburg general gubernatori N.A.Krijanovskiyga M.Chernyayevning Jizzax va Chinozdagi mag'lubiyati Rossiya obro'siga katta putur yetkazganligi uchun imperiya mudofaa vaziri general D.A.Milyutin N.A.Krijanovskiyga uni vazifasidan chetlatilishi haqida ko'rsatma berdi. Jizzaxdagi mag'lubiyatlari uchun M.Chernyayev 1866 yilning mart oyida Turkiston viloyati gubernatori vazifasidan ozod etildi va Sankt-Peterburga chaqirib olinadi, o'rniga general D.I.Romanovskiy tayinlanadi⁸⁵³.

1866 yilda general D.I.Romanovskiy boshchiligida olib borilgan janglar natijasida amirlik hududlari birin-ketin egallana boshlandi. 1866 yil 8 mayda Erjarda bo'lgan jangda amir Muzaffar yengildi va Jizzaxga chekindi. 10 may kuni Buxoro amirligining Nov qal'asi bosib olindi⁸⁵⁴.

⁸⁵² Ликвидация независимости Кокандского и Бухарского ханств (1865–1868). «Военная Литература». Стр.4. <http://militera.lib.ru/>

⁸⁵³ Романовский Д. И. Заметки по Средне – Азиатскому вопросу. Спб., 1868. Стр.7-9.

⁸⁵⁴ Хроника завоевания Средней Азии и Ходжендский уезд в составе Российской империи в XIX веке Санкт-Петербург 2014. Стр.49.

1866 yilning 16 may kuni D.I.Romanovskiy qo‘shinlari ikkita kolonna bo‘lib Ho‘jand tomonga harakatlandi. D.I.Romanovskiyning o‘zi qo‘mondonlik qilgan birinchi kolonna Sirdaryoning chap qirg‘og‘i bo‘ylab, polkovnik Krayevskiy qo‘mondonligidagi ikkinchi kolonna esa Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab harakatlandi⁸⁵⁵. Shuni ta’kidlash kerakki, ayni shu vaqtda Ho‘jand bekligi mustaqil siyosat yuritib, rasmangina Qo‘qon xonligiga bo‘ysunar edi⁸⁵⁶. Dastlab Ho‘jandga rus armiyasi tarkibida bo‘lgan qozoqlardan iborat otryad shaharni o‘z ixtiyori bilan taslim bo‘lishga ko‘ndirish maqsadida muzokaralar uchun yuborildi, rus muzokarachilari esa shaharga kiritilmadi. Ho‘jand kuchli himoyalangan mudofaa tizimiga ega bo‘lib, shaharning mudofaa devorlari 12 ming metrga teng bo‘lib, shaharning 7 ta darvozasi bor edi. D.I.Romanovskiy shaharning mudofaa tizimidagi mukammallikni e’tirof etgan holda shaharni shturm qilishga bir necha kun davomida jiddiy tayyorgarlik ko‘rdi, 20 – 24 may kunlari Ho‘jand shahri to‘plardan tinimsiz o‘qqa tutildi va bombardimon qilindi. Bu esa shaharning mudofaa tizimini izdan chiqarish bilan birga shahar aholisining katta qurbonlar berishiga sabab bo‘ldi va 1866 yilning 24 may kuni Xo‘jandni egallandi⁸⁵⁷.

1866 yilning avgust oyida N.A.Krijanovskiy Toshkent, Ho‘jand va Chirchiqorti o‘lkalarini Rossiya imperiyasiga qo‘shib olish to‘g‘risida ko‘rsatma berdi.

1866 yilning oktabr oyida O‘ratepa va Zomin bosib olindi. Bu hududlarda kattagina strategik ustunlikka va harbiy jihatdan yetarlicha imkoniyatga ega bo‘lgan Rossiya imperiyasi qo‘shinlari Buxoro amirligining sharqiy hududlaridagi asosiy mudofaa chizig‘i hisoblangan Jizzax shahriga 1866 yil 11 oktabr kuni hujum boshladilar, Jizzax shahri uchun har ikki tomondan shiddatli janglar va harbiy to‘qnashuvlar amalga oshirildi. Jizzax shahri kuchli mudofaa tizimiga ega bo‘lib, balandligi 4 metr va eni 3 metrlik ikki qavat devor bilan o‘rab olingan edi mustahkam qal’a hisoblanardi. Jizzax himoyasi uchun 10 ming askar, 53 ta to‘p ajratilgan edi. Shunga qaramasdan 1866 yilning 11 oktabridan 18 oktabr

⁸⁵⁵ Романовский Д. И. Заметки по Средне – Азиатскому вопросу. Спб., 1868. Стр.17-19.

⁸⁵⁶ Хроника завоевания Средней Азии и Ходжендский уезд в составе Российской империи в XIX веке. Стр.50

⁸⁵⁷ Ўша жойда.

kunigacha shahar himoyachilari juda qattiq mudofaa janglari olib borishlariga qaramasdan, bu shahar ham Rossiya imperiyasi qo‘shinlari tomonidan bosib olindi⁸⁵⁸.

Rossiya imperiyasi hukumati Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligiga qarashli bo‘lgan bosib olingan yerlarni boshqarish maqsadida 1867 yil 11 iyulida podsho Aleksandr II farmoni bilan Turkiston general – gubernatorligi ta‘sis etilib, general gubernator etib tayinlangan general K. P. Fon Kaufman 1868 yil 1 yanvardan Toshkentda o‘z faoliyatini boshladi. Unga mustaqil ravishda urush e‘lon qilish, sulh tuzish va boshqa vakolatlar berildi. Amir Muzaffar Turkiya sultoni Abdulazizxonga, Afg‘oniston amiri Sheralixonga va Turkmanlarga o‘z elchilarini yuborib, Rossiyaga qarshi kurashda harbiy madad so‘radi. Biroq bu elchiliklar ijobiy natijaga erisha olmadilar.

Zamonaviy harbiy qurol – aslaha jihatidan Rossiya imperiyasi qo‘shinlariga barobar kelolmagan Buxoro amiri Muzaffar Fon Kaufmanga elchi jo‘natib, sulh shartnomasi tuzishni taklif qiladi. Ammo K.P.Kaufman Buxoro amiri oldiga juda og‘ir shartlar qo‘ygach, bu hujjat imzolanmadi. Biroq Buxoro amirligi bilan tuzilayotgan shartnoma borasida bir qator ziddiyatlar va tushunmovchiliklar yuzaga kelganligi ko‘rsatilib turli darajadagi hukumat vakillari tomonidan o‘zaro yozilgan maktublarning mazmunida bu masalalar o‘z aksini topganligini ko‘rish mumkin⁸⁵⁹. Bunda Samarqand beklarining general Kaufmanga murojaat qilganliklari, bunga javoban Buxoro amiri bu beklarni o‘zi maktub jo‘natib ularni hotirjam qilganligi, Rossiya hukumati tomonidan taqdim etilgan o‘zaro majburiyatlar shartnomasi to‘liq hajmda taqdim etilmaganligi va ko‘rsatilgan muddatda yetib kelmaganligi ko‘rsatiladi. Buxoro amirligidan 1868 yil 8 aprelda general Kaufmanga yuborilgan maktubda quyidagi so‘zlar keltirilgan va bu maktubning Buxoro amiri tomonidan jo‘natilganligi ko‘rsatilgan: -“Turkistondagi rus qo‘shinlarining qo‘mondoni, general gubernator, adyu‘tant Kaufmanga ma‘lum bo‘lsinki,

⁸⁵⁸ Туркистон босқини. Тошкент, “Нур”, 1992. 8-б.

⁸⁵⁹ Илхомов З., Шукуров Р. Россия империяси ва ўзбек хонликлари ўртасидаги “савдо мажбуриятлари” ҳақида айрим ҳужжатлар / “Медиа майдонида тарих фани ва архившунослик интеграцияси муаммолари” халқаро илмий конференция (2019 йил 5-6 ноябрь Термиз). “Им-зию-закavat” нашриёти. 2019 й. 224-230-бб

sulh shartnomasi bo'yicha ayrim tushunmovchiliklarga yo'l qo'yilgan. Samarqand beklari tomonidan rus qo'shinlari nima uchun bu yerda (Jizzax qal'asi yaqinida-muallif) yig'ilganligini va ularning maqsadini bilish maqsadida Mirza Shamsiddinni⁸⁶⁰ jo'natganlar, agar rus qo'shinlari urush uchun kelgan bo'lsa, Samarqandliklar ham urushga tayyorgarlik ko'rishlarini ma'lum qilganlar. Men beklarga rus qo'shinlari sulh tuzish uchun kelayotganliklarini bildirib, Sarkor Nizomiddin Xoji sudurni mazkur maktub bilan jo'natmoqdaman. (1285 yil xijriy muharram oyi)⁸⁶¹.

Buxoro amirligining bir qator beklari tomonidan Turkiston general gubernatoriga murojaatlariga javoban Jizzax qal'asi yaqinidagi qarorgohdan 1865 yilning aprelida Kaufmanning yuborgan maktubida quyidagilarni o'qish mumkin: -"Sizning maktubingizni, muhtaram beklar, menga yetkazishdi. Buxoro hukumatiga taklif etilgan shartlarning barchasi to'lig'icha bajarilganli-giga ishonch hosil qilmagunimcha men Buxoroga tomon yurishimni to'xtatmayman. Men o'z qo'shim bilan Buxoro amirligining yerlari va shaharlarini bosib olish uchun emas, balki chegaralarda osoyishtalikni ta'minlash maqsadida tinchlik sulhini tuzish uchun kelmoqdaman"⁸⁶².

Biroq Buxoro amirligining turli hududlarida amirning bu majburiyatlar borasidagi munosabatlariga nisbatan noroziik kayfiyatlari kuchayib boradi va g'alayonlar yuzaga keladi. Albatta bu noroziliklar aslida faqatgina Buxoro amirining o'zigagina nisbatan emas, balki umuman Rossiya imperiyasining amirlikka nisbatan amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi norozilik harakatlari edi. Buxoro amirligida savdo shartnomalariga qarshi norozilik harakatlari haqida ma'lumotlar bitilgan maktubni Turkiston general gubernatori va Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni general-adyutant fon Kaufman tomonidan 1868 yil 16 aprelda Qo'qon xoni Xudoyorxonga yuborgan maktubida ham ko'rish mumkin, unda jumladan quyidagi so'zlar bitilgan: -"Hazrati oliylariga shuni ma'lum qilamanki, Buxorodagi g'alayonlar haqida xabar olishim bilan Peterburgga rejalashtirilgan safarni keyinga qoldirishga va zudlik bilan Buxoro davlatining chegaralariga tomon yetib

⁸⁶⁰ Хужжатда Мирза Шаметдин

⁸⁶¹ ЎзР МДА. 4-715-фонд. 1-рўйхат. 36-иш. 224-варақ.

⁸⁶² ЎзР МДА. 4-715-фонд. 1-рўйхат. 36-иш. 223-варақ.

borishga majbur bo‘lmoqdaman. Agar zaruriyat bo‘lsa tinchlikni saqlash maqsadida harbiy kuch ham ishlatilishi mumkin. Shunday vaziyatda davlatlarimiz o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarning saqlanib qolishiga va bunda Sizning va bizning xalqlarimizning foydasini ko‘zlashingizga umid bildiraman”⁸⁶³. Mazkur maktubning mazmunidan ham ko‘rinib turibdiki, garchi savdo haqidagi majburiyatlar do‘stlik va hamkorlik shartnomalari mazmunida tuzilgan bo‘lsada, ularda o‘zaro ishonchning yo‘qligini anglash mumkin.

Samarqand ulamolariga esa Kaufman quyidagi mazmundagi maktubni yuboradi⁸⁶⁴:

-“Buxoroning Samarqand shahri fuqarolariga. Har ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli sulh shartnomasi tuzilgan bo‘lishiga qaramasdan siz xalqdan qo‘shin yig‘ib Rossiya imperiyasiga qarshi urushga tayyorgarlik ko‘rmoqdasiz”⁸⁶⁵. Maktubda Kaufman o‘zining Buxoro xalqiga hayrihoxligi, uni amirning zulmidan ozod qilish uchun qo‘shin bilan kelayotganligi va xalq bilan emas, balki amir bilan urushga kirishishini bildirib, o‘z ozodligi va mustaqilligi uchun kurashayotgan himoyachilarni bo‘lib yuborishga harakat qiladi⁸⁶⁶.

Saroy maslahatchisi Grishin tomonidan Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori nomiga quyidagi maktub jo‘natilgan va unda Sulton Sodiqning Buxoro amirligi hududlarida ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. - “1868 yilning 1 aprel kuni Buxorodan Nurota qal‘asiga Sulton Sodiq Kenansariyev⁸⁶⁷ boshchiligida 1000 kishilik sarbozlar yetib keldi. Sulton Sodiqning rejalari, bu sarbozlar bilan birgalikda nimalarni mo‘ljallaganligi haqida hozircha bizda aniq ma’lumotlar mavjud emas. ... Sulton Sodiq tomonidan Sirdaryo bo‘ylarida yashovchi bizning tobeligimizdagi qozoqlarni talash uchun sarbozlar jo‘natiladigan bo‘lsa, unga qarshi Turkiston va Sirdaryo

⁸⁶³ ЎзР МДА. 4-715-фонд. 1-рўйхат. 36-иш. 243-варақ.

⁸⁶⁴ Мактуб 1868 йил 22 апрелда Жиззах яқинидаги қароргоҳдан туриб юборилган. Қаранг: Тилеукулов С., Илхамов З. История Центральной Азии. Ташкент, “Iqtisod-moliy”, 2007. Стр.157.

⁸⁶⁵ ЎзР МДА. 4-715-фонд. 1-рўйхат. 36-иш. 252-варақ.

⁸⁶⁶ Кўрсатилган ҳужжат.

⁸⁶⁷ Султон Содик –қозоқ сарқардаси, қозоқ султони Кенасари Қосимовнинг ўғли, Россия империясининг босқинчилигига қарши узоқ йиллар кураш олиб борган, 1865 йил Тошкент мудофаасида Қўқон хонлиги сарқардаси Алиқули Амирлашқар ҳалок бўлгач, унинг ўрнига Қўқон хонлигининг Амирлашқари этиб тайинланган, кейинчалик курашларини Бухоро амирлиги ва Хива хонлиги ҳудудларида давом эттирган. Қаранг: З.Илҳомов. “Алиқули Амирлашқар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий ҳаётида тутган ўрни”. Тошкент, 2004 йил, 118-б.

bo'ylaridagi chorvador fuqarolarning tayyor turishlari haqida ogohlantirib qo'yildi. Bu haqda Chimkent uyezdi boshlig'i ham ogohlantirildi⁸⁶⁸.

Bu vaqtda Turkiston general gubernatorligining deyarli barcha hududlarida Buxoro amirligiga qarshi urushga tayyorgarlik ko'rilayotganligi va qo'shinlarning shay holatga keltirilayotganligini Turkiston okrugi qo'shinlari qo'mondoni vazifasini vaqtincha bajaruvchi general mayor Dandevil tomonidan imperiya harbiy vaziriga 1868 yil 21 aprelda yuborgan quyidagi hujjatdan ham bilish mumkin: -"Turkiston okrugi qo'shinlari qo'mondoni 18 aprelda Toshkentdan Buxoro chegaralari yonida yig'ilgan qo'shin boshqaruvi uchun jo'nab ketdi⁸⁶⁹. Bu qo'shinlarga yana Xo'janddan Turkiston 2-liniya batalyoni, Toshkentdan 1-liniya batalyonidan 1 ta rota va 1 ta o'qchi batalyon rotasi ham qo'shiladi. Sirdaryo viloyatidagi qolgan harbiylar, ta'tildagi va xizmatdan bo'shatilganlarning barchasi ham mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib multiqlar bilan qurollantirildi va Toshkentda 1000 kishi, Perovskiy fortida 400 kishi, 1-fortda 1300 kishi, Chinozda 250 kishi va Chimkentda 200 kishi xavf bartaraf etilguncha saqlanib turiladi. 147-Samarqand piyodalar polki ham zahirada va zarur vaziyatlarda ularning kuchidan ham foydalanishi ko'zda tutilgan"⁸⁷⁰.

1868 yil 1 may kuni fon Kaufman boshchiligidagi rus qo'shinlari amirlikning yirik shaharlaridan biri bo'lgan Samarqandga yurish boshladilar. Cho'ponota tepaligida bo'lgan jangda amir qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi va 2 may kuni Samarqand shahri egallandi. Amir Muzaffar asosiy kuchlarni to'plab Samarqand tomon yurdi. Kaufman ham katta kuchlar bilan Buxoroga tomon harakatlandi. 2 iyun kuni Zirabuloqda har ikkala qo'shinlar o'rtasida jang bo'lib amir mag'lubiyatga uchradi⁸⁷¹. Amir Muzaffar va Kaufman qo'shinlari Zirabuloqda urushayotgan bir paytda Shahrizabz va Kitob beklari Jo'rabek va Bobobek hamda amirning o'g'li Abdumalik to'ra 27 may kuni Samarqandga qo'shin bilan yetib kelib, qo'zg'olonchilar bilan birgalikda Fon Kaufman tomonidan

⁸⁶⁸ ЎЗР МДА. 4-715-фонд. 1-рўйхат. 36-иш. 233-варақ.

⁸⁶⁹ Туркистон генерал губернатори ва Туркистон харбий округи қўшинлари қўмондони генерал-адъютант фон Кауфман назарда тутилмоқда.

⁸⁷⁰ ЎЗР МДА. 4-715-фонд. 1-рўйхат. 36-иш. 237-варақ.

⁸⁷¹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент, "Янги аср авлоди", 2012. 418-б.

Samarqandda qoldirilgan polkovnik Nazarov va mayor Shtempel boshliq harbiy qismlar bilan qattiq jang qildilar. Jang 8 kun davom etdi. 500 kishidan iborat dushman kuchlaridan 275 tasi o'ldirildi va yarador qilindi⁸⁷². Samarqandagi voqealardan xabar topgan Fon Kaufman zudlik bilan Samarqandga qaytib keladi va 8 iyun kuni shaharni to'plardan yoppasiga o'qqa tutishga, aholini beomon otish, shaharni yondirishga buyruq beradi. Aholi qirg'in qilindi, masjidlar va tarixiy yodgorliklar yondirildi, qadimiy noyob moddiy va ma'naviy obidalar Peterburgga olib ketildi⁸⁷³.

1868 yil 23 iyunga kelib, chorasiz qolgan amir Muzaffar Turkiston general-gubernatori fon Kaufman bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi va Rossiya imperatorining vassaliga aylandi. Bu sulhga ko'ra, Buxoro amiri Rossiyaga katta miqdorda tovon puli to'lab, Rossiya hukumatining rozilgisiz tashqi aloqalar olib borishdan mahrum bo'ldi va Zarafshon daryosining yuqori qismidagi yerlar, Samarqand va Kattaqo'rg'on Rossiya tarkibiga kiritildi. Shunga qaramasdan, amirdan norozi bo'lgan kuchlar chor hukumatiga qarshi urushni davom ettirdilar. Amirning katta o'g'li Abdumalik to'ra, Jo'rabek, Bobobek va Sulton Sodiq kuchlari birlashib Karmana, Qarshi va Chiroqchi beklklarini egalladilar hamda Abdumalik to'rani amir deb e'lon qildilar. 1868 yilning kuzida amir Muzaffar o'z o'g'liga qarshi fon Kaufmandan harbiy yordam so'radi. Unga javoban amir huzuriga general Abramov boshchiligidagi qo'shinlar jo'natildi. 1868 yil 21 oktabrda bo'lgan jangda Abdumalik To'ra boshchiligidagi qo'shinlar mag'lubiyatga uchradi⁸⁷⁴. Abdumalik to'raga Afg'oniston amiri Abduraxmonxon va Angliya yordam berishga va'da qilishgan bo'lsa ham, turli sabablarga ko'ra uning niyatlari amalga oshmadi. Abdumalik 1909 yilda Peshovarda olamdan o'tdi⁸⁷⁵. Buxoro amirligi esa bundan buyon

⁸⁷² Ўзбекистон тарихи. Самарқанд. 2009. 95-б.

⁸⁷³ Эшов Б. Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқаруви тарихи. Т.: “Янги аср авлоди”. 2012. 368-б

⁸⁷⁴ Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқаруви тарихи. 369-б.

⁸⁷⁵ Абдумалик тўра ҳаракатлари тарихи ҳақида қаранг: Одилов А. Бухоро амирлигида XIX асрнинг 60-йилларида озодлик ҳаракати тарихи // Илмий тўплам. - Т.; 1995, 96-98 бетлар; Ўша муаллиф. Абдумалик Тўра бошчилигидаги халқ озодлик ҳаракати тарихидан. // ЎЗМУ хабарлари, 2002, № 2; Ўша муаллиф. Озодлик фидойиси // Тафаккур, 2001, № 2.; Ўша муаллиф. Бухоро амирлигида миллий-озодлик ҳаракатлари тарихи (Абдумалик Тўра бошчилигидаги халқ озодлик ҳаракати мисолида). Тарих фан. номзоди дисс. автореф. Т., 2003

Rossiya imperiyasining vassal davlatiga aylanadi.

Xiva xonligining va Rossiya o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlar. Gandimiyon shartnomasi. Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlar XVIII asrning boshlarida Bekovich-Cherkasskiy harbiy ekspeditsiyasi va 1839-1840 yillardagi Orenburg general-gubernatori graf V.A.Perovski boshchiligidagi Xiva ekspeditsiyalarining to'raligicha mag'lubiyati bilan yakun topgan bo'lib, natijada Rossiya imperiyasi hukumati harbiy-siyosiy doiralari tomonidan Xiva xonligi "Bo'ysunmagan O'rta Osiyo Jazoiri" deya e'tirof etilgan edi. Bundan xulosa chiqargan imperiya hukumati Xiva xonligini bosib olishga uzoq yillar davomida tayyorgarlik ko'rib bordi. 1868 yil Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligi bo'ysundirilgach, Xiva xonligi imperiyaga qarashli uchta harbiy okrug-Turkiston, Orenburg va Kavkaz harbiy okruglari qurshovida qoldi. Shuningdek "Orol" harbiy flotiliyasi ham kuchaytirilgan holda Xiva xonligiga qarshi bo'lish mumkin bo'lgan janglar uchun tayyorlab qo'yildi⁸⁷⁶. Xonlikka qarshi harbiy harakatlarni boshlashdan avval rus harbiylari xonlikka eltuvchi barcha yo'llar, joylar, xonlikning harbiy qudrati va imkoniyatlarini batafsil o'rganib chiqdilar. Xonlikka qarshi harbiy harakatlar uchun 12 mingdan ortiq harbiy askarlar tayyorlandi. Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlar 1873 yil bahorida boshlandi. Bu yurishda ishtirok etayotgan barcha harbiy kuchlarning bosh qo'mondoni etib general-gubernator Fon Kaufman belgilandi. Bu harbiy harakatlarda ishtirok etayotgan Orenburg harbiy okrugi qo'shinlariga general Verevkin, Mingqishloq otryadiga polkovnik Lomakinlar boshchilik qilishdi. "Orol" flotiliyasiga qarashli "Samarqand", "Perovski" kemalari va uchta barja ham yurishlarda ishtirok etdi. General Kaufman urush harakatlarini boshlar ekan bunga bahona qilib Xiva xoni Muhammad Rahimxon II tomonidan xonlik hududlarda mavjud ruslardan iborat qullarni ozod qilmasligini ko'rsatadi. 1870-yil 18-yanvarda general Kaufman Xiva xoniga bunday xat yozadi: "Men sizga uch marta xat yozib birortasiga ham javob olmadim. Buning ustiga mening so'nggi elchilarimni ham ushlab qolgansiz. Bunday harakatlarga ortiqcha chidab

⁸⁷⁶ Илҳомов З. Ўзбекистон тарихи. Тошкент, ТДПУ. 91-б.

bo‘lmaydi. Ikkitadan bittasiga - yoki aytganlarimga ko‘nasiz - do‘st bo‘lib qolamiz yoki aytganlarimizga ko‘nmasangiz - dushman bo‘lib qolamiz”⁸⁷⁷. 1872-yil oxirlarida harbiy vazir boshchiligida Peterburgda Turkiston Orenburg general-gubernatorlari va Kavkazdagi pobshe noiblari ishtirokidagi maxfiy kengashda Xiva xonligini bosib olishga qaror qilinadi. Generallar rejasiga ko‘ra Turkiston general-gubernatorligiga qarashli kuchlar sharqdan, Orenburg gubernatori va Kavkaz noibligi ixtiyoridagi harbiy kuchlar esa g‘arbdan va shimoliy g‘arbdan Xiva ustiga yurishlari kerak edi. Rossiyaning tajovuzkorona niyati Xiva xoni va uning oliy mansabdorlariga sir emas edi⁸⁷⁸. Sayid Muhammad Rahimxon II (1864-1910) 1872-yilda Hindiston vitse qiroli huzuriga elchi jo‘natib, Rossiya imperiyasining harbiy tajovuziga qarshi Angliyadan madad so‘ragan edi. Xonning elchisi Aminboy Muhammad o‘g‘li Kalkutta shahrida Lord Norsbruk bilan muzokaralar olib boradi. Ammo Angliya Xivaga yordam ko‘rsata olmaydi, u Rossiya imperiyasi bilan munosabatlarini buzishni xohlamasdi⁸⁷⁹.

Rossiya imperiyasi qo‘shinlarining hujumi haqida habar eshitish bilanoq xon amaldorlar bilan kengash o‘tkazadi va Kaufmanning yo‘lini to‘shish uchun Matmurod devonbegini qo‘shin bilan jo‘natadi. Qo‘ng‘irot yo‘nalishi bo‘yicha hujum qilayotgan general Verevkinga qarshi esa Eltuzar inoq jo‘natiladi. Xiva xonligi sarbozlari va Rossiya imperiyasi qo‘shinlari o‘rtasida dastlabki to‘qnashuv 10-11 may kunlari Uchuchoq yaqinida bo‘lib o‘tadi va devonbegi qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchraydi. 18 mayda esa Kaufman qo‘shinlari Amudaryodan kechib o‘tadi. Bosqinchilar hujumini kuchaytirib borib, 23 may kuni Xazorasp qal’asini egallab oladilar. qattiq janglardan so‘ng birin-ketin Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli va boshqa qal’alar bosib olinadi⁸⁸⁰. 1873 yil 29 may kuni esa xonlik poytaxti Xiva shahri ham Rossiya imperiyasi qo‘shinlariga taslim bo‘ladi. Bu vaqtda mag‘lubiyatga uchrayotganligini payqagan Muhammad Rahimxon II Izmiqsho‘r tarafga chekingan edi.

K.P.Kaufman Xiva xoni Said Muhammad Rahimxon bilan

⁸⁷⁷ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). T.: “Sharq”, 2010, 170-b.

⁸⁷⁸ Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). 170-171-bb.

⁸⁷⁹ Ўша жойда

⁸⁸⁰ Илҳомов З. Ўзбекистон тарихи. Тошкент, ТДПУ. 92-б.

uchrashini tashkil qilish maqsadida xonning akasi Otajon to‘ra hamda Xazorasp xokimi, xonning amakisi amir ul umaro Said Muhammad va Matniyoz devonbegiga murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Ular Kaufman nomidan yozilgan maktubni Said Muhammad Rahimxon II ga yetkazadilar. Maktubda Kaufman xonga yana o‘z taxtiga qaytish va xonlikning boshqaruv ishlarini davom ettirishini bildirgan edi. O‘z dushmanlaridan buni kutmagan Said Muhammad Rahimxon II Matmurod devonbegi bilan Xivaga qaytib keladi⁸⁸¹.

Bu orada xon saroyi talon-taroj qilinib, ko‘plab qimmatbaho boyliklar, nodir qo‘lyozmalar imperiya markaziga jo‘natiladi. General Kaufman va Muhammad Rahimxon II o‘rtasida muzokaralar Gandimiyon qishlog‘ida o‘tkaziladi. Gandimiyon shartnomasi deb nom olgan bu hujjatga asosan Xiva xonligi Rossiya imperiyasining vassaliga aylantiriladi va xon huzurida saroy amaldorlari va rus qo‘mondonlaridan iborat kengash (devon) tuziladi. Bu devon Xiva xonligining barcha sohalari faoliyatini kuzatib borishi va nazorat qilishi lozim edi. Shuningdek, shartnomaga ko‘ra Xiva xoni siyosiy huquqlaridan va tashqi mustaqil siyosat yuritishdan mahrum etildi, quyi Amudaryoning o‘ng sohilidagi yerlar Rossiya mulki deb e‘lon qilindi va bu yerda Rossiyaga qarashli Amudaryo bo‘limi tashkil etildi.

Amudaryo bo‘limi

(1873-1917)

Rossiya imperiyasi tomonidan 1873 yilda Xiva xonligi bo‘ysundirilib Gandimiyon shartnomasi imzolangan, 1874 yilda Xiva xoni faoliyatini nazorat qilib turish uchun tuzilgan bo‘lim. Amudaryo bo‘limining qarorgohi Petroaleksandrovska (hozirgi To‘rtkul) joylashgan. Rossiya va Turkiston general-gubernatorligi bilan Xiva xonligi o‘rtasidagi munosabatlar shu yerdan turib boshqarilgan. 1886 yilga kelib, Amudaryo bo‘limi Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritildi. Amudaryo bo‘limi hududida 95 ming qoraqalpoq, 55 ming o‘zbek, 40 ming qozoq va 16 ming turkman istiqomat qilgan. Amudaryo bo‘limi SHo‘roxon va Chimboy qismlaridan iborat bo‘lib, Biybozor, To‘rtko‘l, Tomdi, Shayx, Abbos Vali, Mingbuloq, Soriboy, Chimboy, Nukus, Davqaron, Ishim, Naupir, Ko‘kko‘l, Qo‘ng‘irot, Toldi va Kegayli bo‘lislarni o‘z ichiga olgan. Amudaryo bo‘limi 1917 yilga qadar faoliyat ko‘rsatgan.

⁸⁸¹ Ниязматов М. Российско-Хивинские геополитические отношения XVI- начале XX века. Статус Хивинского ханства в составе Российской империи. <http://xorazmiy.uz/>

Rus kemalarining Amudaryo bo‘ylab suzishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Rus savdogarlari xonlik hududida erkin savdo qilish, Amudaryoning chap qirg‘og‘ida savdo omborlari qurish huquqini oldilar. Xiva xonligi Rossiyaning ruxsatisiz tashqi aloqalar olib borishdan mahrum etilib, vassalga aylandi. Xonlikka 2 million 200 ming so‘m miqdorda tovon puli to‘lash yuklatildi. Rossiya savdo-sanoatchilari Xiva xonligida boj va majburiyatlardan ozod etilib, ularga xonlikda ko‘chmas mulk sotib olishga ruxsat berildi. Shu tariqa Xiva xonligi ham Rossiya imperiyasining mustamlakachiligi siyosati yo‘lida bo‘ysundirildi.

Xiva xonligi bosib olingach, xonlikka qarashli bo‘lgan hududlarda yashovchi turkman qabilalariga ham tovon puli to‘lash yuklatildi. Tovuon miqdori turkmanlarga 310500 so‘m bo‘lsa, yevmutlarga 106 ming so‘m kumush miqdorida belgilandi. Tovuon pulini to‘lashdan bu urug‘lar va qabilalar bosh torta boshladi. Bunga javoban esa rus hukumati tovon puli to‘lashdan bosh tortgan oilalarning mol-mulklarini talash va barcha oila a‘zolarini qirib tashlash haqida ko‘rsatma berdi va turkmanlarga qarshi jazo otryadlarini kuchaytirdi. Bu jazo otryadlariga general Golovochev boshchilik qildi. Tovuon to‘lashdan bosh tortib o‘z joylaridan ko‘chib ketayotgan turkmanlar 1873 yil 9 iyul kuni general Golovochev qo‘shinlariga olmachilari mavzesida duch kelib qoldi va barchasi qirib tashlandi⁸⁸². Bu barcha turkmanlarga qattiq g‘azab uyg‘otdi. Ular Xiva xonligi bilan aloqalarini uzdilar va imperiya qo‘shinlariga qarshi oxirigacha kurashishga qasamyod qildilar. 14 iyuldan 15 iyulgacha kechasi jazo otryadlari turkmanlar turgan joyga hujum uyushtirdilar 700 ga yaqin kishini o‘ldirdilar. 17 iyul kuni Kukchuk mavzesida 3000 aravada cho‘lga ketayotgan karvon odamlari ham rus jallodlari tomonidan qirib tashlandi. Turmanlarning Rossiya imperiyasi harbiy otryadlariga qarshi g‘alayonlari rosmiyaning milliy-ozodlik harakteridagi kurash tusini oldi. Katta harbiy kuchlar bilan rus hukumati turkmanlarga qarshi kurashni 1881 yilgacha davom ettirish majbur bo‘ldi. Bundan katta harbiy tajribaga ega bo‘lgan rus generali Skobelev o‘zining shafqatsizligi bilan nom chiqardi. U turkmanlarning Gukdepe (Ko‘ktepa) qal‘asini yer bilan yakson qildi va

⁸⁸² Туркистон босқини. Тошкент, “Нур”, 1992. 9-б.

harbiy jazo ekspeditsiyasi vaqtida 40000 kishini qatl qildirdi⁸⁸³. Shu tariqa o‘z erki uchun kurashgan turkman halqi ham zo‘rluk bilan Rossiya imperiyasi hukmronligiga bo‘ysundirildi.

Po‘latxon qo‘zg‘oloni. Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan butunlay bosib olinishi. Rossiya imperiyasi hukumati O‘rta Osiyo hududlarini bosib olishdan ko‘proq manfaatdor bo‘lib, bu manfaatdorlik bosqinchilik harakatlarini tezlashtirishga undar edi. Bir qator tarixchilarning ko‘rsatib o‘tishicha, Rossiya imperiyasining yengil sanoatini ta‘minlab beruvchi arzon xom ashyo bazasining O‘rta Osiyoda mavjudligi va uni qo‘lga kiritishga bo‘lgan ehtiyoj Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo xonliklarini bosib olishining asosiy omillaridan biri bo‘lgan edi⁸⁸⁴.

1867 yil Turkiston general gubernatori etib tayinlangan K.P.fon Kaufmanga O‘rta Osiyoda qo‘lga kiritilgan hududlarda va atrofdagi davlatlarga nisbatan imperiya manfaatlarini to‘laqonli amalga oshirish maqsadida cheklanmagan siyosiy va harbiy vakolatlar berilgan edi⁸⁸⁵.

K.P.fon Kaufman Buxoro va Qo‘qon xonliklari bilan vaqtinchalik tinchlik shartnomalarini tuzish borasida amalga oshirgan ishlari bo‘yicha podshoga maktub orqali quyidagilarni ma‘lum qilgan: -“Menga ishonilgan o‘lkaga yetib kelgach, qo‘shni davlatlar bilan ochiq va do‘stona munosabatlarni shakllantirish maqsadida olampanoh imperator zoti oliylari tomonidan menga berilgan vakolatlardan foydalanib, qo‘shni davlatlarga tinchlik takliflari bilan murojaat qildim va podsho zoti oliylari bu yerlarni bosib olish uchun emas, balki Rossiya va boshqa davlatlar o‘rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish maqsadini bildirdim”⁸⁸⁶.

Kaufman Qo‘qon xonligi bilan oib borilgan muzokaralarga alohida to‘xtalib o‘tadi, xonlik bilan uzoq davom etgan harbiy to‘qnashuvlardan so‘ng tinchlik sulhi va shartnomasi bu boradagi erishilgan alohida yutuq ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

⁸⁸³ Михаил Дмитриевич Скобелев. Хивинский поход – становление полководца. <http://human.snauka.ru>

⁸⁸⁴ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2012. 415-418-бб

⁸⁸⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакаси даврида. Т.: Шарқ, 2000. 100-б.

⁸⁸⁶ ЎЗР МДА. 4-715-фонд. 1-рўйхат. 36-иш. 229-варақ.

-“Said Muhammad Xudoyorxon bilan olib borilgan muzokaralar natijasida tinchlik sulhiga erishildi. Qo‘qon xonligi bilan tuzilgan shartnomani men “o‘zaro majburiyatlar” deb nomladim. Bu shartnoma undagi ko‘rsatilgan majburiyatlarning biror bir davlat tomonidan buzilishiga yo‘l qo‘yilmaguncha har ikki davlat o‘rtasidagi dushmanlik munosabatlariga nuqta qo‘yadi. Hozircha bu majburiyatlar Qo‘qon xonligi tomonidan to‘laligicha bajarilmoqda. (Gen.adyut. fon-Kaufman. 1868 yil 9 aprel)”⁸⁸⁷.

Rossiya imperiyasi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi savdo majburiyatlari jami beshta masaladan iborat bo‘lib, unda o‘zaro majburiyatlar aks ettirilgan va Qo‘qon xonligi oldiga quyidagi talablar qo‘yilgan hamda bu talabalarni bajarish majburiyatini to‘laligicha bajarish qat’iy talab etilgan edi:

Birinchidan, Qo‘qon xonligining barcha qishloq va shaharlari rus savdogarlari uchun istisnosiz ravishda “ochib qo‘yilishi”, xuddi shunday holatda barcha barcha qo‘qonlik savdogarlar uchun rus bozorlari ham “ochiq bo‘lishi”ga kafolat beriladi.

Ikkinchidan, Rus savdogarlariga Qo‘qon xonligining istalgan joylarida o‘zlari uchun karvon saroylariga ega bo‘lishiga va o‘zlarining mollarini saqlashiga ruxsat etiladi. Xuddi shunday imkoniyatlardan Qo‘qon xonligining savdogarlari ham rus shaharlarida foydalanish huquqiga ega bo‘ladilar.

Uchinchidan, Qo‘qon xonligining barcha shaharlarida savdo-sotiq ishlarining to‘g‘ri yuritilishi va rus savdogarlaridan to‘lov va yig‘imlarning qonuniy ravishda undirilishini nazorat qilish Turkiston o‘lkasining savdo agentlariga ishonib topshirilsin.

To‘rtinchidan, Rossiyadan Qo‘qon xonligiga keltiriladigan va ayni vaqtda Qo‘qon xonligidan Rossiyaga (Yevropa va Osiyo qismi uchun ham birdek) yuboriladigan barcha tovarlar uchun Turkiston general gubernatorligida qabul qilingan miqdorda, ya’ni barcha tovarlarning 2,5% miqdorida to‘lov undirilishi belgilab qo‘yilsin.

Beshinchidan, rus savdogarlari karvonlari uchun Qo‘qon xonligi hududlaridan qo‘shni davlatlarga bemaol va xavfsiz o‘tish ta’minlanishi

⁸⁸⁷ Кўрсатилган хужжат.

lozim, xuddi shuningdek, Qo‘qonlik savdogarlarga ham Rossiya hududlaridan o‘tish ta‘minlanadi⁸⁸⁸.

Mazkur majburiyatlar Turkiston general gubernatori va Turkiston harbiy okrugi qo‘shinlari qo‘mondoni general-adyutant fon Kaufman tomonidan 1868 yil 9 yanvarda Toshkent shahrida imzolandi. Sayyid Muhammad Xudoyorxonning muhri va Turkiston general gubernatori va Turkiston harbiy okrugi qo‘shinlari qo‘mondoni general-adyutant fon Kaufman muhri 1868 yil 13 fevral kuni qo‘yilgan⁸⁸⁹.

Rossiyalik savdogarlarga katta imtiyozlar beruvchi bu shartnoma aholi o‘rtasida noroziliklarni keltirib chiqaradi. Xonlikning turli hududlarida qo‘zg‘olonlar avj oldi, birgina Ma‘mur munduz boshchiligidagi qo‘zg‘olon xonlikda siyosiy vaziyatni keskinlashtirib yubordi. “Tasnifi g‘arib” asarida yozilishicha, -“Ma‘mur degan kimsa tomonidan ko‘tarilgan qo‘zg‘olon Xudoyorxonni ko‘b bezovta qildi. Xon qo‘zg‘olonni bostirish uchun o‘zining ukasi, Marg‘ilon begi Sulton Murodbek boshchiligi artilleriya bilan qo‘shin jo‘natdi. Biroq, xon qo‘shinlari tog‘larda ko‘p sarson bo‘lib, maqsadga erisha olmay, yana Qo‘qonga qaytib keldilar⁸⁹⁰. Mirzo Rahim Toshkandiyning ko‘rsatishicha, qirg‘izlarning munduz urug‘idan bo‘lgan Ma‘mur boshchiligidagi qo‘zg‘olon Xudoyorxonning xalqqa nisbatan soliqlarni ko‘paytirganligi, xalq turmushi va hayot kechirishining og‘irlashib borayotganligiga qarshi xonlikning Andijon viloyatida, O‘sh va O‘zgand bekliklari hududlarida ko‘tarilgan bo‘lib, qo‘zg‘olonning davom etish jarayonida bir qator qirg‘iz biylari undan foydalanib qolishga harakat qildilar⁸⁹¹. Qo‘zg‘olonchilarning Xonobod va Jalolobodga qilgan hujumlaridan so‘ng Andijon hududlarida vaziyat keskinlashdi. Xudoyorxon o‘zi qo‘shinga bo‘shchilik qilib qo‘zg‘olonchilarga qarshi kurashga kirdi va qo‘zg‘olonni bostirdi, ko‘plab qo‘zg‘olonchilar jazolandi.

Xudoyorxonga qarshi shakllangan siyosiy kuchlar hokimiyatni egallash maqsadida kurash uchun o‘zlargia yetakchi bo‘lishga undab bu vaqtda Buxoroda yashab turgan Murodxonning o‘g‘li Po‘latxonga

⁸⁸⁸ ЎЗР МДА. 4-715-фонд. 1-рўйхат. 36-иш. 230-варак.

⁸⁸⁹ Кўрсатилган хужжат.

⁸⁹⁰ «Таснифи ғариб». 315-б.

⁸⁹¹ Ансоб ус салотин ва таворих ул хавоқин. 116-в.

murojaat qildilar, biroq u kurashga kirishishdan bosh tortgach, Xorazmda yashab turgan Madalixonning o'g'li Muzaffarbekka murojaat qildilar va u ham rad javobini berdi. Toshkentlik Abdulmo'minboyning maslahati bilan Qo'qonga olib kelingan soxta Po'latxon – Mullo Isxoq Hasan o'g'li boshchilik qilgan qo'zg'olon esa Xudoyorxon hokimiyatiga barham berdi, biroq xonlikning Rossiya imperiyasi bilan munosabatlarini keskinlashtirib yubordi⁸⁹².

XIX asrning 70-yillari boshlarida Qo'qon xonligi saroyida katta mavqega ega bo'lgan Abdurahmon oftobachi boshchiligida ham Xudoyorxonga qarshi zimdan harakat boshlangan edi. Uning qo'llab quvvatlashi bilan Laylak mavzesida yashovchi qirg'izlarning chopqunlik urug'lari biylari dastlabki harakatlarni boshlab, Qo'qon xonlari avlodidan Sodiqbekning o'g'li, bu vaqtda Ho'jandda yashab turgan va u yerdan chaqirib olingan Abdukarimbekni xon deb e'lon qildilar⁸⁹³. Biroq bu isyon tezda bostirildi, Xudoyorxon tomonidan yuborilgan 7 ta ponsadlar boshchiligidagi qo'shinlar soxta xonning fitnasini to'liq bartaraf qildilar, qirg'izlar chekinib, tarqab ketdilar, Abdukarimbek esa bu vaqtda Turkiston genearl gubernatorligi tarkibida bo'lgan Ho'jandga qaytib ketdi, biroq, Xudoyorxonning iltimosi bilan rus hukumati Abdukarimbekni Xudoyorxonga topshirdi⁸⁹⁴.

Oloy qirg'izlari esa Xudoyorxonning akasi So'fibekning o'g'li Nazarbekni xon deb e'lon qildilar, biroq bu isyon ham Xudoyorxon tomonidan tezda bostirildi⁸⁹⁵.

1869 yilda Turkiston general-gubernatori K.P.fon Kaufman va Qo'qon xoni Xudoyorxon o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasining vassal davlatiga aylantirildi. Bu sharnomaning imzolanishi xonlikda katta noroziliklarning boshlanishiga sabab bo'ldi. Bir tomondan siyosiy keskinlik, ikkinchi tomondan soliqlarning oshib ketishi oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar halqning Xudoyorxondan noroziligining oshib ketishiga sabab bo'ldi. Xudoyorxonga qarshi qurolli kurashga aylanib ketgan harakatga Po'latxon

⁸⁹² Из истории Кокандского ханства. Стр. 77-78.

⁸⁹³ Из истории Кокандского ханства. Стр. 83.

⁸⁹⁴ Из истории Кокандского ханства. Стр. 292.

⁸⁹⁵ Из истории Кокандского ханства. Стр. 84.

nomi bilan mashhur bo'lgan Mullo Isxoq Xasan o'g'li boshchilik qildi. Qo'qon xonligida XIX asrning 70-yillari birinchi yarmida sodir bo'lgan bu qo'zg'olonlar va isyonlar orasida Xudoyorxonning siyosatiga qarshi O'zgannda o'zbeklar, qirg'izlar, tojiklar, qipchoqlarning birgalikdagi amalga oshirgan harakatlari katta tarixiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu harakatning boshlanishida qirg'izlar tomonidan Po'latxon xon etib e'lon qilindi. 1873 yil bahorida asosan qirg'izlardan iborat qo'zg'olonchilar qipchoqlar bilan birgalikda xonga qarshi harakatlar olib bordilar. 1874 yil bahoriga kelib qo'zg'olonga o'troq aholi ham qo'shildi va Qo'qon xonligining turli viloyatlarida qo'zg'olonlar avj olib ketdi. Bahor va yoz oylarida kuchaygan qo'zg'olon kuz oylariga kelib bir oz susaydi. Qo'zg'olonning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari bo'lgan dexqonlar xo'jaligi ishlari bilan band bo'ldilar va qo'zg'olonning susayishiga sababchi bo'ldilar. 1875 yil bahoriga kelib yana avj oldi. Endi qo'zg'olonga rahbarlik vazifalarini Xudoyorxonning nabirasi Nazarbek va Po'latxon bajara boshladilar. Qorategin va O'zgan atroflarida harakat qilayotgan qo'zg'olonchilarga qarshi Xudoyorxon Abdurahmon Oftobachi, Iso Avliyo va Sarimsoqlar boshchiligida qo'shin jo'natdi. Xudoyorxon tomonidan Po'latxon qo'zg'olonini bostirish uchun yuborilgan Abdurahmon oftobachi va Mullo Isolar O'zgannda qo'zg'olonchilar tomonga o'tib ketdilar. "Tasnifi g'arib" muallifining yozishicha – "birinchisi o'zini bosh qo'mondonlik va vaziri kalonlik mansabiga, ikkinchisi esa moliya vaziri lavozimiga belgilab", barcha aholini qo'zg'olon ko'targan Po'latxon atrofida birlashtirishga harakat qildilar⁸⁹⁶. Xudoyorxondan norozilik kayfiyatida bo'lgan o'g'li Nasriddinbekni va Xudoyorxonning ukasi Sulton Murodbekni Abdurahmon oftobachining uyiga taklif qilib, u yerda deyarli uy qamog'ida saqladilar, xattoki bu holatga boshqalarning e'tiborini jalb qilmasik maqsadida Oftobachining qizlaridan birini Sulton Murodbekka nikohladilar⁸⁹⁷. 1875 yilning 18 iyulida esa xonning o'g'li Nasriddinbek ham qo'zg'olonchilar tarafiga o'tdi. Bu vaqtda Andijon hokimi bo'lib turgan Nasriddinbek Saritol mavzesida Qo'qon xoni deb e'lon qilindi. Xudoyorxon atrofidagi

⁸⁹⁶ Таснифи ғарби. 317-б.

⁸⁹⁷ Из истории Кокандского ханства. Стр. 84

amaldorlar ham birin-ketin qo‘zg‘olonchilar tomonga o‘tib keta boshladi, jumladan, xonning bosh vaziri qoraqalpoq Zulfiqorbek, xonning bayroqdorlari qo‘mondoni Mahmudhoja, sarkardalardan biri Xolnazar va boshqalar xonni tark etdilar.

Yuzaga kelgan qaltis vaziyat Xudoyorxonni general Kaufmandan yordam so‘rashga majbur qildi. qo‘zg‘olonchilar tomonidan O‘sh, Asaka, Namangan, Andijon bosib olindi. 20 iyulda esa xonning ukasi Sulton Murodbek ham qo‘zg‘olonchilar tarafiga o‘tib ketdi. Shu kuni xon yordam so‘rab Kaufmanga maktub bitdi. Biroq ularning tezda yetib kelishiga ishonmagani uchun qochib ketish harakatiga tushdi. 22 iyulda xonning ikkinchi o‘g‘li Muhammad Aminbek ham qo‘zg‘olonchilar tarafiga o‘tib ketdi. Xudoyorxon A.A.Vaynberg va M.D.Skobelevlar hamrohligida Qo‘qondan Xo‘jandga qochdi va u yerdan Toshkentga keldi. U Kaufman bilan uchrashgandan so‘ng Orenburgga jo‘natildi. Keyinchalik u yerdan qochishga muvaffaq bo‘lgan Xudoyorxon xajga bordi va ortga qaytishda 1886 yilda Afg‘onistonda vafot etdi. Po‘latxonni qo‘llab quvvatlagan va u tomonga o‘tgan barcha sarkarda va amaldorlar, xonning o‘g‘illari va qarindoshlari Po‘latxonni «valiahd» deb tan olgan edilar. Biroq xon qochib ketgach, taxtga Nasriddinbek o‘tirdi. Bu esa Po‘latxonning Nasriddinbekka qarshi kurash boshlashiga sabab bo‘ldi. Xonlikdagi kuchlar ikki qismga ajralib qoladi. Yuzaga kelishi muqarrar bo‘lib qolgan fuqarolar urushining odini olish maqsadida Abdurahmon Oftobachi kuchlarni birlashtirish va Rossiya imperiyasining Turkistondagi harbiy kuchlariga qarshi qo‘yish maqsadida g‘azavot urushi e‘lon qiladi. Po‘latxon bu kurashga ochiqdan-ochiq qarshi chiqmasada, o‘zini katta janglardan torta boshladi. Xonga va amaldorga qarashli bo‘lgan yer-mulklarni halqqa bo‘lib bera boshladi. Bu esa xonlikda Po‘latxonning harbiy-siyosiy mavqei kuchayishiga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga milliy-ozodlik kurashlari ham olib borildi. Kurashlar natijasida Toshkentdan 40 km masofada bo‘lgan Parkentgacha bo‘lgan yerlar Turkiston general gubernatorligidan ozod etildi. Bundan qattiq tashvishga tushgan imperiya hukumati 1875 yil 9 avgustda Qo‘qon xonligiga qarshi urush e‘lon qildi. 1875 yil 22 sentabr kuni Marg‘ilonda Nasriddinbek va Kaufman o‘rtasida shartnoma imzolanib, Nasriddinbek o‘zining Rossiyaga tobe ekanligini

bildirdi. Bu shartnomada koʻzda tutilishicha, Sirdaryoning oʻng sohilidagi yerlar, Namangan, Chust Rossiya ixtiyoriga oʻtdi va xonlik 2 million soʻm tovon toʻlash majburiyatini oldi. Bu yerda tashkil etilgan Namangan boʻlimiga M.D.Skobelev boshliq etib tayinlandi. Bu voqealardan soʻng qoʻzgʻolonchilar yana Nasriddinxonga qarshi kurashni kuchaytirib yubordilar. Qoʻzgʻolon eng kuchaygan Andijon shahriga imperiya qoʻshinlari hujum uyushtirdilar va 2 sentabrdan 5 oktabrgacha boʻlib oʻtgan janglardan soʻng shahar egallandi. Valixon boshchiligidagi qoʻzgʻolonchilar Qoʻqonni ishgʻol qildilar, Nasriddinxon bu yerdan qochib ketdi. Botir Toʻra va Iso Avliyo Namanganni ozod qilish uchun kurashdilar. Keyingi kunlarda qoʻzgʻolonchilar tomonidan Baliqchi, Andijon, Margʻilon, Oʻratepa, Qoʻrgʻontepa va boshqa joylar egallab olinib, bu yerlarda Poʻlatxonning hukmronligi oʻrnatildi. Rus hukumati Qoʻqonda boʻlayotgan voqealarni diqqat bilan kuzatib turardi. Ular qoʻzgʻolonchilarga zarba berish va xonlikni qoʻlga kiritish maqsadida «Ikki suv orasi operatsiyasi» nomli tadbir ishlab chiqdilar. Bunga koʻra qoʻzgʻolonchilarni Norin va Qoradaryo oraligʻida oʻrab olib, magʻlubiyatga uchratish koʻzda tutilgan edi. Asosiy zarba esa Andijonga qaratilgan edi.

1876 yil 30 yanvar kuni Nasriddinbek Qoʻqon shahriga keladi va uni bu yerda xon deb eʼlon qilishadi. Shu yilning 2 fevralida esa K.P.Kaufman Peterburgdan Toshkentga Turkiston okrugning vaqtincha qoʻmondoni general-mayor Kolpakovskiyga quyidagi telegrammani yuboradi: - “Qoʻqon xonligi xalqining Rossiya fuqaroligini oʻz xohishlari bilan qabul qilish istaklarini inobatga olib, shuningdek xalqni boshqa yoʻl bilan tinchlantirib boʻlmasligi sababli Imperator Hazratlari zudlik bilan Qoʻqon xonligini Oliy Hazrat qoʻl ostiga olishni menga buyurdilar. Shuning uchun Sizga xonlikni qoʻshin bilan quyidagi tartibda egallashni topshiraman: toʻrtinchi harakatdagi batalyon va yettinchi batalyonning uchta rotasi, ikkita batareya va toʻrtta kazak sotnyasi Beshariqqa joylashtirilsin, u yerdan esa Qoʻqonga yuborilsin, bu qoʻshinga yordam kuchi tezda yuborilsin, Toshkentdan oltita yeigillashtirilgan pushkani bor kazaklar bilan, toʻrtinchi oʻqchi batalyonni sapyorlar qismi va toʻrtinchi rota bilan, oʻq-aslaha bir komplekt, ikkinchisi Xoʻjandga olib borilsin, Mahramda bir

rota va ikki pushka koldirilsin. General Skobelev Asaka va Marg‘ilon orqali Qo‘qonga borsin. Xalqni Ulug‘ Hazrat qo‘l ostiga olishni e‘lon qilaman, Skobelev otryadi soni o‘ziga havola, Andijonda garnizonni joylashtirib, lekin Skobelev otryadida albatta uchinchi o‘qchi batalyoni bo‘lsin, uni to‘rtinchi batalyon va oltinchi batalyondan ikki rotasi bilan kuchaytirib Qo‘qon shahrida qoldirishni tavsiya etaman, polkovnik Bogayevskiyni o‘zingiz bilan oling va u zudlik bilan Qo‘qon o‘rdasini mustahkamlasin, Toshkent o‘lkasi va qo‘shinni boshqarish Golovachyovga topshirilsin. Sizning ishbilarmonligingizga ishonaman, qo‘shinlarga bergan buyruqlaringiz va harakatlaringiz haqidagi xabarni kutaman. Sobiq Qo‘qon xonligi o‘rniga Farg‘ona viloyati nomi berilsin, viloyat boshlig‘i etib Skobelev tayinlansin, Nasriddin esa hozircha Toshkentga yuborilsin”⁸⁹⁸.

Bu paytda Namanganda bo‘lgan Skobelev Rossiya imperiyasining topshirig‘iga asosan 1876 yil fevralida Qo‘qon xonligini butunlay bosib olishga kirishdi. Abduraxmon oftobachi va Po‘latxon qo‘lga olindi. Abduraxmon oftobachi Rossiyaning Yekaterinoslav guberniyasiga, Nasriddinxon esa Vladimir guberniyasiga surgun qilindi. Shu tariqa, 1876 yil 19 fevralda 150 yildan ko‘prok hukm surgan Qo‘qon xonligi tugatilib, uning hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi va uning o‘rnida Farg‘ona viloyati tashkil etildi”⁸⁹⁹.

1876 yil 8 yanvarda rus qo‘shinlari general Skobelev boshchiligida Andijonga yurish boshladi. Shu yilning yanvar-fevral oylarida bo‘lib o‘tgan janglar natijasida qo‘zg‘olonchilar mag‘lubiyatga uchratildi. Abdurahmon oftobachi muharram oyining 20-kuni Rossiyaning Yekaterinoslav guberniyasiga surgun etiladi. Nasriddinxon esa Rossiyaning Vladimir guberniyasiga yuboriladi. Po‘latxon (Isoqboy ibn Hasanboy o‘g‘li) esa Sayid Mavlonbek va Ali Akbarbek ibn Saidmurodbek talablari bilan Marg‘ilonda 1876 yil 1 mart kuni dorga osiladi⁹⁰⁰. Uning homiysi mullo Abdulmo‘min ibn Muhsinbek Toshkandiy hamda Abdulmo‘min

⁸⁹⁸ Бобобеков Х. Қўқон тарихи. Тошкент. “Фан”, 1996. 95-96-бб.

⁸⁹⁹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2012. 363-364-бб

⁹⁰⁰ Мулло Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. 37-38-бб.

ham Toshkentga olib borilib, Salor anhuri yoqasida dorga osiladi⁹⁰¹.

1876 yil 19 fevralda Qo‘qon xonligining yerlari Rossiya imperiyasi qo‘shini tomonidan to‘liq bosib olinib, Qo‘qon xonligi butunlay tugatildi va uning o‘rnida Turkiston general gubernatorligiga qarashli Farg‘ona viloyati tuziladi. Shunday qilib, 150 yildan ko‘proq mavjud bo‘lgan Qo‘qon davlati barham topadi.

Tayanch so‘zlar: O‘rta Osiyo, ingliz-rus raqobatchiligi, kartografik, harbiy – topografik, Zirabuloq shartnomasi, Gandimiyon shartnomasi, Po‘latxon qo‘zg‘oloni, manbalar, xonliklar, harbiy jarayonlar, tarixiy shaxslar

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O‘rta Osiyo xonliklarining podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga doir manbalarni tavsiflab bering.
2. O‘rta Osiyoda ingliz – rus raqobatchiligi nimalarda ko‘rinadi?
3. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasi nima uchun kartografik va harbiy topografik yo‘l bilan o‘rganildi?
4. Podsho Rossiyasining O‘rta Osiyoni zabt etishga kirishuvida asosan nimalarga e‘tibor qaratdi?
5. Qo‘qon xonligi va Rossiya o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuvlar haqida ma‘lumot bering?
6. Turkiston, shahrining bosib olinishi jarayonlarini aytib bering?
7. Chimkent shahrining bosib olinishi jarayonlarini aytib bering?
8. Toshkent shahrining bosib olinishi jarayonlarini aytib bering?
9. Buxoro amirligi va Rossiya o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuvlar haqida ma‘lumot bering?
10. Jizzaxning bosib olinishi jarayonlarini aytib bering?
11. Samarqandning bosib olinishi jarayonlarini aytib bering?
12. Turkiston general – gubernatorligining ta‘sis etilishida nimalarga asosiy e‘tibor qaratildi?
13. Zirabuloq shartnomasining mohiyati qanday edi?
14. Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuvlar qanday bordi?
15. Gandimiyon shartnomasining mohiyati?
16. Xiva turkmanlarining mustamlakachilarga qarshi kurashi qancha davom etdi?
17. Po‘latxon qo‘zg‘olonining yuzaga kelishi va sabablari?

⁹⁰¹ Ўша жойда.

TURKISTONDA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKA IDORA USULINING JORIY ETILISHI

- ❖ **O‘rta Osiyoda Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati va uning xususiyatlari.**
- ❖ **Turkiston general-gubernatorligining siyosiy ma‘muriy boshqaruv tizimi.**
- ❖ **Turkiston general-gubernatorligida politsiya va sud hokimiyati.**
- ❖ **Shaharlar va shahar boshqaruvi tizimi. Toshkent shahar dumasining tashkil etilishi.**
- ❖ **Rossiyaning Turkistonda yer-suv masalalariga doir siyosati va qishloq boshqaruvi.**
- ❖ **Imperiyaning ko‘chiruvchilik siyosati va uning oqibatlari.**
- ❖ **O‘rta Osiyo temir yo‘lining qurilishi.**
- ❖ **Sanoat ishlab chiqarish sohasining shakillantirilishi va uning mustamlakachilik mohiyati.**

O‘rta Osiyoda Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati va uning xususiyatlari. Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasini bosib olgach, jahonning eng yirik mustamlakachi davlatiga aylandi. Yevropada Rossiya imperiyasiga nisbatan «ulkan miqdordagi mulk o‘g‘risi» degan kinoyali ibora ishlatila boshlandi. Yevropa va Osiyoning bir qismini o‘z ichiga olgan bu imperiya boshqa mustamlakachi davlatlardan farqli ravishda o‘ziga xos mustamlakachilik tizimini yuzaga keltirdi. Bunday zo‘ravonlik va zulmga asoslangan mustamlakachilik tizimi Turkistonda keng ko‘lamda amalga oshirila boshlandi. Bu siyosat mahalliy halqlarga mutlaqo ishonmaslik, ularni nazarga ilmaslik kabi o‘ta millatchilik ruhidagi siyosat asosiga qurilgan edi.

Turkistonda boshqaruvni tashkil qilishga chorizm uni bosib olgan damdan boshlab kirishdi. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi bosib olingan hududlarni boshqarishni tashkil qilish hamda bu hududlarda savdo ishlarini yo‘lga qo‘yish borasida jiddiy siyosat yuritishi belgilab berildi. Buni amalga oshirish maqsadida imperator huzurida tarkibida harbiy vazir D.A.Milyutin, ichki ishlar vaziri Valuev, Sharqiy Sibir general gubernatori Korsakov, G‘arbiy Sibir general gubernatori Dyugamel, Sharqiy Sibirning sobiq general gubernatori Muravyev – Amurskiy, Orenburg sobiq general gubernatori Bezak, general-kvartirmeyster Verigin, Osiyo departamenti

boshlig'i Stremousov, shuningdek Timashev, Butkov va YE.Kovalesvkiylardan iborat bo'lgan Maxsus qo'mita tashkil qilindi. Qo'mitaning 1865 yil 25 yanvardagi yig'ilishida O'rta Osiyo bilan savdo munosabatlarini nazorat qilish va siyosiy boshqaruvni tashkil qilishni Orenburg general gubernatorligiga topshirish ma'qul deb topildi va Yangi Qo'qon liniyasi hamda Sirdaryo liniyalarini birlashtirib (ya'ni, Issiqko'lnng g'arbiy sohillarida Orol dengizigacha bo'lgan hudud) Orenburg general gubernatorligi tarkibida, general gubernatorga boshqaruvda to'la mustaqil vakolatlar berilib, yagona Turkiston viloyatini tashkil qilishga qaror qilindi. Turkiston viloyatining birinchi gubernatori etib general M.G.Chernyayev tayinlandi. 1865 yil 2 martda Rossiya Senatining Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Orol dengizidan Issiqko'lgacha bo'lgan O'rta Osiyo xonliklari bilan chegaradosh xududlarda Turkiston viloyatini tashkil qilish to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi⁹⁰². 1865 yilning sentabr oyida Orenburg general gubernatori N.A.Krijanovskiy Toshkentga keldi va Toshkent shahrini Rossiya imperiyasining muxtor qaram mulki deb e'lon qildi. Turkiston viloyatining ichki ma'muriy-xududiy bo'linish tizimi sof harbiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, uning asosini harbiy-xududiy birliklar tashkil qilardi. Turkistonda boshqaruv tizimi butunlay harbiylashtirilgan hokimiyat ixtiyoriga to'laligicha topshirilgan bo'lib, ularning qo'lida cheklanmagan va hech qanday insoniy huquqlarni tan olmaydigan hokimiyat tizimi shakllantirilgan edi.

Orenburg general-gubernatorligi tarkibida yangi tashkil etilgan va markazi Toshkent shahri bo'lgan Turkiston viloyati uch bo'linga - o'ng qanot, markaz va chap qanotga bo'lingan edi. Keyinchalik Sirdaryo rayoni nomini olgan o'ng qanotga Aralsk, 1-fort (keyinchalik Kazalinsk deb nomlandi) va Perovsk, markazga Turkiston va Chimkent rayonlari; chap qanotga Avliyoota, Marke va Pishpak shaharlari kirardi. Viloyatning ma'muriy markazi qilib dastlab Chimkent shaxri belgilandi. Rossiya imperiyasi qo'shinlari Toshkentni egallaganidan so'ng, to u Rossiya tarkibiga rasman kiritilguniga qadar, bu shahar Turkiston viloyatining

⁹⁰² Собрание узаконений и распоряжений, издаваемое при Правительствующем Сенате. Спб. Пг., 1863-1917, О.1. д.20. 1865 й. Яна қаранг: Ликвидация независимости Кокандского и Бухарского ханств (1865–1868). «Военная Литература». Стр.4. <http://militera.lib.ru/>

ma'muriy markazi bo'lib turdi. Imperiyaga rasman qo'shib olingan damdan e'tiboran Toshkent va uning tevaragi Toshkent rayoni deb atalgan alohida ma'muriy birlikni tashkil qildi. 1866 yili Turkiston viloyati tarkibida Erjar va Zomin bo'limlari, O'ratepa va Jizzax rayonlari tashkil qilindi⁹⁰³.

Rossiya imperiyasi Turkistonda keng istilochilik harakatlarini boshlar ekan, xududiy egalik ko'lamiga doir tayyor puxta rejaga ega emasdi. Binobarin, bosib olingan yerlarda boshqaruvni tashkil qilish bilan bog'liq tayyor loyihalar ham yo'q edi. Xatto XIX asrning 60-yillari boshlarida ham markazi Toshkentda bo'lgan "Alohida Qirg'iz cho'li general-gubernatorligi" ni tashkil qilish haqidagi xom takliflar xukumat doiralarida nomaqbul deb hisoblab kelinardi. Shunday bir sharoitda Turkiston viloyatining ma'muriy qurilishini tartibga solishga qaratilgan meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish tashabbusi Rossiya imperiyasi harbiy qo'mondonligi qo'liga o'tdi. Shu mazmundagi birinchi hujjat Yangi Qo'qon liniyasi qo'mondoni M.G.Chernyayevning shtabida ishlab chiqilib, Peterburgga "O'rta Osiyo chegara viloyati haqidagi Nizom loyihasi" ko'rinishida taqdim etildi. Bu loyiha imperiya harbiy vazirligida qayta ishlandi va 1865 yilning 6 avgustida podsho Aleksandr II "Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat Nizom"ga imzo chekdi⁹⁰⁴. Ushbu qonunchilik hujjatida hokimiyatni tashkillashtirish tizimi Kavkazorti xududidagi singari "harbiy-xalq boshqaruvi" deb yuritildi⁹⁰⁵.

Hujjatga ko'ra Turkistonni boshqarishni tashkil qilish uchun Turkiston viloyatining harbiy gubernatori va Turkiston viloyati qo'shinlari qo'mondoni lavozimlari ta'sis qilindi, bu lavozimlarga faqatgina harbiy unvonga ega bo'lgan amaldorlar tayinlanishi shartligi ko'rsatilgan.

Mahfiy maslahatchi F.Girs boshchiligidagi Dasht Komissiyasi (1865-1867) Turkiston o'lkasida qanday boshqaruv tizimi o'rnatish lozimligi haqida bir qancha takliflarni podshoga bayon qildi. Podsho Aleksandr II bu loyihalarni «O'rta Osiyodagi mulklarni o'zlashtirish bo'yicha Mahsus

⁹⁰³ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. Тошкент, "Академия" 2002 й. 30-б.

⁹⁰⁴ Собрание узаконений и распоряжений, издаваемое при Правительствующем Сенате. Спб. Пг., 1863-1917, 1 б'юлим, 7-хужжат, 1865 й.

⁹⁰⁵ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. Тошкент, "Академия" 2002 й. 32-б.

qo‘mita» diqqatga havola qildi. Bundagi amaldorlar Turkiston aholisiga o‘ta past nazar bilan qarab, o‘lka aholisini «yovvoyilik va qoloqlikda» aybsitib, boshqaruvning faqatgina markazlashtirilgan harbiy hokimiyati joriy etilishi zarur degan xulosaga keldilar. Bu hokimiyat rasman «harbiy halq boshqaruvi» deb nomlangan bo‘lsada, amalda to‘laligicha harbiylar qo‘lida edi⁹⁰⁶.

Turkiston viloyatining harbiy gubernatori va Turkiston viloyati qo‘shinlari qo‘mondoni lavozimlari imperiya ministrlar qo‘mitasining 1867 yil 11 iyulda tasdiqlagan Turkiston general gubernatorligini tashkil qilish to‘g‘risidagi qarori bilan bekor qilindi. 1867 yilda harbiy vazir D.A.Milyutin Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Vaqtli Nizom loyihasini podsholik vazirlar qo‘mitasi taqdim etdi va bu qo‘mita tomonidan tasdiqlangan ushbu loyiha qonun sifatida kuchga kiritildi. Bunga ko‘ra markaziy fuqarolik va harbiy boshqaruv tizimi to‘laligicha general gubernator ko‘liga topshirildi. U ayni vaqtning o‘zida turkiston harbiy okrugi bosh qo‘mondoni ham edi. Markaziy davlat boshqaruvidan boshqaruvning eng quyi pog‘onalarigacha hokimiyat harbiylar qo‘liga topshirildi.

1867 yil 11 iyulda imperator Aleksandr II Turkiston harbiy okrugini ta‘sis etdi va O‘rta Osiyoda bosib olingan va saltanat tarkibiga kiritilgan hududlar hisobidan Turkiston general – gubernatorligi tashkil qildi. Ushbu gubernatorlikning markazi Toshkent bo‘lib, uning tarkibiga Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari ham kirgan edi. Birinchi general – gubernator va okrug qo‘mondoni qilib general – ad‘dyutant K.P. fon Kaufman (1818 – 1882) tayinlandi.

1865 yilda Rossiya imperatori Aleksandr II ning farmoni bilan Orenburg va G‘arbiy Sibir general-gubernatorliklari hamda Turkiston viloyatlarida boshqaruv hamda umumiy ahvolni o‘rganish uchun “Dasht komissiyasi” tuzilib, O‘rta Osiyoga jo‘natiladi. Ushbu komissiyaning vazifasi bosib olingan quduhdagi sharoitni o‘rganish hamda ularni boshqarish borasidagi xulosalarni va takliflarni ishlab chiqishdan iborat edi. Komissiya o‘z ish jarayonida ko‘rsatilgan hududlarda harbiy va fuqaro

⁹⁰⁶ Каранг: Гирс Ф. Отчет ревизующего, по высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Гирса.: / Гирс Ф. – М.: 2011. – 464 с.

hokimiyatini bir qoʻlda toʻplagan holda oʻlkani boshqarish, siyosiy hokimiyatga ega boʻlmagan barcha ichki ishlarni boshqa rishni yerli aholining xulq-atvori va urf-odatlarini hisobga olib, mahalliy aholi qoʻliga topshirish, mahalliy boshqarmada, uning qonun va urf-odatlarida mavjud boʻlgan davlat manfaatlariga ziyon yetkazuvchi barcha narsalarni butunlay tugatish, imkon qadar sudni maʼmuriyatsdan batamom ajratib qoʻyish masalalari boʻyicha aniqlik kiritishi va xulosalari hamda takliflarini taqdim qilishi lozim edi⁹⁰⁷. Maxfiy maslahatchi F.Girsning koʻrsatib oʻtishicha, Zarafshon okrugini idora qilishda general-gubernator fon Kaufman tomonidan 1868 yil 29 iyunda tasdiqlangan vaqtli qoidalar amal qilgan boʻlsa, Amudaryo boʻlimini boshqarishni tashkil qilishda general gubernator tomonidan 1874 yil 21 mayda tasdiqlangan Vaqtli Nizom amal qilib, uchastka boshliqlariga 1867 yilda kuchga kiritilgan “Turkiston oʻlkasini boshqarish toʻgʻrisidagi Vaqtli Nizom” loyihasida belgilangan tartiblarga qatʼiy amal qilishi koʻrsatib oʻtilgan⁹⁰⁸.

Hujjatda koʻrsatib oʻtilishicha, Turkiston general gubernatorligidagi viloyatlar uyezdlarga, Zarafshon okrugi – boʻlimlarga, Amudaryo boʻlimi esa uchastkalarga boʻlib boshqarilishi belgilab qoʻyilgan⁹⁰⁹. Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga Gʻarbiy Sibir general-gubernatorligi tasarrufida boʻlgan Semipalatinsk viloyati hududining bir qismi kiritildi. Chegara chizigʻi Semipalatinsk viloyati cheragasidan Balxash koʻlining oʻrtasigacha, undan Sarisuv daryosiga qadar davom etgan. Orenburg general-gubernatorligi bilan chegara chizigʻi Perovsk koʻrfazi oʻrtasigacha, Termenbes togʻiga, undan Terken, Qalmas, Muzbil, Oqqum, Chubartepa togʻlari boʻylab Moʻyinqumning Janubiy etaklari va Sarisuv daryosi Chu daryosi bilan qoʻshilgan joyga qadar borgan⁹¹⁰. Dastlab, Turkiston general-gubernatorligi ikki viloyat: markazi Toshkent boʻlgan Sirdaryo hamda markazi Verniy shahrida boʻlgan Yettisuv viloyatiga boʻlingan. Keyinchalik bosib olingan hududlar himobiga qoʻshimcha tarzda quyidagi maʼmuriy-hududiy birliklar tashkil qilindi: 1868 yilda –

⁹⁰⁷ Гирс Ф. Отчет ревизующего, по высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Гирса. СПб. 1882.

⁹⁰⁸ Гирс Ф. Отчет ревизующего, по высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Гирса.: / Гирс Ф. – М.: Книга по Требованию, 2011. Стр.7.

⁹⁰⁹ Гирс Ф. Отчет Стр.8

⁹¹⁰ ЎзР МДА. 1- жамғарма, 20-рўйхат 117-й.ж., 11-варақ.

markazi Samarqand bo‘lgan Zarafshon okrugi; 1874 yilda – markazi Petroaleksandrovsk (To‘rtko‘l)da bo‘lgan Amudaryo bo‘limi; 1876 yilda Qo‘qon xonligining tugatilishi hisobiga – markazi Yangi Marg‘ilon (Farg‘ona) shahrida bo‘lgan Farg‘ona viloyati. Yettisuv viloyati Sergiopolsk, Ko‘pal, Verniy, Issiqko‘l va To‘qmoq uездlariga bo‘lingan. 1882 yili u Turkiston general-gubernatorligi tarkibidan chiqarilgan⁹¹¹.

Turkiston general-gubernatorligi 1867-1917 yy

Turkiston general-gubernatorligi – ma‘muriy hududiy birlik. Rossiya imperiyasi bosib olgan G‘arbiy Turkiston hududida Rossiya imperatori Aleksandr II farmoni bilan 1867 yil 11 iyulda tashkil etilgan, bir vaqtning o‘zida Turkiston harbiy okrugi ham tuzilgan. Turkistonning birinchi general gubernatori etib rus podshosining yaqin mulozimi generaladyutant K.P.fon Kaufman tayinlandi. U 14 yil mobaynida (1867— 81) Turkiston o‘lkasini qattiqqo‘llik bilan boshqargan. Kavkaz, Boltiqbo‘yi o‘lkalaridagi ozodlik harakatlarini bostirishda tajribali ma‘mur va usta siyosatchi ekanligini ko‘rsatgan fon Kaufmanni «Turkistonning bunyodkori» deb ulug‘lashgan. U 1868 yil 22 yanvarda Toshkent jamoatchiligi vakillari yig‘ilishi birinchi bor ruslarni Turkiston xalklarining «katta og‘asi» deb atagan. Rossiya imperatori fon Kaufmanga o‘lkani boshqarishda cheklanmagan huquq va vakolatlar bergan, natijada uni xalq «yarim podsho» deb bilgan. Ichki va tashqi siyosatda uning erkin ish yuritishi mumkinligi imperator tomonidan berilgan «Oltin yorliq»da o‘z aksini topgan. Turkiston general gubernatori o‘z qo‘lida harbiy va fuqarolik hokimiyatini birlashtirgan edi. Ayni vaqtning o‘zida u podsho noibi, harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni, Yettisuv kazak qo‘shinlari qo‘mondoni, bosh mirshab va bosh prokuror vazifalarini ham o‘z qo‘lida birlashtirgan edi. Turkiston general gubernatori Rossiyaga vassal hisoblangan Buxoro amirligini Rossiya imperator siyosiy agentligi (1885-1917) va Xiva xonligini Amudaryo bo‘limi (1873-1918) boshliqlari orqali nazorat qilingan. 1868-1880 y.lar davomida harbiy istilolar natijasida dastlab 2 viloyatdan iborat generalgubernatorlikka yana 3 viloyat qo‘shildi. XIX asrning oxirlarida Turkiston general-gubernatorligi Sirdaryo, Yettisuv, Samarkand, Farg‘ona va Zakaspiy kabi 5 viloyatdan iborat bo‘lib hududi Yevropa Rossiyasining 1/3 qismiga teng edi. Turkiston general-gubernatorligining barcha hududi 1.779.618 chaqiringa teng bo‘lgan. Rossiya hukmdor doiralari Turkistonni imperiyaning tarkibiy qismiga aylantirish va xalqlarini ruslashtirish uchun barcha vositalarni ishga soldi. O‘lkadagi siyosiy, ma‘muriy, iqtisodiy va madaniy islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan edi⁹¹².

⁹¹¹ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркестонда чор Мустамлака тизими. – Т.: “Академия”. 2002. 41-43-бб.

⁹¹² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. 741-б.

Mustamlaka boshqaruvi amaldorlari xalqning ijtimoiy-iqtisodiy talablaridan ko‘ra siyosiy maqsad va shiorlar asosida chiqishlaridan qattiq tashvishga tushgan. Shuning uchun ham o‘lka ma‘muriyati mahalliy xalqni itoatda ushlab turishdan boshqa muqobil yo‘l yo‘q, degan fikrda qat‘iy turgan. Shunga qaramasdan, XX asrning boshlariga kelib mustabid tuzumga nisbatan siyosiy qarshilikning kuchayishi natijasida mustamlaka ma‘muriyati amaldorlari jazo tashkilotlariga e‘tibor berib, o‘z katorga qamoqxonalari ham ega bo‘lish masalasini ilgari surganlar. Metropoliya Turkistonda o‘zining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlaridan kelib chiqib, mustamlaka hududini boshqarishda quyidagilarga e‘tibor qaratdi: – xonlar va beklar davridagi davlat boshqaruv tizimini butunlay yo‘q qilish; – o‘lkada Rossiya davlatchiligi an‘analarini shakllantirish; – Turkiston xalqlarining mustamlaka tuzumiga qarshi chiqishlarini ayovsiz ravishda harbiy yo‘l bilan bostirish; – Turkistonning moddiy va insoniy resurslarini ekspluatatsiya qilishning arzon va samarali tizimini yaratish. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun mustamlaka ma‘muriyati general-gubernatorlik hududida turli “favqulodda” qonunlarni qabul qilishi va joriy etishiga qaramay, Turkiston keng jamoatchiligi, avvalo, ilg‘or ziyolilar qarshilik harakatini to‘xtatmadilar⁹¹³.

XIX asrning 80-yillari boshlaridayoq Rossiya imperiyasi hukmron doiralari mustamlaka tuzumini qonuniy rasmiylashtirishni tezlatishga qaror qildi. 1881 yil 13 iyulda “Nizom”ning yakuniy variantini Peterburgga taqdim etish va unda “o‘lkani boshqarish bo‘yicha davlat harajatlarning imkon qadar kamaytirilishini nazarda tutish” to‘g‘risidagi oliy farmoyish e‘lon qilindi. Loyiha muhokamasi M.D.Skobelev raisligidagi komissiyaga topshirildi. Biroq bu komissiya ko‘p o‘tmay tarqatib yuborildi. Gap shundaki, vafot etgan K.P.Kaufman o‘rniga tayinlangan uning eski va murossasiz raqibi M.G.Chernyayev Turkistonda “o‘lkani boshqarish qurilishida amalga oshirish zarur bo‘lgan o‘zgarishlarni yaxshiroq aniqlash uchun”⁹¹⁴ puxta taftish o‘tkazilishini talab qildi. Bunday taftish natijasida F.K.Girs tomonidan hisobot va “Turkiston o‘lkasi ustidan boshqaruvni

⁹¹³ Эргашев Ф.. Анъанавийлик ва замонавийлик уйғунлиги / “Жаҳон адабиёти” журналі, 2010 йил, 4-сон.

⁹¹⁴ ЎЗР МДА. 1- жамғарма, 25-рўйхат, 26-й.ж., 5-варақ.

tashkil qilishning bosh vazifalari to‘g‘risida” izoxnoma tuzildi. Ushbu xujjatlar 1884 Rossiya imperiyasi hukumati farmoni bilan tuzilgan Davlat Kengashi a‘zosi graf N.P.Ignatyev raisligidagi navbatdagi maxsus komissiyaga ko‘rib chiqish uchun topshirildi⁹¹⁵.

Ignatyev komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan loyiha podsho tomonidan 1886 yil 12 iyunda rasman tasdiqlandi. Bu boshqaruv tizimi Turkiston o‘lkasida ayrim o‘zgarishlar bilan 1917 yilga qadar davom etdi.

Turkiston general-gubernatorligining siyosiy ma‘muriy boshqaruv tizimi. Turkiston general-gubernatorligida joriy qilingan boshqaruv usuli mahalliy aholi ustidan to‘la nazorat qilish imkonini bera oladigan tarzda qilib tashkil etilgan edi.

Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo‘yicha ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida “harbiy vaziyat” omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular yangi xududlar bosib olinishi bilan yuzaga kelgan va qoida tarzida “muvaqqat” xususiyatga ega edi. Chunonchi, “Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridagi boshqaruv to‘g‘risidagi nizom” 1867 yili “tajriba tarzida uch yilga” joriy qilindi. Undan tashqari, 1868 yilning iyunida “Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari”, “Farg‘ona viloyatini boshqarish bo‘yicha 1873 yil muvaqqat nizom”, “Amudaryo bo‘limini boshqarish bo‘yicha 1874 yil 21 may nizomi” ham ishlab chiqilib, qabul qilingan edi⁹¹⁶.

Markaziy o‘lka boshqaruvi general gubernatori, uning Kengashi va mahkamasidan iborat bo‘lgan⁹¹⁷.

Turkiston general gubernatori o‘z qo‘lida harbiy va fuqarolik hokimiyatini birlashtirgan edi. Ayni vaqtning o‘zida u podsho noibi, harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni, Yettisuv kazak qo‘shinlari qo‘mondoni, bosh mirshab va bosh prokuror vazifalarini ham o‘z qo‘lida birlashtirgan edi. Turkiston general gubernatori Rossiyaga vassal hisoblangan Buxoro amirligini Rossiya imperator siyosiy agentligi (1885-

⁹¹⁵ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. Тошкент, “Академия”. 2002 й. 94-б.

⁹¹⁶ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. Тошкент, “Академия”. 2002 й. 44-б.

⁹¹⁷ Васильев Д.В. Становление и развитие системы управления Туркестанского края, 1865-1886 гг. Москва. 1999.

1917) va Xiva xonligini Amudaryo bo‘limi (1873-1918) boshliqlari orqali nazorat qilingan.

1867 yilgi “Nizom” loyihasida Turkiston o‘lkasining Rossiya harbiy vazirligi tarkibida bo‘lishi, o‘lka harbiy hokimiyat orqali boshqarilishi, general-gubernator o‘lkada joylashgan qo‘shinga qo‘mondonlik qilishi, boshqaruvning quyi bo‘g‘iniga yerlik aholi vakillari saylov orqali saylanishi, o‘lka boshqaruvini Rossiya imperiyasidagi mavjud boshqaruv tizimiga yaqinlashtirib, keyinchalik o‘lkani imperiyaning ajralmas bir qismiga aylantirish, o‘lkaning ma‘muriy – hududiy bo‘linishida esa imperiyaning siyosiy, iqtisodiy va strategik maqsadlaridan kelib chiqib ish tutilishi ko‘rsatib o‘tilgan⁹¹⁸.

Fon Kaufmanga Rossiya imperatori tomonidan cheklanmagan siyosiy va harbiy vakolatlar berilgan. Bu vakolatlarga ko‘ra u mustaqil ravishda urush e‘lon qilish, sulh tuzish harbiy – ma‘muriy, moliyaviy – iqtisodiy, fuqarolik ishlarini hal qilish kabi huquqlarga ega bo‘lgan⁹¹⁹. Shuning uchun fon Kaufman xalq o‘rtasida «yarim podsho» deb atalgan. General – gubernator lavozimiga shaxsan imperator tomonidan ishonch bildirilgan yuqori unvonli harbiylargina tayinlangan bo‘lib⁹²⁰, imperator ko‘rsatmasi va imperiya ministrlar qo‘mitasining 1876 yil 13 iyuldagi 56203-sonli qarori bilan general-gubernatorlarga o‘zlari boshqarayotgan o‘lkalarning shart-sharoiti va xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil qarorlar qabul qilish vakolati berilgan⁹²¹.

Podsho yorlig‘i K.P.Kaufmanga “barcha siyosiy, chegara va savdo-sotiq ishlarini hal qilish, qo‘shni mamlakatlarda muzokara olib borish va traktatlarni imzolash, qarorlar uchun shartlarni kelishish” vakolatini berardi. U o‘lkadan ayrim shaxslarni siyosiy sabablarga ko‘ra besh yilgacha bo‘lgan muddatga badarg‘a qilish va qarshilik ko‘rsatilgan taqdirda, ishni harbiy sudga oshirish xuquqiga ega edi. Gubernator aholiga solinuvchi soliqlar miqdorini belgilar, ajnabiylarni rus fuqaroligiga qabul

⁹¹⁸ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2012. 343-б.

⁹¹⁹ Эргашев Ф., Абдурахимова Н., Сугуралиева Ф. Туркистонда мустамлака молия-хўжалик идоралари тизими. – Т.: “Академия”, 2008. – Б.20.

⁹²⁰ Градовский А.Д. "Политика, история и администрация". Санкт-Петербург. Типография М.О.Вольф. 1871. стр. 415 – 450.

⁹²¹ Градовский А.Д. "Русское государственное право" т. III, 1883.

qilar, kreditlarni taqsimlar, shu jumladan, tub aholiga mansub boʻlgan shaxslarga oʻlim jazosi berish haqidagi hukmlarni (agar ular qozilik va biylik sudlari tomonidan chiqarilgan boʻlsa) bekor qilish vakolatiga ega boʻlgan Turkiston general-gubernatori oʻzining yuridik jihatdan chegaralanmagan hokimiyatiga koʻra, Turkistonning besh millionlik xalqini boshqarish xuquqiga ega edi⁹²².

Oʻlka boshqaruvining eng dolzarb masalalari general gubernatorlik kengashi tomonidan hal etilgan. Bu kengash oʻz tarkibiga harbiy guernator, sud palatasi raisi, prokuror, okrug shtabi boshligʻi, general gubernator yordamchisini kiritgan edi. Shuningdek, markaziy boshqaruvda toʻrt mahkamadan iborat general gubernator mahkamasining ham oʻrni katta boʻlgan. Birinchi boʻlim maʼmuriy va nazorat ishlarini, ikkinchi boʻlim bosh boshqarmaning moliyaviy xoʻjalik ishlarini, uchinchi boʻlim soliqlar, shaharlar mablagʻlari va boshqaruvga doir loyihalar tayyorlash ishlarini nazorat qilgan boʻlsa, toʻrtinchi boʻlim mahsus boʻlim boʻlgan. Bu boʻlim 1886 yilgacha faoliyat yuritgan va harbiy hamda adliya vazirliklari koʻrsatmalariga ham amal qilmagan, bu boʻlim 1886 yil kuchga kiritilgan “Turkiston oʻlkasini boshqarish toʻgʻrisida”gi Nizom bilan bekor qilingan⁹²³.

General gubernatorning diplomatiya idorasi Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Afgʻoniston va Qoshgʻar bilan munosabatlarini muvofiqlashtirish ishlari bilan shugʻullangan. General gubernator mahkamasi ixtiyorida Turkiston ommaviy kutubxonasi, Toshkent muzeyi, markaziy arxiv, «Turkestanskiye vedomosti» va «Turkiston viloyatining gazetasi» gazetalari va bosmaxona ham boʻlgan. Turkiston oʻlkasi markaziy bosh boshqarmasida general gubernatorga boʻysunmaydigan adliya, moliya, ziroat va davlat mulklari vazirliklariga qarashli idoralar ham boʻlgan va ular toʻgʻridan-toʻgʻri podshoga boʻysungan.

Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga Gʻarbiy Sibir general-gubernatorligi tasarrufida boʻlgan Semipalatinsk viloyati xududining bir qismi kiritildi. Chegara chizigʻi Semipalatinsk viloyati chegarasidan

⁹²² Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. Тошкент, “Академия”. 2002 й. 46-47-бб.

⁹²³ Положение об управлении Туркестанского края. Издание 1892 года. Свод Законов Российской Империи. В пяти книгах. Книга первая. Тома 1-3. Том 2. СПб., 1912. С. 427-446.

Balxash ko‘lining o‘rtasigacha, undan esa daryosi bo‘ylab cho‘zilib Sarisuv daryosiga qadar davom etardi. Orenburg general-gubernatorligi bilan chegara chizig‘i Perovsk ko‘rfazi o‘rtasigacha, Termembes tog‘iga, undan Terken, Qalmas, Muzbil, Oqqum, Cho‘bartepa tog‘lari bo‘ylab Mo‘yinqumning janubiy etaklari va Sarisuv daryosi Chu daryosi bilan qo‘shilgan joyga qadar borardi⁹²⁴.

**“Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom
1886 yil**

“Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom (Polojeniyе ob upravlenii Turkestanskogo kraya) Rossiya imperatori Aleksandr II tomonidan 1886 yil Turkiston genearl gubernatorligi boshqaruvini amalga oshirish, boshqaruvni tartibga solish va mustamlaka hokimiyatini yanada mustahkamlash maqsadida tasdiqlangan va shu yiliyoq kuchga kiritilgan. “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom 3 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim - “Ma‘muriy tuzilish”, ikkinchi bo‘lim – “Sud hokimiyati tuzilishi”, uchinchi bo‘lim – “Yer va yer egaligi tizimi” masalalariga ajratilgan. Bo‘limlar 7 ta bobga bo‘linib, boblar markaziy va ma‘muriy-hududiy boshqaruv tizimi, sud hokimiyati tizimi, o‘lkada imperiya sudlarining tashkil etilishi va faoliyatini tartibga solish, xalq sudlari va sudlov tizimi faoliyatini belgilash, o‘lkada yerga bo‘lgan munosabatlarni tartibga solish, o‘troq aholining yerga munosabatlari hamda ko‘chmanchi aholining yerga bo‘lgan munosabatlarini belgilash kabi bir qator masalalarni ko‘rsatib beruvchi 279 ta moddani o‘z ichiga olgan. “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom Turkistonda mustamlaka hokimiyatini yanada mustahkamlashni ta‘minlab bergan va ayrim o‘zgarishlar bilan 1917 yilgacha amal qilgan.

1886 yilgi “Nizom”ga muvofiq; Turkiston o‘lkasining ma‘muriy-xududiy bo‘linishi o‘zgartirildi. Bunda mavjud birliklarni unifikatsiyalash prinsipiga izchil rioya qilina boshlandi. Chunonchi, Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi. Uning tarkibiga Sirdaryo viloyatining Xo‘jand uezdi o‘tkazildi va keyinchalik Samarqand viloyati Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand va Xo‘jand uezdlaridan tashkil topdi. Farg‘ona viloyati hududining ichki tuzilishi o‘zgarishsiz qoldirildi. Sirdaryo viloyatida muqaddam tuzilgan uezdlar qatoriga Amudaryo bo‘limi qo‘shib olindi. Bir paytning o‘zida Qurama uezdi Toshkent uezdi deb o‘zgartirildi. Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlari “tub” viloyatlar deb ataldi.

⁹²⁴ ЎзР МДА. 1-жамғарма, 20-рўйхат, 117-й.ж., 11-варақ. Қаранг: Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор Мустамлака тизими. – Т.: “Академия”. 2002. 41-б.

Muqaddam Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kirgan Yettisuv viloyati 1882 yili bu tarkibdan chiqarilib, CHo‘l general-gubernatorligi tarkibiga kiritilgan edi. 1899 yili Yettisuv yana Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qaytarildi. Xuddi shu yili o‘lka tarkibiga beshinchi - Kaspiyorti viloyati qo‘shildi. U 1881 yili tashkil qilingan bo‘lib, 1899 yilgacha Kavkaz noibligi tarkibida buldi. Kaspiyorti viloyati tarkibiga Ashxabod, Krasnovodsk, Mang‘ishloq, Marv va Tajan uездlari kirardi⁹²⁵.

Turkiston general gubernatorligi beshta viloyatdan iborat bo‘lib, ular Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlari edi. Viloyatlar podsho tomonidan tayinlangan harbiy gubernatorlar ixtiyorida bo‘lgan. Bir vaqtning o‘zida ular viloyat harbiy qo‘shinlari qo‘mondoni vazifasini ham bajarganlar. Viloyatdagi ma‘muriy, politsiya va sud hokimiyatlari ham harbiy gubernatorlarga bo‘ysungan.

Viloyatlar o‘z navbatida uездlarga bo‘lib boshqarilgan. Uездlar uезд boshliqlari tomonidan idora etilgan. Sirdaryo viloyati Toshkent, Avliyoota, Kazalinsk, Perovsk, Chimkent; Farg‘ona viloyati Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, Qo‘qon, Namangan; Samarqand viloyati Jizzax, XO‘jand, Samarqand; Yettisuv viloyati Verniy, Kopal, Lersin, Pishpak, Prjevalsk; Kaspiyorti viloyati Ashxobod, Krasnovodsk, Mang‘ishloq, Marv, Tajan, uездlariga bo‘lingan. Uездlar uchastkalarga bo‘lib idora qilingan.

Viloyat boshqaruvlari tuzilishiga ko‘ra, bo‘linmalardan tashkil topgan bo‘lib, ularning soni mutamlaka tuzumi qaror topishi va kuchayishi bilan ortib bordi. Chunonchi, agar 1867 yili Sirdaryo va Yettisuv viloyat boshqaruvlarida atigi uchta-taqsimot, xo‘jalik va sudlov bo‘linmalari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 80-yillarning o‘rtalariga kelib oraliq chegara, qurilish, qishloq-davolash, veterinariya va hisob-kitob ishlari bo‘linmalari ochilgan⁹²⁶.

Viloyat boshqarmasi uchta bo‘lim – farmon beruvchi, xo‘jalik va sud bo‘limlaridan iborat bo‘lgan. Bo‘lim boshliqlari general-gubernator tomonidan tayinlangan hamda vazifasidan ozod etilgan. Uездlarni uезд boshliqlari idora qilgan. Ular general-gubernator tavsiyasiga binoan oliy

⁹²⁵ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор Мустамлака тизими. – Т.: “Академия”. 2002. 96-97-бб.

⁹²⁶ ЎзР МДА. 1- жамғарма, 27-рўйхат, 659-й.ж., 41-варақ.

yorliq bilan vazifasiga tayinlangan va ozod etilgan. Uezd boshliqlari ma'muriy va politsiya vazifasini bajargan hamda qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilgan. Mahalliy boshqaruv ko'chmanchi aholini boshqarish va o'troq aholini boshqarishga bo'lingan. Har bir uezdagi ko'chmanchi aholi viloyatlarga, volostlar esa ovullarga bo'lingan. Volost (bo'lis)lar – volost boshqaruvchilari, ovullar esa oqsoqollar tomonidan boshqarilgan. Viloyat boshqaruvchilari va unga nomzodlar harbiy gubernator tomonidan, ovul oqsoqoli va unga nomzodlar uezd boshlig'i tomonidan tayinlangan. Volost boshlig'i politsiya va ma'muriy hokimiyatni amalga oshirgan. O'troq aholini boshqarish qishloqlarda ma'muriy va politsiya vakolatlariga ega bo'lgan oqsoqollar tomonidan amalga oshirilgan. O'troq aholi uezdlarda volostlarga, volostlar esa qishloq jamoalari (oqsoqolliklar)ga bo'lingan⁹²⁷.

Rossiya imperiyasi hukumati siyosiy manfaatlaridan kelib chiqib, qishloq, uning boshqaruvini asta - sekin umumimperiya turidagi idora usuliga o'tkazishni ko'zladi. Shu maqsadda O'rta Osiyoga mutlaq yot bo'lgan hududiy boshqaruv islohotlarini boshlab, volost, qishloq yig'ini kabilarni joriy qildi. 1867 yildagi «Turkiston general – gubernatorligi viloyatlarini boshqarish haqidagi Vaqtli Nizom loyihasi» ga ko'ra, ko'chmanchi aholiga ikki bosqichli (volost va ovullar), o'troq aholiga esa bir bosqichli (oqsoqolliklar) boshqaruv tarzi joriy qilindi. Volost (bo'lis) asosini 1 mingdan 2 ming xonadongacha, ovul jamoalarini esa 100 o'tovdan 200 yuz o'tovgacha aholi tashkil etgan. Mahalliy aholi orasidan (xonadon yoki o'tovdan) volost boshqaruvchisi (mingboshi), qishloq oqsoqollari (yuz boshi, ellik boshi, o'n boshi) hamda ovul starshinasi (oqsoqoli) uch yilga saylanar, ularning nomzodlari esa mustamaka ma'muriyati tomonidan tasdiqdan o'takazilgan. 1886 yilda kuchga kirgan “Turkiston o'lkasini boshqarish haqida”gi Nizomga ko'ra esa o'troq aholining bir bosqichli boshqaruvini ikki bosqichliga aylantirib, oqsoqolliklar volostlarga birlashtirdi. Aholi esa «qirg'izlar va sartlar» sifatida emas, balki «o'troq va ko'chmanchi» degan atama bilan ajratildi⁹²⁸. Uchastkalar esa o'z navbatida mahalliy ma'muriy amaldorlar boshqaradigan ma'muriy hududlarga bo'lingan.

⁹²⁷ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2012. 380-б.

⁹²⁸ Shamsutdonov R., Mominov X.. O'zbekiston tarixi. – T.: “Sharq”, 2013. – B. 364.

Turkiston general-gubernatorligida politsiya va sud hokimiyati.

Mustamlakachi sud hokimiyati Turkistonda imperiyaning mustamlaka siyosatini amalga oshirishda asosiy tayanch hokimiyat bo'g'ini bo'lgan. Turkistondagi mustamlakachi sud hokimiyati cheklanmagan katta vakolatlarga ega bo'lgan. Bosh mirshab va bosh prokuror vazifalarini general-gubernatorning o'zi bajargan. Ma'muriy boshqaruvning har bir bo'g'ini boshlig'i o'z qo'llarida sud ishlari va mirshablik ishlari bo'yicha ham katta vakolatlarga ega bo'lganlar. Turkiston shaharlarida politsmeyster lavozimi joriy etilgan bo'lsa, Toshkentda yangi va eski shaharlarda alohida politsmeysterlar ish olib borganlar. Ularga politsiya pristavlari bo'ysungan va ko'p sonli mirshablar ham ularning izmida bo'lgan.

1882 yilda politsiya boshqarmasi shahar xokimi (gorodnichiy), uning yordamchisi (pristav), kotiblari, politsiya komandasi, 12 yigit (otliq politsiya) va boshqalardan tashkil topgan. Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi nizomga ko'ra 1887 yilda "yangi" shahar politsiya boshqarmasi shahar boshlig'iga bo'ysunardi, boshqa joylarda esa politsiyaga uezdlarning boshliqlari rahbarlik qilardi. Politsiya qo'riqchilari maoshiga xarajatlar zemstvo solig'i hisobidan qoplanardi, keyinroq esa bu ehtiyojlarga mablag'larni ma'lum qismi shahar daromadidan ajratiladigan bo'lgandi. So'ngra politsiya maoshi butunlay shahar daromadi hisobiga o'tib ketgandi. 1912 yildan bu xarajatlarning yarmi xazina hisobiga o'tkazildi. XIX asr oxiri-XX asr boshida chor ma'muriyati milli-ozodlik xarakatlarining kuchayishi sababli politsiya boshqaruvini mustahkamlashga imkon beruvchi qator chora-tadbirlarni ko'rdi. 1893 yilda maxfiy politsiya tashkil etildi, 1907 yilda esa general-gubernator idorasi qoshida maxfiy politsiya tashkil etish bo'yicha maxsus bo'lim tuzildi. 1907 yildan Turkiston rayoni muhofaza bo'limi (TROO) ta'sis etildi, u har qanday ommaviy chiqishni bo'g'ishga qaratilgandi. Politsiya shefi va bosh jandarm o'lka general-gubernatorining o'zi edi⁹²⁹.

Turkistonda sud hokimiyati ikki xil - imperiya sudlari va halq sudlaridan iborat bo'lgan. Imperiya sudlari imperiya qonunlari asosida

⁹²⁹ Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. Тошкент, «Fan va texnologiya». 2004

faoliyat yuritgan bo'lsa, halq sudlari shariat qonun-qoidalari asosida faoliyat yuritgan.

Sudlar, tuman sudlari, sud palatasi huquqidagi viloyatlar boshqarmalari, mirovoy sudlar qurultoylari va harbiy sudlardan iborat bo'lgan. Davlatga qarshi jinoyatlar va boshqa turdagi siyosiy jinoyatlar, davlat mulkini o'g'irlash va talon-taroj etish va boshqa shu kabi jinoyatlar imperiya sudlari tomonidan ko'rib chiqilgan. Muhim va og'ir hisoblangan jinoiy ishlar esa harbiy sudlar tomonidan ko'rilgan. siyosiy bo'lmagan va asosan mahalliy aholi tomonidan sodir etilgan mayda jinoyatlar shariat qozilari tomonidan ko'rib chiqilgan, biroq ular rus millatiga va yevropaliklarga mansub shaxslarning jinoiy ishlarini ko'rishga huquqsiz bo'lganlar.

1886 yilgi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomga ko'ra uezd sudlari tugatilib, ularning o'rniga uchastka mirovoy (kelishtiruv) sudlari ta'sis etildi. 1864 yil sudlov nizomlarining dastlabki matniga ko'ra mirovoy sudyalari shahar va qishloq boshqaruv organlari tomonidan uch yil muddatga saylanishi lozim edi. Biroq, Turkistonda sudlov nizomlari qabul qilingan davrga kelib Aleksandr III ning aksilislolotlari amalga oshirilib, 1864 yil nizomlarining u yoki bu darajada demokratik institutlari tarqatib yuborildi. Peterburg, Moskva va Odessadan tashqari barcha yerda mirovoy sudyalari instituti bekor qilinib, tayinlanuvchi shaxslar shaharlarda - shahar sudyalari, qishloqlarda - zemstvo boshlig'i bilan almashtirildi. Turkistonda ham mirovoy sudyalari saylanmay, balki tayinlanardi⁹³⁰.

Viloyat boshqaruvlarining sudlov bo'limlari viloyat sudlari bilan almashtirildi. Ularning qoshida sud tergovchilari, viloyat prokurorlari va ularning o'rtoqlari lavozimlari ta'sis qilindi. Viloyat sudyalari mirovoy sudyalari qurultoylari funksiyalarini bajarar va mirovoy sudyalari vakolatiga kirmaydigan fuqaroviy ishlarni, shuningdek, muqaddam viloyat boshqaruvlarining sudlov bo'limlari yuritgan ishlarni ko'rardi⁹³¹.

1886 yilda qabul qilingan «Turkiston o'lkasini boshqarish

⁹³⁰ Положение об управлении Туркестанского края. Издание 1892 года. Свод Законов Российской Империи. В пяти книгах. Книга первая. Тома 1-3. Том 2. СПб., 1912.

⁹³¹ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркестонда чор Мустамлака тизими. – Т.: "Академия". 2002. 135-б.

to'g'risidagi Nizom» ga ko'ra, sudlar faoliyatiga bir oz o'zgartirishlar kiritildi va tuman sudlari bekor qilindi. Viloyat prokurori va unga yordamchi muovini, sud tergovchisi lavozimlari joriy etildi. 1893 yil 2 iyunda Rossiya imperiyasi Davlat Kengashi tomonidan sud sohasidagi islohotlar tizimi tasdiqlandi. Unga ko'ra, Toshkent shahrida sud palatasi, viloyatlarda esa bittadan okrug sudlari ta'sis etildi. 1899 yil 14 mayda ochilgan Toshkent sud palatasi barcha sudlar ustidan nazorat ishlarini ham olib borardi.

Mahalliy aholining sudlari alohida tartibga asosan tuzilib, xalq sudlari deb nomlangan. Xalq sudlari alohida rus sudlariga tegishli ishlardan tashqari sodir etilgan ishlarni, biror xalq sudiga tegishli bo'lgan hamda rus hujjatlari asosida bo'lmagan fuqarolik ishlarini ko'rib chiqqan. Xalq sudlari – xalq tomonidan saylanib qo'yilgan biylar tomonidan amalga oshirilgan. Ular harbiy gubernator tomonidan tasdiqlangan. O'troq aholi uchun qozi sudlari amal qilgan bo'lib, ular aholi tomonidan saylangan hamda harbiy gubernator tomonidan tasdiqlangan⁹³².

O'lkada dunyoviy sudlar tashkil etildi. Sud jarayonining olib borilishini tartibga keltirish masalasida Rossiya imperiyasi Adliya vaziri kotibi, keyinchalik Rossiya imperiyasining bosh prokurori, Rossiya podshosining haqiqiy yashirin maslahatchisi N.V.Muravyov bir qator takliflar kiritgan. Sudda sudya, prokuror, himoyachi va sud maslahatchilari ishtiroki ta'minlanishi shartligini ko'rsatgan. Sud raisi sud jarayonini boshqarishi, sudda tartibni saqlashi, ishni qonun tantanasi va haqiqatni ochish uchun yo'naltirishi, suddagi barcha jarayonlarga nisbatan ko'proq javob beradigan shaxs ekanligini ta'kidlagan. 1898 yil yozilgan Turkiston general-gubernatorligininng ma'ruzasida, sud bo'limi muammolariga 1886-yil nashr etilgan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom»da asosiy e'tibor qaratilgan. Ma'muriyatning o'lkada yo'l qo'ygan eng katta kamchiligi sifatida, «rus sudi va qonunlaridan mahalliy aholining to'liq ajratib qo'yilganligi, shu bilan birga aholining xalq sudlariga bo'ysunganligi, o'lkada tashkil etilgan rus sudlarining mahalliy sharoitga yetarsiz darajada ko'nikayotganligi» ko'rsatilgan. O'lkada rus ma'muriyati

⁹³² Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2012. 381-б.

1886-yilgi nizomga ko'ra tashkil etilgan dunyoviy sudlar mahalliy aholining xalq sudlaridan ustunligini ko'rsatishga harakat qilgan. Joylarda sudlarning va ularga tegishli organlarning alohida ish olib borishi, sud hokimiyatining bo'linganligi, sud palatasi darajasidagi apellatsiya, oliy apellatsiyalar instansiyasining yo'qligi, okrug sudlarining yetishmaganligiga e'tibor qaratilgan. Rus sudlariga mahalliy aholi vakillarining murojaati uchun imkoniyat berish kerakligi, rus sudiga nisbatan mahalliy aholining hurmatini oshirishga erishishi zarurligi tavsiya etilgan⁹³³.

Mahalliy sudlar esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, siyosiy tusga bo'lmagan barcha fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish huquqiga ega edi. Rossiya imperiyasi o'zining qonunchilik tizimini o'rnatish uchun avvalo xalq ijtimoiy hayotida uning o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berishi lozim edi. Buning uchun xalq orasida ularning ishonchini qozongan qozilik sudlari faoliyatini zaiflashtirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirdi. Jumladan, qozilarning ellikboshilar tomonidan saylov asosida vazifaga saylanishi, qozilik sudlarining barcha masalalrni ko'ra olmasligi, qozilik hukmlaridan norozi bo'lgan fuqarolarning imperiya sudlariga murojaat qila olishi kabi tartiblarning joriy etilganligi qozilik sudlari nufuzining tushushiga sabab bo'lgan. Rossiya imperiyasi bosqinidan oldin qozilar shahar begi tomonidan tayinlangan⁹³⁴.

Toshkent shahrining har bir dahasiga qozilar ellikboshilar tomonidan saylab qo'yiladigan tizim tashkil etildi va ularni Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori tasdiqlaydigan tartib joriy qilindi. Bu mahalliy aholi huquq tizimini nazorat qiluvchi qozi lavozimining ham bevosita mustamlaka hukumat siyosatiga mos ravishda ish tutishini taqozo qilardi. Qozilar saylovi har bir mahalla ahlidan saylangan ellikboshilar tomonidan amalga oshirilgan. Harbiy-gubernatorning tasdig'idan o'tgan qozi o'z faoliyatiga kirishgan. Toshkent shahar hokimining buyrug'ida ko'rsatilishicha, agar harbiy-gubernator ko'p ovoz olgan qozini tasdiqlamasa qaytadan saylov o'tkazilgan. Qozilar uch yil muddatga saylangan, shuningdek, ularga nomzodlar ham saylab olinib, ular daha qozisi betob bo'lganda, safarga

⁹³³ Abdullayev A.A. Amudaryo bo'limida ijtimoiy-siyosiy va huquq-tartibot sohasida yuz bergan o'zgarishlar (XIX asrning oxiri XX asr boshlari). / Ilmiy Axborotnoma 2016-yil, 2-son. 8-12-66.

⁹³⁴ Добросмыслов А.Н. Ташкент в прошлом и настоящем. – Т.: 1912, ст. 107.

ketganda va boshqa hollarda o‘rnini bajarib turgan⁹³⁵. Mustamlaka tuzum o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida mahalliy sud tizimi faoliyatiga alohida ahamiyat bergan. Shuning uchun har bir jarayonni shahar hokimiga ma’lum qilib turish talab etilgan. Qozilar kengashi sayyor qozilar deb atalgan va ularning hukmi hamda shahar hokimiga murojaati jamiyatda muhim ahamiyatga ega sanalgan⁹³⁶.

1892 yili imperiya hukumatining “Harbiy holatda deb e’lon qilingan xududlar to‘g‘risida»gi qarori e’lon qilindi. Bu qaror mustamlaka hokimiyat zo‘ravonligini ta’minlardi. Unga ko‘ra harbiy bo‘lmagan fuqarolar «oliy hokimiyatga qarshi isyon qilgani», «telegraf, telefon yoki boshqa anjomni qasddan buzgani», politsiya amaldorlari yoki harbiy qorovulga xujum qilgani yoki qurolli qarshilik ko‘rsatgani, mansabdor shaxslarga ular xizmat burchlarini o‘tayotgan paytda xujum qilganligi uchun harbiy sudga tortilishi mumkin edi. Turkistonda mustamlaka tuzumi inqirozga uchragan yillarda xalqni jazolash uchun harbiy sudlar, ayniqsa, keng ko‘lamda jalb qilindi⁹³⁷. Turkiston general-gubernatorligida faoliyat ko‘rsatgan bu sudlar imperiya manfaatlari uchun xizmat qilardi.

Shaharlar va shahar boshqaruvi tizimi. Toshkent shahar dumasining tashkil etilishi. Shaharlar hamma tarixiy davrlarda bo‘lganidek, XIX asr ikkinchi yarmida ham siyosiy harbiy, iqtisodiy va madaniy markazlar vazifalarini bajarganlar.

Turkiston general gubernatorligiga qarashli Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Ashxobod yirik shaharlardan sanalsa, mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan Chimkent, Turkiston, Xo‘jand, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on kabi shaharlar ham o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan shaharlardan hisoblangan.

O‘rta Osiyoni mustamlakaga aylantirishi barobarida Kazalinsk, Petro-Aleksandrovsk, Skobelev, Chernyayevka kabi shaharlar va aholi turar joylari barpo etildi. Bosib olingan shaharlarda yevropalik millatlariga mansub aholi yashaydigan alohida turar-joylar barpo etildi va shaharlar

⁹³⁵ ЎзР МДА 36-фонд, 1-рўйхат, 3106-иш, 6-варак.

⁹³⁶ Тангиров О.Э. XIX аср охири – XX аср бошларида Тошкент шаҳрида қозилик судлари фаолиятига доир. <https://kukaldosh.uz>

⁹³⁷ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор Мустамлака тизими. – Т.: “Академия”. 2002. 139-б.

yangi hamda eski shaharlar qismlarga ajratildi. Eski shahar aholisining yangi shaharlar hududlariga o'tishlari qat'iy ta'qiqlab qo'yildi. Bu ham milliy kamsitishning bir ko'rinishi edi. Yangi shaharlarda aholining yashashlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Shaharlarda rus millatiga mansub fuqarolarning savdo-sotiq qilishlari uchun katta imtiyozlar berildi. Aksincha, musulmon fuqarolarining iqtisodiy jihatdan kuchayib ketmasliklari uchun turli-tuman choralar ko'rilib turildi.

Turkiston o'lkasi shaharlari orasida Toshkent shahri o'zining harbiy, strategik va iqtisodiy jihatdan tutgan o'rnini va joylashuviga asosan Turkiston o'lkasi shaharlari orasida alohida ahamiyatga ega edi. Shuning uchun ham Toshkent shahri general gubernatorlikning markazi etib belgilangan edi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o'lkasidagi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati ko'pgina shaharlar yonida yangi shaharlarga asos solishdan boshlandi. Turkiston o'lkasining markaziy shahri hisoblangan Toshkent shahrining "yangi" qismiga asos solinishi O'rdaning qasr devorlari va mudofaa devorlarini buzishdan boshlandi. Qisman eski shaharning sharqiy va janubi-sharqiy devorlari ham buzib tashlandi. 1865 yilning yozidayoq yangi harbiy qal'a qurildi. Ushbu Tuproqqo'rg'on qal'asi Qo'ymas darvozasining qarshisidagi balandlikda joylashgan bo'lib, uning tarhi olti burchakli, baland turpoq ko'tarmalari bilan o'ralgan, 3 ta darvoza, 6 ta piyoda rotasi uchun bino, lazaret va boshqalardan iborat bo'lgan. Devorning ayrim joylariga o't ochish uchun shinaklar qilingan. Tuproqqo'rg'onning qurilishi yangi shaharning bunyod etilishidagi birinchi qadam bo'ldi. Balandlikda joylashgan ushbu qal'a eski shaharni nazorat qilish va yangi shaharni qo'riqlash imkonini yaratdi. Qal'a ro'parasida uncha katta bo'lmagan uy qurilib, bu rus qo'shinlarining Toshkentni bosib olgandan keyin yuzaga kelgan birinchi yevropa usulidagi uy bo'lib qoldi. Dastlabki qurilishlar asosan harbiy istehkom tipidagi inshootlardan iborat bo'ldi⁹³⁸.

1865 yilda Toshkent Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan

⁹³⁸ Исмоилова Ж. Тошкентдаги шаҳарсозлик тараққиётига Европа архитектурасининг таъсири (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср боши). Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти. 2009302-306-66.

keyin shahar devor va darvozalari o‘zining avvalgi ahamiyatini yo‘kota borgan va aholi shahar tashqarisida o‘zlariga imorat qurib, joylasha boshlagan. Natijada shahar kengayib, yangi mahalla va guzarlar vujudga kela boshlagan. XIX asrning oxiriga kelib, Toshkentdagi maxalla va guzarlar soni 200 dan oshgan⁹³⁹. Shaxar tashqarisida 175 ga yaqin mavze bo‘lgan. Mazkur mavzelarda shahar halqining bog‘lari, ekin maydonlari bo‘lgan. Binobarin, mavzelar ham shaxar daxalari o‘rtasida tabiiy ravishda taksimlangan. Masalan, Shayxontoxur dahasiga 37 mahalla va 31 mavze, Sebzor dahasiga 38 maxalla va 43 mavze, Ko‘kcha dahasiga 37 mahalla va 31 mavze, Beshyogoch dahasiga 42 mahalla va 29 mavze kirgan⁹⁴⁰.

Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligining markazi sifatida Toshkent shahri belgilangach, 1867 yilgi vaqtli nizom bo‘yicha shahar boshqaruvi rasmiy tarzda uch yilga saylanadigan oqsoqol degan lavozim asosida boshqarildi. Bunda mustamlaka hukumat bu lavozimni joriy qilmadi, balki mahalliy xalq an‘anasida mavjud oqsoqol degan “boshqaruvchi mansab” nomidan foydalandi. Shahar dahalarini boshqaruvchi mansabdor uch yil muddatga ellikboshilar tomonidan saylanar edi. Ellikboshilarni esa mahalla ahli saylashgan. Oqsoqol mahallalardan saylanadigan ellikboshilarning saylanganligini tasdiqlagan. Oqsoqollikka nomzodi ko‘rsatilgan kishilarni general-gubernatorning roziligi bilan faoliyat olib borishiga ruxsat berilgan⁹⁴¹.

Turkiston o‘lkasida shaharlar boshqaruviga mahsus e‘tibor XIX asrning 70-yillaridan boshlab kuchaydi. «Shaharlar Nizomini qo‘llash» bo‘yicha ishlab chiqilgan qonun loyihasi 1872 yilda Sirdaryo viloyati boshqarmasida ko‘rib chiqildi va 1877 yildan boshlab 1870 yil 16 iyulda tasdiqlangan “Shahar Nizomi”ni qo‘llash haqida qaror qilindi⁹⁴². Turkiston general gubernatori K.P.fon Kaufmanning 1877 yil 9 avgustdagi 244-sonli buyrug‘iga asosan Toshkent shahrida shahar mahkamasi boshqaruvi va shahar dumasi tashkil etildi⁹⁴³. Shahar dumasi boshqarish

⁹³⁹ Маллицкий Н.Г.; Ташкентские махалля и мауза, Ташкент, 1927, с.7-16.

⁹⁴⁰ Юнусхўжаева М., Мирисмоилова У. Тошкент тарихига оид хужжатлар. Тошкент, «Фан», 1983. 8-9-бб.

⁹⁴¹ Тангиров О. XIX аср охири – XX аср бошларида Тошкент шахрининг бошқарувида оқсоқол лавозими. <http://www.stateartmuseum.uz>. Қаранг: ЎзР МДА. 1-фонд, 55- иш, 1-варак.

⁹⁴² Полное собрание законов Российской империи. – Собрание 3-е. – Том XII. – № 8708. Стр. 430-456.

⁹⁴³ Туркестанский край в 1877 году // Туркестанские ведомости. 1878 йил 14 февраль сони.

vakolatiga ega hokimiyat bo'lsa, shahar mahkamasi boshqaruvi esa ijro etuvchi hokimiyat edi⁹⁴⁴. Toshkent shahrida shahar Nizomini qo'llash bo'yicha tashkil etilgan komissiya shahar jamoatchilik boshqaruvi tizimini shakllantirdi, bunga ko'ra boshqaruv o'z tarkibiga ko'ra shahar saylov yig'inlari, shahar dumasi va shahar mahkamasidan iborat etib belgilandi⁹⁴⁵.

Bu Nizom bosib olingan shaharlardan faqatgina Toshkent va Olmaata shaharlariga nisbatan qo'llanildi.

Hujjatlarda keltirilishicha, 1877 yilda Toshkent shahar Dumasi tashkil etilib, Sirdaryo harbiy gubernatori bshchiligida maxsus hay'at tuzildi. Hay'at saylovchilar ro'yxatini tuzish, shahar jamoatchilik boshqaruviga saylov o'tkazish bo'yicha ish olib borgan. Dumada ovoz beruvchilar soni 72 kishidan oshmasligi kerak edi. Nizomda, Toshkent shahar Dumasi noiblarining uchdan ikki qismi yangi shahardan, uchdan bir qismi eski shahar, ya'ni mahalliy aholisidan saylanadi, deb belgilangan edi. Ko'chmas mulki miqdoriga qarab, saylovchilar uch toifaga ajratilgan. Mulk senzi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, ko'chmas mulk qiymatining bir foizi hisobidan 3000, 1000, 500 so'mdan ziyod ko'chmas mulk egalari uch toifali saylovchilar ro'yhati tuziladi. Yetarli mulkka ega bo'lmagan ziyolilar, ishchilar, dehqonlar, hunarmandlar saylov huquqidan mahrum bo'lib qoldilar⁹⁴⁶.

1877 yilda Toshkent shahar hokimi raisligida har bir toifa bo'yicha saylovchilar yig'ini bo'lib o'tdi va Dumaga 71 noib (glasniy) saylandi. Dumaga Toshkentning 80 mingdan ortiq aholi yashaydigan eski shahar qismidan, ya'ni tub yerli aholidan atigi 21 nafar noib saylandi, aksariyat ko'pchilik noiblar esa 4000 mingga yaqin kishi yashaydigan yangi shahar qismidan saylandi⁹⁴⁷. Saylovlar to'rt yilda bir marta bo'lib o'tgan va unda asosan savdogarlar, yirik sanoat korxonalarini hamda uy egalari ishtirok etgan. Tadqiqotchilarning fikricha, yangi tashkil etilgan Duma birinchidan,

⁹⁴⁴ Письмо поручика Н. Маева «О мерах по увеличению русского населения в Туркестанской области». ЎзР МДА 1-фонд, 6-рўйхат, 15-иш, 3-варақ.

⁹⁴⁵ Маликова Г.Р. Ташкентская городская дума: историко-правовой аспект. Зарубежное избирательное право. №2 //2018. Стр.52-59.

⁹⁴⁶ Усмонов К., Содиков М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. – Т.: “Шарк”, 2005. 197-б.

⁹⁴⁷ Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. Тошкент, “Fan va texnologiya”. 2004

shaharni mustamlakachilar qoʻlida saqlab turishni, ikkinchidan, Dumaga saylangan mahalliy aholi vakillarini hokimiyat tayanchiga aylantirishni maqsad qilib qoʻygan edi. General – gubernator tomonidan tayinlangan Toshkent shahri boshligʻi bir vaqtning oʻzida Duma raisi va shahar hokimi (hokim toʻra) vazifalarini ham bajargan⁹⁴⁸.

Shahar Dumasi huquqlari quyidagilardan iborat boʻlgan:

- shahar mahkamsi tarkibiga mansabdor shaxslarni tayinlash va ularga maosh belgilash;
- shahar yigʻini va soliqlari miqdorini belgilash va oʻzgartirish;
- shahar harajatlarini aniqlash va shahar mablagʻini toʻplash;
- shahar mablagʻlarini sarf qilish va mahkama olib borayotgan ishlar hisobotini koʻrib chiqish va tasdiqlash, shuningdek boshqaruv faoliyatini yurgizish qoidalarini belgilash hamda mahkamaning umumiy tartibini aniqlashdan iborat edi.

Tarixiy maʼlumotlarda keltirilishicha esa shahar hokimi va shahar Dumasi, shahar mahkamasi aʼzolari qonunni buzib jinoyat sodir etsa, Sirdaryo viloyat sudi tomonidan jazolangan. Shahar hokimi bir vaqtning oʻzida Duma raisi vazifasini ham bajargan⁹⁴⁹.

Shahar hokimi vazifalarini Toshkent shahri boshliqlari: polkovniklar V.Y.Medinskiy (1804-1877 yy.), YE.T.Pukalov (1877-1883 yy), S.R.Putinsev (1884-1890 yy), A.T.Tveritinov (1891-1898 yy), I.A.Ladijenskiy (1898-1901 yy), V.F.Kiselyov (1901-1904 yy) lar bajarganlar. 1905 yilda Toshkent shahrida shahar xokimi lavozimini shahar boshligʻi zimmasiga yuklash bekor qilindi va shahar hokimi lavozimiga isteʼfodagi general-mayor V.N.Ribushin (1904-1905 yy) tayinlandi. Keyinchalik shahar hokimi lavozimiga nomzodni saylash shahar Dumasining ixtiyoriga berildi. Duma bir ovozdan bu lavozimga yuqorida tilga olingan S.R.Putinsevni (1905-1907 yy) sayladi. 1907 yildan boshlab shahar hokimi vazifasini kollej maslahatchisi (kollejskiy sovetnik) N.G.Mallitskiy bajardi⁹⁵⁰.

⁹⁴⁸ Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. Тошкент, “Fan va texnologiya”. 2004. 22-23 бб.

⁹⁴⁹ Полное собрание законов Российской империи. – Собрание 3-е. – Том XII. – № 8708. Стр. 430-456.

⁹⁵⁰ Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. Тошкент, “Fan va texnologiya”. 2004

1877-1914 yillarda davrida shahar dumasining 1280 majlisi bo‘lib o‘tgan. Uning 9 sessiyasi davomida ishtirok etgan a‘zolar soni 404 nafar odamni tashkil qilgan. XX asr boshidagi ma‘lumotlarga ko‘ra, дума ishi quyidagi: byudjet, yuridik, zayom haqidagi moliya, baholash, suv quvuri (vodoprovod), elektr tarmog‘i, tramvay, bog‘dorchilik va taftish hay‘atlari bo‘yicha olib borilgan. Shuni ta‘kidlash joizki, shahar byudjeti faqatgina turli yig‘imlar tushumidan tashkil topgan.

Garchi Toshkent shahriga o‘z-o‘zini boshqarish xuquqi berilishi katta voqea hisoblansa-da, u bor kuchi bilan ishlay olmas edi. Bunga дума a‘zolari orasida “siyosiy va fuqarolik burchni to‘la tushuna oladigan yetuk” kishilar yo‘qligi sabab edi. A‘zolar ichida o‘z mavqeidan g‘arazli maqsadlarda foydalanishga intiluvchilar oz emasdi. Boshqa tomondan yuqori lavozimdagi shaxslar shahar boshqarmasi va dumasi faoliyatiga kam qiziqar edilar. K.K.Palen taftishining ko‘rsatishicha (1908-1909 yy.), viloyat ma‘muriyati tomonidan “bu muassasalar qonuniy hatti-xarakatlari ustidan deyarli hech qanday nazorat o‘rnatilmagan va ularning faoliyatini o‘sha Дума tarkibidagi taftish xay‘atlarigina nazorat qiladi, buning oqibatida goxo suiste‘molliklar fosh etilib qolardi, ammo shahar g‘aznasidagi moddiy zararlarni qoplashga endi kech edi. Yana ta‘kidlanadiki, inspektor ko‘rsatmasi bilan 1905 yilda o‘tkazilgan taftish ham hech qanday natija bermagan. Shu bilan birga shahar mahkamasi faoliyatida birlik va hamjixatlik yo‘q edi⁹⁵¹.

Shahar boshqaruv faoliyatini nazorat qiluvchi harbiy gubernatori boshchiligidagi viloyat idorasi tuzildi. 1888 yilda imperator tomonidan Toshkent shahrini boshqaruv ishi ma‘qullandi va shu bilan birga uni nazorat qilish general gubernatorga yuklatildi. Ichki ishlar vaziri huquqi harbiy okrug qo‘mondoni zimmasiga yuklatildi. Дума oqsoqoli harbiy vazir tomonidan tayinlangan va 1877-1907 yillarda bu vazifani hokim to‘raning o‘zi bajargan. Shahar ma‘muriy politsiya tartiblari asosida boshqarilgan.

Rossiyaning Turkistonda yer-suv masalalariga doir siyosati va qishloq boshqaruvi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosatidan ko‘zlagan asosiy va bosh maqsadi O‘lkani Rossiya manfaatlari

⁹⁵¹ Ўша жойда

uchun hizmat qiluvchi xom-ashyo bazasiga aylantirish va eng serhosil yerlar joylashgan hududlarga rus dexqonlarini keltirib oʻrnashtirish edi. Shuningdek, Rossiya imperiyasi yer suv munosabatlari Oʻrta Osiyoda oʻz hukmronligini mustahkamlash va uning imkoniyatlaridan oʻz manfaatlari yoʻlida foydalanishni koʻzda tutgan edi.

XIX asrning soʻnggi choragi va XX asrning boshlarida Rossiya imperiyasi turli ilmiy muassalari va tashkilotlari mutaxassislari tomonidan Turkiston oʻlkasining tabiiy xususiyatlari chuqur tadqiq etildi, jumladan, Turkistonning tabiiy shart-sharoitlari, dashtlarva choʻllarning tabiati va minerallarga boyligi va imkoniyatlari, Turkistonning togʻlari va uning tabiati, qazilma boyliklari, Turkistonda qishloq xoʻjaligi va dexqonchilik xoʻjaligi, sunʼiy sugʻorish ilari va sugʻorish tarmoqlari va suv manbalari va boshqa koʻplab masalalari haqida maʼlumot toʻplanib, amalda qoʻllash uchun tavsiya etila boshlandi⁹⁵².

XIX asrning 60-80-yillari oʻrtalarida yuzaga kelgan Turkistonda mustamlaka sifatida hukmronlik qilishning shakl va usullari toʻgʻrisidagi qarama-qarshi tasavvurlar oʻlka maʼmuriyatining siyosatiga, eng avvalo, u tayyorlagan Turkistonni boshqarish toʻgʻrisidagi yangi qonun loyihasiga taʼsir qildi. Bu islohotlar yer-suv munosabatlarini, aholiga soliq solish tizimini qayta qurish, sanoat va temir yoʻl qurilishiga davlat mablagʻini jalb qilish va shu kabilarni nazarda tutardi. Umuman olganda, mahalliy maʼmurlar dasturi Rossiya imperiyasi hukumatining XIX asr oxiridagi Rossiyaning markaziy mintaqalarini jadal surʼatlarda sanoatlashtirish va ixtisoslashtirishga qaratilgan umumiy yoʻlidan chetga chiqmasdi. Biroq, ijtimoiy-iqtisodiy oʻziga xosliklar va harbiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib tayyorlangan bu dastur katta sarf-xarajatlarni talab qilardi. Rossiyaning iqtisodiy ahvoli va moliyaviy imkoniyatlari mustamlaka maʼmuriyatining byudjetini qatʼiy chegaraga soldiki, buning natijasida, olib borilayotgan siyosat darhol yoki tez orada samara berishi mumkin emasdi. Shu bois Rossiyaning oliy byurokratik hokimiyati K.P.Kaufman yoʻliga ishonchsizlik bildirdi va uning 1871 hamda 1873 yillarda taqdim etgan Turkistonni boshqarish toʻgʻrisidagi nizom loyihalarini rad qildi⁹⁵³.

⁹⁵² Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. СПб.:1914. - 640 с.

⁹⁵³ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор Мустамлака тизими. – Т.: “Академия”. 2002. 86-87-бб.

1867 yildan boshlab general-gubernator mahkamasi Turkistonda yangi egaligi munosabatlarini shakllantirishga harakat qila boshladi. Biroq bu jarayonni rasmiy joriy qilish 1886 yilgacha choʻzilib ketdi. Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufmanning koʻrsatib oʻtishicha, 1867 yilgi “Vaqtli Nizom loyihasi” Turkistonda aholining yerga egalik munosabatlari haqida yetarli va aniq koʻrsatmalar mavjeud emas edi⁹⁵⁴. Natijada general-gubernator mahkamasi Turkistonda yer munosabatlari masalalari, shariat asosida qishloq xoʻjaligi, yer va sugʻorish masalalari bilan bogʻliq mavjud munosabatlarni oʻrganishga kirishdi. Bu munosabatlarni, ayniqsa ularning shariat asosidagi jihatlarini oʻrganish maqsadida Turkistonga sharqshunoslik sohasida katta bilimga ega boʻlgan mutaxassislar, jumladan, D.I.Rostislavov, N.N.Pantusov, P.I.Pashino va boshqalar chaqirtirildi⁹⁵⁵.

1886 yilda tasdiqlangan Nizomga koʻra, rus dexqonlaring Oʻrta Osiyoga koʻchib kelishlari uchun katta imtiyozlar berildi. Shuningdek, bu nizomga koʻra, «boʻsh yotgan davlat yerlariga» birinchi navbatda harbiy xizmatdan boʻshatilgan harbiy xizmatchilarni qoʻyish koʻzda tutildi. Imperiyaning Turkistondagi yer suv masalalariga doir siyosatida quyidagi siyosat amalga oshirildi:

Turkistonda barcha yerlar davlat mulki deb eʼlon qilindi, oʻtroq mahalliy aholiga yer merosi yakka jamoa ekanligi tariqasida, koʻchmanchi aholiga esa azaliy dehqonchilik odatlariga rioya etilgan holda, muddati cheklanmagan holda jamoa boʻlib foydalanish uchun topshirildi;

Oʻtroq aholi yashaydigan joylarda yer, undan amalda foydalanganga biriktirib qoʻyildi;

Dastlab vaqf yerlariga soliq joriy etilgan boʻlsa, keyinroq bu mulklar butunlay tugatilib yuborildi;

Shahar tashqarisida mahsus koʻchiruv fondlaridan tashqari rus aholisiga yer ajratish taʼqiqlandi;

Yevropaliklar, xususan, ruslar tomonidan mahalliy aholi yerlarini

⁹⁵⁴ Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П.Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 – 25 марта 1881 гг. Составлен титулярным советником П. Хомутовым. – СПб, 1885. Стр.219.

⁹⁵⁵ Алимджанов Б.А. Аграрная политика Российской империи в Туркестане: активное бездействие или пассивное вмешательство? 2015.

sotib olish mutlaqo ta'qiqlab qo'yildi va bu qonun 90-yillarning oxirigacha saqlanib qolindi⁹⁵⁶.

Bular bilan birga soliqlar ham imperiya manfaatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqildi va kuchaytirib yuborildi. Turkistonda mustamlakachi hokimiyatning asosiy e'tibori paxta yetishtirishga qaratildi va yangi yerlar sug'orish tarmoqlarini kengaytirish ko'zda tutildi. 1880 yildan boshlab Turkiston yerlarida paxtaning amerikacha *Upland* navi ekila boshlandi. 1887 yilda Farg'ona viloyatining beshta uezdiga qarashli 1232 desyatina yer maydoniga "Amerika" navli paxta ekildi. 15 yilda ushbu ekin maydonlari 11 baravarga kengaygan. 1888-1913 yillarda Farg'onada paxta maydonlari 3 baravar kengayib, 25 yil ichida 25800 desyatinadan 70726 desyatinagacha oshdi, olingan paxta miqdori 1058263 puddan 3927200 pudgacha yetgan. 1900 yilda Turkiston paxtasi rus sanoati ehtiyojining 25 foizini tashkil qilib, bu raqam yil sayin oshib bordi va birinchi jahon urushi arafasida bu ko'rsatkich 50 foizga yetdi. 1915-1916 yillarga kelib Farg'ona vodiysi Turkiston o'lkasining 80 foiz paxta xom ashyosini tayyorlab berdi. Rossiya Turkistonni qisqa muddatlarda o'z sanoati uchun xom ashyo manbaiga aylantirdi⁹⁵⁷.

Qishloq xo'jaligida va Turkiston o'lkasi iqtisodiy hayotida paxta va paxtap yetishtirish asosiy o'ringa chiqdi. Masalan, 1905 yilda yetishtirilgan Amerika navli paxtaning umumiy bahosi 31178058 rublni tashkil qilgan bo'lsa, mahalliy navli paxtaning umumiy qiymati 1394904 rublga baholangan. Har ikki navdagi paxtalarning umumiy bahosi esa 32572962 rublni tashkil qilganligini inbotga olinadiga bo'lsa, bu yillarda paxta yetishtirishning hajmi va qishloq xo'jaligi ekinlari orasidagi salmog'i ham anchagina ortganligini ko'rish mumkin⁹⁵⁸.

Turkiston general gubernatorligi hukmronligi yillarida paxta yetishtirish yildan yilga ko'payib bordi va 1915 yilga kelganda paxta yetishtiriladigan maydonlar hajmi g'alladan so'ng ikkinchi o'ringa

⁹⁵⁶ Савицкий А.П. Поземельный вопрос в Туркестане (В проектах и законах 1867–1886 гг.). – Т., 1963. Стр.152.

⁹⁵⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакачилиги даврида //Тузувчилар: Содиков Х., Шамсутдинов Р., Равшанов П. ва бошқ./ – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 231.

⁹⁵⁸ Ҳамид Зиёев. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси (тарихнинг долзарб масалалари). Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2000. 162-б.

ko‘tarilib, 524 ming desyatinani tashkil qilgan bo‘lsa, Farg‘ona viloyatida ishlov beriladigan yerlarning 40%, Kaspiyorti viloyatida 32% ni paxta ekiladigan yerlar tashkil qilgan⁹⁵⁹.

Mustamlakachi hukumati Turkistonda qishloqlarni boshqarishda 1867 yilgi «Vaqtli Nizom loyihasi»ga amal qildi. Bu idora usuli mahalliy halqlar boshqaruv siyosatiga zid bo‘lib, Rossiyadagi idora usulida edi. Bu Nizomga ko‘ra, ko‘chmanchi aholiga ikki bosqichli (volost va ovul), o‘troq aholiga esa bir bosqichli (oqsoqollar) boshqaruv tizimi joriy etildi. Volost asosini mingdan ikki minggacha xonadon tashkil etsa, ovul jamoalarini yuzdan ikki yuzgacha bo‘lgan o‘tovlar aholisi tashkil etgan. Bu bilan ko‘chmanchi aholi o‘rtasidagi urug‘chilik asosidagi bo‘linish barham topdi. Bu siyosat hokimiyatga soliqlarni belgilash va yig‘ib olishda ham qo‘l kelib uni takomillashtirishga harakat qildi.

1886 yilgi «Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom»ga ko‘ra o‘troq aholining bir bosqichli boshqaruv tizimi bekor qilindi va ikki bosqichga aylantirilib, oqsoqolliklar volostlarga birlashtirildi. Ovul jamoalari va oqsoqollar vakillari yig‘ini barcha saylovchilar yig‘ilishi bilan almashtirildi. Aholi saylovlar yo‘li bilan volost va oqsoqolliklarga mingboshilarni saylardi. Mingboshi volost boshqaruvchisi bo‘lib, qishloq, ovul oqsoqoli tomonidan uch yil muddatga saylangan. U o‘z faoliyatini mustamlakachi ma‘muriyati tasdig‘idan o‘tgandan so‘nggina boshlagan. Aholining «qirg‘izlar va sartlar» iborasi bilan atash 1886 yilgi Nizomga ko‘ra «o‘troq va ko‘chmanchi» tarzida o‘zgartirildi⁹⁶⁰.

Volost boshqaruvchisini saylovchilar vakillarining qurultoyi saylagan. Bunda ikki nomzod ko‘rsatilib, ikkinchisi uning muovini bo‘lgan. Bu nomzodlar harbiy gubernator tomonidan tasdiqlanmasa, bekor qilingan va boshqasi tayinlangan yoki harbiy gubernator ko‘rsatgan shaxs bu vazifaga kirishgan. Shu tariqa Rossiya imperiyasi mustamlakachi hokimiyati qishloqlardagi boshqaruv faoliyatini ham o‘z qo‘lida mustahkam saqlab turgan.

⁹⁵⁹ Фурсов К. А. Имперская экономическая политика в русском Туркестане и британской Индии: сходства и различия. ВОСТОК (ORIENS). 2010. № 6. Стр.28-44.

⁹⁶⁰ Положение об управлении Туркестанского края. Издание 1892 года. Свод Законов Российской Империи. В пяти книгах. Книга первая. Тома 1-3. Том 2. СПб., 1912.

Imperiyaning ko‘chiruvchilik siyosati va uning oqibatlari. Chor hukumati o‘lkani harbiy kuch bilan uzoq muddat saqlab turish mumkin emasligini yaxshi anglardi. Shu boisdan ham u Turkistonda assimilyatsiya, ya’ni rus millatiga mansub aholi bilan mahalliy aholini aralashtirib yuborish siyosatini tutdi. Bu borada imperiyaning ko‘chiruvchilik siyosati alohida o‘rin tutadi. Ko‘chiruvchilik siyosati Turkiston general gubernatorligi tashkil etilgan 1867 yildayoq boshlab yuborildi.

Turkistondagi mustamlaka boshqaruv tizimi faoliyatining eng muhim yo‘nalishi – Turkistonni mustamlakaga aylantirish jarayonining dastlabki damlaridan boshlab xukumatning uzoq muddatli ruslashtirish rejalarining tarkibiy qismi hisoblangan Rossiya imperiyasining rusiyzabon aholini ko‘chirib kelish siyosati amalga oshirildi. 1847 yildan e’tiboran qozoqlar xududlarida, 1867 yildan boshlab esa Turkiston viloyatlarida ushbu jarayonning borishini jadallashtirdi.

Turkistonga aholini ko‘chirish Yettisuv viloyatidan boshlangan bo‘lib, avvalo harbiy xizmatdan iste’foga chiqqan zobit va soldatlar, kazaklar joylashtirildi. 1844 - 1864 yillarda Yettisuv viloyatidagi 14 ta stansiyaga 15 ming sonli kazaklar ko‘chirildi. 1869 yilda esa 50 dehqon xo‘jaligi Yettisuvga ko‘chirildi. 1876 yildan Sharqiy Yevropa aholisini (rus, ukrain, belorus va h.k.) Sirdaryo viloyati uездlariga ko‘chirish boshlandi⁹⁶¹.

Bu vaqtda Turkiston aholisining asosini o‘zbeklar, qozoklar, qirg‘izlar, turkmanlar, tojiklar va qoraqalpoqlar tashkil qilardi. Turkistondagi tub xalqlarning umumiy soni manbalarga ko‘ra 1897 yili 4986324, 1911 yili esa 5941604 kishini tashkil qildi. Rus aholisining umumiy soni 1897 yili 197240, 1911 yili esa 406607 kishini tashkil etdi. Bundan tashqari, Turkiston aholisining etnik tarkibi imperiyaning milliy xududlaridagi vakillar - tatarlar, boshqirdlar, armanlar, gruzinlar, litvaliklar, latishlar, polyaklar hamda qo‘shni Sharq mamlakatlari vakillari bilan boyidi. Ular orasida qoshg‘arlar, taranchilar, uyg‘urlar, forslar, ozarbayjonlar, kurdlar va Afg‘oniston, Shimoliy Hindiston, Turkiya,

⁹⁶¹ Хайитов Ж.Ш. Россия империясининг кўчириш сиёсати ва немис-меннонитлар тақдири (XIX аср охири – XX аср бошлари). Илмий хабарнома, АДУ, №1 2018 йил. 65-69-бб.

Xitoy, Mo'g'ulistondan kelganlarning guruhlari son jihatidan salmoqli edi. Turkistonning qishloq joylarida aholining 86,17%i, shaharlarda esa 13,83% i yashardi. Shahar aholisi nisbati faqat Turkiston o'lkasining yirik savdo-sanoat markazlari - Toshkent, Qo'qon, Andijon, Samarqand, Marg'ilon va boshqa shaharlar joylashgan tub viloyatlar - Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida yuqori edi⁹⁶².

1869 yilda Yettisuvdagi dexqonlar manzilgohlari to'g'risida qoidalar ishlab chiqdi. Bu hududda 1869-1882 yillarda 25 ming kishilik aholisi bo'lgan 29 ta rus qishlog'i, Sirdaryo viloyatida esa 1300 kishilik aholisi bo'lgan 19 ta rus qishlog'i barpo etildi.

1886 yilgi Nizomga ko'ra, o'lkaga rus aholisining ko'chib kelishiga siyosiy tus berildi va har bir ko'chib keluvchiga 10 desyatnadan kam bo'lmagan yer ajratilishi ko'zda tutildi. Rossiya imperiyasi hukumati qishloqlarida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf qilish va dehqonlarning g'alayonlarini bostirish maqsadida o'ta rus dehqonlarining bir qismini Rossiyaning ichki tumanlaridan Turkiston o'lkasiga ko'chirdi. Ular asosan Yettisuv, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlariga olib kelib joylashtirildi. Mahalliy dehqonlar azaldan foydalanib kelgan yerlar majburiy tortib olindi va ko'chib kelganlarga taqsimlab berildi. 1891 yilga kelib Sirdaryo viloyatida, Avliyoota va Toshkent uездlarida 19 ta rus qishlog'i (aholisi 1238 kishi) tashkil etildi, 1896 yili Xo'jand uездidagi 6 ta rus qishlog'ida 1000 ga yaqin rus aholisi yashardi. Shaharlar ham ruslashtirila boshlandi. Masalan, inqilobdan avvalgi Toshkentning bir qismiga rus aholisi joylashtirildi, ular uchun Marg'ilonning yonginasida Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahri bunyod etildi⁹⁶³.

1875 yilda Avliyootada ilk rus qishlog'i barpo etilgandan boshlab o'tgan 15 yil davomida, ya'ni 1890 yilgacha Turkiston o'lkasida 1300 oiladan iborat 19 ta rus qishlog'i barpo etilgan bo'lsa, Rossiyada ocharchilik yuz bergan 1891-1892 yillarda Turkistonga ko'chib keluvchilar soni keskin ortdi va shu ikki yil davomida 25 ta rus qishlog'i paydo bo'ldi. O'lkadagi rus dehqonlarining soni ikki barobar ortdi.

XIX asr oxirlariga kelib Turkiston o'lkasida o'rnamashgan rus

⁹⁶² Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор Мустамлака тизими. – Т.: “Академия”. 2002. 98-99-бб

⁹⁶³ Маждид Хасаний. Юрт буйнидаги қилич ёки истило. Тошкент. «Адолат». 1997. 16-б.

aholisining soni 197420 kishiga yetgan bo'lsa, ularning 95941 nafari shaharlarda va 101479 nafari esa posyolkalarda yashagan⁹⁶⁴.

XX asr boshlarida imperiya davlat rejasi asosida ko'chirilganlar va rejasiz ixtiyoriy ko'chganlar soni Farg'ona viloyatida 700 oilani tashkil etib, ularning 10 ta posyolkasi bor edi. Ko'chirilganlar soni yildan-yilga oshib bordi va 1910 yil 1 yanvarda Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarining hududlarida ko'chib kelganlarning 131 ta posyolkasi tashkil etilib, ular soni 45 ming oila, ya'ni aholining 1 % ni tashkil etardi⁹⁶⁵. Turkiston general-gubernatorligi ko'chirilganlarga bir qator imtiyozlar berib, ularning har bir oilasiga 100 rubl miqdorida pul, 10 desyatina (1 desyatina – 1,09 gektar)gacha, keyinchalik 5–6 desyatina gacha yer maydonlari ajratdi. Masalan, manbalarda ko'rsatilishicha, ko'chirib keltiriluvchilarning miqdori turli yillarda ko'payib borish bilan birga, ularga ajratiladigan yer maydonlarining hajmi ham ortib borgan. 1898 yili Farg'ona viloyati Namangan uezdida 1422 desyatina maydonda 76 hovli va 436 jondan iborat Uspenskoye qishlog'i, 1899 yili Andijon uezdida 2171 desyatina maydonda 100 hovli va 449 jondan iborat Blagoveshchensk qishlog'i barpo etildi⁹⁶⁶. 1912 yili Sirdaryo viloyati ko'chib keluvchilar fondiga 73674 desyatina, shu jumladan 65409 desyatina dehqonchilik uchun qulay yerlar tortib olindi. Bu yerlarga shu yili viloyatga Rossiyadan ko'chirib kelingan 4630 jondan iborat bo'lgan 1569 oila joylashtirildi⁹⁶⁷. Shuningdek, 1913 yili Sirdaryo viloyatida 235377 desyatina yer maydonidan iborat 103 uchastkani tortib olish rejalashtirildi. Yil davomida esa 4741 nafardan iborat bo'lgan 1668 oila ko'chirib kelindi⁹⁶⁸.

Keyinchalik, o'zboshimchalik bilan ko'chib keluvchilar oqimining kuchayishi natijasida ko'chib kelishni ta'qiqlash befoyda bo'lgani tufayli, general-gubernator Duxovskoy 1898 yili "...Turkiston o'lkasiga ruslarning imkon qadar ko'proq ko'chib kelishiga yo'l ochish" haqida ko'rsatma

⁹⁶⁴ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. Т.: Шарқ, 1998. 362-б.

⁹⁶⁵ Граф Головин. Колонизация Туркестана (Корреспонденция нового времени) // Туркестанский сборник. Том.542. Стр.343–344.

⁹⁶⁶ Статистический обзор Ферганской области за 1914 г. Скобелев, 1917. Стр.13.

⁹⁶⁷ Обзор Сырдарьинской области за 1913 г. Ташкент. 1916. Стр. 161-162.

⁹⁶⁸ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор Мустамлака тизими. – Т.: "Академия". 2002. 108-109-бб

berdi. 1898 yili dastlabki “Turkiston o‘lkasini mustamlaka qilish qoidalari” tuzilib, ularga asosan 1903 yil 10 iyulda “Qishloq obivatellari va meshchanlarining Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlaridagi davlat yerlariga ko‘ngilli ravishda ko‘chirilishi to‘g‘risidagi qoidalar” deb nomlangan qonun tayyorlandi va qabul qilindi. Ushbu qoidalarning 7-bandiga ko‘ra davlat yer maydonlari erkaklar soniga qarab jon boshiga - sug‘oriladigan yerlar - 3 desyatinagacha, yaylov va o‘tloqlar - zarurat va imkoniyatga qarab berilardi. Alohida hollarda general-gubernator ko‘chib keluvchiga beriluvchi sug‘oriladigan yer miqdorini erkak jon boshiga 5 desyatinagacha oshirishi mumkin edi. 8-bandga ko‘ra yer maydonlari ko‘chib keluvchilarga doimiy (muddatsiz) ajratilib, ularga maydonlarning chegaralari ko‘rsatilgan maxsus hujjatlar berilardi. 9-bandga ko‘ra sug‘oriladigan yerlar ko‘chib keluvchilarga hovli-uchastka tartibida foydalanishga, qolgan yerlar esa - jamoat tartibida foydalanishga berilardi⁹⁶⁹.

O‘lkada rus dexqonlarining salmog‘i bir oz ortgach, rus mustamlakachi ma‘muriyati ularni qurollantirish va zurur bo‘lgan hollarda mahalliy aholi noroziliklari, qo‘zg‘olonlari, isyonlarini bostirishda foydalanish siyosatini amalga oshira boshladi. Shu maqsadlar 1896 yilda Sirdaryo viloyatiga ko‘chib kelgan kazaklarga 123 ta miltiq va o‘q-dori, 1897 yilda yana 3000 ta miltiq, Yettisuvda 300, Farg‘onada 131, Kaspiyortida 431 miltiq va o‘q-dori taqsimlab berildi. Bu bilan Rossiya ko‘chiruvchilik siyosati harbiy siyosiy maqsadlarni ko‘zlab amalga oshirilganligini ko‘rsatdi.

O‘rta Osiyo temir yo‘lining qurilishi. Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoni bosib olgach, bu yerda o‘z manfaatlarini oshirish borasida turli siyosatlar va tadbirlarni amalga oshira boshladi. Mustamlaka hukumatning amalga oshirgan ishlaridan biri Turkistonda temir yo‘lning barpo etilishi bo‘ldi.

Temir yo‘l yotqizilishi shahar rivojiga sezilarli darajada hissa qo‘shgan. U qurilguncha o‘lka va Rossiya o‘rtasidagi savdo va boshqa

⁹⁶⁹ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор Мустамлака тизими. – Т.: “Академия”. 2002. 105-106-66

aloqalar karvon yo‘li bilan amalga oshirilgan. Masalan: karvonlar Toshkentga Orenburgdan 90-100 kunda yetib kelgan, qaytishga esa 6 oy kerak bo‘lgan. Yo‘l sharoitlari g‘oyat og‘ir bo‘lib, tuya bilan yuk tashish juda qimmatga tushgan. Shularni hisobga olib mustamlakachilar va savdosoat vakillari hukumatdan Toshkentga temir yo‘l qurishni so‘raganlar, bu esa o‘lkaning hukmdor mamlakat uchun tayyor xom ashyo manbaiga aylanishini tezlashtirgan.

XIX asrning 70-yillaridayoq K.P.Kaufman Harbiy vazirga qo‘ng‘iroq qilganda: “Sizdan O‘rta Osiyo temir yo‘li loyihasini tezroq amalga oshirishingizni o‘tinib so‘rayman, bu o‘lkaning iqtisodiy rivojiga ta’sir qilishini aytmasa ham bo‘ladi, u imperiyaning eng sermahsul viloyatlaridan biriga aylanadi, bunga faqat temir yo‘l yetishmaydi, xolos. Aks holda O‘rta Osiyoda qo‘lga kiritgan mavqeimizni yo‘qotishimiz hech gap emas, siyosiy tangliklar to‘g‘risida gapirmasa ham bo‘ladi. Xuddi shunday fikrni Kaufmanning vorisi Kolpakovskiy o‘zining 1881 yilda 2 sentabrdagi “O‘rta Osiyo temir yo‘lini o‘tkazish to‘g‘risida”gi yozishmalarida: «...temir yo‘l qurilishi nafaqat Turkistonning mahalliy manfaatlari, balki “umumdavlat siyosiy, strategik va iqtisodiy munosabatlarda ham foydani taqozo etadi» degan edi. Temir yo‘l qurish haqidagi masalani muhokama qilish chog‘ida uning yo‘nalishi bo‘yicha turli variantlar ya’ni: Orenburgdan Toshkentga; Uralskdan Orol dengiziga va undan Toshkentga; Chelyabinskdan Troitsk orqali Toshkentga; Petropavlovskdan Akmolinsk, Turkiston, Chimkent orqali Toshkentga; Omskdan Karasalinskka, undan Avliyoota va Toshkentgacha yo‘l qurish haqida fikrlar mavjud edi. Oliy doiralarda Orenburgdan Toshkentgacha temir yo‘l yotqizilishi ma’qullangan edi. Biroq inglizlarning Afg‘onistonga tajovuzi kuchayishi, siyosiy va harbiy-strategik sharoitlarni hisobga olgan holda hukumat Kaspiyorti temir yo‘li qurish zarur deb topdi va 1881 uni yilda foydalanishga topshirildi. Kaspiy temir yo‘li Ashxobod orqali 1888 yilda Samarqandgacha yetkazildi. Shundan keyin Toshkent liniyasi bilan Samarqanddan Andijonga temir yo‘li yotqizish uchun Aksionerlik jamiyat tuzish haqidagi masala ko‘tarildi. Toshkent shahar dumasi Farg‘ona va Sirdaryo viloyatlaridan Toshkentgacha temir yo‘l yotqizish haqidagi iltimos bilan chiqdi. Bu esa shaharning ushbu joylar bilan uzviy aloqa

oʻrnatishiga imkon yaratardi. 1898 yilda Samarqand-Andijon temir yoʻli (Kaspiy orti) va 1901-1906 yillarda esa Orenburg-Toshkent temir yoʻli bitkazildi, keyinchalik temir yoʻllar Fargʻona viloyati tomon davom ettirildi. Shaharlarda temir yoʻl yotqizilishi bilan vokzallar, temir yoʻl ustaxonalari, liniyalarda esa stansiyalar, yangi manzilgohlar paydo boʻlishiga olib keldi. Bu yerda asosan ruslar posyolkalari va temir yoʻl ustaxonalari vujudga keldi. Bu esa oʻz navbatida oʻlkada rus fuqarolarining yana koʻpayishiga olib keldi⁹⁷⁰.

Turkistonda temir yoʻl ikki asosiy maqsadni harbiy strategik va iqtisodiy maqsadlarni koʻzlab qurildi. Harbiy strategik nuqtai nazardan olsak, oʻlkaning qay bir yerida mustamlakachilikka qarshi kurashlar yuzaga kelmasin, uni bostirish uchun harbiy kuchlarni safarbar etish va yetkazib berish, mustamlaka hokimiyatini saqlab turishda harbiy soha imkoniyatlarini kengaytirish koʻzda tutilgan. Keyingi yillarda koʻplab yetishtirilayotgan xom-ashyolar va yer osti va yer usti boyliklarini koʻplab miqdorda va tezroq Rossiya hududlariga yetkazib borish iqtisodiy maqsadlarni koʻzlagan edi. Oʻrta Osiyo temir yoʻlining dastlabki izlari 1880 yilda Mixaylovo postidan Mullaqorigacha boʻlgan 26 km masofada yetkazildi⁹⁷¹. 1880 yil dekabrda temir yoʻl qurilishi boshlandi va 1888 yilda Samarqandgacha yetkazib borildi, bu yoʻnalishda oraliq masofalarda bir qator yirik stansiyalar barpo etildi, jumladan, 1881 yil 20 sentabrda Mixaylovdan Qizil Arvotgacha 232 km masofada temir yoʻlda qatnovlar boshlandi. 1885 yilda Ashxobodga, 1886 yilda Marv, Chorjuy va Amudaryogacha temir izlari yotqazildi. 1888 yilda temir yoʻl Samarqand bilan ham tutashtirildi, 1898 yilda Marv-Kushka shaxobchasi qurilib, bir yildan soʻng Fargʻona vodiysi va Toshkent ham temir yoʻl bilan tutashtirildi. 1900 yil boshlangan Toshkent Orenburg temir yoʻli 1905 yilda qurib bitkazildi va keyingi yillarda Oʻrta Osiyoning barcha asosiy nuqtalari temir izlari orqali birlashtirildi. Bu esa Rossiya imperiyasiga har yili Turkiston oʻlkasidan minglab tonnalar miqdorida

⁹⁷⁰ Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. Тошкент, «Fan va texnologiya». 2004

⁹⁷¹ Ахмеджанова З.К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии. Ташкент, «Наука», 1965. Стр.33.

qimmatbaho yuklarni olib chiqib ketish imkoniyatini berdi⁹⁷².

1881-1916 yillarda Oʻrta Osiyo temir yoʻl liniyalarida 6137 million pud atrofida yuk tashildi. Bunda Rossiyadan olib kelingan yuk 4409 million pud, Oʻrta Osiyodan olib ketilgan 614,7 million pudni, ichki yuk tashish - 1112,7 million pudni tashkil qildi. Shu oʻrinda temir yoʻllar orqali tashilayotgan yuklarning salmogʻi orasida paxta xom ashyosi asosiy oʻrinni egallaganligini taʼkidlash joiz. Keyingi oʻrinlarda esa tashilgan yuklarning katta qismini quruq mevalar, qorakoʻl, ipak, guruch va boshqa mahsulotlar tashkil etgan. 1880-1917 yillar oraligʻida Oʻrta Osiyodan 225,9 million pud paxta tashib ketildi. Rus paxtani qayta ishlash sanoatining Oʻrta Osiyo paxtasiga boʻlgan solishtirma ogʻirligi yil sayin oʻsib borib, 1915 yilda 70 foizdan ortiqni tashkil etdi, temir yoʻllar qurilgunga qadar bu koʻrsatkich 5-6 foizni tashkil qilgan edi.

Boshqa bir manbada koʻrsatilishicha, Turkistondan Rossiya imperiyasiga olib ketiladigan tovarlarning eng asosiysi paxta boʻlib, shuningdek, ipak, yogʻ, kunjara, mevalar ham koʻp miqdorda temir yoʻl orqali olib ketilgan. 1907 yildan 1912 yilgacha Turkistonda Rossiya imperiyasiga 59 mln. 197 ming pud paxta, 11 mln. 450 ming pud mevalar, 7 mln. Puddan ortiq yogʻ, 10 mln. puddan ortiq kunjara va 2 mln. puddan ortiq ipak mahsulotlari olib chiqib ketilgan boʻlsa, shuningdek, aynan koʻrsatilgan yillar davomida Turkistonga 22 mln. 939 ming pud gʻalla, 23 mln. 672 ming pud un, 16 mln. 562 ming pud choy va shakar, qurilish materiallari keltirilgan⁹⁷³.

XX asrning boshlarida Turkiston oʻlkasida yuz bergan tarixiy-siyosiy jarayonlar, yaʼni fevral va oktabr oylarida sodir boʻlgan voqealar oʻlka iqtisodiyotini izdan chiqarib yubordi. Chunki Rossiya imperiyasi tomonidan yaratilgan paxtachilik, paxta tozalash, paxta yogʻi ishlab chiqarish, qazilma xom ashyolarni qazib olish, temir yoʻl transporti Rossiya iqtisodiyotiga bogʻliq holda rivojlantirilgan edi⁹⁷⁴.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining shakillantirilishi va uning

⁹⁷² Юлдашев Б. Закаспийская военная железная дорога и факторы, приведшие к ускорению её строительства./ Ўтмишга назар. № 2019/4. Стр.94-100.

⁹⁷³ Волков И.В. Торгово-экономические связи России с Туркестаном (вторая половина XIX века – начало XX века). 145-147-бб.

⁹⁷⁴ Курбанов Б. Туркистон ўлкасининг пахта хом ашё базасига айлантирилиши ва унга темир йўл транспортининг жалб этилиши. Илмий Ахборотнома. 2016. 208-213-бб.

mustamlakachilik mohiyati. O'lkada temir yo'lining tushirilishi natijasida bir qancha sanoat korxonalari ham yuzaga kela boshladi. Bu sanoat korxonalarida xom-ashyoga dastlabki ishlov berilardi. Birinchi paxta tozalash zavodi 1879 yilda Toshkentda savdogar Nazarov tomonidan ishga tushirildi. 1885 yilda esa Andijonda savdogar Xo'jayev tomonidan ikkinchi paxta tozalash zavodiga asos solindi va shu tariqa birin-ketin turli sanoat korxonalari barpo etila boshlandi. 1867-1900 yillar davomida Turkiston o'lkasida 170 korxonalar ishga tushirildi. Ularning asosiy qismi paxta tozalash zavodlari bo'lib, bulardan tashqari yog'-moy ishlab chiqarish, choy qadoqlash, aroq, vino tayyorlovchi korxonalar ham barpo etilgan edi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, Turkiston o'lkasining yalpi sanoat ishlab chiqarishning 80 foizdan ortig'i paxtani qayta ishlovchi korxonalar xissasiga to'g'ri kelardi.

1890 yili Turkiston general-gubernatori huzuridagi moliya vazirligining maxsus topshiriqlari amaldori lavozimi o'rniga bojxona okrugining tashkil qilindi. U Turkistonga chegaradosh barcha mamlakatlar bilan savdo-sotik, aloqalarini nazorat qilardi. 1894 yili umumimperiya bojxona hududiga Buxoro va Xiva xonliklari ham kiritildi. 1901 va 1902 yillarda tegishli ravishda Qo'qon va Samarqand bojxonalari tashkil qilindi. 1912 yil noyabrida Rossiyadagi barcha bojxona muassasalari qayta tuzilishi munosabati bilan Turkiston bojxona okrugi o'rnida Toshkent bojxona inspektorlik uchastkasi tashkil qilindi. Bojxonalarining tashkil qilinishi Rossiyaning butun O'rta Osiyo mintakasidagi bozorlarga mustahkam o'rnashishi uchun imkon yaratdi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida moliya muassasalari, jumladan Rossiya davlat banki va tijorat banklari filiallari tarmog'i yanada kengaydi. 1890 yili Samarqandda, 1893 yili Qo'qonda, 1894 yili Buxoroda davlat bankining filiallari ochildi. Tijorat banklari orasida Peterburg va Moskva banklari yetakchi o'rinda turar edi. Volga-Kamsk, Rus-Osiyo, Azov-Don banklari, Moskva xalqaro savdo banki, Sankt-Peterburg xalqaro banki, Rus savdo-sanoat banki va boshqa banklar Turkistonning deyarli barcha yirik shaharlarida o'z bo'limlariga ega edi. Ushbu banklarning ko'pchiligi paxta bilan bog'liq katta foyda keltiruvchi operatsiyalarni amalga oshirish hamda turli savdo-sanoat firmalari, birlashmalari, o'rtoqliklar, sanoat va temir yo'l

qurilishiga sarmoya joylashtirish bilan band edi. 1915 yilga kelib Turkistonda Davlat bankining 10 ta, tijorat banklarining esa 40 ta bo'limlari faoliyat ko'rsatardi. Ular monopolistik bitimlar tuzish va ularni ta'minlash bilan shug'ullanib, tadbirkorlar doirasida yetakchilik qilar, sekin-asta o'lka iqtisodiy hayotidagi muhim omilga aylanib borardi⁹⁷⁵.

Turkiston o'lkasining shaharlarida Rossiya sanoat korxonalarining, asosan to'qimachilik firmalarining maxsus vakolatxonalarini, agentliklari, omborxonalarini tashkil etildi. Ular oldiga Turkistonda Rossiya sanoati uchun zarur xom ashyo (paxta, pilla, jun, teri va hokazo.) yig'ish, Rossiya korxonalarini ishlab chiqargan gazlama va boshqa mollarni pullash vazifasi qo'yilgan edi. Rossiya sanoatining ehtiyojlarini qondirish va boshqa harbiy-siyosiy maqsadlarni ko'zlab Turkistonda shitob bilan temir yo'l va sanoat qorxonalarini qurish boshlandi. 1906 yili Orenburg Toshkent bilan bog'landi, faqat 1900-1910 yillar orasida Turkiston o'lkasida 233 korxonalar qurilib, ishga tushirildi. Bular asosan paxta tozalash, pillakashlik, ko'pchilik, yog'-moy ishlab chiqaruvchi zavodlar edi. 1914 yilga kelib bunday zavod va fabrikalar soni qariyb ikki baravar ortdi, ya'ni 425 taga yetdi. Bu korxonalarining ko'pchiligi rus va chet elliklarga qarar edi⁹⁷⁶.

Bu korxonalarda asosan yevropalik ishchilar ishlagan bo'lsalar, keyingi yillarda mahalliy aholi vakillari ham katta qiyinchiliklar bilan yollanma ishchilarga aylana boshladilar. Biroq bunda rus va musulmon ishchilariga bo'lgan munosabat bir-biridan keskin farq qilardi. Shu tariqa Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirilgach, bu yerda jahonning hech bir davlati qo'llamagan mustamlakaga idora usuli joriy etildi va bu idora usuli o'lka halqlarini uzoq vaqtlar mustamlaka sirtmog'ida tutib turishni ko'zda tutdi.

**Tayanch
so'zlar:**

Mustamlaka boshqaruv tizimi, general gubernatorlik markaziy boshqaruvi, uездlar boshqaruvi, harbiy gubernator, sud palatasi, volostlar boshqaruvi, uchastkalar va ovul jamoalari

⁹⁷⁵ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор Мустамлака тизими. – Т.: “Академия”. 2002. 102-103-бб

⁹⁷⁶ Мажид Ҳасаний. Юрт бўйнидаги қилич ёки истило. Тошкент. «Адолат». 1997. 16-б.

boshqaruvi, «Vaqtli Nizom loyihasi», «Shahar Nizomini qo‘llash», assimilyatsiya, O‘rta Osiyo temir yo‘li, sanoat sohasining shakllanishi

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O‘rta Osiyoda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatining asl mohiyatida nimalar ko‘rindi?
2. General gubernatorlik markaziy boshqaruv tizimi xususiyatlarini ochib bering?
3. Turkiston general gubernatorligida viloyatlar boshqaruvi qanday tizim asosida amalga oshirilgan?
4. Turkistonda shaharlar boshqaruvi tizimini asoslab bering
5. Toshkent shahar dumasi va uning faoliyatida mustamlakachilik siyosati qay darajada namoyon bo‘ladi?
6. Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosatida yuzaga kelgan ahvolini bayon qiling.
7. Turkistonda imperiyaning ko‘chiruvchilik siyosati va uning mohiyatini ochib bering.
8. O‘rta Osiyo temir yo‘lining qurilishi va maqsadi?
9. Turkistonda sanoat sohasining shakllanishi xususiyatlari?

TURKISTON HALQLARINING O‘Z ERKI VA OZODLIGI UCHUN OLIB BORGAN KURASHLARI

- ❖ Turkistondagi Milliy ozodlik kurashlarining yuzaga kelish sabablari va mohiyati.
- ❖ XIX asrning 80 — 90 yillarida Farg‘ona vodiysidagi milliy ozodlik harakatlari.
- ❖ Qurbonjon dodxoh boshchiligidagi ozodlik harakatlari.
- ❖ 1892 yilgi Toshkent qo‘zg‘oloni.
- ❖ Andijondagi Dukchi Eshon (Muhammad Ali Halifa) boshchiligidagi halq qo‘zg‘oloni.
- ❖ XX asr boshlarida dexqonlar harakati. Namoz Pirimqulov boshchiligidagi halq harakati.
- ❖ 1916 yilda Turkiston halqlarining podsho Rossiyasi siyosatiga qarshi harakatlari. 1916 yil “Jizzax qo‘zg‘oloni”.

Turkistondagi milliy ozodlik kurashlarining yuzaga kelish sabablari va mohiyati. Turkiston mustamlakaga aylantirilgach, podsho Rossiyasi o‘zining asosiy maqsadi etib eng avvalo halqlarimizda milliy davlatchilik tuyg‘ularini yo‘q qilish etib belgiladi. Bunda hamma sohada rus millatchilik shovinizmini qaror toptirish ko‘zlandi. Turkiston general gubernatorligi kanselyariyasida ko‘p yillar xizmat qilgan rus amaldori va tarjimoni, millati tatar bo‘lgan A.Divayev shunday yozgan edi: - “Bu halqlar juda boy madaniyatga ega, bu madaniyatni o‘rganish biz uchun juda ham og‘ir. Biroq biz bu madaniyatni o‘rganishga majburmiz, chunki bundan buyon bu halqlarni biz boshqaramiz”⁹⁷⁷. Turkistondagi barcha boshqaruv bo‘g‘inidagi mas’ul amaldorlari, ziyolilari o‘lkada imperiya manfaatlarini qaror toptirish va buyuk davlatchilik g‘oyalarini amalga oshirishga kirishdilar. Turkistonda siyosiy, iqtisodiy va milliy ma’naviy zulm nihoyatda kuchaydi.

O‘lka aholisi ro‘yxatga olingach, erkaklarni harbiy hizmatga olish masalasi yuzaga keldi. Biroq o‘lkada mahsus taftish ishlari olib borgan maxfiy maslahatchi Girsning bergan ma’lumotlariga asosan podsho hukumati turkistonliklardan armiyaga olish fikridan qaytdi" va ularga harbiy soliqlar joriy etdi. Podsho mahalliy halqlarning qo‘liga qurol berib, harbiy ishlarga o‘rgatish o‘zi uchun nihoyatda havfli tadbir

⁹⁷⁷ Диваев А. Киргизские пословицы. М.1900. 2-б.

ekanligini angladi⁹⁷⁸.

XIX asrning oxirlariga kelib Turkiston general-gubernatorligining umumiy maydoni 1.738.918 kv.km.ni tashkil etgan. 1897 yilgi birinchi Butunrossiya aholini ro'yxatga olishning to'la bo'lmagan ma'lumotlariga ko'ra, Turkiston general-gubernatorligining Kaspiy bo'yi viloyatida 383 ming kishi, Samarqand viloyatida 860 ming kishi, Sirdaryo viloyatida 1.478 ming kishi, Farg'ona viloyatida 1.572 ming kishi, Yettisuv viloyatida 988 ming kishi yashab, aholining umumiy soni jami 5.281 ming kishini tashkil qilgan⁹⁷⁹. Rossiya statistika boshqarmasining 1914 yilda to'plagan ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich 6.492.604 kishidan iborat bo'lgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Turkiston general-gubernatorligining uchta viloyati (Samarqand, Sirdaryo va Farg'ona) da aholi zich yashagan. Turkiston aholisining umumiy miqdorida o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, tojiklar, turkmanlar va qoraqalpoqlar ko'pchilikni tashkil etgan. Umumiy aholi soniga nisbatan o'zbeklar 35,75%, qozoqlar va qirg'izlar 44,66%, turkmanlar 4,98%, tojiklar 6,73%, qoraqalpoqlar 2,26%, ruslar 3,75%, boshqa xalqlar esa 2,15% ni tashkil qilgan. O'lkadagi rus, ukrain va belorus aholisining soni 1897 yilda 197.240 kishi bo'lgan bo'lsa, 1911 yilda ularning soni 406.607 kishiga yetgan⁹⁸⁰.

1891 yilda Rossiyada sodir bo'lgan ochlikdan so'ng Turkistonga ko'chib kelayotgan oilalar oqimi ko'paydi. 1906 yildayoq o'lkaning besh viloyatida 451 ming tanob yerga ega bo'lgan 136 rus posyolkalari paydo bo'ldi. Har bir xo'jalikning tomorqasi 34,5 tanobdan iborat edi⁹⁸¹. Rossiya imperiyasi hukumatining bunday agrar siyosati natijasi o'laroq qishloq aholisi o'rtasida yersizlar soni ko'payib ketdi. Yersiz xo'jaliklar o'lkaning ayrim tumanlarida 40 foizga qadar yetadi. 1910-yilda butun Turkiston o'lkasida yersiz dehqon xo'jaliklar soni 30 foizni tashkil etgan⁹⁸².

Podsho hukumatining Turkistonda olib borgan mustamlakalashtirish siyosati mahalliy halqlarda kuchli norozilik

⁹⁷⁸ Гирс Ф. Отчет ревизующего, по высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Гирса.: / Гирс Ф. – М.: 2011. – 464 с.

⁹⁷⁹ Мусаев Н. Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг вужудга келиши ва ривожланиши тарихидан (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент, Молия-иктисод, 2011. 11-б.

⁹⁸⁰ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2012. 383-384-бб.

⁹⁸¹ Дело концелярии Туркестанского генерал-губернатора. 1907, № 2.

⁹⁸² Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). - T.: «Sharq», 2010, 261-b.

keltirib chiqardi va ularning bu yerga kirib kelgan dastlabki kunlaridanoq mustamlakachilarga o'zining noroziligini namoyon etib turdi. XIX asrning 70 - 80 yillarida esa mustamlakachilarga qarshi milliy ozoddik harakatlari Turkiston o'lkasining deyarli barcha joylarida kuchayib ketdi. Bu haqda maxfiy maslahatchi Girs ham o'z ma'lumotlarida to'xtalib o'tib, «halqda ruslarga qarshi kurashish befoyda», degan tushuncha paydo bo'lgan, - deya ta'kidlab o'tadi⁹⁸³. Biroq keyingi yillarda bo'lib bir qancha milliy ozodlik harakatlaridan halqda bunday xulosa paydo bo'lmaganligini ko'rish mumkin. Milliy ozoddik harakatlarining kuchayishiga yana bir sabab, mustamlakachilar tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy zulm edi. Rossiya Turkistonni bosib olgach, o'zining iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirishga va o'lkani xom-ashyo bazasiga aylantirishga kirishdi. Qishloq xo'jaligidagi amalga oshirilgan siyosat, o'lkada sanoat ishlab chiqarishning shakillantirilishi to'laligicha Rossiya imperiyasi manfaatlarini uchun ishlay boshladi.

1881 yil 19 dekabrda Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi Kolpakovskiy o'lkaga G'arbiy Yevropa va Osiyo mahsulotlari kirib kelishiga chek qo'yish maqsadida Muvaqqat bojxona qoidalarini tasdiqladi. Ularning asosiy mazmuni quyidagicha edi:

1. O'rta Osiyo xonliklarida ishlab chiqarilgan barcha turdagi mahsulotlarni Turkiston general-gubernatorligi hududiga bojsiz olib kirishga ruxsat etiladi;

2. Barcha ingliz-hind (choy, doka va bo'yoqdan tashqari), Yevropa, Turkiya va Eron mahsulotlarini Turkiston general-gubernatorligiga olib kirish qat'iy taqiqlanadi;

3. Bir pud brutto⁹⁸⁴ choy uchun 14 rubl 40 tiyin, doka uchun 6 rubl va 1 funt bo'yoq uchun 1 rubl miqdorida boj stavkalari belgilanadi;

4. Boj undirish rus kredit rubllarida amalga oshiriladi (1876 yil Rossiyada passiv bo'lgan tashqi savdo balansini tenglashtirish maqsadida

⁹⁸³ Гирс Ф. Отчет ревизующего, по высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Гирса.: / Гирс Ф. – М.: 2011. – 464 с.

⁹⁸⁴ Brutto- tovarning idishi, o'rovi bilan birgalikdagi yalpi og'irligi. Qarang: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 225.

boj to'lovlarini oltin rublda undirishga qaror qilingan edi. Oltin rublni sotib olish narhi 148 kredit rubliga to'g'ri kelganligi uchun, bojxona bojlari stavkasi o'zgarmagan holda 50% oshgan).

5. Olib kirilishi taqiqlangan yoki boj to'lanishi lozim bo'lgan mahsulotlar, bojxona nazoratidan yashirib olib kirilgan taqdirda musodara qilinadi. Musodaradan tushgan pulning 25% esa bojxona muassasalarining maxsus fondiga o'tkaziladi (1889 yil 29 maydagi qonunga muvofiq ushbu maxsus fond Turkiston bojxona organlarining rezerv fondiga aylantiriladi. Fond bojxona nazoratini olib borishda vujudga keluvchi kutilmagan harajatlarni qoplash maqsadida tuzilgan edi)⁹⁸⁵.

Bu vaqtlarda Turkiston general-gubernatorligining Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona va boshqa viloyatlaridagi mavjud shahrlarning yangi qismlarida, yangi barpo etilgan shaharlar va posyolkalarda, Orenburg-Toshkent temir yo'li oraliq stansiyalarida, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlarida bir millionga yaqin rus fuqarolari yashab, asosiy sanoat ishlab chiqarish korxonlari va sanoat sohasida faoliyat ko'rsatuvchi ishchilar orasida ularning salmog'i oshib bordi⁹⁸⁶.

Temiryo'llar, sanoat korxonlari, savdo-sotiqdan olinadigan daromadlar ham asosa mustamlaka hukumati foydasiga o'zlashtirilgan. Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasining xom ashyo bozoriga va tayyor mahsulotlarini sotadigan bozoriga aylantirildi. Yer mulklarning yirik mulkdorlar qo'lida to'planishi, turli banklarning ochilishi, savdo sudxo'rlik kapitalining kuchayishi o'lkada qashshoqlarning ko'payishiga olib keldi. Agar 1888-1893-yillar mobaynida Turkistondan Rossiyaga 14 257 515 pud qimmatbaho paxta xom-ashyosi tashib olib ketilgan bo'lsa, 1914-1916-yillarda jahon urushi bahonasida 41 million pud paxta tolasi olib ketilgan. Umuman olganda 1880-1917-yillarda Turkiston o'lkasidan Rossiyaga jami bo'lib 225,8 million pud paxta tolasi olib ketilgan⁹⁸⁷.

Rossiya imperiyasining Turkistondan tashib ketgan jun va teri mahsulotlari ham metropoliya sanoatini arzon mahsulot bilan ta'minlagan.

⁹⁸⁵ A. Rasulov, A. Isoqboyev. Turkiston va Rossiya munosabatlari tarixi. Namangan. 2011. 80-6.

⁹⁸⁶ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. Т.: "Шарқ", 1998. 362-363-66.

⁹⁸⁷ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). - T.: «Sharq», 2010, 260-b.

Ayniqsa, jun tashib ketish yildan yilga ko‘payib, ma’lumotlarga ko‘ra, 1910 yilda 563000 pudni tashkil etgan. Rossiya bozorlarida Buxoro qorako‘l terisi nihoyatda qadrlanib, jahon bozorida undan katta daromad olingan. Nijniy Novgorod va Moskva bozorlarida qoraqo‘l teri ayniqsa qimmat bo‘lgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, birgina 1914 yilda o‘lkadan Rossiyaga 22 654 pud qoraqo‘l terisi olib ketilgan. O‘lkadagi ipakchilik sanoatini ham to‘la metropoliya manfaatlariga bo‘ysundirish imperiya ma’murlarining asosiy maqsadlaridan biri edi. Avvaliga, ot va tuya karvonlari orqali, keyinroq esa, O‘rta Osiyo temir yo‘llari qurilgach bu sohaga rus sanoatchilarining kirib kelishi avj oldi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Sharq va G‘arb bozorlarida dong‘i ketgan yuqori sifatli tola va ipak matolar 1889 yilda 7619 pud olib ketilgan bo‘lsa, O‘rta Osiyo temir yo‘llari orqali 1907 yilning o‘zida Turkistondan 100 149 pud ipak tashib ketilgan. Mustamlaka yillarida Turkistonda tayyorlangan paxta yog‘iga jahon bozorida talab katta edi. Ayniqsa, temir yo‘llar ishga tushirilgan rus sarmoyadorlari Turkistonning barcha viloyatlarida yog‘- moy zavodlarini ishga tushirib, o‘lkadan yirik miqdordagi yog‘ mahsulotlarini arzon narxlarda tashib ketib, o‘z bozorlarida yuqori narxlarda sotganlar. Birgina 1911 yilda Turkistondan Rossiyaga 1 772 186 pud paxta yog‘i olib ketilgan⁹⁸⁸.

Yuqoridagi boyliklarning asosiy turlaridan tashqari o‘lkadan har yili arzon narxlarda katta miqdordagi yovvoyi va dorivor o‘simliklar, osh tuzi, alebaster kabi tog‘ jinslari, neft mahsulotlari, ro‘zg‘or buyumlari, matolar, gilamlar va boshqa ko‘plab mahsulotlar Rossiyaga tashib ketilgan. Tashib ketilgan Turkiston boyliklari imperiya ma’murlari va xazinaning ulkan daromad manbai edi. Tadqiqotchilarning hisob – kitoblariga ko‘ra, 1868-1879 yillar davomida metropoliyaning Turkistondan olgan daromadi 32 413 291 rublni tashkil etgan. O‘sha davr nuqtai nazaridan bu ulkan daromad edi⁹⁸⁹.

Turkistonda banklarning ko‘payib borishi va banklarning qishloq xo‘jaligida keng ko‘lamdagi faoliyat yuritishi natijasida sudxo‘rlikning kuchayib avj olishi ham asosan oddiy dexqonlarni

⁹⁸⁸ Ўзбекистон тарихи. II – жилд (XIX аср II ярми – 1991 йил август). Тошкент. 2005. 169-б.

⁹⁸⁹ Ўзбекистон тарихи. II – жилд (XIX аср II ярми – 1991 йил август). Тошкент. 2005. 170-б.

katta-katta qarzlarga bostirib, o'z yeri va erkidan mahrum bo'lishlariga olib keldi. Ayniqsa, imperiyaning ruslashtirish va ko'chiruvchilik siyosati orqali o'lkaga ko'plab rus dehqonlarining ko'chirib keltirilishi ham Turkiston halqlarining azaliy tiriklik manbai bo'lgan yer-suvlaridan mahrum bo'lishiga va yollanma ishchilarga, mardikorlarga aylanib borishiga olib keldi. Turkiston xalqlari har tomonlama mustamlakachilik ostida ahvoli og'irlashgan bo'lsada, biroq o'zining erki va ozodligi uchun mustamlakachilikka qarshi ko'plab marotaba kurashlar olib bordi. Bu kurashlar XIX asrning 70-80 yillarda Farg'ona vodiysida, 90-yillarda Toshkentda va Farg'ona vodiysida, XX asrning boshlariga kelib Turkiston o'lkasining deyarli barcha hududlarida muttasil davom etib turdi va Turkiston halqlarining o'z erki va ozodligini qo'lga kiritishi uchun hech qachon kurashlarni pasaytirmaganligi uni yuqorida imperator maxfiy maslahatchisi F.Girs tomonidan aytilganidek «befoyda» deb o'ylamaganligi bu kurashlarning mohiyatini ochib beradi.

XIX asrning 80-90 yillarida Farg'ona vodiysidagi milliy ozodlik harakatlari. Rossiya imperiyasi mustamlakachi hokimiyati tomonidan O'rta Osiyoda amalga oshirilgan iqtisodiy va milliy zulm Turkiston xalqlarining milliy ozodlik kurashlarining kuchayishiga olib keldi. Hukmron tuzumga qarshi qo'zg'olonlar asosan qambag'al dexqonlar, kosiblar, hunarmandlar tomonidan amalga oshirildi. Milliy g'ururini yo'qotmagan ayrim yuqori tabaqa vakillari ham bu qo'zg'olonlarda ishtirok etdilar. 1878 yilda Mingtepada Yetimxon boshchiligida mustamlakachi hukumat siyosatiga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Biroq rus mustamlakachi hukumati katta harbiy kuchlar yordamida Yetimxon boshchiligidagi qo'zg'olonlarni bostirdi. Yetimxon qo'zg'olonigacha ham Turkiston o'lkasi hududlarida ko'plab milliy ozodlik harakatlari bo'lib o'tgan va bu harakatlarning dastlabkilarini xatoki XVIII asrda sodir bo'lganligini ham ko'rish mumkin. Bir qator manbalarda va adabiyotlarda ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarga asosan XVIII asr so'nggi choragi va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda Rossiya imperiyasi bosqinchiligiga va mustamlakachiligiga qarshi amalga oshirilgan halq

harakatlari va milliy ozodlik kurashlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

1. Qozog‘iston hududlarida 1783-1793 yillarda bo‘lib o‘tgan Sirim Botir qo‘zg‘oloni.
2. 1822 -1823 yillarda bo‘lib o‘tgan Jo‘lomon Tilanchi qo‘zg‘oloni.
3. 1836-1838 yillarda bo‘lib o‘tgan Isatoy Toyman qo‘zg‘oloni,
4. 1837 - 1846 yillarda bo‘lib o‘tgan Sulton Kenasari qo‘zg‘oloni va uning o‘g‘li Sulton Sodiq boshchiligidagi xalq harakatlari.
5. 1856 yilda bo‘lib o‘tgan Sirdaryodagi Jonxo‘ja Nurmuhammedov boshchiligidagi qo‘zg‘olon.
6. 1868 yildagi Samarqand mudofaasi, Samarqand shahri va Shahrisabz beklilaridagi qo‘zg‘olonlar.
7. 1870 yilda Mang‘ishloq qozoqlarining qo‘zg‘olonlari.
8. 1871 yilda Sirdaryo viloyatida Eshon Eshmuhammad boshchiligidagi qo‘zg‘olonlar.
9. 1878 yildagi Mingtepadagi Yetimxon qo‘zg‘oloni
10. 1885 yilda Farg‘ona vodiysida Darveshxon qo‘zg‘oloni
11. 1885-1890 yillarda Farg‘ona vodiysidagi xalq harakatlari
12. 1892 yilda Toshkentdagi “Vabo isyoni”.
13. Oloyda Qurbonojon dodhox boshchiligidagi kurash harakatlari
14. 1898 yilda Andijonda sodir bo‘lgan Muhammad Ali xalfa (Dukchi Eshon) qo‘zg‘oloni
15. 1899 yilda Sirdaryo viloyati hududlaridagi sodir bo‘lgan qo‘zg‘olonlar
16. 1905-1907 yillarda Samarqand viloyatida Namoz Pirimqulov boshchiligidagi xalq harakatlari
17. 1916 yilda mardikorlikka olishga qarshi Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida ko‘tarilgan va tarixda “Jizzax qo‘zg‘oloni” deb nom olgan ozodlik kurashlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin⁹⁹⁰.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Yetimxon qo‘zg‘oloniga ham Rossiya imperiyasi mustamlakachiligiga qarshi mahalliy halqlar tomonidan ko‘plab marta qo‘zg‘olonlar ko‘tarilgan. Ular orasida Sulton

⁹⁹⁰ Илҳомов З. Хўҷамов М. Ўзбекистон тарихи (XVI-XX аср бошлари). Тошкент. 2002. 56-57-66.

Sodiq boshchiligidagi⁹⁹¹, Botirxon To‘ra boshchiligidagi⁹⁹², Po‘latxon⁹⁹³ boshchiligidagi milliy ozodlik harakatlarini, Toshkentdagi “vabo isyoni”⁹⁹⁴ va Jizzax qo‘zg‘olonlarini⁹⁹⁵ alohida ko‘rsatib o‘tish lozim.

Yetimxon qo‘zg‘oloni mag‘lubiyatga uchragach ham, Farg‘ona vodiysida mustamlakachilarga qarshi kurashlar pasayib qolmadi. Bunday harakatlar turli sharoitlarda bo‘lib turdi. 1880 yilda alohida barcha soliqlar yig‘ib olingandan so‘ng Xo‘jand uezdining boshlig‘i Putinsev O‘ratepa va Xo‘jand aholisidan qo‘shimcha soliq yig‘ib olish to‘g‘risida ko‘rsatma beradi. Bundan g‘azabga to‘lgan halq Raxmonqulixoja va Mirkarimboylar boshchiligidagi uezd mahkamasiga borib noroziliklarni bildiradilar. Qo‘zg‘olonchilarga qarshi kuch ishlatiladi va boshliqlari hibsga olinadi. Shunday harakatlardan biri 1882 yil noyabrda Namanganda bo‘lib o‘tadi. Qo‘zg‘olonchilar tarqatilib, rahbarlari qamoqqa olinadi. 1882 yili O‘shda va 1883 yili Chustda ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar ham shu tariqa bostirildi.

XIX asrning 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarning boshlarida Farg‘ona vodiysida qo‘zg‘olonlar yana avj oldi. Qo‘zg‘olonchilar o‘zlariga qarashli bo‘lgan va zulm o‘tkazgan boylar hamda volost boshliqlarining uylariga o‘t qo‘yish va hujumlar uyushtirishni kuchaytirdilar. Mustamlaka ma‘muriyatining hisob-kitobiga ko‘ra, 1885 yildan 1892 yilgacha Farg‘ona viloyatida aholining siyosiy tuzdagi noroziliklari va qurolli harakatlari 205 marta qayd etilgan⁹⁹⁶.

Farg‘ona vodiysida ko‘tarilgan milliy ozodlik harakatlaridan biriga Darveshxon boshchilik qilgan edi. Andijon uezdining Qo‘rg‘ontepa volostida Darveshxon boshchiligidagi mustamlakachilarga qarshi ochiqdan-ochiq qurolli kurashga tayyorgarlik ko‘rila boshlandi. Darveshxon boshliq qo‘zg‘olonchilar yangi Marg‘ilon shahrini Andijon va

⁹⁹¹ Смирнов Е.Т. Султаны Кенисара и Садык. -Т.: Тип С.И.Лахтина. 1889.

⁹⁹² Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Художерхана). -Т.: Фан, 1973.

⁹⁹³ Бобобеков Х. Қўқон тарихи. Тошкент. “Фан”, 1996. 64-70-бб.

⁹⁹⁴ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. Т.: “Шарқ”, 1998. 363-383-бб.

⁹⁹⁵ Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. Ғ.Ғулом ном. адабиёт ва санъат нашриёти. Т.: 2000. 6-24-бб.

⁹⁹⁶ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакаси даврида. Тошкент, “Шарқ”, 1998. 344-б.

Qo‘qon bilan bog‘lovchi aloqa simlarini uzib tashlaydi. Bu hodisa to‘g‘risida keyinchalik mustamlakachi hukumat vakillaridan biri “bu hodisa qo‘zg‘olon bo‘lishi muqarrar ekanligini ko‘rsatgan edi”, - deb xotirlagan⁹⁹⁷. Darvishxon boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar ko‘lami tobora kengayib boradi. Asaka, Qo‘rg‘ontepa, Shahrixon, Oltinko‘l, Jalolquduq, O‘sh uezdining Novqat, Tutlik qishloqlari, Oqbo‘yra volosti, Marg‘ilon kabi joylarda ham qo‘zg‘olon yoyiladi. Qo‘zg‘olon shunchalik keskin tus oldiki, uni bostirish uchun mustamlakachi hukumat viloyatni turli joylariga, jumladan Andijon, O‘sh va Marg‘ilon uezdlariga harbiy kuchlarni yuborishga majbur bo‘ladi. Vodiy bo‘ylab borgan sayin avj olayotgan Darvishxon rahbarligidagi qo‘zg‘olonni bostirish va uning rahbarlarini qo‘lga olish vazifasi Andijon uezdi boshlig‘i kapitan Bryanovga topshirilgandi. Uning ixtiyoriga O‘sh uezdining boshlig‘i podpolkovnik Deybner, uning yordamchisi kapitan Glishanovskiylar boshchiligidagi harbiy kuchlar yuboriladi. Qo‘zg‘olonchilar bilan Bryanov boshchiligidagi harbiy kuchlar birinchi bor 17 avgust kuni kechqurun to‘qnashadi. Kutilmaganda qilingan hujumdan Darvishxon boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar har tomonga chekinishga majbur bo‘ladilar⁹⁹⁸. Shundan so‘ng Darvishxon Namangan toglari tomonida o‘z atrofiga 800 ga yaqin odam to‘plashga erishadi. Biroq mustamlakachi hukma tomonidan harbiy kuchlarning qo‘llanilishi natijasida qo‘zg‘olonchilar mag‘lubiyatga uchratiladi. Qo‘zg‘olonni bostirish va jazolash jarayonlarida qo‘zg‘olonchilardan shunchalik darajada ko‘p qamoqqa olindiki, hatto ularni qamash uchun joy masalasi muammo bo‘lib qolgandi, qo‘zg‘olon rahbari Darvishxon 1886 yil 22 fevralda Samarqand viloyatining Sutxona qishlog‘i yaqinida qo‘lga olinadi, lekin u Jizzax yaqinida qochib qutulib ketadi. Qo‘zg‘olon rahbarlaridan biri Mo‘minboy dorga osildi. Darvishxonning akasi Iskandarning bergan ma‘lumotiga ko‘ra 1889 yili Afg‘onistonda vafot etgan. Uning boshchiligidagi qo‘zg‘olon garchand bostirilsada, biroq u bundan keyingi milliy ozodlik harakatlariga zamin hozirladi⁹⁹⁹.

⁹⁹⁷ Тиллабоев С. Мустамлакачиларга карши Дарвишхон бoшчилигидаги кўзғoлон. «Ўзбекистон тарихи», Т.: 2002, 1-сон. 12-13-бетлар.

⁹⁹⁸ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). - T.: «Sharq», 2010, 210-b.

⁹⁹⁹ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). - T.: «Sharq», 2010, 211-b.

1890 yilda Namanganning Kapa volosti Qumqo‘rg‘on qishlog‘i-da ham ma‘muriyatga qarshi norozilik bo‘lib o‘tdi. Bunga ham qarshi harbiylardan foydalanildi. 1893 yil fevralida Qo‘qon volostining Qashqar va Niyoz qishloqlarida, 13 fevralda Andijon yaqinidagi Qo‘qon qishloqda mustamlakachi ma‘muriyatga qarshi kuchli norozilik harakatlari bo‘lib o‘tdi. Ayniqsa, Qo‘qon qishlog‘ida halq pristav va uning yordamchilarini kaltaklab, ularni bu yerdan haydab yubordi. Bu qo‘zg‘olon bilan Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori general leytenant N.I.Korolkov-ning shaxsan o‘zi shug‘ullandi va qo‘zg‘olonchilarni jazolash uchun o‘z yordamchisi general-mayor Medinskiyni yubordi. Mustamlakachilarning katta harbiy kuchlari Qo‘qon qishloq aholisini qattiq qiynoqlarga soldilar va ularning mol-mulklarini tortib oldilar. Bunday qo‘zg‘olon va norozilik Andijon uezdining Kengko‘l volostida ellikboshilarni saylash vaqtida ham yuz berdi. 1896 yilda Namangan uezdining Oqsuv-Shahrixon volostidagi Naymancha, Ko‘xna mozor, Langarbob qishloqlarida ham ellikboshi va mingboshilar saylovlari vaqtida shunday harakatlar bo‘lib o‘tdi. Bu qo‘zg‘olonlarda ham halq sristav va uning amaldorlarini do‘pposlash, ularni toshbo‘ron qilish bilan cheklandi. 1895-1896 yillarda Kengko‘l-Qoraqir, Olmos, Sariqsuv, Oqsuv-Shahrixon volostlarda yana bir necha marta shu kabi qo‘zg‘olonlar bo‘lib turdi¹⁰⁰⁰.

Farg‘ona vodiysida tinmasdan ko‘tarilib turgan bunday qo‘zg‘olonlar va milliy ozodlik harakatlari mustamlakachi hukumatni daxshatga soldi. Ma‘muriyat qo‘zg‘olonlarning oldini olish va qo‘zrolonchilarga qarshi kurashda shafqatsiz bo‘lish bilan birga qo‘zg‘olonchilarni jazoga tortishda ham keng vakolatlarga ega edi. 1892 yildan boshlab rus mustamlakachi hukumati hukumatga qarshi qilingan har qanday jinoyatni ko‘rish uchun harbiy sudiga borishga odatlanishdi. Bunda “jinoyatchilarni” “oliy jazo” ga hukm qilish uchun katta huquqlar berildi va bundan asosiy maqsad halqni doimiy qo‘rquv va xavotir, daxshat ostida yashashga majbur qilish edi.

¹⁰⁰⁰ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустанлакиси даврида. Тошкент, шарк, 1998. 343-348-бб.

Qurbonjon dodxoh va Abdullabeklar boshchiligida Oloydagi xalq harakatlari. Qo‘qon xonligi tugatilib, o‘rnida Farg‘ona viloyati tashkil etilgach, Turkiston xalqlarining vatanparvar farzandlari o‘z erki va ozodligini qo‘lga kiritish uchun kurashni bir dam ham pasaytirmadilar. Po‘latxon qo‘zg‘oloni mag‘lubiyatga uchragach, Farg‘ona vodiysidagi barcha vatanparvar kuchlar yana bir istiqlol uchun kurashchi-mashhur qirg‘iz ayoli Qurbonjon dodxoh qo‘shinlari safiga kelib qo‘shildilar¹⁰⁰¹. Vodiya yashovchi o‘zbek, qirg‘iz, tojik halqlari birgalashib umumiy dushmanga qarshi kurashni davom ettirdilar. Qurbonjon dodxoh Yevropadagi urushlarda katta tajriba orttirgan rus generallaridan biri D.Skobelevga qarshi kurashlarda uni mag‘lubiyatga uchratadi¹⁰⁰².

1876 yil yozida bo‘lib o‘tgan jangdan so‘ng, mag‘lubiyatga uchragan general Skobelev sulh so‘rab, Qurbonjon dodxoh huzuriga mayor Ionovni yubordi. Biroq, mag‘rur sarkarda ayol mayor Ionovni qabul qilmadi va mansab pog‘onasi jihatidan o‘ziga teng bo‘lgan sarkarda bilangina muzokara olib borishini bildirdi. Muzokara olib borish amalga oshmagandan so‘ng imperiya qo‘shinlari yana jangni davom ettirishga majbur bo‘ldi. Qurbonjon dodxohning o‘g‘li Abdulla o‘z ukalari bilan birgalikda onasini qo‘llab quvvatladi va ular bilan birgalikda mustamlakachilarga qaqshatqich zarbalar bera boshladilar¹⁰⁰³. Ular mustamlaka hukumatning har qanday kelishuvchilik va bitimlarni hech qachon halol bajarmasliklarini ham ta‘kidlab o‘tdilar. Uzoq va shiddatli janglardan so‘ng 1876 yil 31 iyul kuni qirg‘izlarning mung‘ish va adigina urug‘lari hukumat qo‘shinlariga taslim bo‘lganliklarini bildirdilar. Biroq bu bilan imperiyaning Turkistondagi mustamlakachi hukmati istiqlolchilik harakatlarini Oloyda butunlay bostirishga erisha olmadi. Imperiya hukumati qo‘shinlari Oloyda hech qanday muvaffaqiyatga erisha olmagach, Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori Skobelev O‘sh uezdi hokimi P.P.Ionov vositachiligida Qurbonjon dodxoh bilan

¹⁰⁰¹ Курбонжон додхоҳ -Курмонжон Маматқизи, Олай маликаси (1811 - Ўш яқинидаги Модди қишлоғи - 1907.1.2) Россия империяси мустамлакачилигига қарши 1876 йилда кўтарилган кўзғолон раҳбари. Бухоро амири Музаффархон жасур ва довьораклиги боис Курбонжонга додхоҳ унвонини берган.

¹⁰⁰² Илхомов З. Хўжамов М. Ўзбекистон тарихи (XVI-XX аср бошлари). Тошкент. 2002. 56-64-бб.

¹⁰⁰³ Абдуллабек Ўш ҳокими бўлган. Унинг укалари Маҳмудбек, Ҳасанбек, Ботирбек ва Қамчибеклар Пулатхон кўзғолонида фаол иштирок этганлар.

muzokaralar olib borgan. Skobelev bilan Qurbonjon dodxoh Olayda shaxsan uchrashishgan va o'rtada sulh tuzilib, 1876 yil oxirlarida imperiya hukumatiga ko'rsatayotgan qurolli qarshilik to'xtatilgan. Qurbonjon dodxohni «Oloy malikasi» va hukmdori deb tan oldilar. Bu yerlar Rossiya mulki deb e'lon qilingan bo'lsa ham, Qurbonjon dodxoh o'ziga qarashli hududlarda mustaqil siyosat yuritish va boshqarish huquqini saqlab qoldi. Qurbonjon dodxohning o'g'illari Mahmudbek, Hasanbek, Botirbek Kobuldagi quvg'inlikdan chaqirilib, ularga Oloy vohasida yangi tuzilgan bo'lislarga boshchilik qilish topshirilgan. Uning kichik o'g'li Qamchibek esa keyinchalik mustamlakachi hukumat ma'murlari tomonidan O'shda dorga osib o'ldirilgan (1895)¹⁰⁰⁴.

Farg'ona vodiysi va Oloyda halq kurashlari davom etardi. Qirg'izlarning nayman urug'i Qo'qon xonlari avlodidan bo'lgan Xudoyqulni xon deb e'lon qildilar va kurashni davom ettirdilar. Shohimardon va Langar qishloqlarini egallab, Vodil va Chimenni qo'lga kiritish uchun harakat qilayotgan Xudoyqulga qarshi general Kolpakovskiy boshchiligidagi jazo otryadi yuborildi va Xudoyqul mag'lubiyatga uchradi. Bu jang Qorakiya degan joyda bo'lib o'tdi. 1876 yilning mart oyida Abdullabek ham kurashlarni kuchaytirdi va Rossiya imperiyasi qo'shinlarining ta'qibidan Terak dovoniga ko'chayotgan vaqtda podsho armiyasi qo'shinlari unga qarshi jang qildilar va Abdullabek tomonidan mag'lubiyatga uchradilar. Abdullabekka qarshi yuborilgan xoin Sarimsoqxo'ja ham mag'lubiyatga uchratildi va qatl etildi. G'uljaga qochishga erishgan Xudoyqul qo'zg'olon ko'tarishga urinib ko'rdi, biroq qo'lga tushirilib, qatl etildi. Davomli kurashlardan so'ng tarqoq holga kelib qolgan Vatan himoyachilari o'z kuchlarini birlashtirdilar. Abdullabek, Umarbek, Sulaymon udaychi, Taniqul va Valixon to'ralar boshliq o'zbek va qirg'iz vatanparvarlari mustamlakachilarga qarshi kurash olib borib, Yangiariq darasini egallab oldilar. Shu vaqtlarda esa Abdulkarimbek o'zini xon deb e'lon qildi (1876 y may). 1876 yil avgustda Abdullabek yigitlari ortidan quvib, Pomirga kirib borgan. 8 sentbrda So'xga yaqin Aylanma degan joyda har ikki qo'shin o'rtasida so'nggi

¹⁰⁰⁴ Бабабеков Х.Н., Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки, Ташкент. 1990.

to‘qnashuv bo‘lib, unda Abdullabek boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar yengiladi. Abdullabek ukalari va safdoshlari bilan Qorako‘ldan CHO‘ngsuv darasiga o‘tib, so‘ngra Tuyuqsuv darasi orqali Qashqar va Shug‘non tarafga, keyinchalik Afg‘onistonga o‘tib ketgan. Abdullabek o‘sha yiliyoq Makkaga haj safariga jo‘nab, yo‘lda vafot etgan va uning jasadi keyinchalik G‘uljaga olib kelinib, dafn etilgan. Uzoq davom etgan kurashlar vatan himoyachilari uchun juda og‘ir kechdi va ular Rossiya imperiyasining muntazam armiyalariga qarshi davomli kurashlar olib borishga ojizlik qildilar. Shunga qaramay Rossiya imperiyasi mustamlakachiligiga qarshi ozodlik kurashlari Turkiston o‘lkasining turli joylarida o‘zini namoyon qilib turdi.

Toshkentda 1892 yil “vabo isyoni”. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligiga qarshi eng katta kurashlardan biri XIX asrning 90-yillari boshida Toshkentda bo‘lib o‘tdi.

Rossiya imperiyasi Toshkent shahrini bosib olgach, bu yerda o‘zining mustamlakachilik mavqeini mustahkamlash va Qo‘qon, Buxoro va Xiva xonliklariga bosqinchilik siyosatini davom ettirish maqsadida Toshkent shahri «yangi» qismini tayanch punktiga aylantirdi. Mahalliy aholining qarshiligidan xavsiragan chor ma‘muriyati Toshkent shahrining yonginasida, ya‘ni Anhorning narigi tomonida yangi shahar qurishga kirishdi. Keyinchalik bu «yangi» shahar Turkiston o‘lkasining siyosiy, ma‘muriy va iqtisodiy markaziga aylanib qoldi. Dastavval shahar aholisining asosi harbiylar va ularning oilalaridan iborat edi. Rossiya imperiyasining asosiy maqsadi Turkiston o‘lkasini ruslashtirishdan iborat edi. Shu maqsadda Rossiyadan Turkiston o‘lkasiga yersiz dexqonlar va mujiklarni ko‘chirib keltirish tufayli o‘lkada rus aholisining soni tobora ko‘payib bordi. Toshkent “yangi” qismi aholisi asosan ruslardan iborat bo‘lgan. Bu yerga ko‘chirib keltirilgan rus aholisi uchun turli imtiyozlar va serhosil yerlar ajratilgan. Vaqt o‘tishi bilan Rossiyadan reja asosida va o‘z ixtiyori bilan ko‘chib keluvchilarning yer va ish bilan ta‘minlash muammoga aylangan. Hatto eski shaharda ham ko‘chib kelib o‘rnashgan kambag‘al rus dexqonlar soni ko‘payib borgan. Rossiya imperiyasining barcha harbiy va ma‘muriy binolari, maishiy xizmat ko‘rsatuvchi

korxonalar va h.k. shaharning aynan «yangi» qismida joylashgan edi. Toshkent shahridagi barcha qulayliklar va yangiliklar faqatgina «yangi» qismda istiqomat qiluvchi rus aholisi uchun yaratilgan. Aholining ko‘payib borishi shahar maydonining kengayishiga olib keldi. Shahar rivoji radiusli xalqa loyihasi bo‘yicha rivojlangan. Unda to‘g‘ri va boshi berk ko‘chalar, bog‘lar, xiyobonlar, maydonlar, ma‘muriy binolari, harbiy va jamoat muassasalari, turar-joy uylari, telefon, pochta, telegraf, transportning yangi turlari (tramvay, temir yo‘l, velosipedlar, elektr chirog‘i, maishiy xizmat dargohlari va h.k.lar) paydo bo‘ldi. Chor ma‘muriyati bu yerda o‘zi uchun barcha qulayliklar yaratilgan va loyihasi bilan juda o‘xshash bo‘lgan kichkina «Peterburg»ga o‘xshagan shahar qurishni mo‘ljallagan edi¹⁰⁰⁵.

Ko‘chalarni ta‘mirlash, yoritish, telefon, pochta, tramvay va boshqalarning barchasi shaharning «yangi» qismi uchun barpo etildi. Eski shaharning markazi hisoblangan bozor va uning atrofidagina «yangi» shaharliklar uchun yaratilgan qulayliklarning o‘ndan birini ko‘rish mumkin edi. Obodonchilik ishlari ham shaharning ikkala qismi uchun bir xilda olib borilmadi. Bu holat mahalliy aholi va shahar Dumasidagi tub aholi vakillarining noroziligiga sabab bo‘lgan. Chunki barcha soliq va to‘lovlarning eng ko‘p qismi eski shahar aholisidan olingan va yangi shahar harajati uchun ishlatilgan. Shuning uchun ham eski va yangi shahar o‘rtasidagi tafovut juda katta bo‘lgan¹⁰⁰⁶.

Ayniqsa, XIX asrning 90-yillari boshlarida shahar aholisiga nisbatan soliqlarning ko‘payib borishi oddiy halqqa nisbatan ko‘plab iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Shahar hokimi baron Vrevskiy ko‘rsatmasi bilan shahar aholisiga nisbatan yangi soliqlarning joriy etilishi natijasida soliqlar miqdori avvalgilariga nisbatan 100 foizga oshib, xalqning kuchli noroziligiga sabab bo‘lgan edi¹⁰⁰⁷.

Toshkent shahrida shunday tang bir holat yuzaga kelgan vaqtda shaharda vabo tarqalganligi ma‘lum bo‘lib qoldi. 1892 yil bahorida Afg‘onistonning Qobul va Xirotda shaharlarida vabo kasalligi tarqaldi. Bu

¹⁰⁰⁵ Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. Тошкент. «Fan va texnologiya». 2004. 3-б.

¹⁰⁰⁶ Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. Тошкент. «Fan va texnologiya». 2004. 3-б.

¹⁰⁰⁷ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: «Шарқ», 1998. 365-б.

kasallik bahorning oxirlarida Samarqand viloyati va iyunning boshlarida Toshkent shahriga ham yetib keladi. Bu kasallikning oldini olishdan o'z bo'lgan imperiya mustamlakachi ma'muriyati kasallikning keng tarqalib ketishidan havfsirab, ba'zi shoshilinch choralarni amalga oshiradi, shulardan biri sifatida shahardagi mavjud 12 ta qabristonning barchasi yopib qo'yiladi. Vafot etganlarni dafn qilish uchun va'da berilgan bir nechta qabriston o'rniga shaharlardan olisda faqatgina bitta qabriston ochib beriladi. Shuningdek, vabo bilan og'rikanlar hukumat tomonidan yo'q qilinadi, degan mish-mishlar ham tarqalib ketadi. Bu esa o'z navbatida halqni vaximaga solib qo'yadi. Halq orasida hukumatdan norozilik kayfiyati kuchayib boradi. Halqning bunday kayfiyatidan havfsirab qolgan ma'muriyat halqparvar va haqiqatgo'y eski shahar oqsoqoli Inog'omxo'ja Umriyoxo'jayevni (1833-96) oqsoqollikdan bekor qilib, o'rniga yoqtirmaydigan va mustamlakachi hukumatning sodiq xizmatchilaridan biri Muhammad Yoqubni shahar oqsoqoli etib tayinlaydi¹⁰⁰⁸. O'z manfaati uchun hech nimadan qaytmaydigan Muhammad Yoqub o'z ajali bilan yoki boshqa kasalliklardan vafot etganlarni ham shahar chekkasidagi mahsus qabristonga ko'mishni buyuradi. Vafot etganlarning qabristonga ko'milishidan ham pora undirish payiga tushganligi uchun halqning Muhammad Yoqubdan noroziligi oshib ketadi. Halq o'zining qadr-qimmatini toptalayotganligiga chidab turmaydi va qo'zg'olon ko'taradi. Bunga yana mustamlaka ma'muriyatining vabo kasalligini oldini olish borasida yetarli e'tibor bermayotganligi ham asosiy sabablardan biri bo'ladi. Vabo haqida ma'lumot beruvchi ayrim manbalarda qayd etilishicha, bu vaqtda shaharda har kuni yuzga yaqin odam vabodan o'lgan, rasmiy ma'lumootlarda esa 7-24 iyun kunlari 64 kishi vaboga chalinib, ulardan 43 tasi vafot etganligi ko'rsatilgan¹⁰⁰⁹.

1892 yilning 24 iyunga o'tar kechasi Muhammad Yoqubga vafot etganlarni yashirincha qabristonga ko'milayotganligi haqida habar keladi. U bu xaqda shahar hokimi Putinsevni habardor qiladi. Oqibatda ertasi kuni bir qancha kishilar aybdorlar sifatida qamoqqa olinadi. Halq

¹⁰⁰⁸ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: "Шарқ", 1998. 367-б.

¹⁰⁰⁹ ЎЗР МДА. 1- жамғарма, 3-рўйхат 30-й.ж., 167-варақ.

ochiqdan-ochiq o'ziga qarshi milliy va diniy qadriyatlarining, insoniylik qadr-qimmatining poymol etilayotganligiga qarshi chidab turmadi va Azizyor, Abdul Qosimxo'ja kabi Toshkentning taniqli ulamolari boshchiligidagi mingga yaqin kishi hokim qarorgohi tomon yurish qiladilar. S.V.Putinsev va Muhammad Yoqub boshchiligidagi shaharliklarga qarshi turgan politsiyachilar halq tomonidan toshbo'ron qilinadilar. Hokim va uning mirshablarini do'pposlash bilan birga hokimning mahkamasi ham ostin-ustun qilindi. Toshkentliklarga qarshi harbiy qurolli kuchlar qarshi qo'yildi va halq soldatlar tomonidan ayovsiz o'qqa tutildi. Oqibatda ko'plab kishilar o'ldi va yarador bo'ldi. Jazolash vaqtida 60 kishi asir olindi. Hibsga olinganlar uzoq muddatlarga qatorga va qamoq jazolariga, 8 kishi esa o'lim jazosiga mahkum etildi. Toshkentdagi «vabo isyoni» deb nom olingan milliy-ozodlik harakati vabo bahonasida kelib chiqmagan edi. Bu isyon mustamlakachi rus ma'muriyati olib borayotgan zulm va zo'ravonlikka asoslangan idoraga qarshi uzoq yillar davomida norozilikka aylanib kelayotgan edi. Vabo faqatgina bir turtki bo'lgan edi holos¹⁰¹⁰.

1893 yil 16 martda shaxsan imperatorning roziligi asosida qo'zg'olonning oldini ololmaganligi uchun Turkiston general gubernatori Grodekov va Toshkent shahar hokimi Putinsevlar lavozimidan olindi. Putinsev o'rniga Toshkent uezdi boshlig'i polkovnik Tveritinov tayinlandi¹⁰¹¹.

Mustamlaka ma'muriyati garchand vaboga qarshi choralar ko'rgan bo'lsada, lekin uni amalda bartaraf etishga yetarli e'tibor bermadi, oqibatda Toshkent shahrida 1892 yil 7 iyun - 9 avgust orasida o'zbeklardan 1438 kishi kasallanib, 1389 kishi vafot etgan, imperiya qo'shinlaridan esa 407 kishi kasallanib, 213 kishi vafot etgan, ya'ni jami 1835 kishi kasallanib, ulardan 1602 nafari vafot etgan edi. Vabo kasalligi Farg'ona vodiysiga ham tarqaldi va u yerda ham 10277 kishi vafot etdi, bu esa Farg'ona viloyatida ham keskinlikni kuchaytirib yubordi. Oqibatda u yerda ham harbiy holat joriy etilib, nazorat va ta'qib kuchaytirildi¹⁰¹².

¹⁰¹⁰ Тошкентдаги 1892 йилда содир бўлган вабо исёни ҳақида Х.Зиёевнинг “Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш” номли монографиясида батафсил маълумот берилган.

¹⁰¹¹ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: “Шарқ”, 1998. 382-б.

¹⁰¹² Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: “Шарқ”, 1998. 382-б.

General gubernatorlikning markazida bo‘lib o‘tgan bu kurashdan so‘ng mustamlakachi hukumat nihoyatda qattiq tashvishga tushib qoldi. Turkiston o‘lkasida mirshablik holati joriy etildi. «Davlat tartibi va jamoat osoyishtaligini muhofaza etishga doir choralar haqida Nizom» (1887) va 1892 yil 18 iyundan kuchga kiritilgan «Harbiy holatda deb e‘lon qilingan joylar haqida Qoidalar» Turkiston o‘lkasida joriy etildi. Harbiylar va politsiyaning vakolatlari kengaytirildi. O‘lkada harbiy holat e‘lon qilindi. Rus mustamlakachi hukumati o‘lka aholisining doimo qo‘rquv va xavotirda yashashga majbur qilish bilan birga, milliy madaniyat va ma‘rifatni ham cheklash, maorif va boshqalarda ruslashtirish siyosatini avj oldirishga kirishdi. 1895 yildan boshlab o‘lkada rus tuzem maktablari ochila boshlandi. Turli siyosatlari va tadbirlari bilan rus mustamlakachilari mahalliy halqlar ustidan hokim ekanliklarini namoyish etib turdilar.

1898 yil Andijonda Muhammad Ali (Dukchi Eshon) boshchiligidagi halq harakati. Chorizmning Turkistondagi halqlarning vatanparvarlik, kurashchanlik tuyg‘ularini barbod qilishga har qancha urinmasin, o‘lkaning eng markaziy qismlarida qo‘zg‘olon davom etib turdi. Rus mustamlakachiligi siyosati va hukmronligiga qarshi navbatdagi qo‘zg‘olon 1898 yilda Andijonda bo‘lib o‘tdi va bu kurashga Dukchi Eshon (Muhammad Ali halfa) boshchilik qildi. Muhammad Ali Muhammad Sobir o‘g‘li Marg‘ilonga qarashli Shaxidon qishlog‘ida dunyoga kelgan. U yoshligida Buxoroda va keyinchalik Andijonda Sultonxonto‘ra Eshon huzurida tarbiya topadi. Hayoti davomida kishilarga ezgulik va savob ishlarni ko‘p qiladi¹⁰¹³. Sultonxonto‘ra vafotidan so‘ng esa uning vasiyati bilan Eshonning o‘rniga pir bo‘lib qoladi¹⁰¹⁴. 1887 yilda Muhammad Ali Eshon Makka safariga otlanadi va Afg‘oniston, Hindiston, Eron, Saudiya Arabistoni, ortga qaytishda esa Rossiyaning janubiy o‘lkalarida bo‘lib, u yerlardagi taraqqiyot va halq turmushini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, katta taassurotlar bilan Farg‘onaga qaytadi¹⁰¹⁵. Eshon chet el safarida o‘rganib kelgan ayrim ishlarning aholi

¹⁰¹³ Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи Эшон воқеаси. Тошкент, “Ўзг‘ор”. 1992. 6-б.

¹⁰¹⁴ Алиназар Эгамназаров. Сиз билган Дукчи Эшон. Тошкент, “Шарқ”. 1994. 22-б.

¹⁰¹⁵ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). - T.: «Sharq», 2010, 216-217-бб.

ko‘z o‘ngida bajargach, halqning unga bo‘lgan e‘tiqodi va ehtiromi yanada oshib boradi. Muridlari uning hovlisidagi 12 gazli minorasini 34 gazga ko‘tarib pishiq g‘isht bilan yangilab berishadi va 500 otga mo‘ljallangan otxona qurib berishadi. U har kuni yetim-yesirlar va beva bechoralarga ovqat qilib ulashadi¹⁰¹⁶. Muhammad Alining halq orasida obro‘si nihoyatda oshib ketganligi mustamlaka hukumatini tashvishga solib qo‘yadi. 1895 yilda Eshonning huzuriga Qurbonjon dodxoh tashrif buyuradi. Bu vaqtda uning o‘g‘li Kamchinbek rus amaldorlarini o‘ldirganlikda ayblanib, osib o‘ldirilgan edi. Qurbonjon dodxoh esa yana mustamlakachilarga qarshi butun qirg‘izlarni qo‘zg‘olonga ko‘tarishi mumkinligi va ayniqsa, uning Dukchi Eshon bilan uchrashuvi mustamlakachi hukumatni qattiq tashvishga soladi¹⁰¹⁷. 1896 yili esa Ko‘gart va Ketmontepa qirg‘izlari vakillari Muhammad Ali Eshon huzuriga kelib, rus mujiklarining zo‘ravonliklari ustidan shikoyat qilib kelishadi. 1897 yil oxirida bu qishloqlarning aholisi bir yerga to‘planib, Chibil oqsoqol va qozoq noibi Mullo Raxmatulla boshchiligidagi ruslarga qarshi urush rejasini ishlab chiqishadi. Bundan habar topgan rus ma‘muriyati zudlik bilan yetib keladi, biroq uni ma‘rakaga yig‘ilganliklarini aytib, tarqalishadi va Eshonni Mingtepaga kuzatib qo‘yishadi¹⁰¹⁸. Bunda e‘lon qilingan g‘azotga Muhammad Ali Eshon rahbar etib saylangan edi. Muhammad Ali Eshon darhol ishga kirishib, g‘azotga tayyorgarlikni boshlab yuboradi va Farg‘ona vodiysidagi mashhur kishilarga, jumladan, Muhammadaliboy, Somiy va Holikberdi oxun, Said Axmadxo‘ja, Qurbonjon dodxoh, Muhammad Yusuf eshon, Yaxyoxon to‘ra xoji va boshqalarga maktublari jo‘natadi. Biroq belgilangan vaqtga, ya‘ni 1898 yil 15 yanvarga aytilgan kishilarning hammasi ham kelmaydi. Oqibatda dastlabki urinish qoldiriladi. Bu orada mahalliy halqlarning Dukchi Eshon boshchiligidagi boshlanishi muqarrar bo‘lgan qo‘zg‘oloni haqida rus hukumati ham habardor bo‘ladi va uning oldini olish maqsadida turli fitnalar va ig‘volarni rejalashtira boshlaydi. Qo‘zg‘olonchilarning susayib qolgan tayyorgarliklari yana tezlasha

¹⁰¹⁶ Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи Эшон воқеаси. Тошкент, “Чўлпон”. 1992. 8-14-бб.

¹⁰¹⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакаси даврида. Тошкент, шарқ, 1998. 354-355-бб.

¹⁰¹⁸ Алиназар Эгамназаров. Сиз билган Дукчи Эшон. Тошкент, “Шарқ”. 1994. 37-б.

boshlaydi, biroq endi uni ko‘rinmas bir kuch boshqarayotgandek tuyuladi. 1898 yil 17 may kuni ikki yuzdan ortiq g‘azabga to‘lgan olomon Eshonning uyiga bostirib kelishadi va uni oq kigizga o‘tkazib, xon deb e‘lon qilishadi. Biroq, reja bo‘yicha uning jiyani Abdulaziz xon etib ko‘tarilishi lozim edi. Qo‘zg‘olonchilar shu yerdan to‘g‘ri Andijonga qarab yurish boshlaydilar. Yo‘l-yo‘lakay boshqa qishloqlarning aholisi ham qo‘zg‘olonchilarga qo‘shilib boradi. Qo‘zg‘olonchilar Andijonning eski shaharida joylashgan 20-Turkiston liniya batalyoni kazarmasiga bostirib kirishadi. Ular 30 ga yaqin miltiqni o‘lja olib, uxlab yotgan soldatlarni o‘ldirishadi. Biroq, keyingi xonalarda yotgan kazaklar uyg‘onib, qo‘zg‘olonchilarga qarshi otishmalarni boshlab yuboradilar. Bir necha daqiqa davom etgan otishmalardan so‘ng qo‘zg‘olonchilar chekinadilar¹⁰¹⁹. Ko‘plab qo‘zg‘olonchilar o‘ldiriladi va yarador qilinadi. Kazaklardan 23 kishi o‘ldiriladi¹⁰²⁰. Qo‘zg‘olondan habar topgan podsho Nikolay II Turkiston general gubernatori biron Vrevskiyni lavozimidan chetlashtirib, o‘rniga vaqtincha Sirdaryo harbiy gubernatori N.I.Korolkovni tayinlaydi¹⁰²¹.

N.I.Korolkov jazo ekspeditsiyasi tashkil etib, qo‘zg‘olon bo‘lgan hududlarda ko‘plab qirg‘inlar va jazolarni amalga oshirdilar. Minterada uch soat davomida to‘plardan o‘q uzib, uni yer bilan yakson qildilar. Aholini ko‘chirib yubordilar. Ko‘plab aholi esa bungacha tog‘larga qochib ketishga ulgurgan edi. Andijonda ham ko‘plab odamlar qamoqqa olindilar. Qochib ketgan Muhammad Ali Eshon Arslonbob yaqinidagi Toshko‘prik degan joyda millatfurush qo‘qonqishloqlik Qodirqul va Yoqub qo‘rboshilar tomonidan ushlab olinib, rus ma‘muriyatiga topshirildi. Shunga qaramay qo‘zg‘olonlar davom etdi va kuz fasligacha cho‘zildi¹⁰²².

Qo‘zg‘olon natijasida hibsga olinganlar ko‘pchilikni tashkil etgan va rus hukumati tomonidan shafqatsiz jazolangan. Qamoqqa olingan 400 dan ortiqroq tutqunlar umumiy hisobda 4621 yilga qamoq qatorga ishlariga hukm qilinganlar.

¹⁰¹⁹ Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи Эшон воқеаси. Тошкент, “Чўлпон”. 1992. 27-30-бб.

¹⁰²⁰ Алиназар Эгамназаров. Сиз билган Дукчи Эшон. Тошкент, “Шарк”. 1994. 44-47-бб.

¹⁰²¹ ЎзР МДА. 1- жамғарма, 4-рўйхат, 94-й.ж., 38-варақ.

¹⁰²² Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи Эшон воқеаси. Тошкент, “Чўлпон”. 1992. 30-б.

Qo‘zg‘olon qatnashchilaridan ja‘mi 777 kishi hibsga olinib, tergov qilindi. Tergovdan keyin 415 kishi sud qilindi, ulardan 32 kishi oqlandi va 380 kishi o‘zlim jazosiga hukm qilindi. Bir kishi umrbod qamoq jazosiga va uch kishi tarbiyaviy lagerga tortildi. Imperatorning “marhamati” bilan o‘limga mahkum etilgan 380 kishidan 18 nafari (boshqa bir ma‘lumotda 21 kishi) osib o‘ldirilgan. Qolgan 362 kishiga belgilangan hukm turli jazolar bilan almashtirildi, jumladan, 3 kishi umrbod katorgaga, 147 kishi 20 yilga, 41 kishi 15 yilga, 1 kishi 13 yilga, 1 kishi 8 yilga, 47 kishi 7 yilga, 4 kishi 4 yilga, 15 kishi Sibirga surgun qilishga va 3 yosh bolalar tarbiyaviy qamoqqa hukm etildilar¹⁰²³.

1898 yil 12 iyunda Andijon shaxrida majburiy suratda axoli, jumladan, bolalar to‘planib, ularning huzurida Eshon Muhammad Xalfa qo‘zg‘olonga raxbarlik qilgan 5 nafar safdoshi – G‘oyibnazar Ortiqxo‘ja o‘g‘li, Subxonqul Arabboyev, Rustambek Sotiboldiyev, Mirza Hamdam Usmonboyev va Bo‘tavoy G‘onboyev bilan birga dorga osib o‘ldirilgan, shu yerga ko‘milgan va tekislab yuborilgan. Mustamlaka hukumati qo‘zg‘olonchilarni qattiq jazolash bilan birga Tojik, Qashqar va Qutchi qishloqlaridagi barcha xonadonlarni buzib tashlab, 680 oilani Qaqir degan dashtga xaydaydi. Bu yerga esa Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan 200 ta rus oilasi o‘rnashtiriladi¹⁰²⁴.

Shu tariqa 1898 yil may oyida Andijon halqi tomonidan rus mustamlaka siyosati va hukmronligiga qarshi Muhammad Ali Eshon boshchiligida yuz bergan qo‘zg‘olon mag‘lubiyatga uchradi.

XX asr boshlarida dexqonlar harakati. Namoz Pirimqulov boshchiligidagi halq harakati. XX asr boshlariga kelib, o‘lkadagi bunday harakatlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Shu bilan birgalikda o‘lkada demokratik inqilobiy harakatlar ham keng avj ola boshladi. Mustamlaka sharoitda ishchilarning shakllanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan, xususan, xonavayron bo‘lgan dehqonlar va hunarmandlar hisobiga kengayib borayotgan ishchilar sinfi imperiyaning

¹⁰²³ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. Т.: “Шарқ”, 1998. 397-бет.

¹⁰²⁴ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. Т.: “Шарқ”, 1998. 397-бет.

markaziy rayonlarida kuchayib borayotgan demokratik kuchlar ta'sirida bu harakatlarda asta-sekin ishtirok eta boshladilar. O'lkadagi bir qancha shaharlarda siyosiy talablarni o'zida aks etgan namoyishlar bo'ldi. Ayniqsa, 1900-1903 yildagi iqtisodiy inqirozlar, 1904-1905 yildagi rus-yapon urushida Rossiya ko'rgan zararlari o'lkadagi ham mahalliy aholining ahvoriga salbiy ta'sir etishi dehqonlar ommasini ham yana norozilik harakatlari bilan chiqishiga turtki berdi. Oqibatda o'lka viloyatlarida vaziyat yanada keskinlashb ketdi. Samarqand viloyatida dehqonlarning g'alayonlari natijasida yuzaga kelgan Nomoz Pirimqulov boshchiligidagi harakatlar Turkistonda dehqonlar harakatining asosiy hal qiluvchi kuchiga aylandi. Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati o'lkadagi bunday harakatlarni doimo zudlik bilan bostirib turdi. Shu bilan birgalikda milliy mustaqillikka intilayotgan, mahalliy ziyolilarga ham doimo ta'qib o'tkazib keldi¹⁰²⁵.

XX asr boshlariga kelib Rossiya imperiyasi siyosiy va iqtisodiy jihatdan inqiroz yoqasiga kelib qoldi. Mamlakatning hamma burchaklarida hukumatga qarshi chiqishlar, g'alayonlar, ish tashlashlar va qo'zg'olonlar avj oldi. 1901 yil hosilsizlik tufayli yuzaga kelgan ocharchilik va iqtisodiy tanglik, 1904-1905 yillardagi rus-yapon urushidagi mag'lubiyat umumiy ahvolni yanada og'irlashtirib yubordi. Vaziyatdan qutulish uchun hukumat soliqlarni oshirib yubordi. Oqibatda qishloqlardagi dehqonlar xonavayron bo'ldilar. Rossiyada yuz berayotgan bu iqtisodiy va siyosiy bo'xronlarning to'liqini Turkistonga ham yetib keldi. Turkiston dehqonlari ham mustamlakachi hukumatga qarshi ko'plab g'alayonlar ko'tardilar. 1905 yil qish oylarida Farg'ona viloyati, Samarqand va Andijon hamda Sirdaryo viloyatlarida dehqonlarning g'alayonlari avj oldi. Namangan uezdining Yangiqo'rg'on, Sarisuv, Bog'ish volostlarida saylovlar vaqtida ko'tarilgan g'alayonlar tufayli saylovlar ham amalga oshirilmadi. Bunday g'alayonlar Chotqol volostida, Tepaqo'rg'on, Qirchin, Qorasuv, Oltin qayrag'och, Oq yo'l va boshqa qishloqlarda ham bo'lib o'tdi¹⁰²⁶. 1905 yil Namangan uezdiga qarashli Sariqsuv volostining Aflotun qishlog'ida bir yarim

¹⁰²⁵ Бобожонова Д., Жўраева Н. Ўзбекистон тарихи. Тошкент, 2011. 227-б.

¹⁰²⁶ Илҳомов З. Хўжаев М. Ўзбекистон тарихи (XVI-XX аср бошлари). Тошкент. 2002. 65-74-бб.

mingdan ortiq qirg'izlar to'planib, ellikboshi va saylov o'tkazuvchi amaldorlarni do'pposlashdi.

1905 yil bahoriga kelib Farg'ona viloyatida dexqonlar harakatlari, g'alayonlari, amaldorlarni do'pposlash, saylovlarning adolatsizligiga qarshi norozilik va hokimiyatga talablar bilan chiqishlar ko'paydi. Yuzaga kelgan bunday vaziyat rus mustamlakachi ma'muriyatini qattiq tashvishga soldi va ular Turkistonda ahvolning nihoyatda, jiddiy tus olganligini e'tirof etib, o'lkada «kuchaytirilgan muhofaza» holatining muddatini uzaytirishni maqsadga muvofiq deb topdilar. Biroq keskinlashib borayotgan ziddiyatli vaziyatni bartaraf etishga ojizlik qildilar¹⁰²⁷.

Turkiston o'lkasining turli joylarida dexqonlar g'alayonlari ozodlik harakatlari davom etib turdi. XX asr dastlabki o'n yilligida Turkistonda sodir bo'lgan eng yirik dexqonlar harakatlari Namoz Pirmqulov boshchiligidagi harakat edi. Halq tomonidan «Namoz botir» deb ulug'langan bu inson mustamlakachilar tomonidan «Namoz o'g'ri» sifatida atalib, unga qarshi jinoiy ishlar qo'zg'adilar, uning qilayotgan ishlarini «o'g'rilik va talonchilik» deb atab, soxta ma'lumotlar har doim vaqtli matbuotda halqqa noto'g'ri yetkazib bera boshladilar¹⁰²⁸.

Namoz Pirmqulov 1904-1907 yillarda Samarqand viloyatining tog' va qishloqlarida mustamlakachilar va ularning ittifoqlariga aylangan mahalliy boylar va savdogarlarga qarshi kurash olib bordi. Namoz halqqa zarari tegayotgan, halqni zo'ravonlik va sudxo'rlik bilan talayotgan yuqori tabaqa vakillarini ayovsiz jazolab, ulardan tortib olingan mollarni beva bechoralarga va kambag'allarga bo'lib bera boshladi. Shunday harakatlardan biri 1905 yil 10 mayda Kattaqo'rg'on bozorida amalga oshirildi. Namoz va uning odamlari bozorni o'rab olib, bozordan qaytayotgan boylar va savdogarlarni talab, o'lja olingan mollarni shu yerning o'zidayoq kambag'allarga ulashib beradilar. Og'alik qishlog'i oqsoqoli Amin Nazar Muhammad, Arabxon qishlog'i mingboshisi Xidirboyev, yana bir mingboshi Lutfulla Xo'jayevlar mustamlakachilarga sodiq hizmatkor bo'lganliklari uchun Namoz va uning odamlari

¹⁰²⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакаси даврида. Тошкент, шарқ, 1998. 390-б.

¹⁰²⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакаси даврида. Тошкент, шарқ, 1998. 392-б.

tomonidan o'ldirildilar va qo'rg'onlarga o't qo'yib, mol-mulki halqqa ulashib berildi¹⁰²⁹.

1905 yil yoz va kuz oylarida Jomda va boshqa joylarda katta savdo karvonlari qo'lga olinadi. Biroq shu vaqtda Xo'jaariq volosti boshqaruvchisi Lutfulla Xo'jayevning xoinligi tufayli Namoz va uning 50 kishidan iborat sheriklari kapitan Polov qo'shinlari tomonidan hibsga olinadi. Namoz qamoqdan yer ostidan laxm kavlab qochib ketishga muvaffaq bo'ladi. Shu voqeadan so'ng Namozchilarga qarshi jazo otryadlari ishlarini shaxsan Turkiston general gubernatori N.I.Grodekov nazorat qila boshlaydi. Namoz yigitlari orasiga josuslar yuborila boshlandi. Shunday josus va xoinlardan biri Shirin Muhammadov ismli kimsa edi¹⁰³⁰.

Mustamlaka ma'muriyati Namoz va uning yigitlarini tutish ishlarini kengaytirib boradi va bir qator harbiy bo'linmalarni shu ishga jalb qiladi. Bu operatsiyaga rahbar etib Samarqand harbiy gubernatori yordamchisi polkovnik Susaninni tayinlaydi. Amir Abdulaxadxon ham namozni tutish operatsiyasiga jalb etiladi¹⁰³¹. Bu ishlarni 1907 yil 28 mayda boshlashni nazarda tutib, Buxoro cheragasida 12 post, Samarqand va Kattaqo'rg'on hududlarida 10 ta kuzatuv postlari qo'yiladi. Amir ham o'z sarbozlarini shu ishga jalb etadi. Oqibatda, bo'lib o'tgan tengsiz janglardan so'ng Namoz va uning yigitlari katta talofatlarga uchraydilar. Biroq shu vaqt namozchilar orasida fitna qo'zg'alib, Namoz Pirimqulov o'ldiriladi. Namozning o'limi bilan o'lkadagi dexqonlar g'alayonlari to'xtab qolmadi va mustamlaka hukumatini daxshatga solib vaqti-vaqti bilan ko'tarilib turdi.

1916 yilda Turkiston halqlarining podsho Rossiyasi siyosatiga qarshi harakatlari. 1916 yil "Jizzax qo'zg'oloni". Turkistonda imperiyaning mustamlaka hukumati zo'rvonlik siyosatiga qarshi Turkiston xalqlari tomonidan amalga oshirilgan eng yirik va o'lka

¹⁰²⁹ ЎзР МДА. 17- жамғарма, 1-рўйхат, 14346-й.ж., 59-варақ.

¹⁰³⁰ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакаси даврида. Тошкент, шарқ, 1998. 395-396-бб.

¹⁰³¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакаси даврида. Тошкент, шарқ, 1998. 395-396-бб.

bo‘ylab juda katta ko‘lamlarda yoyilgan, qurolli kurash darajasiga ko‘tarilgan milliy ozodlik harakatlaridan biri tarixda “Jizzax qo‘zg‘oloni” deb nom olgan 1916 yilgi milliy - ozodlik kurashlari edi. Rossiya imperiyasi birinchi jahon urushiga kiringach, tez orada uning harbiy va iqtisodiy salohiyati Yevropa davlatlariga nisbatan ancha qoloq va zaif ekanligi ayon bo‘lib qoldi. Frontdagi yetishmovchiliklar, o‘q-dori va oziq-ovqat mahsulotlarining yetarli emasligi, front ortidagi ishlarning susayib ketganligi Rossiya imperiyasi hukumatini Turkistonga nisbatan mustamlakachilik zulmini yanada oshirishga olib keldi. Turkistondan Rossiyaga olib ketiladigan mahsulotlarning miqdori va hajmi ko‘paytirildi, Turkiston xalqlari uchun harbiy soliqlar miqdori oshirildi. Harbiylikka olinishi ta‘qiqlangan Turkistonliklarni «front ortida armiya extiyojlarini qondirish» maqsadida mardikorlik ishlariga olishga qaror qilindi. Podsho Nikolay II 1916 yil 25 iyunda “Imperiyadagi rus bo‘lmagan aholini harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo‘llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo‘ladigan boshqa har qanday ishlarga safarbar qilish haqida” deb nom olgan farmonga imzo chekdi¹⁰³².

Mazkur farmonga ko‘ra “front orqasidagi xizmatlar uchun Turkiston, Sibir va Kavkazda 19 yoshdan 43 yoshgacha bo‘lgan erkaklarni safarbar qilish» ko‘zda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra, Sirdaryo viloyatidan 87 ming, Samarqand viloyatidan 38 ming, Farg‘ona viloyatidan 50 ming mardikor yuborish belgilandi va bu vazifalarni zudlik bilan amalga oshirish Turkiston general gubernatori zimmasiga yuklatildi¹⁰³³.

“Mardikorlikka olish”

1916 yil

1916 yil 25 iyunda podsho Nikolay II ning «Imperiyadagi rus bo‘lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida harbiy inshootlar va davlat mudofaasi uchun zarur bo‘lgan boshqa ishlarga jalb qilish» farmoniga muvofiq, Sibir, Qozog‘iston, O‘rta Osiyo va Gruziya mahalliy aholisidan

¹⁰³² ЎЗР МДА. 1- жамғарма, 31-рўйхат, 100-й.ж., 44-варақ.

¹⁰³³ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. Т.: “Шарқ”, 1998. 404-405-66.

19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan 400 ming erkak safarbar qilinishi mo'ljallandi. Farmonga ko'ra Turkistondan 250 ming kishi safarbar qilinishi kerak edi. Bu farmon tub aholini qaxr-g'azabi va noroziligini yanada qo'zg'atib, qo'zg'olon ko'tarilishiga turtki bo'ldi. Qo'zg'olonlar bostirilib, Rossiya imperiyasining Turkistondagi mutamlakachi hukumati general gubernatorlik viloyatlarida imperator farmonini amalga oshirishga kirishdi. Bu harakat xalq orasida "mardikorlikka olish" nomi bilan yuritildi. Xalqning qattiq qarshiligi tufayli 123000 dan ortiq fuqaro mardikorlikka safarbar qilindi. Ulardan 101600 kishi Rossiyaning shimoliga, 4000 kishi Sibirga, 7405 kishi Kavkazga jo'natildi. 10 mingdan ortiq kishi Turkiston o'lkasida ishlatildi. Ular Moskva, Peterburg, Ryazan, Tula, Oryol, Smolensk, Qozon, Samara, Perm, Yekaterinburg, Orenburg, Kiyev, Xarkov, Yekaterinoslav, Odessa, Zaporozhye, Kerch, Tbilisi, Botumi va boshqa joylardagi sanoat korxonalarida, konlarda, temir yo'llar qurilishlarida, o'rmonlarda ishladilar. Mardikorlikka safarbar etilgan fuqarolar 1917 yilda Rossiya podshosi va hukumati taxtdan ag'darilgandan keyin yurtlariga qaytishga muvaffaq bo'ldilar.

O'z navbatida ko'rsatilgan viloyatlar gubernatorlari farmon ijrosini ta'minlashga kirishdilar. Bu farmon haqidagi xabarlar Turkiston o'lkasiga juda tez tarqaldi va butun o'lkani larzaga soldi, turli joylarda aholining norozligi kuzatila boshlandi. Vaziyatning nihoyatda qaltisligini anglagan Farg'ona viloyati harbiy gubernatori A.Gippius viloyatdagi sharoitni hisobga olib, bu farmonni birdaniga bajarish noto'g'ri ekanligi haqida yuqori hokimiyatni ogohlantiradi. Biroq u farmonning ijro etilishini ataylab buzganlikda ayblab ishdan olib tashlandi va o'rniga shovinist harbiylaridan biri polkovnik P.Ivanov tayinlanadi. Mardikorlikka olishga qarshi o'lkaning turli hududlarida qo'zg'olonlar boshlanib ketadi. Norozilik harakatlari dastlab aholi zich joylashgan markazlaridan biri Xo'jandda boshlanadi. 1916 yilning 4 iyul kuni 6000 dan ortiq erkaklar va ayollar ma'muriyatga qarshi ochiqdan - ochiq mardikorlikka farzandlarimizni bermaymiz, deb qo'zg'olon ko'tardilar. Qo'zg'olonning oldida B,Abdumadaminov, Dadaboy masharipov, Yaxyoxon qori Olimxonov, Eshonxon Mirzao'rinov kabi kishilar va xattoki ayollar ham bor edi¹⁰³⁴. Qo'zg'olon harbiylar tomonidan bostirildi va namoyishchilar o'qqa

¹⁰³⁴ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: "Шарқ", 1998. 405-б.

tutildi. Qo'zg'olonchilardan uch kishi o'ldirildi va to'rt kishi yarador qilindi.

Xuddi shunday harakat Samarqand viloyatining Urgut tumanida 5 iyul kuni bo'lib o'tdi. Mardikorlar ro'yxati yo'q qilindi, mahkama hizmatchilari kaltaklandi. Samarqand viloyatining Siyob, Xo'ja Ahror, Angor va boshqa volostlari va qishloqlarida ham shunday chiqishlar sodir bo'ldi.

7 iyul kuni Daxbed qishlog'ida xoin Saidmurod Qobilov tuzgan ro'yxatda faqat kambag'allarning bolalari yozilgani uchun halq Usmon Abdurasulov boshchiligida mahkama hizmatchilarini kaltakladilar. Bunda Usmon Abdurasulov yaralandi va qo'zg'olon katta kuch bilan bostirildi. Bo'lis boshqaruvchisining mirzasi Qobilov esa bu harakatlar natijasida o'ldirildi. Qo'zg'olonchilardan esa 24 kishi hibsga olindi.

Butun o'lkada Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi qo'zg'olonlar kuchayib bordi. 9 iyul kuni Andijonda, Toshkent shahri atrofidagi bir qator qishloqlarda 10 iyul kuni eski Marg'ilonda, Shahrixon va boshqa joylarda dexqonlar va hunarmandlar, kosiblar va boshqalarning chiqishlari umumhalq qo'zg'oloni va kurashiga aylanib ketdi.

1916 yilgi xalq harakatlari Farg'ona viloyatining beshta uezdiga: Andijon, Qo'qon, Namangan, Skobelev (Farg'ona) va O'sh uezdlariga yoyildi. Rasmiy hujjatlarga ko'ra Farg'ona viloyatida kamida 107 joy da, Samarqand viloyatida 25 joyda, Sirdaryo viloyatida 20 joyda qo'zg'olon va g'alayonlar bo'lib o'tganligi qayd etilgan. 1916 yilning iyul o'rtalarida bo'lib o'tgan Marg'ilon qo'zg'olonida 25 mingdan ortiq xalq qatnashdi. Ularning aksariyati kambag'al dehqonlar, kosib va hunarmandlardan iborat bo'lib, ular tengsizlik va haqsizlikka qarshi kurashga chiqqan edilar. Biroq mahalliy hukumat ma'murlari harbiy qo'shinlar yordami bilan bu qo'zg'olonni bostirishga erishdi. Qo'zg'olonchilardan 63 kishi katorgaga va surgunga jo'natildi. Bular orasida Nurmuhammad Ma'zumov, Tojiboy Miraliyev, Layliboy Qosimboyev, Shermuhammad Habibullayev, Qodirjon Mamasodiqxo'jayev, Kamoliddin Holliyev va boshqalar bor edi¹⁰³⁵.

¹⁰³⁵ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). - T.: «Sharq», 2010. 320-b.

Ochil Bobojonov, Rahimberdi Ikromov, Maxmudxo‘ja Mirzaxo‘jayevlar boshchiligida mardikorlikka olish ishlariga qarshi bo‘lgan va faqatgina kambag‘allarning bolalari ro‘yxatga kiritilganidan norozi bo‘lgan Toshkent aholisi ham 11 iyulda ma‘muriyatga qarshi norozilik namoyishi va qo‘zg‘olon boshladi. Qo‘zg‘olonda ayollar ham faol ishtirok etdi. Qo‘zg‘olonchilar politsiyachilar tomonidan o‘qqa tutildi va bir qancha qo‘zg‘olonchilar og‘ir yarador bo‘ldilar. G‘azablangan halq politsiyachilar va kazaklarga qarshi chinakam urush boshlab yubordilar. Oqibatda, chor askarlari politsiya boshqarmasi ichiga kirib yashirib olishga majbur bo‘ldi. Qo‘zg‘olon kechgacha davom etdi va general Galkin hamda podpolkovnik Savitskiylar boshchiligidagi jazo otryadlari tomonidan bostirildi,

Jizzaxdagi norozilik harakatlari esa tom ma‘nodagi ozodlik urushiga aylanib ketdi. Podsho farmoniga ko‘ra Jizzax viloyati bo‘yicha 10531 kishi mardikorlikka safarbar etilishi kerak edi. Shu jumladan Jizzax shahridan 655 kishi, Zomin volosti bo‘yicha 731 kishi, Sangzor volostidan 2891 kishi, Sintob volostidan 508 kishi, Bog‘dod volosti bo‘yicha 2311 kishi front orqasidagi ishlarga olinishi ko‘rsatildi. Ammo podshoning safarbar bo‘yicha tadbirlari mehnatkash xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadi, aksincha, ommaning qahr g‘azabi va nafrati kuchayib, ommaviy qo‘zg‘olonga aylanib ketdi¹⁰³⁶.

Jizzahliklar dushmanga qarshi g‘azovot e‘lon qildilar. Qo‘zg‘olonga Nazirxo‘ja eshon va Abdurahmon jevachi boshchilik qildilar. Qo‘zg‘olon 13 iyulda shahar oqsoqolining o‘ldirilishi bilan boshlandi. Halq mingboshi maxkamasiga bostirib kirganda, jazo uchun yetib kelgan polkovnik Rukin otryadlari qo‘zg‘olonchilarni o‘qqa tuta boshladi. Biroq qo‘zg‘olonchilar chor askarlariga zarba berib, Rukin va uning yordamchilarini o‘ldirishga muvaffaq bo‘ldilar¹⁰³⁷.

Yordamga yetib kelgan polkovnik Afanasyevning jazo otryadi ham Yangi Jizzax stansiyasida turib qolishga majbur etildi. Atrofdagi qishloqlardan kelayotgan halq qo‘zg‘olonchilar safini kengaytirdi. Qo‘zg‘olonchilar temir yo‘l stansiyalari, ulardagi neft zaharlari, aloqa

¹⁰³⁶ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). - T.: «Sharq», 2010. 310-b.

¹⁰³⁷ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: “Шарқ”, 1998. 406-б.

simlarini vayron qildilar va yo‘q qildilar. Afanasyev qo‘shinlari o‘z marralaridan chekina boshladilar.

14 iyulda qo‘zg‘olon Bog‘don, Forish, Kitob bekliklariga xam tarqaldi. Qo‘zg‘olonga rahbarlik qilgan Abduraxmon jevachi Jizzaxliklar bilan birlashishga qaror qildi. Biroq bu paytda Jizzaxga Toshkentdan 2,5 ming kishilik jazo otryadlari to‘p na boshqa qurollar bilan kelayotgan edi. Nazirxo‘ja eshon boshchiligidagi jizzaxliklar jazo otryadlari tomonidan ayovsiz o‘qqa tutildi va ulardan omon qolgan 600 kishilik guruh Abdurahmon jevachi qo‘shinlari saflariga qo‘shildi. Abduraxmon jevachi 20-21 iyul kunlari Afanasyev qo‘shinlariga zarba berib, uni chekinishga majbur qildi va mag‘lubiyatga uchratayotgan vaqtda polkovnik Ivanov otryadlari yordamga yetib keldi va qo‘zg‘olonchilarga zarba berdi. Qo‘zg‘olonchilar mag‘lubiyatga uchratilgach, qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tgan barcha shahar va qishloqlarda ayovsiz jazo ishlari, xunrezlik amalga oshirildi. Abdurahmon jevachi va u bilan bir safda turib kurashgan 12 kishi osib o‘ldirildi.

Jizzax qo‘zg‘olonida ishtirok etgan va qamoqqa olinganlar ustidan shoshilinch suratda harbiy dala sudlari tashkil etilib, tegishli choralar ko‘rildi. Jumladan, Jizzax qo‘zg‘olonining rahbari Nazirxo‘ja Abdusalomov boshchiligida 76 kishi ustidan 1916 yil 23-avgustda Zakomolskiy raisligida yopiq harbiy sud majlisi bo‘ldi. Sud ishi yakuniga ko‘ra 32 kishi otuvga hukm qilindi. 1916 yil 10-sentabrda hukm ijro etilib, Nazirxo‘ja Abdusalomov, Jaynoq Abdurahmonov, Ziyoqori Abdullayev, Muhammadrahim Abdurahimov va boshqalar osib o‘ldirildi, ko‘plari Sibirga surgun qilindi¹⁰³⁸.

Qo‘zg‘olon bostirilgan bo‘lsa xam, chor harbiylaridan kattagina qismi Jizzaxda o‘lim topdi. Qo‘zg‘olon davomida rus xarbiylaridan 260 ga yaqin, rus aholisidan esa 4000 ga yaqin kishi o‘ldirildi va bedarak yo‘qoldi. Bu xaqda 1916 yil 13 dekabrda IV davlat dumasida so‘zga chiqqan noib F.Kerenskiy -

¹⁰³⁸ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). - T.: «Sharq», 2010. 316-b.

“urush frontlariga yangi bir front - Turkiston fronti qo‘shildi”, - deb ta’kidlagan edi. Imperiyaning mustamlakachi ma’muriyati, qo‘zg‘olonlarni bostirib, o‘z maqsadlariga qisman erishgan bo‘lsada, bu bilan Turkiston xalqlarining milliy ozodlikka bo‘lgan intilishini yo‘q qila olmadi.

Tayanch tushunchalar: Iqtisodiy zulm, siyosiy zulm, ma’naviy zulm. Jamoa yig‘imlari, missioner, “favqulodda muxofaza”, «Harbiy holatda» deb e’lon qilingan joylar haqidagi Qoida». «Kuchli muxofaza» holati. Milliy ozodlik harakatlari, qo‘zg‘olonlar, g‘alayonlar, qurolli kurashlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachi hukumati tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy zulmning mohiyatini ochib bering.
2. XIX asrning 80 - 90 yillarida Farg‘ona vodiysida yuz bergan milliy ozodlik kurashlarining xususiyatlariini ochib bering.
3. Sizing fikringizcha qo‘zg‘olonlar nima uchun mag‘lubiyatga uchradi?
4. Qurbonjon dodxoxning sarkardalik faoliyati va erishgan natijalarining axamiyati nimada?
5. Andijondagi Dukchi Eshon (Muxammad Ali halfa) boshchiligidagi qo‘zg‘olonning yutuqlari va kamchiliklari hakida fikringiz?
6. Nomoz Pirimqulov boshchiligidagi qo‘zg‘olondai so‘ng mustamlakachi xukumat qanday choralarni amalga oshirishga majbur bo‘ldi?
7. Jizzax qo‘zg‘oloni va uning xalqimizning milliy-ozodlik kurashlaridagi o‘rniga qanday baho berasiz?

XIX ASR O‘RTALARI - XX ASR BOSHLARIDA O‘RTA OSIYO HALQLARI MADANIY HAYOTI

- ❖ **Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka hukumatining maorif sohasidagi siyosati.**
- ❖ **Mustamlaka sharoitida Turkiston adabiyoti.**
- ❖ **Turkistonda matbuot va jurnalistik faoliyatning shakllanishi.**
- ❖ **Turkistonda xattotlik va kitobat, kitob bosish ishlarining shakllanishi.**
- ❖ **XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda tarixiy bilimlar va tarixshunoslikning yuksalishi.**
- ❖ **Turkistonga amalga oshirilgan ilmiy ekspeditsiyalar va tabiiy fanlarning rivojlanishi.**
- ❖ **Me’morchilik sohasida tarixiy an’analarning davom ettirilishi.**
- ❖ **Turkistonda qo‘shiqchilik, san’at va dostonchilik.**
- ❖ **Jadidchilikning shakllanishi, jadidlar maorifi va matbuot..**
- ❖ **Jadidlarning tarixiy – ilmiy qarashlari.**

Turkistonda chorizmiing maorif sohasidagi mustamlakachilik siyosati. Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilingach, mustamlakachilar o‘lkada keng miqyosli ruslashtirish siyosatini amalga oshirishga kirishdilar. Bunda o‘lka taraqqiyoti va ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan soha nazardan chetda qolmadi. XIX asr oxirlarida Turkiston o‘lkasida 313 ta madrasa, Buxoroda 103 ta, Xivada 8 ta madrasa bo‘lgan. 1913 yilda Turkistonda 7290 ta eski maktab mavjud bo‘lib, ularda 70 ming 864 nafar o‘quvchi ta’lim olgan. Ayollar maxsus maktablari – otinxonalar bo‘lib, XX asr boshlarida Farg‘ona viloyatida 33 ming nafar qizlar, Toshkentda esa 6 ming 200 nafar qizlar o‘qigan¹⁰³⁹. Bu bilim muassasalari mahalliy aholining savodxonligi, madaniyati va ma’rifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini mustamlaka hukumati ma’murlari ham tan olishga majbur bo‘lganlar¹⁰⁴⁰.

Turkistonda Rossiya imperiyasining mustamlaka boshqaruv tizimi o‘rnatilishi bilan bar vaqtda bu yerdagi mavjud madrasalar va ko‘p sonli maktablar, ulardagi o‘qitish jarayoni va tabiiy masalalari bilan tanishib chiqqan, bu bilim dargohlarining imperiya mustamlakachiligi va uning

¹⁰³⁹ Расулов Б. Из истории мусульманских мактабов и медресе Узбекистана. (XIX-20-е г. XX в). Автореферат дисс ... канд ист наук. Андижан. 1996.

¹⁰⁴⁰ Алимова Н. Россия империясининг Туркистонда миллий маданият соҳасида олиб борган сиёсати (1867-1917 йй). Тар фан номз дисс. Тошкент, 2004. 28-б.

Turkistonda amalga oshiradigan maqsadlarining ro'yobga chiqishi uchun g'oyatda havfli ekanligini angladilar va o'zlarining ruslashtirish borasidagi olib borgan siyosatlarida Turkiston maorifini ham rus maorifi tizimiga bo'ysundirish siyosatini qo'lladilar.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachi hukumati boshqaruvining dastlabki yillaridayoq Toshkent shahrining eski qismidagi maktab va madrasalarning rolini zaiflashtirish va o'lkada rus maktablarini joriy etish ishlarini rejalashtirgan edi. Eski shahardagi o'quv dargoxlari o'quvchilariga mustamlakachilik siyosatiga qarshi turuvchi guruxlar sifatida qaralardi. Dastlabki yillarda chor hukumati tub aholining maorif sohasiga aralashmagan bo'lsada, uni domiy ravishda nazorat ostiga olgan. U yerdagi o'quv sistemasini sekin-astalik va ehtiyotkorlik bilan tugatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Turkiston o'lkasining general-gubernatori K.P.Kaufman ham aynan shu siyosatning asoschilaridan biri edi. U «mahalliy maktablarni kuch bilan, ya'ni zo'ravonlik bilan yo'q qilish xavfli bo'lsa, ularni sezilarli darajada yo'q qilib borish biz uchun shunchalik foydali va manfaatlidir» — deb bejiz aytmagan edi¹⁰⁴¹.

Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin rus amaldorlari va harbiylarining bolalari uchun 1869 yildan boshlab Toshkentda dastlabki rus boshlang'ich maktabi ochildi. Turkistonda mahalliy aholi bolalari uchun XIX asr oxirlarida ochilgan rus-tuzem maktabi ham boshlang'ich maktab hisoblangan.

Toshkent shahri «yangi» qismidagi maktab ta'limining rivojlanishiga Juykova degan ayol ixtiyoridagi o'g'il va qiz bolalar uchun 1866 yil 1 iyulda birinchi rus maktabining ochilishi asos bo'ldi. Bu yerda zobitlarning bolalaridan tashqari unter-zobitlar, mirzalar, askarlarning bolalari ham o'qir edilar. 1867 yilda bu maktabda 11 qiz va 7 o'g'il bola o'qigan. Ularga duolar, qisqacha din tarixi, yozuv va qo'l hunarmandchiligi o'rgatildirdi. 1869 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, bu maktab ixtiyoriy xayrexsonlar va qisman davlat hisobidan ta'minlanib turilgan.

1870 yilda Toshkentda Turkiston o'lkasida maktab ishini tashkil etish haqidagi masalani muhokama qilish uchun hay'at tuzildi. Ular

¹⁰⁴¹ Исмоилова Ж. «Янги Тошкент». Маданий ҳаёт. Халқ маорифи. Тошкент. «Fan va texnologiya». 2004.

tomonidan tuzilgan loyiha bo'yicha:

1) oddiy rus kishilarining bolalari uchun bilim yurti ochish, bunda bolalarga boshlang'ich (elementar) ta'lim berish;

2) Gimnaziya ta'limini olishni xoxlagan amaldorlar, savdogarlar va boshqa shaxslar bolalari uchun bilim yurti ochish, oddiy bolalar esa tub aholi uchun ochilgan maktablarda o'qishlari mumkin» degan maqsad ilgari surilgan edi.

1871 yilda shaharning yangi qismida hunarga o'rgatiladigan uch sinfli xalq maktabi faoliyat ko'rsata boshladi.

1876 yilda erkaklar va ayollar gimnaziyasi ochilib, unda 1878-1879 o'quv yilida quyidagi fanlar o'qitilgan: rus, fransuz, nemis, lotin, yunon tillari, din aqidalari, matematika, tarix, jo'g'rofiya, chiroyli yozuv va rasm. Ayollar kichik gimnaziyasida mazkur fanlarga qo'shimcha ravishda qo'shiq va musiqa, gimnastika va raqs, shuningdek, hunar bo'yicha mashg'ulotlar olib borilgan. Keyinchalik o'quv dasturi kengaytirilgan. Unda fizika, geometriya, algebra, botanika, mineralogiya, zoologiya kabi fanlar kiritilgan¹⁰⁴².

1900 yildan O'zbekiston hududida «jadid maktabi» nomi bilan yuritilgan yangi usul maktablari ham ish boshlagan. Bu maktablar Turkiston mahalliy xalqlar milliy maktablarining kurtaklari bo'lgan. Yangi usul maktablari ham asosan 1-4 sinfdan iborat boshlang'icha maktablar hisoblangan.

Ta'lim maorif sohasini ruslashtirishga Turkiston general gubernatori K.P.fon Kaufman katta e'tibor bergan edi va keyinchalik, 1880 yilda imperiya davlat kengashida Turkistondagi mahalliy aholi bolalarini rus bolalari bilan birgalikda o'qitish masalasi ko'rib chiqildi. Kaufmanning «rus va musulmon maktablarining alohida bo'lishi» imperiya uchun iqtisodiy va siyosiy jihatdan havfli va zararli deb topilishi g'oyasini Kaufmannning izdoshi, general leytenant N.O.Rozenbax (1884—1839 yy) davom ettirdi va «rus tuzem» maktablari tarmog'ini yaratish loyihasini ishlab chiqdi. Imperiya dalat kengashida harbiy vazir graf D.Milyutin hamda maorif vaziri graf

¹⁰⁴² Исмоилова Ж. «Янги Тошкент». Маданий ҳаёт. Халқ маорифи. Тошкент. «Fan va texnologiya». 2004.

Tolstoylar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan bu g‘oya amalga kiritildi va dastlabki «rus tuzem» maktabi 1884 yilda Toshkentda ochildi, XIX asrning oxirlariga kelib esa, ularning soni yuzdan oshib ketdi. Birinchi rus tuzem maktabini ochgan toshkentlik Saidg‘ani Saidazimboy o‘g‘lidan o‘rnak olib boshqa boylar ham shunday maktablar ochishni yo‘lga qo‘ydilar. Maktabning soni oshib borgani bilan bu maktablarda bilim berish darajasi shunchalik past bo‘lganki, uni rus ziyolilarining o‘zlari ham qattiq tanqid qilganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy rus tuzem maktablarini bitirib chiqqan kishilar haqida ular ruscha chalasavod kishilardir deya baho bergan edi.

1881 yildan erkaklar kichik gimnaziyasi sakkiz sinfli gimnaziyalarga aylantirilgan, 1887 yildan esa ayollar kichik gimnaziyasi – yetti sinfli gimnaziyaga aylantirilgan. Bu har ikki gimnaziya o‘rta ta’lim maktabiga to‘g‘ri kelgan. Shuni ta’kidlash joizki, shaharning «yangi» qismini kengayib borishi va aholi sonini ko‘payishi gimnaziya tarmoqlarini rivojlanishini talab qilsada, bu muammo hal etilmadi. Masalan, agar 1877 yilda erkaklar gimnaziyasida 96 odam o‘qigan bo‘lsa, 1891 yilda – 279, 1910 yilda esa – 500 ta o‘qigan. Ayollar gimnaziyasidagi o‘quvchilar 1877 yildagi 100 tadan 1910 yilda 700 taga o‘sgan¹⁰⁴³.

Turkiston o‘lkasi o‘quv yurtlari bosh inspektori qoshida devonxona bo‘lib, u kotib va kotib yordamchisidan iborat edi. Devonxonaga o‘lkadagi barcha o‘quv yurtlari haqidagi axborotlar (yozishmalar, hisobotlar) kelib tushar edi. Har bir viloyatga xalq bilim yurtlari inpektorlari tayinlanar edi. Ular bosh inspektor oldida viloyatda amalga oshirilgan ishlarga javob berardilar. N.O.Rozenbax 1887 yil may oyida imperiya maorif vaziriga maxsus ariza bilan murojaat qilib, Turkiston o‘lkasi o‘quv yurtlari boshqarmasida alohida musulmon maktablari inspektori lavozimini tashkil qilish va bu maktablar ustidan nazoratni kuchaytirishni so‘radi. Uzoq muhokamalardan so‘ng 1890 yilda Turkistonda ta’lim inspektori lavozimi joriy etildi¹⁰⁴⁴. Bu boshqarma tomonidan Turkistondagi an’anaviy maktablarning xuquqlarini cheklashga qaratilgan bir qancha

¹⁰⁴³ Исмоилова Ж. «Янги Тошкент». Маданий ҳаёт. Халқ маорифи. Тошкент. “Fan va texnologiya”. 2004.

¹⁰⁴⁴ Алимова Н. Россия империясининг Туркистонда миллий маданият соҳасида олиб борган сиёсати (1867-1917 йй). Тар фан номз дисс. Тошкент, 2004. 30-б.

ko'rsatmalar ishlab chiqildi va 1889-1898 yillarda Turkiston general-gubernatori bo'lgan baron A.B.Vrevskiy ko'rsatmalariga asosan amalga joriy etildi. Jumladan, 1894 yil 14 martda tasdiqlangan "Turkiston o'lkisi musulmon maktablarini boshqaruvchi xalq o'quv yurtlari uchinchi inspektoriga yo'riqnoma" deb nomlangan hujjatda¹⁰⁴⁵ Turkiston o'lkasidagi o'troq va ko'chmanchi aholining barcha musulmon madrasa va maktablari shu inspektor nazoratida bo'ladi, deb belgilab qo'yildi. Bu yo'riqnoma asosan madrasalar, maktablar faoliyatini har tomonlama cheklash, milliy maorif tizimini izdan chiqarish, maktablar va madrasalarni tekshirib turish va to'liq nazorat ostiga olish maqsadida qo'llanildi. Mazkur yo'riqnomaga binoan o'quv yurtlarining uchinchi inspektori maktablar, madarasalarning asosiy rahbari bo'lib qoldi. Shu tariqa musulmon maktablari Rossiya imperiyasining Turkistondagi o'quv muassasalari idorasiga to'la bo'ysundirildi hamda mudarrislar darslarining siyosiy yo'nalishi doimiy nazoratga olindi¹⁰⁴⁶.

Farg'ona viloyatining 1890 yilgacha bo'lgan ma'lumotida ko'rsatilishicha, Farg'ona viloyatida shu davrda 11 ta rus bilim yurtlari bo'lib, Qo'qon, Namangan, Andijon, O'sh viloyatlarida 5 ta rus-tuzem maktabi bor edi. Rus-tuzem maktablari 1886 yilda eski Marg'ilon, Qo'qon, Namangan, Andijon va O'shda ochildi. Imperiya manfaatlarini ko'zlab, o'lkada rus va mahalliy xalq bolalari uchun tashkil etilgan rus-tuzem maktablari zamirida bosqinchilarning g'arazli maqsadlari yotar edi. – "...O'lkan ruslashtirish rejasini amalga oshirishda maktab katta ahamiyat kasb etishi lozim" - degan g'oya tarafdori bo'lgan general N.O.Rozenbax tomonidan Turkiston o'lkasidagi dastabki rus-tuzem maktabi tashkil qilindi va faoliyat boshladi¹⁰⁴⁷.

1898 yilda Farg'ona viloyati gubernatori N.I.Korolkovning yaqin besh yil ichida barcha ishlarni yuritishni rus tiliga o'tkazilsa, mahalliy kishilar o'z bolalarini mansabga qiziqib ixtiyoriy ravishda ushbu maktablarga beradilar degan fikrni bildirdi va bu bilan

¹⁰⁴⁵ ЎзР МДА. 47- жамғарма, 1-рўйхат, 601-й.ж.,164-варак.

¹⁰⁴⁶ Алимова Н. Россия империясининг Туркистонда миллий маданият соҳасида олиб борган сиёсати (1867-1917 йй). Тар фан номз дисс. Тошкент, 2004. 31-32-бб.

¹⁰⁴⁷ Ризаев Ш. Жаҳид драммаси. –Т.: Шарқ. 1997. –Б. 38

mustamlakachilar ruslashtirish siyosatini maorif ham keng ko‘lamda kuchaytirib yubordilar.

Mustamlaka hukumatining Turkistondagi maorif sohasida yuritgan siyosati mohiyatidan anglash mumkinki, mustamlaka hukumati Turkiston xalqlarining milliy maorifi – madrasa, makatabalarini cheklash, oxiri ularni yo‘q qilish, yerli aholini ruslashtirish siyosatini olib bordi. Yangi madrasa va maktablar ochish, ularga vaqflar ta’sis qilish amalda ta’qiqlandi. Mavjud madrasa va maktablar har xil bahonalar bilan yopishga va buzib tashlashga harakat qilindi¹⁰⁴⁸.

Mustamlakaga hukumatning maorif sohasidagi ruslashtirish siyosati ikki yo‘nalishda olib borildi. Birinchisi Turkiston halq maorifiga rus tuzem maktablari orqali yorib kirish bo‘lsa, ikkinchisi milliy qadriyatlarni tarbiyalaydigan ma’naviyat o‘choqlarini asta - sekinlik bilan tubdan yo‘q qilish edi. Shu bilan bir vaqtning o‘zida ular mahalliy halqlar ichidan yetishib chiqqan yetakchi ziyolilar va rus tilini mukammal egallagan kishilarni to‘xtovsiz ta’qib qilganlar va halq orasidan yetuk insonlarning yetishib chiqishiga har tomonlama to‘sqinlik qilganlar.

Mustamlaka sharoitida Turkiston adabiyoti. Turkiston o‘lkasida o‘rnatilgan mustamlakachilik tizimi tarixiy - ijtimoiy vaziyatni murakkablashtirib yubordi. Bunday mustamlakachilik hukmronlik muhiti madaniyat, fan, san’at va adabiyot, ijtimoiy, siyosiy fikr va halqning turmush tarziga ham o‘zining katta ta’sirini o‘tkazdi. Asriy an’analar hukm surgan o‘lkaga yevropacha turmush tarzi va madaniyati kirib kela boshladi. Bu jarayonda ayrim sohalarda ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelgan bo‘lsada, ayrimlarida yaqinlashuv va bir-biriga ta’sir jarayonlari yuz berdi. Bunda albatta ilg‘or fikrli rus ziyolilari va mahalliy halqlar ziyolilari katta o‘rin tutdilar. Chunki mustamlakachilar Turkiston o‘lkasida fan va boshqa sohalarning taraqqiyotiga tish tirnog‘i bilan qarshi bo‘lsa, mahalliy mutaassib ruxoniylar va tor fikrli kishilar yangicha ruhdagi adabiyot va fanning o‘lkaga kirib kelishiga to‘sqinlik qilardilar. Ana shunday murakkab bir

¹⁰⁴⁸ Алимова Н. Россия империясининг Туркистонда миллий маданият соҳасида олиб борган сиёсати (1867-1917 йй). Тар фан номз дисс. Тошкент, 2004. 56-б.

vaziyatda mahalliy adiblar va fan ijodiy ishlari demokratik ruh bilan boyib bordi. Biroq, bu bilan insonparvarlik va halqchilik g'oyalari Turkiston o'lkasiga shu davrdan kirib kela boshladi, deyish xato bo'ladi, chunki bunday qarashlarni va o'z ijodlarida insonparvarlikni ulug'lagan shoirlardan Alisher Navoiy, Lutfiy, Turdi, Maxtumquli va boshqalarni keltirib o'tishimiz mumkin. Demak, bunday g'oyalar turkistonlik shoirlar va adabiyot ahli uchun yangilik bo'lmagan va faqatgina bu davrda yashab ijod qilgan shoirlar o'z asarlarida yangicha fikrlar va ilg'or qarashlarni ham singdira olganlar. Bunday shoirlar qatoriga Muhammad Aminxo'ja o'g'li Muqimiyi kiritish mumkin.

Muqimiy (taxallusi, asl ism-sharifi Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li) (1850 - Qo'qon -1903.25.5) - shoir va mutafakkir. O'zbek demokratik adabiyoti asoschilaridan. Otasi toshkentlik, onasi Oyshabibi xo'jandlik bo'lib, Qo'qonda yashaganlar. Muqimiy boshlang'ich ma'lumotni mahallasidagi maktabda olgan. Muqimiy Qo'qondagi Nodira bino qildirgan «Moxlar oyim» madrasasida, so'ng Buxoro madrasalaridan birida o'qigan (1864-65, 1875-76). 1876 yilda Qo'qonga qaytgach, yer qurilishi mahkamasida mirzalik qilgan. 70-yillar oxirlarida Qo'qonga qaytgan va ijod bilan shug'ullangan. O'zbek adabiyotida demokratik yo'nalishning vujudga kelishi va shakllanishi Muqimiy nomi bilan bog'liq. Muqimiy o'zbek adabiyotiga ishchilar mavzusini olib kirdi, tiplar galereyasini yaratdi («Maskovchi boy ta'rifida», «Voqeai Viktor boy» va boshq). Turli shaxar va qishloqlarga qilgan sayohatlari taassurotlari asosida to'rt qismli «Sayohatnoma» asarini yozdi¹⁰⁴⁹. Muqimiy o'z she'rlarida halqning turmush tarzi, uning og'irligi va amaldorlarning ochko'zligi va yulg'ichligini qattiq tanqid ostiga oladi va xajv qiladi.

O'z davrining iste'dodli lirik shoirlaridan biri va publitsisti Zokirjon Holmuhammad ug'li Furqatdir. U o'z asarlarida qoloqlik va nodonlikni tugatishga chaqirdi. Furqat (taxallusi, asl ism-sharifi Zokirjon Mullo Holmuhammad o'g'li) (1859, Qo'qon -1909, Yorkend) - taraqqiyparvar shoir, mutafakkir, publitsist. Mahallasidagi maktabda savod

¹⁰⁴⁹ Каримов Ф. Муқимий. Ҳаёти ва ижоди, Т.:1970; Каримов Ф., Ўзбек адабиёти тарихи, 3-китоб, Т.: 1987.

chiqargan, mudarris va kotiblardan xattotlik, arab tilini o'rgangan. Madrasada o'qigan (1873-76). Alisher Navoiy ijodini, fors adabiyoti namoyandalari merosini chuqur o'rgangan, fors tilini mukammal o'zlashtirgan. 1876 yilda Yangi Marg'ilondagi savdogar tog'asining iltimosiga ko'ra u yerga borib, savdo ishlarida unga yordamlashgan, keyinchalik o'zi ham kichik do'kon ochgan. Ayni paytda bilimdon ziyoli sifatida kishilarning arz va iltimoslarini rasmiy mahkamalarga arizalar shaklida bitib, mirzalik ham qilgan. Yangi tarixiy sharoit tufayli yuz bergan o'zgarishlarni mushohada etish natijasida Furqatning dunyoqarashida jiddiy o'zgarish bo'ladi va bu hol uning ijodida o'z badiiy ifodasini topadi - ma'rifatparvarlik, yevropacha ilm va madaniyat, fan-texnikaga xayrixohlik shoir she'rlarining yetakchi g'oyasiga aylana boradi. Bu esa Furqatning ko'p asrli o'zbek adabiyotiga yangi mavzular, yangi g'oyalar olib kirishiga zamin bo'ldi. Toshkentda ochilgan erlar gimnaziyasi, maorif muassasalari, madaniyat va san'at o'choqlarini, tobora ko'proq kirib kelayotgan fantexnika yangiliklarini kuzatish oqibatida uning «Ilm xosiyati», «Gimnaziya», «Vistavka xususida», «Akt majlisi xususida», «Toshkent shaxrida bo'lg'on nag'ma bazmi xususida» va boshqa asarlari maydonga keldi va ularning barchasi 1890 yillarda «Turkiston viloyatining gazetisi»da chop qilindi. Furqat hakli ravishda o'zbek publitsistikasining asoschilaridan biri xisoblanadi. Furqatning publitsist sifatidagi faoliyati 1890 yildan boshlandi. «Turkiston viloyatining gazetisi»ga rasman ishga kirdi, gazetani tayyorlashda bevosita qatnashdi, gazeta saxifalarida o'z maqolalarini e'lon kildi. Masalan, 1891 yil birinchi yarmida «Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoli. O'zi yozgani» publitsistik asarini yozib, shu gazetada e'lon kildi. 1891 yil mayda Samarqandga bordi, osori atiqalar bilan tanishdi, gazetaga xabarlar yo'lladi, keyin Buxoroda bo'ddi. Iyulda esa chet el sayohatiga chiqdi. 1891 yilning iyulida Marv -Ashxobod -Boku - Batumi orqali Istanbulga bordi¹⁰⁵⁰.

Avaz O'tar (1884 -1919), Ubaydullo Solix - Zavqiy (1853-1926), S.Ayniy (1878-1954), X.X.Niyoziy (1889-1929), Anbar Otin (1870-1906) kabi shoir va shoirlar halqning turmushi va ahvolini kuylash

¹⁰⁵⁰ Юсупов Ш., Фуркат йўлларида, Т., 1984

bilan birga adolatga da'vat qilib, she'rlar yozdilar.

Avaz O'tar - Avaz Polvonniyoz (O'tar) o'g'li (1884.15.8 – Xiva - 1919) - o'zbek ma'rifatparvar shoiri. Dastlab maktabda, so'ng Xivadagi Inoqiy madrasasida o'qidi. 18 yoshlarida shoir sifatida xalq o'rtasida tanildi. Xiva xoni Muhammad Rahim II -Feruz Avaz O'tar iste'dodiga katta e'tibor bergan, uni saroyga taklif qilib Tabibiyni unga ustoz tayin etgan. Ammo, Avaz O'tar saroyni tark etadi. XX asr boshlarida ko'zga tashlanayotgan milliy uyg'onish, istiqlol g'oyalari Avaz O'tar ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Avaz O'tar ijodida erkparvarlik, ozodlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari, turmush illatlariga qarshi qaratilgan hajvlar paydo bo'la boshlaydi, bu davrda shoir yuksak insoniy fazilatlarni aks ettiruvchi lirik she'rlar, qitalar, ruboiylar yezdi. Avaz O'tar ijodida alohida o'rin tutgan hajviy she'rlar turkumi - «Faloniy» ham shu davr mahsuli. Avaz O'tar «Millat», «Hurriyat»; «Topar erkan, qachon», «Xalq», «Zamon» va boshqa she'rlarida millat taqdiri va kelajagini yangicha talqin etadi. Ayrim she'rlari o'sha davr vaqtli matbuoti («Oyina», «Vaqt», «Mulla Nasriddin» va b.) da bosilgan. Ikkita devoni («Saodat ul-iqbol», «Devoni Avaz») va qator bayozlarga kiritilgan g'azallari yetib kelgan¹⁰⁵¹.

Zavqiy (taxallusi; asl ism- sharifi Ubaydullo Solih o'g'li) (1853 - Qo'qon - 1921) - o'zbek shoiri, Qo'qondagi «Madrasai oliy» va «Madrasai chalpak»da tahsil olgan (1870-74). Maxsido'zlik bilan shug'ullangan. Ma'lum muddat mirzalik qilgan, Xo'jand, Samarqand, Buxoro, Toshkent, O'sh, Andijon, Marg'ilon shaharlarida bo'lgan. Tog'asi Muhammad Siddiq bilan Madinani ziyorat qilgan (1900). 1903 yilda Qo'qonga qaytgan. Zavqiy mumtoz o'zbek adabiyoti an'alarini davom ettirgan, Qo'qon adabiy muhitining Muqimiy, Furqat, Nodim, Rojjiy kabi namoyandalari bilan ijodiy hamkorlik qilgan. Zavqiy ijodiy merosida o'zbek qishloqlarining ahvoli, dehqonlar hayoti mavzui ham katta o'rin tutadi («Yangi Qo'rg'on qishlog'i», «Suv janjali», «Shohimardon sayohati» va boshq). Bu asarlar Muqimiyning «Sayohatnoma»si ta'sirida yozilgan. Zavqiy Muqimiyning hajvchilik yo'lini davom ettirib, o'zbek adabiyotida hajviy yo'nalish taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi («Obid mingboshi haqida hajv»). Zavqiyning «Voqelai qozi saylov» (1909-10),

¹⁰⁵¹ Қобулов Н., Ҳаққулов И., Мўминова В., Аваз ва унинг адабий муҳити, Т., 1987.

«Qahatchilik» (1916) kabi asarlarida ijtimoiy adolatsizlik fosh etiladi, xalqning zulmga qarshi namoyishlari aks ettiriladi. «Ajab ermas» radifli muxammasi XX asr boshlari o‘zbek she’riyatida muhim hodisa bo‘ldi. Bunda shoir mustamlaka asoratida ezilayotgan yurtning baxtli kelajagi haqida fikr yuritdi¹⁰⁵².

Qo‘qon adabiy muhitida shakllangan va yetuk shoira hamda tarix sohasining bilimdoni bo‘lib yetishgan ijodkor ayollardan biri Dilshod Otin hisoblanadi. Barno, Dilshodi Barno uning taxalluslari bo‘lib, asl ism-sharifi Dilshod Rahimqul so‘fi qizi, (1800-1905/06). U 17 yoshida asirga tushib O‘ratepadan Qo‘qonga olib kelinadi. Bu yerda o‘zbek yigitiga turmushga chiqib, umrining oxirigacha shu yerda yangidan o‘zbek tilida ko‘plab g‘azallar yozadi. Dilshod o‘z ijodi orqali jamoatchilik fikrini bayon etadi, hayotning turli tomonini ochib beradi. Uning tojik va o‘zbek tillarida yozilgan asarlari bir-birini to‘ldiradi va boyitadi. Ularni bir-biridan ustun qo‘yish qiyin, chunki shoira bu tillarni mukammal bilganligi tufayli ikkala tilda ham chuqur, mazmunli asar yozadi va yurakdagi, qalbdagi so‘zlarini mohirona bayon etadi¹⁰⁵³. Shoiraning “Sabot ul-bashar maa tarixi muhojiran” (“Inson matonati va muhojirlar tarixi”)da o‘zining tavalludi, oilasi va ayanchli taqdiri bayon qilingan. Zotan, uning taqdiri ham muhojirlar taqdiridan farq qilmagan. Bu asarga shoiraning o‘zbek tilidagi 37 ta va tojik tilidagi 5 ta g‘azali ham kiritilgan. Dilshodning ijodi tarixiy materialga boyligi, ijtimoiy mazmundorligi, haqqoniyligi, xalqparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilganligi uchun ham o‘zbek va tojik mumtoz adabiyotining qimmatli namunalaridan hisoblanadi. Dilshod otinning “Tarixi muhojiron” asarida XIX asrda Qo‘qon xonligidagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy voqealar aks etgan. Ayollarni ma’rifatli, erkin, jamiyatning teng huquqli a’zolari bo‘lishga chorlagan¹⁰⁵⁴.

Turkistonda matbuot va jurnalistik faoliyatning shakllanishi.

Turkistonda matbuot sohasining yuzaga kelishi matbuot sohasida yetuk qalamkashlarning yetishib chiqishiga sharoit yaratdi. XIX asrning 70-yillaridan boshlab chiqa boshlagan «Turkestanskiye

¹⁰⁵² Раззоков X., Завкий ҳаёти ваиждоди, Т., 1965;

¹⁰⁵³ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). T.: «Sharq», 2010. 256-6

¹⁰⁵⁴ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). T.: «Sharq», 2010. 257-6

vedomosti» va «Turkiston viloyatining gazetisi» nomli gazetalar bilan bir qatorda, XX asrning dastlabki oʻn yilligida bir qator yangi gazeta va jurnallar chiqarib boshlandi. 1905 yilgi Rossiya imperiyasidagi burjua inqilobidan soʻng bir qator sohalar bilan bir qatorda matbuot erkinligining berilishi hamda Turkiston oʻlkasidagi milliy ziyolilarning, ayniqsa jadidlarning oʻz gazetolari va jurnallarini chiqarishga intilishlarini kuchaytirdi. Biroq podsho tomonidan berilgan matbuot erkinligi nomigagina boʻlib, amalda chiqadigan har bir gazeta va jurnallar kuchli nazorat ostida edi.

1870 yil 28 aprelda Turkiston general-gubernatori Kaufman farmoniga binoan bosilib chiqqan “Turkestanskiye vedomosti” gazetasi Turkistondagi dastlabki rasmiy vaqtli matbuot nashri hisoblanadi¹⁰⁵⁵. “Turkestanskiye vedomosti” gazetasining 1870 yilda 17 ta soni, 1871 yildan boshlab haftasiga 1 marta, 1903 yil dekabridan 3 marta nashr etilgan boʻlsa, 1907 yildan 4 marta chiqarilgan va 1907 yil iyulidan boshlab esa gazeta kundalik nashrga aylantirilgan. Uning oxirgi soni 1917 yil 15 dekabrda chiqqan boʻlsa, 47 yil davomida “Turkestanskiye vedomosti” gazetasining 6404 ta soni nashr etilgan¹⁰⁵⁶.

Turkistonda oʻzbek tilida nashr etilgan dastlabki vaqtli matbuot nashri “Turkiston viloyatining gazetisi” hisoblanadi. Mazkur gazeta 1870 yil iyulidan boshlab 1917 yil fevral oyigacha nashr etilgan. 1871-1883 yillarda gazetaning muharriri vazifasini Turkiston general gubernatori tarjimoni Shohimardon Ibrohimov bajargan, qisqa muddat Muhammadhasan Chanishev ishlagan boʻlsa, 1883 yil fevraldan 1917 yil fevralgacha N.P.Ostroumov “Turkiston viloyatining gazetisi”ga muharrirlik qilgan¹⁰⁵⁷.

Turkistonda jurnal tipidagi dastlabki nashrlar XIX asrning oxirlarida paydo boʻldi. Turkistondagi birinchi jurnal “Sredne-Aziatskiy vestnik” (jurnalning noshiri va muharriri G.T.Smirnov) 1896 yilning mart oyidan boshlab chiqarilgan boʻlib, jurnalning 10 ta soni nashr etilgan. 1896 yilning yanvar-fevral oylari uchun “Srednyaya

¹⁰⁵⁵ ЎзР МДА. 1-жамғарма, 1-рўйхат, 49-й.ж.,73-варак.

¹⁰⁵⁶ Абдуазизова Н.А. История национальной журналистики (генезис ва эволюция). I часть. Биринчи жилд, – Т.: “Шарк”, 2012. 2008. Стр.85-86.

¹⁰⁵⁷ Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. Тошкент, “Академия” 2002 й. 10-11-бб.

Aziya” deb nomlangan almanax chiqarildi. Unda tarix, arxeologiya, geografiya, topografiya, statistika, etnografiya, savdo va sanoat bo‘icha ilmiy maqolalar bosilgan. XX asr boshlarida “Turkestanskoye selskoye xozyaystvo” (1906-1918), “Za narod” (1907), “Turkestanskiy skorpion” (1907-1910), “Srednyaya Aziya” (1910-1911), “Turkestanskiy kara-kurt” (1911), “Oyina” (1913-1915), “Al-Isloh” (1915-1918), “Al-Izoh” (1917-1918) kabi jurnalar, shuningdek, “Stepniye miraji” (1914) kabi almanax va boshqalar nashr qilingan hamda ular asosan rasmiy doiralar va mahalliy burjuaziya manfaati uchun xizmat qilgan¹⁰⁵⁸.

Turkistonda xattotlik va kitobat, kitob bosish ishlarining shakllanishi. O‘rta Osiyoga, jumladan Turkistonga kitob bosish texnikasi hali kirib kelmasidan ilgari har kanday asar qo‘lda ko‘chirilib, kitob holatiga keltirilgan. Bu hunar egalari tarixda xattot yoki kitobatchi nomi bilan mashxur bo‘lganlar. Bu kasb eng sharafli va muqaddas hisoblangan. Kotibning savodining mukammal bo‘lishi uni yukori darajaga ko‘targan. Xattot kitobni ko‘chirish jarayonida har birining mazmunini o‘zlashtira borgan. Natijada, kotib o‘z zamonasining o‘qimishli, ilm ma’rifat egalari katoridan joy olgan. Xattotlarga o‘z zamonasining ziyolisi, ma’rifatparvarlari sifatida munosabatda bo‘lingan va amalda ham shunday edi.

Ma’lumki, Buxoro, Xiva, Farg‘ona, Samarkand va Toshkent xattotlik maktablari bundan bir necha asrlar oldin shakllangan edi. Fakat XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoroda 75, Samarkandda 22, Xivada 47, Toshkentda 25, Farg‘onada 38 mashxur va taniqli xattotlar bo‘lib, ular xalqimiz yaratgan asl ilmiy durdonalarni bizgacha yetib kelishiga xissa kushganlar¹⁰⁵⁹.

Xattotlar asosan kitobning asosiy mazmunini qog‘ozga tushirgan bo‘lsalar, kitobatchilikning yana bir muhim tarkibiy sohasi muqovasozlik sanalgan.

O‘rta Osiyo uchun namuna vazifasini o‘tagan muqovali arab kitoblari (VII-XI asrlar) qat’iy ko‘rinishga ega bo‘lib, bosma usulida oddiy

¹⁰⁵⁸ Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. Тошкент, “Академия” 2002 й. 11-б.

¹⁰⁵⁹ Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. Тошкент. 1972. 85-191-бетлар.

xandasiy naqshlar bilan bezatilgan. XVIII-XIX asrlarda Oʻrta Osiyoda muqovasozlikda qoʻlyozmalar muqovasi ikki qalin karton qopqoq hamda tekis tubdan (baʼzan quyi qopqoqqa birlashtirilgan va qoʻlyozmani tashqi taʼsirdan saqlovchi qoʻshimcha qopqoqdan) tuzilgan. Muqovaning gʻilofini tayyorlashda turli (qoʻy, echki, ot, eshak va boshqalar) charm qoplamalardan foydalanilgan, ular rangdorligi bilan ajralib turgan. Buxoro, Qoʻqon xonligida muqovasozlikda aralash muqovalar (charmdan qopqoqning yon tomonlarini birlashtiruvchi adip sifatida foydalanilgan), Xiva xonligida qora rangli sipo charm muqovalar, shuningdek yarim charm muqovalar ham keng ishlatilgan. Bu soxada ijod etgan koʻplab sahhoflar nomi saqlanib qolgan. Muqovaga kitob nomi yozilmagan, ularga naqshli bezak va sodda aylanma chiziqli hoshiyalar ifodalilik baxsh etgan. Muqovalardagi «lola» naqsh orasiga usta nomi va yaratilish tarixi bitilgan. Rasmlar bosma usulida bajarilgan yoki tasvir yaratilib ustidan lok yuritilgan. Buxoroda zardoʻzlik bilan bezatilgan muqovalar ham uchraydi¹⁰⁶⁰. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida qoʻqonlik muqovasozlarning ishlari mashhur boʻlib, ustalar misdan oʻziga xos bezakli maxsus shaklli «muhr» qoliplar tayyorlagan. Muqova qopqogʻi va muqovaning ichki tomoni ham shu qoliplarda bezatilgan, qopqoq sirti muqova qopqogʻining bezak shakliga moslab tuzilgan. Forzatsning jimjimador «buta», oʻsimliksimon va handasiy naqshlari «abrbandi» usulida bezatilib, baʼzan forzatslar bezagida muqova bezagidagi hoshiyalar takrorlangan.

Turkistonda kitob nashri ishlarining vujudga kelishi Oʻrta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi davriga toʻgʻri keldi. Bu davrgacha oʻlkada bosmaxona xam, litofafiya (toshbosma) ham boʻlmagan edi. Adabiyotga boʻlgan ehtiyoj esa Oʻrta Osiyo xattolari tomonidan bajarilgan qoʻlyozma asarlar bilan birgalikda Turkistonga tashqaridan kirib qolgan ayrim sharqiy toshbosma qoʻlyozmalar hisobidan qondirilgan, xolos¹⁰⁶¹. Rossiyada arab, fors va turkiy tillardagi kitoblarni bosish XVIII asrning 20-yillaridan boshlandi. Musulmon (arab) yozuvidagi birinchi rus bosmaxonasi 1723 yil Astraxanda paydo buldi, soʻngra Peterburg, Moskva, Qozon, Qrim, Kavkazda ishga tushirildi. Turkistonda

¹⁰⁶⁰ Мадраимов А. Муковасозлик. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. 902-903-бб.

¹⁰⁶¹ Эрназаров Т.Э., Акбаров А.И. История печати Туркестана. Ташкент. 1976. стр.10.

kitobxonlikka xos an'anaga ko'ra, kitobni bosmaxona yo'li bilan nashr etish ancha kech paydo bo'lgan¹⁰⁶².

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda turli bosmaxonalar ham tashkil etila boshlandi. Tipografiya (bosmaxona, matbaa) va litografiya (toshbosma) ning paydo bo'lishi madaniy hayotda katta voqea bo'ldi. Xususan, Turkistonda birinchi bosma kitob 1868 yil Toshkentda Turkiston harbiy okrugi shtabi bosmaxonasida chop qilindi. Shu bosmaxonada nashr etilgan rus olimi va sayyohi N.A. Seversovning «Chu va Norin tizmalari etagidagi tog'li o'lka to'g'risida lavhalar» (rus tilida) kitobi Turkistondagi ilk bosma kitobdir. Birinchi rasmiy gazeta - «Turkestanskiye vedomosti» ham shtab bosmaxonasida bosila boshladi. O'zbek tilida nashr qilingan birinchi bosma kitob Shohimardon Ibrohimovning Xivada bosilgan «Kalendar» («Taqvim») kitobi (1871) bo'ldi. 1874 yilda esa Xiva shahrida Muhammad Rahimxon (Feruz) tomonidan litografiya (toshbosma) qurildi va u yerda XIX asrning 80-yillaridayoq ancha-muncha kitoblar bosildi.

Turkiston bosmaxonasi

Bosmaxona - matbaa mahsulotlari (kitob, jurnal, gazeta, va boshq.) tayyorlaydigan sanoat korxonasi. Qadimda risolalar asosan qo'lyozma tarzida tayyorlangan. Sharqda qo'lyozmalarni xattotlar bejirim qilib oqqa ko'chirib, naqqoshlar bezaklar bilan bezashgan, muqovasozlar varaqlarni tikib va qolipga tortib, kitob holida chiqarishgan. Turkistonda kitob bosishga doir dastlabki tajribalar va birinchi bosma kitob 1868 yilda Turkiston harbiy okrugi shtabining Toshkentdagi bosmaxonasida chop qilindi. Birinchi rasmiy gazeta - «Turkestanskiye vedomosti» gazetasi ham shtab bosmaxonasida bosila boshladi. 1898 yilda Toshkentda eski shahar markazida bosmaxona tashkil qilinib, bu yerda o'zbek, tojik, turkman, qozoq va qirg'iz tillarida kitoblar chiqarila boshlangan.

O'rta Osiyodagi dastlabki litografiya bosmaxonasi 1874 yilda Xiva Otajon Abdalov tomonidan tashkil qilingan. Bu bosmaxonaning faoliyatiga xon tomonidan ham moddiy yordam berib turilgan¹⁰⁶³. Mahalliy noshirlardan biri Esonboy Xusainboyev bo'lib, u litografiya usulida kitoblar nashr etish ishlarini yo'lga qo'ygan. Uning litografiyasi 1883 yilda Toshkentda ochilgan bo'lib, bosmaxonaning usukunalari 50

¹⁰⁶² Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917). Тузувчи Н.А.Абдуазизова. Тошкент. "Академия", 2000. 26-27-бб.

¹⁰⁶³ Абдуазизова Н.А. История национальной журналистики (генезис ва эволюция). I часть. Биринчи жилд, – Т.: "Шарк", 2012. 2008. Стр.66.

tuyaga ortilgan holda Rossiyadan keltirilgan edi¹⁰⁶⁴. 1888 yilda esa S.A.Porsev tomonidan tashkil etilgan litografiya ham Toshkentda ish boshladi. 1886 yildan 1898 yilgacha Turkistonda nashriyot korxonalarining soni 15 taga yeyetdi. Ulardan 6 tasi topografiya bo‘lsa, qolganlari litografiya yoki topografiya uskunalari bilan jihozlangan bosmaxonalar edi¹⁰⁶⁵. 1898 yilda Toshkentda eski shahar markazida hozirgi 1-bosmaxona tashkil qilindi. Shunday qilib, birin-ketin Turkistonning boshqa shaharlarida ham xususiy litografiyalar tashkil etildi. Bulardan Otajon Abdalov (Xivada), Semyon Laxtin (Toshkentda), G‘ulom Hasan Orifjonov (Toshkentda) litografiyalari mashhur. Bu bosmaxonalarda adabiy, falsafiy, diniy, tarixiy asarlar va darsliklar chiqarildi. Dastlabki nashrlar avval rus tilida, so‘ngra mahalliy tillarda gazeta, jurnal va kitoblar chop etila boshladi.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda tarixiy bilimlar va tarixshunoslikning yuksalishi. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ham O‘rta Osiyoda tarix ilmi va tarixiy bilimlarga bo‘lgan qiziqish zarracha susaymadi. Chunki halqlarimiz qadimgi davrlardanoq tarix ilmini g‘oyatga qadrlaganlar tarixni buzib ko‘rsatishga aslo yo‘l qo‘ymaganlar. Bu davrda ham tarix ilmini rivoj toptirilganligi yozilgan ko‘plab tarixiy asarlar misolida yaqqol ko‘rinadi.

Bu davrda yashab ijod qilgan eng mashhur tarixchilardan biri Axmad Donish edi (1827—1897). Garchi Axmad Donish fanning bir qancha sohalarda ijod qilgan bo‘lsada, uning qoldirgan tarix ilmiga mansub asarlariga asoslangan holda uni haqli ravishda tarixchi deb atashimiz mumkin, Chunki bu davrda yashagan tarixchilar orasida Axmad Donish o‘zining Buxoro amirligini tarixini mukammal bilishi bilan ajralib turadi. «Navodur — ul vaqoye» hamda «Buxoroyi sharif az amir Doniyol to amir Abdulaxad» asarlari Axmad Donish qalamiga mansubdir. Ahmad Donish tomonidan yozib qoldirilgan “Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif az amir Doniyol to asri amir Abdulahad” asari mang‘itlar sulolasi davri tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri

¹⁰⁶⁴ История национальной журналистики (генезис ва эволюция). Стр.66.

¹⁰⁶⁵ История национальной журналистики (генезис ва эволюция). Стр.66.

sanaladi. Amir Nasrullo saroyida xizmat qilgan Ahmad Donish mazkur asarida Buxoro amirligining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni keltirish bilan birga, mang‘it amirlarining o‘z hukmronligi davrlarida davlat boshqaruvida amalga oshirgan ishlari va ularning ahamiyati haqida bir qator qimmatli ma’lumotlarni ko‘rsatib beradi¹⁰⁶⁶.

Buxoro amirligi tarixining bilimdonlaridan yana biri Mirzo Abduazim Somiy Bo‘stoniydir (1839—1908). U amir Muzaffar davrida amirning shaxsiy munshisi bo‘lgan bo‘lsa, amir Abdulaxad davrida amirga qarshi fikrlari uchun saroydan chetlashtirilgan edi. Somiyning tarix sohasida yozgan «Tuhfai shohiy» va «Tarixi solotini mang‘itiya» asarlari mashhurdir. «Tuhfai shohiy» asari rasmiy siyosat talablari darajasida yozilgan bo‘lsa, «Tarixi salotini mang‘itiya» asarida Mirzo Abdulazim Somiy Bo‘stoniy Buxoro amirligining mang‘itlar hukmronlik qilgan davrini tanqidiy nuqtai nazardan baholaydi¹⁰⁶⁷.

Muhammad Vafo Karminagiy qalamiga mansub “Tuhfai xoniy”, Muhammad Mirolim Buxoriyning “Fathnomai Sultoniy”, Mirza Badi Devonning “Majmu’ al-arqom”, Mirza Salimbekning “Tarixi Salimiy”, Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Shariflarning “Tarixi amiri Haydar”, Mir Husayn Ibn Amir Haydar tomonidan yozib qoldirilgan “Tarixi salotini Mang‘itiya, O‘zbekiya va Ashtarxoniya” kabi asarlar ham bu davr tarixnavisligining noyob namunalari hisoblanadi¹⁰⁶⁸.

Saroy tarixchisi Munis (1778—1829) tomonidan boshlanib, Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan davom ettirilgan «Firdavs ul — iqbol» (Iqlobnoma) asari, Muhammad Yusuf Bayoniyning (1859—1923) «Shajarai Xorazmshohiy» asari va boshqa bir qancha asarlarni ta’kidlab o‘tish lozim¹⁰⁶⁹. Tarix fani moziy ilmiga ma’rifat va haqiqat chirog‘i deb qaragan, Xorazm tarixshunosligi maktabida yirik namoyondasi Muhammad Yusuf Bayoniy o‘z davrining yirik muarrixlaridan

¹⁰⁶⁶ Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. 29-б.

¹⁰⁶⁷ Аҳмедов Б., Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари, Т., “Ўқитувчи”, 1991. 87-б.

¹⁰⁶⁸ Шодиев Ж.М. Бухоро амирлигида давлатчилик масалалари Т.:Т ДЮИ, 2005. 20-б.

¹⁰⁶⁹ Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V, VI жилд. Тошкент.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашр. 1980; Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. – Т.: Ўзбекистон, 2009. Шермуҳаммад Мунис. Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010

sanalgan. Tarixni faqatgina rostgo‘ylik va haqqoniy yozish lozimligini qattiq talab qilgan muarriqdan «Xorazm tarixi» va «Shajarai Xorazmshohiy» asarlari bugungi kunda qimmatli manbalar hisoblanadi. Bu asarlarda Bayoniy Xorazm tarixini yoritish bilan birga Rossiya imperiyasining mustamlakachilik urushlari tarixini ham yoritib bergan¹⁰⁷⁰.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Qo‘qon tarixnavisligi maxsus fan darajasiga ko‘tarildi. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Qo‘qon xonligi tarixshunoslik maktabi rivojlanib, xonlik hayotining barcha sohalarini yoritib beruvchi ko‘plab qimmatli asarlar yaratildi. Ular orasida mahalliy tarixchilar tomonidan Rossiya imperiyasining Qo‘qon xonligini bosib olishi voqealarini aks ettiruvchi bir qator asarlar yozib qoldirilgan. Qo‘qon xonligi tarixini yoritib beruvchi va nisbatan muhim ahamiyat kasb etuvchi bunday asarlar sifatida Muhammad Yunus ibn Muhammad Amin – Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar»¹⁰⁷¹, Mullo Yunus Toshkandiyning «Xotiralar»i¹⁰⁷², Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix”,¹⁰⁷³ Mullo Olim Mahdumxojaning «Tarixi Turkiston»¹⁰⁷⁴, Ishoqxon Junaydullo o‘g‘li – Ibratning «Tarixi Farg‘ona»¹⁰⁷⁵, Mullo Xoliboy Mambetovning «O‘rus lashkarining Turkistonda tarix 1269–1282 sanalarda qilg‘on fuhotlari»¹⁰⁷⁶, Abu Ubaydullo Toshkandiyning «Xulosat ul –ahvol»¹⁰⁷⁷,

¹⁰⁷⁰ Мухаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшохий. Тошкент, “Мерос”, 1991.

¹⁰⁷¹ Қаранг: Мухаммад Юнус Тоиб. Тарихи Алиқули Амирлашкар // Шарқ Юлдузи. 1996. -№ 1-2. – Б.214-217; Қаранг: Амирлашкар Алимқул тарихи. Алимқул жангномаси. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги давлат ва жамият қурилиши Академияси. Ўзбекистоннинг янги тарихи маркази. -Т.: 1997. Қаранг: З.Илҳомов. Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни. Тарих фан.ном....дисс. Т.2004

¹⁰⁷² Мулло Юнус Тошкандий. «Хотиралар». Смирнов Е.Т. Султаны Кенисара и Садык. -Т.: Тип С.И.Лахтина. 1889. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Алишер Навоий номидаги Марказий Давлат кутубхонаси. В 961-3. Қаранг: Илҳомов З. Хотираларда жонланган сиймо. Жамият ва бошқарув №1. 2000 г. Б.55-57. (Аслида китобнинг номи йўқ. З.Илҳомов китобнинг мазмунидан келиб чиқиб унга шартли равишда “Хотиралар” деб ном берган. Қаранг: З.Илҳомов. Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни. Тарих фан.ном....дисс. Т.2004)

¹⁰⁷³ Қаранг: Хуршут Э. «Мунтахаб ут – таворих» как источник по истории Средней Азии и сопредельных стран XVIII – XIX вв. // Общественные науки в Узбекистане. –1984. -№ 7. –С.36–42. Қаранг: Хуршут Э. Изучение среднеазиатских источников XVI–XIX веков: значение, состояние, проблемы // Общественные науки в Узбекистане. –1989. -№ 2. С.49-53

¹⁰⁷⁴ Мулло Олим Махдум Ҳожа. Тарихи Туркистон. – Т.: Туркистон генерал губернаторлиги босмахонаси. 1915.-220б. Қаранг: Мулло Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. -Т.: Шарқ, 1995. - 127 б. Қаранг: Мирзо Олим Махдум Хожи. Тарихи Туркистон. -Т., Янги аср авлоди, 2010й.

¹⁰⁷⁵ Исҳоқхон Ибрат. Фарғона тарихи. Т: Мерос, 1991.

¹⁰⁷⁶ Мулло Холибой Мамбетов. «Ўрус лашкарининг Туркистонда тарих 1269–1282 саналарда қилгон

asari va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Avaz Muhammad Attor Ho'qandiy o'zining "Tarixi jahonnamoyi" asarida Qo'qon xonligi siyosiy hayotiga oid ko'plab masalalar haqida so'z yuritib, qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Asarda Qo'qon xonligining tashkil topishi, ming urug'i vakillarining xonlikni boshqarishi, ularning davlat hududlarini kengaytirish uchun olib borgan harbiy yurishlari, xonlikning iqtisodiy hayoti va boshqa ko'lab sohalari haqida ma'lumotlar berish bilan bir qatorda Qo'qon xonligining Rossiya imperiyasiga qarshi olib borgan kurashlari tarixini ham keng darajada yoritib beradi. Ayrim hollarda uning ma'lumotlarida mubolag'a holatlari uchrasa-da, o'z navbatida ma'lumotlar ham mukammalligi bilan boshqa asarlarga nisbatan ajralib turadi¹⁰⁷⁸.

Qo'qon xonligi tarixi haqida qimmatli ma'lumotlarni beruvchi mukammal bitilgan manbalardan biri "Tarixi jadidi Toshkand" asaridir. Bu asar Muhammad Solihxo'ja Toshkandiy qalamiga mansub bo'lib, xonlik tarixiga oid yirik manbalardan biridir. Asar arab alifbosining nasta'liq xatida o'zbek tilida yozilgan bo'lib, bir necha nusxasi mavjud.¹⁰⁷⁹ Muhammad Solih Toshkandiy Rossiya imperiyasining Qo'qon xonligiga qarshi harbiy yurishlariga qarshi kurashlarda, xususan Toshkent mudofaasida eng faol ishtirok etgan tarixchilardan biridir. U bo'lib o'tgan janglar va to'qnashuvlar, ularda sodir bo'lgan voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va ularda bevosita ishtirok etgan. Shu jihatdan olganda "Tarixi jadidi Toshkand" asari tadqiqotni amalga oshirishda eng asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qildi.

XIX asr ikkinchi yarmida Qo'qon xonligi tarixi haqida yozilgan manbalardan yana biri Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiyning «Tarixi

футухотлари», ЎзР А.Навоий номидаги МДК, № 10136. Қаранг: Веселовский Н.И. Киргизский рассказ о русских завоеваниях в Туркестанском крае / Текст, перевод и приложения. – Спб.: Б.и., 1894. -206 с. Қаранг. Мулло Ҳолибой Мамбетов. Туркистон босқини. Нашрга тайёрловчи З.Илҳомов. Т. ТДПУ. 2009. Қаранг: З.Илҳомов. Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни. Тарих фан.ном....дисс. Т.2004; Қаранг: Илҳомов З. Амирлашкар тарихи (Алымкул Амирлашкар). Отв ред. Т.Кенансариев. -Бишкек.: Махprint, 2019. С. 320-341.

¹⁰⁷⁷ Қаранг: Воҳидов Ш.Ҳ. XIX – XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши: Тарих фанлари д-ри... дисс. –Т.: 1998.

¹⁰⁷⁸ Қаранг: Ҳўқандий Аваз Муҳаммад Аттор. Тарихи жаҳоннамойи // Шарқ Юлдузи. -1991. -№8. – Б.119-141

¹⁰⁷⁹ Муҳаммад Солиҳхўжа Тошкандий. Тарихи жадиди Тошканд. Қўлёзма, ЎзФАШИ, №№ 7791, 11072, 11073, 5732.

Shoxruxiy» asaridir. Muhammad Niyoz Ho‘qandiy saroy amaldorlari safiga kirganligi uchun SHERALIXON hukmronligidan XIX asrning 70-yillarigacha yuz bergan siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirok etgan. Muallif o‘z asarida xonlik ichki siyosiy hayotining barcha tomonlarini atroflicha yoritish bilan birga, xonlarning tashqi siyosatga munosabati, harbiy ahvolning yomonligi va achinarlisi, harbiy ahvolning shunday qolib ketganligi, xattoki Rossiya imperiyasining dastlabki harbiy yurishlarida xonlik askarlarining mag‘lubiyatga uchrashi va shaharlarning qo‘ldan boy berilishini xonlarning beparvoligi oqibatida edi, deya baholaydi¹⁰⁸⁰.

Mirzo Olim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul xavoqin” asari Qo‘qon xonligi tarixining tashkil topishidan so‘nggi kunlarigacha bo‘lgan tarixiy voqealarni yoritishda muhim o‘rin tutadi¹⁰⁸¹. Mullo Olim Mahdumxojaning “Tarixi Turkiston” asarida ham uchratish mumkin. Bu manba Qo‘qon xonligi tarixiga bag‘ishlangan tarixiy asar bo‘lib, uning bugungi kunda toshbosma nusxasi saqlanib qolgan.¹⁰⁸² Mullo Olim Mahdumxoja yashagan davr va asarning yozilish vaqti asarda keltirilgan voqealardan ancha keyin bo‘lganligi uchun ayrim voqealar tafsilotlarda ixtiloflar uchrasada, asarning birinchi qismi Qo‘qon xonligi tarini yoritib beruvchi mavjud asarlar orasida xonlikning tarixi ham Turkistonning XX asr boshlaridagi tarixiy jarayonlari, jamiyat hayotida yuz bergan o‘zgarishlar va ayrim zamonaviy yangilanishlar haqida ham ko‘pgina qarashlar va ma’lumotlarni o‘z ichiga olganligi bilan ham muhim tarixiy manba sifatida baholanadi¹⁰⁸³. Asarning ikkinchi qismida esa Qo‘qon xonligining boshqaruv tizimi va davlat mansablari haqida mukammal ma’lumotlar keltirib o‘tilgan¹⁰⁸⁴.

Turkistonga amalga oshirilgan ilmiy ekspeditsiyalar va tabiiy fanlarning rivojlanishi. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyoga Rossiya imperiyasi va Yevropaning boshqa davlatlaridan amalga oshirilgan ko‘plab elchilik va ekspeditsiyalar haqida ko‘plab

¹⁰⁸⁰ Тарихи Шохрухий. Б. 199-200.

¹⁰⁸¹ Мирзо Рпаҳим Тошкандий. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. (Қўқон хонлиги тарихи). Т.: “Шарк”-1995.

¹⁰⁸² Мулло Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Туркистон генерал губернаторлиги кутубхонаси. Т.: 1915.

¹⁰⁸³ Тарихи Туркистон. 160-164-бб.

¹⁰⁸⁴ Тарихи Туркистон. 165-170-бб.

ma'lumotlarni kuzatish mumkin. Bular orasida A.Jenkinson, I.D.Xoxlov, aka-uka Pazuxinlar, F.Beneveni, V.A.Daudov va Muhammmad Yusuf elchiligi, Mitropolit Xrisanf, F.Nazarov, A.Berns, I.N.Xanikov, N.Muravyev, N.Muravin, A.F.Negri, P.CH.Demizon, M.Ivanin, I.V.Mushketov, N.A.Seversev, A.P.Fedchenko, P.P.Semenov-Tyan-Shanskiy, N.M.Prjevalskiy va boshqalarning asarlarida va esdaliklarida o'zbek xonliklarining tarixiy geografiasiga oid ko'plab ma'lumotlarni o'qish mumkin. Turkiston o'lkasida rus olimlari geografik va tabiiy sohalarda ham keng ko'lamli tadqiqotlarni olib borishga kirishdilar. Ular jiddiy ravishda ilmiy mazmundagi izlanishlarni amalga oshirdilar. Ammo bundan rus olimlari Turkiston uchun foydali maqsadlarni ko'zlab tadqiqotlar olib bordilar deb bo'lmaydi. Masalan, haritalashtirish ishlari eng birinchi navbatda rus harbiylari uchun, nihoyatda, zarur bo'lgan. Tog' - kon ishlari esa rus harbiy sanoati yoki sanoat ishlab chiqarishi uchun foydali xom-ashyolarni qo'lga kiritish maqsadida amalga oshirilgan. Shuning uchun ham bu yerda tadqiqot olib borayotgan rus olimlarini harbiy vazirlik yoki manfaatdor sanoatchilar mablag' bilan ta'minlaganlar. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o'lkasini ilmiy tadqiq etish bo'yicha shart-sharoitlar butkul o'zgardi. O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi natijasida Rossiya olimlari tomonidan O'rta Osiyoda tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar vujudga keldi. Turkistonni boshqarishda o'lkaning ilmiy o'rganilishi samarali natija berishini anglagan Rossiya imperiyasi hukumati o'zbek xonliklariga yuborilgan turli ekspeditsiyalarga katta mablag' ajrata boshladi¹⁰⁸⁵. XIX asrning 80-90-yillarida Toshkent va boshqa yirik shaharlarda turli ilmiy jamiyatlar (arxeologiya, jug'rofiya, etnografiya kabilar) tashkil etilgan. 1896 yilda Samarqandda "Tarixiy muzey" ish boshladi. Bir qator ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirildi. Bu borada rus olimlari I.V.Mushketov, N.A.Seversev, A.P.Fedchenko, P.P.Semenov Tyan-Shanskiy, N.M.Prjevalskiy va boshqalar samarali ishlar olib bordilar¹⁰⁸⁶.

¹⁰⁸⁵ Кариева Н.А. XIX асрнинг 50-60-йилларида рус саёхатчилари экспедицияларида Ўрта Осиё географиясини ўрганиш масаласи. Историческая наука в Узбекистане: проблемы и перспективы развития. / Отв. Ред. Алимова Д.А., Асадова Ш.И. Ташкент: Akademnasdhr, 2018. 96-б.

¹⁰⁸⁶ Shamsutdinov R. , Karimov Sh. Vatan tarixi. (XVI-XX asr boshlari). Ikkinchi kitob. Toshkent,

Ilmiy tadqiqotlar turli sohalarda amalga oshirildi. Mashhur rus zoologlaridan biri N.A.Seversev (1827-1886) katta tekshirishlar olib bordi. U «dunyo tomi» hisoblangan Pomir tizimlarini oʻrganib chiqdi va zoologiya, botanika, minerologiya sohasida katta yutuqlarga erishdi. P.P. Semenov Tyanshanskiy (1827—1914) Tyanshan togʻ tizmalarida muzliklar va vulqonlar toʻrtida qimmatli manbalarni qoʻlga kiritdi. Tabiatshunos A.P.Fedchenko (1844-1873) Fargʻona vodiysi va Oloyni, shuningdek, Zarafshon vodiisi bilan Qizilqum choʻllarini ham tekshirib chiqib, tabiatshunoslik sohasida katta maʼlumotlarni fanga maʼlum qildi¹⁰⁸⁷. Geologiya va geografiya sohasida tadqiqot ishlari olib borgan I.V.Mushketov (1850-1902) shimoliy Tyanshan togʻ tizmalarining geologik asoslarini aniqladi. Shuningdek, Turkistondagi mavjud boʻlgan foydali qazilmalar haritasini tuzib chiqdi. Bundan tashqari G.D.Romanovskiy bilan birgalikda Turkistonning birinchi minerologik haritasini tuzdi. I.V.Mushketov oʻz ishlarining barchasini umumlashgan holda «Oʻrta Osiyoni oʻrganish tarixi» asarida koʻrsatib berdi. Tabiatshunos olimlardan yana biri V.V.Dokuchayev Oʻrta Osiyo tuproqlarini tarkibini oʻrganish sohasida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi. Rus geografik jamiyati hamda Moskva tabiatshunoslik qiziquvchilari jamiyati Oʻrta Osiyoni oʻrganish boʻyicha barcha imkoniyatlarni yaratish yuzasidan tashabbus koʻrsatdi. Mazkur tashkilotlarning vakillari Oʻrta Osiyo geografiyasi boʻyicha ekspeditsiya natijalarini oʻz ichiga olgan ilmiy tadqiqot ishlarini taqdim eta boshladilar. Ayni davrda Turkiston oʻlkasining kartografik va topografik jihatdan yangi xaritalari yaratildi, mamlakatning oʻsimlik, hayvonot dunyosi va geologiyasiga doir maʼlumotlar yigʻildi. Oʻrta Osiyoga amalga oshirilgan ekspeditsiyalar tarkibida Rossiya geografiya jamiyati olimlaridan P.P.Semyonov, A.P.Fedchenko, N.A.Seversov ishtirok etdi. Mashxur tadkikotchi-geograf P.P. Semyonov¹⁰⁸⁸ Tyan-Shan hududi, geograf I. Borshov esa Orol-Kaspiy yerlari oʻsimlik zonalarining vertikal taqsimlanishi jihatlarini oʻrgandi. XIX asr oʻrtalariga kelib Oʻrta Osiyoning rus tadqiqotchilari tomonidan

“SHARQ”. 2010. 236-6.

¹⁰⁸⁷ Илхомов З., Якобжанов Ж. Қўқонга саёҳат қилган рус олими. Тошкент, ТДПУ, 2009.

¹⁰⁸⁸ Семёнов П.П. Путешествие в Тянь-Шань в 1856 - 1857 гг. М.: ОГИЗ, 1948. С.181 - 182.

ilmiy o'rganilgan hudud maydoni kengaydi. Aynan shu davrdan rus geograflari Turkiston o'lkasining Tyan-Shan, Zarafshonning quyi oqimi, Oloy tog'lari kabi hududlarini chuqur o'rgana boshladilar¹⁰⁸⁹.

XIX asrning oxirgi choragida Turkistonda bir qancha ilmiy muassasalar ham tashkil etildi. Jumladan, 1867 yilda Toshkentda birinchi meteorologiya stansiyasi ish boshladi. Bu yerda o'lkaning iqlimi keng ko'lamda o'rganila boshladi. 1870 yilda esa Toshkentda Turkiston halq kutubxonasi tashkil etildi. 1874 yilda observatoriya ochildi. Shu yili Osiyo olimlari jamiyati tuzildi. Bu jamiyat o'z oldiga tarix, geografiya, etnografiya, statistika, iqtisodga oid ma'lumotlarni o'rganishni maqsad qilib qo'ygan edi. Turkiston o'lkasida jami 15 ga yaqin ilmiy jamiyatlar ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullangan bo'lib, ularning izlanishlari natijasi o'lkadagi ilmiy sohadagi ishlar ham sezilarli darajada ijobiy natijalarga erishdi. Biroq rus olimlarining olib borgan tadqiqotlari natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlar Rossiya foydasiga o'zlashtirildi va ko'p hollarda mahalliy halqlarning bu yutuqlaridan manfaatdor bo'lishlariga yo'l qo'yilmadi.

Bu davrda yaratilgan asarlar va ularda keltirilgan ma'lumotlar mavzuni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etsada, ular orasidan yana bir tadqiqotni alohida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir, bu tadqiqotchi va sayohatchi N.Mayevning "Putevoditel' ot S.-Peterburga do Tashkenta" nomli risolasidir. N.Mayev o'z tadqiqotlarida va keyinchalik nashr etilgan risolalarida O'rta Osiyoga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni batafsil sharhlab berishga va tasvirlashga harakat qiladi, ayrim holatlarda uning sharhlari va tavsiflari umumiy holatda berilsa, ayrim ma'lumotlar birmuncha diqqatni jalb etadi. Shunday ma'lumotlardan biri Rossiya imperiyasi markazi bo'lgan Sankt Peterburg shahridan Turkiston general gubernatorligi markazi bo'lgan Toshkent shahrigacha masofa va yo'l bo'yida joylashgan shaharlar va bekatlar haqidagi ma'lumotdir. Rossiya markazidan Toshkentgacha bo'lgan yo'nalish sifatida N.Mayev 2 ta yo'lni tanlashni taklif qiladi: Birinchi yo'nalish Sankt Peterburg – Moskva – Nijniy

¹⁰⁸⁹ Кариева Н.А. XIX асрнинг 50-60-йилларида рус саёхатчилари экспедицияларида Ўрта Осиё географиясини ўрганиш масаласи. Историческая наука в Узбекистане: проблемы и перспективы развития. / Отв. Ред. Алимова Д.А., Асадова Ш.И. Ташкент: Akademnasdhr, 2018. 97-б.

Novgorod – Samara – Orenburg – Orsk – Qorabutoq – Irgiz (Uralsk istehkomi) - Kazalinsk (1-fort) – 2-fort (Karmakchi) – Perovsk – Jo‘lek – Turkiston – Chimkent – Toshkent. Bu yo‘nalish bo‘ylab oraliq masofa jami 4081 verstni tashkil qilgan. Ikkinchi yo‘nalish Sankt Peterburg – Moskva – Nijniy Novgorod – Perm – Yekaterinburg – Tyumen – Omsk – Semipalatinsk – Sergiopol – Kopal – Verniy – Avliyoota – Chimkent – Toshkent. Yo‘nalishning jami uzunligi 5815 verstdan iborat bo‘lgan¹⁰⁹⁰. N.Mayevning ma‘lumotlariga ko‘ra Perovskdan Toshkentgacha bo‘lgan masofa 621,75 verst¹⁰⁹¹ bo‘lib, yo‘l davomida 28 ta bekatlar – aniqrog‘i, aholi yashash joylari joylashgan¹⁰⁹².

O‘zbek xonliklari sarhadlariga Rossiya imperiyasining harbiylashgan ekspeditsiyalari va qo‘shinlarining kirib kelishi, bu yerda turli qal’alar va istehkomlarning barpo etilishi buning zaruriyati kabilar haqida ham N.Mayev o‘z asarida ma‘lumot berishga harakat qiladi. N.Mayevning ko‘rsatishicha, Qozoq cho‘llaridagi va savdo yo‘llaridagi talonchilikning oldini olish va savdo karvonlarining xavfsizligini ta‘minlash maqsadida bir qator istehkomlar quriladi va shu tariqa 1835 yilga kelib Aleksandrov forti, Uralsk istehkomi, Orenburg istehkomi, Korabutoq istehkomi va boshqalar paydo bo‘ldi. Sirdaryo bo‘ylarida Xiva xonligining ta‘sirini yo‘qotish maqsadida esa 1847 yilda keyinchalik Aralsk forti nomini olgan Raim istehkomi barpo etiladi. Shu tariqa daryoning yuqori oqimi bo‘ylab 2-fort (Kazalinsk) va 3-fortlar (Karmakchi) qurildi, keyinchalik Qo‘qon xonligidan tortib olingan Oqmasjid qal’asi o‘rnida Perovskiy forti, Jo‘lek qal’asi o‘rnida esa Jo‘lek forti barpo etildi. N.Mayevning so‘zlaridan ko‘rish mumkinki, muallif bu harbiy qal’alarning barpo etilishi borasidagi fikrlarini juda yuzaki va umumiy tarzda bildirib o‘tgan.

N.Mayev o‘z asarida Turkiston general gubernatorligining chegaralarini quyidagicha tasvirlab beradi¹⁰⁹³: Turkiston general gubernatorligi bilan Tarbag‘atoy tizmasi va Semipalatinsk viloyatining Sibir Qirg‘izlari viloyati bilan chegaralari, bu yerdan Balxash ko‘ligacha

¹⁰⁹⁰ Маев Н. Путеводитель от С.-Петербурга до Ташкента. Военная типография. СанктПетербургъ. 1870. Стр.19

¹⁰⁹¹ 1 версть -1,0668 км га тенг.

¹⁰⁹² Маев Н. Путеводитель от С.-Петербурга до Ташкента. Военная типография. СанктПетербургъ. 1870. Стр.39-40

¹⁰⁹³ Бунда 1870 йилгача бўлган чегаралар кўрсатиб берилганлигини таъкидлаб ўтиш керак.

va ko‘l yoqalab to‘g‘ri chiziq bo‘ylab Chu daryosigacha, daryo oqimi bo‘ylab Sarisuvigacha bo‘lgan hududlar bilan belgilanadi.

Turkiston genearl gubernatorligining Orenburg genearl gubernatorligi bilan cheagaralari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Perovskiyo qo‘ltig‘i o‘rtalaridan Orol dengizi tomon Termembes tog‘lariga, u yerdan Terekli darasigacha va keyin Kelmas tog‘iga va Muzbil darasiga, u yerdan esa Oqqum va Chubartepa tog‘larigacha, Muinqum cho‘lining janubiy sarhadlarigacha va Mingbuloq darasiga, u yerdan esa Sarisuv va Chu daryolarining quyilishi joyigacha bo‘lgan yerlar¹⁰⁹⁴. XIX asrning oxirgi choragida Turkistonda bir qancha ilmiy muassasalar ham tashkil etildi. Jumladan, 1867 yilda Toshkentda birinchi meteorologiya stansiya ish boshladi. Bu yerda o‘lkaning iqlimi keng ko‘lamda o‘rganila boshladi. 1870 yilda esa Toshkentda Turkiston halq kutubxonasi tashkil etildi. 1874 yilda observatoriya ochildi. Shu yili “Osiyo olimlari” jamiyati tuzildi. Bu jamiyat o‘z oldiga tarix, geografiya, etnografiya, statistika, iqtisodga oid ma’lumotlarni o‘rganishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Turkiston o‘lkasida jami 15 ga yaqin ilmiy jamiyatlar ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullangan bo‘lib, ularning izlanishlari natijasi o‘lkadagi ilmiy sohadagi ishlar ham sezilarli darajada ijobiy natijalarga erishdi¹⁰⁹⁵. Biroq rus olimlarining olib borgan tadqiqotlari natijasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar Rossiya imperiyasining mustamlakachilik manfaatlari foydasiga o‘zlashtirildi va ko‘p hollarda mahalliy halqlarning bu yutuqlaridan manfaatdor bo‘lishlariga yo‘l qo‘yilmadi.

Me’morchilik sohasida tarixiy an’analarining davom ettirilishi.

XIX asrning o‘rtalariga kelib ham Buxoro va Xorazm me’morchilik maktablari o‘zlarining tarixiy an’anaviy uslublarini saqlagan holda zamonaviy yutuqlardan ham foydalanib, ko‘plab obidalarni barpo qildilar. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida butun Turkiston o‘lkasi, Buxoro va Xorazmda mashhur bo‘lgan Obloqul va Ibrohim Xafizovlar, Mo‘minjon Solixov va Usta Shirin Murodovlar kabi taniqli ustalar va me’morlar yetishib chiqdi. Ular XX asrning boshlarida

¹⁰⁹⁴ Маев Н. Путеводитель от С.-Петербурга до Ташкента. Военная типография. СанктПетербургъ. 1870. Стр.13

¹⁰⁹⁵ Илхомов З. Хўжамов М. Ўзбекистон тарихи. Тошкент, 2002. 64-б.

Buxoroda qurilgan Sitorai Moxi Xosa saroyini qurishda ishtirok etdilar va ajoyib durdona barpo qildilar.

Me'morchilik Turkiston o'lkasining yirik shaharlarida, jumladan, Toshkent, Qo'qon va boshqalarda an'anaviy uslublarda davom ettirilgan bo'lsa, Buxoro va Xorazm me'morchiligida qo'llanilgan bir qator zamonaviy uslublarni ham ko'rish mumkin. Ayniqsa, bu davr shaharsozligida yevropa me'morchilik va shaharsozlik uslublarining kirib kelganligini kuzatish mumkin. Bunday xolatni ayniqsa, Buxoro amirining yozgi qarorgohi hisoblangan Sitorai Moxi Xosa hamda Xivadagi Nurullaboy saroylarida kuzatish mumkin. Turkistonning yirik shaharlarida ruslar yashaydigan yangi shaharlarning barpo qilinishi oqibatida butunlay yevropacha tarzda me'morchilik binolari, ma'muriy binolar, provaslav cherkovlari qurish keng avj oldi va XIX asr oxiri - XX asr boshlarida mahalliy me'morchilik an'analari bilan bir vaqtning o'zida shunday aralash uslubidagi me'morchilik an'analari ham yuzaga keldi.

Toshkent XIX asr boshlariga kelib Qo'qon xonligi hududiga kiritilib, xonlikning asosiy shaharlaridan biri maqomiga ega edi. XIX asrga kelib shaharda 12 ta darvoza mavjud bo'lib, shahar aholisi 80.000 ga yaqin kishini tashkil etgan. XIX asr o'rtalariga qadar shahar asosini Ko'kcha, Sebzor, Beshyog'och va Shayxontohur dahalari tashkil etgan. Har bir daha ko'plab mahallalardan tashkil topgan bo'lib, ularning soni XX asr boshlariga kelib 260 tani tashkil etgan¹⁰⁹⁶. Shahar hududidagi masjidlar soni 1899 yili 180 ta, 1912 yili – 345 tani tashkil etgan bo'lsa, madrasalar 1912 yilga kelib – 16 tani tashkil etgan. Xristian cherkovlari 1910 yili – 15 tani, boshqa dinga mansub ibodatxonalar – 6 tani tashkil etgan¹⁰⁹⁷.

Toshkentning Turkiston general gubernatorligi markazi etib belgilanishi va general gubernator K.P.fon Kaufmannning shahar kelishi bilan shaharga ko'plab xizmatchilar va harbiylar kelib o'rnasha boshladi, ayni vaqtda shaharda turli ko'lamdagi va me'moriy uslubdagi qurilishlar

¹⁰⁹⁶ Мухаммадкаримов А. Тошкентнома. Тарихий топонимик лавҳалар. Биринчи китоб. Тошкент: Мовароуннахр, 2004. 14-б.

¹⁰⁹⁷ Бўриева Х.А. Толерантликнинг топонимларда акс этиши (Тошкент шаҳри мисолида) // Ёшлар тарбиясида — толерантлик давр талаби. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент, 2008. 79-80-бб.

ham avj olib bordi¹⁰⁹⁸. 1877 yilda yangi shaharning qurilish maydoni 1 verst kv.km ni tashkil qilgan bo'lsa, 1904 yilda 25 kv.km, 1911 yilda esa 30 kv.km ni tashkil etgan. Toshkent shahrida 100 mingga yaqin aholi yashagan bo'lsa, shaharning yangi qismida yashovchi aholining soni 4 mingga yaqin edi. 1897 yildagi amalga oshirilgan aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra shahar aholisining aniq soni 155673 kishini tashkil qilgan¹⁰⁹⁹.

Toshkentda mavjud bo'lgan Abulqosim, Ko'kaldosh, Baroqxon, Beklarbegi, Eshonguzar madrasalari ma'lum va mashhur bo'lgan ilm markazlari safidan joy olgan edilar. Toshkent shahri 1865 yili Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilganidan so'ng, Bo'zsuv kanali chap sohilida "yangi" shaharga asos solindi. Shaharning bu qismida mustamlaka ma'muriyati joylashgan hamda Rossiyadan ko'chib kelgan aholi yashaydigan joyga aylangan edi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida shaharning "yangi" qismida qurilgan eng mashhur binolardan o'sha davrdagi Davlat banki, ayollar gimnaziyasi (hozirgi Toshkent davlat yuridik instituti), Toshkent erkaklar gimnaziyasi, Kadetlar korpusi (hozirgi I Toshkent tibbiyot akademiyasi hududi), Knyaz Nikolay Konstantinovich saroyi (hozirgi Tashqi ishlar vazirligining qabulxonasi), Real bilim yurti, Kaplan dorixonasi, Toshkent shimoliy vokzali, Turkiston davlat sud palatasi va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin¹¹⁰⁰.

Buxoro me'morchilik an'analari boshqa viloyatlardan farqlangan. Uylar asosan ko'shsinchli qilib qurilgan, binokorlikda ganch, yog'och va marmartosh ko'p ishlatilgan.

Samarqand shahrida bunyod etilgan me'moriy obidalardan yana biri Hazrati Xizr masjidi XIX asr o'rtalarida qurilgan. Bino qadimiy masjid poydevori ustiga qurilgan bo'lib, bosh ko'rinishidagi tik zinapoyadan darvozaxonaga chiqib, uncha katta bo'lmagan xonaga o'tiladi. Chapdagi ravoqli peshayvon jazibador naqshlar bilan serhasham qilib bezatilgan. Old tomonida yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan 5 ta ustunli ayvon bulib, undan xonaqoxga eshik ochilgan. Xonaqoxning ikki yonida hujralar

¹⁰⁹⁸ Геншке В.Л., Ваганова Т.Е. Облик Ташкента XIX века (взгляд приезжего).

¹⁰⁹⁹ Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Т. 1912. Стр.42.

¹¹⁰⁰ Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бoshларида Тошкентнинг "янги шаҳар" қисми тарихи: Тошкент, "Fan va texnologiya", 2004. 11-б

bor. Keyinchalik binoga, ya'ni 1891yillardan qo'shimcha ayvon va 1919 yilda darvozaxona qurilib ajoyib naqshu-nigorlar bilan bezatilgan.

Xorazm me'morchiligi ham eng qadimiy an'analariga tayangan holda, o'ziga xos ijodiy maktabni yaratgan edi. Bunday an'analarni XIX asr oxiri XX asr boshlarida bunyod etilgan me'morchilik obidalarida ko'rish mumkin.

Xorazm me'morchilik maktabida Odina Muhammad Murod, usta, Nurmuhammad, usta Abdujabbor va uning o'tli So'fimuhammad Niyoz va usta Abdullalar elga taniqli me'morlar sanalgan. Ular yaratgan me'morchilik obidaları va tabiiy o'simliklar va giyoxlardan ishlangan bo'yoqlar o'zining sifati bilan xanuzgacha o'z ko'rkini yo'qotmagan.

Xiva xonligida XIX ar oxiri XX asr boshlarida qurilgan Kozi Kalon madrasasi, Islom Xo'ja minorasi va boshqalar o'zlarining me'morchilik uslublari bilan Xorazm me'morchiligida o'ziga xos o'rin tutadi. YOROCH o'ymakorligi ham Xorazm me'morchiligini boyitib turgan xislatlardan biri sanaladi.

Farg'ona vodiysida ham me'morchilik uslublari o'ziga xos tarzda shakllangan bo'lib, 1876 yilda Qo'qon xonligi tutatilgach, rus uslubidagi va yevropacha usuldagi binolar qurish ham kengayib bordi. Sababi imperiya mustamlakachilari milliylikning har qanday ko'rinishiga tish-tirnog'i bilan qarshi turardi. Shunga qaramay, me'morchilik o'z an'analarini butkul yo'qotib yubormagan holda, rivojlanishida davom etdi. Bunga misol tariqasida XIX asr oxirlarida qurilgan Andijon jome' masjidini aytib o'tish mumkin¹¹⁰¹. Qo'qon Jo'me masjidi XIX asr boshlarida bunyod etilgan bo'lib, Umar nomi bilan chambarchas bog'liq. Masjid ulkan xonaqoh va uch tomoni 98 ta yog'och ustunli keng ayvondan iborat bo'lib, ayvon shipi to'sinlari islamiy va girih naqshlar bilan, devorlari ganch o'ymakorligi bilan, izoralari "chaspak" uslubida bezatilgan. Ustunlari go'zal va nafis naqshu-nigorlar bilan o'yma bezak berilgan bo'lib, kursisi marmardan ishlangan. Masjidning yonidagi minora konus shaklda bo'lib, tepasi olti qirrali qafasa-tuynuk va qubba bilan tugallangan. Yuqoriga aylanma zina orqali chiqiladi. Xudayorxon o'rdasida shaharning muhim arxitektura yodgorliklaridan hisoblangan,

¹¹⁰¹ Илҳомов З. Хўжамов М. Ўзбекистон тарихи, Тошкент. 2002. 169-б.

ko'p ustunli qilib qurilgan, bo'yama va o'yama naqshlar bilan jozibador qilib bezatilgan jomye masjid XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida qurilgan. 1914 yilda esa Komil qozi madrasasi bunyod etildi.

Turkistonda qo'shiqchilik, san'at va dostonchilik. Rossiya imperiyasining ruslashtirish siyosati mahalliy halqlarni o'z madaniyatidan mahrum qilishni ko'zda tutardi. Bu siyosat san'at sohasiga ham tahdid solardi. Biroq o'zbek milliy san'ati, ayniqsa, qo'shiqchilik san'ati o'zining milliyliigi va tarixiy an'alarini saqlagan holda rivojlanishida davom etdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'zbek milliy qo'shiqchilik asosan to'rt yo'nalishda rivojlandi Xorazm yo'li, Buxoro-Samarqand yo'li, Farg'ona-Toshkent yo'li, Surxondaryo-Qashqadaryo yo'li. Surxondaryo-Qashqadaryo yo'li o'zining dostonchiligi bilan xususiyatlansa, Buxoro-Samarqand yo'li halq musiqalariga asosangan uslub hisoblangan. Buxoro musiqa madaniyatiga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri mavrigixonlik edi. Mavigixonlikda Domla Halim Ibodov mashhur san'atkorlardan sanalib, uning maktabida Sa'dulla Baqojon kabi san'atkorlar yetishib chiqqan. Dunyoga o'zbek musiqa san'atini tanitgan hofizlardan Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Muhammad Umar, Abduqaxxor hofiz, Muxiddin Qori Yoqubov, Usta Ro'zmat Isaboyev o'z vaqtida o'zbek musiqa san'ati va uzbek milliy qo'shiqchiligi sohasida, uning rivoji va ravnaqi yo'lida katta mavaffaqiyatlarga erishganlar va azaliy an'analarning buzilmasdan kelajak avlodlarga meros bo'lib o'tishi borasida katta say-harakat etganlar¹¹⁰².

Xorazm vohasida ham qo'shiqchilik san'atiga alohida mehr va e'tibor bilan munosabatda bo'lingan. Hatto biron-bir davlat hukmdori tomonidan amalga oshirilmagan qonunning Muhammad Rahimxon II tomonidan qabul qilinishi ham o'zbek milliy qo'shiqchiligi va san'ati uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan voqeadir, ya'ni xon Xorazm maqomlarini halqning daxlsiz mulki deb e'lon qilingan va unga behurmatlik bilan qilinsa yoki buzib ijro etilsa, qattiq jazolangan.

¹¹⁰² Илҳомов З. Хўжамов М. Ўзбекистон тарихи, Тошкент. 2002. 171-б.

Muhammad Rahimxon II Feruz. (1844-1910). 47 yil hukmdorlik qilgan Xiva xoni. Adabiyot, san'atning fidoiy homiysi, ko'plab san'at sohiblariga, shoir-yozuvchilarga ijod qilishlari uchun sharoit yaratib bergan hukmdor. Feruz o'zbek madaniyati tarixida o'ziga xos o'ringa ega. U davlat arbobi bo'lishi bilan birga iste'dodli shoir, zukko musiqashunos va san'atshunos, mohir sozanda, fan va madaniyatni, Xorazmning mashhur 6 yarim maqomini takomillashtirishda rahbarlik qilgan. Uning rahbarligida musiqa tarixi va nazariyasiga oid risolalar yozildi. Xorazmda miniatyura maktabi tashkil etilishining tashabbuskori bo'ldi. Uning homiyligida Turkistonda birinchi matbaa (nashr ishi) va Xorazmda ilk dorushshifo tashkil etildi. O'z saroyida esa salohiyatli adabiy muhit barpo etdi. «Majmuat ush-shuaro» tazkirasini tuzishga rahbarlik qildi. Feruz o'zi bastalagan kuylar, yaratgan ajoyib she'rlari bilan ham madaniyatimiz merosiga ulkan hissa qo'shgan betakror, serqirra ijodkorlardandir¹¹⁰³.

XIX asr oxirida yashagan farg'onalik ashulachi va sozandalarning ko'pchiligi serqirra san'atkor bo'lishgan. Bir kishining o'zi ikki-uch cholg'u sozida chalishni puxta egallagan sozanda, bastakor, hofiz, qiziqchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Ba'zilar o'zlari uchun doimiy kerak bo'lgan cholg'u sozlarini yasash hunaridan ham xabardor bo'lganlar. Ularning noyob iste'dodi yana shu jihatdan qadrligi, ular nota yozuvlarisiz qanchadan-qancha xalq musiqa boyliklarini, shashmaqomlarni yodaki o'rganganlar va esda saqlab qolib, o'z navbatida shogirdlariga o'tkazganlar. Farg'ona vodiysida xalq professional musiqasi janriga kiruvchi «Shashmaqom»ning Farg'ona-Toshkent yo'llari va ayniqsa katta ashula keng tarqalgan¹¹⁰⁴.

O'zbek san'atkorlarining dong'i faqat Turkiston o'lkasidagina emas, balki qo'shni, chet mamlakatlarga ham yetib borgan. Masalan, samarqandlik mashhur hofiz Xoji Abdulaziz Rasulov Eron, Afg'oniston, Arabiston, Iroq, Hindiston va Yunoniston mamlakatlarida o'z san'atini namoyish qilgan. Toshkentlik Mulla To'ychi Toshmuhammedovning ovozi Yorkent, G'ulja, Chuguchak xalqlari sevib tinglaganlar. Farg'ona

¹¹⁰³ Хамидов Х. XVI-XIX асрлар юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар. Тошкент, “Фан”, 2009. 64-б.

¹¹⁰⁴ Хамидов Х. XVI-XIX асрлар юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар. Тошкент, “Фан”, 2009. 62-б.

vodiysining bir guruh san'atkorlari mashhur qiziqchi, musiqachi, raqqos Yusufjon Shakarjonov boshchiligida o'z san'atlarini Qashqarda ham namoyish etganlar. XIX asrning 70-yillaridan boshlab Rossiyaning markaziy shaharlaridan va chet ellardan kelgan mashhur san'atkorlar, Toshkent, Samarqand, Qo'qon Andijon, Marg'ilon kabi shaharlarda spektakllar, konsertlar ko'rsata boshlaganlar. Viloyat markazi bo'lgan Farg'ona shahrida va boshqa shaharlarda musiqa sozlari savdosi uchun maxsus do'konlar ochilgan, ularda rus cholg'u asboblari bilan bir qatorda chet ellardan keltirilgan cholg'u sozlari ham sotilgan¹¹⁰⁵.

Dostonchilik sohasi ham o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atining muhim bo'tinlaridan sanalgan va bu sohada dostonchilar «Alpomish», «Go'ro'g'li» kabi mashhur dostonlarni hozirgi kungacha saqlanib qolishiga va kuylanib yurilishiga katta xissa qo'shganlar. Dostonchilik va baxshichilik xalq og'zaki poetik ijodidagi qadimgi epik an'ana bo'lib, unda dastlab qo'shiq shaklidagi, musiqa sozlarisiz kuylanadigan asarlar yaratilgan. XVI asrlardan keyingi davrlarga kelib dostonchilik-baxshichilik san'ati sohasida o'ziga xos yuksalish ro'y bera boshlagan. Manbalarga ko'ra, bu davrda baxshilar repertuarida 150 dan ortiq dostonlar bo'lgan. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida esa Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan, Islom shoir, Saidmurod Panoh o'g'li, Berdi baxshi, Abdulla Nurali o'g'li, Umir baxshi, Bola baxshi, Ahmad baxshi kabi yetuk, mashhur baxshilar o'zlariga zamondosh boshqa baxshilar bilan hamkorlikda ushbu epik an'anani davom ettirganlar. Dostonchilikning Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobodagi yirik maktablaridan tashqari Qamay, Pskent, Ko'lbuqon, o'zbek-laqay maktablari uslublari ham mavjud. Masalan, Qashqadaryoning Qamay qishlog'i dostonchilik maktabining Abdukarim Juyruq (XIX asr), Mulla Xolnazar o'g'li (XIX asr oxiri - XX asr boshi), Bozor Sherqul o'g'li (1877-1953), Xazratqul baxshi (XIX asr II yarmi - XX asr boshlari) kabi qator yetuk baxshilari bo'lgan. Bu davrda shakllangan baxshilar orasida Ergash Jumanbulbul o'g'li, Islom shoir, Fozil shoir kabi baxshilarni alohida ko'rsatib o'tish lozim.

¹¹⁰⁵ Хамидов Х. XVI-XIX асрлар юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар. Тошкент, “Фан”, 2009. 63-б.

Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937) 1887-1889 yillarda Buxoro amirligining Nurota bekligida Mirza (kotib) bo'lib ishlab, mahalliy amaldorlarni xalqqa qilayotgan zulmining guvohi bo'ldi va tezda bu vazifadan voz kechgan. O'lkada qaxatchilik, vabo tarqalib ukalari, singillar, farzandlari vafot etgan. 15 yilga yaqin dostonchilik qilmay oddiy, og'ir mehnat bilan shug'ullangan. Turkistonda sho'rolar hukmronligi o'rnatilgach, Ergash Jumanbulbul o'g'li amirlik hududidan chiqib ketib shahar, qishloqlarda qissaxonlik, she'rxonlik va dostonchilik qila boshlaydi va dostonchilik san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shadi. Uning ijodi boy va xilma-xil bo'lgan. 30 ga yaqin dostonlarni va termalarni yod bilgan.

Islom Shoir Nazar o'g'li (1874-1958) o'z bobosidan va ustozlari Ernazar shoirdan dostonlar aytishni o'rgangan. 22 yoshidan dostonlarni do'mbira sozi bilan kuylab, el orasida tanila boshlagan. Ayniqsa u kuylagan «Alpomish», «Kuntug'mush», «Orzigul», «Avazxon», «Sohibqiron», «Gulixiromon» kabi dostonlar el orasida keng tarqalgan. Shuningdek, Islom shoir xalq qo'shiqlari va ertaklarini ham mahorat bilan kuylagan. Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955) 25-26 yoshlarida yetuk dostonchi sifatida tanilgan. U «Alpomish», «Yodgor», «Murodxon», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Zulfizar» kabi 40 dan ortiq xalq dostonlarini yoddan bilgan va yuksak mahorat bilan kuylagan. Fozilning ustozlari Yo'ldosh shoir o'z davrining mashhur dostonchi-baxshisi Yo'ldosh bulbulning shogirdi bo'lgan. Yo'ldosh bulbulga esa o'z navbatida XVIII asrning II yarmida yashab ijod etgan Muhammad shoir ustozlik qilgan. Ushbu maktab Chinni baxshi, Tovbuzar shoir, Sultonmurod, Qo'ldosh, Rahim bulbul, Jo'ra, Fozil shoir kabi o'nlab dostonchilarni birlashtirgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bu yirik maktab vakillari Farg'ona vodiysidagi o'zbek dostonchilariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatganlar. Shuning uchun ham vodiydagi mashhur baxshilar, jumladan, Yangiqo'rg'on tumanidagi Ko'lbuqon dostonchilari o'z ustozlarini Bulung'ur dostonchilik maktabi bilan bog'laydilar¹¹⁰⁶.

Dostonchilik-baxshichilik ijodining yetuk, mashhur vakillari

¹¹⁰⁶ Хамидов Х. XVI-XIX асрлар юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар. Тошкент, “Фан”, 2009. 87-88-бб.

bugungacha ham elimizga xizmat qilib kelmoqda.

Jadidchilikning shakllanishi, jadidlar maorifi va matbuot.

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotga yo'l ochish, halqqa ziyo tarqatish choralari ko'radilar. Bu borada jadidchilik harakati katta rol o'ynadi. Turkistonda jadidchilik goyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshlagan. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirigacha o'lka ijtimoiy, siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi. Hozirgi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uchta bosqichda faoliyat ko'rsatganligi ko'rsatib berilmoqda, birinchi bosqich - XX asr oxirlaridan 1915 yilgacha – ma'rifatchilik faoliyati, ikkinchi bosqich – 1915 yildan 1918 yil fevraligacha – muxtoriyatchilik bosqichi, uchinchi bosqich - 1918 yil fevralidan 20 yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyatidir. Jadidchilik Rossiyaga qaram bo'lgan musulmon halqlari orasida, dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo'ldi. Uning asoschisi diniy va dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan. Ismoil Gaspirinskiy (1851-1914) bo'ldi. “Jadid” - arabcha so'zdan olingan bo'lib, yangilik va islohotchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchi faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan taraqqiyparvar, ilg'or ruhdagi ziyolilar tarixda “jadidlar” deb nomlanganlar¹¹⁰⁷. Ismoil Gaspirinskiyning rus va turkiy tillarda 1883 yildan 1914 yillar davomida chop etilgan “Tarjimon” gazetasi, 1881 yilda chop etilgan “Rossiya musulmonligi”, 1885 yil chop etilgan “Ovrupa madaniyatiga bir nazar muvozzini” va boshqa asarlari hamda jadid maktablari uchun yozilgan darsliklar va qo'llanmalari Turkistonga tez kirib kelib, turkistonlik ma'rifatparvarlar orasida keng tarqaldi. Ismoil Gaspirinskiy 1884 yilda o'n ikkita bolani yangicha usul - “usuli jadid” tovush usuli bilan o'qitib, 40 kunda savodini

¹¹⁰⁷ Ўзбекистон тарихи: (Олий ўқув юртлири талабалари учун дарслик). Т., “Янги асп авлоди”. 2003. 359-б.

chiqaradi¹¹⁰⁸.

1892 yili u Turkiston general gubernatori N.O.Rozenbaxga maktub yoʻllaydi. Maktubida mavjud maktablarni isloh qilish, joylarda jadid maktablarini tashkil etish, madrasalardan hech boʻlmasa ayrimlarini oliy taʼlimga moslashtirishni taklif etadi¹¹⁰⁹. Biroq uning bu takliflari hokimiyat tomonidan rad etildi.

Ismoil Gaspirinskiy gʻoyalari yangilanish, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yoʻllari tarafdorlari «jadidlar», uning goyalari esa «jadidchilik» nomini oldi. Jadidchilik XIX asrning birinchi choragida turkiy musulmon oʻlkalarida (Qrim, Kavkaz, Volgaboʻyi-Bulgʻor va Janubiy Oʻrol havzasi, Turkiston) shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muhitida yuzaga kela boshladi. U oʻsha davrdan Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining mafkurasi, Turkiston milliy mustaqillik mafkurasi vazifasini bajardi. Jadidchilikning asosiy gʻoya va maqsadlari - Turkistonni oʻrta asrchilik, feodal qaloqlik, xurofatlardan ozod qilish, “Usuli qadim”ni inkor etgan holda oʻlkani, halqni millatni zamonaviy taraqqiyot yoʻliga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitusion parlament va respublika idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi va milliy qoʻshin tuzish kabilarda namoyon boʻlgan edi. Bu gʻoya va maqsadlar 1917-1920 yillarda «Turkiston» muhtoriyati, Buxoro va Xorazm halq respublikalari davrida, qisqa muddatda va qisman boʻlsa-da amalga oshirildi.

Jadidchilikning mintaqaviy-hududiy tarixiy shakllariga eʼtibor beriladigan boʻlsa, Qrim, Kavkaz, Volgaboʻyi-Bulgʻor va Janubiy Uraldagi jadidchilikka Ismoil gaspirinskiy, Jovid Husaynzoda, Muso Jorulloh Qozoniy, Rizouddin ibn Fahriddin rahnomolik qilgan boʻlsa, Turkistonda Munavvar qori, Mahmudxoʻja Behbudiylar yetakchilik qilishgan, Buxoroda “Yosh buxoroliklar” hukumati, Usmonhoʻja, Fitrat va boshqalar yoʻlboshchilik qilishgan, Xiva jadidlariga esa “Yosh

¹¹⁰⁸ Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жади́длар хара́кати́дан миллий му́стақилликка ка́дар. Т, “Элдимур”, 1998. 105-б.

¹¹⁰⁹ Жади́дчи́лик: ислохот, янги́ланиш, му́стақиллик ва тараққиёт учун кураш. Даврий тўплам №1. Т, “Университет”, 1999.

xivaliklar” hukumati, Xoja Pahlovon Niyoz Hoji yetakchilik qilganlar.

Turkistonda jadidchilik harakatining rahbarlari sanalgan Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvar qori Abdurashidxonov birlashtiruvchi va jiplashtiruvchi rolni o‘ynashgan. Buxoroda Fayzulla Xo‘jayev va Abdurauf Fitrat, Xiva xonligida esa Polvonniyoz Yusupov bu harakatga boshchilik qilganlar. Jadidlarning ma’rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo‘lgan. Unda hozirgi kunimizda ham jamiyatni to‘lqinlantiradigan, hayajonga soladigan tarixiy vazifa va masalalar qatoriga biz ma’naviy barkamollikka yetishda dinni to‘g‘ri anglab tushunib yetishimiz, huquqiy va iqtisodiy bozor makonini tashkil qilish jarayonini tezlashtirish, taraqqiy etgan ilg‘or demokratik institutlarni bunyod qilish, o‘ziga xos milliy rivojlanishlarni kiritishimiz mumkin. Bu masalalarni hal etib amalga oshirishda muhim omil sifatida islomning modernizatsiyalashuvi, uni qotib qolgan aqidalardan tozalash, fan va ilg‘or texnologiya yutuqlarini egallab borish muammolari maydonga chiqadi¹¹¹⁰.

Tarixchi D.Alimovanning yozishicha, “Jadidlar Rossiyadagi siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordilar, vujudga kelayotgan rus siyosiy partiyalari dasturlarini o‘rgandilar. Lekin milliy mentalitetning o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan o‘zbek xalqining tinchliksevarlikka, bosiqlikka moyilligidan kelib chiqib, ular tinchlik yo‘li bilan, jamoatchilikning murojaatlari, Davlat Dumasidagi ommaviy bahslar va boshqa legal vositalar bilan podsho hokimiyatidan o‘z maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida yon berishga erishishga intildilar”¹¹¹¹.

Olimlarning fikricha, jadidlar konsepsiyasining tarkibiy qismini Turkistondagi barcha xalqlarni birlashtirish muammosi tashkil etadi. Jadidlar o‘zlarining kelajakdagi davlat tuzumini barcha millatlarning birligi asosida tasavvur etardilar. Bu haqida Behbudiy shunday degandi: - “Biz joriy etgan qonunlar yahudiylarning ham, nasroniylarning ham, musulmonlarning ham va umuman barchaning manfaatlarini himoya qilishi kerak. Agar biz Turkiston musulmonlari birgalikda islohotlar

¹¹¹⁰ Агзамжоджаев С. Жади́дчи́ликнинг ғоявий ривожланиш босқичлари / Жа́дид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. Тошкент. 2016 6-10-бб.

¹¹¹¹ Жади́дчи́лик: ислохот, янгила́ниш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Даврий тўплам №1. Т, “Университет”, 1999. 35-52-бб.

o‘tkazishni istasak, bizning ziyolilar, ma’rifatparvarlar, boylar, ruhoniylar va olimlar millat va Vatan farovonligiga xizmat qilishlari kerak... Agar bizni mustamlakachilik qonunlari bilan boshqarayotgan ekanlar, buning sababchisi, avvalo, o‘zimizning noittifoqligi-mizdir”¹¹¹².

Jadidchilikning Turkistondagi faoliyatini quyidagi bosqichlardagi faoliyat bilan belgilash mumkin:

I. 1885-1895 yillar: G. Ismoilbeyning «Tarjumon» gazetasi ta’sirida Qo‘qonda yangi jadid usulidagi maktablar ochish harakatlari boshlanib, ular asta-sekin rus-tuzem maktablari bilan raqobatlasha boshlagan.

II. Qrimdagi Gaspra shahridan G. Ismoilbeyning Buxoro va Samarqandga tashrifi, Buxoro amiri bilan uchrashishi natijasida 1895 yilda jadid maktablarini tashkil etish davri Buxoroda Jo‘raboy, Samarqandda A. Shakuriy, S. Aziziy, A. Munzim, Mulla Qilich, Toshkentda Munavvar Qori, AAvloniylar, Qo‘qonda Hamza, Namanganda I. Ibrat, So‘fizoda va boshqalar siymolarimiz ochgan jadid maktablari o‘z faoliyatlarini olib bordilar.

III. 1905-1914 yillar jadidchilikning maktab-maorifidan kengroq gazetachilik, ya’ni ro‘znomgalar va jadidlarni chop etish, matbaa ishlarini yo‘lga qo‘yish, ilm-fan, adabiyot, madaniyat maorifni milliylashtirish bosqichi.

IV. 1914-1917 yillar jadidchilikning o‘ta ijtimoiy, siyosiy yo‘nalish kasb etishi, jadidchilik siyosiy firqlarining tuzilishi va ularga 3 xil turli talablar qo‘yish: 1) Rossiyadan to‘la ajralib chiqish; 2) Rossiya Federatsiyasi tartibida «milliy-hududiy muxtoriyat» tuzish; 3) Rossiya unitarizmi tartibida faqat ma’naviy-diniy muxtoriyat huquqlari kafolatiga ega bo‘lish.

V. 1917 yil oktabri 1918 yil Qo‘qonda «Turkiston muhtoriyati»ning tuzilishi va uning qonga botirilib, mahv etilishi davri.

VI. 1918-1924 yillar sho‘ro tizimi tarkibida, maorif-matbaa ishlarida «Chig‘atoy gurungi»ni tuzish bilan ajralib turadi.

VII. Turkiston parchalanib (1924), jadidchilikning keyingi

¹¹¹² Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2012. 394-395-б.

taraqqiyoti «milliy jumhuriyatlar»doirasida bordi. Jadidchilik asosan madaniyat-maorif, maktab va matbaa ishlarida «Chig‘atoy gurungi» g‘oyalarini zimdan amalga oshirishga, milliy-ozodlik harakatini jonlantirishga urindi.

VIII. 1931 yildan to 1937-38 yillar orqali 50-yillarining birinchi yarmigacha qatag‘onga uchrash davri.

Ismoil Gaspirinskiy (1851-1914) jadidchilik harakatining butun turkiylar dunyosidagi «g‘oyaviy otasi»dir. I.Gasprinskiy Turkiston xalqi hayotini o‘rganish va turkistonliklarni Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga tortish uchun ancha ishlarni qildi. U 1893 va 1908 yillarda 2 marta Turkistonga kelib, Buxoro, Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda bo‘ldi. U Turkistonning yirik shaharlaridan birida bo‘lib taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o‘tkazib, jadid maktablarining ahamiyatini yoritib berdi. 1893 yil 8 iyunda u Buxoro amiri huzurida bo‘ldi. Amir bitta jadid maktabi ochilishiga rozi bo‘ldi.

Turkistonni umumiy qoloqlikdan chiqarish yo‘lidagi eng katta to‘siq bo‘lgan eskicha o‘qitish usulini ta’limning yevropacha o‘qitish tartibiga asoslangan yangicha usul bilan almashtirish va busiz ma’rifiy yuksalishga erishish mumkin emasligi masalalari taraqqiyparvarlarning bosh g‘oyasi hisoblangan. “Islohnini nimadan boshlarga” sarlavhali maqola muallifi: “Men ovrupa xalqining bu darajada taraqqiy va tolelarining birinchi sababini va bosh sababini ko‘p axtardim. Lekin ibtidoiy tarbiyalarining mukammalligidan boshqa sabab topa olmadim. Va, binobarin islohotimizni maktab ibtidolarimizdan boshlamoq darkor deb hisoblayman”¹¹¹³, deb yozadi va Turkistondagi maktab-madrasalarda amal qilinayotgan o‘qitish tartibini zamon talablariga javob bera olmasligini, turmushdan orqada qolganligini shunday tushuntiradi: “madrassa talabalariga tarixi milliyat va hisob o‘qitmoq odati bizda o‘lda-jo‘lda yoki aslo yo‘q. Jo‘g‘rofiya va riyozatga sayr qiluvchi darslarni albatta mudarrislarimiz o‘qimaydilar, shogirdlariga o‘qitmaydilar. Demak, bizning madrasa shogirdlarimiz nihoyatda past qadam bo‘lib qolmoqdalar”, -deb ko‘rsatib o‘tadi¹¹¹⁴.

¹¹¹³ Мухторов Ш. Ислохни нимадан бошларга // Садои Фаргона. 1914 йил 3 апрель.

¹¹¹⁴ Жаҳид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. Тошкент. “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси. 2016. 159-б.

Jadidlar o'lkada maktab va maorif ishlarini rivojlantirish, uni yuksaklarga olib chiqish borasida ko'plab ishlar qilishdi. Jadidlarning halq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishidan iborat bo'lgan - 1. Yangi usul maktablari tarmogini kengaytirishi; 2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; 3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish. Ushbu dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxuja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadulla Hujayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid CHO'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra, maktabda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqichi ibtidoiy qism deb atalib, uning ta'lim muddati 4 yil bo'lgan, ikkinchi bosqichga o'tgan, birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichini muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bimalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

Jadidlar o'z g'oyalarini hayotga tatbiq qilish va xalq ta'limining yangi tizimini yaratishga harakat qildilar. Ular taraqqiyparvar ulamolar, mulkdorlar yordamida bir qancha «jadid» («yangi usul») maktablarini tashkil qildilar. Bu maktablar o'zining dastlabki davridayoq samarali ekanligini isbotlab, aholining e'tiborini qozondi va tez orada ko'payib bordi. Faqat Turkistonning asosiy shaharlarida 92 ta yangi usul maktablari faoliyat ko'rsatgan¹¹¹⁵. Birov Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlaka xukumati ma'muriyati bu maktablarni o'z nazoratida ushlab turishga jiddiy harakat qila boshladi. Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agenti Turkiston general-gubernatoriga yozgan maxfiy xatida (1914 y.) Buxoro amirligidagi jadid maktablarining tashkilotchilari va o'quvchilarining tarkibi haqida batafsil ma'lumotlar keltiradi va bu maktablarni aholi yaxshi qabul qilayotganligini tashvishlanib yozadi¹¹¹⁶.

¹¹¹⁵ История народов Узбекистана. Т. 2. Т., «Фан». 1947. Стр. 329.

¹¹¹⁶ ЎЗР МДА. 2-жамғарма, 1-рўйхат, 268-й.ж.,3-13- варақлар.

Shunga qaramasdan, jadid maktablari aholining e'tiborini tobora ko'proq o'ziga qarata boshlaydi. Shunday vaziyatda 1914 yilda Buxoro amiri Sayid Olimxon jamiyatda endigina o'z o'rnini topayotgan yangi uslub maktablarini yopishga, ota-onalardan bolalarni maktabga yubormaslik haqida tilxat olishga farmon beradi. Shunday bo'lishiga qaramay, amalda yopilgan 4 ta maktab o'rniga 45 ta norasmiy maktab pinhona ochiladi va faoliyat ko'rsatadi¹¹¹⁷.

XX asr boshida Turkistonda ilk milliy gazeta va jurnallarning nashr qilinishi bevosita jadid taraqqiyparvarlarining nomi bilan bog'liq edi. O'lkada rasmiy hukumatning tazyiqlari sababli qisqa fursatlarda yopib qo'yilgan ilk milliy matbuot namunalari, xususan, "Taraqqiy" (1906 yil, Toshkent), "Tujjor" (1907 yil, Toshkent), "Samarqand" (1913 yil, Samarqand) gazetalari, "Oyna" jurnali (1913-1915 yillar, Samarqand), "Sadoi Turkiston" (1914-1915 yillar, Toshkent), "Sadoi Farg'ona" (1914-1915 yillar, Qo'qon), "Buxoroyi sharif" (1912-1913 yillar, Buxoro), "Turon" (1912-1913 yillar, Buxoro) gazetalarning faoliyatida o'z zamonasining ilg'or fikrli ziyolilari - Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Muzaffarov (Rauf Muzaffarzoda), Abdulhamid Sulaymonov (Cho'lpon), Obidjon Mahmudov, Isxoqxon Ibrat, Sadridin Ayniy, Olloyor, Niyoziy Rajabzoda, Hoji Muin kabi o'nlab ma'rifatparvarlar jurnalistik faoliyat ham olib borganlar.

Jadidlar tomonidan 1905-1907 yillarda Ismoil Obidov muharrirligida chiqarilgan «Taraqqiy», «Shuhrat», «Xurshid» ro'znomalari ko'p o'tmasdan hukumat tomomnidan yopib qo'yildi. Shu bilan birga rus tilida chiqadigan «Russkiy Turkestan», «Turkestan», «Vperyod», «Fergana», «Samarkand», «Noviy Samarkand», «Tashkentskiy kuryer» va boshqa shu kabi gazetalar ham hukumat tomonidan yopib tashlandi. Shunga qaramay jadidlar o'zlarining turli nomdagi gazeta va jurnallarini chiqarib turishga harakat qildilar va bunda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Milliy ong va o'zlikni anglashda ayniqsa, «Sadoyi Turkiston» (1914-1915) ro'znomasi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Turkistonda birinchi jadid matbuot organi

¹¹¹⁷ ЎзР МДА. 2-жамғарма, 1-рўйхат, 268-й.ж.,3-13- варақлар.

“Taraqqiy” gazetasi Toshkent shahrida Ismoil Obidov muharrirligida, 1906 yil 27 iyundan etiboran chop etila boshlangan. Uning tahririyati O‘ratepa ko‘chasi, 97 uyda joylashgan edi. Gazeta bahosi bir yilligi 5 so‘m, olti oyligi 2 so‘m 50 tiyin, uch oyligi 1 so‘m 50 tiyin bo‘lgan, bir donasi 50 tiyindan sotilgan. Gazeta to‘rt sahifada chop etilib, unda e‘lonlar ham bosilgan. E‘lonlar gazetaning birinchi sahifasida satriga 40 tiyindan, oxirgi sahifada satriga 20 tiyindan bosilgan. “Taraqqiy” gazetasining shiori: “Najot: maslakda sabot, to‘g‘rilikda ijobat” deb nomlangan. Nashr “ilmiy, adabiy, siyosiy, faniy, tijoriy” gazeta bo‘lganligi uning o‘zida ta’kidlab ko‘rsatiladi¹¹¹⁸.

“Xurshid” Toshkent shahrining Zanjirlik mahallasida nashr etilib, haftada bir marta, “tezda ikki uch bor chiqadurg‘on ilmiy, adabiy, siyosiy, maishiy, turkcha (ya’ni, o‘zbekcha)” gazetadir. Bir donasi besh tiyindan sotilgan. Gazeta sakkiz sahifada nashr etilgan. Bu gazeta ham xuddi “Taraqqiy” kabi birinchi sahifada o‘sha kuni Toshkentda bo‘lgan muhim xabarni e‘lon qilish bilan boshlanib, ikkinchi betda felyeton rukni ostida maqolalar bosib chiqargan. Gazetadagi “Toshkent xabari”, “Axbori xoriji”, “Axbori doxiliya” kabi ruknlar mushtariylarni yangiliklardan voqif etib turgan. Gazeta bulardan tashqari Turkiston xalqlari oldida turgan dolzarb muommalarni yechib, mustamlakachilikdan ozod bo‘lishga intiluvchi maqolalar e‘lon qiladi. Madaniyat va ma’rifatni tiklash uning bosh g‘oyasiga aylanadi. “Xurshid” ta’qib ostida bo‘lgani uchun atiga ikki oy davomidagina faoliyat olib bordi.

1917 yil fevral inqilobidan so‘ng Turkiston jadidlarining matbuot sohasidagi faoliyati yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning muhim jihatlarini yoritib berishga bag‘ishlangan bir qator gazetalar nashr ettirildi. Jumladan,

-“Ulug‘ Turkiston” gazetasi - Toshkentda Kabir Bakirov va Sodiq Abdusattorovlar muharrirligida 1917 yil 25 apreldan 1918 yil 30 noyabrga qadar chop etilgan.

-El bayrog‘i” gazetasi - Qo‘qonda Po‘lat Soliyev va Ashurali Zohiriylar muharrirligida 1917 yil 8 sentabrdan 1918 yil boshlariga qadar Turkiston muxtoriyati hukumatining nashri sifatida o‘zbek tilida chop

¹¹¹⁸ Абдуазизова Н. Туркистон матбуоти тарихи. Тошкент, 2000 й.

etilgan.

-“Farg‘ona sahifasi” gazetasi – 1917 yil 15 martdan Namanganda taniqli tatar matbuotchisi Xusayn Makayev tomonidan o‘zbek tilida nashr etilgan. Gazetaning 19 ta soni chop etilgan.

-“Kengash” gazetasi - Toshkentda Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on va Munavvar Qori muharrirligida 1917 yil 25 iyundan 1917 yil oktabrga qadar Turkiston musulmon markaziy sho‘rosining nashri sifatida chop etilgan.

-“SHo‘roi Islom” gazetasi - Toshkentda A.Battol muharrirligida 1917 yil 16 maydan 1917 yil iyunga qadar “SHo‘roi Islomiya” tashkilotining nashri sifatida o‘zbek tilida chop etilgan.

-“Chayon” jurnali – Toshkentda Xalif Tulakov va Ibrohim Tohiriylar muharrirligida 1917 yil iyundan 1918 yil avgustga qadar Turkiston milliy ishchilar seksiyasining nashri sifatida tatar tilida chop etilgan.

- “CHO‘l chayon” jurnali – Toshkentda Ibrohim Tohiriy muharrirligida 1918-1919- yillarda chop etilgan.

-“Xalq dorulfununi” - Toshkentda Muxtor Bakir (Bakirov) muharrirligida 1918 yil 31 maydan boshlab Turkiston xalq univesitetining nashri sifatida chop etila boshlangan.¹¹¹⁹

Yuqorida nomlari keltirib o‘tilgan gazetalar va jurnallarda o‘zbek milliy ziyolilari va jurnalistlari katta jonbozlik bilan mehnat qildilar va ular orasida Behbudiy, Xurshid, Munavvar qori, CHO‘lpon, Mirmuhsin Shermuhammedov va boshqalar eng sermahsul jurnalistlar bo‘lib yetishdilar. Birgina Behbudiyning o‘zi turli ro‘znomalarda 300 ga yaqin maqolalarini chop ettirgan edi. Shu tariqa XIX asr oxiri - XX asr boshlarida milliy adabiyot va jurnalistika, matbuot sohalarida yetuk kishilarning yetishib chiqishi va ularning milliy ong hamda o‘zlikni anglash borasida qilgan mehnatlari milliy qadriyatlar va an’analarning butunlay yo‘q bo‘lib ketishiga yo‘l qo‘ymadi.

Jadidlarning tarixiy – ilmiy qarashlari. Tarix va u bilan bog‘liq tushunchalar Sharq tarixnavisligi, xususan, mamlakatimiz hududlarida yashab ijod qilgan bir qator tarixchilar, shoirlar va adiblarning ilmiy-

¹¹¹⁹ A. Rasulov, A. Isoqboyev. Turkiston va Rossiya munosabatlari tarixi. Namangan. 2011. 109-110-bb.

tarixiy asarlarida o‘z aksini topganki, bu borada bir necha asrlar davomida Yevropada davom etgan bahs va munozaralarning sharq tarixchilari tomonidan ham faol tarzda amalga oshirilganligini ko‘rsatadi. Albatta bu bahs va munozaralar, fan borasidagi turlicha yondashuvlar yillar mobaynida u yoki bu darajada takomillashib, mukammallashib bordi. XIX asr o‘rtalari – XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududlarida Qo‘qon, Toshkent, Buxoro, Xorazm tarixnavislik maktablari shakllandi, bular orasida ayniqsa Qo‘qon tarixnavislik maktabini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Qo‘qon tarixnavislik maktabida nafaqat xonlik tarixini aks ettiruvchi, balki jahon tarix fanida noyob manbalar sifatida e‘tirof etilgan bir necha o‘nlab asarlar yaratildi, asarlar mualliflarining tarixni o‘rganish va unga bo‘lgan yondashishlar to‘g‘risidagi bir qator fikrlari yoritib berildi.¹¹²⁰

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida asosan O‘rta Osiyo va qo‘shni turkiy davlatlarda keng tarqalgan va ta‘lim sohasining taraqqiy etishiga ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatgan jadidchilik harakati va jadid namoyondalari ham tarix faniga alohida e‘tibor qaratganlar va uni chuqur o‘rganish shartligi haqidagi fikrlarini bildirganlar. Jumladan, tarix fanining jamiyat taraqqiyoti, millatning o‘zligini anglashdagi nufuzli o‘rniga alohida e‘tibor qaratib, tarix fanini o‘rganishga Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875 – 1919 yy), Abdurauf Fitrat (1884 y, Buxoro – 1938 y 4 oktabr) va boshqalar atroflicha e‘tibor qaratganlar. Jumladan, M.Behbudiy shunday deydi: - “Hozirgi dunyoda yashash, ziyoli, komil va odil bo‘lish uchun o‘z vatani va o‘z tarixini o‘rganish da‘vati bilan chiqish lozim”. Bundan anglash mumkinki, M.Bexbudiy millat o‘zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarga boshqalar bilan teng aralasha oladi, degan fikrda bo‘lib, tarixni o‘rganish va tarixiy xotira, tarixiy ong masalalariga alohida e‘tibor qaratadi¹¹²¹.

BEHBUDIY Mahmudxo‘ja
(1875 - 1919)

*Behbudiy Mahmudxo‘ja (1875 yil, Samarqand -1919 yil 25 mart, Qarshi)-
dramaturg, publitsist, din va jamoat arbobi, jadidchilik harakati yetakchilaridan*

¹¹²⁰ Қаранг: Воҳидов Ш.Х. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши. Тарих фанлари докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган диссертация. 1998 й. - 240 бет; Қаранг: Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). –Т. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2002 й. 192-б.

¹¹²¹ Бехбудий М. Танланган асарлар // Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б.Қосимов. - 2-нашри, тузатилган ва тўлдирилган. –Т.: “Маънавият”, 1999. 18-б.

biri. Yassaviy avlodidan. 18 yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi, mufti darajasiga ko'tariladi. Behbudiy 1899-1900 yillarda haj safarida Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan. Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Behbudiy 1903-1904 yillarda Qozon va Ufaga borib, u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. «Risolai asbobi savod» (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risolai jug'rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntaxabi jug'rofiyai umumiy” (“Qiskacha umumiy geografiya”, 1906), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar xati”, 1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblar chop ettiradi. Behbudiy 1911 yilda «Padarkush» dramasi yozdi. Bu birinchi o'zbek dramasi edi. Behbudiy 1914 yil 29 mayda ikkinchi marta Arab mamlakatlariga sayohatga chiqadi. Sayohati davomida Bayramali, Ashxobod, Krasnovodsk, Kislovodsk, Pyatigorsk, Jeleznovodsk, Rostov, Odessa shaharlarida bo'ladi, 8 iyunda Istanbulga keladi. Undan Adarnaga o'tib, yana Istanbulga qaytadi va 20 iyunda Ismoilbek Gasprinskiy bilan uchrashadi. So'ng Quddus, Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port Said, Shom shaharlarida bo'ladi. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisobladi. Maqolalaridan birida “Ikki emas, to'rt til lozim”, degan maqola bilan chiqib, o'zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorij (mas, fransuz) tilini bilish shart deb hisobladi. Behbudiy milliy matbuot tarixida maqolanavis sifatida ham alohida mavqega ega. Uning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Behbudiy 1906 yildan boshlab ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg'in qo'shilgan. Shu yili «Rusiya musulmonlari ittifoqi»ning Nijniy Novgorodda o'tkazilgan qurultoyida qatnashgan edi. 1917 yilda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining qurultoyida ishtirok etib, nutq so'zledi. U musulmonlar orasidagi har qanday ixtilofga qarshi chikdi. Behbudiy shu qurultoyda o'lka musulmonlar sho'rosining raisi etib saylandi. 1917 yil 26 noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27 noyabrga o'tar kechasi «Turkiston muxtoriyati» e'lon qilindi. Uning g'oyaviy asoschilaridan biri Behbudiy edi. Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan tugatilgach, 1919 yilning erta bahorida mamlakatdan chiqib ketayotgan Behbudiy Shahrisabzda Inqilobiy favqulodda komissiya ayg'oqchilari ko'magida Buxoro amirligi odamlari tomonidan qo'lga olinadi, hamrohlari Muhammadqul va Mardonqul bilan birgalikda Qarshida zindonga tashlanadi va qatl qilinadi. Bu voqea Samarqandda bir yildan keyin ma'lum bo'ladi. Fitrat, CHO'lpon, Ayniy va boshqa shoirlar Behbudiyga atab marsiyalar yozganlar¹¹²².

Abdurauf Fitrat esa o'z navbatida quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tadi: -
“Qaysi millat yashashni (ravnaqu taraqqiyotni) istasa, tarixini bilishi lozim

¹¹²² Бехбудий. Танланган асарлар, Т., 1997; Алиев А., Махмудхўжа Бехбудий. Т., 1994; Қосимов Б., Маслакдошлар, Т., 1994.

bo'ladi. Zero, tarix bir ko'zguga o'xshaydi, har bir qavm o'zining ahvoli va ijtimoiy hayot qoidalarini unda ko'rib, yaxshini yomondan fark, qiladigan bo'ladi".¹¹²³

FITRAT

Abdurauf Abdurahim o'g'li (1884/1886-1937)

Fitrat Abdurauf Abdurahim o'g'li (1886 (o'zining yozishicha 1884) yil, Buxoro – 1938 yil 4 oktabr, Toshkent) - yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos va siyosatshunos olim, davlat va jamoat arbobi. Birinchi o'zbek professori (1926 y). U boshlang'ich tarbiyani diniy maktabda, so'ng mashhur Mir Arab madrasasida tahsil olgan. 1902-1903 yillarda haj safari munosabati bilan Turkiya, Hindiston va Arabiston mamlakatlarida, 1906-1908 yillarda esa Markaziy Rossiyaning Moskva, Peterburg singari shaharlarida bo'lgan. Jadidlar maslahati va yordami bilan bir guruh yoshlar, jumladan Fitrat Istambulga o'qishga yuboriladi. U 1909-1913 yillarda Turkiyada tahsil oldi va Istanbulda yashagan. Fitrat vataniga qaytgach, Buxoroning turli tumanlarida o'qituvchilik qilib, jadidchilik g'oyalarini keng targ'ib etdi. Yosh buxoroliklar harakatining mafkurachisi va g'oyaviy rahbarlaridan biriga aylandi. 1915 yildan esa Yosh buxoroliklar harakatining so'l qanotiga boshchilik qildi. 1917 yil Fevral voqealaridan keyin jadidlarning Buxoro amirligidagi ahvoli murakkablashgach, 1917-1918 yillarda Fitrat Samarqandga ko'chib borib, «Hurriyat» gazetasida muharrir bo'lib ishladi. Ayrim ma'lumotlarga karaganda, Fitrat shu yillarda «Ittihodi taraqqiy» tashkiloti Eski Buxoro bo'limining raisi xam bo'lgan. 1919-1920 yillarda Afg'onistonning Toshkentdagi vakolatxonasida tarjimonlik qilgan, «Chig'atoy gurungi» ma'rifiy-adabiy uyushmasini, shuningdek, «Tong» jurnalini tashkil etib, yosh ziyolilar avlodini millatparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga kirishgan. BXSР tashkil topishi bilan Fitrat 1921 yilda maorif, 1922 yilda xorijiya – tashqi ishlar noziri, xalq xo'jaligi kengashi raisi, MIQ va Xalq nozirlari sho'rosi raisining o'rinbosari va boshqa lavozimlarda xizmat qildi. Fitratning say-harakati bilan Buxoro jumhuriyatida turk (o'zbek) tili davlat tili deb e'lon qilindi. Fitrat 1923-1926 yillarda Moskvaga borib, Sharqshunoslik institutida ishladi. 1926 yilning oxiri - 1927 yilning boshlarida vataniga kaytgan Fitrat 1937 yilda hibsga olinguniga qadar Samarqanddagi Oliy pedagogika instituti hamda Toshkentdagi Til va adabiyot intida ilmiy faoliyat olib bordi. Fitrat 1923-1926 yillarda Moskvaga borib, Sharqshunoslik i.t. intida ishladi. 1926 yilning oxiri - 1927 yilning boshlarida vataniga kaytgan Fitrat 1937 yilda hibsga olinguniga qadar Samarqanddagi Oliy pedagogika instituti hamda Toshkentdagi Til va adabiyot institutida ilmiy faoliyat olib bordi. Fitrat adabiyotshunos olim kuchli nazariyachi va o'tkir tilshunos sifatida ham taniqli bo'lgan. Uning «O'zbek tili grammatikasi» («Sarf», «Nahv», 1924-1930 yillarda olti marotaba nashr etildi), «Tojik tili grammatikasi» (1930 y.) va til haqidagi o'nlab maqolalari nashr etilgan. «Adabiyot qoidalari», «Aruz haqida» kabi

¹¹²³ Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар: 6 жилдлик. 5-жилд. Илмий рисолалар / А. Фитрат; нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Х.Болтабоев. — Т.: “Маънавият, 2010. Б.36-61.

kitoblari, «Eski o‘zbek adabiyoti namunalari», «XVI asrdan so‘nggi o‘zbek adabiyotiga umumiy bir qarash», «Chig‘atoy adabiyoti» kabi yirik tadqiqotlari va Umar Hayyom, Firdavsiy, Yassaviy, Navoiy, Muhammad Solih, Bedil, Mashrab, Turdi, Furqat, Muqimiy, Nodira to‘g‘risidagi kitob va maqolalari shu davr o‘zbek adabiyotshunosligida muhim o‘rin tutadi.

Bu davrda yashagan va ijod qilgan olimlar va tarixchilarning tarix va tarix fani, tarix ilmi haqida keltirib o‘tgan fikrlaridan ham anglash mumkinki, Sharq, xususan O‘rta Osiyoda ham qadimdan tarix fani sohalariga e‘tibor kuchli bo‘lgan va ayni vaqtda tarixnavislar faqatgina tarixiy jarayonlarni tavsiflash yoki manbalarni tahlil etish kabilar bilan cheklanib qolmasdan, balki tarix va tarix fani haqida, uni qanday yozish yoki tahlil qilish kerakligi kabi masalalar yuzasidan ham o‘zlarining ilmiy-nazariy va falsafiy fikrlari va qarashlarini ko‘rsatib o‘tganlar.¹¹²⁴

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan tarixchi Muhammad Yusuf Bayoniy “Shajarayi Xorazmshohiy” asarini yozar ekan, undagi ayrim voqealar tafsilotlarini o‘zidan avval Ogahiy tomonidan yozilgan asarlardan topmaganligi va endi bevosita o‘zi tarixiy jarayonlar ishtirokchilari va shohidlarining so‘zlaridan yozishga harakat qilganligini ta’kidlaydi: - “.... yuqorida zikr etilgan davr tarixini (Muhammad Rahimxon II ning (1865-1910 yy) 1872 yilgacha bo‘lgan xonlik davrini – muallif) o‘sha davrda ishga aralashib yurgan bir necha keksa odamlarni topib, ulardan bo‘lgan voqealarni so‘rab, diqqat bilan haqiqatlab yozdim”. Muhammad Yusuf Bayoniy “Xorazm tarixi” asarini yozishda tarix va uni tavsiflashga aohida e‘tibor qaratadi va tarixni haqqoniy, obyektiv ravishda yozish shartligini uqtiradi: - “tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo‘lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so‘zlari hech bir odamga ma’qul bo‘lmaydi”.¹¹²⁵

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan farg‘onalik tarixchi Ishoqxon Junaydullox o‘ja o‘g‘li Ibrat To‘raqo‘rg‘oniy

¹¹²⁴ Қаранг: Илҳомов З. Шарқ тарих фалсафаси ҳақида мулоҳазалар. “Илк ўзбек давлатчилиги тарихи”. Республика илмий назарий конференцияси. Т. 2010 й; Илҳомов З. Ўрта аср шарқ тарихнавислиги ва тарих фанининг ривожланиши. “Педагогик кадрлар тайёрлаш: тарихийлик, замонавийлик, истиқбол” республика илмий конференцияси материаллари. Т.2015 йил. 60-62-бб.

¹¹²⁵ Муҳаммад Юсуф Баёний “Шажараи Хоразмшоҳий”. Т. Мерос. 1991.

insonlarni o‘z o‘tmishi va ajdodlari, yashab turgan vatani va uning o‘tmishini bilishi zarurligini alohida ta’kidlab o‘tadi va tarixni o‘rganishga da’vat etadi: - “...inson ancha-muncha baqadri ilmi bashariyat tavorixdan bilmak labudda o‘lmoqi ma’lumdir. Loaqal kishi o‘z muvattin yerini bilmak zaruriyotdandur. Bilmasa, tafosir va ahodislarda va tavorixlarda mubayyindurki, ko‘rmak va bilmak ilmdandur”.¹¹²⁶

Ibratning yozuvlar tarixiga oid «Jome’ ul hutut» («Xatlar majmui», 1912 y) asarida lotin, yunon, xitoy, hind, arab, kirill yozuvining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi haqida ma’lumot berilgan, ilmiy-tarixiy asarlari («Tarixi Farg‘ona», 1916 y; «Tarixi madaniyat», 1925 y; «Mezon uz-zamon», 1926 y) esa Qo‘qon xonligining vujudga kelishidan to XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan. Ibrat «Turkiston viloyati gazetasi», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg‘ona» gazetalariga yozgan maqolalarida fan, ma’rifat va madaniyatni targ‘ib etgan. Ibrat tarix fani sifatida garchi o‘zining “Tarixi Farg‘ona” asarida ko‘pgina tarixiy jarayonlarni va ularning tavsifini, shaxslar faoliyati va ularning tarixiy jarayonlardagi ishtiroki va boshqa shu kabi bir qator holatlarni bayon etib bergan bo‘lsada, inson jamiyat taraqqiyoti va uning tarixidan xabardor bo‘lishi, hech bo‘lmaganda o‘zi yashab turgan vatani, tug‘ilib o‘sgan zamini tarixini bilishi lozimligini, bu hatto tafsir va hadislarda ham shart etib qo‘yilganligi va bu ham ilm ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Tarixchi Mullo Olim Mahdumhoja esa “Tarixi Turkiston” asarida tarixga shunday ta’rif beradi: - «...Ilmi tavorix [tarix ilmi] ning foyidamandlig‘ig‘a tamomi firqa muttafiq ur-roydurlar. Aksar tavoyifi umam, balki, tamomi ahli olam bu ilmni amalga qo‘yub, gumoshtagonlarindin rivoyat va hikoyatlar qilib, oning o‘zlarig‘a dalil qiladurlar”.¹¹²⁷

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida asosan O‘rta Osiyo va qo‘shni turkiy davlatlarda keng tarqalgan va ta’lim sohasining taraqqiy etishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan jadidchilik harakati va jadid namoyondalari ham tarix faniga alohida e’tibor qaratganlar va uni chuqur o‘rganish shartligi haqidagi fikrlarini bildirganlar. Jumladan, tarix fanining jamiyat taraqqiyoti, millatning o‘zligini anglashdagi nufuzli o‘rniga

¹¹²⁶ Ибрат. Тарихи Фарғона Т. Мерос. 1991.

¹¹²⁷ Мулло Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Т. 2010.

alohida e'tibor qaratib, tarix fanini o'rganishga M.Behbudiy, A.Fitrat va boshqalar atroflicha e'tibor qaratganlar. Jumladan, M.Behbudiy shunday deydi: - "Hozirgi dunyoda yashash, ziyoli, komil va odil bo'lish uchun o'z vatani va o'z tarixini o'rganish da'vati bilan chiqish lozim". Bundan anglash mumkinki, Behbudiy millat o'zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarga boshqalar bilan teng aralasha oladi, degan fikrda bo'lib, tarixni o'rganish va tarixiy xotira, tarixiy ong masalalariga alohida e'tibor qaratadi¹¹²⁸.

Atoqli o'zbek olimlaridan biri Abdurauf Fitrat esa Yevropa tarixchilari tomonidan tarix fani va uning predmetining turli talqinlarini ilgari surish "avj" olgan XX asr boshlarida tarix va tarix fani haqida o'zining bir qator ilmiy jihatdan asoslangan fikrlarini ilgari surish bilan o'zbek tarix fani taraqqiyotining jahon tarixi fani taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqlikda, xattoki ayrim jihatlardan o'zining teran qarashlari bilan (jadidlar qarashlarida ayniqsa, tarixiy xotira masalasida) undan ma'lum darajada ilgarilab borayotganligini ham ko'rsata oldi. Fitrat o'zining "Muxtasar islom tarixi" asarida tarix faniga ta'rif berib, uni quyidagicha ifodalaydi: - "Tarix millatlarning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o'rgatuvchi fandır".¹¹²⁹

Bu bilan Fitrat XVIII asrda yashagan shotlandiyalik tarixchi D.Yunning qarashlarini aks ettirgan bo'lsada, ayni vaqtda ko'rish mumkinki, o'zbek tarixnavisligi va O'zbekiston hududlarida tarix ilmi shu vaqtlarda Yevropada va jahonning boshqa mamlakatlarida mavjud bo'lgan qarashlardan to'la boxabar bo'lgan. Fitratning tarix fani va uning predmeti, tarix fanining tarkibiy qismlari va tarmoqlari borasida ham o'z qarashlariga ega bo'lganligini uning tarixiy asarlarida, ulardagi tarixiy jarayonlarning tavsifiy jihatlarida ham kuzatish mumkin. Bu bora uning quyidagi so'zlari diqqatga sazovorli: - "Tarix ikki qismdan iborat: umumiy tarix va xususiy tarix. Barcha millat va jamiyatlarning axvolini bayon qiladigan soha umumiy tarix, deb ataladi. Xususiy tarix birgina millat va birgina jamiyatning tarixini yoritadi".¹¹³⁰

¹¹²⁸ Behbudiy M. Tanlangan asarlar // Tўplovchi, sўzboʻshi va izohlar: B.Қосимов. - 2-нашри, тузатилган ва тўлдирилган. –Т.: "Маънавият", 1999. 18-б.

¹¹²⁹ Абдурауф Фитрат. Мухтасар ислом тарихи. Т.: «Янги аср авлоди». 2004. 2-б.

¹¹³⁰ Мухтасар ислом тарихи. 2-б.

Turkiston milliy taraqqiyparvarlarining nazariy qarashlarida ikki muhim xususiyatni kuzatish mumkin. Birinchisi - millatning buyuk tarixini anglash, ikkinchisi - Sharq va G'arb mutafakkirlari ilmiy merosini chuqur idrok etish. Turkiston ma'rifatparvarlari taraqqiyotning asosi G'arb va Sharq madaniyatining o'zaro uyg'unlashuvida deb bilgan. Har ikki tamaddun yutuqlaridan amaliy foydalanish zaruratini ta'kidlagan. Jadidlar, ayniqsa, vatan tarixi sohasida teran bilimga ega bo'lgan. Shu asosda o'z xalqini haqli ravishda dunyo sivilizatsiyasi yutuqlariga daxldor hisoblab, an'anaviy milliy tajribaga tayanib, davlatni rivojlantirish nazariyasini ishlab chiqdi. O'z qarashlarini mafkuraviy va metodologik jihatdan asosladi. Turkiston jadidchiligi yetakchisi Mahmudxo'ja Behbudiy «Tarix va jug'rofiya» maqolasida bu borada: «...taraqqiy nadur? Muni bilmoq uchun tarix o'qumoq kerak., dinu dunyodan boxabar bo'lmoqni xohlaydurgan har kim uchun tarix o'qumoq kerak. Chunki har nimarsa va uning asli va nasli tarixdan bilinur», - deb yozgan¹¹³¹. Taraqqiyparvarlarning nuqtai nazariga ko'ra, tarixni o'rganish, birinchi navbatda, millat rivojidadagi taraqqiyot va tanazzul sabablarini idrok etish uchun zarur edi. Ularning fikricha, milliy masala barcha etnik guruhlarini birlashtirish doirasida hal qilinishi kerak. Ehtimol, bu bir qadar sodda qarashdek ko'rinar, lekin jadidlarning milliy o'zlikni anglashi etnik tushunchalar bilan chambarchas bog'liq edi. Etnik jihatdan o'zini o'zi anglashni ular «millat», «musulmonlar», «turkistonliklar», «turonliklar» kabi tushunchalar orqali ifodalagan. Jadidlar millat deganda avvalo Turkistonda, Buxoro va Xiva xonliklarida yashovchi turkiy va forsiy tilli aholini tushungan¹¹³².

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida O'zbekiston hududlarida tarix fani, tarix ilmi va tarixnavislik borasidagi ilmiy qarashlar haqida so'z yuritganda yuqorida nomlari keltirilgan olimlar va tarixchilarning tarix va tarix fani, tarix ilmiy haqida keltirib o'tgan fikrlaridan ham anglash mumkinki, Sharq, xususan O'rta Osiyoda ham qadimdan tarix fani sohalariga e'tibor kuchli bo'lgan va ayni vaqtda tarixnavislar faqatgina tarixiy jarayonlarni tavsiflash, manbalarni tahlil etish kabilar bilan

¹¹³¹ Махмудхўжа Бехбудий. Тарих ва жуғрофия. «Оина», 1914, 502-505 бетлар

¹¹³² Алимова Д. Ўзликни англаш машаққатлари. // «Ўзбекистон адабиёти ва санъати». 2005 йил №30.

cheklanib qolmasdan tarix va tarix fani haqida, uni qanday yozish yoki tahlil qilish kerakligi kabi masalalar yuzasidan ham yoki zamonaviy tarix fani nuqtai-nazaridan olganda fanning metodologik masalalari borasida ham o‘zlarining ilmiy va nazariy fikrlarini ko‘rsatib o‘tganlar. Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida O‘zbekiston hududlarida tarix fani va tarix ilmi nafaqat taraqqiy etdi, balki jahon tarix fanining taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsata oladigan darajada o‘zining maxsus tarixnavislik maktablarini shakllantira oldi va tarix fanining nazariy masalalarida bir qator ilmiy qarashlarni ilgari surgan tarixchilarini ham yetishtirib bera oldi.

Tayanch tushunchalar: Tarixshunoslik, arxeologiya, tabiatshunoslik, rus tuzem maktablari, maqomlar, maorifdagi ruslashtirish siyosati. Jadidchilik, Turkiston jadidlari, yosh buxoroliklar, yosh xivaliklar, Buxoro va Xorazm halq respublikalari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Rossiya imperiyasi mustamlakachi hukumatining maorifdagi ruslashtirish siyosatidan ko‘zlagan asosiy maqsadlari?
2. Rus - tuzem maktablari va ularning o‘lka maorif sohasiga ta’siri?
3. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida arxeologiya va sharqshunoslik sohasida qanday ishlar amalga oshirildi va uning mohiyati?
4. Turkiston o‘lkasida tabiatshunoslik fanlarining paydo bo‘lishi va o‘lkani ilmiy jihatdan o‘rganishdagi o‘rni?
5. XIX asr oxiri XX asr boshlarida me’morchilikdagi o‘ziga xosliklar?
6. Jadidlar kimlar va ularning asosiy g‘oyalari nimalardan iborat?
7. Jadidlarning maorif sohasidagi faoliyatlarini yoritib bering.
8. Turkistonda matbuot va uning rivojlanishida jadidlarning o‘rni?

XULOSA

Tarixni mukammal bilish, uning mazmun va mohiyati teran anglash millat uchun yuksak fazilat. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini o'rganish, undan xalqning bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. Tarix o'tmish haqida ma'lumot to'plovchi va saqlovchi xususiyatlarga ega bo'lgan va uni anglash jarayoni bo'lib, ajdodlar, inson va insoniyatning tarixiy tajribasi haqida mushohada yuritishni aks ettiruvchi ijtimoiy xotiradir.

Keyingi yillarda o'zbek xonliklarining siyosiy tarixi, ularning to'rt asrdan ortiqroq vaqt davomidagi iqtisodiy hayoti va iqtisodiy sohaning o'ziga xosliklari, xonliklar iqtisodiy va siyosiy hamda madaniy hayoti tarixi va tarixshunoslik masalalari tarixchilar tomonidan keng ko'lamlarda o'rganilmoqda va tadqiq etilmoqda. Bu tadqiqotlar orasida asosiy e'tibor xonliklarning siyosiy va iqtisodiy tarixiga qaratilganligi bu sohalardagi tadqiqotlarning bugungi kunda ham tarixiy nuqtai nazardan muhimligi va dolzarbligini ko'rsatmoqda.

XVI-XX asr boshlarida ro'y bergan tarixiy jarayonlar O'zbekiston tarixi taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega. XVI asr boshlariga kelib, temuriylardan so'ng shakllangan Shayboniylar sulolasi Movarounnahr, Xuroson va va Xorazmda o'z hukmronligini o'rnatgan bo'lsa, qisqa vaqtda u ikki qismga – Buxoro va Xiva xonliklariga, XVIII asrning boshlariga kelib esa uchinchi davlatga - Qo'qon xonligiga ajraladi. XVIII asr birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari chuqur siyosiy inqirozni boshdan kechirdi. Siyosiy hayot inqirozi iqtisodiy hayotdagi parokandalikka olib keldi. Natijada bu davrda markaziy hokimiyatning salohiyati susayib, xukmron sulolalarning mavqei pasayib ketdi. Hokimiyat tepasida turgan sulolalar o'rniga o'zbek urug'lari vakillari keldilar. Jumladan, Buxoroda Ashtarxoniylar Mang'itlarga, Xivada Shayboniylar Qo'ng'irotlarga siyosiy hayot maydonini bo'shatib berdi. Qo'qon xonligining tashkil topishi ham bu davrda kechgan murakkab siyosiy jarayonlarning natijasi bo'lib, Buxoro xonligidagi siyosiy tanazzul natijasida XVIII asr boshlarida Farg'ona vodiysida mustaqil Qo'qon xonligi tashkil topdi.

Mazkur qoʻllanmada XVI-XX asr boshlarida Oʻzbekiston hududlarida sodir boʻlgan siyosiy va iqtisodiy tarixiy voqealar, ijtimoiy va madaniy hayot sohalaridagi jarayonlar, oʻzbek xonliklarining tashkil topishi va davlatlarning siyosiy hayoti, boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosiy hamda diplomatik aloqalari, harbiy ishlar, xuquqiy munosabatlar, ilm-fan va adabiyot, meʼmorchilik va shaharsozlik sohalarida amalga oshirilgan ishlar, Oʻrta Osiyo hududlarining XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari, jadidchilikning yuzaga kelishi va jadidchilik harakati masalalari soʻnggi yillarda yurtimizda va horijda nashr etilgan Oʻzbekiston tarixiga oid ishlarning ilmiy xulosalariga keng oʻrin berilgan holda yoritib berildi.

Qoʻllanmani tayyorlashda va mavzularni shakllantirishda XVI-XX asr boshlarida xalqimizning iqtisodiy sohadagi, ishlab chiqarish, bunyodkorlik, yaratuvchanlik sohalaridagi tajribasi ham asrlar davomida taraqqiy etib kelganligi, ayrim tarixiy davrlarda turli siyosiy jarayonlarning iqtisodiy sohaga taʼsiri, ichki iqtisodiy munosabatlar, xalqaro iqtisodiy aloqalar koʻlamining kengayib borishi, ayniqsa, oʻzbek xonliklari hukm surgan XVI- XVIII asrlarda Oʻrta Osiyoda iqtisodiy jarayonlar tarixi masalalariga asosiy urgʻu berildi. Oʻzbekiston tarixining XVI-XX asr boshlari tarixining muhim jihatlaridan yana biri sifatida uch xonlikning shakllanishi bilan yuzaga kelgan siyosiy parokandalik va uning keyingi siyosiy jarayonlar va davlatchilik jarayonlariga koʻrsatgan taʼsiri masalasini koʻrsatib berish bilan birga bu davr iqtisodiy hayoti oʻzining taraqqiyoti, yutuqlari va ayni vaqtda inqiroz holatlari ham tahlil etildi va mavzularda bu masalalarga keng oʻrin berildi, bu esa mazkur davr iqtisodiy hayoti tarixini oʻrganishning muhimlik darajasini yana bir karra oshiradi.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, mavzularni yoritishda turli davrlarda yaratilgan manbalar, arxiv hujjatlari, ilmiy va oʻquv adabiyotlarida koʻrsatilgan koʻplab faktik maʼlumotlarga mavzularning mazmuni va mohiyatini ochib berishda keng oʻrin berildi.

Qoʻllanma yuzasidan tarixchi olimlar va mutaxassislar tomonidan bildiriladigan barcha fikrlar uchun avvaldan minnatdorlik bildiramiz va koʻrsatiladigan takliflar va fikrlarni bajonidil qabul qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T. “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbeiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T. “O‘zbekiston”, 2016.
3. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T. “O‘zbekiston”, 2017.
4. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Тошкент - «Ўзбекистон». 2017.
5. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. “Ўзбекистон”, 1996.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: “Маънавият”, 2008.
7. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. –Т.: “Ўзбекистон”. 2011.
8. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т., 2015.
9. «Путешествие в Туркмению и Хиву в 1810 и 1820 годах гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного в сии страны для переговоров. С картинами с чертежами и проч. Часть вторая. Москва, в типографии Августа Семена. 1822
10. Abdullayev A.A. Amudaryo bo‘limida ijtimoiy-siyosiy va huquq-tartibot sohasida yuz bergan o‘zgarishlar (XIX asrning oxiri XX asr boshlari). / Ilmiy Axborotnoma 2016-yil, 2-son. 8-12-бб.
11. Alimova D., Ilhomov Z. Tarix fani metodologiyasi. Т.: “Navro‘z”, 2019.53-54-бб.
12. Karimov SH, R.SHamsutdinov, O‘.Ubaydullayev “Vatan tarixi” Т- 2010
13. Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V, VI жилд. Тошкент.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашр. 1980
14. O'zbekiston tarixi. R.Murtazfyeva tahr. ost. Toshkent, 2005.
15. Rasulov A, A. Isoqboyev. Turkiston va Rossiya munosabatlari tarixi. Namangan. 2011.
16. Shamsutdinov R. , Karimov Sh. Vatan tarixi. (XVI-XX asr boshlari). Ikkinchi kitob. Toshkent, “SHARQ”. 2010.
17. Shamsutdinov R., X. Mo`minov. O`zbekiston tarixi. Ma`sul muharir S. Inoyatov. – Т.: “Sharq”, 2013, - В. 323.
18. Sulonov F., Bozorboyev F. O‘zbekiston hukmdorlari. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
19. Topildiyev N.Kamolov I. O‘zbekiston tarixi. Наманган. 2006.
20. Vohidov SH, Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi boshqaruvi tarixidan (XIX-XX asr boshlari)-Т: “Yangi asr avlodi”, 2006.
21. Абдуазизова Н.А. История национальной журналистики (генезис ва эволюция). I часть. Биринчи жилд, – Т.: “Шарқ”, 2012. 2008. Стр.85-86.
22. Абдуазизова Н. Туркистон матбуоти тарихи. Тошкент, 2000 й.

23. Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. Тошкент, “Академия” 2002 й.
24. Абдулғафур. Зафарномаи Худоёрхоний. // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институту қўлёзмалар хазинаси, № 598 – 65 в.
25. Абдуллаев Т. XIX - XX асрларда ўзбек кандакорлиги. - Т., 1974. - Б/103
26. Абдураимов М. А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX вв. т. I. Т., 1966.
27. Абдурауф Фитрат. Амир Олимхоннинг ҳукмронлик даври ./ Тожик тилидан А Ирисов таржимаси. Т.: Минҳож, 1992.
28. Абдурауф Фитрат. Мухтасар ислом тарихи. Т.: «Янги аср авлоди». 2004.
29. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. Тошкент, “Академия” 2002 й.
30. Абдурахмон Толеъ. История Абулфайзхана. Т.«Фан» 1959
31. Абу Убайдулло Тошкандий. «Хулосат ул –аҳвол». // Қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институту қўлёзмалар хазинаси, № 2084.
32. Абулғози Баҳодурхон. Шажараи турк. Т.Чўлпон 1990.
33. Аваз Муҳаммад Аттор Хўқандий. Тарихи жаҳоннамои // Шарқ юлдузи. - 1998, №6.
34. Агзамова Г. А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик ва савдо. - Т., Ўзбекистон, 2000.
35. Агзамова Г. Марғилон ҳунармандчилигига оид айрим маълумотлар // Марғилон шаҳрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбелейига бағишланган халқаро илмий конференцияси материаллари. - Тошкент - Марғилон., 2007.
36. Агзамова Г.А. Тошкентнинг Ўрта Осиёда кечган сиёсий ва иқтисодий жараёнларда тутган ўрни (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). / Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбелейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. «Фан». 2009.
37. Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. СПб.:1914. - 640 с.
38. Айимбетов Қ., Халиқ данапнғи, Ноқис, 1968.
39. Алимджанов Б.А. Экономическая политика Российской империи в Туркестанском генерал-губернаторстве (вторая половина XIX-начало XX вв.). Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Санкт-Петербург –2016.
40. Алимова Д. Ўзликни англаш машаққатлари. // «Ўзбекистон адабиёти ва санъати». 2005 йил №30.
41. Алимова Н. Россия империясининг Туркистонда миллий маданият соҳасида олиб борган сиёсати (1867-1917 йй). Тар фан номз дисс. Тошкент, 2004. 28-б.
42. Алиназар Эгамназаров. Сиз билган Дукчи Эшон. Тошкент, “Шарқ”. 1994.
43. Алымкул Амир лашкар. Отв ред. Т.Кенансариев. -Бишкек.: Махprint, 2019.

44. Андрианов Б.В. Этническая территория каракалпаков и Северной Хорезме // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. III, М., 1958.
45. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). - Алматы: Дайк-Пресс, 2004.
46. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. (Кўкон хонлиги тарихи). - Т.: Шарқ. -1995.
47. Арндаренко Г. Бухарские войска в 1880 г. // Туркестанский сборник. 297 том.
48. Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Центральной Азии. – Т.: Фан, 1995.
49. Ахмеджанова З.К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии. Ташкент, «Наука», 1965.
50. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т. "Ўқитувчи", 1994.
51. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (қадимги ва ўрта асарлар). Т.: "Ўқитувчи", 2001.
52. Ахмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. Тошкент, "Чўлпон", 2003.
53. Ахмедов Қ.М.. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Тошкент, "Ўзбекистон", 1995.
54. Ахмедова М. Кўкон хонлигининг марказий ва маҳаллий бошқаруви // Фалсафа ва ҳуқуқ. - Тошкент, 2009. - № 2. - Б. 46-48.
55. Ахмедов Б., Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари, Т., "Ўқитувчи", 1991.
56. Аштархонийлар // Ўзбекистон овози. 1996. 29 июнь.
57. Аъзамова Г. Сўнги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик ва савдо. Т.: Ўзбекистон. 2000.
58. Бабаджанов. Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио-Ташкент: 2010.
59. Бабаходжаев, М.А. Русско-афганские торгово-экономические отношения во второй поло-вине XVIII – начале XX в. / М.А. Бабаходжаев. Ташкент: Фан, 1965.
60. Баллиева Р. Каракалпакский этнос и традиционное природопользование. Автореферат дисс... докт. истор наук. Москва. 2003.
61. Баратова Н., Сўфи Оллоёрнинг бадийи-маънавий қарашлари, Самарқанд, 2002.
62. Баҳодиров Р.М. Тошкентлик олимларнинг ўрта асрларда илмлар ривожига қўшган ҳиссаси. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси, «Фан» нашриёти, 2009.
63. Бейсембиев Т.К. «Тарих-и Шохрухи» как исторический источник. Алма-Ата. «Наука», 1987.
64. Бейсембиев Т.К. «Тарих–и Шохрухи» о Восточном Туркестане // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана в XV – XIX вв. –Т., 1987. – С. 162-174.

65. Бёрнс А. Кабул: Путевые записки сэра Александра Борнса в 1836, 1837 и 1838 годах. Переведено по поручению П.В.Голубкова. 2 части. М., в типографии Н.Эрнста, 1847.
66. Бернс А. Путешествие в Бухару. Часть III. — Москва, 1849. - С. 566.
67. Бехбудий. Бухоро хонлигига саёхат. // Ҳаёт ва иқтисод, 1990, № 1.
68. Бехбудий М. Танланган асарлар // Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б.Қосимов. - 2-нашри, тuzатилган ва тўлдирилган. –Т.: “Маънавият”, 1999.
69. Бобобеков Х. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. Т.Шарқ . 2000.
70. Бобобеков Х. Қўқон тарихи. Тошкент. “Фан”, 1996.
71. Бобожонова Д.Б., Жураева Н., Бобожонова Н. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. Т.2011.
72. Бобораҳим Машраб. Девон, Т., 1984.
73. Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним, қайдасан, Т.,1990.
74. Бобров Л.А., Худяков Ю.С. Защитное вооружение среднеазиатского воина эпохи позднего средневековья / "Военное дело номадов Северной и Центральной Азии", Новосибирск, 2002, С. 106-168
75. Бўриева Х.А. Толерантликнинг топонимларда акс этиши (Тошкент шаҳри мисолида) // Ёшлар тарбиясида — толерантлик давр талаби. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент, 2008.
76. Бутаков А.И. «Дневные записки плавания по Аральскому морю в 1848-1849 г.», подготовка к печати Е.К.Бетгера. - Ташкент: 1953.
77. Бутенев К. Монетное дело в Бухарии. Горный журнал. 1842. Кн.ХІ. ч.ІІІ. стр. 154-163.
78. Валиханов Ч.Ч. Сочинения. СПб. 1904.
79. Вамбери А. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Т.: Ғ.Ғулом ном...., 1990.
80. Васильев Д.В. Становление и развитие системы управления Туркестанского края, 1865-1886 гг. Москва. 1999.
81. Вахидов Ш. Сочинение Мухаммад Умара Умиди «Мактубчайи хан» // Адабий мерос. -1990. -№2 (52) – С. 60 – 63.
82. Вахидов Ш. Сочинение Фазли Фергани «Умарнома» // Адабий мерос. 1991. -№3 (57). -С.28–33.
83. Вахидов Ш., Чориев З. Садри Зия и его библиотека. Из истории книги и книжной культуры в Бухаре в начале XX века. Серия «Книги, библиотеки, каталоги». Т.: Янги аср авлоди, 2007. – 352 с.
84. Вельяминов-Зернов В. В. Торговое значение Коканского ханства для русских. // ИРГО. - СПб. 1854. - С. 42.
85. Вердиев Ж. Т. Отражение в легендах и народных преданиях истории каракалпаков XIII-XVII вв. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Нукус. 1996
86. Веселовский В. Киргизский рассказ о русских завоеваниях в Туркестанском крае / Текст, перевод и приложения. – СПб., 1894 –С.5-21
87. Вильданова А. Б. Подлинник бухарского трактата о чинах и званиях. / Письменные памятники Востока. Ежегодник, 1968. М., 1970.

88. Вохидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. Т.: Фан, 1996.
89. Вохидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик. Т.Академнашр, 2010.
90. Вохидов Ш. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши: Тарих фанлари д-ри... -Т., 1998. –Б. 233.
91. Вохидов Ш. Мунис ва Огахий. “Фирдавс ул-иқбол”. Т.: “Янги аср авлоди”. 2010.
92. Вохидов Ш., Сангирова Д. Шоҳ ва Шоир Мадалихон // Фан ва турмуш, 1998 йил. 5-сон. 24-б.
93. Вохидов Ш. XIX аср иккинчи ярми ва XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнавислик мактабининг ривожланиши. –Т.: 1999. 50-б.
94. Гирс Ф. Отчет ревизующего, по высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Гирса. СПб. 1882.
95. Гирс Ф. Отчет ревизующего, по высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Гирса.: / Гирс Ф. – М.: Книга по Требованию, 2011.
96. Глущенко Е.А. Россия в Средней Азии. Завоевания и преобразования: Москва. «Центрполиграф». 2010.
97. Градовский А.Д. "Политика, история и администрация". Санкт-Петербург. Типография М.О.Вольф. 1871. стр.
98. Градовский А.Д. "Русское государственное право" т. III, 1883.
99. Граф Головин. Колонизация Туркестана (Корреспонденция нового времени) // Туркестанский сборник. Том.542. Стр.343–344.
100. Гуламов Х. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX в. – Ташкент: Фан, 2005.
101. Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент, “Фан”, 1959.
102. Давидович Е.А. История денежного обращения в средневековой Средней Азии. М.1983.
103. Давидович Е.А. История монетного дела в Средней Азии XVII-XVIII вв. 1964.
104. Дело концелярии Туркестанского генерал-губернатора. 1907, № 2.
105. Демезон П.И., Виткевия И.В. Записки о Бухарском ханстве. Москва. Директ-Медиа. 2014.
106. Деятели России. Санкт-Петербург. 1906. 340 с.
107. Джураев Ҳ. Бухоро хаттотлик ва миниатюра санъат тарихи. XXI асрда илм фан тараққиётининг ривожланиш истиқболлари ва уларда инновацияларнинг тутган ўрни” мавзусидаги республика илмий конференцияси материаллари. Тошкент, 2019 йил. 223-227-бб.
108. Диваев А. Киргизские пословицы. М.1900.
109. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Т. 1912.
110. Дониёров А.Х., Бўриев О., Аширов А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи. Т.Янги нашр, 2011.

111. Дэниел Ергин. В поисках энергии: Ресурсные войны, новые технологии и будущее энергетики (Daniel Yergin "The Quest: Energy, Security, and the Remaking of the Modern World"). — М.: Альпина Паблишер, 2016.
112. Есбсргенов Х. Хошаниязов Ж. Этнографические мотивы в каракалпакском фольклоре. Ташкент, 1988.
113. Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. Тошкент. “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси. 2016.
114. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва таракқиёт учун кураш. Даврий тўплам №1. Т, “Университет”, 1999.
115. Жўраев Н. Тарих — инсон, замон ва макон фалсафаси. Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал №3/2017. Б.227-241
116. Жўраев Н. Тарих фаслафасининг назарий асослари. Т.Маънавият. 2008. 39-б.
117. Записки о Бухарском ханстве ||Отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича. — М., 1983. —
118. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.Шарқ . 2000.
119. Зиёев Х. Тарих ўтмиш ва келажак кўзгуси: (Тарихнинг долзарб масалалари). -Т.: Адабиёт ва санъат, 2000;
120. Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. - Т.: Шарқ. 1998.
121. Зиёев Х.З. Юнусхўжа. <http://e-tarix.uz>
122. Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. Ғ.Ғулум ном.адабиёт ва санъат нашриёти. Т.: 2000.
123. Зотов А., Якубов Б., Смирнов Н., Чабров Г. Города Ферганской долины - Т., 1963.
124. Зоҳид Р., Сўфи Оллоёр. Адабиёт кўзгуси, Т., 1996.
125. Ибрат. Тарихи Фарғона Т. Мерос. 1991.
126. Иванин М.И. Описание зимнего похода в Хиву 1839-1840 гг. СПб: Типография товарищества «Общественная польза», 1874. 267 с.
127. Иванин П. П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – сер. XIX вв.). М., 1958. с. 129.
128. Иванов П.П. Архив хивинских ханов. Издательство Академии Наук СССР. Москва-Ленинград. 1939. Стр.14
129. Иванов П.П. Новые данные о каракалпаках (Исторические заметки). Советское востоковедение. Т.III. Издательство Академии наук СССР. Москва-Ленинград. 1945. Стр.63-64
130. Игамбердиев А., Амирсаидов А. История Кокандского ханства. Библиографический указатель с иллюстрациями XVIII век - 1876 г . - Ташкент. 2007. Стр.11-13.
131. Илхомов З., Расулова Н. XIX асрнинг 50-йилларида Қўқон хонлигида ички сиёсий зиддиятларнинг кучайиши (манбавий-методологик таҳлил). Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда. Мавзусидаги иккинчи Республика илмий анжумани (илмий мақолалар тўплами). 2012 йил. 157-160-бб.

132. Илҳомов З. “Ўтамиш Хожи тарихи” – Хоразм тарихнавислик мактабининг ноёб ёдгорлиги. “Ижтимоий гуманитар фанларнинг долзарб масалалари: Ривожланиш истикболлари” мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. Нукус. 2018 й. 69-73-б
133. Илҳомов З. Амирлашкар тарихи. Т.2013.
134. Илҳомов З. Ўрта аср шарқ тарихнависи ва тарих фанининг ривожланиши. “Педагогик кадрлар тайёрлаш: тарихийлик, замонавийлик, истикбол” республика илмий амалий конференцияси материаллари. Т.2015 йил. 60-62-бб.
135. Илҳомов З. Хўжамов М. Ўзбекистон тарихи (XVI-XX аср бошлари). Тошкент. 2002.
136. Илҳомов З., Шукуров Р. Россия империяси ва ўзбек хонликлари ўртасидаги “савдо мажбуриятлари” ҳақида айрим ҳужжатлар / “Медиа майдонида тарих фани ва архившунослик интеграцияси муаммолари” халқаро илмий конференция (2019 йил 5-6 ноябрь Термиз). “Im-ziyozakat” нашриёти. 2019 й. 224-230-бб
137. Илҳомов З., Яқобжанов Ж. Қўқонга саёҳат қилган рус олими. Тошкент, ТДПУ, 2009.
138. Илҳомов З.А. “Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий ҳаётида тугган ўрни”. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.2004.
139. Илҳомов З.А. Қўқон хонлиги тарихшунослигининг айрим масалалари. Т. 2008.
140. Иноятуллоҳўжа Шахрисабзи. Баёз // Қўлёзма. Равнақий Шахрисабзийнинг шахсий кутубхонаси фонди, № 65.
141. Исматов И. Россиянинг Ўрта Осиёга ва Эрон билан бўлган савдо-алоқасида Нижний Новгород ярмаркасининг ахамияти. (XIX аср охири - XX аср боши). Т. 1973, 106-бет.
142. Исмоилова Б. Бухарский эмират при эмире Ҳайдаре. Хужанд. 2000.
143. Исмоилова Ж. «Янги Тошкент». Маданий ҳаёт. Халқ маорифи. Тошкент. “Fan va texnologiya”. 2004.
144. Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларида Тошкентнинг “янги шаҳар” қисми тарихи: Тошкент, “Fan va texnologiya”, 2004. 11-б
145. Исмоилова Ж. Тошкентдаги шаҳарсозлик тараққиётига Европа архитектурасининг таъсири (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср боши). Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти. 2009. 302-306-бб.
146. История Узбекистана (XVI – Первая половина XIX века). – Т.: Фан, Т. III. 1993.
147. История Узбекистана (XVI-первая половина XIX века)/ Отв.ред. Д.А.Алимова; АН РУз, Ин-т истории. –Т:Фан, 2012

148. Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши.Т.; Ўзбекистон давлат нашриёти, 1959.
149. Кавахара Я. «Святые семейства» Маргелана в Кокандском ханстве в XIX в. // Мир ислама. 1(4) /2010. С.121-139.
150. Калишевский М. К 170 летию “Бухарской экспедиции”. Научный успех, но политический провал. 2011.
151. Кариева Н.А. XIX асрнинг 50-60-йилларида рус саёхатчилари экспедицияларида Ўрта Осиё географиясини ўрганиш масаласи. Историческая наука в Узбекистане: проблемы и перспективы развития. / Отв. Ред. Алимова Д.А., Асадова Ш.И. Ташкент: Akademnashr, 2018. 96-б.
152. Каримов Ф. Муқимий. Ҳаёти ва ижоди, Т.:1970; Каримов Ф., Ўзбек адабиёти тарихи, 3-китоб, Т.: 1987.
153. Каримова М. Узбекистон тарихи. Фарғона. 2010.
154. Ковалевский Е. Английские офицеры в Средней Азии. - СПб., 1843.
155. Ковалевский Е. П. Странствователь по суше и морям. — СПб., 1843.
156. Конолли А. «Путешествие в Северную Индию сухопутным путём из Британии через Россию, Персию и Афганистан» (Journey to the North of India through Russia, Persia and Afghanistan; 1843).
157. Кудияров А.Р. Истории Каракалпакстана (для студентов бакалавра по специальности истории). Нукус. 2009. 11-бет.
158. Кун. А. Очерки Кокандского ханства// Туркестанский сборник,Т:23-С.65
159. Курбанова З.И. Головные уборы каракалпачек (конец XIX – середина XX вв). 2014. Стр.39.
160. ҚарДУ хабарлари. Қарши, 2019 йил. 2-сон. 46-50-бб.
161. Қобулов Н., Ҳаққулов И., Мўминова В., Аваз ва унинг адабий муҳити, Т., 1987.
162. Қўлдошев Ш. «Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар (XVIII-XIX асрнинг ўрталари)» Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.2009.
163. Қўлдошев Ш. Қўқон хонлиги ва Қашкар ўртасидаги савдо алоқалари // "Қўқон асрлар силсиласида" Республика илмий-назарий анжумани.- Қўқон., 2004. -Б. 301-303.
164. Қўлдошев Ш. Қўқон хонлигининг Шарқий Туркистон билан иқтисодий алоқаларида Марғилоннинг тутган ўрни // "Марғилон асрлар силсиласида" Республика илмий-амалий семинар материаллари. Фарғона., 2005. 77-80-бб
165. Қурбанов Б. Туркистон ўлкасининг пахта хом ашё базасига айлантирилиши ва унга темир йўл транспортининг жалб этилиши. Илмий Ахборотнома. 2016. 208-213-бб.
166. Қурбонбоев Б. Бердақ ва ўзбек адабиёти, Т., 1986.
167. Ликвидация независимости Кокандского и Бухарского ханств (1865–1868). «Военная Литература». Стр.4. <http://militera.lib.ru/>
168. Логофет Д.Н. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. С.-Петербургъ. 1909.

169. Мавлоно Муҳаммад қози. Ҳукмдорга ўғитлар. Т.: “Шарқ”, 1999.
170. Мадрахимов З.Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари. Т. “Yangi nashr”. 2014.
171. Маев Н. Путеводитель от С.-Петербурга до Ташкента. Военная типография. СанктПетербургъ. 1870.
172. Мажид Ҳасаний. Туркистон босқини. Тошкент, “Нур”, 1992.
173. Мажид Ҳасаний. Юрт бўйнидаги қилич ёки истило. Тошкент. «Адолат». 1997.
174. Макшеев А. И. Исторический обзор Туркестана и поступательного движения в него русских. – Б. м., 1897.
175. Маликова Г.Р. Ташкентская городская дума: историко-правовой аспект. Зарубежное избирательное право. №2 //2018. Стр.52-59.
176. Маллицкий Н.Г; Ташкентские махалля и мауза, Ташкент, 1927.
177. Масалиева О. Бухоро, Хива ва Қўқон хонлиги тарихини XX аср Англия ва Америка тарихшунослигида ўрганилиши. Тарих фан...номзоди дисс... – Т., 1998
178. Материалы по истории каракалпаков, М.-Л. 1935
179. Матякубова М., Отамуротова Р. Бухоро амирлигининг XIX – XX аср боши сиёсий бошқарув тарихи акс этган манбалар. ХОРАЗМ МА`МУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ 1/2015. 33-37-бб.
180. Махмудов. Ш. Қўқон хонлигининг маъмурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. ном.... дисс.- Т. 2007 й.
181. Махмудов Ш.Ю. XIX аср биринчи ярмида Тошкентнинг маъмурий-бошқарув тизими. <http://shosh.uz>
182. Махмудхўжа Бехбудий. Тарих ва жуғрофия. «Оина», 1914.
183. Маънавият юлдузлари. Тошкент. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999.
184. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.”Наука”, 1975.
185. Мелибоев А. Муҳаммад Ҳакимхон тўранинг “Мунтахаб ат – таворих” асари Қўқон хонлиги тарихини ўрганишда муҳим тарихий манба сифатида. Ученый XXI века Международный научный журнал. № 6-2 (19), июнь 2016 г
186. Мирза Бадиъ Диван. Мажмаъ ул-аркам. (Факсимиле рукописи. Введение, перевод и примечание А. Б. Вильдановой. М.: Наука 1981
187. Мирзо Олим Махдум Хожи. Тарихи Туркистон. -Т., Янги аср авлоди, 2008.
188. Мирзо Олим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи. - Т.: Шарқ, 1995.
189. Муқимхановская история (Тарих-и Муқими-хани) Мухаммед Юсуфа Мунши, перевод с тадж. С предисловием, примечаниями и указателями, Ташкент, 1957.
190. Мукминова Р. Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. Вакфнаме. Ташкент, 1966.
191. Мулло Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Туркистон генерал губернаторлиги кутубхонаси. Т.: 1915.

192. Мулло Ҳолибой Мамбетов. Туркистон босқини. Нашрга тайёрловчи З.Илҳомов. Тошкент. 2009.
193. Мўминов И., Мирзо Бедил, Т., 1974.
194. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). – Т. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2002 й.
195. Мусаев Д., Ҳошимов Ҳ. Андижоннинг XIX аср охири - XX аср бошлари даври хунармандчилиги тарихини ўрганилишига доир // Марғилон шахрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шахрининг 2000 йиллик юбелейига бағишланган халқаро илмий конференцияси материаллари. - Тошкент - Марғилон. 2007.-Б. 123.
196. Мусаев Н. Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг вужудга келиши ва ривожланиши тарихидан (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент, Молия-иқтисод, 2011.
197. Мустакимов И.А. Арабографичные нарративные источники по истории тюрко-татарских государств XV–XVIII вв. // Средневековые тюрко-татарские государства. Сборник статей. Выпуск 5: Вопросы источниковедения и историография истории средневековых тюрко-татарских государств. – Казань: Институт истории им. Ш.Марджани АН РТ, 2013. Стр.48-53.
198. Муталибова Д. Арминий Вамбери о Бухарском эмирате. Т., 2009.
199. Мухторов Ш. Ислоҳни нимадан бошларга // Садои Фаргона. 1914 йил 3 апрель.
200. Муҳаммад Юнус Тоиб. Тарихи Алиқули Амирлашкар. // Шарқ юлдузи. 1996,-№1-2.
201. Муҳаммад Азиз Марғилоний.Тарихи Азизий. Нашрга тайёрловчилар Ш. Воҳидов, Д. Сангирова. - Т., Маънавият, 1999.
202. Муҳаммад Йунус Хаджа б. Муҳаммад Амин-Хаджа. Тухфа-йи Таиб //Islamic Area Studies Project Central Asian research Series № 6. –Ташкент-Токио.: 2002. -С.32.
203. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
204. Муҳаммад Саййид Балжувоний. Тарих-и нофеи. Тожик тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев. Т.: Академия, 2001.
205. Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Жаҳоннома. Т.: “Янги аср авлоди”, 2013.
206. Муҳаммад Юсуф Баёний “Шажараи Хоразмшохий”. Т. Мерос. 1991.
207. Муҳаммадкаримов А. Тошкентнома. Тарихий топонимик лавҳалар. Биринчи китоб. Тошкент: Мовароуннаҳр, 2004.
208. Муқимов Зиёдулла. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Т.: “Адолат”, 2003.
209. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худоёрхана). –Т.: Фан, 1973.
210. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. С.-Пб., -1821

211. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. - М.: Наука, 1968.
212. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886.
213. Небольсин П.И. Статистические записки о внешней торговле Россией со Средней Азией, СПб, 1856.
214. Ниязматов М. Российско-Хивинские геополитические отношения XVI-начале XX века. Статус Хивинского ханства в составе Российской империи. <http://xogazmiy.uz/>
215. Норкулов Н., Низомиддинов Н., Миниатюра тарихидан лавҳалар, Т., “Фан”, 1970.
216. Нурмухамедов М.К., Жданко Т.А. Камалов С.К. Каракалпаки (краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). Ташкент, “Фан”. 1971.
217. Обзор Сырдарьинской области за 1913 г. Ташкент. 1916. Стр. 161-162.
218. Одилов А. Абдумалик Тўра бошчилигидаги халқ озодлик ҳаракати тарихидан. // ЎзМУ хабарлари, 2002, № 2
219. Одилов А. Бухоро амирлигида миллий-озодлик ҳаракатлари тарихи (Абдумалик Тўра бошчилигидаги халқ озодлик ҳаракати мисолида). Тарих фан. номзоди дисс. автореф. Т., 2003
220. Одилов А. Озодлик фидойиси // Тафаккур, 2001, № 2.
221. Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи. Тошкент. “Адолат”. 2004.
222. Очилдиев Ф. Сурхон воҳаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошлари). Т.: «ABU MATBUOT-KONSALT», 2008. – Б.52.
223. Пантусов Н.Н. Теварихи Шахрухие // Туркестанские ведомости. -1876. - №30.
224. Пантусов Н.Н. Теварихи Шахрухие. Казань.1885.
225. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная 1740-1741 годах поручиком Гладишевым и геодезистом Муравиным. С.-Петербург. Типография министерства внутренних дел. 1851.
226. Полное собрание законов Российской империи. – Собрание 3-е. – Том XII. – № 8708. Стр. 430-456.
227. Положение об управлении Туркестанского края. Издание 1892 года. Свод Законов Российской Империи. В пяти книгах. Книга первая. Тома 1-3. Том 2. СПб., 1912.
228. Посланник Петра I на Востоке. Посольства Флорио Бсневени в Персию и Бухару в 1718- 1725 гг. М., 1986
229. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П.Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 – 25 марта 1881 гг. Составлен титулярным советником П. Хомутовым. – СПб, 1885.
230. Пулатов Ю., Мирхаликов А. К истории огнестрельного оружия в Средней Азии. Материалы по истории Узбекистан. Т.: АН УзССР, 1963.
231. Путешествие в Туркестан А.П.Федченко. С.-Петербург. Москва. Типография М.Стасюлевича. 1874.

232. Путешествие Е.П.Ковалевского по Западному Казахстану в 1839-1840 гг. (по неопубликованному “Путевому журналу”) // Страны и народы Востока. Вып. XXII. М. Наука. 1980.
233. Ражабов Қ. Амир Насруллоҳ баҳодурхон ёхуд "хони шаҳид". Бухоро мавжлари. 2006. №4. 39-43 бб.
234. Ражабов Қ. Амир Ҳайдар ёхуд Амири Саййид. Бухоро мавжлари. 2006. №2. 40-42 бб
235. Ражабов Қ. Амир Шохмурод ёхуд “амири маъсум”. Бухоро мавжлари. 2006. №1. 36-38 бб
236. Ражабов Қ. Муҳаммад Дониёлбий оталиқ (бийлик мансабидан амирлик рутбасигача). Бухоро мавжлари. 2005. №4. 26-27 бб
237. Ражабов Қ. Муҳаммад Раҳимхон- манғитлар сулоласи асосчиси. Бухоро мавжлари. 2005. №3. 36-37 бб
238. Раззоқов Ҳ., Завқий ҳаёти ва ижоди, Т., 1965;
239. Расулов Б. Из истории мусульманских мактабов и медресе Узбекистана. (XIX-20-е г. XX в). Автореферат дисс ... канд ист наук. Андижан. 1996.
240. Раҳимов Ж. Ўзбекистон тарихини ўрганишда архив манбаларидан фойдаланиш. Т.: «Ўқитувчи», 1995.
241. Ризаев Ш. Жаид драмаси. –Т.: Шарқ. 1997.
242. Романовский Д. И. Заметки по Средне – Азиатскому вопросу. Спб., 1868.
243. Российский исторический иллюстрированный журнал «Родина», № 7 за 2004 год
244. Савицкий А.П. Поземельный вопрос в Туркестане (В проектах и законах 1867–1886 гг.). – Т., 1963.
245. Сагдуллаев А ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Т. Академия. 2000.
246. Садиков А.С. Экономические связи Хивы с Россией. Т, “Наука”. 1965.
247. Самарқанд. Т.: “Фан”, 1986.
248. Сапарбоев Б. Муҳаммад Раҳимхон I томонидан Тўрамурод Сўфи муҳолифатчилигининг баргараф этилиши («Фирдавс ул-иқбол» асари асосида). Хоразм Ма`Мун akademiyasi axborotnomasi . 2013 йил, 3-сон. 20-26-бб.
249. Семёнов А. А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях их носителей в средневековой Бухаре. //Советское востоковедение, Т-V 1948 С. 137-153
250. Семёнов П.П. Путешествие в Тянь-Шань в 1856 - 1857 гг. М.: ОГИЗ, 1948. С.181 - 182.
251. Смирнов Е.Т. Султаны Кенисара и Садык. -Т.: Тип С.И.Лахтина. 1889.
252. Собрание узаконений и распоряжений, издаваемое при Правительствующем Сенате. Спб. Пг., 1863-1917, О.1. д.20. 1865 й.
253. Соколов Ю.А. Ташкент, ташкентцы и Россия. Ташкент, 1965. С. 130.
254. Солиҳова Р. “Марказий давлат бошқаруви тарихига бир назар”, Т., Мулоқот-2004 й.
255. Статистический обзор Ферганской области за 1914 г. Скобелев, 1917.

256. Султонов Ў. Муҳаммад Солиххўжанинг “Тарихи жадидаи Тошканд” асари муҳим тарихий манба сифатида (XIX аср). Тарих фан ном ... дисс. Тошкент, 2007. 99-б.
257. Тайронов Ё. Тошкент шахрининг бошқарув тарихидан. <http://uz.denemetr>
258. Тангиоров О. XIX аср охири – XX аср бошларида Тошкент шахрининг бошқарувида оқсоқол лавозими. <http://www.stateartmuseum.uz>.
259. Тилеукулов С., Илҳамов З. и др. История Центральной Азии. Ташкент, “Iqtisod-moliy”, 2007.
260. Тиллабоев С. Мустамлакачиларга қарши Дарвишхон бошчилигидаги кўзғолон. «Ўзбекистон тарихи», Т.: 2002, 1-сон. 12-13-бетлар.
261. Тошкент. Энциклопедия. Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1992.
262. Туркестанский край в 1877 году // Туркестанские ведомости. 1878 йил 14 февраль сони.
263. Туркистоний С. Сўфи Оллоёр. Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар, Т., 1994.
264. Турсунов С, Турсунов А, Тоғаева М. Шеробод тарихидан лавҳалар -Т.: “Yangi nashr”. 2014. 106-б.
265. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006.
266. Ўзбекистон номоддий маданий мероси. ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий комиссияси, 2017.
267. Ўзбекистон тарихи. II – жилд (XIX аср II ярми – 1991 йил август). Тошкент. 2005.
268. Ўзбекистон тарихи. 2-қисм. А.Асқаров тахр.остида. Т.,”Фан”, 1994.
269. Ўзбекистон тарихи. Т. 1. Т., 1997.
270. Ўзбекистон тарихи: (Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик). Т., “Янги аср авлоди”. 2003.
271. Ўзбекистон халқлари тарихи. А.Асқаров таҳрири остида . Т.Фан. 1994
272. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимга даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012
273. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Россия империяси мустамлакачилиги даврида //Тузувчилар: Содиқов Х., Шамсутдинов Р., Равшанов П. ва бошқ./ – Тошкент: Шарқ, 2000.
274. Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Муҳаммад Солих тавсифида. Т. “Фан”, 1982.
275. Ўрта Осиёнинг босиб олиниши тўғрисида тарихий тадрижий маълумотнома. Тошкент Туркистон ҳарбий округи типолитографияси. 1909 йил.
276. Урунбаев А. Неизвестная рукопись по истории Кокандского ханства // Известия АН УзССР. Серия общественных наук.–1957. -№3. -С.33-38
277. Усмонов Қ., Содиқов М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. – Т.: “Шарқ”, 2005.

278. Ўтамиш Ҳожи тарихи. (XVI асрга оид туркий тилда ёзилган тарихий манба). Ўтамиш Ҳожи ибн Муҳаммад Дўстий. – Тошкент.: “Ўзбекистон”. 2009.
279. Утемиш Хаджи. Чингиз - наме. Факсимиле, перевод, транскрипция, примечания, исследования В.П.Юдина, комментарий и указатели М.Х.Абусеитовой. Алма-Ата. 1992.
280. Фазлуллах Рашид-ад-дин. Джами – ат-таварих. Баку. Нагыл Еви. 2011. 539 с.
281. Фитрат А. Ҳиндистонда бир фаранги ила бухоролик мударриснинг жадид мактаблари хусусида қилган мунозараси. //Шарк юлдузи, 1997 № 1;
282. Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар: 6 жилдлик. 5-жилд. Илмий рисолалар / А. Фитрат; нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. — Т.: “Маънавият, 2010.
283. Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи Эшон воқеаси. Тошкент, “Чўлпон”. 1992.
284. Фурсов К. А.Имперская экономическая политика в русском Туркестане и британской Индии: сходства и различия. ВОСТОК (ORIENT). 2010. № 6. Стр.28-44.
285. Хамидов Х. XVI-XIX асрларда юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар. Т. Фан. 2009.
286. Ханьков Н. В. Описание Бухарского ханства. СПб. 1843
287. Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чоррахасида. - Т.: Ўқитувчи, 2005.
288. Хроника завоевания Средней Азии и Ходжендский уезд в составе Российской империи в XIX веке Санкт-Петербург 2014.
289. Худойкулов Т.Д. XIX асрда Кўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти:Тарих фан. номз. ...дисс. - Тошкент: Уз МУ, 2009.
290. Хуршут Э. “Мунтахаб ат – таварих” и его источники. Общественные науки в Узбекистане. 1986. №12. С.39-44.
291. Хуршут Э. «Мунтахаб ут – таворих» как источник по истории Средней Азии и сопредельных стран XVIII – XIX вв. // Общественные науки в Узбекистане. –1984. -№ 7. –С.36–42.
292. Хуршут Э. Изучение среднеазиатских источников XVI–XIX веков: значение, состояние, проблемы // Общественные науки в Узбекистане. – 1989. -№ 2. С.49-53
293. Хуршут Энвер. Ҳақимхоннинг ҳаётн ва саёҳатлари. - Т., Фан, 1987.
294. Ҳайитов Ж.Ш. Россия империясининг кўчириш сиёсати ва немис-меннонитлар такдири (XIX аср охири – XX аср бошлари). Илмий хабарнома, АДУ, №1 2018 йил. 65-69-бб.
295. Ҳамид Зиёев. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси (тарихнинг долзарб масалалари). Тошкент. Ғ.Ғуллом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2000.
296. Шамсиев М.Б. XVIII аср иккинчи ярми Тошкент тарихини ўрганилиши хусусида / Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. «Фан». 2009. 232-б.

297. Шермухаммад Мунис. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. Т.: “Ўқитувчи”. 2010.
298. Шермухаммад Мунис. Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010
299. Шодиев Ж.М. “Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши”. Т: ТДЮИ нашриёти, 2010.
300. Шукуриллаев Ю.А. Бухоро амирлигида кўшин ва ҳарбий иш (1753 – 1920 йй). Тарих фан номз..... дисс. Т.2006.
301. Шукуров Ш., Мирзо Бедилнинг поэтик мероси, Т., 1979.
302. Эргашев Ф., Абдурахимова Н., Сугуралиева Ф. Туркистонда мустамлака молия-хўжалик идоралари тизими. – Т.: “Академия”, 2008. – Б.20.
303. Эргашев Ф.. Анъанавийлик ва замонавийлик уйғунлиги / “Жаҳон адабиёти” журнали, 2010 йил, 4-сон.
304. Эркинов А. «Российская империя и Хивинское ханство (русские: ученый А.Н.Самойлович и путешественник В.Г.Ян в хивинском дворце в начале ХХ в)». <https://cyberleninka.ru/article>
305. Эрназарова Т., Кочнев Б., Тангалар ўтмиш даракчилари, Т., “Фан”. 1977. 34-35-бб.
306. Эшов Б Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқаруви тарихи. Т.: “Янги аср авлоди”. 2012.
307. Юджин Скайлер. "Туркестан: записки о путешествии в Русский Туркестан, Коканд, Бухару и Кульджу". 1876.
308. Юлдашев Б. Закаспийская военная железная дорога и факторы, приведшие к ускорению её строительства./ Ўтмишга назар. № 2019/4. Стр.94-100.
309. Юлдашев М. Ю. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI–XVII вв. / М. Ю. Юлдашев. – Ташкент, 1964.
310. Юнусхўжаева М., Мирисмоилова У. Тошкент тарихига оид ҳужжатлар. Тошкент, «Фан», 1983. 8-9-бб.
311. Юсупов Ш., Фурқат йўлларида, Т., 1984
312. Юсупова Д. Хондамир. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.Т.2000.
313. O‘zR MDA. 1043-fond. - «Arxiv Kokandskogo xanstva».
314. O‘zR MDA. 15-fond.- Upravleniye nachalnika Chimionskogo uезда Ferganskooy oblasti
315. O‘zR MDA. 17-fond.- «Sirdarinskoye oblastnoye upravleniye».
316. O‘zR MDA. 18-fond.- Samarkandskoye oblastnoye pravleniye
317. O‘zR MDA. 19-fond.- «Ferganskoye oblastnoye upravleniye».
318. O‘zR MDA. 1-fond.- «Kanselyariya Turkestanskogo general-gubernatora»
319. O‘zR MDA. 3-fond.- Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligi
320. O‘zR MDA. 715-fond. - «Podgotovitelniye materialy k sostavlennoy polkovnikom Serebrennikovim publikatsii dokumentov «Turkestanskiy kray. Sbornik materialov dlya istorii yego zavoyevaniya»
321. O‘zR MDA. I-126-fond. Buxoro qo‘shbegisi arxivi
322. O‘zRMDA. 125-fond. “Xiva xonlari arxivi”.

Tarixiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati

“Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom 1886 yil

- “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom (Polojeniyе ob upravlenii Turkestanskogo kraya) Rossiya imperatori Aleksandr II tomonidan 1886 yil Turkiston genearl gubernatorligi boshqaruvini amalga oshirish, boshqaruvni tartibga solish va mustamlaka hokimiyatini yanada mustahkamlash maqsadida tasdiqlangan va shu yiliyoq kuchga kiritilgan. “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom 3 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim - “Ma‘muriy tuzilish”, ikkinchi bo‘lim – “Sud hokimiyati tuzilishi”, uchinchi bo‘lim – “Yer va yer egaligi tizimi” masalalariga ajratilgan. Bo‘limlar 7 ta bobga bo‘linib, boblar markaziy va ma‘muriy-hududiy boshqaruv tizimi, sud hokimiyati tizimi, o‘lkada imperiya sudlarining tashkil etilishi va faoliyatini tartibga solish, xalq sudlari va sudlov tizimi faoliyatini belgilash, o‘lkada yerga bo‘lgan munosabatlarni tartibga solish, o‘troq aholining yerga munosabatlari hamda ko‘chmanchi aholining yerga bo‘lgan munosabatlarini belgilash kabi bir qator masalalarni ko‘rsatib beruvchi 279 ta moddani o‘z ichiga olgan. “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom Turkistonda mustamlaka hokimiyatini yanada mustahkamlashni ta‘minlab bergan va ayrim o‘zgarishlar bilan 1917 yilgacha amal qilgan.

Abjad hisobi

– arab alifbosida har bir harf raqam singari ma‘lum son ma‘nosini ham ifoda etishi mumkin. Harflar vositasi bilan son tushunchasini ifoda etish abjad hisobi deb ataladi. “Abjad” so‘zi arab tilida harflarning raqamlarni ifodalash uchun shakllantirilgan ketma-ketligidagi ma‘no bildirmaydigan havvaz, xo‘tti, kalaman, sa‘fas, qarashat, saxxaz, zazag‘ kabi 8 ta so‘zning birinchisi hisoblanadi¹¹³³. Abjad hisobi orqali aksariyat holatlarda biror-bir voqeaning sodir bo‘lgan sanasi, biror asarning yozilgan yoki ko‘chirilgan yili, biror bino yoki inshootning qurilgan sanasi kabilar she‘riy tarzda ifoda etiladi. Bunda tarixiy sana she‘rda keltirilgan alohida so‘zlarda yashirin holda, harflar orqali ifoda etiladi. Hijriy yil sanasini milodiy yil sanasiga mos hisobini aniqlash maxsus matematik amallar orqali amalga oshiriladi. Masalan, Xivadagi Polvon darvoza devoridagi marmar taxtachaga «Shahri Xeyvaq» so‘zi ta‘rix sifatida bitilgan. Abjad hisobiga ko‘ra bu so‘z “1221” soni, ya‘ni hijriy 1221 yilni anglatadi. Bu yilning milodiy hisobini aniqlash quyidagi hisoblash orqali amalga oshiriladi.

$$1. 1221 / 33 = 37$$

¹¹³³ Абдусаматов М. Форс тили. Тошкент. “Ўқитувчи”. 1977. 315-316-бб.

$$2. 1221-37= 1184$$

$$3. 1184 + 622 = 1806$$

Demak, Polvon darvoza devoridagi marmar taxtachaga yozilgan sana milodiy 1806 yilni anglatadi.

Avliyoota

- hozirgi Qozog‘istondagi Tarozi (Jambul) shahrining 1938 yilgacha bo‘lgan nomi. Shaharning nomi valiylardan biri Qoraxon nomiga shunday atalgan deb taxmin qilinadi. XIX asrda Qo‘qon xonligi tarkibida Toshkent bekligiga qarashli kuchli mudofaa tizimiga ega bo‘lgan yirik qal‘a, shahar

Adra

Amaliy san‘at

- Xivaxonligida sug‘orilmaydigan yerlar.
- amaliy bezak san‘ati - bezak san‘ati sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, o‘yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishlash bilan bog‘liq ijodiy mehnat sohaslarini o‘z ichiga oladi. Amaliy san‘at asarlari ko‘z bilan ko‘rish, his etish va anglashga mo‘ljallangan. XIX asr ikkinchi yarmidan ilmiy adabiyotlarda amaliy san‘at asarlari foydalanilgan xom ashyosi (yog‘och, sopol, ganch, tosh, metall, suyak va boshqalar) va ijro usuli (bo‘yash, o‘yib-kesib ishlash, quyish, kashta tikish, to‘qish va boshqa)ga qarab farqlana boshlandi. Bu esa o‘z navbatida buyumlarga ishlov berishni loyihalash (dizayn) va uni iishlab chiqarish bilan bog‘lanishi (badiiy sanoat)ga zamin yaratdi. XX asr boshlarida O‘zbekiston amaliy bezak san‘ati qadimgi an‘analarga asoslangan holda, yangi zamonaviy mavzular bilan boyitib rivojlantirildi.

Amir ul-umaro

- (arab.- amirlar amiri, oliy amir)- o‘rta asrlarda Movarounnahrda keng tarqalgan eng yuqori harbiy unvonli amaldor. U oliy bosh qo‘mondon hisoblanib, butun harbiy ishlar uning qo‘lida bo‘lgan. Bundan tashqari, Oltin O‘rda va Chig‘atoy ulusida hukumatning barcha bosh ijro idoralari (devonlar) ham Amir ul-umaro qo‘lida bo‘lgan. Lekin Amir Temur va temuriylar zamonida Amir ul-umaro faqat bosh qo‘mondonlik, ko‘p hollarda podshoh hudaychisi (adyutanti) vazifasini o‘tagan. Davlat ijro idoralari esa vaziri a‘zam qo‘lida bo‘lgan. Amir ul-umarolik lavozimi Xiva xonlari arxividan ma‘lum bo‘lishicha, saroyda unga xizmat qiluvchi maxsus xodimlar, chunonchi 35 farrosh, 80 xizmatkor, 4 sayis va 6 darvozabon bo‘lgan. Saroy lavozimlari ichida Amir ul-umaro Xiva xonligida naqibdan keyin kelgan va uning maoshi 500 tillani tashkil qilgan. Bundan tashqari bir necha viloyatning daromadlari Amir ul-umaro ixtiyoriga berilgan. Qo‘qon xonligida Amir ul-umaro mansabi harbiy unvon va mansablar orasida eng yuqorisi bo‘lish bilan birga davlat

boshqaruv ishlarida xondan keyin katta siyosiy ta'sirga ham ega bo'lgan. Xonlikda harbiy holat yuzaga kelgan vaqtlarda amir ul-umaro amiri lashkar deb ham yuritilgan. Harbiy holatda mingboshi yoki amir ul-umaro xonlik ko'shinlariga oliy bosh qo'mondon etib tayinlangan va ayrim hollarda vakolatlari deyarli xonnikiga tenglashtirilgan¹¹³⁴. Qo'qon xonligidagi eng mashhur amirilashkar Sulton Sayyidxon hukmronligi yillarida (1863-1865) bu mansab egasi bo'lgan Aliquli amirlashkar hisoblanadi¹¹³⁵.

Amudaryo bo'limi - Rossiya imperiyasi tomonidan 1873 yilda Xiva xonligi bo'ysundirilib Gandimiyon shartnomasi imzolangach, 1874 yilda Xiva xoni faoliyatini nazorat qilib turish uchun tuzilgan bo'lim. Amudaryo bo'limining qarorgohi Petroaleksandrovska (hozirgi To'rtkul) joylashgan. Rossiya va Turkiston general-gubernatorligi bilan Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlar shu yerdan turib boshqarilgan. 1886 yilga kelib, Amudaryo bo'limi Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritildi. Amudaryo bo'limi hududida 95 ming qoraqalpoq, 55 ming o'zbek, 40 ming qozoq va 16 ming turkman istiqomat qilgan. Amudaryo bo'limi SHo'roxon va Chimboy qismlaridan iborat bo'lib, Biybozor, To'rtko'l, Tomdi, Shayx, Abbos Vali, Mingbuloq, Soriboy, Chimboy, Nukus, Davqaron, Ishim, Naupir, Ko'kko'l, Qo'ng'iro't, Toldi va Kegayli bo'lislarni o'z ichiga olgan. Amudaryo bo'limi 1917 yilga qadar faoliyat ko'rsatgan.

Andijon qo'zg'oloni - 1898 yilda Muhammad Ali eshon (Dukchi eshon) boshchiligida Farg'ona vodiysida Rossiya imperiyasimustamlakachilariga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon. Qo'zg'olon markazi asosan Andijon uezdi bo'lganligi sababli tarixda shunday nom olgan.

Astraxan (Ashtarxon) xonligi (XV-XVI aa) - Ashtarxon xonligi (Astraxan xonligi) - Oltin O'rdaning inqirozi natijasida vujudga kelgan davlat. Poytaxti - Ashtarxon shaxri (hozirgi Astra-xan). XIV asrda Oltin O'rda amiri Hoji Cherkas Ashtarxon shaxarini bosib olib, uni alohida mulkka aylantirgan, taxminan 1459-1460 yillarda esa bu mulk uzil-kesil mustaqil bo'lib olgan. Ashtarxon xonligining birinchi hukmdori - Katta O'rda xoni Ahmadning birodari Mahmud bo'lgan. Xonlikning taxminiy hududi - sharqda No'g'ay O'rdagacha, janubda Terek, g'arbda Kuban va Don daryolarigacha, shimolda Saroy shaxrigacha cho'zilgan. Aholisi turkiyzabon xalqlardan iborat bo'lib,

¹¹³⁴ Шодмон Воҳид. Қўқон хонлигидаги унвон ва мансаблар/www.kh-davron.uz.

¹¹³⁵ Илҳомов З.А. “Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий ҳаётида тутган ўрни”. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.2004.

asosan ko'chmanchi chorvachilik, qisman baliq ovlash, ovchilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ashtarxon yaqinidan tuz qazib olingan. 1556 y. Ashtarxon xonligi Moskva podsholigi tomonidan bosib olingan.

Arshin

- Rossiyada amalda bo'lgan uzunlik o'lchov birligi, 0,711 metrga teng bo'lgan.

Ashtarxoniylar (Joniylar) (1601 - 1757)

- Ashtarxoniylar - Joniylar - 1601-1757 yillarda Buxoro xonligini boshqargan sulola. 1601 yil ashtarxoniylardan Boqi Muhammad Buxoro hokimiyatini qo'lga olgach, shayboniylar sulolasi hukmronligi tugatilgan. Ashtarxoniylar Jo'jixon naslidan bo'lib, XIV asrning 80-yillaridan boshlab Astraxan (Ashtarxon, Hoji Tarxon) va uning atrofidagi yerlar, xalqlar ustidan hukmronlik qilgan. 1556 yil Astraxanni Moskva podsholigi bosib olgandan keyin, Ashtarxoniylardan Yormuhammadxon oilasi bilan Buxoroga ko'chib kelgan. Buxoro xoni Iskandarxon (1563-1583) qizi Zuhrobegimni uning o'g'li Jonibek sultonga nikohlab bergan, bu nikohdan uch o'g'il - Din Muhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammadlar dunyoga kelgan. Din Muhammad Abdullaxon II hukmronligi davrida (1583-1598) Niso va Obivard hokimi bo'ldi. Abdulmo'minxon o'ldirilgandan keyin (1599) amirlar va ulamolar Jonibek sultonni xon taxtiga ko'tarmoqchi bo'ldilar. Lekin, Jonibek sulton katta o'g'li Din Muhammad foydasiga taxtdan voz kechadi, ammo Din Muhammad Obivarddan Buxoroga kelayotgan vaqtda yo'lda qizilboshlar bilan sodir bo'lgan to'qnashuvda halok bo'ladi. Taxtga Jonibek sultonning ikkinchi o'g'li - Samarqand hokimi Boqi Muhammad o'tkazildi (1601). Lekin rasman hokimiyat Jonibek Sulton qo'lida bo'lib, uning nomidan tangalar zarb etilgan va nomi xutbaga qo'shib o'qilgan. Shundan boshlab Buxoro xonligi Ashtarxoniylar hukmronligi ostiga o'tdi.

Botir boshi

- botir va baxodirlar boshlig'i. Besh yuz nafardan ko'proq dastaga boshchilik qilardi. Viloyatlarda botir boshi harbiy ishlarga va qo'shinlarga ham mas'ul edi. Botir boshi ba'zan qurilish ishlariga ham boshchilik qilgan. Xonlikdagi Nahr arig'i Otabek botir boshi sarkorligi ostida amalga oshirilgan edi.

Botmon

- mann (arab.)- og'irlik o'lchov birligi. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari (Arabiston, Misr, Suriya, Iroq, Eron, Turkiya, Hindiston) da, shuningdek O'rta Osiyoda ko'llanib kelingan. Shariatga ko'ra, botmon (manni shar'iy) asosan 0,832 kg ni tashkilkilgan, lekin turli mamlakatlar va turli davrlarda uning mezoni har xil bo'lgan. O'rta Osiyoda ham botomonning vazni o'zgarib turgan. Masalan, XIX asrda Xorazmda botmon

20,16 kg dan 40,95 kg gacha, Buxoro va Samarqandda asosan 8 pud (131,044 kg), Fargʻonada 8-10 pud (131,044-163,805 kg) boʻlgan. Bu oʻlchov paxta va mevalarni oʻlchashda qoʻllanilgan. 1884 yil maʼlumotlariga koʻra, Qoʻqonda 1 botmon 10 pudga, yaʼni 163,805 kg ga teng boʻlib, donlarni oʻlchashda qoʻllanilgan. Toshkent va Chimkentda 1 botmon 10,5 pud (171,995 kg) boʻlgan. Oʻrta Osiyoning koʻp joylarida botmon yer sathini oʻlchash birligi sifatida ham qoʻllanilib, 1 botmon yer deganda 1 botmon don ekiladigan maydon tushunilgan. Masalan, Samarqandda 1 botmon (8 pud) bugʻdoy 1,63881 ga yerga sepilganligi sababli, shunday kattalikdagi yer bir botmon deb atalgan. Hozirgi vaqtda botmon taxminan bir gektarga teng yer maydoniga teng oʻlchov birligi hisoblanadi. Baʼzi Sharq mamlakatlarida botmondan ogʻirlik oʻlchov birligi sifatida foydalaniladi.

Vaqf yerlari

- (arabcha toʻxtash, pauza) – oʻrta asrlarda masjid, mozor, xanaqo, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar. Bunday yerlar musodara etilgan, davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltiriladi. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarf-xarajatlari, shuningdek, talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar hammasi vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanar edi. Vaqf mulklarini mutavallilar boshqarganlar.

Versta

- qadimgi rus oʻlchov birligi. Qiymati 500 sajenga, yaʼni 1,0668 km ga teng. XVIII asrga qadar chegaralarni belgilashda versta (1000 sajen; 2,1336 km) qoʻllanilgan. Bunday versta chegaralarni belgilash va aholi yashaydigan punktlar orasidagi masofani aniqlash uchun ishlatilgan.

Voli (noib)

- viloyat va tumanlarda xon hokimiyatini amalga oshirgan. Viloyatlarda lashkar unga itoat eti, bir vaqtning oʻzida viloyatlarning harbiy maʼmuriy ishlariga boshchilik qilgan.

Gaz

- Sharq mamlakatlarida taxminan 62 sm dan 91 sm ga teng boʻlgan uzunlik oʻlchov birligi.

Dargoh

- Shayboniylar hukmronligi davrida oliy davlat idorasi. Dargoh tepasida xon turgan.

Degrez

- choʻyandan qozon quyuvchi.

Dodhoh

- Oʻrta Osiyo xonliklarida yuqori martabalardan biri. Buxoro amirligida amir saroyining yuqori lavozimlaridan biri boʻlib, u Buxorodagi yuqori xizmat doirasidagi 10 toifa (daraja) dagi mansab hisoblangan. Uning vazifasiga amir nomiga yozilgan ariza-shikoyatlarni qabul qilib olish va ularning egalari yozma yoki ogʻzaki javob qaytarish boʻlgan. Shuningdek u elchilarni qabul qilish, elchilik yumushlarini tashkil etish va xatto shaxsan elchi sifatida boshqa mamlakatlarga borib kelish

- kabi tadbirlarni ham amalga oshirgani ma'lum.
- Jadid maktablari** - jadidchilik namoyondalarining xalq maorifi va ma'rifatini yuksaltirishni ko'zlab, eskicha ta'lim uslublaridan voz kechib, zamonaviy andozada tashkil etgan maktablari. Birinchi jadid maktabiga Ismoil Gaspirali (1851-1914) 1884-yil Qrimdagi Bog'chasaroy shahrida asos solgan edi. O'zi dastur tuzib, darslik yozdi. Ana shu darslik yordamida 40 kun ichida 12 o'quvchining savodini chiqardi va bu maktab musulmon o'lkalarida tez shuhrat qozondi.
- Jadidchilik** - (arabcha "jadid" – yangi) – yangilanish, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo'llari tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida turkiy musulmon o'lkalarida (Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi-Bulg'or va Janubiy Ural havzasi, Turkiston) shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muxitida vujudga kelgan. U o'sha davrdan Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining mafkurasi – Turkiston milliy mustaqillik mafkurasi vazifasini bajardi.
- Jevachi, jibachi** - sovutdor; o'rta asrlarda sovut kiygan otliq va piyoda askar; har xil temir qurol egasi; qurol-aslaha saqlanadigan maxsus ombor - jevaxona mutasaddisi (boshqaruvchisi); harbiy yurish vaqtida podshoh va xonning sovut va og'ir qurol-aslahalarini olib yuradigan kichik mansabdor - jibachigiri. Masalan, Buxoro amirligida jevachi 12 pog'onali harbiy lavozimlar tizimida 11-pog'onada turgan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligi tarixiga oid bir iator tadiiiotlarni amalga oshirgan D.Logofetning taqqoslashicha, Buxoro amirligidagi jevachi unvonini Rossiya imperiyasi armiyasidagi feldfebel unvoniga teng turgan¹¹³⁶.
- Jubba, jiba, jeva** - O'rta Osiyo va Sharq armiyasida jangchini yoy o'qi, qilich va nayzadan saqlash uchun simdan to'qilgan maxsus harbiy kiyim. Jeva asosan, jang paytlarida kiyilgan. 1,5-2 mm diametrdagi temir simlarni qalin to'r singari to'qib, ko'ylak va kalta shim shaklida tayyorlangan. Jeva ilk o'rta asrlarda keng tarqalgan. Jeva og'ir bo'lsa ham, jangchining gavdasini ixcham tutib, unga xalaqit bermagan. Jangchi jeva bilan birgalikda yelka, bilak va ko'krakni himoya qilish uchun «chor oyna» deb atalgan po'lat taxtachalar taqib, qalqon bilan o'zini himoya qilgan. XV-XVI asrlarda miltiq asosiy urush quroliga aylana boshlashi bilan jevaga ehtiyoj qolmagan.
- Inoq** - Qadimgi turkiy runiy bitiklarida «ishonch» ma'nosida qayd etilgan.
- 1) Markaziy Osiyoda XI –XIV asrlarda hukm surgan sulolalar

¹¹³⁶ Логофет Д. Н. Бухарское ханство под Русским протекторатом. 1 том. СПб., 1911. Стр.239.

saltanatida

«maslahatchi», «vazir»ni anglatgan;

2) Buxoro xonligida hukmdorning ishonchli kishisi, mansabdor.

3) Xiva xonligidagi yuqori ma'muriy mansab bo'lib, xondan keyingi rutba sanalgan va bu lavozimga xonning birodarlaridan biri tayinlangan. Abulg'oziy Bahodirxon tantanali marosimlarda o'tirish uchun inoqlarga 4 ta joy ajratgan. Bu imtiyoz 1873 yilgacha davom etgan. Inoqlardan biri xonning chap tomonida, amir ul-umarodan keyin o'tirgan va ulug' inoq deb atalgan. Yangi xon ko'tarish vaqtida inoqlar oq namatning to'rt burchidan tutib, unga tobelik bildirishi ularning asosiy va faxriy burchi edi. Xiva xonligida inoqlarning siyosiy mavqei nihoyatda baland bo'lib, XVIII asr oxirida hatto xonlikni ham idora qilganlar. Inoq huzurida qo'shbegi, mehtar (moliya ishlari boshlig'i) va otaliq (qo'shinlar qo'mondoni)dan iborat kengash bo'lgan hamda amaliy tadbirlar ishlab chiqishga yordamlashgan. Inoqlar Xiva taxtiga Chingizxon avlodlarini o'tkazganlar, biroq ularning aksari qozoqlar va shuningdek, qo'shni davlatlardan kelgan kishilar bo'lib hech qaysi to'paga mansub emasdilar. Shuning uchun inoqlar o'zlarini boshda vaqtincha, so'ng doimiy xon deb e'lon qilardilar. Yangi sulola asoschisi Muhammad Amin inoq qo'ng'iroq urug'idan edi. Qo'ng'iroq urug'i qiyot urug'i bilan birga ikkinchi o'zbek to'pasining boshida turar edi

Iskandarko'l ekspeditsiyalari

- Zarafshonning yuqori oqimidagi bekliklarni istilo etish maqsadida Rossiya imperiyasi tomonidan 1870 yil aprel-may hamda 1875 yil noyabr oylarida uyushtirilgan harbiy yurishlar. Birinchi harbiy yurish 1870 yil aprel-may oylarida amalga oshirilib, undan ko'zlangan maqsad Rossiya imperiyasi Buxoro amirligining anchagina qismini bosib olgach, amirlikka tobe bo'lgan Ko'histon, ya'ni Hisor, Ko'lob, Baljuvon bekliklari va Qorategin, Darvoz shohliklari hamda Zarafshonning yuqori oqimidagi yarim mustaqil Mog'iyon, Fon, Kishtut, Falg'ar, Mastchoh, Yag'nob mulklarini bosib olish va Iskandarko'l atrofidagi tabiiy boyliklarni o'rganish edi. Yurishga Zarafshon okrugi boshlig'i general A.K.Abramov rahbarlik qildi. Ekspeditsiya tarkibiga geolog D.K.Mishenkov, tabiatshunos olim A.P.Fedchenko, tilshunos va sharqshunos A.Kun, xaritashunos L.N.Sobolev, topograf A.M.Skassi, topograf K.Novoselov va boshqalar kiritilgan. Ekspeditsiyaning asosiy bazasi Kattaqo'rg'onda joylashib, 1870 yilning 24 aprel kuni ekspeditsiya otryadlari Samarqanddan Nurota tog' tizmalaridagi Oqtov tomon yo'lga chiqdilar. Mastchoxlik mahalliy aholi Rossiya imperiyasi

harbiy otryadlarining yurishiga qattiq qarshilik ko'rsatganiga qaramay, birinchi ekspeditsiya natijasida Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi bekliklar tumanga aylantirilib, Zarafshon okrugiga qo'shib olindi, ularning aholisi, geografiyasi va topografiyasi to'g'risida ma'lumotlar to'plandi.

A.P.Fedchenkoning yozishicha, 1870 yil 19 iyunda otryad Fandaryo va Yag'nobdaryo bo'ylab yuqoriga yurib, Anzob qishlog'ga yetib keldi. Bu yerda ular tojik tilidan farqlanuvchi o'zlariga tushunarsiz tilda so'zlashuvchi aholiga duch keldilar. General Abramovning ijozati bilan uch nafar yag'noblik fuqaro A.Kun tomonidan Samarqandga taklif etiladi va ular yordamida yag'nob tili va tarixiga oid ma'lumotlar to'planadi¹¹³⁷.

Ikkinchi harbiy yurish Ko'histonda Qalandar miroxo'r boshchiligida Puldarak qishlog'ida ko'tarilgan milliy ozodlik harakatini bostirishga qaratildi. Shu maqsadda 1875 yil 8 noyabrda shtabs-kapitan G.A.Arendarenko boshchiligida 1 muntazam batalyon, 10 otliq kazak va 1 tog' zambaragi yuborildi. 21 noyabrda esa A.M.Yefimovich boshchiligida qo'shimcha harbiy qism yetib keldi. Natijada ozodlik harakati bostirildi. Uning bir qism qatnashchilari Yuqori Mastchoh qishlog'iga chekinganlar. Ularga Qo'qon xonligida yashovchi aholidan yordam kelishi bilan ozodlik harakati ommaviy tus oldi. General G.A.Arendarenko 1876 yil 13 yanvarda yangi kuch bilan xalq harakatini shafqatsiz ravishda bostirdi. Qalandar miroxo'r qo'lga olindi. Iskandarko'l ekspeditsiyalari natijasida Zarafshonning yuqori oqimidagi bekliklar uzil-kesil Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi.

Ko'kaldosh

- xonliklar davrida muhim davlat mansablaridan biri. Oliy hukmdorga va rasmiy sulolaga eng yaqin kishilardan tayinlangan. Odatda ko'kaldoshning ijtimoiy mohiyati rasmiy sulolaning biron vakili bilan bir onani emganlik bilan tushuntiriladi. Demak ko'kaldosh dorgohning eng ishonchli kishilaridan hisoblanib, unga topshiriladigan vazifalar ham shu qadar nozik va mas'uliyatli bo'lgan. Ko'kaldosh xon siyosatiga fuqarolarning munosabatini o'rgangan va bu siyosatning dahlsizligi ta'minlagan.

Qal'abon (qutvol)

- Qo'qon xonligining chegaralarida joylashgan qal'a ma'muriy istexkomlarining hokim bo'lib, qal'a va chegarani muxofaza qilish ishlariga mas'ul bo'lgan. Harbiy maqsadga ko'ra qal'abon vazifasiga dodxodan qo'shbegigacha bo'lgan

¹¹³⁷ Путешествие в Туркестан А.П.Федченко. С.-Петербург. Москва. Типография М.Стасюлевича. 1874.

- shaxslar tayinlangan.
- Qozikalon** - xonliklarda sud ishlariga yetakchilik qiluvchi diniy mansab egasi. Buxoro amirligida poytaxt qozisi, hamda davlatning oliy qozisi. Amir aralashmaydigan barcha qozilik ishlariga rahbarlik qiluvchi oliy davlat lavozimi. Qozikalon “shariatpanoh” deb ham atalgan. Qozikalon huzurida a’lam va 12 muftiydan iborat devon tuzilgan. Uning vazifasi jinoiy ishlarni sinchiklab ko‘rishdan iborat bo‘lgan.
- Qo‘rboshi** - qo‘rxona, ya’ni qurol-aslaxa, yaroq, to‘p yasash ustaxonalarining boshliqlari. Qo‘rboshi faqatgina xonga va mingboshiga itoat etgan Xudoyorxonning so‘nggi xonlik davrida (1866-1875) qo‘rboshi qo‘rxona, miltiqxona, to‘pxonalarga boshchilik qilib, xom ashyo topib kelishdan tortib to‘ tayyor maxsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan taqsimlab berish jarayoniga javobgar edi.
- Qo‘shbegi** - harbiy qo‘shinning boshlig‘i. Viloyatlarga ham hokimlik vazifalari bajargan. Bunga misol qilib mashhur qo‘shbegilardan Lashkar qo‘shbegini, Mirzo Ahmad qo‘shbegini, Normuhammad qo‘shbegilarni keltirib o‘tish mumkin.
- Mang‘itlar** - Buxoro amirligini boshqargan sulola (1757-1920). Uning vakillari mang‘it urug‘iga mansub bo‘lgan. 1747 yilda otasi Muhammad Hakimbiy o‘rniga otaliq etib tayinlangan Muhammad Raximbiy Buxoro xonligida hokimiyatni o‘z qo‘liga oladi. Bundan norozi bo‘lgan bir qator viloyatlar hokimlari isyon ko‘tardilar. Qo‘zg‘olonlar shafqatsiz bostirilgach, Muhammad Rahim arkoni davlat va ruhoniylar fatvosi bilan 1753 yilda Buxoro taxtini egalladi va o‘zini «amir» deb e’lon qildi. Shundan keyin ashtarxoniylar sulolasi barham topib, mang‘itlar sulolasi hukmronligi boshlandi. Ashtarxoniylar sulolasi o‘rniga kelgan bu sulolaning hukmdorlik tarixi Muhammad Rahimning taxtga rasman o‘tirishi (1756 yil 16 dekabr) dan boshlangan. Uning vafotidan so‘ng taxt vorisi etib Fozil to‘ra (qizining o‘g‘li), keyin Ubaydullaxon tayinlangan bo‘lsada, davlatni amalda amakisi Doniyolbiy otaliq (1758 - 1785) boshqargan. Keyingi mang‘it hukmdorlari amir Shohmurod (1785-1800), amir Haydar (1800-1826), amir Nasrullaxon (1826-1860), amir Muzaffar (1860-1885), amir Abdulahad (1885-1910) va amir Olimxon (1910-1920) lar Buxoro amirligini boshqarganlar.
- Mardikorlikka olish** - 1916 yil 25 iyunda podsho Nikolay II ning «Imperiyadagi rus bo‘lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida harbiy inshootlar va davlat mudofaasi uchun zarur bo‘lgan boshqa ishlarga jalb qilish» farmoniga muvofiq, Sibir, Qozog‘iston, O‘rta Osiyo va Gruziya mahalliy aholisidan 19 yoshdan 43

yoshgacha boʻlgan 400 ming erkak safarbar qilinishi moʻljallandi. Farmonga koʻra Turkistondan 250 ming kishi safarbar qilinishi kerak edi. Bu farmon tub aholini qaxrgʻazabi va noroziligini yanada qoʻzgʻatib, qoʻzgʻolon koʻtarilishiga turtki boʻldi. Qoʻzgʻolonlar bostirilib, Rossiya imperiyasining Turkistondagi mutamlakachi hukumati general gubernatorlik viloyatlarida imperator farmonini amalga oshirishga kirishdi. Bu harakat xalq orasida “mardikorlikka olish” nomi bilan yuritildi. Xalqning qattiq qarshiligi tufayli 123000 dan ortiq fuqaro mardikorlikka safarbar qilindi. Ulardan 101600 kishi Rossiyaning shimoliga, 4000 kishi Sibirga, 7405 kishi Kavkazga joʻnatildi. 10 mingdan ortiq kishi Turkiston oʻlkasida ishlatildi. Ular Moskva, Peterburg, Ryazan, Tula, Oryol, Smolensk, Qozon, Samara, Perm, Yekaterinburg, Orenburg, Kiyev, Xarkov, Yekaterinoslav, Odessa, Zaporozhye, Kerch, Tbilisi, Botumi va boshqa joylardagi sanoat korxonalarida, konlarda, temir yoʻllar qurilishlarida, oʻrmonlarda ishladilar. Mardikorlikka safarbar etilgan fuqarolar 1917 yilda Rossiya podshosi va hukumati taxtdan agʻdarilgandan keyin yurtlariga qaytishga muvaffaq boʻldilar.

Mehtar

- 1) forscha “ulugʻ”, “katta” degan maʼnoni anglatib, xon va podshohga tegishli biron kichik muassasa, korxon boshligʻi. Masalan: mehtari kutubxona, mehtari toʻshakxona. 2) Oʻrta asrlarda saroy sozandalarining boshligʻi, yetakchi sozanda. Temuriylar zamonida mehtarlar nogʻorachilardan keyinchalik surnaychilardan tayinlangan. 3) Buxoro amirligida zakotchilar boshligʻi. Qoʻqon va Xiva xonliklarida davlat xizmatchisi.

Mil, milya

- (lot. milia passum — mingta qoʻsh qadam) – oʻrta asrlarda qoʻllanilgan uzunlik oʻlchov birligi, hozirgi vaqtda metrik konvensiyaga aʼzo boʻlmagan davlatlarda, shuningdek, dengizchilik ishlarida foydalaniladi. Milya turli xil oʻlchamlarga ega boʻlib, xalqaro dengiz milyasi Yer meridiani 1 minut yoyining oʻrtacha uzunligi - 1852 metrga teng, Britaniya dengiz milyasi esa 1853,184 metr boʻlsa, eski rus milyasi 7467,6 metrga teng boʻlgan.

Mingboshi

- ming nafar askarning boshligi. Xarbiy yurishlar vaqtida qoʻshinni boshqarib, lashkarboshi unvonni olardi. Qoʻqon xonligida mingboshi mansabi Sheralixon (1842-1845 yy) davrida yuqori darajadagi vazifaga aylantirilgan. Mashxur mingboshilar Muhammad Yusuf, Shodiboy, Musulmonqul, Muhammadyor, Mirzo Ahmad va boshqalar.

Mirob

- Oʻrta Osiyo hududidagi davlatlarda, xususan xonliklarda suv taqsimoti va sugʻorish tizimi ustidan nazorat qiluvchi shaxs. Miroblik mansabi avloddan avlodga oʻtgan. Kuzda miroblar

- uchun dehqonlardan mirobona solig'i undirilgan.
- Miroxur** - Buxoro amirligida yuqori bosqichdagi 6-darajali mansab bo'lib, oliy hukmdorga tegishli yilqi, ot-ulov va ularning ta'minoti bilan shug'ullangan. Miroxur dasturxonchi va parvonachidan keyingi mansabdor shaxs hisoblangan.
- Mirshab** - O'rta Osiyo xonliklari shaharlarida jamoat tartibini saqlovchi lavozim bo'lib, odatda shaharning kechki xo'jayini miri-shab deb ham yuritilgan. Mirshab o'z ishiga asosan kechqurun soat 6 dan keyin kirishgan, Chunki bu davrda barcha shahar bozorlari yopilib, bir soatdan so'ng shahar darvozalari berkitilgan. Tungi tartib-qoidani buzgan fuqarolar mirshabxonaga keltirilib jazolanganlar.
- Misqol** - og'irlik o'lchov birligi; Sharq (arab) mamlakatlarida qimmatbaho buyumlarning og'irligi misqol bilan o'lchangan. 1 misqolning og'irligi 100 dona arpa (yoki bug'doy) doni og'irligiga tenglashtirilgan. 1 misqol 4,09512 g ga teng bo'ladi. Samarqand (VI-VIII aa.) da 4,46 g ga, Buxoro (XVI-XIX aa.) da 4,8—5 g ga, Xorazm (XIV a.) va Farg'ona vodiysida 4,55 g ga teng bo'lgan.
- Muftiy** - Musulmon dunyosida oliy martabali ruhoni. Muftiy diniy-huquqiy masalalarni izohlash, talqin etish, shariatni tadbiq etish masalalarida hal qiluvchi huquqqa ega bo'lgan. Muftiy qozikalon murakkab deb hisoblovchi turli diniy va huquqiy masalalar bo'yicha shariatga asoslanib fatvo (qaror) chiqargan. Bu fatvo uning yoki bir necha muftiyning muhri bilan tasdiqlangach, qoziga berilar edi. Qozi bu fatvoga asoslangan holda hukm chiqargan.
- Mushrif** - Buxoro amirligida xonga in'om etilgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olgan, soliq tushumlarini yozib borgan amaldor.
- Oq O'rda** - Oltin O'rdaning bir qismi Botuxon avlodlari tomonidan idora qilingan. Ikkinchi qismini Jo'chixonning boshqa o'g'li O'rdaxon boshqargan. Bu holat XIII – XIV asrlar davomida o'zgarmay kelgan. Botuxon avlodlariga nomigagina qaram bo'lgan O'rdaxon avlodlari keyinchalik to'la mustaqil bo'lib olganlar. Oltin O'rda atamasi Botuxon hukmronligi davridan boshlab butun Jo'chi ulusiga, XIV asr boshidan esa Oq O'rdagi nisbatan qo'llanildigan. Bu davrda Oq O'rda faqat Botuxonning o'z ulusi (Volga bo'yi) va ukalari: Berkaxon (Shimoliy-sharqiy Kavkaz), Shaybon (G'arbiy Qozog'iston va G'arbiy Sibir) hamda Moval (Qora dengiz bo'yida joylashgan yerlar) uluslaridan iborat bo'lgan. Botuxon va Berkaxon uluslari keyinchalik (Berkaxon hukmronligi yillarida) birlashtirilgan. XV asrda Oq O'rda hududida O'rdaning davomi sifatida yangi

davlatlar (Katta Oʻrda, Noʻgʻay Oʻrda, Qosimov podsholigi hamda Oʻzbek, Qrim, Qozon, Sibir xonliklari va h.k) vujudga keldi.

Oltin Beshik
(Mullo Olim
Mahdumhojaning
“Tarixi Turkiston”
asarida yoritilgan
rivoyat)

- “Fargʻona viloyatida tavorixlarda malum va mashhur Andijon va Oʻzgand va Aysi qadimgi va eski shaxar boʻlub, chigʻatoy va oʻzbek xonlariga loytaxt ekanligi bilinadur, lekin Xoʻqand shahrining eng avvalgi binosi 300 yildan ziyod boʻlgan emas. Vaqtiki, Boburxon oʻzbek xonlari ilan Samaqand muzofotida muxoraba aylab, magʻlub boʻlub, qochib, alhol Xoʻqand shahri bino boʻlgan mavzedagi katta soy labiga kelganda farosat ilan topibdurkim, bul joy seroblik va obshorlik va xushhavo sabablikdin andak vaqtda obodon va katta shaharboʻlsa kerak deb, alhol Xoʻqand shahriga suv keladurgan katta oʻtganda koʻrubdurkim, soyning ikki tarafida koʻp elatiyalar ijtimoiʻ qilib, qoʻnub oʻlturubdurlar. Muni koʻrub Boburxon kimxob va zarrin liboslarga oʻralib, oltun beshikka boylangan bir yosh bolasini mahali guzargohga qoʻyub, bir dono va hushyor odamni ul beshik ilan bolaga didbon va qorovul tayin qilib, aytibdurkkm, to ushbu bola biror odamni qoʻiga tushub,olib ketgandin soʻngra bizlarni orqamizdin yetib kelursan, deb tezlik ilanoʻz yoʻllariga joʻnab ketibdurlar... Bolaning nomini Oltun beshik qoʻyubdurlar. Oxiri xaddi balogʻatga yetushgondin keyin taalluqdor qilib bir xushroʻy va sohbjamol qiz olib berubdurlar. Andin bir oʻgʻul farzand tavallud topib, nomini Sulton Elik qoʻyibdur. Ul xam balogʻatga yetgandin soʻngra uylanturubdurlar. Andin ham bir oʻgʻul farzand boʻlub, nomini Sulton Xudoyor qoʻyub, ul ham boligʻ boʻlganda uylanturub, andin xam bir oʻgʻul farzand tavallud topib, nomini Muxammadamin qoʻyub, ul xam balogʻatga yetgandin keyin, xotun olib, andin bir oʻgʻul tavallud topib, nomini Abulqosim qoʻyub, ul ham boligʻ boʻlub, uylangandin keyin andin bir oʻgʻul farzand tavallud topib, oning nomini Shoxmastbiy qoʻyubdurlar. Alxol Chamashbiy nom ilan Fargʻona aholilari orasida mashxurdur. Shahmast (Shohmast, Shamast) biydan Shahruxbiy (Shoxrux) va andin Hojibiy va andin Ashurbiy tavallud topib, Ashurbiydin ikkinchi Shohruxbiy tavallud topibdur va Oltun beshik ilan bu Shoxruxxon miyonasida oʻn pusht abovu ajdod ikki yuz yil muddatda oʻtib, Shoxruxxon olami vujudga keldi...”

Oftobachi

- Oʻrta Osiyo xonliklari davrida saroyda hukmdorning qoʻliga suv quyuvchi shaxs boʻlib, yuqori mavqega ega boʻlgan lavozimlardan biri hisoblangan. Oftobachi davlat ishlari bilan shugʻullanuvchi mansabdor ham boʻlgan. Masalan: Qoʻqon xonligida Xudoyorxon davrida Abdurahmon oftobachi

- mas'uliyatli davlat topshiriqlarini ado etgan.
- Parvonachi** - XVII-XVIII asrlarda Buxoro xonligida mavjud bo'lgan mansab, vazir muovini, farmon ijro qiluvchi. Parvonachi xon farmonlari, yorliqlari va boshqa rasmiy hujjatlarini yozib, tegishli kishilarga yetkazib turgan.
- Pud** - og'irlik o'lchov birligi. 1 pud 16 kilogrammga teng.
- Pud** - og'irlik o'lchov birligi. Qiymati 40 qadoqqa teng. 1 pud 40 qadoq yoki 16,3805 kg ga teng bo'lgan.
- Pul** - (fors-toj.) - O'rta Osiyo xonliklari va Yaqin Sharqdagi ayrim davlatlarda qo'llanilgan mis chaqa pul. Masalan, 1 pul XVIII-XIX asrlarda Qo'qon xonligida 1/45—1/60 tangaga, Buxoroda 1 pul 1/40 tillaga, 1932 yilgacha Eronda 1/40 qironga teng bo'lgan.
- Sadrlar** - in'om etilgan vaqf mulklarini boshqaruvchilar. Vaqf muassasalarining boshliqlari bo'lgan mutavallilar sadrlarga bo'ysunganlar. Sadrlarning vazifa va huquqlari vaqf yorlig'i shartlarida qayd etib qo'yilgan. Sadrlar vaqf xo'jaligi daromadining ma'lum qismini olganlar.
- Sajen** - 2,13 m.ga barobar bo'lgan uzunlik o'lchovi.
- Salg'ut** - Xivaxonligidagi asosiy soliq turi - yer solig'i.
- Sardoba** - quduq yoki hovuz ustiga pishgan g'ishtdan baland qilib, gumbazsimon shaklda qurilgan inshoot. Unga zinalar orqali tushilgan. Sardoba ichida havo aylanishi yaxshi bo'lgani uchun jazirama issiqda ham uning ichi salqin, suvi esa muzdek bo'lgan. Sardobalar asosan karvon yo'llarida qurilgan.
- Safaviylar** - Temuriylar saltanatining inqirozi natijasida Eronda vujudga kelib, 1502-1736 yillarda hukmronlik qilgan sulola. Asoschisi Ismoil Safaviy (1502-1524). Tabriz (Ozarbayjon) bu davlatning poytaxti deb e'lon qilingan. Abbos I (1587-1629) va Safi I (1629-1642)lar davrida Safaviylar davlati o'z qudratining cho'qqisiga ko'tarilgan. Bu davlatning tarkibiga Erondan tashqari Ozarbayjon, Armanistonning bir qismi, Afg'oniston, Iroq Arabistoni va boshqa hududlar kirgan. Abbos I davrida poytaxt Isfahonga ko'chirilgan.
- Tavoichi** - (mo'g'ulcha - hisobchi) - XIII-XIX asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Eronda hukmdorning farmon va topshiriqlarini tegishli joylarga zudlik bilan yetkazuvchi oliy harbiy mansabdor, adyutant. Tavoichi zimmasiga harbiy yurish rejalashtirilganda saltanat tuman va viloyatlardan, tobe yurtlardan hukmdor farmonida belgilangan mikdorda oziq-ovqat, ot-ulov, yem-xashak, qurol-aslaha va qo'shin jam kilish, lashkargohga yig'ilgan lashkarni ko'rikka tayyorlash, yurish chog'ida, dam olish va ov qilish uchun qo'shinni qulay manzillarga joylashtirish, g'anim qarorgohiga yaqin

kelingach, uni qamal qiluvchi qismlarni zarur va qulay istehkomlarga joylashtirish, qo‘shinlarning umumiy ahvolini nazorat qilib turish, jinoyatchilar va asirlarning jazoga tortilishidan hukmdorni boxabar qilish, qamal xavfi tug‘ilganda tevarak-atrofdagi aholini qal’a yoki qo‘rg‘onga ko‘chirib kelib joylashtirish singari vazifalar yuklatilgan. Tavochi shuningdek, saroy amaldorlari ishlarini ham nazorat ostiga olgan. Saroy soqchilari tavochi tomonidan doimiy nazoratda bo‘lgan.

- Tanob** - O‘rta asrlarda ekin maydonlarini o‘lchash uchun ishlatilgan yuza birligi. Tanob turli yerda turlicha bo‘lgan. 1 tanob yer maydoni 8,33 sotix. Xonliklar davrida 1 gektar yer 12 tanobni tashkil etgan.
- Tanob** - (arab. - chilvir, arqon) - 1) O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududida qo‘llanilgan uzunlik o‘lchov birligi. XVII asrda qiymati 39,9 m ga teng bo‘lgan.
2) O‘rta Osiyo xonliklarida tomonlari 60 gaz dan iborat bo‘lgan maydonga teng, ya’ni ekin maydonini o‘lchash uchun qo‘llanilgan yuza birligi. 1 tanob 60x60 kv. gaz 3600 kv. gaz ga yoki 0,08194 ga ga teng bo‘lgan. Bu esa 900 kv. m (1 ga - 12 tanob)ga teng hisoblangan.
3) uzunlik o‘lchash, yer o‘lchash, chiziq tortish va shu kabilarda ishlatiladigan uzun chilvir, reja ip, uzun arqon
- Ta’liq** - (arab. - osish, osib qo‘yish) - xattotlik uslubi; arab yozuvidagi xat uslublaridan biri. XIV asrda tavqe va riqo xatlari asosida ixtiro qilingan, ixtirochilari Tojiddin Salmoniy va Xoja Abul’ol. Tez yozish uslubida harflar bir-biriga osilib yoki ilinib turganday ko‘rinadi (nomi ham shundan). Harflarning 5 qismi egri va 1 kismi to‘g‘ri chiziqlardan iborat. T’aliq asosan insho va maktublarga tegishli bo‘lib, munshiylar uni yuqoridan chapga qiyaroq qilib cho‘zib yozgan. Shu jihati bilan shikasta xatiga o‘xshab ketadi. Dastlab munshiylar, idora kotiblari tomonidan ishlatilgan, rasmiy va shaxsiy yozishmalar turli hujjatlarda qo‘llanilgan. Xoja Abdulhay Munshiy, Xoja Ixtiyor ushbu xat ustasidir.
- Tosh** - masofa o‘lchov birligi, amir (yoki podsho) ning choparlari yo‘l uzunligini o‘lchayotganda har bir 8000 qadamga bir tosh qo‘yib ketishgan. Agar 1 qadam 0,75 m ga teng bo‘lsa, unda 1 tosh 6000 m (6 km) ga teng bo‘lgan.
- To‘qsoba** - harbiy unvon. XVI-XVIII asrlarda O‘rta Osiyo xonliklarida xon bayrog‘ini qo‘riqlagan maxsus harbiy qism boshlig‘i. XIX asrda 500 kishilik harbiy qism boshlig‘i.
- To‘lg‘ama** - dushman qo‘shinlarining qanotini aylanib o‘tib, orqadan hujum qilish jang uslubi. Shayboniyxon boshliq ko‘chmanchi o‘zbeklar temuriylar bilan bo‘lgan janglarda shu harbiy

taktikani qoʻllab, qator janglarda temuriylarni sarosimaga tushirganlar.

Turkiston bosmaxonasi

- Bosmaxona - matbaa mahsulotlari (kitob, jurnal, gazeta, va boshq.) tayyorlaydigan sanoat korxonasi. Qadimda risolalar asosan qoʻlyozma tarzida tayyorlangan. Sharqda qoʻlyozmalarni xattotlar bejirim qilib oqqa koʻchirib, naqqoshlar bezaklar bilan bezashgan, muqovasozlar varaqlarni tikib va qolipga tortib, kitob holida chiqarishgan. Turkistonda kitob bosishga doir dastlabki tajribalar va birinchi bosma kitob 1868 yilda Turkiston harbiy okrugi shtabining Toshkentdagi bosmaxonasida chop qilindi. Birinchi rasmiy gazeta - «Turkestanskiye vedomosti» gazetasi ham shtab bosmaxonasida bosila boshladi. 1898 yilda Toshkentda eski shahar markazida bosmaxona tashkil qilinib, bu yerda oʻzbek, tojik, turkman, qozoq va qirgʻiz tillarida kitoblar chiqarila boshlangan.

Turkiston general- gubernatorligi

- Rossiya imperiyasining Turkiston xonliklaridan bosib olgan hududlarida 1867 yilda tashkil etgan gubernatorligi. Turkiston general-gubernatorligi dastlab ikkita viloyat (Yettisuv va Sirdaryo) dan iborat edi. Turkiston xonliklaridan bosib olingan yangi yerlar hisobiga keyinchalik Fargʻona (1876), Samarqand (1868) va Kaspiyorti viloyatlari (1881) ham tashkil etiladi. Gubernatorlikning markazi Toshkent shahri qilib belgilanadi. Turkiston general-gubernatori podsho tomonidan tayinlanib unga oʻlka boshqaruvida mutlaq hokimiyat vakolatlari berilgan. Mahalliy aholi uni “yarim podsho” deb atardi.

Turkiston general- gubernatorligi 1867-1917 yy

- Turkiston general-gubernatorligi – maʼmuriy hududiy birlik. Rossiya imperiyasi bosib olgan Gʻarbiy Turkiston hududida Rossiya imperatori Aleksandr II farmoni bilan 1867 yil 11 iyulda tashkil etilgan, bir vaqtning oʻzida Turkiston harbiy okrugi ham tuzilgan. Turkistonning birinchi general gubernatori etib rus podshosining yaqin mulozimi generaladyutant K.P.fon Kaufman tayinlandi. U 14 yil mobaynida (1867-1881) Turkiston oʻlkasini qattiqqoʻllik bilan boshqargan. Kavkaz, Boltiqboʻyi oʻlkalaridagi ozodlik harakatlarini bostirishda tajribali maʼmur va usta siyosatchi ekanligini koʻrsatgan fon Kaufmanni «Turkistonning bunyodkori» deb ulugʻlashgan. U 1868 yil 22 yanvarda Toshkent jamoatchiligi vakillari yigʻilishi birinchi bor ruslarni Turkiston xalklarining «katta ogʻasi» deb atagan. Rossiya imperatori fon Kaufmanga oʻlkani boshqarishda cheklanmagan huquq va vakolatlarni bergan, natijada uni xalq «yarim podsho» deb bilgan. Ichki va tashqi siyosatda uning erkin ish yuritishi mumkinligi imperator tomonidan berilgan

«Oltin yorliq»da o'z aksini topgan. Turkiston general gubernatori o'z qo'lida harbiy va fuqarolik hokimiyatini birlashtirgan edi. Ayni vaqtning o'zida u podsho noibi, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, Yettisuv kazak qo'shinlari qo'mondoni, bosh mirshab va bosh prokuror vazifalarini ham o'z qo'lida birlashtirgan edi. Turkiston general gubernatori Rossiyaga vassal hisoblangan Buxoro amirligini Rossiya imperator siyosiy agentligi (1885-1917) va Xiva xonligini Amudaryo bo'limi (1873-1918) boshliqlari orqali nazorat qilingan. 1868-1880 y.lar davomida harbiy istilolar natijasida dastlab 2 viloyatdan iborat general-gubernatorlikka yana 3 viloyat qo'shildi. XIX asrning oxirlarida Turkiston general-gubernatorligi Sirdaryo, Yettisuv, Samarkand, Farg'ona va Zakaspiy kabi 5 viloyatdan iborat bo'lib hududi Yevropa Rossiyasining 1/3 qismiga teng edi. Turkiston general-gubernatorligining barcha hududi 1.779.618 chaqirimga teng bo'lgan. Rossiya hukmdor doiralari Turkistonni imperiyaning tarkibiy qismiga aylantirish va xalqlarini ruslashtirish uchun barcha vositalarni ishga soldi. O'lkadagi siyosiy, ma'muriy, iqtisodiy va madaniy islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan edi¹¹³⁸.

Xattotlik

- (arab. – husnixat yozuvchi), kalligrafiya - yozuv (xat) san'ati, kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitobalirini yaratish kasbi. Yozuvning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keldi. Ayniqsa, arab yozuvining keng tarqalishi tufayli xattotlikning rivojlanishi jadallashdi. Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda kitob bosish vujudga kelguniga qadar qo'lyozma kitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko'paytirish (matn ko'chirish) bilan xattotlar shug'ullangan. Xattotlar saroylarda, ayrim amaldorlar huzurida guruh bo'lib ishlagan. Jumladan, temuriy shahzoda Boysung'ur Mirzo (1397-1433) Hirotda tashkil qilgan kutubxonada musavvir, naqqosh va boshqa ustalar bilan bir qatorda 40 dan ortiq xattotlar qo'lyozma kitoblar tayyorlash, yaroqsiz holga kelganlarini ta'mirlash bilan mashg'ul bo'lgan. Xattotlik san'atiga bag'ishlangan ko'plab risolalar 10 xil asosiy xat uslublari (nasx, kufiy, muxakkak, nasta'liq, suls, tavqe, ta'liq, devoniy, riko, rik'iy) mavjudligi haqida darak beradi. Xattotlik Markaziy Osiyoda Temuriylar, Shayboniylar va so'nggi sulolalar (ashtarxoniylar, mang'itlar) davrida yuksak darajada taraqqiy etgan. Shayboniylardan Muhammad Shayboniyxon va Ubaydullaxon xattotlik bilan shaxsan

¹¹³⁸Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. 741-б.

Xuroson

- shugʻullangan va nasx xatida yuksak mahorat bilan yozgan.
- Eronning shimoliy sharqiy qismidagi tarixiy viloyat. Qadimda Parfiya podsholigining markazi (mil. av. 250 -mil. 224). Xuroson nomi sasoniylar davridan maʼlum. Xuroson III asrdan XVIII.asr oʻrtalarigacha hozirgi Eronning shimoliysharqiy qismi, Marv vohasi, hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi va Afgʻonistonning shimoliy va shimoliy gʻarbini oʻz ichiga olgan. Mashhad, Nishopur, Marv, Balx, Hirot, Tus, Saraxs, Obivard, Niso, Sabzavor Xurosonning muhim shaharlari boʻlgan. VII asr oʻrtalarida uni arablar egallagan. Arab xalifaligi tanazzulga uchragach, IX-XIV asrlarda Xuroson Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar, Gʻaznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Hulokular davlati tarkibiga kirgan. VIII asrdan XIII asrning 20-yillarigacha Xuroson Yaqin va Oʻrta Sharqda iqqisodiy jihatdan eng rivojlangan oʻlkalardan biri boʻlgan. U qoʻshni davlatlarga qishloq xoʻjaligi mahsulotlari, mevalar, ipak, jun, moʻyna chiqargan. Shuningdek, Xurosonda kumush, qoʻrgʻoshin, mis va temir rudalari, oltin, oltingugurt, toʻtiyo, marmar, malaxit va boshqalar qazib chiqarilgan, toʻqimachilik rivojlangan. 1220 va 1223 y.larda Xurosonga moʻgʻullar hujum qilib, vayron etgan, aholisining koʻpchiligi qirib tashlangan. Shundan keyin Xuroson avvalgi mavqeiga chiqa olmagan. XIV asr oxirida Amir Temur Xurosonni oʻz davlatiga qoʻshib olgan, keyinchalik Shayboniylar, 1510-1736 yillar Safaviylar davlatlariga tobe boʻlgan. Keyinchalik Xurosonning bir qismi (Hirot viloyati va Balx) Afgʻonistonga, bir qismi Eronga qoʻshilgan.

Chaqirim

- (chaqirmoq soʻzidan) - uzunlik oʻlchov birligi. Qadimdan Oʻrta Osiyoda katta masofalarni oʻlchash uchun qoʻllanib kelingan. Qiymati 1200 qadamga teng. Agar bir qadam oʻrtacha 0,75 m ekanligi hisobga olinsa, unda 1200 qadam 900 m (0,9 km) ga teng. Birok XIX asr oxiridan boshlab chop etilgan adabiyotlarda 1 chaqirim 1500 gaz ga teng ekanligi haqida maʼlumotlar uchraydi. Bunda gazning 0,71+0,72 m ekanligi hisobga olinsa, 1 chaqirim =1500 (0,71+0,72) = 1,065+1,08 km. Rossiya imperiyasining 1894 yilda rus oʻlchov birligiga oʻtishi toʻgʻrisidagi koʻrsatmasi chiqqan davrgacha 14=0,9 km, undan keyin 1 chaqirim =1,06+1,08 km ga teng boʻlgan. Hozirgi vaqtda 1 chaqirim deganda 1 km tushuniladi.

Cherik

- Shayboniylar, Xiva va Buxoro xonliklarida harbiy yurish vaqgida tuman, viloyat, oʻlka va uluslardan oliy hukmdor tomonidan chiqarilgan farmonga muvofiq yigʻiladigan muntazam koʻshin. Cherik asosan, otliq, qisman piyoda

qismlardan tashkil topgan. Cherikni belgilangan joyga to'plash vazifasi oliy bosh qo'mondon adyutanti - tavochi zimmasiga yuklatilgan. Cherik o'nlik, yuzlik, minglik va tumanlarga taqsimlangan va ularga o'nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegilar sardorlik qilgan. Buxoro xonligida nomuntazam qo'shin qora cherik deb nomlangan.

Chibik puli

- Xiva xonligida ommoviy ishlarda qatnashishdan ozod etilgani uchun to'lanadigan haq.

Chopar

- otliq xabarchi. O'tmishda Sharqda, xususan, O'rta Osiyoda davlat ahamiyatiga molik va shoshilinch xabarlarni yetkazuvchi otliq. Chopar hokim, viloyat beklari yoki hodisa sodir bo'lgan joyning oqsoqollari tomonidan tayinlangan. Ko'pincha choparlar muhim xabarlarni estafeta tariqasida yetkazganlar. Choparlar uchun yo'l ustidagi manzilgoxlar (rabot, bekat, yom)da maxsus ot, ulov ajratilgan.

Chor Minor

- (fors tilida - to'rt minora) - Buxorodagi me'moriy yodgorlik Xalfa Niyozqul tomonidan 1807 yilda qurdirilgan. Chor minor an'anaviy usulda qurilgan masjid, bir qavatli madrasa, atrofi bir kavatli xujralar bilan o'ralgan hovlidan iborat.

Chorak (og'irlik o'lchov birligi)

- O'rta Osiyodagi eski og'irlik o'lchov birligi. Chorak qo'llanilish joyiga qarab har xil qiymatlarga ega bo'lgan. Buxoro, Samarkand va Toshkentda 1 misqol 4,82 g bo'lsa, bir chorak = 856 misqol = 8564,8 = 4,1088 kg ga teng bo'lgan va u katta chorak deb yuritilgan. Uning yarmi, ya'ni 428 misqol = 4284,8 = 2,0544 kg kichkina chorak deb yuritilgan. Farg'onada, masalan, 1830 yilda 1 chorak = 2 pud = 32,762 kg bo'lsa, 1841 yilda bir chorak = 4,5 pud = 73,712 kg, keyinroq bir chorak = 5 pud = 81,902 kg bo'lgan. Bulardan tashqari, chorakning 5 pudga yaqinroq qiymatlari ham bor, u 87,36 kg gacha bo'lgan

Chorak (uzunlik o'lchov birligi)

- O'rta Osiyoda qadimdan uzunlik o'lchovi birligi, gaz yoki olchinning = q qismiga teng. Agar 1 gaz = olchin = 525107 sm bo'lsa, u holda 1 CH. = olchin = x (52+107) = 13+26,75 sm bo'ladi.

Chorakor

- (fors tilida - to'rt dan birga ishlovchi) - yer ijarasi turlaridan biri - chorakorlik, yer egalari yerini, olinadigan hosilning to'rt dan uch qismini yer egasiga berish sharti bilan ijaraga olib ekuvchi, kam yerli, yersiz yoki otulovsiz dehqon. Hech qanday vositasi yoki mablag'i bo'lmagan Chorakor olingan hosilning 1/4 qismini o'zlashtirgan, ot-ulovli chorakor esa hosilning 1/2 qismini olgan.

Shaybon ulusi

- XIV asr xoni va mashhur tarixchi Abulg'oz (1644-1663) ning yozishicha Shaybon Jo'chixonning beshinchi o'g'li bo'lib, yozda Ural tog'ining etaklari, Tobol, Yoyiq (Ural), Ilek, Irg'iz daryolarining o'rta oqimida, qish faslida esa Orl dengizi,

Chuysuv, Sarisuv daryolari bo'yida ko'chib yurgan. Abulg'ozmining yozishicha, Shaybon bu ulusni 1238 yilda Botuxondan olgan.

Shayxulislom

- musulmon mamlakatlaridagi islom tashkilotlari boshlig'i – oliy din vakili unvoni. Musulmon jamoasi boshlig'i.

Shig'ovul

- elchilarini qabul qilish bo'yicha maxsus xizmat boshlig'i.

MUNDARIJA

*
————— * —————

Kirish	3
“O‘zbekiston tarixi” faniga kirish	4
Movarounnahrda shayboniylar davlatining tashkil topishi.....	19
Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahr.....	51
XVI-XIX asr o‘rtalarida Xiva xonligi.....	82
XVIII - XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligi	119
XVIII - XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon xonligi	148
Toshkent bekligi.....	199
O‘rta Osiyo xonliklarida harbiy ishlar	218
XVI-XIX asrning ikkinchi yarmida Qoraqalpoqlar.....	234
XVI – XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xalqlarining madaniy hayoti	252
XIX asr ikkinchi yarmida o‘zbek xonliklarida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar.....	285
O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi	345
Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka idora usulining joriy etilishi	417
Turkiston halqlarining o‘z erki va ozodligi uchun olib borgan kurashlari	454
XIX asr o‘rtalari - XX asr boshlarida O‘rta Osiyo halqlari madaniy hayoti	483
Xulosa.....	531
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati	533
Tarixiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati	548